

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI



**“ZAMONAVIY O'ZBEK  
ADABIYOTSHUNOSLIGINING  
DOLZABR MASALALARI”**

*mavzusidagi*  
**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI  
MATERIALLARI**

*15-16-aprel*

**Guliston – 2022**

Ushbu to‘plamdan Guliston davlat universitetida o‘tkazilgan **“Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”** mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101/F-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan 2022-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq o‘tkazilgan adabiyotshunos olimlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va iqtidorli talabalarning respublika ilmiy anjumaniga materiallari o‘rin olgan.

To‘plam materiallarida adabiyotshunos olimlar Umurzoq O‘ljaboyev va Vahob Rahmonovlarning hayoti va faoliyati, ularning ilmiy merosi, ijodiyotining o‘ziga xos jihatlari, o‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligi sohasiga qo‘shgan ulkan hissalari, ijodiy merosining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini tadqiq qilish, o‘zbek adabiyotshunosligi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, sohadagi muammolarni aniqlash, ularning talqini, matnshunoslik va tabdil, badiiy asarlarning til xususiyatlari, adabiy ta’sir masalalari yoritilishi anjumanning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Shuningdek, to‘plamdan badiiy adabiyot shakllanishining va rivojlanishining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan maqolalar ham o‘rin olgan.

#### **Tahrir hay’ati:**

Rahmonov Nasimxon – filologiya fanlari doktori, professor

Yo‘ldoshev Qozoqboy – pedagogika fanlari doktori, professor

Mamatqulov Muzaffar – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fayzullayeva Obidaxon – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sariboyeva Maqsuda – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Qo‘yliyeva Gulchehra – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘rayeva Dilnoza – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘ychiyev Abdunabi – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Primov Abdulatif – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Saymuratova Ijobat – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Normurodov Oybek – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

Oqbo‘tayev Elbek – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

To‘raqulov Rahmatjon – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

**Obidaxon Fayzullayeva**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur to‘plam Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 23-apreldagi 9-sonli yig‘ilishi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

## SERMAHSUL OLIMLAR

**M. T. XODJIYEV,  
Guliston davlat universiteti rektori**

Guliston davlat universitetining faxrlari bo'lgan adabiyotshunos olimlarning o'zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligi sohasiga qo'shgan ulkan hissalarini, ijodkorlar hayoti, faoliyati va ijodiy merosining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o'rnini tadqiq qilish, o'zbek adabiyotshunosligi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, sohadagi muammolarni aniqlash, ularning talqini, matnshunoslik va tabdil, badiiy asarlarning til xususiyatlari, adabiy ta'sir masalalari yoritilishi tashkillashtirilgan anjumanning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Adabiyotshunos olim Umurzoq O'ljaboyev butun mehnat faoliyatini bitta maskan – Guliston davlat universitetiga bag'ishlagan. 21 yil davomida O'zbek adabiyoti kafedrasini boshqargan. Bu yillar mobaynida kafedra rivojlandi, respublika miqyosidagi obro'si yanada ko'tarildi, avlodlar almashinuvi jarayonida ilmiy oqsoqlanishdan yana mavqeini tiklab olishgacha bo'lgan davrlarni boshidan kechirgan. Olimning rahbarligida amalga oshirilgan ezgu ishlardan yana biri – uning respublikamizdagi yyetuk adabiyotshunos olimlar bilan yaqin aloqa o'rnatganligida ko'rinadi. Ustozning jonkuyarligi bilan turli yillar davomida akademik Salohiddin Mamajonov, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, professorlar Begali Qosimov, Umarali Normatov, Nasimxon Rahmonov, Bahodir Sarimsoqov, Ibrohim Haqqulov, Boybo'ta Do'stqorayev, Qozoqboy Yo'ldoshev kabi o'z sohasining yyetuk olimlari universitetimizga kelib, dars berishdi. Bu esa o'ziga xos bir ilmparvarlikning namunasi ekanligi sir emas.

Umurzoq O'ljaboyev uzoq yillar mobaynida urush davri o'zbek prozasi muammolari bilan shug'ullanib kelgan. Olimning bu mavzu atrofidagi kuzatishlari "Mardlik va matonat tasviri", "Satrlar ovozi", "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari", "Xotirada chizilgan izlar", "Urush davri o'zbek hikoyachiligi", "Badiiy tasvirning haqqoniyligi", "Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi", Adabiyot – hayot ko'zgusi", "Xotiraga ko'chgan umrlar" kabi kitoblarida o'z aksini topgan.

Umurzoq O'ljaboyevning olib borgan ilmiy izlanishlari ham ibrat qilib ko'rsatsa arzigulik. Buni 8 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, 200 ga ortiq ilmiy va ommabop maqolalarning salmog'i ham ko'rsatib turibdi.

O'zbek adabiyotshunosligining taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan ko'p sonli olimlar orasida Guliston davlat universiteti dotsenti Vahob Rahmonovning ham bor ekanligi faxr tuyg'usini uyg'otadi. Vahob Rahmonov serqirra olim sifatida adabiyotshunoslik, matnshunoslik, navoiyshunoslik, boburshunoslik, lug'atchilik kabi ko'plab sohalarda birdek ilmiy-tadqiqotlar olib borgan insonlardan.

Domlaning Guliston davlat universitetidagi mehnat faoliyati 1986-2004-yillarda boshlangan. Vahob Rahmonovning navoiyshunoslikka oid Alisher Navoiyning "Lison ut tayr", Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va

Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarini arab yozuvidan lotin yozuviga o’girib, nashrga tayyorlaganligi, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati” to’rt jildligini tuzishda qatnashganligi, tadbilchilik sohasida: “Layli va Majnun” dostonini va “Muhokamat ul lug’atayn” risolasini tabdil etganligi ham diqqatga sazovor.

Boburshunoslikning ham bir necha jabhasida ilmiy izlanishlar olib bordi: Tadbilchilikda: “Boburnoma”ni Karomat Mullaxo’jayeva bilan hamkorlikda hozirgi o’zbek adabiy tiliga o’girdi. Bundan tashqari V. Rahmonovning tadbilchilik, tarjimonlik va nashrga tayyorlash sohasidagi ishlari ham mavjud bo’lib, unga Avaz “Devon”i, Mashrab “Devon”i, Avaz “Saylanmasi shular jumlasidan. M. Hamroyev bilan hamkorlikda “Bilol Nozim she’riyatidan” kitobini uyg’ur tilidan, Yanglish Egamova bilan hamkorlikda Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarini fors tilidan tarjima qilgan.

Methodist sifatida “Bolalar adabiyoti” xrestomatiyasi tuzuvchilaridan biri; 8-sinf “O’zbek adabiyoti” darslik xrestomatiyasini A. Kattabekov bilan tuzgan. Vahob Rahmonovning shu bugunga qadar olib borgan ilmiy izlanishlari ham salmoqli. Buni 2 ta monografiya, birgina Bobur ensiklopediyasiga 283 ta maqola kiritilganligi, 2019-2020-yillarda o’zi va tayyorlagan kitoblari miqdori 14 tani tashkil etganligida ham ko’rinadi. “She’r san’atlari” va “Mumtoz so’z sehri” kabi kitoblari tadqiqotchilar va talabalarning qo’lidan tushmay o’qiladi.

Vahob Rahmonov Guliston davlat universitetining faxri. 2001-yil u “Xalq ta’limi a’lochisi” nishoni sohibi, 2008-yil Xalqaro Bobur mukofoti laureati hamda 2018-yilda O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor bo’lgan. Olimning ijodi shunday serqirra va sermahsuldir.

Anjuman to’plamidagi maqola va tezislari shartli ravishda to’rt sho’ba asosida saralangan. 1-sho’ba “Umrzoq O’ljaboyev – adabiyotshunos olim” deb nomlanib, unda o’zbek adabiyotshunosligida munosib o’rniga ega bo’lgan Umurzoq O’ljaboyevga bag’ishlangan maqolalar olimning ilmiy tadqiqotlaridagi qarashlariga munosabat va ularni tadqiq etish asnosida yuzaga kelganligi anglashiladi.

2-sho’ba “XX asr va zamonaviy adabiyot: tahlil va talqin masalalari” deb nomlanadi. Unda XX asr va zamonaviy o’zbek adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari, badiiy asarning tahlili va talqini masalalariga doir maqolalar o’rin olgan.

3-sho’ba esa “Vahob Rahmonov – matnshunos olim” deb nomlanib, unda olimning shaxsiyatiga munosabat bilan birga, uning matnshunoslik, boburshunoslik, navoiyshunoslik, lug’atchilikka oid qarashlari tahlili va ushbu tadqiqotlarga munosabat ma’nosidagi maqolalar o’rin olgan.

“O’zbek mumtoz adabiyoti va matnshunosligidagi tadqiqotlar: muammo va yechimlar” nomli 4-sho’bada esa ushbu sohaga doir dolzarb masalalarni qamrab olgan turli tadqiqotlar o’rin olgan.

Adabiyotshunoslikning, xususan, yuqorida nomlari keltirilib o’tilgan olimlarning ilmiy faoliyatlari bilan bog’liq sohalarning o’rganilmagan jihatlari hali talaygina. Bu haqida maqola mualliflarining ko’pchiligi eslatib o’tgan. Ushbu

to'plam Umrzoq O'ljaboyev va Vahob Rahmonovday taniqli adabiyotshunos olimlarning shaxsiyati, tadqiqlarini o'rganish yo'lidagi munosib jamlanma bo'lib, bu an'ana yana ko'p yillar davom etishiga ishonch bildiramiz.

## ***1-SHO'BA: "UMRZOQ O'LJABOYEV – ADABIYOTSHUNOS OLIM"***

### **ORZUDAGI ODAM**

***Qozoqboy YO'LDOSH,  
pedagogika fanlari doktori, professor***

Agar umr vafo qilganda ushbu bitigim qahramoni Umrzoq domla O'ljaboyev bu yil saksonni to'ldirgan, ko'ngil izhorlarimizning, juda bo'lmaganda, bir qismini o'ziga aytgan bo'lardik. Afsuski, odamzod yonidagi yaqinlar va yaxshilar haqida, albatta, ulardan ayrilgandan keyin astoydil o'ylay boshlar ekan. Mana, domlani yo'qotganimizga etti oycha bo'lib qoldi va u kishining o'rni juda ko'p bilinyapti. Endi o'ylab qaragam, Umrzoq aka hamisha mening orzumdagi odam bo'lgan ekan. U kishiga qarab qadam tashlagan, u kishiday bo'lishga intilgan ekanman. Lekin bu o'ylarimning birontasini o'ziga aytmaganman. Aytolmagandirman, ehtimol. Chunki o'zing hurmat qiladigan ustozni maqtash otangni maqtashga o'xshashday tuyulardi. Bizda otani maqtash odobdan sanalmaydi. Aslida aytib qolish kerak ekan ko'ngilda borini. Hech kutilmaganda kech bo'lib qolishi mumkin ekan.

Domlani juda uzoq yillardan beri bilardim. Umrzoq aka Sirdaryo pedagogika institutida o'qib yurgan kezlarimiz bizga adabiyotga doir bir necha fandan saboq beribgina qolmay, guruhimizga murabbiy ham bo'lgan edilar. Bir necha fandan deyotganim sababi endigina tashkil etilgan institutda talabalar ham, professor-o'qituvchilar ham g'oyat kam bo'lganidan, domlalariga har xil fanlardan dars berishga to'g'ri kelardi. 1968-yil yangi yilga bir-ikki kun qolganda paxtadan qaytib, fakultetimizga aspiranturani bitirgan bir yigitning ishga kelganini eshitdik. U paytlar yanvarda ta'til berilmasdi. Yangi 1969-yildan boshlab guruhimiz murabbiysi Akram Kattabekov aspiranturaga ketdi va bizga o'sha aspirant yigit Umrzoq O'ljaboyev murabbiylik qiladigan bo'ldi.

O'rta bo'yli, xipchagina, kelishgan, chertib kiyinadigan, shoshmay gapiradigan bu domla esa o'ta jiddiy odam ekan. Sirdan qaraganda oldiga yaqinlab bo'lmaydiganday ko'ringan yangi domla, negadir, tezda kursdoshlarimiz bilan yaqinlashib ketdi. Bu yaqinlik ustoz umrining oxiriga qadar davom etdi. U kishining vafoti barcha kursdoshlarni qayg'uga soldi. Umrzoq akadagi jiddiyat biz bilan masofa saqlash uchun bo'lmay, u kishining minaziga xos tug'ma xususiyat ekan. Sirdaryoliklarda bir odat bor: yaqin ko'rgan kishilarini norasmiy qilib, "aka"laydi. Boshqa ustozlarni "domla" derdigu Akram aka, Omon aka, Bosim akaday domlarni xuddi uyimizdagilarga qilganday akalab chaqirardik. Tezda Umrzoq domla ham akalar qatoriga qo'shildi.



Domla odamning qadri va sha'ni baland bo'lishi kerak, deb hisoblardi. U bizdan insoniy g'urur, halollik, to'g'rilik, intiluvchanlikni talab qilar va o'z tutumlari bilan bizga doim ibrat edi. Undagi jiddiyat sababi ham sha'ni va qadrini baland tutganidan ekan. Buni men ancha keyin Umrzoq aka bilan birga ishlash kyechimida anglab etdim. Uning shaxsiyatiga xos bosh belgilar: orni saqlash, sha'nga dog' tushirmaslik, har jihatdan odam degan martabaga loyiq bo'lish edi. Kishidagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni odamning o'zidan qiymatliroq, deb biladigan domla umr bo'yi sha'niga dog' tushirmay yashab o'tdi. Ustoz tezkor, lekin shoshqaloq emasdi. Bir qarorga kelguncha jiddiy o'ylanar, ammo qarorida sobit turardi. Shu bois juda qisqa vaqt ichida ham domlalar, ham talabalar jamoasining hurmatini qozondi.

O'ljaboyev domla har qanday odamning tutumlari yuzasidan o'zining qat'iy fikriga ega va buni dangal ayta olardi. Bu holat sabab uni xushlamaydigan, to'g'ri so'zlaridan bezillab turadigan, qulay kelganda oyog'idan chalishga urinadigan kimsalar ham bo'lardi. Shunisi borki, Umrzoq aka faqat o'ziga teginilgandagina tishini ko'rsatadigan "kurashchi"lar toifasidan emasdi. U adolat mezonlariga to'g'ri kelmaydigan har qanday xatti-harakatga, u kim tomonidan qilinishiga qaramay, qarshilik qilishga tayyor edi. Shu sabab u kishi bilan qaysidir ma'noda aloqada qiladigan turli darajadagi "katta"lar ustoz bilan hisoblashishga majbur bo'lardilar. Shu bois Umrzoq aka ko'pchilik uchun adolat tarozisi sanalardi.

Men taqdirimdan nolimasam bo'ladi: Bosim aka, Akram aka, Umrzoq akaday odamlarni tanidim, ba'zan yonma-yon turdim, ba'zan bir qadar e'tiborlarini qozonganday ham bo'ldim.

Umrzoq aka haqidagi ko'p yillardan beri o'ylayman, ancha vaqtdan buyon yozaman ham. U davrda u kishi bor edi. Endi jisman yo'q. Aziz o'qirman, endi nimani qanday yozsam ham bitiklarim qahramoni o'qimaydi. Shu bois domlamning sakson yoshida u haqda oltmish va etmish yoshida yozganlarimni ko'p o'zgartirmay havola qilmoqdaman. Ko'ringchi, aziz o'qirman: xotiralar eskiribdimi, qarashlar o'zgaribdimi?

*2022-yil, 03- aprel*

## **JIDDIY OLIM, KUYUNCHAK INSON**

XX asrning elliginchi yillari o'rtalarida O'zbekiston bo'ylab tog'li joylarda yashayotgan aholini cho'llarga ko'chirma qilishday oqibati xunuk harakat boshlandi. Ota-bobolari qadimdan go'zal Nurota tog'larida hayot kechirgan O'ljaboyevlar oilasi ham Mirzacho'lga ko'chib o'tishga majbur etildi. Qarindosh-urug'larning jonliqlarini haydab yo'lga tushgan otasiga qo'shib, o'n ikki yashar Umrzoq ham mollarning oyog'iga qarab pastga engani sari manzaralarning qashshoqlashayotganligini sezgan, yashagan yurtiga bog'lanib qolganini ilk bor tuygan edi.

Shundoqqina Sirdaryo bo'yidagi pashshalar g'ujg'on o'ynagan to'qayzorga joylashganlaridan so'ng Umrzoq O'ljaboyevning o'smirlik va o'spirinlik yillari juda g'alati kechgan. U bir yil o'zbek, bir yildan oshiqroq qozoq, ikki yilcha tojik

va nihoyat bitiradigan yili yana o'zbek maktabida o'qidi. O'sha vaqtlar chekka qishloqlardagi o'tboshilarning bolalari uzoqdagi maktablarga qatnashga yo'l ham, ulov ham yo'qligi sababli qaysi tilda ekanidan qat'i nazar yaqin atrofdagi maktablarda o'qiyverishardi.

Umrzoq hamma maktablarning ham a'lochi o'quvchilaridan hisoblangan. Bu xil «uchib-qo'nish»lar natijasida eng yomon o'zlashtirilgan o'quv fani adabiyot bo'lgan. Negaki, har bir milliy maktabda o'z milliy adabiyoti o'qitilgan. Har yomonning bir yaxshisi bor deganlariday, qobiliyatli yigitcha shu yo'sinda qozoq, tojik tillarini bir qadar o'rganib oldi va bu keyinchalik umri davomida ancha qo'l keldi.

Chechan dostonchilar, zavqi ko'ksiga sig'maydigan aytimchilar yurti Nurotada tug'ilgan Umrzoq aka ko'nglida tug'ilib o'sgan muhiti, o'lchab so'zlaydigan otasi hamda badiiy ifodani nozik tuyadigan onasi tufayli so'zga mehr juda erta uyg'ongandi. O'n yoshlaridan boshlab, xalq dostonlarini ohangga solib o'qir, dostonxonlikka yig'ilgan katta-kichik qarindoshu qo'ni-qo'shnilar sel bo'lib uni tinglashar va ta'sirlanib yig'lashardi. Kuchli xotiraga ega yigitcha dostonlarning ko'p o'rinlarini yoddan bilar va kattalar bu «dostonchi» bolaga mehr bilan qarashardi. Xalq daholarining badiiy so'zidagi ulkan qudrat, tiyiqsiz energiya ta'sirchan bola ko'nglini larzaga keltirar, u o'zini doston qahramonlari bilan janglarda birga yurganday tasavvur qilar, har jihatdan ularday bo'lishga intilardi.

Ettinchi sinfda o'qib yurganida tasodifan qo'liga E. Voynichning «So'na» romani tushib qoladi. Romanning qiynoqlarda toblangan qahramoni taqdiri tasviri hissiyotli o'smirning xayolot dunyosini ostin-ustun qilib yuboradi. Umrzoqqa haqiqat uchun kurashgan karbonariy yigitning qaytmasligi, jasorati, tortgan azoblari qattiq ta'sir ko'rsatganidan, tunlari uxlolmaydigan, inqilobchi yigitdan boshqani o'ylolmaydigan bo'lib qoladi. Bu kitob haqidagi o'ylari bilan o'rtoqlashish zaruriyati tiyiqsiz istakka aylanadi. Nihoyat, u «Gulxan» jurnaliga «So'na»dan olgan taassurotlarini yozib yuboradi. Bu, aslida, U. O'ljaboyevning birinchi taqrizi edi. Maqola jurnalda bosilmaydi-yu, ammo Nosir Fozilov imzo chekkan maktub keladi. Unda o'smirga kitob o'qish, uni tushunish va tahlil qilish yuzasidan maslahatlar berilgandi.

Dastlabki taassurotlar hech qachon izsiz ketmaydi. Odam ulg'ayganda ham bolaligidan uzoqqa borolmaydi. Umrzoq akaning keyinchalik aynan harbiy nasr muammolari bilan shug'ullanadigan olim bo'lib etishuviga xalq qahramonlik dostonlari va «So'na» romani ta'sir ko'rsatgan bo'lishi juda ham mumkin.

Maktabni bitirib, hozirgi Milliy universitet filologiya fakultetiga o'qishga kirgan qahramonimiz G'.Karimov, A.G'ulomov, Yu.Tohiriy, S.Dolimov, O.Sharafiddinov singari mashhur domlalardan tahsil olish imkoniga ega bo'ldi. Ko'pchilikka qaraganda yaxshi o'qigani bois yirik adabiyotshunos professor G'ulom Karimovga aspirant bo'ldi. O'z vaqtida dissertatsiya yoqladi, respublika filologlarining ilmiy hayotida faol qatnashdi. Mutaxassislar tomonidan tan olindi, qator kitoblar chop ettirdi. O'ttiz besh yildan beri Guliston davlat universiteti «O'zbek adabiyoti» kafedrasida domlalik qilyapti, o'n ikki yildan beri esa shu kafedrani boshqarib keladi.

Bugungi kunda Umrzoq O'ljaboyev domla mamlakatimizdagi harbiy nasr muammolari bilan shug'ullanadigan taniqli adabiyotshunos olim hisoblanadi. Xolislik va sinchkovlik uning jiddiy olim sifatida e'tirof etilishini ta'minlagan omillardir. Domla «Ufq», «Ikki eshik orasi», «Urushning so'nggi qurboni», «Cho'g'lar», «Er boshiga ish tushsa», «Chin muhabbat», «Qudratli to'lqin», «Saraton», «Izlayman», «Urush odamlari», «Besh bolali yigitcha» singari ko'plab asarlar matniga tayangan holda ularning yutuq va kamchiliklarini asosli ravishda ko'rsatib, mutaxassislar e'tiborini qozondi. Badiiy asarlarga unda ilgari surilgan g'oyalar va aks ettirilgan mavzularga qarab baho berish asosiy o'lchov hisoblangan davrlarda ham O'ljaboyev domla asarni mavzu emas, balki tasvir saviyasi yuksaltirishini hisobga olgan holda qalam surgan.

Bir paytlar estetik hodisalarni tadqiq etishdan ko'ra ular haqda vahimali umumlashmalar qilish rag'batlantirilardi. Domla bu oson, ammo noxolis yo'ldan yurishni istamadi. Har bir chinakam badiiy asar o'ziga xos qonuniyat mahsuli ekanini barcha tadqiqotlarida ta'kidlashdan erinmadi. U hamisha badiiy asar to'g'risida matnga tayanibgina fikr bildirgani bois yozganlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Chunki g'oyalar o'tkinchi, matn esa doimiydir.

O'ljaboyev domla badiiy asar haqida etti emas, o'n o'lchab so'ng fikr bildiradi. Ildagi jiddiyati bois Umrzoq akaning fikri bilan adiblar ham, filolog mutaxassislar ham hisoblashishadi. Olim o'z sohasidagi yangiliklarni nazardan qochirmaslikka intiladi. Chunki domla o'ynab ilm qilib bo'lmasligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham mavsumbop maqolalar bitishga qo'l urmaydi. Oz bo'lsa-da, soz yozadi. Domlaning «O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari», «Mardlik va matonat tasviri», «Satrlar ovozi», «Xotirada chizilgan izlar» singari tadqiqotlari o'zbek harbiy nasrining taraqqiyot tamoyillarini tayin etganligi, bu yo'nalishda bitilgan asarlarga xos yutuq-kamchiliklarning ijtimoiy, siyosiy va badiiy sabablarini ko'rsatib berganligi jihatidan ahamiyatlidir.

Domla tadqiqotlarida badiiy adabiyotda urushning qahramonlik ko'rsatish, shuhratga erishish, dushmanning yanchib tashlanganini tasvirlash vositasi tarzida talqin etilishiga qarshi turadi. Urush beaded ulkan insoniy fojia bo'lganligi uchun ham uning tasvirida soxtalik, atayinlik, yolg'on bo'lmasligi lozimligini ta'kidlaydi. Badiiy asar uchun urushning o'zi emas, balki urushdagi odam ruhiyati muhim ekanligi qayd etadi. Bu jihatdan domlaning «Ikki eshik orasi», «Urushning so'nggi qurboni», «Bug'doy pishig'iga etmaganlar», «Urush odamlari» singari nasriy asarlar yuzasidan bildirgan fikrlari o'zbek adabiyotshunosligining baland darajasidan dalolat ekanligini ta'kidlash joiz. Olimning kuzatishlari orasida o'zbek va rus harbiy nasrining tasvir tamoyillaridagi farqning etnik, genetik, ma'naviy, psixologik ildizlari borasidagi fikrlar ham diqqatga sazovordir.

O'ljaboyev domla o'zbek harbiy nasri muammolari yuzasidan tadqiqotlar olib borish jarayonida harbiy tasvir qonuniyatlarini ko'rsatishga va bu qonuniyatlar kimningdir istagi natijasi emas, balki xalq ma'naviyati mahsuli ekanligini asoslashga e'tibor qaratdi. Jumladan, rus adabiyotida jang sahnalari, urushning o'zini bevosita tasvirlashga e'tibor katta ekanini ruslar turmushining iqtisodiy,



siyosiy, harbiy, ruhiy, axloqiy xususiyatlaridan kelib chiqib izohlaydi. O'zbek yozuvchilari esa, urushning o'zidan ko'ra, uning kishilar turmushida, ko'nglida, ma'naviyatida qoldirgan izlar haqida ko'proq qalam tebratganliklarini qayd etadi va buni millatimizning tarixi, sezimlaridagi o'ziga xoslik, dunyo hodisalariga munosabat yo'sini bilan asoslab beradi. Olim o'z tadqiqot ob'ektiga g'oyat jiddiylik bilan yondashadi va badiiy tasvirdagi eng mayda jihatlarga ham alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasini tadqiq etar ekan, uning jurnal va kitob variantini bir-biriga solishtiradi. Har birining yutuq hamda kamchiliklarini ko'rsatibgina qolmay, ularning ildizlari qayerda ekanligini ham belgilab beradi. Uning ma'naviy maksimalizm borasidagi qarashlari milliy adabiyotshunosligimiz uchun yangilik bo'ldi.

U.O'ljaboyev urush haqida uning qatnashchilaridan ko'ra, uni kitoblardan o'qib o'rgangan yoshlar teranroq yozayotganligi sababini ko'rsatib beradi. Jangchi yozuvchilar urush lavhalarini ko'rsatishga, **oqibatni** tasvirlashga zo'r bergan bo'lsalar, yosh yozuvchilar urushda qatnashgan odamlarning ruhiyati, ko'ngli, qayg'u va shodliklarini ifodalashga ko'proq e'tibor qaratadilar. Ya'ni ular **sababni** ko'rsatishga urinishadi. Bu xil nozik kuzatish, shubhasiz, olim qarashlarining ilmiy salmog'ini va amaliy ta'sir kuchini oshiradi.

Umrzoq domla talabalar mehrini qozongan pedagogdir. U o'ttiz besh-yildan beri minglab talabalarga saboq bergan. Domlani talabalariga suyumli qilgan asosiy fazilati ham o'z ishiga kamoli jiddiyatidir. Umrzoq aka ma'ruzalarga ham, amaliy darslarga ham, to'garak mashg'ulotlariga ham jiddiy tayyorgarlik ko'radi. Shuning uchun ham uning darslarida pala-partishlik, yuzakilik bo'lmaydi. O'ziga talabchanligi uchun o'zgalarga ham ko'ngilbo'shlik qilmaydi va bu boshqalarga unchalik malol kelmaydi.

Domlaning hurmatini ta'minlaydigan yana bir jihat, bizningcha, pedagogik professionalizmdir. Umrzoq aka pedagoglikni kasb emas, balki xususiyat deb biladi. Shu bois pedagog bo'lib ishlamaydi, balki shunday yashaydi. Ya'ni ishini o'zidan, o'zini ishidan ayri tasavvur qilmaydi, qilolmaydi. Shuning uchun ham u kishining mag'zi to'q, kuzatishlari ohorli, xulosalari salmoqli darslari doim talabalarda qiziqish uyg'otadi. Talabalar fikrini eshita bilish va ular bilan hisoblashish ham domlaning noyob sifatlaridan biridir.

Umrzoq O'ljaboyev domla kafedra qoshidagi to'rt to'garakning faoliyatini yo'lga qo'yish uchun ham ozmuncha vaqt sarflamaydi. Gulistonlik magistrnlarga Toshkentdagi kutubxonalarda ishlash, poytaxt olimlaridan saboq olishga imkoniyat yaratish uchun tinmay elib-yugurdi. U kishining sa'y-harakatlari bilan gulistonlik magistrnlr Milliy universitet kutubxonalaridan foydalanishlari, O'zMU magistrantlari uchun o'tkazilgan darslarda qatnashishlari, Til va adabiyot institutidagi mashhur olimlardan ma'ruza tinglashlari mumkin bo'ldi.

Umrining oltmishinchi dovonidan oshayotgan, ammo hali yigitlarday tik qomatli, qalin sochli, tiyrak fikrli Umrzoq domlaga umringiz uzoq bo'lsin, kelajakda qiladigan ishlaringiz, amalga oshirganlaringizdan ham salmoqli bo'lsin deymiz.

2002-yil mart

## SHA'NI YUKSAK ODAM, FIKRI TERAN OLIM

Umrzoq aka do'sti prof. Begali Qosimov haqidagi yodlov-maqolasida: *“Begali o'ta bilimdon va taniqli shaxs bo'lish bilan birga, g'oyat haqiqatparvar, toza, o'ziga g'ubor yuqtirishni istamaydigan inson edi. Bilamizki, bunday xarakterdagi kishilarga hayotda yashash hamma vaqt ham oson kechavermagan, hamma ham bab-baravar ularni olqishlayvermagan. Buni biz nafaqat hayotiy tajribalarimizdan, balki adabiyotchi bo'lganimiz bois shu toifaga mansub ko'plab adabiy qahramonlarning taqdiri misolida ham yaxshi bilamiz”* [O'ljaboyev U. Xotiraga ko'chgan umrlar. – Guliston. 2010. 68- bet], - deb yozadi. Xuddi shunga o'xshash fikrni O'ljaboyev domlaning o'zi to'g'risida ham bemalol aytish mumkin. Domla bilan ilk uchrashganimizdan beri o'tgan yillar davomida Umrzoq akaning o'z sha'niga dog' bo'lib tushadigan ish qilmaganiga tonig'man. Umrzoq domla o'z qadrini biladigan, odamning ma'naviy sifatlarini uning o'zidan qiymatroq sanaydigan kishilar sirasidan. Shuning uchun ham or-nomusga daxl qildirmaslik, sha'nga dog' tushirmaslik tuyg'usi ustoz tabiatining bosh belgisi deyish mumkin. Domla hamisha sha'niga munosib qadam bosib, o'z nomiga yarashadigan ishlar qiladi.

Hayotdagi katta-kichik har bir narsaga kamoli jiddiyat bilan yondashadigan Umrzoq aka bir inson zimmasidagi har qanday vazifani astoydil, bekamu ko'st bajarishga intiladi. Domla faqat yaxshi olimgina emas, mehribon o'g'il, jonkuyar ota, o'tboshining barcha jihatlarini badastir qilishga urinadigan ajoyib oila boshlig'i, intizomli xodim, sadoqatli do'st, maslahatgo'y ustoz, doim ishonish mumkin bo'lgan jo'ra, yoqimli ulfatlik sifatlariga ega odamdir. U kishi o'ziga qaybir jihati bilan yaqin bo'lib qolgan odamlarni taqdir hukmiga, kimlarningdir zug'umi ostiga tashlab qo'ymaydi, ularning kundalik maishiy turmushda qiynalib qolmasligi borasida ham kuyunadi.

U. O'ljaboyev domla bilan ilk bor uchrashganimizga qirq to'rt-yil bo'ladi. U vaqtlar yaqinda ochilgan Sirdaryo pedagogika institutining qaldirg'och talabasimiz. Bizdan katta kurs bo'lmagani uchun o'zimizni hammadan katta hisoblab, ko'chaga sig'may yuramiz. Oltmish sakkizinchi yilning oktyabrida Sirdaryo qo'rg'oniga yaqin joydagi Oxunboboyev nomidagi kolxozda – paxta terimida edik. O'qituvchilar kuni munosabati bilan kechqurun o'zimiz kontsert qo'yadigan bo'ldik. O'sha vaqtlar har bir talaba konsertda nima bilandir bevosita qatnashardi: Rahbaroy bilan Erkin aka qo'shiq aytgan, Salomatga o'xshaganlar o'yinga tushgan, Abdulla Qo'ziboyev qiziqchilik qilgan, Ahmadali rubob chalgan, Tojiqul she'r o'qigan, menga o'xshaganlar yodlagan she'rini aytgan, xullas, tomoshabinlarning deyarli hammasi ijrochilar ham bo'lardi. Kontsert endi qiziy boshlaganda, kursimiz murabbiysi Akram Kattabekov domla qalin qora sochlari chimirilgan tutash quyuq qoshlari ustiga yonlama tushib turgan, did bilan kiyingan bir yigitni boshlab keldi. Mehmon aspiranturani endigina bitirgan Umrzoq O'ljaboyev ekan. O'sha kuni Umrzoq aka rubob chalib, g'oyat shirali ovozda dardchil bir qo'shiqni aytdi. Hazin qo'shiq bekorga aytilmaganini keyinchalik

bildik. Bo'lajak domlamizning bizdan keyingi kursda o'qiydigan bir qizda ishi bor ekan...

Tirik aspirantni ilk bor ko'rishimiz. Kechada qatnashgan talabalar, ayniqsa, qizlarning ko'pchiligi kelishgan, chiroyli kiyingan, chertib gapiradigan, tor chalib ashula aytadigan, o'ta jiddiy, bosiq va, eng muhimi, aspirant martabasidagi yigitni yaxshi ko'rib qolishgan bo'lishsa kerak. Paxtadan qaytib borganimizdan so'ng Umrzoq aka bizning institutga ishga kelganini bildik. Buning ustiga, Moskva aspiranturasiga qabul qilingan Akram akaning o'rniga kursimizga murabbiy qilib tayinlandi. Talabalikning qolgan-yillarida Umrzoq akaning bosiq odam, jiddiy va bilimdon olim, halol va xolis domla ekanligiga ko'p bor imon keltirdik. Domlani chindan ham yaxshi ko'rib qoldik.

Odatda, ko'rishilmagan yillar odamni odamdan uzoqlashtiradi. Umrzoq akaning birinchi talabalarini esa bu yillar domlaga yanada yaqinlashtirdi. Mana, oradan shuncha o'tibdi hamki, sobiq kursdoshlarning Umrzoq domlaga bo'lgan hurmatu muhabbatlari pasaygan emas. Domla bilan birga ishlash mobaynida, ayniqsa, menda u kishini yaqindan bilish, turli hayotiy vaziyatlarda sinash imkoniyati paydo bo'ldi.

Umrzoq akani bilganlarning aytishlaricha, u tinimsiz badiiy asar o'qir, rubob chertib, shirali ovozi bilan kuylab yaqin-atrofdagilarning e'tibori-yu e'tirofini ham qozongandi. Shu sababdan ham u maktabni bitirgach, konservatoriyaga kirmoqchi bo'ladi. Keyinchalik qaynotasi bo'lgan Oqnazar tog'asining: "Ovozi bor odam, albatta, ashulachi bo'lishi shart emas. So'zga mehning bor ekan, filolog bo'lganing tuzuk", - deb bergan maslahati uning mo'ljallarini o'zgartirib yubordi. Aqlli odamning jo'yali yo'rig'iga quloq osgani tufayli Umrzoq aka obro'-e'tibor topdi, mirzacho'lliklar esa taniqli olim va jonkuyar ustozga ega bo'lishdi.

Maktabni bitirgan Umrzoq O'ljaboyev ToshDUning "O'zbek filologiyasi" fakultetiga hujjat topshirdi. Turli tillardagi maktablarda orttirgan adabiy bilimlari etarli bo'lmadi shekilli, birinchi-yili imtihonlardan o'tolmadi. Astoydil hozirlik ko'rgan yigit kelasi-yili shu fakultetga kirib, G'.Karimov, A.G'ulomov, Yu.Tohiriy, S.Dolimov, O.Sharafiddinov singari domlalar qo'lida saboq oldi. Ko'pchilikka qaraganda yaxshi o'qigani bois yirik adabiyotshunos professor G'ulom Karimovga shogird bo'ldi. O'z vaqtida dissertatsiya yoqladi, respublika filologlarining ilmiy hayotida faol qatnashdi. Mutaxassislar tomonidan tan olindi, qator kitoblar chop ettirdi.

Umrzoq domlaning ko'pchilik mehri va e'tirofini qozonishga sabab bo'lgan eng birinchi fazilati o'z ishiga kamoli jiddiyat bilan yondashishidir deyish mumkin. Hatto, sobiq talabalarning o'zaro uchrashuvlarini ham jiddiy ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirga aylantirishning uddasidan chiqadi. Ya'ni qachonlardir shu universitetni bitirgan, faqat bir-birlariyu hayot qolgan domlalarini ko'rish uchun kelgan cholu kampirlarni hozir o'qiyotgan yoshlar bilan kezashtirib, avlodlar uchrashuviga aylantiradi.

Umrzoq aka talabalarga o'tadigan ma'ruza, amaliy va to'garak mashg'ulotlariga jiddiylik bilan tayyorgarlik ko'radi. Shuning uchun uning saboqlarida yuzakilik bo'lmaydi. O'ziga talabchan ekani bois o'zgalarga ham

ko'nglibo'shlik qilmaydi va adolatli odamning qattiqqo'lligi talabalarga ham unchalik malol kelmaydi. Imdagi jiddiyati sababli Umrzoq akaning fikri bilan boshkentdagi mutaxassislar ham hisoblashishadi. Imda sal orqada qolinsa, etib olish juda qiyinligini yaxshi bilgan O'ljaboyev domla o'z sohasidagi yangiliklarni nazardan qochirmaslikka intiladi.

Umrzoq aka – yurtimizning tan olingan, mashhur sinchisi. Uning olim sifatida tanilishini ta'minlagan omillar: xolisligi va sinchkovligidir. Domla “Ufq”, “Ikki eshik orasi”, “Cho'g'lar”, “Er boshiga ish tushsa”, “Chin muhabbat”, “Qudratli to'lqin”, “Janggoh”, “Mastonbibi”, “Kuyov” singari ko'plab asarlarning yutuq-kamchiliklarini asosli ko'rsatib bergani tufayli mutaxassislar e'tiborini qozondi. Badiiy asarlarga unda ilgari surilgan g'oyalar va aks ettirilgan mavzularga qarab baho berish asosiy o'lchov hisoblangan davrlarda ham O'ljaboyev domla asarni mavzu emas, balki tasvir yuksaltirishini hisobga olgan holda qalam surgan.

Badiiy asar haqida etti o'lchab fikr bildiradigan O'ljaboyev domla juda sermahsul olimlardan sanalmaydi. Olim ko'tar-ko'tar qilingan asarlar haqida mavsumbop maqolalar bitmaydi. Oz bo'lsa-da, soz yozishga urinadi. Domlaning “Satrlar ovozi”, “O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari”, “Mardlik va matonat tasviri”, “Xotirada chizilgan izlar”, “Urush davri o'zbek hikoyachiligi”, “Badiiy tasvirning haqqoniyligi” singari monografiyalari o'zbek harbiy nasrining taraqqiyot tamoyillari belgilangani, bunday asarlarga xos yutuq-kamchiliklarning ijtimoiy, siyosiy, badiiy, estetik sabablari ko'rsatib berilgani bilan qimmatlidir. Ulardan shu mavzuda qalam tebratayotgan ijodkorlar ham, izlanayotgan bo'lajak adabiyotshunovchilar ham foydalanadilar.

Domlaning tadqiqotlarida urush qahramonlik ko'rsatish, shuhratga erishish, dushmanning yanchib tashlanganini tasvirlash imkoniyati tarzida talqin etilmaydi. Ularda urush beaded ulkan insoniy fojia bo'lganligi uchun ham uning tasvirida soxtalik, atayinlik, yolg'on fido- yilik mutlaqo bo'lmasligi lozimligi ko'rsatiladi. Badiiy asar uchun urushning o'zi emas, balki urushdagi odam ruhiyati muhim ekani qayd etiladi. Olimning kuzatishlari orasida o'zbek va rus harbiy nasrining tasvir tamoyillaridagi farqning etnogenetik, ma'naviy psixologik ildizlari borasidagi fikrlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir. U. O'ljaboyev hamisha badiiy asar to'g'risida matnga tayanib fikr bildirgani bois yozganlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Zero, g'oyalar o'tkinchi, badiiy matn esa doimiydir. Domlaning «Ikki eshik orasi», «Urushning so'nggi qurboni», «Bug'doy pishig'iga etmaganlar», «Urush odamlari» singari nasriy asarlar yuzasidan bildirgan fikrlari o'zbek adabiyotshunosligining baland darajasidan dalolatdir.

O'ljaboyev domla o'z tadqiqotlarida harbiy tasvir qonuniyatlarini tayin etganda, ular millatning badiiy-estetik tafakkuri mahsuli ekanini asoslashga e'tibor qaratadi. Jumladan, rus adabiyotida jang sahnalari, urushning o'zini bevosita tasvirlashga e'tibor katta va yozuvchilarning bu boradagi mahoratlari yuksakligini ruslarning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ruhiy, axloqiy xususiyatlaridan kelib chiqib izohlaydi. O'zbek yozuvchilari esa, urushning o'zidan ko'ra, uning kishilar turmushida, ko'nglida, ma'naviyatida qoldirgan izlar haqida ko'proq qalam

tebratganliklarini qayd etadi va buni millatimizning tarixi, sezimlaridagi o'ziga xoslik, dunyo hodisalariga munosabat yo'sini bilan asoslab beradi.

U.O'ljaboyev urush haqida uning qatnashchilaridan ko'ra, uni kitoblardan o'qib o'rgangan yoshlar teranroq yozayotganligi sababini ishonarli ko'rsatib beradi. Jangchi yozuvchilar urush lavhalarini chizishga, ya'ni oqibatni tasvirlashga zo'r bergan bo'lsalar, urush ko'rmagan adiblar sababni ko'rsatishga urinishadi. Negaki, yosh yozuvchilar urushda qatnashgan odamlarning ruhiyati, ko'nglidagi qayg'u va shodliklarni ifodalashga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bu xil nozik kuzatish, shubhasiz, olim qarashlarining ilmiy salmog'ini va amaliy ta'sir kuchini oshiradi. U.O'ljaboyev "Badiiy tasvirning haqqoniyligi" asarida: *"Urush manzaralari tasviri, bu davrda yashagan kishilarning ruhiy olamini, hissiyotini badiiy tadqiq etishda bevosita urush davrida yashab ijod qilgan adiblarnikidan jahon urushi boshlanganida ijod olamiga endigina qadam qo'ya boshlagan yohud bolaligi urush davriga to'g'ri kelgan adiblar tayanadigan estetik tamoyillar tamomila farq qiladi. Urush davrida yashab ijod qilgan yozuvchilar uchun urush kundalik dolzarb masala bo'lgan bo'lsa, u haqda bolalik yoki o'smirlik xotiralariga suyanib asar yozgan adiblar uchun ma'naviy mezon, insonning insoniyligini o'lchaydigan, uni sinovdan o'tkazadigan axloqiy tarozi deyish mumkin.* [O'ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyligi. – Guliston: "Ziyo", 2008. 10-bet], - deb yozadi. Bu fikr ayni bir mavzuga ijodkorlarning turli avlodi tomonidan turlicha yondashiluvini sababi mantiqan asosli ko'rsatilgan.

Keyingi yillarda U.O'ljaboyev domla iste'dodining yangi bir qirrasini ochildi: u g'oyat jozibali va o'ziga tortadigan yodlov (memuar)lar bitadigan yozuvchi ekanini ham ko'rsatdi. Domlaning 2010-yilda chop etilgan "Xotiraga ko'chgan umrlar" kitobidan o'rin olgan o'n xotira o'zgacha samimiyati, yodlanayotgan shaxsiyatlarning har biriga xos eng muhim qirralarning sinchkovlik bilan topilib, mahorat bilan tasvirlanishi sababli o'qirmanlarning tahsiniga sazovor bo'ldi.

Domlaning boshqalardan farq qiladigan yana bir jihati shundaki, o'zi atroflicha bilmagan sohaga mutlaqo qo'l urmaydi. Chunonchi, she'riyatni nozik ilg'agani, ko'plab sara she'rlarni yod bilgani va ayrimlarini kuylab ham yurgani holda she'riyat haqida deyarli yozmaydi. Chunki domla so'zni, nomni isrof qilishni, engil obro' orttirish ilinjida ilm qadrini yo'qotishni istamaydi. Ilmiy va badiiy so'zga mas'uliyat bilan yondashish hissi domlaning chiqishlariga alohida salmoq bag'ishlaydi.

Domlaning hurmatini ta'minlaydigan yana bir jihat, mening nazarimda, pedagogik professionalizmdir. Umrzoq aka pedagoglikni kasb emas, balki shaxslikka xos xususiyat deb biladi. Ustozlik yumushini o'z shaxsidan ayri tasavvur qilmaydigan domla pedagog bo'lib ishlamaydi, balki yashaydi. U kishining sirtidan qaraganda, bir ohangliday tuyuladigan mashg'ulotlari mag'zining to'qligi, kuzatishlarning ohori, xulosalarning salmog'i bilan kishida qiziqish uyg'otadi. O'zidan boshqalar, jumladan, talabalar fikrini eshita bilish va ular bilan hisoblashish ham domlaning noyob sifatlaridan biridir. Ko'p o'ylab kam so'ylagani uchun ham fikrlarining salmog'i va mantiq yuki og'ir bo'lgan Umrzoq aka talabalarining jo'ngina mulohazalarini diqqat bilan tinglay biladi. Unchalik

asosli bo‘lmagan fikrlariga ham ehtiyotkorlik bilan munosabat bildiradi. Bu hol yoshlarda o‘ziga ishonch paydo qiladi.

Umrzoq akaning tabiatidagi ezgu sifatlardan yana biri yaqinlarga sadoqatdir. Domla o‘z safdoshlari va do‘stlari hayotining e‘tibor talab etiladigan biror kundan chetda turmaydi. Shu tufayli Umrzoq domlanning yo‘qlaydigan, suyanadigan, o‘rni kelsa, tayanch bo‘ladigan do‘stlari juda ko‘p. Domla dunyoga mashhur Abdulla Oripov bilan talabalik chog‘laridan buyon juda yaqin do‘st edi. Uzoq yillar ustozlari: G‘ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov, Umarali Normatovlarga sadoqatli shogirdlik qildi, Omon Suvonov, Begali Qosimov, Qodir Pirmatov, Rahmatilla Hadiyatullaev, Po‘lat To‘rayev, Ubaydulla Ro‘ziqulov, Shavkat Karimov, Ulug‘bek Dolimov, Nurilla Ahmedov singari do‘stlariga munosib yelkadosh, yuzlab shogirdlariga mehribon ustoz martabasiga dog‘ tushirmay keldi. Umrzoq akaning rahmatli Akram Kattabekov bilan do‘stliklariga nafaqat yaqinlar, balki respublikaning ko‘pchilik oydinlari havas qilishardi.

Guliston universitetidagi “O‘zbek adabiyoti” kafedrasini yigirma-yildan ortiqroq boshqargan Umrzoq aka hozirgi kunda ham tinib tinchimaydi. Uning jonkuyarligi va tashkilotchiligi sabab Guliston universitetining “O‘zbek filologiyasi” fakultetida xuddi Toshkentdagi kabi jo‘shqin adabiy-ijodiy muhit yuzaga keldi.

Bir umr ta‘lim-tarbiya bilan shug‘ullangan Umrzoq aka o‘zining ustoz ekaniga rosa ko‘nikkan va bu hol tabiatiga ham ko‘chgan. U kishi eng oddiy maishiy holatlarda ham bosiqlik va jiddiyatni yo‘qotmaydi. Domla nafaqat yumushlarga, balki o‘z shaxslariga ham katta e‘tibor bilan qaraydigan odam. U – o‘zi ham, so‘zi ham, ishi ham ko‘rkam bo‘lishiga erishgan shaxsiyat egasi. Shuning uchun ham u kishini taniganimga yaqin yarim asr bo‘libdi hamki, ilkinchi ko‘rganimdagi xipcha qomat, chertib kiyinish, yurish-turishdagi orastalik, fikrdagi salmoq oshsa oshganki, kamaygan emas. Umrining etmishinchi cho‘qqisini zabt etayotgan domlamga nomiga yarasha umr, mustahkam sog‘lik tilayman.

2012-yil 8-fevral

\*\*\*

Aziz o‘qirman, mana, Umrzoq aka haqida mening shuncha yil lik iqrorlarim bilan tanishdingiz. Aytishim kerakki, talaba Qozoqboydan Q. Yo‘ldoshevgga, undan Qozoqboy Yo‘ldosh bo‘lguncha o‘tgan ellik uch-yildavomida men domlanning nafasini his qilib turdim. Yaxshi-yomon kunlarimizda yonma-yon turish nasib qildi. Men-ku u kishiga etarlicha xizmat qilolmadim. Ammo domla menga juda ko‘p ezguliklar qildi. Yozuvchilar uyushmasiga borib, etmishga kirganimni respublika miqyosida nishonlanadigan tadbirga aylantirdi. Juda ko‘p uchrashuvlarda qatnashib so‘zlar aytdi. “Badiiy tahlil asoslari” deb atalgan kitobimizga so‘zboshi yozdi.

Umrzoq aka o‘limdan emas, qo‘rqoqlikdan qo‘rqib yashadi. Og‘ir kasallik davrida ham o‘zining qiynalayotganidan ko‘ra atrofidagilarni qiynab yuborayotganidan xijolatlanib qiynaldi. Lekin o‘linga bo‘y bermasdi. Bir dunyo rejalari bor edi. Tuzalib ketsa, shularni amalga oshirmoqchi edi. Lekin qismatga qarshi borib bo‘lmadi. Domlam ko‘pchilikka qo‘shildi. Odamdan bu dunyoda



xotiragina qoladi. Xotiralarimizda esa Umrzoq aka orzudagi odamdir. Oxirati obod bo'lsin, og'amning!

2022-yil 03-aprel

## SUKUNAT QO'YNIDA YETILGAN ISTE'DOD

Nasimxon RAHMONOV,  
*Filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Milliy universiteti professori*

O'ttiz yililgari men doktorlik dissertasiyasini himoya qilib, O'zFA Qo'lyozmalar institutida ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida xizmat qilar edim. Tabiiyki, Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat olib boradigan mutaxassislarining ko'pchiligi (bugungi kunda ham) oliy ta'lim tizimida ham ishlar edilar. Zotan to'plagan bilimlarimizni faqat kitoblar yoki maqolalar shaklida qolib ketmasdan talabalar bilan o'zaro muloqotda yanada foydali bo'ladi. Kunlarning birida Umrzoq aka menga qo'ng'iroq qilib qoldi. U muddaoga ko'cha qoldi.

- Ehtimol, siz bizning kafedra bilan yaxshi tanish emassizdir. Ikkita fan doktori bor. Anqaboy Quljonov bilan Akram Kattabekov. Adabiyot tarixidan dars soatlari ko'p. Ammo qadimgi davr bo'yicha dars o'tadigan professor -o'qituvchilar yo'q. Qolaversa, kafedramizga kadrlar tayyorshashimiz kerak. Bunda ham sizning yordamingizga tayanamiz Sentyabr oyidan bizga yarim stavkaga kela olasizmi, professor lavozimiga? Kelsangiz xursand bo'lardik. Bizga va talabalarga katta yordam qilgan bo'lardingiz.

O'sha paytda men Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutida yarim shtatda ishlab, qadimgi turkiy tildan dars berardim. Fan doktoriman, ammo katta o'qituvchi lavozimida. Professor lavozimiga tugul, dosent lavozimiga ham o'tkazishmagan edi. "Er tilangan yerda aziz" degan hikmatga amal qilib, u yerdan ketdim.

Gulistongga bordim. Darslar ham boshlanib ketdi. Kafedra a'zolari meni bajonidil kutib olishdi. Umrzoq akaning kitoblarini va maqolalarini matbuotda o'qigan edimu, o'zini shaxs va rahbar sifatida yaxshi bilmas edim. Umrzoq akaning bojasi, do'stim, yozuvchi Abdurashid Nurmurodovdan Umrzoq aka haqida eshitgan edim, xolos. Keyinroq boshqa odamlarni ham kuzatib, shuni anglab yetdimki, Umrzoq aka garchi da'vo qilmagan bo'lsa ham, u Sa'diyning ta'rifidagi odam ekan. Sa'diy aytgan ekan: "Donishmand baqqolning do'koniga o'xshaydi: borini indamaygina ko'rsatadi-qo'yadi; nodon esa lashkar nog'orasining o'zi: ovozi balandu ichi bo'm-bo'sh va g'arib". Umrzoq aka ana shunaqa – o'zidagi borini ko'rsatadigan, yolg'on qo'shishni bilmaydigan odam ekan.

O'sha paytlarda Umrzoq aka doktorlik dissertasiyasini yakunlayotgan ekan. Bunday paytda amaliy yordam bo'lmasa ham, odamga dalda kerakligini men boshimdan o'tkazgan odam sifatida bilar edim. Ammo Umrzoq aka olim sifatida o'ziga juda talabchan ekan. Hali u yerini to'g'rilashim kerak, bu yerini to'g'rilashim kerak, deb dissertasiyasini yakunlashni orqaga suraverardi. Men bir kun aytdim: "Umrzoq aka, dissertasiya tugamaydigan ish. Hozir nuqta qo'ying-da, himoya qilganingizdan keyin davom ettiraverasiz". Ammo o'ziga talabchan

odamni o'zgartirib bo'lmas ekan. Kitoblari chiqdi. Ammo dissertasiya himoyasi qolib ketdi.

Kadr tayyorlash ishlarida ham Umrzoq aka dadil, uzoqni ko'radigan odam edi. Rahmatli Oqnazar aka Qurbonov bir kuni yosh bir bolani yetaklab kafedraga olib kirdi. So'ng muddaoni aytdi: "Nasimxon, shu bola mening qarindoshim bo'ladi. Shuni o'zingizga shogird qililib oling. Ismi – Muzaffar, familiyasi Mamatqulov, 2-kursda o'qiydi." Umrzoq aka darrov Oqnazar akani qo'llab-quvvatladi: "Tarbiyalasangiz, Muzaffardan chiqadi. Kafedraning keyingi taqdirini ham o'ylashimiz kerak. Kafedraning ilmiy darajaga ega bo'lgan eng yoshi men bo'lsam, men ham ellikka kirdim. Bizdan keyin ham kafedrada kimdir qolishi va ishni davom ettirishi kerak-ku". Oqnazar akaning tavsiyasi, Umrzoq akaning daldasi bilan Muzaffarga "Hibatul-haqoyiq" bo'yicha kurs ishi mavzusini berdim. Muzaffar o'sha mavzuga qadimgi turkiydagi buddaviylik va moniylik she'rlarini qo'shib, 2004-yili nomzodlik dissertasiyasi sifatida himoya qildi. Bugun u fakultetni boshqaryapti, bir hafta oldin uning doktorlik dissertasiyasi Oliy Attestasiya komissiyasi tomonidan yuqori baholanib, fan doktori ilmiy darajasida tasdiqlandi. Men hamma shogirdlarimga aytaman. To'xtab qolmanglar. To'xtasangiz, ilm ahli orasida unutilib ketasizlar.

Umrzoq aka kafedraga Obida Fayzullayevani olib qoldi. Bugun u Umrzoq akaning o'rnida kafedrani boshqaryapti. Qarang, Umrzoq aka "Xotiraga ko'chgan umrlar" kitobining to'ldirilgan ikkinchi nashriga Muzaffar Mamatqulov va Obida Fayzullayevani taqrizchi qililib olgan ekan. Shogirdlar bor ekan, Umrzoq akaning nomi va ruhi Guliston davlat universitetida ashayveradi. Zotan, Yusuf Xos Hojibning quyidagi bayti Umrzoq akaga va u singari ezgu nom qoldirib ketganlarga qarata aytilganiga aslo shak-shubha yo'q:

Kishi mangu bo'la olmaydi, mangu uning otidir,

Undan mangu qoladigan narsa uning bu ezgu otidir.

Umrzoq aka yarim asrlik faoliyatini Guliston davlat universitetiga bag'ishladi. U yuqorida nomi aytilgan kitobidap Bahodir Boboxonov xotirasiga bag'ishlangan maqolasi so'ngida junday jummalarni bitgan ekan: "U (Bahodir Boboxonov) shunchaki, ko'p qatori, hammaga o'xshab emas, balki boshqalardan ajralib, alohida ko'zga tashlanib turadigan darajada mehnat qildi. Ana shu mehnati va go'zal insoniy fazilatlari bilan hamkasblari, barcha tanish-bilishlari qalbida yorqin xotiralar qoldirdi". Mana shu jumlar Umrzoq akaga ham tegishli va ayni paytda juda mosdir.

Umrzoq aka adabiyotshunos sifatida ham ilm ahlining nazariga tushgan. Uning XX asr adabiyotida urush mavzusiga, zamonaviy she'riyat va hikoyachilikka oid kitoblari, maqolalari hanuzgacha mutaxassislarning e'tiborini tortib keladi. Hali uning ilmiy faoliyati o'rganiladi, tadqiq etiladi. Ana shunda uning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi o'z bahosini oladi.

## ZIYOLI OLIM, SAMIMIY USTOZ

Qurdoş QAHRAMONOV,  
*TDPU professori, filologiya fanlari doktori*

Umurzoq aka O'ljaboyev tom ma'nodagi ziyoli olim edi. Safdoshlarining u kishiga bergan ta'riflarida yurish-turishi, bejirim kiyinishi, e'tiborliligi, samimiy muloqoti, jiddiyligi, prinsipal masalalarda qat'iyat ko'rsatishi, ayni paytda kezi kelganda chiroyli lutf qilishi – barcha - barchasida o'ziga xos yuksak madaniyat sezilib turishi e'tirof etilgan. Darhaqiqat, Umurzoq aka tiynatiga xos bo'lgan ushbu holatlar u kishining ilmiy va pedagogik faoliyatining ham asosiy mag'izini tashkil etadi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Zero, olim ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishini ham asosan yozuvchilarning nasriy asarlarini tahlil etish tashkil etadi. Odatda butun faoliyatini muayyan bir ilmiy muammo asosiga qurish, shu asosda uning yangi-yangi qirralarini tizimli ravishda tadqiq eta borish, har safargi izlanishlarida uning yangi-yangi qirralarini ochishga intilish har qanday olimga ham nasib etavermaydigan xususiyatlardan biridir.

Umurzoq aka hali talabalik yillaridayoq o'z izlanishlarini atoqli so'z san'atkori Abdulla Qahhorning novellistik mahorati bo'yicha boshlagan edi. Keyinchalik bu yo'nalish kengayib, o'zbek nasrida inson konsepsiyasi va nihoyat, urush davri aks etgan o'zbek nasriga xos poetik izlanishlar masalasi tadqiqotlarining yetakchi konsepsiyasini tashkil eta boshladi.

Shunga ko'ra, olim tadqiqotlarining asosini ham urush mavzusi aks etgan asarlar – roman, qissa va ayniqsa, hikoyachilikda inson konsepsiyasi, yozuvchining xarakter yaratish mahorati masalasi tashkil etadi.

Olimning uzoq yillik samarali mehnati mahsuli sifatida “Mardlik va matonat tasviri” (1970), “Satrlar ovozi” (1983), “O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari” (1989), “Xotirada chizilgan izlar” (1992), “Urush davri o'zbek hikoyachiligi” (2006), “Badiiy tasvirning haqqoniyligi” (2008), “Xotiraga ko'chgan umrlar” (birinchi nashri, 2010), “Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi” (2012), “Do'st bilan obod o'ying...” (2012), “Abdulla Qahhor saboqlari” (2013), “Hikoyachilikda davr nafasi” (2016), “Xotiraga ko'chgan umrlar” (To'ldirilgan ikkinchi nashri, 2016) kabi monografiya va risolalari chop etildi. Chop etilgan bu kitoblarda XX asrning atoqli so'z san'atkorlari Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulomdan to Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqulgacha bo'lgan adiblarning roman, qissa va hikoyalari tahlilga tortiladi, har bir ijodkorning urush mavzusiga bo'lgan o'ziga xos poetik munosabatini ochishga alohida e'tibor qaratiladi.

Muhimi, tahlilda olim e'tibor qaratgan jihat, eng avvalo yozuvchi mahoratini ochuvchi zamon va qahramon, ruhiyat qirralari tasvirining haqqoniyligi masalalaridandir. Ushbu masalalar ilmiy izlanishlarda detallashtirib tahlil etiladiki, bunda yozuvchining davr ruhini teran his etishi va xarakter yaratish mahorati o'zining yorqin talqiniga ega va kitobxonni ishontirish salohiyatini ko'rsatishga qaratilgani bilan xarakterlidir.

“Hikoyachilikda davr nafasi” nomli kitobida Abdulla Qahhorning urush davrida yaratgan hikoyalarini tahlil etar ekan, tanqidchilikda deyarli e’tibor qaratilmagan urush mavzusidagi dastlabki hikoyasi “Botirali”ni keng tahlil qiladi. Bu hikoyani yozuvchi ijodidagi yangi mavzuni yoritishdagi dastlabki bosqich, deb biladi. Garchi hikoya haqida adabiy jamoatchilikda “Asror bobo” hikoyasining yaratishdagi bir izlanish, degan qarash ustuvorlik qilsa-da, aslida o’xshash motivlar ko’p bo’lishiga qaramay, original asar ekanligini asoslashga harakat qiladi. Xususan, hikoyada chol-kampir ruhiyatidagi evrilishlar “xat” detali orqali to’la namoyon bo’lishi ishonarli talqiniga ega. “Ko’k konvert”dagi “shaftoli” detali ham asarning ekspozitsiyasidan to murakkab voqealar fonigacha qahramon Erkaboy Mirzayev ruhiyatidagi o’zgarishlarni asoslashda bosh omil ekani tahlillar bilan ko’rsatiladi.

Shu bois olimning “Abdulla Qahhor aksariyat hikoyalarida ekspozitsiyani shu darajada tabiiy yaratadi va undagi kichik halqalarni mantiqiy mustahkam bog’laydiki, ifodadagi biron so’z va talqinga e’tiroz bildirish, shubhalanish o’quvchining xayoliga ham kelmaydi”, - degan xulosalariga qo’shilamiz.

Abdulla Qahhorning “Asror bobo”, “Xotinlar”, “Kampirlar sim qoqdi” kabi hikoyalari qahhorshunoslikda ko’p tahlil etilgan, darsliklarda keraklicha ma’lumot berilgan bo’lsa-da, lekin olim imkon darajasida bu asarlarga o’ziga xos yondashishga xarakat qiladi, boshqalar aytmagan jihatlarini topib tahlil qilishga urinadi. Xususan, “Kampirlar sim qoqdi” hikoyasining hayotiy asoslarini Hakim Nazirning “Ustozlar o’giti” nomli hotirasidagi qiziqarli ma’lumotlar bilan asoslaydiki, natijada kitobxon Abdulla Qahhor asarlarining barchasi shunday hayotiy voqealar asosida yaratilganligiga ishonch hosil qiladi.

Munaqqid nafaqat Abdulla Qahhor, balki G’.G’ulom S.Ahmad va boshqa hikoyanavislar hikoyalarini ham shu kabi hayotiy asoslari bilan bir butunlikda tadqiq etishga, yutuq va kamchiliklarini ko’rsatishga xarakat qiladi.

Said Ahmadning urush mavzusida bitilgan asarlari ijodkor mahorati nuqtai nazaridan tahlil qilinar ekan, asosiy e’tiborni davr va shaxs fojiasining rayelistik talqiniga qaratiladi. Olim ayniqsa, “Ufq” trilogiyasini “Adibning umrlik kitobi”, deya baholaydi. Undagi eng dramatik voqea Ikromjon, Jannat xola va ularning qochoq o’g’li Tursunboy fojialarida heb hisoblaydi. Ta’kidlash joiz, asarda bu qahramonlarning fojeaviy ruhiy kechinmalarini yozuvchi mahorati nuqtai nazaridan ishonarli tahlil qilinadi. Jumladan, to Tursunboy haqidagi haqiqat ochilgunga qadar dramatik taranglik Ikromjon xarakteriga xos bo’lsa, keyin Jannat xolaga ko’chgangani haqidagi qarashlar ham detallashtirilgan tahlil bilan asoslanadi.

Olim Odil Yoqubov, O’tkir Hoshimov romanlarini ham shu yo’sinda mahorat bilan tahlil qiladi. Xususan, O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romaniga xos murakkab kompozitsiyali asarda urush voqealarini aks etish tamoyillari mahorat qirrasini sifatida talqin etiladi. Romandagi Orif oqsoqol va Husan duma xarakteriga xos fidoyilik, bag’rikenglik, mardlik, oriyatlilik, rostgo’ylik, vatanparvarlik kabi xislatlari turli xil holat va detallar, epizodlar tahlili bilan ochiladiki, bu hol tahlilning ishonchliligini ta’minlaydi.

Olim urush mavzusida bitilgan asarlarni tahlil qilar ekan, nafaqat yuqoridagi kabi klassiklar asarlariga munosabat bildiradi, balki keyingi yillarda yaratilayotgan va mavzuga yangicha yondashilayotgan asarlarga ham munosabat bildiradi. Bu asarlarning bevosita urush manzaralariga guvoh bo‘lmagan ijodkorlar tomonidan yaratilgan bo‘lishiga qaramay, urushga yangicha munosabat borligini ijobiy hodisa sifatida baholaydi. Shu jihatdan, Nazar Eshonqulning “Urush odamlari ” qissasi tahlili xarakterli.

O‘z kuzatishlarining muqaddimasida olim xarakterli fikrini o‘rtaga tashlaydi: ma’naviyatimizning hozirga bosqichida voqeanavislikka asoslangan asarlar bilan kitobxon ehtiyojini qondirish qiyin bo‘lib qoldi. Endi urush haqidagi asarlarda g‘olibona yurishlar tasviri emas, eng avvalo urush fojealarining inson qismatiga ta’siri yetakchi o‘ringa ko‘tarilmoqda.

Munaqqid Nazar Eshonqul qissasiga shu nuqtai nazardan yondashadi va asosan urushdan nogiron bo‘lib qaytib kelgan Normat polvon va uning xiyonatkor xotini Anziratning fojeaviy qismatini talqin etadi.

Umrzoq O‘ljaboyev ilmiy-ijodiy izlanishlarining yana bir yo‘nalishini xotiralar tashkil etadi. Dastlab 2010-yilda “Xotiraga ko‘chgan umrlar” kitobini chop ettirgan olim o‘tgan yili uning to‘ldirilgan ikkinchi nashrini ham kitobxonlarga taqdim etdi.

Bu xotiralar qariyb yarim asrlik faoliyati davomida birga ishlashgan ustozlar, hamkasblar yohud do‘stlar haqidagi shunchaki ma’lumotlar to‘plami emas, balki obrazlashgan, qalamga olingan har bir qahramonning o‘ziga xos xarakter xususiyati, hayotiy prinsiplari, insoniylik xislatlari muayyan epizod yoki detallar yordamida yoritilgan asar darajasiga ko‘tarilganini ta’kidlash o‘rinli. Bu holni kitobdagi Sobiq Sirdaryo davlat pyedagogika institutining daslabki tamal toshini qo‘ygan rektorlari A.Abdunabiyev va X.Doniyorovlar yoki ustoz O.Sharafiddinov haqidagi dil so‘zlarida ham, To‘ra So‘laymon yohud chaqmoqday bir yonib uchgan T.Quvvatov haqidagi xotiralarda ham ko‘rishimiz mumkin. “Xotiraga ko‘chgan umrlar” kitobini o‘qir ekansiz, undagi dil izhori, ayniqsa bevaqt umri hazon bo‘lgan do‘stlari – taniqli adabiyotshunos olimlar – Akram Kattabekov va Begali Qosimov haqidagi iztirobli bitiklar sizni befarq qoldirmaydi. Bu xotiralarda jamoatchilikka asosan olim sifatida tanilgan bu siymolarning kitobxonga yashirin bo‘lgan insoniy sifatleri - do‘stga cheksiz sadoqat, prinsipiellik, ilm-fanga fidoyiliklaridan ham xabardor bo‘lamiz.

Zero, bu fidoyilik, do‘stlarga sadoqatlilik, shogirdlarga e’tiborlilik Umrzoq aka O‘ljaboyevning ham hayotiy a’mollaridan biri edi.

Ustozni Alloh rahmatiga olgan bo‘lsin.

## **RUHIY XOTIRJAMLIK SAODATI**

**Islomjon YOQUBOV,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori*

Adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, filologiya fanlari nomzodi, dosent Umrzoq O‘ljaboyev 1942-yilning 9-aprelida Samarqand

viloyatida tug'ildi. Taniqli adabiyotshunos olim, nuqtadon munaqqid va xotirana, mehri daryo ustoz 1968-yilning oxiridan Sirdaryo davlat pedagogika instituti (hozirgi Guliston davlat universiteti) da o'z umri shomigacha, qariyb 54 yil davomida faoliyat yuritdi. Hayotining 20 yildan ortiqroq qaynoq davrida kafedraga mudirlik qildi. O'zining bor iqtidor va salohiyatini shu muqaddas ta'lim-tarbiya maskaniga sarfladi. Ongli hayotini respublikamizda adabiyotshunoslik ilmi rivojiga imkon qadar munosib ulush qo'shish, Oliy ta'limni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashdek sharaflilik ishga baxshida etdi. Umrzoq aka 2021-yilning 13-avgust kuni og'ir xastalikdan so'ng 79 yoshida Toshkent shahrida vafot etdi va "Xo'ja Alambardor" ("Kamolon") qabristonidan abadiy makon topdi...

Oradan o'tgan sakkiz oylik fursatdan so'ng, ya'ni dilkash inson, fidoyi pedagog-olim hayot bo'lganida 80 yoshga to'ladigan qutlug' kunda ustozni xotirlab, ruhlarini shod etish maqsadida bir guruh shogirdlari muborak xonadonlarida bo'ldik. Serfayz kunlar eslandi, Qur'on tilovat qilindi. Shunda GulDU dagi shogirdlari ezgu bir ishga bosh qo'shib, bu san'ani yaqin kunlarda respublikamiz miqyosida keng nishonlash niyatida ekanliklarini izhor etishdi. Shu munosabat bilan ardoqli xotiralar jonlandi va ular dildan tilga ko'chdi...

Ma'lumki, zabardast adabiyotshunos U.O'ljaboyev tomonidan e'lon qilingan: "Mardlik va matonat tasviri" (1976), "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari" (1989), "Urush davri o'zbek hikoyachiligi" (2006), "Badiiy tasvirning haqqoniyliigi" (2008), "Hikoyachilikda davr nafasi" (2016), "Adabiyot – ko'ngil ko'zgusi" (2017) singari monografiyalar; "Satrlar ovozi" (1985) ilmiy-ommabop risolasi, "Xotiraga ko'chgan umrlar" (2010; 2016) "Do'st bilan obod uying" (2012) xotira va maqolalar to'plamlari, "Abdulla Qahhor saboqlari" (2013) o'quv-uslubiy qo'llanmasi, shuningdek "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Guliston" singari ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop hamda "Axborotnoma" tipidagi jurnallarda e'lon qilingan 25 ta, hamda ilmiy to'plamlarda chop etilgan 38 ta, gazetalar orqali o'z o'quvchisi bilan diydorlashgan 88 ta maqolalar 80-yillardan e'tiboran xalqimiz ma'naviy mulkiga aylangan.

Bu izlanishlarda xarakter yaratish muammolari, janr imkoniyatlari, syujet va kompozisiya, nasrimiz taraqqiyot tamoyillari, hayotiy va badiiy haqiqat, shakl va mazmun mutanosibliigi, uslub jilolari, ijod mas'uliyati, ijodkor laboratoriyasi singari talay dolzarb nazariy muammolar teran tadqiq etildi. Ular orasidan qizil ipday o'tadigan bir qutlug' mavzu borki, bu qattol urush va urush davri odamlari dard-iztiroblari, qayg'u-alamlari, g'am-tashvishlari, yo'qotilgan bolaligi, otionalarni aziz farzandidan aka-kalarni jigarbandidan, ayol-qizlarni sevimli yoridan, ne-ne farzandlarni ota nomli ulug' shodlikdan mosuvo qilib, dillarni yaralagan XX asr fojiasining badiiy adabiyotdagi poetik tajassumini tahlil va tadqiq etish masalasidir.

Adabiyotshunos olim 1970-yilda "So'nggi davr o'zbek romanchiligida Ulug' Vatan urushi davrining aks etishi" mavzusida nomzodlik ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, ilmiy-adabiy jamoatchilik nazariga tushgan va shu mavzuning turfa qirralarini har xil rakurslardan izchil tarzda keng tahlil va tadqiq



etib kelgan edi. Bu hol uning tinchlik, birdamlik, hamjihatlik, yaratuvchanlik va bunyodkorlik haqidagi estetik ideallari, davrimizga hamohang o‘y-fikrlari, binobarin inson qismati haqida qayg‘uruvchi bag‘rikeng inson sifatidagi ulug‘vor siyrati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek ilmiy-pedagogik faoliyatida badiiy asarlarni o‘qish, uqish va o‘qtirish masalalaridagi muammolarni tahlil etish, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo‘luvchi tavsiyalar ishlab chiqish ham ahamiyatga molik yo‘nalishni tashkil qiladi.

Adabiyotshunos maqola va adabiy suhbatlarida: Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Xudoyberdi Doniyorov, Anqaboy Quljonov, Akram Kattabekov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Omonboy Suvonov kabi ko‘plab olimlar; Alisher Navoiy dahosidan tortib, XX-XXI asrlarda qalam tebratgan Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Shuhrat, Pirmqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, To‘ra Sulaymon va boshqalar insoniy fazilat-sifatlariyu ijodiy barkamolligi asrorigacha qamrab olindi. Yosh yozuvchi va shoirlarning ijod namunalari tahlilga tortilib, ularga ibratli saboqlar berildi.

Shu bois, Umrzoq O‘ljaboyevning ilmiy, ilmiy-pedagogik faoliyati ham hamisha akademik Baxtiyor Nazarov, professorlar: Akram Kattabekov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Hakimjon Karimov, Qurdosh Qahramonov; yozuvchi va shoirlar: Muhammad Ali, To‘ra Sulaymon va boshqa hamkasblari e‘tibor va e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

Umrzoq O‘ljaboyev o‘z qo‘li bilan tartib bergan bo‘lsa-da, umr bevafoqligi bois, yuzaga chiqishini ko‘ra olmagan “Nurli manzillarga intilib...” (2021) kitobidan Respublikamizning taniqli olimlari, mashhur shoiru adiblari, hamkasb do‘stlari, shogirdlari hamda turli soha vakillari – adabiyot, san‘at va madaniyatimiz fidoyilarining dil so‘zlari va esdaliklari o‘rin oldi. Darhaqiqat, Ashraf Eminov, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripov, O‘tir Hoshimov, Baxtiyor Nazarov, Oydin Hojiyeva, Shavkat Karimov, Saydi Umirov, Jumanazar Beknazarov, Ulug‘bek Dolimov, Karimboy Quramboyev, Yormat Tojiyev, No‘mon Rahimjonov, Ortiqboy Abdullayev singari 30 dan ortiq allomalar e‘tiroflariyu 25 ga yaqin shogirdlarning ehtiromlari Umrzoq O‘ljaboyevning yaxlit insoniy va ilmiy portretini yaratish, ibratli hayot yo‘lini yoritish – fenomenal qiyofasini tiklash imkonini beradi.

Masalan, O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov: *“Siz ajoyib, ayni chog‘da juda kamtar va samimiy insonsiz. Yoshlar ko‘p jihatdan insoniylikni sizdan o‘rganishsa arziydi. Men o‘zim ham shaxsan sizdan ko‘p narsalar oldim, Siz tufayli yaxshi insonlar bilan do‘stlashdim”*, deb yozadi. U Umrzoq akani *“qardosh ukam, safdoshim”*, deb alqaydi. Jo‘sh safari bilan bog‘liq unitilmas taassurotlarini xotirlaydi. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov: *“qadr don birodarim va safdosh do‘stim “...o‘z fikriga ega, yyetuk adabiyotshunos olim”* deya e‘zozlaydi. Akademik Baxtiyor Nazarov: *“Sobitlik bilan o‘z pozitsiyasida izchil turib nasrdagi yo‘nalishlar, realistik xarakter yaratish va inson konsepsiyasi masalalarini*

*sobitqadamlik bilan tadqiq etayotgan kamyob olimlarimizdan biri*”, deya e’tirof etadi.

Biz bu kabi e’tiroflarni bemalol davom qildirishimiz va bundan ko‘plab sahifalar orolanib, mehrlar bulog‘idan dillar qonishiga shubha yo‘q. Biroq muhtaram o‘quvchilarimizni “Nurli manzillarga intilib...” kitobini o‘qib olinadigan zavq va ibratlanish imkoniyatidan mahrum qilish niyatida emasmiz...

Ushbu satrlar muallifi ilgari Umrzoq akani turfa kitoblari-yu maqolalari orqali tanigan bo‘lsa, 2003-2004-o‘quv yilida prof Qozoqboy Yo‘ldoshevning maslahati asosida GulDUda o‘n kun xizmat safarida bo‘lib, bakalavriat va magistratura bosqichi talabalariga saboq bergan kezlaridan e’tiboran yaqindan taniydi. Chunki o‘shanda universitetda bo‘lgan dilkash suhbatlardan tashqari, Umrzoq akaning onalari va turmush o‘rtoqlari bilan ham yaqindan tanishgan edim. Onalari jonli tarix, Sirdaryoga tashrif buyurgan va tabiiyki fayzli xonadonidan bir piyola choy ichgan barcha shoiru adiblar haqidagi qiziq-qiziq gurunqlarning bebaho xazinasini ekanlar. Menimcha, Umrzoq akadagi adabiyot va san’atga oshnolik tuyg‘usi onalaridan o‘tgan – “sut bilan kirgan.” Turmush o‘rtoqlari Risolatxon ayaning samimiy xayrixohliklari, qo‘llab-quvvatlashlari bilan yanada sayqal topgan bo‘lsa ajab emas.

Bizning munosabatlarimiz ustoz-shogirdlikdan samimiy birodarlikka, undan devordarmiyon qo‘shnichilik mingyilchilikka o‘tib yuksalib bordi. Ayniqsa, akademik B.Nazarov da’vati bilan “Rakat gap” nomli har oyda bir marta ulug‘ ustozlar yig‘iladigan gurungga qo‘shilishim Umrzoq O‘ljaboyevning kamtarlik, oddiylik, samimiyat va ayni choqda butun jamoaga bosh bo‘lib, tashabbusni qo‘lga olish, xuddi mehribon murabbiy singari suhbat o‘zanini dadillik bilan umumfoydasi yo‘naltirish, jamoa azolaridan kimningdir yilt etgan muvaffaqiyati bo‘lsa albatta qadrlash, goh jiddiyat, gohida hazil-mutoyiba bilan hozirjavoblik orqali ko‘pchilikni maftun eta olish, shaxmat surishda “raqib” nozik tomonlarini tez-fahmlik bilan ilg‘ab, kutilmaganda qaqshatqich zarba berish kabi insoniy qirralarini kashf etishimga imkon berdi...

Umrzoq aka betob yotgan kezlarida ham, aslo kasallikka yengilishni xushlamasdilar. Ammo bir gal: *“Ha, endi Islombek inim, Allohning irodasi bilan shuncha yil yashadik. Ortga boqib, o‘tgan umrdan xijolat bo‘lmaslikning o‘zi katta baxt. Endi buyog‘i ham O‘zining xoxish-irodasiga bog‘liq. Bo‘lsa bo‘ldi, bo‘lmasa, omonatga xiyonat qilmaymiz”*, dedilar.

O‘shanda men taqdirga rizo, o‘tgan umridan mamnun, ruhan xotirjam bu insonning irodasi naqadar mustahkam, iymoni barsalomat ekaniga yana bir bor tahsin o‘qidim.

Ha, iymon but va e’tiqodda sobitlik barqaror bo‘lsa, jismoniy dardlar zinhor ko‘zga ilinmas ekan.

## **IBRATLI UMR SOHIBI**

*Muzaffar MAMATQULOV,  
GulDU Filologiya fakulteti dekani,  
Obidaxon FAYZULLAYEVA,  
GulDU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası mudiri*

Guliston davlat universitetning tom ma‘nodagi ilm maskaniga aylanishida o‘ziga xos ulushi, alohida xizmatlari bor, degan gapni bugungi kunda baralla aytish mumkin bo‘lgan insonlardan biri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Umurzoq O‘ljaboyev domla edi.

Umurzoq O‘ljaboyev 1942-yilda Samarqand viloyatining Nurota tumanida tug‘ilgan. U 1959-yilda o‘rta maktabni tugatib bir-yilishlagach, 1960-65- yillarda talaba, 1965-68-yillarda aspirant sifatida Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) Filologiya fakultetida tahsil olgan. 1968-yil ning 1-dekabridan Guliston davlat universiteti (sobiq Sirdaryo pedagogika instituti)ning “O‘zbek adabiyoti” (hozirgi “O‘zbek adabiyotshunosligi”) kafedrasida faoliyat yuritgan. 1970-yilda “So‘nggi davr o‘zbek romanchiligida Ulug‘ Vatan urushi davrining aks etishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

U 1965-yildan mehnat faoliyatini Sirdaryo viloyati Guliston tumani 5-maktabida o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisilikdan boshlagan. 1965-1968-yillardan Toshkent davlat universitetining kunduzgi bo‘lim aspiranturasida o‘qigan. 1968-yildan 1971-yil gacha Sirdaryo davlat pedagogika instituti “O‘zbek adabiyoti” kafedrası katta o‘qituvchisi, 1971-yildan 1976-yil gacha kafedrada dotsent vazifasini bajaruvchi, 1976-1986-yillar kafedra dotsenti, 1986-1988- yillar kafedra katta ilmiy xodimi, 1988-1990-yillar kafedra dotsenti, 1990- yildan 2011-yilgacha Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyoti” kafedrası mudiri, 2011-2021-yillar “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedra dotsenti vazifasida ishlab kelgan. Ustoz Sirdaryo davlat pedagogika instituti endigina tashkil topgan, dastlabki qadamlarini tashlayotgan bir paytda o‘zining mehnat faoliyatini boshlagan. Qariyb 53yil davomida domla shu universitetdagi ta‘lim-tarbiya ishlariga o‘zining bor bilimini, iste‘dodini va tajribalarini bag‘ishladi. Shu davr mobaynida domla qanchadan-qancha mutaxassislar bilan birga ishladi: biridan o‘rgandi, biriga o‘rgatdi; qanchadan-qancha hayotga yo‘llanma olgan talabalarga bilim berish bilan birga ustozlik mehrini ham ulashdi. Jamoat ishlarida faol qatnashdi. Turli rahbarlik lavozimlarida ham ishladi. Hayotining 21-yilini kafedrani boshqarishdek mas‘uliyatli ishga bag‘ishladi. Ustoz qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, o‘zining birinchi vazifasi o‘qituvchi, yoshlarga ta‘lim-tarbiya beruvchi ekanini bir daqiqa bo‘lsa-da, unutmadi. Domla xarakteriga xos fidoyiligi tufayli butun mehnat faoliyati davomida professor-o‘qituvchilar jamoasida ham, talabalar o‘rtasida ham katta hurmat-e‘zozga sazovor bo‘lib keldi.

Umurzoq O‘ljaboyev faoliyatidagi ikkinchi yo‘nalish, so‘zsiz, uning adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik sohasida qilgan ishlari bilan bog‘liq. Bu sohadagi birinchi qadamni 1966-yil ning mart oyida “Sirdaryo haqiqati” gazetasida e‘lon qilingan “Ilk qadam” nomli maqola bilan boshlagan edi. Shundan beri uning turli

gazetalar, jurnallarda va ilmiy to'plamlarda 200 dan ortiq maqolalari chop etilgan. U butun ilmiy-ijodiy faoliyati davomida ko'proq bir mavzuga, ya'ni ikkinchi jahon urushi davridagi hayot va bu davrdagi insonlar qismati badiiy adabiyotda qanday ifodalanganligi masalasiga e'tiborini qaratishga harakat qildi. Shu yo'nalishdagi izlanishlarining ma'lum qismini yakunladi va "Mardlik va matonat tasviri" (1976), "Satrlar ovozi" (1985), "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari" (1989), "Xotirada chizilgan izlar" (1992), "Urush davri o'zbek hikoyachiligi" (2006), "Badiiy tasvirning haqqoniyligi" (2008), "Xotiraga ko'chgan umrlar" (2010, 2016), "Do'st bilan obod uying" (2012), "Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi" (2012), "Abdulla Qahhor saboqlari" (2013), "Hikoyachilikda davr nafasi" (2016), "Adabiyot – ko'ngil ko'zgusi" (2017) kabi tadqiqotlari ilmiy jamoatchilikning e'tiborini o'ziga tortdi.

Domlaning "Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi" kitobi ijodiy faoliyatida alohida ahamiyatga ega, chunki bu kitobida u o'zining adabiyotshunoslik sohasida 45 yillik izlanishlarining muayyan qismini jamlagan. Undan o'rin olgan maqolalar olimning hayoti davomida olib borgan tadqiqotlari tematikasi faqat bir yo'nalishdangina iborat emasligini, balki ancha serqirra, boy va rang-barang ekanligini, boshqa mavzularda ham muvaffaqiyat bilan qalam tebratganini ko'rsatadi.

U 1982- yildan beri O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasining a'zosi. U. O'ljaboyev "Xalq ta'limi a'lochisi", "Mustaqillikning o'n besh yilligi", "Mustaqillikning yigirma yilligi", "Ma'naviyat fidoyisi" (2020) kabi ko'krak nishonlari bilan mukofotlangan.

Adabiyotshunoslik sohasida olib borayotgan ilmiy-tadqiqotlari va e'lon qilayotgan asarlari uchun olim 2012- yilda Turon Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zoliciga saylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-sentyabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni bilan yoshlarni ona Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi ko'p yillik samarali xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun ustoz mamlakatimizning yuksak mukofoti "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan.

Guliston davlat universitetida samarali faoliyat olib borgan, butun mazmunli hayotini ma'naviyat taraqqiyotiga baxshida etgan adabiyotshunos olim, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi Umurzoq O'ljaboyev haqiqiy jonkuyar va g'amxo'r inson, iste'dodparvar ustoz sifatida xotiralarda barhayot yashaydi.

## MATONATLI TANQIDCHI OLIM

*Ravshanbek MAHMUDOV,  
Guliston davlat universiteti professori  
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi*

Adabiyot – ko‘ngil ishi. Adabiyot insonlarni hayratlantirishi, hayajonlantirishi, kuldirishi, yig‘latishi eng asosiysi tarbiyalash vazifasi bilan ahamiyatlidir. Adabiyotsiz ma‘naviyat, ma‘rifat, hayot kamtikdir. Chunki adabiyot insonni hayotda o‘z o‘rnini topshishga baholi qudrat hissa qo‘shadi. Tanqidchi va adabiyotshunoslar esa roman, qissa, hikoya, she‘rlardagi asosiy g‘oyalarni tahlil qilib, yaxshi yomonga ajratib, keng kitobxonlar ommasiga etkazuvchi murabbiydir.

Adabiyot sirli olam. Adabiyotning o‘ziga xos sehri bor. Adabiyotga, she‘riyatga, qisqasi, so‘z san‘atiga oshiq bo‘lgan insonlarga ancha qiyin! Chunki har bir so‘z yukini ko‘tarishga to‘g‘ri keladi. So‘z yuki ko‘p og‘ir. Har bir so‘zni, birikmani, gapni o‘z joyida, vaqtida ishlata olish darkor. O‘zbekiston xalq shoiri, xassos shoir Rauf Parfi: “She‘rimning har bir katorini ba‘zan og‘zimda oylab chaynab yuraman”, - deganda so‘z qudratini, so‘z qo‘llashdagi ehtiyotkorlikni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin.

Umurzoq O‘ljaboyev shoir ham yozuvchi ham emas, balki adabiyotshunosdir. Shoir, yozuvchiga oson. Yozadi-tashlaydi. Kerak bo‘lsa, o‘qi, yoqmasa o‘qima. Kerak bo‘lsa tushunib ol, bo‘lmasa yo‘q. Lekin adabiyotshunosga qiyin. Chunki bir she‘rni yoki hikoyani tahlil qilish uchun shoir, yozuvchi nazarda tutgan g‘oyani aniqlab, kitobxonga etkazish uchun ko‘p mehnat qilish kerak. Adabiyotshunos olimga mehnatning o‘zi kifoya emas, balki unda shoirlik, yozuvchilik qobiliyati ham bo‘lishi kerak. Umurzoq O‘ljaboyevda ham shoirlik, ham yozuvchilik qobiliyati bor. Iqtidor, qobiliyat, o‘tkir zehn, idrok egasi bo‘lmasa adabiyotshunos bo‘lish mumkin emas. Har bir tanqidchi, adabiyotshunosning alohida bir tadqiq qiladigan sevimli mavzusi bo‘ladi. Ayrim tanqidchilar faqat nasriy, ayrimlar nazmiy, yana birlari publitsistik asarnigina yaxshi tushunib tahlil qiladilar. Umurzoq O‘ljaboyev tanqidchilarning bu qolipiga sig‘maydi. U nasriy, nazmiy publitsistik asarlarni birdek yaxshi tushuna oladi va oddiy kitobxonga badiiy qiymatini, asosiy g‘oyasini tushunarli tahlil qilib bera oladi. Olimning katta bir ishtiyoq, katta bir mehr bilan tadqiq qiladigan mavzusi o‘zbek adabiyotida yoritiladigan urush mavzusidir.

Umurzoq O‘ljaboyev urush mavzusida ijod qiluvchilarni uch guruhga bo‘ladi. Birinchisi: Ulug Vatan urushida o‘zi shaxsan ishtirok etgan va bu davrni yaxshi biladigan ijodkorlar – Said Ahmad, Shuhrat, Hamid G‘ulom. Ikkinchi guruh: urush-yillari tug‘ilgan, uning azob uqubatlarini qisman tatib ko‘rgan yozuvchilar: O‘tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Shukur Xolmirzaev, O‘lmas Umarbekov. Uchinchi guruh: urushdan keyingi tug‘ilgan ijodkorlar: Nurali Qobul, Mamatqul Hazratqulov, Nazar Eshonqulov kabilar. Bu ijodkorlar urush haqida ota-onalaridan eshitgan, kitoblardan o‘qishgan, kinolentalarni ko‘rishgan. Lekin ular urush mavzusida kishini hayajonlantira oladigan, hayotga ishtiyoq uyg‘otadigan, insonni

hayot haqida mushohada yuritishga majburlay oladigan ajoyib hikoya, qissalar yaratganlar. Bu yozuvchilarning asarlari Umurzoq O'ljaboyev nigohidan chetda qolmaydi. Ularning hikoyalari Abdulla Qahhor aytgan, “- yilt” etgan narsani oddiy kitobxoniga etkazishni tanqidchi o'zining burchi, deb biladi. Bu ijodkorlarning keng kitobxonlar ommasiga, xalqqa tanilishida Umurzoq O'ljaboyevning ham kamtarona hissasi bor.

Tanqidchi oddiy kitobxon bilan shoir, yozuvchi o'rtasidagi vositachidir. Yozuvchi ming azob bilan asar yozadi. U asarni kitobxon o'qimasa-chi? Kitobxon e'tiborini tortish, jamoatchilikda asarga nisbatan qiziqish uyg'otish tanqidchilarga bog'liq. Bu jihatdan olganda Umurzoq O'ljaboyev juda faol tanqidchi. Olimdagi bu faollik birdaniga paydo bo'lgan emas. U Toshkent Davlat universitetining filologiya kulliyotida o'qib yurgan paytlaridayoq paydo bo'lgan edi. So'ng aspirantura, turmush tashvishlari, o'qituvchilik, 1970-yilda Umurzoq O'ljaboyev filologiya fanlari doktori, professor G'ulom Karimov rahbarligida “So'nggi davr o'zbek romanchiligida Ulug' Vatan urushining aks etishi” (1956-1969) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy ishning yakuni sifatida “Mardlik va matonat tasviri” (1976) paydo bo'ldi. Kiyinroq “Satrlar ovozi” (1985), “O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari” (1989), “Xotirada chizilgan izlar” (1992) kitoblari bosilib chiqdi. Gazeta va jurnallarda 20 dan ortiq dolzarb mavzularda, 100 dan ortiq ilmiy, nazariy, uslubiy metodik maqolalari e'lon qilindi. Bir necha to'plamlarda tadqiqotlari chop etildi. “Umidbaxsh to'lqinlar” maqolasi (“Sharq yulduzi”, 1990-yil 10-son) jurnalxonlarning sirtqi tanlovida g'olib deb topilgan.

Har bir olimning, tanqidchining badiiy asarini tahlil qilish uslubi bo'ladi. Ayrim tanqidchilar avval asarni maqgaydi, voqealarini hikoya qilib beradi, keyin esa “ayrim ju'ziy kamchiliklardan ham holi emas”, deb kamchiliklarni sanab ketadi. Holbuki, bu “ju'ziy kamchiliklar” asarni yo'qqa chiqaradi. Ammo tanqidchi “bu kamchiliklardan qat'iy nazar asarning badiiy darajasi yuksak”, deb xulosa chiqaradi. Bu qolipga ancha-yillardan beri amal qilib kelinmokda. Lekin Ozod Sharafiddinov, Norboy Xudoyberganov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov, Akram Kattabekovlar bunday holatlardan mustasno. Umurzoq O'ljaboyev asarni hech qachon bir qolipga solib tahlil qilmaydi. Balki o'ziga xos tahlil uslubini yaratgan. U xoh Abdulla Qahhor asari bo'lsin, xoh Nazar Eshonqul asari bo'lsin, bir xil talab bilan tahlil qiladi. Olim, avvalo, bu asarning badiiy qiymatiga, badiiy so'z maqomiga ko'tarilgan-ko'tarilmaganligiga, kitobxoniga beradigan estetik zavq-shavqning qay darajada ekanligiga e'tibor beradi, so'ngra ilgari surilayotgan g'oyaning ahamiyat kuchidan kelib chiqib unga baho beradi. U qalbiga yaqin bo'lgan asarlarnigina tahlil qiladi, xolos.

“Bug'doy pishig'iga etmaganlar” qissasida kamchiliklar ham uchraydi. Ochig'i Nurali Qobul asarlarida kitobiylik illati mavjud. Hatto qahramonlarning o'y-kechinmalari ham juda silliq, grammatik jihatdan tugal, qandaydir jimjimadorroq chiqqan. Bu nuqson yozuvchining oldingi asarlarida ham bor edi. Qahramonlar quruq, kitobiy tilda gaplashadilar. Asar matnida uchraydigan ayrim so'zlarni hisobga olmaganda, undagi voqealarni ham, odamlarni ham muayyan bir



joyga mansubligini, takrorlanmas, o‘ziga xos belgilarni anglash, ajratish qiyin. Shu ma’noda yozuvchi xalq jonli tili xazinasidan kerakli darajada foydalanayapti, asarlardagi Sangzor vohasiga xos so‘zlashuv, hayot tarzi bilan bog‘liq fazilatni yaxshi ifodalashga muvaffaq bo‘lyapti, deyish qiyin.

Olimning yozuvchiga ikkinchi e’tirozi shundan iboratki, qissa tasvirida notekisliklar, uzilishlar, tumtaroqliklar bor. “Muallifning tasviriy-ifodaviy talqinida ham g‘alazliklar ko‘zga tashlanadi”, - deb asarning badiiy qiymatiga ta’sir qiladigan, so‘z san’ati darajasiga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qiladigan salbiy jihatlar haqida yuz-xotirsiz tanqid qiladi. Bu tanqidiy fikrlar juda jonli, kishini ishontiradi, shu bilan birgalikda yozuvchiga qattiq ham tegmaydi. Ayrim tanqidchilardek U. O‘ljaboyev kecha yomonlagan asarini bugun maqgab zamonasozlik qilmaydi. Aytilgan gap – otilgan o‘q. U maqtov yoki tanqid bo‘lishidan qat’iy nazar. U. O‘ljaboyev o‘zining xolis so‘zini aytishdan qaytmaydi. Chunki, avvalo, aytayotgan fikrni ming chig‘iridanda o‘tkazib, keyingina bayon qiladi. Shuning uchun ham ayrim tanqidchilarday “turtki” eb yurmaydi.

“Ko‘p bilgan emas, bilimi manfaat keltiruvchigina donodir”, - degan edi qadimgi yunon dramaturgi Esxil. Umurzoq O‘ljaboyev ham o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan, xalqqa manfaati tegayotgan, talabalarga “adabiyotning kuchini o‘tin yorishda” (A.Qahhor) emasligini tushuntirayotgan iqqidorli adabiyotshunos olimdir.

Olimni bugungi kunda o‘zbek adabiyotini o‘qitish masalasi tashvishlantiradi. Darsliklar bugungi kun talabiga javob bermayotganidan, yangi yozilgan maktab darsliklari esa yuqoridagi “eski olimlar”ga ma’qul bo‘lmayotganidan kuyunadi. Darsliklar faqat yozuvchi, shoirlarning tarjimai holidagina emas, balki asarlarning ilmiy, badiiy analizidan iborat bo‘lishi kerakligini gapiradi. Avvallari ham har bir asar sinfiylik, partiyaviylik, g‘oyaviylik nuqtai nazaridan baholanar edi. Bugungi mustaqillik sharoitida esa badiiylik birinchi o‘ringa chiqishi kerak, deydi olim.

Zahmatkash olim o‘zbek adabiyotining ravnaqiga ishonadi. Erkin A’zamov, Xayriddin Sultonov, Murod Muhammad Do‘st, Nazar Eshonqulov, Olim Otaxonov kabi talantli yoshlar adabiyotning shuhratini jahon miqiyosiga olib chiqadilar, deb umid qiladi.

Umurzoq O‘ljaboyev, avvalo, cho‘rtkesar, bir so‘zli, mehnatkash inson. Adabiyotshunos olim o‘z tashabbusi bilan viloyatdagi barcha yosh ijodkorlar boshini birlashtirdi. “Yosh ijodkorlar”, “Yosh adabiyotshunoslar”, “Yosh manbashunoslar”, “Yosh jurnalistlar” kichik maktablari ochilib, o‘qitish dasturlari ishlab chiqilib faoliyat ko‘rsatmoqda. Kelajakdagi bu maktablardan O‘zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yozuvchi va shoirlar etishib chiqishda Umurzoq O‘ljaboyevning ham katta hissasi bo‘ladi.

Umurzoq O‘ljaboyev – ustoz. Hozirgacha minglab shogirdlari bor. Eng katta shogirdi ustozidan o‘zib professor bo‘ldi. Yana biri Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Yana biri fan nomzodi, yana biri xassos talantli shoir Shuhrat Hakimov yana biri... qisqasi juda ko‘p.

Umurzoq O'ljaboyev o'zbek adabiyotshunosligiga o'ziga xos hissa qo'shdi. Bu hissa alohida e'tirof etildi. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga 1982-yilda a'zolikka qabul qilingan. Ustoz Umurzoq O'ljaboyev "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan edi. Ustoz universitetni yuragi, adolatlilikni ta'minlanishida, to'g'ri so'zni aytishda eng katta posbonlardan biri edi.

Umurzoq O'ljaboyevdan ko'plab ilmiy, publisistik kitoblar, ilmiy maqolalar qoldi. Demak, Umurzoq O'ljaboyev doim barhayot.

## **ПОЛВЕКА В УНИВЕРСИТЕТЕ**

*Мустафо БАЙЭШАНОВ,  
кандидат филологических наук,  
старший преподаватель кафедры Русского языка и литературы  
Гулистанского государственного университета.*

*С одним из видных в стране лингвистов и теоретиков узбекской литературы, доцентом кафедры узбекского языка и литературы Гулистанского государственного университета, кандидатом филологических наук, доцентом Умурзаком Улжабаевым я был знаком со второй половины 80-х годов прошлого столетия.*

Вот некоторые штрихи к его портрету: он среднего роста, крепкого телосложения. Голова покрыта густыми, седеющими, всегда аккуратно причесанными волосами. Лицо мужественное, смугловатое. Над густыми бровями широкий лоб. Взгляд глубоко посаженных глаз всегда с прищуром, уверенный, проникновенный. Нос прямой, с тонкой переносицей, расширяющийся к ноздрям. Губы тонкие, сомкнутые, характерные для взрывных и уверенных в себе людей. Держится всегда ровно, ходит твёрдой, быстрой походкой сильно занятого человека.

В людях высоко ценит прагматизм, ум, начитанность и преданность. Презирает предательства: переубедить его в этом плане почти невозможно. Сам он человек пунктуальный, со студентами, коллегами, друзьями и знакомыми открыт, того же ожидает от них. Много читает и работает. Я убеждён, что во многом благодаря ему на кафедре литературоведения создана высокая научная атмосфера, эффективно работает инновационная группа, и почти каждый член кафедры достиг определенной ученой степени. Умурзак Улжабаев работает в нашем университете с дня его образования, это более полувека. С 1990 года бессменно в течение 20 лет возглавлял кафедру "Узбекская литература". За эти годы произошло бурное развитие кафедры, сменились поколения, возрос ее авторитет в масштабе республики. Учеными кафедры профессорами А. Каттабековым, К. Юлдашевым было подготовлено несколько высокоценных монографий, выпущены учебники для высших учебных заведений и для общеобразовательных школ. Увеличилось количество направленных для обсуждения на кафедре диссертаций, что также подтверждает её возросший авторитет. Десятки выпускников

университета были привлечены к научной деятельности. Кроме того, установлено тесное сотрудничество с высшими учебными заведениями республики и многими научными центрами. В области стало традицией проводить творческие вечера с видными учеными, поэтами и писателями. Благодаря такому тесному сотрудничеству студенты отделения узбекской филологии имели возможность прослушать лекции академиков Салохиддина Мамаджанова, Б. Назарова, Героя Узбекистана Озода Шарафуддинова, профессоров Бегали Касымова, Умарали Норматова, Насимхана Рахманова, Баходира Саримсакова, Ибрагима Хаккулова, Казакбая Юлдашева и многих других.

В 2000 году при университете начали действовать кружки и малые школы по разным направлениям. Кружком "Молодого литературоведа" руководил сам У. Улжабаев. Не прошло много времени, как эти кружки стали давать свои плоды. Например, юные дарования Насиба Маматкулова выпустила сборник "Мои студенческие годы" (2002г. ), Элер Хужамбердыев - "Цена любви" (2003г. ), Севара Бекмурадова - "Чудеса" (2003г. ) и др. Все эти книги были изданы под спонсорством университета благодаря умелому руководству и организаторским способностям У. Улжабаева.

Умурзак-ака отлично владеет всеми тайнами литературоведческого анализа художественного текста. Пишет легко и просто, обладает собственным стилем, чётко владеет практически всех видов терминологий, обладает высоким уровнем аналитического мышления. Как теоретик литературы, в своих научных трудах он написал немало статей и монографий, с глубоким лингвистическим анализом рассказов и повествований, посвященных второй мировой войне.

Плодами его многолетних трудов стали более 150 статей и выпущенные в свет книги "Изображение мужества и стойкости" (1976г. ), "Некоторые вопросы создания характера в узбекской военной прозе" (1989г. ), "Штрихи на память" (1992г. ), "Своеобразие жанра узбекского рассказа периода войны" (2006г. ), "Правдивость художественного изображения" (2008г. ) и другие. Перечитывая и знакомясь с отдельными статьями литературно-критических сборников, убеждаешься в том, какой сложный и тернистый путь ученого-теоретика прошел он, что наизусть знает труды Аристотеля, Г. Лессинга, Д. Дюришина. Из русских ученых он глубоко симпатизирует таким, как В. Пospelов, Н. Гуляев, А. Изуитов и уже через собственные труды способствует сближению мировой литературы с узбекской. Также он хорошо знаком с исследованиями узбекских ученых-литературоведов И. Султана, М. Кошчанова, Х. Якубова, С. Мамаджанова, Б. Назарова и др.

В годы зрелости, когда его имя стало упоминаться наряду с ведущими теоретиками литературы страны, у него появились достойные ученики - К. Кубаев, М. Маматкулов, О. Файзуллаева, М. Сарibaева, Х. Ядгаров и другие. Своим же настоящим учителем и наставником Умурзак-ака всегда считал и считает известного общественного и научного деятеля Озода

Шарафутдинова, учёные труды и сама жизнь которого всегда служили и служат для него путеводной звездой. У. Улжабаев свои научные взгляды, убеждения и идеи как бы согласует убедительными теоретическими воззрениями своего наставника, что ещё раз подтверждает истину - возвышая своего учителя, возвышаешься и сам!

Сегодня, в дни празднования 75-летия Улжабая-ака, от имени всех коллег и тысяч его воспитанников, хочу пожелать ему крепкого здоровья и новых творческих успехов во славу нашей великой Родины.

## CHIN OLIMLIK SAODATI

**Sultonbek NORMAMATOV,**

*TDO 'TAU prorektori, filologiya fanlari doktori*

Odamiylikning talabu mezonlari ko'p. Bu mezonlar azaliy va abadiy, haqqoniy va o'ta shafqatsiz. Odam bo'lish qiyin. Olim bo'lish esa undan-da qiyinroq. Olim bu – odamning bilimdoni, ma'rifatlisi. Yaratilmish xilqatlar ichida faqat insongina bu nomga munosib. Lekin odam deganning barchasi ham olim bo'la olmaganidek, hamma olim ham odam bo'lavermaydi. O'zida odamlik va olimlik sifatlarini mujassam etgan inson tom ma'noda baxtli sanaladi. Ustozimiz Umurzoq O'ljaboyev mana shunday baxt sohibi edilar.

Abadiyat oldida inson umri lahzaga teng. Mana shu lahzani mazmunli umrga aylantirish qudrati faqat insonlargagina berilgan. Ustoz Umurzoq O'ljaboyevning umr yo'li va shaxsiyati haqida gap ketganda, qudratli bir daryo ko'z o'ngimizga keladi. Bu daryo mavjlari yarim asrdan oshiq vaqt davomida fan, ta'lim-tarbiya sohasida necha-necha qalblarni ilm va ma'rifat nuri bilan bahramand etdi. Domladan qolgan ibratli umr, insoniy fazilat va adabiy meros o'z sohibining hayot yo'lini chiroyli naqshlar bilan mengzaydi. Ustoz haqida o'tgan zamonda gapirish naqadar og'ir bo'lsa-da, bir shogird sifatida ilg'ay olganim, tushuna olganim va havasmand sifatida ibrat olganim ayrim sifatlarini ta'kidlashni joiz deb bildim:

Birinchisi, domla qariyib yarim asrdan ortiq umrini Guliston davlat universitetida ta'lim sohasiga bag'ishladi. Bu davrda ta'limiy jarayon bilan birgalikda akadem olim sifatida o'zbek adabiyotshunosligiga oid ilmiy asarlari bilan doimo ilmiy-adabiy jamoatchilikning e'tiborida bo'lib keldi. Domlaning ilmiy asarlari ko'p emas, biroq ilmiy salmog'i jihatidan XX asr o'zbek adabiyotshunosligida munosib o'rniga ega. Jumladan, "Xotirada chizilgan izlar", "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari", "Urush davri o'zbek hikoyachiligi", "Badiiy tasvirning haqqoniyliigi", "Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati" kabi asarlarini kuzatar ekanmiz, munaqqid badiiy asarni yangicha ohang, teran mazmun, hassos ovoz bilan tahlil qilganligini va yangidan-yangi badiiyat manzillarini ishg'ol qilishga harakat qilganligini ko'ramiz. Bu tadqiqotlar tom ma'noda badiiy asarni estetik talqin etishning nazariy fikr va falsafaga yo'g'rilgan kashfiyotlaridir.

Ikkinchisi, ellik yildan ortiq pedagogik faoliyatlari davomida ta'lim sohasidagi islohotlarni, ular zamiridagi yangiliklarni, ilg'or qarashlarni har doim o'quv jarayoniga amaliy tatbiq etib keldilar. Hamkasblari A.Kattabekov, V.Rahmonov, R.Majidov, O.Suvonov, Q.Yo'ldoshevlarga 90-yillarda o'zbek adabiyoti fani bo'yicha oliy o'quv yurtlari hamda maktab darsliklarining yangi avlodini mafkura, sinfiy-partiyaviy yondashuv, ruslashtirish siyosatidan xoli tarzda yaratish ishlarida hammaslak bo'ldilar. Universitetda adabiy ta'limni yangi bosqichga ko'tarishda yigirma ikki yil davomida kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritib, bu ishlarga bosh-qosh bo'ldilar. Mazkur davrda universitetdagi "O'zbek adabiyoti" kafedrasini ilmiy salohiyat, pedagogik mahorat masalasida mamlakatimizda tayanch muassasa hisoblangan O'zMUning yetakchi kafedralari bilan tengma-teng maqomda bo'ldi.

Uchinchisi, domla adolatli inson, zakiy olim, oliy darajadagi sifatlarga ega pedagog edilar. Shu sababli bo'lsa kerak, tolibi ilmlarning ko'pchiligi domlaning etagini tutishga, ilm yo'lida domla bilan mashatlashishga harakat qilishdi. O'z navbatida, ustoz ham kimniki qanotlari ostiga olib ilm yo'lida rahnamolik qilgan bo'lsalar, biror shogirdining ishiga befarq bo'lmadilar, aksincha, aniq talabni qo'yidilar va aniq natijani kutdilar. Ba'zida shogirlari yutug'idan suyunib, tashvishidan kuyunib yashadilar. Ayni natija xususidagi xulosa aniq va lo'nda: tolibi ilm yaxshi olim va yaxshi odamning etagidan tutib, ustoz ataydi. Chin olimning a'moli ham o'zidan keyin munosib shogirdlar qoldirish, ma'rifat daryosining bir tomchisiga aylanishdir.

To'rtinchisi, domla to'g'rilik oldida kamtarin, kamsuqum, sokin odam edilar. Bunday odamlar, albatta, ikkiyuzlamachilik, xiyonatdan begona bo'lishadi. Domla to'g'rilik oldida qancha xalim bo'lsa, egrilik qarshisida shu qadar shafqatsiz, murosasiz odam sifatida namoyon bo'lar, aytish mumkinki, haqiqiy jangchiga aylanar edi. Bunday sifatni o'z hayotiy mezoniga aylantirgan kishilarning hayoti har doim ham oson kechmagan. Shunday bo'lsa-da, domla to'g'rilik oldida qat'iyatli, egrilik oldida matonatli bo'lib, havas qilarli umrni kechirdilar. Domlaning adolatsizlikka, nohaqlikka qarshi murosasiz janglariga guvoh bo'lganlar ko'p.

Beshinchisi, domla o'zlarida yuksak madaniyatni, kishida zavq uyg'otuvchi noyob ma'rifatni singdirgan inson edilar. O'zlarida ortiqchalik bo'lmaganidek, so'zlarida ham ortiqchalik yo'q edi. Qaysiki inson u kishi bilan suhbatdosh bo'lsa, albatta, bu suhbatdan o'ziga kerakli nimanidir olardi. Domladagi samimiylik, vazminlik, mulohazalik, mantiqlilik, o'rni kelganda, yumor bilan hamohang holda yetkaziladigan nutq irodi suhbatdoshni zeriktirmasdi. Shu sababli bo'lsa kerak, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Ali kabi shoiru yozuvchilar bilan; Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Begali Qosimov, Omonulla Madayev, Yormat Tojiyev, Ulug'bek Dolimov kabi tilshunosu adabiyotshunoslar bilan, qolaversa, universitetdagi hamqadamlari bilan umrlari so'ngigacha do'stona, samimiy munosabatda bo'lib yashadilar.

Ziyolining qadr-qimmatini o'zi mansub millat va avlod ma'naviyatiga qay darajada hissa qo'shgani bilan belgilanadi. Bu borada ustoz Umrzoq

O'ljaboyevning o'rnini ko'rsatishda yana bir qancha sifatlarni keltirish mumkin. Yuqoridagilar bir shogird sifatida mening bilganlarim, anglaganlarim xolos. Domla nafaqat ilmiy, ilmiy-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati bilan, balki olimlik va odamiylik fazilatlarini ham chin ma'nodagi USTOZ maqomiga ega bo'ldilar.

Ko'plab shogirdlarining samimiy va mehribon ustozlari, zabardast olim Umrzoq O'ljaboyevning yorqin xotirasi hamkasblari, shogirdlari va yaqinlari qalbida abadiy saqlanib qoladi.

Ilohim, USTOZning ruhlari shod, oxirlari obod bo'lsin...

## **ODAMLIK VA OLIMLIK SABOQLARI**

*Sirdaryoxon O'TANOVA,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Bu besh kunlik o'tar dunyoning o'zgarish qonunlari hech bir insonni chetlab o'tmas ekan. Qismat charxpalagi tom ma'noda INSON nomiga loyiq ustozimiz Umrzoq O'ljaboyevni ham chin dunyoga olib ketdi.

Voqelikning asliga boqilsa, 80 yoshga kirish, kirganda ham Ustoz kabi sharaf bilan etish juda ozchilikka nasib qiladi. Boz ustiga, o'lkadan o'lkalarga, mamlakatlardan mamlakatlarga, okeanlar osha qit'alarda yaqin ikki-yildan buyon kezib yurgan "Kovid" otli ayovsiz ajal millionlagan kishilarning bevaqt umrini xazon qilayotgan bir paytda hatto nafaqa yoshiga etib olish ham oson bo'lmay qolgandek... O'zimga shunday taskinlar berib, ovutmoqchi bo'laman, ko'nglimdan toshib ketayotgan og'riqli yig'ini nari surgim keladi.

Bandasiga berilgan hayotni qadr qilib, unga ezguliklar ila amal daftarini to'ldirib borishning bir imkoniyati, deb qarab, mazmun bag'ishlash ham Insonga eng katta saodat ekanligini Ustoz Umrzoq domla misolida yurak-yurakdan his etdim.

Hozir xotiralarga cho'mib o'tirar ekanman, Samimiylik Domladagi eng asl fazilat bo'lganini tuydim. Hatto telefonda ham bu xislati sezilib turar edi: *"Qandaysan? Charchamayapsanmi? Sog'liklaring yaxshimi? Tinch o'tiribsanmi? Hamma yaqinlaring omonmi?"*

Bir men emas, hamma buni e'tirof qilsa kerak, Domla suhbatdoshi bilan hech kimga o'xshamagan tarzda dildan hol-ahvol so'rashardilar. Shoshilmasdan, astoydil, yurakdan gaplashardilar. Har vaqt Domladagi bag'rikenglik, ko'ngildoshlik menga ko'tarinkilik berar, toriqib turgan bo'lsam, yuragimning g'uborlarini tarqatib yuborardi.

Domla chamasi ikki oylar burun (2021-yil ning may oylari edi) qo'ng'iroq qilib qoldilar. O'zlarining bir qancha-yililgari nashr qilingan "Ma'naviyatga baxshida umr" kitobini to'ldirib, chop etish istagi borligini, shuning uchun mazkur kitobning elektron shaklini qaytadan tayyorlasa bo'ladimi-yo'qmi, deb so'radilar. "Albatta, bo'ladi", - dedim. Unda uylariga borib, kitobni olib ketishim kerakligini aytdilar. Darrov maqtanchoqlik qilib o'zimdagi kitobdan borligini, o'sha nusxa bo'yicha ish boshlashim mumkinligini aytibman. Hozir endi armonlar ichimni

tirnaydi: shu bahona bormaymanmi o‘zlari chaqirib turganda? Axir, Domlaning o‘ta jiddiy tobi yo‘qligini eshitib-ko‘rib turibmiz, u kishiga tasodifan kovid yuqtirib qo‘ymalik, deb yo‘qlashdan necha martalab ti- yilishga majbur bo‘lganmiz. Vaziyat tabiiylik kasb etganda, nima to‘sgan ekan... Ulg‘aygandan keyin o‘zi odamzotning ko‘p umri taassuflarga ketadi shekilli...

Vafotlaridan bir hafta oldin mazkur kitobning namuna nusxasini ko‘rsatish uchun u kishining xonadonlariga borgandim. Bir muddat mazkur kitob yuzasidan gaplashdik, maslahatlashdik. Kitobga nom qo‘yish masalasida Domla, kennoyi – Risolat opa uchalamiz ancha muzokara qildik. Kitobga boshlab “Ma’naviyatga baxshida umr”, “Umrzoqlikning nurli manzillari”, “Komillikning nurli manzillari” degan nomlar tanlangandi. O‘sha kuni kitobning “signal” nusxasini varaqlagan prof. Ibrohim Haqqul kitobni “Komillik – nurli manzil” tarzida sal o‘zgartirish taklifni berganlarini Umrzoq akaga aytdim. Domlaga ham ma’qul kelganday bo‘ldi. Axiyri, “Nurli manzillarga intilib...” degan nom ustida bir to‘xtamga keldik...

O‘sha kuni Domla yaqin ikki-uch soat davomida bosib o‘tgan yaqin 70-yil lik hayot yo‘lini – ming bir mashaqqatlar bilan kechgan bolaligini, o‘quvchilik, talabalik, aspirantlik, qadrdon ish joyi – Guliston davlat universitetidagi ish faoliyatini so‘zlab berdilar. Aftidan, bu suhbat bilan Domla menga nega bu kitobga shunaqa nom tanlaganiga o‘sha paytda birmuncha izoh bermoqchi bo‘lgandilar.

Umrzoq Domla ahli oilasiga mehribon, ustozlariga oqibatli, do‘st-birodarlariga sadoqatda tengsiz edilar. Ha, bu gaplarda hech qanday mubolag‘a yoki shunchaki marhumning ortidan gapirilishi lozim bo‘lgan rasmiyatchilik ham yo‘q, shogird o‘laroq aytishimni taqozo qiladigan majburiyat ham yo‘q, maqtalishga hojat ham yo‘q.

Domla tanish-notanish odamlarga yordam qilib ketaveradigan odam edilar. Qariyb 55-yildavomida ming-minglab talabalarga adabiyotdan saboq berdilar. Men kabi yuzlab shogirdlari yuragiga chin odamiylik niholini qadab, qo‘llaridan kelgancha suyab, yana hech bir ta‘ma qilmasdan, bizning yutug‘imizga bizdan ko‘proq quvonib yurardilar.

Gulistonda magistraturani o‘qib yurgan kezlarimda, yaqin do‘stlaridan biri Domlaning oqibatlari haqida gapira turib: “Umrzoq Sho‘ro‘zakdagi singlisining sigiri tug‘sa ham yo‘qlab qo‘ymasa, ko‘ngli tinchimaydigan odam”, - deb hazil qilgandi. Darhaqiqat, ana shunday fidoyi, jonsarak edilar rahmatli domlam! 2015-yil nikoh to‘yimizga taklif qildik Domlani. U kishi jiddiy bir sabab bilan kela olmadilar-u, ammo kelganlaridan ziyoda qilib menga tabrik maktubi yuboribdilar. O‘sha qutlov xatini bugun yana bir bor o‘qir ekanman, ko‘nglim o‘sha kundagiday yorishib ketdi. Umrzoq domla nainki Ustoz, balki bir Ota kabi yangi hayotimga oq fotiha tilagan noyob tabiatli, ko‘ngli daryo Hazrati Inson edilar. Kezi kelganda, bir varaq qog‘ozga besh-o‘n qator qilib bitilgan so‘zlar bir oilaning darz ketmay,-yillar davomida satriklar ortidagi chin yurakdan bildirilgan tilaklar hurmatini saqlashiga undab tursa ne ajab!

2001-yilda besh-yil lik bakalavr ta'limini Jizzax DPIda tamomlaganimdan so'ng ustozim, filologiya fanlari doktori Usmonjon Qosimov ishga qolish taklifini berdilar. Biroq magistraturada o'qishim lozimligini aytgach, institutimizda hali mazkur ta'lim bosqichi yo'lga qo'- yilmagani uchun Guliston davlat universitetida magistratura ochilgani, o'sha erga hujjat topshirishimni maslahat berib, Umrzoq domlaning nomlariga bir enlik qog'oz ham yozib berdilar. Xatni olib, qishloqqa keldim. Dadam rahmatli ming bir o'ylar bilan meni Sirdaryoga kuzatdilar. Universitetning dastlabki magistrilaridan bo'ldim. Davlat granti asosida o'qishimni faqat va faqat O'ljaboyev domlaning xolis ko'magi hamda do'sti Usmonjon Qosimovga nisbatan hurmatidan deb bilaman.

Endi o'ylab qaragam, Domlaning Ilmga e'tiqodlari tasavvurimdagidan ko'p yuqori bo'lgan ekan. Qachon ish kabinetlariga kirsak, o'zlarining tog'day uyulib yotgan ishlari bo'lsa ham, albatta, biz bilan, bizning muammolarimiz bilan qiziqar edilar. O'qish davomida barcha magistrilarning Toshkentga borib, u erdagi talabalar bilan teppa-teng, bir partada ma'ruzalar tinglashimizni ta'minlab berdilar. Poytaxt kutubxonalaridan foydalanishimiz uchun o'zlari universitet rektori Azimjon Parpievning yoniga kirib bizga xat qildirib berar, so'ng O'zbekiston Milliy Universiteti, O'zbekiston Fanlar akademiyasida ishlaydigan nuktadon olimlarga yo'llar ekan, ularga bizning borishimiz haqida sim qoqib, ogohlantirib ham qo'yardilar. Qaytib kelganimizdan so'ng har birimizdan bir-bir taassurotlarni, natijalarni erinmay so'rab-surishtirardilar. Qator-qator tolibi ilmlarning o'z yo'llarini topib ketishida Domlaning xizmati borligini minnatdorchilik so'zlarimga sig'dira olmayman. Ota-onam umrlarining so'nggiga qadar bu kishidan minnatdor bo'lib, duo qilib o'tdilar.

Umrzoq domla Sirdaryo viloyatining yuragi, hurmati baland, ardoqli muallimi, Haqni haq deb o'z o'rnida, hech qanaqa ikkilanishlarsiz ayta oladigan, o'zlari bilmagan holda mazkur hududning adolat tarozisi edilar. Shu satrlarni o'qiyotganlar, ya'ni Domlamizni sal taniganlar ham, gaplarimni ikkilanishlarsiz tasdiqlashlariga ishonaman. Domlaning universitetda borligining o'zi o'sha dargohning har bir a'zosi ongida adolat borligiga ishonch hosil qilgan edi. Yo'nalishi va darajasidan qat'i nazar, barcha boshliqlar domla bilan hisoblashishga o'zlari majbur qolar edilar.

Darvoqe, Domlaning biror tutumida, yurish-turishida, darslarida, yozganlarida, munosabatlarida yasamalik yo'q edi. Hammasi tabiiy edi. Tartibli kiyinishi, intizomi, ozodaligi, yurish-turishi ko'rgan kishini yana bir bor havas bilan ortiga qayrilib, qarab olishga majbur qilard edi.

Guliston davlat universitetida beg'arazlik bilan olib borgan pedagoglik, mudirlik faoliyati davomida fakultetda yoqimli ilmiy-ijodiy iqlim yaratishga erishgan edilar. Domla rahbarlik qilgan adabiyotshunoslik kafedrasida talabalarga chuqur bilim berishda ilg'orligi bir taraf, jamoa a'zolarining tozaligi, hech birida poraxo'rlik, ta'magirlik yo'qligi yolg'iz Guliston davlat universitetida emas, respublikada miqyosida ham ma'lumu mashhur.



Umrzoq O'ljaboyev domla o'nlab kitoblari, uch yuzdan ortiq maqolalari bilan o'zbek adabiyotshunosligida o'zining qat'iy o'rnini topgan halol sinchi, zakiiy olim edi.

Domla biz magistr'larga "Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti" fanidan dars o'tganlarida, Abdulla Qahhorning "Ko'k konvert", "Asror bobo", "Kampirlar sim qoqdi", "Botirali", G'afur G'ulomning "Mamag'voy tushundi", Said Ahmadning "Mastonbibi", "Iroda" singari hikoyalarni rosmanasiga o'qib chiqqanman. Nega shunday deyapman? Domla asarning mazmun-mohiyatini, badiiyatini, yozuvchining so'z qo'llash mahoratini shunchalar izchillik bilan tushuntirar ediki, "Nahotki, shunday ekan?" deb avval o'qiganim bu hikoyalarni qaytadan o'qib chiqar edim, haqiqatan matnda ko'plab jihatlarga e'tiborsiz o'tganimni tushunib etardim.

Olimning "Harbiy nasrimiz ufqlari" maqolasida adabiy jarayonga g'oyat sinchkovlik bilan tashxis qo'yadi, hodisalarning tub sabablarini sinchkovlik bilan qidiradi, asosli tanqid qiladi: *"So'nggi 10-15-yil lik muddatda esa harbiy prozada oldingidek shov-shuv'larga sabab bo'ladigan yirik asarlar nisbatan kam yaratildi. Bu davrda Ikkinchi jahon urushi davri hayotini badiiy tadqiq etish ko'proq kichikroq janrlarda, masalan, qissachilik va hikoyachilik kabi adabiy shakllarda amalga oshirildi, desak xato bo'lmas. E'lon qilingan asarlarning hammasining ham badiiy darajasi birdek yuksak deb bo'lmaydi, albatta. Ularning ichida o'sha davr hayotini, odamlari qiyofasini bir lahzaga bo'lsa-da, yarq etib yoritadigan, shu tariqa kitobxon xotirasida u yorug' bir iz qoldiradigan asarlar ham bor. Shu bilan birga na davrning murakkab hayoti, fojiviy ruhini, na cheksiz matonat va qahramonliklarini tuzukroq gavdalantirib bera oladigan asarlar ham uchraydi. Ehtimol, Ikkinchi jahon urushi davri hayotiga bag'ishlangan asarlarning miqdoridan unchalik shikoyat yo'qdiru, lekin ularning badiiylik darajasiga kelganda har xil baland-pastliklarga duch kelamiz"*.

Shu birgina ko'chirmaning o'ziyoq Domlamizning zakiiy ilm sohibi, nigohi teran va halol tanqidchi bo'lganiga dalolat qiladi. Ustoz tadqiq qilgan soha – Ikkinchi jahon urushi mavzuning har vaqt dolzarbligi bir taraf, uning fojeali oqibatlarini har vaqt yuraklarda bitmas chandiq qoldirishini bugungi dolg'ali zamon ham tasdiqlab turibdi. Demak, urush insoniyatning zavoli ekanini aqlan, qalban tushunish uchun ham shu mavzudagi asarlarga va ularning jiddiy, tizimli tahliliga ehtiyoj borligi Domlaning ilmiy tadqiqotlaridan ma'lum bo'ladi. Badiiy tahlil yuzasidan saboqlarim ana shunday boshlangan edi.

Men har gal fakultetga borganimda, kelgusida men ham shunday bo'laman, degan tilakni dilimga tugib qaytardim. Domla o'z hayot tarzi bilan qanchalab shogirdlari ko'nglida shunday niyat uyg'otgan bo'lsalar... To'g'risini aytsam, filologiya fakultetini tugatgan bo'lsam ham, (Jizzaxda o'qitgan ustozlarim meni kechirsin) chinakam adabiyot nimaligini Guliston davlat universitetidagi o'qishim davomida anglab etgandim.

Domlaning olamdan o'tganini eshitdimu, dilim vayron bo'lib ketdi. Qarshida edim, darhol yo'lga chiqdim. Kela-kelguncha yig'lab keldim...

Domlajon! Ruhingiz shod bo'lsin! Tasavvurimda har vaqt Jannati Inson timsoli edingiz, ilohim, Alloh taolo rahmati ila Sizni oxiratda aziz qilsin! Hamisha yuraklarda yashaysiz, Ustoz!

### “...ENDI DAVRON QAYDADIR”

*Omon SUVANOV,  
GulDU katta o'qituvchisi*

Hayotda ulug', buyuk insonlar ko'p. Ular aql-zakovati, axloq- odobi, masulligi, mehnat sevarligi, fidoyiligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday kishilar o'zining manfaatidan o'zgalarning huzur- halovatini ustun qo'yishadi. Buyuk bobokalomimiz Alisher Navoiy ta'kidlaganlaridek:

*Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo 'q xalq g'amidin-g'ami.*

Buyuklik yoki ulug'lik martabasiga erishmoq uchun odamlarning holidan ogoh bo'lishlik, ularning mushkilotlarini yengillashtirish, beg'araz yordam qo'lini cho'zishlik chin ma'nodagi odamgarchilik ekanligi qayd qilingan. Ayrim kishining odamgarchiligini belgilashda o'zgalarga bo'lgan munosabati, g'amxo'rlik ko'rsatishi, uning evaziga hech narsa kutmasligi e'tibor markazda bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan. Shu kabi fazilatlarga ega bo'lgan kishilar xalq orasida ulug', hatto buyuk deb e'zozlanadi.

Jamiyatda o'z qobiliyati, xizmatlari, fidokoronalik bilan amalga oshirgan ezguliklari, ahamiyati yuqori bo'lgan ishlarni doimiy bajargan kishilar ulug'lik maqomiga erishgan hisoblanadi. Mening nazarimda ulug'likdan buyuklikka o'tiladi. Ulug'lik fazilatlariga ega bo'lgan insonlarning yuksak, tengsiz, mislsiz darajalarga ko'tarilishi buyuk simoga aylanishini ta'minlaydi.

Ulug'lik va buyuklikning o'ziga xos darajalari bor ekanligi hayotda isbotlanib kelinmoqda. Ma'lum bir davrda ayrim toifadagi odamlarga oddiy ko'ringan kishilar boshqa bir zamonda hamma uchun ulug' siymolarga aylanadi. Masalan, Jadidlar qoralandi, oqlandi, ulug'landi. Axli dindorlar ham shu yo'lni bosib o'tdi, bugun ulug'lanmoqda.

Ulug' va buyuk shaxslar kelajak avlod uchun o'zidan moddiy yoki ma'naviy meros qoldiradi. Ushbu meros qadrlanganda ulug'vorlik yanada ortadi.

Hayot paytida ulug'likka da'vo qilmasdan, o'z zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarib borgan, iste'dodi doirasida ilmiy-ijodiy ishlar bilan shug'ullangan insonlar orasida do'stimiz Umurzoq O'ljaboyevning borligi ko'ksimizni tog'dek ko'taradi. Ellik yilga yaqin vaqt orasida hamkorlikdagi faoliyatimiz, do'stona samimiy munosabatimiz, tug'ishgan og'a-inilardek mehirmuhabbatimiz umrimizni mazmunli, zavqli va samarali bo'lishiga salmoqli hissa qo'shgani ayni haqiqatdir.

Qadrdon kishi yoningda turganida beqiyosligi, suyanch tog'ing ekanligi har doim ham e'tiboringda bo'lavermas ekan. Ba'zan shaxsiy muammolar, turmush

tashvishlari o‘zing bilan o‘zingni bant etib qo‘ygan paytlarda do‘stning ko‘nglini ovlash orqaga surilishi sezilmagan holda sodir bo‘laveradi.

Mehribon do‘stimiz, dono maslahatgo‘yimiz, fikrdosh va sirdoshimiz Umurzoq O‘ljaboyev bugun safimizda yo‘q. Og‘ir, biroz surunkali bo‘lgan hastalik u kishini qatorimizdan olib ketdi. Qalbimizda alamli iz qoldirgan, musibatli kunlarning sodir bo‘lganiga ham yaqin bir yil bo‘lmoqda. Vaqt o‘tgani sayin do‘stimizning qadri ortib bormoqda. Tez-tez ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi, tushlarimizga kirib chiqadi. Umurzoqona maslahatlar beradi, keksalikka, xastalikka yon bosmasligimizni ta‘kidlagan bo‘ladi. Ba‘zan ruhiyatimizni ko‘klarga ko‘taradi, gohida mahzun kayfiyat qoldiradi. Hayot bo‘lganlarida sakson yoshga to‘lgan bo‘lar edilar. Afsuski bu sanani o‘zisiz qarshi olmoqdamiz. Na iloj, Allohdan joylarini jannat bog‘larida bo‘lishini, oxiratini obodligini, qabrining, Qur‘on” nuri bilan nurafshon bo‘lishini tilab qolamiz.

Do‘stim Umurzoq tufayli ko‘p ulug‘ insonlar bilan tanishdim, davralarda ishtirok etishga muyassar bo‘ldim. Buyuk olim, dono ustoz, tengsiz aqil-idrok sohibi Ozod Sharafiddinovning mo‘jizakor fikr va qarashlaridan bahramand bo‘ldim. Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimov, Begali Qosimov, Ubaydulla Roziqulov, Muhammadjon Bobojonov, Shavkat Karimov, Rahmatulla Hadyatullayev, Ulug‘bek Dolimov yana ko‘plab ijodkorlar bilan tanishish ularning aqil-zakosidan ibrat olish vaqti menga nasib etdi. Ilmiy-ijodiy ishlarini ishtiyoq bilan kuzatib, o‘rganib bordim.

Hozirgi niyatim, do‘stim Umurzoq O‘ljaboyevning nayob, yoshlarga ibratnamuna bo‘ladigan fazilatlari haqida so‘zlab berish, dildagi oh-nolalarni, g‘uborlarni yengillashtirish bo‘lsada, keksalikning ezmaligi bo‘lsa kerak, ko‘proq o‘zim haqimda bayon etib turibman. Ayibga buyurmasliklaringizni so‘rayman. Chunki mening, “Men” bo‘lishimda Umurzoqning o‘rni beqiyos. Tirikligida aytilmay qolgan dil izhorimni kech bo‘lsada e‘tirof etishni ma‘qul ko‘rdim.

Men Umurzoqning siyomosida komil insonni ko‘rganman. Uni “Komillik belgilari”, degan maqolada qisman ifodalagan edim. Ushbu fikrimni davom ettirib u kishining komillik qirralardan yana biri haqida bilganlarim va bevosita guvoh bo‘lganlarimni e‘tiboringizga havola etmoqchiman.

Shaxs komilligining asosiy belgilaridan biri uning fidoyiligi hisoblanadi. Men tanigan, bilgan kishilarning orasida haqiqiy fidoy, sadoqatlilaridan biri so‘zsiz ustoz Umurzoq O‘ljaboyev hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida (T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020, 4-jild, 342-bet) fidoyilikka quyidagicha izoh berilgan: “Fidoyilik o‘z tanlagan yo‘li, maslagi, g‘oyasiga kasbu koriga yoki biron kimsaga sodiqlik, o‘zini baxshida etish “Fidoyi so‘zi (arabcha) – o‘z jonini qurbon qiluvchi ma‘nosini bildiradi, Biron kimsa, narsa yoki g‘oyaga astoydil berilgan va ular uchun jondan kechishga ham tayyor: Sodiq” (342-bet). Ushbu izohlardan sezilib turibdiki, fidoyi inson o‘zining ma‘naviy dunyosi yo‘lida jonidan ham kechishga tayyor bo‘lar ekan. Huddi shu fazilat Umurzoq domlada mukammal mavjud ekanligi hammaga ayon.

Fidoyilik mening nazarimda ko'p qirrali, hayotning barcha jabhalarida namoyon bo'ladigan, foyda-zararga ajratilmaydigan, faqat savob uchun amalga oshiriladigan tizimli hodisadek seziladi.

Ustoz Umurzoq O'ljaboyevning fidoyiligi haqida fikr yuritilganda eng avvalo ota-onasiga, ahli oilasiga, tug'ishganlariga, el-yurtiga bo'lgan munosabatni tasavvur etmoq joizdir. Farzand sifatida ota-onasiga ko'rsatgan fidoyiligi nihoyatda ibratli.

Umurzoqning otasi O'ljaboy aka o'z davrining ilg'or kishilardan biri bo'lgan. Mehnat sevarligi, tadbirkorligi, tashkilotchiligi tufayli el-yurt orasida yaxshigina hurmat qozongan. Otamakon Jo'shning Bozorjoy qishlog'idan ko'chirma qilinib, avval Jomboyga, keyinchalik Sirdaryoning to'qayzor ovuliga joylashgan. Paxtachilik brigadasining boshlig'i bo'lib, rayonda eng ko'p hosil yetishtirib shuhrat qozongan.

O'ljaboy aka nihoyatda mas'uliyatli bo'lib, aka-ukalarni ko'rish, sillayi rahimni ado etish niyatida Samarqandga, Jomboyga, Qo'shrabotga, Jo'shga tez-tez borib turgan. Qahraton qishda tobi bo'lmay qolgan og'asini ko'rib kelish uchun Jo'shga yo'l olgan. O'tgan asrning oltmishinchi-yillarida yo'lovchi tashiydigan mashinalar juda kam bo'lgan. Yuk mashinaning ustida choponiga o'ralgan holida izg'irin sovuqqa chidab yo'l bosgan. Yo'l qor muz bo'lganligi asfaltning tayinli bo'lmagani uchun mashina juda sekin yurgan. Mashina xaydovchilari Do'nkillakdan o'tsak uyga yetganimiz bo'ladi, deb xisoblashar edilar.

Qo'shagoch qishlog'iga yetmasdan, eng baland tepalikni mahalliy odamlar Do'nkillak deb ataydilar. Atrofdagi qishloqlar ko'rinib turadi. Bahorda Do'nkillak saylgohga aylanadi. Yaqin qishloqlar, Yiboshini shu yerda o'tkazadi.

Mitan qo'rg'onidan chiqqanidan keyin yo'l balandlikka ko'tarilib boradi. Qo'shrabotga yaqinlashganda Do'nkillab tepaligi bor. Mashina shu yerga yetganida to'xtab qolgan. Mashinaning haydovchi o'tiradigan joyiga to'rt kishi tiqilib o'tirishgan. Mashinaning yurmasligiga ishonch hosil qilgach O'ljaboy aka piyoda yo'lga tushgan. Kech kirib hamma yoqni qorong'ulik bosgan. Qalin qor bilan qoplangan joyda katta- kichik chuqurliklar qor bilan to'lib tekis ko'rinib qoladi. Yo'lovchimiz shunday chuqurlikning biriga tushib ketadi. Odam bo'yidan ancha baland bo'lgan qorli jarlikdan chiqishning iloji yo'q. Shunday bo'lsada baland ovozda Allohga iltijo qilib chiqishga harakat qilavergan.

Sigiri podadan qaytib kelmagan yigit arqonni yelkasiga tashlab qishloq chetiga chiqqan. Ancha joyni qidirib sigirini topa olmagch hafsalasi pir bo'lib orqasiga qaytmoqchi bo'lganda yo'ldan chetroqda qandaydir ovozni eshitgan. Sigirim topildi deb hursand bo'lib borib qarasa mol emas, odam borligini ko'rgan. Sigirni yetaklab ketish uchun olingan arqonni uzatib, amal-taqal qilib O'ljaboy akani chuqurlikdan tortib chiqargan. Muzlab qolgan qo'l va oyoqlarda yurishga majol qolmagan ekan. Pahlavongina yigit yelkasiga ko'tarib uyiga olib kelgan. Kiygizga o'rab, sandalga joy qilib yo'lovchini o'limdan hayotga qaytargan. Ertasiga tanishib, aka-uka tutinib, ko'pkariga minadigan oti bilan manzilga olib borib qo'ygan. O'ljaboy aka umrining oxirigacha bir o'limdan qutqargan Tirkash

aka bilan bordi-keldi qilib, tug‘ushganlar bo‘lib, bir birlariga mehr-muruvvat ko‘rsatib yashadilar.

Umrzoq otamning xaloskori deb Tirkash akani izlab topdi. Kasbdosh do‘sti professor Abduvoit Pozilov bilan birga borib ko‘rishdi. Bosh –oyoq sarpo sovg‘a qilib Tirkash akaning duosini oldi. Uzoq-yillar (Tirkash aka vafot etgunlarigacha ) u kishining holidan habar olib turishni o‘zining burchi deb bildi.

Ustoz Umrzoq O‘ljaboyev bemorlarning holidan xabar olish, keksalarni ziyorat qilish, ehtiyojmandlarga yordam uyishtirishni kanda qilmas edi. Otasining Qayim bobo degan akalari bo‘lar edi. Qayim bobo tirikligida sal kam afsonaga aylangan polvon, ko‘pkariboz, otning shaydosi bo‘lgan kishi sanalardi. O‘zbekistonnig hamma joyida bo‘lgan ko‘pkari chopib dong taratgan, qo‘lgan kiritgan solimlarni beva-bechoralarga tarqatadigan jo‘mart kishi edilar. Keksayganida ham zotdor otini deraza yaqinida saqlab, o‘tgan umrini, ko‘rgan - kechirganlarini xotirlab o‘tirar edi.

Bir kuni Umrzoq ikkalamiz Qayim boboni ko‘rgani bordik. Arzimas sovg‘a -salomimiz u kishining ko‘nglini juda ko‘tarib yubordi, xursand bo‘lganidan Toyir aka ismli o‘g‘liga xo‘roz so‘yib bizni mehmon qilishni buyurdilar. Meni yangi ko‘rgani uchun kim ekanligimni, qaysi joydan ekanligimni so‘radilar. Mitandanman deganimda u yerda mening tanishim bor, kasbi doctor, ismi Mahmud dedi. Mening Mahmud akam Samarqand tibbiyot bilim yurtini bitirganida Qayim boboning qishlog‘iga borib ishlagan ekan. Tanish bo‘lib chiqqanimizni bilib, qulfi dili ochilib boshidan kechirgan ibratli voqealarni so‘zlab berdi.

Suhbat orasida har o‘n-o‘n besh daqiqada chuqur xo‘rsinganday bo‘lib, O‘tdi davron, ketdi davron, endi davron qaydadir” deb takrorlab turdi. Hangomamiz uzoq davoim etdi. Tansiq taom qovrilgan xo‘rozni pok-pokiza yeb bo‘lib, omin qilishlarini so‘radik. Bizga javob bergisi kelmasada ishlariga boringlar deb xayirlashdi. Eshikdan chiqayotganimizda Qayim boboning mungli ohangdagi, O‘tdi davron, ketdi davron, endi davron qaydadir” degan nolasi eshtildi. U kishi bilan birga bo‘lganimizda O‘zbekiston jo‘g‘rofiyasidan mahorat darsi tinglagandek bo‘ldik. Uzoq yillar Umrzoq bilan dardlashib qolganimizda Qayim boboning mungli nolasi, hikmatga boy hikoyalarini eslab yurdik. Yoshimiz yetmishdan oshib saksanni qoralab qolganda, O‘tdi davron, ketdi davron, endi davron qaydadir” ning mag‘zini chaqqandek, ma’nosini anglagandek bo‘ldik. Bu haqida yozish kerakligini, Hudo shifo bersa albatta yozajakligi Umrzoq aytgan edi. Shajaraga monand, hayot haqiqatlarini badiiy to‘qimalarsiz, ekalogik toza” tarzda yosh avlodga yetkazib berish niyati amalga oshmay qoldi.

Umrzoq juda do‘stparvar, sadoqatli, fidoyi olim, ijodkor inson edi. Ko‘pgina olamdan o‘tgan do‘stlari haqida mazmundor, o‘qimishli hayratomiz maqolalar yozdi. Ayrim qadrdonlari, Biz haqimizda yozishingiz uchun o‘lishimiz kerakmi”, degan hazil-mutoibalarni aytishgan edi.

Oxirgi suhbatlarimizning birida Ergash Normamedov, O‘ktam Davrboyev, Sheramat Yusupov, Cho‘li Mirzayev, Tursunqul Almamatov, Oqnazar Qurbonovlar haqida ham xotira maqolalar yozish kerakligini menga eslatib qo‘ygan edi.

Do'stimiz Umrzoq O'ljaboyev uchun eng e'zozli bo'lgan insonlar Hoqnazar tog'a Shernazarov, Tursun bo'la Raximov, Fayzulla aka Kenjayev, Shovqiddin Mirzayev, Hamroqul tog'a va boshqa Qo'shrabot, Nurota o'lkalarning mardu maydon o'g'lonlari haqidagi, Doston" bitilmasdan qolgani alamli his-tuyg'ularni qo'zg'aydi.

Ustoz Umrzoq O'ljaboyevni bemalol maktab yaratgan olim deb hisoblash mumkin. Uning shogirdlari O'zbekistonning hamma joyida kasbiga sadoqat bilan halollikni o'zlari uchun ustozning ma'naviy merosi deb faoliyat yuritmoqdalar. Bitta Qozoqboy Yo'ldoshevning o'zi domlani obro'sini yuz chandon oshirgani ayni haqiqat. Chunki Qozoqboydan ustozlari Umurzoq O'ljaboyevning, Akramjon Kattabekovning, Bosim To'ychiboyevning mahorat qirralari yorqin ko'rinadi.

Ustoz darajasiga erishgan qaysidir sohalardan ulardan ilgarilab ketgan shogirdlar faxr-iftixor tuyg'usini qaror toptiradi.

Ustoz ko'p shogirdlaridan ishonchini oqlayotgani uchun mamnun bo'lib yashadi. Aytilmagan so'zlarni kelajakda aytishni, yozilmagan bitiklarini bunyod etishni niyat qildilar. Bu niyatlar kun sayin ro'yobga chiqib bormoqda. Tiriklikda jon fidolik bilan to'plagan savoblariga, shogirdlariga, Ustoziga rahmat", degan duolar orqali savoblar qo'shilayotganiga imonimiz komil.

Umurzoq do'st bilan dushmani aniq ajrata bildi, do'stini o'ziga suyantirdi va suyanchiqlik vazifasini a'lo darajada ado etdi. Dushman ko'ngilli kishilar hayiqib yashadilar va dahil qilishdan o'zlarini tiydi. Ulug' karvonga huruvchi itlar, tosh otuvchi g'ayirlar har doim bo'lgan. Ammo undaylarning haddi Umurzoqqa sig'madi.

Or-nomusni har narsadan afzal bilgan, vijdon amridan chiqmagan, iymon etiqodda mustahkam turgan do'stimizning joylari jannatda bo'lgani haq rost bo'lsin.

Hasrat va alam bilan, ko'zda yoshu dilda g'am bilan yozilgan yodnomani O'zbekiston xalq shoiri, Umrzoqning qadirdon do'sti Abdulla Oripovning quyidagi satrlari bilan yakunlashni lozim topdim .

*-Nega qadding egik, nega boshing ham,*

*Nega nigohingning tortadi tuproq?*

*-Mening yer ustida tanishlarim kam,*

*Mening yer ostida do'stlarim ko'proq.*

Esdaliklarimizning davomi bor. Tirik ekanmiz xotira tugamaydi. Yaxshilarning yodi abadiylikka dahildordir.

## **E'TIROF**

***Qobil KO'BAYEV,***  
***filologiya fanlari nomzodi, dotsent (GulDU)***

Ustozim, Guliston davlat universiteti dotsenti, Umurzoq O'ljaboyev haqida maqola yozishni anchadan buyon ko'nglimga tugib, niyat qilib yurar edim. Biroq har safar qo'limga qalam olishim bilan, u kishining salobatlari ko'z oldimda

namoyon bo‘ladi-da, bir so‘z ham yozolmay qolaman. Chunki ustozning shu bugunga qadar bosib o‘tgan yo‘li, oilaviy hayoti, ilmiy faoliyati haqida jo‘yali bir fikrni ayta olish mas‘uliyati juda og‘irday tuyulaveradi. Hammaga ibrat bo‘lsa arzigulik hayot, respublika miqyosida o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ilmda tanilgan yetuk adabiyotshunos olim, jamoa va shogirdlari orasida katta hurmatga sazovor, har tomonlama mukammal inson haqida yozish, yozganda ham arzigulik qilib yozish yana bir karra mas‘uliyat yukini oshirardi. Shunday kunlarning birida ustozimiz professor Akram Kattabekov haqidagi “Kuy avjida uzilgan tor” kitobini qaytadan varaqlab o‘qiy boshladim. Umurzoq O‘ljaboyevning mazkur kitobdan joy olgan “Do‘st xotirasi oldidagi o‘ylar” maqolasini ilgari o‘qigan bo‘lsam-da, yana bir bor o‘qib chikdim. Eng yaqin do‘sti haqida to‘lqinlanib, chin yurakdan, samimiy yozilgan satrlar meni hayajonga soldi. Maqolaning boshlanishida shunday jumlar bor edi: *“Akramjon bilan bog‘liq xotiralar haqida o‘ylar ekanman, qaysidir darajada o‘zimning ham kamtarona taqdir yo‘limni sarhisob qilayotgandek bo‘laman. Bu yo‘lning eng mazmunli, eng qaynoq davri – o‘ttiz etti yili birgalikda yonma-yon o‘tganligi shuncha vaqt mobaynida elkadosh, hamnafas bo‘lib yashaganimiz menga o‘zgacha g‘urur va faxr bag‘iishlaydi”* Demak, mening tushunishimcha, birov haqida yozishdan oldin o‘z hayotingni, ortga qayrilib, sarhisob qilib ko‘rishing, avvalo, o‘zingda arzigulik jihatlar borligiga imon keltirishing kerak ekan.

Mening ham uzoq yillik o‘qituvchilik faoliyatim ustoz Umurzoq O‘ljaboyev bilan yonma-yon o‘tgan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Domla kafedra mudiri bo‘lganlaridan keyin bir yil o‘tib, ya‘ni 1991 yilning sentyabrida, meni o‘qituvchi sifatida ishga qabul qilganlar. O‘sha davrda kafedramizda A.Kattabekov, A.Quljonov, Q.Yo‘ldoshev, V.Rahmonov, R.Majidov kabi yirik adabiyotshunos olimlar ishlashar edi. Ular bilan ishlash, endigina talabalik partasidan kelgan oddiy o‘qituvchi uchun kafedraning o‘sha davrdagi talablariga labbay deb javob berishni tasavvur qilib ko‘ring-chi? Ustoz meni ham kafedraning barcha a‘zolari qatorida ko‘rishi, yig‘ilishlarda fikr bildirishimni so‘rashlari ko‘z o‘ngimda u kishini yanada ulkanroq ko‘rsatar edi. Domla har doim menga: “Bo‘sh vaqting bo‘lganda ustozlaringning darsiga kirishni kanda qilmagin”, - deb ta‘kidlashdan charchamasdilar. Shuningdek, o‘z vaqtida qancha dars kuzatganligimni, kimlarning darslariga kirganimni nazorat qilib borayotganligini kafedra yig‘ilishlarida ham ta‘kidlab o‘tar edi. Bu holat menga o‘qituvchilik faoliyatini, pedagoglik mas‘uliyatini anglashimga turtki vazifasini o‘tagan ekan. Bugun yoshimiz ulg‘ayib, talabalarga ma‘ruza o‘qish jarayonida ustozlarimizdan o‘rgangan dars o‘tish usullarimizni qo‘llasak, darsimiz qiziqarli o‘tganga o‘xshab ketadi, auditoriyadan qoniqish hosil qilib chiqamiz. Shunda yana beixtiyor Umurzoq O‘ljaboyevning avvalda qo‘ygan talablari esga tushib, minnatdorlik hissi paydo bo‘ladi. Mana, domlaning mudirligida kafedrada oddiy o‘qituvchilikdan dotsentlikkacha bo‘lgan yigirma yillik hayot yo‘lini bosib o‘tibman. Hamon o‘sha-o‘sha, ustoz nazoratidamiz.

Kafedramizda avvaldan bir yaxshi an‘ana davom etib keladi. Ayniqsa, keyingi yigirma yil, ya‘ni Umurzoq O‘ljaboyevning mudirlik davrida bu narsa

yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Ilm bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan odamga har qanday holatda ham sharoit yaratib beriladi. U stajyor-tadqiqotchi bo'ladimi, aspirant yoki katta ilmiy xodim bo'ladimi, doktorant bo'ladimi xohish bo'lsa bas. Kafedramizdagi xayrxohlikni, ustoz-shogird munosabatini ko'rgan boshqa kafedra professor-o'qituvchilari hamisha havas bilan qarashgan. Mana shunday jiddiy munosabatlarning samarasi o'laroq Q.Yo'ldoshev doktorlik, men, M.Mamatqulov, A.Bolibekov, S.O'tanova, N.Xoliqova, O.Fayzullayeva, M.Sariboyeva kabilar nomzodlik ishimizni muvaffaqiyatli himoya qildik. Yana himoyaga chiqmoqchi bo'lgan kishilar anchagina. Bugungi kunga kelib ustozimizning davom ettirib kelayotgan an'analarini biz yoshlar – saqlab qolishga harakat qilmog'imiz kerak va shart deb hisoblayman.

Har qanday odam ham o'zi dastlabki ish boshlagan jamoasini qandayligini darrov anglab olishi qiyin. Biroz vaqt o'tgach ish jarayonida bu holat oydinlasha boradi. Men ham ustozlarim davrasiga o'qituvchi bo'lib qo'shilganimda, ularning hamkasb o'qituvchi sifatidagi jihatlarini yaxshi bilmaganman. Biroq vaqg o'tgani sayin yaxshi insonlarga taqdir meni ro'baro' qilganiga, ustoz tanlashda adashtirmaganligimga amin bo'ldim. Bir voqea yodimga tushdi. Kafedrada ish boshlaganimga endigina bir yil bo'lgan edi. Paxta terimidan qaytib, o'qishni boshlab yuborgan kunlarimizning birida Umurzoq O'ljaboyev ikkalamizni (kafedra mudiri bilan kelsin degan bo'lsa kerak-da) rektor huzuriga chaqirib qolishdi. Domlaga ergashib, rektor xonasiga kirib bordim. Xonada rektordan tortib, bo'lim boshliqlari, dekan va kafedra mudirigacha bo'lgan o'tgiztacha odam o'tiribdi. Kirishimiz bilan domlaga joy ko'rsatishdi. Men esa eshikning oldida tik holatda qolaverdim. Muddao aniq bo'ldi. Hali universitet rahbariyatini yaxshi tanimaydigan, tajribasiz, endigina katga orzu-havaslar bilan ish boshlagan o'qituvchini, ya'ni meni, o'sha yili fakultetimiz paxta yig'im-terimi mavsumida talabalar orasida bo'lib o'tgan salbiy bir voqeaga aybdor deb topishib, ishdan bo'shatish masalasi ko'rilayotgan ekan. O'tirganlarning barchasi mening bo'shashimga ovoz berishdi. Men esa nimaga ishdan bo'shatishayotganligiga hali ham hayron edim. Universitet rektori Umurzoq O'ljaboyevga: "Biz mana shunday yakuniy qarorga keldik, kafedra mudiri sifatida siz nima deysiz?", - dedi. Shunda domla: "Men nima ham derdim, biroq men sizlarga bir narsani aytishim mumkinki, bu yigit kafedrada o'z lavozimida ishini davom ettiradi", - dedi. Shundan so'ng domla mening chiqib turishimni so'radi. Ichkaridagi yarim soatlik davom etgan tortishuvdan keyin men o'z joyimda qoladigan bo'ldim. Stajyor-tadqiqotchilikka yuborilishimda ham, aspiranturaga kirishimda ham ana shunday qo'yilgan sun'iy to'siqlar oldida domla bir necha marotaba qalqon bo'lib turganlar.

Kafedrada ikki yilishlaganimdan so'ng Umurzoq Uljaboev tavsiyasi bilan nomzodlik ishingga professor A.Kattabekov ilmiy rahbar etib tayinlandi. Mavzu tanlashda ham domla: "Akram Kattabekov tarixiy mavzuda ilmiy izlanishlar olib boradi, sen ham shunga yaqin mavzudan olsang yaxshi bo'ladi", - deb maslahat berganlar. Bu – maslahat ilmiy rahbarimga ham ma'qul tushib, tarixiy qissachilik bo'yicha ilmiy izlanish olib borishini tavsiya qilganlar. Bir yil stajirovka, uch yil aspiranturada o'qish, ustozlarimiz tomonidan tinimsiz so'ralgan ilmiy hisobotlar



ishning muddatida yakunlanishiga olib keldi. Dissertatsiyamni kafedrada muhokama qilib, ochiq himoyaga tavsiya qilishganida, ilmiy rahbarim professor Akram Kattabekov (joylari jannatda bo'lsin) vafot etdi. Himoya ancha orqaga surilib ketdi. Shunda ham yana (shu vaqt mobaynida hech kim menga ilmiy raharlik qilishni bo'yniga olmagan edi) Umurzoq O'ljaboyev ilmiy rahbarlikni zimmasiga olib, nomzodlik dissertatsiyamning muvaffaqiyatli himoya qilinishiga sababchi bo'ldilar. Bularning barchasi uchun men ustozimdan ming bora roziman va boshim erga tekkuncha ta'zim qilaman.

Umurzoq O'ljaboyevning shu bugunga qadar olib borgan ilmiy izlanishlari ham ibrat qilib ko'rsatsa arzigulik. Buni 6 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, 200 dan ortiq ilmiy va ommabop maqolalarning salmog'i ham ko'rsatib turibdi.

Domlaning "Mardlik va matonat tasviri" nomli dastlabki kitobi (G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, – T., 1976 yil) monografik xarakterga ega bo'lib, unda ikkinchi jahon urushi mavzusida o'sha yillarning o'zidan boshlab to 1970-yilga qadar nasrda yozilgan asarlar tahlil doirasiga tortiladi. Lekin asosiy e'tibor shu davr maboynida roman janrida yozilgan asarlarga ko'proq qaratiladi. Chunonchi, Oybekning "Quyosh qoraymas", O.Yoqubovning "Er boshiga ish tushsa", Shuhratning "Shinelli yillar", "Oltin zanglamas", Said Ahmadning "Ufq", A.Muxtorning "Davr mening takdirimda", I.Rahimning "Chin muhabbat", Hamid G'ulomning "Toshkentliklar", Sh.Rashidovning "Qudratli to'lqin" kabi romanlari haqida atroflicha fikr bildirilgan bo'lsa, "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari" ("Fan" nashriyoti, – T., 1989-yil.) kitobida uchta yozuvchining ijodi muayyan ilmiy muammo – xarakter yaratish mahorati nuqqai nazaridan o'rganiladi. Bu yozuvchilar – A.Qahhor, Said Ahmad, O'.Hoshimovlardir. Bu tadqiqotda ularning butun ijodi emas, balki ikkinchi jahon urushi davri voqealari goh mufassal, gohida esa yul- yulakay aks etgan asarlari ancha batafsil o'rganiladi va baholanadi.

Ustozninig navbatdagi kitobi "Xotirada chizilgan izlar" (G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi. – T., 1992-yil.) deb nomlanib, unda Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi bir qator nasriy asarlar tahlil qilinar ekan, asosiy e'tibor shu mavzuda ishlayotgan nisbatan yosh – keyingi avlod vakillari bo'lgan yozuvchilar ijodiga qaratiladi. Bularning orasida O'.Xoshimov, A.Eshonov, F.Musajonov, I.Sulaymonov, M.Turobovalardan tortib o'sha paytlari yosh yozuvchilar hisoblangan N.Qobul, N.Eshonqul, S.Isoqov, Sh.Isaxonova, Sh.Ashurova, I.Hasanov kabi qalam sohiblarigacha bor. Umurzoq O'ljaboyev qalamiga mansub "Urush davri o'zbek hikoyachiligi" ("Ziyo" nashriyoti, Guliston, 2006-yil) kitobida ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek adiblari tomonidan yaratilgan hikoya janriga mansub asarlar alohida olingan holda o'rganilgan. Bunda o'sha og'ir sinov yillarida yaratilgan hikoyalarning zamon bilan hamohanglik darajasiga va badiiylik xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad kabi adiblarning shu janrda yaratgan asarlari urush davri hayoti kontekstida tahlil etiladi.

"Badiiy tasvirning haqqoniyligi" ("Ziyo" nashriyoti, Guliston, 2008-yil) monografiyasida, asosan, ikkita yozuvchi – Said Ahmad va O'.Hoshimovlarning

ikkinchi jahon urushi davri mavzusiga daxldor asarlari monografik yo‘nalishda ancha keng va batafsil o‘rganiladi. Jumladan, kitobning Said Ahmad ijodiga bag‘ishlangan qismidagi “Yo‘l boshida” deb nomlangan bobda yozuvchining urush yillarida yaratgan hikoyalari, “Hikoya janrining imkoniyatlari” bobida 50-70 yillarda shu janrda yaratgan asarlari “Adibning umrlik kitobi” bobida esa “Ufq” trilogiyasi haqida fikrlar bildirilgan. O‘.Hoshimovga bag‘ishlangan qismning “Kichik shaklda katta gap aytish mahorati” bobida adibning urush mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyalari “Ulug‘ zotga qo‘yilgan haykal” da “Dunyoning ishlari” qissasi, “Izlanishlarning baxtli samarasi” bobida esa “Ikki eshik orasi” romani haqida gap ketadi. “Mavzu va mahoratning egizakligi” deb nomlangan bobda esa M.Muhammedov, S.Anorboev, H.G‘ulom, F.Musajonov kabi yozuvchilarning harbiy mavzuga aloqador ayrim asarlari taqdim qilingan va ulardagi kamchiliklar haqida ancha keskin tanqidiy fikrlar bildirilgan.

So‘nggi paytda domla juda ham xayrli bir ishga qo‘l urdi. Universitetimizda ishlab, vafot etgan bir qator ustozlar haqida “Xotiraga ko‘chgan umrlar”(“Ziyo” nashriyoti, Guliston, 2010-yil) xotira kitobini yozdilar. Kitobni mutolaa qilar ekansiz, muallifning xotira doirasining chegarasiz ekaniga amin bo‘lasiz! Badiiy asar kabi o‘qiladigan ushbu kitobda bitilgan taqdirnlarni muallif barchaga ibrat namunasi sifatida ko‘rsatadi va Vatan ravnaqi uchun sidqidildan qilingan har qanday ish beiz ketmasligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, unda muallifning hayotida, qalbida muhim o‘rin tutgan va hozir tiriklar safida bo‘lmagan ustozlar, qadrdon do‘stlar, hamkasblar haqida xotiralar berilgan. Ular orasida muallif qirq to‘rt yildan beri ishlab kelayotgan Guliston davlat universitetining dastlabki rektorlari professor A.Abdunabiyev, professor X.Doniyorovlar haqida, shuningdek, ustози, O‘zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov hamda O‘zbekiston halq shoiri T.Sulaymon, vaqtida “bir mayizni bo‘lib” egan do‘stlari professor B.Qosimov, professor A.Kattabekov, dotsent Q.Pirmatovlar hamkasblaridan Q.Turg‘unov, H.Xoliqovlar to‘g‘risida yozilgan xotira-maqolalar bor.

Domla umrlarining oxirlarigacha ham yangi nashr qilingan badiiy yoki ilmiy kitob bo‘ladimi, gazeta va jurnallarda chiqayotgan maqolalar bo‘ladimi, domlaning nazaridan chetda qolmagan. Shundan bo‘lsa kerak, domlaning har bir o‘tadigan darsi yangi-yangi ma’lumotlar bilan boyib boraverardi.

Bugun Umurzoq O‘ljaboyev hayot bo‘lganlarida 80 yoshga kirgan bo‘lar edi. Hamisha did bilan kiyinadigan, tik qomatli, gaplarini ham salmoqlab dadil gapiradigan, hayotda ham, ilmda ham bu insonning, xullas, hammaga ibrat bo‘ladigan jihatlari bisyor edi. Domlaning oxiratlarini bo‘lsin.

## **KUCHLI ADABIYOTSHUNOS VA TERAN NIGOH SOHIBI**

*Obidaxon FAYZULLAYEVA,  
GulDU, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Ustoz haqida biror so‘z aytish, jo‘yaliroq biror fikr bildirish har qanday shogirdning qalbini to‘lqinlantiradi, unga nisbatan mas’uliyat yukini yanada

vaznliroq qiladi. Men ham samimiy va jonkuyar ustozim Umurzoq O'ljaboyev haqida biror narsa yozish oldidan mas'uliyat yukini gardanimda his etdim.

O'ljaboyev domla talabalik yillarimizdayoq chin inson va adabiyot ilmining bilimdoni sifatida ehtiromimizga sazovor bo'lgan. O'ta fidoiy va ilmparvar ustozimiz o'zi faoliyat yuritadigan Guliston davlat universitetidagi barcha-barchaning hurmatiga tinmay izlanishda bo'lishi va insonlarga ko'rsatgan beg'araz yordamlari orqali erishgan. Ustoz shogirdlariga nisbatan talabchan va samimiy edilar. G'am-tashvishlaridan boxabar bo'lganlarida qo'lidan kelgan yordamlarini ayamaskliklari, talabalardagi mavjud iqtidorni payqaganlarida esa uni o'z qiziqishi bo'yicha tadqiqotlar olib borishga undashlari va bu yo'lda o'sha talaba bilan birdek ishlashlari, vaqtlarini ayamaskliklari ham yuksak fazilatlar sohibi bo'lgan ustozga bo'lgan cheksiz hurmatning sabablaridandir.

Men marhum ustozimiz Akram Kattabekov bilan Rauf Parfi lirikasi bo'yicha tadqiqot ishi olib borib, uni o'sha paytdagi diplom ishi darajasida tayyor holga keltirganimda, taqrizchi sifatida U.O'ljaboyev domla tayin etildilar. Adabiyotshunoslikda o'z o'rniga ega ustoz bildiradigan munosabatdan ancha cho'chigan edim. Lekin aynan O'ljaboyev domla o'sha tadqiqotga yuksak baho berganlar, to'g'ridan-to'g'ri aspiranturaga tavsiya etib, mening adabiyotshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borishimga sababchi bo'lganlar. Ilmparvar ustozimizdan biz – shogirdlar boshqa ko'plab yaxshiliklari uchun ham cheksiz minnatdormiz.

U.O'ljaboyev – o'zbek adabiy tanqidchiligida ham o'z so'zini ayta olgan adabiyotshunos olim. Shunday olimki, yurtimizning manaman degan yozuvchilari o'z asarlarini yozishdan oldin bu kishining asarga munosabatini tasavvur qilishga urinib ko'radi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizning yuragi bo'lgan Toshkentda O'zFA Til va adabiyot institutining akademik, professorlari ham u kishiga nisbatan chuqur ehtiromda ekanligiga guvoh bo'lganmiz. Biror o'rinda U.O'ljaboyevning badiiy asarga munosabati yoki tanqidiy fikrlarini inkor qilish yoki behurmatlik bilan rad etish kuzatilmasligi ham so'zimiz isbotidir. U kishining nomiyoq ehtiromning darakchisi bo'la oladi.

U.O'ljaboyevning adabiy tanqidchilik sohasidagi qarashlari aks etgan ko'plab kitoblari orasida "Badiiy tasvirning haqqoniyliigi" monografiyasining o'rni alohida. Ushbu kitob xalqimiz tarixining o'chmas sahifalaridan biri bo'lgan ikkinchi jahon urushi mavzusi aks etgan epik asarlar tahliliga bag'ishlangan.

Bizga ma'lumki, o'zbek adabiyotida urush mavzusidagi asarlarning aksarida jang tafsilotlaridan ko'ra mehnat fronti tasviriga ko'proq o'rin berilgan. Bunga sabab esa tasvirdagi haqqoniylik masalasi, ya'ni o'zi guvohi bo'lgan voqelik tasvirida to'qib chiqarilgan voqelikning tasviridan ko'ra ta'sir kuchi ko'proq bo'lishidadir. O'zbek adabiyotida bu mavzuda yuksak saviyada yaratilgan asarlar ham borki, ular da ijodkorning so'z qo'llash mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Ustozning ushbu monografiyasi ikkinchi jahon urushi kabi jiddiy mavzu bilan ishlashda ijodkorning mas'uliyati masalasiga qaratiladi. Adabiyotshunos olim ushbu kitobda quyidagi konsepsiyaga amal qiladi: "San'atkor qay mavzuga qo'l urmasin, qay kompozitsion turdan foydalanmasin, syujetni qurmasin, pirovardida

bular hammasi shu asarda yaratilgan inson obrazini – xarakterlarni jonli va to‘laqonli chizish ishiga xizmat qiladi. Binobarin, bu masala ko‘p jihatdan asarning muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan muhim omillardan biridir” [O‘ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyli. – Guliston. Ziyo. 2008. 134-bet]. Monografiyadagi maqolalar mana shu fikrning o‘ziga xos talqinlari va isbotlariga qaratilgan. Xususan, Said Ahmad ijodiga bag‘ishlangan “Hikoya janrining imkoniyatlari” maqolasida taniqli adibimizning “Kuyov”, “Ko‘klam taronalari”, “Turnalar”, “To‘lqinlar”, “Xazina” kabi urush mavzusidagi, lekin yuqorida ham ta‘kidlaganimizdek, ko‘proq front orti hayoti aks etgan asarlariga keng o‘rin ajratilgan.

Ushbu tahlillardan o‘zbek nasri taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorning hikoyachilik mahorati, urush davri voqeligi ifodasidagi o‘ziga xos jihatlari bilan bir qatorda mavzu talqinida yo‘l qo‘ygan kamchiliklarga ham e‘tibor qaratiladi. Adabiyotshunos olim o‘z pozitsiyasini quyidagi jumalari orqali ifodalaydi: “Badiiy asarda inson har qanday holatda ham insonligicha – rang-barang tuyg‘ulari, o‘y-fikri, hayajoni, havotiri va hatto qo‘rquvi bilan ko‘rsatilishi kerak. Adabiy asar shu jihati bilan qiziqish uyo‘tadi, u yoki bu darajada ahamiyat kasb etadi. Urush davri mavzuida yozilgan asarda o‘lim bilan yuzma-yuz turgan odamning ruhiy holati ko‘rsatilmasa, shunday dahshatli manzaraning guvohi bo‘lib turgan personajlarning ko‘nglidan o‘tayotgani, halok bo‘lgan jangchilarni ko‘tarib, sudrab boshqa joyga o‘tkazayotganda qanday ahvolda ekanligiga yozuvchi qiziqmasa, bunday asar o‘quvchiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Axir, o‘tgan urush mavzuiga murojaat qilishning, u haqida asar yaratishning zaruriyati ham, maqsadi ham, mohiyati ham, hamma-hammasi shunda mujassamlashgan emasmi?” [O‘ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyli. – Guliston. Ziyo. 2008. 90-bet].

Ko‘rinadiki, adabiyotshunos olimning qarashlari badiiy asarda, xususan, prozaik asarda qahramon – xarakter yaratilish jarayoni, uni ifodalashda, yaratishda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining ahamiyati kabi masalalarga asosiy diqqatni jalb qilish. Inson siymosi asar markazida turishi kerak. Asarning boshqa komponentlari joylashuvi va badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi ana shu xarakterning ifodalanishi uchun xizmat qilsin. Maqolada Said Ahmad ijodida urush davridagi hayotning aynan o‘zini ko‘rsatuvchi asarlar keyinchalik, ya‘ni tinch qurilishning dastlabki yillarida ham yaratilganligi ta‘kidlanadi. Asarda konfliktning o‘rni, personajlarning xarakter ifodalanishidagi ishtiroki, drammatizm ifodasi kabi masalalarga alohida ahamiyat qaratiladi. Asarlardagi kuchli dramatik vaziyatlar yaratilishida kompozitsion qurilishning o‘ziga xosligi, asar syujet chizio‘ining yo‘nalishi, xarakterning talqini masalalari sinchkov tanqidchi nuqtai nazaridan chetda qolmagan.

Yana bir masalaga diqqat qaratish lozim, ya‘ni monografiyada Said Ahmadning ushbu turkumlardagi hikoyalari A.Qahhor hikoyalariga o‘xshash jihatlarga, hamohanglikka ega ekanligi ham aytib o‘tiladi. Asarlardagi hikoyachi qahramon masalasi yuzasidan quyidagicha fikr bildiriladi: “Faqat ustoz san’atkorlarda bu ish uchinchi shaxs nigohi orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, Said Ahmad ularda ko‘pincha hikoyani birinchi shaxs tilidan olib borishni ma‘qul

ko'radi, asosiy voqealarni hikoyachi obraziga aloqador shaklda tasvirlashga harakat qiladi". Bu holat yozuvchining "Mastonbibi" va "Kuyov" hikoyalari asnosida tahlilga tortiladi va adabiyotshunos olim ushbu hikoyalarda yaratilgan xarakterlarning hayotiy talqinga qay darajada yaqin ekanligiga diqqatni qaratadi.

Shuningdek, ushbu maqolada hikoyachi qahramon va vositachi qahramon kabi o'ziga xos atamalar ham qo'llangan. Ayniqsa, vositachi qahramon atamasi o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra asosiy qahramonning yonida harakatlanuvchi bu qahramon uning o'zidan ko'ra yozuvchi g'oyaviy niyatini amalga oshirishda ko'proq ishtirok etadi. Yozuvchining "Xazina" hikoyasi orqali bu fikr isbot etilgan. Unda urush fojeasi tufayli bir qo'ldan ayrilgan Usta Maqsudning bir paytlar qanchalar mahorat bilan dutor chertganligi va shuning xotiri bilan yurgan hikoyachi qahramon – muxbir yigitning bir hamrohini shu inson chalgan kuyni eshitish uchun yo'ldan qoldirib, qo'yarda-qo'ymay olib kelishi voqeasi aks ettirilgan. Xuddi ana shu qahramon – vositachi qahramon bo'lib, uning asar davomidagi asabiy holati, radiodan ham eshita bo'ladigan, arzimagan dutor ijrosini eshitish uchun yo'ldan qoldirilganligi, shuningdek, usta cholo'uchining qo'lsiz ekanligini ko'rgan choo'idagi norozi holati uning asardagi ishtirokini ta'min etgan. Usta Maqsudning yaxshi cholg'uchi bo'lib etishgan shogirdning oldiga bu mehmonlarni olib kelishi va ushbu shogird chalgan kuydanoq norozi kayfiyatdagi qahramonning ruhiyati o'zgarishi va ushbu holat yozuvchi niyatini ochib berishga xizmat qilayotganligi ayonlashadi. Vositachi qahramon, ya'ni muxbir yigitga hamroh bo'lib kelgan insonning asosiy voqeadagi ishtiroki shu tarzda izohlanadi. Bu holat asardagi "Hamrohimga qaradim: uning ko'zida yosh-yil tirardi. U iyagini kaflari orasiga olib, jimgina o'tirar, yelkasi tez-tez silkinayotganini sezmasdi". Asarda berilgan shu parchadayoq vositachi qahramonning asosiy maqsad ijrosi uchun bosh qahramonga nisbatan kattaroq ahamiyatga ega bo'lgani, ayonlashgani tanqidchi tomonidan g'oyatda to'g'ri talqin etilgan.

Adabiyotshunos olim yozuvchining hikoyadagi dramatik ohangni kuchaytirish, undan kelib chiqadigan natijani yanada ta'sirliroq qilish, o'z oldiga qo'ygan badiiy maqsadga erishish uchun turli imkoniyatlardan foydalanganligini, bir qancha ifodaviy vositalarga murojaat qilganligini ta'kidlab o'tadi. Yuqorida aytilgan hikoyachi qahramon va vositachi qahramon atamalari ifodaviy usuldagi o'ziga xoslik sifatida e'tirof etilsa-da, lekin qator badiiy asarlarda bu jihatlar takrori uning saviyasiga va badiiyatiga putur etkazishi mumkinligi ham aytib o'tiladi. Shularni hisobga olgan holda, adabiyotshunos olim bunday uslubning asarlarda takror qo'llanilishi uning ta'sir kuchini zaiflashtirishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

Said Ahmad ijodida urush mavzusi uning shoh asarlaridan biri bo'lgan "Ufq" trilogiyasi misolida aks ettirilgan. Olimning "Adibning umrlik kitobi" maqolasida "Ufq" trilogiyasidagi Ikromjon, Jannat xola, Tursunboy obrazlari yuzasidan ba'zi mulohazalar bildirilgan. Ushbu maqolada xarakter yaratish yo'lida yozuvchining badiiy detal qo'llash mahoratiga e'tibor qaratilgan. Ikromjon va Jannat xola obrazlari yaratilishida, insoniylik va ota-ona ruhiyati tasviri o'rtasidagi

foje' chizgilar ifodasida badiiy detal turlaridan foydalanish mahorati o'ziga xos tarzda aniqlashtirilgan. Tursunboy xarakterini ochishda esa yozuvchi o'ziga xos uslubdan foydalanadi. Bu haqda "Qahramonning xarakteridagi xoinlikka olib kelgan xudbinlik psixologiyasining ba'zi qirralari bilan tanishtiradi". [O'ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyligi. – Guliston. Ziyo. 2008. 49-bet], deyilgan. Maqolada o'shanday qirralar sifatida Tursunboyning bolalik va o'smirlik davridagi o'ta erkalatilgan hayot tarzi aks etgan epizodlar tahlilga tortilgan va bunda yozuvchining mahorati alohida ta'kidlanadi.

Said Ahmad hikoyalarida tasvirning ba'zi o'rinlarida yozuvchi o'z uslubiga sodiq qolgan holda yumoristik ohanglar ham qo'llaganligi adabiyotshunos tomonidan to'g'ri e'tirof etilgan. Ayrim o'rinlarda esa olim xarakterlar ifodasida ramziy tasvirning ham o'z o'rnini borligini aytib o'tadi. "Ikromjonda yana qaytadan hosil bo'lgan bunday og'ir kayfiyatni yozuvchi ramziy yo'sinda tabiat bilan booglab shunday ifodalaydi: Atrof qorong'i. Osmonda na oy, na yulduz bor. Nazarida bu qora kecha bir umr oqarmaydigandek edi". Bunday tasvirlarning mavjudligi xarakterning ruhiy holatini tasavvur etishida qo'l kelishi tabiiy.

"Mavzu va mahoratning egizaklari" maqolasida adabiyotshunos olim hozirgi kunda taraqqiyotning shunday bir bosqichga ko'tarilganligini, urushlarga qarshi kurashlarda bahamjihat harakat qilishdek tarixiy zarurat o'z-o'zidan paydo bo'lavermasligini ta'kidlaydi. Bunday jiddiy, mas'uliyatli vazifani faqat haqiqiy yozuvchilik iste'dodi amalga oshirishi, o'tgan urush haqidagi bor gapni halollik va ro'y-rost aytish istagi bajarishi mumkinligi ta'kidlanadi. Vatandoshlarimiz qoni evaziga bitilgan tarixni oz bo'lsa ham buzish, bo'yab-bezab ko'rsatishga intilish esa qanday oqibatlariga olib kelishini hisobga olish lozim bo'lishi adabiyotshunos tomonidan o'rinli e'tirof etilgan. Bu boradagi tanqidiy fikrlar Mumtoz Muhamedovning "Kichik gornizon" povesti va Sunnatilla Anorboyevning "Sayil" nomli romanlari misolida ko'rib chiqilgan. Ulardagi yutuqlardan tashqari kamchiliklarning jiddiy ekanligi, asarning ko'p o'rinlari psixologik tahlil uchun material bermasligi aytib o'tilgan. Bu mavzudagi ba'zi asarlarda personajlar haqidagi ma'lumotlarda noaniqlik, ziddiyat borligi tahlillar asnosida ko'rsatilgan. Olimning "Muallif janr imkoniyatlarini hisobga olgani, hayotiy materialni janr tabiatidan kelib chiqib uyushtirishga harakat qilgani ko'rinib turadi. Bu erda ham ikkinchi jahon urushi davriga retrospektiv tasvir orqali murojaat qilinadi", degan fikrlari zamirida asarlarning o'ziga xos jihatlari e'tibor qaratilgan. Ya'ni ushbu qissada o'nlab kishilarning qiyofasini ko'rish mumkinligi, 40-45-yillik davr ichida yuz bergan, bir-biriga o'xshamaydigan voqealardan xabardor bo'lish mumkinligi ta'kidlangan. Bunda xarakter yaratish mahoratidagi o'ziga xosliklar, xususan, muallif qo'llagan usullar, asarda davr ruhini berish holati o'ziga xos tarzda tahlil etilgan.

"Inson – hayotdagi jamiki murakkablikning, tilsimotning mujassami. U o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni har qanday holat va sharoitlarda namoyon qilavermaydi. Muayyan vaziyat etilgandagina undagi haqiqiy insoniy sifatlar yuzaga chiqishi mumkin. Ijodkor bu jihatni hisobga olmasligi, u haqda qayg'urmasligi mumkin emas edi" [O'ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyligi.

– Guliston. Ziyov. 2008. 85-bet]. Ushbu jumalalarda yozuvchining xarakter yaratishdagi yo‘l qo‘ygan kamchiliklarining asosi bo‘lgan masalaga urg‘u beriladi. Bu asos haqiqiy inson obrazi yaratilishida muhim omil bo‘lishi ta’kidlanadi.

“Kichik shaklda katta gap aytish mahorati” nomli maqolada olim O‘.Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi yozuvchining mahorati masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. Asar davomida syujetning eng yuqori cho‘qqiga ko‘tarilishi uchun, undagi dramatismni kuchaytirish maqsadida tasvir yo‘nalishlarini mazmunga mos ravishda o‘zgartirib turilishi, asardagi badiiy detal qo‘llash mahorati masalasi asosiy o‘ringa chiqariladi. Olim hikoyada urush so‘zi bor-yo‘g‘i uch marta tilga olinsa-da, yozuvchi o‘sha davrni asarda to‘liq tasvirlay bilganligini ta’kidlaydi. Hikoyaning kitobxonga bergan estetik ta’siri haqidagi muallifning fikrlari ham o‘rinli. Ya’ni ushbu hikoya mutolaasi orqali insonlar hayotiga zomin bo‘lgan, uni izdan chiqarib yuborishga sabab bo‘lgan urushning dahshatli oqibatlari haqida o‘ylashga majbur bo‘ladilar.

Kitobdagi “Ulug‘ zotga qo‘yilgan badiiy haykal” maqolasida O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi xarakterlar talqiniga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu qissa adibning “Ikki eshik orasi” romaniga “hamirturush” vazifasini o‘taganligi har ikkala asarda uchraydigan xarakterlardagi o‘xshash jihatlarni solishtirish orqali muqoyasa qilinadi. Xususan, “Dunyoning ishlari”dagi Zebi xola, Xayri, Egamberdi, Ra’no, Xo‘ja, Dalavoy, Xolposh va boshqa qator personajlar taqdiri romanda o‘ziga xos tarzda ifoda etilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ya’ni romandagi Qora amma, Bashorat, Shomurod, Ra’no, Robiya, Umar zakunchi, Xolposh kabilar shular jumlasidandir. Bu haqda adabiyotshunos olim quyidagi xulosa fikrini bayon qiladi: “Biz bu o‘rinda badiiy ijodning ichki tabiati, qonuniyati bilan chambarchas bog‘liq tarzda bir yozuvchi ijodi davomida muayyan asarida foydalanilgan hayotiy materialga yana qayta murojaat qilishi mumkinligini, ishning natijasi esa o‘sha yozuvchining mahoratiga, o‘sha materialga yangidan qanday yondashishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlamoqchimiz, xolos. Aytish mumkinki, O‘.Hoshimov ham ushbu ishning uddasidan chiqq olgan”. Hayotiy haqiqatdan bir emas bir necha asarda foydalanish mahorati ustoz ijodkor A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” va hikoyalari misolida talqin etilgan bo‘lsa, iste’dodli yozuvchi O‘.Hoshimov ham xuddi shu uslubdan bir necha o‘rinda foydalana bilganligi hali adabiyotshunoslik materiallarida ko‘zga tashlanmasa-da, zukko olimning sinchkov nigohidan bu fakt ham chetda qolmaganligi badiiy asarni tahlil qilishdagi yuksak iste’dodning dalolatidir.

Kitobdagi “Izlanishlarning quvonchli samarasi” nomli maqolada olim yana O‘.Hoshimovning urush mavzusidagi romani bo‘lgan “Ikki eshik orasi”ga murojaat qiladi. Undagi o‘ziga xos kompozitsion qurilishga va roman voqealari bir necha hikoyachi qahramon tilidan olib borilishiga e’tibor qaratiladi. Bu uning o‘ziga xos uslubi ekanligini yana bir bor ta’kidlab o‘tiladi. Asardagi urushning dahshatli fojealari bilan bog‘liq holatlari aks etgan o‘rinlaridan biri sifatida Zuhra kelin bir yigit bilan birga qochib ketganligi va ularni tutib keltirishdagi Orif oqsoqolning hammaning ko‘zi oldida ularni nikohlab qo‘yganligi voqeasidagi kuchli dramatism holatining ifodalanishiga diqqat jalb etiladi.

“Mazkur epizodda yozuvchi badiiy tasvir imkoniyatlarining naqadar cheksiz, rang-barang ekanligini namoyish eta olgan desak, bizningcha, hech mubolao‘a bo‘lmaydi” [O‘ljaboyev U. Badiiy tasvirning haqqoniyligi. – Guliston. Ziyo. 2008. 90-bet]. Bunda Orif oqsoqol ruhiyatidagi evrilishlar silsilasi juda noziklik bilan, katta mahorat va yuksak san‘atkorlik bilan tasvirlanganligiga alohida urg‘u beriladi. Adabiyotshunos olimning bu tarzda e‘tirofi, yozuvchining san‘atkorlik darajasini ko‘rsatib berish mahorati xarakterlarning haqqoniy talqinlari bilan bog‘liq tarzda amalga oshirilgan. Adabiyotshunos nigohidan xarakterlar talqinidagi hech bir detal, hech bir mayda tafsilotlar, hech bir komponentlar qolib ketmaydi. Asardagi asosiy mohiyat ochilishida qo‘llanilgan turli-tuman usullar Orif oqsoqol va Husan duma obrazlari talqini misolida batafsil amalga oshiriladi. Adabiy tanqidchining bu ikki xarakter yaratilishi jarayonidan qoniqish hissi tuyganligi uning bildirgan xulosalaridan ma‘lum bo‘la boradi. Tanqidchi asardagi kuchli dramatik holatlar, undagi qo‘llangan detallar hamma vaqt juda chuqur mantiq yo‘li bilan asoslanishi lozim ekanligini ta‘kidlab o‘tadi.

U.O‘ljaboyev ushbu monografiyaning xotima qismida hamma davrlar uchun ham dolzarb mavzulardan bo‘lgan urush mavzusi, uning ayanhli oqibatlar aks etgan epik asarlar talqini, ularda xarakter yaratish mahorati yuzasidan o‘ziga xos xulosaga kelar ekan, adabiyotda “mavzuning mas‘uliyati”, degan gap bor ekanligini yana bir bor ta‘kidlab o‘tadi. Nasriy asarlarda xarakter yaratish mahorati asarning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi asosiy jihat ekanligi, inson obrazining haqqoniy tasviri kitobxonning asarni e‘tirof etishiga asos bo‘lishi ushbu kitobning ma‘no-mohiyatiga singdirilgan. Badiiy asar tahlili orqali ushbu asarlarning badiiy saviyasi aniqlashtiriladi. Ustoz mana shunday kuchli adabiyotshunos va teran nigoh sohibi edilar. O‘z o‘rnida aytilgan har bir o‘rinli tanqid kelajak mevasi ekanligiga ishonch hosil qilinishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda, xususan, o‘zbek adabiy tanqidchiligida o‘z ovozigaga ega bo‘lgan ustozimizning oxiratlari obod bo‘lsin. Ustozimizning porloq xotirasi biz shogirdlar yodida abadiy yashaydi.

## **UMRZOQ O‘LJABOYEV – TOG‘ALIKDA OLIM, OLIMLIKDA TOG‘A**

*Azamat URALOV f. f. d (PhD)*

*Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM*

*Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri*

Umrzoq O‘ljaboyev – so‘zni o‘ylab ishlatardilar, aytgan gapini qilardilar, qilgan ishlari doim o‘rnak edi. Har bir so‘zida hikmat bor edi, nigohidan ma‘no uqilib turardi.

Dadam doim “Sirdaryoda bir tog‘amiz bor, katta olim, ko‘pchilikka ibrat inson” derdi. Men u paytlar maktab o‘quvchisi edim. Umrzoq O‘ljaboyevning o‘sha paytlardayoq oliygohda ishlashlarini, katta olim ekanligini bilardim, ammo hali yuzini tanimagan tog‘am haqidagi dastlabgi taassurotlarim – oppoq ko‘ylakdagi, galstuk taqib olgan, kelishgan-baquvvat inson deb bilardim.



O'qituvchilarimizdan hayiqib turganligimiz sababli haybatli va o'ta jiddiy inson ko'z oldimga kelardi...

Oliygo'ha ilk qadam qo'yar ekanman, dastlabki darsga kirdik (GulDUda dars boshlangan kuni kirganman). O'sha kuniyoq tog'am nega darsga kirmayaptilar, deb o'ylagandim. Keyinchalik bilishimcha, tog'am meni o'qishga kirganimni, uning uzoq jiyani ekanligimni bilmagan ekan. Chunki minglab jiyanlari oliygo'hlarda oqir, hammasini bir vaqtda tanishning iloji yo'q edi.

Biz GulDUning asosiy binosida, 4-qavat 429-xonada o'qirdik. Yonimizda o'qituvchilar xonasi va O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası joylashgan. Kafedraning peshtoqiga kafedra mudiri f.f.n., dotsent U.O'ljaboyev deb yozib qo'yilgan. Men shu xonaga kirishga jazm qildim. Tog'am bilan ilk uchrashuv shu kuni sodir bo'ldi. Xona ixcham jihozlangan, javonda yuzdan oshiq kitob taxlab qo'yilgan, ayrimlari katta va qalin kitoblar, stol ustida sochilib turgan bir necha kitob, tog'am esa nimalarnidir yozib o'tiribdi. Men gavdali, semiz odam bo'ladi deb o'ylaganim uchun "O'ljaboyev domla kerak edi" deb so'radim. Menman, keling, dedi yonidagi stulga ishora qilib... Men o'zimni tanishtirdim. Bizga jiyani ekansanku, deya uydagilarimni so'ray boshladi... o'qishlarim, rejalarim haqida so'radi. Mana shu 4 daqiqalik suhbat meni hayotimda keskin burilish yasadi. Ilmga, kitobga bo'lgan munosabatimni o'zgartirdi.

Umrzoq O'ljaboyev olim bo'lsa-da, yaxshi tog'a edi. Ko'plab tog'amlar qilmagan yaxshiliklarni qilganlar, biror marta mening jiyanim bo'ladi, deb boshqa bir o'qituvchiga bosim o'tkazmagan (har qalay bizni yonimizda aytmaganlar). Qanaqa kitob kerak bo'lsa berardilar, kimgadir ishimiz tushsa, yo'lini topib berardilar. O'zi sodda, samimiy inson edilar. So'zni o'ylab ishlatardilar, aytgan gapini qilardilar, qilgan ishlari doim o'rnak edi. Har bir so'zida hikmat bor edi, nigohidan ma'no uqilib turardi. Qilayotgan ishlarimiz, gapirayotgan gaplarimiz to'g'rimi, xatomi uning ko'zlarida ifodalanardi. Tog'a sifatida juda ko'plab yordami tekkan, ilm yo'lida dastlabki qadamlarni o'zlari qo'yib berganlar. Q.Ko'bayev rahbarligida yozgan bitiruv malaka ishimga taqirizchilik qilgan, keyinchalik magistraturada o'qiganimda ham, aspiranturada o'qiganimda ham ilmiy yo'nalishlar berib turardi. Nomzodlik ishimni himoya qilganimda ham Ustozim Risolat opa bilan birga borib, himoya jarayonini kuzatib o'tirgandi. O'shanda o'zimni juda baxtiyor sezganman.

Tog'amiz yaxshi olim edilar. Biz Umrzoq O'ljaboyevning darslarini intiq bo'lib kutardik. Chunki darslar nazariy jihatdan puxta, fikrlar teran va ilmiy asoslangan bo'lar edi. Ayniqsa Abdulla Qahhor ijodi haqida dars o'tganlarida biz boshqa olamga tushib qolar edik.

Domla Abdulla Qahhor ijodini o'rgatar ekan kechasi bilan ijodkor ikkisi suhbatlashgandek, maslahatlashgandek ko'rinar edi. Ustozning qiyofasida Qahhor gavalanar edi, xuddi Qahhorni ko'rib turgandek bo'lar edik. O'zim Abdulla Qahhor ijodini sevib o'qiyman, hikoyalarini qayta-qayta mutolaa qilaman, ba'zan misollarni ham "O'g'ri", "Bemor", "Adabiyot muallimi", "Ming bir jon", "Dahshat" singari hikoyalaridan olaman. Bu xislatlar ham ustozimiz – Umrzoq tog'adan o'tgan bo'lsa kerak. "Mayiz yemagan xotin", "Anor" hikoyalarini

o'rgatayotganda xuddi Abdulla Qahhor qiyofasiga kirib olardilar, nigohlari o'tkir, o'ziga yarashib turgan peshonasidagi ajinlar ham darsni o'tishda detal bo'lib xizmat qilardi. Hikoyalarni tahlil etar ekan, har bir qahramonni qiyofasi gavdalanar, xarakteri uyg'onardi. Ayniqsa, Qobil bobo obrazini ifodalanishida mirshablarning turishi va ko'rinishini ustamonlik bilan gavdalantirardilar: "Nega yig'lanadi, yig'lanmasin"... qaysi zamon? Tilshunoslikda shunaqa zamon bormi? So'zni ishlatish, uni ifodalash, mazmun-mantiqini ko'rsatish, gavdalanayotgan obrazning qiyofasi, xarakterini ochishni ustozdan o'rganganmiz. Tashqi tomondan oddiy so'zlar bo'lib ko'ringan bu jumlar, dars mashg'ulotlarida o'tdek chaqnardi. "Sotiboldining xotini og'rib qoldi..." bu kasallikning qaysi turi? Nima bo'lgan bu bemorga? Shu tipdagi savollar berib bizni darsga olib kirardi. Darsda O'ljaboyevning o'qituvchilikdan asar qahramoniga o'tib ketishi, asar qahramonidan Qahhor siymosiga o'tishi, Qahhor siymosidan davr muhitiga o'tib ketishi... adabiyot olamida sayr etishga undardi. Ustozdagi bu mahoratlarni hali hanuz o'zlashtira olmadik. O'z fikrlarini dalillashni yaxshi bilardilar: talabalar qanaqa savol berishmasin, uzoqdan olib kelib, misollar bilan javob berardi. Bu javob aynan boshqacha bo'lardi. Hikoyalar tahlilida har bir detalga munosabat bildirardilar. A. Qahhor iborasi bilan aytganda, sahnada osilgan miltiq, albatta, otilar edi. Urush davrining dahshatli qiyofalarini ustozning yuz ifodasida ko'rib turardik. So'zlaganda betakror so'zlardi, bir so'zni o'rni kelmasa takrorlamas edilar. Har bir talabaga aytilajak so'zi bor edi. Har bir talabaning ismi, familiyasini bilardi, hattoki xarakterlarini ham bilardi, nazarimda.

Umrzoq O'ljaboyevning oilasi ham o'rnakka loyiq. Ziyoli o'g'il-qizlar o'stirgan. Turmish o'rtog'i Risolat Shernazarova (umrlari uzoq bo'lsin) kuchli metodist. Viloyatimiz, qolaversa, Respublikamizda o'rni bor ustoz. Bugungi kunlarda ilm yo'lidan borishimda Risolat opamning o'rni beqiyos. Shogirdlari doim eslashadi. Yozgan kitoblarini sevib o'qiydi.

Domlaning "Fidoyilikda kechgan umr", "Kuy avjida uzilgan tor", "Qahorning nazari tushgan yigit", "O'lmas istedod jilosi" singari maqolalari huddi o'zi haqida yozilgandek, o'zini tavsiflagandek tuyuladi.

Ustozning katta amallarda ishlaydigan mashxur o'rtoqlari ko'p edi. Biz bilan doim ularni uchrashtirardilar, turli uchrashuvlar tashkil qilardilar. (Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Suyuma Ganiyeva, Omonulla Madayev, Umarali Normatov... singari shoir, yozuvchi, olimlarni shu inson tufayli ko'rganmiz) Guliston davlat universitetiga tamal toshi qo'yib, bizni tark etgunicha sadoqat bilan ishladilar. Ustozning "Xotirada chizilgan izlar" (1992), "Urush davri o'zbek hikoyachiligi" (2006), "Badiiy tasvirning haqqoniyligi" (2008), "Xotiraga ko'chgan umrlar" (2008), "Do'st bilan obod uying" (2012), "Abdulla Qahhor saboqlari" (2013) nomli kitoblari hamda 1000 ga yaqin maqolalari ilm ahli tomonidan yuksak baholangan va yosh olimlar uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Umrzoq O'ljaboyev doim shogirdlar ardog'ida bo'ldilar. O'zi yashab o'tgan umri bilan hammamizga o'rnak, ustozni qancha eslasak, xotirlasak kam. Ustoz o'z hayoti bilan, ijodi bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan, hayotlik chog'larida o'ziga chin ma'noda haykal qurgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot (majmua), III kitob. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 467-478-betlar.
2. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: “Kamalak” nashriyoti, 2016. 280-286-betlar.
3. “Yoshlik” jurnali, 2014-yil. 9-son. 5-10-betlar.

### **ILMGA YO‘LLAGAN ZABARDAST YO‘LBOSHI**

*Nodira XOLIKOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti*

2022-yil, iyul. Guliston shahriga ilk bor kelishim edi. Yaqin o‘rtog‘im Sirdaryoxon Guliston davlat universitetining O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi magistraturasida 1-kursni tamomlayotgan edi. Uning maslahati bilan men ham shu yerning magistraturasiga hujjat topshirdim. U paytda hali Jizzaxda bizning yo‘nalish bo‘yicha magistratura ochilmagan edi. Shu sababli GulDUga hujjatlarimni topshirdim va o‘qishga kirdim. Mandat kunlari O‘zbek adabiyoti kafedrasida men ilk bor ustoz Umrzoq O‘ljaboyevni ko‘rdim. O‘sha kunga qadar bu inson haqida Sirdaryodan ko‘p iliq so‘zlar eshitgandim.

Qarshimda 60ga kirganiga qaramasdan, ko‘rinishi yosh va navqiron, lekin sochlariga biroz oq oralagan, baland bo‘yli, oppoq ko‘ylak kiygan, basavlat va viqorli, nigohlari o‘tkir bir inson turardi. Bir qarashda bu viqor va jiddiy qiyofa odamni biroz sergak torttirgandek bo‘lardi. Shu payti bizning suhbatimiz boshlandi.

Assalomu alaykum, domla.

Va alaykum assalom qizim. Yaxshimisan? Ota-onang, uydagilaring, hammalari sog‘-salomatmi?

Shukur, rahmat, domla, hamma yaxshi.

Sen Jizzaxdan ekansan. Sening yurtiingda mening oshna-og‘aynilarim bor. Bittasi Qodirjon Pirmatov, yana biri Usmonjon Qosimov, yana Tursunqul Almamatov ham bor.

Qanday yaxshi, domla! Bizning eng sevimli, fidoyi ustozlarimiz sizning o‘rtoqlaringiz ekan!

Ha, qizim, bizda ham yaxshi ustozlar ko‘p. Xudo xohlasa, ular bilan tanishasan. Bugundan e‘tiboran sen Guliston davlat universitetining magistrantisan. Kursdoshlaring bilan tanishib ol, qattiq kirish endi o‘qishga. Senga bitta ilmiy rahbar ham tayin qilamiz hali.

Katta rahmat, domla. Xudo xohlasa, sizning ishonchingizni, albatta, oqlayman.

Yaxshi, qizim.

Shu bilan Umrzoq O‘ljaboyev bilan xayrlashib, xonadan chiqdim. Talabalar yotoqxonasiiga yetib kelguncha to‘xtamasdan, to‘lib-toshib domla haqidagi

taassurotlarimni aytganim yodimda: “Sirdaryo, bunaqa ustozni hech ko‘rmagan ekanman. Bunchalar samimiy, bu qadar mehribon, so‘zlari ma'nili va zalvorli inson hayotda juda kam bo‘lsa kerak-a, dugona?!”

Shu-shu har hafta Gulistonga qatnashni boshladim. Payshanba kuni tong saharda avtobusga minib, yo‘lga chiqardim. Soat 9 gacha darsga yetib kelardim. Juma kuni darslar tugagach, kechga tomon uyga yetib kelardim. Har safar kelganimda Umrzoq O‘ljaboyev domlani ko‘rmasdan ketmasdim. Domlani darsda ko‘rolmagan kezlarim u kishi bilan ko‘rishish uchun kafedraga kirardim. Eshikdan bosh suqib, mo‘ralashim bilan menga nigohlari tushgan Domla nima ish qilayotganidan qat'i nazar: “Ey, Nodiraxon, qani, kel qizim”, deb men bilan so‘rashib ketardilar. Meni hamisha quvontirgan va hayratga solgan narsa shu ediki, O‘ljaboyev domla so‘rashgan paytida o‘zi tanigan-bilgan va, hatto, bilmagan insonlar haqida birma-bir hol-ahvol so‘rardilar. Juda sokin, ohista, shoshmasdan gapirardilar. Har zamonda kulib, jilmayib qo‘yardilar. Chunki tabiatan jiddiy inson edilar.

Magistraturada o‘qish davrida baxtimizga taniqli adabiyotshunoslar dars o‘ta boshladilar. Universitetning ustozlari – Vahob Rahmonov, Anqaboy Quljonov, Qobil Kubaev, Muzaffar aka, Toshkentdan kelib dars o‘tgan ustozlar orasida Begali Qosimov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Ibrohim Haqqulov, Bahodir Sarimsoqovlar bor edi. Rahmatli Begali Qosimov, ko‘pincha, o‘z moshinasida Qozoqboy Yo‘ldoshev bilan Gulistonga dars o‘tish uchun kelardilar. Ba’zida esa biz Toshkentga borardik. Toshkentga kelgan paytlarimizda Ibrohim Haqqulov va Bahodir Sarimsoqovlarning ham oldilariga borib, ularning darslarida adabiyotshunoslik sohasiga oid ko‘plab yangiliklardan boxabar bo‘lardik.

Menga professor Begali Qosimov ilmiy rahbar qilib belgilandi. Klassik adabiyotga, jadid adabiyoti va ma’rifatparvarlariga mehrimni tushirgan ustoz shu olim bo‘ldi. Toshkentga, domlanning oldiga borib, magistrlik dissertatsiyamning mavzusini belgilab oldik.

Yolg‘izgina O‘zbekistonda emas, qardosh o‘lkalarda, xorijiy olimlar davrasida tanilgan olimning kamtarligini va samimiy inson ekanini ko‘rib, “Buyuklik – oddiylikda” deb aytishlari bejiz emas ekan, degan xulosaga keldim. Keyinchalik bilishimcha, Begali Qosimov bilan Umrzoq O‘ljaboyev talabalik davridan boshlab 40-yillik qadr-don o‘rtoqlar bo‘lishgan ekan. Umrzoq O‘ljaboyev domlanning Guliston universitetida ajoyib ilmiy muhit yarata olganining sababi ham shunda ekan. Ularning do‘stligi tufayli Begali Qosimov toshkentlik bir qancha olim hamkasblari va o‘rtoqlarining Gulistonda o‘rindoshlik asosida dars berishlarini yo‘lga qo‘ygan ekanlar. Bu haqda rahmatli ustozimiz o‘z xotiralarida shunday yozganlar: “Begali do‘stlariga nisbatan, darhaqiqat, g‘oyat oqibatli inson edi. Agar ulardan birortasiga o‘zining yordami kerak bo‘lib qolsa, hech og‘rinmasdan bu ishni qilardi. Masalan, bir vaqtlar GulDUdagi men ishlaydigan kafedra qoshida magistratura ochish zarurati bo‘lib qoldi. Lekin buning uchun kerak bo‘ladigan ilmiy salohiyat kafedrada u qadar yetarli emas edi. Shu masalada yordam so‘rab unga murojaat qildim. U nafaqat o‘zi, balki O‘zMU professorlari N.Rahmonov, Q.Yo‘ldoshevlarni ham bu ishga jalb etib, bir necha yillar davomida

ular o‘rindoshlik asosida faoliyat ko‘rsatishib kafedramizga yaqindan yordam berishdi... Mana shunday ishlarni qilish uchun uning qanchalik qimmatli vaqti ketganligini, Toshkentday joydan Gulistonga kelib ketish oson bo‘lmaganini tushunish unchalik qiyin emas. Bularning hammasini Begali men uchun, menga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash va kerak bo‘lsa, mening hurmatim uchun qilganini yaxshi bilardim. Buni boshqalar ham bilishardi va havas bilan e’tirof etishardi”.

Darhaqiqat, O‘ljaboyev domlaning Begali Qosimov haqidagi esdaliklarini o‘qib, ularning do‘stligiga faqat va faqat havas qilasan kishi. Do‘sting kimligini ayt, men sening kimligingni aytib beraman, degan hikmatli so‘z bor. Bu ikka ulug‘ Ustozlarimizda kuzatganim mushtarak jihatlar ko‘p edi. Shu o‘rinda ularni do‘st sifatida birlashtirib turgan xislatlar bor edi. Bu, avvalo, odamiylik edi, qolaversa, kamtarlik, samimiylik va zakiyliklari edi.

Ustozim Begali Qosimov bilan boshlagan ilmiy ishimni davom ettirish niyatida magistraturani tamomlagach, O‘zbekiston Milliy universiteti aspiranturasiga o‘qishga kirdim. Hech kutmagan edim, 2004-yil 25-sentyabrda Begali Qosimovda omonatlarini topshirdilar. Karaxt bo‘lib qoldim. Bu mash‘um voqyea ustozni bilganlar uchun ham judayam yomon ta‘sir qilgani aniq. Shulardan biri Umrzoq O‘ljaboyev edi. Eng qadrdon do‘stidan ayrilgan Domlaning ahvoli juda tushkun edi. Begali Qosimovning ehson oshiga kelgan O‘ljaboyev domlani Talabalar shaharchasida dugonam Sirdaryo bilan uchratganimizda Domlani shu qadar tushkun, ezgin ahvolda ilk bor ko‘rishimiz edi, o‘zimizcha taskin berishga uringanmiz o‘shanda. Hozir o‘ylasam, Domlaning dardini yuzdan birini ham anglamagan ekanmiz. Tushunish boshqa ekan, odam o‘z yaqinlaridan ayrilish azobini boshiga tushgandagina his etadi, shekilli. Onamning, yaqinlarimning, mana Umrzoq Domlaning vafotlari o‘sha lahzalardagi iztiroblarning nechog‘li og‘ir bo‘lganini ko‘rsatib turibdi.

Mening aspiranturaga kirish haqidagi arizamga Begali Qosimov vafotlaridan to‘rt kun oldin yotgan holatida imzo qo‘yib bergan edilar. Bu Ustoz Begali Qosimovning so‘nggi dastxati bo‘lgandi. Kandidatlik ishimni ularning suyangan shogirdi professor Nurboy Jabborov rahbarligida yakunladim.

Oxirgi 2-3-yil Umrzoq aka betob bo‘lib yotib qoldilar. O‘sha payti bizga qo‘shni bo‘lib yashardilar. Bir kuni singlim bilan domlani yo‘qlagani chiqdik. Domla karavotda yotardilar. Bizni ko‘rib o‘tirdilar, chunki u payti hali o‘rinlaridan turolmas, yurolmasdi ham. Bir soatlar chamasi gaplashib o‘tirdik. Keyin xayrlashib, domlaga ko‘tarinki kayfiyat tilab xayrlashdik. Uydan chiqishimiz bilan singlimning hayrati ichiga sig‘may: “Nodira opa, bu domla shunchalar ziyoli inson ekanki, hatto kasal bo‘lib yotgan joyida ham xuddi ishxonada o‘tirgandek, juda orasta, qo‘llariga hatto soat ham taqqanlar!” Ha, domla juda bashang emas-u, lekin juda chiroyli va did bilan kiyinardilar. Men bu inson siymosida suvrati-yu siyrati go‘zal ustozni kashf qildim.

Domlani yo‘qlash uchun so‘nggi bor 2021-yil may oyida borgan ekanman. O‘shanda domla, Risolat opa, men va Sirdaryo ancha paytgacha suhbat qildik. Biz domlani tinglab o‘tirdik. O‘sha kuni domla yana bir qadrdoni Abdulla Oripov

haqidagi xotiralarni gapirdilar. Umrzoq aka ayrim voqyealarni kulib-kulib soʻzlab berardilar. Biz esa u kishini maroq bilan tinglar edik. Oʻsha kuni domlaga bir rejissyor telefon qildi. Domla u bilan gaplashdilar. Soʻngra “Meni rasmga olib, mana shu raqamdagi telegramga joʻnatib ber”, dedilar. Bilsak, oʻsha rejissyor Umrzoq Oʻljaboyev domlani Abdulla Qahhor haqidagi filmning bosh roliga taklif qilayotgan ekan. Lekin u payti hali domla yaxshi kuchga kirmagandilar, hassada yurayotgan edilar. Balki shu bois ham kinoda rol oʻynash taklifini rad etgandirlar. Darhaqiqat, domlani qalin tutash qoshlari, qora koʻzlari va oʻtkir nigohlari Abdulla Qahhorni yodga solardi. Yozgan kitoblaridan ham Abdulla Qahhorning nafasi kelib turgandek boʻladi, nazarimda. Rejissyor ham bejiz Domlani bu rolga tanlamagan koʻrinadi. Qiyofalari garchi juda oʻxshab tursa-da, biz ham rolga juda mos ekanliklarini aytib, koʻndirishga urinsak-da, Domla Abdulla Qahhor rolga oʻzlarini munosib koʻrmayotgandilar. Hozir oʻsha lahzalarni koʻz oldimga keltira turib, Domladagi kamsuqumlikdan rosa mutaassir boʻldim, oʻz oʻrnini bilish, odob darslarini olgandek boʻldim.

Shu kunga qadar hayotimda koʻplab olimlarni, koʻplab buyuklarni uchratdim. Barcha-barchasidan cheksiz minnatdorman. Bular orasida Umrzoq Oʻljaboyevdek inson bilan, tom maʼnodagi chin ustoz bilan uchrashtirgan Allohga behad shukurlar aytaman. Chunki aynan shu inson mening hayotimda, taqdirimda tub burilish yasadilar. Toʻgʻri, men juda koʻp yutuqlarga, darajalarga erishmagandirman. Lekin erishgan nimaiki muvaffaqiyatim boʻlsa, hammasiga ustozim Umrzoq Oʻljaboyev tufayli erishganman. Biz shogirdlarini katta ilmiy muhit bilan tanishtirgan, yyetuklik sari yetaklagan va har tomonlama ibrat boʻlgan olim Umrzoq Oʻljaboyevning ruhlari shod, oxiratlari obod boʻlsin.

Millatimizning Umrzoq Oʻljaboyevdek mehri daryo, fikri teran, amali goʻzal, ibrati cheksiz olimlari koʻp boʻlsin, iloho!

## **UMURZOQ OʻLJABOYEV – ADABIYOTSHUNOS OLIM**

*Dilovar NURMURADOVA,  
ToshDOʻTAU, Adabiyotshunoslik  
mutaxassisligi, 1-kurs magistranti*

Togʻam bizlar bilan qoʻshni yashaydi. U kishi kasal boʻlib qolgandan beri oldiga tez-tez borib turadigan boʻlganmiz.

Men esimni taniganimdan buyon togʻam va yangam Risolatlarning uyidan har doim mehmon arimaganligini eslayman. Ularning oʻzlari ham mehmon boʻlmasa zerikib qoladigan odamlar toifasidan. Togʻamni Toshbuvi ismli onalari bor. U kishi bizlarning ham katta onamiz. Meni dadamning onasi Iqboloy togʻam Umurzoq Oʻljaboyevning opalari boʻladilar.

Togʻam haqida soʻzlashdan oldin, Toshbuvi onamni xotiralashni lozim deb bilaman. Chunki Toshbuvi onam nihoyatda savodxon, gazeta, jurnallarni oʻqib beradigan zukko ayol edi. Uylariga mehmon boʻlib borganimizda oʻzimiz

o'qiyotgan fanlardan chiqargan savodimizni tekshirib, ilmimiz darajasini belgilab og'zaki bahoyimizni ham qo'yardi.

O'sha paytlarda onamiz yetmishlardan oshib, saksonlarga yaqinlashib qolgan edi. Ana shu yoshida badiiy asarlarni o'qib, gazeta, jurnallardagi hikoya, ocherk, maqolalar haqida o'z fikrlarini ravon tilda so'zlashini eshitib menda adabiyot faniga qiziqish paydo bo'lgandi.

Hech esimdan chiqmaydi. Bir kuni tog'am bilan Toshbuvi onam ikkovi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanini videofilmi variant bilan, kino variantini bir-biridan farqli tomonlari haqida suhbatlashib onam:

- Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarini suratga olib, film qilgan rejissyorlar, ssenariychilar, rollarda o'ynagan aktyorlar Abdulla Qodiriyga zamondosh odamlar edi. Shuning uchun ham ular yaratgan filmlar samimiy, o'sha davr havosi ufurib turgan asarlar bo'lib, xalqning bir umr yodida qolishdi. Uni hamon odamlarimiz sevib tomosha qilishadi, - dedi. Tog'am dasturxon ustidagi non urvoqlarini bir joyga to'plab, boshini ham qilib o'tiraverdi. Oradan ancha vaqt o'tib tog'am boshini ko'tarib, uyalganday onasiga qarab:

- Opa, sizni boshingizni ichidagi o'ylar biron bir qarindosh urug'da yo'q. Hatto olim bo'lsamda, men ham sizni bu gapingizdan hayratlanib, juda to'g'ri fikrni aytayotganligingizni his qilib turibman, - deya onasi tomon siljib, bag'riga bosib:

- To'g'ri, juda to'g'ri onajon, - dedi ixlos bilan.

Ha, Toshbuvi onamiz o'tgan kunlardagi notinch zamonimizning barcha qiyinchiliklari, azoblarini ko'rgan mehnatkash, jafokash. Urushgacha bo'lgan ocharchiliklarni, urush davridagi fojealarni guvohi bo'lgan ayol edi. U kishi o'tgan kunlari hikoyalarini odamning yuragini larzaga keltiradigan voqealar bilan boshlab, yorug' kunlarga chiqqan damlarini qalbimizni quvonchlarga to'ldiruvchi voqealar bilan tugatardi. O'z davrida onamizning o'qishi uchun shart-sharoitlar bo'lganda yurtimizning sevimli yozuvchisi, olimi bo'lishi muqarrar edi. Afsus, unday kun onamizning boshida bo'lmadi. Ammo, onamizning orzulari o'g'li-filologiya fanlari nomzodi, dotsent, hukumatimizning ordenlari, medallarini olishga muyassar bo'lgan "Mardlik va matonat tasviri", "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari", "Xotirada chizilgan izlar", "Urush davri o'zbek hikoyachiligi", "Badiiy tasvirning haqqoniyligi", "Xotiraga ko'chgan umrlar" kabi asarlari, yuzlab maqola, esselari bilan adabiyot ahli orasida hurmat-izzatga ega bo'lgan farzandi Umurzoq O'ljaboyev bo'y ko'rsatdi.

Olimning adabiyot olamidagi xizmati haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov shunday samimiy satrlarni bitgan edi:

- " Biz Umurzoq bilan bir universitetda ta'lim oldik, yyetuk ustozlar sabog'ini eshitdik. So'ng u taniqli olimlardan biri bo'lib yetishdi. Uning asosiy tadqiq obyekti – Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlar tahlili bo'ldi.

Amerikalik ulug' adib E.Xemingueyning gapi bor: "Dunyoda abadiy yashaydigan to'rtta mavzu bor, - deb yozadi u. Mehnat, muhabbat, urush va o'lim. Qolgan barcha gaplar shu tushunchalar atrofida aylanadi". Juda teran fikr. Urush yomon narsa, iflos narsa. Biroq insoniyat tarixining o'zi urushlar tarixidan iborat.

Shu bois bu mavzuda o'nlab, yuzlab teran asarlar yaratilgan va bundan keyin ham yaratilaveradi. Umurzoq o'z tadqiqotida urush va inson qismati degan juda muhim yo'nalishni bosh mavzu sifatida o'rtaga qo'yishi bejiz emas. Zero, Urush va Inson degani abadiy muammodir". Umurzoqning yuzlab maqolalari, "Mardlik va matonat tasviri", "O'zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba'zi masalalari", "Urush davri o'zbek hikoyachiligi", "Badiiy tasvirning haqqoniyligi" va boshqa kitoblari, o'nlab portretlari, o'z ustozlari hamda hamkasblari haqidagi teran va o'kinchli xotiralari olimning sermahsul ilmiy-ijodiy izlanishlaridan darak beradi". [10, 279] Ijodkor ahli, ayniqsa iste'dodli yozuvchilar adabiyotshunos olimlar, shoirlar, yozuvchilar haqida yozishganda yozayotgan iste'dod sohibining asari yonida yana bir asarni dunyoga keltiradilar. Bunday tahlil bo'lajak ijodkorlarga koni foyda va saboq darsidir. Bugungi oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talabalarni qalb ko'zini ochishda iste'dodli yozuvchilarni taklif qilib, ularning qalb yolqinlari taftidan tinglovchilarni bahramand qilmoq kerak.

Ayni shu masalada ham tog'am Umurzoq O'ljaboyev olim sifatida qarshisidagi o'quvchilarining qalbini anglashi bilan ham ancha oldga harakatlangan olim ekanligini u kishi uzoq-yillar dars bergan Guliston davlat universiteti rektori Ashraf Eminov o'zining "Jonkuyar ustoz" maqolasida samimiyat bilan e'tirof etgan:

- "Mas'uliyatli mehnati orqasidan xalqimiz orasida katta hurmat va e'tiborga sazavor bo'lib kelayotgan insonlar bizning Guliston davlat universitetimizda ham talaygina. Respublikamizda taniqli bo'lgan adabiyotshunos olim Umurzoq O'ljaboyev qariyb ellik yil mobaynida universitetimizda samarali faoliyat olib borayotgan ana shunday hurmatli ustozlarimizdan biridir.

...Umurzoq O'ljaboyev o'zi mudirlik qilgan yigirma-yildan oshiq vaqt davomida "Adabiyotshunoslik" kafedrasidagi ilmiy salohiyatni yanada ko'tarishga harakat qildi. Buning uchun avvalo, kafedradagi salohiyatli kadrlar yetishtirish masalasiga alohida e'tibor berdi. Shu bilan bir qatorda u O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamda yetakchi oliy yurtlarida adabiyotshunoslik sohasi bo'yicha mashhur olimlarni o'rindoshlik va soatbay shaklida ishga taklif etib,-yillar davomida talabalarimizni ulardagi boy bilim, tajribalardan bahramand etdi. Bunday olimlar qatorida O'zbekiston Qahramoni, mashhur adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov, O'zR FA akademigi Salohiddin Mamajonov, professorlar Begali Qosimov, Nasimxon Rahmonov, Ibrohim Haqqulov, Bahodir Sarimsoqov, dotsent Boybo'ta Do'stqorayev va boshqalar bor edi". [6-7, 279]

Tog'am Toshkentga kelgandan so'ng bir oz vaqt o'tib sog'lig'i yomonlashib qoldi. U kishining hayoti bir umr talabalar orasida kechdi. Shu sabab nafaqaga chiqqan bo'lsada, universitetda ularga saboq berishdan charchamadi. Toshkentdan Gulistonga qatnab ishladi. Sog'lig'i yana yomonlashib, uyida yotib qolgan damlari ham har suhbatlarida universitetdagi kechgan kunlari, xotiralari haqida yozishdan charchamadi. Umrining so'ngi kunigacha stoldagi oq qog'ozlarga yozilgan xotiralarga ko'zim tushgan.



Bir kuni uyiga borsam yangam Risolat va tog'am xo'sh-xursand gaplashib o'tiribdi. Ularning xursandchiligiga men ham qo'shildim. Shunda tog'am hush kayfiyat bilan:

- Universitetimizning rektori Muhsin Xodjiyev "domla masofadan turib farzandlariga saboq bersin" deb aytibdi. "Shunga tayyorgarlik qilayapman", - dedi. Hozir qadrdon auditoriyaga kirib, dars berishga chog'langanday. Dars bera boshladi. Shunday xursand bo'ldiki, o'sha xursandchilik sog'lig'iga ham ta'sir qildi. Qaddini tiklab, xassada yura boshladi. U kishidagi o'zgarish oilasidagi barcha jonu jigarlariga ta'sirini o'tkazdi. Universitet rektorining mehribonchiligi bilan umri beg'ubor qalblar ichida o'tgan olim olamni quchish darajasida kuch-quvvat topdi. Har gapidan Muhsin Xodjiyevni tilidan qo'ymay u kishiga o'zining mehr-muhabbatini sochib turdi.

Dunyoning ishi qiziq ekanda. Endi kuch-quvvatga to'lib borayotgan odamga shamollash kasali yuqdi va u o'zining kuchini ko'rsatdi. Do'st yoronlariga, qarindosh urug'lariga, o'zi sevgan talabalariga jonu jahonini bag'ishlab, ularga quvonch hadya qilib yurgan olim, odam hammamizni abadiy tashlab ketdi.

Jasadi Toshkentning qoq markazidagi ne-ne allomalar, buyuklar yotgan "Kamolon" qabristoniga qo'- yildi. Uyi va qabriston oralig'i unchalik uzoq emas. Uyidan tog'amning qabri ko'rinib turadi.

- Har tong turib domlaga salomimni beraman, - deydi rafiqasi Risolat yanga mahzun ovozda.

Tog'am qaysi ijodkor asari haqida maqolalar yozishdan oldin, tadqiq qilmoqchi bo'lgan hikoya, qissa, roman muallifining hayotini, xarakterini, ijodkorning qiziqishlarini chuqur o'rganib bo'lgandan keyingina ijodkor asariga munosabat bildirgan. Ko'p hollarda tadqiqotchilar ham asarni tahlil, tarjima qilishda ijodkor shaxsi bir chetda qolib, to'g'ridan to'g'ri asar tahlili va tarjimasi bilan shug'ullanadilar. Bunday tahlil va tarjima bir yoqlama bo'lib qolishi tabiiy jarayondir. Asar muallifi va asari parallel o'rganilib tahlil, tarjima qilinsa tahlil davomida adabiyotshunos olim yangi asarni dunyoga keltirsa, tarjimon asar tarjimasiga ijodkor shaxsi, xakteri va hayotidan yangiliklar olib kirib tarjima asarini yanada boyitadilar.

1986-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi vaqtli matbuotlarda nashr qilingan uch yuzta hikoyani o'qib chiqib, baholashni tog'am zimmasiga yuklagan ekan. Bunday mas'uliyatli ishni uyushma a'zolarini tog'amga ishonib topshirishida ham katta gap bor. Ular tog'amni iste'dodi, odilligiga ishonishgan edi.

O'sha kunlar haqida shunday xotirlaydi:

Adabiyot shinavandalari yaxshi bilishadiki, har yilning birinchi choragida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida badiiy ijodning turli yo'nalishlari bo'yicha oldingi-yilda yaratilgan asarlar bir sarhisob qilib olinadi. Har xil shakllarda dunyo yuzini ko'rgan ijod namunalari yaxlitlashgan umumiy manzarasini belgilashga harakat qilinadi. Bunday ish an'anaga aylanib qolgan, desa ham bo'ladi. Uyushma qoshidagi "Nasr" kengashining taklifi bilan 1987-yilda bir yil oldin (1986-yilda) turli nashrlarda e'lon qilingan hikoyachilik namunalari ko'zdan kechirib, baholashdek murakkab va o'ta mas'uliyatli ish ham bir vaqtlar zimmamga tushib

qolgan edi. Bu ham men uchun berilgan imkoniyat bo'ldi, shekilli. 1986-yildavomida turli yoshdagi mualliflarning adabiyot muxlislari e'tiboriga havola etgan uch yuzdan oshiq hikoyalari bilan tanishib, ular haqida o'zinning fikr-mulohazalarimni bildirishga harakat qildim. Ma'ruza asosida keyinchalik bir adabiy-tanqidiy turkum qilish fikri hayolimga kelib qoldi. "Bir yil hikoyalari" degan turkum shu tarzda yuzaga keldi. Keyingi-yillarda ham hikoyachiligimiz rivojini, unda sodir bo'layotgan katta-kichik o'zgarishlarni kuzatib borishdek ishdan unchalik uzoqlashmaslikka harakat qilib keldim. Garchi matbuot sahifalarida faol chiqishlar qilib turmagan bo'lsam-da, mening bir umrlik asosiy minbarim bo'lgan talabalar auditoriyasida – ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tish chog'ida bu boradagi o'z kuzatish hamda mulohazalarimni bildirib borishga intilganman" [4-5, 255]

Men bu kichik bir maqolada Umurzoq O'ljaboyevni ilmiy tadqiqot ishlariga to'xtalib o'tmoqchi emasman. U kishi haqida O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov, akademik Baxtiyor Nazarov, filologiya fanlari doktori Qurdoq Qahramonov, professor Shavkat Karimov, professor Qozoqboy Yo'ldoshev, filologiya fanlari nomzodi Sirdaryoxon O'tanova kabi o'nlab olimlar samimiy dil izhorlarini, adabiyot olamidagi o'rnini bildirib u kishi haqida yozilgan "Nurli manzillarga intilib" kitobida maqolalar yozishgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U. O'ljaboyev. Nurli manzillarga intilib, "Fan ziyosi" nashriyoti. – Toshkent 2021. 10-bet.
2. U. O'ljaboyev. Hikoyachilikda davr nafasi, "Turon zamin ziyo" nashr. – Toshkent, 2016. 4-5-bet.

### **TUSHLARIMGA KIRING, USTOZ**

**Gulbahor NASRIDDINOVA,**

*GulDU, Adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti*

Yozuvchi Said Ahmad shunday jummalarni yozgandi: Oybekning "Navoiy" romanining birinchi satrlarini yozayotganda qanday holga tushgan, buni bilmayman.

Shuni bilamanki, Navoiy dahosining salobati, qudtari, buyukligi oldida Oybekdek mumtoz yozuvchida ham qo'rquv, juratsizlik bo'lgan. Endi men Oybek dahosi oldida "borsa gumon" yo'l boshida hayron turibman. Umuman, Oybek to'g'risida biron nima yozishga haddim sig'adimi? Uning o'ziga munosib gaplar topa olamanmi? Navoiy Nizomiy dahosidan, Oybek Navoiy qudratidan istihola qilgan bo'lsa, endi men Oybekning buyukligi qarshisida dovdarayapman"[1]. Ayni damda bunday hislar meni ham chulg'ab olgandek bo'lyapti. Har bir inson hayotida hurmatining eng kattasi, mehr-muhabbatining eng salmoqdori bo'lgan munosib qadrlaydigan inson yoki insonlari bo'ladi. Shu sabab menda ham hurmati

baland mehribon insonlar anchagina, lekin ular orasida ustozim Umurzoq O'ljaboyev qadri balandlarning sarvaridir. Ustozni ilk ko'rgan kunim xuddi kechagidek hamon yodimda. Hayotda qancha yashaganing emas, eng muhimi qanday yashaganing . Vafot etganlarning hammasi ham insonlar tomonidan eslanavermaydi . Ammo shunday insonlar bo'ladiki, ular bu yorug' olamni tark etgan bo'lsa-da, insonlar xotirasida yashayveradi. Shuning uchun ham xotira bu – ikkinchi umr deyilsa kerak. Mening ustozim ham yaqinlarini, yor-u birodarlarini, minglab shogirdlarini xotirasida yashaydilar. Ustozning Guliston davlat unversitetiga kelib ishlashining o'zi shu oliygoh talabalari uchun yaratganning buyuk sovg'asi deb bilaman. Ustozning 75 yoshga to'lishi munosabati bilan katta bir adabiy tadbirni Guliston shahar 2-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida o'tkazilgandi. Unda respublikamizning turli viloyatlaridan, azim Toshkent poytaxtimizdan bir qancha adabiyotshunos olimlar domlani tabriklagani tashrif buyurgandi. Biz ham ustozimizni muborak yoshini qutlash maqsadida tadbirda qatnashgandik. O'shanda ustozning yaqin bir do'sti Omanulla Madayev so'zga chiqib aytgan gaplari esimda qolgan. “Umurzoq O'ljaboyev senga bu nom bekorga berilmagan isming o'zing -ga, o'zing ismingga mos tushgansilar. Mana eshitinglar Umurzoq o'ljasini tashlab qo'yib umrini o'tkazib-o'tkazib risolasidagi Risolatdek ayolga uylandi. ”[2] .Bu inson ustozning va ayolining ism-u sharfidan ajoyib so'z zanjirini hosil qilgandi. Bunday o'xshash va qiyoslashlarni ustozning tug'ilgan vaqti va joyidan ham topsak bo'ladi. “Boqiy shahar”, “Quyosh shahri”, “Sayqali ro'yi zamin”(Yer yuzining sayqali) deb nomlangan buyuk Temur tuzgan mamlakatning poytaxti qilib belgilangan muqaddas maskan Samarqandda 9-aprel kuni Jahongashta Sohibquron Amir Temur ham dunyoga kelgan kunda 1942 –yil butun dunyoga urush olovi sachrab turgan mahal ustozim Umurzoq O'ljaboyev ham tug'iladi. Ustoz Toshkent davlat universiteti (Hozirgi O'zMU) filologiya fakultetida 1960-1965-yillar talaba 1965-1968-yillarda aspirant sifatida tahsil olgan. 1968-yildan umrining oxirigacha Guliston davlat unversitetida talabalarga tahsil berib keldi. Umurzoq O'ljaboyev domladan bizga o'xshagan talabalarga, adabiyot ahliga yozgan maqolalari, kitoblari meros bo'lib qoldi. “Xotirada chizilgan izlar”, “Urush davri o'zbek hikoyachiligi”, “Badiiy tas'virning haqqoniyligi”, “Xotiraga ko'chgan umrlar”, “Do'st bilan obod uying”, “Abdulla Qahhor saboqlari ”kabi bir qancha kitoblar muallifidir.

Shuningdek, “Til ilmiga sadoqat”, “Filologiyaning dolzarb muommolari”, “El sevgan adib”, “Navoiy abadiyati” kabi to'plamlari hamda o'zbek adabiyoti uchun muhim masalalarga bag'ishlangan “Mangulikka dahldor inson”, “Fidoyilikda kechgan umr”, “Kuy avjida uzilgan tor”, “ Qahhorning nazari tushgan yigit” singari ko'plab maqolalarni chiqargan. Ustozning 53 yillik faoliyati davomida qilgan ishlari har bir maruza darslari badiiy kechalarni eslatar darajada o'tishlari kasbiga bo'lgan mehr-muhabbatini, bularning barisi ustozning vatan oldidagi burchini a'lo darajada oqlaganligini ko'rsatadi. Ustozning akademik Ahmadali Asqarov, Baxtiyor Nazarov professorlardan Qurdoq Qahramonov, Islomjon Yoqubov Dilmurod Quronovlar tomonidan birgalikda Oliy ta'lim tizimida adabiyot fanlarini o'qitish yuzasidan bildirilgan tashvishli va umidbaxsh

fikr-mulohazalari Prezidentga, Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga chiqishlari ham bu insonning ezgu ishlarga bosh-qoshligini ko'rsatadi. Bu haqda filologiya fanlar doktori Qurdoş Qahramonov "Ma'rifat" gazetasining 2019-yil 3-oktabrdagi sonida "Millat yo'lida kamarbasta" deb nomlangan maqolasida aytib o'tgan [3]. Ustozning kasbiy faoliyati yuzasidan qilgan ishlarining bir uchqunini ko'rsatdim xolos. Asosiy aytmoqchi bo'lgan gapim ustozning bizga o'tgan birinchi darslari bilan bog'liq edi. Bu dars men uchun nafasat darsi, odob-axloq odobnoma darsi bo'ldi desam, to'g'ri bo'ladi. Nega deysizmi? Unda eshiting! Universitetda havo boshqacha bo'lar ekan ... yomg'iri ham qori ham shomoli ham issig'i-yu sovug'i, seni silab o'tar ekan. Universitetda birinchi bosqich talabasiman, birinchi smestrni uch bahoga tugatib, osmonlarda uchib yuribman. Ikkinchi smestr ham boshlandi. Talabalar orasida yangi kiradigan domlarni g'iybati avj-pallada edi. Tavba o'sha payt bizga fan emas, domlalar qiziq bo'lganmi? "Bu smestrda eng talabchan, qattiqqo'l domla Umurzoq O'ljaboyev" degan hangoma qulog'im ostida qoldi. Xona ellikdan oshiq talaba bilan to'la, ovoz ham shunga yarasha edi. Birdan sukunat xonada hukmronlik qilardi. Shu payt ko'zim eshikdan kirayotgan domlaga tushdi, bu inson Umurzoq O'ljaboyev edi. Bilasiz go'zallik, chiroyli, toza so'zlar qizlarga, ayollarga ishlatish o'rinli har holda lekin men bu so'zlarni ustozim nomiga qo'shib aytishni munosib topdim. Jamiyatimizning qayerida bo'lmang turfa xil erkaklarga ayollar qatori ko'zimiz tushadi. Biroq men ustozimdek chiroyli, ozoda kiyinadigan erkak kishini uchratmagandim. Ko'zlarim nigohini bir daqiqaga bo'lsa ham boshqa tomonga qaratmasdan yuzimda hayrat qotgan holda ustozga termulardim. Yoshi yetmishdan oshgan bu inson juda bir katta nafasat bilan kiyinardi. Ustida kulrang kastum-shim bo'lsa, shu rangdagi galstuk taqardi. Ko'ylagi rangidedk ro'molcha ishlatardi. Men ko'p kuzatganman. Ha, kiyinishini gapirdim insonlarning nafas olishi ham bir-biridan farqlanar ekanda, ustoz gapirganda so'zlari bilan birga olayotgan nafaslaridagi ma'no-mazmuni his qilib tinglardik.

Ustoz darsga kirganda kotiba qiz kichkina choynakda choy bilan piyola olib kirardi. Choyni ichish madaniyatini ham ustozda ko'rganman. Stolning ustida turgan qo'llari bir – birining ustiga taxlanib turardi, shunda tirnoqlariga ham ko'zim tushgan ekan. Domla tirnoqlarini ham alohida parvarish qiladimi? Yo olloh o'zi bejirim qilib yaratganmi? Bilmadim. Har bir barmoqlarining tirnoqlari bir xil uchi uchqur shaklda bo'lardi. Poyabzalida ham hech bir changning asorati ko'rinmasdi. Qisqasi, bu yuksak did sohibiga darsning oxirigacha ko'zimni uzmay termulib o'tirdim. Ustoz keyingi darsga biz talabalar o'qib kelish uchun topshiriqlar berdi. Birinchi topshirig'imiz o'zbek adabiyotidagi birinchi roman "O'tgan kunlar" edi. Men bu insonning nazariga tushib qolishni, hammadan oldin e'tiborini qozonish maqsadida bu kitobni garchi o'qigan bo'lsamda yana qayta o'qidim. Kunlar o'tib ikkinchi darsimiz ham boshlandi. Ustoz yana o'sha ta'riflaganimdek, xonaga kirib kelardi. "O'tgan kunlar" romani edimi? Sizlarga o'qib kelishlaringga topshiriq. Qani kim chiqib gapiradi?" - deb gapini tugatmasidan o'tirgan joyimdan otilib turib "men" - deb javob berdim. "Qani chiqchi isming nima? Qayerdansen?" - deb mendan so'radi. Men ham

birinchilardan bo‘lib chiqqanimdan , domla bilan suhbat qurayotganimdan xursand bo‘lib, quvonib javob berardim. “Xidirova Gulbahor, Xovosdanman”. Ustoz: “Qani sen romandan nimani gapirmoqchisan”,- deb so‘radi. Men ham “O‘tgan kunlar” romanini gapiraman”,- dedim. Ustoz o‘ylanib turdi-da “ha, ho‘p O‘tgan kunlar” romanidan qaysi qahramonni gapirasan”. Men: “Otabekni, Kumushni, Yusufbek Xojini” - deb aytayotgandim ustoz biroz tajang holatda “O‘sha qahramonlardan qaysi birini gapirmoqchisan”,- dedi. Men ham nima deyishimni bilmay ya’na qayta “shu qahramonlar haqida gapirmoqchiman-da”,- deb yubordim. Ustoz asabi biroz emas, anchagina buzildi. “Xo‘sh, gapirchi, ko‘raylikchi nima demoqchisan? Sen o‘zi nimani so‘rayotganimni tushunmayapsan ”, - dedi. To‘g‘ri ham aytgandi, o‘shanda ustoz mendan nimani so‘rayotganini umuman tushunmayotgandim. “Mulla bilganicha o‘qiydi”, - deganidek men ham bilganimcha romanni gapirdim. Muallif qanday yozgan bo‘lsa, men ham shu yozilganlarini so‘zma-so‘z qilib, voqealarni aytishni boshlagandim ham-ki, domla gapimni bo‘lib “to‘xta” dedi. So‘ng “ Sen borib joyingga o‘tir yaxshisi, darsni ham buzding, kayfiyatni ham”, - dedi. Men og‘zim ochilgancha har tarafga qarayman birdan ko‘zim domlaga tushdi, qoshining bittasi ko‘tarilgan chimirilib, ko‘zlari jahildan chaqnab menga qarab turardi. Rosti qo‘rqib ketganimdan joyim topolmay, asli qaysi tomon yurishim bilmay, dovdirab turgandim, ustoz turishimni ko‘rib “sendan qanday filolik chiqadi, bitta asarni gapirishni bilmasang, maktab bolasiga o‘xshab gapirasan”, - deb yana dashnom berib qolsachi, ellikta talaba o‘rtog‘imdan birontasi jo‘mardlik qilib: “kel mana joying o‘tir desa qaniydi”. Men bu gapdan keyin battar gangib qoldim, boshim aylanib joyimni yo turtinibmi yo surtinibmi? Ishqilib bir amallab topib o‘tira oldim-da, o‘sha payti joyimdan boshqa panoh yo‘qdek edi. Shunday qilib, hammadan oldin domlanning ko‘ziga ko‘rinib qolish niyatim hartugul amalga oshdi. Darsda o‘tirganlar uchun tajriba quyoni bo‘ldim. Shundan so‘ng meni tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushib yurdim, ertasiga ham meni bu noxush kayfiyat tark etmasdi.

Universitetimizdagi maruza darslari o‘tiladigan zallar qator joylangan edi. Birinchi zalga talabalarga dars o‘tish uchun Mamarayim Isroilov degan domla kirishdan oldin meni ko‘rib, eshik oldida kutib turgan ekan. (Men Yangiyer Akademik litseyida tahsil olganman o‘sha payt bu inson litseyimiz direktori edilar. Meni yaxshi tanirdi ). Har doim kulib yurganimni ko‘rgan bu inson o‘sal bo‘lib yurganimni birinchilardan bo‘lib sezib “Nima bo‘ldi? Nega kayfiyating yo‘q? seni doim ko‘rganimda kulib turganing ko‘rib, xursand bo‘lar edim, nima bo‘ldi meni qizimga?”- deb so‘rab qoldi. Men ham to‘lib turgan ekanman: “Umurzoq O‘ljaboyev degan domla men o‘qib kelgan asarim uchun ham meni hammani oldida rosa urushdilar”,- deb yig‘lab dardimni dasturxon qildim. O‘shanda men o‘zimcha domlaga qarshi ko‘nglimda g‘alayon, isyon ko‘targandim. Bu diyman hamma ilm ahli vakillari bir xilda o‘ylaydimi? Mening ta’na-dashnomlarimni eshitib, Isroilov domla: “Men Umurzoq O‘ljaboyevni juda yaxshi taniyman. U inson bilimli seni bekorga urshmagan. Sen bekorga xafa bo‘libsang, o‘qib yana darslariga qatnashaver hammasi yaxshi bo‘ladi”, - deb maslahat berganlari kor qildimi? Har qalay ancha o‘zimga kelib qolgandim. Ertaga yana domlanning darsi.

“Kecha va kunduz” uyga topshiriq men domlaga achchiq qilib o‘qimay yuruvdim, keyingi darsiga “Navoiy” asarini oqish uchun tayyorlanishni boshlavordim. Bu dars o‘tib men kutgan dars ham boshlandi. Birinchi qatorda o‘tiribman, ikki yonimda ikki dugonam kim o‘zarga o‘ynagandek qo‘llarini ko‘tarardi. Birinchi bo‘lib gapirishga oshiqardi. Chunki ikkisi ham “Navoiy” romanning yozilish tarixiga tayyorlanib kelgandi. Ustoz hamma bitta narsani gapirmasin, derdi. O‘rtalarida men yerga qarab qo‘limni ko‘tarib o‘tiribman. Ustoz menga qarata gapirdi. “Mana shu qizga navbat beraylik yana avvalgidek gapirsang boshqa seni keyin turg‘izib gapirtirmayman. Bu senga oxirgi imkoniyat”. – deb ustoz yana meni chaqib oldilar. Kuchli hayajon ichidaman, vaziyatdan chiqib o‘zim holimga qaytvolishim uchun ustozga qaradim, ustoz boshini ikki qo‘liga tirab meni tinglashga shaydek o‘tirardi.

Men ham bu safar zo‘r gapiraman degan ma‘noni bildirish uchun tabassumga suyandim. Bilmay-qoldim menga qayerdandir kuch keldi-da? Rosa sakson minut romandagi to‘qima o‘brazlar haqida gapirdim. Har zamon ustozga qarab qo‘yaman, yuzida avvalgi g‘azab ko‘rinmaydi, bu esa meni battar hovliqtirar, yanada aytar gapim ko‘payib, tinmay notiqlik qildim. Shu payt birdan tanaffusga qo‘ng‘iroq chalindi, men gapirayotgan joyimda “uff ..uf” devordim, xuddi otasiga erkalik qilayotgan qizaloqdek ustozga qarab. Ustoz: “gapiraver, men seni eshitayapman”, - dedi. Ustoz mening “uff ” deyishim ostida “hali gapirmoqchiydim” demoqchiligimni tushungandi. Yana so‘zimni davom etardim, keyingi fan o‘qituvchimiz xonaga kirdi. Ustoz ularni ko‘rdi-da so‘rashib xonadan chiqib ketdi. Eng qizig‘i, menga asar tahlilim yuzasidan hech gap aytmadi. Men esa qo‘l qovushtirganicha qolaverdim. Qisqasi, kun bo‘yi domlani darsini o‘ylab yurdim. Darslar tugab talabalar turar joyida xonamga kirsam, u yerda xonadoshim meni kutib o‘tirgan ekan, bozorga boramiz deb. Dono opa bilan bozordamiz. Dono opa xarid qiladi, men og‘zim to‘lib bugungi dars tafsilotlarimni aytaman. U kishi ham domla haqida eshitganlarini aytib, fikrimga fikr qo‘shib turardi. “Oxirida hech gap aytmagani chatoq bo‘ldi-da, endi keyingi darsda qanday so‘rayman?” - aytib turgan paytimda bozor darvozasidan kirib kelayotgan ustozimni ancha ichkaridagi olma rastasining oldida turib, ko‘rib quvonib ketdim. Yonimdagi hamroh ham esimdan chiqib, katta bir tabassumdan og‘zimni ham yopolmay domla tomon borardim. Ustozga yaqin borganimda ustoz ham meni ko‘rganidan xursand bo‘lgani kulib qarab turganidan sezilardi. Ustoz va shogird bozor o‘rtasida darsning qolgani haqida suhbat qilardik.

Men o‘zimni uztozning shogirdi deb ko‘rsatayapman-u, lekin bu sharaflil nomga munosib ish qilganim yo‘q hali. Shunday bo‘lsa-da o‘zimni shogird deb ko‘rsatishdan tiyilolmayapman. Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahorning saboqlarini yillardirki olgani, u insonning yaxshi va yomon kunlarida doim yonida turgani to‘g‘risida aytib, o‘zini bu adibning shogirdi deb ko‘rsatishda istihola qilganini ko‘ramiz. “Nazarimda, “Abdulla Qahorning shogirdi” degan maqom shu qadar yuksakki, bunga sazovor bo‘lmoq uchun menga o‘xshagan odamlar butun umri davomida harakat qilishlari kerak bo‘ladi” [4]. Ikkalasi ham adabiyotimizning buyuk namoyondalari bo‘lishiga qaramay, muallifning aytgan

gapi taxsinga sazovor. Xuddi shunga o'xshash jarayonni ustozim Umurzoq O'ljaboyevda ham kuzatdim. Ustoz talabalik yillaridan boshlab, Ozod Sharafiddinovdan ilm o'rganib kelganini ko'p joyda bildirib o'tgan. U insonga bo'lgan hurmatini, mehr-muhabbatini, yozgan xotiralarini o'qigan odam darrovda anglaydi. Ularning munosabatlari juda yaqinligi birgalikda ko'p vaqtlarini o'tkazganliklarida ham ayon bo'lib tursa-da, lekin ustoz Ozod Sharafiddinov xotirasiga bag'ishlab yozgan "Ustoz allomaning hayoti va ijodiga bir nazar" xotira-essesida qahramoniga Ozod aka va ustoz deb murojat qiladi [5].

Biroq o'zini Ozod Sharafiddinov shogirdi ekanligini yozib kitobxonga maqtanmaydi. Biz bu sharafni ustozning o'zining tilidan eshitmasak-da, u kishining 70 yoshga to'lishi munosabati bilan yozilgan professor Yormat Tojiyevning tabrik xatidan o'qib bilvolamiz. "Men faqat shuni aytishim mumkinki, u, mening nazarimda, respublikamizdagi eng zabardast adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning beminnat ta'limini olgan, hech qimtinmay, "Men Ozod domlaning shogirdiman, axir" deya oladigan, barmoq bilan sanarli bu soha olimlari qatoridan mustahkam o'rin ola bilgan olimdir. Bu borada gapim – shu. [6]". Bularni aytishimdan maqsad buyuk insonlardagi kamtarlikni ko'rsatishdir. Yana o'z hikoyamga qaytaman. Buni qarang-ki, ustoz ismimni eslab qolibdi, "Ha, Gulbahor qandaysan?" (Universitetning eng ko'zga ko'ringan domlalarining yodida qolish, ular ismingni aytib murojaat qilishi bu talaba zoti uchun baxt edi-da, buni talaba bo'lganlar tushunadi). Men ham so'zimni salomdan boshlab, "assalom alaykum ustoz, yaxshimisiz dedim-da, faqat ertalabki dars" – deb mo'jmallanib turgandim. Ustoz ham shuni o'ylab turgan ekan. "Darsdan keyin seni o'ylab qo'yuvdim, darsda shu qizga gapirolmadim deb, mana qara bozorda uchrashib qoldik, bu safar har qalay avvalgi chiqishingdan ancha o'zibsan, yaxshi Gulbahor shunday davom etaversang qo'ling ham fikring ham ancha kelishib qoladi, ana undan keyin katta ilmiy ishlarni qilaverasan", - degandi. Bu gaplarni eshitib quloqlarim quvongandan raqsga tushardi. Bilasmi? Men o'zi doim quvnoq yurardim, lekin ustozning menga aytgan maqtov aralash nasihatga boy so'zlari butun ruhiyatimni yettinchi osmonga ko'targandi. Keyin ustoz mendan ota-onam haqida o'zi asli qayerlik ekanligimiz to'g'risida so'radi. Men xursand har bir savoliga javobim tayyor.

Ustozga shu darsgacha bo'lgan holatimni ham aytishga ulgurdim, Isroilov Mamarayim domlaning ham gaplarini aytdim. Shunda ustoz: "Sen Mamarayimni o'quvchisimisan, Yangiyer litseyida o'qigan ekansan-da", deb aytayotgandi, "ustoz bozorga keldizmi"- deb so'radim, bozordaligini ko'rib tursam ham "Ha, darsdan keyin bozor aylanish maroqli, ham nevaralarga u-bu narsa xarid qilaman, bularni endi o'zgacha bir gashti bor-da",- deb aytgandilar. (Ustozni tez –tez darsdan chiqib bozor aylanib yurganini ko'p ko'rganman). Maktabda boshlang'ich sinfda o'qiydigan bolalar ustozini ko'rganda qo'lidagi sumkasini olish uchun yuguradi. Ustozining sumkasini olib ko'tarish murg'ak ko'ngillarda ulkan quvonchni tug'diradi. Bolaligimda birinchi ustozim Toshpo'ltayeva Roziya opani sumkasini ko'tarish uchun sinfdoshlarim bilan yugurib borardik. Universitetda o'qib yursam-da bu odat meni tark etmagan ekan. Ertalab universitet hovlisi talabalar bilan to'la

hamma dars tomon oshiqadi. Men ham shu maqsadda ketayotsam ustoz o'zining kobalt mashinasida oldimdan o'tib ketdi. So'ng mashinani bir chekkada qoldirib o'zi bosh bino tomon yurardi. Men yugurib ustozga yetvoldim, salomlashganimdan so'ng qo'lidagi portfelini bering ko'taraman degandim, ustoz "Yo'q, qo'yaver, bu ham insonga yarashib turadi, salobatli qilib ko'rsatadi,"- degandi. Shunda ustoz o'ziga o'ta talabchan inson ekanligiga yana bir bor amin bo'lgandim. To'rt yil bu insondan tahsil oldim.

Oliygo'ha tugatishimiz uchun ham sanoqli oylar qolgandi. Bitiruvchi talabalarni BMI bo'yicha ilmiy rahbarlari bilan ro'yxatga kirgizib, qaror chiqarib qo'yish kerak bo'lgan payt men Universitetda emas edim. (Turmush qurish arafasida edim). To'y o'tib, o'qishga kelsam, meni ilmiy rahbarim qili, Yodgor Hamidov degan tilshunos domlani ro'yxatdan o'tkazib qo'yibdi. Rosti bu menga yoqmadi. Chunki, men BMIga rahbarim deb U.O'ljaboyevni orzu qilib, o'ziga ham aytib yurardim. Ustoz o'zlari aralashib bu muammoyimni hal qilib berdilar. Ustozning shogirdlari uchun vaqtini, ilmini ayamasligini shu BMI ustida qilgan say-harakatlarida chuqurroq angladim. Chunki men juda ko'p xato qilardim, ustoz hamma xatolarimni so'zma-so'z o'zi yozib to'g'irlab berardi. So'ng xatolaringni yaxshilab o'rganib chiq derdi. Ana shunday mehribon insonni o'ylamaslikning, eslab-xotiralamaslikning iloji yo'q. Ustoz menga otamdek qadirli. Xalqimizda "ustoz otangdan ulug'" degan naql ham bejizga emasligini his qilgandekman. Ustozning 75 yoshga to'lishi munosabati bilan qilingan tadbirni aytgandim. O'shanda ustozning aziz mehmonlari u kishi sha'niga aytgan so'zlarini eshitib biz talabalar ustozimizdan faxrlanib, havas bilan suhbatlarni tinglardik. Shunchalar quvonganimdan, mehrim oshib qo'limdagi guldastani berayotganimda ustozning nurga to'la yuzlaridan o'pib qo'ygandim. Ustoz yelkamni qo'li bilan qoqib qo'ygandi. Bilsangiz o'sha paytdagi sevinchimni chegarasi yo'q edi.

Mana hozir ham yozyapman o'sha kun shukuhi menda qayta yuz berib turibdi. O'qishni ham tugatdik, himoyadan keyin ulardan fotiha olish uchun ustozning uyiga bordik. Ustoz biz uchun qilgan duolari bu qutlug' xonadondan olgan eng katta ne'matimiz edi. Ustozning duolari qo'llab, universitetning magistratura bosqichiga Adabiyotshunoslik yo'nalishiga 2020-yil o'qishga kirdim. O'qishga kelgan kunimoq Umurzoq O'ljaboyev domlamni izladim. Kafedradan so'rasam, betobligini ancha vaqtdan buyon davolanayotganini aytishdi, eshitib bir g'alati bo'ldim. Ustoz bilan telefonda gaplashdim. O'qishga kirganim eshitib "juda yaxshi ish bo'libdida kirganing,"- deb aytgandilar. Men: "Ustoz ahvolingiz yaxshimi, qachon ishga chiqasiz" - deb so'raganimda, "Ha, hozir ancha yaxshi, o'rnimdan turib yurayapman" - deb aytganlarini eshitib shuni bildim-ki, ustoz ancha ahvoli og'ir bo'lgan demak. Suhbatimiz biroz cho'zildi, shu orada men BMI mavzuyimni davom ettirishimni, ilmiy rahbarim yana o'zlari bo'lishini istashimni aytgandim. Ustoz mavzuga ozgina o'zgartirish kiritib berdilar: "Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janri taraqqiyoti. Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov". "Rejalarini keyin ko'ramiz", - degandi. Men ustoz sizni ko'rgani uyingizga qachon borsam bo'ladi, deb so'raganimda "Gulbahor, hozir biz ko'chish taraddudidamiz, ko'chib joylashib olaylik, keyin o'zim aytaman". Shu suhbatdan keyin ancha vaqt



o'tib ustoz qo'ng'iroq qildilar, shoshib qo'ng'iroqni ko'tardim "Aloo, Gulbahor, yaxshimisan, o'qishlaring yaxshimi? Senga mavzuyingga rejalar tuzib qo'ygandim, shuni yozib olishga imkonning bormi", (mendani imkonning bormi deb so'radi). Qani, ayting-chi qaysi ustoz talabasiga shunday yordam qiladi? Yana talabadan imkonning bormi? deb so'raydi. Bunday insonlar mingtadan bitta bo'lsa kerak. Ustozni xotiralab juda ko'p hislatlari "Nurli manzillarga intilib..." kitobda tilga olingan. Menga qilgani ham ularning yorqin isbotidir.

Gulistondan Toshkentga ko'chishdagi besaramjonlikda, u ham mayli sog'lig'ini kasallik yemirayotgan onda, aziz joni og'rib turgan mahal, ustoz shuncha tashvishi bo'laturib, meni o'ylashi, men uchun izlanishi bu insonning betakrorligini, kasbiga fidoyiligini ko'rsatibgina qolmay shubhasiz, odamiylik tuyg'usining yorqin timsoli ekanligini ham anglatadi. Shunday qilib men mavzuyim yuzasidan ustozga murojatlarimni telefon orqali aytib yurdim. Bir kun ustoz yana qo'ng'iroq qilib qoldilar menga kerakli adabiyotlar ro'yxatini aytish uchun "bu kovid balo chiqdi, xotiramda ko'p narsa turmayapti shunga sen aytgan gaplarimni yozib ol keyin so'rasang eslolmay qiynalishim mumkin degandi". O'shanda men nodon gapga suyanib shunday insonni betobligida borib ko'rish rejamni amalga oshirolmadim. Nega unday deyaipman bilasizmi? Axir ustozim "ha o'rnimdan turib, yurib qoldim" yoki "kovid balo chiqdi xotiramda ko'p narasa turmayapti"deb aytgan gaplaridan so'ng ham mening aqlim bu inson g'animat ekanligini anglamadi.

Telefonda "ustoz hali avvalgidek yaxshi bo'lib ketasiz, Unversitetga kelib bizga o'ziz darslarizni o'tasiz" deb shunga o'xshash gaplarni aytibman-da odamzod bu yorug' dunyodan ketishi borligini o'ylamabman. Aziz ustozim... sizni borib ko'rishni rosa –rosa istaganim rost faqat "xudo xohlasa boraman" demagan ekanman-da, siz bilan so'ngi bor uchrashish nasib qilmadi. 2020-yilning aprel oyi edi. Ustozimiz Fayzullayeva Obida opadan Umurzoq O'ljaboyevning uy manzillarini so'rab bilvoldim. Darslardan erta chiqqanim sabab bo'ldi-yu, homiladorligim uchun uzoq yo'lga chiqishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tish fikri xayolimga kelib qoldi. Shifokor ko'rigidan kayfiyatim tushub ketgandi. Chunki "tezda yotmasang bola vaqtdan oldin tug'ilish xavfi bor" - deb meni qo'rqitdi. Shunday qilib, mehribon ustozimni oldilariga borib ziyorat qilish orzum kechikadigan bo'ldi. Oradan bir oylar o'tib jajji farishtam qizalog'imni qo'limga oldim. Mening ong-u shuurimda onalik mehri to'lib go'zal malikamga termulib, uning sevinchidan mast bo'lib, xasta ustozimni ko'rib kelgani borish niyatlarimni unutib qo'ygandim. 2021-yilning 13-avgust kuni peshin mahal dugonam Sarvinoz Xolmo'minova telefon qildi, go'shakni ko'tarib alo deyishim bilan Sarvinoz yig'i aralash ovozda "Ustozimiz vafot etibdilar, soat 17:00 chiqarar ekan", - dedi-yu trubkani qo'yib qo'ydi. Ismlarini aytishga nazarimda Sarvinozning jurati yetmadi. Qaytib qo'ng'iroq qilib so'radim kim? Qaysi ustozimizni aytayapsiz? deyishimni bilam uning "Umurzoq O'ljaboyev" degan ovozni eshitib, butun jismim sovuq xabardan sovub ketgandi. Endi, ming uvvos solib yig'lasam ham ming o'zimni koyisam ham endi kech bo'lgandi. Ustoz mangulik safariga o'tlanib ulgurgandi. Hali-hali o'zimni kechirolmayman. Nega bormadim? Nega?.. 2021-yilning noyabr

oyida ustozning Toshkentdagi uyiga bordim. Meni ustozni boshiga ko‘tarib e‘zozlaydigan rafiqasi Risolat opa kutib oldilar. U insonning ochiqyuzligi, mehribonligi shundoq ko‘rinib turardi. Menga o‘z qizlaridek munosabatda bo‘ldilar, Risolat opa ustozim kabi ilm odami, ilm yo‘lida izlanayotgan yoshlarning homiysi ekan.

Ustozning xazinaga boy kutubxonasidan menga o‘xshagan barcha shogirdlari foydalanishi uchun xonadonlarining eshiklari doim ochiq ekanligini aytgandi. O‘shanda Risolat opa chin ma‘noda Umurzoq O‘ljaboyev chirog‘ini yoqib o‘tirganini guvohi bo‘ldim. Bugun ustoz hayot bo‘lganlarida 80 yoshni qarshi olgan bo‘lardi. 9-aprel ustozning tavallud ayyom kunlarida u kishini eslab ushbu xotira-esseni yozdim. Shu kunlarda ustozni ko‘p eslab yurganim uchunmi, kecha domla tushimga kirdilar. Ustoz ayollari Risolat opa bilan juda chiroyli bayramona kiyimda bozorda yurgan ekan, men ham bozordaman. Ular meni ko‘rib, nima qilib yurganimni so‘rashibdi. Ko‘ylak qidirib yurganimni aytipman. Shunda ustoz baland oppoq imoratni qo‘li bilan ko‘rsatib, ko‘ylagingni shu joydan ol... dedi keyin nima bo‘lgani esimda yo‘q! Endi tushlarimdan axtaraman sizni ustoz ... Tushlarimga tez-tez kiring...

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Said Ahmad. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, – Toshkent. Sano -Standart nashriyoti, 2014 -yil, 4-bet.
2. Omonulla Madayev ( 9.04.2017, Guliston shahar, 2- sonli Bolalar musiqa va san‘at maktabida so‘zlagan nutqi ).
3. Qo‘rdosh Qahramonov. Millat yo‘lida kamarbasta. “Ma‘rifat” gazetasi 3-oktabr, 2019-yil.
4. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent. Sharq, 2004- yil. 285 /286-betlar.
5. Ozod Sharafiddinov zamondoshlar xotirasida. – Toshkent. Sharq, 2019- yil, 160/182- bet.
6. “Nurli manzillarga intilib...” –Toshkent . Fan-ziyo nashriyoti, 2021-yil, 52- bet.

## **USTOZIMGA EHTIROMIM YOHUD INSONIYLIK SIYRATI**

**Nodira SAIDMURATOVA,**

*Guliston shahar 12-umumta‘lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi*

Ustozlikning qudratini sizda ko‘rdim men,  
Pokdomonlik fazilatin sizda ko‘rdim men,  
Odillig-u,haqgo‘ylik-u,qo‘yingki barin  
Chin insonlik siyratini sizda ko‘rdim men...

Salkam chorak asr ilgari 1999-yil GulDUNing Filologiya fakultetiga o‘qishga kirdim. Birinchi o‘qish kunimizning 1-soati Kubayev Qobil akaning adabiyot darsi bilan boshlandi. Darslar juda qiziqarli bo‘lardi. Universitet menga juda yoqib qolgan, hamma darslarni maroq bilan eshitib, o‘rganishga tirishardim. Ba‘zan topshiriqlar juda ko‘payib ketar,tungi soat 2-3 gacha dars tayyorlardim.

3-kursda bo'lsa kerak, bizga ustozimiz – Umrzoq O'ljaboyev adabiyot fanidan dars bera boshladilar. Ular bizga ilm berish bilan birga, bizni mulohazakorlikka, odillikka, pokdomonlikka chaqirardilar. O'zlari ham o'ta vazmin, sofdil, diyoanatli, serfikr va mulohazali inson edilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, hamma talabalar ustozni cheksiz hurmat qilardik. Kirish-chiqishda, yo'laklarda ularga ro'baro' bo'lib qolishdan o'zimizni tiyar, salobati bosar, tik qarolmas, ularning ulug'vorligi oldida tortinardik. Ustozda sirli ulug'vorlik bor edi, go'yo.

4-kursga ham o'tdik. Bizga bitiruv malakaviy ish mavzulari va uning rahbari e'lon qilindi. Qanday baxtki, mening ishimga Umrzoq O'ljaboyev rahbar edilar. Mendan tashqari yana Muqaddas va xorazmlik dugonam Sanobar ham ustozdan mavzumiz haqida tushuncha olish uchun xonalariga kirdik. Ustozimiz bizga mavzular ustida yaxshilab izlanishimizni, puxta rejalar tuzib, mavzuni qanday yoritishimiz haqida gapirdilar. Shu kundan boshlab men "Abdulla Qodiriy ijodida hajv" mavzusida izlanib, adabiyotlar o'qiy boshladim. Ustozimizning o'ta jiddiy, talabchan bo'lganliklari uchunmi, juda puxta tayyorlanishga kirishib ketdim. Abdulla Qodiriyning hayotini, uning hajv yo'nalishidagi asarlarini to'liq o'rganib chiqdim. (Esimda, bir uyg'a kirib olib, kitoblar orasida qolar ekanman, salmoqdor fikrlar yozishga tirishib, yozib o'chiraverar, go'yo bundan zavq olardim). Ishimni uch qismga: kirish, asosiy va xulosa qismiga bo'lib (ustozim buni o'rgatgan edilar), o'z so'zlarim bilan xulosa qilib yakunladim.

Himoya kuni ham yetib keldi. Mening ishimga kirish va xulosa qismini deyarli yoddan aytganim hecham yodimdan chiqmaydi. Katta ustozlar tomonidan berilgan savollarga to'liq va lo'nda javob berib, 95 ballga ega bo'ldim. Mana shu yutug'im meni hayotga bo'lgan ishonchimni yana bir karra orttirgan desam, aslo adashmagan bo'laman. Inson harakat qilsa, albatta, samarasi bo'lishini, hech qachon ilm olishdan to'xtamasligini ana o'shanda yana bir bor anglaganman.

Universitetni bitirar ekanman, ustozim mendan shu yerda qolib o'qishimni davom ettirishimni so'ragandilar. Afsuski, sharoitimdan kelib chiqib o'qishimni davom ettirilmadim.

Oradan ancha yillar o'tdi. Taqdir taqozosi bilan Guliston shahriga ko'chib keldim. 2020-yil magistraturaning adabiyotshunoslik yo'nalishiga hujjat topshirirdim. Afsuski, bir ball yetmay kira olmadim. Lekin umidimni uzmadim, albatta, keyingi yil kiraman, ustozimning ilmidan yana bahramand bo'laman deb o'ylardim. Afsus...

Kasbiy faoliyatim va umrim davomida ustozimday bo'lishga, bo'quvchilarimga bor bilimimni berib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qilar ekanman, ular biror yutuqqa erishishsa, menga minnatdorchilik bildirganlarida beixtiyor ustozimni yodga olaman. Ich-ichimdan ularga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Ustozimdan ilm olish bilan birga inson jamiyatda yashar ekan, insoniylik fazilatlarini saqlay olib, inson degan buyuk nomga sodiq qolishi kerakligini o'rgandim. Buni hech qanday narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Ustozim mening hayot yo'limni yoritib turuvchi mash'alani qo'limga tutgan-u, u mening hayotim davomidagi yo'llarimni yoritib turgandek. Ustozim shogirglari,

kelajak avlodlar qalbida beqiyos ilmlari bilan, qolaversa, olijanobliklari bilan abadiy yashaydilar.

**SUVRATI, SIYRATI SAMIMIY SIYMO  
YOKI SHOGIRDLAR KAMOLOTIGA BAXSHIDA UMR**

*Dilfuza QOSIMOVA,  
Guliston davlat universiteti magistranti*

“Hayot oqimida ichki adolat va qonuniyat bor-chekkan zahmatlarning evazigaseni ko‘pgina yaxshi odamlarga ham ro‘para qiladi. Ular benihoya dilkash, Xushfe‘l, o‘zining qadr-qimmatini yuqori qo‘yadigan, shuning uchun ham o‘zgalaarni qdriga yetadigan odamlar bo‘ladi. Sen ular bilan suhbatlashayotganingda go‘yo butun jism-u joning allanechuk o‘triklarga to‘layotganini his qilasan, go‘yo o‘zligingdan bir bahya o‘sganday bo‘lasan. Bunday odamlar shunday barkamol bo‘ladiki, ularning yonida noxushliklarni unutasan. Ular qalbingga navro‘z kunlarining iliqligini olib kiradi” [1, 486-487] – deb yozadi, munaqqid va adabiyotshunos olim, ustoz Ozod Sharafiddinov. Men ham bugun aynan shunday insonlardan biri bo‘lgan, qardli ustozim haqida yozmoqchiman.

Kishi dunyoga kelar ekan, shu qisqa hayoti, oniy lahzalar va taqsimlangan umr yo‘llarida o‘zidan faqat ezgu ish, solih amallar, manfaatli ilm va o‘zining amallarini davom ettiruvchi, o‘zidan keyin keluvchi izlar qoldirishi lozim. Aynan har bir inson bu sinovli dunyodan vaqti soati yetib tark etarkan, ortidan ezgu o‘ylar, unutilmas xotiralar, qilgan yaxshiliklari, saodatli umr yo‘li yodga olinadi.

Ustozim adabiyotshunos olim, Umurzoq O‘ljaboyev ham aynan shunday insoniy, ijodiy sifatlarni jam aylagan nurli inson edilar. Bugun jamiyatda mening o‘z o‘rnimni, adabiyotshunoslikdek chegarasiz, bepoyon, betakror, jozibali” sohanini tanlashimda, avvalo, Yaratganning, so‘ng aziz ustozimning o‘rni beqiyos. Men shunday buyuk, serg‘ayrat, ochiqdil, ma‘naviyatli, nodir ustozning shogirdi ekanligimdan faxrlanaman. Esimda, ilk marotaba auditoriyaga, ma‘ruzaga kirganlarida ularning nurli siy mosi, teran ilmi, so‘zlash ohangi, so‘zlarni o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llashi, talablarga murojaati, hikoyalarni so‘zlash jarayonida jonli va tabiiy tasvirlarni qo‘llashi, beixtiyor badiiy asar ichida ustozning o‘zi qo‘limizdan emas, balki “so‘zlari bilan olib kirib qo‘yganlar”. Dars tugagach, bu ma‘ruzaning ta‘siri uzoq vaqt davom etdi. Domlaning har darsi bor kunlarni mushtoqlik bilan kutardim, ularning ma‘ruzalaridan ongim ravshanlashib, zavqim oshib, qiziqishlarim toshib borardi. She‘riy mashqlar yozganim, mutolaaga qiziqqanim uchunmi, adabiyot dunyosi meni o‘ziga rom etgandi, bu fanni yoqtirardim. Ammo Umurzoq O‘ljaboyevning ma‘ruzalarini tinglagach, adabiyot menga o‘zining “sirli eshiklari”ni endi ochayotganligini angladim. So‘ng biz ilmiy rahbarlarga biriktirildik. Ilmiy rahbar sifatida Umurzoq O‘ljaboyev ustozning biriktirilganligi meni o‘n chandon quvontirdi. Ularning suvrati va siyrati bilan asta-sekin yaqinlasha bordim.

Har suhbat jarayonida men o‘zim uchun adabiyot olamining hali “ochilmagan sirlari”ni kashf etardim. Ular menga, otalarcha g‘amxo‘rlik, ustozlarcha muruvvat, adabiyotshunos olim sifatida ilm, do‘stona maslahat va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatardilar. Ayniqsa, ilmiy ishida yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimni o‘zlari tuzatishlar kiritib, donolik bilan izohlab, vaqtlarini ayamasdan soatlab tushuntirishlar berardilar, ularning tanbehleri ham o‘zlari kabi “beozor” edi. Shu tariqa men ham ilm yo‘lini, adabiyotshunoslik sohasini tanladim. Ularning shogirdi bo‘lish ham faxr, ham mas‘uliyat edi. Shu sababdan o‘z ustimda ko‘proq ishlashga, ustozning ishonchini oqlashga harakat qilardim.

Ba‘zan “ilmiy ish” deyishga arzirlimi, yo‘qmi? Xullas, yozgan ishlarimni ko‘tarib ustozning uylariga ham borardim. Ular olim sifatida emas, chin odam sifatida ham havas qilsa arzigulik inson edilar. Ko‘p hollarda men uylariga borganimda ustoz odmigina kiyingan, samimiy yuzli, qaysidir uy yumushlari bilan shug‘ullanayotgan bo‘lardilar, ammo ishlarini tamomlamasdan men uchun, mening hali “ilmiy ish” maqomini olmagan qo‘g‘ozlarim uchun vaqt ajratardilar. Ularning boy va nodir kutubxonasi o‘ziga xos edi. Men u yerdan o‘zim uchun zaruriy kioblarni o‘qir, ustozning maslahatiga ko‘ra solishtirardim, adabiyotshunoslarning ilmiy ish mavzusidagi qarashlarini o‘rganardim.

Shu tariqa mening ilmim, saviyam va adabiyotga bo‘lgan mehrim osha boshladi. To‘rt-yil mobaynida shuurim ustozning bergan saboqlari bilan ravshanlashdi, ilmiy tushunchalarni anglay boshladim. Baddiylikni, obrazlilikni, badiiy tasvir, badiiy detal, badiiy asar tili, muallif va personaj nutqi... kabi ko‘plab masalalar bilan tanishdim, baholi qudrat yechimini kutayorgan muammolarga ustozimning ko‘magi bilan yechimlar topdim.

Xullas, ustozimning rahbarligi ostida bitiruv malakaviy ishimi yorug‘ yuz va yuqori ball bilan himoya qildim.

Mana oradan ko‘plab yillar o‘tdi, ustozning cheksiz ilmi, menga bergan saboqlari ta‘sirida men y ana magistratura yo‘nalishida adabiyotshunoslik sohasini tanladim.

Ustoz adabiyot olamida o‘zining serqirra ijodi, tahlil mahorati bilan ajralib turadi. Ularning “Mardlik va matonat tasviri”, “O‘zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba‘zi masalalari”, “Xotirada chizilgan izlar”, “Urush davri o‘zbek hikoyachiligi”, “Badiiy tasvirning haqqoniyligi”, “Xotiraga ko‘chgan umrlar” kabi ko‘plab kitoblar muallifi edilar. 1982-yildan buyon umrining so‘ngiga qadar O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a‘zosi sifatida faoliyat olib bordilar. Ko‘p yillar davomida adabiyot ilmiga beminnat hissa qo‘shib keldilar, yuzlab shogirdlar yetishtirdilar, o‘z hayotlaaro davomida ibratli umr yo‘lini bosib o‘tdilar. Ijodkor qalb egalari o‘zgalarning hayot va ijod yo‘lini kitob qilib yozar ekan, beixtiyor bir kun kelib o‘zlarining hayot va ijod yo‘li ham kitob holiga kelib, sahifalarga muhrlanishini bilarmikan? Ustoz ham o‘zining “Xotiraga ko‘chgan umrlar” o‘zi bilan bir davrda yashagan, faoliyat olib brogan, hamkasb, hamsuhbat, do‘st bo‘lgan o‘ndan ortiq siymolar haqiida to‘lib-toshib yozadilar. Ularning shijoatiga taxsinker aytadilar, faoliyatlarini namuna, insoniy fazilatlarini ibrat qilib ko‘rsatadilar, ularni yodga oladilar, haqiqiy insoniy sifatlarga ega bo‘lganliklarini ta‘kidlaydilar. Ularni

hamisha yodda saqlashga, qilgan ezgu amallarini unutmaslikka, imkoni bo'lsa, ular haqida yozishga undaydilar. Afsuski, bugun ustoz ham aynan shunday jamiyatga naf keltirgan, jonkuyar, faoliyati davomida fidokorlik qilgan, o'z burchiga sodiq, buyuk qalb sohiblari qatoridan o'rin oldilar. Endi ular ham biz shogirdlari tarafidan yodga olinadilar. Baholi qudrat "ijod ahli" tarafidan ta'riflanadilar, tasvirlanadilar.

"Qo'lida qalami bor, yoza olish imkoniyatiga ega bo'lgan do'stlarimiz bahamjihatlikda bu ishga kirishsalar – nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Yuragimizda ozmi ko'pmi iz qoldirib ketgan, xizmati sezilib turadigan marhum hamkasblarimizning, do'stlarimizning xotiralarini abadiylikka muhrlashdek savob ishni shu harakatimiz bilan amalga oshirgan bo'lardik. Aslida, bu tiriklarning biz yashayotgan dunyoni turli sabablar bilan erta tark etgan do'stlari, safdoshlari, hamkasblari oldidagi qarzi emasmi?! [2, 135-136] deya yozadi ustoz o'zining "Xotiraga ko'chgan umrlar" kitobida. Va o'tganlarni yodga olishni, ularning barcha uchun amalga oshirgan ezgu ishlarini imkon qadar yozish kerakligini, yozish, yodga olish, eslash bu barchamiz uchun ham qarz, ham farz ekanligini ta'kidlaydilar.

Xulosa o'rnida shuni aytmogchimanki, ustoz Umurzoq O'ljaboyevdek buyuk, fidoyi, jonkuyar insonlar adabiyot olamining buyuk darg'alaridir. Yillar o'tsa-da, ularning cheksiz mehnat faoliyati, yozgan ilmiy asarlari, olib borgan ijodiy faoliyatlari hamisha yodga olinadi, eslanadi. Ular qoldirgan boy va badiiy, adabiy meroslar namunalaridan esa ongimiz, shuurimiz ravshanlashib, ma'naviyatimiz boyiydi, dunyoqarashimiz kengayib, salohiyatimiz, saviyamiz oshadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –Toshkent: Sharq. 2004-y.
2. U. O'ljaboyev. Xotiraga ko'chgan umrlar. – Guliston: Ziyo. 2010-y.

## **MANGU BARHAYOT USTOZ**

*Nargiza NORMURODOVA*

*GulDU, Adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti*

Har bir insonning hayotida o'chmas, nurli xotiralarni qalbiga joylagan, mehri tushgan dargohlar bo'ladi. Bu ayol kishi uchun bir kun kelib turmushga chiqishi tufayli tark etgan ota hovlisi bo'lsa, yana birlari bu uning maktabi va qadr don oliy o'quv yurtidir. Mening qalbimda o'chmas, yorqin xotiralarni, talabalik davrining ilmga chanqoq damlarini yodga solgan sevimli dargohim – bu mening Universitetimdir. Talabalik-yillarim hali hamon ko'z ongimda. Qancha-qancha ma'ruzalar tingladik, ustozlarning sabog'ini oldik. Ollohim meni ham talaba do'stlarimni ustozlardan siylagan edi. Bizlar har bir darsni o'zgacha qiziqish bilan, jon qulog'imiz bilan tinglar edik.

Hozirgi kunda ham talabalik saboqlarini berayotgan Vahob Rahmonov, Ravshan Mahmudov, Muzaffar Mamatqulovlar hamda marhum ustozlarimiz Mehri Xolbekova, Bosim To'ychiboyev, Hayitboy Eshmirzayev va Umurzoq

O'ljaboyevning ma'ruzalari qalbimizda fanga bo'lgan qiziqishni yanada uyg'otgan edi. Ayniqsa, Olloh rahmatiga olgan sevimli va qadrdon ustozimiz Umurzoq O'ljaboyev domlaning oltinga teng saboqlari, nafaqat mening, balki barcha adabiyotsevar talabalarning qalbidan chuqur o'rin olgan. Hali hamon talabalikning oltin davrlari yodimda. Ustoz bizga birinchi bor ma'ruza o'qigan kunlari. Talabalik damlarimizning ilk-yillari edi. Hali ustozlar haqida bizda ma'lumot yo'q. Domlaning salobatli ko'rinishlari, jiddiy qiyofasi, bizni sergak torttirar edi. Birortamiz darsda churq etishga botina olmas edik, vaholangki ustoz bizga umuman tanbeh bermas edilar. Darslarni tinglash asnosida har birimizning qalbimizda ustozga bo'lgan yuksak, chin, samimiy cheksiz mehr paydo bo'ldi. Hayotiy misollar asosida bizning adabiyotshunoslikka bo'lgan mehrimizni asta-sekin uyg'ota boshladilar.

Men shu ustoz tufayli adabiyotshunoslikni chin dildan yaxshi ko'rib qoldim. Ustoz haqida aytsam aytigulik ko'p xotiralarim bor. Yodimda, yozuvchilarimiz asarlari yuzasidan badiiy tahlil etgan darslarimizdan birida, ustoz meni yonlariga chaqirib "Qizim, senda asarlarni badiiy tahlil qilishga ancha layoqat bor ekan. Kel, shu barcha adabiy tahlillardan iborat kitobchangni nashrdan chiqaraylik, "- dedilar. (U paytda bizlar domlaning "Yosh adabiyotshunos" to'garagi a'zolari ham edik-da). Men juda sevinib ketdim. Ungacha bir necha maqolalarim "Universitet ovozi", "Sirdaryo haqiqati" gazetalarida e'lon qilingan edi. Shunday qilib ustoz bilan birga "Mo'jiza qarshisidagi hayrat" nomli kichikkina to'plamimni Guliston davlat Universiteti nashriyotidan chiqardik. Mening quvonchim cheksiz edi. Go'yo osmonda uchar edim. O'zimcha dastxat yozib do'stlarimga, qarindoshlarimga sovg'a qilardim.

Keyinroq ustoz bilan birga "Mo'jiza qarshisidagi hayrat" to'plamimning davomi sifatida "Hayratning davomi" nomi bilan yana bir to'plam yaratildi. Ustoz mening, oddiygina, talaba qizning chizgilarni qayta-qayta tahlil qilib, xatoliklarini, g'alizliklarini tog'irlab ikki to'plam holiga keltirgan edilar. Bu kichik mehnatlarim meni talaba do'stlarim, ustozlarim oldida hurmatimni oshirdi. Universitetning yosh, iqtidorli qizlari orasidan meni "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotiga nomzodimni qo'yishdi. Sirdaryo viloyat televedeniyesida men haqimda ko'rsatuvlar namoyish etildi. bundan tashqari Respublika miqyosida o'tkazilgan insholar tanlovining Respublika g'olibi bo'ldim, ilg'or talabalar safidan joy oldim. Men bu yutuqlarimni bejizga keltirmadim, bu nokamtarlik emas. Negaki, shu yutuqlarimning barcha-barchasining sababkori ustozim – Umurzoq O'ljaboyevdir. Yillar shamoldek yelib, talabalikning qaynoq, sho'x-shodon davrlari bilan hayrlashdik ham. Turmushga chiqdim. Men ishlashim kerak edi. Taqdirning qiziqqligini qarangki, hozirgi Sirdaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan tayanch maktab-internatiga ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi kerak bo'lib qoladi. Umurzoq O'ljaboyev tavsiyalari bilan o'sha paytdagi direktorimiz Fayziyeva Saodat Temirovna meni ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida ishga qabul qildilar. Men ustozim tufayli hayotda o'z o'rnimni, ishimni topdim. Mana 2005-yildan buyon ana shu nufuzli maktabda saboq beraman. Hayot tasodiflarga to'la

deyishadi. Ana shunday tasodif tufayli domla menga saboq berganlaridek, men ham ularning nabirasi Davronjonga 4-5-yildavomida ona tili va adabiyot sirlarini o'rgatishga harakat qildim. O'sha paytlarda ustoz Umurzoq O'ljaboyev ham, turmush o'rtog'i Risolat opa ham Davronjonni o'qishlaridan xabar olib turishardi.

Ana shu kezlarda ham men ustozning dono o'gitlaridan bahramand bo'lishga harakat qilardim. Agar ustoz meni shu nufuzli viloyatimizda yagona shu maktab-internatga tavsiya qilmaganlarida kim biladi men o'z o'rnimni topa olarmidim yoki yo'q. Hayotimning har bir pog'onasida mening yo'limni nur kabi yoritgan ustoz haqida so'z yuritgan ekanman, ko'zimga beixtiyor yosh keladi. Men o'zim ham ustozman. Lekin men ham ustozimga o'xshash ustoz bo'la olyapmanmi, ya'ni qaysidir o'quvchinning hayotida o'chmas iz qoldira oldimmi, ularga ustoz kabi sidqidildan, vijdonan dars bera olyapmanmi degan savol meni qiynaydi. Hozir magistraturada o'qir ekanman "Qani ustozim hayot bo'lganlarida edi" degan fikr tez-tez xayolimdan o'tadi. Ularning chin adabiyotshunoslarga xos tengsiz saboqlarini va dono o'gitlarini bir sog'indik. Ammo umr o'tkinchi. Hayot hech kimga abadiy emas. Chin insonni abadiy qiluvchi narsa bu – xotirasidir. Ustoz nomini abadiylashtirish, yozgan asarlarini xalq orasida targ'ib qilish biz kabi yoshlarning burchimizdir. Shu ma'noda hozirgi kunda men bitiruv dissertatsiyaga ishimni ham ustozimiz Muzaffar Mamatqulov bilan birga, "Umurzoq O'ljaboyev – adabiyotshunos olim" mavzusida olib bormoqdaman. Ustoz Umurzoq O'ljaboyevning "Xotiraga ko'chgan umrlar", "Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi", "Hikoyachilikda davr nafasi" kabi xotira va adabiy-ilmiy qarashlardan iborat asarlarini qo'lga olib o'qishni boshlar ekanman go'yoki ustoz bilan hayotliklaridek suhbat qurib, qayta-qayta savollar berib adabiyotning sehrli mo'jiza ekanligiga yana bir bora amin bo'laman.

Ustozning "Xotiraga ko'chgan umrlar" kitobi mening diqqatimni tortdi. Mo'jazgina kitobda butun o'zbek adabiyotshunosligi tarixida iz qoldirgan Ozod Sharafiddinov, Akram Kattabekov, Begali Qosimov, sevimli shoirimiz To'ra Sulaymon, universitet hayotida juda katta iz qoldirgan Xudoyberdi Doniyorov va bir qancha o'zlarining eng yaqin yor-do'stlari haqida juda ajoyib ma'lumotlar berish bilan birga ularning adabiyot olamiga qo'shgan ijodiy mehnatlarini ham unutmaydi. Do'stlari bilan bo'lgan qiziqarli holatlarni yodga oladi, ularning chin insoniy fazilatlarini mehr bilan ifodalaydi, qiziqarli, ba'zan qayg'uli voqealarni xuddi bizning ko'z o'ngimizda ro'y berayotgandek tasvirlab beradi. Ustoz Umurzoq O'ljaboyevning yuqoridagi kitoblari bilan tanishar ekanman, ularning ustozlariga, yaqin do'stlariga naqadar mehr-oqibatli, do'stlik tuyg'usini chin dildan e'zozlagan haqiqiy oliyjanob. samimiy inson ekanliklariga yana bir bora amin bo'laman. "Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi" kitobi ham butun umrini adabiyotshunoslik ilmining muammolarini o'rganishga bag'ishlagan hamda shu bilan birga yoshlarga shu sohada ta'lim-tarbiya bergan ustozimizning adabiy kuzatishlaridan ayrim namunalardir. Kitobda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi adiblar ijodining ba'zi qirralariga hozirgi kitobxon diqqatini jalb etishga intilish bilan birga Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Shukur Holmirzayev, Nazar Eshonqulov kabi turli avlodga mansub



yozuvchilarning ijodi, muayyan asarlari haqida goh batafsil, goh ixchamroq shaklda mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari kitobning bir qismiga xotira shaklida tartib berilgan bo‘lib, unda o‘zlarining butun hayotini, iste’dodini adabiyotimiz rivojiga bag‘ishlagan Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Akram Kattabekov, To‘ra Sulaymon, Qodir Pirmatov kabi marhum olimlar, adiblar haqida so‘z yuritiladi. Bu kitobdagi “Xotira qatlaridagi iztiroblar” maqolasidagi ustozning mana bu jumalari mening diqqatimni tortdi, qarang: “Men hamisha o‘zimni bir narsada baxtli, omadi yurishgan inson deb hisoblab yurardim. Bu narsa – mening atrofimda ajoyib bir do‘stlar davrasi borligi, bo‘lganligi bilan bog‘liq edi. Bu davra haqiqatan ham faxrlansa faxrlanadigan, suyansa suyanadigan, munosabatlari g‘oyat beg‘araz va samimiy bo‘lgan odamlardan tashkil topgan edi”.

Darhaqiqat, ustoz Umurzoq O‘ljaboyev chin ma’noda nafaqat sodiq, mehr-oqibatli do‘stlarining borligi bilan, balki ularning bergan o‘gitlarini bir umr qalbinining tub-tubida saqlaydigan, nurli siymolarini bir umr unutmaydigan shogirdlari bilan ham omadli, baxtlidir. Biz, shogirdlari, ustoz nomining har doim barhayot bo‘lishi uchun intilamiz. Zeroki, Umurzoq O‘ljaboyev kabi ustozlar nomi mangulikka daxldordir.

## **ADABIYOTSHUNOSLIKKA BAXSHIDA UMR**

**Sitora SHIRINOVA,**

*GulDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

Adabiyot insonning, avvalo, o‘zini anglashga bo‘lgan extiyojidir. O‘zni anglamoq uchun esa o‘quvchi qo‘lidan tutib, uni ilm-fan olamiga olib kiradigan bir ustozga muhtoj.

Ana shunday jonkuyar ustozlardan biri adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Umrzoq O‘ljaboyevdir. Umrzoq O‘ljaboyev 1942- yilning 9-aprelida Samarqand viloyatining Nurota (hozirgi Qo‘shrobot) tumanida tug‘ilgan. 1960-1965-yillarda Toshkent davlat universiteti (O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Filologiya fakultetida talaba, 1965-1968-yillarda aspirant sifatida tahsil olgan. 1968-yil ning dekabr oyidan toki umrlarining so‘ngi kunigacha Guliston davlat universitetida o‘z ish faoliyatini olib borgan.

Adabiyotshunos olim o‘z talabalik yillarini shunday eslaydi: “Talabalik davrimizda qanchadan qancha ma’ruzalar tinglaganmiz, amaliy mashg‘ulot-u seminarlar o‘tganmiz. Alloh taoloning inoyati bilan bizga eng yaxshi ustozlar berilgan ekan, ular bizga berayotgan bilimlarni imkon qadar o‘zimizga ko‘proq singdirib olishga harakat qilardik. Shulardan biri mening xotiramda bir umrga saqlanib qoldi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Yanglishmasam, to‘rtinchi bosqichda o‘qib yurgan kezarimiz, taxminan, 1963-1964-yillarda edi. Uztozimiz mashhur va o‘ta sermahsul adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Respublikasi xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlar doktori, professor, o‘sha paytlarda esa aspiranturadan keyin oliy o‘quv yurtidagi mehnat faoliyatini endigina boshlagan yosh o‘qituvchi Umarali Normatov domla Abdulla Qahhor ijodi yuzasidan maxsus seminar

o'tishini bizga e'lon qilib qoldi. Darhol kursdoshlar o'rtasida mavzular taqsimlandi Menga "Abdulla Qahhorning novellistik mahorati" degan mavzu berildi, vaqtni bekor o'tkazmay xuddi bir-birimiz bilan musobaqa o'ynagandek ustozimiz tavsiya etgan manbalarni izlashga kirishib ketdik. Kutubxonama-kutubxona kezdik. Men o'sha paytlarda mavjud bo'lgan hikoyachilikka oid qator adabiyotlarni ko'rish bilan birga atoqli adiblarning hikoyalarini qo'lda qalam bilan yana bir necha marotaba sinchiklab o'qib chiqdim. Umarali akaning maslahati bilan yozuvchining turli yillarda yozilgan badiiy ijodiga oid maqolalarni ham topib o'qishga harakat qildim. "Topib o'qishga" deyishimizning boisi Abdulla Qahhorning bunday maqolalari hali hozirgidek kitoblarga jamlanmagan edi. Shuning uchun har bir maqolasini topib o'qish o'sha kezlarda yozuvchining badiiy olamini yangidan kashf qilayotgandek bo'lib tuyulardi menga. Xususan, adibning o'tgan asrning 30-yillarida yozgan maqolalaridagi qator hech eskirmaydigan fikrlar mening diqqatimni o'ziga mixlab qo'ydi. O'sha fikrlardan maxsus seminarda qilgan ma'ruzamda imkon qadar ko'proq foydalanib, yozuvchining hikoyachilikdagi mahoratini ochib berishga harakat qilganman. Shu-shu menda Abdulla Qahhor hikoyalari, uning bevosita ta'sirida hikoya janriga nisbatan alohida bir qiziqish paydo bo'ldiki, buni hozirga qadar ham his qilib turaman". [1]

Olimning keyingi bajargan ishlari roman janrining O'zbek adabiyotidagi taraqqiyoti masalalari bilan bog'liq bo'lgan. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Muhsin Olimov rahbarligida tayyorlagan diplom ishi mavzusi ham bevosita "O'zbek romanining inson konsepsiyasi" deb atalardi.

Nomzodlik dissertatsiyam esa O'zbek adabiyotining ikkinchi jahon urishi mavzusida yozilgan ramanlari tadqiqiga bag'ishlangan edi. Bu ishimga atoqli adabiyotshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor G'ulom Karimov domla rahbarlik qilganlar.

Adabiyot shinavandalari ustoz Umrzoq O'ljaboyev nafaqat pedagog sifatida balki badiiy ijod sirlarini o'rganuvchi targ'ib va tashviq qiluvchi olim sifatida ham bilishadi. Uning adabiyotshunoslikka oid birinchi maqolasi 1966-yilning mart oyida matbuot yuzini ko'rgan. Keyinchalik esa gazeta, jurnal va to'plamlarda birin-ketin maqolalari elon qilingan. Ilk kitobi 1976-yilda "Mardlik va matonat tasviri" nomi bilan nashr etilgan. Olimning, ayniqsa, "Hikoyachilikda davr nafasi" (2016-yil ) va "Adabiyot – ko'ngil ko'zgusi" (2017-yil) nafaqat talaba yoshlar balki, O'zbek adabiyotiga qiziqqan barcha kitobxonlar uchun ham kerakli adabiy manbalardan hisoblanadi. Bu to'plamlarda o'tgan asrning adabiy daholari Abdulla Qahhor, G'ofur G'ulom, Hamid Olimjon, Said Ahmad va ularga izdosh Ozod Sharafiddinov, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zam, O'lmas Umarbekov, Xurshid Do'stmuhammad singari adiblarning hikoyalarini adabiy maqolalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari uning bu to'plamlarga kiritilgan "Jo'natilmagan xatlar" turkum maqolalarida Nurali Qobul, Xurshid Do'stmuhammad, Dilbar Saidova singari adiblarning hikoya va qissalariga nisbatan tanqidiy qarashlari ularga atab yozilgan xatlar ko'rinishida yozilgan. Bundan ko'rinadiki, olim tanqidchilik sohasida ham qalamni o'tkir ustozlardan hisoblangan. Umrzoq O'ljaboyev ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta va jurnallarda ham o'zining ilmiy-ommabop maqolalari

bilan chiqishlar qilib turgan. Chunonchi, “Ma’rifat” gazetasining 2018-2019-yillarda chop etilgan sonlarida faolligi tufayli akademiklar Ahmadali Asqarov, Baxtiyor Nazarov, praffessorlar Qurdoş Qahramonov, Islomjon Yoqubov, Dilmurod Quronovlar qatorida faxriy yorliq bilan taqdirlangan. Umrzoq O‘ljaboyev “Yozuvchilar uyushma”sining doimiy a’zosi sifatida o‘ndan ortiq kitoblar muallifidir. “Bir yil hikoyalari”, “Olmos iste’dod jilosi” (2009-yil), “Adabiyot – ko‘ngil ko‘zgusi” (2016-yil), “Hikoyachilikda davr nafasi” (2017-yil), “Xotiraga ko‘chgan umrlar” kitoblari shular jumlasidandir. [2]

“Men kitoblarimni yohud maqolalar turkumlarimni doimo “Guldasta” deb atayman. Haqiqatdan ham, ular ajib gulzor gullaridan yig‘ilgan guldastadir. Shuni bilamizki, bunday guldastalar, odatda, katta gulzordan saralab olinadi. Gulzorda esa ketma-ket yetilib, barq urib ochilayotgan gullar ko‘p bo‘lishi ta’biy. Demak, shunday ekan, doimo navbatdagi guldastalarni kutishga haqlimiz. [4]

Maqola so‘ngiga xulosa qilar ekanman, umrimizning shu chorak asri mobaynida yuzlab, balki undan ortiq ustozlardan ta’lim oldik. Ularning ba’zilari xotiramiz sarlavhalaridan o‘chgandir ham. Ammo shunday ustozlarimiz ham bo‘lganki, biz ularni faqatgina ta’lim- tarbiya bergan ustoz sifatidagina emas, balki o‘z insoniy xislatlari, fazilatlarini orqali qalbimizning tub-tubidan joy olganliklari uchun ham unutmaganmiz.

Men ham ustozlarimni yodga olganimda ularning avvalida xayolimga, albatta, ustoz Umrzoq O‘ljaboyev keladilar. Ularning qat’iyatli nigohlari, nurli chehralari qalbimizda mangu yashaydi. Oxiratingiz obod bo‘lsin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umrzoq O‘ljaboyev. Hikoyachilikda davr nafasi. – T., Turon-zamin-ziyo nashriyoti. 2016-yil . 3 bet.
2. Umrzoq O‘ljaboyev. Adabiyot-ko‘ngil ko‘zgusi. – T., Turon-zamin-ziyo nashriyoti.2017-yil . 13 bet.
3. Umrzoq O‘ljaboyev. Xotiraga ko‘chgan umidlar. – T., Turon-zamin-ziyo nashriyoti. 2013.

#### **USTOZNI YOD ETIB**

*Shahribonu MUSULMONQULOVA,  
GulDU doktoranti*

Har bir inson hayotida, u qaysi soha egasi bo‘lishidan qat’iy nazar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslardan biri ustozdir. Savod chiqarish davridan boshlab ilmning eng yuqori cho‘qqisida turgan bo‘lsak ham, ustozga ehtiyoj sezamiz, ularning maslahatlariga muhtojlik hissini tuyamiz. Ustozlarga hamma davrlarda ham yuksak ehtirom ko‘rsatishgan, ko‘klarga ko‘tarib ulug‘lashgan. Bizni yerdan ko‘kka olib chiqqan, yo‘limizni mash’ala kabi yoritgan zot-bu ustozdir. Mening ham juda ko‘p ustozlarim bor va hayotimda har birining o‘rni va hurmati va xizmati o‘zgacha. Har birida men uchun qadrliligi jihatlar bisyor. Allomalarimizdan biri “inson umri qancha yashaganligida emas, balki qanday yashaganligidadir” degan edi. Haqiqatdan ham, hayotimiz davomida hech

bo'lmasa bir kishi xotirlaydigan iz qoldira olsak -bu juda katta sharaf. Shunday ulug' insonlarimiz borki, ularni butun xalq xotirlaydi, ular shunday sharafga loyiq. Har bir shaxsning insoniylik darajasini belgilovchi asosiy o'lchov vatani, xalqi tinchligi, osoyishtaligi, taraqqiyoti yo'lida amalga oshirgan xayrli ishlari bilan belgilanadi. Bunday xayrli ishlar esa vatandoshlari qalbidan hech vaqt o'chmaydi. Ayniqsa, bu fido- yilik ilm yo'lida bo'lsa. Shunday ulug', fidoyi insonlar qatori o'zbek adabiyotshunosligining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan muhtaram ustozim Umrzoq O'ljaboyevning siymosi ham ko'z o'ngimda gavdalanadi.

Ustoz Umrzoq O'ljaboyevni men 1-bosqich talabasi bo'lgan yillarimda tanish baxtiga musharraf bo'lganman. "O'zbek adabiyoti" kaferdasi mudiri edilar. Biz talabalar domlaning haqiqiy ilm fidoyisi, serqirra ilm egasi ekanligini tan olish bilan birga, u kishining nutq madaniyati, so'zlash ohangi, kiyinish madaniyati, haqiqiy mahoratli pedagog ekanligi va jonkuyarligiga ham tan berar edik. Domla bizga "Adabiyotshunoslikka kirish" fanidan dars berganlar. Adabiyotning sir-asrorini, asarlarni tahlil qilish jarayonida qahramonlarning yangi qirralarini kashf etishni, har qanday yovuzlikdan ham go'zallik topa olishni, bir qarashda o'ta salbiy ko'ringan qahramonlarning aslida biz ko'rishni istamagan, lekin mavjud ijobiy xislatlari bor ekanligini topa olishni o'rgatdilar. Ustozning har bir darslari biz uchun juda katta hayot yo'li, hayot darsi bo'lgan.

Birinchi bosqichda o'qir edim, meni guruh sardorligiga saylashdi. Albatta, men ham buni mamnuniyat bilan qabul qildim. Chunki bu men uchun bir obro', bir amalday tuyulgan edi. Ertasiga domla meni xonalariga chaqirdi va "guruh sardori bo'lishingga qarshiligim yo'q, ammo tashkiliy ishlarni deb o'qishlaring sustlashib ketishi mumkin. Shuning uchun o'ylab ko'r, o'qishingga halaqit bersa sardor bo'lmaganing yaxshi", - dedi. Shu tanbehlari tufayli ham guruh sardori ekanligim (amalim)dan foydalanmaslikka, doimo berilgan topshiriqlarni vaqtda bajarishga harakat qilar edim. Bitiruv ishimga ham rahbarlik qilganlar, har doim o'z maslahatlarini yordamlarini ayamaganlar. Universitetning har bir domlasini Umrzoq O'ljaboyev siymosi bilan tasavvur qilar, har bir domlaning talabaga bo'lgan munosabatini domlaning talabalarga ko'rsatgan munosabatiday ko'rar edim.

Birinchi marta ustozning xonadonlarida uy kutubxonalarini ko'rganman va uy kutubxonasi nima ekanligi, qanaqa bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lganman. Domla uchun u unchalik ham katta kutubxona bo'lmasligi mumkin, ammo men uchun bitmas-tuganmas xazina, xuddi butun dunyo kitoblari shu yerda kabi tuyulgan. Kitobga bo'lgan hurmat, uni ko'z qorachig'iday asrash nima ekanligini tushunganman.

Respublikamizda adabiyotshunoslik fani taraqqiyotiga o'zining yangidan-yangi muhim tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan serg'ayrat olim, Umrzoq O'ljaboyev tom ma'noda haqiqiy inson va o'zbek ziyolilarining chinakam namunasi sifatida hamkasblari va biz shogirdlari xotirasida abadiy qoldi. Bugungi o'zbek adabiyotshunosligi rivojida o'zining chinakam jonkuyarligi va fidoyiligi, yangicha usullar bilan yaratilgan chuqur ilmiy mazmundagi qator kitoblari, monografiyalari, qo'llanma va ilmiy maqolalari bilan tanilgan va butun hayoti

davomida hormay-tolmay izlangan ustozning ilmiy faoliyati o'ta samarador edi. Har qanday sohaning rivojida mashaqqatli mehnati bilan fidoyilik ko'rsatgan, uni qadrlagan, halol va mas'uliyatli faoliyati bilan keyingi avlodga asqotadigan meros qoldirgan kishilarning hissasi salmoqli bo'ladi. Adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'sha olgan fidoyi olim, turmush tarzida ortiqcha hashamatga berilmagan, oddiy, sodda, samimiy, kamtarin inson oilasiga, farzandlariga bo'lgan munosabati ham tahsinga sazovor edi. Ustoz Umrzoq O'ljaboyev siymosi hamisha barhayot, xotirasi abadiy. Qisqa, ammo mazmunli umr yo'li, albatta, barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi.

## YO'LINGNI YORITUVCHI MAYOQDIR USTOZ

**Abdunazar SHAROPOV,**  
*Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti*  
*o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Men Guliston davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishiga qabul qilinganimdan so'ng, yaxshi niyatlar ila chin ma'noda adabiyot bo'stoniga kira boshladim va bu bo'stonning eng nafis va ma'nodor qismi bu mumtoz adabiyot ekanligini ustozlar ko'magida angladim. Albatta, o'z navbatida yyetuk ustozlarning bizga bergan saboqlari orqali qalb shuurimizga singib boradi. Mening dastlabki badiiy so'zga bo'lgan qiziqishimni yanada oshishiga o'rta maxsus ta'lim olayotgan paytimda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan saboq bergan Marhabo Kenjayeva ustozim sabab bo'lgan edilar. Oliyohda esa bu borada men Vahob Rahmonov, Nasimxon Rahmonov, Umrzoq O'ljaboyev, Hayitboy Mirhaydarov, Yormat Tojiyev, Qozoqboy Yo'ldoshev, Muzaffar Mamatqulov, Obidaxon Fayzullayeva, Lutfinisa Dehqonova kabi professor-o'qituvchilardan saboq bergan ustozlarimga ming rahmat aytaman. Adabiyotshunoslik sohasida samarali mehnat qilgan inson, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Turon Fanlar akademiyasi akademigi, Xalq ta'limi a'lochisi, "Badiiy tasvirning haqqoniyligi", "Zamon talabi va ijodkor mas'ulligi", "Abdulla Qahhor saboqlari", "Xotiraga ko'chgan umrlar", "Hikoyachilikda davr nafasi" kabi asarlar muallifi Umrzoq O'ljaboyev ustozimizning menga bergan saboqlari beqiyosdir. Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida o'ta sinchkovlik bilan, har bir so'zga mas'uliyat bilan yondashishni o'rganganman.

Meni mumtoz adabiyotga bevosita oshno etgan inson bu olim, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi, Oliy ta'lim a'lochisi, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Bobur xalqaro mukofoti sovrindori Vahob Rahmonovdir.

Vahob Rahmonov 1940-yilda Xo'jandda tug'ilgan. Respublikamizdagi eng nomdor matnshunos, navoiyshunos va boburshunos olimi hisoblanadi. Domlaning o'zbek mumtoz adabiyoti durdonalarining eski o'zbek yozuvi va arab yozuvidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga qilgan ilmiy tabdillari bugungi kun yoshlari uchun

ajoyib sovg'a bo'lmoqda, sababiki hamma ham qay bir asar bo'lmasin mumtoz asarlarni asliyatidan to'g'ridan-to'g'ri o'qiy olmaydi va ko'plab xatolarga yo'l qo'yadi bu masalaning bir jihati bo'lsa, ikkinchi va asosiy jihati qilingan ilmiy tabdillarda ham ba'zan bilim va saviyaning, lug'at boyligining va yetarli bilim va tajribaning yetishmasligi bois matniy xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Asar matniy xatoga yo'l qo'yilgan holatdan tabdil qilinganda esa asliyatdagi ma'no o'zgaradi va kutilgan natijani bermaydi. Bilamizki, arab yozuvida nuqtalarning o'rni juda ahamiyatli shuning uchun bir nuqta tushirib qoldirilsa ham matnga, qo'yingki asar mazmuniga putur yetadi. Ana shunday ko'z yumib bo'lmas xatolar ustida hozirgi kunda ham tinmay mehnat qilayotgan inson bu Vahob Rahmonovdir. Ustozning Bobur xalqaro jamoat fondining "Bobur izidan" ilmiy-amaliy ekspeditsiyasining 50 dan ortiq davlatlarga qilgan safarlarida qatnashib ulug' shoirimiz, shoh va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida olib borgan o'rganishlari tahsinga sazovordir.

O'rganishlar va ijodiy izlanishlar natijasida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yangi ma'lumotlarni fanga ma'lum qilish barobarida uning shoh asari hisoblanmiah "Boburnoma"ni tandiqiy matnini 2002-yilda yaratib uni ilm ahliga tuhfa etdilar. 2008-yilda esa "Boburnom"ni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi tabdilini va "Boburnoma"ni ruscha variantini tayyorlab uni nashr ettirib Bobur ijodiy me'rosini asrab-avaylash uni keng o'qirmanlar davrasi uchun tabaqa qulay holda o'qib o'rganishlari uchun yana bir katta xizmat qildilar. Darhaqiqat, bu qilingan ilmiy ishlar juda katta mehnatni va ilmiy izlanishni talab etadi. Vahob Rahmonovning birgina 2015-yilda nashr etilgan "Mumtoz so'z sehri" maqolalar to'plamida o'rin olgan faktlarga nazar solsak donishmand olimning mumtoz so'z sahahligiga bo'lgan keyinchaliklari qay darajada yuksak ekanligini bilishimiz mumkin. Mazkur asar uch qismdan iborat bo'lib, unda "Navoiy kitobi uzro muk tushib" (Navoiyshunoslik bo'yicha maqolalar), "Boburshunoslik", "Mumtoz so'z mas'uliyati" (Matnshunoslik bo'yicha yozilgan maqolalar), kabi qismlardan iborat bo'lib har bir bobda chuqur ilmiy xulosalar o'rin olgan. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan ikkinchi bobida o'rin olgan hajman katta, mazmunan salmoqdor "Shoh, adib va shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli maqolada Bobur hayoti va ijodi o'z ifodasini topgan deyish mumkin. Unda Boburning shaxs sifatida qanday yuksak fazilatlariga ega ekanligi faktlar bilan berilgan. "Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'p qirrali faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina "Boburnoma" uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga yaqqol misoldir" [1, 149-bet]. Shuningdek ushbu asarda Zahiriddin Muhammad Bobur isming asl ma'nosi haqida ham ma'lumot beriladi.

"Biz «Zahiriddin Muhammad» – uning ismi, «Bobur» adabiy taxallusi deb mulohaza yuritimiz. Aslida esa, Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin fi tavorixi xavoqin» («Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixi») nomli tarixiy asari va Boburning quyidagi ruboiysiga qaraganda uchala so'z ham shoh va shoirimizning ismi sharifidi.

*Tuz oh Zahiri dini Muhammad Bobir,  
Yuz oh Zahiri dini Muhammad Bobir.  
Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor,  
Uz oh Zahiri dini Muhammad Bobir.*

Sabohat Azimjonova va Aziz Qayumov uch jildlik Bobur «Asarlar»ining I jildida ushbu ruboiyni shu tarzda manzur etganlar. Nashrga tayyorlovchilar kitobxon ism ma'nosiga ahamiyat bersin, deya shunday qilishgan. Chunki ruboiyning asliyatini quyidagicha ko'chirilmog'i kerak edi:

*Tuz oh Zahiriddini Muhammad Bobur,  
Yuz oh Zahiriddini Muhammad Bobur...*

Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin fi tavorixi xavoqin» nomli tarixiy asari ma'lumotlariga qaraganda, Umarshayx mirzoning to'ng'ich o'g'liga bu ismni Xoja Ubaydulloh Ahror qo'ygan. Ism so'zlarining sharhiga kelsak: «Zahiri dini Muhammad – Muhammad dinining tayanchi, posboni, demakdir. Bobur – babr(she)rsifat, sherdek degan ma'noga molikdir». [2-m. 160]. Boburning qomusiy olim ekanligini «Boburnoma» asari yaqqol ko'rsatib turibdi. Unda barcha sohalar qatori tilshunoslik masalariga ham to'xtalib o'tadi «... til ilmining eng qiziqarli sohaları – etimologiya, fonetika ...» kabi tomonlariga e'tibor qaratadi. Bundan tashqari «Bobur birinchi marotaba» adabiy til» tushunchasi «qalam» so'zida ifodalagan tilshunosdir». [3, 189-bet].

Davom etsak so'z tugamaydi, Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy «Boburnoma» asarini o'qigan inson xuddiki ko'p qismli serial tomosha qilganday atrofni unutib asarga singib ketadi go'yo. Lekin uning farqli tomoni shundaki asar faqat real voqealarga asoslagan, unda badiiy bo'rttirma o'rinlar, to'qimalar yo'q. Haqqoniy tarixni aks ettirgan noyob qo'lyozmadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vahob Rahmonov. Mumtoz so'z sehri. – T., O'zbekiston. 2015.

### **IBRATLI YO'L**

*Iroda KENJAYEVA,  
Guliston davlat universiteti O'zbek tili yo'nalishi 1-kurs magistranti,  
Sardoba tumani 12-maktab o'qituvchisi*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekistonni barpo etishda adabiyot va san'atning o'rni alohida ekanligini ta'kidlab, shunday deydi: «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi...»

Inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biluvchi ushbu soha vakillarining mehnatini nafaqat oddiy xalq, balki yurtboshimizning o'zlari ham munosib baholab, ularga o'z minnatdorchiligini bildirib kelmoqdalar.

Ana shunday minnatdorchiliklarga, e'zoz va e'tiborga sazovor bo'lgan insonlar orasida adabiyotimizda, aniqrog'i, adabiy tanqidchilikda o'zining o'tkir mushohadali fikrlariga ega bo'lgan ustozimiz Umurzoq O'ljaboyev ham o'zining munosib o'rniga ega. Yurtboshimizning shaxsan o'zlari ustozning uzoq-yil lik samarali mehnati va ijodini ulug'lab, "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirladilar. Dehqon bahorda yerga urug' qadasa, kuzda uning hosilini yig'ib oladi. Lekin, hosil yig'ib olgunga qadar dehqon bor kuch-g'ayratini, mehnatini va mehrini undan ayamaydi. Ustozga berilgan ushbu mukofot dehqon mashaqqatidan ham ko'proq mehnatlarning mahsulidir. Huddi ota-ona o'z farzandini go'daklik chog'idan to voyaga yetguncha bo'lgan davrdagi mashaqqatlari va shu qiyinchiliklar evaziga keladigan rahmatlarga o'xshaydi.

Asosan, Abdulla Qahhor ijodini o'rgangan ustoz Umurzoq O'ljaboyevning surati va siyrati ham Abdulla Qahhorga o'xshaydi-desam, menimcha, ko'pchilik fikrimga qo'shiladi. Tadqiqodchilarning fikriga ko'ra, o'zaro qalban yaqin insonlar bir xil taqdirlar, voqealar haqida o'ylaydi, bir xil kechinmalarni his qiladi. Ularning biror voqeadan quvonishi yoki qayg'urishi yuzlaridagi chiziqlarda, nigohida, hattoki, fe'l-atvorida ham namoyon bo'lar ekan va ular tashqi ko'rinishdan ham bir-biriga o'xshash bo'lib boradi. Abdulla Qahhor va Umurzoq O'ljaboyev – haqiqatan qalban yaqin insonlar, garchi bir vaqtda, birgalikda yashamagan bo'lsalar-da, ustoz uning ijodini sidqidildan o'rgangan. Mana shu tadqiqodlari natijasida hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida "Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati" majmuasi talabalarga maxsus fan sifatida o'tib kelinmoqda.

Ustozning ijodi asosan adabiy tanqidchilikka oid. "Tanqid" so'zini bir qarashda ko'pchilik biror narsaning kamchiligini izlash, aybini qidirishdek tushunadi. Ustoz bilan bo'lgan suhbatlar jarayonida adabiy tanqidchilikka umuman boshqacha yondashish kerakligini ta'kidlardilar. Biror asarga xolis baho berish, o'zining fikrini bildirish, yutuqlarini ham ko'ra bilish, yozuvchi his qilgan tuyg'ularni anglash lozim. O'sib kelayotgan yosh nihol yoki barpo etilgan bog'ni nobut qilish emas, balki niholning ko'kka bo'y cho'zishi uchun, bog'ning barq urib yashnashi uchun uni parvarishlash, ortiqcha shoxlari bo'lsa kesib to'g'rilash kerakligini uqdirar edilar. O'tmishimizni o'rganish, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda, o'zligimizni yanada teran anglashda adabiy tanqidchilik muhim ahamiyatga ega. Zero, adabiy tanqid jamiyat va adabiyot hodisalarini haqqoniy baholash orqali xalqning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, estetik didini tarbiyalab komil insonni shakllantirishdek ezgu ishga o'z hissasini qo'shadi. Milliy istiqloq mafkurasi va hozirgi kunda kechayotgan shiddatli jarayonlar ham o'zbek adabiy tanqidchiligi bosib o'tgan tarixiy yo'lga ilmiy jihatdan haqqoniy baho berish va uning mazmun-mohiyatini yoritib berishni taqozo etadi. Yangilanayotgan davr muammolari adabiy tanqid oldiga muhim vazifalar, qator ma'naviy talablarni qo'yimoqda. Shuning uchun ham milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, mustaqillik ruhini chuqur his qilish uchun jamiyat taraqqiyoti va adabiy tanqid xususida so'zlash, uning bosib o'tgan yo'li va ulardan kerakli xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-adabiy izlanishlar jarayonida ustoz Umurzoq O'ljaboyev ham Abdulla Qahhorga xos bo'lgan uslubni qo'llaydi. Ya'ni, o'zbek



hikoyachiligining otasi – Abdulla Qahhor uslubining boshqa yozuvchilardan farqli tomoni shundaki, uning hikoyalari “so‘zga xasis, mazmunga boy”ligi bilan ajralib turadi. Bu jihatni Umurzoq O‘ljaboyevning “Badiiy tasvirning haqqoniyligi” kitobida ham kuzatishimiz mumkin. Kitobning “Kichik shaklda katta gap aytish mahorati” bobida aynan shu uslubning isbotini ko‘ramiz. Ushbu bobda asosan O‘tkir Hoshimov asarlarining tahliliga e‘tibor qaratilgan.

O‘tgan asrda butun dunyoni larzaga solgan, qaqshatgan ikkinchi jahon urushi barcha xalqlar hayotida, jumladan, o‘zbek xalqi hayotida ham katta yo‘qotishlarga sabab bo‘ldi. Bu urush barchamizning qalbimizga haqiqiy vatanparvar ajdodlarimizdan faxrlanish, g‘ururlanish va boy tariximizdan ibrat olish tuyg‘ularini shakllantirishga ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Bu haqda ustozimiz, shunday yozadi: “yillar o‘tgan sari ikkinchi jahon urushining tarixi shunchalik muqaddas bo‘lib, shunchalik salobat kasb etib, u haqdagi tasavvurlarimiz esa yanada to‘lishib, mukammallashib boryapti. Vatandoshlarimizning qoni, imoni va e‘tiqodi bilan bitilgan bu tarix faqat kattalar uchungina emas, ayni chog‘da yoshlar – keyingi avlodlar uchun ham g‘oyat e‘zozli, iftixorli va ayni chog‘da ibratli tarix bo‘lib qolyapti”. [1, 99].

Biz biror asar haqida o‘z fikrimizni bildirmoqchi bo‘lsak yoki bir she‘rni tahlil qilmoqchi bo‘lsak, uni kengroq yoritish uchun ko‘proq so‘zlardan foydalanmasak bir narsasi kamday, biror jihati ochilmaganday tuyilaveradi. Lekin, adabiyotshunos Umurzoq O‘ljaboyev Abdulla Qahhor singari “Kichik shaklda ham katta gaplar aytish mahorati” ga ega. Bunday mahoratni quyida ko‘rishimiz mumkin: “...yozuvchining “Yanga” hikoyasidagi Akmalning otasi urush-yillarida mehnat batalyoniga ketgan va u yerdan qaytib kelmagan. Shuning uchun otasining qanday odam ekanligini eslay olmaydi ham. “Cho‘l havosi” qissasidagi Botirning otasi ham urush qatnashchisi, jang maydonida bo‘lgan odam. Urush Botirning taqdirida boshqacha iz qoldiradi. Otasi urushdalgida onasi boshqaga turmushga chiqib ketadi, uch yashar go‘dak Botir esa ammasining qo‘lida qoladi. Otasi urushdan qaytgach, boshqa oila qurmaydi, o‘g‘liga bor hayotini bag‘ishlaydi. “Gunafsha” hikoyasining asosiy qahramonlaridan biri Nigoraning otasi ham urushda o‘lgan. “Ularni tanimayman ham...” deydi alam bilan u. Onasi maktabda o‘n-yil farroshlik qilib qizini o‘qitadi... Yozuvchining “Dard”, “O‘zbeklar”, “Hotam xasisning xazinasi” hikoyalarida ham urushning odamlar taqdirida fojeali izlari haqidagi qisqa, lekin serma‘no tasvirlarga duch kelamiz”. [1, 100]. Mana shu qisqa jumalarning o‘zida, e‘tibor bersak, oltita asarning mazmuni ochib berilmoqda. Adabiyotshunos olim, ustozimiz Umurzoq O‘ljaboyev O‘tkir Hoshimov ijodida “Urush va inson taqdiri” masalasiga e‘tiborini qaratar ekan, asar va o‘zi o‘rganayotgan mavzu o‘rtasidagi bog‘liqlikni, aloqadorlikni qidiradi va albatta, asardan izlagan narsasini bir-ikki jumlar misolida topadi. Bunday sinchkovlik hamma kitobxonda ham, hatto adabiyotshunoslar orasida ham kamdan kam uchraydigan holat.

Umurzoq O‘ljaboyev nafaqat ilm-fanda, ta‘lim sohasida yuqori martabalarga, yyetuklikka erishgan shaxs, balki hayotda ham barchaga namuna, andoza bo‘la oladigan haqiqiy inson! Buni men talabalik yillarimning ko‘p

vaqtlarini u kishilarning oilasida o‘tkazgan damlarimdan bilaman. Avvalo, onasiga g‘amxo‘r farzand, ayoliga sadoqatli, farzandlariga mehribon, do‘stlariga sodiq, shogirdlariga jonkuyar va shu bilan birga tabiatan juda tartibli inson edilar. Ana shunday insonlarning oilaviy davrasida, bir xontaxta atrofida o‘tirib, suhbatlarida qatnashganimdan, qolaversa, u insonning shogirdi bo‘lganimdan juda-juda faxrlanaman! Ustozimning haqiqiy, chin dunyosida ham ana shunday hurmat va e‘tiborga sazovor bo‘lganligiga ishonaman!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umurzoq O‘ljaboyev. Badiiy tasvirning haqqoniyligi. “Ziyo” nashriyoti. – Guliston 2008. 151-b.
2. <https://saviya.uz/‘ijod/adabiyotshunoslik/adabiy-tanqid-fani-tamoyillari/>

#### **DADAJONIMNI ESLAB...**

*Iroda ULJABOYEVA,  
Umurzoq O‘ljaboyevning qizlari*

Oilamizning ustuni bo‘lgan dadamning o‘rni beqiyos ekan. Dadam bolaligimdan ko‘z oldimda mehri daryo, beg‘ubor, halol, bir so‘zli, yolg‘onchilikni bilmaydigan, kitobga o‘ta mehr qo‘ygan o‘qimishli inson sifatida gavdalanib kelgan.

Dadajonim yaxshi olim edi, lekin olimligidan odamgarchiligi yuqori turardi. Mehmondorchilik jonu dili edi. Dadamning sharofati tufayli qanchadan-qancha shoiru-yozuvchilar, olimlarning dilkash suhbatlarini eshitdik, guvohi bo‘ldik. Ushbu buyuk insonlar dadamning yaqin qarddonlari edi. Dadamning o‘z kasbidagi do‘stlariga, shogirdlariga munosabati havas qilgudek, ibratli va samimiy bo‘lganligini menimcha hamma biladi deb o‘ylayman. Hozir hayot bo‘lganida 80 yoshga kirardi. Qani edi, samimiy va mehr ila boqib turgan ko‘zlarini yana bir bor ko‘rsam edi...

Dadam haqida o‘ylar ekanman, ularning olim sifatidagi, aniqrog‘i, adabiyotshunos sifatidagi ilmiy biografiyasi ko‘z oldimdan o‘tadi. Garchi, men filolog bo‘lmasam-da, badiiy adabiyotga bo‘lgan havas juda yuqori bo‘lgan. Shu bois dadamning yozgan maqolalari va kitoblarini o‘qib borar edim. Uning ilmiy faoliyatining asosiy qismini Ikkinchi jahon urushi mavzsidagi yaratilgan nasriy asarlarni talil qilish tashkil etdi. Bir vaqtlar zuvchi Nurali Qobuning “Bug‘doy pishig‘iga etmaganlar” nomli qissasini katta qiziqish bilan o‘qigan edim. Dadamning “Xotiraga chizilgan izlar” nomli kitobida shu asarning tahliliga ko‘zim tushib qoldi. To‘g‘ri, kitobda bir qancha nasriy asrlar tahlil qilingan edi. Muallif shu o‘rinda o‘z oldiga boshqacharoq maqsadni qo‘ygan, ya‘ni shu mavzuda ijod qilayotgan yosh, urush ko‘rmagan yozuvchi Nurali Qobulning “Bug‘doy pishig‘iga etmaganlar” asarini tahlil markaziga qo‘yadi. Muallif ushbu asarni tahlil qilishda urush odamlarga cheksiz musibat, qurbonlar bilan birga yana boshqa bardosh berish qiyin bo‘lgan qator tashvishlar, azob-uqubatlar keltirganligini ta‘kidlaydi. Qissa qahramonlarining taqdirida urushning jang maydonlaridan olis joylardagi

dahshatli oqibatlaridan biri – ocharchilik balosi haqida kitobxonda tasavvur hosil qilishga harakat qiladi. Munaqqid o‘ta sinchkovlik bilan asardagi quyidagi epizodga e‘tibor qaratadi.

“Olis-olislarda qaerlardadir urush bo‘layapti. Odamlar bir-birini o‘ldirishayapti. Hatto miltiq uchidagi nayza bilan ham bir-birini o‘ldirisharkan. Qanday yomon. Nega nayza qo‘yishgan ekan-a? Ko‘proq odam o‘ldirish uchunmi? Nemisning qorni to‘q, usti but bo‘lsa, nega boshqalarni o‘z holiga qo‘ymaydi?”. Qissaning bosh qismidayoq duch kelgan bu gaplar butun asar uchun kalit hisoblanishini kitobxong etkazadi. Urush odamlar hayotida qanday iz qoldirgani, ularning hayotini qay tarzda izdan chiqarganligiga e‘tibor qaratadi. Bunga oid tafsilotlarni talaygina shafqatsiz hayotiy lavhalar orqali ko‘rsatishga erishgan. Yana shulardan biri: kecha-yu kunduz daladan beri kelmaydigan Haqberdi polvon keti yo‘q “ber”, “berlardan” tutaqib: “Biz ochdan o‘lsak, kelgusi yil frontga kim g‘alla etkazib beradi, - dedi u rayondan kelgan vakilning yuziga tik qarab, - faqat ber deyishni bilasizlar. Insof kerak-ku. Siz bizga hukumt vakiliga qarshi gapirdingiz. Bu so‘zlaringiz uchun hali javob berasiz!

Men hukumat vakiliga emas, sizga o‘xshagan salla ol desa, kalla oladiganlarga gapirdim”, dedi badtar qizishib Haqberdi. Bu “qizishish” Haqberdi va uning bolasi uchun “qimmatga” tushadi. Haqiqatni gapirgani uchun uni 2 kundan keyin militsioner olib ketadi. Ish shu darajaga borib yetadiki, odamlar Haqberdini otini aytishga cho‘chib qoladi. Bunday dahshatli holatlar odamlarni karaxt, alamzada, bir-biriga bemehr qilib qo‘yganligi asardagi keyingi voqea-hodisalar orqali bayon etiladi.

Shu asar haqidagi tahlilni oxirigacha o‘qib shunday xulosaga keldim. Asardagi har bir voqea-hodisa, har bir qahramonning holati, ularning ichki kechinmlarini o‘ta sinchkovlik bilan mantiqli tahlil qilgan ekan.

Dadamning adabiyotshunos sifatidagi faoliyatini oddiy inson sifatida kuzatganlarimni yozdim. Lekin, ularning oilaparvarligi nafaqat biz uchun, hamma uchun ham ibratdir degim keladi. Oldiga oxirgi marta borganimda, barchamizni chaqirib “hayotda bekor yashamabman, umrim zoe ketmabdi, oilam, farzandlarim, nevaralarim, mehribon, ko‘ngli toza, aqlli shogirdlarim, e‘tiborli o‘tkazgan umrimdan roziman. Qilgan ishlarim: odamlarga bo‘lgan e‘tiborim, yaxshiliklarim bugun ko‘nglimga taskin bermoqda. Sinovli kunlar kelganda ham kuchli bo‘lib, tushkunlikka tushmaslik kerak”, - dedilar.

Bugungi kunda bizga taskin beradigan narsa shuki, dadam yaxshi hayot kechirdilar, hayotligi chog‘idayoq e‘tirof etilgan va hurmat topgan insonlardan bo‘ldi.

Dadajon, biz Siz bilan fahrlanamiz, shunday insonning farzandi ekanligimiz hammamizga katta mas‘uliyat yuklaydi va nomingizga munosib bo‘lishga intilamiz.

Dadajonim, qanday azizu-mukarram bo‘lib hayot kechirgan bo‘lsa, boqiy dunyoda ham ham Jannatu Firdavslarda makon topsinlar.

Ruhingiz shod, oxiratingiz obod bo‘lsin deb doimo duodamiz.

## **2-SHO‘BA: “XX ASR VA ZAMONAVIY ADABIYOT: TAHLIL VA TALQIN MASALALARI”**

### **QAHRAMONNI RUHIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN OCHISH USULI**

**Islomjon YOQUBOV,**

**ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori**

Shoir, dramaturg, nosir va publitsist Mirmuhsin Shermuhamedov (Fikriy) ning “*Befarzand Ochildiboy*” (1914) romani [1] ijtimoiy voqelik va inson tafakkuridagi yangilanishlarning ko‘lami badiiy tasvirda ham katta hajmdagi janrga ehtiyoj kuchaymoqda ekanligini ko‘rsatadi. Adabiyotimiz oldida turgan bu muhim zaruriyatni o‘z vaqtida anglagan Mirmuhsin Shermuhamedov: “*Oramizda bo‘ladurg‘on qoidaga xilof va bid‘at ishlarimizni maqola ila yozib bitdurib, bo‘lmaligig‘a ko‘zim etub, shul odtlarimiz uchun ro‘mon yozib, el ko‘ziga vositasi-la ko‘rsatishga majbur bo‘ldum*”, - deb yozadi. [2, 77]

Darhaqiqat, Mirmuhsin Shermuhamedov ushbu majburiyatni birinchilardan bo‘lib anglagan va bu yo‘lda dastlabki dadil qadam tashlagan adib edi. Ehtimol, ilk tajriba bo‘lgani uchun ham romanning badiiy saviyasi bir qadar pastroqdir. Qolaversa, mazkur roman yakunlanmagan va to‘liq bosilmagan. “*Turkiston viloyatining gazetisi*” 1914-yil 75-79-sonlarida romandan parchalar chop etgan xolos. Shunday bo‘lsa-da, adibning bu izlanishlari Hamza va Qodiriy romanlarining yuzaga kelishiga keng yo‘l ochdi. Ular “*usuli ro‘monni har kim tushunib o‘qiydirgan darajada oson bo‘lmog‘i kerak*” ligi, “*oro so‘zlar*” bilan emas, balki “*ona lisonga engil qilinub*” [2, 78] bitmoq haqidagi yozuvchi konsepsiyasiga sodiq qoldilar.

Yuqorida tanishganimizday, muallif bid‘at odatlarni vositali tarzda ko‘rsatish maqsadida qo‘liga qalam olgan. Romanni kichik “*tushuntirish*” bilan ta‘minlab, asarni yozishga undagan sabablar va uning xarakteri haqida ma‘lumot bergan. Mazkur romanning amaliy ahamiyati xususidagi fikrlarini bayon qilgan. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra o‘sha davrda romanning yozilgan qismi hajmi yuz betcha bo‘lgan ekan. Shunisi muhimki, dastlabki mashqlari ayrim johil kimsalar tomonidan “*shayton kitob*” tarzida nohaq baholanganiga qaramay, adib o‘z maslagiga sodiq qolib, romanni davom qildirishga astoydil ahd qiladi.

Muallif romanda o‘z davrining mashhur kishilaridan bo‘lgan, iqtisodiy jihatdan o‘ziga to‘q Ochildiboyning qalbida befarzandlikdan tug‘ilgan o‘kinch-armonlarni ifoda etish asnosida goh uning farzandlik bo‘lganida-da, zamonasiga munosib ma‘rifatli o‘g‘il tarbiya qila olmasligiga urg‘u bersa, goh tug‘ilajak farzandini zamona xohishiga ko‘ra tarbiyalashga ahd qilganligidan so‘zlaydi. Ba‘zan dialoglarga murojaat qiladi. Demakki, qahramonini turli vaziyat-holatlarda, ruhiy-psixologik jihatdan ochishga urinadi. Bu bilan milliy sarmoyadorlar o‘z mulkini ilm yo‘lida sarflashlari lozimligi haqidagi estetik ideallarini ham ifoda etadi.

Ko‘rinadiki, Ochildiboy ko‘p yillar davomida ta‘riflab kelinganiday ma‘rifatsiz kimsa emas. U keksa bo‘lishiga qaramasdan, Yaratganning

marhamatidan umidvor, ertaning orzulari bilan yashaydigan dili armonli, qalbi ma'yus miskin hamdir. Ziyofat chog'ida hamdard do'stlarining munojotlaridan ko'ngli erigan boy o'z uyini topolmay sarosimalanib qoladi. Mazkur holat qahramon xayollarining parishonligi, fikri tarqoqligi, chegara vaziyat-holatga tushib qolganligini ko'rsatadi. Binobarin, romanda qahramonni ekstren vaziyatlarda ochishga bo'lgan ilk urinish izlari ham kuzatiladi. Asardagi ikkinchi xarakterli jihat shundaki, yozuvchi ruhiy-psixologik holatlar tasvirida tush priyomidan ham foydalanadi. Qahramon sarobga aylangan xayollaridan ajralishni istamay qattiq iztirob chekadi. Natijada, reallik va xayolot, tush va haqiqat qorishiqligi yuzaga chiqadi.

Ammo keyinchalik asarga bir qancha qo'shimcha obrazlar va ikkinchi syujet liniyasi ham kirib keladi. Bu manfaatparast so'fi va imom hamda kambag'al Qulahmad obrazlaridir. Bundan muallifning ko'zlagan maqsadi *birinchidan*, usuli jadid maktablarining afzalligini ko'rsatmoq bo'lsa, *ikkinchidan*, isrofgarchilikka yetaklovchi bid'at odatlarni tugatib, ortiqcha mablag'larni jamiyati xayriya hamda yangi maktablarga sarf qilish lozimligi xususidagi jadidchilik qarashlarini vositali tarzda targ'ib qilishdan, *uchinchidan*, johil imomu ta'magir eshon-so'fi va ma'rifatsiz Qulahmad va xotining kulgili hollarini fosh etishdan iboratdir.

Nazarimizda, Mirmuhsin Shermuhamedov: insonning tugal baxtga erishmog'i iqtisodiy va oilaviy baxtning mukammalligi orqali mumkin bo'ladi,- degan fikrni ham ilgari surgan ko'rinadi. Zotan, Mirmuhsin Shermuhamedov masalalar mohiyatiga insoniy munosabatlar, insonning o'z-o'zini taftish etishi nuqtai nazaridan yondashadi. Borliqdagi hodisalarni o'zaro aloqadorlikda, yagona qonuniyatli olamiy jarayon sifatida olib qarashga, hodisa va kechinmalar o'rtasidagi aloqadorlikni sabab va natija tarzida tushunishga, ongsizlik holatlariga ham bir qur nigoh tashlashga urinadi. Shuning uchun real dunyodagi tuyg'u-kechinmalar uyqu holatida ham davom etadi, rivojlanadi. Aksincha, tushdagi kayfiyat-holatlar reallikka ko'chib, universal aloqa hamda ta'sirga aylanadi. Muayyan muddat hatto Ochildiboy o'z kechinma-munosbatlarini nazorat qilish va baholash imkoniyatiga ham ega bo'lolmaydi. Uning "*befarzand*" – o'tmishi va "*o'g'illik bo'lgan*" – kelajagi ayni lahzalarning o'zida namoyon bo'ladi. Go'yo yagona psixik aktga bevosita birlashadi.

Muallif qahramon faoliyatining anglashilmagan qo'zg'ovchilarini ham tush ta'sirida tug'ilgan affektiv holat orqali dalillay oladi. Zero, inson o'z-o'zini boshqarish, hayotini tartibga solish, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va yaxshilashga intiluvchi ertadan umidvor yaratiqdir. Binobarin, romanda Ochildiboyning amalga oshmay qolgan mayllari reallikka ko'chishining mexanizmini ko'rsatishga urinish ham kuzatiladi. Illo biologik va ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lgan inson zohiri va botini munosabatlari jarayoni g'oyatda murakkab tarzda kechadi va turli rakurslardan yondashishni talab etadi. [3, 30]

Demak, Mirmuhsin Shermuhamedovning fikr-qarashlari hodisa va jarayonlar o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettirishda chuqurroq va umumiyroq aloqalar va munosabatlarni aniqlash sari tinimsiz harakatda bo'lganligini taxmin qilish

mumkin. Romanda ishtirok etuvchi o'nga yaqin personajlar asosan, avtor nutqi vositasida berilgan bo'lib, mumtoz yozma adabiyotga xos hikoyachilik va qissaxonlik shaklidan foydalanilgan. Shunga qaramasdan ayrim dialoglarni ifoda etish, qahramonlarni harakat va muloqotda ko'rsatishga urinishlar ham ko'zga tashlanadi.

Umuman, muallifning real hayotiy masalalar qatorida, inson va uning ko'ngil olamiga diqqat qaratishi, ijtimoiy va ma'naviy-ruhiy jarayonlarni epik planda psixologik dalillashga urinishining o'zi g'oyatda muhim edi. Chunki bu hol nasrdagi adabiy intilishlarda yangicha qarash, inson taqdiri masalasini chuqurroq tushunish tomon intilish yuzaga kelganligini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirmuhsin Shermuhamedov. Befarzand Ochildiboy. Ro'mon //Turkiston viloyatining gazetasi, 1914-yil 75-79- sonlar.
2. Mirmuhsin Shermuhamedov. Befarzand Ochildiboy. Roman.//Sharq yulduzi, 2010-yil , 6-son.-B. 76-82.
3. Yoqubov I. Milliy uyg'onish davri o'zbek nasri. Monografiya. – Toshkent, Fan va texnologiya, 2012.

## **XALQ OG'ZAKI IJODI VA BADIY HAQIQATLAR**

**Qobil KO'BAYEV,**

*GulDU, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Keyingi paytda tarixni o'rganish uchun keng yo'llar ochilganligi bois sermiqiyos va serqatlam moziyni badiiy o'zlashtirish ham ancha kengaydi. Uning o'ziga xos shakllari paydo bo'la boshladi. Ana shunday izlanishlardan biri xalq og'zaki ijodi, rivoyat va afsonalar syujeti asosida yaratilgan rivoyat qissalardir. Bunday asarlar ko'proq, xalq og'zaki ijodi namunalariidagi yarim afsonaviy, romantik qahramonlarni eslatuvchi shartli personajlar sarguzashtlariga asoslanadi. Shunga ko'ra syujetda ma'lum shartlilik, bo'rttirish, og'zaki ijod elementlari, rivoyatomuz voqealar uchraydi.

Xalq og'zaki ijodidagi To'maris va Shiroq afsonalarining asli bizga etib kelmagan. Ularning mazmuni grek tarixchilaridan Gerodotning «Tarix» va Polienning «Harbiy hiylalar» kitobida, shuningdek, «Avesto»da hikoya qilib qoldirilgan.

“To'maris” afsonasida Massaget qabilalarining, “Shiroq” afsonasida esa Sak qabilalarining bosqinchi yovlarga qarshi kurashi aniq, yorqin ko'rsatib berilgan. Bu qabilalarning tadbirkorligiga, jasur va mardligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mana shuning o'ziyoq, har ikkala afsonaning ham Turonda yashovchi donishmand xalqimiz tomonidan yaratilganini isbotlab turibdi.

Grek adabiyotida ta'kidlanishicha, ayniqsa, Esxil, Gerodot, Polien ijodida qayd qilib o'tilishicha, bu afsonalarda tasvirlangan davr, ularning tarixiy ildizi eramizdan ilgari VI -V asrlarga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinadiki, bu asrlarda “To'maris” va “Shiroq” kabi og'zaki ijod namunalariiga ega bo'lgan xalqning

keyinchalik, Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga bostirib kelgan davrida rivojlangan o'ziga xos ko'rkam adabiyoti bo'lgan edi, deyishga asos beradi.

Mirkarim Osim shu materiallar asosida "Shiroq" va "To'maris" qissalarini yaratdi. Har ikkala asarda ham ajdodlarimizning vatanparvarligi, yovlarga qarshi kurashda ko'rsatgan qahramonligi, jangu jadal sahifalari aks ettirilgan.

"To'maris" qissasi syujetini qadimgi Turonda yashagan Sak va Massaget qabilalarining hukmdorlaridan biri To'marisning bosqinchi Eron shohi Kayxusravga qarshi olib borgan qahramonlik kurashi tashkil etadi. Yozuvchi tarixiy faktlarga jon baxsh etib, ezgu tilakli xalqning matonati, psixologiyasini, qahramonligi tabiatini badiiy vositalar yordamida tasavvur qilishimizga imkon yaratadi. Muallif asar qahramoni To'marisni bir so'zli, mard va nihoyatda shiddatkor sarkarda sifatida tasvirlaydi. Shaxsiy baxti va huzur-halovatidan ko'ra o'z xalqining baxt-saodatini, tinchligi va osoyishtaligi uchun jonfidolikni afzal ko'radi. Eron shohi Kayxusrav jo'natgan elchining: «Men yolg'iz elchi emas, sovchi ham bo'lib keldim. Shahanshohi olam senga g'oyibona oshiq bo'lganlar», degan gapiga, «Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo'lgandir», deydi To'maris zaharxanda qilib! "Men emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo'lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o'z tojdoringizga borib ayting: Men uning taklifini qat'iy rad etaman. Men unga qalliq bo'lishni, o'z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman", deb javob beradi. To'maris bu gapi bilan Vatanining daxlsizligini, xalqining erki va mustaqilligini saqlash bosh a'moli ekanligini uqtiradi.

Bunday yovqur javobni kutmagan Kayxusrav fig'onidan tutun chiqib ketadi. Shoh sha'niga nomunosib nomardlik yo'lini tanlaydi. U hiyla ishlatib, To'maris lashkarlarini qo'lga oladi. Ular orasida To'marisning o'g'li Sparangiz (ba'zi manbalarda Sparganiz) ham bor edi. O'zining hiyla bilan qo'lga tushganini sezgan Sparangiz kishanni echishni so'raydi. Grek tarixchisi Gerodot "Tarix" kitobida yozishiga ko'ra, Sparangiz qo'li yechilgan zahoti o'zini o'zi o'ldiradi. Mirkarim Osim mazkur tarixiy faktni badiiylashtiradi. Qissaga quyidagi tahlitda singdirib yuboradi: "Qo'limni yechib qo'yinglar, – deb iltimos qildi u. Kayxusrav bir mulozimiga ishora qilgan edi, u yugurib kelib yigitning qo'lini yechdi-da, o'z joyiga borib turdi. Shu on Sparangiz qo'ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib, o'zining ko'ksiga sanchdi-yu, mukka tushib jon taslim qildi". "Mard yigit ekan, – dedi Kayxusrav bir ozdan keyin. – O'limni nomusdan afzal ko'rdi" [1, 24-bet].

Sparangiz o'limidan xabar topgan To'maris va barcha massagetlar yuragini g'azab, nafrat alangasi qoplaydi. To'maris yurt boshiga tushgan bu kulfatlarni daf etish uchun jangga kirar ekan, lashkarlariga murojaat qiladi: "Opa-singillar, aka-ukalar, qayerga ketayotganingizni hammangiz yaxshi bilasiz. Shu ketganimizcha, yo hammamiz bitta qolgunimizcha qirilib, o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz, yoki dushmanni qirib yuborib, g'alaba bilan qaytamiz. Ishonaman, oramizda Eron shohi oldida tiz cho'kadigan nomard yo'q. Biz, albatta, engamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko'rsin Eron shohi" [1, 16-bet].

To'maris qo'shinlari ayovsiz jangda g'alaba qozonadi. Katta yo'qotishlar, qurbonlar evaziga o'z yurtini Eron lashkarlari bosqinidan saqlab qoladi. Muallif

tarixiy voqealarga badiiylik baxsh etar ekan, ularga muxim ijtimoiy ahamiyatli ma'nolar yuklaydi. G'alaba misolida o'quvchi ongini, ko'nglini tarbiyalashga alohida urg'u beradi. Kitobxon qalbida zulmga, yovuzlikka, bosqinchilikka qarshi nafrat, vatanparvarlik, ozodlik va adolatga muxabbat tuyg'ularini alangalatadi.

Qissadagi yirik tarixiy shaxslardan yana biri ahmoniyalar davlatining asoschisi Kayxusrav obrazidir.

Kvint Kurtsiy Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi" kitobida Kir real tarixiy shaxs bo'lib, eramizdan ilgarigi 559 - 529-yillarda yashab o'tganligi haqida gap boradi. U Yaksart, hozirgi Sirdaryo yoqasidagi G'aza shahrini egallab oladi. Hatto Kir bu daryo yaqinida shahar qurganligi ham ta'kidlanadi. Ruf asarida tasvirlangan afsonaviy Kir bilan bog'liq voqealar o'quvchini hayajonga soladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Kvint Kurtsiy Ruf asari bundan qariyb XX asr ilgari yaratilgan, undagi voqealar XXIII asr avval bo'lib o'tgan esa-da, bugungi kitobxonni ham ijodkorlarni ham hamisha xayajonga soladi. Chunki, o'sha tarixiy hodisa, kurash, haqiqat go'zal va jozibalidir. U ongimizga nur, ko'nglimizga harorat-fikr baxsh etadi.

Asarni o'qir ekanmiz, bugungi kun sarhadlarida turib o'sha olis tariximizning uzoq saxifalariga nazar tashlaymiz. Ulardan bugungi kunimiz uchun ma'naviy-intellektual quvvat, madad olamiz. Qirg'inbarot urushlar, son-sanoqsiz odamlarning qul qilib xaydab ketilishi, ayollar dod-faryodi, norasida bolalarning itlar oldiga tiriklayin tashlangani, qutirgan itlarning ojiz, himoyasiz bolalarni zanjirband ota-onalari ko'zi o'ngida g'ajishi, burda-burda tilkalashi naqadar achinarli va qayg'uli. Mana shu xil tarixiy faktlardan tegishli xulosa chiqargan yozuvchi Kayxusravni asarda tajovuzkor, qonxo'r va ayni paytda, nomard shaxs sifatida tasvirlaydi: "Eron shohi ko'pni ko'rgan keksa jangchining makr-hiyaldan iborat bo'lgan rejasini zavq bilan tinglab o'tirdi. Soddadil massagetlar daryodan o'tishimizga monelik qilmay, mardlik ko'rsatdi -yu, bizlar hiyla ishlatib nomardlik qilamizmi?", degan fikr ko'nglining ko'chasiga ham kelmadi. Iroq va Misrni, O'rta Osiyoning janubiy qismini qurol va oltin, makr-hiyla bilan bosib olib, buyuk Eron davlatini barpo etgan bu shuxratparast shox, maqsadiga erishish yo'lida har qanaqa nomardlikdan tap tortmasdi" [1, 11-bet].

Asardagi Zarina obrazi badiiy to'qima mahsuli. U bosh qahramon To'maris qiyofasini, jasoratining mohiyati va tabiatini ayonlashtiradi. Xususan, xarakter mantig'ini ta'minlashga, badiiy dalillashga yordam beradi.

Qissa ajdodlarimizning yurtimizga ko'z tikkan yovlarga qarshi qahramonona kurashlarini aks ettiruvchi yorqin asar sifatida, ayniqsa, bugungi milliy mustaqillik sharoitida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yurtimiz dushmanlariga, bosqinchilarga qarshi kurash, o'tmishda kechgan jang-jadallar "Shiroq" tarixiy qissasining ham qahramonlik yo'nalishini, mazmun-mohiyatini belgilab bergan. Qissada o'z xalqini, kindik qoni to'kilgan tuproqni jonidan ortiq sevgan cho'pon Shiroq obrazi yetakchi o'rin tutadi. U o'z hayoti evaziga xalqining erkini, ona zamin ozodligini ta'minlaydi. Muallif asarda buni qahramon nutqi orqali jonli, ishonarli lavhalarda tasvirlab beradi: "Agar meni, bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o'z shirin jonimdan kechib, yurt



boshiga qelgan baloni daf etardim. Dushmanni daf qilmoq uchun bir hiyla o‘ylab topdim, umrim oxirlab qoldi, axiri bu dunyodan ketmoq kerak. Men el - yurt uchun o‘limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim” [1, 24-bet]. Shiroq fidoyi ajdodlarimizning xalqsevarlik, qahramonlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida mujassam etgan obrazdir. Yozuvchi Shiroq jasoratini tasvirlar ekan, asrlar osha xira tortgan tarixiy fakt va ma’lumotlarga jon ato etadi. Natijada asrlar to‘zoni orasidan voqea-hodisalar, real shaxslar o‘z dunyosi, muhabbati va nafrati ila ko‘z o‘ngimizda butun borlig‘i bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Qissa yakunida Shiroq fojeali o‘lim topadi. Biroq u mard, tanti tabiati bilan kitobxon qalbidan joy oladi. Yurt va el uchun yovlarga qarshi kurashi bilan Shiroq ko‘z o‘ngimizda vatanparvarga aylanadi: “ – Men engdim, Doro qo‘shinlarini bir o‘zim engdim! – dedi u (Shiroq) qichqirib. – Sizlarni aldab sahroning qoq o‘rtasiga olib keldim, – qo‘li bilan kun chiqish va kun botish tomonni ko‘rsatdi. – Bu yog‘i ham etti kunlik yo‘l, u yog‘i ham. Istagan tomoningizga boravering. Mening go‘rim shu erda, – deb oyog‘i ostini ko‘rsatdi” [1, 25-bet].

“To‘maris”, “Shiroq” qissalarida yozuvchining tarixiy materialni taqdim etish uslubi o‘zgacha. Xususan, bu xil rivoyat-qissalarda ko‘tarinkilik va qahramonlik syujetini yoritishda ko‘proq liro-romantik uslub mos keladi.

Mirkarim Osim Shiroq obrazi orqali vatanparvarlik ham ijtimoiy adolat singari, xaqiqat kabi go‘zaldir, degan g‘oyani ulug‘laydi. Shunday, shaxs erki, millat hurriyati hamisha bashariy qadriyatlarning betimsol namunasi bo‘lib qolaveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mirkarim Osim. Shiroq. Qissa. – Toshkent: Fan, 1995, 7-bet.
- 2.N. Rahimjonov, Q. Ko‘bayev. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. Adolat nashriyoti. – Toshkent: Adolat, 2005.

## **G‘AFUR G‘ULOM SHE‘RIYATIDA SAMIMIY DO‘STLIK IQRORLARI TASVIRI**

**Tozagul MATYOQUBOVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

O‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi G‘.G‘ulom shaxsiyatiga xos oddiylik, samimiyat, hazilkashlik, hozirjavoblik, bag‘rikenglik, bolajonilik, mehmondo‘stlik kabi o‘nlab go‘zal fazilatlar shaharga yondosh joylashgan qozog‘u qirg‘iz xalqi hamda shahriston hunarmandlari qalbiga birday yaqin edi. O‘sha kezlarda Toshkentning Shayhontohur, Sebzor, Ko‘kcha dahalari, Eski jo‘va mavzolari-yu Registon atroflari, ayniqsa, Beshyog‘och bozorining rastalari, Ko‘kaldosh, Baroqxon singari madrasalar, ko‘plab mahalla guzarlari va choyxonalarida shoirni shaxsan tanimagan, hamsuhbat bo‘lmagan kishini topish amri mahol bo‘lgan.

G‘.G‘ulom do‘st-birodarlari orasida shoir, adib, dramaturg va tarjimonlardan tashqari uning qalbiga yaqin bo‘lgan talay boshqa soha vakillari ham majud edi.

Jumladan: Mahmudxon Fayzullaxonov [aptekachi], Jo'ra G'oyibov va Zuhurjon [polvon], Iskandar G'ulomov [grafik rassom], Usta Mo'min [rassom], Abdulla Hayitov [sangtarosh], Ahmad Shorahmedov [jurnalist], Yunus Rajabiy [bastakor], Jo'raxon Sultonov va Ortiqxo'ja Imomxo'jayev [hofiz], Abror Hidoyatov va Yetim Bobojonov [aktyor], To'lagan [nosfurush], Ahmadjon va Inoyat [zargar], Yo'ldosh [aravakash], To'lagan [kavishdo'z], Mustafo [shofyor], Ergash [bog'bon] va hokazo. Chunki, G'.G'ulom uchun odamning hunarmand, to'quvchi, temirchi, ko'nchi, kosib, kulol, dehqon, bog'bon, cho'pon singari kasbi-kori, ijtimoiy holati kabi belgilar emas, balki uning oddiy, sodda, samimiy, dilkash, bag'rikeng inson ekani muhim sanalgan.

G'ulomning yaqin do'stlarining aksariyati ijodkorlar bo'lgan. G'.G'ulom Zulfiya va Shukrullo kabi ijodkorlarga atab alohida she'rlar bitgan. Shuningdek, uning ayrim she'rlari o'rtoqlik hazillari bo'lib ular: Q.Muhammadiy, G'ayratiy, S.Abdulla, Mirtemir, Oybek, Shayxzoda, M.Boboyevlarga bag'ishlangan.

G'.G'ulomning yaqin ijodkor do'stlaridan biri H.Olimjon edi. Uning bevaqt o'limi o'zbek she'riyati bo'stonini bir qadar g'arib qilib qo'ydi. Buni ruhan tuygan G'.G'ulom shunday yozadi.:

*Shu varaq qog'ozga yoshim to'kildi,  
Nomingni yo'qladim, o'rtoqjon Hamid.  
Uyingga yuz tupcha o'rik ekildi,  
Bugun gullab ketdi sen qilgan umid.*

Bu she'r diydor sog'inchi, iztirob, o'kinch va ayni paytda umid hamda shukronalik kabi qarishiq tuyg'ular-la bitilgan o'ziga xos yig'i-yo'qlovdur. Zotan, G'.G'ulom "o'rtoqjon Hamid"ni yo'qlarkan, uning bevaqt vafotidan iztirob chekayotgani, do'stiga nisbatan so'ngsiz ardoq va uning umri qisqaligidan tuygan armonlari qalbini larzaga keltirgan vaziyat-holat kartinasini chizadi. Izhoril ifodasidagi dili g'amli, ko'zi namli shoir holatidan anglashiladiki, xotira va orzu-armonlar bilan bog'liq ichki titroqlardan so'ng uning qalbi erigan. Bir varaq qog'oz betiga to'kilgan ko'z yosh bunga guvohlik bera oladi. Tuyqus olis-yaqin xotiralar uyg'onadi:

*Yodimda yonma-yon kezganlarimiz,  
Quvada anorlar ezganlarimiz... [6, 388]*

Yuqoridagi misralar oxirida kelgan "kezganlar" va "ezganlar" so'zlarining tovushlar guruhi ohangdosh va bir-biriga mos. Shu bois bu qofiyadosh so'zlar she'rni ohangdor, musiqiy, ta'sirchan qiluvchi unsur bo'lish barobarida, ulardagi ta'kid yaxlit she'r ritmini ham his qildiradi. Demak, ikki shoir Farg'onaning Quva tumanida hamdam bo'lishgan. Yonma-yon kezib yurgan XX asr o'zbek she'riyatining ikki cho'ng qoyasi nimalar haqida so'zlashgani, qanday hislarni tuyishgani endilikda bizga qorong'u. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, kishi muazzam borliq simfoniyasini tinglagan, tabiat bag'riga singib ketgan lahzalarini ifodalashga ojizlik qiladi. Masalan "O'zbekiston" she'rida H.Olimjon: "Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda", deb yozadi. Chamasi, shoir o'sha "ajib his" va kechinma ismini topishga qiynaladi yohud o'sha ismsizlikning o'zida poetik effekt ko'radi.

She'riy yo'qlovning umum ruhidan anglashiladiki, bu sayohat 1939-yilda amalga oshirilgan. Chunki o'shanda eng yirik gidrotexnika inshootlaridan biri bo'lgan Katta Farg'ona kanali xalq hashari yo'li bilan juda qisqa muddatda qurib bitkazilgandi. Bu jarayonda san'at ahli bilan birgalikda shoiru adiblar ham hasharchilarga ruhiy madadkor bo'lishgan. G'.G'ulom dong taratgan Quva anorini eslatishi hamon sersharbat bu mevaning shirin ta'mi qalbimizga ikki o'rtada kechgan suhbat ruhini ham olib kirgandek bo'ladi. G'.G'ulom do'stini xotirlarkan, uning shaxsiyatini hayotsevar inson tarzida, ijodiy merosini esa, dilbar she'riyat sifatida angelaydi. Shoirga ikkinchi umr taqdir etilganidan ko'ngli taskin topadi.

H.Olimjon estetik mushohada ob'ektini uning tafafakkur mantig'i, kayfiyat-holatlaridan izlagan adabiyotshunos olim I.Yoqubov: *"Hamid Olimjon zinhor bedard va beg'am shoir emas. Ehtimol, uning ulkan dardi, daryo kabi toshgan sevinchlari bag'rida jo bo'lgandir. Ammo bizningcha, bu dardu iztirob butun ijodida qizil ipday o'tuvchi – insoniyatga baxt-shodlik ulashish tilagi, uni gul-chechaklarga o'rashni zo'r saodat deb bilish istagi edi. Hamid Olimjon shodligi va iztirob-armonlarining vatani uning ozod hamda shod insonni sharaflash hissiga limmo-lim, insoniyat hurriyatini sog'ingan sohir qalbidir"* [1. 367], deb yozadi.

Demak, G'.G'ulom H.Olimjonning *"O'rik gullaganda"* she'riga ishora qilib:

*"Uyingga yuz tupcha o'rik ekildi"*, deya marhum shoir ruhiga, ayni choqda o'z-o'ziga ham taskin va tasalli berishi bejiz emas. Zotan, u Hamid Olimjon qalbidagi yolqinning ko'ngilga yaqin, so'lim ohanglariyu mislsiz dilbar kuylariga jon qulog'ini tutgan. *"Bugun gullab ketdi sen qilgan umid"* deyish orqali shoirning sevinchlari bag'riga joylangan insoniyatga baxt-shodlik ulashish, uni gul-chechaklarga o'rash istak-tilagini, insonni sharaflash va bani odamzotga hurlik sog'inishni oliy saodat deb bilgan sohir qalbini teran anglagan.

G'.G'ulom hijronzada do'st sifatida bitgan *"Bir do'st xotirasi"* nomli she'rida shunday yozadi:

*Qaydasan, aziz o'rtoq, she'ringni takror o'qib,  
Nabirang tizzamdayu nomingni qilaman yod.  
Marg'ilonda quyoshday krepdeshinlar to'qib,  
Hulkaringni yasatdik, oilang bo'ldi obod.* [6, 185]

Yuqoridagi satrlardan anglashiladiki, G'.G'ulom *"aziz o'rtoq"*ni sog'ingan kezlarda lirik merosiga takror-takror murojaat qilgan. Uning turmush o'rtog'i Zulfiyaxonim, farzandlari: Omon va Hulkar, hatto nevaralari taqdiriga ham befarq qaramagan. Agar Hulkar Olimjonova 1937-yilda tug'ilgani inobatga olinsa, H.Olimjon vafot etganida u etti, ushbu she'r yozilayotgan paytda yigirma uch yoshida bo'ladi. Binobarin, qizining to'yini ko'rish H.Olimjonga nasib qilmagan.

Shuning uchun ham G'.G'ulom bu oila obodligiga mas'ullikni H.Olimjon mangu ruhi oldida uddalanishi lozim bo'lgan do'stlik qarzi va farzi deb bilgan ko'rinadi.

Demak, shoirning: *"Hulkaringni yasatdik, oilang bo'ldi obod"* tarzida shoir ruhi oldida hisob berishi real hayotiy asoslariga ega. Tizzada erkalatilgan nabira, olislarga uchgan mahzun xotira va Marg'ilonning pishiq, nafis shohi gazlamalari haqida so'z ketgan o'rinlar she'r ruhiga milliy pafos hamda joziba bag'ishlagan.

H.Olimjon vafotidan o'n olti-yil keyin, ya'ni 1960-yilda bitilgan mazkur she'rda shunday satrlar borki, ular ikki do'st qalbi naqadar payvasta bo'lganidan guvohlik beradi:

*Oinada o'zimni ko'rib o'ksinib ketdim,  
Soch soqolim paxtaday – qatorimda qanisan?  
Navqiron yoshligimiz damin umsinib ketdim,  
Chertmak dutorimdayu, alyorimda qanisan? [6, 186]*

G'.G'ulom birinchi misrada qo'llagan "*o'ksinib ketdim*", degan samimiy iqrorda do'stiga ushbu to'yni ko'rish nasib etmagani, umr bevafoolidan tu-yilgan afsuslanish, g'amginlik singari hislar bilan qalbi limmo-lim to'lgan shoir ko'ngil hollari aks etgan. Binobarin, bu she'r o'ziga yupanch istagan o'ksik ko'ngil izhori. Oynada ko'rilgan o'zlik bu o'kinchning katalizotori vazifasini o'tagan. Chunki, paxtaday oqargan soch-soqol aslida qism orqali butun odam, ya'ni G'.G'ulomni anglatuvchi poetik ko'chimidir. Shoir qatordagi nor – H.Olimjon yo'qligi kontrastini badiiy usul sifatida qo'llab ayriliq va hijron miqyosini yanada bo'rttirib, qabartirib ko'rsatishga erishgan. Zotan, o'sha kezda H.Olimjon hayot bo'lganida, u bor-yo'g'i ellik bir yoshga kirgan bo'lardi.

Real hayotiy kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, odatda bag'rikeng odamlar qalbida o'zidan yoshi kichikroqlardan ko'proq yashab qo'yganidan xijolat chekish tarzida namoyon bo'ladigan ichkin bir tuyg'u bo'larkan. Chamasi, paxtaday oq soch-soqoliga boqishni real mazmunda tushunmaslik zarur. Bu o'rinda tahayyul va ko'ngil oynasi nazarda tutilgan. Xayol tulporida olis xotiralar sari parvoz etgan kezda G'.G'ulom o'zidan olti yashar kichik do'sti boqiy dunyoga ketganidan o'ksingan, emrangan. Uning o'z qatorida bo'lishini astoydil tilagan, sohir qalbi sog'inch hissidan beadam miqyoslarda huvillagan.

G'.G'ulomning dutoridan so'z ochishi ham bejiz emas. Chunki poetik jihatdan qaralsa, dutor (hayot) ikki torining biri H.Olimjon, ikkinchisi G'.G'ulom ekani anglashiladi. Qolaversa, yakka tor bilan mukammal musiqa chalinmas (yashash zavqi tatimas)ligi lirik qahramon kayfiyatiga vobasta. Shuningdek, "*alyorimda qanisan?*" degan so'rov-murojaatda ham shodiyonada qadah so'zlari bag'ishlanishi kerak bo'lgan shaxs nazarda tutilgan. Uchinchi misrada qo'llagan "*umsunmoq*" fe'li aslida ko'kragi sutga to'lib, chaqalog'ini emizishga ehtiyoj sezgan ayolga nisbatan qo'llaniladi. Biroq, G'.G'ulom unga yangicha poetik ma'no yuklagan. Boshqacharoq aytganda, lirik qahramonning o'z do'sti bilan o'tkazgan navqiron yoshlik damlarini qo'msashi, diydorlashmoq tilagi, sog'inch hislari shu qadar kuchayganki, u nafaqat ruhiy, balki jimoniy ehtiyojga ham aylangan, degan ma'noni ifoda eta olgan. She'r finalida G'.G'ulom tabiatan optimist shoir ekani kuzatiladi. Bag'rida ishonchli shogirdlari borligidan taskin va yupanch topgan lirik qahramon H.Olimjon ruhi ular kamolida umrboqiy ekanidan mamnun bo'ladi. Umuman, she'rdagi: "*Qachonki gul ochilsa – nafasing dimog'imda*", satri lirik qahramon kayfiyatini anglatuvchi leytmotiv vazifasini o'taydi.

G'.G'ulom O'zbekiston xalq shori Zulfiyaga bag'ishlab 1952-yilda yozgan "*Zulfiyaxonimga*" nomli sherda:

*Baxtiyor do'stimning baxtli do'stiga*

*Oqargan sochlari bo'lsin muborak...*

*Labimda g'oyatda mazali bo'ldi*

*Oilang haqqiga ko'targanim may* [5, 252].

degan satrlarni uchratamiz. Agar Zulfiya 1915-yilda tug'ilgani nazarda tutilsa, she'r sarlavhasidan keyin "Tug'ilish kuni" tarzida izoh berilishi birmuncha ajablanarli tuyuladi. Bizningcha, Yozuvchilar II s'ezdida qatnashib Moskvadan poezdda qaytayotgan, ko'tarinki taassurotlar og'ushidagi G'.G'ulom 1917-yil ni umumsho'ro shoirlari tavallud topgan ayyom sifatida bilib, Zulfiyani 35 yoshi bilan qutlagan. Chamasi, Moskvada H.Olimjon ijodiy merosi haqida iliq gaplar aytilganki, G'.G'ulom bu holdan mamnunligini yashira olmagan. Shoir 1965-yilda yozgan "Zulfiyaxonimga" nomli ikkinchi she'rida xuddi bashorat qilganday:

*Umrlarcha davom etsin Vatan ufqida parvozing,*

*Zamon aksi sadosidek jaranglab tursin ovozing.* [ 6, 338]

degan satrlarni bitgan edi.

Darhaqiqat, Zulfiya she'riyatining har bir satrida asrlar nidosi uning yurak zarbi yanglig'yangrab turadi. Shoiraning keng fikri, nurli tahayyul olami Mehriy Hiraviy, Zebunniso, Uvaysiy, Nodira, Anbar Otin singari o'zbek mumtoz adabiyoti mash'allari tuzgan nazm anjumanidan munosib o'rin oldi.

*Qanotlangan umid, iqbol erur har she'rkim yozding,*

*Surayyo yulduzidan ham balandroq uchdi shahbozing.* [ 6, 338]

G'.G'ulom shoira taxayyul lochini parvozini Surayyo (Hulkar) yulduzlar to'pidan ham yuksakroqda ko'radi. Bu hol zinhor mubolag'a bo'lmay, Zulfiya she'riyatidagi fikrlar ulug'vorligi, tuyg'u-kechinmalar teranligi, insoniy o'lchovlar balandligini ilg'agan zamondosh shoirning haqli e'tirofi edi. Zotan, Zulfiya qaro tunlarni bedorlik bilan oppoq tonglarga ulab qalam surarkan, u insoniyat taqdiri, xalqlar do'stligi, tinchlik va barqarorlik g'oyalarini she'rga, ohangga solgandi. Uning nozik qalbi insoniyat istiqboli yorqin va iqboli munavvar bo'lishiga nekbin ishonch hamda umid nazari bilan boqqan edi. Shu bois, so'z zarshunosining rubobiy mavzun she'riyati minglab ko'ngillar jilosiga aylandi.

Ko'rinadiki, G'.G'ulomning ijodkor do'stlariga bag'ishlagan she'rlari o'sha davr adabiy jarayoni xususida muayyan tasavvurlar beradi. Bunday she'rlar shoirning inson va ijodkor shaxs sifatidagi fenomenal kredosi, yetakchi adabiy-estetik konseptsiyasi haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitishi, shubhasizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yoqubov I. Badiiy-estetik so'z sehri. – T.: Fan va texnologiya, 2011.
2. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006.
3. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. –T.: Fan, 2004.
4. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983.
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984.
6. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984.
7. Hamid Olimjon. O'lka. She'rlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

## POLIFONIZM VA “KO‘HNA DUNYO” ROMANI

Zokir RAHIMOV,

*FarDU dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Bir asrlik tarixga ega bo‘lgan roman janrining taraqqiyotini keyingi yillardagi tasviriy o‘zgarishlar, uning hskl va mazmun jihatdan yangilanib borayotganligidan dalolat bermoqda. O‘tgan asrning 60-70-yillaridayoq janr tarkibidagi o‘ziga xos tasvirlarning vujudga kelishi, turfa xil ohanglarning namoyon bo‘lishini anglatgan bo‘lsa, 80-90-yillarga kelib bu jarayon yana-da, barqarorlashganligini kuzatamiz. Roman janridagi mavzular ko‘lami ham kengayishi bilan bir qatorda, uning turfa ohanglarda namoyon bo‘lishi alihida qayd etilmoqdaki, buning o‘ziga xos tamoyillari mavjud edi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev qayd qilib o‘tganidek: “Roman polifonizimi unda tasvirga olingan odamlarning ko‘pligida va ularning baqirchaqiri xilma-xilligida emas, balki bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi taqdir va e‘tiqodlarning uyg‘unlikda aks ettirilganidadir. To‘g‘rirog‘i, bunday shaxslarning bir makrokosimda mavjud bo‘lishiga majbur ekanliklari ishonarli va ob‘ektiv tasvir etilganidadir” [1, 71-bet].

Haqli ta‘kidlanganidek, roman sujetidan o‘rin olgan obrazlarning turfa taqdirlari-yu, ularning tarix sahnasidagi ruhiy-ma‘naviy olamining, qarashlarining bir-birini inkor etishi, o‘ga taqdirlarning uyg‘unligini kuzatar ekanmiz, iste‘dodli adib Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanidagi tasvirlar, talqinlar, turfa xil xarakterlar, ruhiy-ma‘naviy istiroblar ko‘z oldimizda jonlanadi.

Qalbida ijodning olovli taftini sezgan har bir qalam sohibi adabiyot bo‘stonida o‘zining gulu–chechaklarini undirmoqqa intiladi. Ijodning mashaqqatli, ammo totli yo‘liga kirgach, yillar davomida sham misoli ziyo taratib, o‘quvchilari qalbini ma‘rifat nuri bilan boyitadi. Sham qancha ziyo taratmasin, oxir oqibatda so‘nishi muqarrarligidek, ijodkor ahli ham umri mobaynida ezgulik urug‘ini ko‘ngillarga undirish bilan mashg‘ul bo‘lib, umri poyoniga yetganini sezmay ham qoladi. Biroq ular ulashgan ziyo qalblarda mangu qoladi, gulu-chechaklari o‘z rangu-bo‘yini asarlar osha taratib, kitobxon qalbini larzaga solib, ma‘naviy ozuqa beraveradi. Muxtasar aytganda, kitobxonlar yillar, asrlar davomida ijodkorlarning ijodiy mevalaridan oziqlanadilar.

Ana shunday adiblardan biri adabiyotshunos Umarali Normatov ta‘biri bilan aytganda, XX asr o‘rtalarida boshlangan yangi bosqichda yetishgan navqiron avlodning karvonboshilaridan [2, 88-bet], biri Odil Yoqubovning polifonik tasvir yetakchilik qiladigan “Ko‘hna dunyo” romanidagi o‘ziga xos tasvir usuli haqida so‘z yuritmoqchimiz. Adibning mahorat qirralari yozuvchi asarlarida namoyon bo‘lib, ayniqsa, “Ko‘hna dunyo” romanidagi badiiy tadqiqlarda o‘z ifodasini topadi. Ijodkor har bir badiiy asarida turli adabiy unsurlardan asosli foydalanadi.

“Ulug‘bek xazinasi” romanida kuzatilgan ilk tajriba “Ko‘hna dunyo”sida tasvir jihatidan takomillashadi. Roman taraqqiyotining tamoyillari, ayniqsa, asar tasvirining o‘ziga xosligini namoyon qiladi, va bu holat sujetda qabarib ko‘rinadi.

Tasvir ifodasining serqatlamligi, tasvir ruhiyati teranligi va xarakterni shakllantirish jarayoni asar sujetida rang-baranglik kasb etadi.

Romanning badiiy xususiyatlarini nazariy jihatdan o‘rgangan adabiyotshunos olim A.Nasirov yozadi: “Bir nechta lavhalarga yoyilgan kundalikda Ibn Sino tiynati qabarib ko‘rinadi. “Ilm-fan izlayotgan” inson suratiga shtirixlar mutafakkir sajiyasini yaxlit tasavvur qilishga xalaqit bermaydi. Isfahonni tark etib, Hamodonda yashirinib yurishga majbur bo‘lgan buyuk alloma xalq manfaat va ehtiyojlari tufayli yana nazarga tushadi. Xotiralarda qayd etilgan ruhiyat tasnifi va tabiat manzaralari Ibn Sino qiyofasini oydinlashtirishga xizmat qiladi” [3, 10-bet].

Romandavi voqealar silsilasi bilan tanishar ekanmiz, tabiiyki, Ibn Sinoning murakkab taqdiri, hayoti o‘quvchi qalbini larzaga soladi. Kundaliklarda qayd etilgan tasvirlar zamirida hayotiy achchiq qismat egasining turfa xil qarashlarga, ziddiyatlarga bardosh beradigan shaxs obrazini jonlatirilganligi kuzatiladi.

Darhaqiqat, asardagi badiiy talqinlarda polifonik tasvir yetakchilik qilishini alohida qayd etish lozim. Mumtoz adabiyotimizga nazar tashlasak, bilamizki, may – ishq, qadah esa ko‘ngil kabi bir qator ma’nolarni ifodalaydi. Ishq ko‘ngilga tushadigan oshiqalar makoni ramziy mayxona orqali ko‘rsatiladi. Adib mumtoz adabiyotimizdagi an’anaviylikdan o‘z asarini oziqlantirganligi bilan birga, may badiiy unsuridan shunchaki o‘z holida foydalanmaydi, balki uni yangicha talqinda beradi.

Romanda Malikul sharob mayxonasi tasviri haqidagi quyidagi fikrlarga e’tibor qarataylik: “Shoirning kulbayi vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog‘i Feruz va Bog‘i Mahmud kabi ko‘rak bog‘lar, Osmon malikasi kabi marmar qasrlar, lojuvard gumbazli muhtasham machit va minoralar, sershovqin bozorlar, karvonsaroylar, bir-biriga tutashib ketgan obod rastalar, kumush favvoralar o‘rnatilgan gulzor va maydonlardan yiroqda, gadolar va yo‘qsizlar makoni bo‘lmish Afshon shol dahasining xilvat bir burchagida joylashgan” [4, 5-bet] . Bu tasvirda makon bilan bir qatorda zamon talqinining mushtarakligini kuzataniz. O‘tmish tarixi o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlanadi. G‘aznaviylar davrida poytaxt atrofi obod bo‘lib, undan chetdagi hududlar esa xarobazor holda qolaverganligini anglaymiz. Ushbu mayxona saroydan quvilgan shoirlar, adiblar, sozandalar va boshqa ko‘plab kasb egasi bo‘lgan kishilar yig‘iladigan joy hisoblanadi. Mayning bahosi esa yaxshi hikoya, chiroyli so‘zlar va xonishlar, ohangrabo kuylar bilan o‘lchanadi.

Ziyoli adib o‘z romanida salbiylik kasb etuvchi mayni ulug‘lamoqchi bo‘ladimi, aslo yo‘q, bunda adib shom qorong‘usidan boshlanib, tong otguncha davom etuvchi qalam sohiblarining suhbatlari-yu mushoiralarini o‘quvchi e’tiboriga havola etish bilan hukumdor qo‘l ostida ijod ahlining qanchalar xor-u zor bo‘lishligini ko‘rsatish bilan, qalam sohiblari uchun oqil podshohning har bir davrda suv va havodek zarurligini go‘yo uqtirmoqchidek bo‘ladi.

Jamiatdagi ushbu past-u baland voqealarni ko‘rsatib berish uchun nimadandir foydalanish kerak bo‘ladiki, ushbu maqsadiga esa an’anaviy may timsolini o‘z holicha emas, yangicha talqinda tasvirlash uslubi bilan erishadi.

Ushbu syujetlarda adib an'anaviy timsolga yangilik bo'yog'i berish bilan birga undan butunlay yuz o'girmaydi. Balki an'anaviylikdan ham foydalanadi. Bunda syujet liniyasiga Malikul sharobning jufti haloli – Nargizabonu bilan bog'liq yoshlikdagi bir voqeani kiritadiki, bu esa xotiralarda jonlanadi.

Mahmud G'aznaviy va Malikul sharob yoshliklarida qalin o'rtoq bo'lishi, ammo ularning hayot yo'larining ayro bo'lib ketishlariga "bir piyola" may sababchi bo'ladi. Ishq shohu gado tanlamaydi deganlaridek, kunora keluvchi ikki mehmon qarshisida xiromon raqs tushayotgan Nargizabonuga may to'la ikki qadah bir vaqtda uzatiladi. Ularning biri shoh Mahmud va yana biri gado Malikul sharob edi. Qizning ishq shohga emas, gadoga tushganligi sababli qo'rqmasdan uning qadahini qo'lga tuta oladi.

Ishq insoniyat uchun in'om etilgan buyuk ne'matlardan biri bo'lib, u makon qurgan ko'ngillar bu yo'ldagi mashaqqatlarni sezmaydi, hatto buni o'ylamaydi ham. Malikul sharob va Nargizabonu o'rtasida paydo bo'lgan ishq may orqali ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ishq tushgan ko'ngil o'z egasida jasurlik tuyg'usini ham paydo qiladi. Yo'qsa o'z tinchligini ko'zlagan holda Nargizabonu shoh qadahini olib qo'yaverishi ham mumkin edi-ku! Demak, haqiqiy ishq ta'sirida inson tubanlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlardan holi bo'ladi.

Romanda ikki shaxs orasidagi ishqni may vositasida bergan ijodkor an'anaviy timsolni real voqelik asosida ifodalaydi. Adib ushbu syujetda ishqni izhor qilishda boshqa bir badiiy unsurdan foydalanishi ham mumkin edi.

Asarda inson ongidagi tadrijiy munosabat uzviyligi ikkilamchi mohiyat (muallif va qahramon) birligida rivojlanib boradi. Muallif asar voqealarining o'sishini hodisot va asosiy xarakterlar orqali shakllantiradi. Tuyg'ular kurashi ong osti sezgilari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Bu o'rinda nutq poetikasi asar sujetida muhim o'rin tutishini anglaymiz. Uzviylik tarzda rivojlanadigan ong shakllari bir-birini to'ldirib boradi. Talqinda muallifning personajlarga munosabatlarida ham xolislik ohangi yetakchilik qiladi.

Asarda uch tarixiy shaxs Mahmud G'aznaviy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayxon Beruniylar siymosini badiiylashtiradi. O'zaro ziddiyatlar silsilasida kesishadigan siymolar qismati butun badiiy asar sujetiga badiiy to'qimalar asosida singiriladi: "Ibn Sino esa... mana, salkam yigirma yildirki, Beruniy uni bir ko'rsam, deb orzu qiladi. Ayniqsa, Hindistondan qaytib, uning "Al-Qonun"ini o'qigandan beri bu orzu unga tinchlik bermaydi, goho uni tushlarida ko'rib chiqadi... Yo tavba! Bu g'am, tuzday taxir bu ko'z yoshi qaydan keldi? Boshingga bundan yuz barabror katta musibatlar tushganda ham bu qadar ezilmagan eding, bu qadar bukulmagan eding! Senga ne bo'ldi, Abu Rayhon?" [4, 115-bet].

Tasvirlardan ko'rinadiki, tarixiy shaxs psixologiyasini davr ruhiyati bilan bog'liqlikda inson va zamon birligida talqin qilgan. Sujet tarkibidan o'rin olgan xotira, kundalik, tush, xarakter, pesaj orqali ruhiy tahlilni kuchaytiradi. Aslida inson ibtidosi hamda intihosi xato-nuqsonlar va uni anglash iztirobini yuzaga chiqaradi.

Tarixiy shaxs solnomasida bu jarayon teranroq aks etgan. Muallif davr adabiy taqozosiga ko'ra xarakter tadrijini yuzaki ravishda emas, balki ikki qutb –



ezgulik va yovuzlik uyg'unligida gavdalantiradi. Mahmud G'aznaviy obrazini yaratishda tarix haqiqati bilan bir qatorda, uning adolatsizligi, xalqqa o'tkazgan jabr-zulmi talqiniga e'tibor qaratadi. Bunday talqinlar o'sha davr uchun hamohang edi.

Tarixiy faktlardan ma'lumki, Mahmud G'aznaviy hayoti davomida muhtasham masjid-madrasalar qurdirgan, so'lim bog'lar barpo etgan, ilm-fan ahliga homiylik qilgan hamda janglarda mardligi bilan shuhrat qozongan shaxs ekanligi qayd etilgan. Romanda esa yozuvchi talqinida zolim shoh sifatida uning xarakteri shakllanib boradi. Shohning o'lim to'shagidagi xastalik davri talqiniga e'tibor qaratsak, uning murakkab ijtimoiy qayofasi, bosqinchiliklari, qirg'inborot urushlardagi harakatlarini ko'z o'ngida jonlantiradi. Shohlik fojealari fonida ana shu jihatlar jarayonida o'z hayot yo'lini sarhisob qiladi. Tasvir jarayonida tarixiy siymolar hayotining xarakterli jihatlari tanlab olinadi, ruhiy-falsafiy umumlashmalar asosida talqin etadi. Xuddi shu talqinlar ko'p ovozlilik xususiyati orqali aks ettiriladi.

Mahmud G'aznaviy o'limi arafasidagina o'z hayot zarvaraqlarini hisob-kitob qiladi. Bosib o'tilgan umr saboqlari qalbini iztiroga solidi. Hukmdor janglarda bevaqt xazon bo'lgan sarbozlar, vayron bo'lgan qal'alar qismatini birma-bir tasavvuridan o'tkazadi. O'z davrining buyuk siymosi ijtimoiy-siyosiy hayot sahnida qudrat manbaiga aylangan bo'lsa-da, hayot intihosi oldida ojiz qoladi. Yozuvchi hayotiy lavha yordamida mavjudlik jumbog'ini ochishga intiladi. Sharoit taqqozasi, ijtimoiy muhit badiiy xarakterni shakllantirganidek, uning shon-shuhrati va fojealarini voqealar silsilasiga singdiradi. Kech uyg'ongan pushaymon va gunohkorlik hissi Mahmud G'aznaviy ruhiy kechinmalari tabiatini belgilaydi.

Darhaqiqat, roman sujetida polifonik tafakkur talqini yetakchilik qiladi. Muallif badiiy voqelikning hayotiy qamrov darajasini kengaytirish maqsadida mazkur usuldan unumli foydalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Yo'ldoshev Q. Hozirgi romanchilik muammolari. Yoniq so'z. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006. – 548 bet.
- 2.Nasirov A. Odil Yoquv romanlari poetikasi. Monografiya. – Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2012. – 160 bet.
- 3.Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. - Toshkent, Universitet, 2007. – 172 b.
- 4.Yoqubov O. Ko'hna dunyo. Roman. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 336 b.

## **ADABIY TA'LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MASALALARI**

**Mahfuza TUYCHIYEVA,**

*Toshkent davlat texnika universiteti dotsent v.b.  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan adabiyot fani nafaqat shu fan asoslarini o'rgatishi, o'z fikrini erkin, dadil ifodalay oladigan, tanqidiy mulohaza yuritishga

qodir mustaqil shaxsni kamol toptirishga xizmat qilmog'i lozim. Shunday ekan, hozirgi kunda barkamol shaxsni rivojlantirishga o'quvchining asosiy o'quv ashyosi "Adabiyot" darsliklarida qay tarzda e'tibor berilishi muhim masaladir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda hamkorlik pedagogikasi asosiy o'rin hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalashning asosi shaxslar o'rtasida teng va hurmatga asoslangan munosabatlar o'rnatish ekanligini adabiy ta'limda metodik jihatdan ishlab chiqqan olimlar darsliklarning bu boradagi ahamiyatiga ham to'xtalishgan.

Metodik adabiyotlarda darslik o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchi darajasida bo'lishi tavsiya qilinadi. Lekin bu tavsiyalarni adabiyot darsliklariga qo'llash noo'rindir. Adabiyot predmetining o'rganish obyekti, oldiga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqib adabiyot darsligi o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchini nazarda tutishni taqozo etadi. Yaratilajak adabiyot darsligida, kitobxon-o'quvchini adabiyotni juda yaxshi biladigan, eng yaxshi o'quvchi sifatida ko'rilishi zarur. Adabiy ta'lim inson ko'nglini, ruhiyatini, tuyg'ularini boyitishni maqsad qilgan, bolaning esa ko'ngli, ruhiyati, tuyg'ulari boy. Tasavvur olami, tuyg'ulari qashshoq bola bo'lmaydi, faqat uni kattalar ilg'ashmaydi. Shu sababli ham o'quvchi shaxsining yuqori darajasini hisobga olmaslik shakllanib kelayotgan shaxs tarbiyasida aks natijani qayd etishi mumkin. O'quvchini ayab yaratilgan darslik barkamol shaxsni tarbiyalashda yordam bera olmaydi. O'quvchi qancha yoshi o'sgani sari esa darslikdagi didaktik vositalarini murakkablashtirib borish lozim. Chunki psixologik izlanishlar past o'zlashtiruvchi o'quvchilarda ijtimoiy – pedagogik qarovsizlik diagnostikasi ba'zi o'quvchilarda yuqori sinflarda o'zlashtirishlarining pasayishiga asosiy sabab: ularning imkoniyatlari va ularga qo'yiladigan talablar bir-biriga o'zaro mos kelmasligi natijasida ham yuz berishini ko'rsatmoqda. O'qish uchun oson bo'lgan sharoitlarda bola o'z shaxsiy imkoniyatlari darajasidan pastroq rivojlanadi. Ta'lim jarayonining juda osonligi ularda bilim olish motivatsiyalarini rag'batlantirmagan va intellektual ishga qobiliyatlarini shakllantirmagan. Natijada bunday o'quvchilar o'z salohiyatiga mos keladigan sharoitga qaraganda ancha kam bilim zahirasiga ega bo'ladilar va natijada barkamol shaxs bo'lib yetishishlari qiyin kechadi. Bu ulardagi shaxsiy erkinliklarini chegaralash demakdir. O'quvchilarning past o'zlashtirishlarining sabablari, omillari, mezonlari sifatida shaxsning shakllanmaganligi, o'z imkoniyatlarini ishga solishning past darajasi, tan olishga nisbatan da'vogarlikning qondirilmaganligi, o'qishdagi doimiy muvaffaqiyatsizlik, tengdoshlar jamoasida istalgan tan olinishning, hurmatning yo'qligi kabilar ham ko'rsatiladiki, bunday sabablarni badiiy asar bilan ishlash jarayonida kamaytirib borish mumkin bo'ladi. Darslikda hamkorlik pedagogikasi asosida didaktik vositalarni berilishi bolani barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi to'siqlarga barham beradi deyishga asos bor. Shuningdek o'zaro ishonch va hurmat asosidagi savol va topshiriqlar ko'rinishdagi darslik bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqot asosiy maqsadi ta'limning keyingi bosqichiga – oliy ta'limga yo'naltirilgan akademik litseyda yaxshi tayyorgarlikka sabab bo'ladi. Ko'r-ko'rona yodlashga qaraganda yozuvchi hayoti va ijodi, badiiy asar matni, badiiyatiga olib kiradigan didaktik ashyolarga javob berish asnosida olingan bilim o'quvchi xotirasida tezroq va uzoqroq qoladi.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy aqidasi o'quvchi shaxsiga ishonishdir. Darslikda hamkorlik pedagogikasiga hamohang muloqotga yo'naltirib, shaxslik sifatlarini shakllantirishni ko'zlab masalalarga ijodiy, erkin fikrlashni talab qiladigan, hissiyotga ta'sir qiladigan topshiriqlar o'quvchini o'zi ustida ishtiyok bilan ishlashga turtki bo'ladi. Didaktik vositalarni raqamlar, matnni shunchaki takrorlashni talab qiladigan tarzda berilishi akademik litsey o'quvchisida oliy ta'limga kirish maqsadi yo'lidagi oddiy uyga vazifani bajarish bo'lib qoladi. Zerikarli, zo'riqishni keltirib chiqaradigan jarayonga aylanadi. Erkin, ijodiy fikrlashni taqozo etadigan, o'z tabiati, ruhiyatidan kelib chiqib javob berishi lozim bo'lgan topshiriqlarga javob tarzida berilgan ma'lumotlar o'quvchi xotirasida uzoq qoladi. Ibn Sinoning fikricha, his ichki ruhga qattiqroq ta'sir etadi va uni harakatga solishdan aqlan kuchliroqdir. Uzluksiz ta'limda mavzular, ularni o'quvchiga taqdim etish shakllarining o'quvchi yoshiga, talablariga mutanosibliigi bola shaxsini hurmat qilinishining ko'rinishidir. Shuningdek, nofunktsional axborot deb nomlanadigan kishining ma'naviyatiga, madaniyatiga, estetik rivojiga doir axborotlarni berish orqali kishilarning tuyg'ularini, ruhiyatini, qalbini shakllantirishga erishiladi.

Darslikka badiiy matndagi qahramon xarakteridagi o'zi va atrofidagilarga ta'sir qilgan jihatlar, uni harakatga kelishiga turtki bo'lgan badiiy detal, peyzashdagi asar voqealariga ishora qilingan o'rinlar bir so'z bilan aytganda yozuvchi mahoratining bir nazar tashlaganda anglashilmaydigan qirralarini test orqali berilishi ba'zi o'quvchilar ikkinchi darajali hisoblagan o'rinlarga e'tiborli bo'lishni, bora-bora badiiy-estetik didni o'sishiga olib keladi. Mashg'ulot jarayonida faqat darslikdagi savol va topshiriqlar bilan cheklanmay ijodiy ishga rag'batlantirish lozim bo'ladi. Masalan: Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'rganilishida quyidagilar amalga oshirildi: asar haqidagi nazariy ma'lumotlar kamaytirilib, matndan faqat masallar, naqllargina emas, asar qahramonlarining qiyofasini ochadigan lavhalar berilib, ulardagi maqollarga alohida e'tibor berildi. O'quvchilarda "Zarbulmasal" haqida yaxlit tasavvur matn orqali hosil qilinishiga harakat qilinib, Yapaloqqushning Ko'rqushni sovchilikka yuborishi, Ko'rqushning yo'lga tushishi, Hudhud bilan uchrashib, bir-biriga "Maymun bilan najjor", "Tuya bilan bo'taloq" masallarini aytib bergan o'rinlari o'qish uchun tavsiya qilindi. Masallardan kelib chiqadigan xulosalar, "qissadan hissa chiqarish", obrazlar tabiatiga xos jihatlar savol va topshiriqlar orqali ochib berilgandan so'ng, o'quvchilarga Yapaloqqush, Hudhud tilidan chiqqan maqollarni o'zgartirib, ma'nodoshlarini topish topshirig'i berildi.

Yolg'on so'z qoralangan maqol o'rniga ma'nodoshini qo'llashda o'quvchilar maqoldagi so'zlar eskirganligiga e'tibor qaratdilar. Gulxaniy yashagan davr ruhiyatini saqlash, asar ko'rinishiga ta'sir etmaslik uchun ma'nosi bilan birga, matn shakli ham uyg'un bo'lishi kerakligini ta'kidlagan o'quvchilar "Yirtiq uyni el topar, yolg'on so'zni chin topar", "Yolg'on so'z yoqadan chiqadi", "Yolg'onchi to'rga bir o'tar, ikki o'tmas", "Yolg'onchining uyi kuysa ham, hech kim ishonmaydi", "Yolg'onchi chin deya olmas, chin desa ham el ishonmas", "Chinni yolg'onga chulg'ama, durni loyga bulg'ama", "Rost bilan yolg'onning orasi – to'rt

enlik” kabi maqolalari orasidan “Rost bilan yolgʻonning orasi – toʻrt enlik” maqolini matn uchun mos deb bilishdi. Ham “enlik” soʻzining hozirgi kunda keng muomalada emasligi, ham maqolda yolgʻon gapirishdan qaytarish maʼnosi borligi uchun eng mos deb hisoblashdi. “Uyat oʻlimdan qattiq” maqoli oʻrniga “Eman daraxtning egilgani – singani er yigitning uyalgani – oʻlgani”, “Yigitni or oʻldirar, tuyani – sarvar” maqollari yigit soʻzi tufayli toʻgʻri kelmaydi, garchi asarda odamlar hayoti bayon qilingan boʻlasa-da, qushlar tilidan hikoya qilinyapti, ular esa oʻzlarini odamlarning obrazi ekanligini “bilishmaydi” degan qiziqarli javoblar berildi. “Yuz qizili ketar, yuz xijili ketmas”, “Yuz yuzga tushar, uyat – ichga” maqollarini qoʻllash mumkin deb topishdi. “Ogʻzingni ochguncha, koʻzingni och”, “Ogʻiz – bir, quloq – ikki, bir soʻzlab, tingla tingla qirq ikki”, “Ogʻzi bilan oʻroq oʻrgan” “Soʻz bilmagan – el boshiga yov keltirar”, “Bir soʻzla, qirq tingla” kabi maqollarni maʼnodoshlari sifatida keltirib, “Soʻz bilmagan – el boshiga yov keltirar” maqoli “Oyoq yugurigi oshga, ogʻiz yugurigi boshga” maqolining eng maqbul maʼnodoshi deb topishdi.

“Koʻr tutganini qoʻymas, kar eshitganini qoʻymas” maqoli oʻrniga “Koʻrning qoʻliga tushma, karning oyogʻiga” maqoli eng mos ekanligini, “Koʻrga koʻrsatma, karga gapirma” maqoli deyarli bir ekanligini, uni qoʻyishsa, oʻzlari uchun ijodiy, yangilik boʻlmasligini bildirishgani tajriba sinflarida topshiriq oʻquvchilar uchun ijodkorlikni uygʻotganligidan darak beradi.

Xullas, adabiyot mashgʻulotlari hamkorlik pedagogikasi asosida boʻlishi zarur. Zero, oʻquvchi shaxsini hurmat qilib, hamkorlik pedagogikasi asosi boʻlgan jarayongina oʻquvchini oʻz ustida jiddiy shugʻullanishga turtki boʻladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmedov S., Qoʻchqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. I qism –T.: Maʼnaviyat, 2017. – 240 b.
2. Asqarova N.A. Past oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarning psixik rivojlanishidagi nomuvofiqligiga koʻra xarakteristikasi, diagnostikasi va korreksiyasi. – T.: Maʼnaviyat, 2017.
3. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy – nazariy asoslari. – T.: Oʻqituvchi. 1996.152-bet.
4. Karimova. Sh.K. Past oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarda ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik diagnostikasi. – T.: Maktab va hayot. 2014.

## **SHEʼRIY TURKUMLILIK TARAQQIYOTI**

**Obidaxon FAYZULLAYEVA,**

*GulDU, Oʻzbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti*

Sheʼriy turkumlilik oʻzbek sheʼriyatida ilk davrlardan boshlab shakllanib, taraqqiy etib kelayotganligi maʼlum. Sheʼriy turkumlar strukturadagi sifat oʻzgarishlari ijtimoiy, maʼnaviy-axloqiy mavzularni, muammolarni badiiy idrok va ifoda etishdagi xilma-xil uslubiy izlanishlar hamda obrazli vositalar poetik tafakkur imkoniyatlarining oʻziga yarasha kengayib ketganligi dalolatidir. Lirika

janrlarining olam bilan odamni hamdam o'rganish jarayonida kasb etgan yetakchi xususiyatlariga ko'ra, o'ziga xos poetik shakllari, mavzulari, muammolari ham mavjud bo'lib, ular ham o'z navbatida zohir bo'ladi. Poetik shakllar – falsafiy miniatyuralar, she'riy turkumlar tadriji bu poetik obrazlar tizimining takomil jarayoni ham demakdir. Bunda poetik shakllar va she'riy turkumlarning mavzu-muammolar ko'lami ham ustuvor yo'nalish kasb etganligini kuzatish mumkin. Xususan, shoirlarimiz tabiat – jamiyat – inson mavzui orqali ezgulik va zulm-zalolat, yaxshilik va yomonlik, fano va baqo, tiriklik va o'lim, nur va zulmat, inson umrining tunlari va tonglari, go'zallik va razolat, imon butunligi va beburdlik, sadoqat va xiyonat singari boqiy muammolarning turfa qirralarini badiiy idrok va ifoda etishmoqda.

Umuman, shu kabi poetik jarayon namunalari she'riyatimiz tarixini, badiiyat tarixini tashkil etishi jihatidan ham e'tiborlidir. Turfa poetik shakllar, she'riy turkumlarda olib borilgan ijodiy izlanishlar, badiiy tafakkur ko'rinishlari adabiy-tarixiy jarayonda muhim o'rin tutishiga, yetakchi taraqqiyot tendensiyalarini belgilab berishiga ko'ra ham nufuzlidir.

“Badiiy asarlar orasidagi chegaralarni buzishning eng muhim shakli ularning sikllanishi hisoblanadi. Shoir o'z she'rlarini sikllarga birlashtirishi (bu XIX-XX asrlarda keng tarqalgan edi) ko'pincha ilgari yaratilganlarni birlashtirgan yangi asarning paydo bo'lishi bo'lib chiqadi. Boshqacha aytganda, she'riyat sikllari xuddi mustaqil asarlarga aylanadi. Bunday asarlar sirasiga rus she'riyatidagi A.Blokning “Go'zal xonim haqidagi she'rlar”, A.Beliyning “Kullari”, “Don bilan”, V.Xodasevich, B.Pasternakning “Ikkinchi tug'ilish”, A.Axmatovanning “Shimoliy elementlari” kabi ko'plab asarlarni kiritish mumkin. Ko'rinadiki, she'riy turkumlar yaxlit ma'no doirasidagi bir butun maqomida ham bo'lishi mumkin bo'lgan she'riy asarlar bo'lishi ham mumkin ekan.

“Adabiy asar (bir butun bo'lishiga qaramay) bir hil monolit emas. Bu turli qirralarga (tomonlar, burchaklar, darajalar, jihatlar) ega bo'lgan ko'p qirrali mavzu. Uning tarkibi va tuzilishi, ko'pincha juda murakkab bo'lib, adabiyotshunos olimlar tomonidan biz ularga murojaat qiladigan bir qator tushunchalar va atamalar orqali tavsiflanadi. Adabiy asarlarning chegaralarini buzishning eng muhim shakli bu ularning siklizatsiyasidir”[7]. Shoirning she'rlarini sikllarga birlashtirishi (XIX – XX asrlarda keng tarqalgan) ko'pincha ilgari yaratilgan narsalarni birlashtirgan yangi asarni yaratish bo'lib chiqadi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib, mumtoz adabiyotning mazmun doirasi yangi-yangi – o'tmish she'riyatimizda qalamga olinmagan mavzulari bilan yanada kengaydi, rivojlandi va boyidi. Davr adabiy hayotining xos belgilaridan biri shundaki, bir necha xalqchil ijodkorlarning ijodiy tashabbusi bilan zamona hayotida ro'y bergan qator ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar bilan bog'liq dolzarb mavzularda bir necha she'riy turkumlar paydo bo'ldi. Asosan, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu she'riy turkumlardan ko'rish mumkinki, bir mavzu, bir g'oyaviy-badiiy yo'nalishda turli janr va shakllarda yaratilgan bu asarlar davr ijodkorlarining o'zaro yakdilligi va yagona pozitsiyada turganliklarini anglatadi.

Zoriy, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Ibrat, Zavqiy, Nodim va boshqa qator ijodkorlar tomonidan yozilgan she'riy turkumlarida yuqorida aytib o'tilgan jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ular ushbu turkumlarda ijtimoiy hayot muammolarini hozirjavoblik bilan ko'rsata bilishgan. Bu turkumlarning ettitasi ijtimoiy-siyosiy mavzuda, "Loy", "Burga", "Ot", "Sigirim", "Pashshalar" radifli hajviy-tanqidiy ruhdagi asarlarni shoirlarning o'zaro ijodiy munosabatlari samarasi sifatida baholash mumkin.

Zoriy va Nodimning bir janr, bir uslub, bir qofiya va radif, bir yo'nalish, bir vaznda yozgan musaddaslari ijodiy hamkorlikdan darak beradi. Shu davrda ijod qilgan boshqa shoirlarda ham shu tarzda she'rlarning yana uchrashi ehtimoldan holi emas. Turkum she'rlarning yozilishi davr adabiy muhitidagi o'nlab ijodkorlarning ijodiy hamkor va hamfikir bo'lganidan dalolatdir.

Sikllilik jadid adabiyotida ham o'z o'rnini va vazifasiga ega bo'ldi. U ham she'riyatning boshqa shakllari kabi davr muammolarini insonlar qalbiga tezroq va chuqurroq kirib borishida ko'maklashuvchi asosiy vositalardan biriga aylandi. Jadid she'riyatidagi turkumlilik jamiyat muammolariga urg'u berib, diqqatni jalb qilish uchun ham kerak edi.

1917-yilda Abdurauf Fitrat o'zi muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" nomi bilan bir turkum she'rlar e'lon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma she'rlar, Fitratning o'zi aytmoqchi, mansuralar edi. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilinganligi ma'lum. "Yurt qayg'usi"ga kirgan she'rlarning birinchisi "Hurriyat"ning 1917-yil 28-iyul, oxirgisi 29-dekabr sonida e'lon qilingan. Shulardan oxirgisi aruz vaznida. Qolganlarida, tabiiyki, vazn yo'q. She'rlar ruknning sarlavhasidan ko'rinib turganidek, yurt – Vatan qayg'usiga bag'ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati qulagan. Epchil millatlar darhol istiqloq rejalarini ko'ra boshladilar. Turkistonning taqdiri nima bo'lishi, ayniqsa, so'nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisqu fujurga ko'milgan, o'z qiyofasini yo'qota boshlab, o'zga millat yetoviga tushgan Turkistonning kelajagi nima bo'lishi – Fitratni qiynayotgan dard aynan mana shu bolgan. *Ey ulug'Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qandaydir? Nechuk kunlarga qolding?* – deb boshlanardi ularning biri. Shoir uning "yuksak o'rinlar"dan "qullik chuqurlari"ga tushish sabablarini so'raydi. "Dunyoni "urho"lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalari"ni, "er tuprog'ini ko'klarga uchuratug'on tog'gavdali o'g'lonlari"ni qo'msaydi. Uning bu holi bilan kelisha olmaydi. Tomirlarida Temur qoni oqayotgan millatdoshlarini nomus va sha'n himoyasiga chorlaydi.

Abdurauf Fitrat. "Yurt qayg'usi" turkumisochma she'r shaklida bo'lib, u "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 28-iyul 26-sonida e'lon qilingan. Sochma she'r "Temur oldinda", "Bir o'zbek tilidan" va "Yurt qayg'usi" qismlaridan tashkil topgan. Ularning har birida Ona Vatan – Turon (Turkiston)ni uyg'otish, uni yuksaltirishga da'vat g'oyasi ilgari surilgan. Fitrat ushbu she'ri orqali xalqning ko'zi ochilishiga umid qilgan.

XX asr boshlarida ham turkum she'rlar ko'plab yaratildi. 1936-yil O'zbekistonda Pushkin yubileyiga tayyorgarlik boshlandi. Shu munosabat bilan Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Usmon Nosir, Temur Fattoh kabi adiblar Chimyonda bir necha oy mobaynida Pushkin asarlarini tarjima qilish bilan shug'ullandilar. Oybekka "Evgeniy Onegin" she'riy romanining tarjimasi topshirilgandi. Xuddi shu kunlari Oybek Chimyonning ko'rkam tabiatidan ilhomlanib "Chimyon daftari" deb nom olgan bir turkum she'rlar yaratdi. "Na'matak" ana shu turkumdagi asarlardan biridir. She'r birinchi marta "Guliston" jurnalida 1936-yil bosiladi. Sho'ro davri adabiyotshunosligi ham bu falsafiy she'ni Oybek ijodining yutuqlaridan biri sifatida baholagan. Uni hayotsevar shoirning his-tuyg'ularini yorqin aks ettiruvchi asar, deb talqin etdilar. Shu bilan birga, "Na'matak" she'rining badiiy dunyosiga chuqurroq nazar tashlagan, uning mohiyatini, zamiridagi haqiqat va jozibani ancha teran

Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan, o'zbek tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o'ziga simirgan she'rlari nafaqat shoir she'riy ijodining, balki umuman o'zbek lirikasining shoh namunalari bilan biri bo'ldi. Shoir bu she'rlari bilan o'zbek she'riyatiga oybekona nafis lirizmni olib kirdi, nozik tuyg'u va kechinmalarni tasvirlash madaniyatini yanada mukammallashtirdi, lirik she'riyat tilini nafosat yog'dulari bilan jilolantirib yubordi.

Sho'ro davlatining adabiy-madaniy siyosati natijasida 1937-38-yillarda yozuvchilar va ularning asarlariga vulgar sotsiologizm nuqtai nazaridan yondashish tamoyili kuchaydi. Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan lirik she'rlari burjuva she'riyati namunalari, deb baholandi.

Ikkinchi jahon urushi mavzui Shuhratning ijodida o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Uning "Jangchi bloknotidan" turkum she'rlarida tasvirlangan jangchi obrazi vatan uchun jon fido qiladigan, Vatanni g'oyatda sevgan, uning tuprog'ini ko'ziga to'tiyo aylagan inson obrazidir. Bu turkumga kirgan "Sening albomingga", "Okopda", "Gul ko'chat", "Ukrain qiziga", "Quvonch", "Ne gunohi bor!", "Qilichini ol", "Jangchi qabri", "Poyak qiziga", "Men tirik", "Do'stimning xotirasi", "Nishona", "Yo'ldan maktub", "Iltimos", "Prussiyadan maktub", "To'rt lavha", "G'alaba daqiqasi", "G'alaba", "Endi bilsam" kabi 20 ta she'rida, insoniy fazilatlar, yorga muhabbat, hijron, visol onlari, shuning bilan birga fashistlar qilgan xunrezliklar badiiy tarzda tasvirlab berilgan. Jangchi bloknotidan turkumidan o'rin olgan ba'zi she'rlarida, xususan, "Sening albomingga" she'rida jangga ketayotgan qahramonning o'z yoriga jo'shqin muhabbati hamda uni hijron onlariga bardosh berishga da'vat etishlari lirik bayon etilsa, boshqa she'rlarida fashistlarni qilgan vahshiyliklarini o'z ko'zi bilan ko'rgan jangchining alam va iztirobda kechirgan lahzalari jonli va ishonarli tarzda bayon etiladi. Jangchi okopda yotar ekan, dastlab uning xayolidan urushgacha bo'lgan davrdagi jonli lavhalari, lazzatli hayotning orombaxshliklari gavdalanadi. So'ngra uning xayoli fashistlar tomonidan otib tashlangan go'dakning ayanchli holda yotgan murdasi tomon yetaklaydi. Bosqinchilar tomonidan haydab ketilayotgan ming-minglab kelinchaklar, yurakni ezadigan holatga tushirilgan bog'va bo'stonlar, shahar va qishloqlar lirik qahramon

ko'zi o'ngida namoyon bo'ladi. Shoirning "Gul ko'chat" she'rlarida jangchi va uning sevimli yorining visol ishtiyoqidagi holatlari lirik yo'sinda tasvirlansa, "Ukrain qiziga" kabi she'rlari o'zining kompozitsion tuzilishi jihatidan, ifodalangan mazmuni nuqtai-nazaridan boshqa she'rlardan ajralib turadi. Albatta, bunga hayotiy faktlar, jonli lavhalar, real kishilar taqdiri asos bo'lgan. "Jangchi bloknotidan" turkumida tasvirlangan lirik qahramonning ishi faqat safar taassurotlarini bayon etishdangina iborat bo'lib qolmasdan, aksincha, turli voqea-hodisalarga munosabatni bildirish hamdir. Albatta, bunda turkum she'rlar yaratishning o'ziga xos janr xususiyatlari, ichki qonuniyatlari, ya'ni mazmun va ma'no jihatidan alohida-alohida bo'lgan she'rlarning barchasini umum kompozitsion butunlikka bo'ysundirish, ijodkorni qiziqtirgan, ilhomlantirgan voqea-taassurotlarni lirik yo'sinda badiiy tasvirlash-shoirning diqqat markazida bo'lgan. Shoir qahramonlari urushda faol ishtirok etsa-da, urushga nafrat bilan qaraydi. Shuhratning "Jangchi bloknotidan" turkum she'rlari Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq tasvirlar urushning ilk kunlaridan, to oxirgacha bo'lgan davrda yuz bergan voqelik va ana shu voqelikda ishtirok etgan shaxslarning ichki kechinmalari, xohish-istaklari real tarzda tasvirlanganligi bilan o'ziga xosdir.

O'zbek she'riyatida deyarli hamma shoirlar turkum asarlar yaratganlar. Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari", Zulfiyaning "Vodiy tuhfasini", H.G'ulomning "Qit'alar uyg'oq", Shuhratning "Kavkaz daftari" kabi turkum asarlari mavjud. Uni tashkil etuvchi har bir asar mustaqil badiiy qimmatga ega bo'ladi, biroq ular birlashib, hayotning biror tomoni haqida mukammal tasavvur beruvchi tugallangan yaxlit asarni vujudga keltiradi.

Shoir Shuhratning turli yillarda yozilgan she'rlari jamlanmasi orasida "Jangchi bloknoti", "Kavkaz daftari", "Dunay sohillarida", "Odamlar va obidalar" turkumlari shoir ijodida alohida ijodiy bosqich bo'ldi. Bu majmuadan uning bolalarga atalgan she'rlari, hajvlari, to'rtliklari va tarjimalari o'rin olgan.

Turkum she'rlar shoir Mirtemir ijodida ham mavjud. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi adabiy siyosat natijasida Mirtemirga ijod etish va yozgan asarlarini e'lon qilish imkoni berilmagan. Natijada u tarjima va tahrir ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Qoraqalpoq she'riyatidan qilgan tarjimalari va "Qoraqalpoq daftari" (1959) she'riy turkumi katta muvaffaqiyat qozongan. "Qoraqalpoq daftari"da namoyon bo'lgan xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik g'oyalari shoirning qozoq, qirg'iz va turkman diyorlariga qilgan safarlari ta'sirida yozilgan she'rlarida katta mahorat bilan davom ettirilgan.

Shoira Zulfiya 50-yillarning ikkinchi yarmida Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari unga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, uning ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab Zulfiya ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon



kuchaydi. “O‘ylar” (1965) she’riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili “Visol” (1972), “Yillar, yillar...” (1975) she’riy kitoblarida davom etib, Zulfiya ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. Ayni paytda shoira, ya’ni 1975-yilda “Lolaqizg‘aldoq” nomli bolalarga bag‘ishlangan turkum she’rlar ham yozdi.

1932-yilda “Hayot varaqlari” nomli birinchi she’riy to‘plami bosilgan. So‘ngra uning “Yuragimga yaqin kishilar”, “Yurak hamisha yo‘lda”, “Kamalak” singari ko‘plab she’riy to‘plamlari va turkumlari nashr etiladi.

Istiqlol davri adabiyotining muhim fazilatlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi yana bir qator tamoyillar ko‘zga tashlandi. Chunonchi, millatning o‘z-o‘zini anglashida, o‘zlikni qadrlashi, va ulug‘lashida, milliy iftixor tuyg‘ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o‘zgarishlari namoyon bo‘ldi.

“Yana bir yetakchi tamoyil shuki, adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh bugungi kunga murojaat etmasin, ularning asarlari mohiyatan xalqning yakdilligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy konseptsiyasi bilan ajralib turadi”. Birgina liro-epik janr namunalarini oladigan bo‘lsak, dostonchilikda ham turkum asarlar tajribasini kuzatish mumkin. Chunonchi, O‘zbekiston xalq shoiri To‘lan Nizom istiqloq shukuhini, xalqimizning asriy orzusi – erkin-hur turmushini, boqiy qadriyatlarimizni ilhom bilan kuylagan “Vatan haqida qo‘shiq” – mustaqillik dostonlari turkumini yaratdi.

Turkum – mushtarak g‘oyaviy niyat, umumiy mavzu, qahramon va muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘lgan badiiy asarlar majmuidir. Turkum asarlar adabiyotning barcha janrlarida mavjud. Masalan, Balzakning "Inson komediyasi" yoki Zolyaning "Rugon – Makkarlar"ini tashkil etuvchi asarlarini romanlar turkumi deyish mumkin. Shuningdek, hikoyalar, ocherklar va hatto maqolalar turkumlari ham bo‘ladi. Turkum, ayniqsa, she’riyatda keng tarqalgan

She’riyatimizdagi turkum dostonlar, dramatik poema, she’riy drama, she’riy qissa, she’riy ertak, reportaj doston kabi asarlarning janr ko‘rinishlari tabiatini o‘rganish, poetik shakllar borasidagi ijodiy izlanishlarni nazariy jihatdan umumlashtirish ilmimiz oldidagi muhim masalalardan biridir.

Xullas, o‘zbek she’riyatida sikl she’rlar qadimdan to bugungi davrgacha o‘z taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan va takomillashgan. Sikllilik o‘zi yaratilayotgan davr muammolari bilan bog‘liq tarzda mazmunan boyib borgan. Turkum deyarli har bir shoir ijodida mavjud ekanligi, uning lirikaning xos shallaridan biri ekanligini dalolatlaydi. Turkum she’rlarning o‘ziga xos jihatlari, ularni shakllantirish xossalari, lirik turkumga kiritilgan she’rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, tasvirdagi makon va zamon birligi va boshqa ko‘plab xususiyatlari bu shaklning poema janri shakllanishiga asos bo‘lganligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Herman Hesse. Jahon adabiyoti kutubxonasi (Jahon adiblari haqida. O.Sharafiddinov tarjimasi ). – T.: Ma’naviyat. 2010. 4-bet.
2. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak. 2016. 267-bet.

3. Qosimov U., Jo‘rayev M. Ijodni anglash yo‘lida. – Toshkent. Iqtisod-moliya. 2015. 163-bet.
4. Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar. – T., Tamaddun, 2008.
5. Zulfiya. Tanlangan asarlar [3 jildli], – T., 1985.
6. Дарвин М.Н. Проблема цикла в изучении лирики. Кемерово, 1983;
7. Фоменко И.В. Лирический цикл: становление жанра, поэтика. Тверь, 1992.
8. Хализев В.Е. Теория ЛИТЕРАТУРЫ. – Москва, Высшая школа, 1999. 240-б. 93-95-бетлар.

## **MUHAMMAD ALINING “ULUG‘ SALTANAT” TETRALOGIYASIDA SAYYID BARAKA OBRAZI TALQINI**

**Gulchehra QO‘YLIYEVA**  
*GulDU dotsenti, f.f.f.d.*

Milliy adabiyotimizni xolis o‘rganish istiqloq-yillarida, yuksak badiiyat mezonlari asosida tekshirishga keng yo‘l ochilganligi roman shakllari orasida alohida mavqe tutuvchi tetralogiyalarni ham dunyo adabiyotshunosligi mezonlariga mos ravishda ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishga katta imkon yaratdi. Shu bois, XX asr o‘zbek adabiyotidagi, xususan, mustaqillikkacha va undan keyingi yillarda yaratilgan romanlar misolida o‘zbek nasri badiiy tafakkuridagi yangilanishlarni, farqli davrlarda voqelikni badiiy ifodalash yo‘sinlari va poetik funksiyalarini turli rakurslarda tadqiq etish imkoni paydo bo‘ldi. “O‘zbek romani janr ko‘rinishlari jihatidan: dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pentalogiya, epopeya; mavzu-muammolar qamroviga ko‘ra: falsafiy roman, tarixiy roman, siyosiy roman, memuar roman, publitsistik roman, biografik roman, ma‘rifiy roman, roman-mubohasa, roman-istehzo, roman-rivoyat, roman-mif, mini-roman kabi ilgarigi bosqichlarda bo‘lmagan yangi shakllar hisobiga boyidi”. [1, 273-b.] Demak, jahon adabiyotidagi singari o‘zbek nasrida ham roman va uning turli shakllari muntazam taraqqiyotda, rivojlanishda ekanligi ko‘rinadi.

Ko‘plab asarlar muallifi, yozuvchi Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasini yaratib, o‘zbek romanchiligini yangi shakl bilan boyitdi. Asarda Sohibqiron Amir Temurning yurishlari bilan maishiy hayoti, to‘rt farzandi – Jahongir Mirzo, Umarshayx mirzo, Mironshoh mirzo va Shohruh mirzolar haqida asar yaratdi. Bunda adib bir qator tarixiy asarlar va manbalarga tayanganini ko‘ramiz. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”(1404) G‘iyosiddin Alining “Hindiston g‘azovoti kundaligi”(1401), Lui Gonsales de Klavixo “1403-1406 yillarda Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat” (1412), Ibn Arabshohning “Amur Temur tarixi” (1436) kabi tarixiy asarlari Amir Temur yurishlari bayon qilingan asarlar sirasiga kiradi. “Tuzuklar” yaratgan sohibqironning dovrug‘ini dunyoga yoygan bu kabi asarlarga tayangan Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopeyasida ham ulkan shaxs obrazining hayoti, faoliyatining bor mazmunini badiiy jihatdan anglashga yozuvchi tafakkurining ehtiyoji sifatida maydonga kelganligi bilan ajralib turadi.

“Zamonaviy o‘zbek romanlarida tarix falsafasi, o‘tmishni qayta idrok etish, reallik va g‘ayritabiiylik o‘zaro uyg‘unlashmoqda. Zamondoshimiz qiyofasi turli rakurslardan kuzatilmoqda. Tarixni teran anglash asosida yaratilgan “Ulug‘ saltanat” (Muhammad Ali) tipidagi roman-epopeyalarning dunyoga kelishi milliy tafakkur ehtiyojining samarasi” deb ta’kidlaydi professorml.Yoqubov. [1, 28-b.]

Asar yozilish jarayoni tarixi haqida yozuvchi Muhammad Ali muxbirlar savollariga bergan javoblaridan bilish mumkin: “Ulug‘ saltanat” epopeyasi ustida yigirma-yilish ketdi. Ko‘p o‘qib-o‘rganib, Amir Temur va uning davri haqida mo‘tabar oltita tarixiy manbaa borligini aniqlab oldim. Amir Temurning haqiqiy tarixi shu manbaalarda mujassam. Men shu manbaalar asosida ish olib bordim. Boshqa manbaalar qachon bo‘lmasin, qayerda yozilmasin, qaysi tilda bitilmasin, qaysi mamlakatda chiqmasin, shu kitoblardan u yoki bu tarzda o‘zlashtirib olingan, ularga suyanilgan”- deydi yozuvchi Muhammad Ali. [2, 5-b.]

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, farzandlari va oilasi, siyosiy hayotda kechgan hodisalar, ularni bir markaziy o‘qqa birlashtirib turuvchi ulug‘ tarixiy siymo - Amur Temur obrazini hamda farzandlari hayoti aks yetgan, to‘rt kitobdan iborat katta epopeyani yaratish o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagani ko‘rinib turibdi. “Ulug‘ saltanat” asaridagi ulug‘ obrazlardan biri, tarixiy shaxs Said Baraka obrazi haqida to‘xtalar ekanmiz Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida uning Temur huzuriga birinchi marotaba kirib kelishi kichkina ma’lumot o‘rnida berib ketilgan, xolos: “Amir Husayn lashkarining mang‘loyi Hindushoh va Halillar uzoqdan ularning qorasini ko‘rib, to‘xtamasdan qocha boshladilar. Amir Sohibqiron ularning ketidan jo‘nadi. Shu holatda Alloh taolo uni sharafla yetgur Makka sayyidlari jamoatidan bo‘lmish ulug‘ amir va muhtaram sayyid Sayyid Baraka yetib keldi. U Amir Temurga katta nog‘ora (tabl) va yalov tortiq qildi. Amir Sohibqiron buni muborak fol deb bilib, to‘xtovsiz ravona bo‘ldi va Chag‘onga borib tushdi...”. [3, 79-b.]

Asarda keltirilgan shu kichik ma’lumot yozuvchining badiiy tafakkur chig‘irig‘i orqali sayqallanib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘zgacha tasavvur paydo qiladi. Shuningdek, asar qahramonlarining o‘ziga xos milliy va ma’naviy olami, ularning asar voqealari tizimida yuritgan faoliyati hamda taqdirining badiiy yechimi tarixiy ma’lumotlar kesimida izchil qiyoslangan va eng asosiysi kitobxonni voqealar tarixda huddi shu tarzda namoyon bo‘lganiga ishontira oladi: “Temurbek asta chorpoyadan tushdi va o‘z odatiga ko‘ra, oqsoqligini bildirmaslikka harakat qilib, shoshilmay, bitta-bitta bosib, nog‘ora va havorang bayroq tutgan notanish odam istiqboliga qarab yurdi. O‘zicha bu, beshak g‘aybdan bashoratdur, bu g‘ayb nazari alomatidur...” deya pichirladi.” [4, 57-b.] Tarixni badiiy talqin qilish har bir yozuvchining o‘z dunyoqarashiga, tafakkur doirasiga bog‘liq. N.Shomiyning “Zafarnoma” asarida keltirilgan yuqoridagi parchdan yozuvchi katta yurish oldida turgan Sohibqiron ruhiyatiga kuchli ta’sir qiluvchi vosita sifatida mohirona foydalandi. Bu uchrashuv jahongir ruhiyatida o‘zgacha kuch paydo qildi, ilohiy madad bo‘lib, butun jangovarlik faoliyati davomida unga hamrohlik qildi, desak yanglishmaymiz:

– Sohibqiron! – murojaat etdi tag‘in Mir Sayyid Baraka.

– Allohning bergan madadi ila ahd-u qaror ayladim. Janoblarining Piru murshidigina emas, balki, chinakam do‘st-u birodaringiz bo‘lmakni ixtiyor yetdim! Kaminangizni bir umrluk do‘st sifatida qabul aylangiz! Alhamdu lillahi rabbil olamin! [4. 61-b.]

Asarda Mir Said Baraka va Amur Temur obrazini tasvirlar ekan, ular orasida har doim samimiy munosabatni, ular orasidagi “o‘zaro nozik hurmat pardasi” borligini, “undan hech kim nariga o‘tmasdi” deya ta’riflangan. Huddi shu o‘zaro munosabatni birday mutanosib tutub turish va Turon taxtiga chiqayotgan “nafaqat muridi, muhibi, do‘st-u birodari” Sohibqiron Temurga piri murshid Mir Said Baraka ba’zi nasihat va maslahatlarini berib qo‘yishni lozim topadiki, bu ishlar ham bevosita uning zimmasida ekanligini his qilar edi: “Parvardigor manglayini silagan banda farmon bermoq iqboliga erishg‘ay, saodat tojig‘a munosib topilg‘ay. ...Fikr-u zikri, xayolini illat-u zalolatni yo‘q qilishga, fitna, fisq-u fasodni bitirishga, zulm-u sitamni batamom yitirishga yo‘nalrig‘ay. ...Alloh in‘om aylag‘on kuch-qudratni, adolatni yuzaga chiqarishga sarf etg‘oy, kuch-adolatda etkonini aslo unutmag‘ay!” tarzida so‘zlaydi.[4, 183-b.] Bu nasihatlarini Amir Temur va butun arkon-u davlat tinglashga muyassar bo‘ladi. Nima bo‘lganda ham o‘z yeridan chiqqan amirning yangi davlat yuritishda halol va el g‘amini o‘ylovchi inson bo‘lishga hissa bo‘lib qo‘shiladi. Haqiqatdan ham, Sohibqiron yurtga egalik qilishning ilk kunlaridanoq, adolat bayrog‘ini yuqori ko‘taradi: “...Temurbek janglardan birida Qarshi shahrini olishga bel bog‘ladi. ...Tasodifan shu kunlarda Qarshi karvonsaroyida Koshg‘ardan Bag‘dodga yo‘l olgan savdogarlar yashab turardilar. Temurbekning yigitlari...yaxshi razm solmay, ularni dushman deb o‘ylab, savashishga kirishadilar, to‘rt bog‘lam kimxob bilan boshqa qimmatbaho buyumlarni tortib olishib, o‘lja sifatida Temurbekka keltiradilar. Sinchiklab taftish aylagan temurbek o‘ljaning savdogarlarniki ekanini bilgach, amirlarni izza qildi, barcha buyumlarni kamaytirmay-netmay darxol o‘z yegalariga qaytarishni buyurdi. Biroq savdogarlar xavfsirashib, allaqachon Qarshini tark etgan ekanlar. Temurbekning odamlari ularni qidirib topib, omonatlarini o‘z yegalariga topshirib qaytdilar”. [4, 179-b.] Bunday insof va adolatli ishning dovrug‘i xalq ichida shovshuvga sabab bo‘ldi, chunki har qanday sohibi davlat ham bunday to‘g‘rilik yo‘lini tutavermasligi mumkin holat sanaladi.

Asarda pir-murshid Sayyid Baraka obrazini tasvirlashda din peshvosining termizlik ofoq shayx Hakim at-Termiziyga g‘oyibona muxlislikni Alloh uning ko‘ngliga solib, shu joyga xonaqoh qurib yashay boshlagani bayon qilinadi. Shunda Sayyid Barakaning behosdan ko‘zi ilingani va tushida “Sayyid! Sendan rizolig‘im beaddadur. Bir shogirdning xolis xizmatini bajarding, qabrimning yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymading...mulk-u mamolik bo‘stoni qulf urib yashnag‘ay, din-u imonnig zilol buloqlari qaynashdan tinmag‘ay! Illo, Turong‘a o‘z o‘g‘li podshohliq qilur. Sen ul zotning yonig‘a borg‘il, uning dil oinasig‘a g‘ubor tushishiga yo‘l qo‘ymagil! Emdi borg‘il...Shu soniyaning o‘zidayoq yo‘lga ixtiyorni berg‘il!...”[4, 177-b.] Yozuvchi bu yerda tush motividan unumli foydalanish orqali tarixiy fakt va badiiy to‘qima munosabatini uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Undan tashqari asarda tetralogiyaga xos xronikali syujetning

oʻrni, syujetda asarning «badiiy vaqt»i epik asarlarda qoʻllanilishi qulayligi va imkoniyatlari kengligi aniqlangan. Avlodlar va obrazlar tizimining ham silsilaviyligi, asardan-asarga oʻtishi va davomiyligi tetralogiyaga xoslikni taʼminlaydi. Muhammad Alining “Ulugʻ saltanat” asari tetralogiya shaklining tipologik xususiyatlari, adib ijodiy individualligi, uning oʻzbek nasrida alohida adabiy hodisa ekanligi bilan istiqbol davri oʻzbek adabiyotshunoslida bir yangilik boʻldi, desak adashmaymiz. “Inson va insoniyat hayoti, olam manzarasining tasvir va tadqiq etilishi roman mazmun-mundarijasini xalq, millat, jamiyat, tarix, insoniyat, bashariyat taqdir-istiqboliga daxldor qilib qoʻydi. Bu bir jihatdan, “Ulugʻ saltanat” tipidagi roman-epopeyalarning yuzaga kelishiga olib keldi. Shu tariqa, roman olami har bir asarning oʻz geografiyasi, geneologiyasi, qahramonlar maʼnaviy-ruhiy va psixopatologik holat-kechinmalari bilan belgilanadigan boʻldi. Zotan, ijodkor va qahramon qalbi, fikr-oʻylari insonga, olamga va koinotga qaratilgan.”[1, 63-b.]

Xulosa qilib aytganda, milliy adabiyotimizning jahonga yuz tutishi epik tafakkur rivoji, tetralogiyada bitilgan asarlarning yosh avlod kamolotidagi beqiyos maʼrifiy-maʼnaviy taʼsiri, kelgusida ushbu shaklda yaratilajak koʻplab asarlarning badiiy barkamolligi va yyetukligiga bevosita bogʻliqligi bilan qimmatli sanalsa, asardagi ulugʻ insonlar timsoli hozirgi zamon oʻquvchisining maʼnaviy-axloqiy, estetik jihatdan yyetuk insonlar boʻlib kamol topishida, ularning asarning bosh qahramonlari singari vatanparvar, shijoatli va irodali shaxslar boʻlib shakllanishida asosiy mezon boʻlishi mumkinligi bilan qadrlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Islom Yoqubov. Mustaqillik davri romanlari poetikasi. –T., 273-b.; 28-b.
2. N.Shomiyu “Zafarnoma”. – T.: “Fan” nashriyoti, 2019. 79-b.
3. “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi. M.Ali va S.Ashur suhbatlari. 2022, 26 yanvar, 7-son, 5-bet.
4. Muhammad Ali “Ulugʻ saltanat” I kitob. Jahongir mirzo. DAVR PRESS NMU. – T., 2019. 57-b; 61-b.; 177-b.

## **OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA KATEGORIYALARNING BADIY TALQINI**

**Fazliddin SHARIPOV,**  
*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Morfologiya grammatikaning tarkibiy qismi boʻlib, soʻzning (mustaqil maʼno anglatuvchi soʻzlarning) grammatik shakl va maʼnosini oʻrganadi – soʻzshakl haqidagi taʼlimotdir. Soʻzshakl, maʼlumki, asosan, affikslar vositasida hamda boshqa vositalar orqali ham hosil qilinadi (fonetik vosita, analitik vosita, ohang – intonatsiya, juftlashish, takrorlash va hokazo). Boshqacha aytganda, har bir mustaqil soʻz turkumi, asosan, ot va feʼl – nutqda qoʻllanar ekan, albatta, maʼlum bir grammatik shakllarda ishtirok etadi va grammatik maʼno ifodalaydi. Soʻz gapda (nutqda) biror grammatik shaklsiz ishtirok eta olmaydi. Grammatik

ma'noning esa sintetik, analitik va aralash shakllarda ifodalanishi hamma tilshunoslar tomonidan tan olingan.

Grammatik shaklga ega bo'lish va grammatik ma'no ifodalash mustaqil so'z turkumlariga xos xususiyatdir. Ana shunday xususiyatga ega bo'lgan so'z turkumlari qadimdan ma'lumki, deyarli hamma tillarda mustaqil qo'llana oluvchi, ma'no (lug'aviy ma'no) anglatuvchi, asosan ot va fe'l so'z turkumiga xos bo'lib, ayniqsa, ot – ism bildiruvchi so'zlar o'z ichki bo'linishlariga ega bo'ladi: narsa-qurol otlari, shaxs otlari, o'rin-joy otlari, mavhum otlar; belgi otlari (sifat, ravish), miqdor otlari va hokazo; fe'l turkumiga kiruvchi so'zlar ham shunday; harakat fe'llari, holat fe'llari, shuningdek, nutq fe'llari, ko'ruv fe'llari, faoliyat fe'llari, tafakkur fe'llari, munosabat fe'llari... kabilar[6;4].

Demak, asosiy mustaqil so'z turkumlari sifatida ot(ism) va fe'l belgilanishi, haqiqatan ham, to'g'ridir. Ism (ot) qatorida sifat, ravish (bular belgi otlari), son (miqdor otlari) va olmosh – keng ma'noda ismlar o'rnida qo'llanuvchi so'zlar ham ism tarkibida qaralishi maqsadga muvofiq bo'lib, ko'p yillik tilshunoslik ana shu holatni tan oladi. Shunga ko'ra so'zlar asosan uch turkumga ajratilgan: ot, fe'l, yordamchilar (yordamchi termini o'rnida ba'zan yuklama, ba'zan bog'lovchi, ba'zan ko'makchi terminlaridan biri ishlatilganligi ma'lum). Hozirgi kunda yordamchi so'z turkumlari sifatida ko'makchi, bog'lovchi, yuklama qayd etiladi – uchta. Alohida so'z turkumlari sifatida asosiy adabiyotlarda taqlid (tasvir) so'zlar, undovlar, modal so'zlar qayd etiladi. Ba'zi hollarda undov va mimemalar tarzida undov so'zlar bilan taqlid so'zlar birlashtirib ham beriladi. Eng keyingi davrda yaratilgan ba'zi adabiyotlarda taqlid so'zlar mustaqil so'z turkumlari qatoriga kiritilib, undov va modal so'zlar so'z-gaplar tarzida qayd etilayotgani kuzatiladi. Yuklamalar (o'zbek tilida) alohida turkum sifatida ajratilib, ular tarkibida *-mi, -chi, -a, -ya, -yu, -gina, -ku, -da, -u, -oq, -yoq* kabi affiks – qo'shimcha ko'rinishdagi birikmalar ham beriladi. So'z yuklamalari esa juda chegaralangan. *Faqat, xuddi, axir, nahotki, yolg'iz, ba'zan, tanho, bir, hatto, naq, go'yo, go'yoki, na* kabilar (na inkor bog'lovchisi sifatida, bir va yolg'iz so'zlari yuklama vazifasini bajaruvchi so'zlar sifatida ham qayd etiladi; ham, ba'zan kabi birliklar esa bog'lovchi sifatida qayd etiladi. [6] Bizningcha, bitta so'z-birlikning ikkita so'z turkumi tarkibida turishi mumkin emas. Bir birlikning (ma'lum turkumga mansub birlik) ikkinchi turkum tarkibida turuvchi birlikning vazifasini bajarishi, boshqa masaladir.

Ayniqsa, o'zbek tilida u yoki bu so'z turkumiga kiruvchi birlikning vazifasini bajaruvchi affiks ko'rinishdagi birliklar anchagina. Biroq ular so'z turkumlari deb nomlanuvchi birliklar bilan bir qatorda turishi mumkin emas. Affiks yuklamalar, deb belgilanuvchi vositalar – birliklar affikslar guruhi tarkibida bo'lib, o'sha yerda ma'no jihatidan tasniflanishi kerak. Masalan, bizningcha, avvalo, so'z yasay olish va olmasligiga ko'ra ikki guruhga ajratilishi – so'z yasovchilar tarzida tasniflanib, so'ngra so'z yasovchilarning o'zi ichki bo'linishlar asosida ot yasovchi, fe'l yasovchi tarzida; sifat yasovchi, ravish yasovchi tarzida; shaxs otlari yasovchi, narsa-qurol otlari yasovchi, o'rin-joy otlari yasovchi, mavhum otlar yasovchilar tarzida yoki otdan sifat yasovchi, fe'ldan ot yasovchi,

otdan fe'l yasovchi... kabi. Ierarxiyada ichki tasniflanishi muhim, shunday yo'l tutish maqsadga muvofiq.

So'z yasalmaydigan affikslar – grammatik munosabat, sof grammatik ma'no ifodalovchi affikslar ham ichki tasniflanishga egadir.

a) sintaktik munosabat ifodalovchilar – ular umumiy grammatik ma'no ifodalaydi, so'zlar o'rtasidagi ma'no munosabatlarini shakllantiradi, ularni belgilaydi. Shu bilan birga, ular ham ichki tasniflanishi mumkin: ot va fe'l munosabatlarini ifodalaydi, ularni tobe hokimlik assoida bog'laydi ham; ot va ot o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Masalan, *Karimning kitobi* kabi. Bunda qarashlilik – tegishlilik ma'nosi ifodalanadi (*uydagi kitoblarim* birikmasi ham shu tipga kiradi). Xuddi shu kabi fe'l bilan fe'l munosabati ham ifodalanishi mumkin: *o'qib chiqdi; o'qib tashladi; o'qib qo'ydi...* kabi. Ba'zan bunday qo'shimchalar sodda gaplarni, so'z birikmalarini, munosabatlarini ham ifodalashi, bog'lash vazifasini bajarishi mumkin. Fe'l nisbat shakllari ham shu guruhga kiradi.

b) sintaktik munosabat ifodalamay, mazmuniy munosabat ifodalovchi: sof grammatik ma'no ifodalaydi: *-lar, kichraytirish-erkalash birliklari, tarz ifodalovchi birliklar, bo'lishsizlik shakli -ma, kuchaytiruv-ta'kid ifodalovchi affikslar -ku, -da, -mi, -oq, -yoq, -u, -yu, -a, -gina, -chi* kabilar[1;2;3;5]. Shuningdek mayl, zamon, shaxs-son, (umuman, kesimlik shakllari) ko'rsatkichlari ham shu guruhga kiradi. Yana emotsiya, taajjub, so'roq, hayratlanish kabi ma'nolarni ifodalovchi affikslar ham shu guruhga birlashtirilishi mumkin. Bu tipdagi affikslar o'zbek tilida ko'makchi so'zlar, modal so'zlar, bog'lovchilar bajargan vazifani bajarishi uchun keng qo'llanadi. *Ukam uchun oldim- ukamga oldim* kabi.

Demak, a) mustaqil so'z turkumlari asosan, ikkita ot (ism) va fe'l (sifat, son, olmosh, ravish ism tarkibida); b) yordamchi so'zlar ikkita – ko'makchilar, bog'lovchilar; v) alohida so'z turkumlari: taqlid so'zlar (bular, ko'proq ot tarzida qo'llanadi), undov so'zlar (bular, asosan gap tarzida nutqda ishtirok etadi); modal so'zlar (bular kirish bo'lak yoki gap tarzida qo'llanadi). Masalan, *Yo'q bormayman*. *Yo'q* – kirish so'z, *bormayman* kesim shaklida ifodalangan gap; *Yo'q. Bormayman* – ikkita gap. Bu fikr 3 xil ifodalanishi mumkin: *Yo'q*. Bu alohida gap; *bormayman* – bu ham alohida gap – to'liqsiz gap; *yo'q, bormayman* – alohida gap (*yo'q* – kirish bo'lakdir) va hokazo.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. – Toshkent: O'zdavnashr, 1944. – B.15.
2. Tojiyev Yo. Professor A.G'ulomov O'zbek ilmiy grammatikasining bilimdoni. – Toshkent: O'zMU, 2020 yil oktyabr.
3. Tojiev Yo. Til ilmining darg'asi//O'zbek tili va adabiyoti va san'ati. 2020 yil, 6 noyabr.
4. Tojiyev Yo. Hozirgi o'zbek tilshunosligiga bir nazar//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2008. №2. – B.30–37.
5. Tojiyev Yo. Yana so'z, leksema, so'zshakl, morfema, morfemika haqida// O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2008. № 6. – B. 43–50.

## **TOG'AY MUROD ASARLARIDA GENDER EVFEMIZMLAR**

*Hamid YODGOROV, GulDU dotsenti*  
*Alisher O'ROZOV, GulDU magistranti*

Istalgan turdagi matn genderologiya nuqtai nazaridan o'rganilganda, muallif tomonidan amalga oshiriladigan til birliklari tanlovining sotsial, etnomadaniyat sabablarini aniqlashga imkoniyat yaratiladi.

Tilshunoslikda an'anaviy tahlil usullarida kuzatishlar olib borilishi bilan birgalikda, uni sotsiologiya, psixologiya hamda boshqa fanlar bilan bog'lovchi yangi tahlil usullariga qiziqish kuchaymoqda. Bu tahlil usullari bilan bog'liq tilshunoslikda yangi zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ana shunday yo'nalishlardan biri – lingvogenderologiyadir. Bu faning tadqiq manbai – tilning gender xususiyatlarini o'rganish bo'lib, bunda ikkita masala: ayollar va erkaklar nutqining tafovutlari hamda o'ziga xos xususiyatlari; til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklariga e'tibor qaratiladi.

O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buni qadimgi turkiy, eski turkiy til materiallari misolida ko'rish mumkin. Nafaqat o'zbek tilida, balki dunyoning barcha tillarida jins tushunchasi lisoniy ifoda etiladi. Faqat ularning ifodalanish usullarida hamda ushbu usullarning u yoki bu tilda qay darajada aks etishida farqlanishlar mavjud, xolos. «Gender» tushunchasi zamonaviy lingvistikaga boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan keyinroq, aynan XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan. Gender lingvistikasi gender tadqiqotlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish, unda gender lingvistik tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi.

Gender lingvistikasining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi XX asr oxirlariga to'g'ri keladi. Ma'lumki, so'zlovchi qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq. G.Grays va J.Lichlar qayd qilganlaridek, evfemizatsiya hodisasida pragmatikaning asosiy tamoyillaridan biri – xushmuomalalik ko'proq uchraydi (1).

Bu tamoyil asosida yaratilgan evfemizmlar diskriminatsiyaning turli shakllarini yumshatadi. Masalan, yoshga oid, jinsiy, etnik, jismoniy va b. O'zbek tili evfemizmlarining gender xoslanishi – o'ziga xos hodisa. Tilimizda ham evfemizmlar, asosan, xushxulqlik tamoyili asosida paydo bo'ladi. Evfemizmlar serqirra va keng qamrovli hodisa, u nafaqat tabu so'zlar o'rnida, qolaversa, aytish noqulay bo'lgan birliklar ma'nosini yumshatib ifodalash uchun ham qo'llaniladi. O'zbek nasriga o'z asarlari bilan katta hissa qo'shib kelayotgan sevimli adibimiz Tog'ay Murodning asarlarida ham biz ayni shu jihatga e'tibor qaratamiz. Tog'ay Murod asarlari o'zbek adabiyotida yaratilgan adabiy meros orasida o'zining



qiziqarliligi, hayotiyiligi, ta'sirchanligi, inson xarakterini va ruhiyatini haqqoniy gavidalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini qalamga olganligi bilan ajralib turadi (2). Iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod ma'naviyatimiz xazinasiga o'zining o'tkir nutqi, tilimizning boy imkoniyatlarini hamda xalqimiz tilidagi gender xossalarni mahorat bilan tasvirlab bera olgani bilan diqqatga sazovor. Badiiy matn asosida gender xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarning kam ekanligini ta'kidlagan holda mazkur maqolada shu masalani yoritishga harakat qilindi.

Ma'lumki, o'zbek oilasida, odatda, ayol o'z eriga ismi orqali juda kam hollarda murojaat qiladi. Boisi, ayolning o'z eriga bo'lgan cheksiz hurmati, qadrlashi, shu bilan birga, faqat sharq ayollarigagina xos bo'lgan nafaqat o'z turmush o'rtog'iga, balki oilaning boshqa a'zolariga ham andisha, xijolat yoki uyalish kabi tuyg'ularning ustunligidandir. Shu sababli xotin o'z eriga *odam, bu kishi, aka, begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini qo'llaydi. *Odam, bu kishi, aka* kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatsa, *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini o'zaro suhbatda, faqat er-xotin o'rtasidagina qo'llaydi. Shu o'rinda quyidagi parchaga e'tibor beramiz:

Anavi Dehqonquli bezori jonimni chiqardi, – deya pichirlaydi onamiz. – Bola bola-da, – deydi otamiz. – Ayollar, **erkagingiz** bosmachi bo'p ketibdi, shu chinmi, deydi. – Dehqonqul! Bosmachi demanglar. Necha marta aytaman, bosmachi demanglar deb. – Bari ayol shunday deydi. – Desa deya beradi-da. Bosmachi bo'lib, qaysi yurtni bosib olibmiz? Bosmachi bo'lib, qaysi elni talon-toraj etibmiz? Dehqonqul! Bosmachi degich gapni ular o'ylab topdilar. – Kimlar? – Kimlar bo'lardi – qizillar-da (Otamdan qolgan dalalar, ...).

O'zbek oilasida ayol kishi o'z erini **“xo'jayinim”** deb gapiradi. Mazkur termin erkak kishiga nisbatan ishlatiladi. Biz buni kundalik nutqda quyidagi shakllarda eshitamiz: xo'jayinim davlat tashkilotida ishlaydilar, xo'jayinim aytdilar, xo'jayinim kelsinlar, xo'jayinim biladi, xo'jayinim ruxsat bersalar kabi. Demak, mazkur leksema jinsni evfemik ifodalashga xizmat qiladi. Yozuvchi mazkur terminni badiiy matnga ayni shu ma'noda olib kirganligini ko'ramiz:

Men dardimni tuynukdan aytdim. Oq xalatlil yigit bosh irg'adi. Bilaman, olib keldi, bilaman, – dedi. – Ichkari kiraman, – dedim. – Yo'q, mumkin emas. – Men... men **xo'jayini** bo'laman. – Qat'iy nazar, bemorga – hozir tez yordam ko'rsatilmoqda (Otamdan qolgan dalalar).

Shuningdek, erkak kishining yolg'izligini, uylanmaganlik holatini ifodalash uchun o'zbek tilida **bo'ydoq**, ayol kishining turmushga chiqmaganligi holatini ifodalash uchun esa *boshi ochiq, turmushga chiqmagan* kabi iboralarni qo'llash o'rinlidir. *Bo'ydoq* so'zining faqat erkak kishiga nisbatan qo'llanilishi xususida tilshunos I. Ismoilovning quyidagi mulohazasini keltirish o'rinlidir: “Turkiy tillarda erkak shaxsning xususiyatini, holatini bildirib ko'rsatib, ta'kidlovchi *yigit, chol* singari so'zlari mavjud (3). Shu so'zlar qatorida *bo'ydoq* so'zi ham bor. Buning leksik ma'nosi ko'pchilik turkiy tillarda uylanmagan yoki xotinidan ajralgan erkak shaxsga nisbatan qo'llanuvchi so'z”. Izohli lug'atda (O'TIL, 1981) mazkur so'zga quyidagi ta'rif berilgan: “ulyanmagan, xotin olmagan, so'qqabosh”.

O'zbek tilida *bo'ydoq* so'zi tilda shakllangan an'anaga ko'ra, faqat erkak kishiga nisbatan qo'llanadi: *Uka, kelinni pastga olib tushing, ko'ngli behuzur bo'layotganga o'xshaydi. Bo'ydoq bo'lganim uchun bu gap qulog'imga ham g'alati, ham allaqanday xush yoqadigan bo'lib eshitildi* (S.Ahmad).

Ammo boshqa turkiy tillarda, xususan, qirg'iz hamda boshqird tillarida *bo'ydoq* so'zi yolg'iz ayolga nisbatan ham ishlatiladi, qirg'iz tilining izohli lug'atida bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: "Boydok. Zat. Jalg'o'z bash, ayalo'jok, kueesi jok. Boydok jigiti; boydok ayal". Boshqa turkiy tilda mazkur so'zning ikkala jins vakiliga nisbatan qo'llanilishini *bo'ydoq* so'zining etimologik ma'nosi bilan izohlasa bo'ladi: *bo'ydoq* so'zi ikkita, ya'ni *bo'y* va *toq* (yakka) so'zlaridan iborat bo'lib, yolg'iz odam degan ma'noni bildiradi (4).

O'zbek tilida esa mana shu etimologik ma'nodan uzoqlashib, ma'no torayish hodisasi ro'y bergan. Qirg'iz va boshqird tillarida esa bu so'zning dastlabki ma'nolari saqlanib qolgan. "Oydinda yurgan odamlar" da o'ttizga kirsa-da, uylanmayotgan Odina yigitga Ziyodulla tomonidan shunday de-yiladi: ***Bo'ydoq*** yurishning ham chegarasi bor (58-b.).

O'zbek tilida ham jinsni ifodalashda **valentlik** muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday leksemalar borki, faqat erkaklarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, "**uylanmoq**" leksemasini olib qaraylik. Mazkur leksemaning leksik ma'nosi tarkibida "erkak" semasi mavjud. Shuning uchun "uylanmoq" fe'li faqat erkak semasini ifodalaydigan leksemalargagina birika oladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"(1981)da "uylanmoq" fe'lga shunday izoh berilgan: Biror qiz yoki ayolni o'z nikohiga olmoq, oila qurmoq (er kishi misolida). Yigit birdan **uylanish** taraddudiga tushdi-yu, bir haftaning ichida to'y ham bo'la qoldi (A.Qahhor. Xotinlar).

Mazkur so'zning faqat erkaklarga nisbatan qo'llanilishini, nazarimizda, tilda shakllangan an'ana bilan bog'lash o'rinli. Zero, boshqa turkiy tillarda xuddi shu so'z ikkala jins vakillari uchun ham qo'llanadi. Masalan, turk tilida *əwləndi* (uylandi) so'zi ham erkak, ham ayolga nisbatan ishlatiladi. Bizda esa shakllangan an'anaga ko'ra, **uylanmoq** fe'li faqat erkak semasini ifodalaydigan so'zlargagina birika oladi. Shu o'rinda quyidagi parchaga yuzlanamiz:

Odina chavandozni ashulaga solsamikin? O'ttizni urib qo'ydi, haliyam **uylanmaydi** ( Oydinda yurgan odamlar, 58-b.).

**Xo'ja, xo'jam, xo'jasi** kabi birliklar faqat erkak jinsiga mansub bo'lib, genderlik kasb etadi. Bunday murojaat o'zbek oilalari uchun an'ana bo'lib, tarixiy ildizlari juda uzoqqa borib taqaladi. Bunday an'analarni o'zida aks ettirgan Tog'ay Murod asarlari shu tomonlari bilan ham juda qadrli, juda qimmatli. Quyidagi matnda xuddi shu holatni ko'rish mumkin:

... Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf. Ular Eson traktorchinikiga oqshom vaqti kelishdi. Uy **bekasi** dasturxon yoydi, **xo'jasi** mezbonlik qildi. - Kelinglar, xush ko'rdik ( Oydinda yurgan odamlar, 78-b.).

Demak, o'zbek tilida erkakning axloqiy, emotsional va intellektual sifatlarini anglatadigan evfemizmlar mavjud, ular nutqiy vaziyatni yumshatib ifodalashga

xizmat qiladi. Zero, so‘nggi yillarda tilshunoslikka oid adabiyotlarda evfemizmgan an’anaviy ravishda nutq axloqi vositasi sifatida qaralmoqda.

Hozirgi o‘zbek tilida ham kelin, ham kuyov ma’nosida ishlatiladigan “qalliq” so‘zi etimologiyasi ham o‘zbeklarning qadimgi urf-odatlariga bilan bog‘liq. So‘z etimologiyasiga nazar tashlasak, mazkur so‘z yasama ekanligi va u o‘zak “*qalin*” va qo‘shimcha “*-liq*” dan yasalganligi oydinlashadi. Ya’ni “qalliq” so‘zi etimologik jihatdan “qalini to‘langan” degan ma’noni anglatadi. O‘zbeklarning qadimgi urf-odatlariga ko‘ra, kuyov tomon kelin tomonga ma’lum miqdorda pul-“qalin” to‘lagan. Shuning uchun unashirilgan qiz “qalinliq” (qalin puli to‘langan) so‘zi bilan yuritilgan. So‘z ma’no taraqqiyoti natijasida o‘zak va affiks o‘rtasidagi chegara yo‘qolib, u yaxlit so‘zga aylanib ketgan. Hozirda *qalliq* termini yasama so‘z sifatida talqin qilinmaydi. Yuqorida aytilganlardan ayon bo‘lmoqdaki, mazkur termin ayol jinsini ifodalashga xizmat qilishi kerak ekan. Afsuski, hozirda har ikki jins vakillariga nisbatan qo‘llanilish holatlari mavjud. Tog‘ay Murod bunday “og‘ishlar”ni chetlab o‘tib, ushbu birlikni muomalaga to‘g‘ri olib kirganligini quyidagi parchada ko‘ramiz:

Jimjitlik *qaylig‘ining* ko‘ngliga tahlika soldi. Xayoli bir yoqlarga ketdi. - Nimalarni o‘ylayapti? – O‘zimizning oqshomlarni. – Zubaydani-chi? *Qaylig‘i* kuyovning jon joyidan ushladi (Oydinda yurgan odamlar, 87-b.).

O‘zbek lingvomadaniyatida «*bo‘g‘oz*» tushunchasini ifodalash uchun *homilador*, *bo‘yida bor*, *og‘iroyoq*, *yukli*, *ikkiqat*, *qornida bor*, *yuzida dog‘paydo* *bo‘lmoq* kabi evfemik belgili til birliklaridan foydalaniladi. Ayrim misollarga murojaat etamiz:

Ayol kishining homilador ekanligini tilda turlicha shakllarda ifodalash imkoniyati mavjud. Birgina *bo‘yida bo‘lmoq* birikmasi ham evfemik ma’noda kelib, mazkur tushunchani berishi mumkin. Tog‘ay Murod shu leksemaning ko‘chma ma’nosidan o‘rinli foydalanib, *homilador* tushunchasini mazkur iboraga yuklaganligini ko‘ramiz:

Opamiz to‘lishdi. Yonoqlariga *sepkil toshdi*. – Oymomoning *bo‘yida bo‘pti*, ko‘z tegmasin (Oydinda yurgan odamlar, 125-b.).

Badiiy matnni shakllantirishda ijodkor xalq tilining barcha imkoniyatlarini qidiradi, topadi va uni matnga olib kiradi. Tog‘ay Murod badiiy to‘kislik ustida ishlar ekan, xalq shevalaridan ham o‘rni bilan foydalanadi, tabiiy koloritni kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanitiradi. Shu bilan birga, bunday sheva birliklarini tilda saqlab qolish imkoniyatini yaratadi. Ayol kishining homiladorligini quyidagicha tasvirlaydi:

...Bildim – ayolimiz qirmizi olma, dedi. Bildim – ayolimiz qirmizi olmaga *erik* bo‘ldi! Dalada qirmizi olma nima qiladi? Qirmizi olma Denov bozorida bo‘ladi! Denov bozori esa qirq chaqirimcha keladi! Qachon boraman, qachon kelaman? (Otamdan qolgan dalalar, 17-b.)

Jamiyat a’zolarining nutqiy madaniyati va malakasi oshib borishi bilan mavjud evfemizmlar evfemik vazifani bajarolmay qolmoqda, tushunchadagi dag‘allik, qo‘pollik yoki uyatlilik yuzaga chiqib qolmoqda hamda boshqa evfemizmlar bilan atalmoqda. Chunonchi, o‘zbek tilida *bo‘g‘oz* so‘zi madaniylik

muloqot talabiga mos kelmay qolgan vaqtda bu tushuncha *ikkiqat* soʻzi bilan ifodalangan. Vaqt oʻtib, oʻzbek lingvomadaniyatida ikkiqat soʻzida ham qoʻpollik – uyatlilik bor deb qabul qilina boshlagan. Soʻng uning oʻrnida *homilador* soʻzini qoʻllashga oʻtilgan. Hozirgi kunda ushbu soʻzda ham yashirilgan dastlabki belgisi namoyon boʻla boshladi, shuning uchun homiladorlik tushunchasini yanada pardalash, ifodani silliqlash maqsadida *ogʻiroyoq* soʻzi qoʻllanmoqda. Shu oʻrinda “Otamdan qolgan dalalar”dan olingan quyidagi parchaga eʼtibor qaratamiz:

Fizika ogʻzini ushlab-ushlab kuladi. – Ay, Dehqonqul-a, Dehqonqul! Nimaga keyinda qolayapsan desam, gap buyoqda ekan-da, – deydi. – Kim aytadi seni, *ogʻiroyoq* boshi bilan hammadan koʻp paxta tergan Bolxin terimchining bolasi deb? (30-b.)

Maʼlumki, *beva* soʻzi odatda *eri oʻlgan, eridan ajralgan* xotinlarga nisbatan qoʻllaniladi. Yozuvchi “Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi” asarida mazkur leksemani evfemik vosita sifatida matnga olib kirganligini koʻramiz: Botir firqa oqshom vaqti ayoliga tayinladi: – Mirzaxoʻjaboyni *bevasiga* bitta kulcha olib borib ber, – dedi. – Faqat birov bilmasin, zamon yomon. – Bitta kulcha nima boʻladi? – dedi ayoli. – Har tandir yopishingda bittadan kulcha berib kelasan, tushundingmi? *Bevasiga* ayt, birov bilmasin. Zamon yomon, juda yomon...(6-bet).

Afsuski, keyingi vaqtlarda *beva* soʻzi xotini oʻlgan, xotinidan ajralgan erkakka nisbatan ham qoʻllanila boshlangan. Misol keltiramiz: Toshbolta: Mana, oʻttiz-yil dirki, bevaman, Pari! (H.Gʻ.) Biroq ayrim eʼtiborli manbalarda *tul, esir* soʻzlari ham xotinsiz erkaklarga nisbatan qoʻllanilishi uqtiriladiki, bunga qoʻshilib boʻlmaydi (5). Togʻay Murod asarlarida gender ifodalovchi *beva* leksemasi aynan eri yoʻq (turli sabablarga koʻra) ayollargi nisbatan toʻgʻri qoʻllanganligini koʻramiz:

Botir firqa yoqasini mahkam tutamladi. Koʻzlarini yarim yumdi. Ham qoʻrquv, ham shijoat bilan yumdi. Ichida pichir-pichir kalima qaytardi. Dadil-dadil qadam qoʻydi. Jasadlar boshiga bordi. Koʻzlarini chirt yumib turdi-turdi... birdan yalt-yalt ochdi. Shunda... shunda, Mirzaxoʻjaboyni *bevasini* koʻrdi! Mirzaxoʻjaboyni zurriyotini koʻrdi! (Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi, 5-b.).

Tilshunos A.Omonturdiyev oʻz asarida bir faktni aytadiki, Surxondaryo shevasida xotinlar nutqida *erga tegdim* oʻrnida *er oldim* iborasi ham qoʻllaniladi. Yoki *taloq qilmoq* aslida erlar nutqi (faoliyati)ga xos boʻlsa-da, ayrim diniy manbalarda *erini taloq qildi* iborasi uchraydi (6).

Inson nutqi uning ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik beozor, nozik maʼno ifodalamasin, u tabulashtirilgan tushunchalarning salbiy mohiyatini butunlay yopolmaydi - xotiradan bartaraf qilolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Togʻay Murod oʻz asarlarida gender evfemizmlardan badiiy matnni shakllantirishda unumli va oʻrinli foydalanganligining guvohi boʻlamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горошко Э. Гендерная проблематика в языкознании [www.owl.ru](http://www.owl.ru)
2. Togʻay Murod. Saylanma. I jild. –Toshkent, 2019.
3. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – T.,1966. B. 106- b.

4. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. –T.,1966. B.112-b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I-II tomlar. – M., 1981. 93, 221-6.
6. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. –Toshkent, 2006, 177-b.

## **O‘TMISH XOTIRASI**

**Akram UZOQOV,**  
*GulDU, Rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri*

Hozirgi kunda uzoq o‘tmish kartinasini, tarixiy haqiqatni badiiy tadqiq etish jahon adabiyotida asosiy yo‘nalishlardan birini egallaydi. Chunki tarixiy o‘tmish mavzusida yozilgan badiiy asarlar bashariyat o‘tmishida ulkan burilishlar yasagan ijtimoiy-siyosiy kataklizmlar, va ushbu katalizmlarni yuzaga keltirgan kuchli xarakter egalari bo‘lmish buyuk tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati, ularning jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida hikoya qiladi. Aynan shu aspektlari bilan ham bunday asarlar boshqa mavzudagi asarlardan juda katta farq qiladi. Tarix kitoblarida, ilmiy risolalarda quruq jonsiz faktlar sifatida yashab kelayotgan o‘tmish, badiiy adabiyotda tarixiy voqea, hodisalar sharhi, turli bo‘yoqlar ostida rangli jonli ko‘rinishda gavdalanadi. Kitobxon tasavvurida inson o‘z tarixisiz, o‘tmishsiz yashashi, kurashishi, umuman, mumkin emasligi haqida tushuncha hosil bo‘ladi.

Ma‘lumki, jahon adabiyotida mazkur mavzuga bag‘ishlangan ko‘plab badiiy asarlar, tarixiy polotnlar yaratilgan. Ayniqsa, adabiyot tarixida u yoki bu darajada iz qoldirgan tarixiy romanlarining badiiy olamini yangi davr yutuqlari, talab va tajribalari, zamonaviy metodlari asosida o‘rganish zaruriyati hozirgi kun tartibida turibdi.

Sohibqiron Amir Temur Kuragoniy tarixi Markaziy Osiyo xalqlari o‘tmishida uziga xos o‘rin tutadi. Murakkab va ziddiyatli bo‘lgan bu buyuk tarixiy shaxs salkam 40-yil atrofida davlatni boshqargan, qolaversa mayda, tarqoq feodal bekliklar o‘rnida markazlashgan saltanatga asos solgan edi.

Amir Temur va uning avlodlari bashariyat taraqqiyotida o‘lmas iz qoldirdilar. Ular tarix sahnasida qariyb 500-yildan ko‘proq hukmronlik qildilar. Ular haqida o‘nlab, yuzlab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Lekin baxtga qarshi, yurtimiz mustaqillikka erishgunga qadar Amir Temurning hayoti va faoliyatini to‘laqonli yoritish kabi muammoga o‘zbek yozuvchilari, olimlari juda ham ehtiyotkorlik pozitsiyasidan yondoshishga majbur bo‘lganlar. Buning o‘ziga xos sabablari bor, albatta.

Sovet hukmdorligi davrida ko‘pgina xalqlarning milliy qahramonlarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi asarlarni elon qilinishiga qarshi mahfiy ta‘qiq bor edi. Chunki bunday asarlarning e‘lon qilinishi “panturkizm”, “panislomizm” uydirmalari ostida mahalliy ziyolilarni kattagina qismini kirib tashlab, ongimizga “panslavyanizm”, yani “buyuk og‘achilik ta‘limotini asta-sekindan singdirayotgan sovet hukmronligini – velikoross shovinistlarining Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan olib borgan siyosatiga, genotsidiga zid

bo‘lar edi. Ularning asosiy maqsadi – xalqlarni o‘z o‘tmish xotirasidan mahrum etish, milliy g‘ururidan ayirib, o‘z ajdodlarini unutgan manqurt avlodlariga aylantirish edi. Aynan shunday konsepsiya asosida tarix fanida Amir Temurni “bosqinchi”, “johil va kallakesar” sifatida zimdan gavdalantirishni V. V. Bartold, A. Yu. Yakubovskiy, M. M. Gerasimov, keyinchalik A. P. Novoseltsev va boshqa sharqshunos – missionerlar boshlab berdilar. Avvallari zimdan olib borilgan bunday harakatlar asta-sekindan ochiq tusda ko‘rina boshladi, ayniqsa, I.Mo‘minovning «Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o‘rni va roli» nomli ilmiy risolasi elon kilingandan so‘ng o‘z qiyofasini ro‘yi-rost namoyon qildi.. Bu risola elon qilingach Moskvaning markaziy ro‘znoma va gazetalarida o‘zbek olimining «millatchiligini» fosh etuvchi maqolalar bosildi. Albatta, mana shunga o‘xshash o‘zbek ziyolilarga nisbatan olib borilgan tazyiqlar, o‘z navbatida o‘zbek yozuvchilariga ham o‘z tasirini o‘tkazmay qolmadi. Arxiv malumotlarining xabar berishicha, Oybek va boshqa sevimli yozuvchilarimiz Amir Temur haqida boshlab qo‘ygan asarlari tugatilmay qoldi yoki mualliflarning shaxsiy arxivlarida qolib ketdi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek yozuvchilari o‘zlarining qator asarlarida Amir Temurni epizodik obraz sifatida tasvirlashadi. Bu manoda M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi alohida ahamiyatga sazovardir: Amir Temurning nabirasi Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrda salkam 40-yil hukmdorlik qilgan alloma umrining oxirgi yillarida o‘g‘li Abdulatif bilan kelishmay qoladilar. Pirovardida Abdulatif taxtni otasidan kuch bilan tortib oladi. Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» tragediyasida shunday epizod bor, ayni shunday og‘ir ruhiy jarayonlarning birini boshdan kechirayotgan Mirzo Ulug‘bek «Go‘r Amir»ga Temur qabriga keladi va bobosining ruhidan «Endi nima qilmoq kerak» – deb maslahat so‘raydi. Shunda nabirasi Mirzo Ulug‘bek bilan uchrashgan Temurning ruhi o‘zi asos solgan saltanatni parchalanganini, Mirzo Ulug‘bekda jahongirlik shiddatini so‘nganini ko‘rgan Sohibqiron shunday deydi;

Temur:

Urho-urho! Yog‘iy qochdi, yo Alloh,urho!  
 Yer yuzida buzilganga o‘xshar intizom.  
 Avlodimdan Sohibqiron chiqolgan kim bor  
 Eh, janglarning dag‘dag‘asi, gashti qolmabdi.  
 Maydonlarda issiq konning bug‘i ko‘rinmas  
 Men to‘ldirgan ummonlarning savlati qani?  
 Qani o‘sha quturuvchi yaldo dengizlar?  
 Ummonlarning o‘rnida men hovuz ko‘raman  
 Bir hovuzchi, kaftimga ham qiladi kamlik  
 Qon ko‘rmagan sipohlarning tuyoq izidan  
 Sanqib yurar bugun anqov sarbozlar  
 Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki  
 Ilal – abad avlodlarim bo‘lsin jahongir!  
 Har kun besh bor aytar edim: butun yer yuzi  
 Torlik qilar, sig‘dira olmas ikki podshohni  
 Ammo bugun ko‘ramanki, ellik shohga ham

Kenglik qilar, ortib qolar shu katta dunyo  
 Osmonda bitta Tangri, yerda bir sulton  
 Aks holda, to‘polonlar sobit, muhaqqaq  
 Shahrisabzlik Temurbekning vahimasidan  
 Qaltirardi yetti yo‘lning tog‘u toshlari  
 Samarqandda bir yo‘talsam, buning zarbidan  
 Yorilardi iqlimi Bog‘dodning o‘ti  
 Isfahonda zilziladek qimirlardi yer,  
 Bir maromda qular edi, shohlarning toji  
 Poytaxtinga oqar edi dunyoning toji...  
 Ulug‘bekni men ko‘rgidek bo‘laman hozir  
 O‘g‘lim, sening irodangni yeb qo‘yibdi kitob.  
 Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,  
 Yulduzlarning qo‘shiniga bo‘lding farmondor  
 Osmoniy o‘lkalarni olmoqchi bo‘lib,  
 Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo‘ldan.  
 Unutdingki, shamshir, hujum, qaqshatqich zarba...  
 Va bularga aksi-savdo bo‘lar g‘alaba  
 Insoniyat tarixining qalami shamshir,  
 Uning uchi qonli bo‘lsa o‘xshaydi tasvir.  
 Umrim vafo qilganida yana besh-o‘n-yil,  
 Men o‘tmagan biron daryo qolmas edi bil!  
 Oh, ur-urning, qilich chopib yovni quvmoqning,  
 Ko‘z yoshlarda qilichlarning qonin yuvmoqning,  
 Kimki senga bosh egmasa, boshin uzmoq  
 Kallalardan falakoso minor tuzmoqning  
 Lazzatini unutmaylik qiyomatgacha  
 Urho! Urho! Yog‘iy qochdi...! Yo Olloh,  
 Urho...!

Albatta, bu so‘zlarni ijodkorning “yurakdan bitilgan misralari” deb bo‘lmaydi. Chunki bir necha bor qatogonga uchragan shoir hukmron mafkuraning tazyig‘i ostida Amir Temur obrazini bir tamonlama yoritishga majbur edi. Zero, shoir ijod qilgan jamiyat va mafkura muhitida bundan-da o‘zgacha badiiy talqin qilishning iloji yo‘q edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayxzoda. Tanlangan asarlar. – T: O‘qituvchi. 1974.
2. Sattorov M., Kattabekov Olis yulduzlar jilosi. – T: O‘qituvchi. 1984.
3. N. Rahimjonov. Tafakkur-tarix mezoni. // Sharq yulduzi. 1992. №11.

### **FOLKLOR NAMUNALARINI O‘RGANISH MASALALARI**

**Abdulatif PRIMOV,**  
*katta o‘qituvchi (GulDU)*

Folklorshunoslik adabiyotshunoslik fani bilan uzviy aloqadorlikda ish ko‘rsa-da, ular o‘rtasida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar majud. Chunonchi,

folklor asarlarining g'oyaviy-estetik tahlili folklorshunoslik qonuniyatlari talabi bilan amalga oshirilsa, badiiy adabiyot tahlili adabiyotshunoslik qonuniyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Bunda adabiyotshunos o'zi o'rganayotgan muammoga dahldor aniq va tayyor materialga ega bo'lsa, folklorshunos bunday imkoniyatga ega emas.

“Folklorshunos o'rganishga chog'langan muammosiga taalluqli materialni xalqdan yig'ishdan boshlaydi. Bu jarayonning o'ziga xosligi va qiyinchiligi shundaki, u folklorshunosdan uzoq muddatli yig'uvchilik faoliyati bilan shug'ullanishini taqozo etadi. Yozib olingan u yoki bu folklor namunalarining qay bir marosimga daxldorligiga, kuyiga, teatr elementlariga egaligiga, tilining jonliligiga e'tibor berishni ham u diqqat markazida tutmog'i kerak. Buning uchun o'sha to'plovchining o'zi shu sohalaridagi bilimlardan xabardor bo'lmog'i shart.”[Imomov K. va boshqalar. 2; 14]. Xalq ijodiyoti namunalarini to'plash folklorshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. Folklorshunoslik, dastavval, xalq ijodiyoti namunalarini yozib olish (to'plash)dan boshlanadi. Bu jarayon yakka, shaxsiy tashabbus va jamoa tarzda uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya shakllarida amalga oshiriladi.

Insoniyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy tafakkur teranligi va inson ma'naviy dunyosining boyligini tarbiyalashda folklorning roli va ahamiyati asrlar davomida belgilovchi omil bo'lgan. Shuning uchun ham folklor namunalarini to'plash, uni o'rganish va ilmiy tadqiq qilish, xalqning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga xizmat qildirish dolzarb bo'lib kelgan. Folklor namunalarini yozib olish juda qadimiy an'ana bo'lib, folklorshunoslik shakllanishining ilk bosqichini tashkil etadi. Bu yo'nalishdagi ishlar tarixi juda olisga borib taqaladi. Chunonchi, qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilaridan Geradot, Polien, Strabon, Xores Mitilenskiy, Apellodor, Ibn Battutalarning yozib olib barchaga etkazgan afsona va rivoyatlari, turli-tuman urf-odatlar va marosimlar haqidagi qaydlari, shuningdek, yozma toshbitiklar davridan boshlangan folklorga qiziqish jarayoni xalq ijodiyotini o'rganish sari qo'yilgan ilk qadam edi.

“Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek folklorining yozib olinishi va kitobat qilinishi Mahmud Qoshg'ariy nomi bilan boshlangan. Shuningdek, xorazmlik tilshunos Abulqosim Mahmud Zamaxshariy yozib olgan maqol va matallar hamda olimning shu maqol va matallarning badiiy xususiyatlariga oid qaydlari, ulug'mutafakkir Alisher Navoiyning o'zbek xalq poeziyasi namunasi sanalgan chinkalar, Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy, Mirxond, Zayniddin Vosifiy, Hofiz Tanish Buxoriylar yozib qoldirgan afsona va rivoyatlar, Gulxaniy hamda Rojiylar yaratgan “Zarbulmasal”lardagi ko'p sonli maqollar, xalq askiyalari folklorini to'plash yo'lidagi izlanishlarning o'ziga xos ko'rinishlaridir”. [Safarov O. 5; 22-23].

XIX asr oxiri – XX boshlarida O'rta Osiyoda faoliyat olib borgansharqshunos, tilshunos, etnograf, folklorshunos olimlardan A.N.Samoylovich, N.P.Ostroumov, A.Divaev, A.Eyxgorn, L.Kun, V.Vyatkin, va boshqalar mahalliy aholining folklori, irim-sirimlar, mifologik e'tiqodlari, marosim



va udumlari, an'anaviy taqvim, bayram va sa- yillariga oid materiallarni yozib olib, asosan rus tilida nashr ettirdilar.

“O‘zbek folklori namunalarini bevosita jonli ijrodan yozib olish, to‘plab nashr etish va ilmiy o‘rganish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlandi. “Maorif” jurnilining 1928-yil 1-sonida xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plovchilar uchun qo‘llanma chop ettirilishi bilan o‘zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olishga asos solingan”. [XX asr o‘zbek folklorshunosligi. 6; 4].

Folklorshunos olimlarimizdan G‘ozi Olim Yunusov folklor namunalarini to‘plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. G‘.O.Yunusov o‘zbek eposshunosligi tarixida birinchilardan bo‘lib 1922-yilning yozida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilardan “Alpomish” dostonidan parchalar yozib olgan. 1926-yilda o‘zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo‘lib “O‘zbek el adabiyotiga tegishli materiallarni to‘plovchilarga qo‘llanma” uslubiy qo‘llanma yozdi.

XX asrning 20-30-yillarida V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, E.E.Romanovskaya, Yunus Rajabiy o‘zbek musiqa folklori namunalarini yozib olishgan bo‘lsalar, G‘uloi Zafariy, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxinlar o‘zbek xalq og‘zaki teatri an‘analarini o‘rgandilar.

O‘zbek folklorshunosligi asoschilaridan H.T.Zarifov folklorshunosligimiz tarixida birinchi bo‘lib, XX asrning 20- yillaridayoq folklor asarlarini to‘plash va nashr etish uchun maxsus transkripsiya ishlab chiqdi. Bu ilmiy printsip chuqur nazariy bilim va keng ko‘lamli matniy tayyorgarlikka asoslanganligi uchun ham hozirga qadar folklorshunosligimizda samarali qo‘llanilmoqda.

O‘zbek marosim folklori janrlarining to‘planishi va o‘rganilishi folklorshunos olimi Muzayyana Alaviya nomi bilan bog‘liq. M. Alaviya Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo‘lib, xalq qo‘shiqlari, afsona, rivoyat, ertaklarni to‘plagan. Olimaning ilmiy faoliyati natijasida “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1955), “Yangi qo‘shiqlar” (1959), “O‘zbek folkloridan namunalar” (1955), “Oq olma qizil olma” (1979), “Xalq qo‘shiqlari” (1983) kabi to‘plamlari yuzaga keldi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek folklorshunosligida olib borilayotgan ommaviy ishlar va ilmiy tadqiqotlar, albatta, yangi bosqichga ko‘tarildi va yangi mazmun kasb etmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin folklor asarlarini nashr etish qamrovi sezilarli o‘sd. Shu bilan birga aytish kerakki, bu yo‘nalishda qilinadigan ishlar anchagina.

Ma’lumki, oliy ta’limning filologik yo‘nalishlarida “O‘zbek folklori” fani o‘quv dasturlarda bo‘lib, talabalar ushbu fandan bilim olib kelmoqdalar. “O‘zbek folklori” fanini o‘qitishda auditoriyadagi nazariy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda o‘quv amaliyotining ahamiyati katta. O‘quv amaliyotining mazmun mohiyati yuqorida ko‘tarilgan masalalar bilan, ya’ni folklor namunalarini to‘plash, yozib olish masalalari bilan chambarchas bog‘liq. “O‘zbek folklori” fanidan o‘quv amaliyotini tashkil qilishning samarali shakllaridan biri folklor ekspeditsiyalari sanaladi.

Talabalar “O‘zbek folklori” fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyot davomida mustahkamlaydilar, folklorshunoslikda e’tirof etilgan fikrlarning hayotiy asoslari bilan tanishadilar.

Folklor ekspeditsiyalarining samaradorligi ilmiy tajribalarga suyanagan holda oqilona tashkillashtirishga bog‘liq. Shu ma’noda folklor ekspeditsiyasiga tayyorgarlik masalasi muhim o‘rin tutadi. Folklor amaliyoti (folklor ekspeditsiyasi)ga tayyorgarlik auditoriyada o‘tilgan ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar negizida boshlanadi. Talabalar folklor materiallarini yozib olish, ular ustida ilmiy kuzatishlar olib borish haqida ma’lum malakaga ega bo‘lishlari kerak. Dastlabki bosqich folklor amaliyoti o‘tkaziladigan hudud aniqlangandan boshlanadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, amaliyot o‘tkazish hududini aniqlashda ikkita maqsaddan kelib chiqish to‘g‘ri bo‘ladi:

- 1.Xalq og‘zaki ijodining alohida janrlari taraqqiy etgan viloyat, tumanlarni belgilash yoki xalq og‘zaki ijodi “o‘chog‘i” sanalgan joylarni tanlash kerak;
- 2.Folklor bo‘yicha kam ekspeditsiya uyushtirilgan hududlarni tanlash kerak.

Talabalar tanlangan hududning tarixini, folklor namunalarining ushbu hududda ommalashganligini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotini o‘rganib chiqadilar.

Ma’lumki, aksar folklor amaliyotlar tilshunoslikning dialektologiya yo‘nalishi bilan qo‘shilgan holda o‘tkazilgan. Bu hol folklor namunalarini yozib olishda ilmiy aniqlikka yordam beradi. Talaba amaliyot o‘tkaziladigan hududlarda yashovchi xalqning jonli til xususiyatlarini, dialektik, fonetik, leksik, morfologik jihatdan o‘ziga xosligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Amaliyot davomida zamonaviy AKT vositalaridan samarali foydalanish kutilgan natija beradi.

Amaliyot o‘tiladigan hududga kelgach talabalar mayda guruhlarga (5-6 kishi) bo‘linadi. Talabalar kunlik yozib olingan ijod namunalarini alohida daftarga ko‘chirib, amaliyot rahbari bilan tahlil qilib boradilar. Folklor amaliyoti oxirida yig‘ilgan materiallar tizimlashtirilgan holda qayta ko‘chiriladi. Folklor amaliyoti oldidan talaba transkripsiya belgilarini o‘rgangan, so‘zlovchi nutqini tez va aniq yozib oladigan bo‘lishi kerak. Ba’zi janrlar (doston, o‘lan, lapar va boshqalar)ni yozib olish ancha murakkab, shuning uchun bunday namunalarni yozishda diktafon, audio, video vositalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Folklor namunalarini yozib olishda matn pasporti muhim ahamiyatga ega. Matn pasportida quyidagi jihatlar aks etishi zarur:

- 1.Folklor namunasining nomi, janri;
- 2.Aytuvchining familiyasi, ism-sharifi, millati, savodxonligi, ma’lumoti, kasbi, folklor namunasini kimdan eshitgan yoki o‘rgangan, aytuvchining manzili, namuna yozib olingan vaqti va joyi;
- 3.Yozib olingan namunalar haqida qo‘shimcha ma’lumotlar, izohlar.

Folklor amaliyoti davomida talaba og‘zaki ijod namunalarini yozish bilan bir qatorda xalq orasida yashab kelayotgan folklor namunalarining saqlanishi, rivojlanishi, boyishi, variantlari haqida faktik material beruvchi ma’lumotlarga

ham e'tibor qilish kerak. Folklor amaliyoti davomida mahalliy aholiga quyidagi savollar bilan murojaat qilish tavsiya etiladi:

1. Folklor janrlarining qaysilari hozirgi kunda xalq orasida faol yashab kelmoqda va qaysilari odamlarning xotiralaridagina saqlanib qolgan?

2. Mahalliy aholining xalq og'zaki ijodiga munosabati qanday?

3. Og'zaki ijod namunalarini biluvchilar aholi orasida ozmi yoki ko'pmi?

4. Aholi o'rtasida qanday marosimlar yashab kelmoqda va doimiy o'tkazilib turiladi?

5. Mahalliy yoshlarning folklor namunalariga munosabati qanday?

6. Yoshlar orasida folklorning qaysi yo'nalishlariga qiziqish bor?

7. Bolalar folklori namunalari aholi orasida bormi?

8. Mahalliy bolalar orasida folklorning qaysi namunalari keng tarqalgan yoki umuman yo'q?

9. Hozirgi kunda folklor namunalarining xalq hayotidagi roli va o'rni qanday?

Folklor amaliyoti tugagach talaba to'plagan, o'rgangan materiallari, ma'lumot va orttirgan amaliy malakasi, taassurotlarini o'z hisobotlarida bayon qilishadi.

Xulosa qilganda, folklor namunalarini to'plash, ularni yozib olish, tasniflash va nashrga tayyorlash masalalari folklorshunoslikda dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Shu yo'nalishda folklor amaliyotlarining ahamiyati beqiyosligi ayon bo'lmoqda va kelgusida bu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zarifov H. T. O'zbek folkloristikasi tarixidan (O'zbek sovet folklori masalalari). -T.: 1970.

2. Imomov K. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990.

3. Istoriya narodov Uzbekistana. T.I. - Tashkent, 1950.

4. Mirzayev T. Hodi Zarif. -T : 1967.

5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T.: Musiqa, 2010.

6. XX asr o'zbek folklorshunosligi. Antologiya. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

### **J.K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDA YETIM OBRAZLAR TASVIRI**

**Zilola SAFAROVA,**  
*BuxDU katta o'qituvchisi*

Tashlab ketilgan va yetim bolalar obrazi orqali tasvirlangan yetimlik, yolg'izlik, kurashuvchanlik, yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurash asrlar davomida dunyo adabiyotining asosiy motivlaridan biri bo'lib kelgan va ularning ilk namunalarini halq og'zaki ijodida Zolushka, Hensel va Gretel, Oppog'oy, Zumrad va Qimmat kabi klassik ertaklar misolida ko'rish mumkin [1, 4].

Keyinchalik bu obrazlar bolalar va o'smirlar adabiyotiga mansub qissa, hikoya, roman kabi janrlarda ham tez-tez yaratila boshlandi. Ular, asosan, ota-onasini yo'qotgan, qarindoshlari yoki mutlaqo begonalar qaramog'ida qolgan, kattalar mehr-muruvvati va oilaviy iliq munosabatlardan mahrum bo'lgan, ruhan ezilgan qahramonlardir. Aynan shu mavzuga qo'l o'rgan va eng mashhur zamonaviy asarlardan birini yaratishga muvaffaq bo'lgan ingliz bolalar yozuvchisi J.K. Roulingning "Garri potter va Afsonaviy tosh" asarida ham bir qator yetim obrazlar tasviri mavjud bo'lib, ular turlicha dunyoqarashi, o'y-xayollari va orzu-umidlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Ushbu maqola asardagi uch yetim obraz, ya'ni Garri Potter, Voldemort va Nevill Longbottomlar shaxsiy rivojlanishida ularning yoshligidagi vaziyat qanday ta'sir qilganini tahlil qiladi.

Bu asar fentezi (inglizcha "fantasy" – fantaziya) – fantastik adabiyot janri bo'lib, janr talablariga ko'ra voqealar biz yashaydigan "real" dunyodan butunlay farq qiladigan sehrlilik dunyoda sodir bo'ladi [2, 18]. Shunday bo'lsa-da, asarda kitobxonning insoniy tuyg'ularni junbushga keltiradigan, qahramonga nisbatan chuqur hamdardlik hissini uyg'ota oladigan tasvirlar talaygina. J.K. Rouling Garri Potterni yozayotganda uning onasi 45 yoshida vafot etadi va muallifning shaxsiy his-tuyg'ulari bevosita uning yozuvlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Onasidan ajralganida Rouling yetim bola deb atalish yoshidan o'tgan bo'lsa-da, unga qattiq ta'sir qilgan bu yo'qotish, boshidan kechirgan og'riq, qorong'ilikka cho'kkan va g'amgin ruhiyati bevosita uning qahramoniga ko'chib o'tdi.

Asar bir yoshli chaqaloq Garri Potterni ota-onasi yovuz sehrgar Voldemort tomonidan o'ldirilishi va uni Xogvars sehrgarlar maktabi direktori Albus Dambldor va uning o'rinbosari Minerva Makgonagal Garrining yagona qarindoshlari Vernon va Petuniya Durslning uyi oldida tashlab ketilishi bilan boshlanadi. Shunday qilib, qahramon bu xonadonda "baxtsiz, ro'shnoliksiz" o'tgan o'n yillik hayotni boshidan kechiradi. Uning hech bir kuni xolasi Putuniya, pochchasi Vernon va o'zi tengi xolavachchasi Dudlining qo'pol munosabati, turtkilashlari hamda dakkilarisiz o'tmas edi. Durslilar sehrgarlarni yomon ko'rganlari uchun unga juda sovuq munosabatda bo'lishadi. Muallif, Dursllar mehmonxonasida osilgan xonadon farzandi Dudlining turli suratlarini tasvirlar ekan, *bu xonadonda yana bir nafar bola yashashidan dalolat beradigan birorta alomat yo'qligini ta'kidlab o'tadi* [5, 25] va bu orqali kitobxon Garriga bo'lgan e'tiborsizlik hamda mehrsizlikni osonlik bilan anglab yetadi. Zinapoya ostidagi tor shkaf bola uchun yotoqxon vazifasini o'tardi. Bu xona tasviri shunday asarda keltiriladi: *"U yerda Garri bilan birga kattagina o'rgimchak oilasi yashaydi. Garri o'rgimchaklarga allaqachon ko'nikkan bo'lib, ulardan qo'rqmaydi."* [5, 26] Tor va fayzsiz bufet ichida yashagani uchun bo'lsa kerak, Garri ozg'in, jussasi yoshiga nisbatan kichik bo'lib o'sdi. Dudlining eski kiyimlarini kiyib katta bo'layotganligi tufayli u boridan battar kichik va ozg'in ko'rinardi. Negaki, Dudlining tanasi Garriga nisbatan to'rt barobar yirik edi. Dursllar yetim Garridan nafratlanishlarini, hatto uni qandaydir jirkanch narsa sifatida ko'rishlarini ochiq-oydin namoyish qilishadi. Go'yoki, bola yonlarida yo'qdek, uning qadr-qimmatini mensimagan holda gapirish ular uchun odatiy hol edi. Sehrgarligini o'zi ham

bilmagan bolakay Garri bilan ba'zida g'ayrioddiy hodisalar sodir bo'lar va buning uchun Dursllar uni qattiq jazolar edi. Garrini tez-tez bufet qamog'iga mahkum qilishar, va u uzoq muddat och holda o'sha yerdan chiqmay o'tirardi. Shunday vaqtlarda u gohi boshqa qarindoshi kelib uni olib ketishini orzu qilsa, gohi vaqtni bilish uchun soati bo'lishini orzu qilardi. Ba'zan esa, birov u uchun jon kuydirayotganini his qilishni juda xohlardi.

Ta'kidlash joizki, Garri asardagi tashlab ketilgan va ota-ona mehridan mosuvo bo'lgan yagona obraz emas. Asardagi salbiy obraz, Garrining ota-onasini o'ldirgan, yovuzlik timsoli Voldemort ham yetimlikda o'sgan edi. [1, 22]

Ularning har ikkalasi ham o'xshash qismatni boshlaridan kechirishgan, ya'ni ikkalasi ham juda yoshligida ota-onasidan ajralib yetim bo'lib qolgan edi. Shunday bo'lsa-da, ularning xarakteri bir-biridan keskin farq qilardi. Odamlardan boshqacha bo'lganligi tufayli bolaligidan haqorat eshitib katta bo'lgan bu qahramonlar vaqti kelib ashaddiy dushmanlarga aylanishadi. Voldemort yolg'iz va baxtsiz o'tgan bolaligi alami ta'sirida sovuqqon qotil bo'lib ulg'ayadi va bor kuchi va g'azabini yovuzlik yo'lida ishlatadi. U ota-onasi tashlab ketganidan keyin bolaligining o'n bir-yilini bolalar uyida o'tkazadi. Mutlaq ijtimoiy yakkalanishda o'tgan hayoti, uning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. *"Grew up in London, at Wool's Orphanage, after his Muggle father abandoned his pregnant witch mother, who died shortly after childbirth. The young Tom Riddle (his given name) was always strange, and seemed to bully other kids at the orphanage despite there never being any real evidence of his actions."*

Voldemortning g'ayritabiiy va shafqatsiz xatti-harakatlari uni hech kim yoqtirmaydigan "begona"ga aylantiradi. Butun umri davomida unga tashlab ketilganlik va keraksizlik tuyg'ulari azob beradi, shu tufayli u hech kimga ishonmaydigan mehirsiz odam bo'lib yetishadi. Sehrgarlar maktabi o'qituvchilaridan biri Voldemortni shunday tasvirlaydi: *"Very few people know that Lord Voldemort was once called Tom Riddle. I taught him myself, fifty years ago, at Hogwarts. He disappeared after leaving the school... traveled far and wide... sank so deeply into the Dark Arts, consorted with the very worst of our kind, underwent so many dangerous, magical transformations, that when he resurfaced as Lord Voldemort, he was barely recognizable.."* [6, 281] Ko'rinib turibdiki, Voldemort yoshligida Xogvarsning eng qobiliyatli o'quvchilaridan bo'lgan, ammo, qora kuchlar bilan birlashib, o'z sehrini yovuz maqsadini amalga oshirish uchun ishlata boshlagan. Undan farqli o'laroq, Garri sehri va kuchini yaxshilikka safarbar qiladi. Qisqa qilib aytganda, bu ikki obraz orqali muallif ezgulikning yovuzlik ustidan hamisha g'alaba qozonishini ko'rsatib berishga harakat qiladi.

Garri Potterning Xogvarsdagi do'stlaridan biri Nevill Longbottom ota-onasiz o'sgan yana bir qahramon bo'lib, Nevill juda hissiyotga beriluvchan va odamovi xarakter edi. Aslida, Nevillning ota-onasi tirik bo'lib, ruhiy kasal bo'lganliklari tufayli unga g'amxo'rlik qila olmaydilar. Shuning uchun ham, u tashlab ketilgan bola sifatida yoritiladi. Nevillning o'tmishi Garri va Voldemortnikidan unchalik farq qilmasdi. U ham e'tibordan chetda qolib o'sgan qarovsiz bola edi va uning

o'ziga bo'lgan ishonchi doimiy ravishda uni tarbiyalagan buvisi tomonidan oyoq osti qilinardi. Ota-onaning kuchli mehri-yu e'tiboridan mahrum o'tgan bu bolalik-yillari Nevillning shaxsiyati shakllanishida katta ta'sirga ega bo'ldi. U o'zining ichki his-tuyg'ularini birov bilan bo'lishmas, qandaydir g'alati qalqon ortiga berkinib olgan edi. Xullas, Rouling himoyachisiz, xo'rlanib o'sgan bir xil taqdirli etim bolalarning turlicha shaxs bo'lib shakllangani, ularning yoshlikdagi kechinmalari ular ruhiyatida qanday chuqur iz qoldirganini mahorat bilan yoritib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Cecilia Friis. Abandoned Children in Literature: The Orphans in J.K. Rowling's Harry Potter and the Philosopher's Stone. Lund University, 2013. – 22 p.
- 2.Fayziyeva A.A. Joan Roulingning “Garri Potter” asarida stilistik o'ziga xoslik. Magisrtlik dissertatsiyasi. – Buxoro, 2014. – 81-b.
- 3.Marion Gymnich, Barbara Puschmann-Nalenz, Gerold Sedlmayr, Dirk Vanderbeke. The Orphan in Fiction and Comics since the 19th Century. Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 30 p.
- 4.Rowling J.K. Harry Potter and the Philosopher's stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. – 309 p.
- 5.Rouling J.K. Garri Potter va Afsonaviy tosh. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”,1997. – 366 b.
- 6.Rowling J.K. Garry Potter and the Chamber of secrets. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. – 291p.

### **MUHAMMAD ALI IJODIDA TARIXIY SHAXS KAMOLOTI**

**Akram UZOQOV,**

*GulDU Rus tili va adabiyoti kafedراسi mudiri*

Adabiy asarlarda tarixiy shaxs obrazining badiiy xarakter darajasida etilishi ijodkorning mahoratidan, iste'dodidan dalolat beradi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, psixologik tahlil ijodkorga asar qahramonining uylari, fikrlari, turli hodisalar va obrazlar ta'sirida ruhiyatidagi kechinmalarini turlicha holatlarda berish, xarakter qirralarini yotqinroq tasvirlash imkoniyatini ham berishi bilan birgalikda uning ham tabiiyligini, ham haqqoniyligini ta'minlaydi. Bundan tashqari tarixiy mavzudagi asarlarning xususiyatlaridan biri shuki, aks ettirilayotgan tarixiy shaxs hayoti va faoliyatiga nisbatan yozuvchining ilmiy-badiiy konsepsiyasi mavjud bo'lishi kerak. Zero, yozuvchida biror qahramonni qay yo'sinda yoritish, ya'ni ijodiy niyat asar yozib boshlanmasdan oldin paydo bo'ladi. Yozuvchi material tanlashda, ularni saralashda, xarakterlarni talqin etishda o'zining bosh ijodiy niyatidan kelib chiqadi.

Iste'dodli shoiri va tarjimon Muhammad Ali Amir Temur shaxsiga, faoliyatiga, hukmdorlik qilgan davriga doimiy qiziqish bilan yondashgan adiblardan biridir. Bu ma'noda adibning «Gumbazdagi nur» poemasi alohida e'tiborga molik.

Muhammad Ali mazkur asarida o'zbek xalqi o'tmishidan to'rt xil o'ziga xos davr voqealarini yoritadi. Shunday yorqin davrlardan biri – Amir Temur hukmronlik qilgan davrdir. Uning ta'kidlashicha, Amir Temur davri – din, adabiyot, madaniyat, me'morchilik eng rivojlangan, gullagan «Gumbazda nur bo'lib yoritib turgan» davrdir. Va bu «gumbazdagi nur» abadiydir, uni na o'zga mafkura, na qandaydir qora kuch yer yuzidan supira oladi. Amir Temur haqida biror og'iz iliq so'z aytish xatarli bo'lgan o'sha sharoitda Muhammad Alining bu poemasi «ochiq osmonda gumbirlagan momaqaldiraqday» bo'ldi.

Endi faxmlashimizcha, bu asar shoirning bu katta va murakkab mavzuda tarixiy polotno ilinjidagi harakatlarining debochasi ekan. Ma'lumki, XIV-XV asrlar o'tmishimizning eng nufuzli, biroq ziddiyatlarga boy davridir, unga baho berishda birgina kitobxon emas, balki tarixchilar ham «uylanib» qolishadi. Chunki bu asarlarda Movarounnahr mug'ullar zulmidan ozod bo'ldi, olamshumul sarbadorlar harakati yuzaga keldi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelib, yirik markazlashgan davlat paydo bo'ldi. «Sarbadorlar» romani Muhammad Alining nasrdagi ilk yirik asaridir. Tarixiy mavzudagi bu asarda yozuvchi ozodlik va tenglikni shior kilib olgan Samarqand sarbadorlarining harakati haqida xikoya kiladi, isyonkor ajdodlarimizning yovkur siymosini ko'z o'ngimizda gavdalantirishga intiladi. «Sarbadorlar» tarixiy voqealarni shunchaki qayd etgan roman emas, balki muallif rang-barang buyoqlar bilan yugirgan o'tmishimizning kichik badiiy polotnosidir.

Asardagi obrazlarning o'y-kechinmalari ham, dard-tashvishlari, taqdir-qismatlari ham tarixiy voqealik haqiqatini anglash imkoniyatini beradi. Shuningdek, kitobxonga usha davrimizda odamlar urtasidagi munosabatlarni nixoyatda murakkab bo'lganligi jonli, ishonarli kilib kursatiladi. Muallif sarbadorlar haqida roman yaratishi uchun xalqimizning uzoq o'tmishida bo'lib o'tgan tarixiy voqealari mohiyatini, xronikasini, xalq hayotini, ijtimoiy, axloqiy tushunchalari, siyosiy va falsafiy qarashlari haqida xabar beruvchi turli ilmiy, badiiy manbalarni sinchkovlik bilan o'rganadi. Tarixiy roman yaratishda bu juda muhim omildir. Bunday asarda ma'lum tarixiy faktlarni, voqealarni ishonarli badiiy manzaralarga, real tarixiy shaxslarni esa jonli badiiy xarakterlarga aylanish jarayoni eng murakkab masaladir.

Asarda tarixiy shaxslar obrazlari: Amir Temur, Amir Husayn, Mavlonzoda, Abu Bakr Kalaviy, Xurdak Buxoriy, Ilyosxo'ja va boshqalar bilan birgalikda yozuvchi xayoli bilan yaratilgan to'qima timsollar tizimini ko'ramiz: Sadr Sulaymon, Xudobanda, Axiy Jabbor, Abumansur, Abumuslim, Shirin bika, Jahon bika va boshqalar.

Asar 4 ta syujet liniyasi bilan rivojlanib boradi. Birinchisi – Abu Bakr Kalaviy boshchiligida sarbadorlarning milliy ozodlik kurashini tasvirlovchi liniya. Ikkinchisi – Amir Temur bilan bogliq voqealar, uchinchisi – Mavlonzoda va Shirin bika o'rtalaridagi ishqiy munosabatlarni hikoya qiluvchi liniya. To'rtinchisi – shahar hokimi Ahr Sulaymon, uning xotini Xonlik og'a, saqlab olgan ug'li Xudobandilarning murakkab taqdirini tasvirlab beruvchi liniyalardan iborat.

Avval aytib o'tganimizdek, shior o'zining "Temur va Hofiz" she'ri, "Gumbazdagi nur" poemasida Amir Temur shaxsiyatiga xolis bahor berib, haqiqat ko'zi bilan qarashga harakat qilganligi taxsinga sazovordir.

"Sarbadorlar" romanida esa Amir Temurni ba'zan ijobiy xislatlari bilan birga, uning sarbadorlar harakatiga bo'lgan munosabatini ko'rishimiz mumkin.

Amir Temurning isyonkor xalq namoyandalari – sarbadorlarga munosabati alohida diqqatga sazovordir. Bu munosabat tarixiy sirlarga juda boy. Haligacha Amir Temurning sarbadorlarga nisbatan xayrixoh ekanligi aniq dalillar bilan isbotlangani yo'q. Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi davr ijodkorlari bu masalaga ma'lum e'tiborini qaratib, uning chigalliklarini oydinlashtirishga muayyan hissa qo'shmoqdalar.

Muhammad Alining "Sarbadorlar" romanidagi bu masalaning badiiy talqini haqiqatni anglashga yordam beradi. Rus tarixchilari orasida sarbadorlar bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar haqida "Amir Temur sarbadorlarni yengib taxtni egalladi" va shu kabi taxminiy ba'zida notugri fikrlar yuradi.

O'tmishdan ma'lumki, 1366-yil Samarqandda sarbadorlar harakati, qolaversa, mug'ullar istibdodidan ozod bo'lish bilan bog'liq tarixiy voqealari bo'lib o'tgan va oradan 4-yil o'tgach Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan. Bu haqida yetarlicha tarixiy dalillar mavjud. Lekin bu dalillar turlicha talqin etilgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, sovet tuzumi davrida ijodkorlarimiz o'tmishimizni tasvirlamoqchi bo'lsalar, albatta, uni qoralab yoki soxtalashtirib yozishlari kerak edi. O'tmishimiz haqida ijobiy fikr bildirish yozuvchi o'z boshini garovga qo'yish bilan barobar edi. Sovet tuzumi paytida juda ko'p aziyat chekkan, xo'rlangan kishilar bu – adabiyot ahli, umumiy kilib aytganda ziyolilar edi.

M.Shayxzodaning "Mirzo Ulugbek" tragediyasiga yana bir bor nazar tashlasak, ana shunday holatga duch kelamiz. Bu holat Ulugbekni maxbus Piri Zindoniy – temirchi Xasan bilan bo'lgan suhbatida bayon etiladi.

- Ammo Amir Sohibqiron jahongir  
Qal'alarni qaqshatguchisi, qo'rqmas sarkarda.  
Ochiq jangda bas kelolmay sarbadorlarga  
Koni – Gilga chaqirtirib nayranglik qilib,  
Boshliqlarni so'ydirgan yo ostirgan dorga.

Shunga o'xshash fikrlarni Muhammad Ali tarixiy manbalarga mantiqan asoslangan holda to'liq rad etadi.

Chunki Amir Temur va sarbadorlar hech qachon ochiq maydonda to'qnashmaganlar, ya'ni Temur ham, sarbadorlar ham bir zamin farzandlari edi. Ularning dushmani bitta – mug'ullar edi. Sarbadorlar mard kishilar edilar, Amir Temur esa doimo mard, jasoratli kishilarni hurmat qilar, ularni o'z tomoniga og'dirib, yurt tuzishda ulardan foydalanishga intilgan edi.

Muhammad Alining asarida xuddi shunday konsepsiyani ko'ramiz. Uzoqni ko'zlagan, siyosiy va harbiy rejalar tuzgan, hamma vaqt aql ko'zi bilan ko'rgan Amir Temur sarbadorlar harakatiga beparvo qaramaydi. Aksincha, bu harakatga rivoj bermoq niyatida sarbadorlarga xayrixohlik bildiradi. Muallif bu xayrixohlikni Amir Temur va Mavlonzoda suhbatlari orqali yoritib beradi: "Ko'nglim



sarbadorlar tarafindadir. O‘z vaqtida bu oq so‘zimni barchaga yetkuzingiz. Ammo o‘zlari bilsin, o‘zganing bilishi shart emas”.

Amir Temur va sarbadorlar xalqning turli toifalariga mansub bo‘lganligi uchun yozuvchi ularni yaxlit bir kuch sifatida tasvirlamaydi. Lekin toifalari turli deb ajratib ham qo‘ymaydi, balki tarix sahnasidagi faoliyatlarini bir-biriga bog‘laydi.

Romanda Amir Temurning hayotini oxirgi yillarigacha emas, ma‘lum bir davri, ya‘ni 1366-yil tarixiy voqealari jarayonidagi hayoti tasvirlanadi. U asarda 30 yoshlar atrofida, xali taxtga chiqmagan, mamlakatdagi feodal tarqoqlik va o‘zaro urushlarni, mug‘ullar zulmidan xo‘rlangan xalqni axvolini ko‘rib, Amir Husaynni yurt boshqarishdagi ko‘p ishlarini kuzatib, norozi bo‘lib yurgan amir sifatida yoritilgan “Tole ham ko‘zi ko‘r ekan. Bo‘lmasa, saltanat tizginini, shuningdek, dag‘alu-besavod amir iligiga tutkazadurmu? Uning turonzamin xalqlari orasida na obro‘-e‘tibori bordir, na shiddatiyu himmati».

Asarda tasvirlangan tarixiy shaxslar orasida Amir Husayn va Amir Temur o‘z xususiyatlariga ko‘ra ikki xil dunyodir. Birining murodi toj-taxt, shon-shuhrat, behisob boylik, aysh-ishratga yerishish va bu shaxsiy manfaati yo‘lida atrofidagi ko‘makdoshlarini ham unutadigan ishonchsiz kimsa bo‘lsa, ikkinchisi yurtni ozodligini, tinchligi haqida jon kuyduradigan, xatolarini kechira oladigan, mard, qat‘iyatli, atrofidagilarning hurmat-e‘tiboriga, ishonchiga sazovor bo‘lgan amir sifatida kitobxon ko‘z oldida gavdalanadi.

Ma‘lumki, Amir Temur timsolini aks ettirishga urinishlar ko‘p bo‘lgan. “Sarbadorlar” romanida yangilik shuki, yozuvchi imkon darajasida buyuk siymo shaxsini, xususan, yosh yigit ichki kechinmalari va harakatlarini tarixiy haqiqat darajasida aks ettirishga intiladi. Bunga asarda tasvirlangan kuppina lavxalarda Sohibqiron hayotini yaxshi o‘rgangan kitobxon shohid bo‘lishi mumkin. Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, roman faqat tarixiy ma‘lumotlar qaydidangina iborat emas. Unda o‘z qiyofasi va taqdiriga ega bo‘lgan o‘nlab kishilar hayoti mohirona aks ettirilgan. Kitobda o‘sha qadim o‘tmishdagi Samarqandning suronli muhitining nafasi ufurib turadi. Masalan, Samarqand sarbadorlarining raxnamosi Abu Bakr Kalaviy va uning oilasi bilan bogliq tafsilotlar, Mavlonzoda va Jahon bika o‘rtasidagi ishqiy munosabatlar, munis Korasach bikaning fidoyiligi, Jahonning sho‘x-shaddodligi o‘sha davr kishilarining qiyofasini ko‘z oldimizda yotqin aks ettirsa, kuch bilan qiz qalbini zabt etish mumkin deb o‘ylaydigan Abumansurning dag‘alligi, ishqini yuragida pinhon saqlab, sevgilisining oshig‘iga ham marhamatlar ko‘rsatgan Axiy Jabborning bahodirligi kishini beparvo qoldirmaydi. Muhammad Ali ishtiyoq bilan tariximizning muhim bir voqeligini badiiy aks ettirgan. Unga sarflangan mehnatni, hech bo‘lmaganda asarda keltirilgan yuzlab kishi nomlari, hikoyatu-rivoyatlar, shaharlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni sanab o‘tib ham tasavvur hosil qilsa ham bo‘ladi.

Muhammad Alining Sohibqiron obrazini yaratish bo‘lgan intilishlari yurtimiz istiqlolga erishgandan keyin yanada sermahsul bo‘ldi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning “Ulug‘ saltanat” nomli yirik epik asari mustaqillik bergan imkoiyatlar, qolaversa ichki intilishlar va kuzatishlari hamda ayni xalqimizning

shunday asarga ehtiyoj sezayotgan payti yuzaga keldi. Chunki buyuk vatandoshimizning hayoti va faoliyatini o'rganish, uni yangicha tafakkur va qarashlari asosida badiiy ifoda etish davr talabi edi.

Amir Temur taxlikali bir davrda yashab, har tomonlama parokanda yurtni birlashtirib, qudratli mamlakatga asos solgan edi. U zot mamlakat ravnaqi va xavfsizligi ta'minlash bilan birga tarix g'ildiragi harakatini o'zgartirgan, taraqqiyot sari yo'naltirgan shaxs edi. Uning bunyodkorlik, fidoiylilik, vatanga muhabbat, do'st sadoqat, dushmanga nafrat, so'zga sobitlik, oilaga mehr, ilmga qayishish kabi sifatleri shubhasiz badiiy tadqiqqa munosibdir. Sohibqironning mazkur sifatlarini adolat yuzasidan, qolaversa, milliy manfaatlar nuqtai nazaridan aks ettirish milliy adabiyotimiz oldidagi dolzarb vazifa edi. Muhammad Ali uzoq izlanishlar hosilasi o'laroq Amir Temur va u mansub bo'lgan, tarix maydoniga olib chiqqan xalq, Vatan to'g'risidagi tasavvurlarimizni kengaytira oladigan, milliy tuyg'uni yanada teranlashtirishga xizmat qiladigan asar yaratdi.

“Mening maqsadim, - deb yozadi adib, - Amir Temur davri haqida yirik badiiy polotno- to'rt kitoblar iborat roman yozish. Qiziq muqoyasa bor. Inson umri, shuningdek, yil to'rt faslga bo'linadi. Sohibqironning to'rt o'g'li bor. Uning haqidagi roman ham to'rt kitobni ichiga olishi kerak, deb hisobladim. Bu asarlarda imkonim darajasida tengsiz jahongir bobomizning buyuk inson sifatidagi – ham yuksak parvozlari, ham inqirozlarini ko'rsatishni niyat qilganman”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayxzoda. Tanlangan asarlar. – T: O'qituvchi. 1974.
2. Sattorov M., Kattabekov O. Yulduzlar jilosi. – T: O'qituvchi. 1984.
3. N. Rahimjonov. Tafakkur-tarix mezon. // Sharq yulduzi. 1992. №11
4. Vatan osmonida porlagan yulduz. (davra suhbat) // “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” №7. 1995.
5. M. Safarov. Sahibqiron qissasi. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. №11. 1994.

## **BADIIY MATNDA XALQ TILINING O'RNI**

**Shohista XUDOYQULOVA,**  
*GulDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi*

O'zbek tilshunosligining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri barcha lahjalarni sinchiklab o'rganib chiqish va ulardagi ko'plab unutilgan so'zlarni to'plash, ularni adabiy til xazinasiga olib kirishdan iboratdir. Milliy qadriyatlarimiz, madaniy meros de- yilganda o'zbek badiiy adabiyoti asarlari ham tushuniladi. Shu boisdan milliy tariximiz, an'analарimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz o'z aksini topgan ko'pgina asarlarimiz mustaqilligimiz sharofati bilan o'zining haqqoniy talqiniga ega bo'lib, xalqimizning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lmoqda. Bu biz uchun mustaqillik bergan ne'matlardan biridir. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning “O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi” degan gaplariga amal qilib, yosh avlodning

ma'naviy dunyosini kengaytirish, ularning o'zligini chuqur anglash ushbu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kun tartibida turgan bir paytda Abdulla Qodiriy kabi yozuvchining asarlarini har tamonlama tadqiq etish g'oyatda muhimdir.

Abdulla Qodiriy ulkan so'z san'atkori va ustasi, xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o'z asarlariga singdirgan buyuk allomadir. Uning har bir asarida xalqchilik, o'zbek tilining nozik jihatlari o'z aksini topgan. Shu jumladan "Mehrobdan chayon" romanida ham xalqona so'zlarning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Adibning qaysi asarini o'qimang har satri va har varag'ida shevaga xos so'zlarga duch kelamiz.

Yozuvchining mahorati shundaki, yirik asarlarida asosiy qahramonlar – Otabek, Kumushbibi, Anvar, Ra'no turli joylardan bo'lib, ikki shevaning vakillaridir. Bulardan tashqari saroy xizmatkorlari, saroy atrofidagi kishilar ham turli shevaga mansub kishilardir. Asarni o'qigan kitobxon o'zini shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib qahramonlar orasida o'zini his etadi: - *Sen bilan men bo'lsak, qattiq nonni ham eya beramiz; jazzasi*(chorasi demoqchi) *choyga bo'ktirishda*. ("Mehrobdan chayon".78-bet) – *Dehqon Mahdumning hurmatiga o'rnidan turib, qo'l qovushtiradi: - O'n uch tanob yerimiz bor edi, taqsir. Chamasi yong'ish bo'g'onda*(yanglish, xato bo'lgan demoqchi), *o'ttiz uch tanobga haq sog'onlar(solganlar). Men shunga arza* (ariza demoqchi) *yo'zdirayma, ...deb*(-mi affiksi ko'p o'rinlarda –ma shaklida qo'llangan va bu bilan o'sha davr xalq jonli tilini ifodalagan). ("Mehrobdan chayon".128-bet)

"Yangi Mirzo malaka hosil qilguncha vazifa emas ekan (128-bet) Anvar Ra'noga qarab:

- O'ltur, - Ra'no.

- Tug'ulg'ondan so'ng o'sish, o'sgandan so'ng ikkov-ikkov bo'lib yashash bor.(114-bet)

Anvar tomonidan aytilgan ancha silliq va sayqallashgan bu so'zlarda mirzolik tufayli saroy adabiy muhitining ta'sirida ekanligi ko'rinadi. Xudoyorxon saroyi tili Qo'qon-Marg'ilon shevalari asosida qurilgan.

-Men zeriktirmayman... Qanday **osh** (ovqat demoqchi) qilay?

-Qaysi xilini buyursam ekan? – deb o'z-o'ziga savol berdi, Anvar. – **Ubraga** uquving yo'q, palovni lanj qilasan, **samsani** yopolmaysan, **tuppanti** kesalmaysan, senga qayla buyurg'andan, atala qil degan yaxshi.

-Men uquvsiz bo'lsam, o'zingiz **osh** qiling.(202-bet)

Asardagi **o'xshaldi**(135), **eshshak**(134) **umur**(135), **sarjaz**(135), **chimxo'r**(135), **to'ppi**(163) kabilar shahar shevalariga xos so'zlardir. Bulardan tashqari so'z tarkibida undoshning (qo'sh undoshni) qo'llash orqali emotsionallik va ekspressivlikni kuchaytirgan:

-**Turpoqqa ag'nadingmi, eshshak! Attang-a, essiz kiyim. Hoy, bachcha taloq** kabilar.

Asarda vodiya xos forscha-tojikcha, arabcha o'zlashmalar o'zni bilan ishlatilgan, bu o'z navbatida asarning jozibadorligini oshirgan: -O'zi yaxshi mulla

bo‘lgan ko‘rinadi, **zakki tab’ yigit** (137-138) – Ana xolos! **Az karnaychi yak puf!** (139-bet).

Yozuvchining yana bir mahorati shahar shevalariga xos so‘zlarni asar qahramonlari nutqiga go‘yatda ustalik bilan qo‘llaydiki, bu bilan ham salbiy, ham ijobiy xislatlarni yorqin ochish mahorati namoyish etiladi. Mehmonxona dahlizida qo‘lida **choydish** (choyduvush) ko‘targan Ra’no ko‘rindi...(22-bet) Anvar o‘rnidan turib **dahlizga** chiqdi, qo‘lida **obdasta, dastsho‘** ko‘tarib Ra’noni yonig‘a keldi. (222-bet) Anvar **qoziqdan** sochiq keltirib berdi(222-bet). Ra’no ko‘zini tizzasiga tikib, qo‘li bilan **sholcha** ipini chirmab o‘ltirar edi(223-bet). Chunki xotin Ra’noni ko‘rib qolgan, shuning uchun **bo‘g‘oz** xotin bilan chiqib ko‘rishishi Ra’noga lozim **bo‘lg‘an** edi(228-bet). To‘rdagi **toqchadan** ustiga ko‘k sir berilgan bir **davotni** olib qaradi(227-bet).Chamasi ular oshiq-ma’shuq, baloxo‘r xon loaqal shunga **cho‘vagini** tiqmasa nima qilar edi(230-bet).**Tunqotar** emish yonig‘a keldi.-Siz shundamisiz, **yanga?**(Siz shu yerdamisiz kelinoyi demoqchi). **Bo‘g‘an** gap shu aylanay! Safar **tanchadagi** yuzini yashirg‘ichig‘a qaramasliqqa tirishib daromadi ayvondan bo‘lg‘an hujra eshigiga chiqdi(265-bet). Ayvonning to‘r toqchasida qora **charog‘** sasib yonadir(255-bet). Sandal ustig‘a **qora charog‘** qo‘yib, oldig‘a kitob yozg‘an Anvar Safar bo‘zchining **istiqbolig‘a** qo‘zg‘aldi(256-bet). –**Jazzasi choponni** olib tashlashda, mirzam,- dedi Safar **choponini eshib**(257-bet). **Qoziqda** osilg‘an **choponini** keltirib, Safarning **yaktakchan** yelkasiga yopti(257-bet).- Toza **yaxtak** kiymagan edim, buningiz menga uvol-da, uka,- deb **siqilinquiradi**(257-bet) Siz shu yigitni bu yerga olib kelasiz, o‘zi **manim og‘am** bo‘ladir, xo‘bmi?(262-bet).

O‘zbek tili turkiy tillar ichida ko‘p shevali til bo‘lib, bu shevalar tabiiy, adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon”ni yozishda tarixiy shakllar bilan bir qatorda xalq tili, xususan Qo‘qon guruh shevalaridan ham ma’lum maqsad uchun o‘rinli foydalangan. Xususan, “Mehrobdan chayon” Qo‘qon xonligi haqidaligiga e’tiborni qaratsak, bu holning tabiiyligiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan quyidagi matnda bu hol juda ochiq ko‘zga tashlanadi:

- Hissiyotg‘a qattiq berilibsan, Ra’no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa **ayamga** ham ishonib bo‘lmas.
- ParANJI ichida borgan Ra’noni tanish uchun hech kimda karomat yo‘q, **ayamga** nega ishonib bo‘lmasin?

Qo‘qon shevasida tovushlar til oldi va til orqalikda farqlanib, so‘z o‘zagi tabiatiga qarab qo‘shimchalarning ham shunga monandi qo‘shiladi va bu badiiy asar tiliga joziba bag‘ishlaydi.

Badiiy asarda personaj nutqi bilan aloqador bo‘lgan bu o‘rinda ishora tarzida berilgan bunday izohning o‘ziyoq tilga o‘ta mas’uliyat bilan yondoshgan yozuvchining tilimiz tabiatini naqadar nozik his etganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xullas, ulkan so‘z san’atkori Abdulla Qodiriy xalq tilining imkoniyati cheksizligini namoyon etadi. Ularda voqelikning xarakterli nuqtalarini mujassamlashtirib, ifoda mantiqini kuchaytiradi, tasvirga aniqlik va ixchamlik baxsh etadi. O‘zbek tili badiiy uslubining rivojini, unda adabiy til, badiiy til hamda

xalq tili lisoniy imkoniyatlarining tutgan o‘rnini asar matnida o‘zbek tilining turli lug‘aviy qatlamlari, grammatik vositalari, uslubiy tovlanishlari qanchalik ishga solinishini hisobga olmasdan turib adibning badiiy mahoratini belgilash mumkin bo‘lmaydi. Abdulla Qodiriy katta so‘z san’atkori va ustasi, xalq jonli tilini mukammal bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o‘z asarlarida qo‘llagan buyuk adibdir. Uning har bir romanida xalqchilik, o‘zbek tilining nozik jilvalari o‘z aksini topgan. Shu jumladan “Mehrobdan chayon” romanida ham xalqona so‘zlarning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – T., 1992.
2. Enazarov T. va boshqalar. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent. Universitet. 2014.
3. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. A. Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti. – Toshkent. 2004.
5. To‘ychiboyev B., Qozoqboy Qashqirli. – Toshkent. Zominning til qomusi. 2012.

### **BADIIY-ESTETIK TAFAKKUR TALQINI**

**Dilnoza TO‘RAYEVA,**

*GulDU, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Bugungi kun adabiyoti oddiylikdan murakkablik, bir xillikdan turfalik sari odimlayotgan bir davrda yozuvchi Asad Dilmurodning “Zarradagi olam” romani o‘zbek nasri taraqqiyoti rivojida o‘ziga xos o‘rin topa oldi. “Shuni aytish kerakki, istiqloq davri adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinida, matn zamirida. Bu adabiyotning asl namunalari osongina o‘qilib ketilaveradigan asarlar sirasiga kirmaydi. Bu asarlar o‘quvchidan muayyan hozirlikni, intellektual ruhiy zo‘riqishni talab etadi. Olamga, odamga boshqacharoq nigoh tashlashni taqozo qiladi” [3; 112].

Romanga Alisher Navoyining “Nasoyim ul muhabbat” romanidan parcha epigraf qilib olingan. Asarning butun mohiyati mana shu parcha asosida jam bo‘la olganligi yozuvchi mahoratiga ishoradir. Bosh qahramon Avaz ko‘ngil kechinmalari asar boshidan oxiriga qadar bir linyada boshqa obrazlarni o‘z atrofiga birlashtiradi. Unda Farishta Nihon, Zarang daroz, Halil purcha, Musa, Lobar, Zilola, Shafolat pari kabi obrazlar bir-birini takrorlamas ko‘ngil kechinmalari orqali namoyon bo‘ladi. Bulardan tashqari asarda qush, ilon, shamol kabi majoziy timsollar ham obraz darajasiga ko‘tariladi. Ular orqali mohiyat yanada yorqinroq aks ettiriladi. Tasavvuf ta’limotidan yaxshi xabardor yozuvchi, ko‘ngilni poklash, ezgulik sari talpinish, haqiqat yo‘lini tanlash, butun salbiy hislatlarni o‘zidan mosuvo qilishdek g‘oyani ilgari surgan bu asarida Avazni ramziy ma’noda Shifo daryosi tomon talpinishidan uning ilmi-hol odami ekanini, ya’ni poklik, ezgulik sari Olloh vasliga yetishishga urinishini aks ettiradi. Asarni tahlil qilar ekanimiz, adib ijodiy uslubini ham e’tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor. “Asad Dilmurod ijodida olam va odamga doir holatlar tasvirida reallik hayolot bilan,

aqlga muvofiqlik irotsianallik bilan, sabab-oqibat izchilligi mistika bilan yonmayon kelaveradi. Bu o‘qirmanlar tafakkur ufqini kengaytirib, ruhiy olamini ingichkalashtirishga xizmat qiladi” [4;22.09].

Adib xayoliy kechinmalarini majoziy usulda aks ettiradi, bu holat asar badiiyatini yanada oshishida muhim rol o‘ynaydi. Qurama cho‘li, Shifo daryosi, Ayrigum jari bu joy nomlarining barchasi o‘ziga xos majoziy ma’no kasb etib, ularning har biriga asarning o‘zida batafsil ma’lumot berib o‘tiladi. Masalan, Shifo daryosi asarda Haq timsoli sifatida tasvirlanadi. Avazning Shifo daryosiga talpinishi, unga yetishish orzusidagi mislsiz chekkan zahmatlari, uning ko‘nglini poklanishidan dalolatdir. Shu bilan birga u Zilolaga yetishish orzusida ham intiladi. Ikki ishqning Avaz ko‘nglida in qurishi undagi dadillikni yanada oshiradi. Shu o‘rinda Avazga ruhiy ko‘makdosh Nihon obrazining yaratilishi Avaz harakteridagi butunlikni hosil qiladi.

Bu obrazlar birgalikda asar so‘nggiga qadar biri ikkinchisini to‘ldirib boradi. Yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi azaliy ziddiyatlar asarda jo‘n hayotiy voqealar asosiga emas, balki, noan’anaviy yo‘sindagi voqealar silsilasiga singdirib yuboriladi. Yovuzlik timsoli Halil purcha hatti-harakatlari asardagi xarakterlararo konfliktni yuzaga keltiradi. Uni Avazning ishqiga chang solishi yovuz ishlarni har qadamda o‘ziga yuqtirishi, umri davomida o‘ziga hamroh bilib qo‘ynida saqlagan Qizil bosh tomonidan daf qilinishida ham o‘ziga hos ramziylik bor. Halil purcha boshiga yetgan Qizilbosh – yovuzlik yo‘lida o‘zidan yaralgan qurol sifatida o‘ziga hos majoziylik kasb etadi.

O‘n to‘qqiz sayrdan iborat ushbu romandagi e‘tiborli jihatlardan biri yana shundaki, adibning so‘z qo‘llash mahoratidir. Garchi ba’zi jumlar biri ikkinchisiga qo‘shilib ancha murakkablikni tashkil etgan bo‘lsada, asarda ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan falsafiy fikrlar aks ettirilgan o‘rinlar juda ko‘p. Ularni o‘qigan kitobxon bunday murakkab gap qurilishi asosiga singdirilgan ma’noli fikrlarni o‘z o‘rnida topib aytganligini anglaydi. Zero, butun borliq, hayot va insonni ziyrak nigoh bilan keng miqyosda kuzatish, hissiy tafakkur orqali badiiy-falsafiy tahlil chig‘irig‘idan o‘tkazish bugungi adabiyotimiz qiyofasini belgilovchi yetakchi xususiyatdir.

Asad Dilmurod uslubini shakllantirib ulgurgan, so‘z mag‘zini chuqur tuyadigan, hodisalar silsilasida odamlarni ko‘radigan hamda badiiy haqiqatni hayotiy haqiqatdan ustun qo‘yadigan ijodkor edi. Yozganlari amaldagi odatiy tasavvurlar mezoniga to‘g‘ri kelmaydi, aniqrog‘i, ro‘yo va reallik, xayolot va hayot badiiyat pardasi ostida aralash tasvirlangani bois ular o‘quvchidan alohida adabiy tayyorgarlik talab qiladi. “Roman yozilayotgan raytda muallif nazarda tutgan kitobxon tragiklik va satirik moduslarga diqqat qaratishi, ya’ni muallif-ob’ekt-adresat uchligi (onglar uchrashuvi) ta’minlanishi orqali roman badiiyati anglashiladi” [2; 236]. Yozuvchining taniqli adabiyotshunos olim Ahmad Otaboev bilan qilgan suhbatida [1; 17.02] ta’kidlagani kabi, aqliy tafakkurni jilovlab, ko‘proq hissiy tafakkurga suyanadi-da, ob’ektiv voqelikning real tasviridan chetlashib, tasavvurida shunday voqelikning badiiy loyhasini yaratadi. Oxir-oqibat

matnda real voqealar emas, ko'nglida qatlanib yotgan xayoliy tug'yonlar majoziy yo'sinda ifodalanadi.

Asad Dilmurod asrlar osha milliy adabiyotimizga salmoqli ozuqa berib kelgan tasavvuf ta'limoti, majoziylik, mifologiya va istioraning badiiy-estetik omillaridan unumli foydalanadi va natijada shu omillar har bir asarida chuqur iz qoldirgani, jumladan, "Zarradagi olam" romaniga jozibali romantik ruh, betakror badiiy shakl va mazmun bag'ishlagani yaqqol ko'zga tashlanadi. Real va noreal voqelikka yangicha munosabat, yo'qlikni bor deb bilish, ko'z ilg'amas, sezimlar sezmas narsalardan boxabar bo'lish, ko'ngilga butun olamni joylash – zarraga olamni sig'dirish jarayonini kechirishdek murakkab estetik holat "Zarradagi olam" mazmuni va mohiyatini ichkaridan nurlantirib turadi. Asarning jurnal variantiga Yozuvchilar uyushmasi nasr kengashi tomonidan yozilgan so'zbo'shida voqeahodisalar ramziylashgani, tasvir turli ibratli rivoyat, masal va timsollar bilan to'yintirilgani uchun roman badiiyati takomillashib, ma'naviy-ma'rifiy mohiyat kasb etgani hamda ta'sirchan dramatism namoyon qilgani ta'kidlanadi. Roman badiiy-estetik xususiyatlari miqyosini dalillovchi mazkur mulohazalar Zilola nafs va aldov, Shafolat pari nafs va zo'ravonlik, Lobar nafs va xiyonat qurboni bo'lganini yaqqol isbotlaydi. Ma'nau bir-birini to'ldiradigan bu obrazlar asar dinamikasini jonlantirish, psixologik va dramatik taranglikni kuchaytirishga ko'maklashadi. Hayotiy tasodif va zarurat asosida ular qismatida ro'y bergan og'ir ma'naviy fojialar Avaz, Zarang daroz va Musabek xarakterlari izchil shakllanishi, ruhiy dunyolari keng ochilishida muhim o'rin tutadi. Yetakchi obrazlar bilan yordamchi ramziy obrazlar o'zaro uyg'unlik va hamkorlikda harakatlanishi roman arxitektonik yaxlitligini ta'minlash, xususan, matn poetik ritmini ibtidodan intihoga qadar bir maromda saqlash vositasiga aylangani tahsinga loyiqdir. Avaz, Zarang daroz, Xalil purcha, Majid gushna va sheriklari bilan Nihon, chipor ilon, qizil boshli ilon, yetti qiyg'iy o'rtasida kechadigan psixologik jarayonlar tasviri adib uslubining yangi qirralarini namoyon qiladi. Mavridida qo'llanilgan nozik ishoralar ezgulik va yovuzlik, adolat va jaholat, olijanoblik va tubanlik, sadoqat va xiyonat, saxovat va qurumsoqlik mohiyati haqida keng ko'lamda chuqur o'ylash va tegishli xulosalar yasashga chorlaydi. Farishta Nihon o'gitlaridan ozuqlanib ruhlanadigan Nihon Zarang daroz va Xalil purchaning jonlari turqi sovuq gazandalar tanalarida pinhon ekanini bilgandan keyin esankirab qoladi. Umr bo'yi cho'ldan o'tin tashib sotgan va shu hisobdan arang qorin to'yg'azgan Zarang daroz qirqyamoq choponi qatlarida behisob zaru zevar berkitib yurgani – umr bo'yi o'zini o'zi aldagani, qadru qimmatini va izzatini mensimagani va nihoyat chegarasiz qiynoqlar evaziga misqollab to'plagan boyligi qo'lini sovuq suvga ham urmaydigan Xalil purcha tasarrufiga o'tib ketganiga guvoh bo'lgach, inson shaxsiyati, fe'lu atvori va dili hayotning o'zi kabi g'oyat murakkab, tushuniksiz va chigal ekaniga imon o'giradi.

Muhimi shundaki, roman tasavvufiy hikmatlarga yo'g'rilgan, mag'zi to'q falsafiy qarashlar va ma'rifiy maslamlarni jamlagan badiiy jihatdan puxta mifologik lavhalar majmuiga o'xshaydi. Ibratli estetik ma'no tashiydigan bir qancha ixcham tamsiliy rivoyat va masallar ular mazmuniga mazmun qo'shadi va natijada roman

badiiy bo‘yog‘i quyuqlashib, drammatizmida ayriqcha inqilob kechadi. Hayot timsoli sanalgan Qurama cho‘lida tug‘iladigan ajib asotirlar aslida mohiyatan Avaz shuuri, ruhiyati va ko‘nglidan sizib chiqayotgandek tuyuladi. Abadiyat tog‘ini cho‘qilab qulatish uchun qasdlangan qora quzg‘unlar, keksalik changaliga tushib iztirob chekayotgan burgut, laylaklar podshosi bilan do‘stlashgan chol, sariq chayonga yaxshilik sog‘inib, bemavrid ajal topgan ulkan toshbaqa, xarobazor talashib yashaydigan boyqushlar, jaholat va hasad yashini zarbidan beli singan eman daraxti va bir qancha boshqa ramziy obrazlar taqdiri haqidagi cho‘pchaklar o‘quvchini roman estetik qatlamlari va yetakchi qahramonlar ruhiy dunyosiga olib kiruvchi timsollar bo‘lgani uchun qimmatlidir.

Xulosa shuki, tasavvuf ta’limoti, majoziylik, istiora va mifologiya unsurlari, ilg‘or adabiy oqimlar va tajriba maktablari yutuqlaridan to‘yinib, betakror badiiy-estetik xususiyatlar namoyon aylagan ko‘p qatlamli “Zarradagi olam” romani bugungi milliy nasrimizda ham, adib ijodida ham munosib bo‘y ko‘rsatib turibdi. Roman badiiy-estetik tafakkurni yanada kengaytirish, olam va odam mohiyatini zamon talablari asosida yangicha tuyish va anglash, badiiy mahoratni yanada oshirishga intilish ko‘nikmasini paydo qilishda samarali ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Majoziylik va hissiy tafakkur. O‘zAS, 2017-yil , 17-fevral
2. Yoqubov Islomjon. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Monografiya. – T., Nurafshon business. 2021. 236-b.
3. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Istiqlol adabiyoti. //O‘zbekiston ovozi. 1-yanvar.1996-yil.
4. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Xayolot va hayot manzaralari.//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 22 sentabr, 2017.

### **“MA’NAVIYAT” SEMANTIK MAYDONINING O‘RGANILISH MUAMMOLARI**

*Nodira MIRHAYDAROVA,  
Guliston davlat universiteti*

*Rus tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi*

“Har qanday tadqiqot bevosita yoki bilvosita yo o‘rganish ob’ektini, yoki undan foydalanishni takomillashtirish bilan shug‘ullanish”ni maqsad qilar ekan, uning vazifasi davr bilan hamnafas bo‘lish, uning so‘nggi talablariga javob berishdan iborat. Hozirgi zamon tilshunosligi oldidagi vazifalar o‘z ibtidoiy tabiatidan butkul yiroq. Bugungi kun tilshunoslari an’anaviy tasnif yoki tahlillardan chekinib, tilning yaxlit sistema ekanligini asoslash hamda ushbu sistema ichidagi struktur munosabatlarni yoritish masalalari bilan band bo‘lmoqlilari lozim. Globallashuv davrida olamning milliy lisoniy tasvirini tipologik tadqiq etish, ushbu tasvir tarkibidagi paradingmalarni aniqlash, maydonlar ichidagi sistem-struktur munosabatlarni tipologik tadqiq qilish har



qachongidan ham muhimroq ijtimoiy vazifa. Zero, tilning semantik paradigmalari aniq belgilab olinmaganligi, muayyan maydon vositalarining ierarxik tartibi ishlab chiqilmaganligi, ideografik xaritasi tuzilmaganligi oqibatida o'zbek tili muloqot vositasi o'laroq qadrsizlanishi muqarrar.

Til – ijtimoiy hodisa, lison – ideal sistema to'la qonuniyatlariga asoslanmagan jonli jarayon ekan, tilshunoslik fani ham an'anaviy eskirgan qoliplardan chiqishi, o'zining konstat xususiyatlaridan voz kechib dinamik tabiat kasb etishi talab etiladi.

“Shaxs ma'naviyati global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Zero, juda ko'p muammolar dialektik nuqtai nazardan oqibat xarakteriga ega bo'lib, ularning aksariyati uchun shaxs ma'naviyati masalasi sabab maqomida”. Shaxs ma'naviyatini tarbiyalashning metod va metodikasini ishlab chiqish esa dastlabki bosqich hisoblanadi. Shaxs tarbiyasida “ma'naviyat” instituti o'rni beqiyosligini teran anglab etgan o'zbek tilshunoslarining mazkur maydon yuzasidan olib bogan ilmiy faoliyati esa ijobiy e'tirofga sazovor.

Shu va shu kabi boshqa qator ilmiy izlanishlar “ma'naviyat” semantik maydonining o'rganilishi uchun zamin tayyoragan bo'lsa-da, ushbu paradigma hanuz izchil tartibga solinmagan. “Ma'naviyat” kategoriyasining semantik jihatdan tipologik tadqiq qilinmaganligi amaliy jahdada qator muammolarga sabab bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, “ma'naviyat” bu summativ ochiq sistema, uning tarkibi muntazam boyib, elementlari o'zgarib yoki yangilanib borishi mumkin. Ularning sistema tarkibidagi o'rni, izohi va tarjimai esa lug'atshunoslardan ushbu maydonni tashkil etuvchi mavjud vositalar lug'aviy ma'nosidagi tafovutlarni ilg'ash, ularning ma'no chegaralarini va leksik qiymatini anglashni talab etadi. Zero, leksik sathning bor sarhalarini o'zida jamlagan lug'at til haqidagi entsiklopedik manba bo'libgina qolmay tahrir va tarjima jarayonida asos bo'lib xizmat qiladi. Nutq me'yorlarini ishlab chiqish va takomillashtirish omili bo'ladi.

Ma'naviy yuksalish ta'limning ustuvor maqsadi o'laroq belgilangan ayni davrda ushbu maydon tarkibidagi vositalar lug'aviy ma'nosiga ko'ra noo'rin qo'llanilish holatlarini ko'ramiz. Jumladan, ommaviy axborot vositalarida, targ'ibot tadbirlarida “ma'naviyat” va “ma'rifat” so'zlarini bir-biriga ma'nodosh, joiz bo'lsa uyqash, ohangdosh juft so'z o'laroq qo'llanayotgani masala mohiyatidan qanchalar yiroq ekanimizni, pirovard maqsad “ma'naviy yuksalish” negizida bo'lgan asos tushunchalar zamiridagi ma'nolarga bee'tibor qolayotganimizni oshkor etadi. Bunday mujmallik, noaniqlik va mavhumlik “ma'naviyat” negizida anglashiladigan tushunchalarning ma'nolari aniq lo'nda ifodalanmaganligi, ushbu so'zlarning semantik ekvivalentlari, ularning privativ oppozitlari belgilanmaganligi bevosita jabhadagi targ'ibot ishlarining samaradorligini shubha ostida qoldiradi. Bunday befarqlik esa o'z navbatida mavjud izohli va tarjima lug'atlarining ontologik qiymatini tushirib yuboradi, badiiy hamda boshqa tur tarjimalarning saviyasi, uslubi, asliyatga moslik, sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, “ma'naviyat” semantik maydoni tarkibining izchil tadqiq etilmaganligi mazkur yo'nalishdagi ta'lim-tarbiyaviy say'-

harakatlarning tizimsiz va besamar bo'lishidan dalolat beradi. Zero, inson tabiati o'zi to'liq anglay olmagan borliq hodisalarini murakkab va ayni paytda keraksiz deya baholashga moyil.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun "ma'naviyat" umumiy semali leksemalarni bir maydon o'laroq tartiblash, ushbu paradigma elementlarini jamlagan ideografik lug'at yaratish ehtiyoji yuzaga keladi. "Agar xususiy tushunchalar o'zidan yuqoriroq umumiy tushunchalar doirasiga kirib, ular, o'z navbatida, yanada umumiyroq tushunchalar ichiga kiradi, deb hisoblansa, hech bo'lmaganda, bunday asosda nazariy jihatdan nutqiy faktlar tasnifini yuzaga keltirish mumkin. Bu tasnif tamoyili (printsipi) qo'llanuvchi lug'atlar ideologik (ideografik) lug'atlar de-yiladi" [4]. Ayni paytda ideografik lug'at o'z maqolalari tarkibida qanday elementlarni jamlashi lozimligi xususida aniq shakllangan tushuncha mavjud. Ya'ni izohli ideografik lug'atda maqolalar:

a) so'zlarning grammatik xarakteristikalarini va ularni kichik kontekstlari haqida ma'lumot;

b) so'zning sinonimlari;

v) alohida ma'nolari;

g) shu so'z turkumidagi bir o'zakli, mazmunan yaqin bo'lgan so'zlar ro'yxati kabi ma'lumotlarni qamrab olishi lozim. Biroq ushbu bandlarga qo'shimcha o'laroq arab yoki fors tillaridan o'zlashgan leksemalarni sof turkiy ekvivalentlarini ham ilova qilish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, inson shuuridagi tushunchalarni uch yirik guruhga bo'lish mumkin. Ular olamning umumiy, milliy va shahsiy lisoniy tasviri vositalariga ajratiladi. "Man'aviyat" umumiy semali leksemalarining sof turkiy muqobillarini berish ushbu maydonda qaysi tushuncha umumiy lisoniy manzara vositasi, qay biri ma'lum bir millat yoki din vakillari tomonidan boshqa halq nutqiga kiritilganini aniqlab beradi. Shu asnodan ideografik lug'at "ma'naviyat" kategoriyasini tashkil etuvchi vositalarni olamning milliy yoki umumiy lisoniy tasviri elementlari o'laroq klassifikatsiya qilish imkoni tug'iladi va ayni shu xususiyatiga ko'ra ideografik lug'atning amaliy ahamiyati ortadi. Albatta, barcha elementlarning sof turkiy muqobillari bo'lmasligi tabiiy. Biroq bu holat lug'at maqolalarining qiymatida assimetriyaga sabab bo'lmaydi. Aksincha, olamning milliy lisoniy tasviri shakllanishiga doir muhim xronologik ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. "Ma'naviyat" kategoriyasining tarkibiy elementlarini jamlagan ideografik lug'at maqolalari quyidagi model asosida tuzilishi kerak: leksik birlik, grammatik ko'rsatkich va shakllar, etimologik ma'lumot, sof turkiy etimologiyaga ega variantdosh leksema (mavjud bo'lsa), asosiy lug'aviy ma'no izohi, asosiy lug'aviy ma'no va kichik kontekstual ma'nolarni aks ettiruvchi daliliy misollar, sinonimlar va antonimlar.

Tan olish kerakki, ayni damda tarbiyaviy targ'ibot masalasiga har qachongidan ko'ra kuchliroq urg'u berilayotgan bo'lsa ham, "ma'naviyat" tushunchasi ko'pchilik shuurida allaqanday oliy sifatlarni o'zida jamlagan mavhum tushuncha o'laroq o'rnashib qolgan. Ushbu oliy "nasab" aksariyat hollarda erishib bo'lmas, real hayotda dolzarb bo'lmagan ideal deya ko'zdan kechiriladi. Mavzu doirasidagi barcha targ'ibot manbalarida kategoriyaning elementlari tartibsiz,

ko‘pincha lug‘aviy ma‘nosi noo‘rin bo‘lgan kontekstlarda qo‘llaniladi. Komil inson sifatlarini bir-biridan ajrata olmaslik, istilohlarni uyadosh so‘zlar misoli bir turga oid degan munosabat bilan nutqda pala-partish qo‘llash beixtiyor “Lison-ut-tayr”dagi “Ko‘rlar va fil” hikoyatini eslatadi.

Ma‘naviyat nimaligi haqida zarra tasavvurga ega bo‘lmagan murg‘ak ong unga singdirilayotgan tushunchalarni bir butun shamoilga joylay olmasa, ularning tuzilishi va tizimini tushunmasa, alalxusus, tarbiya markazida bo‘lgan “ma‘naviy yetuklik” tushunchasini qabul qilmasa, aybni ommaviy madaniyat kabi tashqi ta’sirlarni qidirish qanchalar o‘rinli? Tarbiya qilmoqchi bo‘lgan sifatlarimiz izchil, tizimli va tushunarli bo‘lmas ekan, biz ma‘anan yetuk shahs etishtirish uchun moddiyatga qarshi olib borayotgan kurashda engilishda davom etamiz. Inson esa o‘z tanazzulini o‘zi yaratadi, bu har qaysi davrda dolzarb bo‘lgan haqiqatdir. Hozir ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlari haqida bong urmoqdamiz, ertaga insonni shaxs o‘laroq yo‘qlikka turtkilaydigan yana bir og‘u paydo bo‘lishi muqarrar. Mavjud va bo‘lajak salbiy ijtimoiy fenomenlarga qarshi tura olishning yagona yo‘li ruh, qalb va ong tarbiyasi. Har qanday tuzum, tarixiy jarayon va evolyutsion bosqichda o‘z ahamiyatini saqlab qoladigan tarbiya masalasini, avvalo, “ma‘naviyat” umumiy semali leksemalarning lug‘aviy ma‘nolari va boshqa xarakter belgilari aniq belgilab berilgan risolaga tayangan holda ko‘zdan kechirilishi lozim.

Anglashiladiki, “ma‘naviyat” kategoriyasi ideografik haritasi ushbu maydon haqida shakllanib ulgurgan mavhum tushuncha va semantik noaniqliklarga chek qo‘yish bilan birga tilshunoslikning leksikografiya, dialektologiya, etimologiya, semasiologiya, tipologiya, qiyosiy chog‘ishtirma tilshunoslik, stilistika, lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik kabi sohalarida tub burilish yasaydi. Manba, nazariy va amaliy lingistik ahamiyatga egaligi bilan birga, tarbiyaviy didaktika asosi o‘laroq ham hizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mengliyev B. Til bag‘ridagi ma‘naviyat: lingvoma‘naviyatshunoslik va uning istiqbollari haqida//“Ma‘rifat” – Toshkent: 2015, 13-may
2. Rahimov A. Tilni paradigmalarda asosida o‘rganish muammolari //O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012. –№2. – B.20-25;
3. Hoshimova N.A. O‘zbek tilida assotsiativ munosabatlar: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. ... (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. – 47 b;
4. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish muammolari – Toshkent: Fan, 1998
5. Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – С. 151.

## XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “BOZOR” ROMANIDA METAFORIK TALQIN

*Ijobat SAYMURATOVA,  
GulDU katta o‘qituvchisi*

Ramziy-majoziy tasvirlash bugungi kun nasrida badiiylikning urf-odatga aylanib borayotgan muhim shartlaridan biri deb qaralmoqda. Ramziy talqinda yozuvchi pozitiv dunyoqarashi bir muncha erkin holatda harakatlanadi va shunga monand bo‘ladi. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida mazkur atamaga quyidagicha ta’rif berilgan: Ramz (ar. so‘z bo‘lib – imo, ishora, imlash) – simvol; ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi [4, 244].

Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romani kompozitsion qurilishini asar bosh qahramoni Fozilbekning xayolidan kechgan butun o‘y-fikrlari to‘lig‘icha qamrab olgan. Asar syujeti ham, qahramon ruhiy holati ham Fozilbekning xayolidan kechgan o‘y-fikrlar zamiriga singdirib yuborilgan. Aslida, adabiyot nazariyasining qonun qoidalariga ko‘ra syujet, asardagi voqealarning ketma-ketligidir. Syujet, avvalo, mazmun bilan bog‘liq bo‘lib, qahramon xarakterining shakllanishi, namoyon bo‘lishini ifodalovchi voqea-hodisalar majmuidir [3, 449].

Fozilbekning ruhiy dunyosi va xayolidan o‘tgan kechinmalar asar mazmun-mohiyatini o‘zida to‘lig‘icha aks ettiradi. Yozuvchining nazarida bozor go‘yoki dunyo, hayotning o‘ziga xos ramziy ko‘rinishi. Yozuvchi dunyo va hayot haqidagi fozil fikrlarini, donishmandona munosabatini Fozilbekning qarashlari orqali namoyon etadi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning ta’kidlashicha: “Bozor” butunlay o‘zgacha uslubiy yo‘nalishda bitilgan. Asar tili boshdan-oyoq ramzlar, metaforalar, imo-ishoralar asosiga qurilgan. Bu tilni o‘qimay, uqmay turib romanni tushunish, uning tub mohiyatini anglash mahol [5, 121]. Filologiya fanlari doktori, professor Sanjar Sodiq ham roman haqida o‘rinli mulohazalarni bildiradi: “Bozor” romanida bozor timsoli inson hayotining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi [4, 6].

Yozuvchi tasviricha bozor – odamlarning asl basharasini qanday ravshan ko‘rish mumkin bo‘lgan eng qulay joy. U romanda jamiyat ko‘rinishi va insonlar hayotini bepoyon bozor timsolida tasvirlar ekan, har bir o‘rinda ma’naviyat va iqtisodni, ya’ni ong va nafsning raqobatini, shayton va rahmon, insof va iymon kabi tushunchalarning insoniyat turmushida nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatadi.

Birgina “bozor” tushunchasining tarkibidagi “or”, “zor”, “ozor” ma’nolarini turli qahramonlar talqini orqali ochib beradi. Yozuvchi o‘zining bir intervyusida “Bozor” u qadar ommabop bo‘lgani yo‘q. Bizning kitobxonlarimiz bundagi ramzlarni hali to‘liq tushunadigan darajada, deb o‘ylamayman. Undagi ramzlarni nisbatan ilg‘ab etadigan, tushunadiganlar ma’naviy ozuqa olishi mumkin”, - deb aytadi.

Roman quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Qani, kep qoling, asalidan op qoling!

Asal bo'lsa, sotarmiding, anoyi?!

Beshik bormi, beshik?

Sumagi qoldi, opoqi, sumagi!..

Teri bormi, teri?

To'yga qalampir ola keting!

Qo'y terisi kerak, teri!

Qopqon opketaqol, tozi!

Sho'rtak qurut keragidi?

Jevachka olsang-chi, opovsi!.. [1,4].

Asar ekspozitsiyasida keltirilgan mazkur tasvirlar mazmun-mohiyatiga yashirin ramziy ishoralar singdirilgan bo'lib, u matndagi bir qancha detallarning qorishiligi va ketma-ketligida namoyon bo'lgan. Masalan, birgina asal detali orqali yozuvchi "atrofimizni qurshab olgan hayotning o'zi achchiq qismat-ku, agar u shirin bo'lganida sotilarmidi" degan falsafiy qarashni ifodalagan. Beshik va sumak detallari insoniyatning yosh avlod istiqboliga bo'lgan ishonchining ramziy ifodasi bo'lsa, teri – kishilar o'rtasida yo'qolib borayotgan mehr-oqibat hamda hayo va ibo, ishonch va sadoqatga ishora. To'yga olinajak qalampir esa kishilarning bir-biriga bo'lgan achchiq munosabatining yorqin timsoli. Hayot yaxshi va yomonliklardan tarkib topganidek, kishilar ham ikki toifadan, ya'ni yaxshi va yomondan iborat. Roman tasviridagi qo'y terisi ko'ngli yumshoq, sodda va yuvosh xarakterdagi kishilarning, tozi esa qallob, aldoqchi, yolg'onchi kimsalarning asl qiyofasiga ishora. Bozor – biz ko'rib turgan savdogaru xaridorlar bilan to'lib toshgan, odamlarni ming tusga soladigan izdihom tasvirini o'z ichiga oladi. Unda bozorda tarqalib ketgan, bo'yi bir qarich kelmaydigan nojins maxluq haqida so'z boradi. Bu aslida chap ko'ksimizdan qochib chiqqan nafs, u hammani o'z domiga tortgan va tobelagan, uni faqat iymon bilan daf etish mumkin, deb hisoblaydi qopqonsoz Zar bobo.

Asarda tasvirlangan voqealar Fozilbekning o'y-xayolida kechadi yoki bevosita uning guvohligida sodir bo'ladi. Filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov asar voqeligini tasvir etishdagi yozuvchining uslubiy yo'nalishini quyidagicha ta'riflaydi: Yozuvchining diqqat-e'tibori bozor manzaralari va mojarolarining bevosita o'zini emas, personaj ongi, ruhiyatidagi aks-sadosini ifodalash, badiiy tahlil etishga qaratiladi, bunda "ong oqimi" tajribalaridan ijodiy foydalaniladi [5, 121].

Fozilbek o'zining tug'ilishini o'ylab ruhan eziladi. O'zi tug'ilganida vafot etgan onasining o'limiga o'zini gunohkor deb biladi. Shu sabab qalbida dunyoga kelishidan norozilik va gunohkorlik hissi jo'sh urib, uni betinim ta'qib qilib yuradi. Odam va olamni anglash roman talqinida voqelik mohiyatini mantiqan tafakkur etish orqali kechadi. Bozor talqinining zamirida hayot haqiqati va uning manzaralari poetik ifoda topadi. Fozilbek bozor va hayot haqidagi fozil qarashlarini ruhiyatida kechadigan o'y-fikrlar, xotiralar dinamikasi orqali kitobxon ongiga singdiradi. Ruhiyatida kechadigan o'y-xayollar va xotiralar bolaligidan

tortib to ulg'ayganiga qadar kechgan voqealar silsilasini o'z ichiga oladi. U bolaligi bilan bog'liq bo'lgan xotiralarni juda ko'p qo'msaydi, ayniqsa, onasi va Fotma xolaning kinnachiligini, xirgoyi qilmasligini, uni bolasi yo'qligini yod oladi: Taqir yerda o'tirgan onasi, onasi emas – Fotma xola – qanday qilib Fotma xola bo'lsin?!. Meni Fotma xola tuqqanida edi, onam o'lib qolmasdilar, Fotma xolaning o'g'li bo'lsam u qovog'ini solmay, kulib yurardi deb o'zicha ko'p xayol surar edi Fozilbek bolaligida, lekin... dunyodan er qilmay o'tgan, shu bois farzand ko'rmagan va shu bois qari barmoqlari ma'suma qizlarnikidek silliqlicha qolgan kampir qanday qilib Fozilbekka ism qo'yadi, qaydan kelib uning qulog'iga niyatini xirgoyi qilib qo'yadi, bordiyu, shu ayol Fotma xola bo'lsa, u holda onasi qani, onasi qayerda, Foziljonning?! [1, 77].

Fozilbekning o'ylashga odatlanishi hayotda fozillarcha oqilona yashashi, dunyoga sermulohaza bilan olimona qarashi, o'zligini anglash yo'lidagi sofdillik, uni chinakam inson bo'lishga undaydi. Uning fikricha odamiylikning haqiqiy tuyg'ulari, tavba va tazarru nihoyatda muhim bo'lib, inson zotini tozartirish, poklanish va komillik sari yetaklaydi. Shuning uchun ham ruhiyatida kechadigan bozor-dunyo haqidagi qarashlarini bir-biri bilan uzviy bog'laydi. Bozor qismatidagi nafsni, pul hasratini hayot misolida qiyos etadi.

Istiqlol davri adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri imon va e'tiqod, shuningdek, ma'naviyatga katta e'tibor berilishidir. Mustaqillik davri o'zbek romanshunoligida dunyoni obrazli badiiy qayta gavdalantirishning G'arbda taraqqiy topgan tamoyillarini Sharq – islom adabiy-estetik an'analari bilan uyg'unlashtirish amaliyoti yuzaga keldi [2,6]. Darhaqiqat, istiqlol davri o'zbek adabiyotida yaratilgan qahramonlar ma'naviyatli, bu borada chuqur mulohaza qiladigan ziyrak shaxslar. Ular olam va odam haqida keng fikr yuritadi, hayot va jamiyat illatlaridan qayg'uradi. Kishilarni ma'rifatsizlik, adolatsizlik sari yuz burayotganidan, ular orasida imon va e'tiqodsizlik keskin yo'qolib borayotganligidan iztirobga tushadi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romani asosida aynan shu g'oya va haqiqat yotadi. Yozuvchi bozorni ramziy ma'noda taftish qilar ekan, bugungi kun kitobxoniga unda zuhur topgan ikki ma'noni anglatadi. Birinchi ma'no hayot, jamiyat, bugungi kunni ifodalaydi. Hayot va jamiyatning tanazzuli odamlarning unga munosabati, bozorning ichidan yemirilishi u erdagi qalloblik, odamlar haqqiga xiyonat qilishlik, ya'ni tarozidan urishlik, aldanchilik va riyokorlik. Bu bugungi kun hayotiga va uning turli-tuman manzaralariga ishora. Bu esa insonning qalbida insoniy tuyg'ulardan ko'ra nafs tuyg'usining yetakchilik qilishidandir. Ikkinchi ma'nosi odamning odamiyligi, tabiati, ma'naviyati, ma'rifati va komilligini ko'rsatadigan makon va joy. Haqiqatan ham, bozordagi xatti-harakat va amallar, odamlarga bo'lgan munosabatda bilinadi. Bu borada yozuvchi shunday deydi: Bozor – odamlarning asl basharasini kunday ravshan ko'rish mumkin bo'lgan qulaydan-qulay joy [1, 16].

Adib bu haqiqatni roman voqeligidagi bir qator obrazlar sistemasi orqali ochib beradi. Yozuvchi bu holatni Naynov obrazi va uning fojeasida yaqqol namoyon etadi. Bozor ramzi orqali yozuvchi yashab turgan olamning bir tomonini

yoritmoqchi bo‘ladi. Tirikchilik g‘amida ko‘pchilik o‘zini bozorga uradi. Hatto zamonga bozor nuqtai nazari va shunga monand dunyoqarash bilan baho berishadi. Romanda shunday bir maxluq talqin etiladiki, bu maxluq bozorning turfa timlarida paydo bo‘laveradi, u hech kimdan qo‘rqmaydi, hech narsadan tap tortmaydi, shu xislati orqali hammani o‘ziga rom etadi, tobe qiladi. Roman tavsifida yozuvchi buni ochiqlicha yoritmaydi, bu maxluqning nima yoki kim ekanligini kitobxonga manzur qilmaydi, uni shakl doirasini ham tasvirlamaydi. Mazkur holat, ya’ni noma’lum maxluqning insoniyat qalb-qo‘riga butunlay singib ketganini ramziy obraz timsolida ko‘rsatganligi yozuvchi mahoratidan dalolatdir. Inson borlig‘ini o‘ziga bo‘ysundirgan, tobe qilgan ramziy timsol bu – nafs. Biroq roman mazmun-mohiyatidan “hayot faqat bozordan, moddiy manfaatdan iborat, inson nafsning qurboni” degan xulosa chiqarishlik to‘g‘ri emas. Fozilbek, Qadriya obrazlari nafs timsoliga zid ravishda, ya’ni ezgulik va poklik, ma’naviyat va ma’rifat timsoli sifatida romanning bosh markaziga, badiiy g‘oyasi va yozuvchi ijodiy niyatiga ko‘ra olib kirilgan. Bu hol esa badiiy g‘oyaning aniqligi, balki tasvir me’yorining ham maqsadga muvofiqlicini mohiyatan to‘g‘ri anglash orqali oydinlashgan. Shu ma’noda yozuvchi Fozilbekning fozillik, donolik, Forobiy talqinidagi “Fozil shahar odamlari” dan birining timsoli qilib yaratar ekan, Qadriyani ma’rifat va qadriyatning, inson qadr-qimmatining badiiy timsoli sifatida gavdalandiradi. Ustoz olim I. Yoqubov haqli ravishda ta’kidlaganidek: X. Do‘stmuhammad “Bozor” romanidayoq Forobiyning ijtimoiy-axloqiy va siyosiy qarashlarini ijodiy o‘zlashtirdi. Bu hol o‘sha romandagi Fozilbek obrazi mantiqan mutafakkirning jamiyatni baxt-saodatga eltuvchi yetuk, xosiyatli, yuksak fazilatli inson haqidagi orzulariga borib tutashishi misolida kuzatiladi. Qadriya obrazi ham Forobiyning ma’rifat tantanasi, ilm istiqboli, inson kamoloti, ezgulik qaror topishi, odamlararo hamjihatlik singari qarashlaridan ajralmaydi [3, 126].

“Bozor” romanida yozuvchi an’anaviylikdan ko‘ra, polifonik talqin uslubiga hamda ifoda vositalariga ko‘proq murojaat etgan, bu esa romandagi ko‘povozlilikni ta’minlagan. Polifonik talqin roman janri tamoyilini emas, balki roman asosida falsafiylik ko‘lami keng bo‘lgani uchun falsafiy mushohadaning mantiqan to‘g‘riligini asoslash maqsadida polifonik talqin psixologik tahlil hamda “ong oqimi” yordamida falsafiy roman badiiy komponenti vazifasini bajargan. Ong oqimi – XX asr modernistik adabiyotida maydonga kelgan hayotni tasvirlash usuli; inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarni bevosita, ular haqiqatda qanday kechsa, o‘shanday tasvirlashga intilgan adiblar va ularning asarlariga nisbatan qo‘llanuvchi shartli atama [4,208]. Shunga ko‘ra asar bosh qahramoni Fozilbek ongida kechayotgan roman voqeligini, yozuvchining yangi uslub topish yo‘lida qo‘llagan imkoniyati yoki tajribasi deb emas, balki davr va zamon nuqtai nazaridan shakllanib kelayotgan inson obrazi deb qaramoq lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Do‘stmuhammad X. Bozor. Roman. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – B.16.
2. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Filol. fan. dok... diss. avtoreferati. – B.6.

3. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. –T.: Nurafshon business, 2021. – B. 126.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Navoiy universiteti. 2018. –B 449.
5. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akadernashr, 2010. –B. 244, 208
6. Normatov U. Badiiyat ko‘zgisida millat taqdiri. //Sharq yulduzi jurnali, 2011. 3-son, –B. 121.
7. Sanjar Sodiq. //”O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2000-yil , 8-dekabr.

## **QISSALARDA YOSHLAR XARAKTERINI YARATISHDA PSIXOLOGIZMNING O‘RNI**

**Murotali LATIPOV,**  
*GulDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasida tadqiqotchisi*

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida O.Yoqubov ijodiyotining munosib o‘rni bor. O.Yoqubov mohir romannavis bo‘lishi bilan birga qissanavislikda ham yutuqlarga erishgan yozuvchilardan biridir. Yozuvchi ijodining boshlanishi “Tengdoshlar” (1951) qissasi bilan bog‘liq. Yozuvchi qissa janrida ko‘plab asarlar yaratdi. Chunonchi, “Muqaddas” (1960), “Tilla o‘zik” (1960), “Larza”, “Bir fel’eton qissasi”, (1962), “Qanot juft bo‘ladi” (1968), “Matluba” (1970), “Izlayman” (1971), “Billur qandillar” (1975) kabi qissalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Odil Yoqubov qissalari mazmunan turfa bo‘lishiga qaramay, barchasida chin insoniy fazilatlar ulug‘langan, qadriyatlarga hurmat g‘oyalari, insonga o‘zgacha munosabat kabilar ilgari surilgan. Shuningdek, ushbu qissalarning aksarida yoshlar obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etiladi.

Bunga qadar, yozuvchining o‘zining yozishicha, u ancha hikoyalar va bir roman ham qoralagan ekan. Lekin O.Yoqubovni yozuvchi sifatida elga tanitgan asar, bu – “Muqaddas” qissasidir.

“Muqaddas” qissasi fakat yozuvchi ijodida emas, 60-yillar o‘zbek adabiyotida ham muhim hodisa bo‘ldi. Unda hayotda xudbinlik bilan soflik, vijdoniylik yonma-yon turishligi, kishi ozgina nojo‘ya harakat qilsa xudbinlik ko‘chasiga kirib ketishi mumkinligi bosh qahramon Sharif misolida juda ishonarli ko‘rsatilgan.

“Muqaddas” yozuvchining bosh estetik, axloqiy printsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham qimmatli. “Muqaddas” so‘zi faqat qissa qahramoni nomi bilangina bog‘liq bo‘lmay, yozuvchi asarda zo‘r ehtirom bilan ilgari surgan insondagi eng ziz, muqaddas tuyg‘ular – vijdon, burch, diyonat, imon-e’tiqod, adolat g‘oyasini ham o‘zida ifodalaydi” [2, 125]. Ushbu qissa orqali yozuvchi, nafaqat o‘sha davrdagi ijtimoiy muammolarni, balki ma’naviy-axloqiy muammolarni ham ko‘rsatib berishga harakat qilgan.



“Muqaddas” qissasiga joziba baxsh etgan, uni o’sha yillardagi adabiy hayotda salmoqli voqea darajasiga ko’targan, kitobxonlar ommasining mehrini qozonishga sabab bo’lgan narsa shuki, adib ehtirossiz, loqayd bayonchilikdan voz kechib tasvirlanayotgan voqealarning mohiyatini tadqiq qilish yo’ldan boradi va buning natijasi o’laroq muhim hayotiy problemalarni o’rtaga tashlaydi. Ular axloqiy-ma’naviy problemalar bo’lib, yozuvchi ularni talqin qilishda “inson hayoti naqadar chigal va murakkab ekanidan, turmush degani bir qo’li bilan boshingni silasa, bir qo’li bilan tarsaki tushirib turadigan narsa ekanidan”, ya’ni tayyor qolip va sxemalarga sig’masligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham adib tasvirlayotgan voqealarini darrov oqu qoraga ajratmaydi, qahramonlarini ijobiy va salbiy deb ikki guruhga bo’lmaydi” [4, 438]. Bundan ko’rinadiki, “Muqaddas” qissasini tahlil qilishda undagi obrazlarni ijobiy yoki salbiy ekanligini emas, balki ularning ruhiy kechinmalarini, ya’ni psixologizmini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Qissaning asosiy qahramonlari bo’lgan Muqaddas va Sharifjonlar asarda o’ziga xos o’rin tutadi. Asarda Sharifjon hikoyachi qahramon – muallifning mashinasozlik zavodida uchratgan ilg’or ishchi sifatida shakllantirilgan. Uning o’ziga xos portret chizgilari, o’ziga xos jihatlari asar boshidayoq keltiriladi:

“Shunday kishilar ham bo’ladiki, ularning butun fazilatlarini yuzlidan ko’rinib, so’zlari, qiliqlaridan bilinib turadi. Bir suhbatdayoq sizni o’ziga rom qilib qo’yadi. Istarasi issiq bu yigit ham xuddi shunday samimiy kishilardan edi. Yigirma-yigirma bir yoshlardagi novcha bo’yli, uzunchoq yuzli, qora ko’zlariga iliq tabassum yashiringan bu yigit meni o’zining mehnatga bo’lgan muhabbati, kamtarligi va olijanobligi bilan birinchi uchrashganimizdayoq maftun qilib qo’ydi” [6, 180]. Bunda ta’rifi keltirilgan qahramonning ijobiy xislatlarga ega bo’lgan inson ekanligini bilish mumkin. Uning portret chizgilari bundan dalolat beradi. Sharifjon asarning bosh qahramoni. Asarning keyingi tafsilida u hikoyachi qahramon vazifasini bajaradi. Voqealarni u o’z tilidan hikoya qilib beradi. Shunga ko’ra ham asardagi kechinmalar tavsifi, qahramonlar ruhiyati ancha batafsil tasvirlangan. Sharifjonning hikoyasiga ko’ra u otpuska paytida onasining so’zlariga ko’ra o’qishga kirish uchun imtihonlarda qatnashib, o’z omadini sinab ko’rmoqchi bo’ladi. Asosiy voqealar uning Muqaddasni uchratishidan so’ng boshlanadi.

Qissada Muqaddasning kirib kelishi uning konsultatsiyada qatnashayotgan Sharifjonning yonida kutilmaganda paydo bo’lishi bilan ifodalangan:

“Mumkinmi ozgina surilsangiz?” degan ovozni eshitib hushimga keldim. Ovoz shunday mayin va yoqimli ediki, go’yo yuzimga tog’shabadasi tekkandek, tez burilib qaradim.

Yonginamda oq shoyi ko’ylak kiygan o’n etti-o’n sakkiz yoshlar chamasidagi bir qiz turardi. U kechikib kelganimni domla ko’rib ranjimasin deb qo’rqayotgan bo’lsa kerak, katta-katta qora ko’zlarini domladan uzmasdan, qaddini sal bukib turar, o’zi ham shoshib, yugurib kelgan bo’lsa kerak, ikki o’rim mayin, qo’ng’ir sochlarining uchlari echilib, ko’ylagining etagini butun qoplab olgandi” [6, 183]. Ushbu portret tasviridan ham ikkinchi asosiy qahramon bo’lgan qizning

ijobiy xususiyatlari aks ettirilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shuningdek, qissaning ushbu o'rinida ta'rifdagi go'zal qizni uchratgan yigitning ruhiy holati ham ifodlangan:

“Bunday qizni birinchi ko'rishim edi. Uning chehrasida, hatto butun qiyofasida hali gard yuqmagani yoshlik va beg'ubor qizlik iffati barq urib turardiki, o'zimni yo'qotib qo'yib unga joy berishni ham unutibman” [6, 183].

Qahramon yigitning psixologik holati asarda shu tarzda hikoyachi qahramonning o'z kechinmalari shaklida ifoda etiladi. Uning o'ziga xos ruhiyati yuqoridagi parchada ham aks etgan. Ya'ni u qiz bilan ilk marotaba ko'rishgandagi hissiyotlari, sodda va pokdil bir yigitning o'zini yo'qotish darajasidagi axvoli yozuvchi tomonidan ishonarli tarzda bayon qilingan.

Keyingi holatlar pog'onama-pog'ona rivojlanib boradi. Yigit bu uchrashuvdan dovdorab turganida qizning unga savol berishi qahramonning ushbu holatdan tezroq chiqib ketib, diqqatini bir oz jamlashiga sabab bo'ladi. Yigitning murakkab psixologik holati asarda quyidagicha berilgan:

“Men zo'r kuch bilan hushimni to'plab, daftarini oldimga tortdim-da, harflar v raqamlardan tizilgan uzun, murakkab formulaga tikildim.

Shu topda men shunday bir ahvolda edimki, bu formulaning xatosini topish u yoqda tursin, miyamga hech bir fikr kelmasdi, lekin... (bu ham bir baxtdir-da!) to'satdan go'yo miyamda bir nur “yarq” etib, qizning “valentlik” bilan “atom” tushunchalarini chalkashtirib yuborganini sezib qoldim” [6, 183]. Qahramon ruhiyati tasvirida muallif so'zlarni va jummalarni to'g'ri tanlay olgan. Murakkab va qarama-qarshi ruhiy holat yuqoridagi tasvirda o'z ifodasini topa bilgan. Ham Sharifjon xarakteridagi o'ziga xos iroda kuchi ham uning “hushini to'plashi” orqali namoyon bo'lgan.

Ushbu tasvirdagi yigit hayajoni keyinchalik uning tilidan qarama-qarshi tuyg'ular tug'yoni o'z boshidan kechirayotgan damida murakkab kechinmalari orqali aks ettirilgan:

“To'satdan xayolimda g'alati bir fikr chaqnadi: “Hujjatlarimni topshiraveraman. Lekin... agar o'sha qiz bilan birga o'qishimga ko'zim etsa imtihon topshirib o'qishga kirishga harakat qilaman, bo'lmasa – hujjatlarimni qaytib olaman...!”

Bu fikr o'zimga shunday ma'qul tushdiki, boyagi ikkilanishlarning hammasini bir zumda hal qilib, ko'nglimni charaqlatib yubordi” [6, 183].

Bosh qahramonning ushbu fikri asarning oxirigacha unga hamroh bo'ladi. U ana o'sha orzusi, ya'ni Muqaddas bilan birga o'qish orzusi uchun ham o'qishga kirishga qaror qiladi va mana shu qarorini amalga oshirish yo'lida qing'irliklardan ham voz kecha olmaydi. Asardagi o'ziga xos qat'iyat qissaning asosiy qahramonlarini harakatlantiradi.

Muqaddasni ikkinchi marta ko'rgan yigitning ahvoli: “Ularga qarab besh-olti qadam bosganimcha yuragim birdan “shig” etib, a'zoyi badanim jimirlab ketdi: qizlarning orasida Muqaddas ham bor edi!”.

Yoshlar xarakteridagi psixologik holatlar qissada baʼzan personajlar nutqi orqli ham ifodalanadi. Xususan, Sharifjon va Muqaddas topshiradigan ikkinchi imtihon kuni ular uchrashganlaridagi dialog bundan dalolat beradi:

“ – Voy, men sizni kechikib qolmikanis deb, jonimni hovuchlab turibman-a? – deb kuldi. Menga uning kulgisida ham allaqanday erkalik aralash bir ginaxonlik bordek tuyuldi.

– Men kechikar ekanmanmi? – dedim, - siz bilmaysiz Muqaddas, men sizni har kuni...

– Yuring, - dedi Muqaddas soʻzimni boʻlib, goʻyo gapimning oxirini eshitishdan qoʻrqib, - ichkariga kiraylik... ” [5, 184].

Bundagi suhbatdan har ikkala qahramon qalbida kechayotgan hayajon ularning gap-soʻzlarida aks etganligi koʻrinadi.

Qissada uchinchi imtihonda yana yoshlarning sevgisi bilan bogʻliq xarakterli holatlar mavjud. Bunda yigit tilidan berilgan bir gap oʻziga xos: “Imtihon degan narsaning naqadar dahshatli ekanini shuning oʻzidan ham bilsa boʻladi: jonimdan ortiq koʻrgan qizning yonidan oʻtibman-u, uni koʻrmabman!”. Yana bir oʻrinda u oxirgi – toʻrtinchi imtihonga birgalikda tayorlanish uchun Muqaddas bilan kelishilgan joyda uni betoqatlik bilan kutib turgan paytida kuzatiladi. U joyda u ishdagi boshligʻi Sulaymon Akramovichni uchratib qoladi:

“... Uni bu erda uchratishni sira kutmaganimdan boʻlsa kerak, oʻgʻirlik ustida tutilgan odamdek dovdirab qoldim, hatto qoʻl berib koʻrishishni ham esimdan chiqarib qoʻydim. Oʻzim ham qizarib-boʻzarib, terlab ketdim shekilli, Sulaymon Akramovich qop-qora shop moʻylovi ostidan kulimsiradi-da, tomirlari boʻrtib chiqqan katta suyakdor kaftini uzatib:

Yasan-tusanlar joyida-yu, kimni kutib turibsan, oʻgʻlim, - deb soʻradi” [5, 216].

Bu holat qahramon uchun haqiqatan ham xuddi yomon ish qilib qoʻlga tushgan kishi holatini esga solishi, uning yana bir xislatini, yaʼni bir qiz bilan yaxshi niyat bilan uchrashayotganini biron koʻrishini istamasligi oʻz qilmishlarini koʻz-koʻz qiluvchi ayrim yoshlardan farqli jihatlaridan birining ifodasi, deyish mumkin.

Qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshi tuygʻular ifodasini Muqaddas ikkalasining parkda boʻsh joy izlab odamlar orasidan oʻtayotgan chogʻlaridagi holatida koʻrish mumkin:

“Qizil qum sepilgan allejalarning oʻrtasidan oʻtarkanmiz, skameykalarda oʻtirgan yigitlarning bizga tikilib qarab qolayotganlarini koʻrdim, bir vaqtning oʻzida ham gʻazabim qoʻzgʻar, ham nimagadir faxrlanardim. Muqaddas esa uyalganidan yuzlari gul-gul yonib, yana ham jozibali koʻrinar, u koʻzlarini erga tikib borgan sayin jadallab borar va tekis yerda ham hadeb qoqilar edi” [5, 216]. Bunda yigitning shunday goʻzal qiz bilan birga yurganidan ham faxrlanishi, ham boshqa yigitlarning qizga tikilib qarayotganlaridan rashki tufayli gʻazablanishi zid tuygʻularni yuzaga chiqargan. Qiz esa juda iboli va xayoli boʻlganidan kishilarning unga tikilib turganlaridan hayajonlanayotgani va shu sababli ham tez-tez qoqilayotganligini ilgʻash mumkin.

Qissada Sharifjonning va Muqaddasga sevgi izhori va muhabbatdan mast boʻlgan damlari kuchli dramatism bilan ifodalangan:

“Bir minutga bu olam, oyoqlarim ostidagi men tugʻilib katta boʻlgan bu er, tepamdagi bu zangori osmon... hammasi qa yoqqadir yoʻqoldi-yu, Muqaddas bilan ikkovimizgina tanho qoldik, xolos...”

Uning lablari xuddi bahor quyoshini emgan lolani eslatar, lola yaproqlaridek mayin va iliq edi, ularda togʻ shabadasi tegib yaproq chechaklarning ajib tarovati isi bor edi. Sochlaridan, ajoyib qoʻngʻir sochlaridan rayhon hidi kelardi...

...Parkdan chiqib Muqaddas bilan birga yana institut tomon borarkanman, oʻzimni asfalt ustida emas, goʻyo patgilam ustida yurib ketayotgandek his qilardim, lablarimda hamon lablarining baxmal mayinligini sezardim, dimogʻimga urayotgan rayhon hididan boshim aylanardi...” [5, 216].

Bu parchadagi romantik tasvir oʻziga xos badiiy tasvir vositalarining oʻrinli qoʻllanganligi tufayli juda muvaffaqiyatli chiqqan. Ayniqsa, “bahor quyoshini emgan lola”, “lola yaproqlaridek mayin lablar”, “rayhon hidli sochlar” kabi goʻzal va oʻziga xos tashbehlarning qoʻllanilishi asarning badiiy qiymatini yanada oshishiga xizmat qilgan. Bunday lirik lavhalar asardagi sevgi izhori bilan bogʻliq sahnadagi romantik vaziyatni yanada boʻrttirilib koʻrsatilishiga asos vazifasini oʻtagan.

Sharifjonning oʻgay otasi va onasining qistovi hamda Muqaddas bilan birga oʻqish orzusi tufayli oʻzi yozgan inshoni tanish-bilishlar yordamida qaytadan koʻchirib berishi holati ham qarama-qarshi tuygʻular qamrovida, oʻziga xos psixologik vaziyatda tasvirlangan:

“Mening oʻrnimda hamma ham shu ahvolga tushib qolarmikin, yo men oʻzim shunchalik beqaror ekanmanmi, bilmadim, ishqilib, oʻshandan atigi bir soat oldin, majlis vaqtida qilgan afsuslarimni unutib, inshoni qayta koʻchirar edim. Majlis mahalida, u erda joʻsh urgan mehnat ruhiga maftun boʻlib, Muqaddasni unutgan boʻlsam, endi oʻsha doʻstlarimni, oʻsha ajoyib ruhni unutib, yolgʻiz Muqaddasni oʻylardim...” Bu oʻrinda joʻshqin mehnat jarayoni va muhabbat sururi oʻrtasidagi kurash holati Sharifjon kechinmalari shaklida oʻz ifodasini topgan. Bunday ichki kolliziyaga asoslangan konflikt shakli asarning muvaffaqiyatini taʼminlagan omillardandir.

Asarda Sharifjonning oʻz otasi haqidagi haqiqatni bilishi jarayoni oʻziga xos tarzda aks ettirilgan. Yaʼni, u otasi injener boʻlgani-yu, uning urushga ketib frontda ogʻir jarohati tufayli halok boʻlganligi, yolgʻiz oʻgʻli – Sharifjonning ham oʻqib, shu kasbning sohibi boʻlishi haqidagi soʻnggi maktubni qoʻliga olgan holati uchun muallif peyzaj tasvirdan unumli foydalangan:

“Tashqarida havo birdan oʻzgarib, shamol koʻtarilgan, hovlidagi olcha va oʻriklar sovuq kuz kelayotganini eslatib qattiq guvilar, shovullar edi. Tiniq, bugun odatdagidan boshqacharoq koʻrinar, muz parchalarini eslatib sovuq chaqnardi...” [5, 216].

Uning roʻyxatga kirmay qolganiga, demak institutga ham qabul qilinmaganiga aqlim etib turardi, lekin bunga ishongim kelmas, ishonishdan qoʻrqar edim. Shuning uchun xuddi boshqa roʻyxatlarda boʻlishi mumkindek,

ularni ham bir-bir o‘qib chiqdim, so‘ngra yana birinchi ro‘yxatga qaytdim...” Sharifjondagi haqiqiy iztirob aynan ana shu o‘rindan boshlanadi. U o‘zi yo‘l qo‘ygan xatoning dahshatli oqibatlariga olib kelishini ana o‘sha damlarda anglay boshlaydi. Shuning uchun ham unda o‘z quvonchidan ko‘ra qo‘rquv ustunlik qiladi.

Bunday afsuslanish, ruhiyatidagi iztirob asar qahramonining birgina noto‘g‘ri qadami – qabul qilgan qaroridan pushaymon ekanligi ritorik so‘roq sifatida tasvirlangan o‘rin ham mavjud:

“Bu qandoq bo‘ldi? Men nimalar qilib qo‘ydim? Qanday qilib o‘zimga o‘zim pichoq urdim? Qanday qilib o‘z baxtimdan o‘zim ayrildim?” Bundan baxtli bo‘lish maqsadida qilgan ishidan pushaymonlik holatini anglash mumkin.

“Qissada juda muhim masala o‘rtaga tashlanadi, ya‘ni hayotda xudbinlik bilan soflik, vijdoniylik yonma-yon turishligini, kishi sal nojo‘ya harakat qilsa xudbinlik ko‘chasiga kirib ketishi mumkinligi juda ishonarli inkishof etilgan” [5, 216]. Bunday tasvir qahramonning murakkab vaziyatlardagi qabul qiladigan qarori bilan bog‘liq. U ushbu xarakterning aslida kim ekanligidan dalolat beradi, ya‘ni uning psixologiyasini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, qissada qahramon ruhiyati – psixologiyasini ochib berishda hikoyachi qahramon nutqidan unumli foydalanilgan. Qahramon psixologiyasi personaj nutqi, kompozitsion vositalardan peyzaj, portret, interer va badiiy detal kabi unsurlarni mahorat bilan, o‘z o‘rnida qo‘llash hisobiga ham atroflicha ochib berilgan.

Ushbu qissa o‘zbek nasrining yutuqlaridan biri bo‘lib qolishiga ishonch bildiramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hakimjon Karimov. Ijod va iste‘dod./Adabiy portretlar. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1985. 125-b.
2. Jamoa. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T., 1999. 410-bet.
3. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1979. 438-bet.
4. Yoqubov O. Tanlangan asarlar, 3 tomlik, 2-tom. T., Sharq. 1977. – 3-285-betlar.
5. Yoqubov O. Tanlangan asarlar, 4 tomlik, 1-tom. T., Sharq. 2005. – 179-270-betlar.

### **ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA IJTIMOIIY-FALSAFIY MUSHOHADA**

**Bekzod G‘ANIYEV,  
NDPI magistranti**

Mustaqillik arafasi she‘riyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri unda birlikni, yakdillikni, hatto inson o‘zligidan bir so‘z, bir dillikni talqin etilishidir. Jamiki el dardi, yurt qayg‘usi deb yongan insonlarning yagona tilagi-urug‘dek sochilgan

urug'ni birlashtirish, ezgu maqsad yo'lida bir tan bir jon qilish, inson ongidagi ikkilanish, ikki yuzliliklardan xalos bo'lish edi va u she'riyatda o'z aksini topdi.

Abdulla Oripov she'riyatini millat ruhining timsoliga aylantirgan sifatlardan yana biri undagi obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligida. Eng murakkab holatlarni ham ulkan nazokat va yuksak madaniyat bilan ta'sirli qilib o'zbekcha ifodalay bilish shoir she'rlarining qimmatini oshiradi.

O'zbek she'riyati – azaldan boy va rang-barangdir. XX asrda bu she'riy xazina Abdulla Oripov ijodi bilan yanada boyidi, yuksaldi. Bir qaraganda barchaga tanish an'anaviy shakllarda ijod qilgan atoqli shoirimiz mutlaqo yangicha she'riy ohanglarni kashf etdiki, uning she'riy iste'dodi, mahorati qirralari, adabiy-falsafiy qarashlari mohiyatini adabiyotshunosligimiz hali-hanuz to'laqonli o'rgangani, tahlil qilolgani yo'q.

Shoir Abdulla Oripovning 2015-2016-yillar oralig'ida yaratgan ko'plab she'rlari Amerikada yozilgan bo'lib, she'rlari Xurshid Davron saytiga oyma-oy joylashtirib borildi: “Sentyabr she'rlari”, “Oktyabr she'rlari”, “Noyabr she'rlari” kabi.

Abdulla Oripovning 2015-yilda yozgan she'rlari miqdori talaygina bo'lib, donishmandona, purhikmat yo'sinada yaratilgan. She'rlar orasida hayotning achchiq haqiqatini boshidan o'tkazgan donishmand qiyofasidagi lirik qahramon o'quvchiga hayot saboqlarini berayotgandek tasavvur uyg'otadi. Bu yilgi she'rlari orasida “Ummon bo'yidagi o'ylar”, “Tor etik”, “Sayyohlar”, “Qaymoq”, “Yolg'izlik”, “Kuz tashrifi”, “Hayot sinovlari”, “Uchinchi yo'l”, “Ijod saboqlari”, “Kundalik hangomalar”, “Xonaki fil”, “Koinot”, “Rostgo'ylik”, “Texas hangomalari”, “Orol”, “Agar sensiz...”, “O'tar dunyo”, “Asr fojeasi”, “Bashorat”, “Maslahat”, “Nodonlar haqida balladi” singari ko'plab she'rlari “Sentyabr she'rlari” turkumi bilan internet saytlariga joylashtirildi. Bu she'rlarda shoir bugungi inson va uning o'y-xayollari, inson qismati, taqdiri haqida teran fikrlarini badiiy tarzda she'rga ko'chiradi.

Abdulla Oripov ijodining deyarli barcha namunalari ham muayyan hayotiy turtkining natijasi ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Shoirning katta-kichik barcha asarlarida davrning nuqsini, izini ko'rish mumkin. Lekin Abdulla Oripov she'riyatida bu izlar aynan shu tarzda poetik moddiylashayotganligining sababi ilmiy izohlab berilgan emas.

Uning o'ziga xos fikrlaydigan, hayot hodisalaridan o'zga zamondoshlariga qaraganda boshqacha ta'sirlanadigan va uni bo'lakcha tasvirlaydigan shoir ekanligini ta'minlagan omillar haqida chuqurroq fikr yuritish fursati yetdi. Bizning nazarimizda, ayni shu jihatlar Abdulla Oripov deb atalmish ulkan milliy estetik hodisaning mohiyatini anglash imkonini beradi. Shoir ijodiga sinchiklab nazar tashlagan kishi, birinchi navbatda, uning ko'ngil kishisi ekanligi va ijodida ko'ngil manzaralari muhrlanganligini anglaydi.

*Meni laqillatib,  
Aytaverma so'z,  
Mana bu otashdir,  
Mana bu-chi, muz.*

*Qurbaqa emasdir  
Malika aslo,  
Yaxshini yaxshi de,  
Yovuzni yovuz.*

*AQSH. Xyuston. 9.09.2015*

Shoir insonni hamisha to‘g‘ri so‘zga, to‘g‘ri yashashga da‘vat etadi. Bu fikrlar shunchaki quruq nasihat emas, balki obrazli ifoda orqali qog‘ozga tushadi.

*Menga kibr bilan tashlaysan nazar,  
Sening ko‘ngling butun, meniki yarim.  
Roziydim, dardimni so‘rasang agar  
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.  
Men ham aziz edim, inson farzandi,  
Bir vaqtlar halqimning erka dilbandi.  
Lekin qisqa bo‘ldi taqdir pisandi,  
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.  
Bilurman, etmassan nomim himoya,  
Chunki o‘zga erur qalbingda g‘oya.  
Tulporing solmasin ustimga soya,  
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.  
Afsus, yer yuzida oz emas bizlar,  
Mahkum bechoralar, so‘ligan yuzlar.  
Eshigi tiq etsa qarar bu ko‘zlar,  
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.  
Xastalik yengmoqda pinhonu oshkor,  
Shukurkim, qaydadir haloskorlar bor.  
Uyatdir, qolmasa nomus bilan or,  
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.  
Ishongum, bizlarga rahm etur Alloh,  
Hayotning bag‘riga qayturmiz, valloh.  
Begona bo‘lsayding chekmas edim oh,  
Seni qandoq sevay, aytgin, jigarim.*

*AQSH. Xyuston. 03.09.2015*

Abdulla Oripovning bu davrda yaratgan she‘rlarida Vatan, Inson va unga bo‘lgan ishonch, bu ishonchning barbod bo‘lish oqibatlari, Mehr va sadoqat kabi mavzularda bo‘lib, teran mushohada, falsafiy mazmun kasb etgan. Uning “Savod” she‘rida bugunning achchiq haqiqati aks etgan, ya‘ni she‘riyat va adabiyot bugungi kun o‘quvchisini ne chog‘liq qiziqtiradi, hayratga soladi. Shoirning qalbi bundan ozorlanadi:

*Ehtimol, she‘ringa kimlardir zordir,  
Agar zor bo‘lmasa ijoding xordir.  
Bunday payt daftaring daryoga tashla,  
Chunki baliqlarning savodi bordir. (02.11.2015)*

Abdulla Oripovning haqida 2017-yil (shoir vafotidan so‘ng) tayyorlangan teleko‘rsatuvda shoirning uzoq Amerikadan turib o‘zbek kitobxonlari uning

she'riyatini nechog'liq o'qiyotgani, internet manziliga qo'yilgan she'rlarga qanday munosabatda bo'layotgani qiziqtirib kelgani aytiladi. Yuqoridagi to'rtlikda ham xuddi shu holat o'z falsafiy umumlashmasini topgan.

*Derazamga qo'ndi bir chumchuq,  
Angladimki, uning qasdi yo'q.  
Chumchuq faqat «chiriq»lar edi,  
O'z tilida go'yoki derdi:  
– Yotaver, ey bechora shoir,  
She'ringni yoz o'zingga doir.  
Biz-chi, sendan qo'rqmasmiz aslo,  
Do'q ur, tosh ot – qilmasmiz parvo.  
Chunki sening qochgandir kuching,  
Hech narsamas g'azabing, o'ching. (02.11.2015)*

“Chumchuq” deb nomlangan mazkur she'rda lirik qahramonning kuchdan qolgan holatiga go'yo chumchuq ham beparvo, loqayd. Bu orqali shoir inson umrining achchiq haqiqati aks ettirgan. Shoirning mana bu she'rda ham ana shu holat yana takrorlanadiki, bu achchiq haqiqatni yashirib bo'lmaydi:

*Meni yerga urasan har on,  
Murodingni anglab yetganman.  
Bilmaysanki, men allaqachon  
Oyoqosti bo'lib ketganman.*

*Maqtaysan ham sen meni go'yo,  
Osmonlarga ko'tarasan, bas.  
Menga tanish sen aytgan samo,  
Maqtoving ham yangilik emas.*

Lirik qahramon o'z tuyg'ularini unga zamondosh, qachondir maqtab, ishonchiga kirgan, shunga ko'ra yaqin bo'lgan subutsiz insonlarni keskin tanqid qiladi. Abdulla Oripov qay mavzuga qo'l urmasin, qay shaklda she'r bitmasin, mudom ezgulik bilan yovuzlikning azaliy kurashi, olamning mehvari odamiylik ekani, yomonlik qilib hargiz yaxshilik topib bo'lmasligi kabi umuminsoniy qadriyatlarni kuylaydi.

Abdulla Oripovning “Noyabr” turkumiga kirgan she'rlarining aksari mana shundan teran mulohazakor, falsafiy yo'sinda. Uning “Hayot jumboqlari” nomli she'riga e'tibor bersak, umr yo'li davomida donishmand shoirning kuzatuvlari va undan chiqargan xulosalari sifatida jaranglaydi:

*Do'st axtarib kezma jahonni,  
Bugun uni ko'rding, ehtimol.  
Eslaysanmi, yosh bir o'g'lonni,  
Salom berdi bekatda xushhol.  
Dushmanni ham izlama aslo,  
Yonginangda ko'rsatar firib.  
U, nomingni eshitgan asno  
Radiosin qo'yar o'chirib.*



*Muhabbatni qo‘msaysan har choq,  
Sening uchun misli diyonat.  
Payti kelib, o‘ksirsan biroq,  
Men o‘shaman, desa xiyonat.  
Samolardan gina qilma hech,  
Laqillatar turmush shunchaki.  
Bir yuzingga qo‘ndimi o‘pich,  
Bir yuzingga tushar tarsaki.  
Bu jumboqning yechimi faqat  
Yurakdagi sabotingdadir.  
Peshonangga yozilgan qismat,  
Yashab turgan hayotingdadir.*

Abdulla Oripovning shu yillarda yaratgan she‘rlarida zamonaviylik va an’anaviylikning o‘ziga xos badiiy topilmalariga duch kelamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent. O‘zbekiston, 2002. – B. 59.
2. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent. Fan. 1978. – B.153.
3. Sobir O‘nar. Bibisora. – T., O‘zbekiston. 2011. 245-bet.
4. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi. – T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. - 624 b.

#### **XARAKTER YARATISHDA ZAMONAVIYLIKNING O‘RNI**

**Sayyora YARKINBAYEVA,**  
*O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi*  
**Xafiza ERMATOVA,**  
*Sirdaryo viloyati, Guliston shahar,*  
*10-maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi*

Kundalik hayot tarzining turli jabhalari voqeliklariga bag‘ishlangan badiiy nasr namunalari qatorida hikoyachilikning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki hikoya janri ixcham hajmi va qisqa mazmuni bilan hozirgi tezkor zamonda kitobxonlarning qulay janriga aylanib bormoqda. Matbuotning barcha turlarida ushbu janrning turli yo‘nalishlarigi namunalarga duch kelish mumkin.

Hikoya boshqa janrlardan rivoyaning qisqaligi bilan ajralib turadi. Ushbu janrda ijodkorlarning so‘z qo‘llash mahorati yana bir bor sinaladi. Chunki g‘oyaviy maqsadni amalga oshirishda hikoya janridan foydalanishni maqsad qilgan yozuvchilar mahorat borasida o‘zlarini namoyon qiladilar. Mana shunday adiblarimiz qatorida el orasida tanilib borayotgan adiblardan biri Sobir O‘nar ham bor bo‘lib, uning hikoyanavislik mahorati mustaqillik davri nasrida o‘ziga xos ahamitga ega.

Adibning “Aka-ukalar, “Begona mehmon”, “Tegirmonchining bolasi”, “Tarvuz” kabi qator hikoyalari mavjud bo‘lib, ushbu asarlar qahramonlari o‘z zamonasining oddiy odamlaridir. Ularning ko‘pchiligi insoniy fazilatlar qatori ko‘plab kamchiliklardan holi bo‘lmagan, har qadamda qoqilishi, ayrimi tik turib yo‘lida davom etsa, ayrimlari esa qayta turishga kuch topa olmaydigan insonlar ham deyish mumkin.

Sobir O‘nar hikoyalarida bosh qahramonlar turfa toifa insonlar bo‘lib, ularning o‘ziga xoslik jihati zamona qahramonlari ekanligida ko‘rinadi. Ya’ni, ular ham oddiy kundalik hayot tarzi va turmushi bilan ovora bo‘lgan biror soha vakillari.

“Asar voqealarining markazida turib, syujetni harakatga keltiradigan, yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan asosiy g‘oyani o‘zida tashiydigan shaxslar bosh obraz yoki bosh qahramon deb ataladi” [1, 59]. Bu ta’rif ko‘proq katta epik asarlar bo‘lgan qissa va hikoyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Lekin hikoyada ham asosiy g‘oyani o‘zida mujassam etgan bosh obraz mavjud bo‘ladi. Undagi bosh qahramon katta epik asardagi kabi atroflicha talqin etilmasa-da, yozuvchining o‘rinli tavsifi orqali kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

Adabiyotshunoslikda shakllantirilgan tamoyillarga ko‘ra qahramonlar ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Lekin Sobir O‘nar hikoyalari qahramonlari haqida bunday keskin tavsifni aytish qiyin. Chunki ular o‘z mohiyati, xarakter-xususiyatiga ko‘ra murakkab va ayni chog‘da sodda insonlardir.

Yozuvchining “Aka-ukalar” hikoyasida yozuvchi qahramonning ruhiy holatlari ifodasini mahorat bilan yoritib bera olgan. Uning bunda o‘zgacha uslub qo‘llaganligi, o‘ziga xos hali tesha tegmagan, lekin dolzarb sanalgan hayotiy muammolardan birini yoritishga bag‘ishlangan ushbu hikoyasini o‘ziga xos yutuq deb atash mumkin.

Sobir O‘narning “Aka-ukalar” deb nomlangan hikoyasida bosh qahramon haqida biror so‘z aytish qiyin. Chunki ushbu asarda hikoyachi qahramon qishloqning oddiy yigitlaridan biri bo‘lib, u asarda voqealarning bevosita ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi.

Asar Hoji boboning oilasini tasvirlash va uning oilasidagi pokiza tabiatlilikka urg‘u berish bilan boshlandi. Bu oilaning kenja o‘g‘li hikoyachi qahramonning o‘rtog‘i bo‘lib, ular qo‘shni qishloqlardan biriga – “Qizil olma” qishlog‘iga bir to‘yda ko‘pkari chopib, sovrindor bo‘lish uchun yo‘lga chiqishadi. Yo‘ldoshlar to‘rt kishi bo‘lib, ikkitasi ko‘pkarida qatnashadigan chavandozlar, qolgan ikkitasi: biri – muallif, biri – Ko‘mak aka degan kishi bo‘lib, bu odam to‘y egasi bo‘lgan Qorabosh akaning qirq yillik qadrtoni bo‘ladi.

Voqealar ular to‘yxonaga etib kelgach, to‘y egasining armiya jo‘ralari bilan ichib mast bo‘lib yotganidan “bir chag‘at” narida yashaydigan uning ukasining uyiga joylashishlari, lekin u erda ular sovuq qarshi olinishi, oldilari quruq dasturxon yozilib, zo‘rg‘a non kelishi, choydan darak bo‘lmasligi, xona juda sovuq ekanligi, ancha muddatdan so‘ng uni yoqmoqchi bo‘lishlari, lekin uy tutunga to‘lib qolib axvol battarlashgani tafsilotlari aks ettirilgan. Muallifning Ko‘mak akaga haliyam bo‘lsa, bu erdan uncha uzoq bo‘lmagan “Ingichka” degan joyda

yashaydigan qaynotasinikiga borish to'g'ri bo'lishi haqidagi muallifning gapiga "Qaynotang mehmon qilolmaydi. Bular el kezib yurgan, dong'i chiqqan odamlar", deya mulzam qilib javob berishi bu taklifni yo'qqa chiqaradi.

Shu o'rinda mezbonlar va mehmonlar borasidagi asl holatni ochib beruvchi holat ifodasiga e'tibor bersak:

"... Yana bir muddatdan so'ng bir taqsimchada tosh konfet va bir taqsimchada, chamasi bulturgi hayitdan qolib ketgan parvarda keldi. Boshqa hech narsa kelmadi. Chavandozlar biror yog'liroq ovqat yeb qorin to'yg'azish qayg'usida, biz nochavandoz, haybarakallachi Ko'mak aka ikkimiz to'yda eski oshnalar bilan miriqib ulfatchilik qilish ishtiyoqida edik. Dodimiz Xudoga etmadi chog'i, qamoqqa tushgan to'rt o'g'londay o'tiraverdik. Ovqatdan darak yo'q, hech kim xabar olmaydi. Uxlaylik desak, uy sovuq, pechkaga o't qalanmagan. Bir vaqt bir odam kelib pechkaga o't qalab kerosin sepdi, olov yonganday bo'ldi, ammo u yana o'chdi. Qaytanga uy tutunga to'ldi" [2, 240].

Bundan keyingi voqealar bundagi holatlarning yomonrog'i, sababi, oyna ortidagi xirillashlar ikki mast kishining bir-birini bo'g'ib yotgan holatlari ekanligi ma'lum bo'lishi, so'ng ular bir-birini kaltaklay boshlashi, ulni ajratish uchun otilib chiqqan muallif esa sirpanib yiqilishi pastda esa bir kampirning "o'lik" sifat gavdasini topishi, uni harbiycha usuli bilan jonlantirib yuborishi kabilar aks ettirilgan.

Hikoya davomida chol katta zarang tayoqni ushlab ikkala yigitga, bu yoqqa chiq, ikkovingni urib o'ldiraman, deb po'pisa qilayotgan bo'ladi. Urishayotgan yigitlardan birining esa boshi yorilgan, qon sharillab oqayotgan, ikkinchisining esa yuzlari tinalgan, ko'zlari qovoqday shishib ketgan holatd bo'ladi. Mezbonlar o'sha ikkinchisiga murojaat qilib, bizlar tinch ketaylik, do'xtir chaqir, akangning yarasini bog'lasin, onangniyam ko'rib qo'ysin, deyishadi.

Lekin u doktor uzoqda ekanligini, o'zining aslo bormasligini ma'lum qilib, o'zi turadigan uyga kirib ketadi. Shu holatda mezbonlar axvoli quyidagichaa tasvirlanadi:

"Na bo'lg'ay, biz shu holimizcha qotib qoldik. Shu orada bir mototsikli bor odamni topib, yalinib, oxiri benzin puli deb, to'rt-besh so'm berib, do'xtirga jo'natdik" [2, 242].

Bu holat mezbonlarning yemagan somsalariga pul to'lashi bilan barobar bo'ladi. Ular bu janjalxonadan tezroq ketishni xohlab qolishadi va to'yxonaga o'tishni ma'qul ko'rishadi. Lekin u joydagi axvol ham yaxshi emas edi. Shu o'rinda muallif o'zlari bilan yurgan ikki chavandoz, ikki polvonning nomini keltirishni ma'qul ko'radi:

"Hamrohlarim – Olmos va Norbo'ta polvonlar bu fojeaga sherik bo'lib qolishdan cho'chiganlaridanmi yo janjaldan zada bo'lishdimi, otlarimizniyam olib bu erdan ketaylik, deb qistalang qilishdi. Xullas, janjalkashlarning akasi, to'y egasi Qorabosh polvonnikiga o'tar bo'ldik" [2, 243].

Lekin bu joyda ham ular tor va sigaret tutuni bilan to'la bu joyda diqqinapas bo'lib o'tirib qilgan foydalari faqat bir-ikki piyola issiq choy ichganlari bo'lib, egulik topa olmay ortlariga – janjalxonaga qaytishga majbur bo'lishadi.

Borganlarida “o‘lgan” kampirning hech narsa ko‘rmaganday tashqarida g‘imirlab yurganini ko‘rib hayron qolishadi. Bu vaziyatni muallif – xuddi atay qilganday, deya baholaydi.

Hikoyaning mana shu o‘rinida uning kulminatsiyasiga duch kelish mumkin. To‘yxonada alambostiga besh-olti piyola aroq ichib mast bo‘lgan Ko‘mak aka mehmonxonaga bulardan oldin kirib ketadi. Lekin bular hali etiklarini echmasdan burun ichkaridan bir ayol otilib chiqib keladi. Mezbonlar ichkariga kirganlarida moychiroq yorug‘ida Ko‘mak aka ko‘zlari haykalkiday tosrayib qotib turibdi. Kayfidan asar ham qolmagan.

Nima qildingiz? – deb so‘radim.

Hech narsa, hech narsa, - dedi u yig‘laguday bo‘lib.

Qariganda buytib sharmanda bo‘lmay o‘lganingiz yaxshi.

Hech narsa, hech narsa, - dedi u yana, - boyagi janjalkash yigit deb o‘ylapman, yuzini ochsam indamadi, ko‘rpani ko‘tarib orqasiga bir tepsam, chi-yillab echkiday sakrab turib ketdi. Endi nima bo‘ladi?

Boyagi janjalda odam o‘lmadi har tugul, o‘lsa – endi o‘ladi, tayyor bo‘p turing, - dedim.

Neujeli, ay, neujeli?

Mana qarab turasiz ... [2, 243]

Bu suhbatda badiiy asr tilining maxsus leksik resurslaridan varvarizm, vulgarizm, dialektizmlarni uchratish mumkin. Bu hikoyaning tabiiy ifodasi uchun xizmat qilgan. Dialogdagi “buytib”, “bo‘p” so‘zlari dialektizm, “neujeli” so‘zi esa varvarizm, “o‘lganingiz yaxshi” jumlasida vulgarizmga misol bo‘ladi. Bunday nutq ham qahramonlarni xarakterlagan, ham vaziyatning to‘g‘ri talqin qilinishiga ko‘maklashgan.

“Tong yorishar-yorishmas uyga bir quchoq o‘tin ko‘tarib chol kirdi. Mehmonjonlar, qishning izg‘irida tirazalardi ochib qo‘yganlaringiz nimasi? Polvonlar-da bular, polvonlar.

Bu tashrifdan biz balo ariganini chuqur anglab, engil tin oldik. “Qatlga mahkum” Ko‘mak aka ham dabdurustdan o‘ziga kelib, cholni otam deb guldiray ketdi” [2, 244].

Ko‘rinadiki, uy egalari uchun bu holat tabiiy, ular bundan hijolat bo‘lmaydilar. Nonushta chog‘ida Norbo‘ta polvon chodan kechagi “tepalashgan” yigitlar kimlar ekanligini so‘raganida, ularga chol “ikkoviyam mening ulim” deya javob beradi. Shu o‘rinda bu janjallarning kelib chiqish sabablari ma‘lum bo‘ladi. U chol tilidan quyidagicha bayon qilinadi:

“Kallasi yorilgani kichkinamiz. Erkarog‘. Besh-olti qafasda kaklik saqlaydi. Akasi rayondagi moliyachi jo‘rasi kelib havas qilsa, opketaver deb bittasini bervoripti. Kelin shuni eriga aytib qo‘yipti. Keyin shu janjalda: so‘yaman, chopaman deydi akasini, o‘zlaringiz ko‘rdingiz-ku, kimga qiyin – o‘ziga qiyin. Boltaning uchi tegsa kalla ketar edi. To‘yda aza chiqar edi. Uyat-da. Bu yoqda ko‘pkariga odamlar aytilgan. Mana, sizlarday polvonlardi miymon qip yotippiz. Katta ulimizding Qorabosh polvon deb chiqqan oti bor, tuvrima, polvon?” [2, 244].

Bulardan ko‘rinadiki, chol o‘g‘illarining bu qilmishlaridan bir oz hijolat bo‘lsa-da, lekin o‘z so‘zini bermaydigan, bunday vaziyatlarga ko‘nikib ketgan odam kabi o‘zini tutadi. To‘y berayotgan o‘g‘lini polvon deb bilib, undan faxrlanadi, o‘zlarining insoniylik burchlarini unutgan bunday kishilar bilan g‘ururlanadi, bu holat xalqdagi “qo‘ng‘iz ham bolasini oppog‘im, tipratikan esa yumshog‘im, deydi”, degan naqliga to‘g‘ri keladi.

Asarda chol nutqida yana uning xarakterini ochib beruvchi bir qancha unsurlar qo‘llaniladi:

“... Bu ikki jigit razbor qilaversin, demay, ora ochaman, deb o‘rtaga tushgan. Birovi nari tur deb tirsaklab yuboripti, borib kallani ustunga urib opti, bo‘lmasa toshdevoldan pastga tushib bo‘yni qayrilib o‘lar edi. Hay, e‘tibor qilmang, mehmonlar, ko‘pkaridan gapiring...” [2, 245].

Bu nutqdagi “jigit”, “razbor”, “toshdevol” kabi so‘zlar o‘rni bilan ishlatilgan leksik resurslardir.

Lekin hikoya yuqoridagi holatlarga mos ravishda ko‘pkari polvonlarining ishlari yurishmaganligi bilan yakunlanadi. Chunki ularning otlariga to‘yxonadagilar emish berib qo‘ygan, qorni to‘q ot esa hech qachon yaxshi chopmasligini har bir ko‘pkari chopadigan chavandoz bilgani uchun ham ikki polvon natijani ham darhol taxmin qilishdi va shunday bo‘ldi ham.

Xulosa qilib aytganimizda, Sobir O‘nar hikoyalarida zamonaviylik o‘ziga xos tarzda, o‘ziga xos uslubda talqin qilingan. Sobir O‘nar hikoya qahramonlari xarakterini ochib berishda ba‘zan muallif, hikoyachi qahramon nutqidan unumli foydalanadi. Ular nutqidagi jumlar asosiy xarakterning o‘ziga xos jihatlariga urg‘u bera oladi.

Yozuvchi hikoyalaridagi bosh qahramonlar asosan zamondosh insonlar bo‘lib, ularning xarakter-xususiyatlari orqali bugungi ijtimoiy hayot tarzidagi o‘zgarishlarni, yuksalishlarni kuzatish mumkin.

Zamonaviylikni yuzaga chiqarishda muallif tafsilotlarda badiiy detallardan unumli foydalanadi.

“Adabiyot badiiy obrazlarning murakkab sistemasi orqali inson tuyg‘ulari, ehtirosi, psixologiyasi va ongining jamiyat, davlat, tarix va tabiat bilan bog‘liqlik darajasini ochib beradi. Adabiyot insonni tasvirlash orqali real voqelikni gavdalantiradi” [4, 423].

Umuman olganda, Sobir O‘nar hikoyalarida ham zamon va makonni tavsiflash qahramonning xatti-harakati va dunyoqarashlari orqali amalga oshirilganligi tahlillardan ayonlashadi. Sobir O‘nar mahorati qahramonlar talqinidagi badiiy detallarning mavjudligi, ularning tavsif orqali ifodalanganligida ko‘rinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent. O‘zbekiston, 2002. – B. 59.
2. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent. Fan. 1978. – B.153.
3. Sobir O‘nar. Bibisora. – T., O‘zbekiston. 2011. 245-bet.

4. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi. – T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. - 624 b.

## **ЗАНИМАТЕЛЬНЫЕ ИГРЫ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ**

**Илхом БУРИЕВ,**  
*преподаватель ГулГУ*

Успеха в обучении русскому языку в вузах можно достичь лишь на основе реализации строго продуманной системы учебно-воспитательных методов. Важным звеном в этой системе являются занимательные игры, которые обогащают новыми знаниями, расширяют их кругозор, помогают преподавателю лучше изучить своих студентов и совершенствовать их языковую подготовку. Для того, чтобы вызвать интерес к тем или иным знаниям, используется занимательная форма преподнесения материала. Занимательные игры делают занятия более разнообразными, эмоциональными, позволяют многократно повторять изученный материал без скуки и монотонности, дают преподавателю проконтролировать объем знаний обучающихся. Например, существуют *«Занимательная грамматика»*, *«Занимательная математика»*, *«Веселая грамматика»*, *«Без знания грамматики не усвоить ни истории, ни математики»*, *«Литературные игры»*, *«Азбука народной мудрости»* и т. д.

Занимательность может заключаться в содержании учебного материала, в формах его преподнесения. Содержание материала считается занимательным, если в нем содержатся новые, неожиданные или необычные интересные сведения, в некоторых случаях имеющие комический или загадочный смысл: интересные сведения и факты, поучительные высказывания и истории, загадки, юмор, шутки и т. п. Необычной и новой может быть и форма прорабатываемого материала: сказки-загадки, стихи-загадки, стихи-шутки, афоризмы, юморески, пословицы и поговорки, словесные игры-загадки, шарады, ребусы, кроссворды и т. п. Занимательный материал представляет большой интерес при обучении языку в вузе. Здесь он, содействуя более эффективному усвоению и закреплению материала, стимулирует интерес студентов к языку. Для этого надо, чтобы занимательный материал был подобран в соответствии с вузовской программой, отвечал целям и задачам практических занятий по языку.

Занимательные игры в обучении русскому языку нерусских - это один из основных факторов, который действительно помогает настоящему изучению русского языка, свободному и активному овладению студентами русской речью, это мощное средство формирования у них интереса к русскому языку как учебному предмету и лингвистическому явлению, эффективная форма расширения и

углубления знаний. Четкая связь с занятием, формирующим языковую базу, и в то же время как можно более дальний выход за его пределы составляют одну из важнейших особенностей занимательных игр, которые призваны развивать русскую речь обучающихся, обязательно учитывать их склонности и симпатии и опираться на них.

Использование занимательности возможно и уместно на любом занятии и на любом его этапе при том условии, что она будет подчинена целям занятия и органически включена в процесс занятия, и при этом не будет отвлекать от основного материала, а наоборот, стимулировать его усвоение. Например, при закреплении конструкций с глаголами повелительного наклонения можно использовать пословицы и поговорки: *«Работай – сыт будешь; учишься – умён будешь»*. *«Век живи, век учишься»*. *«Сперва сам поучись, потом в учителя становись»*, *«Хочешь уважения – говори меньше, хочешь здоровья – ешь меньше»*, *«Выбирай друга не спеши, а еще меньше спеши менять его»*. При обучении студентов употреблению конструкций с определительными придаточными предложениями и причастными оборотами можно для примера взять следующие крылатые выражения: *«Дом, в котором нет книг, подобен телу, лишённому души» (Цицерон)*. *«Как съедающие очень много не бывают здоровы более, нежели употребляющие в пищу самое необходимое, так и истинно ученые бывают не те, которые, читают многое, а те, которые читают полезное» (Аристофан)*.

В газетах, календарях, различных журналах, в частности в журнале *«Наука и жизнь»*, сообщаются интересные факты, необычные и удивительные события, различные курьезы и т. п. Подбор их в соответствии с темой занятий или в качестве примеров различных изучаемых синтаксических конструкций способствует повышению интереса студентов к занятиям. При обучении студентов правописанию и употреблению конструкций с числительными можно дать для примера сообщение из информационного бюллетеня *«Новости ЮНЕСКО»*. Например, микротекст *«Информационный бум»*. *«Каждый день на всех континентах нашей планеты зажигаются экраны 500 миллионов телевизоров, включается 1,2 миллиарда радиоприемников, издается 450 миллионов экземпляров одних только ежедневных газет»*. Использование таких материалов позволяет решать одновременно с учебными воспитательные задачи, расширять кругозор и обогащать знания студентов.

В целях выработки у студентов умения понимать и анализировать произведения художественной литературы, используемые для обучения чтению, можно проводить работы по расшифровке фразеологизмов (давать задания на нахождение в тексте фразеологизмов и замену их другими словами), подбору фразеологических сочетаний на одну тему, давать материалы, освещающие историю возникновения некоторых фразеологизмов, данные об этимологии слов и словосочетаний. Например: Сочетание *«у разбитого корыта»* означает *«остался ни с чем»*, оно

связано с содержанием сказки А. С. Пушкина «Сказка о рыбаке и рыбке»; «*в час по чайной ложке*» означает «очень медленно» и произошло от разъяснения способа приема лекарства; «*семь пятниц на неделе*» говорят о человеке, который не умеет держать слово; «*положить зубы на полку*» - голодать, «*строить замок на песке*» – думать о чем-то неосуществимом; «*родился в сорочке*» – удачливый, счастливый и т. п. Интересно сопоставление фразеологических сочетаний русского языка с идентичными сочетаниями родного языка: «*как белка в колесе*» – «*бузчининг моксидек*» (буквально: как челнок ткача), «*я про Ивана, а ты про болвана*» - «*мен богдан келсам, сен тогдан*» (буквально: я говорю про сад, а ты про гору).

Интересно, что некоторые слова русского языка тюркского происхождения имеют давнюю историю и настолько прочно вошли в русский язык, что только этимологический анализ проливает свет на их происхождение, например: слово *деньги* произошло от «*танга*» (*монета*), *башка* – от слова «*бош*» (*голова*), *барабан* – от слова «*баланд*» (*высокий*) и «*бонг*» (*звук*), *каблук* – от слова «*каб*» (*пятка*). Полисемантический характер слов может придать процессу осмысления фразы занимательный характер, когда анализируются фразы, содержащие слова с вариативной интерпретацией и когда неверный выбор семантического варианта может привести к созданию комических ситуаций. Например, фразу «*затопили кухню*» можно понять двояко: как «*начало работать отопление*» и как «*залили водой*». На подобной полисемии основываются некоторые загадки, загадки-шутки и комические рисунки, использование которых на занятиях вызывает интерес студентов. Например, вопросы: *Что находится между окном и дверью (союз «и»)*. *Знаете ли слово, в котором сто звуков? (стол, стог, стон, стоп)*. [1, 1974]. Занимательным является проведение на занятиях викторины по содержанию нескольких проработанных текстов или по содержанию материалов теле- или радиопередачи, прослушанных накануне занятия.

На занятии можно использовать разнообразные формы занимательности, связывая ее с усваиваемым программным материалом, но применять ее следует так, чтобы она облегчала работу, а не отвлекала от основной цели занятия, не превращалась в развлекательность.

Для закрепления темы «Лексическое богатство русского языка» можно использовать знакомства с толковыми словарями В. И. Даля, Д. Н. Ушакова, С. И. Ожегова. Проводится словарная работа. Студенты подбирают глаголы на заданную преподавателем тему. Например, *движение*. Один из студентов записывает это слово на доске, а остальные подбирают к теме различные глаголы (*летит, мчится, скачет, бежит* и др.), при необходимости слова переводятся на узбекский язык. Все слова записываются на доске и в тетрадах. Устно составляются предложения. Лучшие из них записываются. Следующий студент записывает на доске существительное и прилагательное,



а остальные подбирают к ним синонимы, например, *жилище* (*здание, дом, хижина, хата, изба, лачуга* и т. д.).

Предварительно проводится работа по выяснению смыслового значения слова. Записывают слово *ключ*, рядом записывают омонимы: *музыкальный ключ, ключ к замку, горный ключ, ключ для завода часов, игрушек, ключ к шифру, ключ для откупоривания бутылок, ключ для отвинчивания и завинчивания чаек*. Составляются с ними предложения.

Записывают на доске прилагательные. Подбирают к ним существительные и объясняют значение словосочетаний. Особое внимание обращается на согласование. Например: *крепкий – человек, здоровые, чай, мед, дружба; тихий – голос, речь, ветер, ребенок, пение, чтение* и др. С полученными словосочетаниями составляются предложения, переводятся на узбекский язык, записываются в словарные тетради. Такая работа способствует пополнению активного словаря студентов и развитию их речи. Выполняются грамматические упражнения. Цель проводимой работы повторить изученные правила и закрепить их в памяти студентов.

1. Укажите разницу в значении и правописании следующих слов: *пребывать – прибывать, презирать – приزيрать, предать – придать, преклонятся – приклонятся, преступить – приступить, претворить – притворить*.

2. Ответьте на вопросы.

1) Название каких животных, насекомых, птиц называются сложными? (животные: *носорог, щитконосец, землеройка, утконос, птицы: мухоловка, красношейка, черноголовка, вертишейка*, насекомые: *муравей, шелкопряд, сороконожка*).

2) Название каких машин, приборов называются сложными? (*камнедробилка, землечерпалка, бетономешалка, сенокосилка, хлеборезка, пылесос, мясорубка*).

3) Какие явления природы, называются сложными словами? (*землетрясение, суховей, ледоход, листопад, снегопад*).

3. Заполните адрес на конверте (всем студентам раздаются конверты). Полностью написать фамилию, имя, отчество мамы, тети, сестры (в окончаниях дательного падежа женского рода обучающиеся делают ошибки). Например:

К у д а: г. Ташкент, улица Навои, дом 55.

К о м у: Буриевой Ситоре Илхамджановне.

А д р е с о т п р а в и т е л я: г. Гулистан, Жилгородок, дом 5.

О т к о г о: Косимой Азизы Вахабовны.

Такая работа оживляет занятие, помогает увеличить запас русских слов, закрепляет и укрепляет навыки связной речи, помогает интерес к изучению русского языка, тренирует память обучающихся, вырабатывает находчивость, смекалку разгадывания языковых головоломок, ребусов, кроссвордов и т. д.

Наряду с занимательными играми тренинги тоже являются видом интерактивного метода. Интерактив – это самый эффективный подход к обучению. При данном методе обучающиеся самостоятельно добывают информацию и происходит взаимодействие не только между преподавателем и студентом, между самими студентами, но и между студентом и его опытом. При организации любого типа упражнений, связанного с речью, педагог должен стимулировать потребность мотивационной сферы обучаемого, т. е. всякий раз обеспечивать мотив говорения. Различный речевой процесс – это процесс создания высказывания, который всегда начинается с потребности, с желания сказать. Потребность познания окружающего мира, общения с людьми определяет мотивы речевых действий. Мотив провоцирует потребность говорить на изучаемом языке в игровой ситуации и это приобретает характер познавательных и эвристических действий.

Наряду с подбором занимательного материала немаловажное значение имеет и правильная методика его использования, которая определяется как целью занятия, так и характером этого материала. Назначение занимательности может быть различным: поднятие эмоционального тонуса учебной работы на занятии, привлечение внимания студентов, мобилизация памяти и ролевых усилий для решения речевых задач и др. Познание мира в дидактических играх облекается в иные формы, непохожие на обычное обучение: здесь и фантазия, и самостоятельный поиск ответа, и новый взгляд на известные уже факты и явления, пополнение и расширение знаний, установление связей, сходства или различия между отдельными событиями. Таким образом, игра создает атмосферу здорового соревнования, заставляющего обучающегося не только механически припоминать – известное, но и мобилизовать все свои знания, думать, подбирать подходящее, отбрасывать ненужное, сопоставлять, оценивать.

Таким образом, игры всегда ведутся по определенным правилам. В игре обучающиеся должны мобилизовать свои знания, обращаться к материалу, не вошедшему в учебник, умственно и морально обогащать себя. А сознание этого приносит чувство удовлетворения, уверенности в себе. Без преподавателя, без его поддержки многие интересные начинания студентов могут оказаться трудными и не осуществимыми для них.

Преподаватель должен стать не только организатором игры, но и ее участником. Он должен положить начало работе обучающихся, умело ввести студентов в игру. Это не значит, конечно, что преподаватель идет вразрез с хорошими замыслами студентов, что он «навязывает» игру вопреки коллективу обучающихся. При реализации дифференцированного обучения успешное выполнение трудных заданий занимательного характера служит стимулом для слабых к совершенствованию своих знаний и приложению усилий, чтобы догнать сильных и иметь возможность выполнять такие же трудные, но интересные упражнения. Но основное место отводится занимательности на внеаудиторных занятиях, в частности на занятиях кружка русского языка. [2, 1982].

### **Литература:**

1. Талипова Р. Т. Игра и речь. – Т., 1974. – 65 с.
2. Деловые игры в учебном процессе//сб. научных трудов. – Минск, 1982. – 150 с.

### **SADRIDDIN SALIM BUXORIY –TARJIMON**

**Muhabbat AZIMOVA,**

*BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası izlanuvchisi*

Buxoroyi sharifda tug‘ilib, bor salohiyatini Vatan ravnaqi yo‘lida sarflagan vatanparvar shoir Sadridin Salimov “Buxoriy” taxallusini qo‘llaganida elimiz shoirning shu taxallusga munosib ekanini e‘tirof etdi va ijodkor o‘zbek adabiyotida Sadridin Salim Buxoriy sifatida zikr etildi. Zullisonayn shoir ham o‘zbek, ham tojik tilida qalam tebratdi, ikki tildagi asarlari ham badiiyati jihatidan birday maqbul. Ammo o‘zbek tilidagi ijodi miqdoran salmoqdor. Aksariyat iste‘dodli shoirlar tarjima bilan shug‘ullanganlari misoli Sadridin Salim Buxoriy ham mutarjim edi. Shoir nemis faylasufi Gyotening “G‘arb-u Sharq” devonining tarjimoni sifatida nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki dunyo tarjimonchiligida ham ma‘lum va mashhurdir.

Sadridin Salim Buxoriy amalga oshirgan tarjimalarini qaysi tildan tarjima qilishiga ko‘ra:

1) fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga;

2) o‘zbek tilidan fors-tojik tiliga;

3) nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan tarjimalar sifatida tasnif qilish mumkin. Bu tarjimalar bevosita asl variantlardan amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir.

Sadridin Salim Buxoriy nemis faylasufi Gyote ijodidan tashqari, sanoqli bo‘lsa-da, Karl Mikel va Eva Shtrittmatter she‘rlarini ham o‘zbekchalashtirgan. Karl Mikelning “Jannat darvozasi ro‘parasida” she‘rini, Eva Shtrittmatter qalamiga mansub “Yakkalik”, “Vaqt”, “So‘roq”, “Boshpana”, “Yo‘qotilgan-yil” to‘rtliklarini o‘zbek kitobxonlari Sadridin Salim Buxoriy tarjimasida o‘qidi. Ustoz nemis tilidan bevosita tarjima qilgani ma‘lum. Bundan tashqari fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga, aksincha, o‘zbek tilidan fors-tojik tiliga hikmat – to‘rtliklarni o‘g‘irgani tarjimachilik faoliyatida alohidalik kasb etadi.

Aksariyat mutarjimlardan farqli o‘laroq Sadridin Salim Buxoriy o‘z she‘rlari tarjimoni hamdir. Sadridin Ayniy va Chingiz Aytmatov o‘z asarlari tarjimoni ekani hammamizga ma‘lum. Ayniy o‘zbekchadan tojikchaga va aksincha, tojikchadan o‘zbekchaga; Ch.Aytmatov qirg‘izchadan rus tiliga va aksincha, ruschadan qirg‘izchaga tarjima qilgan. Bunday tarjimani adabiyotshunos olim Samad Azimov avtotarjima deb hisoblab, shunday yozadi: “Avtotarjimani professional tarjimadan ajratib turuvchi asosiy belgi “avtor erkinligi” da ko‘zga tashlanadi. O‘z asarini ikkinchi bir tilga o‘g‘irish uchun qalam tebratgan avtor xohlasa, xohlamasa ham asar ustida qayta ishlashda davom etadi. Avtotarjimada qayta yaratish jarayoni boshlanadi. Avtor nimadandir voz kechsa, nimanidir qo‘shishni lozim topadi” [1, 71]. Olim avtotarjimada tahrir bilan tarjima

uyg'unlashishini, tarjimon o'z asarini tahrir qila boshlashini, bu tahrir asarni ba'zi nuqsonlardan xoli qilishini, unga sayqal berishini, kitobxonni asl maqsadga–bosh g'oyaga yanada yaqinroq olib borishini, ikkinchi til va uning kitobxoni talabiga moslashtirishga ham bog'liq ekanini zukkolik bilan sanab o'tadi va avtotarjimaning yutuqlarini ko'rsatib beradi. Albatta, avtotarjima bunday fazilatlarga ega bo'lishi uchun shoir-tarjimon ikkinchi tilni ham mukammal bilishi va mohir bo'lishi lozim. Sadridin Salim Buxoriyda shunday mahorat bor edi va shoir ikki tilni birday bilardi:

Kim seni yor etdi, yor bo'ldi oqibat,  
Kim seni zor etdi, zor bo'ldi oqibat.  
Ey Buxoro! Bu ne hikmatdur, ajab,  
Kim seni xor etdi, xor bo'ldi oqibat [3, 23.].

To'rtlikning tojikchasiga diqqat qiling:

Yor shud har ki turo yor karda bud,  
Zor shud har ki turo zor karda bud.  
Ey Buxoro! Inchi hikmat ast, ajab?  
Xor shud har ki turo xor karda bud [3, 52.].

Bu aynan tarjima ekani ko'rinib turibdi. "Maqsudim sensan", "Ey gulim" singari to'rtliklari ham aynan tarjimaligini aytish lozim. Ammo shoir ba'zi to'rtliklarini aynan tarjima qilmagani, avtotarjimaga erkin yondashgani, ustoz S.Azimov ta'kidlagan fazilatlardan foydalangani e'tiborimizni tortdi:

Illat izlaganga illatdur dunyo,  
G'urbat izlaganga g'urbatdur dunyo.  
Kim neni izlasa, topar begumon,  
Hikmat izlaganga hikmatdur dunyo [4, 99.].

Tojikchaga o'girilganda mazmun aynan saqlangan. She'r mohiyatida biror o'zgarish yo'q. Ammo she'r o'zbekchada III shaxsga, tojikchada II shaxsga qaratilgan, ayni damda, tojikchada vazn o'ynoqi bo'lgan. Vazndagi tafovut to'rtlikning o'zbekchasida 11, tojikchasida 9 hijoli barmoq vazni qo'llanganiga aloqador:

Illat jo'yi illat ast dunyo,  
G'urbat jo'yi g'urbat ast dunyo.  
Har chi jo'yi onro biyobi,  
Hikmat jo'yi hikmat ast dunyo [3, 52.].

Ba'zi to'rtliklarda shoir ayrim satrlarni o'zgartiradi:

Bir kun biz ham afsona bo'lgaymiz,  
Tuproq bilan hamxona bo'lgaymiz.  
Yo'qoldiki, har ne aziz bo'lgay,  
Yo'qoldikki, durdona bo'lgaymiz [3, 12.].

Ushbu to'rtlikning 2-3-misralari tojikchada o'zgacha bo'lib kelgan:

Yak ro'z mo ham afsona meshavem,  
Bo hazor solagon hamxona meshavem.  
Har chiz ki gum shud aziz meshavad,  
Dar xoki tira gum shuda durdona meshavem [3, 52.].

O‘zbekchadagi “Tuproq bilan hamxona bo‘lgaymiz” satri tojikchada “Bo hazor solagon hamxona meshavem”, ya’ni “Ming yoshlilar bilan hamxona bo‘lgaymiz” deb tarjima qilingan. “Hazor solagon” deganda shoir pirlarni nazarda tutadi. To‘rtinchi “Yo‘qoldikki, durdona bo‘lgaymiz” misrasi esa “Dar xoki tira gum shuda durdona meshavem” deb o‘g‘irilgan.

Ko‘p qattiqdir shoirlik noni,  
Yig‘ishtir bu ishingni!  
Sindiradi bu non, tishlayman desang,  
O‘ttiz ikki tishingni [3, 42].

Bu to‘rtlikning tojikchasi do‘stga murojaat bilan, ya’ni nido san’ati bilan boshlanib, ikkinchi “Yig‘ishtir bu ishingni” misrasi “Hifz bikun jonatro!”, ya’ni “Jonangni asra” deb berilgan.

Ey do‘st! Bisyor saxt ast noni shoiri,  
Hifz bikun jonatro!  
Meshikanad on non ba dahon giri  
Siyu du dandonatro [3, 53].

Uchinchi satrda “tishlayman desang” birikmasi “ba dahon giri”, ya’ni “og‘zingga olsang” tarzida berilgan. Bu o‘zgarishlar qofiya sabab ham yuz bergan, ammo bu o‘zgarishning bir jihati, xolos. To‘rtlikning o‘zbekchasi 11, tojikchasi yana 9 hijoli barmoq vaznida yozilgani bilan tafovutlidir. Bundan ko‘rinadiki, Sadridin Salim Buxoriy avtotarjimasini qanday amalga oshirganiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

**1. Aynan tarjima qilgan.**

**2. Erkin tarjima qilgan,** ya’ni misralar almashinuviga erkin yondashgan, yangicha misralar yaratgan.

Xonai dil bechiroq, yorim nazar ayla,  
Xonai dilda firoq, yorim nazar ayla .  
Nuri tajalliy birlan ravshan etgil olamni,  
Toki dil bo‘lsin mayoq, yorim nazar ayla [3, 40.].

Tojikcha tarjimasiga diqqat qiling:

Xonai dil bechiroq, yoram nazar kun,  
Xonai dil purfiroq, yoram nazar kun,  
Bo nuri tachalliy olam munavvar meshavad,  
Gardad dilam mayoq, yoram nazar kun [3, 54].

Bu she’rning 3-misrasi boshqacha tarjima qilingan: o‘zbekcha “Sen ravshan etgin” misrasi tojikchada “Olam munavvar bo‘ladi” tarzida kelgan. Buni avtotarjimadagi erkinlik deb hisoblash mumkin. “Qur’on”, hikmatlar mutolaasi, pir-u avliyolar hayoti va ijodini o‘rganish, eng asosiysi, shoirning parhezkor va pokdomon xonadonda ulg‘ayishi hikmatomuz to‘rtliklar yaratishiga zamin bo‘ldi va shoir o‘zining purhikmat to‘rtliklarini ikki tilda she’rxoniga taqdim qildi.

Sadridin Salim Buxoriy tarjimalari ikki xil:

**1. Avtotarjima.**

**2. O‘zga shoirlar she’rlari tarjimasi.**

Oʻzga shoirlar sheʼrlaridan tarjima asosan avliyo, shayx, pirlar ijodidir. Tarjimon Shayx Abu Said Abulxayr, Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoni, Xoja Ali ar-Romitaniy, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning hikmat - toʻrtliklarini oʻzbek kitobxoniga taqdim etgan. Barcha tarjimaga tanlangan sheʼrlar mavzusi shoir koʻngliga yaqin. Oʻzga shoirlar hikmatlarining asli “Ikki yuz yetmish yetti pir” kitobida tarjimasi bilan, “Durdonalar”, “Hikmatdir dunyo” kitobida faqat tarjimasi berilgan.

Sadriddin Salim Buxoriy va S. Azimov qalamlariga mansub “Xojai jahonim bor” kitobida Gʻijduvoniyning 20 ga yaqin hikmat – toʻrtliklarining asli va tarjimasi berilgan:

Yomon bilan suhbat etma hech,  
Alar noming bulgʻab ketolgay.  
Qara, ulkan quyosh nurini  
Parcha bulut xira etolgay [2, 86].

Bunday tarjimalar ulugʻ tariqat nazariyasini ishlab chiqqan, naqshbandiya tariqatiga daxldor yetti pirdan birinchi boʻlmish Gʻijduvoniyning sheʼrlari borligini, bu sheʼrlar tasavvuf olamiga aloqador gʻoyalarni tashigani, bu toʻrtliklar bugun ham yosh avlod tarbiyasida muhim oʻrin tuta olishini koʻrsatadi. Tarjimonning xizmati beqiyosligini dalillaydi.

Sadriddin Salim Buxoriy yetti pirdan biri Rometaniydan 6 sheʼr tarjima qilgan. Tarjimalar asliyatdagi mazmun-mohiyatini toʻliq saqlay olgan. Ayniqsa, oltinchi hikmat juda ibratli.

Tilning inson boshiga kulfat keltirishi haqida koʻpchilik shoirlar sheʼr bitganlar. Yusuf Xos Hojib shunday yozadi:

Til arslan turur, koʻr, eshikda yatur,  
Aya evlug, arsiq bashingni yeyur [5, 16]

Buxoriy tarjimasi asosidagi Rometaniy hikmatini oʻqing:

Ul Allohkim tanu jonni yaratdi,  
Har aʼzoni bir xizmatga qaratdi.  
Tilda illat koʻrdi-yu etdi tutqun,  
Ogʻiz –zindon, tilni anda qamatdi. [4, 204]

Agar Alloh tilda illat koʻrmasa edi, uni ogʻiz zindonida mahbus etmasdi –bu asliyatdagi maʼno. Tarjimada ijodiy, erkin yondashuv borligi koʻrinib turibdi. Uchinchi hikmatda “Gar zikr dilga yetsa, diling dard qilgay”, yaʼni ogʻrigay deb oʻgʻirilgan. Asliyatda esa “zikr dilga yetganda diling ogʻrisin” tarzida berilgan. Qolgan misralar ham xuddi shunday. Bu oʻzgarishlar mazmunga jiddiy taʼsir etmagan. Asliyatdagi qatʼiy hukm yumshatilgan, xolos. “Zikrni tinglaganda diling ogʻrisin” – bu Rometaniy davriga xos boʻlib, xatolarni oʻylab, insonning oʻzidan ranjishiga undash hukmi boʻlsa, “zikrni tinglaganda diling ogʻrigay” bu halimlikni kasb etgan shoirning inson oʻzini isloh qiladi deb bildirgan ishonchidan yuzaga kelgan. Koʻrinadiki, yyetuk shoir Sadriddin Salim Buxoriy mahoratli tarjimon hamdir. U tarjimaga zukkolik bilan munosabatda boʻldi va oʻzbek sheʼrxonini nodir asarlar bilan oshno etdi. Bu tarjimalar yosh avlod maʼnaviy kamolotida muhim oʻrin tutishi shubhasiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov S. Qardoshlik kuychisi.–T.: Fan, 1990.–73 b.
2. Sadridin Salim Buxoriy, Samad Azimov. Xojai Jahonim bor. – Buxoro, 2003. – 96 b.
3. Sadridin Salim Buxoriy. Durdonalar.– Buxoro. 2005. – 63 b.
4. Sadridin Salim Buxoriy. Hikmatdir dunyo.– Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMK, 2011.– 356 b.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. .–T.: Choʻlpon nomidagi NMIU, 2007. 200 b.

## KEYINGI YILLAR SHEʻRIYATI HAQIDA BAʻZI MULOHAZALAR

**Azmiddin NASIROV,**  
*SamDU dotsenti, filologiya fanlari doktori*

XX asrning dolgʻali 70-yillarning soʻngi, 80-yillarning boshlarida adabiyotda ham, jamiyatda ham shunday bir silkinish vujudga keldiki, buning zamirida hayotning achchiq qirralarini, insonning ruhiy istiroblarini badiiy kashf etish yuksak darajaga koʻtarildi. Isteʼdodli shoir, oʻzbekning magʻrur oʻgʻloni Rauf Parfi yozganidek:

Soʻzning gulxaniga ruhim isindi,  
Ul yulduz, oylarning soʻzin oʻqirdim.  
Lablarim yorildi, tishlarim sindi,  
Xayolimdan oltin qafas toʻqirdim [1, 251-bet].

Adabiyotshunos Qozoqboy Yoʻldoshev qayd qilganidek: “Olamni yangicha his etish samarasi boʻlishi hozirgi oʻzbek sheʻriyatida turgʻunlik emas, doimiy oʻzgarishlar anʼanaga aylandi. Yaʼni oʻzgarishlarning tinimsizligi anʼanasi paydo boʻldi, birovni takrorlamaslikning takrorlanishi qaror topdi va bugunga kelib har bitta chinakam shoir nafaqat birovni hatto oʻzini ham qaytarmaslikka harakat qilayotir. Bu holat bugungi sheʻriyatning yetakchi belgisiga aylandi” [2, 315-bet].

Darhaqiqat, sheʻriyatdagi tasvir anʼanaviylikdan noanʼanaviylik sari qadam tashladi. Fikr va ruhning yangilanishi estetek qarasglarning ham tozarishiga olib keladi. Bu esa inson didi va qarashlarining mahsuli sifatida yuzaga chiqdi.

Yo osmonning ustida yasha,  
Yo yashagin ostida yerning.  
Oʻrtasiga tushib oʻtirma –  
Yer va osmonning, - deb yozadi Xosiyat Rustamova

Bu oʻrinda ham shoira qalbini titratayotgan narsa ham tirikchilik, hayot murakkabliklarini, zahmatlarini tatish, “yer va osmon” ning oʻrtasiga tushib qolish hayotiy qiyinchiliklargina emas, ramziy maʼno mavjudligini anglashga intilamiz. Inson ruhiyatidagi oʻziga xos xususiyatlarga mantiqiy urgʻu beradi. “yashagin ostida yerning”, - deya koʻpchilikning butun – murakkabliklariga chizishga intiladi. Obrazli tashbehtar yetakchilik qiladi. Yoki,

Aslida yoʻllar koʻp –

Eshiklar ochiq,  
Xoh peshin bo'lsin-u va yo ertalab.  
Men xamon kimgadir achchiqma-achchiq,  
Dunyoga boraman teskari qarab,  
Odamlar qayfadir borishar shoshib,  
Ertangi kunlarga qo'ygani qadam,  
Men esa hovliqib, tog'lardan oshib –  
Kechagi kunlarga ketgan bo'laman [3, 24-bet].

Shoira she'riyatining o'ziga xosligi bu misralarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Misralar tarkibidagi Yo'l, Eshik, Dunyo, Kun, Tog' kabi poetik obrazlar o'ziga xos tabehona ifodalaganini kuzatamiz. Shu o'rinda iste'dodli shoirlardan biri Ashir Xudoyberdining quyidagi misralariga hamohangdek taassurot uyg'otadi.

Men olamdan o'tmadim, balki olam  
Mendan o'tdi. Endi mening zuvalam  
Buyuk kulol ilkidadir, xohlasi,  
Ko'za yasar, xohlasi yana odam [4, 146-bet].

E'tibor beradigan bo'lsak, "Men olamdan o'tmadim, balki olam mendan o'tdi"- ya'ni hayotiy o'limni yenga olgan lirik qahramon jonlanadi, ko'z o'ngimizda.

Shoira Xosiyat Rustamovadagi "Kechagi kunlarga ketgan bo'laman"-deganida she'rdagi voqelik hayot haqiqatiga mutlaqo teskari shaklda tasvirlangan. Axir, ertangi kunga borish mumkindir, ammo kechagi kunga, o'tgan biror daqiqaga qaytish mantiqsizdir. Lekin shoiraning o'ziga xos tasvir usuli, xuddi ma'nosizdek tuyulgan tushuncha yuksak ma'no ifodalaydi.

Adabiyotshunos Izzat Sulton qayd etganidek: "Lirik asarda borliq ijodkorning ichki dunyosi orqaligina o'z ifodasini topadi... Shuning uchun lirikada shoir shaxsiyati birgina planda namoyon bo'ladi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul etamiz va anglaymiz", - deb yozadi.

Ko'rinayaptiki, shoir shaxsiyati yuqoridagi misralarda ham go'zal tashbehlar orqali tasvirlanadi. Shuningdek, Sirojiddin Sayyid she'riyati ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos N.Rahimjonov shoir ijodi haqida so'z yuritib yozadi: "Chinakam shoir uchun so'z- bu fikr aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarzi, yashash shaklidir. Har bir so'z badiiy asardagi g'oyaviy estetik maqsadga ko'ra muayyan ma'no kasb etadi" [5, 5-bet].

Darhaqiqat, har bir ijodkor so'zni teran ma'nolarda qo'llashga intiladi. Tasvirda esa uning shaxsiyatini namoyon etadigan o'zigagina xos didi, hissiyoti, ko'ngil tebranishlari mavjud bo'ladi:

Yurtim! menga zar kerakmas zarlaringdan,  
Kipriklarim o'psalar bas gardlaringdan.  
Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,  
Aytib o'tsam deyman ko'hna dardlaringdan.

Shoirt she'riyatida ijtomoiy estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning o'ziga xos bir qirradi Vatanga bo'lgan muhabbat namoyon bo'ladi.



Lirik qahramon birgina shamol bo‘lib kelgani, unda ham bir dard borligini ilg‘ab olamiz:

Almashdilar seni nomu rutbalarga,  
Munglug‘ bo‘lib qolding botib shubhalarga.  
Hilolarining qaytar yana qubbalarga,  
Moziylarfa so‘ylab-so‘ylab zarlaringdan.

Yoki,

Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar  
Yassaviylar yozgan aziz yerlaringdan, - deb yozadi.

“Ilinj” nomli she‘rdagi gard, nasim, sas, xas, barg, buloq detallari lirik qahramonning mehr-muhabbatini tiniqlashtiradi. Ona-Vatanga bo‘lgan mehrini, sadoqati “menga dunyo kerak emas, bir xas yetar” misralarida mujassamlashgan.

Dastlabki to‘plamlaridan “Kuydim”, “Vatanni o‘rganish”, “Ko‘ksimdagi zangorlarmi”, “Ko‘ngil sohili”, “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni” saylanmasiga shoir ijodi yuksalib, o‘sib ketganligini kuzatamiz. Chunki Vatan mavzusida she‘r yozmagan shoir yo‘q. – desak, mubolag‘a bo‘lmas. Ammo S.Sayyib betakror ovozga ega ekanligini shu mavzuni yoritishda ham ko‘ramiz, u ifodaning mutlaqo o‘ziga xos, oharli usulni topa olgan.

Shoirning hamdardlik she‘rida xalqning mashaqqatli mehnati, hayot tiriklik saboqlari, iztiroblari, yoki umrining mohiyatini, jannatdagi o‘rnini anglay boshlagan tirik qahramon kechinmalarini kuzatamiz:

O‘zdan chiqqan balolarmi yo kimlar,  
Sening rizqu nasibangni qiyqimlar?  
Yetimning ham haqqin yulib taqsimlab  
Chirqiragan tana-tillo, pulim-ay,  
Voy elim-ay, voy elim-ay, elim-ay!

She‘r – cheksizlikning chekida tug‘ilgan dunyo. Shoir ko‘nglini o‘rtagan og‘riqli so‘roqlarga voqelikdan, jamiyatdan javob izlaydi. Shaxs erki, ko‘ngil hurriyati odam bilan tug‘iladi, erkinlik boy berilgan joyda fojia yuzaga keladi. Shoirlar hayotni, inson dunyosini, ruhiy olamini, zamondoshlarimizning o‘y-fikrini, dardi-yu quvonchlarini “tuproqdan ham xoksorroq elim”ning g‘am-anduhlarini, armonlarini aks ettirishga qaratilgan.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov qayd qilganidek: “shoirning lirik qahramoni mustaqillik sharofati bilan atrof – tevaragimizda kechayotgan hayot buxronlarini, voqea-hodisalar mohiyatini ko‘ra biladi; millat va Vatan manfaatlari, shaxsning ma‘nan va fikran kamoli nuqtai nazaridan baholay oladi”, – deb yozadi. [5, 159-160-betlar].

Ota bu dunyoda har so‘z sotiladi,  
Begona sotiladi, ham do‘st sotiladi.  
Yaxshilik istabon o‘tgan umrimiz,  
Choponday eskirdi, to‘zdi sitildi.

Lirik qahramonning krchinmalari xalqona hikmatlarga yo‘g‘irilganligini kuzatamiz. Inson va jamiyat, tiriklik va hayot ularning ma‘no mohiyati yangicha mazmunda talqin etiladi. Jiddiyroq e‘tibor berilsa, inson ruhiga zug‘um qiluvchi,

tazyiq o'tkazuvchi holat tasviri kuchayib boradi. Erkin ruhdan mahrum, imondan, e'tiqoddan adashgan shaxslar qiyofasi ko'z o'ngimida jonlanadi, ma'lum bir xulosalar chiqarishga undaydi. Tasvirda ularning achchiq qismati ifodalanganligi o'z-o'zidan anglashilib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. – Toshkent, Sharq, 2013. – 320 bet.
2. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Yangi asr avlodi, 2006. – 548.
3. Rustamova X. Avgust. She'rlar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2008. – B.148.
4. Amir Xudoyberdi. Evrilish. Saylanma. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2002. – B 24 b.
5. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent, Fan, 2007. – B. 300.

### **O'ZLASHTIRMA SO'ZLARNING LEKSIK MA'NOSI**

*Dilbar NURMUXAMEDOVA,  
GulDU dotsenti , filologiya fanlari nomzodi*

Xalqlar va millatlar o'rtasidagi doimiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar so'zsiz ularning tillariga, tilning lug'at boyligiga doimo ta'sir etib turadi, bir tildan ikkinchisiga ko'plab so'zlarning o'tib turishiga sabab bo'ladi, tillar o'rtasidagi aloqadorlik eng oldin leksikada namoyon bo'ladi. Lingvistik interferentsiya ham tillar o'rtasidagi aloqa zaminida paydo bo'lib, bir tildan ikkinchisiga tilning so'z boylik unsurlarni olib o'tadi. Hech bir til yo'qki, u boshqa til unsurlaridan holi bo'lsin, chunki u yoki bu til egasi – uni yaratgan xalq hech qachon boshqa xalqlardan tamomila ajralgan holda yashay olmaydi.

Tarixiy haqqoniyatning o'zi mamlakatimizdagi millat va elatlarning o'zaro aloqasi ko'p millatli xalqlarimiz tilidagi aralashish va o'zaro ta'sirning shakl va usullarini belgilaydi. Muayyan tildagi xar qanday so'z shu tilda gaplashuvchi xalq tarixining tarkibiy qismi hisoblanadi, undagi ma'lum davr uchun «har bir so'z tarixidan iborat» – degan ibora tilshunoslar orasida keng tarqalgan. So'zning tarixiylikini isbotlash, uning dastlabki ma'nosi, qanday tushunchani ifodalagani, yuzaga kelgan davri, ijtimoiy sababi, fonetik shakli qanday bo'lgani, hozirgacha qanday fonetik, grammatik, leksik-semantik o'zgarishlarga uchragani va hozirgi holatini, ma'nosini, vazifasini aniqlab, belgilab berish juda katta ilmiy izlanishni, tadqiqotni talab kiladi.

Ma'lumki, o'zbek tili Markaziy Osiyodagi qadimiy mahalliy xalqlarning turkiy tillar sistemasidagi tillardan biri bo'lib, uning lug'at sostavi va grammatik qurilishi ham qadimiydir. O'zbek tili leksikasi forscha-tojikcha, arabcha, rus tilidan olingan va rus tili orqali boshka tillardan kirgan so'zlar hisobiga boyidi va yana boyimoqda. Bir tildan ikkinchi bir tilga so'z o'tganda, odatda qabul qilinadigan so'z har vaqt o'zicha – aslida qanday bo'lsa, shunday o'tavermaydi. Tilning ichki

taraqqiyot qonuni, uning grammatik qoidalari va talaffuz normalari boshqa tildan kirgan soʻzlarni oʻziga buysunishga majbur qiladi.

Tilning umumiy taraqqiyot protsessiga, uning ichki qonuni va qoidalariga mos kelgan soʻz va atamalar oʻzlarining asl maʼnosini saqlab qoladi. Masalan: behi, dasturxon, gul, zamon, vaqt, kaft, dutor – fors-tojik; musobaqa, aholi, ilhom, qalam, maktab, hayot, bino – arab; lagʻmon, manti, choy – xitoy tillaridan kirib kelgan. Rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻz va terminlarning asl manbai Gʻarbiy Yevropa xalqlari tillariga mansubdir. Masalan, rus tili orqali oʻzbek tiliga kirgan: sport, kross, futbol, boks – ingliz; dissert, roman, marmelad – fransuz; balet, raketa, galstuk – nemes; fleyta, opera, violonchel – italyan va x. k.

Shuni aytib oʻtish kerakki, til qoidalariga mos kelmaydigan soʻzlar mahalliy til talabiga muvofiq oʻzgarishga uchraydi. Oʻzbek tilining bir qator shevalarida oʻzlashtirilgan ruscha soʻzlarning fonetik strukturasi jiddiy oʻzgarishning manbai tarixiy taraqqiyot samarasidir, masalan: oʻktabir – oktyabr, kanpit – konfeta, pabrik – fabrika, ishtirop – shtraf, poʻshta – pochta, va boshqalar.

Oʻzbek tili leksikasi oʻzining butun tarixi protsessida, bir tomondan, soʻz boyligining ichki resurslari negizida, ikkinchi tomondan, boshqa tillardan kirib va oʻzlashib qolgan soʻzlar hisobiga rivojlangan va takomillashgan. Har bir tilning leksik sostavi shunday xazinadirki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho maʼlumotlar oʻz aksini topadi. Xalqning kelib chiqishi va rivojlanishi, hayoti va madaniyati, moddiy-maʼnaviy boyligi, umuminsoniy madaniyatini rivojlantirishdagi roli leksikada oʻz ifodasini topadi.

Xalqimizning milliy-madaniy anʼanalari va tarixini bevosita aks ettiruvchi leksik sostavni atroflicha oʻrganishda moddiy madaniyat yodgorliklari ishonchli manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Xalqimizning asrlar davomida ijodiy mehnati zaminida yaratilgan professional leksikasini oʻrganish, kasb-hunar tarmoqlari – sanoat, qishloq xoʻjaligi, sanʼat va boshqa sohalarga oid xalq atamalarini toʻplab, boy leksika fondi yaratish shu kunning muhim talablaridan biridir. Masalan: oʻzbek adabiy tilida va ayrim shevalarda “patli gilam” (rus. «vorsovoʻy kovyor») maʼnosida “gilam” atamasi koʻllaniladi. Gilam – forsha-tojikcha “palos” soʻzi boʻlib, hozirgi tojik adabiy tilida gilem “kovyor bez vorsa” maʼnosida koʻllaniladi va oʻzbek adabiy tilidagi maʼnosining aksini bildiradi.

Gilam termini qipchoq gruppasi shevalarida ham ishlatiladi. Hozirgi kunda koʻl bilan toʻkiladigan patli gilam Oʻzbekistonning Xorazm, Samarqand, Buxoro viloyatlarining ayrim joylarida ishlatiladi. Oʻzbekistonning boshqa shahar va tumanlarida naqshli, patsiz taqir gilam, yaʼni “arabi” gilami toʻkiladi. Rivoyatlarga qaraganda, arabi gilam toʻqish Markaziy Osiyoga koʻchib kelgan yohud Amir Temur tomonidan asir olinib keltirilgan arab hunarmandlari tomonidan rasm qilingan. Ular Markaziy Osiyoga kelishdan avval ham har hil gilamlar toʻqish bilan shugʻullanganlar. Qashqadaryo, Surxandaryo, Xiva viloyatlarida “gilam” deganda patsiz, taqir gilam, yaʼni “arabi” gilam tushunilgan.

Buxoroda “gilem”, Shaxrisabzda “gilem” singari fonetik variantlari mavjud boʻlib, “taqir gilam” maʼnosini anglatadi. Lingvistik faktlar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, “gilam” fors-tojik tiliga hos soʻz boʻlib, tojik tili,

shuningdek qadimgi o'zbek tilida jundan to'kilgan buyum "chakmon", "palos", "patsiz gilam" ma'nosini bildiradi. Uning ma'nosi ayrim o'zbek shevalarida va hozirgi tojik adabiy tilida saqlanib kolgan. Til taraqqiyotining o'ziga xos ob'ektiv qonuniyatlari asosida o'zbek adabiy tilida "gilam" termini "patli gilam" – "vorsovo'y kovyor" ma'nosiga ega bo'lgan va shu ma'nosida tilimiz leksik tarkibiga singib ketgan.

So'z tarkibining leksik katlamini taxlil etish, so'z atamalarining semantik xususiyatlarini kuzatish xar bir tilda boshka tillardan so'z o'zlashtirishning o'ziga xos ajoyib qonuniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida yashovchi o'zbeklar to'qiydigan «patli gilamning» bir turi «julxirs»dir. «Julxirs» – (patli gilamlarning bir turi) ikki til aspektida paydo bo'lgan so'z: jul – fors-tojik. "teri" "xirs" xurs arab. "ayiq" (rus. «medvejya shkura»). "Julxirs" arab, eron tillariga mansubligi uning eng avvalgi yaratuvchilari eroniy tilda so'zlashuvchi xalqlar bo'lganiga ishora kiladi. "Julxirs" asosan Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida, Chiroqchi tumanida to'qiladi. O'zbek shevalarida "julxirs"ning bir qancha leksik va fonetik variantlari mavjud: Chiroqchida "julx's", Shaxrisabzda "julxus' g'lem", "pet g'lem"dir. Xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar hamma vakt ularning tillariga ko'plab so'zlar va fonetik, grammatik formalarning kirib kelishini ta'min etadi.

Shunday qilib, o'zbek tili leksikasidagi o'zlashma qatlamlarini yanada chuqurroq tadqiq qilish, bu borada forscha-tojikcha, arabcha, rus tillarining ta'sirini atroflicha o'rganish nihoyatda muhimdir. Xalqimizning asrlar davomidagi ijodiy mehnati zaminida yaratgan kasb-hunar, san'at tarmoqlari leksikasini to'plash va lingvistik tahlil qilish – o'zbek tilining leksik qatlamlarini yaratish – dialektologiya va til tarixini o'rganishda, turli tipdagi lug'atlar tuzishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковы связи. – Ташкент: Фан, 1983. – 168 с.
2. Irisqulova M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 256 b.

### **“ALISHER NAVOIY” ROMANI MUVAFFAQIYATINI TA'MINLAGAN AYRIM OMILLAR**

*Ijobat SAYMURATOVA,  
GulDU katta o'qituvchisi*

Adabiyot – inson ma'naviy olamini boyitib, ruhini yuksaltiribgina qolmay, didini ham ingichkalashtiruvchi behad qudratli va ayni choqda, g'oyat nafis xilqat. U alohida inson ijodiy niyatidan boshlanib, poetik so'z sifatida moddiylashadi. Biroq pirovardida o'z ijodkori mansub xalqning tarixiy xotirasi, azaliy qadriyatlari, umuminsoniy mo'ljallari, odam va olamni yanada mukammalroq ko'rish bilan bog'liq orzu-istaklarini, dard-iztiroblarini, turmush mashaqqatlari oldidagi sobit

irodasi bilan bog‘liq potentsial imkoniyatlarini lirik, epik, dramatik yo‘sinlarda aks ettiradi. Shu ma’nodagi, adabiyot g‘oyat keng va muhtasham maydondir.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi – Isajon Sulton shu maydonda o‘z so‘ziga “libosi mavzun” kiydirib, kitobxonlarga taqdim etayotgan adiblarimizdan biri. Uning o‘nlab hikoyalari, “Onaizorim” qissasi, “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik”, “Bilga hoqon” romanlari shakliy, uslubiy, ifodaviy o‘ziga xosligi, mazmun qatlamlari teranligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilik diqqat-e’tiboriga tushganiga ancha bo‘ldi. Bu asarlar B.Nazarov, U.Normatov, Q.Yo‘ldoshev, A.Rasulov, H.Umurov, D.To‘raev, I.Yoqubov, U.Hamdani, Sh.Davronova, R.Rahmat, N.Tosheva va boshqa adabiyotshunoslar tadqiqotlari, monografiya va risolalari hamda ayrim maqolalarida tahlil va tadqiq etildi.

Yozuvchi keyingi romanlarida tarixiy mavzuga katta e’tibor qaratmoqda. “Alisher Navoiy” romanining yuzaga kelishi ham shu yo‘sindagi salmoqli izlanishlardan biridir. Albatta, o‘zbek adabiyotida “Alisher Navoiy” (I.Sulton va Uyg‘un), “Samarqand sayqali” (Iqbol Mirzo), “Navoiy va Boyqaro” (Muhammad Ali) dramalari, “Hayot bo‘stoni” (L.Bat‘), “Astrobod” (M.Osim) qissalari, “Shukuhli karvon”, “Notinch Xuroson”, “Sokin Xurson”, “Qonli Xuroson” dostonlari (B.Boyqobilov), “Navoiy” romani (Oybek), “Navoiy va rassom Abulxayr” dilogiyasi (O.Muxtor) kabi Navoiy siymosini yaratishga bo‘lgan ko‘plab intilishlar, salmoqli yutuqlar mavjud edi. Bir necha avlod shu kabi asarlar orqali Navoiy va uning davri bilan tanishdi, tasavvurlarini kengaytirdi. Binobarin, yangi tarixiy-ma’rifiy roman ilgari mavjud asarlardan qaysi jihatlari ko‘ra farqlanadi? -degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy.

Birinchidan, har bir avlod Navoiyni o‘zicha angelaydi. Chunki ijtimoiy davrning tanazzul yohud taraqqiyot darajasiga ko‘ra adabiy imkonlar o‘zgarib turadi.

Ikkinchidan, har bir adabiy tur va janrning o‘z talablari bo‘lganidek, har bir qalam sohibining ham o‘ziga xos iqtidor va salohiyati mavjud. Bu faktorlar ham yangi asarga ehtiyoj sezilishi va uning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, Isajon Sulton yuksak orzu-ideallari aksariyat asarlarida muayyan darajada Hazrat Navoiyga borib bog‘lanar, bu hol uning badiiy tafakkuri va tasavvurida yashayotgan Navoiy siymosi va hayratlarga to‘liq olami biror kun mukammal tarzda yuzaga chiqishi mumkinligidan darak berardi. Adabiyotshunos B.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Isajon Sulton: ... *biz tasavvur qilib yurgan Alisher Navoiy obrazini o‘quvchilar hukmiga havola etdi* [2, 1].

Albatta, bizning tasavvurlar dunyomizda ideal shaxs va komil inson bo‘lmish Navoiyning muhiti, davri, ilm-ma’rifatdagi kamoli va yuksalish yo‘li, ijod laboratoriyasi romandagichalik mukammal va teran emasdi. Bizningcha, roman muvaffaqiyatini ta’minlagan omillardan biri ham uning o‘z asarlariga murojaat qilingani bo‘lgan. Jumladan, bu hol roman tarkibiy tuzilishining “Hazoyin ul-ma’oniyy” devonlaridagi kabi umr manzillariga qarab to‘rt qismga bo‘linganida ham namoyon bo‘lgan. Ushbu qismlarning o‘ziga xos muqaddima, hamd, na’t va hayratlar ekani ham e’tiborlidir: *Ey insonni yaratgan, uni mukarram qilgan va osmonlaru erdagi narsalarning ismlarini o‘rgatgan zot! ....Ey olamdagi*

*barcha hodisalarning Murabbiysi! Bandalaring safarimizni xayrli qilgin deb yalinib-yolvorurlar. O'zing sori safarlarni xayrli qilgaysan, yo'lda uchraydigan barcha kishilarni yaxshiliklarga sabab aylagaysan, olddan chiqadigan baloyu musibatlarini xayrlarga aylantirib qo'ygaysan!* [1, 120].

Mohiyatan mumtoz adabiy an'anaga borib bog'lanuvchi munojotlar roman mazmun-mohiyatiga ilohiy ruh hamda tasavvufiy ohang olib kiradi: *Ey karami keng Parvardigor, marhamating oldida gunoh tog'i bir ukpar yoki somon parchasidek elga uchgaydir... Men faqir bandangga hur ham kerak emas, jannat ham. Mening uchun Sen o'zing bo'lsang, shuning o'zi bas!* [1, 122]. Ko'rinadiki, yuqoridagi singari tasvirlar o'zining lirik harorati, yuksak tuyg'ularga yo'g'rilgani, samimiyati bilan o'quvchiga o'zgacha zavq ulashadi. O'rni bilan bu kabi lirik harorat Navoiy devonlarida keluvchi g'azallar bilan davom qildiriladi. "Badoyi' ul-bidoya"dan iqtibos sifatida olingan tubandagi misralar fikrimizni dalillaydi:

*Furqatingdan za'faron uzra to'karmen lolalar,  
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar.  
Dur tishingdin donayi sabrim qolur bebar desam,  
Kulub ayturkim, ekinning ofatidur jolalar.  
Bargi gul uzra yopishibtur shakar har soridin,  
Yo magar-la'ling uza qaynabturur tabxolalar?  
Tola-tola nay o'qung ko'ksimda go'yo sindikim,  
Tevrulubtur notavon ko'nglumda bir-bir tolalar...* [1, 110].

Yuqoridagi singari xush g'azallar orqali Navoiy temuriylar saltanati to'lg'onib, el-ulus aziyat chekayotgan Sulton Abusaid Mirzo zamonidayoq o'zining xalqona ash'orlari bilan Mavlono Kamol Turbatiy kabi fasohat ahli e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lishi ko'rsatiladi. Pahlavon Muhammadning "hiyla"si va Alisherning ishonuvchanligi ham "*Har qayon boqsam ko'zumg'a ul quyoshdin nur erur, Har sori qilsam nazar ul oy manga manzur erur*" matla'i bilan boshlanuvchi bir g'azal bahonasida beriladi. Asarning bunday zavqli o'rinlari tarixiy haqiqatga mos bo'lish barobarida, kitobxonning yosh shoir vujud xastaligini kulgu vositasida davolagan Pahlavon Muhammadga bo'lgan ixlosini ham orttiradi. Umuman, yozuvchi odam va olam muammolarini Navoiyning qalbi, ongi va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'laydi. Mumtoz she'riyat orqali o'sha davr adabiy muhitiga oshno etadi. Bu hol bir jihatdan didaktikani chuqurlashtirsa, ikkinchidan ibratli tarixiy voqe-hodisalar va tarixiy shaxslar taqdiri bilan bog'liq syujet voqealari mazmunidan ilohiyot va irfon nurlari ham yog'ilib turadi. Uchinchidan, bosh qahramon bosib o'tgan hayot yo'lining mufassal tasvirlari orqali kompozitsion yaxlitlik ham ta'minlanadi.

Darhaqiqat, romanda biz Alisher Navoiyning Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Pahlavon Muhammad, Kamol Turbatiy, Sayid Hasan Ardasher, Abu Abdulloh Kulohiy, Abu Abdulloh Junaydiy, Fazlulloh Abulays kabi ustozlari, do'stlari bilan tanishgan, diydorlashgan, ular ta'lim-tarbiyasini olgan, e'tiboriga tushgan ko'plab vaziyat-holatlarining ta'sirchan sahnalariga duch kelamiz. Bunday uchrashuvlar ichki va tashqi portret tasvirlari, xarakterlarning ma'naviy-ruhiy dunyosi ifodalari bilan uyg'un tarzda keladi.

Natijada, personajlar milliy-mental qiyofalari va insoniy tabiati bilan yorqin tasvirlanadi. Isajon Sulton personajlarga bo'lgan o'z simpatiya va antipatiasini yashirmay tasvirlaydi. Fikr tasdig'i uchun turli toifaga mansub qahramonlar tasviri bilan bog'liq uchta misol keltiramiz:

**Birinchi tasvir:** *Abulxayrxon o'rta bo'yli, elkalari keng, pishiq gavdali, qisiq ko'zli kishi bo'lib, kentlarda o'tirmoqni xush ko'rmas, aksar hollarda qo'shin bilan yotib turar, davlat ishlarini ham sayyor holda yuritardi [1,48].*

**Ikkinchi tasvir:** *Abu Abdulloh Junaydiy og'ir-bosiq, oq yuzli, dilbar kishi edi. Saltanat ishlariga xushi yo'q, "Olimning, yaxshisi, sultonlar huzuriga bormaganidir"- deyishni yoqtirardi [1,101].*

**Uchinchi tasvir:** *Vaziri a'zam – Majididdin bir oz qorin qo'ygan, oqish xira yuzli, qoshlari tutash, quloqlari ichidan ham mo'y o'sgan qo'pol, mag'rur kishi bo'lib, har doim uzun to'n, bo'rk kiyib yurar, yoz mahallari ham ustidan zar choponini tashlamas, mag'rurligi mansabi va boyligi bois der edilar. Faqat o'z farog'atiniyu maishatini o'ylaydigan, birovga qayishmaydigan bo'lib, har kimdan o'zsam-u, eng badavlat men bo'lsam deganday xayollari boriydi. Bu borada birovni yuzxotir qilib o'tirmasdi. Oliy rutbaga erishguniga qadar hammaga xushomad qilib yurgani ma'lum, biroq mansabga kelgach, birov u haqda gapirishga hayiqib qoldi, chunki o'chkorligi va tajovuzkorligi barchaga ayon edi [1, 218].*

Xarakterlarning bunday portret tasvirlari kitobxonda Abulxayrxon, vaziri a'zam Majididdin, mudarris Abu Abdulloh Junaydiy, Pahlavon Muhammad, Kamol Turbatiy, Shayxim Suhayliy, Alishoh Kirmoniy singari o'nlab qahramonlarga nisbatan muayyan emotsiya – ma'naviy-ruhiy munosabat: muhabbat yoki nafrat uyg'otib, romanning ishontirish kuchini orttirishga xizmat qilgan.

Roman muvaffaqiyatini ta'minlagan hamda badiiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan yana bir omil borki, bu intertekstuallikning asar mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi bilan baholanadi. Aslida intertekstuallik asar tarkibiy qismida boshqa adiblar qalamiga mansub asarlardan olingan parchalarning o'rin olishi bilan izohlanadi. Isajon Sulton roman matnida boshqa adiblarning ijod namunalarini qo'llamay, aynan Navoiyning umri davomida bitgan turli nom va mavzulardagi asarlaridan didaktik ahamiyatga ega o'rinlarni keltirib asar mazmun-mohiyatiga o'zgacha zeb beradi. Shu yo'l orqali tarixiy haqiqatning badiiy ifodasini qaror toptiradi va Navoiy siyomosidagi komillik belgilarini o'quvchiga tanitadi. Adabiyotshunos olim B.Karimov aynan shu holatga o'zining ijobiy munosabatini bildirib, yozuvchining bu boradagi mahoratini quyidagicha baholaydi: Adibning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy hodisalarning real badiiy ifodasi kuchli, begona matnlardan ko'ra, aynan Alisher Navoiyning o'z asarlaridan olingan parchalar ko'pchilikni tashkil etadi. Zamonaviy realistik romanlar o'z to'qimasiga ko'ra, yangidan-yangi usullar, tasvir yo'sinlari bilan boyib borayotgani uchun o'zbek adabiyotida muhim bir adabiy hodisa bo'lgan Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romaniga yangilanayotgan realizmning yaxshi namunasi sifatida qarash o'rinli bo'ladi [2, 7].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yozuvchining ushbu romani ko'p yillik zahmatli ilmiy-ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Asar mazmun-mohiyatidan muallifning ko'p sonli tarixiy manbalarni, ilmiy va badiiy adabiyotlarni, Navoiy qalamiga mansub asarlarni qunt bilan birma-bir o'rgangani, roman matnida ulardan oqilona va ustalik bilan foydalangani sezilib turadi. Romanda Alisher Navoiy taqdir taqozosiga ko'ra borgan va istiqomat qilgan shaharlari, u yerda ko'rgan-kechirganlari, ota-onasi, tug'ishganlari, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fazlulloh Abulays kabi ulug'salaflari va boshqa yaqin do'stlari bilan bog'liq voqealar tasviri mutafakkir bobomiz hasbi holiga aynan muvofiq kelishi tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylantirilishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va Abulmuhsin Mirzo kabi saroy ahli a'yonlari obrazlari, xalq bilan samimiy tillasha olishi, Alisher Navoiyning ular bilan o'zaro do'stona munosabatlari buyuk alloma siymosini mukammal va mufassal badiiy talqin etishga xizmat qilgan. Muallif ulug'Navoiy siymosini yaratar ekan, uning barcha jihatlariga, ya'ni xalqparvarligi, millatparvarligi, odamiyligi, do'stparvarligi, mutafakkir va shoir sifatidagi ilmiy-ijodiy dunyosining yaratilish va yaralmish o'rinlariga alohida e'tibor bergan. Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning yangi tarixiy-ma'rifiy romani ko'ngil qulflarini ochadigan, insoniyat aql-zakosi va tafakkurini boyitadigan mukammal asardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Roman. – T.: Adabiyot, 2021.
2. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yohud Insoniyat quyoshi ta'rifida bitilgan roman to'g'risida bir-ikki og'iz so'z. <https://yuz.uz/news/>
3. С Билингвизмус. Срависа, 1963. – 214. С.

## **OMON MUXTOR ROMANLARIDA USLUB MASALASI**

**Furqatjon KARIMOV,**  
*GulDU magistranti*

Adabiyotshunos olim, ustozimiz U.O'ljaboyev: “Ma'naviy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida voqeanavislikka asoslangan asarlar bilan kitobxonning ehtiyojini qondirish qiyin bo'lib qoldi ,”- deb yozadi “Zamon talabi va ijodkor ma'sulligi” kitobida.

Darhaqiqat, adabiyot bo'stonida gul ko'p, chaman ko'p. Har qaysi gulning o'z rangi, ifori, bo'y-basti bo'lganidek, adabiyot olamida ermak uchun emas, qalamning zalvorini his qilgan, so'z aytish, ayta olish mas'uliyatini chuqur idrok etgan va o'zidan bir so'z aytib qoldirish niyatida bu bo'stonga qadam qo'ygan har qanday yozuvchining o'z uslubi, o'z tili, sevimli mavzulari va faqat o'zigagina xos jihatlari mavjud bo'ladi.

Fransuz tabiatshunosi Byuffon Jorj-Lui-Leklerkning aytishicha: “Uslub – odam demakdir”.



Mustaqillik qo'liga kiritilgach, ijodkorlar erkin ijod qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu davrda ayniqsa, jahon adabiyotining ilg'or an'analarini milliy asarlarga singdirish kuchaydi. O'zbek yozuvchilari ham jahonning ilg'or namunalaridan xabardor bo'lishib, bu tajribalarni o'zlarining asarlarida qo'llasha boshlashdi. Omon Muxtor ham bu o'zgarishlardan chetda qolgani yo'q. U ham o'zining qator asarlarida adabiyotimiz uchun yangilik yaratishda muhim hissasini qo'shdi.

“Yozuvchi qanchalik iste'dodli bo'lsa, uning uslubi ham shu qadar yorqin namoyon bo'ladi. O'z uslubiga ega bo'lgan muallifgina chinakam san'atkor yozuvchi bo'la oladi. Har bir cholg'u asbobi o'z “tovushi”- ohangi bilan ansamblda jo'r bo'la olganidek, har bir yozuvchi faqat o'z uslubi-o'ziga xos ijodiy qiyofasi, o'z ovozi bilan adabiyotning umumiy xazinasiga hissa qo'sha oladi.”(550)

Haqiqatdan ham, Omon Muxtor haqiqiy iste'dod sohibi. Uning o'ziga xos uslublaridan biri uning har bir romanida alohida shakliy izlanishlar qilishi. U o'zining o'ndan ortiq romanini yaratish chog'ida har bir romanida bir-biriga o'xshamagan shakldan foydalanadi. Bu asarning qiziqarli bo'lishiga hamda kitobxonni e'tiborini tortishning ham bir usuli bo'lsa ajab emas. Shakliy izlanishlarning o'zi tom ma'noda katta bir ilmiy ishning mavzusi bo'la oladi.

Omon Muxtor romanlarini o'qir ekansiz uning falsafaga o'chligini ko'rishimiz mumkin, aynan shuning uchun bo'lsa kerak uning ko'pgina asarda xayoliy, fantastik tasvirlar, voqealar uchraydi. Mana, masalan, “Ming bir qiyofa”da haydovchisiz bir mashina asar qahramonini o'g'irlab, korchalonlar ko'zlagan manzilga etkazib boradi.

Yoki “Tepalikdagi xaroba”da esa Mirzo G'olib to'qayzordagi bir kulbada uch zamonda yashagan Lutfiy, Mashrab va Bayronning murdasini ko'rib qolishi, hamda “Muhabbat o'limdan kuchli” romanida esa Ibrohimning suvga tushgach, suzib olis bir davlatda fillar yashaydigan orolga tushib qolishi bir qaraganda aql bovar qilmas hodisa. Lekin yozuvchi uchun bu voqealarning rostdan bo'lganmi yo'qmi, kelajakda sodir bo'ladimi, yo'qmi bu muhimmas. Eng muhimi, bu voqealarning qahramonning ichki ruhiyatini nechog'lik ochib berishida deb biladi.

Uslub-yozuvchining voqelik va insonni idrok qilish, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etish va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olish-bu vazifalarni individual o'ziga xos tarzda yaratish san'atidir.(246)H.Umurov

Omon Muxtorning romanlarida yana bir boshqa ijodkorlardan farq qiladigan jihati uning asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalarini faol qo'llashi. Adabiyot bo'stonida nasrda Tog'ay Murodning, shoirlardan esa sirdaryolik Hayot Shodmonning asarlarini xalq tiliga yaqinlikni sezamiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur:

“ Qachonki ko'rgaysan mening so'zimni,  
So'zimni o'qib anglagaysan o'zimni”, deb bejiz aytmagan edi.

Yozuvchi asarlarida turli rivoyat, afsona va Nasriddin afandi latifalaridan unumli foydalanib ketaveradi. Hatto, ”Ming bir qiyofa” romanining uchinchi bo'limi o'sha mashhur Afandiga bag'ishlanib, ”Afandining bolaligi” deb

nomlanadi. Bunda barchamizga tanish, xalqning sevimli farzandini har doimgi talqinlardan o'zgacharoq, jiddiy tusda uchratamiz.

Serqirra ijodkor nasrda ham nazmda ham birdek ijod qilgan. Uning shoir tabiati romanlarida yaqqol ko'rinadi. Turli she'rlarning ketma-ket berilishi, romanlarning xuddi dostondek o'qilishiga sabab bo'ladi. Hamda epigraflarning mumtoz adabiyotimiz namunalaridan olinishi yozuvchimizning mumtoz adabiyotimizning haqiqiy bilimdoni ekanligini ko'rsatdi.

“Omon Muxtor asarlaridagi o'ziga xos tasviriy, falsafiy yangilanishlar adibning o'ziga xos badiiy uslubini oydinlashtiradi.” Sh.Doniyorova Yoshlik jurnali 8-son 2011.

“Asarning juda ko'p fazilatlaridan tashqari,sujetning,kompozitsion qurilishning o'ziga xosligi va hakoza,yana bir xususiyati borki,bu haqda alohida aytish lozim. Gap shundaki,asar biz o'rganib qolgan va adabiyotning eng katta yutug'i,deb hisoblanib kelgan an'anaviy usul,ya'ni sotsialistik realizm uslubiga tamomila zid,yangi uslub asosida yozilgan. Bu asarda Markes romanlarining shabadasi yaqqol sezilib turadi. (O.Yoqubov TTQ 2-bet)”

“Ko'plab o'zga adabiy janrlardan farqli ravishda romanning mavzu chegarasini belgilash deyarli mumkin emas. Roman hamma narsa haqida va har qanday hajmda bo'lishi mumkin. Uni tarozida tortib yohud bosma toboq bilan chegaralab bo'lmaydi.”Romandan katta hikoyalar” (Shukur Xolmirzaev) bo'lgani singari novelladan kichik romanlar ham bo'ladi.Qahramon yohud muallif shaxsiyati qirralarining nechog'liq to'liq ochilganligi romanning romanligini o'lchaydigan birgina mezon,janrning muvaffaqiyatini belgilaydigan yagona omildir.”(Q.Y 70)

Omon Muxtorning “Maydon” va “Aflotun” umuman olganda deyarli barcha romanlari talqin uslubi, voqelik talqini yechimi bilan bir-biridan farq qilsada,talqinga jalb etilgan manba va muammoni romanlar g'oyasiga singdirib yuborish jihatidan o'zaro mushtarak.

“Ko'zgu oldidagi odam”, ”Aflotun”, ”Ffu” romanlarida falsafiy mushohada, “Ming bir qiyofa”, “Tepalikdagi xaroba ”da psixologik tahlilning yetakchilik qilishi va absurd g'oyalar bugungi kun misolida ochib berilishi romanchiligimizda noan'anaviy uslublarning yuzaga kelishida biz yashayotgan voqelik ham alohida o'rin tutishini ko'rsatadi.

“Har qanday asar kitobxon uchun yoziladi. Kitobxonni ko'p mamlakat baxtli,kitobxonni yo'q mamlakat baxtsizdir”-, degan edi yozuvchi Omon Muxtor haqli ravishda.

Texnika asri tobora rivojlanib borayotgan XXI asrning o'n yilligida yashayotgan ekanmiz, internet, elektron kitob degan tushunchalar endi bizga yangilik bo'lmay qoldi. Munaqqid Qozoqboy Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda,kitobxon soni keskin kamaydi,lekin eng saralari xos kishilari qoldi.

Modern yo'nalishda ijod qiluvchi Omon Muxtor romanlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- Adib romanlarining soni o'ndan ortiqni tashkil etadi. Bu faqat roman janridagi asarlar soni. Demak, u mustaqillik davridagi eng sermahsul ijodkor

sifatida e'tirof etish joiz. To'g'ri, har qanday yozuvchining iste'dodi uning qancha asar yozgani-yu, qancha ijod qilgani bilan emas, badiiy tafakkurga qanday o'zgarishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta'sir o'tkazgani bilan belgilanadi. Omon Muxtor adabiy jarayon faollaridan edi. Uning "Maydon" va "Xotin podshoh" asarlarini adibning eng sara, eng pishiq romanlari deb e'tirof etish mumkin.

- Omon Muxtor tajribalar qilish, ayniqsa, shakliy izlanishlari yozuvchining yana bir o'ziga xos uslubini belgilaydi. U o'n to'rt romanida ham shakliy izlanishlar qilishi, shakl orqali mazmunning uyg'unligiga erishishi kuzatiladi.

- Kutilmagan tasvir yo'sinlari, badiiy ifodaning tutilmagan, yangi vositalardan foydalanish adib romanlarining yetakchi xususiyati ekanligi ko'rinadi.

- So'z san'atkorining barcha romanlarida azaliy tuyg'u muhabbat mavzusiga murojaat etadi.

- Asarlarida g'aroyib voqea-hodisalar, inson ishonishi qiyin, faqat tasavvur eta oladigan, tafakkur mahsuli bo'lgan hodisalarning kelishi tabiiy hol. Bu "Ming bir qiyofa", "Tepalikdagi xaroba" va "Muhabbat o'limdan kuchli" asarlarida uchraydi.

- Romanlarda xalq og'zaki ijodi namunalari: Nasridi Afandi latifalari, rivoyat, afsonalardan juda ko'p o'rinlarda foydalaniladi.

- Romanlarning hajm jihatidan qisqaligi bilan mini romanlarga yaqinlashadi. (An'anaviy qissalardan kichikroq, hikoyalardan kattaroq)

- Insonning ichki olamida o'zgarishlarni ko'proq voqea-hodisalar asosida, badiiy tafakkur, ichki "ong oqimi" yordamida tasvirlash ustunligi.

- Yozuvchining falsafiy mushohadaga o'chligi.

- Romanda qalamga olingan voqea-hodisalarning sodir bo'lish davri nihoyatda kattaligi, xronotopning, makon va zamonning juda ham kengligi.

- Romanlarda nasr na nasrning uyg'unlashib ketganligi, uning his-tuyg'ulari, hayot haqidagi falsafiy mushohadalari, o'y-hayollari lirizm bilan sug'orilganini ko'ramiz.

- Adib romanlarining deyarli barchasida, ba'zilarining har bir qism, bobida ham asar g'oyasini teran anglash, yozuvchi niyatini to'laqonli ochish, ifodalash uchun epigraf qo'llanishi, ularning asosiy qismi mumtoz adabiyotimizning nodir durdonalari tashkil etishi, adibning mumtoz adabiyotimiz bilimdoni ekanligi namoyon bo'ladi.

- Adib romanlarida so'zlarning siniq mozaika tarzida berishi, ya'ni asardagi so'zlarning bo'g'inlarga ajratib berishi, hamda ma'lum so'zlarni imlo qoidalariga zid bo'lsa-da o'quvchini o'ylantirish, adib keltirayotgan so'zga e'tiborni tortish uchun ko'p so'zlarni barcha tovushlarini katta harfda berish tabiiy hol ekanligini ko'rishimiz mumkin.

- Omon Muxtorni Oybekdan so'ng buyuk daho ijodkor Navoiyning to'laqonli siymosini yaratgan mohir romannavis sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Omon Muxtor. To'rt tomon qibla. – T.: Adabiyot, 2010.

2. Karimov N. Va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T., O‘qituvchi. 1999. 512-bet.

## **FENOMENOLOGIYANING GENEZESI VA BADIY TAHLILGA KO‘CHISHI**

*Muyassar TILOVOVA,  
Qarshi davlat universiteti  
Adabiyotshunoslik kafedrasida doktoranti*

So‘nggi yillarda adabiyotshunosligimizda “fenomen”, “fenomenologiya”, “fenomenologik metod” kabi atamalar tez-tez uchray boshlagan. Fanda biror terminning paydo bo‘lishi bu ijobiy hodisa, albatta. Chunki u yangicha yondashuv, yangi nuqtayi nazarni anglatadi. Shu bilan birga sohaning uzluksiz rivojlanishi, boyib borishi demakdir. Ayniqsa, adabiyotdek to‘xtovsiz harakatda bo‘lgan jarayon uchun. Fenomen, fenomenologiya, fenomenologik tahlil o‘zbek adabiyotshunosligida yangi yo‘nalish bo‘lib, hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu atamalarning ildizlari ham g‘arb adabiyotiga, xususan, Kant, Gegel, Gusserl ta’limotlariga borib taqaladi. Rus adabiyotshunosligida esa Sobolev, Kutuzova, Turyeshiva, Lukicheva, Kabanovalarning ilmiy ishlarida bu metod yuzasidan jiddiy tadqiqotlar olib borilgan.

Fenomenologiya dastlab XVIII asrda falsafa fani negizidagi tushuncha deb qaralgan. U mustaqil fan sifatida ajralib chiqmagan. Lotincha “fenomenologiya” atamasi 1736-yilda Kristof Fridrix Etinger tomonidan kiritilgan. Keyinchalik nemischa “fanomenologiya” atamasi Kristian Volfning izdoshi Iogann Geynrix Lambert tomonidan ishlatilgan. Bir qator manbalarda bu atama Immanuel Kant tomonidan, shuningdek, Iogann Gottlib Fixte tomonidan ishlatilgani qayd etiladi. 1807-yilda Gegel “Phanomenologie des Geistes” (Ruh fenomenologiyasi) nomli asar yozdi. 1889-yilga kelib, Frans Brentano bu atamani “tavsif psixologiyasi” deya sharhlashga uringan. Ayni shu nuqtada Gusserl bu atamani o‘zining yangi ong haqidagi nazariyalari uchun asos qilib oladi.

XIX asr oxirida psixologiya fan sifatida mustaqil bo‘lganidan so‘ng hodisalar biroz boshqacha shaklda tahlil qilina boshladi. Frans Brentanoning “Psixologiya empirik nuqtai nazardir” asarida hodisalar ongda sodir bo‘ladigan hodisalardir: psixik hodisalar ong harakatlari, jismoniy hodisalar esa ranglar va shakllardan boshlab tashqi idrok etish ob’ektlari hisoblanishi ta’kidlanadi. Brentano uchun jismoniy hodisalar ong harakatlarida “qasddan” mavjud. Umumiyroq shaklda aytishimiz mumkinki, hodisalar biz biladigan hamma narsadir: atrofimizdagi narsalar va hodisalar, boshqa odamlar, o‘zimiz va boshdan kechirgan ongli tajribalarimiz. Hodisalarni bunday tushunish yangi fan – fenomenologiyani shakllantirishga turtki bo‘ldi.

Brentano tavsifiy va genetik psixologiyani ajratdi. Genetik psixologiya har xil turdagi hodisalarning sabablarini izlaydi, tavsifiy psixologiya esa idrok, mulohaza, his-tuyg‘u kabi o‘xshash turlarni belgilaydi va tasniflaydi. Shu

xususiyati sabab faqat ruhiy hodisalarga yoʻnaltirilgan. Qasddan yoʻnaltirilganlik qoidasi Brentanoning tavsifiy psixologiyasining oʻziga xos belgisi edi. 1889-yilda Brentano tavsiflovchi psixologiya uchun “fenomenologiya” atamasini qoʻlladi, bu esa Gusserlning yangi fan – fenomenologiyani yaratishiga zamin hozirladi.

Bizga maʼlumki, fenomenologiyaga Edmund Gusserl oʻzining “Mantiqiy tadqiqotlar” asarida asos solgan. Ushbu monumental asar bir-biridan tubdan farq qiladigan ikkita nazariy yoʻnalishini birlashtirdi. Frants Brentano gʻoyalarini davom ettiruvchi psixologik nazariya va mantiqiy yoki semantik nazariya. Bernard Bolzano va zamonaviy mantiqni yaratgan Gusserlning bir qator zamondoshlari, jumladan Gottlob Frege gʻoyalarini davom ettirdilar. Ammo qizigʻi shundaki, tadqiqotning ikkala yoʻnalishi ham Aristotelga borib taqaladi va ikkalasi ham Gusserl davriga kelib yuzaga chiqa boshladi. Bundan fan allaqachon mavjud edi, ammo XIX asrga kelibgina yuzaga chiqdi va rivojlanishga oʻtdi deb xulosa chiqarish mumkin.

1920–1930-yillarda nemis olimlaridan M.Gayger, I.Pfayfer va boshqalar birinchilardan boʻlib E.Gusserl taʼlimotini adabiyotshunoslikda qoʻlladilar. Keyin yangi tadqiqot usulining izdoshlari Fransiya, Polsha va Shveytsariyada paydo boʻldi. Adabiyotshunoslikdagi eng mashhur fenomenologik maktab “ong tanqidchilari” deb nomlangan Jeneva tanqidchilar guruhidir. Bu tanqidchilar E.Gusserl va M.Xaydeggerga ergashib ong muammosi va uning adabiyotda ifodalanishiga eʼtibor qaratadilar. Eng mashhur “ong tanqidchilari” M. Raymond, J. Poulet, A. Beguin, J. P. Richard, J. Starobinski, J. X. Millerdir.

Xaydegger “Borliq va zamon” asarida fenomenologiyaning oʻz versiyasini belgilab berdi. Xaydegger nuqtayi nazari boʻyicha, biz va bizning faoliyatimiz hamisha “borliqda mavjudlik”imizdir. Shuning uchun biz oʻz faoliyatimizni borliqdan ajralgan holda emas, undagi narsalarning biz uchun mavjud boʻlgan maʼnolarini sharhlaymiz. Xaydegger Gusserlning ong va subyektivlikka, jumladan, atrofimizdagi narsalarni idrok orqali aks ettirishga urgʻu berib taʼkidlashiga qarshilik koʻrsatdi. Xaydegger “Borliq va zamon” asarida fenomenologiyaga “logos” va “hodisalar” soʻzlarining asl maʼnolariga ishora qiluvchi kvazipoetik idioma bilan yondashadi, shuning uchun fenomenologiya “narsalarning oʻzini koʻrsatishiga imkon beruvchi” sanʼat yoki amaliyot sifatida taʼriflanadi. Xaydeggerning yunon ildizlariga ega boʻlgan betakror lingvistik qarashlarida “fenomenologiya” oʻzini koʻrsatadigan narsaning oʻzini oʻzi koʻrsatganidek koʻrishga imkon berishni anglatadi. (Haydegger 7, 256)

Xaydegger butunlay boshqacha uslubda, aniq tahliliy nasrda “Fenomenologiyaning asosiy muammolari” nomli maʼruza kursida Aristotel va undan keyingi koʻplab boshqa mutafakkirlardan mavjudlikning maʼnosi haqidagi savolni fenomenologik munozaralargacha olib boradi. Bizning borliq va uning mavjudligi haqidagi tushunchamiz oxir-oqibat fenomenologiya orqali aks etadi. Bu yerda Gusserlning “Mantiqiy tadqiqotlar” asaridagi qarashlari bilan hamohanglik mavjud.

1930-yillarda fenomenologiya Avstriya, soʻngra nemis falsafasidan fransuz falsafasiga koʻchib oʻtdi. Marsel Prustning “Yoʻqotilgan vaqtni izlash” asarida

hikoyachi o'zining o'tmishdagi kechinmalari, jumladan, Madlen pechenyesi hidi bilan bog'liq yorqin xotiralarini batafsil bayon qiladi. Tajribaga nisbatan bu sezgirlik Dekartning asarlariga borib taqaladi.

Fenomenologiyani Edmund Gusserl, Martin Xaydegger, Moris Merlo-Ponti, Jan-Pol Sartr va boshqalar falsafadan ajralgan mustaqil fan sifatida ulug'ladi. Bu fanning usullari va xususiyatlari Gusserl va uning izdoshlari tomonidan keng muhokama qilinib, bu munozaralar bugungi kungacha davom etmoqda. Fenomenologiya turli xil tajriba turlarini - idrok, fikrlash, xotira, tasavvur, his-tuyg'u, istak va irodadan tortib tana ongiga, gavalangan harakat va ijtimoiy faoliyat, shu jumladan til faoliyatigacha bo'lgan strukturasi o'rganadi. Tajribaning ushbu shakllarda tuzilishini, Gusserl "qasddan" deb ataydi, ya'ni tajribaning borliqdagi narsalarga yo'naltirilganligini - ongning ayni shu xususiyatini o'z ichiga oladi, buning natijasi esa nimanidir anglashdir.

Klassik fenomenologlar uch xil usulni qo'llaganlar.

1. Biz tajriba turini tasvirlaymiz, chunki uni o'z o'tmish tajribamizda topamiz. Shuning uchun, Gusserl va Merlo-Ponti, faqat tajribani tasvirlash kerakligini aytdi.

2. Biz u yoki bu turdagi tajribani tegishli kontekst xususiyatlari bilan bog'lash orqali izohlaymiz. Shu nuqtayi nazardan, Xaydegger va uning izdoshlari hermenevtika, kontekstda talqin qilish san'ati, ayniqsa lingvistika haqida gapirdilar.

3. Biz tajriba turining shaklini tahlil qilamiz. Oxir oqibat, barcha klassik fenomenologlar tajribalarni tahlil qilib, ularning ishlash uchun muhim xususiyatlarini ta'kidladilar.

Fenomenologiya ongli tajriba tuzilmalarini, ularning birinchi shaxs nuqtayi nazaridan qanday boshdan kechirilishini, shuningdek, tajribaning tegishli shartlarini o'rganadi. Tajribaning markaziy tuzilmasi uning niyatligi, ya'ni borliqdagi biror obyektga yo'nalganligidir. Barchamizda turli xil tajribalar mavjud, jumladan idrok, tasavvur, fikrlash, his-tuyg'ular, istaklar, iroda va harakatlar. Demak, fenomenologiya sohasi - bu ularning qayd etilgan turlarini o'z ichiga olgan tajribalar to'plamidir. Tajribalarning nafaqat ko'rish yoki eshitish kabi nisbatan passiv, balki yurish, yugurish, kulish, yig'lash kabi faollari ham bor.

Fenomenologiya atrofimizdagi haqiqatga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyati haqidagi g'oyaga asoslanadi, buning natijasida biz dunyoni anglaymiz. Shuning uchun ongning ushbu xususiyatlarini o'rganish va tushunish kerak. Fenomenologiya nuqtayi nazaridan olamning ongdagi hodisasi bu dunyodir. Tadqiqotchining diqqati dunyodagi narsalarga emas, balki obyektiv dunyo tashkil topgan ong harakatlariga qaratiladi. Fenomenologiya borliqning turli tomonlarini insonga anglatish usullari, dunyo va ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdan boshlanadi.

Fenomenologiyaning boshlang'ich nuqtasi jamiyatning, madaniyatning ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'zi uchun mavjud bo'lgan ruh ekanligi haqidagi tasdiqdir. Ruh avtonomdir va haqiqatan ham ilmiy o'rganish uchun mavjuddir. Bizni o'rab turgan olam nafaqat faktlar olami, balki ma'naviy mohiyatlar olami - uni tashkil etuvchi va bevosita uning haqiqati sifatida berilgan sof shakllar, mutlaq

haqiqatlar, qadriyatlar dunyosidir. Fenomenologiya - bu ruh bo'lgan narsalarning umumbashariy mohiyatini izlash g'oyasini tasdiqlaydigan sohadir.

Fenomenologiyaning markaziy tushunchasi "hodisa" bo'lib, u ongda paydo bo'ladigan mohiyatni bilish usuli sifatida ishlaydi. Nemis mumtoz falsafasida (Kant, Gegel tadqiqotlarida) "hodisa" tushunchasi (yunoncha phainomenon - hodisa) "noumenon" tushunchasi (yunoncha noumenon - tushunarli mohiyat) bilan o'zaro bog'liqdir. Bu tadqiqotlarda obyekt hodisasi uning mohiyati bilan bir xil emas - har qanday obyektning bilish uning ikki tomonlama ko'rib chiqilishini taqozo etadi, ya'ni obyektning ongda paydo bo'lish usuli va obyektning mohiyati qaysi ko'rinishda. Bu hodisa noumen bilan qarama-qarshi bo'lib, u aql bilan idrok qilingan tajribadan tashqarida qoladi va intellektual tafakkur mavzusi hisoblanadi. Fenomenologiyada hodisa va obyekt mohiyati o'rtasidagi chiziq o'chiriladi va mohiyatning ong oqimi bilan birlashishi, mohiyatning hodisa orqali o'z-o'zini namoyon qilishi ochib beriladi. Shunday qilib, fenomenologiyada fenomen - bu nafaqat obyektning ongda ko'rinishini, balki obyekt mohiyatidagi ongda hodisani ham anglatadigan tushunchadir. Fenomenologiya ongda paydo bo'ladigan mohiyatni bilish usuli sifatida ishlaydi. Mohiyatga keladigan bo'lsak, fenomenologiyada uni "ma'no", "eidos" (g'oya), "arxetip" (prototip) tushunchalari yordamida belgilash mumkin.

Fenomenologlar ongga quyidagicha ta'riflarni berishadi:

Ong chegaralangan narsa emas, turg'un va o'zgarmas oqim ham emas, balki cheksizlikdir.

Ongning asosiy xarakteristikasi - niyatlilik, ya'ni uning biror narsaga yo'naltirilganligi. Ong doimo biror narsaga qaratilgan va u doimo nimadir haqida bo'ladi.

Ong birliklari hodisalar - olam odamga ko'rinadigan subyektiv shakllardir. Inson haqiqiy dunyo obyektlari bilan emas, balki o'z ongining hodisalari bilan shug'ullanadi. Insonga dunyo faqat uning ongi hodisalari yig'indisida ko'rinadi va u o'zining obyektiv realligida uni idrok etmaydi, degan g'oyani Gusserl mashhur iborasida ifodalagan: "Subyektsiz obyekt yo'q!" Bu formula inson obyektini idrok etar ekan, uni o'z "men" idagi mazmun bilan to'ldirib boradi va bu faqat inson ongigina obyektga ma'no berishini anglatadi.

Ushbu kontsepsiya asosida fenomenologik tadqiqotning umumiy metodologik tamoyili shakllantirilmoqda. Unda aytilishicha, narsalarning bizga ongimiz hodisalari sifatida ko'rinishini hisobga olmasdan turib, ularni obyektiv ravishda mavjud deb o'rganish mumkin emas. Narsalarni faqat idrok etuvchi ong tajribasida mavjudligini hisobga olgan holda o'rganish kerak. Bu metodologik tamoyil fenomenologik reduksiya deb ataladi. Tadqiqotchining diqqatini bu dunyodagi narsalarga emas, dunyoning o'ziga, obyektiv dunyo tashkil topgan ong harakatlariga qaratish kerak. Fenomenologiya dunyoning turli tomonlarini insonga berish usullari va dunyo haqidagi ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdan boshlanadi. Demak, odamlarning dunyoga bo'lgan munosabatlarining obyektiv mazmunini emas, balki uning ongda paydo bo'lishini o'rganishga qaratilgan tadqiqotning maxsus turidir.

Adabiy tanqidning fenomenologik falsafaga tayanishi asarning o'ziga xos nazariyasi va u bilan ishlashning o'ziga xos uslubiyatini tug'dirdi. Adabiyotning universal fenomenologik nazariyasi asar kontseptsiyasiga asoslanadi, u Xaydeggerdan oldingi germenevtikaga nisbatan polemikdir. Ya'ni asarning o'zi ong hodisasi, mahsuli va natijasidir. Boshqacha aytganda, asar narsa emas, u individual ong tomonidan yaratilgan subyektiv hodisa bo'lib, bu faktni hisobga olmasdan turib, uni o'rganib bo'lmaydi.

Fenomenologiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, u dastlab psixologiya tarkibida bo'lib, keyinchalik boshqa fanlarga, xususan, adabiyotshunoslikka ko'chganini va alohida tahlil metodiga aylanganini ko'ramiz. Fenomenologiya tushunchasini badiiy ijod, uni qabul qiluvchi idrok jarayonidan alohida holda tasavvur etib bo'lmaydi. Sababi, bunda yozuvchi, o'quvchi va matn orasidagi aloqa jarayonini tahlil etiladi. Demak, fenomenologik tahlil badiiy asar mohiyatini ochishda o'ziga xos yangi yondashuvdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.Gusserl. General introduction to a pure fenomenologiy. – Boston, Lankaster 1983.- P.19.
2. Ergash G'oziyev. Umumiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. –Toshkent. 2010: -B.291.
3. Kenjayeva P U. Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon psixologiyasini tasvirlash tamoyillari fil fan nomz diss. – Toshkent. 2008.- B1.
4. O.H.Турешева. Теория и методология зарубежного литературовведение. Флинта-Наука. 1995. -Б.123.
5. И. В. Кабанов Современная литературная теория. Антология. – Москва. Издательство Флинта. Наука. 2004.

## **OMON MUXTOR ROMANLARIDA G'OYAVIYLIK VA MAVZULAR RANG-BARANGLIGI**

**Furqatjon KARIMOV,**  
*GulDU magistranti*

XX asr boshlarida tug'ilgan o'zbek romanchiligi bugungi kunda nafaqat milliy balki rus va jahon klassik romanchiligining ajoyib an'alarini davom ettirgan holda inson hayotining yangi-yangi jabhalarini qamrab olmoqda. Insonga uning ichki ruhiyati, o'y-fikri, orzulari tasviriga yangicha usulda yondashayotgan, adabiyotda o'z ovozi, o'z uslubiga ega so'zini ayta olish baxtiga sazovor bo'lgan iste'dodli ijodkor Omon Muxtordir. Adibning so'nggi yillarda chop etgan qator romanlari, umri davomida adabiy meros sifatida qoldirgan o'n to'rtta romani bizga yozuvchining iste'dodli, sermahsul ijodkor sifatida tanitadi. Yozuvchi asarlarida biz yangi yo'llar, shakliy izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Tasvirlarda, xarakterlar mohiyatini ochib berishda adib jahon adabiyotining boy uslubiy an'alarini dadillik bilan milliy materialga singdira olishini, nafaqat jahon, balki milliy an'alarimizning folklor namunalaridan ham foydalanishi, uslubiy va



shakliy izlanishlar, nasrda ham nazmni uyg'unlashtira olish san'atini ko'rishimiz mumkin.

O. Muxtorning "Yog'du" (1979), "Marvarid" (1985), "Shiddat" (1990) va boshqa she'r to'plamlari, tarjima kitoblari mavjud. Bundan tashqari kattalar va bolalarga mo'ljallangan yangi ertaklar, xayoliy manzaralardan iborat bir necha kitoblari ham nashr etilgan. Adib qator hikoyalar va qissalar kitoblari muallifi, "Nigoh" (1968), "Qushlar va tushlar" (1971), "Shaharlik kelinchak" (1973), "Vazifa" (1988), "O'lmagan jon" (1995) singarilar shular jumlasidan. Uning qahramonlari oddiy kasb-hunar kishilari. She'rlarida ham, hikoya va qissalarida ham yozuvchi birovga ergashmaydi, o'zi topgan aniq fikr bilan jonli manzara chizishga urinadi. Ayniy, Fitrat, G'afur G'ulom kabi ustozlardan saboq olgani sezilib turadi. O. Muxtor dastlab "Yillar shamoli" (1976) va "Egilgan bosh" (1989) degan ikki roman e'lon qildi. Bu romanlar keyinchalik "Buxorolik bir yigit" (1998) va "O'lmagan jon" (1995) kitoblarida qayta nashr etildi. Yozuvchining shundan so'ng "To'rt tomon qibla" trilogiyasi ("Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba" romanlari) (2000) bosildi. U yana "Ffu", "Ayollar mamlakati va saltanati" (1997), "Aflotun" (1998), "Maydon" ("Sharq yulduzi" jurnali 2001 yil 1-son) romanlarini yozdi.

Dastlabki ikki romani ma'lum darajada an'anaviy uslubda bo'lsa, keyingi romanlar o'z shakli va yo'nalishi bilan butunlay yangichadir. Ular asosan, o'zbek xalq ertaklari, qissalari, dostonlari va afsonalariga suyangan holda, bu kungi inson hayotini aks ettirish bilan birga, uning xayol olamiga, ruhiyatiga sayohatni eslatadi. Adib ijodiga xos bo'lib kelgan falsafaga moyillik bu romanlarda bo'rtib ko'rinadi. Inson qismati ham, uning ruh olami ham naqadar murakkab ekanligini aks ettiradi.

Adib ko'p qirrali, iste'dodli ijodkor deb bejiz e'tirof etilmaydi. O. Muxtor shoir, yozuvchi, dramaturg. Nasrdagi ijodi hikoyalar yozishdan boshlagan adib "Yillar shamoli" (1976) keyingi nashrlarda "Buxorolik bir yigit" (1998) va "Egilgan bosh" (1989) kabi an'anaviy uslubda yozilgan asarlari bilan roman janrida o'z mahoratini sinab ko'rdi.

Uning oxirgi o'n yillikda yaratgan qator romanlari yozuvchini elga tanitdi. "To'rt tomon qibla" trilogiyasi ("Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba"), "Ayollar mamlakati va saltanati" (1997), "Aflotun" (1998), "Ffu" (1997), "Navoiy va rassom Abulxayr" dilogiyasi ("Buyuk farrosh", "Ishq ahli"), "Maydon" (1999), "Xotin podshoh", "Muhabbat o'limdan kuchli" (2011) hamda "Odamlar kulishlari kerak" romanlari, avvalo, mazmun-mundariyasi, shakl-shamoyili, ifoda tarzining o'ziga xosligi, shaklning turfaligi bilan alohida afzalliklarga ega.

Uning zamonaviy va tarixiy mavzudagi romanlari o'zbek nasrining shaklan va mazmunan boyishida muhim o'rin tutadi. Undagi yangicha tasvir usullari, tafakkur tarzi va roman – hangoma, roman – rivoyat, asr romani kabi roman janridagi shakliy izlanishlari e'tiborga loyiq.

"O. Muxtor keyingi yillarda e'lon qilingan asarlari o'zbek nasrida va umuman, o'zbek adabiyotida o'zgacha voqea bo'ldi. Adib badiiy ijodda o'ziga xos uslub egasidir. Ijodning tub mohiyati, ijtimoiy ildizlari va milliyliги nuqtayi

nazaridan qaraganda, Omon Muxtor asarlari original romanlar – o‘zbek xalq qissalariga yaqindir”,- deya e’tirof etadi Hamid G‘ulom.

Har qanday yozuvchining iste’dodi uning qancha asar yozgani-yu,qancha kitob nashr qilganida emas, balki,badiiy tafakkurga qanday o‘zgarishlar, yangilanishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta’sir o‘tkazgani bilan belgilanadi.

Omon Muxtor adabiyot sahnasida o‘z o‘rnini topa olgan yozuvchi deb bermalol aytishimiz mumkin. Chunki, uning uslubi hech qanday qoliplarga bo‘ysunmaydi. Ya’ni, romanlari an’anaviy romanlarning qolipiga sig‘maydi. Birinchidan, romanlarning hajmi kichkina, shakl jihatidan rang-barang, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Ikkinchidan, ularning soni salmog‘i ham ko‘p.

Demak, adib nafaqat she’riyat, dramaturgiyada, balki nasrda ham barakali ijod qilgan. Uning she’rlari, qissa, hikoyalari va dramalari ham talaygina. Lekin epik turning asosiy yirik hajmli roman janrida adibning o‘n to‘rtta romani mavjudligi quvonarli hol, albatta. To‘g‘ri, romanlarning hajmi xiyla kichik.” Zero badiiy adabiyotni sanog‘i yoki vazniga qarab o‘lchab bo‘lmaydi. Uning salmog‘i badiiyat tarozisi bilan tortish ruhiyat mezonlari bilan aniqlash lozim”. (321-bet) Adib xalq tilida asar bitadi. Ularda, ayniqsa, ko‘p uchraydigan holat shuki,turli latifalar, rivoyatlar, tush tasvirlari keltirilishi asarning “xalq qissalari”ga yaqinlikni ifodalaydi.

Shuningdek, ko‘plab romanlarida xayoliy-fantastik tasvirlarning real hayotda sodir bo‘lishi yozuvchining o‘ziga xos uslubi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Eng avvalo, adib romanlari bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi, har biri o‘ziga xos. Ularning barchasi roman janrining an’anaviy qoliplariga sig‘maydi . Ular shaklan ham mazmunan ham o‘zgacha yaratilgan.

Adabiyotshunos olim D.Quronov “Roman haqida ayrim mulohazalar” maqolasida: “Biroq, ... hozirda “roman” deb yuritilayotgan asarlarning hammasi ham mazkur talablarga tushmaydi. Mavjud turfalik tufayli, ”buning nimasi roman ?” deya hayron bo‘lishlar “roman talablariga javob bermaydi, chunki...”, deya da’voni turli yo‘llar bilan asoslashga intilishlarga bot-bot duch kelamiz. Holbuki, bu ham, avvalo, romanning o‘zgaruvchan tabiati, ikkinchidan, uning joriy adabiy jarayondagi yangiliklarni o‘ziga singdirishga qobil va moyilligi, uchinchidan, janrning turli ko‘rinishlari turli ildizlardan suv ichishi bilan izohlanuvchi tabiiy va qonuniy bir holdir” (322-bet).

Darhaqiqat, “birgina to‘liq shakllanmagan, bu jarayon davom etayotgan” roman janrining belgilarini aynan ushbu adib romanlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ular shaklan ham mazmunan ham o‘zgacha yaratilgan. Bu yangilik birinchi navbatda romanlarda shartlilik tamoyillarining ustuvorligida ko‘rinadi. Adib ilgari surayotgan g‘oyaviy niyatini shartli unsurlar, shartli voqealar, ramziy timsollar va manzaralar orqali ifodalashga e’tibor beradi.

“Ming bir qiyofa ” asaridagi birinchi hikoya “Tutqun” deb nomlangan. Asr mazmuni sarlavhadan ma’lum bo‘lganidek, qahramonning tutqun bo‘lishi tasviri bilan boshlanadi. Bu hikoyani o‘qish jarayonida adibning uslubiga xos yangi

talqinni uchratishimiz mumkin. Asar qahramoni tunda bekatda mashina kutayotgan holatda asarga kirib keladi. So'ng u mashinaga o'tiradi, keyin bilsaki, mashina haydovchisiz harakatlanyapti va yana ajablanarlisi noma'lum joyga.

“Avtobus uning yonginasiga kelib to'xtadi. Old-orqa qopqalar lang ochildi. ... Biroq mashinaga minib, qopqalari yopilgan mashina yo'lga tushgach, oldinga o'tdi-yu, mashinada haydovchining o'zi ham ko'rinmayotganini sezib, angrayib qoldi”. (324-bet) Bu voqealarni o'qigan kitobxon asar voqealariga birinchi o'qishda ishonmas.

Adib asarida tasvirlanayotgan qahramon Abdulla Hakim taniqli ijodkor, boshqa hech narsa bilan emas, shu mashinaning haydovchisiz boshqarilayotganligi bilan qiziqadi. Yozuvchining yangi topib aytgan gapi ham shunda ko'rinadi. Ya'ni, odamni o'g'irlashning, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, insonning o'zligini ayrilishi, tortib olinishining yangi ko'rinishi haqida gap borayotganga o'xshaydi. Bunday olib qaraganda, fan-texnika rivojlangan davrda erdan turib oydagi fazoviy kemani bemalol boshqarayotgan inson mashinani ham haydovchisiz boshqarishi mumkin-ku. Qolaversa, bu kelajakda amalga oshishi mumkin jarayonlardan biri bo'lishi, ehtimol.

Yozuvchi “Tepalikdagi xaroba” romanida ham xayoliy voqealar, tasvirlar uchraydi. Bunga sabab, adibning injiqligi yoki real tasvirlarni aks ettirishni yoqtirmaslik emas balki, qahramon ruhiyatidagi nozik qirralarni, o'zligini ochib berishda qo'llaydigan o'ziga xos uslubi. Ya'ni xayoliy voqealar yordamida insonning ichki sezimlar, intim tuyg'ulari, so'z bilan ta'rif etib bo'lmas hissiyotlarni ko'rsatib berishdir.

Yuqorida aytib o'tilgan roman bosh qahramoni Mirzo G'olib to'qayzorda aziz, buyuk uch insonlar: Lutfiy, Mashrab, Bayronni ko'rib qoladi.

“Marhumlardan birining boshida fo'ta, egnida odmi yaktak; yuzi chuvak, kichik soqol qo'ygan... Ikkinchisi: boshida kuloh, egnida janda; patila-patila sochlari kuloh ostidan chiqqan, kamarigacha tushgan; soqoli ham qalin, to's... Uchinchisi: boshida hoshiyali qalpoq qo'ndirgan, negadir qo'lida yupqa, oq qo'lqop; yonida kalta bir tayoq ham yotibdi, yuzi qonsiz, ammo juda ko'hli...” (328-bet)

Tasvirdan bilishimiz mumkinki, ularning birinchisi Lutfiy, keyingisi Mashrab, eng so'nggisi Bayron. Uch davr, uch muhit insonlarining bir davrda paydo bo'lib qolishi, albatta, aqlga sig'mas hodisa. Lekin adib uchun bu voqea hayotda rostdan sodir bo'lgan yoki sodir bo'lmaganligi qiziqitirmaydi, balki ular asar qahramoni Mirzo G'olib ruhiyatini ochib berishga, uning o'zligini tanishiga yordam berishini muhim hisoblaydi.

“U o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan mangu va doimiy mavzularni yangicha qiyofadagi qahramonlar galareyasi orqali ham inkishof etishga erishadi. Romanlarda tarix bilan zamon har doim yonma-yon turadi, qahramonlar ham bugun ham o'tmish orasida.

Yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ojizlik va jasorat, loqaydlik va g'ayrat, bilim va jaholat, xiyonat va sadoqat rishtalarini ayni chog'da bu qahramonlar o'zida to'la mujassam etadilar”. (317-bet)

O.Muxtor romanlari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barang. Uning “Ming bir qiyofa” romanida voqealar Abdulla Hakim, lekin uning hayoti Burhon Sharif, Sadirjon va Nasiriddin Afandi kabi obrazlar hayoti bilan boylab o‘tadi. Asar voqealari u dunyoda ham bu dunyoda ham ro‘y beradi. Insonning yashashdan maqsadi, o‘zligini taniy olish-olmasligi, odamiyligi, mehr-muhabbat abadiyligi romanda juda ajoyib tasvirlangan.

Bu haqda adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev:

“Omon Muxtor kabi bir qur nosirlar o‘z bitiklarida inson va uning mohiyatini tamomila yangicha nuqtayi nazardan ko‘rish hamda ko‘rsatish yo‘lini tutdilar. Agar oldinlari nasriy asarlarda bir yoki bir necha qahramonning hayot yo‘li yoki taqdiri tasvirlangan bo‘lsa, endi tasvirga tortilgan insonning mohiyatini butun murakkabligi bilan tadbiq etishga tutinildi”. (336-bet)

Omon Muxtor aytish mumkinki, polifonik romanlar ijodkori hamdir. Uning bu janrdagi deyarli barcha asarlarida syujet va kompozitsiya qurilishi, voqelikni bayon etish usullari, umum tuzilishi va qahramonlarning o‘ziga xos ekanligidan boshqa adabiyot namunalariga ham umuman o‘xshamasligini aytib o‘tish o‘rinlidir, albatta.

Muhimi, adib o‘tgan asrning 90-yillarigacha o‘zbek romanchiligida qaror topgan monofonik (bir ovozli) bayonga asoslangan “tartib”ni buzib, polifonik (ko‘p ovozli) romanlar yaratilishiga munosib hissa qo‘shdi”. (338-bet)

Lekin adibning bu polifonik romanlar o‘z milliy ildizidan, ko‘p yillik tarixga ega barhayot fazilatlaridan uzilib qolgani yo‘q. Aksincha, ular o‘zigacha dunyoga kelgan Sharq an‘anaviy romanchiligini yangicha bosqichga ko‘tardi. Ya‘ni, yirik hajmli “zamonamizning epopeyasi” (V.G.Belinskiy) adib milliylikni saqlab qoladi, unga zamonaviy tus beradi, xolos. Ya‘ni turli afsona va rivoyatlar, latifalar shuningdek, tush tasvirlarining berilishi tarixiy adabiy jihatdan ham, shakl-shamoyili bilan ham qadim xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagi mavjud unsurlarga yaqindir.

“Tepalikdagi xaroba” romanida ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo‘sinlarini qo‘llash, badiiy ifodaning qo‘llanilmagan, yangi vositalardan foydalanish o‘zbek nasri uchun ham yetakchi xususiyat kasb etadi. Har bir yozuvchining o‘ziga xos uslubi bo‘ladi. Gyote “Uslub – bu odam” degan edi. Bu hikmat bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan deb bemalol ayta olamiz. Ijodkor qachonki, o‘z uslubini topib, boshqalarga o‘xshamay yozsa, uning asarlari o‘qimishli bo‘ladi. Chunki uslub bu – yangilik. Inson esa doimo yangilikka o‘ch. Tog‘ay Murod uslubi hammaga yaxshi tanish. Unda sintaktik parallelizm ham, sheva so‘zlardan foydalanish ham kuchli. Yana xalq tiliga yaqinlik, baxshi so‘zlariga o‘xshashlik bor.

N.Eshonqul uslubida esa ramz va metaforlar bilan tasvirlash, ranglarning o‘ta quyugligi, deyarli barcha asarlarida uchraydigan “badbo‘y hid”, “qo‘lansa islar uchraydi.

O.Muxtorning uslubi ham o‘ziga xos. Uning asarlarida nazm hamda nasr aralash holda kelaveradi, deyarli barcha romanlarida epigrafni uchratish mumkin. Yana asar qahramonlari yo‘qlikdan paydo bo‘lishi, necha asr oldin o‘tgan voqealar

ichiga tushib qolishi, bugunda o'tmish va o'tmishda hozir namoyon bo'lishi mumkin.

Omon Muxtor romanlari uslubidagi yana bir jihat ulardagi voqealar rivoji, timsollararo munosabatlar tasvirida dramaga o'xshashlik borligidir. Asarni mistikaga oshno qilgan jihat tasvirda xronotop, ya'ni makon va zamon mutanosibligi talabiga amal qilmaganida ko'rish mumkin.

“Ko'zgu oldidagi odam” romanida yana bir qiziq holat, inson va shayton o'rtasidagi kurashga guvoh bo'lamiz. “Tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko'ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisa bo'ldi”. (341-bet)

Adabiyot tarixiga nazar solsak, dunyoviy havaslar, orzu-umidlarga doimo” yordam qo'lini cho'zgan” va bu bilan ezgu yo'ldan ozdirgan inson qiyofasidagi shayton va iblis obrazlariga duch kelamiz. Gyotening “Faust”, M.Bulgakovning “Usta va Margarita”, Balzakning “Sag'ri teri tilsimi” asarlari shular jumlasidandir.

O.Muxtorning “Ko'zgu oldidagi odam” romanida Valining Siroj muallim qiyofasidagi shayton bilan bo'lgan murosasiz kurashi tasvirlanadi.

Asardagi “Shayton tandagi qon kabi...” so'zlari uch marta qaytariladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki asar qahramoni oldida rahmoniy va shaytoniy yo'l yotadi. Yozuvchi oldiga qo'ygan asosiy vazifa asar bosh qahramoni “faqat faoliyat odamigina emas, balki o'y-mushohada kishisi sifatida tasvirlanadi”. (97-bet)

O.Muxtor “Navoiy va rassom Abulxayr” asari uchun O'zbekiston davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. “Ishq ahli” va “Buyuk farrosh” deb nomlangan ikki qismli dilogiya romani Uyg'un, I.Sulton va Oybekdan keyin ulug' Navoiyning monumental qiyofasini yaratishga yozuvchining intilishlarini mahorat samarasi deb baholash mumkin.

Bilamizki, adib serqirra ijodkor. Uning nasriy asarlaridan tashqari she'rlari ham talaygina. Uning “Ming bir qiyofa” va “Tepalikdagi xaroba” romanlarida nasr va nazm uyg'unligini ko'rish mumkin. “Navoiy va rassom Abulxayr” dilogiyasida ham uning she'riyatdagi nasriy tajribasining ta'siri va nasriy asarlarida she'riyatining aks-sadolarini ko'rish mumkin.

Yozuvchi hazrati Navoiyni o'zgacha ko'z bilan ko'radi va tasvirlaydi.

“Navoiy to'g'risida ko'plab kitoblar yozilgan.

Ammo ko'nglim to'lmaydi.

Bularning aksarida u tirik odamdan ko'ra ko'proq devordagi suratga o'xshaydi,” (132-bet) deydi adib o'z romanida.

U Navoiyni “... bir Osmon, ...bir ummon” ekanligini ta'kidlaydi. Yozuvchi nihoyatda jiddiy ishga qo'l urganini biladi. Navoiy shoirlar sultoni. Adabiyot tarixida eng yuksak “Everest cho'qqisi”. Tog'dan qancha uzoqlashganingiz sari uni zalvori, salobati oshib borgani kabi, Navoiy dahosi yillar, asrlar o'tib, bizni yanada hayratga solmoqda. Adib o'zigacha yaratilgan Navoiy siymosini bilar edi. O'z romani uchun esa shoir asarlariga tayanib, ulardan kelib chiqib, ruhiyatini ilg'amoqchi, uning insoniy qiyofasini chizmoqchi bo'ladi. Xullas, Omon Muxtor Navoiyning asarlari orqali uning shaxsiyatiga etib borishga harakat qiladi, buning uchun xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlardan ham o'rinli foydalanadi.

“Yozuvchi romanda Navoiy va uning atrofida qilgan o‘ziga xos rassom nazari bilan kuzatadi. ...Hazrati Navoiy timsolini badiiy tadqiq etish jarayonida Omon Muxtor qilgan eng katta kashfiyot, birinchidan “Uning manglayiga DAHO bo‘lish uchun avvaldan fojia muhri bosilgan”ini topganda bo‘ldi deb e’tirof etgan edi” [2, 38].

Adibning yana bir muhim romani borki, uni eslamay o‘tishning iloji yo‘q. “U shu kungi roman” deya muallifning o‘zi e’tirof etgan asar “Xotin podshoh”dir. Bu asar voqealari bundan ming yillar avval tarixiy bir davrda sodir bo‘ladi.

Adabiyotshunos olimlar tomonidan bahslarga sabab bo‘lgan bu romanni kimdir tarixiy, kimdir ma’rifiy deb ataydi.

Roman Turkistonda ming yillar oldin arablar bosqini davrida hayot yo‘lini bosib o‘tgan o‘zbek xalqi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, yurtning haqiqiy farzandi-Oysuluv haqida”. Adabiyot abadiyatga da’vogar. Adib betizgin vaqtni tizginlashga urinadigan zot. U tarixchidan farq qilarmoq, zamon haqida axborot, ma’lumot bermaydi. Bil’aks vaqtni, odam umrining biror qismini hissiyoti sezimlar bilan tasvirga muhrlab, to‘xtatib qo‘yadi”. (35-bet)

Omon Muxtor tarixning ma’lum bir chigal vaziyat hukm surgan davrni, tarixiy voqelikni o‘z romaniga asos qilib oladi. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida “Muhammad ibn Ja’far (an-Narshaxiy) aytadi. Bidun Buxorxudot o‘lgan vaqtda undan bir emadigan o‘g‘il bola qoldi; uning nomi Tag‘shoda edi. Bolaning onasi bo‘lgan xotin taxtga o‘tirdi va o‘n besh yil hukmronlik qildi”,- deb yozadi. [2, 45]

Bundan ko‘rinadiki, Omon Muxtor tarixiy romanini yozishdan oldin puxta tayyorgarlik ko‘rgan, voqealarga badiiy tus, bo‘yoq berib tasvirlagani e’tiborga molik. Romanda turkiy xalqlar taraqqiyotidagi burilish bo‘lmish islomning kirib kelish davrida Buxoro saltanati o‘n besh yil boshqargan Oynur timsoli juda mehr bilan tasvirlangan. Yozuvchi, romanida xolis bayon usulini tanlaydi, hech bir voqeaga aralashmay, barchasini DostoYevskiy asarlari qahramonlari kabi o‘z holiga tashlab qo‘yadi. Asarni o‘qir ekansiz yozuvchi bilan birga Qadimgi Buxoroni, shahar o‘tmishini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rgandek bo‘lasiz. Har bir ish puxta, to‘liq, bekam-u ko‘st bo‘lmagani kabi romanning ayrim joylarida bayonchilikka, pala-partishlikka yo‘l qo‘yilgan. Lekin asar badiiyati, yozuvchi mahorati bu kamchiliklarni to‘ldirib ketadi.

Asarda arab xalifasi Muoviya, uning o‘g‘li Ubaydulloh ibn Ziyod, Sayyid ibn Usmon, Qutayba ibn Muslim lashkarboshilari va sotqin Xitfar Buxorxudot timsollari jonli tasvirlangan.

Adib e’tiqod-u imon uchun borgan janglar tasvirlangan bu romanida sevgining sehrli qudratini bir-biriga qarama-qarshi turgan turkiylar bilan arablarning yetakchilari Oynur va Sayyid ibn Usmon siymolarida aks ettiradi. Bir-biriga yog‘iy bo‘lgan ikki yosh o‘rtasida beixtiyor paydo bo‘lgan natijasiz va azobli sevgi tasviri asarga ayri-ayri joziba baxsh etgan. Yozuvchi asardagi aksar personajlarni o‘z ichki olamiga ega betakror shaxslar sifatida tasvirlay olgan. Bunda adib kichik bir tafsil orqali muayyan timsolga xos jihatni ifodalash yo‘lidan boradi. Jumladan, Oynurga tegishli: “Xotin podshoh qarorgohga kirib kelganida

bir dam gangidi. Sirasini aytganda, u – jur’at, o’ktamlik bilan yurtni qo’lida itoatli tutsa-da, yosh juvon (kechagi qizaloq) edi” yoki Sayyid ibn Usmon haqidagi “U ayolmi, erkakmi o’zidan aqlliroq kishi oldida doim bir nima deyishga qurbi etmay, sarosimalanardi” singari qisqa tasvirlar yoprdamida har bir timsollning ichki dunyosini ko’rsatishga erishadi.

Ko’ngil mayli, visol ishtiyoqi bois, biri olis sahrodan Buxoro tomon, ikkinchisi Buxorodan sahro sari ot surib, bir-biriga etay, deb qolganda, ko’ngil mayli bois ortga qaytgan Sayyid va Oynur holatlari tasviri ta’sirli chiqqan. Shuningdek, yozuvchi badiiy adabiyotda ilk bor Buxorodagi turkiylar bilan forsiylar munosabatidagi nozik jihatlarning ildizlari borasida ishonarli to’xtamlarga keladi.

Omon Muxtor har bir romani sarlavhalariga alohida e’tibor beradi. Va mehnatining natijasi sifatida bir-biriga o’xshamagan original sarlavhalar topa oldi. Uning “Ffu” – rivoyat roman deb nomlanganligi yuqoridagi fikrlarimizning isboti bo’lib xizmat qiladi.

Bu asarda adibning mahorati yana bir bor ma’lum bo’ladi. U o’z prinsipidan chekinmagan holda, asar qahramoni Toshtemir ham salbiy ham ijobiy jihatlarni ochib beradi. Rivoyat – roman deb izohlangan asar asosi ham rivoyat ustiga qurilgan. Ammo unda bugungi davr nafasi, turmush, hayot muammolari aks etgan.

Inson hech qachon dunyoga ustun bo’la olmaydi. Ayniqsa, boylik, kuch bilan. Toshtemir obrazi orqali biz mana shunga amin bo’lamiz.

Asar bosh qahramoni – Mulla Toshpo’lat. U shaharning oddiy fuqarosi, kamtaringina quruvchi. Uning yolg’iz o’g’li bor. Toshtemir. Uning vujudida ezgulik va yovuzlik mavjud. U kuch, boylik bilan dunyoni, sevgini egallashga harakat qiladi. Bir imkon tufayli u insofga keladi.

Dunyoda faqat mehnat va ezgulik bilan e’tiborga, odamiylikka erishish mumkinligini anglaydi.

“Shu payt... payqadi: g’or oldidagi katta bir tosh ustida Toshtemir bilan... Nigor! - Yonma-yon, boshlarini eggancha, So’zlashib O’tirishar edi.

U Nigor kuch, boylik bilan emas, mehnati bilan “qurilayotgan bino naq osmonga o’rlabdi!” erishdi. (75)

Mulla Toshpo’lat tilidan aytilgan ushbu gaplar asar mohiyatini belgilaydi. “Dunyoning o’zi kaftdagi chang chuqur nafas tortib, ffu! – desang, uchadi-ketadi! (54)

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kenjayeva P U. Hozirgi o’zbek hikoyalarida qahramon psixologiyasini tasvirlash tamoyillari fil fan nomz diss. – Toshkent. 2008. B1.
2. Omon Muxtor. To’rt tomon qibla. – T., Fan. 2008.
3. Omon Muxtor. Xotin podshoh. – T., O’qituvchi. 2011.

## **YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA POETIK MAZMUN YANGILANISHI TAMOYILI**

*Latofat TAJIBAYEVA,  
Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti*

Yangi o‘zbek she’riyati mazmun o‘zgarishini o‘zida mujassamlantirishi barobarida shakl va ifoda vositalaridagi o‘zgarishlar darakchisi ham bo‘ldi. Yangi she’riyat asrlar davomida yetakchi vazn bo‘lgan aruz asoslarini o‘zgartirgan holda vujudga keldi. Ya’ni turmush haqidagi orzu-umidlarni tasvirlagan romantizimdan farqli ravishda jonli, realistik manzaralarni tasvirlash, badiiy tilni xalq og‘zaki tiliga moslashtirish kuchaydi. XIX asr oxirida ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan o‘zgarishlar o‘z navbatida adabiyotda ham mazmuniy o‘zgarishlar sababchisi bo‘ldi. Yangi o‘zbek adabiyotidagi asarlarni mazmun jihatdan asosiy 3 ta guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Ozodlikka intilish
2. Ma’rifatparvarlik
3. Jamiyat illatlarini fosh etish.

Ushbu 3 ta mazmun yangi o‘zbek adabiyotini mumtoz davr adabiyotidan ajratib turishda va jadid adabiyotining vujudga kelishiga zamin hozirlagan muhim omillardan sanaladi. Yangi o‘zbek adabiyoti o‘zining tug‘ilishi va kelib chiqishi jihatidan mehnatkash xalq ommasining turmush darajasi bilan bog‘liqdir. U, shu sharoit yaratgan g‘oyaning ifodasi sifatida maydonga kelib, turli adabiy-madaniy omillar ta’siri ostida rivojlandi. Shuning uchun yangi o‘zbek adabiyotining mohiyatini, uning ijodiy-yestetik asoslarini xalqchilik, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari tashkil qiladi va mazmun mohiyati shu g‘oyalar zaminida belgilanadi. Ma’rifatparvarlik adabiyotning Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar, Komil Xorazmiy kabi eng yirik namoyandalarining ijodi vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgandir. Ma’rifatparvalik adabiyotning lirik turidan tortib, yumor, satira va, nihoyat, bevosita xalq hayoti tasviriga bag‘ishlangan “Sayohatnoma”larigacha chuqur xalqchil asarlardir, ularda xalq hayoti to‘g‘ri, haqqoniy aks etadi, xalqning istak-armonlari kuylanadi. B.G.Belinskiy adabiyotidagi xalqchilik to‘g‘risida so‘zlab: “Bizning xalqchiligimiz xalq hayoti manzarasini haqqoniy tasvirlashdadir” degan edi. Shu jihatdan o‘zbek ma’rifatparvar shoirlari ijodiga, ular yaratgan muhim asarlarga nazar tashlasak, bu adabiyotning chuqur xalqchilik ruhiga ega ekanligini ko‘ramiz. Muqimiy ijod olamiga kirib kelgan paytida mumtoz adabiyot an’analariga sodiq qolgan holda an’aniy mavzuda va an’aniy mazmunda qalam tebrata boshlagan. Keyinchalik ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ijodkor fitratiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Uning “Oqjar odamlari haqida muhammas” nomli muhammasida shoir dunyoqarashini va ijodiy yo‘lini belgilib beruvchi mazmunga duch kelamiz:

Zotimiz sayyidu sodot emasmiz, qoramiz,  
G‘am o‘qidin tani majruhi saropo yaramiz,  
O‘ltiron joyda ham ba’zi mahalda horamiz,  
Suv uchun daryo uza havsala aylab boramiz,



Gah yo'lovchi keladur kemaga guldur-guldur!

Muqimiy Sirdaryo yoqasidagi Oqjar paromida pattachi bo'lib ishlab yurgan kezlari yozilgan ushbu muhammasda shoirning kelgusidagi ijod yo'li yaqqol ko'rinib turibdi. Hayotning bevosita ta'siri va realistik mavzu bo'lajak realist shoirning e'tiborini xalq hayoti tomon yo'naltirdi. Shu yo'sinda nafis so'z xalq turmushiga xizmat qildirildi[1,147].

Otashin va dardli milliyat masalalari aks etgan she'rlarni Miskin ijodida ham topishimiz mumkin:

Ox! Millat, yeb g'amingda kuydi jonim, kimga deyay?

Bir eshitmaysan fig'onim, bu fig'onim kimga deyay?

Zamonaviylik, zamonaviy mavzular eng, avvalo, she'riyatda o'z aksini topadi. Ijtimoiy hayotdagi voqealar, o'zgarishlar ortidan izma-iz boruvchi bu faol janr insonlar qalbidagi, ong-u shuuridagi po'rtanalarni ham bamisoli oynadek namoyon qiladi. Komil Xorazmiy ham ziyoli inson, ma'rifatparvar shaxs sifatida atrofida kechayotgan voqealarga befarq qarab turolmadi. Imsizlik oqibatida benihoya ezilayotgan xalqqa faqat ma'rifatgina yordam bera olishi mumkinligini yurak-yurakdan his qilgan holda ijod qilgan. XIX asr oxirida adabiyot olamiga kirib kelgan Avaz O'tar ham badiiy adabiyot xalq manfaati uchun xizmat qilishi lozim deb hisoblaydi. Shu sabali ham u formalist saroy shoirlari bilan o'z she'rlari o'rtasida kata farq borligini ta'kidlaydi:

Garchi jahonda ko'pdurur ag'zol ey aqli uqul,

Lekin Avaz nazmiga har ab'yoti devon o'xshamas.

Avaz O'tar mumtoz adabiyot qolipida qolib ketmaganligi, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgani uchun o'z davrida ham hozir ham muxlislarning yuksak muhabbatiga sazovor bo'lgan. Hayotdagi adolatsizlik va tengsizlik, mehnatkash xalqning o'z mehnati rohatini ko'rmay mudom ezilishini shoir quyidagicha ifodalab berdi:

Digar naxli chekib mehnat birovlar,

Vale ondin ko'rar rohat birovlar.

Yangi o'zbek adabiyotning muhim mavzularidan yana biri boy va amaldorlarni fosh etish, jamiyat illatlarini tanqid qilishdir. Ma'rifatparvalik adabiyotning olijanob g'oyalari bilan real voqelik o'rtasida tug'ilgan qarama-qarshilik unda mavjud ijtimoiy tuzimga nisbatan norozilik tug'dirdi: ma'rifatparvalik adabiyot hukmron tartiblariga, taraqqiyotga to'sqinlik qiladigan turmush illatlarini la'natlashga, fosh etishga kirishdi. Shunday qilib, bu adabiyotda satira avj oldi. Buni, ayniqsa, Muqimiy va Zavqiy ijodida eng yuksak namunalarini uchratamiz. Muqimiy o'zining "Saylov" she'ri orqali jamiyat illatlarini ochib berishga harakat qilgan:

Qachon kim bo'ldi hakim amri birlan ibtido saylov,

Amaldor ahli boshig'a bo'lib keldi balo saylov.

Teraklar bargidek titrab, jamii qozi – mingboshi

Degoylarkim: yuzin teskari qil, ey xudo, saylov".

Ijtimoiy hayotdagi adolatsizlik, tengsizlik va zo'ravonlikdan qalbi o'rtangan shoirlar o'z ijodi orqali xalqiga yupanch bo'lishni istaydi. Xalq boshiga kelgan

baloyi ofatlardan qalblari larzaga keladi. Shunday olovli, dardli misralarni Cho'lon ijodidan ham minglab misollar topishimiz mumkin:

Bir yurtkim, besh-yil dir qonlarga belangan,  
Otasi o'g'lini «dushman» deb bo'g'adir.  
So'ng burda noni ham qolmasdan talangan  
Yosh go'dak bolasi: «Bir burda non!» deydir.  
Ochlik ham har kuni «qurbonlik» so'raydir,  
Har kuni unga ham yuzlarcha qurbonlar.  
Qirilib tugalish dahshati o'raydir,  
Yanami behuda gunohsiz, sof qonlar?

Bir tomonda, erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomonda, ochlik-qahatlik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan «sinfy kurash», ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Xullas, to'rt tomon ham ihotalangan. Shoirmi bu hol larzaga soladi. U «qirilib tugalish dahshati»dan larzaga tushadi.

Umuman, XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek ma'rifatparvarlik she'riyatida mohiyat yangilanishi, ishtimoiy salmoq kasb etishi, poetik uslubning sodda hamda ravon xalqona ohangga bo'ysundirilishi ma'rifatparvar shoirlar ijodidan boshlangan, So'z san'atida mavjud qolip, andoza va usullarni takomillashtirgan shoirlar she'riyatida yangi estetik ideal belgilari qabarib ko'rinadi. Ham tasvirni, ham ifodani tubdan o'zgartirgan ijodkorlar adabiy talqinida muayyan ijtimoiy taraqqiyotdagi dunyoqarash ko'zga tashlanadi. Ushbu holat, bir tomondan, inson omili va unga munosabat yangilanishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, borliqni o'zgacha falsafiy idrokda baholash mezonlari qaror topishi bilan tavsiflanadi. Eng muhimi, shoirlar ilg'or ijtimoiy qarashlarni sog'lom e'tiqodga yo'naltiradi, millat ma'naviy ehtiyojlari va xalq maqsad-intilishlarini targ'ib qilish ularning poetik mundarijasini tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Q. Yo'doshev. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Furqat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
3. Aziz Qayumov. Furqat ijodiyoti. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Nodira Afokova. Jadid g'azaliyoti. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.

### **XALQONA OHANGLAR JILOSI**

**Odil YOQUBOV,**  
**ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi**

XX asr o'zbek adabiyotining yyetuk namoyandalaridan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Uning lirik she'rlari, nasriy va tarjima asarlari, ilmiy-tanqidiy maqolalari o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib o'rin egallagan.

Oybekning “*Bolalik xotiralarim*” [2] qissasi ijodkor kamoloti, ma'naviyati, estetik ideali, tuyg'u kechinmalari, o'sib ulg'ayish-yillari, oilaviy muhiti, o'zlikni

anglashini to'g'ri tushunishimizda muhim ahamiyatga molik bo'lgan qimmatli manbadir. Mazkur qissasida yaqin o'tmish haqidagi haqiqat xolis bayon qilingan, yozuvchining zamonga, davrga va insonga bo'lgan munosabati o'ziga xos tarzda ifodasini topgan. Asarga so'ngso'z yozgan professor Naim Karimov: *“Biz va ayniqsa keyingi avlodlar XX asrning 10-yillaridagi Toshkent va umuman o'zbek xalqining hayotini bundan buyon Oybek xotiralari orqali ko'z oldimizga keltiramiz. Adib ushbu xotiralarda ana shu, biz uchun tabarruk tarixning yosh va navqiron guvohi sifatida biz bilan, kelajak avlodlar bilan muloqotga kirishadi. Bizga o'sha-yillarning tirik nafasini purkab, xalqimizning mashaqqatli turmush tarzi, urf-odatlarini, orzu va intilishlari haqida darak berib turadi”* [2.246], deya ta'kidlagan edi.

Oybekning she'riy va nasriy asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalari ta'siri benihoya kattadir. Uning «Bolalik xotiralarim» xotira-qissasi va «Qutlug'qon» [3] romanida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. «Qutlug'qon» romani qahramoni Gulnor diliga bahoriy kayfiyat xushnudlik bag'ishlagani bois, uning qo'shiqlarida mayin ohanglar oqadi. Tomda o'ynayotgan va dunyo tashvishlaridan bexabar bolakaylar qo'shig'i ham ularning kayfiyatiga monand:

*Laylak keldi, yoz bo'ldi,  
Qanoti qog'oz bo'ldi... [3. 167]*

Aksincha, boyning qizi Nuri haqida so'zlaganida yozuvchi bolalar tilidan xalq qo'shiqlarining tanqidiy mazmundagi matnlarini qo'llaydi:

*Yomg'ir yog'aloq,  
Echki tug'aloq.  
Boyning qizining  
Qorni yumaloq... [3.98]*

Alioxunning yangroq qo'shig'ida esa iqtisodiy nochorlik tufayli vaqtida oila qura olmagan, tirikchilik tashvishida sarson mardikoru kosibning orzu va armonlari mujassamlashgan:

*Man safarga chiqqanda  
Yor eshigida qolgan.  
«Qachon kalisan yor?» dap,  
Qora ko'zga yosh olgan.*

*Kunda ko'rmadim yorni,  
Kunida ko'rarman dap,  
Umid uzmadim yordan  
O'lmasam suyarman dap.... [3. 52]*

Oybek xotiralarga berilar ekan, o'sha paytdagi o'ylari haqida shunday yozadi: *«Dasturxonda har kungi non, faqat non. Yog'ham yo'q, sut ham yo'q. Sigirni allaqachon sotib yuborganmiz. Qand ham yo'q, turshak ham yo'q. «Hech bo'lmaganda jiyda bo'lsa-chi», deb o'ylayman ichimda, ammo indamayman.»* Bu holat «Bolalik xotiralarim» xotira-qissasida keltirilgan mana bu xalq qo'shig'iga naqadar vobasta:

*Minishga ulov bo'lsa,*

*Qish keldi, olov bo'lsa!  
Qor qalin, sovuq qattik,  
Sergo'sht bir palov bo'lsa!... [2. 36]*

«*Qutlug'qon*» romanida shahar ko'rgan aravakash Jo'ra otni harqancha ardoqlab, unga bo'lgan tizginsiz mehrini ifoda etmasin, ot sotib olishga-da, hayotini izga solishga-da qo'li kaltalik qiladi. Uning ojiz va nochor, ayni paytda ertadan umidvor holati tasvirida Oybek davr koloritini qahramonning xasta va bo'g'iq tovushda xirgoyi qilgan qo'shig'i orqali aynan «*shahar ko'rganligiga*» monand tarzda ifodalaydi:

*Lyublyu, lyublyu Mamajon, lyublyu, Mamajon,  
Stakanda choy ichgan lyublyu Mamajon. [3. 21]*

«*Qutlug'qon*» romani qahramonlaridan biri Shokir ota xasta ovozda kuylaydi. Uning qo'shig'i xuddi yig'i kabi yohud g'arib va dardkash odamning yo'qlashi kabi tuyuladi:

*Ko'rmasaydim bu umr sahrosini,  
Chekmagaydim ko'kka o'tlik ohini.  
Pora-pora yirtidi ko'ksimni sitam,  
So'rg'uchi bormi ko'ngilning zorini? ... [3.283]*

Ko'rinadiki, Oybek uslubining shakllanishi, she'riy va nasriy iqtidorining kamol topishida xalqona ohanglardan bahramand bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi «*Bolalik xotiralarim*» xotira-qissasi va «*Qutlug'qon*» romanida xalq og'zaki ijodining boy xazinasidan barakali foydalanadi. Shu orqali o'zining estetik ideallarini yuzaga chiqarishga, qahramonlarning kayfiyat-holatlari, davr koloritini ishonarli, estetik ta'sirchan ifodalashga, nasr va nazm mutanosibligini ta'minlashga muvaffaq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Millatni uyg'otgan adib. – Toshkent, Universitet. 2005.
2. Oybek. Bolalik xotiralarim.: Qissa. [Nashrga tayyorlovchi: N.Karimov]. – T: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
3. Oybek. Qutlug'qon. – T.: O'qituvchi, 1980.
4. Sabridinov A. Oybekning she'riy mahorati. – Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2006.
5. Sobirov O. Oybek ijodida folklor. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1975.
6. Ulug'bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2002.

#### **MEKEMBAY OMAROV – XALQ BAXSHISI**

*Bagdat URAZOV,  
Guliston davlat universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Baxshilik kamdan-kam kishiga nasib etadigan iqtidor. Baxshi-oqin bo'lish uchun shoirlik iste'dodi, sozandalik mahorati, qo'shiqchilik qobiliyatini

uyg'unlashtirishning o'zi ozlik qiladi. Buning uchun, xalq ta'biri bilan aytganda, "Alloh yuqtirgan bo'lishi" darkor. O'zbekistonda qozoq tilida ijod qiladigan shoirlarning orasida Mekembay Omarovdan ham dovrugliroq oqin topilmasa kerak. Uning nomini mamlakatimiz tashqarisida ham yaxshi bilishadi, tan berishadi, hurmat qilishadi.

1989-yilda Qozog'istonning Olma-Ota shahrida oqinlarning xalqaro aytishuvi bo'lib o'tadi. Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Mo'g'uliston, Turkiya, Rossiya hamda O'zbekistondan vakillar qatnashadi. Ushbu tanlovda Mekembay Omarovga teng keladigani topilmadi va u g'olib deb e'lon qilindi.

Oradan biroz fursat o'tib Markaziy Osiyo baxshilarining Aytishuv tanlovi bo'lib o'tdi. Unda qashqadaryolik atoqli qodir baxshining o'g'li Qahhor baxshi birinchi darajali, Mekembay Omarov ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

Yana biroz vaqt o'tmay Markaziy Osiyo baxshilarining xalqaro Aytishuv ko'rik tanlovi o'tkazildi. Oqin bu tanlovda ham o'zining yorqin mahoratini namoyish etib, nufuzli o'rinlardan birini egalladi. Bundan tashqari Mekembay Omarov oqin sifatida boshqa o'nlab tanlovlarning goh g'olibi, goh sovrindori bo'ldi, televedenie orqali namoyish etilgan katta kontsert dasturlarida ishtirok etdi. Ikkinchidan esa, ijodkorning uzoq-yillar mobaynida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistondagi qozoq qavmlari orasida juda ko'plab ma'rakalarda, to'y-hashamlarda, yig'ilish va tadbirlarda aytishuvchi oqin (aytisger) sifatida ham juda ko'p ishtirok qilib kelayotganini, bu aytishuvlarda ijod qilingan she'rlar tomoshabinlar oldida, xalq ishtirokida ijro qilinganini, ular ham turli xil usullarda yozib olinganini (magnit tasmlariga, videoga, qog'ozga va hokazo) yodda tutsak, M.Omarov ijodining salmog'i yana bir necha bor ortib ketishi aniq.

To'g'ri, bunday aytishuvlarning ma'lum bir qismi (juda oz bir bo'lagi) keyinchalik muallif tomonidan xotirada qayta tiklanib, qog'ozga tushirilib, saqlab qolingani (masalan, M.Omarovning 9 ta aytishuvi uning o'zi va muxlislari tomonidan qog'ozga tushirilib, muallifning 2008-yilda Olma-Ota shahrida nashr qilingan "Atameken" to'plamidan o'rin olgan). Vaholanki, yaratilish nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, har bitta aytishuvning o'zi unda ishtirok etayotgan aytisger (improvizator, badihago'y) oqinlar uchun ham, tinglovchi tomoshabin uchun ham, adabiyot ilmi – fol'klor nuqtai nazaridan ham mustaqil bir san'at asari hisoblanadi. Mana shunday har bir Aytishuv hodisasining o'zi ham adabiy asar, ham san'at asari sifatida tinglovchida, xaloyiqda bir teatrning sahnasida qo'ygan spektakli kabi taassurot qoldiradi, tomoshabinga olam-jahon estetik zavq-shavq bag'ishlaydi, tomoshabin-tinglovchini ma'naviy-axloqiy tarbiyalaydi. Aytishuv – ana shunday bebaho va noyob san'at hodisasi, estetik fenomen hisoblanadi. Binobarin, M.Omarov ijro qilgan Aytishuv (aytis) musobaqasini ham ikki muallif ishtirokidagi san'at asari, adabiyot hodisasi sifatida talqin qilish, tadqiq qilish, uni ilmiy-tadqiqot doirasiga olib kirish o'rinli deb o'ylaymiz

Ma'lumki, M.Omarov – Aytishuv san'atida katta tajriba va obro'-Shuhrat qozongan katta oqin, yetuk san'atkor. Aytishuv oqinlariyu, o'n minglab – yigirma minglab muxlislar yig'iladigan ma'raka-tantanalarda, to'y va yig'inlarda Aytishuv

uchun o'rtaga chiqib, yig'ilgan shuncha ulkan xalq orasida shu lahzalarda she'r to'qib, to'qilgan baytlarni xalqqa ma'qul qilib ijro etish – oson ish emas. Buning uchun kishiga olmosday serqirra talant, o'ta noyob iste'dod, aql-idrok kerak, zukkolik kerak, bilim kerak. Aytishuv oqini o'z fikrlarini she'r qilib aytish bilan birga, xalqqa manzur bo'ladigan gaplarni topa bilishi kerak, o'rni-o'rnida goh hazil-huzul bilan, goh jiddiylik bilan xalqqa etkaza olishi kerak. M.Omarov – mana shunday noyob-nodir hunarning egasi, u O'zbekistonda ham, Qozog'istonda ham keng Shuhrat qozongan san'atkor. U – aytishuvlari bilan ham xalqni tarbiyalab, yaxshi-yomonni farqlashni o'rgatib, aytib kelayotgan oqin. Shu bilan birga, endilikda aytishuvning yosh, navqiron vakillarini ham tarbiyalab etish-tirayotgan ustoz san'atkor. Demoqchimizki, xalqona tarbiya, xalq pedagogikasi asosida tarbiyalash deganda oqin va ijodkor M.Omarovning bu xil xizmatlarini eslab qo'yish kerak bo'ladi. Chunki aytishuvda oqin odamning salbiy tomonlarini, yomon qiliqlarini xalq oldida fosh qilsa, el-yurti deb fidoyi yashab o'tgan olijanob insonlarni ulug'laydi, boshqalarga ibrat qilib ko'rsatadi va shu bilan yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir o'tkazish qudratiga ega. M.Omarovning san'atkorona faoliyati, oqinlik iste'dodi ham uning ijtimoiy-pedagogik faoliyati, qarashlari va tushunchalarining ajralmas bir qismini tashkil etadi.

Xullas, Aytishuv – kamdan-kam iste'dodli odamlargagina nasib etadigan ilohiy bir san'at ekan, shu san'atda yuksak cho'qqilarga chiqish, xalqning oldiga chiqib manzur-ma'qul so'z ayta olish, g'olib chiqish ham – hamma-hammaga nasib qilavermaydigan san'at. Mekembay Omarov mana shu sohada ham iste'dodi yuksak baholanib kelayotgan xalq farzandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Omarov. Atameken. – Almati. 2008. 197-243-B.
2. M. Omarov. Qozoq xalqining 1001 maqol-matali. – Tashkent. Zarqalam. 2006. 72-74-B.
3. M. Omarov. Eng shirin olmalar. – Tashkent. 2008.60-69-b.
4. M. Omarov. Muhabbat. – Tashkent. 2006. 43-49-b.

### **AYOL PSIXOLOGIIYASI TADQIQI**

*Nigora ASHUROVA,  
TDO'TAU tadqiqotchisi*

Inson tabiati go'zalligining ifodachisi bo'lmish adabiyotda birinchi navbatda ayol qalbini tushinish, kashf etish ilmi ahamiyatli. Yozilgan qadimiy asarlar ham ayolga bag'ishlangani, ayol va unga aloqador narsalar turgani, shubhasiz. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol ruhiyati mavzuining badiiy tadqiqi hamda uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyotshunos Z.Isomiddinov "... so'z san'atida ota-onaga muhabbat, tabiat go'zalligi, halollik, bolalarni sevish, yovlarga nafrat... kabi o'nlab mavzular bor, bularning har biri ming-yillardan beri yuzlab xalqlarning so'z san'atida chuqur, har taraflama ishlangan. Ammo baribir, ularning hech biri ayol tasvirichalik mavqe kasb

etmaydi. Shu ma'noda, insonshunoslik bo'lmish adaiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya'ni ayolni o'rganish, inkishof etish ilmidir" [1; 374].

Dunyo va o'zbek adabiyotida ayol obrazini aks ettiruvchi asarlarga e'tibor qaratsak, ayolning ojiza hilqat ekani va uning matonati esa po'latdan ham qattiqligiga amin bo'lamiz. Bunda ayol obrazi gavdalantirilgan xorij ijodkorlarining tajribasiga nazar tashlasak. Yapon adibi Takio Arisimaning "Ayol" deb nomlangan asarida Yoko ismli juvonning fojeali hayotini mukammal tasvirlab beriladi. Asar qahramoni Yoko sevimlisining bir mehriga ming mehr qaytarishga tayyor. U bolalikdan o'zining shu hislati bilan boshqalardan ajralib turgan. Yoko yashagan muhitda, davr silsilasida ayollar qadr-qimati u qadar ko'ngildagidek emasligini yozuvchi asar qahramonlari timsolida yoritib bergan. Asarda Utida obrazi orqali ayolni inson sifatida qadrlanmasligini, uning ko'ngil amriga quloq soluvchi inson topilmasligini mahorat bilan tasvirlaydi. Yoko bilan suhbatida bu yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yoko Amerikaga ketish oldi Utida xonim bilan xayrlashish shuningdek ko'ksidagi g'am-anduhni engillashtirish, dardlashish, eski xotiralarni yana bir bor eslash istagida xonadoniga tashrif buyuradi. O'z dardi qolib Utida xonimning oiladagi o'rni va mavqeyini ko'rib o'z dardi yoddan ko'tariladi. "Utida xonimning ko'rkam, oliyjanob, chehrasidan itoat va yuvoshlik balqib turadi, bunday chehralar, o'rta asr rohibalarigagina xos edi. Eri uni butunlay o'z hukmiga bo'ysundirib, uyning arzimas jihoziga aylantirgandi" [4; 45]. Utida xonimning turmush o'rtog'i o'z ayoliga qilgan muomlasi va munosabatidan Yokoning ko'ngli o'ksiydi, qalbi g'alayon qiladi. "...negadir erkaklar ko'ngillari tusagan ishni qilishlari mumkinu, ayollar esa... ko'ngil xohshi bo'yicha biror-bir narsaga jur'at etish uchun ming bir chiyiriqdan o'tishi lozim" [4; 45]. Bu kabi voqeliklar o'quvchida achinish, nafratlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi.

Qahramon Yoko o'zini o'sha muhitdagi ayollar kabi yashashga bir necha bor majbur qiladi. Lekin u tanlagan yo'l har gal sarobga aylanaveradi. U hayot girdobida g'arq bo'lishgacha boradi. Odamlar unga yordam berish o'rniga uni mazax qilib ustidan kulishadi.

*"Yoko girdobga sho'ng'idi. U juda ko'p qoqildi, lekin hech kim uning turishiga ko'maklashmadi. Yoko ko'p bor jamoaga qarata hitob qilgisi keldi. "Agar men yomon ish ilayotgan bo'lsam, adashayotgan bo'lsam yordam beringlar!". Ayollarni qullikka mahkum etadigan erkaklarda qadimgi Odam Atoda bor bo'lgan pokdomonlikdan asar ham yo'q. Ayollar itoat etganlarida erkaklar buni hisobga oladilar, agar ayollar salgina o'zbilarmoncha ish tutsalar, ular o'sha zahoti mustabidga aylanadilar"* [4; 114]. Bu kabi holatlar asar qahramoni Yokoni azoblar, ko'ngil g'alayonlarini yuzaga chiqarar edi. U shu tariqa odamlar orasida tanholikda yashashga majbur bo'ladi. Asar voqealari rivojida asar qahramoni Yoko nafosan va go'zallik ramzi bo'libgina qolmasdan har qanda yumushda uddaburonli, oqillik va donolik bilan turli vaziyatlardan chiqa olishini yoritadi. Ayollarga xos nafosatga yo'g'rilgan Yoko o'zi, o'zligi xohlamasada chuqur jarlik sari odimlayotganligini angelaydi. Ammo orqaga yo'l yo'qligiga va mana shu hayotga ko'nikib, singib ketganligiga ishora qiladi. Bundan chiqish yo'li esa

berkligicha qolayotganligini anglab etadi. Yoko kitobxon nazdida baribir nafosat va go‘zallik sohibasi bo‘lib qolaveradi.

Takio Arisima “Ayol” romanini yozishda Lev Tolstoyning “Tirilish”, “Tavba”, “Anna Karenina” kabi asarlardan ta’sirlangani seziladi. Qahramonlarning hissiyotga boyligi, ichki kechinmalarining serjiloligi ham shundan dalolat berib turibdi [4; 400].

Yana bir dunyo adabiyotida ayol obrazi, ya’ni janublik yosh ayolning hayoti aks etgan Margaret Mitchellning «Shamollarda qolgan hislarim» romanidir. Asar AQShdagi ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar davrida janubni himoya qilish uchun 1860-yil va undan keyingi davrda azob-uqubatlarga ko‘nikish yoki omon qolishdek ijtimoiy muammolar va inson qadrihaqida. Roman juda keng ko‘lamli bo‘lib, yozuvchi sodda yo‘l bilan o‘ta tor syujet ichida rango-rang personajlarning yaxshi to‘plamini yarata olgan. «Shamollarda qolgan hislarim» deyarli hajman yirik asar bo‘lib, biz insonlarning bir-birimizga bog‘lagan murakkab rishtalar haqida so‘zlaydi. Asar baxtiyor dunyosi emirilib borishini kuzatuvchi janublik yosh ayolning hayoti haqida hikoya qiladi [7; 400] <https://daryo.uz/k/2020/02/03/ayol-yiglay-olmasa-bu-dahshatli-narsa-shamollarda-qolgan-hislarim-romani-haqida/>)

Yozuvchi Bahodir Xudoyberganov «Ayol armoni» romani ayol hissiyotini, uning ziddiyatli tuyg‘ularini to‘la anglash, ayol dunyosi – tilsimli dunyo va real-hayotiy harakatlarini kuzatish orqaligina bu olamni qisman egallash mumkinligi haqida gap boradi. Asar nomlangani kabi o‘sha g‘aroyib mavzuga qo‘l urgan. Avvaliga dugonalarning turmush so‘qmoqlaridan qay tariqa odimlaganini, orzu-o‘ylari, armonu iztiroblarini o‘ta yorqin ifodalarda beradiki, bu hol nasrimiz uchun deyarli yangilikdir. Mazkur romanda biz hayotning ko‘pda ko‘zga tashlanmaydigan qirralari talqiniga ro‘baro‘kelamiz. Xuddi ana shu xususiyat roman g‘oyasi nozik ekani va asar qadrini yanada oshiradi hamda sizni notanish holatlar ifodasi bilan tanishtiradi” [2; 15]

Zamonaviy o‘zbek adibalari esa o‘z romanlarida ma’lum bir ijtimoiy qatlamni ifodalamaydi, balki shaxs ruhiyatini tasvirlashni maqsad qiladi. Inson alohida buyuk qadriyat bo‘lsa-da, iste’molchi holatiga tushgan vaziyatda uning qiziqishu intilishlari ham tobora maydalashib ketishi mazkur (*Zulfiya Qurolboy qizi “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi”, “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari”, Risolat Haydarovaning “Javzo” va Jamila Ergashevaning “Qir ustidagi ayol” romanlari*) romanlarda juda ta’sirli aks ettiriladi. Tiyiqsiz umuminsoniy dard haqida yozilgan mazkur asarlar har bir o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladi. Adibalar nasrida teran lirik dunyoqarash epik ko‘lamning aniq yo‘nalishini belgilashi, ayni paytda muallif bayon usulida ruhiy tahlil maksimal tasvir bilan mushtarak ifodalanadi, umuminsoniy g‘oyalar hamda ular ifodasining millat saviyasidagi mezoni lirik tasvir hamda epik sarhadni belgilab beradi. Adiba ayollar romanlari tahlilining estetik ahamiyati ham aynan ifoda va tasvirda muvozanat-me’yorga qat’iy rioya qilish bilan bog‘liq. Bu me’yor-munosabat ijodkor fitratidan davr umumlashmasiga o‘tishda o‘ziga xos vazifa bajaradi.



Biz zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasviri xususida fikr yuritar ekanmiz, ularda ma'naviy-axloqiy muammolar ko'zga tashlanadi va romanlarni shu jihatdan tadqiq etishga ehtiyoj bor. Ularda turg'un va kuchli ruhiy kechinma aks etishi tabiiy. Aynan, bu xil mazmunda shaxsiyatning fikr va kechinmalar harakati natijasida ochilishi mumkin bo'lgan haqiqatni anglash jarayoni evolyutsiyasi badiiyo'zlashtiriladi. Professor Q.Yo'ldosh bu borada shunday fikrni ilgari suradi: "Psixologizmdan o'zga yo'l bilan bunday dinimikani tuyish va anglash mumkin bo'lmaydi. Ma'naviy muammolar ko'proq murakkab kompozitsiyani taqozo qiladi. Negaki, bunday muammo turli g'oya va fikrlar, taassurotlar va nuqtai nazarlarning murakkab nisbati tasvirlanishini ko'zda tutadi" [2; 310]. Bunda badiiy asarni tahlil etishda ularning janr xususiyatlari ham muayyan omillarga sabab bo'ladi. Epik asarlarda syujetlilik va bayonga mo'yillik bo'lib, ruhiyat ifodasi ustunlik qiladi. Badiiy psixologizm personaj ruhiyatini ochib berish, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qilishi zarur.

Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki monolog", ong "oqimi tarzida", yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan muallif gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj psixologiyasi uning xatti-harakatlarida aks etadi. Qahramonning gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ruhiyatning ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko'rinishi bir-birini to'ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o'rni bilan unumli foydalanadi [3; 36], deydi tadqiqotchi X.Muhammedova. aslida, ruh (lot. Spiritus) esish, nasim, havo, nafas, hid ma'nolarida keladi [5; 640]. Bu tushuncha ruhiy faoliyatning oliy ko'rinishi bo'lgan g'oyaviylikka, ongga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, tafakkur tushunchasini ham beradi. "Falsafadagi turli oqimlarning vakillar sub'ektiv ruh (sub'ekt, shaxs, individuum) bilan ob'ektiv ruhni (insondan ajratilgan va mustaqil kuch sifatida mistifikatsiyalashtirilgan ongni) farq qilib qaraydilar; sub'ektiv ruhni absolyutlashtirish su'ektiv dealizmga olib boradi. Ob'ektiv ruhning birlamchiligini e'tirof qilish esa ob'ektiv idealizmga olib boradi. Antik faylasuflar ruhni nazariy faoliyat deb qaragan (mas. Aristotel nazaricha ruh faoliyatning oliy formasi – tafakkur haqidagi tafakkurdir, nazariyadan lazzatlanishdir)" [5; 407].

Yuqoridagi qarashlar diniy mafkura bilan ham bog'liq. Chunki diniy mafkurayam, dunyoviy tafakkur ham, insonning o'z-o'zini anglash faoliyati bilan bog'liqdir. Bu tushuncha psixik faoliyat deb ham yuritiladi. Bu jarayon insoniyatning mehnat faoliyati, yosh avlodning ma'naviy qiyofasining shakllanishi hamda ularning jismoniy, aqliy qobiliyatlarining har tomonlama rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Badiiy adabiyotda obraz va personajlar ruhiyati muallif dunyoqarashi va asar tabiatidan kelib chiqadi.

Ayol psixologiyasi tadqiqi va uning jamiyatdagi o'rni, shaxs sifatida tasvirlanishi hamda badiiy asarning ijtimoiy mavqeini belgilab beruvchi yoshga oid xususiyatlar adibalar ijodida ayol ruhiyati muammosi masalasi muhim

ahamiyatga ega. Fikr yuritilayotgan asarlarining mavzusi, syujet va obrazlar tizimi adabiyjarayongaxos ekanligini ko'rsatdi. Adibalar asarlariga xos mavzu, syujet va obrazlar tizimini yaratishda sevimli adiblaridan va hayotdan ijodiy oziq olgan, ta'sirlangan.

Ayollarga xuddi erkaklar uchun mavjud bo'lgan ta'lim va mehnat, ya'ni gender steoreotiplarga qarshi kurashishning birinchi to'liqini adabiyotga yangi ayol tushunchasini olib kirdi. Yangi ayol tushunchasi dunyo adabiyotida turlicha talqin etilgan. Yangi ayol xarakterini o'zbek adibalari chuqurroq angladilar va asarlarida yangi ayol xakteri qirralarini teranroq ochib berishga harakat qildilar.

O'zbek adabiyotiga kirib kelgan ayol ijodkorlarham o'z asarlarida yangi ayolning xarakter xususiyatlarini namoyon etuvchi obrazlarni yaratdilar. Ular qanday yo'nalishda ijod etishlaridan qat'i nazar roman va qissa-hikoyalarda ayol xarakterining gender tengligimasalasi natijasida yuzaga kelgan yangi xususiyatlarini gavdalantirdilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isomiddinov Zuhridin. Ikki ayol. O'zbek adabiy tanqidi: (antologiya). Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov. – Toshkent: Turon - Iqbol nashriyoti. 2011. - B.374.
2. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 310.
3. Muhammedova X. Charlz dikkens asarlarida ayol xakteri tipologiyasi. PhD diss. 2019.36.
4. Takio Arisima. Ayol: roman. Ruschadan Mahmudova H. Tarj. – Toshkent: Adabiy va san'at nashriyoti, 1982. – B. 400
5. Filosofiya lug'ati. Ruscha nashrdan Abduraxmonov R. tarjimasi. Mas'ul muharrir Xayrullaev M. O'zbekiston, 1976. – B. 640
6. Xudoyberganov B. Ayol armoni. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2012.
7. <https://daryo.uz/k/2020/02/03/xayol-yiglay-olmasa-bu-dahshatli-narsa-shamollarda-qolgan-hislarim-romani-haqida/>

## **O'ZBEK XALQ EPOSI TARKIBIDA ROMANTIK DOSTONLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Userbay BAYKABILOV,  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsent v.b.*

Xalqning bahodirona o'tmishi ideallashtirilgan yirik epik asarlarning xalq eposi deb yuritilishi folklorshunoslikda to'la e'tirof etilgani haqiqatdir. Mana shunga ko'ra, xalq hayoti ideal badiiy ifodasini topmagan, uning qahramonona o'tmishi bo'la olmaydigan voqealar tasviridan iborat asarlar xalq eposi hisoblanmaydilar. Demak, xalq eposi bo'la oladigan asar ikki muhim mezon asosida baholanishi lozim. Bular:

- a) asar voqealarining xalqning qahramonona o'tmishiga aloqadorligi;

b) ana shu voqealarning epik ideal darajasida badiiy tasvirlanishi.

O'zbek xalq eposi ko'p qatlamliligi bilan dunyo xalqlari eposlari orasida alohida ajralib turadi. Bu narsa o'zbek xalq eposining uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligidan dalolat beradi. Eposning har bir qatlami esa uni yaratgan xalq badiiy tafakkurining muayyan bosqichlariga to'g'ri keladi. Agar qahramonlik eposi o'zbek xalqining mustaqil etnos sifatida tarix sahnasida paydo bo'lishining epik darakchisi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, romantik dostonlar xalqning rivojlangan feodal jamiyati sharoitidagi hayoti, orzu-istaklarini yuksak ideallashtirish oqibatida vujudga keldi.

O'zbek xalq eposi asrimizning 20-yillaridan boshlab muntazam yozib olinib boshlandi. Bu kabi ishlarda Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'ltan, Islom Nazar o'g'li, Xolyor Abdulkarim o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Mardonaqul baxshi, Abdulla shoir kabi juda ko'p el sevgan dongdor baxshilarning xizmati katta.

Romantik dostonlar syujeti manba nuqtai nazaridan tahlil etilsa, quyidagi ikki holatni kuzatish mumkin. Birinchi holat – sof og'zaki an'ana asosida kuylanib kelingan romantik dostonlar. Bularga "Go'ro'g'li" hamda "Rustamxon" turkumiga mansub dostonlar kiradi. Ushbu turkum dostonlar tarkibida ham mifologik va ertak eposiga xos motivlar mavjud. Ushbu motivlar doston syujeti rivojida ma'lum darajada ishtirok etsalar ham, biroq umuman dostonlar syujeti sof eposga xosligi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi holat-faqat ertak syujetiga asoslangan romantik dostonlar. Bularga "Shirin bilan Shakar", "Orzigul", "Tohir va Zuhra", "Zevaxxon" kabi dostonlar mansub. O'zbek xalq romantik dostonlari O'rta asrlar feodal jamiyati sharoitida yashagan ajdodlarimizning ozod va obod mamlakat, tinch va farovon hayot, sadoqatli sevgi va barqaror do'stlik, mardlik va jasorat haqidagi yuksak ideallarini ifodalovchi yirik epik asarlar sifatida yuzaga keldi. Yuksak ideal esa hamma vaqt real hayotdan yuqori turadi. Shu bois romantik dostonlar syujeti hech qachon aniq bir tarixiy voqea yoki shaxs nomi bilan bog'liq holda izohlanmaydi. Ular idealdagi voqea-hodisalar, obrazlar faoliyati bilan bog'liq holda izohlanadi. Mana shundan kelib chiqilsa, romantik dostonlarga xos yetakchi xususiyat ko'zga tashlanadi.

Romantik dostonlarning aksariyati esa xalq ertaklari syujeti asosida yaratilgan. Masalan, "Xurshidoy", "Zevaxxon", "Tohir va Zuhra" kabi dostonlar buning yorqin misoli bo'la oladi. Romantik dostonlarning xalq ertaklari syujeti hisobiga boyib boorish jarayoni hozir ham davom etmoqda. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, romantik dostonlar xalq eposining jadal rivojlanish davrida xalq ertaklari, mif va rivoyatlari syujeti asosida faol taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Bevosita mana shu davrda romantik dostonlar o'zbek xalq eposi sirasida belgilovchi o'rin egalladi.

O'zbek xalq romantik dostonlari syujeti ham motivlardan tashkil topgan bo'lib, bu tipdagi dostonlar syujetining o'ziga xosligi, eng avvalo, vaziyat motivlari bilan harakat yoki nutq motivlarining o'zaro aloqaga kirishida badiiy shartlilik qonuniyatining amal qilishida ko'zga tashlanadi. Bunday shartlilik esa mohiyat e'tibori bilan xalq afsona, ertaklari tarkibidagi badiiy shartlilik bilan bir

xil tipologik xususiyatga ega [1].

Masalan, Oqtosh mamlakatining podshohi Sultonxon farzandsiz bo‘lib, uning oddiy mehnatkash oilasidan olgan xotini Huroyim homilador bo‘lib qoladi. Shu paytda Sultonxon Huroyim maskaniga yurish qiladi. Huroyim o‘g‘il tug‘adi. Unga Rustam deb ism qo‘yadilar Huroyim mamlakatni adolat bilan o‘n to‘rt-yil boshqaradi. Mana shunda Sultonxonning katta xotinlari maston kampir yordamida tuhmat xatini yuboradilar. Bu xabardan g‘azablangan Sultonxon Huroyimni dorga osishga farmon beradi. Mana shundan keyin asar voqealarining rivoji boshlanadi Agar tuhmatdan iborat xat yuborilmasa, podsho xotinini o‘limga hukm etmasa, doston voqealarining rivoji ta‘minlanmagan bo‘lardi. Ma‘lum bo‘ladiki, doston syujetining dinamikasi uchun «bo‘hton»ning ishtiroki va begunoh insonning o‘limga hukm etilishi shart.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilamizki, romantik dostonlardagi syujet harakati faqat ertakka xos badiiy shartlilik qonuniyati orqali voqe bo‘ladi. Buning uchun asar boshida qo‘yilgan shartning teskarisi bo‘lishi shart. Masalan, “Orzigul” dostonida o‘g‘il tug‘ilishi o‘rniga qiz tug‘ilishi, qiz chaqaloqning o‘g‘il bilan almashtirilishi kabi. Yoki qo‘yilgan shart to‘g‘ri bajarilgan taqdirda o‘rtaga tuhmat, ig‘vo aralashishi tufayli voqealar rivojining o‘zga yo‘nalishda davom etishi lozim edi.

Ushbu misollar shundan dalolat beradiki, romantik dostonlar syujeti, voqealar tuguni, rivoji va yechimi xalq ertaklari syujeti xarakterida kechadi. Bu narsa romantik dostonlarning vujudga kelishida xalq baxshilarining voqelikni epik ideal doirasida aks ettirishlarida ertak janrining estetik prinsiplariga asoslanganliklaridan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shohdorxon. Aytuvchi: Usmon Mamatqulo‘g‘li// Balogardon. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi AS nashriyoti, 1986.
2. Пропп В.Я. Морфология сказки. – М.: Наука, 1969

### **SAID AHMADNING “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA MILLIY FOJIA MASALASI**

*Zulayho TO‘YCHIYEVA,  
GulDU, o‘qituvchi*

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin milliy qadriyatlarimizni, jumladan, uning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan milliy adabiyotimizni o‘rganish va badiiyatini kashf etish har birimizning, xususan, filologiya sohasida ish olib boruvchi mutaxassislarining oldida turgan birlamchi vazifa bo‘lib qoldi. Chunki milliy ruhni bizga beruvchi bu adabiyot globallashuv asrida taraqqiyotimizga xavf solib turuvchi ko‘plab yot g‘oya va mafkuralardan himoya qiladi. Negaki, Said Ahmad ijodi insonga o‘zlikni eslatib turuvchi nazm durlaridir. Qolaversa, har bir fan sohasida bo‘lgani kabi adabiyot sohasida dam Istiqlol davriga xos adabiy-badiiy muhitni, tadqiqot usullarini yaratmoq lozim.

Said Ahmad singari ijodi mumtoz Sharq va jahon adabiyoti namunalaridan ozuqalangan asarlar buni taqozo qiladi.

Hayotiy ko‘lamning kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar voqealar asnosida idrok etilishi lozim bo‘lgan epik asarlarda tahlil ham o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Epik asarlarda kechinmalarning o‘zini, kayfiyatlarning ifodasini berishdan ko‘ra, tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoni, ularning ildizlari ko‘rsatilishiga e‘tibor qaratiladi. Epik asarlarda badiiy tahlil ham ko‘lamdor, ko‘p bosqichli bo‘ladi. Epiklikning eng asosiy belgisi: voqeabandlik va tasvirda tafsilot mavjudligidir. Qaysi janrda bo‘lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda personajlar ozdir-ko‘pdir voqealar qo‘ynida tasvirlanadi va ularning tabiatlari hodisalar tasviri asnosida namoyon bo‘la boradi.

Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammosi – avlodlar silsilasi, otalar va bolalar munosabati alohida o‘rin tutadi. Adibning mustaqillik-yillarida yozilgan hikoyalarda ijtimoiy ruh yanada keskin va yorqin bir tarzda namoyon bo‘lgan. Xususan, bunday holat “Qorako‘z majnun” hikoyasidagi voqealar tasvirida ona va farzand, ular o‘rtasidagi keskin munosabatlar ildizi asr fojiasi, mustabid tuzum siyosati, mafkurasi, axloqiy aqidalariga borib tutashadi: jamiki ko‘rguliklar, fojialar mash‘um siyosatning oqibati tarzida ko‘rsatiladi.

“Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirlicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar”.

(Baqara surasi, 217-oyat.)

Hadisi sharifdan:

“Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu “Ashobi kahfning vafodor iti dir”. (Al-jome al-Kabir.)

Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” mustaqillik-yillarida yozgan eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradi. Hikoya voqeasi juda murakkab emas. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o‘n-yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonalarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni kutadi. Xudoning bergan kuni sahar namozida uni eslaydi. Saodat aya tabiatida o‘zbekning chin muslima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o‘ylashdek mulohazakorlik mujassam. O‘g‘lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo‘ladi. Adib kampirdagi bu o‘zgarishni: “Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostonaga hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi”, - degan tarzda bayon qiladi. Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako‘z bilan qizining uyiga qarab yo‘lga chiqadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating. Yo‘l bo‘yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagarchiligi, deylik, “bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik” qilishlarini, yo‘lda uchragan mushuklarni “tiraqaylatib quvishi”, “daraxtlardagi musichalarga irg‘ishlab” akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi. Kampir itini o‘z uyinin bir a‘zosiidek e‘zozlaydi. Shuning uchun ham u itiga qarab: “Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami?”

Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz.

“Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o‘ynab turasan”, – deb bemalol gapiradi. Yo‘l bo‘yi Saodat kampir iti bilan shu zaylda suhbatlashib boradi va suhbatlashib iziga qaytadi. Qaytsa, uyida uni g‘aroyib bir yangilik kutib turadi. Bo‘rixon kelibdi, ya‘ni kampirning “g‘oyiblari hozir” bo‘libdi. Bu yangilik “Saodat ayaning-yil lab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini” tarqatishi, “ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni” ushatishi lozim edi. Biroq voqelik o‘zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi... Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois “notanish odamga g‘ashlik qilib tinmay irillaydi”. Ona bag‘rida Bo‘rixon begonaga o‘xshaydi. Chunki “undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi”. Xursandchilikdagi ona avval bunga e‘tibor bermaydi. Sekin-asta o‘g‘li Bo‘rixonning ota-bobolari e‘tiqod qilgan islom dinidan qaytib boshqa dinni qabul qilgani ma‘lum bo‘ladi. Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo‘rixonda ko‘ngli soviydi, uni yo‘qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o‘giradi. Endi ona sahar namozida o‘g‘lini eslamay qo‘yadi. Hikoyada Saodat ayaning go‘zal yoshlik pallalari, Bo‘rixonning tug‘ilishi va uning boshqa yurtlarda yurib onasi ko‘nglini o‘ksitgan noxush qilmishlarining mo‘jaz tarixi bayon qilinadi. Vafot etar mahalida ham Saodat ayaning hayot mazmunini, bu dunyoga kelish va ketish hodisasini juda tabiiy – muslimona anglagani farzandlari hamda nevaralarini chaqirib, ularga qilgan vasiyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Albatta, hikoyani o‘qish mobaynida sarlavhadagi Qorako‘z majnun nima ekanini bilib olamiz. Ha, bu o‘sha, yozuvchi mehr bilan ta‘riflagan - kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor, – tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora, bir ko‘zining tepasida to‘mtoq oshi bor it. Agar e‘tibor bergan bo‘lsangiz, hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako‘zni Saodat kampirga doimiy hamrohlikda tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo‘lsa xafa, xursand bo‘lsa xursand, kampir o‘yga cho‘msa, u ham o‘y surgandek bir nafas tinchiydi. Garchand kampirni sog‘intirgan bo‘lsa ham, Bo‘rixon itdan ko‘ra Saodat ayaga begonaroqdir. Hikoyada Saodat kampir vafotidan so‘ng yozuvchi ham Qorako‘zning ruhiyatini siz o‘quvchilarga anglatish maqsadida o‘tkir qalami bilan uning qora ko‘zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo‘yadi. Hikoya oxiridagi Qorako‘z majnunning o‘limi o‘quvchini mahzun qiladi. Hikoya boshida Qur‘oni Karimning “Baqara” surasidan oyat epigraf sifatida keltiriladi. Bu ko‘chirmalar aynan hikoyadagi Bo‘rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg‘ab olish mumkin. As‘hobi kahf to‘g‘risidagi hadisi sharif esa hikoyada xuddi ongli va oqil insondek tasvirlangan Qorako‘z majnunga taalluqli, albatta. Hikoyada juda katta ma‘no-mazmun jamlangan. O‘zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko‘rsatish orqali ta‘kidlanadi. To‘g‘risi, itning vafosi bir o‘g‘ilning ona ko‘nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma‘naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug‘vorlik kasb etadi.

Naql qilinishicha, mashhur shayx Abu Bakr Shibliy (vafoti 946)dan “Tariqatdagi ilk yo‘lboshchingiz kim?” - deb so‘ralganda, u – Bir itdir” deb so‘zini

shunday davom ettirgan ekan: – Bu it suvsizlikdan o‘lim yoqasida tik turardi. U suv ichish uchun ne zamon ariqqa yaqinlashsa, suvda o‘z aksini ko‘rar va undan qo‘rqardi. Chunki o‘zining suratini u boshqa bir itniki deb o‘ylardi. Ammo tashnalik oxiri zo‘r kelib, it o‘zini suvning ichiga otdi... Ana shundan so‘ng – boshqa kuchuk yo‘qligiga inondi. It bilan o‘rtadagi borliq orasiga kirgan itning – o‘zga manligi uning yo‘liga to‘siq paydo etgan edi. Men ahvolimning aynan shu itga o‘xshashini, ya’ni yo‘limdagi eng katta to‘siq nafsim ekanini angladim... Xullas, mening birinchi yo‘lboshchim shu it bo‘ldi. Asosiy yo‘lga qanday qadam tashlash lozimligini menga bir kuchuk ko‘rsatdi.

Nafsi tasavvuf adabiyotida it qiyofasida tasavvur qilinishida shu singari fikr va e’tiroflar ta’sir o‘tkazganligi ehtimoldan yiroqmas. Biroq asosiysi it ham, tulki yo sheri darron ham emas, baribir nafsdir. Ko‘zga ko‘rinmay dunyoni tub-tubidan g‘orat qiladigan mavjudlik, bu – nafs. U qancha ko‘p hukmronlikka erishsa, dunyoning axloqiy-ma’naviy holati o‘shancha buziladi; haqiqat va vijdon, diyonat va rostlik boshidagi qaro bulutlar shu qadar quyuqlashadi. Shuningdek, zohiriy chora-tadbirlar, bahsu munozaralar nafsdan tug‘ilajak kulfat, musibat va halokatlarning yo‘liga to‘siq qo‘yolmaydi. Nafs erkin va erkli ekan, yolg‘on, riyo, zulm, zo‘ravonlik, munofiqlik, xullas, hamma yomon va tuban sifatlar gullab yashnayveradi. Bular esa inson botinidagi “it” – nafsning o‘yinlari. Xohlasa, odamni u parchalab, sohib yuboradi, istasa, o‘zni yig‘ishtirib olishga imkon beradi. Lekin har qancha urinib-surinmang, undan ajralolmaysiz. Siz – unda, u – sizda yashaydi. U – sizga, siz – unga bog‘liqsiz. Kimki uni qancha xoru zalil eta olsa, o‘zini ham, o‘zgalarni ham o‘shancha yaxshi anglashi muqarrardir.

Badiiy adabiyotda hayvonlar obrazi keng miqyosda uchrashi hech birimizga sir emas. Hayvonot dunyosi ba’zan odamlarga do‘st qilib tasvirlansa, ba’zida aksi. Yuqorida berilgan hikoyada ham inson va hayvon o‘rtasidagi do‘stlik aks etgan. Shu bilan bir qatorda odamlarning o‘sha birgina hayvonchalik bir-biriga mehr ko‘rsatmasligi yozuvchi tomonidan tasvirlangan. Hikoyada hayvonlar qatnashadi va ularning qiyofasi orqali insonlarga xos xususiyatlar beriladi. Yozuvchi el orasidan ko‘tarilib borayotgan odamiylikning asl egalari hatto hayvoncha oqibat qila olmay qolayotganini asarda chuqur mulohazakorlik va achinish bilan ta’kidlaydi. Hikoyada ayrim kimsalarning qalb illati va hayvonlarning insoniy tuyg‘ulari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Do‘stmuhammad.H. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi. F.f.n. diss... - T.: 1995.
4. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T., Sharq, 2010. 83-bet.
5. O‘sha kitob. 83-bet.
6. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T., Sharq, 2010. 84-bet.

## OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI

*Nurkeldi JARASBAYEV,  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi*

Tabiat jamiki mavjudotlarning onasi, yaratuvchisidir. Borliqdagi neniki olmaylik, ularning bari tabiatning bir bo'lagi bo'lib hisoblanadi. Hatto insonni ham tuproq va suvdan yaratilgan deyishadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, inson tabiatsiz yashay olmaydi. Tabiat insonga hayot beradi, uni butun hayoti davomida yediradi, kiydiradi. Shuning uchun inson ham jisman, ham ruhan o'zini tabiat bilan yaqin sezib, hayotida bo'ladigan barcha holatlarni tabiat hodisalari bilan bog'laydi. Oydin Hojiyeva ham tabiat tasvirini chizar ekan, uni inson kayfiyati, ruhiy holati bilan bog'laydi yoki inson ruhiyatini tabiat hodisalari orqali tasvirlaydi. Buning aksi o'laroq, shoira ijodida aynan tabiat go'zalliklari tasvirini chizishga bag'ishlangan she'rlar ham bor. Quyida ana shunday satrlardan biri bilan tanishamiz:

Oy suzadi jimgina,  
Yelpiydi uni shamol.  
Yulduzlar zina-zina,  
Lipillab ketar xayol. [1, 18]

She'rdagi sokingina bir tun tasvirlanar ekan, jonlantirish san'ati orqali undagi tun, oy, yulduzlar, shamol obrazlari harakatga keltirilib, ajib bir manzara yaratiladi. Oyning tunga, tunning oyga sokingina boqishi kunduzi mehnatdan horigan insonlarning butun vujudiga dam berib, sokingina o'ylar qurshovida o'tirishiga o'xshatiladi. Yer sharining aylanishi hisobidan oy xuddi o'z joyidan siljiyotgandek ko'rinadi ko'zimizga. Shoira buni tun bag'ridagi samoviy kenglik uzra oyning jimgina suzishi deb izohlaydi. Shamol esa oyni yelpiydi, yulduzlar ko'pligidan go'yo zinalar kabi ko'zni qamashtiradi, ularga qarab turganimizda biri boshqasi bilan nur sochib, yonib ketadigandek ko'rineradi. Oy fonusga tashbeh qilinadi. U fonus misol tun husnini yoritadi. Soyda – suvda oy aksi ko'ringanini shoira telba soy uchraganda oyuning bag'riga o'zini otadi, deya tasvir bilan sokin bir tun manzarasining go'zal, san'atkorona ifodasini yaratadi.

Shoira “Qiyosh” she'rida tabiat hodisasi va inson umrini parallel qo'yib, ularni bir-biriga qiyos etadi.

Sarg'ayibdi chinor barglari,  
Uzilmaydi chayir bandidan.  
Go'yo oldda bahor kunlari,  
Yashil libos kiyar qaytadan [1, 33]

Bunda kuz kelib, barglari sarg'aygan chinorning sutday tiniq bo'lib, taniga qish nafasi tekkani bilan u qishning achchiq izg'irinlariga taslim bo'lmay, mehri issiq yozdan o'zini nur gulxaniga olishini so'raydi. Axiyri, qishning qahri ustunlik qilib, chinorning so'ngi bargi ham uchib tushadi.

Shoira insonni ham toqatli, har qanday sinovga bardoshli, hadeganda qishga – yomonlikka, yomonlarga taslim bo'la vermaydigan chinorga o'xshatadi. Ba'zan



gʻaflat ichra qolganda esa irodasi sustlik qilib, binafshaday moʻrt va nozik boʻladi, deya chinorning soʻnggi bargi uzilgani kabi baʻzan insonning ham butun bardoshi tugab, haqsizlik oldida ojiz qolishini betakror timsil orqali ifodalab bergan:

Inson ham shu: toqatli chinor,  
Ha deganda qishga bermas tan.  
Gʻaflati chraqolganda baʻzan,  
Binafshaday moʻrtligi ham bor! [1, 33]

Shoira “Avgust kunlari” sheʼrida yozning oxiri kuzning dastlabki kunlari tasvirini chizar ekan, yozning mehrlil taftidan qizargan, shirinligi mingchandon ortgan mevalar, xususan, “Shakaran gur”, “Kelin barmogʻi” uzumlari va anjirlar haqida soʻz yuritadi:

Kuz kelishi bilan hamma meva-sabzavotlar pishib yetilgan, tuproq ham butun mehrini gul dudogʻida insonga tutqizgan, kuzning yulduzlari oltin boshogʻday porlagan avgust – asadoyi sep-anjomi but, baxti kulgan qizga, tabiat esa toʻy oldidan taraddud koʻrayotgan onaga oʻxshatiladi:

Asadoyisep-anjomi but,  
Baxti kulgan hur qizga monand.  
Ona kabi koʻrar taraddud  
Toʻy oldidan epchil tabiat [1, 40]

- yil fasllarining har biri oʻz jozibasini bilan shoira nazmida jilolanadi. Ularning barchasida ham shoiraning qaynoq qalb harorati yashirin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oydin Hojiyeva. Shom shuʼlari. – T.: Sharq, 2010.
2. Oydin Hojiyeva. Mushfiq onajon. Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1983.
3. Rajabov Q., Maqsudov R. Qiziltepa tarixi. – T.: Muharrir, 2011.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – M.: Rus. yaz. 1981.1-jild, 115-bet.

## **GʻOYIBONA DARS BERGAN USTOZ**

**Muhammad ISMOIL,**  
*“Yangi Sirdaryo” gazetasi muharriri, shoir*

Men hamon yosh bolaga oʻxshayman. Ayovsiz yillar yashin tezligida oʻtib ketmaganday, baʻzan Mirzachoʻl dalalarida oyoq yalang yugurgim keladi. Xuddi kuni kecha paxtazor paykallari oralab chopib yurardim-u, zavqli mashgʻulotimni bugun ertalab, yana davom ettirmoqchiday, shosha-pisha yoʻlga otlangim kelib qoladi.

Gohida paxtakorlarni gapga tutardim: - Plenum qarorlari rostdan ham sizni ruhlantirdimi?

Paxtakorlar nima deyishini bilmay yelka qisishardi. Hadeb qistayversam, “Qoʻysang-chi u gaplarni” – deya kulishardi. Oʻshanda ilk bor gazetalarining yolgʻon yozishlariga guvoh boʻlganman va bu yolgʻonlarni qanday fosh etsam ekan deya uzoq oʻylaganman. U paytlarda tuman gazetalariga kichik – kichik lavhalar, maqolalar yozar, iloji boricha hayotiy voqealarni yuzaga chiqarishga

tirishardim. Ya'ni, o'sha paxtakorlar yelka qisgani-yu, plenum qarorlaridan bexabarligi, tirikchilik tashvishi tufayligina paxta dalalarida "javlon ura" ayotganini aytgim kelardi.

Shunday kunlarning birida Erkin Vohidovning "Bizlar ishlayapmiz" degan she'ri qo'limga tushib qoldi.

...Paxtakor xalqining shox butog'i yo'q.

Faqat mehnatimiz sal o'ziga xos.

Qo'l qadog'i bor-u, ish adog'i yo'q,

Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat xolos.

She'r nazarimda Mirzacho'l dalalarida yozilganday edi. Erkin Vohidov dalama dala yurib, paxtakorlar bilan so'zlashgan-u, ularni tinglab, haqiqatni ro'y-rost ochib tashlaganday tuyulardi. Bu she'r butun bir davrning yolg'onchiligiga qarshi o'qilgan sud hukmnomasiday aqlimni shoshirib hayratga solardi. Bu she'r haqiqatni qanday ochiq aytish kerakligining izohsiz namunasi edi Bu she'r - jaholatga qarshi kurashish mumkin, mana yaqqol isbot degan tasalli berardi. Shu bilan birga bo'g'zidan olov purkab turgan ajdarhoning mayliga teskari gap aytib, jahlini qo'zg'ab, yana favqulodda omon qolish, yana ajdarhoning yonida g'aribgina yurish, yana ajdarhoning yonida beixtiyor shijoatga to'lib rost so'zlash uchun yuksak mahorat, so'zni san'at darajasiga ko'tarish kerak bo'ladi.

Erkin Vohidov men uchun bir umr mana shunday yuksak mahorat timsoli bo'lib kelgan.

Esimni taniganimdan buyon bu timsol o'zining yuksak qoyasidan siljigani yo'q. Esimni taniganimdan buyon Oy, o'sha – o'sha Oy, Quyosh o'sha – o'sha quyosh! Yulduzlar o'sha! Hech narsa o'zgargani yo'q. Erkin Vohidov ham o'sha – o'sha! Bolaligimda u men uchun qanchalik baland cho'qqida bo'lsa, hali hamon bu cho'qqi yuksak va qo'l yetmas! Uning she'riyatda erishgan mahorati inson zoti erishib bo'lmaydigan mahoratday tuyuladi.

She'riyatning maktabi yo'q deyishadi. Shoirlikka o'qib bo'lmaydi, deyishadi. Yo'q, unday emas. She'riyatning maktabi bor. Darsligi ham bor. Ustozlari ham.

Shaxsan men, Erkin Vohidov maktabida yillar davomida g'oyibona ta'lim olib keldim. Kitoblaridan darslik sifatida foydalandim. O'qituvchim bilan o'ttiz yil o'tgach ilk bor yuzma – yuz ko'rishdim. Ustozning adabiyot nazariyasi haqida birorta kitobi yo'q. Ustozning she'riy kitoblarining o'zi qo'llanma, haqiqiy she'riyatning namunasi, adabiyot olamiga olib kiruvchi dastur. She'r qanday bo'lishi kerakligining yaqqol isboti ! "O'zbekim" qasidasini o'qisangiz, o'zbek millatini qanday sevish kerakligini o'rganasiz, "Ruhlar isyoni"ni o'qisangiz, umr va o'lim nima ekanligiga javob topasiz, "Yoshlik devoni"ni o'qib, Navoiyni qanday qilib zamonaviylashtirish kerakligiga javob topasiz, "Hozirgi zamon "Shum bola"sini o'qib, haqiqatning hayotdagi o'rni naqadar muhimligini anglaysiz. Bu darslar, saboqlar ro'yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin. O'ttiz yillik saboqlar majmuasini bir kitobga sig'dirib bo'larmikan. Umuman, ustoz deganda, muallim deganda maktabda, yoyinki dorilfununda dars bergan o'qituvchilarimizni nazarda tutamiz. Va o'shalarni haqiqiy ustoz deb bilamiz, hatto

ular bergan saboqlar, mutloqo yodimizdan ko'tarilib ketgan, yoinki kelajak hayotimizda biror muhim o'rin tutmagan saboqlar bo'lsa ham. Haqiqiy saboq, bu - yurakda bir umr muhrlanib, kerakli paytda, xayolda lip etib paydo bo'lib, to'g'ri yo'lni tanlashingda muhim o'rin tutgan saboqlardir. Masalan, ustozning yaqinda nashrdan chiqqan "Orzuli dunyo" kitobini varaqlab, yashirin xikmatni uqdimki, birdan hushyor tortdim.

Ustoz tabarruk 75 yoshga kirgan, erkalik qilishlari malol kelmaydigan, nuqsonlari fazilatday tuyulib ketadigan martabada bo'lsalar ham, bu kitobda birorta bo'sh she'r, yoinki bo'sh misra yo'q. Ustoz ayni navqiron paytdagiday satrlarni jaranglatib, asl so'zlarni marvarid donasiday terib – terib, zargarona yuksak did va fashohat bilan kitobni tarashlagan ekanlar. Ustoz, o'zlari "umring ado bo'lmay turib, cho'g'ing ado bo'lmasin", deganlariday, ustozning hayotga muhabbatlari cho'g' bo'lib emas, olov bo'lib alanga olib turganini ushbu kitob timsolida yaqqol ko'rish mumkin edi.

Erkin Vohidovning "Bu dunyoda ayol madhiga doston tugamaydi", "Ko'ngil mulkini taroj aylagan ishq istilosidir" singari misralar bilan boshlanuvchi she'rlari bor. Bunday she'rlarni yozib bo'lmaydiganday tuyuladi. Xuddi she'riyatda kutilmagan tasodifiy voqea ro'y berganday tuyuladi. Bo'lmaydigan ish ro'y berganday tuyuladi. Chapdastlik, mahorat, iste'dod yarq etib san'atning yorqin namunasi mo'jaz guldasta yanglig' tuhfa etib qoldirilganday. Har gal o'qisam hayratga tushaveraman. Bu she'rlar shak-shubha yo'qki bizdan oldingi avlodni ham, bizdan keyingi avlodni ham hayratga solib yillar sinovidan, davrlar, tuzumlar, zamonlar sinovidan mardonovor o'tib birinchilar qatorida namoyon bo'laveradi. Mustamlaka zamonida ham bu she'rlar o'zbek san'atining yorqin namunasi edi. Mustaqillik zamonida ham eng oldingilar qatorida turibdi. Erkin akaning o'n to'rt yoshida yozgan she'ri bor:

Qora qushlar qo'narlar majnuntolning boshiga,  
Boshin yerga egarlar, boqmay sira ohiga,  
Rahmi kelib bulutning yig'lab to'kar yoshini,  
Quyosh chiqar, majnuntol ko'taradi boshini.

Qora quyoshlarga, mustamlakachilarga qarshi isyon - bu she'r. Keyin bu isyon olovi yillar mobaynida gurkirab bordi. Keyin bu isyon "O'zbekim"ga aylandi, "Ruhlar isyoni"ga aylandi. "Bir erkni, ozodlikni istaydi ko'ngil" singari o'nlab ash'orlarga aylandi. Erkin akaning "Kommunizm, chol va chumoli qissasi" degan she'ri bor. Unda chumoli yulduzlarga yetmoq bo'lib, daraxt tepasiga tirmashib chiqaveradi. Daraxtning eng tepasiga chiqib qarasa yulduzlar hali uzoqda. Ularga hech ham yetib bo'lmas ekanda, deydi chumoli. Erkin Vohidov kommunizm uchun kurash avj olgan yillar, kommunizm hech qachon amalga oshmaydigan safсата deya, ishora qilgandi bu she'ri bilan.

Yiqilganni hamma tepkilayotgan va sen ham tepkila deya buyruq berganlarida, uzni chetga olib, aralashmay jim turish ham jasorat.

Erkin aka suhbatlardan birida, 80-yillarda mashhur rus yozuvchisi Yuliy Semyonov bilan o'n sakkiz kun Avg'onistonda bo'lganligini, bu jasorati uchun Avg'on urushi qatnashchisi unvonini va imtiyozli nafaqa tayinlamoqchi

bo‘lganliklarini aytib bergandilar. Erkin aka hamma imtiyozlardan voz kechadilar. Va internasional do‘stlik haqida biror joyda biror satr maqola e‘lon qilmaydilar. Markaziy qo‘mita, markaziy nashrlar, respublika rahbariyati, respublika gazetalarini tinmay so‘rab turgan paytda, indamay turish, chet elga ijodiy safarga yuborilib hisobot maqolalar yozmaslik o‘sha paytlarda ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan katta jasorat edi.

“Oddiy odamning oddiy mardonavor qadami yolg‘onda ishtirok etmaslik, yolg‘on hatti – harakatni qo‘llamaslikdir,” - degan edi Aleksandr Soljenisin.

Erkin Vohidov hamisha sara mavzularni tanlaydi. Davr sinovlaridan, asrlar sinovidan o‘tuvchi mavzularni tanlaydi. Afg‘on urushi davrida qo‘llanilgan socialistik safsata o‘n yil, besh yilda eskirishi va ijodida bir umrlik qora dog‘ bo‘lib, misqollab yiqqan obro‘sigacha qarshi ishlashini, kechirilmas xato bo‘lib turishini bilardi.

Shuning uchun biz ustozlarning faqat yozgan emas, yozmagan she‘rlari uchun ham tasanno aytishimiz kerak. Bunday yozilmagan she‘rlar Erkin Vohidov ijodida ko‘pligiga shubha qilmasa bo‘ladi.

Erkin Vohidov ijodi o‘zbek she‘riyatida yangi davrni boshlab berdi.

Nobel’ mukofoti laureati, Mixail Sholoxov Oliy adabiyot kursi talabalari bilan uchrashuvda: - Sizning ichingizdagi eng kamtar shoir yoki yozuvchi ham, hali dunyoda adabiyot yo‘q, jahon adabiyoti mana endi mening ijodim bilan boshlanadi deb o‘ylaydi, va shunday o‘ylab to‘g‘ri qiladi, shunday katta xayol bo‘lmasa, men dunyoga yangi adabiyot olib kiraman, kechagi adabiyot ijodim oldida bir pul, degan ulkan maqsad bo‘lmasa, ijodkorning adabiyotga kirib kelishi bekor, – degan ekan.

Bunday o‘ziga katta maqsad qo‘ygan odam, o‘z adabiyotimni yarataman degan ijodkor, bizning adabiyotimizda barmoq bilan sanoqli. Barmoqlaringizni ikki – uchtasi ortib qoladi hatto. Aynan o‘sha ulkan ijodkorlardan biri – shubhasiz Erkin Vohidovdir. O‘zbek she‘riyatini Erkin Vohidov she‘riyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Boshqa shoirlarni o‘ntasini, hatto yuztasini olib tashlasangiz ham o‘zbek she‘riyati huvillab qolmaydi. Lekin Erkin Vohidov ijodisiz bu she‘riyat qulab tushadi, yoki anchayin pasayib, g‘arib bo‘lib qoladi. Erkin Vohidov she‘riyatga, o‘sha Sholoxov aytgan talablar bilan kirib kelganday: - Hali dunyoda adabiyot yo‘q, jahon adabiyoti mana endi, mening she‘riyatim bilan boshlanadi!

Haqiqatdan ham, Erkin Vohidov she‘riyati ungacha ijod qilgan salaflarining birortasini she‘rlariga o‘xshamaydi, ne ajabki, bugungi kunda, hatto Erkin Vohidovga taqlid qilib yozganlarning she‘riyati ham o‘xshamaydi. Favquladda bir hodisa yanglig‘ ajrab turadi – bu she‘riyat! Erkin Vohidovning oddiy bir to‘rtligi ham yuzlab to‘rtliklar ichida ajralib turadi. Hatto Erkin Vohidov tarjimalari ham o‘zgacha. Bir turkum tarjima she‘rlarni o‘qib turib, mundarijaga qaramay kim tarjima qilganligini o‘qib ko‘rmay, ichidan Erkin Vohidov qilgan tarjimalarni ajratib olish mumkin:

Mening kufrimni ayblarga  
muhaqqaq sizda imkon yo‘q.  
Bu dunyoda mening pok,

iymonimdek iymon yo‘q.  
Zamon ahli aro yolg‘iz  
musulmon men edim, e, voh  
Agar men ham, kofir ersam,  
bu dunyoda musulmon yo‘q!

Hazrat Abu Ali ibn Sinoning ushbu ruboiylari oshufta dillarni maftun etguvchi nafosat bilan jaranglaydi.

Erkin Vohidov suhbatlarimizning birida shaxmat bo‘yicha bir necha bor jahon chempioni Anatoliy Karpov bilan shaxmat o‘ynaganini aytib bergandi.: - Beshinchi yurishdan keyin ahvolim tangligini sezib qoldim, so‘ngra chapdastlik bilan, - Mayli, durangga roziman deb, Anatoliyga qo‘l uzatdim. U ham shuni kutib turganday, durangga allaqachon rozi bo‘lganman, deb qo‘l uzatdi. Bo‘lmasa bor yo‘g‘i endigini beshta yurish qilganmiz – dedi kulib va shaxmat haqida, uning she‘riyatga o‘xshashi haqida, she‘r bo‘g‘inlari, qofiyalar, turoqlar shaxmat qoidalari singari qat‘iy bo‘lishi, shaxmatda ham asosiy xujum shohga qaratilishi haqida uzoq gapirdilar va xo‘rsinib, shaxmatni kashf etgan hindi qanday baxtiyor odam ekanki, necha asrlar o‘tsa ham shaxmat o‘yinlari, partiyalari boshlanadi-yu, tugagani yo‘q va tugamaydi ham – dedilar. Men shahmatni kashf etgan hindiga havas qilaman. Qanday baxtiyor inson! Qanchalik yuksak zakovat egasi u! Dunyoga kelsanggu, mana shunday kashfiyot egasi bo‘lsang! Keyin bu dunyodan bearmon ketsang bo‘ladi!

Erkin aka! Bilamiz, “Umring ado bo‘lmay turib, cho‘g‘ing ado bo‘lmasin” deb yozgansiz. Xavotirlanishga o‘rin yo‘q. Sizning yuragingizda nafaqat cho‘g‘, ulkan gulxan lovullab turibdi. Siz bizga abadul – abad o‘zbek she‘riyati saltanatida davru – davron suruvchi qudratli she‘riyat in‘om etganingizga qaramay, yana va yana go‘zal she‘rlar tuhfa etish istagidasiz. Biz ularni bajonidil kutib qolamiz va aytamizki, shaxmatni kashf etgan hindiga havas qilmasangiz ham bo‘ladi. Siz yaratgan she‘riyat xuddi shaxmat singari sir – sinoatga, antiqa mo‘jizalarga, kashfiyotlarga to‘la va ado bo‘lmasdir. Davrlar almashishi bilan yangi avlodlar shaxmatning yangi – yangi qirralarini ochgani singari, asrlar osha she‘riyat ishqibozlari yangilanaveradi, sizning she‘rlaringizning yangi – yangi qirralarini, jilvalarini, sirru – sinoatlarini kashf etaveradilar, zavqlanaveradilar, bahru – dillarini yozib oshufta bo‘laveradilar. Sizning she‘riyatingizning umri ham adabul – abad, tunganmas, va yangilanib borguvchidir! Bizlar, ya‘ni she‘riyat ishqibozlari shahmatni kashf etgan hinduga emas, ko‘proq sizga havas qilamiz, shahmatning tunganmas o‘yinlari singari, har o‘qiganda yangicha tarovat, yangicha joziba, yangicha kashfiyot barq urib turguvchi she‘rlaringizga havas qilamiz!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Erkin Vohidov. Saylanma. – T.: Шапк, 2010.
2. Erkin Vohidov. Kuy avjida uzilmasin tor. Фафур Фулом нашриёти, 1981.

**HIRIY BAG‘RIDAGI ENG YORUG‘ YOG‘DU**  
(ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY “ROMANI HAQIDA)

**Surayyo DAVRONOVA,**  
*O‘zMU magistranti*

Hiriy, dumli yulduz.

So‘z...Uning qudrati shu qadar sehrliki, mudrab yotgan dunyolarni uyg‘otib yuborishga qodir. So‘zning birgina ishorasi “Yaral” xitobiga yer-u osmon bunyod bo‘ldi. Gul bitdi, tog‘ qad ko‘tardi, zamin yaraldi.

Yan Parandovskiy ”So‘z kimyosi” asarida “So ‘z orzuning egiz og‘asidir. U sizga shunday sirli bir eshikni ochib beradiki, bu eshik orqali siz istagan vaqtingizda erkinlikka chiqa olishingiz mumkin”. Chindan ham so‘zning qadr – qimmatini beqiyos. Yoki Hazrat Navoiyning shoh asari “Xamsa”da “Hayrat-ul abror” dostonida so‘zni quyidagicha ulug‘laydi.

So‘z guhariga erur oncha sharaf,  
Kim bo‘la olmas,anga gavhar sadaf.

So‘zni sevish, undan ehtiyotkorona foydalanish zarur. Alisher Navoiy asarlarida so‘zni muqaddas bilish, uni kerakli o‘rinlarda ishlatishga da‘vat etiladi. XV asr buyuk daholari bilan tarixda muhimiz qoldirgan davrdir. Boisi aynan shu davrda shunday adabiyot namunalari bo‘y ko‘rsata boshladiki, ular hozirgi kun uchun ham ahamiyatlidir. Adabiyotimizning eng taraqqiy etgan davridir. Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi insonlarni bir davrda jam etdi. Badiiy ijodda inson tafakkuri yana bir pillapoyaga osdi, his-tuyg‘ularni, kechmishlarini o‘z a‘shorlariga jo etdi.

O‘rta asrlarning buyuk mutafakkirlaridan biri Alisher Navoiydir. U davrning barcha sohalari rivojiga hissa qo‘shgan davlat va jamiyat arbobi hamdir. Joriy yilda adabiyotimiz yana bir durdona asarga boyidi. Bu Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidir. Alisher Navoiy xotirasini abadiylashtirish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Bu roman Navoiy ijodini, hayot yo‘li va faoliyatini yanada to‘laqonli faktlar asarda gavdalanadi. Shuningdek, Navoiy davri va XV asr hayoti uchun tipik bo‘lgan bo‘lgan voqea hodisalar turli obrazlar zanjiriga birlashtirilgan. Yozuvchi bu o‘rinda juda ko‘p izlanishlar olib borganligi, o‘nlab tarixiy, badiiy asarlarga murojaat qiladi. Dunyo adabiyotshunosligida intertekstuallik degan adabiy hodisa bo‘lib, unda yozuvchi uning mohiyati yozilgan asar tarkibida boshqa mualliflar asarlaridan parchalar olib foydalanadi. Isajon Sulton esa bu jarayonda tarixiy hodisalarning ifodalanishida aynan Navoiy asarlaridan olingan parchalardan, voqealardan foydalanadi.

Asar mutolaasiga chog‘lanar ekansiz, kitob o‘z dunyosiga purma’no so‘zlar ila sehrlab qo‘yadi. ”Alisher Navoiy “romani tarixiy obrazlarni yana bir bor gavdalandirdi. Asarda keltirilgan joy nomlari, tarixiy ro‘zg‘or anjomlari, taomlar, qushlar, hayvonot olami va qurol – aslahalarning nomlanishi adibdan katta mahorat talab etadi. Qahramonlarning portertlarini yaratish, o‘sha davr muhitiga moslab, ularning his-tuyg‘ularini ifodalash katta mehnat natijasidir.

Shu o‘rinda navoiyshunoslikning tamal toshini qo‘ygan Oybekning quyidagi gaplari yodimizga keladi. ”Navoiy romanning yaratilishi haqida qahramonlarimni aniq tayin ko‘rganman, ular shudgorga tashlangan urug‘dan o‘rib chiqqandek edilar”. Shoir, tarjimon Naim Karimov yozishicha, Oybek o‘z ijodi haqida gapirar ekan “Mening stolim ustida o‘rta asrlarning xaritasi yotardi. Men Hirotda uyqu og‘ushiga ketardim. ”Demak, ko‘rinib turibdiki, asar yozishdan oldin adib to‘la to‘kis tasavvuriga, bilimiga tayanadi. Isajon Sultonning“ Alisher Navoiy “taqdimotida talabalar tomonidan asar yozishdagi murakkabliklar, voqealar asoslanishi haqida savol berilganda, adib chuqur o‘yga tolib“ Men asar yozishdan oldin biroz ikkilandim. Shunday buyuk inson haqida birorta notog‘ri qarash, noo‘rin so‘z, hatto o‘ylagan fikrni ham to‘g‘ri yetkazish ma’suliyati bor edi. Qo‘rqdim. Ertaga Navoiy nega men haqimda avlodlarimda noto‘g‘ri fikr uyg‘otding” deyishidan deb izoh berib o‘tdilar. Chindan ham Navoiy obrazini gavalantirishda adibdan juda katta ma’suliyat talab qilinadi edi.

Roman kompozitsiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning devoni “Xazoyin-ul maoniy“ ichki strukturasi muvofiq “G‘aroyib us-sig‘ar”, ”Navodir ush-shabbob”, ”Badoe ul –vasat “, ”Favoyid ul-kibor” deb atalgan 4 qismdan iboratdir. Unga ko‘ra asarda Alisherning bolaligi, o‘spirinlik yillari, o‘rta yosh hamda keksalik pallasidagi voqea hodisalar joy olgan.

Boblar ham o‘ziga xos nomlar bilan atalgan. ”Hiriy 849”, “Bir boshqa olam“, ”Mantiq-ut tayr“, ”Cho‘li Iroq”, ”Orazin yopqach“, ”Sayyid Hasan Ardasher“, ”E‘tiqod sirlari “, “Sabzavor maslahati”, ”Xazoyin ul –maoniy “, ”Lisonu-ut tayr“, ”Mahbub ul- qulub “ kabi boblardan tashkil topgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. – Toshkent : “Adabiyot” nashriyoti, 2021-yil.
2. Parandovskiy Ya. So‘z kimyosi. //”Jahon adabiyoti” jurnali, 2000-y. N4. –B.83.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. ( P harfi), 246- bet.

## **O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA DARAXTLARGA ALOQADOR OBRAZLARNING JUMBOQLANTIRILISHI**

*Gavhar RUSTAMOVA,  
BuxDU tayanch doktoranti*

Daraxtlar haqida yaratilgan topishmoqlar mavzusiga ko‘ra alohida silsilani tashkil etadi. Bunday topishmoqlarning yaratilishiga, albatta, daraxtlar bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlar, magik inonchlar zamin yaratgan. Daraxtlarga tabu orqali munosabatda bo‘lish, ularning nomini sir saqlash, nomiga metafora vositasida ishora qilish daraxtlar haqidagi topishmoqlarni keltirib chiqargan.

Archa haqida ham xalq topishmoqlari yaratilgan. Bu kabi topishmoqlarda archaga xos aynan shu belgi orqali uning nomini topishga yo‘llanadi:

Yozda kiyinadi,  
Qishda echinadi.  
Yoki:

O'zi bitta,  
Tili mingta.

Javobi daraxt bo'lgan bu topishmoqlarning birinchisida daraxtlarning-yil fasllariga qarab o'zgarib turishi, ikkinchisida esa uning bir tana-yu son-sanoqsiz shoxa va barglardan tuzilishiga ishora qilinmoqda.

Hasan aka tikka turadi,  
Bolalari chapak chaladi.  
Bolalari qarsak chaladi,  
Onalari o'yinga tushadi.

Bu topishmoqda hamisha tik o'sadigan terak daraxti va uning shamol bo'lsa-bo'lmasa doimiy shitirlab turadigan barglari yodga solinmoqda.

Otasi uyda qolar,  
Bolasi bozor borar.

Bu topishmoqda mevali daraxt obrazi gavdalantirilmoqda. To'g'risini aytganda, topishmoqlarning aksariyati mevali daraxtlar, meva turlarining belgi-xususiyatlari haqidadir. Masalan, yong'oq haqidagi topishmoqda yong'oq kichkina qozonga (dekchaga), kichkina tandirchaga, qo'shaloq tovoqqa, ba'zan ikki tog'ga, toshga, po'sti qalin qovoqqa, beli bog'liq tanobga, beli bog'liq cho'tir tolga o'xshatiladi. Uning ichidagi mag'zi esa "totli va shirin, mazali osh", "jingila palov", "jikir palov", "kulcha", "yog'", "Sariq yog'", "asal", "bujur kampir" sifatlari bilan beriladi.

Pista haqidagi topishmoqlarda pista "Osti taxta, usti taxta, O'rtasida yashil paxta", "U yog'i tog', bu yog'i tog', O'rtasida ko'k yon tog'", "Ikki tog'ning orasida bir tup yantoq" deb, bodom esa "Qo'tir tosh, Ichida osh" deb ta'riflanadi. O'rik nomi yashiringan topishmoqlarda o'rikni "Osh ichida tosh, Tosh ichida osh", "Uzoqdan qaradim araq-araq, Qoshiga bordim, zar xalak" deya, uning danagi mag'zini esa "U yog'i tosh, bu yog'i tosh, O'rtasida pishgan osh" deya yod berishadi. Hatto o'rik haqidagi topishmoqlarda o'rik daraxtining guliga ham ishora qilinganlari mavjud: "Pastu baland ko'p xotin, Ko'ylaklari oq, gulgun". Shaftoli mevasi haqida "O'zi shirin, tukligina, Mazasi bor totligina" yoki "Bodom kabi yaprog'i, Sollanadi butog'i" kabi topishmoqlar yaratilgan. Shuningdek, behi haqida ham juda ko'p topishmoqlar uchraydi. Ularda behi haqida: "Past-past bo'yi bor, Malla to'ni bor", "Mallagina to'ni bor, Nordongina ta'mi bor", "Dum dumaloq bo'yi bor, Palovda obro'yi bor" de- yiladi.

Jiyda haqida yaratilgan topishmoqlar ham ko'p. Ularda jiyda: "Bir qop un, Ichida ustun", "Qopcha, Qopcha ichida uncha, Uncha ichida ustuncha", "Ichi unday, Sirti qopday", "Tashi gulgun, Ichi unun, Unning ichi ustun", "Ichi gul-gul, Ichi un-un, Alacha Malikajon", "Tashi qizil anorday, Ichi oq unday, O'tirishi gulday", "Ichi undayin, Tashi qondayin, O'tirishi Abdullaxondayin", "Osmondan tushdi bir tugun, Usti baxmal, ichi un", "Igna tegmasdan qon, Tegirmon bormasdan un, Tesha tegmasdan ustun" deya ta'rif-tavsif qilingani kuzatiladi.

"Ko'm-ko'k dalasi, Qizil-qizil donasi" topishmog'i olcha haqida bo'lsa, "Kichkina dekcha, Ichi to'la mixcha", "Sariqqina to'ni bor, Ichi to'la doni bor", "Qirq hujrada qizil qizlar", "Eshigi, ostonasi yo'q, Hujrada mehmon to'liq", "Bir



hujra, bir hujraning ichida qirq hujra, qirq hujraning ichida mullavachcha” topishmoqlari anor, “Gulsiz bo‘lar mevasi, shirin-shakar donasi”, “Osti sariq, usti sariq, shirin, totli, ichi tariq”, “Osti teri, usti teri, ichida totli tariq”, “Daraxt ustida langar” kabi topishmoqlar anjir haqidadir.

Xalq orasida tog‘mevasi sifatida ardoqlanadigan do‘lana haqida ham yaratilgan topishmoqlar bor. Ularda do‘lana “Qamchi dasta, Qamchi dastada marjon”, “Tepdim, sandiq ochildi, erga bodom sochildi” deya ta’riflanadi.

Topishmoqlarda nafaqat daraxt, daraxt turlari, ularning mevalari, balki tana qismlari ham jumboqlantirilgani ko‘zga tashlanadi. Masalan: “Er tagida qizil qayish” yoki “Er tagida sariq ilon” topishmoqlarida bevosita tut daraxtining o‘ziga emas, uning ildiziga ishora qilinmoqda.

Qishda uxlab yalang‘och,  
Bahor qo‘yar yashil soch.  
Yoki,  
Yashil savatning boshi,  
Suvga qarab egildi.  
Chilvir-chivir sochlari,  
Zilol suvda yuvildi.  
topishmoqlarida tol daraxti yashiringan bo‘lsa,  
Tolda quyon qulog‘i,  
O‘rtasida ulog‘i. [2, 132]  
Tol bargini,  
Tol bargak taqib singlim,  
Maqtanadi: – Sochim uzun.  
Qo‘zi kelib ortidan,  
Eb qo‘ydi uni butun [2, 132]

topishmog‘i esa, tol bargidan yasalgan chambarakni o‘zida yashirib keladi.

Daraxt obrazining paremik asarlardagi tasviri va talqinida ajdodlarimizning totemizm bilan bog‘liq qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalari asos bo‘lganligi seziladi. Xalqimiz orasida uzoq zamonlardan beri daraxtlar bilan aloqador tushunchalar, an’analar saqlanib kelayotir. Ular qadimiyliги, an’anaviyлиги, o‘zida turli inonch-e’tiqodlarga oid dalillarni saqlab qolganligi bilan ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Ularda daraxtlar timsoli o‘ziga xos ramziy ma’no-mazmun tashib keladi. Xulosa qilib aytganda, daraxtlar obrazi xalq paremikasiga aloqador topishmoq janri namunalarida ham alohida o‘rin tutib, xalqning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini obrazli ifodalashga xizmat qilib kelgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Propp V.Ya. Istoricheskie korni Volshebnoy skazki. – L., 1946. – S. 60.

O‘zbek xalq maqollari. To‘plovchilar: T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov. – T.: Fan, 1981. – 551 b.

O‘raeva D. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida parallelizm. – T.: Navro‘z, 2019. – B.31.

## O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDAGI YETAKCHI TAMOYILLAR

*Kamola EGAMBERDIYEVA,  
ToshDO‘TAU 1-kurs tayanch doktoranti*

Hikoyaning ibtido ko‘lami, umri bashariyatning yer yuzini makon tutishi va unda kechirayotgan ulkan tarixi bilan teng, desak xato bo‘lmaydi. Voqyea, ilk hikoyalar, biz so‘z yuritayotgan badiiy jihatdan mukammal janr talablariga mos kelmasa ham, insoniyatning ilk ajdodlari ruhiyatiga xos hodisa edi va bugungi sivilizatsiyalashgan odam ruhiyatida ham bu borada katta farq, o‘zgachalak kuzatilmaydi. Inson bor joyda hikoyaga talab ham, ehtiyoj ham bor. Hatto bu fikrni bir oz rivojlantirib, har bir inson hayotining o‘zi ulkan hikoyalardan iborat desak ham yanglishmaymiz.

Hikoyada bir kishining ma‘lum vaqtdagi hayoti orqali uning xarakteri, o‘y-xayoli, ruhiyati, kechinmalari yoritilib, o‘qirmanga tarbiyaviy ahamiyati bo‘lsa, yozuvchi maqsadiga yetgan bo‘ladi. Hikoya, umuman, barcha ijod mahsuli nasrdami, nazmdami bo‘lishidan qat‘iy nazar ezgulikka xizmat qilsa, u haqiqiy adabiyot hisoblanadi. Adabiyotning asl maqsadi ham kishilarni ezgulikka xizmat qildirish ekan, yaratilayotgan har bir ijod mahsuli ham ijodkorning mahoratiga, kuzatuvchanligiga, hayotni ko‘p o‘rganganligiga bog‘liq. Ijodkor asariga xomashyoni hayotdan oladi, faqat badiiy to‘qima yordamida yaxlit asar holiga keltiradi. Uning qanday ta‘sirga egaligi, ijodkor mahoratiga haqiqiy bahoni kitobxon beradi. Zero, yozuvchi O‘tkir Hoshimov aytganidek: *Ikkita eng xolis hakam – Kitobxon va vaqt sinovidan o‘tgan asar haqiqiy asardir*”.

Ma‘lumki, hikoyaning shakli nisbatan cheklangan esa-da, katta mazmuni ifodalashga qodir. Shu ma‘noda shaklan muxtasarlik, mazmunan lo‘ndalik va yaxlitlik hikoya janrining spetsifik belgisi hisoblanadi.

Shu kungacha mavjud nazariy an‘analar va badiiy mezonlarga ko‘ra:

- hikoya birgina voqyea asosida quriladi;
  - hikoyada xarakter birgina epizod orqali namoyon bo‘ladi;
  - xarakterlar tayyor holda beriladi;
  - xarakterning birgina holatigina ko‘rsatiladi;
  - xarakterning hikoyaga kirguncha bo‘lgan va hikoya tugagandan so‘nggi holati o‘quvchiga nomalum qoladi;
  - hikoyada personajlar soni cheklangan bo‘ladi;
  - hajmi kichkina bo‘ladi
- deb hisoblanadi.

Bu janr, ijodkorlar mahorati va yozilgan hikoyalar haqida adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda ko‘plab tanqidchilar fikr bildiradi: V.Belinskiy, Q.Yo‘ldoshev, U.Normatov, M. Qo‘shjonov, A.Rasulov, T.Boboyev, U.Jo‘raqulov, X.Do‘stmuhammad, D.Xoldorov singari adabiyotshunoslar shular jumlasidan. V. G. Belinskiy hikoyaning xususiyati haqida shunday deydi: *“...povest (U davrlarda “hikoya” atamasi kam qo‘llanilar va “povest deb atalardi” bu kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan bir epizod” deb juda yaxshi*

aytilgan edi. Bu juda to'g'ri fikr; ha "povest"(hikoya) qismlarga, minglab bo'laklarga bo'lingan romandir; romandan olingan boblardir...

*Shunday voqealar, shunday hodisalar borki, ular drama uchun kifoya qilmaydi, deyishi mumkin, biroq ular nihoyatda chuqur, asrlar davomida unutish mumkin bo'lmagan hayot haqiqatini shunday o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi; hikoya ana shunday voqea va hodisani tanlab oladi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi...*

Hikoyada ijtimoiy va ma'naviy hayotning turli-tuman masalalari ko'tarilishi mumkin, ammo roman va qissalardagidek keng ko'lamda tasvir etilmaydi. Lekin, ba'zan hikoya uchun manba qilib olingan biror ijtimoiy hodisa tasviridan katta umumlashmalar chiqarish, muayyan davr hayot tarzini keng miqyosda gavdalantirish imkoniyati tug'iladi. Unda mazmun va hajmiga ko'ra asarni janr jihatdan farqlash qiyin bo'lib qoladi (Sh.Xolmirzayevning "Bulut to'sgan oy" hikoyasi).

*"Tarixiy va nazariy poetikaga doir tadqiqotlarda, monografiya, terminologik lug'atlar, darslik hamda o'quv qo'llanmalarda hikoya janri turli rakurslarda o'rganib, ilmiy-adabiy jihatdan talqin etib kelinadi. Shunga ko'ra, ushbu janrga xos poetik kanonlar (belgi va mezonlar) mukammal darajada ishlab chiqilgan. Aytish mumkinki, bugungi maktab o'quvchisi ham hikoya janrining muayyan belgilaridan xabardor. Lekin, shunga qaramasdan, nazariy adabiyotshunoslik, hych qachon, bu janr xususida so'nggi xulosani ayta olmaydiki, bu ham hikoyaning doimiy harakatdagi, murakkab estetik hodisa ekanidan dalolatdir..."*

Hikoyada "lakonizm" degan tushuncha bor. Lakonizm bu – tasvir mezoni. Hikoyada tasvirlash mezoni huddi hajm kabi chegaralangan bo'ladi. Roman va qissadagidek hikoyada qisqartma epizod va chekinishlar bo'lmaydi, tasvir mezoni yetakchi o'rinda turadi. Ayni paytda hikoya nima, uning badiiy mezonlarini belgilovchi elementlar nimada ko'rinadi? Hikoyada muallif zamon va makon va obrazlar tizimi syujet liniyasi qay tartibda keladi? "*Hikoya, – deb ta'kidlaydi Jek London, – bu hayotning yakunlangan epizodi: kayfiyat, vaziyat, harakat birligi*" Xulio Kortasar esa Lotin Amerikasining zabardast yozuvchisi, urugvaylik Orasio Kirogadan olgan saboqlarini o'zining "**Qisqa hikoya va uning hududida**" deb nomlangan maqolasida e'tirof etadi, hikoya konsepsiyasini adabiy janr sifatida tahlil qilib, o'z ijodiy uslubini bayon qilarkan, Kiroganing hikoya yozish san'ati sirlari haqidagi ushbu maslahatlarini samimiyat bilan yodga oladi: "*Shunday hikoya qilginki, go'yo bu hikoya o'zing yaratgan adabiy personajlaringning mo'jazgina davrasi uchun qiziqarli bo'lsin. Bu personajlardan biri o'zing bo'lishing ham mumkin. Faqat shundagina yozgan hikoyang hayotiy chiqadi...*". "*... Kortasarning ko'pgina hikoyalari birinchi shaxsdan yoziladi, ammo yozuvchi hikoyada paydo bo'lgan vaziyatga hukmfarmolik qilmaydi, uni izohlab bermaydi. "Men yozayotganimda, instinktiv tarzda yaratuvchi bo'lishga harakat qilmayman, – deb yozadi u. – Istaymanki, hikoya o'zining mustaqil hayotiga ega bo'lsin, o'quvchi esa o'z-o'zidan tug'ilgan, o'zining ichidagi, hattoki o'z-o'zidan paydo bo'lgan nimadir, qandaydir tuyg'uni his qila olsin..."*, degan fikrlarni ilgari suradi.

Hikoya janrida zamon tushunchasi muhim. XX asr boshidan to hozirgi davrgacha qalam tebratgan va tebratayotgan yozuvchilar (Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzaev, Hayriddin Sulton, Erkin Aʼzam, Nazar Eshonqul, Salomat Vafo, Ulugʻbek Hamdam)da zamon va hikoya uslubi umuman farq qiladi. Ayni shoʻro davri hikoyachiligida inson mehnati ulugʻlangan asarlar yaratish kuchaygan boʻlsa, shu davrning yetmishinchi-yillaridan insonning oʻzi asar bosh gʻoyasini tashkil eta boshladi. Bugungi kun hikoyachiligida falsafa va psixologiya bilan uygʻun holda, inson ruhiyati, botinini tahlil etish avj oldi: *“...Mening tasavvurimdagi hikoya nainki davr, ijtimoiy muhit, millat, adabiy doira, mualliflarning almashinuvi bilan, balki muayyan ijodkorda yosh, ruhiyat, kayfiyatning oʻzgarishi bilan ham tamomila boshqacha shakliy-mazmuniy mohiyat kasb etishi mumkin. Shu maʼnoda biz hikoya janri haqida soʻz yuritayotganda uning originalligi ostida oʻtmish, tarixiyliigi ostida kelajak namoyon boʻlishi mumkinligini nazarda tutishimiz lozim...”*

Avlodlar almashgan sayin ijtimoiy muhit ham oʻzgarib boradi. Bu, avvalo, badiiy tafakkurda aks etadi. Har bir badiiyat namunasida oʻsha davr ruhi sezilishi tabiiy: kishi dardi, muammolari, kayfiyati, jamiyatni qiynayotgan abadiy muammolar... Bitiktoshlardan to hozirda yaratilayotgan hikoyalarda zamon farqi turli xil. Birgina Shoʻro davrida shu davrga ishonib, kommunizm quramiz, degan gʻoya singdirilgan hikoyalar koʻplab boʻlsa, 80- yillarga borib bu davrga ishonch soʻna boshlagan kayfiyatdagi asarlar (Nazar Eshonqul: “Maymun yetaklagan odam”lar kabi) vijudga keldi.

Odam va ilohiyot, odam va odam, odam va tabiat, odam va oʻtmish, odam va kelajak aro maʼnaviy, maʼrifiy, psixologik, maishiy, ijtimoiy, iqtisodiy va h.k. munosabatlar umuman badiiy asarning, xususan, hikoya janrining tugʻilishi uchun asosiy omillardir. Insondagi aytish va tinglash ehtiyoji mavjud ekan, hikoya ham yashayveradi. Agar mana shu ehtiyoj boʻlmaganida adabiyotning oʻzi ham ham boʻlmas edi. Adabiyotdan ham kengroq, avvalroq, yuksakroq mezonlar bilan yondashadigan boʻlsak, hikoya janrining paydo boʻlishi, spetsifikasi, maʼnaviy-maʼrifiy, badiiy-psixologik funksiyasi eng qadimgi zamonlarga, hatto insoniyat hayotining ibtidosiga borib taqaladi. Shu maʼnoda ilk hikoya tushunchasi xronotopi (makon-zamoni) Odam ato zamonidan ham olisroqqa ketadi.

Hikoya janri barcha adabiy janrlarning sinkretik shakli sifatida lirika, drama hamda eposga xos elementlarni sintez qilishi bilan birga, yuzaki qaraganda noadabiy, ammo mohiyat eʼtibori bilan umuminsoniy, demakki, adabiy, falsafiy, ilohiy elementlarga boy ekanligi ham yuqoridagi fikrimizni quvvatlaydi.

Jahon romani strukturasi xos oshiq-maʼshuqa-raqib uchligi, muhabbat, hijron, visol motivlari aro sistematik munosabat bevosita ilohiy ibtido rejasi bilan bogʻliq boʻlib, buning bevosita yozuvdagi ifodasi “Zabur”, “Tavrot”, “Injil”, “Qurʻoni karim” singari ilohiy kitoblardan enersiya olganidek, ilk hikoyaning asoslarini ham mana shunday xronotop kengliklaridan izlash maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, ilohiy kitoblarda Yaratgan bashariyat orasidan tanlab yuborgan paygʻambarlariga kosmik tizimdagi muayyan voqyeani yuksak etika va estetik jihatdan barkamol shaklda (“Qurʻoni karim”da iʼjoz maqomida), ibrat

o‘laroq hikoya qilib beradi. Mana shu ilohiy ibrat negizida hikoyaga xos barcha badiiy komponentlar, poetik kanonlar, umumestetik konsepsiyalar, o‘tmish va kelajakka doir ilmlar mujassam ediki, tabiatan “buyuk taqlidchi” (Nitsshe) bo‘lgan inson hikoyaning mukammal namunasi sifatida bu manbaga tayanmasligi mumkin emasdi.

Keyinchalik, taqriban har bir ilohiy kitob yoki payg‘ambar orasida o‘tgan, bashariy johiliyat hukm surgan mavsumlarda “haqiqatdan xabar beruvchi yolg‘on” (Aristotel) – miflar paydo bo‘ldi. Bizgacha yetib kelgan og‘zaki va yozma shakldagi mifologik manbalarni kuzatganimizda ularning tarkibida bir uchi ilohiyotga, boshqa uchi xurofiy tasavvurlar va real hayotiy unsurlarga bog‘langan hikoyalarga qayta-qayta duch kelamiz. Jo‘n materialistik dunyoqarash hukmron bo‘lgan davrlarda miflarni inson badiiy tafakkuri va ilohiy kitoblarning ilk shakli sifatida tushuntirilganini bugun ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Biroq haqiqatning o‘lmasligi shundaki, aqliy taraqqiyotning yuksak cho‘qqilarini egallagan XXI odami ham bugun mifologik hikoyalar asosida kodlangan sirlarni kashf etaroq hayrat barmog‘ini tishlashdan boshqa chora topa olmayapti. Mashhur mifshunos J.J.Frezerning “Katta Ahdda folklor” (Djeyms Djojrj Frezer. Folklor v Vetxom zavete.-M., 1990) nomli asarida qayd etilishicha, jahon mifologiyasida ilohiy kitoblar haqiqatini bayon etgan, zamonaviy fan realligini isbotlagan Nuh (a.s.) to‘foniga doir yuzlab hikoyalar mavjud. Shu dalilning o‘zi ham o‘tgan asr markschi va leninchilarining mif haqidagi o‘rinsiz da‘volarini yo‘qqa chiqaradi.

*“Shu tariqa, mif va din motivlari ta’sirida avvaliga folklor, keyinroq esa yozma adabiyot janri sifatida shakllangan hikoya o‘zining professional ijodkorlariga, xilma-xil maktablariga ega bo‘ldi...”*

Har bir hikoya qaysi zamoni aks ettirishi, qaysi millatga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar butun bashariyatga xizmat qilsa, u adabiyotning haqiqiy namunasi hisoblanadi. Bu yo‘lda jahon hikoyachiligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adiblar talaygina. Birgina XX asr hikoyachiligini olsak: “...Somerset Moem, Jek London, Ernest Xeminguey, Uilyam Folkner, Nodar Dumbadze, Ryunoske Akutagava, Umar Sayfiddin, Mixail Sholoxov, Nikolay Gumilyov, Hyerman Hyesse hikoyalari nafaqat muayyan davr yohud millat, balki umumbashariyat mulki hisoblanadi. Aynan shunday asarlarda yuqorida qayd etilgan poetik ko‘lam, umumbashariy qamrov, yuksak axloqqa doir muammolar aks etadi va aynan shu kabi asarlar hududsiz makon va zamon kengliklarida XX asr jahon adabiyoti qiyofasiga munosib chizgi bo‘la oladi. Aynan shu kabi asarlar buyuklikda soddalikni, o‘tmishda kelajakni, kelajakda kechmishni, nafratda muhabbatni, o‘limda hayotni, iztirobda lazzatni ifoda etadi...”

Milliy adabiyotimizda istiqlol davriga kelib aksariyat hikoyalarda fikrlayotgan odamlar bosh qahramonga aylandi. Hyech kimga o‘xshamagan, noodatiy, betakrorligi tufayli ko‘ngilsizliklarga duchor bo‘lib yuruvchi, ammo shu bilan birga el qatori kishilar obrazini Murod Muhammad Do‘st, Erkin A‘zam, Tog‘ay Murod, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldosh, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo kabilar ijodida yaqqol kuzatish mumkin.

XX asr boshidan to hozirgacha yaratilgan hikoyalarni o'rganganimizda, so'nggi-yillardagi yaratilganlarida ko'proq qahramon ruhiyati orqali uning xarakterini ochib berish kuchaydi. Shukur Xolmirzaevda sodda, samimiy o'zbekni, Tog'ay Murodda mardlik, orni, gruzin adibi Nodar Dumbadze ("Hyellados" hikoyasi)da Vnitsiya bolalarining, Chengiz Aytmatovda qirg'iz xalqining xarakterini, Pushkinda aslzoda rus tabaqa vakillarining mentalitetini uchratamiz. Nazar Eshonqulda esa o'zbek xarakterini o'zgacha jilolarda ko'ramiz. Keyingi-yillarda yaratilayotgan badiiy asarlarda inson ichki dunyosini yoritishga intilish kuchayib borayotganini sezish mumkin. Kitobxon o'rganib qolgan an'anaviy yozish uslubidan boshqacha asarlarga "**modernistik**" sifatining berilishi ham buning yorqin isbotidir. Inson dunyoqarashining shakllanishi jamiyat va siyosatning mahsuli emas, balki ulardan ham ustun turuvchi o'zgacha bir olam ekanini tan olish an'anaga aylanib bormokda.

Dastlab bu hol G'arb adabiyotida yuz berdi. F. Kafka misolida ko'radigan bo'lsak: *"... uning ijodini o'rganar ekanmiz u yashagan davr va mansub oqim haqida to'la tasavvurga ega bo'lishimiz shart. Qiyin oilaviy sharoit, jamiyatdagi parokandalik, ma'naviy tanazzul – bular barchasi yozuvchining badiiy dunyosiga ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Shuning uchun Kafka asarlarida qolish xavotiri birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Kafka ijodini o'rganishda ikki jihatga e'tibor qaratish zarur: bular yozuvchining kundaliklari va aforizmlari.*

*Kafka so'nib borayotgan ishonch va umidlar xarobasidan chinakam e'tiqod izlaydi. Har qanday yovuzlik zamirida egoizm – manmanlik turishini u o'z asarlarida badiiy tasvirlab berdi..."*

Adabiyotshunos olim, professor Qozoqboy Yo'ldoshev Kafka hikoyalari haqida, jumladan, "Evrilish"dagi kunlarning birida uyqudan hasharotga aylangan holda uyg'ongan Gregor Zamza, uning keyingi ruhiy holati haqida fikr yuritir ekan: *"... hasharotga evrilgan yigit o'ylari, iztiroblari, umidlari, iltijolari va nihoyat o'limi tasvirini tushungan o'qvchi larzaga tushadi. Kafka odamni hyech ham aql bovar qilmaydigan holatga soladi-da, uning asl mohiyatini kaftdagiday ko'rsatadi. Hatto aytish mumkinki, yozuvchi qahramonni emas, o'z holatini tasvirlayotganday bo'ladi. Shuning uchun ham ro'y bermaganligi, hatto ro'y berishi mumkin ham emasligi shundoqqina ko'rinib turgan voqyealar tasviri kishini o'ziga jalb qiladi, o'yg'a toldiradi, munosabat paydo qiladi..."* deydi.

O'tgan asrning 80- yillaridan boshlab bu hol milliy adabiyotimizda ham ko'zga tashlana boshladi. Jumladan: *"...Insoniyat tarixidagi inson erki bilan bog'liq o'zgarishlar dastavval san'at asarlarida namoyon bo'ladi. Istiqlol sharofati bilan boshlangan Yangilanishlar o'zbek badiiy adabiyotida ham yuz ocha boshladi. Bu holat ayniqsa noan'anaviy uslubda, voqyelikni yangicha badiiy talqin etishda, shu bilan birga shakliy o'zgarishlarda ham ko'zga tashlanadi. ...Bu asarlar badiiy adabiyotda yangicha tafakkur yuritish, inson fikrlashi bilan xarakterlanadi..."*

Inson ruhiy olamiga yangicha qarab, o'zgacha badiiy talqin etish jarayonlari M.Muhammad Do'st, O.Otaxonov, X.Do'stmuhammad, T.Murod ijodida ancha ilgari boshlandi. Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya

Qurolboy qizi, Salomat Vafo, Abduqayum Yo‘ldosh kabi yosh nosirlar ijodida bu tamoyil davom etdi va yetakchi uslubga aylandi.

Tadqiqotimiz ob’ekti bo‘lgan Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida bosh qahramon asosan ayol kishi bo‘ladi. Ayol tabiatidan kelib chiqib ijod qiladi. Ko‘p hollarda, yashagan davri, muhit ham aynan ayollarga xos tutum, tafakkurga bo‘ysungan bo‘ladi. Zulfiya Qurolboy qizi, shu bilan birga, o‘z qarashini asarlariga majburlab singdirmaydi, har bir qahramon xarakteriga munosib taqdirni qo‘lga kiritadi. Adiba asarlaridagi kompozitsion (obraz, xarakter, syujet – kulminasiya, tugun, ekspozitsiya) mahorat o‘quvchi e’tiborini tortmay qo‘ymaydi. Bu mahorat har bir voqea va personajga asarda faqat zaruriy joyni berish, bayonda ezmalikka yo‘l qo‘ymaslik, syujetning yetarli sur’atda rivojlanishiga harakat qilishda namoyon bo‘ladi.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti mukammal bo‘lmagan inson va uning amalga oshmagan orzu-umidlari, armonlari, kamchiliklarini qoralamay tasvirlash, inson ruhiyatini tadqiq etish bilan shug‘ullana boshladi. Inson ruhiyatini ochishda esa peyzaj (fr. paysage – joy, yurt – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqyelikning muhim komponenti, voqyealar kechuvi ochiq makon (yopiq makon inter’er) tasviri”) muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotshunoslikda peyzaj xususida turli qarashlar mavjud. Ko‘pchiligida, asosan, peyzaj tabiat tasviri ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, ba’zi olimlar peyzajni syujet elementi deb qarasa, ayrim guruh olimlar esa kompozitsiya tarkibi sifatida e’tirof etishadi. Ba’zi qarashlarda peyzajning tarkibiy qismi sifatida interer ham sanab ketilgan.

Peyzaj qahramonning ruhiy holatini ifodalashda fon vazifasini bajarishi, parallellizm yoki kontrastga xizmat qilishi mumkin. Peyzaj badiiy asar kompozitsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida juda ko‘p funksiyani bajaradi. Badiiy asarda tabiat tasviri peyzaj, deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan bo‘lib, asarning g‘oyaviy, estetik quvvatini oshiradi. Ko‘pgina asarlarda peyzaj g‘oyatda muhim g‘oyaviy kompozitsion rol o‘ynaydi. Yozuvchi tabiat lavhalarini chizish bilan o‘zining tabiatga munosabatini ifodalaydi. Bu ta’riflardan ko‘rinadiki, bu boradagi fikrlar turlicha. Umuman olganda, peyzaj goh syujet sodir bo‘lgan faslni bildiradi, goh qahramonlar psixologiyasini ochishda uning ichki ziddiyatini ko‘rsatishda muhim o‘ringa ega.

Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligi dastlab yo‘lini izlayotgan, kimligini anglashga urinayotgan, hayotdagi o‘rnini topishga intilayotgan, so‘ngroq o‘zini tadqiq etayotgan, qo‘lga kiritgan yoki boy bergan har bir muvaffaqiyati ortida kasbiy mahorati, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli emas, insoniy sifatidan tortib, o‘y-xayollarigacha turishini anglagan, ijtimoiylashuvdan shaxsiylashuvga qarab ketayotgan qahramonni tasvirlay boshladi.

Sobiq sho‘ro davrida yozilgan asarlarning esa barchasini ham shunday ta’riflab bo‘lmaydi. Biroq sho‘ro mafkurasi qolipiga sig‘may, bugungacha yetib kelgan va o‘qilayotgan asarlar davrning emas, yozuvchining iste’dodi sababli sho‘ro mafkurasini chetlab o‘tdi. Bunday asarlar, agar nasrni nazarda tutsak, judayam sanoqli. Umuman, azaliy badiiy did va saviyaga, insonning azaliy

ogʻriqlari va armonlariga, inson koʻngliga daxldor asarlar, bundan ming-yillar oldin yaratilgan boʻlsa ham oʻqilaveradi. Chunki jannatdan quvilgandan buyon inson qalbi deyarli bir xil ogʻriq va uqubatlar bilan toʻla. Bu uqubatlarni jamlab inson haqidaga iztiroblar deb atash mumkin. Biz shuning uchun ham «Shoh Edip»ni hali ham hayrat bilan, hayajon bilan oʻqiymiz. Bunday uqubati bor asarlar eskirmaydi. Shoʻro davrida chop etilgan asarlarda insondan koʻra oʻsha davr mafkurasi kuchli edi. Har bir qahramon biror muhim ijtimoiy vazifani bajarishi, yashashdan maqsadi shior-chaqiriqnamo tusga ega boʻlishi shart edi. Obrazilarni insonga xos boʻlgan tuygʻular, kechinmalar emas, zamonga, mafkuraga xos qarashlar, ideologik qarashlar boshqarardi.

Umuman olganda, qaysi zamonda yaratilganidan qatʻiy nazar, badiiy saviyasi yuqori boʻlgan asarlarga abadiy yashab qoladi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida mazkur fasl yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- hikoyada xarakter birgina epizod orqali namoyon boʻladi;
- hikoyada tasvirlash mezoni huddi hajm kabi chegaralangan boʻladi;
- hikoyada ijtimoiy va maʼnaviy hayotning turli-tuman masalalari koʻtarilsa ham roman va qissalardagidek keng koʻlamda tasvir etilmaydi;
- istiqlol davri hikoyalarining koʻpchiligida fikrlayotgan odamlar bosh qahramonga aylandi;
- hikoya janrida zamon tushunchasi muhim boʻlib, XX asr boshidan to hozirgi davrgacha qalam tebratgan va tebratayotgan yozuvchilarda zamon va hikoya uslubi tubdan farq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. Akademik B.Nazarov tahriri ostida. – T., 1991.
2. Анри Барбюс. Золя в 1932. В книге “Назвать вещи своими именами”. – М.: 1986, С. 76.
3. Aristotel. Poetika. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1980.
4. Ahmedova. M. Xulio Kortasar: XX asr maʼnaviy hayotidan bir lavha. Jahon adabiyoti. 2009-yil , oktyabr.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent. 2002, 470-471 betlar.
6. Boltaboev H. Nasr va uslub. – T.: Fan, 1992.
7. Gʻafurov I. Oʻttiz-yilizhori. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1981-1983.
8. Joʻraqulov U. Ummon sogʻinchi. Soʻz boshi. XX asr jahon hikoyasi. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
9. Joʻraqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.

#### **TOʻRA SULAYMONNING “ILTIJO” SHEʼRIDAGI BADIY NIYAT VA GʻOYANING USTUVORLIGI**

*Yorqinjon HAYITBOYEV,  
GulDU talabasi*



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, “Birinci navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”, - deya o‘z tashabbuslarini ilgari surgan edi. Ma’rifatning negizi esa adabiyot hisoblanadi. Adabiyot ham o‘z o‘rnida ma’rifiy negzlanadi, tarmoqlanadi. Bu borada esa To‘ra Sulaymon she’riyati ma’rifiy negizi jihatidan butun she’riyatdir.

“Folklor ta’sirida tilga yarashiq, dilga yaqin yangi asarlar yaratgan shoirlar nomi sanalganda, albatta, O‘zbekiston xalq shoiri To‘ra Sulaymon birinchilardan bo‘lib yodga olinadi. Ardoqli shoirimizning yigirmadan ortiq kitoblariga jo bo‘lgan va to‘laligicha xalq og‘zaki ijodi ohanglaridagi she’r va dostonlari hamda g‘oyat shirali tilda yozilgan hikoya va qissalari, o‘tkir publitsistik asarlari xalqimiz ma’naviy merosini sezilarli darajada boyitdi”, - deya shoirning “Tanlangan asarlar”ida Azizbek Anvar yozgan edi. To‘ra Sulaymon nafaqat o‘zbek adabiyotidagi xalq ohanglarini boyitdi, balki inson kamolotini ziynatlantiruvchi tuyg‘ularni baralla kuylay oldi. Shoirning she’riyatini o‘qigan, o‘rgangan kitobxon borki, To‘ra Sulaymon nafasi hazil-mutoyiba, xalqonalik, badiiy ifodaning sodda va samimiylik bilan hamohangligiga guvoh bo‘ladi. Bunga To‘ra Sulaymonning o‘zi haqida yozgan “Davlat odami” maqolasi ham yorqin misol bo‘la oladi. Maqolada shoir O‘zbekiston xalq shoiri unvonini olganligi va endilikda “Nobel”ni ham olishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Yaxshi niyat qiladi. Samimiyat bilan qalam tebratadi.

Xalq samimiy she’rlarni yaxshi ko‘radi. Inchunun, To‘ra Sulaymon baxshiyona ohanglarni milliy adabiyotimizdagi o‘rnini mustahkamlagan, xalqona she’rlari bilan xalq qalbidan joy olgan, katta maqsadlarni ko‘zlab yo‘lga chiqqan va adabiy manziliga yetgan karvon – shoir bo‘lgan. Uning o‘zi-da, yozgan so‘zi-da marddir. “Istar ko‘ngil”dan boshlab, barcha kitoblarni o‘qir ekansiz, To‘ra Sulaymonning she’rdan she’rga yuksalغانligini, badiiy salohiyati yanada takomillashganligini kuzatasiz. Ayniqsa, shoir she’riyatida xalqona ohangning o‘zgacha rang-tasvirda jilolanganligiga guvoh bo‘lasiz va hayron qolasiz. Xalq og‘zaki ijodini nihoyatda yaxshi bilgan shoir ana shu bilimdonligi uchun ham xalqning sevimli ijodkoriga aylangan deb o‘ylaymiz.

*O‘lmaslikka ishora – o‘langa oshiqligim,  
Saodatga ishora – zamonga oshiqligim,  
Teranlikka ishora – ummonga oshiqligim,  
Go‘zallikka ishora – bo‘stonga oshiqligim,  
Bahor, ketma mening bog‘imdan!*

Nima uchun shoir o‘lmaslikka ishora deb, aynan, o‘langa oshiqlikni tasvirlayotganini quyidagicha talqin etish mumkin. O‘lan xalq og‘zaki ijodining qadim-qadimdan mavjud bo‘lib kelgan janri hisoblanib, uni folklorshunos olimlarning bir guruhi aytimlarning bir-biriga ulanmog‘idan kelib chiqqan, desalar yana bir boshqa guruh olimlar O‘lan tangrisi sharafiga shunday nomlangan deb bayon qiladilar. Odatiy hayotimizga nazar solsak, mahallamiz, qishlog‘imizda bo‘lgan to‘ylarda, ayniqsa, qiz uzatish marosimlarida “O‘lanchi qiz yor-yor”, deyilganini ko‘p eshitganmiz. Demakki, shoir qadimiy qo‘shiqqa oshiqlik bilan

o'laslikka ishora o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni mazmuniy markaz sifatida olyapti. Qo'shiqning necha yillardan buyon o'lmay yashab kelayotgani, eskirmagani, unutilmaganini chuqur tushungan holda o'z yozganlarini ham ana shunday qadrlanishi, tildan tilga o'tib yurishini niyat qilyapti.

Diqqat bilan yondashsak, badiiy niyat mana shu satrlarda o'z yashirin aksini ko'rsatyapti. Zamon bilan hamnafas bo'lgan va zamonaviy bilimlarni o'z vaqtida chuqur o'rgangan kishining saodatga erishuvi haqida kitobxon yaxshi biladi. Teranlikka ishoraning ummonga oshiqlik bilan bog'lanishiga ham alohida to'xtalmoqchimiz. To'ra Sulaymon Sirdaryo, daryo farzandi edi. Garchi, Aldashmonda tug'ilgan shoirni jizzaxliklar bizniki, deb sirdaryoliklar bilan talashsa ham, baribir u Mirzacho'lning shoiri, Sirdaryoning odami edi. Ummonning sathi-yu bag'ri-da keng bo'lishini yaxshi bilamiz.

Undan tashqari ummonlar bag'rida ko'plab g'avvoslar xazina-yu, sir-asrorlarni izlab yurishidan ham xabardormiz. Mana shu yerda ummon va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni, To'ra Sulaymon anglagan haqiqatni ko'rishga musharraf bo'lamiz. Ummondan sir-asrorlar izlangani kabi inson o'z tafakkurida ham tinimsiz g'oya, fikr qidiradi. Ayniqsa, shoirlar fikrning ortidan quvadi, yetolsa, yozadi. Ummonning-da, tafakkurning-da kengligi, ikkisining ham hali biz bilmagan sirlari, yashirin xazinalari borligi va ana shu borliklarni izlash yo'lida harakat qilish har kimni teranlikka yetaklaydi. Ko'rinib turibdiki, teranlik – To'ra Sulaymon ijodining maqsadi, muvaffaqiyatidir. Go'zallikka ishoraning bo'ston bilan bog'langani esa, aniq va ravshan tasvirlangan. Shubhasiz, bog'-u bo'stonlar go'zallikning oshyonidir. Shoirning fasllar ko'rkiga nisbatan iltijo qilishi ham go'zal.

*Giyoh bilan qoplanmish ko'hna qabr boshlari,  
Maysadagi shudringlar – kimlarning ko'zyoshlari?  
Bu yerda yotar otam, ham uzangidoshlari,  
Har bahor eslar uni qavmi-qarindoshlari,  
Bahor, ketma mening bog'imdan.*

Maysadagi shudringni insonning ko'zyoshiga o'xshatish adabiyotda chin ma'noda yangilik edi. To'ra Sulaymonni ko'pchilik sodda uslubda yozishi haqida so'z yuritadi. Biroq shoir o'z sodda uslubiga katta falsafiy ma'noni yuklay oldi va bevosita ana shu ma'nolar mujassamlashgan dilbar she'rlar yoza oldi. Uzangidosh tushunchasiga kelsak, bu so'z "Ko'pkari" milliy o'yiniga aloqadordir. Ko'pkari o'yinida birga ot surgan do'stlar, o'zaro yaqin munosabatga ega bo'lgan kimsalar uzangidosh deyiladi. Shoir o'z otasi va uning uzangidoshlari yotgan yerni tasvirlashda badiiy mahoratini ko'rsatyapti va bevosita otasi ko'pkari o'yinlarida ishtirok etganligiga ishora qilyapti. Bu yashirin ishora ma'nosida To'ra Sulaymonning otasi ham xalq milliy o'yinlarida ishtirokchi bo'lganligini anglashimiz mumkin. Shoirning she'riyatidagi xalqonalik esa qatag'onga uchragan otchopar otaga borib taqaladi.

To'ra Sulaymonning "Iltijo" she'rida shunday satr borki, insoniyatning beqaror his-tuyg'ulariga ega ekanligini namoyon etadi. "Yoz bo'yi qorga zorman, qishda bahorga zorman", -deydi shoir kishi xarakteridagi noziklik – beqarorlikni

tasvirlab. She'r davomida ijodkor chamandagi gulning bo'yiga intiqiligi, intizorligi, hali kuz fasli kelmay turib xazonga aylangan gullardan bezorligi haqida fikr yuritadi. Shu yerda shoir sevgini gulga mengzaydi. U o'xshatish vositalarini qo'llamay turib, go'zal tashbeh yaratadi. "Kuz kelmay xazon bo'lgan sevgi, guldan bezorman", -deb yozadi. To'ra Sulaymon muhabbatni ham, sevgini ham hamisha bahorday yashnab turishini, kuzday to'kilmasligini niyat qiladi. Mana shu yerda ijodkorning badiiy niyati akslanadi.

Yuqorida amin bo'lganimizdek, To'ra Sulaymon birgina she'ri bilan bahorni, uning tasviri orqali yaxshilik, ezgulikni shu qadar tarannum eta olganki, shuning uchun ham biz bu she'rlarni sevib o'qiymiz, qalbimizning to'ridan joy beramiz. Shoir joti borki, she'ri sevilsa, o'qilsa haqiqiy ijodkor degan nomga erishadi. Yostiqday kitoblari chiqqani bilan xalq tanimasa, she'rlarini o'qimasa, kitoblar kutubxonalaridagi javonlarda chang bosib yotsa, undan na millatga, na kelajakka, na yoshlarga foyda tegadi. To'ra Sulaymon esa, iltijolari-da go'zal, o'ziga xos haqiqiy shoir sifatida qalblarda yashaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston strategiyasi – T.: O'zbekiston, 2021. 302-bet.
2. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. 8-sinf Adabiyot darsligi ikkinchi qismi. – T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
3. To'ra Sulaymon, Iltijo – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
4. Xurshid Davron kutubxonasi sayti.

### **BADIIY ASAR TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI**

*Gulsanam ABDAZOVA,  
ToshDO'TAU Badiiy tarjima fakulteti  
I bosqich magistranti*

Tarjima inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, bu murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Tarjimada turli madaniyatlar va urf-odatlar, turli xil fikrlar, turli adabiyotlar, turli davrlar va turli insonlar hayoti aks etadi. Har qanday tarjimaning vazifasi asl nusxadagi mazmunni boshqa til orqali uning uslubiy va ekspressiv xususiyatlarini saqlab, to'liq va aniq yetkazishdan iboratdir [1; 24]. Tarjima nafaqat asl nusxada ifodalangan narsani, balki unda qanday ifodalanganligini ham ochib berishi kerak. Ushbu talab matnning butun tarjimasiga ham, uning alohida qismlariga ham tegishlidir. Asl nusxa mazmunini boshqa tilde qayta yaratish uchun muqobil vositalar izlab toppish va ular orasidan eng muvofiq'ini tanlash jarayonini o'z ichiga olganligi jihatidan har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy xarakterga ega. Lekin tilning ifodaviyligi bilan bog'liqligi, turli adabiy usullar va badiiy san'atlar asosiga qurilganligi tufayli badiiy asarlar tarjimasida san'at hisoblanadi. Chunki ilmiy, ijtimoiy, siyosiy,

publisistik matnlar tarjimasi bilan til bilgan har qanday kishi shug'ullanishi mumkin bo'lgani holda, badiiy tarjimaga faqat adabiy tab'i bor, ijod qonuniyatlaridan xabardor mutaxassislar qo'l uradilar.

Badiiy tarjima o'z murakkabligi va mushkulligiga ko'ra badiiy ijod bilan qariyb bir mavqeda turadi. Sababi, muallif iste'dodi va mahorati mahsuli bo'lgan badiiy asarni tarjimon boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qayta yaratishi talab etiladi.

Adabiyot – so'z san'ati hisoblanar ekan, badiiy asarlar tarjimasiga nisbatan ham ushbu ta'rifni qo'llash mumkin. Chunki tarjima adabiyoti original adabiyotning hosilasi. Badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning o'zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik iste'dodi va badiiyat ilmidan xabardorlik ham talab etiladi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasiga shoir-yozuvchilar yoki adabiyotdan xabardor kishilargina qo'l uradilar. Jahonning buyuk so'z san'atkorlari "tuyg'u va obrazlar olamini chuqur anglamoq uchun tarjimon o'zi qalban san'atkor bo'lmog'i zarur" deb bejizga aytmaganlar [8; 2].

Ma'lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san'atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san'at iqlimidir. Buni o'zbek tarjimashunoslik fanining darg'asi G'aybulla Salomov shunday asoslaydi:

"Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan Shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun boshqa tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo'lib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnatni talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab etadi. Bunday tarjima san'at darajasidagi tarjima asar sirasiga kiradi" [8; 3].

Asl nusxa va tarjima mazmunining umumiyligini (semantic yaqinligini) aniqlash uchun ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalari kiritildi. Ekvivalentlik tushunchasi tarjimaning eng muhim xususiyatini ochib beradi va zamonaviy tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biridir. Qolaversa, tarjimashunoslik fani rivojlanishining hozirgi bosqichida badiiy asar qanday tarjima qilinishi, ekvivalent tarjimaga qanday erishish va tarjima qilingan matnni oluvchiga adekvat pragmatic ta'sir ko'rsatish borasida bir fikrga kelinmagan. [10; 1].

Ekvivalent tarjima bu – badiiy matnni to'liq aks ettirib berish va asl nusxa matnining mazmunini saqlagan holda tarjima qilishdir. Shunda xorijiy tilda asliyatning ikkinchi bir varianti vujudga keladi, boshqa so'z bilan aytganda yangi bir asar yaratiladi.

Yirik tarjimashunos olimlardan Ya.L.Resker, A.Shveytser, L.Barxudarov va V.Komissarovning lingvistik tarjima nazariyasiga oid bo'rgan adekvat va

ekvivalent tarjima haqida quyidagi fikrlari bunga isbot boladi : “Adekvat tarjima ekvivalentlikning oily darajasi bo‘lib, unda asliyatning janriy – stilistik talablari, barcha lisoniy va g‘ayrilisoniy (ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot va asliyat va asliyat ruhi saqlangan bo‘ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo‘ladi, ammo har bir ekvivalent tarjimini adekvat deb bo‘lmaydi” [1; 83]. Bundan kelib chiqadiki tarjima asarlar faqat asliyat orqali talqin etiladi, tarjimon adashgan paytda u yana qayta qayta asliyat matniga murojaat qilishi lozim va u alliy matndan uzoqlashmasligi muhim.

Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlikni aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. V.N.Komissarovning fikriga ko‘ra, tarjima jarayonida asl matn va tarjimaning tegishli darajalari o‘rtasida ekvivalentlik munosabatlari o‘rnatiladi. Asl nusxa va tarjima birliklari umuman bir-biriga teng bo‘lishi mumkin hamda ekvivalentlikning maksimal darajasini tanlay bilishidadir [5; 74].

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham, uning ingliz tiliga qilingan tarjimalarida ham ekvivalentlik hodisasini ko‘plab uchratamiz. Asl matnning o‘zida ko‘plab frazeologik birliklar asar tadbilida uning ma‘nolari keltiriladi, tarjimalarida esa turli ko‘rinishlarda tarjima qilinganini guvohi bo‘lamiz.

Misol uchun “ilik olishmoq (jang qilmoq)” frazeologik birligi: *Qorabuloqdin ko‘chub, suv kechib, Yom to‘g‘risida tushtuk. Ushbu kun ba‘zi ichki beklar Xiyobon boshida Boysunqur mirzoning kishisi bila **ilik olishtilar*** [3, 56]. Berilgan misoldagi ajratilgan **ilik olishtilar** frazeologik birlikdir, lekin asar tadbilida **to‘qnashmoq** ekvivalenti bilan berilgan: *Qorabuloqdin o‘tib, suv kechib, Yom to‘g‘risida tushdik. Ushbu kun ba‘zi xos beklar Xiyobon boshida Boysunqur mirzoning odamlari bilan **to‘qnashdilar*** [4; 52].

Tarjima variantlarini J.Leyden va V.Erskinda esa quyidagicha ko‘rishimiz mumkin: *Marching from Kara-bulak, I crossed the river, and halted near Yam. The same day, some of my principal Begs **attacked a body** of Baiesanghar Mirza’s troops on the Khiaban of the city* [7; 43]. – Qorabuloqdan yurib, men daryoni kesib o‘tdim va Yam yonida to‘xtadik. Xuddi shu kuni mening bir necha beklarim shahar xiyobonida Boysunqur mirzoning **askarlariga hamla qildi**.

S.Beverij qilgan tarjimada asl matn quyidagicha tarjima qilingan: *Marching from Qara-bulaq, we crossed the river (i.e. the Zarafshan) and dismounted near Yam. On the same day, our men **got to grips** with Bai-sunghar Mirza’s at the head of the Avenue* [2; 67]. Qora-buloqdan yurib, biz daryoni kesib o‘tdik (masalan Zarafshon) va Yam yonida otdan tushib to‘xtadik. O‘sha kuni bizning kishilar markaziy shahar xiyobonida Boysunqur mirzoning kishilari bilan **to‘qnashdilar**.

Asliyat misoli V.Tekston tarjimasida quyidagicha berilgan: *We moved out of Qara Bulaq, crossed the river, and camped opposite Yam. That very day some of the ichki begs **got into fraced** with Baysunghur Mirza’s men right on the khiaban* [9; 49]. – Biz Qora Buloqni tark etib, daryodan kechib o‘tdik va Yam qarshisida to‘xtadik. Xuddi o‘sha kuni ichki beklar Boysunqur mirzoning yigitlari bilan shundoq shahar Xiyobonida **yuzma-yuz jangqildilar**.

Asliyatni tarjimada qayta yaratishda **ilik olishtilar** frazeologik birligi tadbilda **to‘qnashdilar** birinchi inglizcha tarjimada *attacked a body* – askarlariga hamla qildi; ikkinchi inglizcha tarjimada fel *to grisp with* – ro‘baro‘ kelib qoldilar va uchinchi inglizcha tarjimada *get into fraces* – yuzma-yuz jang qildilar tarzida aks ettirilgan. Har bir tarjimonda mazmun va frazeologik ma‘nolari saqlangan, o‘ziga xo‘sh turdagi tarjima variantlari vujudga kelgan [10; 36].

Bu kabi misollarni “Boburnoma” asarida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Odatda, badiiy tarjimada bir tildagi frazeologik iboralar yoki so‘zni ikkinchi tilga ekvivalentlar yordamida tarjima qilish adekvat tarjima yaratishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Irland olimi Jeyms Joys aytganidek, asliy monand tarjimaga erishish uchun asliyat badiiy – estetik qimmat, ikki til lisoniy vositalarining lug‘aviy muvofiqliklari hamda asliyatga mansub bo‘lgan xalqning moddiy, ma‘naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq omillar tarjimada to‘laqonli aks ettirilishi lozim [5; 56].

Xulosa sifatida shu ta‘kidlash joizki, har bir tarjimon asliy monand, haqiqiy, badiiy estetik jihatdan tarjimaga erishish uchun ekvivalent tarjima masalalarini o‘rganishi va rivojlantirish lozim va asliyatga yaqin adabiyotlarni chet tilida ko‘plab o‘qib, o‘ganishni talab etadi. Ekvivalentlikni aks ettirish uchun tarjimon bilim, ko‘nikma va tajribalarga ega bo‘lishi lozim, shundagina badiiy tarjima adabiyoti durdonalari tarjimalari yanada ko‘payadi va tarjima usullar ham boyib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alekseeva. I.S.”Tarjima nazariyasining asoslari”. S.Pb... 2000-yil .
2. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p.
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – 335 б.
4. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – 287 б.
5. Kazakova. T. A. Tarjimaning amaliy asoslari. S.Pb ... 2001-yil.
6. Komissarov V.N. Tarjima nazariyasi. – M: Oliyshk... 1990- yil.
7. Ochilov E.“Badiiy tarjima masalalri”(o‘quvqo‘llanma) – Tosh. 2014- yil.
8. Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London., 1826. – 432 p.
9. Thackston Wh.M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. – 554 p.
10. Teshaboyeva Z.Q. “Boburnoma”ning lisoniy jozibasi ingliz tarjimonlari talqinida. – Toshkent. “Nodirabegim”. 2021.
11. <https://openscience.uz>

#### **PERSONAJLAR VA BADIY G‘OYA IFODASI**

***Bobur RO‘ZIBOYEV,***

***GulDU tadqiqotchisi***

Adabiyotshunosligimizda qo‘llanilayotgan “obraz”, “personaj”, “xarakter” va “tip” atamaları anglatadigan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ular

adabiy asarda ishtirok etuvchi odamlar tasvirini anglatadi, lekin ayni chogʻda, ularni aynan bir narsa deb tushunmaslik kerak. Chunki ularni bir-biridan ajratib turadigan baʼzi farqlar ham bor. “Obraz” deganda asarda qatnashuvchi barcha odamlar hayoti tasviri (asar sujetida har-xil “yuk” tashuvchi shaxslar – bosh qahramon, asosiy obraz, epizodik obraz) anglashiladi. Asarda ifoda yoʻnalishi va individual ruhiy xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi asar sujetida “katta yuk” tashuvchi shaxslargina xarakter boʻlsa, ijtimoiy guruh yohud sinfning muhim xususiyatlarini ifodalovchi davrning katta umumlashmasi boʻla oladigan xarakter adabiy tip deb yuritiladi. Ogʻzaki va yozma nutqda “personaj” va “obraz” atamaları bir-birining sinonimi sifatida ham qoʻllanilaveradi.

Adabiyotshunos T.Boboyev personajga quyidagicha taʼrif beradi: “Adabiy asarda ishtirok etuvchi, har bir shaxs va voqea rivojida u qadar muhim roʻl oʻynamaydigan epizodik obraz personaj deb yuritiladi” [1, 47]. Xoʻsh, personajlar soʻnggi davr hikoyachiligida qay oʻringa ega, ularning badiiy gʻoya ifodasidagi roli qanday?

Shahodatbonu Imomnazarova “Ilinj” nomli hikoyasida personajlar juda muhim oʻrin tutgan. Ular insonlarning maʼnaviy qiyofasini koʻrsatishda katta badiiy yuk olgan. Hikoyada Amir doʻkonchi, Sanam kampir, Bibigul, Rustam, folbin, Ozoda muallima, oʻqituvchi, bolalar obrazlari mavjud. Asar gʻoyasi insoniylik, mehr-oqibat masalalarini qamrab oladi. Umuman adabiyotshunoslik ilmida badiiy gʻoyaga shunday taʼrif beriladi: “badiiy gʻoya sanʼat asarining mazmunida yotgan umumlashma emotsional va obrazli fikr” [1, 102]. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi hayotning u yoki bu jihati haqidagi fikrini oʻquvchiga yetkazmoqchi boʻladi. Shu fikrni asardagi obrazlar faoliyatiga, qoʻyilgan masalalar zamiriga singdirib yuboradi. Kitobxon asarni oʻqib chiqqach, voqea hodisalar talqinidan, xarakterlar talqinidan gʻoyani topib oladi. Gʻoya asar toʻqimasiga qanchalik chuqur singdirib yuborilgan boʻlsa, uning badiiy tasirchanligi, emotsionalligi shunchalik kuchli boʻladi.

Hikoyada Sanam kampir yetakchi obraz sifatida gavdalanadi. U oʻgʻli Rustamjonning armiyadan kelishini oʻn ikki-yildan buyon kutadi. Hatto uyga “temir quti” kelganda ham, uning oʻgʻli oʻlganligiga hamma ishonsa ham kampir buni tan olmaydi. Uning bu holatini yoritishda Amir doʻkonchi personaji muhim oʻrin tutadi. U kampirga turli gaplar bilan tasalli beradi: “Rustam oʻladigan bola emas, xizmatga ketmasidan oldin ham bir oʻzi beshtasiga bas kelardi. Bizdan ikki sinf past oʻqisa ham gap talashib tortishgani qoʻrqardik. Sogʻ-omon qaytib kelsa ziyofatni boshida oʻzimiz-da...” [2, 53]

Kampirga begona boʻlgan bu odamning soʻzlari uning koʻnglini koʻtardi. Uni oʻziga shu qadar yaqin oldiki, soʻzi soʻngida shunday deydi: “Oʻlsam senga bir omonat qoldiraman. Shu omonatni egasiga topshirasan xoʻpmi?”. Amir kampirga hazil-huzil qilib kuladi, u doʻkondan chiqqach buriqsitib sigaret tutatadi, kampirning ortidan chuqur xoʻrsinib qoʻyadi. Qahramonning bu harakatlari uning chuqur qaygʻusidan dalolat beradi.

Hikoya soʻngida kampir oʻlgach, u qoldirgan omonat, yaʼni, tishlangan ikkita qotgan nonni quchoqlaganicha Amir doʻkonchi yum-yum yigʻlaydi. Bu

insoniy yaqinlik birgina Amir obrazida emas, balki boshqa obrazlar yordamida ham yanada kuchliroq aks ettirilgan. Xususan, Ozoda muallim va maktab bolalari uning holidan xabar olishga kelganidagi suhbat buning isbotidir. Muallima kampirga dalda beradi. O'g'lini maqtaydi, uning sog'-salomat kelishini ta'kidlaydi. Kampir qalbiga umid beradi. Zero, uni hayotda ushlab turgan yagona ilinj o'g'lini ko'rish orzusi edi. Shunday holatlarda butun mahallaning unga dalda, taskin berishi, mehribonchilik ko'rsatishi, albatta, insonlarning oqibatini kampirning xushxulqli inson ekanligini izohlaydi. Bunday personajlarning hikoyalarda ifodalanishi kitobxonning qarashlarida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asarda faqat yetakchi obrazlar emas, balki personajlar ham muhim o'ringa ega. Ya'ni, personaj bosh qahramonning o'ziga xos xususiyatlarini ochishda, uning xarakterini namoyon qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sobir O'nar hikoyalarida kichik hajmning katta ommabop, drammatizmlarga boy voqeyiy xarakteri ochiladi. Shu jihatdan u ingliz hikoyanavisi Somersot Moemning "Luiza", "Tilanchi", "Xonadon" kabi hikoyalaridagi singari butun boshli inson hayoti va qismatini bitta kichik hajmli hikoyaga joylashtira olganligi bilan uning hikoyachilik mahorati o'rganishga arziqli. Uning "Begona odam" hikoyasida ham butun boshli inson hayoti aks ettiriladi. Hikoyaning bosh qahramonlari Matlab va Oqmorol. Bundan tashqari Zamonboy, kolxoz raisi, Ch.Aytmatov, Matyoqub, Oqmorolning ukasi va oilasi kabi personajlar ishtirok etgan. Hikoyada bir to'p qurollangan yigitlar personaji ham mavjud. Ular yovuzlik va ochko'zlik, zolimlik timsoli sifatida gavdalanadi: "O'rischa-qirg'izcha qurama tilda baqira-baqira shu yerda chol bilan birga molboqarlik qilib yurgan Qoraqulni, xotini va ikki go'dak bolasiniyam otib tashlashdi. Ularga tashlanayotgan uchta bo'ribosarniyam avtomatda tarillatib o't ochib yer tishlatishdi" [3, 246]. Boylik va nafs yo'lida inson atalgan hilqatni osongina o'ldirayotgan bu insonlar kishida nafrat uyg'otadi. Bunday kimsalarning jamiyatda ko'plab mavjudligi esa bizning tanazzulimizdir. Hikoyadagi Oqmorolning otasi qo'rqqoq, ikkiyuzlamachi inson sifatida gavdalanadi. U o'z qizining baxtini odamlarning gap-so'zlaridan qo'rqib poymol qiladi: "Oqmorolning Matlabdan qolgan gumonasi bor edi. "Xalq dushmanining bolasi" degan tamg'adan qo'rqib otasi Jambul kasalxonasiga borib bolani oldirib tashlaydi". Natijada, Oqmorol bir umr farzandsiz o'tadi. Yangi qurgan turmushi ham shu tufayli buziladi. Tug'ilmagan farzandning umriga zomin bo'lgan inson farzandini ham baxtsiz qiladi. Bu orqali yozuvchi insoniy irodasizlik, kelajakdan qo'rqish kabi illatlarni qoralaydi. Ularga qarshi kurashishga undaydi. Muallif insonlarning axloqan naqadar tubanligini Oqmorolning ukasi va uning oilasi misolida tasvirlab beradi. Ular yashayotgan joyda suv toshqini kuzatiladi. Hamma vahimaga tushib qolgan. Bu talvasalarda ularning asl qiyofasi namoyon bo'ladi. Ukasining mashinasiga hamma sig'may qoladi. Kimdir toshqin qurboni bo'lishi kerakka o'xshab qoladi. Shunda erkakning kallasi ishlab qoladi: "Old eshikni ochib opasiga ma'noli tikildi. Birdan ko'zlarini piri-piratib: - Opa, - dedi. Kampir bir ma'noni sezib qoldi va bo'shshadi. Uka davom etdi. - Saksonga kirdingiz-a?.. - Men o'lgur...Men o'lgur... - kampir sarosima va hijolat hissi



yuziga urib ukasining nevaralarini itarib-surib mashinadan tushdi. – Xafa bo‘lmangyana, axir sizning yoshingizga kim yetdi, kim yetmadi. Uning ustiga... uyga qorovullik qilib turasiz”.

Ukaning so‘zlari har qanday odamni dahshatga soladi. Tuban kishi ham o‘z tug‘ishgan insoniga bunday munosabatda bo‘lishi dargumon. Bu holat keyingi dialoglarda ham davom etadi: “ – Ukajon, meni qo‘y, men endi bu dunyoning odami emasman. Roziman, - dedi ko‘zlari mo‘ltirab. – E, men buni aytayotganim yo‘q. Mashinaning orqasidan turtib yuboring, yurmayapti. – Ha-ya, esim qursin, kuchim yetarmikan?”. Bu parcha ham ukaning axloqan tubanligidan, ma’naviyati pastligidan dalolat beradi. Hikoyada Matlab va Oqmorolning ayanchli qismati insonni muhabbat bilan yashashga undaydi. Atrofdagilarga e’tiborli bo‘lishga chaqiradi. Qiyinchiliklarni yaqinlar bilan birga yengishga chorlaydi. Kichik janrda bunday keng mazmunning ifodalanishi yozuvchining mahoratini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.,1978. – B.47.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.,1978. – B.102.
3. Sh.Imomnazarova. Ilinj. “Yoshlik” jurnali, 2-son. – T., 2015. –B.53.
4. Sobir O‘nar. Bibisora. – T.,2011 – B.246.

## **SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA 80-YILLAR RUHIYATI TALQINI**

*Namuna NAZAROVA,  
Toshkent shahar 258- maktab o‘qituvchisi*

Har bir ijodkor asarlarida u yashab o‘tgan davr nafasi sezilib turadi. Maxmudxo‘ja Behbudiy boshchilik qilgan jadidchilar ijodiyotida jaholatga qarshi kurash, xalqni ma’rifatli qilib, zulm iskanjasidan xolos qilish asosiy maqsad qilib olingan. Shu kabi keyingi davr ijodkorlari ham o‘z asarlarida xalqni qiynagan, o‘ylantirgan masalalarni, ularga yechim bo‘la oladigan maslamlarni, fikr-mulohazalarni singdirib borgan. “XX asrning boshlaridan boshlab adabiyot jamiyat hayotining barometri bo‘lib kelgan. Bu jarayon ayniqsa qayta qurish yillarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu davrda o‘zbek adabiyoti ijtimoiy-siyosiy tuzumning “qosh-qovog‘iga” qaramay urush davridagi tarixiy mavzularga alohida e’tibor qaratilgan. Qayta-qurish-yillarida Mirmuhsinning “Temur Malik” romani, Muhammad Alining “Sarbadorlar” romani, Azim Suyunning dramatik dostonlarida tarixiy jarayonlar rang-barang bo‘yoqlarda aks etgan. Shu-yillarda yaratilgan Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romanida qayta-qurish davri arafasidagi respublika hayoti, shu davrdagi ayrim tarixiy shaxslarning faoliyati haqiqiy tasvirlangan. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida sobiq sovet davrida ro‘y bergan ayrim voqealarning aql va zakovat qonunidan chetda kechganligiga urg‘u berilgan. Shu-yillarda ijod qilgan A. Oripov, E. Vohidov, H.Xudoyberdiyeva, O‘. Hoshimov, Sh. Xolmirzayev, X. Sultonov, Tog‘ay Murod, U.Azimov, Nazar Eshonqul kabi yozuvchi va shoirlarning she’riy asarlari va hikoyalarida ham sovet davri illatlarini fosh etish ustuvor bo‘lgan”. [3,652-654].

Shoir Sirojiddin Sayyid yurt tashvishi, el g'ami, vatan tarannumi, ona madhi, sevgi nafasi, ezgulik ruhiyati, qabohat iskanjasi, zulumat zulmati, e'tiqodsizlik og'rig'i, insoniy fazilatlar vasfi, mustaqillik epkini kabi bir qator mavzularda qalam tebratgan. Ijodkorning XX asr 80- yillarida yozilgan she'rlarida zulm va razolat qurbonliklariga qalb inqilobi bilan aytgan hur fikrlari o'z aksini topgan. Jumladan, "Saksoninchi-yillar" (1984), "Hayronbog'" (1987), "Qorong'ulikdagi odam yohud mustabidning paymonasi" (1987), "Ma'rifat" (1987), "Qog'oz sigir yoki qo'shib yozish haqida", (1987), "Sariosiyo fojiasi" (1988), "Tanazzul" (1989) kabi she'r va dostonlarida saksoninchi-yillar nafasini yorqin ifodalab bergan.

Shoir "Saksoninchi-yillar" dostonida Vaqt, Zamon, Insoniyat obrazlari orqali hayotning, tinchlikning oliy ne'mat ekanligi, tiriklikning insoniyatga berilgan bir imkoniyati to'g'risida mulohaza yuritib buni asrash, qadriga yetish lozimligi, insonlarning insonlardek yashashi, odamiyligini unutmay hayot kechirishga undovchi fikrlar aks etgan. Dostonda saksoninchi-yillarda dunyo miqyosida ro'y bergan mudhish urushlar, insoniyat fojiasi haqida ham mulohazalar mavjud. Ayniqsa, 1970- yillar so'nggida boshlangan Afg'onistondagi maqsadsiz urush va unda boshqa mustabid xalqlarning er yigitlari kabi o'zbeklarning ham zabardastlari juvonmarg bo'lganliklari haqidagi o'ylar kitobxon diqqatini tortadi.

...Afg'oniston qumlarida  
yiqilganda askarlar  
Men ham yozuv stolimda  
so'zsiz yaralanganman![1, 280]

Afg'onistonga urushga ketgan (o'z yurti, xalqi, oriyati uchun emas, boshqalarning istaklariga bo'ysunishga majbur bo'lgan) akalarining, tengdoshlarining, ukalarining halokatini, bevaqt so'lishini eshitgan, ko'rgan yoki bo'lmasa ong-shuuri bilan shunday bo'lishi muqarrarligini anglab turgan shoir o'zini ham "Men ham yozuv stolimda so'zsiz yaralanganman!" deydi. Bu shunchaki oddiy gap emas. Ularning fojialarini izohlashga so'z ham ojiz, so'z ham topilmaydi. Shoirning esa so'zsiz qolishi uning halokati bilan barobar.

Shoir urushni boshlagan, urushga tashabbus, rag'bat ko'rsatgan har qanday nokasni la'natlaydi.

La'natilar!  
La'natilar!  
La'natilar!  
La'natilar shoirlardan talantliroqdir.  
Shoir yolg'on yozsa agar la'natiroqdir.  
Shuning uchun  
- yillar meni  
lahzalarga topshirar,  
Shuning uchun  
lahzalarim asrlarday shoshirar...[1, 281]

Yuqoridagi misralarda shoir o'ziga nisbatan mas'uliyat hissini yuklaydi. "o'sha la'natilar" bilan qo'lga qurol olib kurashmasa-da, o'tkir qalami bilan mardonavor jang olib boradi. Tuzum siyosatiga, tuzum qarashlariga zid bo'lsa-da

bor haqiqatni yozishga ahd qiladi. Agar matonat bilan kurashmasa o'sha la'natilardan ko'ra la'nati bo'lib qolishdan qattiq qo'rqadi, buni oriyatsizlik hisoblaydi. Bu burch, bu qat'iylik-yillar suronini bir lahzada ko'z oldimizda gavdalantira oladigan she'rni vujudga keltiradi. Vaholanki, bu ma'shum-yillarning har lahzasi asrlarga tatiydi.

Ijodkor "Hayronbog" she'rida saksoninchi-yillarda ekologik holatining manzarasini tasvirlab bergan.

Endi yo'q.

Kundalar kuydirilgandir.

Daraxtlar o'rnida yuzlab dog'endi.

Dunyoda bog'bo'lib nima ko'rding sen,

Hayronbog'nimaga hayronbog'eding? [1, 182]

Tabiatni asrash, muhofaza qilish, odamlarda ekologik madaniyatni shakllantirish o'sha davr tuzum siyosatining dasturidan joy olmagan. Kishilar hayotining yaxshi bo'lishi, sog'lom turmush – tarzi olib borishlari davr "peshvolarini" zig'ircha o'ylantirmas edi. Zero, xalqimiz azal-azaldan mehnatkash, yerni ulug'lagan, tabiatni qadrlab yashashni bilgan. Buni ming- yilliklar silsilasida sayqallanib kelgan maqollar ham isbotlab beradi:

Birovning bergani- ko'rgulik,

Mehnatning bergani- to'ygulik.[2, 24]

Ishyoqmas rohat topmas.[2, 28]

Ishlagan yerni yashnatar,

Ishlamagan- qaqshatar.[2, 29].

Yerga mehr- elga mehr.[2, 452].

Suv keldi- nur keldi.[2, 455]

Suv qatراسi- dur qatراسi.[2, 455]

Birni kessang, o'nni ek kabi.

Shoir davom etadi:

Bir juft uya kabi bo'm – bo'sh ko'zlarim.

Shu ham gap bo'ldimi endi, Hayronbog'?...[1, 183]

"Bir juft uya kabi bo'm – bo'sh ko'zlarim" – bu satrlarda shoir ham qushlar olamining, ham o'z holatining nochorligini, ya'ni bu mammolarga yechim topish bir o'ziga qiyinligini izohlab bergan.

Mustabid tuzumning o'z manfaati yo'lida yurtimizdagi insonlarni, ular bilan birga ona tabiatimizni ham qurbon qilishgani shoirning "Qorong'ulikdagi odam yohud mustabidning paymonasi" she'rida ham yaqqol tasvirlangan. She'r shoir "Meni" va "qora ko'lka" obrazlari o'rtasida fikr – mulohazalar asosiga qurilgan. Har ikkala obraz nutqi orqali she'r g'oyasi o'zini namoyon qilib boradi. Shoir "Meni" aytadi:

Men uni tanidim.

Yurtim bog'larin

Odamlarga qo'shib so'ldirgan ham shu.

Bir umr xor aylab , tazyiq o'tkazib

Ne buyuk zotlarni o'ldirgan ham shu.

“Paxta el boyligi” derdi.

Bu boylik

Elning sog‘ligini yemirar edi.

Dehqon go‘sh t o‘rniga egatlar aro

Ko‘sak, g‘o‘zapoya kemirar edi.[1, 180]

“Qora ko‘lka”- bu mustabid tuzum. Tarixdan ma‘lumki, sovetlar mamlakati uchun unga qaram bo‘lgan xalqlarning barchasi xom- ashyo yetkazib beruvchilik vazifasini o‘tagan. Buning uchun ularning yerlari ham, erlari (xalqi) ham ayab o‘tirilmagan. Birgina paxta mahsuloti yo‘lida necha bir jonlar qurbon bo‘lishgan. Birinchidan, xalq har qanday vaziyatidan( kasal, homilador, qariya, yosh bola, maktab o‘quvchisi, hattoki kichik sinflar) qat’iy nazar majburiy mehnatga jalb qilingan. Ikkinchidan, paxta hosildorligini oshirish uchun kimyoviy dorilardan ayovsiz foydalanilgan. Bu esa kishilar salomatligiga jiddiy putur yetkazgan. Qolaversa, tabiatning asosiy unsurlaridan hisoblangan tuproqning, suvning, havoning ham ifloslanishiga, umuman olganda, ekologiyaning izdan chiqishiga olib kelgan. Shoir “Meni” davom etadi:

Keldi

kelaverdi chinqirab, bo‘zlab

Juvonmarg daryolar, yosh ketgan bog‘lar.

“Billur suvlarimni nima qilding?!” deb

Gumburlab yo‘l oldi mo‘ysafid tog‘lar.

Maktab partalari dalalar uzra.

Bolalarni izlab uchdilar nolon.

Kasalmand tuprog‘im junbushga keldi.[1, 180]

Bu kabi og‘riqli fikrlar shoirning “Sariosiyo fojiasi” she’rida ham davom etadi:

Havoda havo yo‘q,

Yer-u ko‘k –zahar.

Shabnamlar o‘rniga to‘kilar kukun.

Sariq kasaliga chalingan, ey oy,

Men-yil lab o‘tirib yig‘lashim mumkin.[1, 185]

Shoir o‘z misralarida saksoninchi-yillar portretini yaqqol chizib bergan. Afsuski, bundagi bo‘yoqlar qora ranglardan iborat. Ha aytgancha, bunda “sariq” rang ham bor. “Sariq kasaliga chalingan, ey oy,” deya yozgan shoir o‘sha vaqtda kishilarni qiynagan kasallik, hatto oyga ham yuqishga ulgurganligini mohirona tasvirlab, ahvolning nechog‘lik og‘ir ekanligini tilga oladi. Quyidagi misralar kishi qalbini yanada larzaga keltiradi:

Men-yil lab dod solib yig‘lasam hamki

Dehqonning ovqati o‘sha choy-yu non.

Go‘dagiga bermay ko‘krak sutini,

Zahar, deb tuproqqa soqqan onalar,

Xirmon uysalar gar hasratingizdan

Hasratingiz chiqqay million tonnalar.[1, 186]

Go‘dakni-da rizqidan judo qilgan bunday qora o‘tmishni xalq aslo kechira olmagay. She‘rdan ta’sirlangan o‘quvchi ushbu tinch, osoyishta, erkin kunlarimizning qadriga yetadi, uni asraydi. Zero, Sirojiddin Sayyidning maqsadi ham –shu.

“Ma’rifat” she‘rida esa Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlar asarlari, “Boburnoma”, “O‘tkan kunlar” singari adabiyot durdonalarining taqchilligi, kitob do‘konlarida kamsonligi, bunday nodir asarlarga ehtiyoj ko‘p bo‘lishiga qaramasdan nashr adadining kamligi, buning o‘rniga ma’naviyat va adabiyotdan yiroqlarning “ijodlariga” e’tibor qaratilyotganligini tilga oladi. Shoir yozadi:

Do‘konlarda yotgan yolg‘on kitoblar  
Og‘ir gunohlarday qiynaydi meni! [1, 173]

Yuqoridagi satrlar saksoninchi-yillarda ma’naviyatga e’tiborning nechog‘lik ekanligini ko‘rsatib beradi.

“Qog‘oz sigir yoki qo‘shib yozish haqida” she‘ri bizni o‘sha davr hukumat sirlaridan ozgina bo‘lsa-da voqif qiladi. Yolg‘on ko‘rsatmalar, uydurmalar, tuhmatlar xalqning tinkasini quritgan. Birgina “Paxta ishi” masalasi necha-necha kishilarning uyini kuydirgan. Hukumat tepasidagi laganbardorlarning “markazga” yaxshi ko‘rinish uchun “silliqqina” ish olib borishlari xalqdan qurbonlik talab qilgani hech kimga sir emas. Shoir tilga olgan qog‘oz sigir ham shu toifa ishlardan biridir. Lirik qahramonning ham kinoya, ham hazilomuz, ham haqiqatga yo‘g‘rilgan ushbu fikrlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi:

Sut berarding- suting qog‘ozdan,  
Qaymog‘ing ham eting qog‘ozdan.  
Men bulardan totmadim, axir!  
Sen yo‘q eding aslida, Targ‘il. [1, 174]

“Tanazzul” dramatik dostonida ham erksizlik, imonsizlik, vataniga begonalik, laganbardorlik, boqibeg‘amlilik kabi hissiyotlar alanga olgan bir davr tasvirlanadi. Doston qahramonlariga shoir katta ramziy ma’no yuklaydi. Begona- bu tug‘ilgan joyiga begona, ishlab turgan maskaniga begona, atrofdagi hamkasblariga begona, hatto o‘z-o‘ziga begona. Bir vaqtlar unda bunday holat kuzatilmas edi. Vaqt, zamon bu yosh yigitni begonalik komiga tortib ketdi. Soya- bu nurning yo‘lini to‘sguvchi ko‘lanka. Soya o‘z zulumoti bilan har qanday yerni egallashga urinadi. Hatto insonlar qalbi ham bundan mustasno emas. Asarda yana Tanga ko‘zli odam, oshxo‘rlar, “Farmon” ishlab chiqarish birlashmasining xodimi singari faqat va faqat soyalar mamlakatiga xizmat qiluvchi obrazlar ham bor. Ularning maqsadi hammani zulumot qa‘riga tortishdir. Qahramonlar o‘rtasidagi mutlaqo qarama-qarshilik ularning nutqlarida tilga olinadi

Begona begonalikning sababini Soya obrazi bilan suhbat jarayonida aytib o‘tadi:

Sen adashding. Men soyamni yo‘qotmaganman.  
To‘g‘rirog‘i, senga o‘xshab men ham bir soya.  
Shundoq ko‘yga solmish meni e’tiqodsizlik,  
Soyalarning nayranglari bo‘lmishlar doya. [1, 316]

O‘z yurtiga, o‘z tarixiga, o‘z kelajagiga, aslida e‘tiqod asosi hisoblangan “Islom”iga e‘tiqodsizlik yurtimizda begonalar safini ko‘paytirgani rost. Soya obrazi nutqidan ifodalangan quyidagi so‘zlar mustabid hukumatning asl maqsadlarini ochib beradi:

Og‘zingdagi siniq tishday siniq so‘zlarni,  
Ya‘ni, “Imon”, “E‘tiqod” ni tuflab tashlagil.  
Ko‘ribsanki, juldur jahon yorishgay birdan,  
Ko‘z oldingda nozlangaydir tannoz bir hayot.[1, 317]  
Begonaning javobi esa dillarga taskin beradi:  
Qubbalardan yarim oyni uzib otganlar.  
Uzolmagay lekin uni falak toqidan. [1, 321]

Islom e‘toqodi timsoliga aylangan yarim oy qubbalardan uzib olinsa-da Buxori-yu, Motrudiylar, Marg‘inoniy-yu Termiziylar mustahkamlab ketgan dillardan, qalb qo‘rlaridan aslo ketmagay. Bu e‘tiqod mustaqilligimizga erishishimizda, erkka da‘vat ruhidagi mana shunday she‘r–u dostonlarning dunyoga kelishida tamal toshi vazifasini o‘tagan bo‘lsa ne ajab.

Yuqorida tilga olingan asarlar va ularga imkoniyatimiz darajasida qilingan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, og‘ir mehnatlardan, ayovsiz tuhmatlardan, iskanja ichida yashashdan charchagan xalqning birdan- bir ilinji erk, ozodlik, mustaqillik ekani namoyon bo‘ladi. Xalqimizning jonkuyar, iymonli farzandi sifatida Sirojiddin Sayyid bu jarayonlarni qalamga oladi va Vatan mustaqilligiga undovchi keskin, jo‘shqin, shijoatli she‘r va dostonlar tarzda kitoxonga havola etadi. Ularni o‘qish, o‘rganish, tegishli xulosalar chiqarish, amaliyotga tadbiiq etish mustaqilligimizni mustahkamlashga, el-ulus, raiyat, millat manfaatlariga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sirojiddin Sayyid. She‘rlar to‘plami. I jild. –T.: Sharq, 2019. - 480 b.
2. O‘zbek xalq maqollari.(Tuzuvchilar: Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B.) – T.: Sharq, 2005. – 512 b.
3. II.O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Tuzuvchilar: M. Jo‘rayev, R. Nurullin, S. Kamolov va boshqalar. – T.: Sharq, 2000, 688-b.

## **MUAMMO TALQINIDA YETAKCHI QAHRAMONNING O‘RNI**

***Bobur RO‘ZIBOYEV,  
GulDU tadqiqotchisi***

Badiiy asarda obraz muhim ahamiyatga ega. Prof. L.I. Timofeevning fikricha, “Obraz-to‘qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog‘da konkret manzarasi”[1], bundan ko‘rinadiki obraz deganda inson hayotining badiiy manzaralari tushunilar ekan. Hozirgi zamon hikoyachiligida ham o‘ziga hos obraz tizimi yaratilgan. Ular asarda turlicha badiiy “yuk” olgan holga harakatlanadi. Ko‘p harakatlanuvchi obrazni

yetakchi qahramon deyish mumkin. Masalan, milliy adabiyotimizda H. Olimjon qalamiga mansub “Zaynab va Omon” poemasi mavjud. Uning obrazlar tizimi quyidagicha: Adol, Asal, Sora, Surma, Ruhsora, Nuri, Zaynab, Omon, Xuri, Sobir, Anor xola. Bu qahramonlar orasida faol ishtirok etgan, sujetda muhim o‘rin egallagan yetakchi obrazlar Anor xola va Zaynab. Bu holat so‘nggi davr hikoyachiligida qanday va ularning ma‘naviy qiyofasi qay darajada degan savol hammani o‘ylantiradi. Buni Dilorom Abdurahmonning “Tutash yo‘llar” hikoyasi misolida ko‘rib chiqish mumkin. Ushbu hikoya shakl jihatdan to‘rt qism – yo‘ldan iborat bo‘lib, hikoya so‘nggida bu yo‘llar tutashadi. Asarda Saodat, chet eldan tashrif buyurgan sayyohlar, fermar xo‘jaligi rahbari Eshboy aka, Saodatning buvisi, Nadya xola, Lyova amaki kabi qahramonlar ishtirok etadi.

Yetakchi qahramonlar Saodat va Nadya xola. Saodat – tarjimon va yo‘l boshlovchi. U sayyohlarga ko‘hna Samarqand obidalarini, bu yurt urf-odatlarini va asori-atiqalarini tanishtirib yurish, ularga ma‘lumotlar berish bilan shug‘illanadi. U o‘z yurtini, uyini yaqinlarini juda e‘zozlaydi: “Keng jannatmonand hovli, hovlining adog‘ida osmonga bo‘y cho‘zgan ko‘kteraklar... terak shohlarida go‘yo ajib musiqa ohangiga jo‘r bo‘layotgan kabi oq va yashil rangda tovlanib turuvchi raqqosa barglar, teraklarning tagidan sokin jimirlab o‘tuvchi ariq va mehribon buvisining nurafshon siymosi ko‘z o‘ngida birin-ketin nomoyon bo‘ldi. Qalbiga ajib sog‘inch hislarini baxsh etdi...”[2].

Ushbu tasvirlar uning dunyoqarashini namoyon etadi. Uning ruhida bir sirli tilsim mavjud, harakatlari nozik, kuzatuvchan. Unga xayollar - hayotning murakkab tomonlari, insonni kuldiruvchi, yig‘latuvchi onlari tinchlik bermaydi. U sayyohlar bilan Samarqandning ajoyib joylarida bo‘lgan, qishloqlar va fermalarni kezar ekan, uning ruhida, xayoliy olamida buvisi va Nadya xola tiklanadi. Qizigi, ular jiyda ortida Saodatni kuzatishar edi. Saodat ular bilan suhbatlashadi. Nadya holaga yuzlanib uning yaxshiliklarini eslaydi: “shu chog‘beixtiyor ilk kelinlik davri, uzoq joydan kelin bo‘lib tushgani tufayli turmush o‘rtog‘ining keksa momolari “musofir kelin” deya erkalab chaqirishlari, qo‘shni Nadya xolaning esa, xuddi o‘sha kezlarda u kabi “ bir musofir ”ning ko‘nglini tushunguvchi, farzandlarining go‘daklik paytidan boshlab qadrdon bir inson dilcash do‘st kabi yonida maslahatgo‘y, sirdosh bo‘lganligi xayolidan o‘tadi”[3]. Bu tasvirlar Nadya xola obrazining xarakterini ochishga xizmat qilgan. Suhbat so‘ngida Saodat g‘aroyib narsadan hayratga tushadi. Chunki kampirlar orasida to‘siq kabi qalin, bir-biriga tutashib o‘sgan jiyda quyidagi holatda edi: “Chunki yastanib yotgan baland bo‘yli jiyda daraxti shoxlarining yarmida aqiq rangli shoda mevalar g‘arq pishgan, daraxtning yarmi esa xush bo‘y taratib, endi qiyg‘os gulga kirgan edi. Saodat bu sirni yechish uchun xotiralar ummoniga g‘arq bo‘ladi.

Nadya xola hayot yo‘li haqida ham hikoyada ma‘lumot berilgan. Uning kenja qizi ikki o‘g‘li bilan Rossiyaga ko‘chib ketgan, Nadya xolani “ kasalmand, yo‘lga chidolmaydi ” deb yolg‘iz qoldirib ketishgan, to‘ng‘ich qizi esa har zamonda bir kelib, uning nafaqasini so‘rar, qo‘lga ilinadigan biror narsa topib berolmasa uni xafa qilib ketar edi. Chunki Nadya xola ularni go‘dakligidan boqib katta qilgan bo‘lsa-da o‘gay ona edi. U yolg‘iz o‘lishdan, o‘lgach tobutsiz

ko‘milishidan qo‘rqar edi. Buni Saodatning eriga aytganida u shunday javob bergan: “ Babulya avvalo ko‘p yashang, xotirjam bo‘ling, har qanday sharoitda ham besh-oltita taxta topilar, mobodo biror sababga ko‘ra topilmay qolsa, anavi xonangizning to‘rida savlat to‘kib turgan shifoneringizdan yasataman siz aytayotgan narsani. Qarang qanday ko‘rkam o‘ziyam yaltillagan tobut bo‘ladi”[4], deydi. Bundan so‘ng birgalashib kulishgan. Nadya xola unga rahmat aytgan. Nadya xola vafot etgach, qo‘shnilar tomonidan u xohlaganday ko‘miladi. Saodatning eri insoniy munosabatlardagi eng oliyjanob ishni amalga oshirgan. Bu o‘rinda o‘zbekning millat tanlamasligi, bag‘ri kengligi alohida ifodalangan.

Chorrahada voqealar tuguni yechiladi. Saodatning tushlarida, xayolida gavdalanayotgan, uni hayratga solayotgan aqiq rangli shoda-shoda meva solgan yarim jiyda tanasi – bolalari bilan birgalikda baxtiyor onlarni o‘tkazgan, farzand baxtini ko‘rgan, undan mehr olgan buvisining timsoli. Qolgan yarim tanada chaman bo‘lib qiyg‘os gullab turgan jiyda – farzandga zor bo‘lib o‘tgan, o‘zgalarga mehr bergan va lekin mehr ko‘rmagan, begonalardan oqibat ko‘rgan Nadya xola timsoli. U qiyg‘os gulladi, lekin guldek umri behuda sovrildi.

Hikoyada Saodat, Nadya xola kabi yetakchi obrazlar timsolida oqibat, mehr-muhabbat masalalari yoritilgan. Insonning bir-biriga mehr ko‘rsatishi uchun qarindosh yohud millatdosh bo‘lishi shart emasligi, taqdirning yo‘llari shunday turfa xil ekanligi va ularning o‘zaro kesishib turishi ham hikoya asosida yotuvchi asosiy g‘oyalardir. Asarning kompozitsion tuzilishi ham o‘ziga xos. Sarlavhadan so‘ng hikoya to‘rt qismga ajratilgan. Bu qismlar yo‘l deb atalgan. Asarda xulosa qism ham mavjud bo‘lib, u chorraha deya nomlangan. Albatta, bunday tuzilish va nomlanish asar g‘oyasini ochishda va yozuvchi uslubini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoyada qo‘llangan jiyda, shkaf kabi predmet detallar ham inson ma‘naviyatini ko‘rsatishda muhim yuk olgan. Yozuvchi hikoyada ruhiyat va tasvirni uyg‘un holda chizadi. Kichik janrning keng imkoniyatlari ushbu hikoyada yanada namoyon bo‘ladi. So‘nggi davrning ko‘pgina hikoyalardagi ham dunyoviy realistik, ham hayoliy-romantik, ham so‘fiyona-ilohiy talqinlar sintezi – garmoniyasi asarlar poetikasiga ayri-ayri qiyofa baxsh etadi. Betinim fikrlovchi shaxs hikoyalarning qahramoni tarzida namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda roviy bilan qahramonni ajratib bo‘lmay qoladi. Bir qator hikoyalarning monolog tarzida bitilganligi ham tasodifiy emas. “Eng muhimi, ularda so‘nggi-yillar adabiyotimizda, qolaversa, jahon adabiyotida ham tansiq bo‘lib turgan, o‘zida yuksak ideallarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar birin-ketin bo‘y ko‘rsatayotir”[5].

So‘nggi davr hikoyachiligida axloqiy muammolar aks etgan asarlar ham mavjud. Sobir O‘narning “Aka-ukalar” hikoyasida oqibat, oilaviy turmush muammolari, aka-ukalar munosabati kabi masalalar tasvirlangan. Asarda Hoji bobo, uning uch nafar farzandi, Norbo‘ta, Qorabosh, Ko‘mak aka, Olmos kabi obrazlar ishtirok etgan. Hikoyachi qahramon asar boshida tinch-totuv oilaning tasvirini chizadi. Bir uyda Hoji bobo boshchiligida yashayotgan uchta oila juda ahil bo‘ladi. Kelinlari ishchan, o‘g‘illari namozxon. Hikoyachi qahramon quyidagi so‘zlari orqali ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatini tasvirlaydi: “To‘g‘risi,



bizning uyga quyosh Hoji boboning imoratidan oshib tushadi. Oftob bizga nurlarini tashlashdan avval Hoji boboning uyini yoritadi: keng-mo‘l, devor-darmiyonsiz dasht hovlisi”. Bu tasvirdan ko‘rinadiki, oilada yorug‘lik, tinchlik-totuvlik ustun. Devor-darmiyonga hojat yo‘q. Bu oila tilga olinishi bilan quyosh detalining keltirilishi ham ijobiy kayfiyat belgisi. Bu oilaning kenjasi ko‘pkariga qiziqadi. U, hikoyachi qahramon va ikki chavandoz Qorabosh obrazi uyushtirayotgan to‘yda beriladigan ko‘pkariga borishadi: “Men Qizil olmaga emas, shu qishloqning boshidagi qaynotamnikiga, Ingichkaga boramiz, otlarni qantaramiz, joyi bor, ertalab to‘yxonaga tushamiz, dedim. Ko‘mak aka bunga ko‘nmadi. To‘y egasi Qorabosh mening qirq-yil lik qadrdonim, borsak, hamma narsani to‘kib tashlaydi, boshqanikiga borganimizni eshitsu xapa bo‘ladi, deb turib oldi”. Shundan so‘ng qahramonlar Qorabosh polvonnikiga borishadi. Shu joyda tun tasviri beriladi: “Qorong‘u tushgan, lekin elektr yo‘q. Bizdaku, kechqurun ikki-uch soat chiroq yonadi, bu sho‘ring qurg‘urlarda shuyam yo‘q ekan”. Bu tasvirdan kayfiyatda allaqanday tundlik seziladi. Bunday tasvirning o‘zgarishi yozuvchining o‘ziga xos uslubini namoyon qiladi. Qahramonlar to‘y egasining ukasi bo‘lgan Esirgap uyiga qo‘nishadi. Sababi, Qorabosh polvon g‘irt mast bo‘lib qolgan, mehmonlarni kuta olmas edi. Bu tasvirdan kitobxon sergak tortadi. Mehmon kutish odobi biz, o‘zbeklarda muhim an‘ana hisoblanadi. Qorabosh polvonning bu xatti-harakati uning axloqan zaifligidan dalolat beradi. Voqealar rivojini kuzatsak, bu holat oilaviy hammaga xos “hislat” ekan: “O‘rtada moychiroq, kun sovuq, pechkaga o‘tin qalanmagan, kunishibgina o‘tirib oldik. Bir mahal dasturxon keldi, non yo‘q; allazamon o‘tib non keldi, choy yo‘q. Obbo, bu yog‘i necha puldan tushdi endi deb o‘tiraberdik”. Ukasining uyidagi bu holat keyingi tasvirlarda yanada ochiladi: “Ovqatdan darak yo‘q, hech kim xabar olmaydi. Uxlaylik desak, uy sovuq, pechkaga o‘t qalanmagan”. Bunday “mehmondorchilik” ustiga aka-ukalar janjali kelib qo‘shiladi. Mehmonlar tashqariga chiqqanda quyidagi holatga duch keladi: “Ayvonda chol katta varang tayoqni ushlab ikkala yigitga bu yoqqa chiq, ikkovingni urib o‘ldiraman, deb po‘pisa qilayotgan ekan. – Otaxon, qo‘ying, biz siznikiga to‘yga keldik, mehmoningizmiz, - deb yalina-yalina bazo‘r qo‘lidan tayoqni oldik. Yigitlardan birining boshi yorilib yotibdi, qon sharillab oqyapti, ikkinchisining esa yuzlari tinalgan, ko‘zlari qovoqday shishib ketgan”. Bu tasvirlar dastlabki oila tasviriga umuman zid bo‘lgan oilaning ahvolini ko‘rsatadi. Aka-ukalarning oqibatsizligi, onaning hurmati yo‘qligi asarda dialoglar orqali yaqqol gavdalantirilgan: “Jo‘rajon, bizlar tinch ketaylik, do‘xtir chaqir, akangning yarasini bog‘lasin, onangniyam ko‘rib qo‘ysin, dedik. – Do‘xtir uzoqda, men bormayman, - dedi u”. Ushbu dialog bu oila uchun urush-janjal bo‘lishi yangilik emasligi, aka uchun, ona uchun kuyinish hissi umuman yo‘qligi, mehr-oqibatning ko‘tarilganini ochib beradi.

Bunday axloqan tubanlashuv doktor obrazida ham kuzatiladi. Muallif doktorning qiyofasiga alohida belgi chizmaydi. Uning butun qiyofasini birgina nutqiy detall orqali ifodalab beradi: “... Toshtemir do‘xtur kelib boyladi, uningam kayfi borakan, aroq so‘radi, bermab edik, ketib qopti”. Hikoyada ikkinchi bor ichkilikning salbiy qiyofasi ochib beriladi. Uning insoniylik qiyofasini yo‘qotuvchi

vosita, omil ekanligiga urg'u beriladi. Hikoya so'ngida quyidagi tasvir beriladi: "Qishloqqa oshib tushganimizda, garchi kech tushayotgan bo'lsa-da, quyosh chiqdi". Bu tasvir o'sha muhitdan dastlabki sokin, osoyishta muhitga qaytgan qahramonning o'ylari sifatida berilgan. Shu bilan birga Hoji boboning ahil-inoq oilasiga ishora berilgan. Bu hikoya orqali yozuvchi hayotda axloqan buzuvq insonlar bilan bir qatorda xushxulqli insonlar ham mavjudligini ta'kidlaydi. O'zbek hikoyachiligi ikki xil yo'nalishda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik va noan'anaviy modernistik. Yuqorida keltirilgan hikoya an'anaviy realistik uslub namunasi hisoblanadi. Bilamizki, haqiqiy adabiyot real hayotdan shunchaki nusxa ko'chirishdan iborat emas. Unda yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri, romantik hayoloti, original badiiy to'qimasi, badiiy-estetik ideali, muallif dunyoqarashi aks etmog'i lozim. Xususan, S.O'nar hikoyalarida o'zbek millatini tubanlik sari yetaklayotgan mehrsizlik, oqibatsizlik, tubanlashuv singari ma'naviy-axloqiy muammolar asosiy planga chiqariladi. U mitti hajmli hikoya janrida insonga xos muhim salbiy yoki ijobiy hislatni mahorat bilan ochib beradi.

Mahoratli yozuvchi Erkin A'zam qalamiga mansub "Yozuvchi" nomli hikoyada shaxsning axloqiy va ma'naviy qarashlari, tanazzuli va kamoloti masalalari qalamga olingan. Hikoyada yozuvchi, rais, Olashovur(Olloshukur), sutchi ayol va uning ikki nafar farzandi, Saidjalol, uning "akaxoni" va boshqa obrazlar mavjud. Asar oxiriga qadar yozuvchining ko'rgan-kechirganlari, yashash tarziga oid voqealar silsilasi harakatlanadi. Hikoya boshida unga shunday ta'rif beriladi: "U o'rtamiyonagina yozuvchi edi. Bu endi har baloni o'qiyverib osmonga sapchiydigan bo'lib qolgan bizga o'xshash "dono"larning fikri".[6]

Lekin muallif hikoya davomida u haqida quyidagi xulosaga keladi: "Ammo, o'rinsiz andishani chetga qo'yib gapirganda, u maydonda ot surib yurgan dongdor otaxonu akaxonlarning ko'pchiligiga nisbatan asl adabiyotga yaqinroq, hatto uning sodiq fuqarosi edi". Muallifning bunday xulosaga kelishi hikoyaning keyingi o'rinlarida beriladi. Yozuvchining ijodi va uning bog'yaratish voqealari ketma-ket, izchillikda beriladi. Uning ijodda va bog'bonlikda birday mahoratli ekanligiga urg'u beriladi. U inson sifatida ham ijobiy hislatlar egasi bo'ladi. Xususan, bu holat raisning bir ahvoldagi kitobini to'g'irlab berganidan so'ng bu kitobning muvafaqqiyat qozonishi va bu holga yozuvchining munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi: "Shuncha kitob chiqarib yozuvchining o'zi bu qadar ta'rif-tavsif eshitmagan edi. Lekin muallifdan ortiq quvongan bo'lsa quvongandirki, aslo g'ayirligi kelgani yo'q – axir, o'zining mehnati". Yoki rais uni bag'riga bosganidagi holati ham uning qiyofasini ifodalaydi: "Kun bo'yi mashinka chiqillatish asnosi necha bor sho'rlik muallifning "qo'llarini sindirib", yetti pushtining go'riga g'isht qalab charchagan muharrir – mehrga zor banda xuddi umrida ko'rmagan qiblagohi yo jigargo'sha og'asining isini tuygan kabi raisning keng-mo'l, sermuruvvat bag'rida erib ketadi". Hikoyada keltirilgan rais obrazi ham o'ziga xos xarakterli shaxs sifatida gavdalanadi. Uning quyida keltirilgan nutqiy detali buning isbotidir: "Menday bir omi, to'poridan ham shoir yasadinglar-a, qo-yil! Pul, mol-dunyo degani har qanday vallomatini ham quturtirmay qo'ymas ekan".

Hikoyada “Qutlug‘qon” romanidagi obrazlar ham keltirilgan: Yormat. Bu jihat adibning “Aralashqo‘rg‘on” hikoyasida ham kuzatiladi: “Lofchiroq dotsentning aytishicha, bir asr muqaddam bu yerlar mashhur Mirzakarimboyning huv Yo‘lchivoy g‘ayrat ko‘satgan serhosil ekinzori bo‘lgan emish”[7]. Bu ikki hikoya faqat obrazlar tizimi bilangina o‘xshash emas, unda o‘xshash voqealar ham keltiriladi. Masalan, “Aralashqo‘rg‘on” hikoyasidagi quyidagi parchani kuzatamiz: “Qo‘rg‘on ichida bir “Ichan qal‘a”dek bu hovli mahallaning etak tarafida. Asli ikki-yil burun qamalib, qamoqda o‘zini osib qo‘ygan huv nomdor boyvachchaning koshonasi edi bu”. Bu voqea “Yozuvchi” hikoyasidagi bosh qahramon – yozuvchining boy qo‘shnisi va uning fojeali taqdiri tasvirining aynan o‘zidir: “ – Siz kasalxonada yotganda qo‘shningiz qamalib qoldi! – Iye, chatoq bo‘pti-ku! Nima ayb qilgan ekan? – Bu yog‘ini eshiting-da, - deydi allanechuk zavq bilan kasofat. – Qamoqda o‘zini osib qo‘yibdi”. Bu tasvirlarning uyg‘unligi yozuvchining o‘ziga xos uslubidan dalolat beradi.

Erkin A‘zamning “Aralashqo‘rg‘on” nomli hikoyasida tilga olinadigan qahramonlar nomlanmagan. Ular musofir, Kattakon, oqsoqol, fan nomzodi, dotsent kabi nomlar bilan atalgan. Ba‘zi o‘rinlarda ularning nomlari ko‘zga tashlanadi. Hikoyada qahramonlarning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashi ularning nutqi orqali yorqin ochiladi. Masalan, “– Bedodlik! Borib turgan bedodlik bu! – dedi jamoatchi muxbir E.Safar o‘rnidan sapchib. – Bir bechora musofirning bolasini-ya! Yozish kerak! Yozaman!”. Bu nutqiy detall muxbirning jahli tezligidan, nohaqlikka chiday olmasligidan, o‘z kasbi va imkoniyatidan kelib chiqib fikryuritishi, harakatlanishidan dalolat beradi. Hikoyada qahramon ma‘naviyati uning portretidan ham oydinlashadi: “Kattakon kunda-kunora, ko‘pincha kechki salqinda kelar, boshida yosh-yalang rasm qilgan soyaboni serbar qalpoqcha – beysbolka, kalta shim – shorti kiyib olib itining atrofida girdikapalak bo‘lib yurar edi. Goh asilzoda seru ushunday salobatli odam irg‘ishlab u bilan o‘ynashadi, goh, labida sigaret, buklama kursichasida jonivorga o‘ychan tikilib uzoq-uzoq o‘tiradi. It jinnisi”. Afsuski, bu toifa insonlar jamiyatimizda ko‘plab topiladi. Bir qarashda zavq bag‘ishlovchi ermakdek tuyulgan ushbu holat aslida juda ayanchli. Bu inson qiyofasining yo‘qolib borishiga olib keluvchi omillardan biridir.

Hikoyaning muallif tomonidan bunday nomlanishi asardagi joy nomidan kelib chiqqan. Hikoya qahramonlari istiqomat qiladigan mahalla nomi Aralashqo‘rg‘on deb atalgan. Bu asarda quyidagicha beriladi: “Kimdir bu joy ahlini qurama, aralash degandek gap qilgan ekan, mahallaning nomi o‘z-o‘zidan “Aralashqo‘rg‘on” bo‘lib ketdi. To‘g‘ri-da, daydi shopiru oddiy nafaqachidan tortib, sobiq vaziru vahimali prokurorlargacha shu yerda!”. Bu nom majoziy bo‘lib, bu holat har qanday hududda uchrashini e‘tirof etish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. “Yoshlik” jurnali. 2015-yil , 2-son, 41-bet.
2. U.Normatov. Kichik janrlarning katta imkoniyatlari. – T., 2015-yil . – B.425.
4. Sobir O‘nar. Bibisora – T., 2011 – B.238.
- 5.E.A‘zam. Jannat o‘zi qaydadir – T., 2007 – B.150.

## QISMAT

(Rus yozuvchisi V.Shukshinning “Ikkinchi seansga chipta” va Sh.Xolmirzayevning “Qariya” hikoyalari chog‘ishtirma tahlili)

**Hayitbek BILOLOV,**  
**Forish tuman, 2-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi**

Alloh taolo Odamni yaratganida unga qo‘shib taqdirini ham belgilab qo‘yadi. Odam shu taqdir chizig‘ida harakat qiladi. Shunday ekan, kunlar asta-sekin oylarga, oylar esa-yillarga ulanib ketaveradi.-yillar esa odamning umr faslini belgilab beradi. Umri tugab borayotganini his qilgan odam esa unga tayyorgarlik ko‘radi. Odam har qanday vaziyatda ham o‘zini oqlashi, taqdiridan esa nolish holatlari bo‘lishi mumkin. Lekin taqdir shu ekan, deb qo‘l qovushtirib o‘tiradiganlar oramizda kamdan kam topiladi. Biz qiyoslashga urinayotgan ikki millat yozuvchisining ikki xil nomdagi hikoyasi ana shunday taqdir egalarining qismati haqidadir.

Ushbu maqolada rus adabiyoti namoyandasi Vasiliy Shukshinning “Ikkinchi seansga chipta” va taniqli o‘zbek yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning “Qariya” hikoyalari chog‘ishtirma tahlil qilinadi. Ulardagi o‘ziga xos yutuq, o‘xshash jihatlar va milliy mentalitet nimalarda namoyon bo‘lganligi, qanday aks ettirilganligi haqida bahs yuritamiz. *“Epik asarlar o‘rganilayotganda personajlarning xatti-harakatlari uning xarakter mantig‘iga muvofiq kelishi yoki kelmasligi muammosi tahlilning markazida turishi kerak. ... obrazlarning gap-so‘zlari, qiliqlari, fikrlari ularning sajiyalariga muvofiqligi, ruhiy jihatdan asoslanganiga e’tibor qilinishi va asarning asl qiymati ana shulardan keltirib chiqarilishi lozim”*, - deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh. [2, 283]. Ana shulardan kelib chiqib, biz hikoyalarning bosh qahramonlari ruhiy holati orqali yozuvchi chizgilarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

“Ikkinchi seansga chipta” va “Qariya” hikoyalaridagi qahramonlar juda o‘xshash: ikkalasi ham yoshi bir joyga borib qolgan chol. Birinchisi – umri mobaynida yaxshi lavozimda ishlab, boyluk orttirgan va shu boyluk orqasidan “obro‘” topgan shaxs. Ikkinchisi esa qora mehnatda qo‘li qotgan, o‘limligiga yig‘ib qo‘ygan pulini do‘stiga ishonib bergan va oxir oqibatda do‘sti undan tongan – Qo‘ziboy chol.

“Ikkinchi seansga chipta” hikoyasidagi qahramon o‘ziga to‘q, badavlat odam bo‘lishiga qaramay, taqdirning achchig‘ligidan ichkilikka mukkasidan ketgan. Alamini ichkilikdan o‘zgasi ovuta olmaydigan shaxs. Lekin uning bunday qilishiga sabab bo‘ladigan holatlar mavjud. Yoshlik-yillarida lavozimi orqasidan boyluk to‘plab, shu boyluk evaziga bola-chaqasini o‘qitgan. Aysh-u ishratga berilgan Timofeyning oxir-oqibatda yolg‘izlikda qolishi uni shunga majbur etgan. U ruhan qiynalgan va bu qiyinchilikni o‘zidan emas, balki taqdiridan ko‘radi: *“Timofey ruhan qiynalgan damlarda so‘kishni qotirib qo‘yar, go‘yoki yomon ko‘rgan odamini darra bilan ana shunday savalardi. Qattiq ehtiros bilan taqdirga la‘nat o‘qishni qotirib qo‘yardi”*. [3, 5].

Qo‘ziboy chol esa unaqa odamlardan emas. Uning birgina kamchiligi bor, xolos. Hammani o‘zidek his qilishi unga pand beradi.-yillar davomida faqat o‘limligi uchun pul yig‘ib, har qanday ishlarni ham bekam-u ko‘st ado qiladigan Qo‘ziboy cholning birgina kasbi bor edi. U kasb ham yozuvchi ta‘biri bilan aytganda, betayin edi. Shu “betayin” kasbning orqasidan u obro‘ topdi. Ko‘plar unga salom berishga majbur bo‘ldi.

Timofeyning achchiq taqdiridan nolishi, Qo‘ziboy cholning taqdirga ko‘nib, lekin kurashuvchan ohangda paydo bo‘lishi ular o‘rtasida qarama-qarshi turadigan hodisadir.

Timofey o‘z taqdiridan noliganda, o‘z qaynotasiga sirlarini sotib qo‘yganida ham u qayta tug‘ilsam, menga bunday taqdirni ravo ko‘rmagin, deydi. Ayolidan ranjish holatlarini birma-bir eslaydi. Hammasiga ayolini sababchi qilib ko‘rsatishga urinadi. O‘zining barcha kirdikorlariga bosh aybdor qilib boshqa odamni ko‘rsatishga uringan Timofey bunday holatda o‘zi oppoq bo‘lib ko‘rinadi, go‘yo.

Uning aslida kim ekanligi qaynotasiga aytgan quyidagi gaplaridan anglashiladi: *“Qo‘limdan kelganida edi qaynotamni shunday jo‘natardimki, menga qolsa u haliyam o‘sha yerda o‘tirgan bo‘lardi. U buni tilidan topgan bo‘lardi”*. [3, 6].

Qo‘ziboy chol esa taqdirida borini ko‘rib bo‘lgan, do‘stining xiyonati unga quvvatlantiruvchi zarba bergan va o‘sha umid uchquni uni yana alangalatgan edi. Yashashga bo‘lgan tashnalik esa uni turishga, ishlashga undagan.

Shukur Xolmirzayev o‘sha holatdagi qahramonining ruhiy holatini hikoyada quyidagicha aks ettiradi: *“U jimjit uyda, palos ustida cho‘zilib yotib, shu fikrga keldi: “Bu ahvolda men qandoq qilib o‘laman? Asti mumkin emas, sirayam... Men yana mehnat qilishim kerak. Halol pul topishim kerak. O‘limlik qilishim kerak... Undan keyin o‘lsam, boshqa gap...”*. [1, 468].

“Ikkinchi seansga chipta” va “Qariya” hikoyalarining o‘ziga xos o‘xshash jihati qahramonlarning halollik va vijdonni yaxshi va yomon tomondan bo‘lsa ham baralla kuylaganlarida ko‘rinadi. Ikkala qahramon ham buni yaxshi tushunib, angelaydi. Birinchisi juda kech, ikkinchisi esa umri mobaynida shunga kurashib keladi. Ularning kasb-koridan, yashash tarzidan ham buni tezda anglab olishimiz mumkin.

Vasiliy Shukshin hikoyasida detallar o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, qahramon psixologiyasining nutqda aks etishi ko‘proq kuzatiladi: *“... ko‘ngliga qil sig‘mas, hamma narsadan xunobi chiqib yurardi. To‘rt oyoqlab tursa-yu, itday irillasa, hurib yuborsa. Balki yig‘lab ham olarmidi”*. [3, 8]. Yozuvchi qahramonining ruhiy holatini aks ettirishi bilan o‘qirmanni hikoyaga olib kiradi. Ular bilan suhbatlashishga undaydi. Timofeyning qorovul bilan suhbatida ham bu holat ko‘zga tashlanadi: *“Sen iblisni, vijdon yeyapti; butun umr o‘marding... uyga tashiding, biron marta ham qo‘lga tushmading, tekinxo‘r”*. [3, 9].

Timofey o‘zining asl basharasini ochib tashlagan qorovuli Yermolaydan sira achchiqlanmas, chunki ko‘nglidagi g‘alayon ham aslida shundan kelib chiqqanligini tushunib ulgurgan edi. Bunga esa chora izlab qiynalgan va

ichkilikdan alamini olishdan o'zgasini topa bilmagan. Nima qilsin sho'rlik, odam birgina qilgan xatosi uchun ham-yil lab javob berishga majbur.

Yozuvchi Timofeyning kayfiyatini peyzaj bilan yana-da boyitadi: *“Kuz yomg'iri shivalab o'tgandi. Namchil shamol esganidan halqob suvlar yuzasi ajinday tirishdi. Ufq osmoni yorishib quyosh ko'rindi. Yog'och uylar derazasida qahrabo yog'dular zarhallanib, atrofga yorug'lik to'shardi. Kun sovuq, ham zerikarli edi. Barchasining yoqimsizligi-chi?”* [3, 6]. Qahramonning ichki olamidagi maxzunlik ham peyzajga asta-sekinlik bilan ko'chadi. Timofeyga barchasi yoqmaydi. Uning ruhiyatidagi o'zgarish bunga yo'l ochib bergan.

Timofeyning ichidagi g'alayon Yermolay bilan solishtiriladi. O'zini dorbozga qiyoslagan, dor ustidan arang o'tib olib, undan so'ng qo'rquvdan tizzalari qaltirashga tushgan hayot unga nima berdi? Shunday savollar uni qiynar, gohida o'zi ham qo'rquvdan qaltirardi. Timofey mol-davlat uchun yashadi, Yermolay esa o'zi uchun... (*Yermolay va Qo'ziboy cholni bu yerda tenglikda kelib qolganligini ifodalasak bo'ladi*). Timofeyning xayolini shu o'ylar band qilgan. Undan o'zgasi esa ko'ngliga sig'mas edi.

“Qariya”dagi Qo'ziboy chol esa yotib qolgunicha hayotidan mamnun edi. Chunki uning hamma ishlari shu paytgacha joyida bo'lgan. Biroq uni to'rt-yildan beri o'lim vahimasi qiynab keladi. Ayniqsa, miskar og'aynisining olamdan o'tishi unga qattiq ta'sir o'tkazdi. Miskarning dafn marosimi qanday o'tadi? Tadorik ko'rganmikan? Erta men ham o'lganimda qanday bo'larkin? Shu savollar uni qiynaydi. O'ziga o'zi: *“E, rasuli barhaq! Imonimni ber! Birovga yomonlik qilmadim, birovning haqini yemadim. Ko'pning duosini oldim. Ha, farzand ko'rmadim. Senga bir yomonligim o'tgandirda... O'zingga shukur. Qobilboyga ham umr ber”*, [1, 470] - deya ko'p martalab aytadi, tilovat ham qilib qo'yadi. Shu vahima oqibatida u yana ham ko'p ishlashga, o'limi uchun tadorik qilishga intiladi. Hamma qatori u o'limdan qo'rqmaydi, balki o'lganini hech kim bilmay qolishidan qo'rqadi. O'limlik yig'ish va'ji uni yana hayotga qaytaradi.

Qobil qassobning hayoti Timofeyga yaqinroq. Chunki Timofey ham xalqning pulini yegan, Qobil qassob ham xalqdan misqollab, halol topilgan pul – Qo'ziboy cholning pulini o'ziniki qilgan. Timofey vijdoni oldida o'ziga so'roq berib rosa qiynalgan. Qobil qassobning aslida kim ekanligini esa Qo'ziboy chol odamlarga anglatib qo'ygan: *“E, odamlar, eshitmadim demanglar! Suyunchisi bor... Qobil qassob past odam ekan. Men o'limligim deb ming so'm berib qo'ygan edim, tondi. Xaloyiq! U pul sizlarning pulingiz edi. Mening halol mehnatim uchun so'mlab, tiyinlab bergan edingiz. Odamlar, Qobil qassob haromxo'r!”* [1, 471]. Timofeyning asl holatini kitobxonga tanishtirish uchun yozuvchi dialoglardan foydalanadi. Ayniqsa, Timofeyning Polya bilan suhbatini uni ko'z oldimizda yorqinroq aks ettiradi. Undagi birgina jihatga e'tibor qaratamiz:

*“Timofey yana ichdi. U endi hammasini biroz tushunganday bo'ldi; essiz umr, essiz hayot. Yashagani qursin, hammasi kuy.*  
*- Bizning ishimiz, oq buqacha haqidagi ertakka o'xshab ketadi, Polya”.* [3, 9].

Shunchaki kuyga o'xshab o'tib ketgan hayotda "kuy" ohangiga mast bo'lib yashagan Timofeyning qilayotgan barcha ishlari tabiiydek tuyuladi. Biroq uning ishi "oq buqacha haqidagi ertak"dek ayanchlidir.

Hikoyaning oxirida yozuvchining niyati amalga oshadi. Shu paytgacha qahramonining izidan kitobxonni borishgacha majbur qilgan muallif uning, u orqali boy qatlam kishilarining holatini ochib beradi.

Ichkilikning ta'siridan o'zini yo'qotib qo'ygan Timofey qaynotasiga barcha kirdikorlarini aytib beradi. Bilmasdan qilgan xatosidan qo'rqib ketgan Timofey muloyimlik bilan hammasini yotig'iga soladi: *"O'lguday jonga tegdi. Uchdi-ketdi. Alam qiladi. Umrinni ashula aytganday o'tkazib yubordim, ammo ashulani yomon aytdim. Lekin ashula yaxshi edi, essiz. Tomosha uchun, meni kechir"*. [3, 9]. Barchasiga aybdorlik hissi uni qayta tug'ilish haqidagi ertakni o'ylab topishiga sabab bo'ladi. U o'zining hayotini tomosha qilishga arzigulik, ko'rguvchilar uchun esa ibratli emasligini yaxshi bilib, ikkinchi seansga chipta talab qiladi. Ikkinchi seansdagi hayotida esa bunaqangi noma'qulchiliklar qilishni hech qachon xohlamaydi. Lekin bunday bo'lmasligi kitobxonga ayon.

Qo'ziboy cholning hayoti esa ibratli, tomosha qilishga arzigulik, ibrat olsa bo'ladigan. To'g'ri, u o'zi uchun harakat qilgan, lekin odamlarga yaxshilik qilgan, ularning ko'nglini olgan. Shuning uchun ham uning do'stlari ko'p. Boshiga tashvish tushganda yelkadosh bo'ladigan odamlari bor. Shunday bo'lsa ham farzandsizlik oqibatida birovning qo'lida qolish naqadar og'ir ekanligini ich-ichidan his qiladi. To'g'ri, ba'zi vaqtlarda o'kinib qo'yadi ham, biroq uni bunday yashashdan ko'ra kurashish qiziqtiradi.

Timofeyning esa oilasi, farzandlari bo'lishiga qaramay, u yolg'iz. Taqdirning bunday bo'lishiga faqatgina o'zi aybdor.

Yuqorida tilga olingan hikoyalarni solishtirganda bir jihatni aytib o'tish lozim. Insonning boshiga tushgan har qanday tashvishi, iztirobi, quvonchiga uning o'zi sababchi. Vasiliy Shukshin "Ikkinchi seansga chipta" hikoyasida o'zining hayotiy qarashlaridan kelib chiqib, xalq hayotidagi boy qatlamga mansub bo'lgan odamning hayotini chizadi. Uning umri mobaynida qilgan barcha ishlarini tasvirlab beradi. Bu holat keyinchalik qanday oqibatlarga olib kelishini dalillar orqali isbotlashga urinadi, inson taqdiri haqida mulohazalarini bayon etadi.

"Qariya" muallifi jamiyatning o'rtacha qatlami vakili bo'lgan cholning hayotini milliylik nafasi bilan qaytadan jonlantiradi. Bir qariya misolida o'zbekka xos bo'lgan tuyg'ularning, iztirob-u alamlarning holatini aks ettiradi. Qariya kabi halol odamlarni, Qobil qassob kabi pastkash odamlarning hayotini quyma satrlarda bayon etadi. Ulardagi o'ziga xosliklarni tasvirlashga urinadi. Bu holat esa odamning ko'ngil tubidagi insoniylik jihatlarini yuzaga qalqishiga turtki beradi. Insonni o'yga tolishga majbur etadi.

Vasiliy Shukshinning hikoyadagi yutug'i, qahramon psixologiyasi, ruhiyatini ochishda detallardan, dialogik nutqdan, peyzajdan ustalik bilan foydalanishidir.

Shukur Xolmirzayevning bu holatdagi o'ziga xos "chiqishi" qahramon hayotini hikoya qilib berishida namoyon bo'ladi. Qo'ziboy chol xarakterining

o'ziga xosligini faqat yozuvchining gaplaridan bilib olamiz. Uning yoshligidan to shu kungacha o'tgan umrini faqatgina yozuvchi orqali anglaymiz. Jumladan, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko'ra, shu tuyg'ularning paydo bo'lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qayerda ekanini ko'rsatishga ko'proq e'tibor qilgan.

Odamning umr mobaynida qilgan ishlari kelajakda "meva" berishini, bu "meva" "pishish" yoki "to'kilib, tushib ketish" ehtimoli borligini ikkala yozuvchi mahorat bilan tasvirlagan. Yozuvchilarning mahorati shundaki, o'qirman ushbu hikoyalarni mutolaa qilish bilan birga, undan o'zi uchun xulosa chiqaradi, badiiylik, "... *timsolning o'ziga xosligi va adibning san'atkorligi namoyon bo'lganini biladi*". [2, 282]. Inson hayotga nima uchun kelganligi haqida o'ylab ko'rishi kerakligini his qiladi. O'ziga savol berishi lozimligini bilib oladi. Yomon va yaxshi fazilatlar Insonni qayoqqa yetaklashi mumkinligini anglashiga yordam beradi.

Xulosa tariqasida shuni aytish lozimki, hikoyalarda ikki millat vakillarining hayoti, o'ziga xosligi real hayotiy voqeliklar, badiiy to'qima va obrazli fikrlash zamirida juda chiroyli yo'sinda ochib berilgan. Bundan tashqari, ushbu hikoyalar "*tasvirga qamrab olingan hayotiy borliq ko'lamining kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar muayyan voqea-hodisalar fonida idrok etilishi bilan ajralib turadi*". [2, 280].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To'xliyev B. va boshqalar. Adabiyot (majmua), III kitob. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 467-478-betlar.
2. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: "Kamalak" nashriyoti, 2016. 280-286-betlar.
3. "Yoshlik" jurnali, 2014- yil. 9-son. 5-10-betlar.

## **MUSTAQIL FIKRLAYDIGAN O'QUVCHILARNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI**

**D.T.AYTBAYEV,**  
*Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,*  
*filologiya fanlari nomzodi*

Ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish borasidagi yangilanishlar keyingi vaqtlarda ochun miqiyosida keng yo-yilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etdi.

Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanadigan o'quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ta'limning bu usullari o'qitish jarayonining asosiy og'irligi o'quvchilarning zimmasiga ortilishini, o'quvchilar ta'limning obyektini emas, balki sub'ekti, ya'ni ijrochisi bo'lishini taqozo qiladi. Interfaol metodlarning negizida o'qituvchi bilan o'quvchilarning, hamda o'quvchilar bilan o'quvchilarning o'zaro sheriklikdagi faoliyat ko'rsatishi yotadi. Ya'ni interfaol metodlar ta'lim mazmunining to'liq o'zlashtirilishida



o'quvchilarning o'zaro bir-birlari va o'qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etishga qaratiladi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishini ko'zda tutadi.

Interfaol metodlar ta'lim kyechimida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga tayanadi. Bunda o'qish o'quvchi uchun qiziqarli va zarur faoliyatga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanilganda, o'quvchilar o'qitilmaydi, balki o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni ularning o'zlari egallashadi. Bu hol bolalarda mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. Bunday yo'sinda uyushtirilgan ta'lim kyechimining qatnashchilari o'zaro bemalol bahslashadilar, materialni o'zlashtirishni o'zlari xohlaganiday erkin amalga oshirishadi. O'quv topshiriqlarining alohida o'quvchiga emas, balki kichik guruhlardagi barcha bolalarga berilishi ularda jamoa tuyg'usini shakllantirib, tashabbuskor-ligi ortuviga olib keladi.

Interfaol metodlardan foydalanish o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta'lim kyechimi uchun qiziqarlilikning o'zi maqsad bo'lolmaydi. U – vosita, xolos. Interfaol usullar, barcha ilg'or metodlar kabi kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratiladi.

Interfaol metodlardan foydalanish ta'limni faqat fanlar asosida emas, balki obyektiv ochunning o'zidagi kabi sinkretik yo'sinda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bunda o'rganuvchi va o'rgatuvchi o'quv fani tushunchasidan baland turishi talab etiladi. O'qituvchi bolalar oldiga ularni o'rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo'yishi, buning uchun hayotda ko'p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo'lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni o'quvchilarning o'zlari tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo'ladi. O'quvchilarning oldiga qo'yilayotgan muammo o'ylab topilgan sun'iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo'lmasligi kerak.

Interfaol metodlarni qo'llayotgan o'qituvchi biror dars yuzasidan o'quvchilarga topshiriq berayotganda bolani faoliyatga undovchi tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, andaza bering (modellash), tashxis qo'ying, baho bering kabi so'zlarni qo'llagani maqsadga muvofiq. Ta'lim kyechimiga bu xilda aniq vazifalar qo'yish o'quvchilarni izlanishga, faoliyat ko'rsatishga yo'naltiradi.

O'z tajribasida interfaol usullarni qo'llayotgan o'qituvchi qarama-qarshi nuqtai nazarlarni bir-biriga to'qnashtirish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko'zda tutishi kerak. Shunda o'quvchilarda o'z qarashlarini himoya qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi va o'zgalarning fikriga tezlik bilan qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz joylarni darhol topa olish kabi sifatlar shakllanadi. Interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchidan o'rinli berilgan aqlli savollarni qadrlashni, bitta aqlli savolni o'nlab to'g'ri, ammo jo'n javoblardan ustun qo'yishni talab qiladi. Shunday qilinsa, o'quvchilarda chuqur va kerakli savollar berishga ichki ehtiyoj, intilish paydo bo'ladi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammo qo'yganidan keyin o'quvchilarga muammo ustida chuqurroq o'ylash imkonini bera bilishi lozim.

O'quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko'rishiga tayanib ta'lim bermoqchi bo'lgan o'qituvchi bolalar tabiatidagi o'ta qiziquvchanlikdan o'rinli foydalanib, ta'lim kyechimida evristik va tadqiqot usullarini ko'proq qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o'tilganda "izlanish – faraz – yechim – izoh – yangi izlanish" tarzidagi ta'limiy tsikl yuzaga kelsa, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va shaxs sifatida shakllanishlari ta'minlanadi. Bu tsiklda o'quvchilar muammo yuzasidan izlanishlari, izlanishning farazni yuzaga chiqargani, faraz va uni asoslashga urinish muayyan yechimga olib kelgani, o'quvchilar tomonidan tavsiya etilgan yechim o'qituvchi tomonidan izohlangani, bu esa keyingi izlanishlarni keltirib chiqargani aks etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Egamberdiyeva N.M. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.- 363 b.
2. Egamberdiyeva N.M., Xodjayev B.X. Pedagogikaning ayrim dolzarb masalalari: mohiyat, talqin va yechim: Qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. 46-b.
3. Ne'matova H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent, 1998.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1992.

### **ISAJON SULTON IJODIDA BADIY TAFAKKUR SHAKLLARI**

*Sevara BABAYEVA,  
GulDU tayanch doktoranti*

“Eng yuksak ma'nodagi qiroatxonlikka gazeta yoki tasodifiy oldi-qochdi asarlarni o'qib erishib bo'lmaydi, bunga faqat durdona asarlarni mutolaa qilish orqaligina erishmoq mumkin. Ular o'zlariga jiddiy munosabatda bo'lishni talab qilishadi, ular o'zlarining fath etilishlarini istaydi...”[1]

Roman janri boshqa janrlardan hajm va mazmuniy ko'lamdorlik jihatidan farq qilishi haqida yuqorida fikr bildirgan edik. Shu jumladan, romandagi tafakkur, ya'ni romanij tafakkur ham, albatta, o'ziga xos jihatlarga ega sanaladi. Birgina roman yozish asnosida muallif badiiy, obrazli fikrlashdan tashqari, falsafiy, mantiqiy, psixologik, estetik, diniy, mistik, majoziy va yana ko'plab ifoda yo'nalishlarida ijod qilishi, tafakkur qilishi lozim. Isajon Sulton romanlarini tahlil etar ekanmiz, asardagi badiiy tafakkurning nechog'lik serjilva ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni muallif inson ruhiyatining nozik qatlamlarini turli ko'rinishlarda ifoda etadi. Va buning natijasida yaxlit va tugal romanij tafakkur yuzaga keladi. “...Romanij problemani shunga mos qahramon vositasida idrok etish jarayonida jamiyatning joriy holati, olam-u odam haqidagi yaxlit konsepsiya – badiiy falsafa shakllanadiki, bu romanij tafakkur mahsulidir.

Mazkur xususiyatlarni barcha romanlardan izlash, ularni qat'iy qoida deb tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Negaki, janrning asrlar davomidagi takomil yo'lida turli xil va ko'rinishlari vujudga kelgan, roman “shakllanayotgan va hali tayyor

bo‘lmagan yagona janr” sifatida mudom o‘zgarishda yashaydi. Har bir davrning badiiy-estetik talab-ehtiyojlari romanga o‘zgarishlar kiritadi”

Isajon Sultonning romanlarida quyidagi badiiy tafakkur shakllarini uchratish mumkin:

- Falsafiy tafakkur.
- Psixologik tafakkur.
- Mistik tafakkur.
- Majoziy tafakkur.
- Diniy tafakkur.
- Mantiqiy tafakkur.
- Milliy tafakkur.
- Tarixiy tafakkur.

Falsafiy tafakkur yozuvchini o‘yga toldirgan, uning qalbini o‘rtantirgan o‘y va kechinmalarni falsafiy mushohadalar orqali kitobxonga taqdim etish, hayotni o‘ziga xos tarzda ko‘ra bilish va his etish hosilasidir. Falsafiy-badiiy tafakkur, ayniqsa, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” va “Ozod” romanlarida yetakchilik qiladi. “Ozod” romanida keltirilgan akslar falsafasi haqidagi o‘ziga xos fikrlar va manzaralar ifodasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. “Ko‘zga ko‘rinmas muallifning so‘zboshisi”dayoq muallifning so‘z haqidagi falsafiy dunyoqarashidan bahramand bo‘lishimiz mumkin:

“O‘ylanib qolaman: o‘shanda, o‘z aksimni ilk bor ko‘rganimda hayron bo‘lgan yoki hayiqqanmidim? Eslolmayman. Yerto‘lamizda katta-katta ko‘zalar bo‘lar edi. Birining ichida guruch, boshqasida bug‘doy, yog‘saqlanar, ichiga qaramasam ham shaklu shamo- yilidan nima saqlanayotganligini bilardim. Jism ham bir ko‘za kabidir, uni to‘ldirgan narsa insonning ruhidir degan gapni ulg‘aygach eshitdim. Ko‘za aslida loydan yasali olodva pishirilgan sopoldir, ichidagi may tamomila boshqa tabiatga ega latif bir narsa, fikr qilib ko‘rmaysanmi, der edilar. Haqiqiatdan ham, jism deb atalgan g‘ilof ichida, ruh ma‘vosida ummonlar to‘lqinlanmoqda, daryolar oqmoqda, qushlar sayrab, goho yong‘inlar ham ro‘y bermoqda, qo‘poldan-qo‘pol ko‘za uni qanday qilib aks ettira olsin? Ruhning vaziyatlarini yonmas-cho‘kmas, yo‘q bo‘lmas so‘zdan boshqa yana nima ham aks ettira olardi?”[2]

Inson qalbidagi o‘zidan boshqa kimsa ko‘ra olmaydigan, eshita olmaydigan va hattoki his qila olmaydigan g‘alayonlarni faqatgina so‘z orqali ifoda etish, tasvirlash mumkin ekanligi yuqoridagi falsafiy-badiiy matnda teran tasvirlangan.

Psixologik tafakkursiz badiiy asarni tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, asosiy obyekt inson ruhiyatining tub ildizlari bo‘lgan bugungi zamonaviy adabiyotning asosini psixologik tafakkur tashkil etadi, desak adashmagan bo‘lamiz. Aslida badiiy psixologizmning kelib chiqishi va ildizlari adabiyot inson obrazini tasvirlay boshlagan davrlarga borib taqaladi. Aynan o‘sha davrlardan boshlab adabiy qahramon hatti-harakatlarining asosini tashqi holatlarigina emas, balki uning ichki holati, kechinma va ehtiyojlari tashkil eta boshlagan. G‘arb adabiyotshunosligida bu hodisa psixopoetika(badiiy psixologiya) deb ham ataladi.

A.Potebnyaning fikricha, badiiy asarlarda obrazlar muhim boʻlib, har qanday obraz oʻziga xos individual psixologik xususiyatlarga ega boʻladi.

Isajon Sultonning barcha romanlarini psixologik tafakkur mahsuli deyish mumkin. Asarlardagi deyarli barcha qahramonlar ruhiyati obrazli tarzda ochib berilgan:

“Yuragimni dahshat bosib keldi, bu dahshat hayotiy emas, sovuq va xoʻmraygan, sassiz edi. Mangulikning sovuq dahshatimi bu? Balki umriboqiylar menga – hayot odamiga iltijo bilan boqqandirlaru koʻzlari hech narsani ifoda etmay qoʻyganini bilmaslar? Mangulik ichra gapirishni, fikrlarini va hissiyotlarini ifoda etishni unutmangandirlar? Balki mangulik qarshisida fikrlarning ham, hissiyotlarning ham ahamiyati qolmagandir? Shaharning soʻnik koʻchalaridan ortga qarab chopganim esimda... qopqadan otilib chiqqanim ham esimda... hayot ufurib turgan qumlar koʻzimga juda aziz koʻringani, ich-ichimdan toshib kelgan quvonch va shukronalik bilan tiz choʻkkanim esimda... oʻsha paytda haroratli va qadr don boʻlgan “quyosh allaqachon botib boʻlgan, shafaqlari ham koʻzdan yoʻqolmoqdaydi...”[3]

“Boqiy darbadar” romanidan olingan ushbu psixopoetik matn “Mening shahru Haybarim” nomli kitob yozgan sayyoh olim obrazining mangulik kishilari qarshisidagi nochor va gʻarib holatdagi ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Soniya sayin oʻzgarib turuvchi, hattoki insonning oʻzi ham anglab etishga ulgurmay qolgan holatlarni psixologik tasvirlar orqali berish asar mohiyati va qahramon ruhiyatini ochib beruvchi kuchli quroldir. Rus olimlaridan biri A.B.Yesin: “Psixologizm – bu adabiyotning oʻziga xos vositalari koʻmagida xayoliy(toʻqilgan) shaxs(adabiy personaj) his-tuygʻu, fikr va kechinmalarini etarlicha toʻliq, batafsil va chuqur qilib tasvirlash”[4] deya taʼrif berib oʻtgan.

Shuningdek, Isajon Sulton ijodining asl mohiyati diniy-eʼtiqodiy qarashlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Yozuvchi har bir asari negizida diniy tafakkur qirralarini akslantirishga, inson ruhiyatini poklovchi va hayotning shamchirogʻini yoritguvchi nurni iymondan izlashga daʼvat etadi. Romanlarda tasvirlangan deyarli har bir qahramon, birinchi nabatda, oʻzini va atrofidagilarini, jamiki borliq, hayvonotu nabototni yaratq sifatida koʻradi, Allohning mavjudligiga va uning bemisl kuch-qudratiga imon keltiradi. Hattoki Muborak bir zotga qoʻl koʻtarib, Yaratganning tavqi laʼnatiga uchragan, boqiy darbadarlikka mahkum boʻlgan, asrlar davomida sarosar kezgan etikdoʻz ham oʻzining eʼtiqodini quyidagicha ifoda etadi:

“... Men Parvardigorimning imonli bir bandasiman! – deb oʻz monologini boshladi u. – uning abadiy barhayotligiga va bemisl kuch-qudrat egasi ekanligiga, vujudimga kirgan zarra tikan badaliga aql bovar qilmas mukofotlarni ato etadigan va hamma narsani oʻrab-chulgʻab oluvchi hikmatlargacha bino qiladigan muborak zot ekaniga hech qachon shak keltirmaganman...

Ammo siz meni, Azozildan ham malʼunroqsan, deb malomat qildingiz... Roʻzi mahshar kunida uning qay koʻrinishda bino boʻlishining xabarini qaydan bilaqoldingizki, shu ahvolingizda masxaralab, meni ham, uni ham oʻzingizdan past koʻrmoqdasiz?”[73]

Matndan anglashiladiki, muallif badiiy konsepsiyasi e'tiqod va iymon masalalarini birinchi planga qo'yadi. Qolgan kompozitsion unsurlar va barcha mazmuniy detallar uning atrofida birlashadi.

Genetika mutaxassisi Georg Mendel obrazi ham yozuvchi tomonidan mahorat bilan yaratilgan personajdir. Bu qahramon asar davomida faqat bir marta namoyon bo'lsa-da, uning ichki dunyosi va ruhiyati, his-tuyg'ulari, beixtiyor, o'quvchini befarq qoldirmaydi. Umrining qirq-yilini ayni shu fanga bag'ishlagan, mavjudotlarning gen o'ramlari qarshisida soatlab o'yga botgan olimning ong-u shuurida doimo bir savol ko'ndalang turar edi:

“Yaratgan Parvardigorimning nizomini buzishga urinib, xato qilmayapmanmi?”[5]

Bundan anglashiladiki, o'z ilmiy tajribalarining nechog'li dahshat va haybatli ekanligini tushungan olim umri davomida vijdon azobi va og'riqli savollar ichra yashaydi. Biroq uni yo'lidan qaytmaslikka, olg'a intilishga undovchi ilinjlar ham yo'q emas. Ya'niki, bu insoniyatning og'ir mehnatini yengillashtiruvchi, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va umri boqiy bir nasl qoldirish orzusi! Go'yoki bu orzuning ro'yobi butun insoniyatni farovonlikka olib boradi, uning mashaqqatli hayotiga ancha-muncha ijobiy o'zgarishlar olib keladigandek! Ilmiy anjumandagi nutqidan ham qahramonimizning qanchalar izlanuvchan, shu bilan birga, qalbi uyg'oq, e'tiqodi mustahkam inson sifatida tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz:

“...Bugungi kunda tajribaxonalarda son-sanoqsiz jonzoqlar ustida turli-tuman tadqiqotlar o'tkazilmoqda, minglab hayvonlarning tana xususiyatlari, ichki a'zolari, har xil ta'sirlarga munosabati o'rganilmoqda. Biz bu jonzoqlarga ilmu fan taraqqiyoti yo'lida qurbon qilinishi lozim bo'lgan tajriba materiali deb qaraymizmi yohud inson debmi? Tadqiqotlarimiz yangi, barhayot nasl olish yo'lidagi zahmatlar sifatida olqishlanadimi yoki insoniyat ustidan o'tkazilgan g'ayriinsoniy tajribalar deb la'natlanadimi – bu savol ham ochiq qolmoqda...”

Shuningdek, qahramonimiz ilm-fanning eng yuksak cho'qqisi, necha-yil lik tadqiqotlarning natijasi o'laroq dunyoga kelgan umriboqiy va aql-tafakkurda tengsiz jonzoqlarning yaratilishini “Tangrining irodasiga isyon o'laroq, ya'ni, u belgilab bergan hayot-mamot va taqdir chegaralaridan jasurona sakrab o'tib” amalga oshirilganligini ham ta'kidlaydi. Bundan anglashiladiki, “Boqiy darbadar” romanidagi diniy-e'tiqodiy tafakkur asar mohiyatining eng asosiy mezonlaridan biridir.

Yozuvchi ijodiy tafakkurining yana bir o'ziga xos qirralaridan biri asarlarda uchrovchi mistik tafakkurdir. “Mistika” atamasi qo'llanilish jihatidan yangi bo'lsada, aslida insonning ilohiy olamga, g'ayrioddiy holatlarga ishonishi va e'tiqod qilishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarix sahifalarida yuzaga kelgan animizm, ya'ni insonning jon va ruhlarga sig'inishi, e'tiqod qilishi, buning natijasida insonlar ruhiyati va tasavvurida yuzaga keluvchi turli g'ayrioddiy holatlar, hodisalar hayotning mazmunini belgilashda o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Qismat, taqdir kabi tushunchalar ham aynan mistik tafakkur mahsuli sifatida yuzaga keladi:

“ – Himm... Bugun juma, oyning o‘n uchinchi... – nimanidir o‘zicha hisob-kitob qildi Hazrat. So‘ng bolaga achinib qarab turdida: - o‘g‘lim, gapimga diqqat bilan quloq sol, - dedi. – oyning o‘n uchinchi kunida, juma kuni uchib keladigan qora chumchuqlar aslida mudhish va qattol bir qarg‘ishning yukini olib keladilar. Shu gapimni zinhor yodingdan chiqarma.

Bola bu gapni tushunmadi, shu bois ham cholga angrayib qarab qoldi.

Hazrat ancha sukutdan so‘ng:

Xudoning dargohi keng, o‘g‘lim, tavba qil, - dedi, og‘ir tin olib. – aslida kim o‘ylabdi, senday ma‘sum, ishonuvchan bir bolakayga shunaqa taqdir nasib etishini...”

Yuqoridagi matnda tasvirlangan holatni na diniy, na falsafiy jihatdan asoslay olish mumkin emas. Negaki bu suhbat insonlarning g‘ayriodatiy holatlarga nisbatan e‘tiqodi natijasi o‘laroq yuzaga kelgan. Shuning uchun bu erda mistik tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishi ifodalangan deyish mumkin. Bundan anglashiladiki, Isajon Sulton badiiy tafakkurining yana bir qatlami mistik olam bilan chambarchas bog‘liq.

Mantiqiy (analitik) tafakkur shakli ham muallifning deyarli barcha romanlarida ko‘zga tashlanadi. Hayotni mantiqsiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, hayotning in‘ikosi bo‘lmish badiiy asarlarni mantiqiy nuqtayi nazardan ayro holatda yaratib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bu holat nasriy asarlarda sezilarli darajada yaqqolroq aks etadi. Sababi zamonaviy lirik namunalar turli yo‘nalish va oqimlar ta‘sirida kaos(betartib) dunyoning o‘ziga xosligini ifodalasa, romanlar, jumladan, Isajon Sulton romanlari mohiyatida bunday tartibsizlik qatidan mantiq izlayotganligining guvohi bo‘lamiz. Birgina “Boqiy darbadar” romanidagi genetik olimlar tomonidan yaratilgan mukammal mavjudotning tashqi muhitga nisbatan analitik fikrlashi bunga misol bo‘la oladi. U yaratilganligiga hali hech qancha vaqt bo‘lmasidan “Men kimman?”, “Otim nima?” deya atrofga savol beradi, ya‘ni u o‘zining kimligi-yu, yaratilishidan maqsad nima ekanligini, atrofidagi barcha jonzotlardan aqliy va jismoniy jihatdan yuksak ekanligini bilgan holda, bu kuchning nimaga xizmat qilishini, nimaga yo‘naltirilganligini tushunishga qiynaladi. Go‘yoki hayotning mantiqi, muvozanati buzilgandek, bu olamda o‘z o‘rnini topishga mantiqiy ehtiyoj sezadi. Mana shunday murakkab ruhiyatga ega bo‘lgan qahramonlardan Yana biri Professor Ziyoning o‘g‘lidir. Uning butun borlig‘i, kechinmalari, mantiqiy o‘y-fikrlari birgina otasiga yozilgan maktubi orqali ochib beriladi.

“Avlod” deya nomlangan ushbu bo‘lim orqali o‘g‘ilning mehribon, mas‘uliyatli, bilimli, oilaparvar va imon-e‘tiqodli ekanligi anglashiladi. U otaning qadrini, Yaratganning mo‘tabarligini chin insoniy tuyg‘ular ila his etadi, ko‘nglida esa doimo yanada ko‘proq hayot mohiyatini anglashga bo‘lgan ishtiyoq tug‘yon uradi. Kamolot sari intilish qahramon hayotining mohiyatini tashkil etadi: “Ota, abadiy darbadarlikka mahkum bir odam haqida aytgan rivoyatingizni eslaysizmi? Men hozir dunyoning har bir mamlakatida, har bir go‘shasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ham ko‘rmoqdaman. Shunday darbadarlikka mubtalo bo‘lmaslikning yo‘llarini

izlamoqdaman. Kun kelib, ruhim samolarga qarab yo‘l olganida, mukammallikka erishgan zotlar bilan bir qatorda bo‘lishni orzu qilaman...

Muborak zotlar erishgan hikmat qopqalari xalqimning duosi-yu Tangrimning mustajobi tufayli ochilishiga aminman...”

Bundan tashqari, personaj nutqida vatanparvarlik va insonparvarlik kabi xususiyatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. U o‘z vatanining qadrini imonining qiymati bilan tenglashtiradi, ularni bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida ko‘radi. Bu to‘g‘risida o‘ziga xos, teran fikrlarini quyidagicha bayon etadi:

“...Menga yurt shu imonimni himoya qilishim, uni yot ta’sirlardan saqlay olishim, shoyadki Tangrim farzand ato etsa, uni aynan shu ruhda, aynan shu haqiqatlar bilan tarbiyalashim uchun kerak. Shu joyda Imon bilan Vatan degan narsalarning birlashganini ko‘raman. Zotan, ruh tanasiz bu dunyoda mavjud bo‘la olmaganiday, imon ham Vatansiz mavjud bo‘la olmasligini ko‘raman...”

Ko‘rinib turibdiki, bu personaj ham insoniyat uchun mangu dolzarblik kasb etgan hayotiy-mantiqiy masalalar to‘g‘risida bosh qotiradi, yuksak tuyg‘ularni tarannum etadi va bu to‘g‘risida otasi bilan bemalol fikr almasha oladi. O‘tmish va kelajak o‘rtasida qanday qadam tashlash uchun juda teran va mashaqqatli o‘ylarga botgan ushbu qahramon to‘g‘risida Pedagogika fanlari doktori, Professor Qozoqboy Yo‘ldosh o‘zining “Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi” nomli maqolasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi:

“Nazarimizda, asarda professor Ziyoning o‘g‘li obrazi tabiati bir qadar kengroq tasvirlanishi, asoslanilishi va takomilga yetkazilishi lozim edi. Har bitta odamning mavjudligi uning makoni, millati va imonidan tashqarida bo‘lmasligini anglagan, ana shu qadriyatlarga mehr qo‘yilgandagina global falokatlardan emin bo‘linishini tushungan, tabiiy kataklizmlar insonning ma’naviy aynishlari natijasi ekanini ko‘ra olgan yigitning bu haqiqatlarni his etishi yoki uning shu fikrga kelishiga turtki bo‘lgan sabab aks ettirilganda, roman saviyasi yuksalgan bo‘lardir”. Haqiqatdan ham, mazkur qahramonning bunchalar mantiqli, go‘zal va betakror hayotiy xulosalarga kelishi uchun uning o‘ziga taalluqli bo‘lgan hech qanday asos, turtki roman davomida berilmaydi. Bu borada ustoz olim Qozoqboy Yo‘ldosh fikrlarini o‘rinli deb bilaman.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton romanlaridagi badiiy tafakkur shakllari o‘zining xilma-xilligi, mazmuniy to‘yinganligi va ifoda jihatidan mukammalligi bilan asar konsepsiyasini yaratishda ustuvor ahamiyatga ega sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Potebnya A.A. Estetika i poetika. – M.: Iskustvo, 1976. – S. 614.
2. Jahon adiblari adabiyot haqida. Hermann Hesse.//Jahon adabiyoti kutubxonasi. – T., Ma’naviyat. 2010-yil . 32-bet.
3. Бахтин М.М. Вопросы литературы эстетики.– М., 1975. – S.447.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T., Navoiy universiteti. 2018-y. 380-bet.
5. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1988. – С.18.
6. I.Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012- yil. 6-bet.

7. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – T.; O‘zbekiston. 2011-yil
8. Yo‘ldoshev Q. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi //Sharq yulduzi. – Toshkent, 2011 №4. –B. 131-136.

## **TABIAT VA INSON RUHIY KECHINMALARINING SHOIRONA TASVIRI**

*Sevinchoy YOQUBOVA,  
ToshDO‘TAU 2-bosqich tayanch doktoranti*

Sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida tabiat tasviri inson ruhiyatini ifodalash vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda ijodkor mahoratini namoyon etishga yordam bergan. O‘zbek adabiyotsyotshunosligida peyzaj muammosi A.Erkinov [7], N.Yo‘ldoshev [2] kabi olimlarning monografik xarakterdagi ilmiy ishlarida maxsus o‘rganilgan.

Tabiat tasviri bilan bog‘liq betakror lavhalar obraz yaratish uchun ham yo‘naltirilgan. Peyzaj bilan bog‘liq obrazlarning adabiyotimizga kirib kelishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bunday obrazlar dastlab xalq qo‘shiqlari, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida uchraydi.

Asrlar osha davom etib kelayotgan peyzaj bilan bog‘liq an‘analar taraqqiyo etib, ijodkorlar peyzajga shunchaki manzara sifatida qarash bilan cheklanmay, o‘z davrining turli masalalarini, olam va odamga munosabatini ifodalovchi vosita sifatida qarashdi va ular ijodida tabiat tasviri alohida ahamiyat kasb eta boshladi. “Peyzaj tasviri mohiyatsiz o‘z-o‘zicha bir hodisa emas, balki u falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g‘oya, maqsadni ifoda etish uchun o‘ziga xos vosita rolini o‘taydi” [3, 23].

Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy kabi shoirlarimiz ijodida tabiat tasvirining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy “Xamsa”da Farhod, Layli, Majnun, Bahrom, Iskandar kabi qahramonlarining ruhiyatini ochishda peyzajdan mahurat bilan foydalangan. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonida tabiat tasviri va Iskandarning tuyg‘ulari o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanadi. “Qish va bahor tasvirlarining dostoniga olib kirilishi Navoiyning Iskandarga bo‘lgan ikki jihatdan munosabati bilan ham bog‘langandir. Navoiy Iskandarning ijobiy ishlarini quvvatlaydi, unga bahorni hamroh etadi, uning ishlaridan ko‘ngli to‘lmaganida esa qish vositasida unga monelik qiladi “ [8, 42].

Muhammad Rizo Ogahiy ham peyzaj yaratish an‘anasini mahorat bilan davom ettiradi. Shoirning fasllar vasfiga bag‘ishlangan she‘rlari e‘tiborga molikdir:

*Navbahor ayyomi bo‘lsa har kim aysh-u bog‘siz,  
Loladek bir lahza g‘amdin ko‘ngli ermas dog‘siz.  
Kimsa bo‘lsa bog‘-u bo‘stonsiz, agar fasli bahor,  
O‘yla nahlidurki bo‘lg‘oy shohau yafrog‘siz. [6, 220].*

Ogahiyning bahor tasviriga bag‘ishlangan mazkur g‘azalida g‘amginlik ruhi mujassamdir. Undagi navbahor, lola, bog‘, bo‘ston, shox, yaproq so‘z-



tushunchalari orqali g'amginlik, mahzunlik, shuningdek muayyan darajada norozilik tuyg'ulari ham ifodalanadi. She'rdagi tabiatning bahor ayyomidagi go'zal manzarasiyu, jamiyatdagi iqtisodiy nochor insonlar hayoti bir-biriga qarshi qo'yiladi. Tabiat manzarasi va inson taqdiri bog'liqlikda aks ettiriladi [5, 85.].

Mumtoz she'riyatda uzoq asrlar davom etib kelgan peyzaj bilan bog'liq an'analar XX asrda ham ijodkorlarimiz tomonidan davom ettirilgan. Bu davrda o'zbek she'riyatida asosan, inson dardini tabiat voqea-hodisalariga bog'lab tasvirlangan she'rlarni uchramiz. Bu an'analar jadid shoirlarining ko'pchiligi qatori Cho'lpon she'riyatida ham ijodiy davom ettirildi. Bunga Cho'lponning "Somon parcha", "Yorug'yulduzga", "Ko'klam qayg'usi", "Po'rtana", "Binafsha", "Kuz", "Tun" she'rlarini misol qilishimiz mumkin.

"Cho'lpon she'rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatining emas, qay bir darajada g'oya va maslagini ham o'zida namoyon etadi. 1921-1923-yillarda yozilgan she'rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi". [11.289.]. Bu fikrlar tasdig'ini shoir ijodidan ko'plab misollar orqali kuzatishimiz mumkin. Cho'lponning "Sharq nuri"deya atalgan she'ridagi quyidagi misralarga ga e'tibor qaratamiz:

*Sharqning kuni kirsam bulut ostiga,  
Sening so'nuk kunlaringni o'ylayman.  
Botib borgan oyga qarab: "Ay yo'qsul,  
U ulug'nur senmasmu?" - deb so'rayman* [12, 378].

Ushbu satrlarda bulut, nur, oy kabi an'anaviy ramzlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Tilimizning jozibasi, ranginligi, naqadar boyligini namoyon etgan shoir millat boshiga kelgan qora kunlardan chuqur iztirob chekadi. Shoir yurtining qayg'uli kunlarini botayotgan kunga, ya'ni, quyoshga, bulutga to'la osmonga qiyoslaydi.

Shoir lirik qahramoni taqdir oldida taslim bo'lishni istamay ulug'nurdan ya'ni vatanining yorug'kunlaridan umidvorlik tuyg'usini hamisha his qilib yashaydi.

*To'g'rilik quyoshi chiqqanda bo'shalib,  
O'z uchmohimga o'zim kirayin!...* [12, 381].

"Mening tovushim" she'ridan olingan misralarda esa shoir quyosh ramzidan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Shoir qachonlardir, to'g'rilik quyoshi chiqishini, millat o'z orzusidagi hayotga erishishini chin yurakdan tilaydi va anashu kunlar kelganda o'zini jannatdagidek his qilishiga ishonadi. U o'zini xalqdan ajratmaydi, uning bir zarrasi deb biladi.

Cho'lponning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarining ko'pchiligining botinida ham erk haqidagi orzularini ko'rishimiz mumkin:

*Binafsha, sen uchun ko'kragim erk eri,  
Bu erdan ko'klarga uchgil* [12, 452].

Cho'lpon tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik va hamohanglik zarur ekanligini, bu jamiyat va insoniyat uchun tabiiy ehtiyoj ekanligini kuyunib yozadi. "Somon parcha" she'rida ham shu holat yaqqol namoyon bo'ladi:

*Muhit girdobida bir somon parcha,*

*Bir poxol cho'pidek oqib boraman  
Har amal, har ishni "haq" deb boraman,  
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha [12, 481].*

“Binafsha” she’ridan farqli o‘laroq “Somon parcha” she’rida taslimlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ya’ni kurashlardan charchab, o‘zini muhit erkiga topshirgan inson qiyofasini somon parcha misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Barg” she’rida esa:

*O'pmayman shu chog'da farishta malakni,  
O'paman butoqda titragan bir bargni [12, 436 ].*

deya go‘zal misralarni bitadi. Cho‘lpon go‘zallikda farishtalardek malaklardan ko‘ra butoqda titrab turgan bargni afzal ko‘radi. Barg - tiriklik, yasharish faslining, umrning gullagan paytining ramzi. Lekin kuz shamoli nashtarini sanchib bargni yaproqqa aylantiradi. Yaproq esa xazon bo‘lish, inson umrining boqiy emasligi ramzidir. Tabiat sirlarini tushunish insonga hayot hodisalarining mohiyatini anglashda ham katta yordam berishini yaxshi tushungan shoir o‘z she’rlarida xilma-xil betakror tabiat lavhalarini yaratadi.

Cho‘lponning peyzaj lirikasida “Ko‘klam qayg‘usi” she’ri alohida ajralib turadi. Qish xayolidan endigina qutila boshlagan lirik qahramon ko‘klam payti uqubatli uzun qish kechalarini eslashniyam xohlamaydi. Ammo orziqib kutgan ko‘klam ham unchalik quvonchli emas. Shoir bu holatni “Ko‘klam chog‘i ... Sayroq bulbul sayramas, Na uchunkim, tanburimning tili yo‘q” – deya tasvirlaydi. She’rning keyingi misralari nafaqat g‘oyaviy yo‘nalishi, balki obraz va ifodalarga boyligi bilan ham e’tiborga molikdir.

*Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?  
Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?  
Yolg‘iz menmi ko‘kragimni tig‘lagan?  
Yolg‘iz menmi sevinch bilan bo‘lmagan?  
Ey ko‘klamning ko‘z tortg‘uvchi kelini,  
Nima uchun yig‘latasan bir meni? ... [12. 451]*

She’rda bir jihatdan ko‘klam paytidagi tushkun holat, ikkinchi tomondan esa bahorning betakror go‘zalligi mahorat bilan tasvirlangan. Iztirob, yig‘i, aldanish singari tuyg‘ular lirik qahramon qalbiga azob beradi. Ko‘klamdan katta umidlar kutgan lirik qahramon o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Uning orzusi xalqini erkin va ozod ko‘rishdir. Mazkur o‘rinda ko‘klam, qish ramzlari orqali shoir o‘z qarashlarini shoirona ifoda etgan. Tajohilu orif san’ati mahorat bilan qo‘llanilgan.

Ko‘rinadiki, Cho‘lpon she’riyatida millatparvar lirik qahramon siymosini mohirona chizadi. Uning peyzaj lirikasida tabiat bilan bog‘liq ramziy obrazlar hayot mohiyatini anglash va uni shoirona tasvir etishga yordam bergan. Shoir lirikasidagi ko‘klam, bahor, qish, binafsha, barg, quyosh, bulut singari ko‘pgina obrazlar orqali betakror lirik manzaralar yaratadi. Inson, hayot, tabiat va jamiyat bilan bog‘liq muammolarni ramziy tasvirlar orqali betakror holda yoritadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akramov B. Cho‘lpon chindan murakkabmi? /O‘z. A. S., 1990, 13- iyul

2. Yoʻldoshev N. Choʻlpon sheʻriyatida peyzaj. Filologiya fanlari nomzodi...diss. avtoreferati. – T., 1994.
3. Isʻhoqov Y. Navoiy poetikasi. – T., 1983.
4. Karimov N. Choʻlpon. – T., 1991.
5. Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2010
6. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va sanʻat, 1971.
7. Turdiyev Sh. Tong yulduzi qismati. Yoshlik, 1991. № 3.
8. Erkinov A. Navoiyning peyzaj yaratish mahorati. – T., 1990.
9. Erkinov A. Navoiy – peyzaj ustasi. – T.: Fan, 1988.
10. Sharafiddinov O. Choʻlpon. – T., 1991.
11. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2004.
12. Choʻlpon. Yana oldim sozimni. – T.: Gʻafur Gʻulom nashriyoti. 1991.
13. Haqqulov I. Choʻlpon sheʻriyatining xorijda oʻrganilishiga doir. //Oʻzbek tili va adabiyoti, 1992, № 3-4.

## **ISAJON SULTONNING “OZOD” ROMANI KOMPONENTLARIDA BADIY TAFAKKURNING YUZAGA CHIQISHI**

*Sevara BABAYEVA,  
GulDU tayanch doktoranti*

Ijodkor badiiy asar yaratishdan oldin, albatta, uning kompozitsiyasi haqida fikr yuritadi. Fabula, yaʼni voqealarning tabiiy ketma-ketligiga asar konsepsiyasidan kelib chiqqan holda oʻzgartirish kiritadi va yangi badiiy struktura yaratadi. Hayot materialini (dispozitsiya)ni badiiy asar (kompozitsiya)ga aylantiradi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun turli kompozitsion unsurlar(komponentlar)ning oʻrni haqida ham toʻxtalib oʻtish joiz. “Epik asar matni rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi, shu bois ular epik nutqning kompozitsion shakllari sifatida eʼtirof etiladi”[1]

Rivoya asarda tasvirga olingan voqea va hodisalarni hikoya qilish, asardagi makon va zamon uygʻunligini, yaxlitlikni taʼminlab turuvchi muallif nutqi. Tavsif ham muallif tomonidan berilsada, rivoyaning obyektini harakatlanish xususiyatiga ega, tavsif esa bundan mustasno boʻlib, u turgʻun va barqarordir. Peyzaj, interyer, portret kabilar tavsif koʻrinishlaridir. Dialoglar esa oʻz-oʻzidan obrazlar nutqi orqali ifoda etiladi.

Isajon Sultonning “Ozod” romanida bu uchala komponentlarning namunalari tahlilga tortamiz.

“Darhaqiqat, soʻzda sehr bor, deyildi.

Bundan ham haybatliroq soʻz aytishni istab adashganlar aytdilarki: “avval Soʻz boʻlgan edi. Tangri taoloning Soʻzi aytilgach, dunyo yaraldi. Bizlar ham oʻz holimizcha bir soʻz aytdik”. Aytguvchilar mana shu erda adashdilar. U Zotning soʻzi lisoniy emasligini unutdilar...”

Roman yuqoridagi rivoya bilan boshlanadi. Muallif asarda soʻzning mohiyati-yu uning aytuvchi hayotiga qanchalar taʼsir qilishi haqida falsafiy mushohada qiladi. Soʻzning haybati aslida uning bagʻridagi maʼnosida ekanligi, hayot esa faqat akslardan iboratligi haqida aytilgan, kitobxonni ancha oʻyga toldiradigan fikrlar yozuvchi badiiy tafakkurining mahsuli sanaladi. Demak, adabiy asar kompozitsiyasining nechogʻlik pishiq va puxta tarzda dunyo yuzini koʻrishi bevosita muallif badiiy tafakkuri bilan bogʻliq jarayon sanalar ekan. Kompozitsiya va kompozitsion birliklar haqida adabiyotshunos olimlar tomonidan turlicha qarashlar mavjud. Dastlab kompozitsiya anʼanasi antik davrlar ritorikasida qoʻllanilgan boʻlib, inventio (nutqda taqdim etiluvchi predmetlarni yaratish), dispositio (ularni muayyan tartibda joylashtirish), elokutio (nutqqa zeb bergan holda yorqin ifodalash) terminlari badiiy voqelik, kompozitsiya va nutqiy qurilish atamalariga mohiyatan mos keladi [2].

“Badiiy asardagi shakl komponentlarini mazmuni shakllantirish va mazmuni ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi...”

Kompozitsiya asar qismlarini badiiy niyat(muayyan badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalash, koʻzlangan gʻoyaviy-estetik taʼsir) ijrosi uchun eng optimal tarzda joylashtirish, ularning oʻzaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashiladigan tarzda butunlikka biriktirish demakdir”[3]

Shu oʻrinda tavsif ham badiiy asarning muhim komponentlaridan biri sanaladi. Romanlardagi peyzaj va interyer matnlari ham asardagi obrazlilikni taʼminlab, bir qancha detallardan tarkib topgan boʻlishi mumkin.

“Oyning oqish nurlari daraxtlarni, qorayinqirab koʻrinayotgan barglarini-yu mevalarini oqish yogʻduga koʻmib, ohista elanadi. Tuproq iliq va mayin, yogʻdulanayotganday koʻrinadi. Osmonda oy toʻlibdi...”

Mayin shabada yuzingizni silaydi. Ilgʻar-ilgʻanmas tun bagʻrida hayot mudramayotganini, bir qancha jonzotlar nimalar bilandir mashgʻulligini ham payqaysiz. Necha-necha-yillaringizni bagʻrida oʻtkazganingiz eski uy sokin va jim mudraydi, boʻgʻotlariga, suvoqlariga termilasiz, hovli adogʻida otangizdan qolgan bir uy – bir dahlizli imorat ham mudroq ostida. Bu tomonidagi siz qurgan uy balandroq, baquvvatroq... otangizning uyi esa ancha choʻkib qolibdi. Ota va ona ana shu uyda yashab dunyodan oʻtdilar... bitta siz bedor, bitta siz sharpa kabi hovlini kezmoqdasiz”

Ushbu tavsif bir qancha detallarning birikishidan tarkib topgan boʻlib, retsipient koʻz oʻngida yaxlit manzarani paydo qiladi:

Oyning oqish nurlari  
qorayinqirab koʻrinayotgan barglar, mevalar  
oqish yogʻdu iliq va mayin tuproq  
toʻlin oy mayin shabada  
mudroq ostidagi eski uy  
baland va baquvvat yangi solingan uy sharpa

Shuningdek, romanlarning badiiyati, kompozitsiyasi negizida psixologik tasvirning ham oʻrni beqiyosdir. Romanning badiiy qimmatini, oʻqishlilik darajasi,

oddiy bayonchilikka berilgan asarlardan ajratib turadigan jihati ham, albatta, undagi psixologik tasvirning qay darajada mahorat bilan yaratilganligiga bogʻliq. Qahramonlar ruhiyati, kechinmalari, oʻy-xayollari tasviri, ularning xatti-harakatlari, tutumlari, gap-soʻzlari orqali ochib berilayotgan xarakter asarning gʻoyaviy mazmunini ham ochishga katta xizmat qiladi.

Ayniqsa, bugungi kunda yaratilayotgan zamonaviy romanlarda psixologik tasvir oʻzining yuqori choʻqqisiga erishdi, desak mubolagʻa emas. N.Eshonqulning “Goʻroʻgʻli”, U.Hamdanning “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, S.Vafoning “Ovoraning koʻrgan-kechirganlari” va yana bir qator romanlar yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir. Yaʼni, mustaqillik davri oʻzbek adabiyotining, xususan, oʻzbek nasrining oʻziga xos xususiyatlaridan birlamchisi ham inson ruhiyati tasvirining yetakchi planda ekanligidadir. Bu borada Filologiya fanlari doktori Qozoqboy Yoʻldoshning quyidagi fikrlari ahamiyatli:

“Hozirgi nasrda odamga hayot orqali emas, balki hayotga odam tasviri orqali yondashilayotgani koʻzga tashlanadi. Bunday badiiy asarda muallif hayotni oʻrganish va aks ettirishni maqsad qilmaydi, balki bularni tasvirlanayotgan shaxsning tabiatini tushunish va izohlashga vosita hisoblaydi. Odam ruhiyatining tasviri hayot hodisalari va ularning manbasini toʻgʻri tushunish hamda izohlashga ochqich boʻladi. Shu sabab bugungi oʻzbek nasrida inson ruhiyati tovlanishlarini aks ettirish ustuvorlik qilmoqda”[6].

Demak, bugungi oʻzbek adiblari oʻz uslublari ustida ishlar ekan, birinchi navbatda, qahramonlar psixologiyasini ochishga diqqat qaratadilar. Buning uchun, shubxasiz, personaj nutqidan mohirona foydalanish alohida ahamiyatga ega. Negaki, har bir obrazning ichki dunyosini ochishda uning nutqi birlamchi vosita hisoblanadi.

“Yozuvchilar personajlar nutqi orqali ularning oʻziga xos xususiyatlari, ruhiy dunyolarini, yashash tarzlari, xarakterlarining mantigʻini, muayyan sharoit uchun mushtarak tomonlarini ochib beradilar. Shunga koʻra, personajlar nutqi qahramonlarni alohidalashtirish vositasi hisoblanadi”[8].

Isajon sultonning “Ozod” romanida ham qahramonlar ruhiyati oʻziga xos tarzda tasvirlangan. Ota, oʻgʻil, uzumzorlar egasi, Shamol, Ozod, Dilorom, Murtad va boshqa bir qator personajlarning har biri oʻz nutqlari orqali oʻy-fikr, his-tuygʻularini ifoda etadilar. Yozuvchining mahorati shunda koʻrinadiki, romandagi har bir qahramonning ichki dunyosi takrorlanmas, bir-biridan farqli tarzda hayot mantigʻiga ega. Asardagi barcha qahramon oʻylaydi, fikrlaydi, his qiladi, yaʼnikim, harakatlanadi.

“Oʻgʻil” nomli qism aynan shu qahramonning ichki dunyosiga bagʻishlangan boʻlib, qahramon tilidan hikoya qilinadi. Butun umr ekinzorda mehnat qilib, roʻzgʻor tebratgan otasi, qaysidir toʻy palovida serobroq goʻsht boʻlsa, keyinchalik anchagacha maqtab-tamshanib yuradigan qishloqdoshlari hayotiga razm solar ekan, oʻgʻil oʻyga botadi. Oʻzining ham qismati xuddi shunday, nari borsa, shunga oʻxshash ekanligini his qiladi. Uning tafakkur olamini turli jumboqlar, mavhum savollar band eta boshlaydi:

“To‘ylarda yayraymiz, keyinchalik esa yangi kelin-kuyovning ham ohori ketib qoladi go‘yo... kun o‘tgan sayin xiralashib, elga qo‘shilib borayotganday tuyuladi... kelinning oq yuzlari, kuyovning chaqnoq ko‘zlari tussizlashadi... ular ham mehnatdan bosh ko‘tarishmaydi... kelinning yer chopayotganini, mehnatga ko‘milib ketganini ko‘raman... hamma-hammasi haybatli bir savol bo‘lib boshimga kelib osilib turaveradi: odam bolasi dunyoga nimaga keladi o‘zi?”

Ko‘rinadiki, qahramon o‘z xayollari girdobiga shu darajada sho‘ng‘iganki, hatto barcha uchun oddiy holdek bo‘lib ko‘ringan holatlar uning qalbini larzaga keltiradi, shuurida ulkan bir bo‘shliqni paydo qiladi, umrning mohiyati haqida o‘yga toldiradi.

Asarda personaj nutqi ko‘proq monolog tarzida ifoda etilgan.

“Adabiy asarda personajning boshqalarga qarata so‘zlashi yoki o‘z-o‘zi bilan ruhan suhbatlashishi monolog deb ataladi...

Monolog qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, har doim qahramonlar ruhiy olamini, ongidagi o‘zgarishlarni, turli kishilarga, narsa-hodisalarga munosabatini anglatishga olib keladi”[9].

Romandagi monologlarda zohiriy olamning qahramon botinida qanday tovlanayotganligi, akslanishlari tasvir etiladi. Qahramon ismi berilmagan bo‘lsa-da, uning “o‘g‘il” deya nomlanishi bu obraz elkasiga qanday yuk, qancha ma’nolar ortilganligidan darak beradi. U, eng avvalo, farzand, shuning uchun ong-u shuurini, birlamchi navbatda, ota-ona to‘g‘risidagi mushohadalar band etadi:

“Ey bolai nodon, otaning qanday zot ekanini qaydan bilarding, deydilar keksalar. Onaning kimligini qaydan ham bilarding? Dunyoning bor sarvati ona qadamining bitta iziga arzirmidi? Ey o‘g‘lon, onangga, onangga, onangga, undan keyin otangga yaxshilik qil! Ajabo, ona otadan ham muborakmi deb hayron bo‘lsam, kulimsirab tushuntiradilar: “shunchalar mukarram bo‘lgan onang otangning izmida ekanini ko‘rmayapsanmi?...”

Bu kabi kishini o‘yga toldiradigan, ichzil va murakkab ruhiyat egasi bo‘lgan qahramonlar va ularning psixologik tasvirlariga asar davomida ko‘p bora guvoh bo‘lamiz. Psixologik tasvirning o‘zi ham turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, mantiqiy mazmun-mohiyatga ega.

“Ma‘lumki, badiiy ijodda qahramon obrazini yaratishda shaxsning biror ruhiy holati, emotsional dunyosi, shaxsiy energiasi va potensial imkoniyati badiiy gavdalantiriladi. Bu borada ichki nutq, dialog va epik hikoyalashning roli favqulodda muhim. Ichki nutqda, asosan, kishining birovga oshkor qilish mumkin bo‘lmagan his-tuyg‘ulari, kechinmalari ifodalansa, dialogda bahslar, o‘zaro fikr almashuvlar, suhbatlar va dunyoqarashlar “janggi” asosiy hisoblanadi. Muayyan murakkab vaziyatlarda esa qahramonlar o‘zlarining qalbini, shaxsiy intilishlarini ichki nutqda ochib beradi. Epik hikoyalashda esa qahramon o‘zi aytolmagan, ifoda qilishga qiynalgan holatlarni yozuvchi (avtor nutqi orqali) butun murakkabligi bilan o‘quvchiga namoyon etadi”.

Yuqorida keltirilgan misollarimiz ichki nutqning yorqin namunalari bo‘lib, qahramon ko‘nglidan va tafakkuridan o‘tkazayotgan so‘zlarini, mushohadalarini hech kimga ayta olmaydi. Uning butun ruhiyatini band etgan, ongiga singib ketgan

savollarga faqat uning o'zigina javob bera oladi. Psixologik tasvirning bunday ko'rinishi qahramon ruhiyatini ochib berishda eng muhim vosita sanaladi. Chunki inson faqat o'zi bilna so'zlashganlagina o'z qiyofasida, o'zligida bo'ladi.

Shuningdek, romanda ko'plab dialoglarni ham uchratish mumkin. Romanda keltirilgan dialoglar boshqa asarlardan farqli o'laroq, falsafiy mazmunga boy bo'lib, o'quvchini o'ylantirmasdan qo'ymaydi. "Dialoglar personajlarning o'zaro munosabatlarini, ruhiy dunyolarini, xarakter qirralarini va umuman, asarning mazmunini ochishda muayyan vazifani ado etadi".

Shu o'rinda Ozod va shamol o'rtasidagi quyidagi suhbatga e'tibor beraylik:  
"Shamol javob berdi:

Men bir odamni ko'rganman. U chuqur tubida edi, chuqurda chayonlar va ilonlar bor bo'lib, azob berishar edi. Bir necha-yildan buyon mana shu uqubat ichida qiynalardi. Bir kuni kimlardir kelib, uni chuqurdan chiqardilar, mayin maysalar ungan, ko'm-ko'k suvlar sharqirab oqqan joyga oldilar.

Bu ramzni tushundim, - dedi Ozod. – Men yanada chuqurroq qatlamni ko'rmoqchiman.

Rumuz shunday narsaki, u ketganlar uchun emas, dunyoda qolganlar uchun rumuzdir, - dedi shamol. – ketganlar uchun asl narsa boshqa, sen yana xato qilding. Xatoim nimada? –dedi Ozod.

Rumuzning ostida hikmat bor, - deb javob berdi shamol. – Sen o'sha hikmatning ham tubiga boq. Fitratingning pardalari ostidagi yana bir parda ochilsa, tamomila boshqa hodisalarni ko'ra boshlaysan... ”

Bu suhbat orqali Ozodning hali yosh, hayot ma'nolari oldida ojiz ekanligini, shamolning donishmandlik ramzi, nuroniy bir oqsoqol timsolida ekanligini anglaymiz. Lekin voqealar rivoji davomida bu ikki qahramon ham bemisl o'zgarishlarga duch keladi va Ozodning ruhiyatida yuksak o'zgarish sodir bo'ladi. Buni ham quyidagi dialog orqali kuzatamiz:

“- U yoqlarda sen ham, men ham bilmaydigan haqiqatlar borgan o'xshaydi, - dedi Ozod. – Men bundan ham nariga borishni istayman. Balki rostdan ham u dunyoga o'tguvchi tuynuk bordir?

Yo'q, men bundan nariga o'tolmayman, - dedi shamol, yanada shiddati pasayib.

Seni tushundim, - dedi Ozod. – Bir senigina emas, boshqalarning aytganlarini ham tushunib etdim.

Shamol endi yer bag'irlab muloyim esardi.

Senga bo'ysunaman, ey aziz va mukaram zot, - dedi u shivirlab. – lekin, endi keragim yo'qqa o'xshaydi. Izn ber, izimga qaytay va azaliy ishimda davom etay.

To'g'ri, endi keraging yo'q, - dedi Ozod va amr qildi: - Ey Tangrim yaratgan zot! Halok bo'lmasingdan yer uzra yaslan va amrimni kutib tur...”

Psixologik tasvirning bu ko'rinishi qahramonlar tabiati va ruhiy olamini kitobxonga yaqqol ko'rsatadi va ularning xarakterini ochib beradi. "Ozod" romanidagi dialoglar ham ayni maqsadlarda yuqori mahorat bilan yaratilgan bo'lib, asar saviyasining ortishida o'z hissasiga ega.

Epik hikoyalash esa ichki nutq va dialogdan birmuncha farq qilib, bunda qahramon soʻzlamaydi. Balki muallif tilidan harakatga keltiriladi. Uning oʻy-fikrlari, his-tuygʻulari muallif tomonidan hikoya qilinadi, tasvirlanadi. Bu usulning ham oʻziga xos xususiyatlari boʻlib, bu haqida Professor Qozoqboy Yoʻldosh quyidagi fikrlarni keltirib oʻtadi:

“Personaj ichki dunyosini uchinchi shaxs tomonidan koʻrsatish usuli ham oʻz afzalliklariga ega. Ruhiiy tasvirning bu shaklida muallif oʻqirmanni hech qanday cheklashlarsiz qahramon ichki dunyosining barcha yashirin puchmoqlariga kiritib, uning ichki olamini batafsil hamda chuqur koʻrsata oladi. Yozuvchi uchun qahramon ichki olamining sirli va nomaʼlum joyi yoʻqligi sabab ichki ruhiy jarayonlarni eng mayda tafsilotlarigacha biladi va ularda sodir boʻlayotgan kattakichik oʻzgarishlarni tasvirlab bera oladi...”

“Ozod” romanida keltirilgan epik hikoyalashning namunalariga eʼtibor qaratamiz. Bosh qahramon Ozod afsonaviy Humo qushini izlab topadi. Umr mashaqqatlarining baxt-u saodatga aylanishi ramzi hisoblangan bu qush esa Ozodning yelkasiga qoʻnmay uchib ketadi. Bu holdan chuqur hasrat va nadomatga botgan qahramon ruhiyati muallif tilidan quyidagicha tasvir etiladi:

“... Oydinkoʻl baribir qurishga mahkum, Tuz choʻli kichraya-kichraya, odamlar kelib oʻzlarini koʻmib shifo istaydigan oddiy maʼdanli qum shaklini olar, otlar sadoqati haqidagi rivoyat hech qachon boʻlmagan choʻpchakka aylanar, umrning maʼnosi ham yoʻqolib, koʻp qattiq safar shaklini oladiganday... oʻzi esa hayotining soʻngida, bir mahallar otasi oʻtqazgan behining tubida chor-nochor “sen ham menday qartayibsanku” deb iztirob chekadiganday... taqdirni tamoman oʻzgartiruvchi, hikmatlarga toʻlugʻajal farishtasi Qobiz esa “Umrini behudaga sarf qilgan bu ruhni yer yuzidan koʻtaringiz” degan amr ostida jonini qiynab oladiganday... shularning bari bir lahzalik charxpalak kabi aqlini shoshirmoqda, ruhini qoʻrqitmoqda edi...”

Bu usulning ham oʻz oʻrni va meʼyori boʻlib, uni asarning duch kelgan joyida nooʻrin qoʻllash badiiy asar inqiroziga olib kelishi mumkin. Demak, qahramon ruhiyatini ochuvchi har qanday holatni ham muallif tilidan berib boʻlmaydi, shuningdek, muallifga taalluqli jummalarni qahramon tilidan berish ham toʻgʻri emas. Shu oʻrinda quyidagi fikrlarni keltirib oʻtish joiz:

“Bizda koʻp kishilar avtor aytmoqchi boʻlgan gapni qahramonlar gapirsa qiziqroq boʻlardiki, deb oʻylashadi. Bu xato. Avtor aytishi lozim boʻlgan gapni qahramonlardan birortasiga topshirish yaramaydi. Shunday qilingan taqdirda qahramonlar tussiz boʻlib qoladi, avtorning jarchisiga aylanadi. Qahramonlar aytishi kerak gaplarni esa, avtor oʻz ustiga olib, uchinchi shaxs tilidan gapirmasligi kerak”[6].

Koʻrinib turibdiki, epik hikoyalashda yozuvchi nihoyatda sinchkovlik bilan yondashishi kerak boʻladi. Demak, qahramonning koʻnglidan kechgan, hech kim bilan boʻlisha olmaydigan gaplarining hammasini ham ichki nutq orqali bera olmas ekanmiz. Bunday hollarda epik hikoyalashdan mohirona foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.



Xulosa qilib aytganda, badiiy asar kompozitsiyasini vujudga keltiruvchi kompozitsion unsurlar muallif badiiy tafakkurini ham bevosita ochib beruvchi vosita sanaladi. Isajon Sultonning “Ozod” romanidagi badiiy komponentlar roman strukturasini yuzaga keltirish bilan bir qatorda asarning g‘oyaviy-estetik jihatlarining namoyon bo‘lishida ham muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti. 2018-yil .
2. Yo‘ldoshev Q, M.Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T. –2016 y. 201-202-betlar.
3. E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., O‘AJBNT markazi. 2003-y, 119-bet.
4. Ch.Niyatov. Hozirgi o‘zbek prozasida xaeakter problemi. –T. Fan. 1984-y, 84-bet.
5. Nasr: bugun va ertaga. (Abduqayum Yo‘ldoshev tomonidan o‘tkazilgan davra suhbat). //O‘zAS. – T.: 2015-y. 6-noyabr, № 45 (4340), 4-bet.
6. I.Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012- yil.

#### **ABDULLA ORIPOV IJODIDA HIKMAT VA BADIYYAT UYG‘UNLIGI**

***O‘g‘ilnor RO‘ZIYEVA,***

*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab- internati o‘qituvchisi*

Milliy she‘riyatimiz sahnida o‘z muqim o‘rniga ega bo‘lgan, alohida e‘tirof etilgan yorqin figuralardan biri, shubhasiz, Abdulla Oripovdir. Shoir she‘rlaridagi falsafa, hikmat va badiiy estetikaning qorishiq tasviri ijodkorning o‘ziga xosligini ta‘min etgan jihatlardan biri hisoblanadi. Qabarda-Bolqor xalq shoiri Qaysin Quliyev “Tug‘ma iste‘dod” maqolasida Abdulla Oripov haqida gapira turib, jumladan, shunday degan edi: “Abdulla Oripov so‘zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o‘z bilishicha, o‘ziga xos nazar bilan ko‘radi. O‘zbek poeziyasini yangi, katta iste‘dod bilan tabriklasa bo‘ladi. Abdulla Oripov she‘rlari bilan har bir uchrashuv she‘riyat bayramiga aylanib ketadi”. [1] Darhaqiqat, shoir she‘rlari qatidagi falsafiy mushohadalarni, ruhiy intellektni anglash, idrok etish va monand jihatlarini shaxsiy fenomenga qabul qilish bugunning kitobxonlari uchun ham chinakam bayramdir. Shoir 1984-yil yozgan quyidagi to‘rtligida olamning moyasini, odamning mohiyatini anglashga qiynalayotgan urinchoq ko‘ngilni ifodalar ekan, juda tanish hissiyotning suratini chizib qo‘lingizga beradi go‘yo.

Bilaman, o‘tadi shodlik bilan g‘am,  
Bilaman, g‘animat erur har bir dam.  
Payg‘ambar atadim har zotni, ammo,  
Muridim demadi hech bitta odam.

She‘rda qabarib turgan iztirob, kuchsizgina isyon, dardga qorilgan shikoyat kitobxonni lirik qahramon bilan, qo‘yingki, shoirning o‘zi bilan hamdardga, hasratdoshga evriltiradi. Ushbu satrlar hazrat Navoiyning “Mehr ko‘p ko‘rguzdim

ammo, mehribone topmadim” misralarini yodga soladi va mana shu holat aziz bir lahzani, tanish bir tuyg‘uni ko‘ngilga soladiki, bundan dardchil huzurni tuymoq mumkin bo‘ladi.

Badiiy asarni, ayniqsa, lirik tur janrlarini oddiy o‘qirman pozitsiyasidan turib baholash, tahlil qilish mutolaadan olingan taassurot darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi tabiiy holdir. Ana shu taassurotni mantiqiy va matniy analiz qilish, asoslash, ilmiy bilish obyektini yaratish badiiy poetikani hosil qiladi. Abdulla Oripov she‘riyati badiiylik nuqtai nazaridan yyetuk poetik estetizmdir. Shoirning shunday she‘rlari borki, nihoyatda ta‘sir kuchi yuqori, chunki unda folklorizm, xalqona ohang ustuvorlik qiladi va bu holat badiiy yaratilishning o‘qishlilikini oshiradi, ta‘sir diapazonining kengayishini ta‘minlaydi:

Ravo ko‘r, yuzingda bir xol bo‘layin,  
Ko‘rsat ag‘yoringni, zavol bo‘layin.  
Kattakon to‘y qilib nog‘ora chalgin,  
To‘yingda suv tashib hammol bo‘layin.

Yuqoridagi she‘rda ifodalangan tasvir juda oddiydek ko‘rinsa-da, yashirin iztirob qiyofasini yaqqol his qilish mumkin: misralar mazmunida shunchaki mabubasi uchun hamma narsaga tayyor mahbub emas, ma‘shuqasi yuzida xol bo‘lishni orzulagan, sevgilisining raqiblari bilan kurashub zavol topishga ham tayyor turgan, yorining vasliga yetish umidi so‘nib, uning to‘yida hammoldek xizmat qilishga tayyor bo‘lgan oshiq og‘riqlari ifodasini ko‘ramiz. To‘rtlikdagi nomsiz tuyg‘ular tarannumi va folklorizmga xos ohang uyg‘unligi she‘r jozibasini yaqqollantirgan. Shoirning bu kabi yombi tuyg‘ular ifodasi o‘laroq yaratilgan misralari bisyor, albatta.

Badiiy asar, jumladan sheriya ham har xil hujayralardan tashkil topgan tirik organizm bo‘lib, ularning yaxlitligini ta‘minlaydigan jihatlardan biri uyg‘unlikdir. Uyg‘unlik – poetikaning atributi (xarakterli belgisi) sifatida namoyon bo‘ladi. “Qur‘oni Karimning “Nuh” surasi, 15-oyatida aytiladiki: “Ko‘radingizmi, Alloh yetti osmonni qanday qavat-qavat yaratdi”. Yagona Rahmon – Karim va Samad zotning bu yaratishida biror nuqsonni yoki yoriqni ko‘rmasligimiz uyg‘unlikdir, mukammallikdir. Tabiat va koinotdagi sistemalarning benuqson harakati, muvozanati tasodifiy bo‘lmagani kabi badiiy asar poetikasidagi uyg‘unlik ta‘minotida ham ijodkorning mohirligi muhim hisoblanadi. Jumladan, Abdulla Oripov she‘riyatining boshqalar orasida yarqirab turishiga, o‘qirmanni uzoq vaqt ta‘sirlantirib, yodidan chiqmasligiga sabab muallifning donishmandona fikrlarni, faylasufona qarashlarni badiiyat bilan uyg‘unlikda, mutanosiblikda ifodalay bilganidir. Masalan, shoirning 1986- yil yozilgan “Keksa muhojir” sheriga e‘tibor qarataylik;

– Nega qadding egik, nega boshing ham  
Nega nigohingni tortadi tuproq?  
– Mening yer ustida tanishlarim kam  
Mening yer ostida do‘stlarim ko‘proq.

Savol-u javobga asoslangan dialogik nutqning lirika namunasiga aylangach, qanchalar joziba kasb etganini kuzatish mumkin bolgan ushbu she‘rda do‘stlaridan

abadiy ayrilgan qariyaning ichkin tuyg'ularini, beadoq armonini bevosita his qilish mumkin bo'ladi. "Mening yer ostida do'stlarim ko'proq" tarzidagi ifoda orqali lirik qahramonning qanchalar yolg'izlanib qolganini tushunishimiz barobarida shoir biror o'rinda yolg'izlik so'zini, yoki yakkalanib qolish jumlasini ishlatmasdan, ayni ma'noni bera olganligi haqiqiy mahorat namunasi sifatida ko'rinadi. Yoki ijodkorning "Aql haqida" deb sarlavha qo'yilgan she'rida ham hikmatomuz mulohazaning biroz yumorga qorishtirib ifodalanganligi to'rtlikning o'ziga xosligini ta'minlaganini kuzatamiz:

Shunchalar go'zalsan, go'zalsan, sanam,  
Ta'rifing bitmoqqa ojizdir qalam,  
Bir yigit umrini obod etarding,  
Aql ham berganda falak bokaram...

Ko'rinadiki, yuqoridagi to'rtlikda ham ijodkorning hayotiy hikmati satira va paradoksal ifoda bilan uyg'unlikda bir butunlikni tashkil qila olgan. Shunday ekan aytish mumkinki, badiiy asar uchun muhim bo'lgan element va o'lchovlarning uyg'unligi ma'lum bir tasviriy garmoniyani, badiiy-estetik kombinatsiyani yuzaga keltiradi. Ijodkorning "G'alati zot" nomli she'ri bilan tanishganimizda ham ayni shu taktik uyg'unlikka duch kelamiz:

Yong'oqning tagidan o'tganmi bu zot,  
Na do'stin, na yorin xushlaydi.  
Boshini silasang, shu zahot,  
Qo'lingni tishlaydi...

Shoir ushbu she'rida xalq orasidagi "Yong'oqning ostidan o'tgan" iborasini mohiyatan o'rinli qo'llab, "Boshini silasang, qo'lingni tishlaydi" jumlasiga hamohanglashtirgan. Pirovardida g'alati zotning g'alatiligini o'quvchiga isbotlay olgan va shu bilan birga ta'sirchanlikni oshira olgan deyish mumkin.

Uyg'unlikka bir butunning turli qismlari orasidagi nisbatlar muvozanati sifatida qaraydigan bo'lsak, uyg'unlik badiiy asar poetikasi uchun o'ta muhim jihatdir. Badiiy yaratilishdagi uyg'unlik masalasi usul va vositalararo, tizim va sistemalararo bo'lib, u o'z ichiga peyzaj tasvirini ham, asarning tilini ham, ifoda uchun tanlangan shaklni ham, muallif aks ettirgan ma'no-mazmunni ham, obrazlar psixologiyasini ham qamrab olib bir butunlik masalasi o'laroq namoyon bo'ladi. Ma'lumki, poetika muallifning tasvir mahorati namoyon bo'lgan san'at namunasiga xos belgilarning yig'indisidir. Abdulla Oripov she'rlari poetikasi haqida gap ketar ekan, shoirning quyidagi misralari go'yo aforizmdek yangragan, bundan keyin ham yangrayveradi: **"Soqoli ko'ksiga tushsa ham garchand, Inson atalmagay masalan, serka", "Tiriklik sen bilan barham topmas, yo'q, Hamisha oqadi oqqan daryolar", "Oyoq ostingdagi xarsangni tepma, Balki haykal bo'lar senga o'sha tosh", Oxir chog' tuprog'ing ustiga kelib, Kimdir yod aylasa, iqbol o'shadir", "Pisimiqdan faylasuf chiqmagan kabi, Haqgo'y ham chiqmaydi betgachopardan", "Egasidan u-bu so'rashdan avval, Itiga, albatta, suyak tashlaydi"...**

Abdulla Oripovning bu kabi insonni mushohada qilishga chorlovchi, ruhiyat dinamikasini akslantiruvchi, mazmun-ma'nosi tig'iz she'r namunalari juda bisyor.

Badiiy effekt yolqinlanib turadigan ushbu she'riyat hali necha asrlar yashashiga, she'rsuyarlar qo'lidan va ko'nglidan tushmasligiga ishonamiz. Ustoz shoir Mirtemir e'tirof etganidek: " Abdulla Oripov. Shoir! Shoir bo'lganda ham anovmanovlardan emas. Xudo but qilib berganlardan..."[5]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T. 2021. – B. 570.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018. – B.473.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B.397.
4. Oripov, Abdulla. Tanlangan asarlar: To'rt jildlik – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 2001. 3-jild.
5. Oripov, Abdulla. Everest va ummon: she'rlar – Toshkent. O'zbekiston, 2018. – B. 392.

### **BADIIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDA OBRAZLILIKNING O'RNI**

*Sevara BABAYEVA,  
GulDU tayanch doktoranti*

Har qanday badiiy asarning birlamchi tomoni uning mazmuni hisoblanadi. Ulug'hind Yozuvchisi Robindranat Tagor "Adabiyotning mazmuni" nomli maqolasida yozuvchi o'z bilimi va qarashlari nuqtai nazaridan aks ettirgan narsahodisalar, his-tuyg'ular, o'y-fikrlar orqali ifodalanadigan mazmun haqida quyidagi fikrlarni keltiradi:

"Tashqi dunyo bizning ongimizga ta'sir qilib, unda boshqa bir dunyoni vujudga keltiradi, bu dunyo tashqi dunyodan hosil bo'lgan bo'yoqlar, obrazlar, tovushlar va boshqalarga liq to'la bo'lishi bilan birga, bizning yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tushunchalar ham, qo'rqish va ajablanishlarimiz, qayg'u va shodliklarimiz ham u bilan chambarchas bog'liq, uning turli-tuman tashqi ifodasi ma'naviy dunyomizdagi xazinamizga bog'liqdir"[2].

I.Sultonning "Ozod" romani orqali ifodalangan g'oyaviy mazmun ham yozuvchining badiiy mahorati, estetik dunyosi va individual uslubini belgilab beradi, desak adashmagan bo'lamiz. Qadimiy rivoyat asos qilib olingan bu asarda kitobxonni o'ylashga, fikrlashga undovchi ko'plab hikmatli iboralarni uchratishimiz mumkin. Roman so'zning qudrati, mohiyati, sehri va jilvalariga bag'ishlangan bo'lib, uning inson hayotidagi o'rni, hayotning aksi so'zda ekanligi va aytilgan so'zning dunyoni o'zgartira olish kuchiga ega ekanligi haqida hikoya qilinadi. Ozod ismli bir o'smir yigit tog' cho'qqilarida o'sgan baxt lolasini olib kelish va abadiy huzur-halovat ramzi bo'lgan humo qushini topish uchun yo'lga chiqadi. Rivoyatga ko'ra, bunday maqsadni yangi hayot ostonasida turgan, o'zini voyaga etgan deb hisoblovchi har bir yigit o'z oldiga qo'yadi. Ammo ko'pchilik yo'lning qaysidir qismida mashaqqatlarga dosh berolmay, ortlariga qaytadilar.

Ozodning manzilga yetib borishi esa oldindan bashorat qilingan. Bu yoʻlda u juda koʻp sinovlarni boshidan oʻtkazib, har bir tegirmon charxpalagidan aylanayotganida nimaningdir aksini (haqiqiy aksini) koʻrish baxtiga musharraf boʻladi. Barcha akslar bilan tanishib, eng muqaddas zot Inson ekanligini anglagach, boshqa unsurlarga ham moʻtabarlik maqomini beradi. Oʻz nomiga loyiq boʻlib, kamolot sari qadam tashlaydi. “Koʻr kishining hikoyasi” nomli bobda qahramon soʻz haqida shunday deydi:

*“Aslida soʻz hechdir. U- bagʻridagi maʼnosi tufayli haybat kasb etdi”.*

Personaj nutqi orqali berilgan mazmun voqealar rivoji davomida yanada oydinlashib boradi. Yozuvchi Ozodni Ahli Soʻzdan Ahli Maʼni tomon yetaklaydi. Yaʼni, har bir aytilgan soʻz moddiylashadi va aytuvchining mohiyatini belgilab beradi. Demak, soʻz qaysidir narsa yoki hodisaning maʼnosi, ramzi yoki aksi. Bunday akslarni idrok etish yoki his qilish uchun esa oʻquvchidan badiiy-estetik tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Romanning debochasidagi “Bagʻishlov” qismida muallif bu asarning maʼnaviy dunyolarni hosil qiluvchi insonlarga bagʻishlanganligini taʼkidlaydi. “Koʻzga koʻrinmas muallifning soʻzboshisi” da esa akslar falsafasi xususida soʻz ketadi:

*“-Dunyo ulkan koʻzgudir, oʻz holicha senga yomonlik ham, yaxshilik ham keltirmaydi. Tegrangda roʻy berayotgan hamma narsa aslida oʻz fikrlaring, his-tuygʻularing, istak va tutumlargning aksidir...”*

Asardagi har bir personaj nutqi sof adabiy tilda boʻlib, ularga quyuk maʼno yuklangan. Har bir soʻz oʻz qiymatiga ega boʻlgani holda, asar gʻoyasi, qahramonlar xarakterini ochishga xizmat qiladi. Donishmandlik ramzi sifatida talqin etilgan shamol obrazi nutqiga eʼtibor bersak, koʻz oldimizda chinakam donishmand, ulugʻsiymo gavdalanadi:

*“Rumuzning ostida hikmat bor,- deb javob berdi shamol. – Sen oʻsha hikmatning ham tubiga boq. Fitratingning pardalari ostidagi yana bir parda ochilsa, tamomila boshqa hodisalarni koʻra boshlaysan...”*

“Dilorom hikoyasi” da esa yoridan ayrilgan, biroq uni koʻnglida bir ilinj bilan kutayotgan qiz tasvirlangan. Uning ichki kechinmalari, oʻy-xayollari oʻziga xos tarzda, qahramonning tushi lavhasida hikoya qilinadi:

*“Libosim qoramtir...”*

*Yon-verimda qora bulutlar quyushadi, oralarida chaqmoqlar yetiladi. Agar shamol essaydi, yashinlar togʻ-u tosh bagʻrini tilib sanchilardi, bagʻirlaridagi suvni jala qilib yogʻdirardi...*

*Koʻkning bir ufqi ochiq, oʻsha yerda ulkan oy osilib turadi, agar shamol essa, uning mayin yogʻdusini ham sochib-uchirib ketadiganday tuyuladi...”*

Demak, shamol – barcha muammolarning yechimi, kulfatlar-u gʻam-anduhlarini uchirib, baxt-u iqbol eshigini ochuvchi kalit. Visol umidi bilan Yashayotgan Dilorom uni intiqlik bilan kutadi. Spu tarzda ifodalangan personajlar nutqi kitobxon koʻz oʻngida qahramonlar xarakterini yorqin gavdalantiradi va ular bilan birga fikrlashga, his qilishga, yashashga undaydi.

“Qahramonning fe’l-atvorini uning tili orqali ochish yozuvchidan chinakam soʻz san’atkori boʻlishni, adabiy til va jonli til boyliklaridan mohirona foydalanishni talab qiladi”.

Epik asarlar mohiyatini ochishda original personajlarning tasvirlanishi katta ahamiyatga ega. Shuningdek, romanlarda aks ettirilayotgan qahramonlar va xarakterlar rang-barangligi asar qimmatini belgilaydi. Zamonaviy oʻzbek romanlarida yaratilayotgan personajlar orasida boshqalaridan tubdan farq qiluvchi, kitobxon koʻz oʻngida abadiy muhrlanib, uning darddoshi va pinhoniyoʻldoshiga aylanib borayotgan, chinakam mahorat bilan ishlangan obrazlarni uchratishimiz mumkin. Bunday obrazlarni yaratish, shubhasiz, oson kechuvchi jarayon emas. Chunki har qanday qahramon, u bosh qahramon boʻladimi yohud epizodik, uning zimmasida asar badiiyatini ochishdagi maʼlum bir yuk, vazifa turadi. Personaj haqida soʻz yuritganda, jahon adabiyotining mashhur vakillaridan biri Aleksandr Genisning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir:

“Personaj – xaos dunyosidagi tartibli vodiidir. Personaj dunyosida tasodiflarga oʻrin boʻlmasligi kerak. Bunday har bir chehra oʻrniga tushgan boʻlmogʻi shart. Muallifning badiiy niyatiga boʻysungan holda u komil ishonch bilan asarda oʻz oʻrnini egallaydi. Personajda hamisha maqsad bor va u hamisha biror rol ni bajaradi. Inson haqida ham, muallif haqida ham bu gapni ayta olmaysiz. Aylananing kvadratini chiqarib boʻlmaganday, yozuvchi ham hech qachon toʻlaligicha oʻz adabiyotiga singib keta olmaydi”.

Bundan koʻrinadiki, personajni yaratayotgan ijodkor uni toʻlaligicha oʻz hayotidan olmaydi, aksincha, qahramonni faqat toʻqima yoʻli bilan ham dunyoga keltirish mumkin emas. Isajon Sultonning “Ozod” va “Boqiy darbadar” romanlari qahramonlariga nazar tashlar ekanmiz, ularning oʻziga xos hayotiy va xayoliy dunyolariga kirib boramiz.

“Ozod” romani bosh qahramoni Ozod chin maʼnoda navqiron oʻzbek yigiti va unga xos boʻlgan jihatlarni oʻzida mujassam etgan personaj. Vafo, sadoqat, sevgi, mardlik, kamtarinlik, donolik, hurfikrlilik va oʻz yoʻlida sobitqadamlik uning maqsad sari olgʻa intilishiga, hayotning mohiyati-yu, umrning bahosini anglashiga koʻmak beradi. U yoʻlida uchragan turfa sinovlar, maʼnolar falsafasini oʻzicha idrok etib, maʼnaviy va ruhiy dunyosini, botinini toʻyintira olgan, kamolot sari qadam tashlayotgan personaj sifatida talqin etiladi. Voqealar rivoji rivoyat asosiga qurilgan boʻlsa-da, bosh qahramonning boshidan kechirgan sarguzashtlari, uning tafakkurida paydo boʻlgan kengliklar har qanday kitobxon uchun oʻrnak boʻla oladi. Muallif esa buni har bir oʻgʻlonning voyaga yetgan shamoyili, deya koʻrsatadi:

“...Elning ulugʻlari Ozodning tole qushini topganini eshitganlarida, miyigʻida kulimsirab, bosh irgʻab qoʻyadilar. Hayratlanmasliklaridan, bu haqiqatni avvaldan bilarmidilar degan oʻy keladi xayolga. Ajabo, bilsalar, u maʼnolardan nega xabar bermadilar? Nega sukut saqladilar? Balki, elning bitta oʻgʻloni shu tarz kamolga yetib, bir roʻzgʻorning boshiga kelishga tayyor boʻlganidan qoniqish hosil qilgandirlar? Ha, elning bitta oʻgʻloni ana shunday voyaga yetadi...”

Turfa ramzlarga to'la bu asarda har bir qahramon, hattoki har bitta detal ham ma'lum bir mazmunni o'ziga jamlaydi, Ozod esa ular qatidagi akslardan ogoh bo'lib boradi. Ozod qahramonining ichki dunyosi va ma'naviy olami haqida adabiyotshunos olim Islom Yoqubov shunday deydi: "Ozod zohiran jo'n tuyuluvchi tabiat hodisalarining botinini ko'radi. Oddiy odam eshitishi mahol bo'lgan turfa tovushlarni tinglaydi. Dastlab uning fikr-u shuurida barcha ajdodlarimiz ham o'z qismatiga peshvoz borishgan emasmidi? Ehtimol, shu bois ham ular tabiatida itoatkorlik, jafokashlik, halimlik, shukronalik, qanoat tuyg'ulari shakllanmadimikin? Kishini ezuvchi mehnatdan qutilish chorasi bormi? Taqdirni o'zgartirish imkoni-chi? Bag'ri qon qizg'aldoqlaru maysa-ko'katlar nega bahorga talpinishadi, bu ham ertadan umidvorlik orzusi emasmikin? Bularning barchasida qanday ma'no yashirin, umuman, odam bolasi dunyoga nima uchun keladi?-qabilidagi savollar shodasi charx uradi".

Asar davomida Ozodga yo'ldosh bo'lgan, unga ko'plab sir-u sinoatlarni kashf etishi uchun eng katta ko'makdosh bo'lgan qahramon – bu shamol obrazidir. Uni yuqorida donishmandlik ramzi ham deb atadik. Chindan ham butun boshli roman davomida har bir xilqatning kalitini Ozod uchun tayyorlab turgan, biroq bosh qahramonning so'nggi murodi hosil bo'lganida unga bo'yinsungan, bir qaraganda nuroniy otaxonni eslatuvchi bu qahramon chinakam original obrazdir. Bu personajning eng ko'zga tashlanadigan jihati, shubxasiz, uning nutqidir. So'zning qudrati to'g'risida hikoya qiluvchi mazkur romanda har bir jumla, har bir ibora va so'z o'z o'rnida mahorat bilan ifodalangan. Mulki fanoga ko'ngil bergan g'ofil bandalarga qarab o'ksingan shamol Ozodga shunday nola qiladi:

“ - Yer yuzidagi eng muborak zotning qilmishlarini ko'ryapsanmi? Butun maxluqot sajda qilgan mukarramning holini ko'ryapsanmi! Birgina so'z edi! – deb hayqirardi shamol. – Birgina so'z bilan tosh-u tuproq, makon-u zamon o'zgarib ketardi. Birgina so'z bilan olomon o'zgarardi, birgina so'z bilan bu badbaxtlar boshqa martaba kasb etgan bo'lardilar! Tosh-u tuproq deb halok bo'lib ketgan millionlab kishilar birgina so'z bilan shahid bo'lardilar, yer tishlab yotgan sanoqsiz odamlar birgina so'z bilan Uning nazdida muboraklik kasb etgan bo'lardilar! Butun bu olam shu so'z uchun yaratilgan edi! U so'z bo'lmasaydi, bu dunyo yaratilmagan bo'lar edi. Shu qadar aziz, shu qadar mukarram bu badbaxtlarning qilmishlarini ko'r, ey odam bolasi!..”

Insoniyatning bunday ayanch ahvolga tushishidan, uning o'z darajasida harakatlanmayotganidan hattoki shamol ham zabun holatga keladi. Uning jon kuydirib aytayotgan so'zlari, albatta, har bir kitobxon qalbida chuqur taassurot uyg'otadi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, shamol obrazi Isajon Sultonning nafaqat "Ozod" romanida, balki boshqa bir qator asarlarida ham yetakchi qahramon sifatida gavdalanadi. Go'yoki bu obraz muallifning maslakdoshi yohud asarga yozuvchining dunyoqarashini olib kirayotgan timsoldir. Professor, adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov Isajon Sultonning "Ozod" to'plamidagi roman va hikoyalarni tahlil etar ekan, muallifning tabiat hodisalari, turfa mavjudotlarga ma'no yuklashini yuksak baholaydi: "Isajon Sulton asarlarida shamol – yozuvchi imkoniyatidagi tunganmas poetik imkoniyat. Yaratilajak

timsollar moyasi. Yozuvchi nafaqat shamol, bo‘ron, to‘fonni, o‘rni-o‘rni bilan hashoratu hayvonotni, parranda-yu parqu bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma’no qati, ramzi sifatida aks eta boshlaydi. Xullas, postmodernistik asarda hamma narsa o‘z o‘rnida betakror timsol vazifasini o‘taydi”.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning “Ozod” romanida yaratilgan personajlar o‘zining betakror ruhiyati, tafakkuri va qalb kechinmalari bilan ko‘plab boshqa asarlardan ajralib turadi. Ayniqsa, qahramonlar qatiga singdirilgan ramziy ma’nolar ularning umrboqiylik kasb etishida muhim omildir. Asar tili orqali berilgan personajlar nutqi ham qahramonlar xarakteri va ichki dunyosini ochishda katta xizmat qilgan. Muallifning bunday natijaga erishishi, shubxasiz, iste’dod, ko‘p yillik tajriba, mehnat va izlanishlar samarasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., O‘AJBNT markazi. 2003 y, 39-bet.
2. I.Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012- yil.
3. P.Qodirov. Adabiy asarning tili. – T., 1978-y, 333-bet.
4. Jahon adiblari adabiyot haqida (Ozod sharafiddinov tarjimalari). “Qalb fotografiyasi” maqolasi. –T.: Ma’naviyat, 2010-y. 120-bet.
5. Isajon Sulton ijodiga chizgilar. –T.: Ijodkor, 2011-y.

## **YOR-YOR MATNLARIDA KELIN-KUYOV RITUAL UDUMLARINING BADIY IFODASI HAQIDA**

*Gavhar SHERBEKOVA,  
BuxDU tayanch doktoranti*

Nikoh to‘yida kelin-kuyovning ritual yuvinishi va kiyinishi udumlarining shakllanishi ma’lum mifologik-hayotiy asoslarga ega. Bunda qiz-yigit bir olamdan boshqa bir olamga (yigitlar erlik, qizlar esa ayollik olamiga qadam qo‘yayotgani e’tiborga olinib, ularga oq libosdan kiyim hozirlanadi. Ketar chog‘ida qizning yangasi ko‘magida yuvinishi shartligi xuddi uning o‘lik misol ikki olam orasida turganiga ishorani bildiradi. Xuddi mayit kabi qizning ham qo‘l va oyoq tirnoqlari olinadi. Tanasi tuklardan tozalanadi.

To‘y bo‘layotgan qizni yuvintirish marosimining kelib chiqishiga ibtidoiy insonlarning suvni ikki olamni birlashtirib turuvchi magik vosita deb qarashlari hamda “obi hayot”, ya’ni “tiriklik suvi” haqidagi mifologik tasavvurlari asos bo‘lgani shubhasiz. Bunda qizning yuvinishi uning qayta tirilishi uchun zarur shart sifatida qaraladi. [2, 135].

Ibtidoiy insonlar tasavvuriga ko‘ra, suv yo‘li orqali o‘zga dunyoga kirib borish mumkin. Suv u dunyo bilan bu dunyoni tutashtiruvchi yo‘l, ularni bir-biridan ajratib turuvchi chegara degan tushunchalar bo‘lgan [1, 135].

Qizlarni turmushga uzatishdan oldin yuvintirish marosimi orqali poklash va shu yo‘l bilan ularga abadiy hayot bag‘ishlash e’tiqodi suv kultiga ishonch, o‘zga



dunyo, unda qayta tirilish bilan bog‘liq tasavvur-tushunchalarni o‘zida ifoda etadi. Ma’lumki, marhumlar ham ikki bor cho‘mltiriladi: 1) mahram suviga olinadi; 2) poklik suvida cho‘mltiriladi [5, 120]. Xuddi shuningdek, qizlik olamidan ayollar olamiga uzatilayotgan kelinchakni yuvintirish marosimi to‘ygacha va to‘ydan keyin amalga oshiriladi. Buxoroda to‘ydan so‘ng “Sarsho‘yon” (“Bosh yuvdi”) marosimi o‘tkaziladi. Bu marosim uchun qizning onasi tomonidan tog‘ora, ichiga guruch solingan oftoba, bir piyolada qatiq (Buxoroda “chakka” yoki “chakida” deyiladi) yuboriladi. Shuning uchun Buxoro nikoh to‘yi qo‘shiqlarida ushbu narsalarning nomiga alohida ishora qilinishi kuzatiladi:

Tokchadagi qatiqni  
Kim to‘kibdi, yor-yor?  
Chiqayotgan qizimizni  
Kim so‘kibdi, yor-yor? [4].

Bu kabi qo‘shiqlar to‘y marosimi qo‘shiqlari orasida kelinning boshini yuvishda aytiladigan maxsus aytimlar borligini anglashga yordam beradi. Suvni tiriklik tushunchasi bilan bog‘lagan qadimgi insonlar unga mo‘jizakor kuch sifatida qaragan. Bu kabi qadimiy tushuncha va tasavvurlar esa uzatilayotgan qizlarni, ya‘ni kelinchaklarni yuvintirish udumlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Buxoroda to‘ydan ikki-uch kun oldin kelin bo‘lajak qizning qoshi va yuzi teriladi. **“Qosh terish”, “Yuz terish”, “Zulf qirqish”** kabi bu udumlarni ifodalovchi xalq qo‘shiqlari ham mavjud. Ulardan birida shunday de- yiladi:

Suvni suluv ko‘rsatgan,  
Toshi bo‘lar, yor-yor.  
Qizni suluv ko‘rsatgan  
Qoshi bo‘lar, yor-yor. [4].

Quyidagi qo‘shiq kelinning zulfini qirqish, sochini o‘rish jarayonida kuylanishi kuzatiladi:

Qora anbar zulflaring  
Tovlanadi, yor-yor.  
Qora anbar sochlaring  
Sollanadi, yor-yor.  
Sumbul kabi zulflari,  
To‘lg‘onadur, yor-yor. [4].

Bunday qo‘shiqlarda, odatda, kelinchakning “qora anbar zulflari tovlanishi”, “sumbul kabi zulflari to‘lg‘onishi”, zulfi siyo, ya‘ni qora ekani, zulfi zarligi ta’rif-tavsif qilinadi.

Kelin-kuyovning ritual kiyintirilishi udumi kelib chiqishiga qadimgi insonlarning libos magiyasiga ishonchi asos bo‘lgan. Qiz va yigitlarni nikohlashdan oldin ularga oppoq doka surpdan maxsus oq ko‘ylak tayyorlanadi. “Nikoh ko‘ylagi”, “baxt ko‘ylagi” deb nomlanadigan bu libos ritual mohiyat kasb etadi. Uni baxtidan yolchigan, keksa, uvali-juvali, bir nikohli ayolga bichtiradilar va tiktiradilar. Baxt ko‘ylagini tayyorlash jarayonida fотиha-olqishlar aytib turiladi. Ipning ikki qavat bo‘lishiga, keti tugilmasligiga katta ahamiyat qaratiladi.

Qiz va yigitlarning nikoh ko‘ylagi oq surp matodan tikiladi. Qizlarga uzun oq ko‘ylak, yigitlarga esa yaktak-ishton kiydiriladi. Yigitlar boshiga salla o‘rasa, qizlarning boshiga oq harir ro‘mol tashlanadi. Kelin-kuyov kiyimi, avvalo, oq rangda bo‘lishi bilan tez ko‘zga tashlanadi. Bu rang kelin-kuyov kiyimida o‘ziga xos ramziy ma’nalarni tashiydi. [5, 604].

Buxoroda kuyovlarga to‘n kiydirib, zardo‘zi yoki shoyi, atlas belbog‘(chorsi) bilan bog‘latadilar. Boshiga do‘ppi kiydiradilar.

Kuyov to‘ra so‘rasangiz,

Beklar begi, yor-yor.

Belidagi belbog‘i

Gullar tagi, yor-yor. [4].

Ayrim yor-yorlarda kuyovning zar, banoras, shohi to‘n emas, oddiy bo‘z to‘n kiyganini aytish orqali uning iqtisodiy kam ta‘minlangani, kambag‘alligi, nochorligiga ishora qilinadi. Shunday bo‘lsa-da, o‘hu ko‘zli go‘zal qiz uni tanlab, turmushga chiqayotgani, baxt kiyim-kechak bilan o‘lchanmasligi ta‘kidlanadi:

Kuyov to‘ra kiyimlari

Faqat bo‘zdir, yor-yor.

Kelin poshsha ko‘zlari

O‘hu ko‘zdir, yor-yor. [4].

Kelinlarga, odatda, oq doka ko‘ylak ustidan atlas nimcha, uning ustidan paranji kiydiriladi. Shuning uchun ayrim yor-yorlarda bevosita kelinning paranjiga o‘ralib kelishi haqida gap boradi:

Taxta ko‘prik tagiday

Loy oqadi, yor-yor.

Paranjiga o‘ralib

Oy boqadi, yor-yor. [4].

Yuziga harir, g‘ijimi ro‘mol tortiladi. Shuning uchun yor-yor matnlarida bunga alohida e‘tibor tortiladi:

Ro‘molingiz g‘ijimlarin

El o‘ynatar, yor-yor.

Shirin – shakar so‘zlaringiz

Mehr uyg‘otar, yor-yor. [4].

Oyog‘iga mahsi-kovush kiydiriladi. Kiydirilgan mahsini faqat kuyov echishi lozim sanaladi.

Xullas, nikoh to‘yida kelin-kuyovning kiyimi bu marosimning asosiy belgilaridan biridir. Ayniqsa, ularning ranglari ibtidoiy insonning «dunyo» to‘g‘risidagi qadimiy tushuncha-tasavvurlariga binoan tanlangan. Qizil va oq tusdagi kiyimlar kelinlarga xosdir.

Garchi hozirda Yevropa mamlakatlari ta‘sirida kelin-kuyovlar uchun tayyor kiyimlar sotiladigan do‘konlar faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, yuqoridagi kabi kiyimlar hech qachon do‘konlarda sotilmagan va sotilmaydi ham. Kelin-kuyovlarni ritual kiyintirish odatining kelib chiqishiga ibtidoiy insonlarning o‘limdan so‘nggi hayot mavjudligi haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari ham asos bo‘lgan. Baxt ko‘ylagi har kimga ham nasib qilavermaydi. Shuning uchun har

bir musulmon bu dunyoda nikoh kiyimini kiyib o'tishni niyat qiladi. Busiz inson baxti to'kis hisoblanmaydi. Demak, to'y qo'shiqlarida, asosan, mifologik tasavvur-tushunchalar asosida kelib chiqqan to'y udumlariga aloqador urf-odatlarining badiiy talqin etilishi kuzatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Barotova Sh. O'zbek xalq "Yor-yor"larining janr xususiyatlari.//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1998. – №2. – B.46-48.
2. Басилов В.Н. Следькулта умирающего и воскресающего божества в христианской и мусульманской агиологии /Фолклор и историческая этнография. – М.,1983. – С.135.
3. Богомолова К.А. Следы древнего култа воды у таджиков. – Сталинабад, 1952. Выпуск 2. – С.109-120.
4. Вухор elda gul sayli. Вухоро xalq qo'shiqlari va termalari /To'plab, nashrga tayyorlovchi va kirish so'z mualliflari – D.S.O'rayeva, filologiya fanlari doktori, professor hamda D.Z.Rajabov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. – Вухоро: "Вухоро" nashriyoti, 2010. – 145 b.
5. Пропп В.Я. Исторические корни Волшебной сказки. – Л., 1946. – С. 60.
6. O'rayeva D. O'zbek motam marosimi folklori. – T.: Fan, 2004. – 120.

### **NAVOIY MUAMMOLARIDA BADIY OBRAZ**

**Shohsanam QARSHIYEVA,**

*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi*

Badiiy obraz borliqning san'atkor yoki ijodkor ko'zi bilan ko'rilgan, uning qarashlari singdirilgan va badiiy tafakkur asosida qayta ishlanib, hissiy-estetik ta'sirchanlik kasb etgan aksdir. Albatta, bu aksda olam va odamning bevosita ishtiroki ham kuzatiladi. Biroq bu endi biz bilgan va bilmagan, anglagan va anglamagan olamning aynan nusxasi emas, balki butunlay yangi yaratilgan – badiiy borliqdir. Adabiyotshunoslikda badiiy obraz atamasi keng va tor ma'no kasb etadi. Keng ma'noda badiiy obraz deganda borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi.

XV asr muammochiligida yetakchilik qilgan Navoiy muammolari g'oyaviy-badiiy xususiyati, tili, mazmun-mohiyati, obrazlilik va tuzilishi jihatidan mukammal she'riy asardir. Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan Navoiy muammolarining markazida inson obrazi turadi, chunki borliqning o'zida inson ulkan mavqeni egallaydi. Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida aniq jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, poetik nutq kabi badiiy unsurlar kiradi. Obrazga bevosita yozuvchi va shoirlar tomonidan berilgan ta'rif "muallif xarakteristikasi" deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning ichki dunyosiga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi. Odatda she'riy asarda muallif xarakteristikasi asar tarkibiga singdirilgan yohud poetik obraz

asarga kirib kelgan o‘rinlarda beriladi. Muallif xarakteristikasi o‘quvchida lirik qahramon haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, nutqini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, biz shoirning shaxsiy turmushi haqida, xususan, uning biror qizga ko‘ngil bergani yoki sevmaganligi haqida aniq ma‘lumotga ega emasmiz. Biroq Navoiy muammolarining ruhini chuqur o‘rganar ekanmiz, ularda muallifning shaxsiy kechinmalari ham yetarlicha namoyon bo‘lganligini payqaymiz. Viktor Gyugo Bayronning o‘limi munosabati bilan shunday yozgan edi: “Biz, kalamiz haqiqatan, garchi beixtiyor ravishda bo‘lsa-da, to‘yib ketmasligi uchun uni (Bayronni) shu qadar tund va injiq qilib qo‘ygan o‘sha oilaviy ko‘ngilsizliklarning haqiqiy sababini yetarli darajada yaxshi bilmasdan turib, bu borada ko‘p gapirmaslikni afzal ko‘ramiz. Biz Lord Bayronni faqat uning poemalari orqaligina bilamiz va shoirning hayoti ham uning qalbi va ijodiy dahosidek edi, deb tassavvur qilishning o‘zi biz uchun quvonchlidir”. [Viktor Gyugo. Ernari pyesasi. – T.: Fan. 1996. 12-bet]

Navoiy ham, faqat so‘zdagina emas, balki amalda – turmushda ham yuksak ma‘naviy qiyofaga ega edi. Uning zamondoshlari tomonidan yozib qoldirilgan va shoirning amaliy faoliyati haqida xabar beruvchi tarixiy va avtobiografik asarlardan ma‘lum bo‘lishicha, u o‘zining orzu-umidlarini o‘z asarlari orqali tartib etibgina qolmay, ularni amalga oshirish uchun amaliy kurash ham olib borgan. U “Xamsa”dagi dostonlarida o‘z maqsadlarinigina emas, balki davrning muhim masalalarini ham romantik fonda aks ettirgan. Shu boisdan dostonlarda shoir hayotining ma‘lum bir lavhalari aks etgan bo‘lishi mumkin. Xususan, “Sab‘ai-sayyor” dostonidagi shahzoda Farrux obrazi bilan shoirning shaxsiyati orasida yaqinlik ko‘zga tashlanadi. Ana shu haqiqat bilan shoir muammolarini kuzatar ekanmiz, ularning umumiy ruhi bir-biriga nihoyatda mos tushganligini ko‘ramiz. Umuman, ba‘zi hayotiy muammolar o‘zining mazmuni, uslub va tasviriy vositalari bilan boshqa ishqiyy muammolardan ajralib turadi. Ularda shoirning shaxsi ancha to‘liq aks etgan. Navoiyning har ikki tilda bitilgan muammolarida ikki muhim ijodiy xususiyatni ko‘ramiz: birinchidan, muallif lirik qahramon xarakteriga xos bo‘lgan real insoniy kechinmalarini sodda va samimiy tasvirlashga intiladi; ikkinchidan, u lirik qahramonning ichki dunyosini muammo orqali tasvirlashga harakat qiladi. Natijada uning muammolari muayyan syujetga ega bo‘lib, undagi misralar, bir-biriga uzviy bog‘langan holda, mantiqiy ravishda rivojlanib boradi. Shu tariqa Navoiy muammolarida badiiy obrazlar bo‘y ko‘rsatadi. Bu badiiy obrazlar tizmasi ijodkor qalb qo‘ri singdirilgan yuksak ijodiy mahorat mevasi hisoblanadi. Ularning har biri kitobxon shuurida chizilgan surat yanglig‘ namoyon bo‘lish bilan bir qatorda, muammoning mavzusi, g‘oyasi va xulosasi, shoir ijodiy maqsadini anglashda ko‘mak beradi.

Lirik qahramonning so‘z bilan chizilgan tashqi qiyofasi – portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. Navoiy muammolari orasida ham portret obrazlarni kuzatamiz:

Ham qoshi birla orazi xush erur,

Ham ko‘zi birla qaddi dilkash erur.[Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 5-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013. 700- bet.]

Muammodagi barcha so‘zlar tushunarli va ravon, bayt tili sof va samiyimiy, badiiy bo‘yoqdor. Lirik qahramon tilidan ma‘lum bo‘ladiki, mahbuba qoshi va yuzi go‘zal, ko‘zi va qaddi yoqimli, sevimli obraz.

Badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea-hodisa ham obraz deb yuritiladi. Badiiylik – san‘atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri badiiy obrazdir.

Navoiy muammolarining obrazlar tizimi o‘ziga xos mukammallik va umumbashariylik kasb etadi. Shaklan mo‘jaz bo‘lgan bu muammolar garchi bir baytdan tashkil topgan bo‘lsa-da, bir necha badiiy obrazlardan iborat. Navoiy muammolarining markaziga inson, oshiq, yor, vatan obrazlarini qo‘yish mumkin. Muammolardagi topishmoqlik xususiyati o‘quvchini tafakkur qilish, mustaqil izlanish, zukkolik va chaqqonlikka undasa, uning ma‘zmun-mohiyatini idrok etish axloqiy-estetik fazilatlarini kamol toptiradi. Ayniqsa, Navoiy muammolarining badiiy xususiyati har bir o‘quvchiga adabiy zavq, badiiy mushohada, ijodiy taffakkur omili bo‘lib xizmat qiladi. Chunonchi, quyidagi tasvirning badiiy in‘ikosi bo‘lgan “somir” obraziga diqqat qilsak, uning naqadar ta‘sirli ekanligini kuzatamiz.

Ko‘z uchi, qoshi yosidur sohir,

Ani yod ol alardin, ey somir. [Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami. 5-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi ijodiy-matbaa uyi. 2013.701- bet.]

Muammodagi somir so‘ziga “Navoiy asarlari lug‘ati”da Somiriy, ya‘ni “Mifga ko‘ra – Muso payg‘ambar zamonida Musoga qarshi chiqib, gapiradigan oltin buzoq yasab, shu bilan kishilarni o‘ziga qaratishga uringan kishi (adabiyotda sehrigar, jodugar, aldoqchi va o‘ziga qaratuvchilikdan kinoya yo‘sinida ishlatiladi)” [Parso Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at. 1983. 568-bet] degan izohni uchiratamiz.

Ko‘zning uchi yoy kabi qosh bilan tutashib sehrli go‘zallik kasb etgan. Buni “yod ol” ulardin “ey Somir” deyiladi. Mahbubaning suzilgan qosh-u ko‘zi o‘ziga qaratuvchi, jodugar, aldoqchi ekanligiga undalma usulida ishora qilinadi. Navoiyning “anor” nomiga bitilgan lug‘azi muammo shaklida berilgan. Anorning xususiyatlari ta‘miya yo‘li bilan, tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalar orqali savol tariqasida bayon qilinadi. Bu rohat va badiiy zavq bag‘ishlashi bilan birga, kishilarning me‘dasiga shifo hisoblangan anorning bag‘ri to‘la qonligiga sabab hiylakor zamon va nayrangboz falak ekanligi tasviri ham ko‘z o‘ngimizda badiiy obrazni gavdalantiradi.

Navoiy muammolari rang-barang mavzularda yaratilgan bo‘lib, ular ham g‘oyaviy ham mazmun jihatidan shoir ijodining bosh masalalariga uyg‘undir. Bu muammolarda obrazlilik kuzatilgani sabab o‘quvchi ongida aniq va betakror tasvir, taassurot uyg‘otadi. Navoiy muammolarida insoniy muhabbatdan tortib axloqiy-falsafiy fikrlar, adolat haqidagi mushohadalar, ayrim din ahllarini fosh qilish va boshqa mavzular ifodalanadi. Bu muammolar ma‘lum qoidalar asosida

yechilganda unda bayon etilgan fikrlar turli imo-ishora, soʻz oʻyinlari vositasida isbot boʻladi.

Shoirning Odam nomiga yozgan muammolarida “Mufradot”da ham, “Xazoyin ul-maoniy” va “Devoni Foniyy”da ham oh, dard va mehnat bilan toʻlgan dil alamlari, ikki koʻzdan qon yoshi toʻkilishi, kambagʻalchilik tuzogʻiga ilingan insonning birovlariga muteligi chuqur kechinmalar ifodasi sifatida tasvirlanadi. Masalan, “Navodir ush-shabob”dagi Odam ismidagi ushbu muammoga diqqat qilaylik:

Qon toʻkar yuzdin damodam ashk-u vahkim, har zamon,  
Aylanib ohimdin aylar koʻkka mayl ul qatra qon.

Muammo “intiqod”, “tasmiya” va “qalb” amali qoidalari asosida yechiladi. Yaʼni: “Damodam” دما دم soʻzi yuzidagi “qon”i دم “dam”ni toʻksa va bu qon shoir tortgan ohi natijasida aylansa, د – mad boʻladi. Uning shakli esa – ~boʻlib, koʻkka yoki alif harfi ustiga chiqsa دم – Odam ismi hosil boʻladi. (Arab tilida qon – dam demakdir.) Koʻrinib turibdiki, muammoda ajoyib igʻroq vositasida ikki koʻzdan toʻkilgan qon yoshning shoir chekkan ohi taʼsirida koʻkka chiqib ketishi muammo bilan ham isbot qilingan. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatida inson va uning taqdiri bosh masaladir. Shuning uchun “Risolai mufradot”, “Navodir ush-shabob” va “Devoni Foniyy”dagi muammolarning Odam nomi bilan boshlanishi bejizga emas. “Devoni Foniyy”da ham muammolar Odam ismi bilan boshlanadi:

Gar naboshad dar dili xunin xadangat muttasil,  
Az chi bar bolovu poinash namoyad xuni dil. [Alisher Navoiy. Mufradot.  
11a- varaq]

(Agar qonli dilimga gʻamzang oʻqi tutash boʻlmasa,

Nima uchun uning yuqori va quyisida koʻngil qoni koʻrinadi?)

Yorning gʻamza oʻqi – kiprigi alif harfi boʻlib, undan keyin koʻngil qoni “dam” – دم koʻrinsa, دم boʻladi. Bu oʻqdan oldingi koʻngil qoni – ~diokritik belgi boʻlib, uning nomi “mad” – م va qalb qoidasiga asosan teskari “dam” – دم dir. Bu belgi qoʻ- yilsa Odam ismi hosil boʻladi. Muammoda ifodalanishicha, Navoiy davrida inson – Odam boshidan oyogʻigacha koʻngil qoni bilan boʻyalgandir. Bu hol muammoda tarodif va qalb amali qoidasi bilan isbot qilingan. Odam ismidagi boshqa bir forscha muammoda ham bu mazmun davom ettiriladi:

Qayd dar faqr omada chun mehnati vorastagi,  
Omadam qon qonki mumkin nabvadash vobastagi. [Alisher Navoiy.  
Mufradot. 11a- varaq]

Kambagʻallik – tuzoq, kishan boʻlib, undan qutulish mehnati ham kishan mashaqqati kabidir. Shunday boʻlsa ham birovga qaram boʻlib qolmay deb keldim. Muammo taʼlif qoidasi bilan ikkinchi misradan yechiladi. Yaʼni ishoraga koʻra, “Omad” – م ا soʻzini shunday qilamizki, u bogʻlanmagan boʻlsin yoki undagi harflarni bir-biriga bogʻlanmaydigan qilib joylasak, م ا Odam ismi hosil boʻladi. Muammoda aytilishicha, kambagʻallikdan qutilish qiyinchiligi – shu qashshoqlik qiyinchiligidan oshib tushsa ham, odam – inson birovlariga mute boʻlmasligi kerak. Navoiy muammolari orasida, shayx, zohid, mutaassiblarni fosh qiluvchi badiiy obrazlarni ham koʻplab uchratamiz. Muhsin ismidagi muammoda mushoira

kechalarida g'azalxonlikni, ashula aytish va kuy chalishni man qiluvchi islomning shayx – raislariga nafrat bilan qarab shunday de- yiladi:

Majlista shayx bu kecha ko'p shayn boshladi,

Sindurdi sham'u, nuqlni havz ichra toshladi. [Abduqodir Hayitmetov. Navoiy lirikasi. – T.: “O'z.Fanlar akademiyasi” nashriyoti. 1960. 50-bet] Muammo isqot va tashif qoidasi asosida yechiladi. Ya'ni “majlis” – محاس o'rtasidagi sham' – ل harfi sindirilsa محس bo'ladi. Endi nuql (zakuska), ya'ni ج harfi ostidagi nuqta havz – yoki س harfining ikkinchi elementi ichiga tashlansa, مدحس Muhsin ismi hosil bo'ladi.

Shoirning o'zbek tilidagi muammolari orasida ruboiy-muammolar ham mavjud bo'lib, ular ishq-muhabbat mavzusidadir. Masalan, Zahir ismidagi muammo:

Xalq ichra zuhuri husn ul siminbar,

Ko'rguzdi va yo bo'ldi qiyomat yaksar. [Lutlullo Zohidov. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. – T.: ”Fan” 1989. 48-bet]

Navoiy muammolari aruzning turli vaznlarida, jumladan, hazaj, ramal, rajaz, sari', muzore', mutaqorib, hafif bahrlarida yozilgan. Lekin ko'pchiligi uchun hazaj, ramal bahrlari xarakterlidir. Navoiy muammolaridagi obrazning maqsadi tushuncha, muhokama, isbot, xulosa, g'oyani ta'kidlash, ko'rgazmali tarzda yetkazishdir. Bu obraz voqea-hodisaning shunchaki tashqi ko'rinishi emas, balki ana shu ko'rinishlarning eng o'rnakli misolini, eng arzirli namunasi – tipigini ifodalashga xizmat qiladi:

Yuzung bila yuzuma kosh bo'lsa o'yla visol,

Ki bo'lmasa arolarinda g'ayri ul xat-u xol. [Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, 2-jild –T.: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2013. 700- bet.]

Muamoning mohiyatida umumlashtirish xislati bo'lsa-da, lekin san'atkor o'z fikrini mubolag'ali tarzda ko'rsatmaydi. Navoiy voqea-hodisani aks ettirishda eng ahamiyatli vaziyat va holatni tanlaydi. Lekin aniqlikka, aynanlikka bo'ysunadi va uning asosiy maqsadi voqea-hodisaga xos bo'lgan individuallikni ko'rsatishdir:

Jumlai ashyog'a bo'ldum oshiq-u oshufta hol,

Olam-u odam yuzin chun qildi mir'ot ul jamol. [Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami, 5-jild –T.: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2013. 703- bet.]

Uning asosida individulashtirish (xususiylik) xislati yaqqol ko'zga tashlansa-da, u orqali suratkash o'zining unga bo'lgan hissiy munosabatlarini bera olmaydi. Shu sababdan ham ularning ta'sir doirasi tor bo'ladi va barchaga zavq bera olmaydi, maftun etolmaydi. San'at va adabiyotdagi obraz ularga nisbatan adadsiz ta'sirchan bo'ladi, chunki hayotiy voqea-hodisalar san'atkorning aql-tafakkuri, qalbi, ruhi, salohiyati bilan boyitiladi, ziynatlanadi, san'atkor “unga o'z idealini singdiradi va shunga ko'ra qayta yaratadi”, “oqilona voqelikning bunyodkori” (V.Belinskiy) bo'ladi. Natijada bu obraz go'zalligi va ta'sirchanligi bilan millionlar qalbini zabt etadi. V.G.Belinskiy yozganidek, “bashar hayotining tepib turgan yuragi, uning qoni va joni, uning shu'lasini va quyoshi” [Boboyev T.

Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston. 2001. 360-bet.] ga aylanadi. Chunki obraz jonli harakati, jozibadorligi va yorqinligi bilan o‘zida voqea-hodisalarning qonuniyatini asosli va chuqur mujassam etadi.

Alisher Navoiygacha ham muammo janrida juda ko‘p iste’dod egalari o‘z qalamlarini sinab ko‘rdilar. Topishmoq she’rga shoirlargina emas, hatto tarixchilarning ham diqqat bilan qarashi muammo janrini bu davrda mavjud bo‘lgan boshqa janrlar qatoridan teng o‘rin olganligini isbotlab turadi. Alisher Navoiyning bu janrga bo‘lgan e’tibori muammochilik tarixining yangi bir sahifasi bo‘ldi. Shunga ko‘ra ham Navoiyning muammolari va muammoga oid risolasini o‘rganish, adib ijodini har tomonlama mukammal tadqiq etishdagi bir muhim shart sifatida adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduqodir Hayitmetov. Navoiy lirikasi. – T.: “O‘z.Fanlar akademiyasi” nashriyoti. 1960. 50-bet.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 5-jild –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. 703- bet.
3. Bertel’s.Ye.E. Navoi i Djami. – M.: Leningrad, 1967. 168 bet.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 560 bet.
5. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. 168 bet.
6. Lutfulla Zohidov. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. –Toshkent – 1986. –64 bet.
7. Lutlullo Zohidov. Alisher Navoiy ijodida muammo janri. – T.: Fan, 1989. 48-bet.
8. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (E.I.Fozilov tahriri asosida) 4 tomlik, 1-tom. – T.: Fan. 1983. – 654 b.
9. Rahmonov V. She’r san’atlari. – Leninobod: 1972. –180 b.
10. Viktor Gyugo. Ernari pyesasi. – T.: Fan. 1996. 12-bet.

### **ISAJON SULTON HIKOYALARIDA HAYOT FALSAFASI**

*Gulg‘uncha SABIROVA,*

*Urganch davlat universiteti*

*Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

Isajon Sulton bugungi kun o‘zbek nasrining sermahsul ijodkorlaridan biri. Uning har bir asari o‘ziga xos. Ayniqsa, hikoyalaridagi voqea-hodisalar, qahramonlar boshqa hech kimmikiga o‘xshamaydigan ajib va g‘aroyibdir. Uning hikoyalarini o‘qir ekansiz voqealarning tabiat tasviri bilan uyg‘unlashib ketishining guvohi bo‘lasiz.

“Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi.



To'g'rirog'i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma'noli va ta'sirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o'qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmana his qilamiz"[1]

Uning deyarli barcha asari postmodernizmning yorqin namunasi bo'la oladi desam mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois ham Isajon Sulton asarlarini bir o'qishda anglab yetish mushkul. Shu o'rinda postmodernizm tushunchasini izohlab o'tmoqni joiz deb bildim. Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo'lib ("post" - keyin), o'ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir. Adabiy oqim deyilsa-da, postmodernizm xuddi modernizm kabi inson dunyoqarashiga ta'sir qilgan, keng tarmoqli va g'oyat ziddiyatli hodisadir. U haqdagi qarashlar hali tugallanib, xulosalanmagan. Chunki hodisaning o'zi davom etmoqda. Qayerdagi, kaos bor ekan, u yerda postmodernizm ham bor, deya qaraladi.[2] Uning hikoyalari bilan yaqindan tanishar ekanman, ruhiyatimda qandaydir g'alatilik paydo bo'ldi. Bu g'alatilik hikoyalarda yuqorida ta'kidlaganim postmodernizm ruhiyatining yuqoriligi sabab bo'lsa kerak.

Yozuvchi mahoratini alohida tilga olmoq lozim. Sababi ijodkor asarlaridagi voqealar norealistik bo'lsada, o'quvchida go'yo real hayotda ro'y bergandek taassurot uyg'otadi. Yozuvchining har bir hikoyasida hayot haqidagi o'z falsafiy mushohadalari yotadi. Masalan, "Todd" hikoyasida hayotda qancha yelib-yugurmang, baribir bir kuni bu dunyoni tark etasiz. Sizdan qoladigan narsa faqat "Yaxshi odam edi", - deya eslanadigan xotira, ko'k to'n kiyib kuzatib qoluvchi avlodlaringizdir. Yakunda esa "o'lim haq" ekanligining guvoh bo'lasiz. Ushbu hikoyada hayot falsafasidan tashqari Mamasiddiq Pishiq obrazi orqali o'zbekona xarakterni ham ochib bergan:

"U ikki-uch daf'a oshqozoni og'rib, yotib qoldi. Ammo do'xtirga bormadi, birontasini chaqirib qaratmadi. O'zining suygan ta'biricha, issiq-issiq choy ichib, ko'rpage o'ranib yotaberdi. O'zi-ku azaldan ozg'in edi, yanayam ozib rangi allanechuk, somon kabi bo'lib qoldi. Ammo haftalab yotgani yo'q: Pishiqning mazasi qochibdi, degan gap tarqalganidan uch-to'rt kun o'tar-o'tmay, yana ko'chalarda paydo bo'ldi. Yana o'sha-o'sha kuymalangan, har narsani uyiga tashigan Pishiq... U yoq- bu yoqda «Mamasiddiq aka oshqozon raki bo'lgan ekan, baribir tuzalmayman, deb do'xtirgayam bormabdi», - degan gaplarni biz ham eshitdik. Bu gapning naqadar rostligini bilmaymiz-u, ammo oradan bir-yil o'tar-o'tmas, uyidan yig'i chiqdi. Bildikki, Pishiq ham olamdan o'tibdi".[3]

Haqiqatdan ham, kasal bo'lsa-da shifokorga bormay, bolam-chaqam deb yelib-yugurish o'zbeklarga xos xarakter emasmi?!

Yozuvchi ushbu obraz haqida gapirar ekan shunday deydi: "Boshqalarning qiyofasida-da mana, men deya ko'rinish beraveradi". Buning sababi bizning xalqimizda bunday odamlar juda ko'p. Hikoyani o'qish jarayonida mening ham tasavvurimda Mamasiddiq Pishiqqa o'xshagan ko'plab odamlar gavdalandi.

Isajon Sultonning "Bog'i Eram" turkumiga kiruvchi hikoyalarda ham aynan hayot va o'lim haqidagi mushohadalar ilgari surilgan. "Qismat daraxti" yoki "Bog'i Eram" hikoyasini olamizmi barchasida yana shu umrning o'tkinchiligi,

o‘lim muqarrarligining guvohi bo‘lamiz. Hikoyalar yakunida esa orqaga nazar tashlar ekanmiz, umr xuddi tushdek o‘tib ketishini anglab yetamiz.

Hikoyalardagi har bir detal o‘zining ramziyligiga ega. Masalan, ”Todd” hikoyasidagi Todd o‘lim ramzi, ”Qismat daraxti” hikoyasida katta daraxt hayot bo‘lsa, barglar inson ramzidir. O‘sha barglar xazonga aylanib daraxt shoxlarini tark ettimi, demak, inson bu hayotni tark etdi.

”Do‘st” hikoyasida ham juda chuqur falsafiy qarashlar mavjud. Hikoyada inson ruhining jismga ya’ni tanga aytayotgan so‘zlari o‘rin olgan. Bu do‘stlar bir insonda: biri tuproqda qolib ketadigan zaif tan, ikkinchisi osmonga ko‘tariladigan ruh.-yillar bu ikki do‘stga har xil ta’sir ko‘rsatdi. Tan qarib, zayiflasha boshlagan bo‘lsa, ruh vaqt o‘tgan sayin yuksalib, dono bo‘la boshladi. Aslida hayot haqiqati ham mana shu. Hikoyada tan o‘g‘riqni his qilib qiynaladi, ruh esa o‘zi kabi mavhum tushunchalar: armon, qayg‘u, azob-uqubat kabilar bilan dard chekadi deya uqtirilgan. Buning isboti sifatida ruh tilidan aytilgan ushbu jumlaning keltiraman: ”Qizig‘i shundaki, men soppa-sog‘ edim. Goho xastalanib tursam-da, xastaliklarim senikiga mutlaqo o‘xshamasdi. Mening kasalliklarim iztiroblar, qayg‘ular, g‘am-g‘ussalardan, afsuslar, armonlar va pushaymonliklardan bino bo‘lar edi. Seni dunyoviy kasallik isitmasi qaltiratsa, meni o‘y-xayollar va g‘ussa-yu armonlarning isitmasi titratardi”. Barchamiz inson sifatida o‘sha mavhum tushunchalar tan og‘rig‘idan-da og‘riqliroq ekanini yaxshi bilamiz.

Isajon Sultonning ”Qismat daraxti”, ”Bog‘i Eram”, ”Todd”, ”Do‘st” kabi hikoyalari bilan yaqindan tanishib shuni bildimki, uning har bir asarida hayot falsafasi barq urib turadi. Ularning barchasida inson bu dunyoda mehmon. Haqiqiy hayot keyin boshlanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Masalan, ”Qismat daraxti”da ko‘z oldida gavdalangan bog‘, go‘yoki bu ”Jannat”, ”Bog‘i Eram”da ekilgan daraxt meva berib, yashnab ketsa, go‘yo u hayoti ham yaxshi ekanligiga ramziy ishora bor. Yoki ”Todd” hikoyasida Mamasiddiq akani eslab: ”Hozir ham, Mamasiddiq pishiqning so‘nggi manzilida tinch, orom olib yotganiga ishongim kelmaydi”,- degan gapi, ”Do‘st” hikoyasidagi ruhning tanni uxlatib, o‘zi samolarda misliko‘rilmagan joylarga borib kelishi Jannat borligiga, oxirat kuniga ishonishdir.

Xulosa qilib aytganda Isajon Sulton barcha asarlarida hayot falsafasini axtaradi va bu falsafaga yechim izlaydi. ”Todd” hikoyasida esa shunday xulosaga keladi: ”...Falsafaniyam shu bilan yig‘ishtirdim. Bildimki, hech bir falsafa hayot hikmatini izohlab bera olmas ekan. Chunki, hayot hamisha haq va rang-barang, tovlanuvchi, falsafa esa, uning faqatgina soyasi, boshqa hech narsa emas ekan”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yetuklik jozibasi [Matn] Nashrga to‘plab, tayyorlovchi: G.Sattorova, M.Qo‘chqorova. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
2. U.Hamdamiyov, A.Qosimov. Jahon adabiyoti. (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Barkamol fayz media», 2017, 352 bet.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

**MATNAZAR ABDULHAKIM – ZUKKO ADABIYOTSHUNOS**  
**(adabiy ijod haqidagi qarashlar, muloqot-xotiralar, adabiy suhbatlar)**

*Gulianbar QURANBAYEVA,*  
*UrDU magistranti*

Teran poetik nigoh, narsa va voqelikni estetik his qilish, anglash va kashf etish, falsafiy mushohada, topilma fikr va tiniq kechinma uyg'unligi, obrazli ifoda shoir Matnazar Abdulhakim tafakkurining asosiy xususiyatlaridir. "Shunchaki yozishni shoir uchun o'lim" (Halima Xudoyberdiyeva) deb bilgan Matnazar Abdulhakim yurak qo'ri, vijdon amri bilan chinakamiga ijod qildi. Shoirning butun ijodiga xos bu tamoyil uning hali chop etilmagan, lekin do'stlari, adabiyot muxlislari bisotida saqlanayotgan she'rlarida ham bosh mezon bo'lib, ulardagi beg'ubor tuyg'ular ijodkor ma'naviy umrining davomi sifatida qadrlidir. Shoir badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkordir. Uning she'rlarida yuksak estetik did, voqelik va kechinmalarni badiiy kashf etish salohiyati yorqin ko'rinsa, ilmiy-ommabop maqolalarida adabiy merosni, xususan, o'tmish badiiy yozma qadriyatlarini chuqur anglash va idrok etish iqtidori namoyondir.

Ijodkor haqida ma'lumot beruvchi muloqot-xotiralar, adib ijodi haqida yaratilgan taqdiqotlar, adabiy portretlar, matbuotda e'lon qilingan maqolalar Matnazar Abdulhakim shaxsini ochib berishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, yosh ijodkor-jurnalistlar bilan suhbatlar ijodkorning ichki dunyosini ham to'laqonli tahlilga tortishga, Matnazar Abdulhakimning hayot, jamiyat, insoniyat haqidagi o'y-fikrlarini mushohada etishga imkon beradi. Zero, Matnazar Abdulhakim chinakam shoirgina emas, butun bir insoniyatga o'rnak bo'lgulik umrni yashab o'tgan yuksak fazilatlar egasi hamdir. Jumladan, Go'zal Begim, Shuhrat Matkarim, Yangiboy Qo'chqorov va Ismoil Ollaberganov kabi ijodkor, jurnalistlar muloqot-xotiralarida, adabiy suhbatlarida serqirra ijodkorni keng ko'lamda tasvirlashda, tom ma'noda zakiy adabiyotshunos sifatida tasavvur uyg'otishga erishishgan.

Xorazmlik shoira Go'zal Begim shoirni Vatan tushunchasidan ayro holda tasvirlamaydi, xuddiki Xorazm deganimizda ko'z oldimizda donishmand ustoz Matnazar Abdulhakim bo'y ko'rsatadi: "Xorazm hech bir ta'riflarsiz yurak osmonida baland-balandlab kezuguvchi diyor. Men uchun ustoz Matnazar Abdulhakim Xorazmning eng baland cho'qqisidir. Bu tabarruk inson bilan bir zamin va bir zamonda tug'ilganim men va boshqa xorazmliklar uchun ham ajoyib siylov. Axir, sen bilan bir asrda shunday ulug'inson yashaganini bilib, his etib turishning o'zi baxt-ku!" Darhaqiqat, shoirimiz Omon Matjon tog'ga miqyos qilgan zotlar qatoriga Matnazar Abdulhakimni ham qo'shsak, yanglishmagan bo'lamiz, nazarimizda.

Ijodkor haqidagi xotiralarni yig'ib, kitob hoida nashr ettirishdek mas'uliyatli ishning boshida turgan jurnalist va adib Shuhrat Matkarim shoir she'rlarini tahlilga torta turib, ijod psixologiyasi, ijodkor ruhiyati haqidagi masalalar borasida fikr yuritadi. Jumladan, "Kelur" radifli g'azali misolida

yoʻzuvchi va shoirning har bir asari maʼlum maʼnoda avtobiografik boʻlishi bilan birga ular ijodkor qalbining hech boʻlmaganda mingdan birini oʻzida aks ettirishini taʼkidlab oʻtadi. Ushbu gʻazal Matnazar akaning butun xulq-atvori, xarakteri, dunyoqarashi, boringki, hayotga boʻlgan falsafiy munosabatini toʻlaligicha oʻzida aks ettirgan, degan xulosaga keladi.

Shaksiz, Matnazar Abdulhakim sheʼrlarida hissizlik boʻlishi mumkin emas. Shoirning oʻzi ham suhbatlarning birida: "Men uchun soʻzdan ogʻirroq narsa yoʻq",- deb taʼkidlagan edi. Shunday ekan ijodkorning har bir aytgan soʻzi olam-olam falsafaga, fikrga, hayotiylikka yoʻgʻrilganki, shu boisdan boqiylikka daxldordir.

Qoraqalpogʻiston Yoʻzuvchilar uyushmasi raisi oʻrinbosari, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi Yangiboy Qoʻchqorov oʻz xotiralarida Matnazar Abdulhakimning zalvarli umr yoʻliga, ilmiy izlanishlariga, ijod lahzalariga keng toʻxtalgan: "Hech shubha yoʻqki, bizning zavqli zamonamizda milliy adabiyotimizning Mirtemir va Zulfiya, Matyoqub Qoʻshchonov va Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov va Abdulla Oripovdek tan olingan karvonboshilardan keyingi avlodga mansub badiiy soʻz pirlaridan biri isteʼdodli shoir, taniqli tarjimon, ajoyib adabiyotshunos, adabiy tilimizning beqiyos bilimdoni Matnazar Abdulhakim edi". Jumladan, Matnazar Abdulhakimning ilmiy va tarjima asarlari adabiyotshunosligimizda olamshumul yangilik boʻlganligi, ijodkorning yunon falsafasi, Pahlavon Mahmud, Najmiddin Kubro, Forobiyilar falsafasi bilan yaqindan tanish ekanligini, Navoiy va Ogahiy gʻazallarini maromiga yetkazib sharhlab, adabiyot muhiblariga yetkazishda jonbozlik koʻrsatgani haqida qimmatli fikrlar bayon qilgan. Zero, Hazrat Navoiy va Hazrat Ogahiydek zotlarning gʻazallari qatiga singdirilgan botiniy maʼnolarni hamma ham birdek angʻlay olmaganini inobatga oladigan boʻlsak, Matnazar Abdulhakimning zakiy adabiyotshunos sifatidagi qiyofasi koʻz oldimizda ravshanroq gavdalanadi.

Matnazar Abdulhakim shaxsini ochib berishda yaqindan koʻmak beruvchi adabiy suhbatlarni "jonli manba" desak, maqsadga muvofiqdir. Ularda shoirning adabiy ijod haqidagi, jamiyat, insoniyat, butun bir olam xususidagi oʻy-fikrlari, qarashlari aks etgan. Matnazar Abdulhakim bilan suhbatda boʻlganlar u zotning dilkash, zukko suhbatbosh ekanligini taʼkidlaydilar. Jurnalist Ismoil Ollaberganov shoir bilan suhbatlashib, uni "Turnalar qaytadi" nomi ostida nashrdan chiqardi. Mazkur suhbat maʼlum bir mavzu doirasida kechgan emas, umuman, barcha suhbatlarda Matnazar Abdulhakim adabiyotdan, hayotdan, iymon-eʼtiqod tushunchalaridan soʻz yuritadiki, bu fikrlar barchasi bir-birining uzvidir. Suhbat davomida ijodkorning chinakam inson sifatidagi qiyofasi ochilib boradi: "Eʼtiqod izlanishi insoniyat tarixida eng ogʻir izlanish, eng uqubatli saodatdir. Shuning uchun ham bu yoʻlda erishilgan maʼnaviy qadriyatlardek bebaho mulk ham, bu yoʻlda yoʻqotilgan, boy berilgan maslaklar kabi mudhish judoliklar ham yoʻq". Matnazar Abdulhakim shoirlarga katta talab qoʻyadi: "Agar shoir ezmalik qilsa, sheʼrxonni oʻzidan nodonroq deb oʻylab sheʼr bitsa salomga yarasha alik, deganlaridek, bunday sheʼr oʻquvchi yuragida gʻashlikka duch keladi. Albatta, bunday kalondimogʻlikni fahm etmaydigan sheʼrxonlar toifasi ham bor. Bunday

farosatsizlarning jazosi esa xuddi mana shu qabildagi she'rlar va shoirlardir". Shu o'rinda ijodkor bolalar shoirlariga ham talab qo'yadiki, adabiy didning tarbiyalanishi bolalar shoir va adiblariga ham bog'liqligini uqtiradi.

Xullas, Matnazar Abdulhakim haqidagi xotiralar, uning o'z asarlari, she'riy to'plamlari, tarjimalari, ijodkor bilan bo'lgan muloqot-suhbatlar donishmand shoir shaxsiyati va ijodini to'la tasavvur qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Go'zal Begim. Majnunsoat. – T: Akademnashr, 2012.
2. Mangulikka muxtasar nazar. Urganch, 2019.
3. Matnazar Abdulhakimni eslab. Matkarim Sh. – Toshkent: LESSON PRESS, 2015. 5-b.
4. Ustoz haqida so'z: xotiralar G'.Sh.Matkarimov, – Urganch: "Xorazm" nashriyoti, 2013. 30-b.
5. "Yosh kuch" jurnali, 1997-yil, № 7.

### **BADIIY ASAR ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH**

*Oysuluv MUSURMONKULOVA,  
Respublika ta'lim markazi  
Standart va baholash bo'limi metodisti*

Jahonda yuz berayotgan yangilanishlar, innovatsiyalarning kirib kelishi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Bugungi kunda, ta'lim tizimida Milliy o'quv dasturi asosida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan fanlar qatorida ona tili va adabiyot fani standarti ham o'zgartirildi. Standartda lingvistik va nutqiy kompetensiyalar asosida belgilangan talablar, o'quv dasturi va metodologiya qayta ishlab chiqildi. O'quvchilarning asarlar mazmunini tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ijodkor keltirmagan ma'nolarni anglash, o'rni kelganda tanqidiy yondashish, o'qish savodxonligini rivojlantirish masalalari bugungi hayotiy ko'nikmalar sifatida qaralmoqda. Bunda fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda, amerikalik kashshof pedagog Djon Dyui 1933-yilda "Insonni fikrlashga o'rgatish" ta'lim tizimining asosiy vazifasi, deb aytgan edi. Darhaqiqat, adabiyot fani istiqboli ham asarlar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish yo'lidan odimlaydi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon bejiz, " Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralagan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirdg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir", – degan edi. Demak, adabiyot tom ma'nodagi odamiylik mulki, badiiy asar esa inson qalbini poklovchi vosita deyish mumkin.

Bu vosita insonning estetik va ma'naviy qudrati sifatida insonparvarlik, odamiylik, halollik, to'g'rilik, fazilatlarini tarbiyalaydi, o'z vatani, xalqi oldidagi burchi, shaxsiy daxldorlik tuyg'ularini anglatadi. Bu borada, o'qituvchilar

nimalarga ahamiyat berishlari yuzasidan o'rtiqshaksak. Misol uchun, O'. Umarbekovning "Qiyomat qarzi" asarini olaylik. Asarlarda keltirilgan voqealar, tanlangan detallar, tasviriy vositalar ijodkorning qanchalik mahoratli ekanligining yorqin isbotidir. Hikoyada qarzi bu omonat ekanligi, omonatni asrash, har qanday sharoitda ham omonatga xiyonat qilmaslik motivlari hikoya qilingan.

Muhokama uchun savollar:

1. "Bitta qo'y nima, odamdan ham azizmi?" Aslida, aziz emasligi barchaga ma'lum, nega unda muallif, aynan, shu so'zni qo'llagan deb o'ylaysiz?
2. Sarsonboy otaning o'zim berishim kerak mazmunidagi ma'yuslik manzaralari bor. Sizda shunga yaqinroq holat bo'lganmi?
3. Haydaralini topishning hech iloji bo'lmasa, Sarsonboy ota omonatni nima qilganida ko'ngli xotirjam bo'lardi?

O'qituvchilar bu savollar orqali o'quvchilarni muhokamalarga olib kirish, mustaqil fikrlarini ayta olishni o'rgatish hamda turli vaziyatlarga yechim topish, fikrlarini asoslab gapirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Sarsonboy otaning qalbini tushunish o'quvchilar yoshida birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Asar yakunida muammoga yechim topiladi.

Shuningdek, bu obrazning aksi sifatida Chexovning "Xameleon" asarida bosh qahramoni politsiya xodimi Ochumelovga qiyoslab ko'ring. Bu qahramonga bu tuyg'ular begona. O'z manfaati uchun turlana oladi. Muallif uning rasmiy maqomidan unumli foydalanib, vijdoni yo'q, subutsiz politsiya qiyofasida jamiyatdagi hameleonlarning qora illatini satira orqali ochib beradi. Ochumelovning tozi itga nisbatan: "Qutirgan bo'lsa ham ajab emas...", "...Na juni boru na vajohati... qabohatning o'zi xalos", "...surishtirib o'tirishning ham hojati yo'q, yo'qotish kerak?", "binoyidekkina kuchuk ekan... Ziyakkina ekan..." kabi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan fikrlar bilan uning ichki xususiyatini aniq ochib bergan. O'quvchilarga ijodkorning hikoyada qo'llagan detallarini: palto – mansabparastlik ramzi, qo'ldagi bog'lam – poraxo'rlik ramzi sifatida kiritilganligini anglatish, tashqi qiyofasiga mos nomlar keltirilganligini muhokamalarga olib kirish asosida xulosalar chiqarishga undaydi.

O'quvchilarga oddiygina savol berib ko'ring. Misol uchun, siz to'satdan birovga noo'rin gapirib qo'ysangiz tanangizda o'zgarish kuzatganmisiz? O'zining fikrini aytib bo'lgach, nega Ochumelov kun isib ketdi deb yechgan paltosini qisqa fursatda shamol turdi deb kiydirishni buyurishi qalbini tinchlantira oladimi?

Bu vaziyatlar Sarsonboy otaning tinimsiz derazaga tikilib o'tirishi bilan Ochumelovning paltosini kiyib yechishi o'rtasida qanday o'xshashlik yoki farqli tomonlari kabi muammoli vaziyatlarga olib kirish o'quvchiga yechim topishga o'rgatish dars maqsadiga erishishiga olib keladi.

O'qituvchilar doimo mumtoz adabiyotni o'quvchilar tushunishi qiyinligini ta'kidlashadi. To'g'ri bu gapda jon bor, albatta. Sababi lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini o'quvchilarda kam kuzatamiz.

O'qituvchilar Alisher Navoiy ijodning qaysi sohasini(hikmat, hikoyat, doston, g'azal) o'tmasin, matnda uchraydigan lug'attalab har bir so'zga izoh berishi lozim. Muhimi, o'qituvchi o'quvchilarni doston ohangi, uning g'azal

misralaridagi ruhni ilg'aydigan holatga keltirishi lozim. Shu tariqa o'quvchilar asar ichiga ruhan olib kirilgach, ko'tarilgan g'oyalar yuzasidan savol va topshiriqlar asosida suhbat o'tkazish, topshiriq berish tavsiya etiladi. Mavzuni boshlash bilan topshiriqlar berilishida natijaviylik kuzatilmaydi. O'qituvchi bu jihatlarga ham ahamiyat berishi lozim.

Shuningdek, matnda mavjud javoblar ham o'quvchida qiziqish uyg'otmaydi. Mantiqqa asoslangan topshiriqlar berilishi, umumiy muhokamalar o'tkazilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi

Namuna sifatida, darslikning quyi sinfda o'tiladigan matnni olaylik:

Bog'bon yaratajak bog'ini reja bo'yicha, ya'ni daraxtlarni bir tartibda ekib, parvarish qilmasa, har yerda tarvaqaylab, qiyshiq-qing'ir o'sgan daraxtlar bog'ni changalzorga aylantiradi. Dehqon esa urug' sohadigan yerini shudgor qilib, so'ng mola bosmasa, ya'ni tekis qilib olmasa, sochgan urug'i bir xilda unib chiqmaydi. Chunki notekis yerda ekinlar bir xil sug'orilmaydi.

Bu matnga topshiriq turli shaklda qo'llash mumkin. Bir javobli topshiriq berildi deylik:

Bog'bon va dehqon ishida tartib muhimligi qaysi javobda ko'rsatilgan.

- A) bog'bon ekishida – dehqon yerni tekislashida
- B) bog'bon parvarishida – dehqon sug'orishida
- C) bog'bon sug'orishida – dehqon urug' sochishida
- D) bog'bon ko'chat payvandlashda – dehqon yerni tekislashi

Keltirilgan variantlar o'ylab ko'rilsa barcha javoblar to'g'ri keladi, mantiqiy o'ylab qaralganda savolda urg'u "tartib" so'ziga ahamiyat qaratish muhim. Demak, bog'bon ekishida – dehqon yerni tekislashida tartib muhimligini ko'rish mumkin. Muhokamada, dehqonni ekishida ham tartib muhim deyish o'rinli, ammo matnda bir xil tartibda to'g'irlanishi keltirilganligi va noto'g'ri chiqqan donni yagona qilish mumkinligini o'quvchi tahminlay olish lozim.

Yuqori sinflarda ham topshiriqlar mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

"Saddi Iskandariy" dostonida Navoiy: "Qaysi bir o'tni suv bosadigan bo'lsa, uning o'chmay qolishi mumkinmi?,"-degan fikrida inson umrining qaysi davriga ishora qilgan. Asarni yaxshi tushungan o'quvchi qiyinchiliksiz topishga erishadi.

Topshiriqlar tuzishda bir necha javobli topshiriqlar ham o'quvchilarni mustaqil fikrlashini oshirish, shaxsiy fikri bo'yicha dalillar keltira olishga yo'naltiradi. Demoqchimanki, o'quvchilarni bitta to'g'ri javob bilan fikrlashiga katta to'siqlar bo'lib kelganligiga ko'p ham ahamiyat beravermaymiz.

Yana bir misol, "U bechora esa: "Tajribam yo'q edi, ey do'stim! Suvda suzishni bilmaganim uchun g'arq bo'ldim. Qarigach, shunday kunlar boshimga tushajagini bilsam edim, yigitlik davrimni uvol qilib, behudaga o'tkazmagan bo'lar edim", – dedi. "Otang necha yoshga kirib o'ldi", – deb so'radi pir. Hisob qilib: "112 yoshda", – deb javob berdi yigit. "Shu paytda u ham kuch-quvvatdan qolganmidi?", – deb so'radi pir. Eshituvchi buni to'la tasdiqladi". Matnda ko'zlangan maqsadni aniqlang. O'quvchi mantiqiy yondashib yetarli tajribani anglamaslik, umrni mazmunli o'tkazish, vaqtni bekorga o'tkazmaslik mazmunidagi kabi javoblarni yozishi mumkin. Bunda, mazmunan yaqin boshqa

javoblarni inkor etmagan holda mantiqiyliги yuqori javob sifatida “yetarli tajribani anglamaslik” variantini mezonlar asosida baholash mumkin.

Ustoz – inson ma’naviyatining me’moridir. Demak biz ustozlarimiz bergan o’g’itlarni shogirdlarimizga o’rgatar ekanmiz, burchimizni ado etgan bo’lamiz.

O’zbek va mumtoz adabiyoti sirlarini o’rgatgan, fidoiy ustozlarimizdan V.Rahmonov, U. O’ljaboyevlarning mehnatlari katta albatta.

Ustozlarni eslar ekanman, dars jarayonida mumtoz va o’zbek adabiyotining nodir namunalari bilan tanishtirishda millatning ma’naviy qiyofasi, insonning ruhiy qudrati, milliy til imkoniyatlarini saqlab qoladigan ma’naviy meros ekanligini alohida uqtirganlari hamon yodimda.

Ta’kidlash joizki, V. Rahmonov, U. O’ljaboyevlar biz kabi qancha-qancha shogirdlariga chin ma’nodagi ibrat bo’lishdi. Ustozlar yaratgan bog’ bugun mevaga kirgan, ya’ni shogirdlari, farzandlari ishlarini davom ettirib, fan rivojida sidqidildan xizmat qilishmoqda.

V.Rahmonovning matnshunoslikda alohida o’rni borligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ustoz amaldagi 8- va 9-sinf adabiyot darsliklarining mas’ul muharriri sifatida butun darslikda keltirilgan badiiy asarlarning til xususiyatlarini o’rgatish, mumtoz asarlarning tabdilini tayyorlashda asliyatga solishtirish, so’zlarning izohini keltirish, asar mazmunidagi ezgulikni anglatish, yoshlarning badiiy saviyasini oshirishda beminnat xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Darhaqiqat, kelajagi buyuk davlatni qurayotgan yoshlarning tafakkuri badiiyati, ma’naviyati, saviyasi yuqori bo’lib. Vatanni yuksaltirish, ma’naviy merosimizni avaylab-asrab doimo yonib yashash hissi bilan sug’orilgan bo’lishi lozim. Zero, ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarda egallagan o’rni, milliy o’quv dasturlarga mosligi va yoshlarning jahon bilan bo’ylasha oladigan salohiyati borligiga asos bo’ladi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., «O’zbekiston» nashriyoti, 2002,
2. Karimov N. va boshqalar. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. –T., «O’qituvchi» nashriyoti, 1999.
3. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz).
4. Yo’ldoshev Q. Yoniq so’z. Yangi asr avlodi. – T., 2006. 544 b.
5. Turayev D. Hayot va syujet. T: Adabiyot va san’at, 1984.

### **ZULFIYA SHE’RIYATIDA SADOQAT TARANNUMI**

*Nargiza NORMURODOVA,  
GulDU magistranti*

Zulfiyaxonim avvalo o’zbek shoirasi. Shu vajdan uning she’riyatida O’zbekiston butunligicha jilvalanadi. O’zbek tabiati, o’zbek qalbi, o’zbek mehnatkashining buyuk do’stona oiladagi baxtiyorligi, o’zbek ayolining yorqin va suluv siymosi, dardi va baxti, to’y va tomoshasi mana Zulfiyaxonim she’riyati! Ha,



Zulfiyaxonim she'riyatini shunchalar yuksakka ko'targan Mirtemir shunday fikrlarni aytishga naqadar haqli edi. Yangidan-yangi tashbehlar ila jilvalanuvchi bugun va ertaga ishonch, do'stona muhabbat, eng asosiysi "ey sevgisi aziz, ey sevimli yor" deb bilgan Hamid Olimjonga bo'lgan sadoqat, vafo, chinakam muhabbat Zulfiyaxonim she'riyatining ko'zgusidir.

Faqat seni dedim, qalb qo'shig'ini,  
Ey, aziz Vatanim, atadim senga!  
Sen hur bo'lganing -chun nafasim hurdir,  
Hayotim lazzatli, baxt yordir menga.

Qalbining tub-tubidan sehrli qo'shiqlarini aziz Vataniga baxshida etgan, o'zbek xalqining baxtli shoirasi Zulfiya she'riyati inson qalb torlarini jaranglatuvchi sehrli qudratga ega.

Zulfiya haqida, uning siru-sinoatga, sadoqatga boy she'riyati haqida so'zlamagan, uni sevmagan xalq yo'q deyish mumkin. Zulfiya Mirtemirdan tortib G'afur G'ulom, Komil Yashin, Oybek, Vohid Zohidov, Qaysin Quliyev, Mustay Karim, Rasul Hamzatov, Nikolay Gribachev. Chingiz Aytmatov, Yevdokiya Los, Sergey Smirnov, Mikola Bajan, Marvarid Dilboziy, Konstantin Simonov, Nikolay Tixonov, Vera Inber, Stepan Shginachev, Eduard Mejelaytis, Chingiz Ahmarov kabi har bir xalqning atoqli ijodkorlari bilan birga o'sha xalqlarning olqishiga ham sazovor bo'lgan. Bir o'zbek shoirasi uchun bundan ortiq ehtirom bo'lishi mumkinmi? Zulfiya ana shunday yuksak ehtiromlarga chindan-da loyiq edi. Uning poeziyaga, eng asosiysi Hamid Olimjonga bo'lgan sadoqati tillarda doston bo'lgani bejiz emas. Zulfiya o'zbek shoiralari orasida o'zining insoniy sadoqatiga haykal o'rnatib ulgurgan. Bu haykal ko'zga ko'rinmasada, ammo she'riyat oshiq-lari uchun u bor va hamisha ulug'vordir. Biz Zulfiya haqida, uning mangu sadoqat simfoniyasiga aylangan she'riyati haqida dil-dilimizdan kuylagimiz, yurak urishini soxtaliksiz, zo'riqliksiz, yolg'on-yashiq-larsiz, qalb amri bilan qog'ozga to'kkimiz keladi. Keyin bilsak, izlab-izlab topgan, inju-dur deb bilgan so'zlarimizdan allaqachon mashhur olimlar-u shoirlar munis qo'shiq kuylab, elga baxsh etib ulgurgan bo'ladi. Zulfiya haqida barcha iliq so'zlar yozib bo'linganidan hayratimizni yashira olmaymiz. To'g'ri, biz Zulfiyaning "atlasday sochlari silliq taralgan, navniholday", "xayolchan, ma'sum", "so'zning inju xayollariga g'arq" bo'lgan go'zal va ulug'vor siymosini faqatgina suratlarda ko'rganmiz, uning mayin, tiniq ovozini faqat radio yoki televizorda tinglaganmiz. Zulfiya bilan yuzma-yuz turib emas, faqatgina dilining tub-tubidan to'kilib she'rga aylangan sehrli sadosi orqaligina suhbatlashganmiz. Garchi shunday bo'lsa-da, Respublika Davlat mukofoti, sobiq SSSR davlat mukofoti laureati, O'zbekiston xalq shoirasi, xalqaro Nilufar mukofoti, Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" ordeni, Mehnat Qahramoni unvoni sohibasi haqida shirinnafas hofiz bo'lib, barchani sel qilib, jo'shib-jo'shib qo'shiq aytgimiz keladi. Ha, Zulfiya haqida, uning bitmas-tuganmas she'riy xazinasi haqida qancha so'zlasak oz. Bir ixlosmand muhlisi sifatida men Zulfiya uchun yangi nom topgandekman. Men uni chin dildan sadoqat malikasi degim keladi. Sevimli shoiramiz Oydin Hojiyeva Zulfiya haqidagi dil so'zlarida "Hijron kechalarida uning suratiga topinib, she'rlaridan taskin topgan, matonat

darsini olganlar bu shoirani “Sadoqat kuychisi”, deb e’zozlaydilar” deya fikr bildirgan edi. Darhaqiqat, Zulfiya sadoqat kuychisi, u hamisha sadoqatni tarannum etgani uchun ham sadoqat malikasi, “She’riyatimiz malikasi” degan yuksak sharafga munosibdir. Zulfiya hayoti ham, ijodi ham necha-nechalab qalam ahli uchun asosiy ijod manbaidir. Zulfiya butun hayotini poeziyaga, Hamid Olimjonga sadoqat tuyg’usi bilan o’tkazdi.- yillar ketidan-yillar o’tsada, avval hijron so’ng ayriliq azobi dilini o’rtasa-da, Zulfiya jasorat bilan o’rtoq bo’ldi, hayodan ko’ylak kiydi, mehr-muhabbat bilan tunni, kunga uladi. Do’stlik, mehnatdan saboq oldi. Balki shuning uchun ham Zulfiya she’riyati gruzin, boshqird, azar, bolgar, rusga ham birdek sevimli bo’lib qolganidir.

Muhabbat qaysi bir inson yuragidan joy olmagan deysiz. Yuragi muhabbatga to’la inson daryodek toshib kuylasa ajablanmang. Negaki, muhabbat olov bo’lib yongan yurakning aks-sadosi, kuy-qo’shig’idir. Zulfiyaning Hamid Olimjonga bo’lgan cheksiz muhabbatning aks-sadosi mana bu “Sening maftuning” she’rida aks etgan bo’lsa ne ajab:

Hatto bilmas edim sevarmiding sen,  
Balki sevganingdir bir baxtiyor qiz.  
Balki xayolingdan men behad yiroq,  
Ammo sen dilimda kechayu kunduz.  
Uzoq men axtardim, ammo o’zimda  
Bir kuch topolmadim sevgidan ustun!  
Men seni sevaman sehrgar yigit,  
Butun borlig’im-la men senga maftun.

Shunday, biroq yurakni titroqqa solgan hijron-chi? Hijronga biz qanday ta’rif berishimiz mumkin? Shoira Zulfiya o’zining “Hijron” deb atalgan she’rida bu savolga javob topgandek, go’yo:

Men sevgan dildorning sevgan yurti bor!  
Ishq doim erk uchun hijronga rozi.  
Bu hijron mangumas, visoli ham bor-  
Qahraton qishlarning bo’lganday yozi.

Umr daryo misoli o’taveradi. Fasllar birin-ketin almashaveradi. Qahraton qishlar ham bir kun tugaydi. Uning ketidan dillarga zavq ulashib bahor, yoz tashrif buyuradi. Visol go’yoki yozga, hijron esa insonga qahraton qish chog’ini eslatadi. Sadoqatni, vafoni, chin muhabbatni har qanday dunyo ne’matlaridan ustun qo’yuvchi inson uchun sevgan inson tashlab ketgan hijronning achchiq azobi ham jon ato etuvchi g’azaldir. Hamid Olimjon hayotligidayoq Zulfiya she’riyatga hijronning mungli, ba’zan yorqin ohangi kirib keldi. Shoira xalq boshiga tushgan hijron azobini go’yo o’zinikidek qabul qilib o’tli misralar bitdi, o’sha ohang bilan xalq dilidagi kulfatni quvmoq istadi. Xalqning irodasini, sabr-bardoshini, mard, jasurligini, g’alabaga bo’lgan ishonchini tarannum etdi.

Men uyg’onib qoldim. Qalbim bezovta  
So’ngra bedor o’tdim ol tong otguncha;  
Ham tushda, ham o’ngda izlayman seni  
Sen yovni yo’qotib omon qaytguncha.

Ulug' vatan urushi butun dunyo ahlini larzaga solib, xalq boshiga og'ir musibatlar solganida ham, hijron, ayriliqlar boshlarini egib qo'yganda ham Zulfiyaning jarangdor ovozi susaygani yo'q, balki yana-da baland ruh bilan yangray boshladi. Lekin bu baland ruhga yordan judo bo'lgan beva kelinlarning mag'rur, botir o'g'lidan ayrilgan onaizorlarning iztiroblari, g'alabaga umid ko'zini tikkan singillarning ishonchi qorishib ketgan edi. "Hijron kunlarida" deb atalmish bu she'rda shoira yuragining bir parchasi bor. Zulfiyaning ushbu she'ri xalqning tashvishini o'ziniki deb bilgan haqiqiy el farzandining so'zlari bilan yozilgan. Zulfiya "Sen yovni yo'qotib omon qaytguncha" misralari orqali umr yo'ldoshini intizorlik bilan kutayotgan ayollar ruhini ifodalaydi. Ularning qalb tug'yonlarini o'ziniki deb qabul qiladi. Ehtimol, shoira bu so'zlarni butun front ortidagi sadoqatni, vafoni qalbining tubida avaylagan ayollar nomidan oqqa ko'chirgan bo'lsa ajabmas. Zulfiya hijron ohangi ufurib turgan juda ko'plab she'rlarida o'z galar dardi, quvonch-u shodligini, g'amini o'ziniki kabi qabul etganini anglaymiz. Bu shoira Zulfiyaning olijanob inson ekanidan dalolatdir. Shelli aytganidek: "Haqiqiy olijanob bo'lish uchun inson o'zini o'zganing va ko'pgina boshqa birovlarining o'rnida tasavvur qila olish kerak; G'am va shodlik hamda shunga o'xshash narsalar uning o'zinikiga aylanishi shart". Xuddi shunday xususiyat Zulfiyaning barcha she'rlarida o'z aksini topgan desak yanglishmaymiz. Qaysi bir adib yoki adiba haqida so'zlamaylik, uning ijodi ham bundan mustasno emas. Bu, albatta uning umr yo'ldoshi Hamid Olimjon bilan bog'liq. Hamid Olimjon Zulfiyaning qalbini titroqqa solib, barcha er yigitlar qatori urushga jo'nagan edi. Zulfiya yoriga bo'lgan mehrni, sog'inchini urush davri mashaqqati bilan birga aks ettirdi. Zulfiya butun borlig'i bilan Hamid Olimjonning g'olib va muzaffar qaytishiga shubha qilmasdi. Bu ishonch shoiraning mana bu she'ridan ham joy olgan:

Ishonchim buyukki, bo'lur zo'r bayram,  
Mening sevganim ham qaytadi g'olib.  
Yo'lingga chiqaman quchog'im to'la  
Bog'laringdan o'sgan gullardan olib.

Bunday ishonch Zulfiyaning "Palak" she'rida naqadar jonli ifoda etilganiga guvoh bo'lamiz. Bizga ma'lumki, qadim-qadimdanoq xalqimizda palak tikish odati bo'lgan. Qizlar voyaga yetgach o'z sevgan yigitlariga atab palak tikishgan. Palakning har bir naqshi qiz dilrozini, yigitga bo'lgan bo'lgan bor sevgisidan so'zlagan bo'lsa ne ajab. Momolar udumini unutmagan Zulfiya tunlarini bedor o'tkazib palak tikadi. Har qatimni tortganda aziz yorining suratiga tikilib, "Ishqing bilan chekdim sevgim xatini" deya tikkan palagini misralarda ta'rif etadi. Chin sevgisining armug'oni bo'lgan, mehribon qo'llari yaratgan san'at asarini, albatta, g'olib qaytajak yori Hamid Olimjonga ataydi:

Yovni tamom qilib sen qaytsang g'olib,  
Ishqda birga tepgay bizdagi yurak.  
Seni qarshilagay quyoshday yonib,  
Yo'lingga ko'z tutib men tikkan palak.

Zulfiya she'riyati haqida so'z yuritar ekanmiz, eng avvalo, uning Hamid Olimjondan ayrilib, hijron azobida qolib, mung bilan kuylagan qo'shiqlari diqqatimizni jalb qilishi tabiiy. Xuddi o'sha 1944-yil ning "Hijron kunlari" kitobi nashr etilgan yili shoira hayotida bir umrlik, visoli yo'q hijronli kunlarning boshlanishi, beshafqat taqdir sinovi edi. Baxtsiz tasodif tufayli Zulfiyaning ham umr yo'ldoshi, ham ustoz, ham qalbining egasi Hamid Olimjon hayotdan ko'z yumdi. Mangu yo'qotish, Zulfiya uchun qanchalar og'ir bo'lgani tayin. Bir umr sevib ardoqlagan insonni yo'qotishdan og'ir azob yo'q. Zulfiya qalbidagi ana shu hijron azobidan tug'ilgan dardlar qog'ozga ko'z ila to'kilgan bo'lsa kerak:

Baxtiyor sevgini kuylardi sozim,

O'lim xanjariga tegdi-yu, sindi.

Hijron faryodiday sovuq ovozim

Nahot lirikaning yolqini tindi?

Shoiraning "baxtiyor sevgini kuylagan sozi" o'lim xanjariga tegdi-yu, lekin sinmadi, hijron naqadar sovuq bo'lsada, lirikaning yolqini tinmadi.

Ayol baxti! Menday ayol baxtiga

Taqdir malikani ko'rganmi loyiq?

Xalq mehrida, yorman el shuhratiga,

Baxtli ayol desa haqli xaloyiq...

Darhaqiqat, xalqimizning sevimli shoirasi o'zini har qancha baxtliman desa arziydi. Mashhur kishilardan biri: "Shoironi iztirob yaratdi va bu iztirob she'riyat uchun quvonch bo'ladi" degan ekan. Darhaqiqat, bu so'zlarning isboti Zulfiya she'riyatida aks etadi. Shoironing qalbida tug'ilgan tog'lardek buyuk iztirob, hijron, dard, alam o'zining ziddiyati bo'lgan ulkan, hamma havas qilgulik baxtni ham yaratdi. Bu ulkan va buyuk baxt hamisha va bus-butunligicha xalqnikidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zulfiya. Visol. She'rlar. Dostonlar. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972.
2. Zulfiya. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959.
3. Ehtirom. – Toshkent: O'zbekiston. 1995.

### **O'ZBEK POEMACHILIGI GENEZISI BORASIDA**

*Zamiraxon IBRAGIMOVA,*

*GulDU magistranti*

Hayotning badiiy ko'zgusi sanalgan adabiyot turli davrlar osha bugungi kunga qadar insoniyat oldidagi o'zining muhim mavqeyini saqlab kelmoqda. Yangi zamon va uning bunyodkori bo'lgan inson kundalik turmush tarzi xilmaxilliklarini badiiy talqin qilish borasida adabiy janrlarning ahamiyati o'ziga xosdir. Roman, qissa, she'riy asarlar hamda poemalardagi rang-barang tasvir o'zgarishlari, an'anaviylikni saqlab qolish, xarakter chizgilarida aks etuvchi yangi izlanishlar buning isboti o'laroq maydonga chiqadi. Inson shaxsi, jamiyatga nisbatan munosabati va dunyoqarashidagi o'zgarishlar adabiyotda yangi mavzu va yangicha

shakl yuzaga kelishini talab etadi. Davrlar silsilasida bu o'zgarish va jiddiy izlanishlarni poema janrida ham yaqqol sezish mumkin. Bu o'zgarishlar tasvir uslubi, g'oyaviy yo'nalish, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsion qurilish, ichki strukturadagi komponentlar jihatidan qadimgi dostonlardan farqli o'laroq yangi poemalarda kengroq namoyon bo'lmoqda.

Tarixdan ma'lumki, jahon mumtoz adabiyotida ham dostonlar o'ziga xos ahamiyatli janr hisoblanib kelgan. Sababi ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy muammolarni ko'tarib chiqib, syujetlarni sertarmoqligi hamda drammatizmning kuchli ifodalanishi bilan ajralib turadi. Dostonlarda qahramonlar tashqi dushmanlar bilan kurash olib boradi, umuman, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi. Qadimgi doston namunalariga Gomerning "Illiada", Dantening "Ilohiy komediya", Firdavsiyning "Shohnoma" kabi poemalarni misol keltirish mumkin. Xususan, dostonlar mazmun mohiyatiga ko'ra bir qator turga bo'linadi. Ataylik, qahramonlik dostonlari ("Alpomish", "Farhod va Shirin"), sarguzasht dostonlar ("Sabbai sayyor"), ishqiy-romantik dostonlar ("Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra"), jangnoma dostonlar ("Saddi Iskandariy", "Yusuf va Ahmad"), tarixiy-memuar dostonlar ("Shayboniynoma"), falsafiy dostonlar ("Hayrat ul-abror"), fantastik-allegorik dostonlar ("Lison ut-tayr"), didaktik dostonlar ("Qutadg'u bilig") singari turlari shular jumlasidandir. Ularda mazmun mohiyat talabi bilan sehrli devlar, parilar, ajdar, antiqa otlar, ramziy obrazlar, xalq qahramonlarini o'ta bo'rttirib yoki ideallashtirib tasvirlash janr xususiyati deb qaraladi. Chunki dostonlarda mubolag'ali tasvirlar ustunligi ham o'ziga xos sanaladi. Tarixiy-biografik dostonlar borki, ularda tarixiy shaxslarni ramziylashtirib tasvirlanadi.

Adabiyotimiz tarixidan ko'ramiz xalq dostonlari baxshi, dostonchi, shoirlar tomonidan turli cholg'u asboblari yordamida og'zaki kuylab kelingan. Bugungi kunda ham xalq baxshichilik san'atini taraqqiy etishiga alohida e'tibor berilmoqda. Dostonchilik an'analari yo'qolib ketmasligining oldini olish maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda. Joylarda dostonchilik maktablari vakillari faoliyatiga ko'mak berilib, ustoz-shogird an'analari yoshlarga o'rgatilib baxshichilik san'ati davom ettirilmoqda.

Poemalarning mavzu yo'nalishi turlicha ifodalanib, janrning lirik tur xususiyatlari ustunligi XX asrning 20-30-yillarida badiiy talqin etila boshlaydi. Keng ko'lamda esa 60- yillardan so'ngra bu xususiyat belgilarini to'laqonli namoyon etish ijodkorlar davrasida kamolot bosqichiga ko'tarila boshladi. Masalan, Mirtemirning "Surat", M.Shayxzodaning "Toshkentnoma", yoki boshqa bir qator dostonlarda mavzu yo'nalishi turlicha bo'lib, lirik qahramon kechinmalari, ichki sezimlarining salbiy hamda ijobiy bo'yoqdorligi o'ziga xos shaklda badiiy ifodalangan. Davrning qon tomirlarida kechayotgan botiniy jarayonlar, zamondoshlar ruhiyatidagi murakkab o'zgarishlar dostonnavislik borasida chuqur psixologik tahlillarni, qalbning sir-sinoatga to'la jumboqlariga javob izlashni talab etmoqda. Har qanday adabiy asarlarning yyetuk namunasi o'z davridagi insonlar ma'naviy-madaniy olamidan xabar berishi bilan ahamiyatli sanaladi. Xususan, dostonlar ham bu xususiyatdan xoli emas. Negaki, 50-yillarda yozilgan dostonlar mazmun-mohiyati bilan bugungi kun nuqtai nazaridan

kitobxonda u qadar qiziqish uygʻota olmaydi. Chunki ularda oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti lavhalari aks ettirilgan izlar sezilib turadi, shuning uchun kitobxon asar yozilgan davrga va gʻoyaviy mazmunga kechagi tarix deya munosabatda boʻladi. Ammo shunday bir asarlar boʻladiki, ular minglab-yillar oʻtsa ham oʻz mazmuni, goʻyaviy mohiyatini also yoʻqotmaydi. Bunday badiiy asarlarda bashariyatga daxldor umuminsoniy goʻyalar singdirilgan, tasvir obyektiga olingan, barcha odamlarda uchraydigan his-tuygʻular bayoni beriladi.

Dostonchilik tarixiga bir nazar tashlasak, xalq dostonlari va yozma adabiyotdagi dostonlar shakliy jihatdan oʻxshash ekanligi aytiladi. Biroq yozma adabiyot dostonlarida yozuvchining dunyoqarashi, badiiylikni oʻziga xos ifoda etishi va baholashi, fikr-mulohazasi, orzu-armonlarini tasvirlash uslubi alohidalik kasb etadi. Masalan, Navoiyning “Xamsa”sidagi “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlari asosini folklor mavzu tashkil etsa-da, ammo shoir oʻzining estetik qarashlari, badiiy maqsadidan kelib chiqib ijodiy qayta yaratgan. Balki shu sababdan bu asarlar oʻzbek dostonchiligi tarixida yuksak choʻqqisi sifatida oʻziga xos oʻrin egallagan. Tarix silsilasidan koʻrinadiki, arslar davomida oʻzbek poemalari oʻsib, kamol topib, shakl rang-barangligiga ega boʻlib keldi. “Oʻrxun-Yenisey” yodgorliklari, “Avesto”, “Devonu lugʻotit turk” asarlaridagi doston parchalarida, “Alpomish” va “Goʻroʻgʻli” turkum dostonlarida bu taraqqiyot yoʻlini sezmaslikning iloji yoʻq.

XX asroʻzbek adabiyoti dostonchiligi bir qator oʻzgarishlar bilan ajralib turadi. Xususan, dostonlar hajman toraydi, lirik kechinmalar tasviri kuchaydi. Hayot, voqelik, inson ruhiy olami, ichki kechinmalarini ijrok etish va haqqoniylik bilan badiiy tasvirlash asosiy maqsad boʻlib qoldi. Mirtemirning “Surat” dostonida bu shakl uslubi alohida sezilib turadi. Shu bilan birga bu davr poemalarida ham afsona va asotirlar faol tasvirlanishi davom etdi. E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, A.Oripovning “Jannatga yoʻl” dostonlari bunga misol boʻladi. Hozirgi zamon dostonlarida ham davom etib kelayotgan xususiyatlarga drama janri belgilarini – konflikt, dialog, ayniqsa, epik tasvir unsurlarini sanab oʻtish mumkin. Masalan, E.Vohidovning “Istanbul fojiasi”, O.Matjonning “Pahlavon Mahmud” kabi asarlar shular jumlasidan.

XX asrning boshlarida xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz adabiyot anʼanalari davom ettirilgan, shuningdek jahon poemachilik tajribasiga tayanilgan holda barmoq tizimiga asoslanib yozilgan poemalarning yangicha shakli vujudga keldi. Asrning II yarmida esa poemalar yangi shakldagi janr koʻrinishida paydo boʻla boshladi. Ayni paytda bu jarayon takomillashib borishda davom etmoqda. Binobarin, T.Nizomning “Girya”, H.Saʼdullaning “Doʻst qadri”, M.Yusufning “Qora quyosh” poemalari xotira xarakteriga ega dostonlardir. Keyingi davr poemachiligi oʻzida xalq folklorchilik belgilarini, mumtoz adabiyot dostonchiligining oʻziga xosligini va yangicha butunlay oʻzgacha shakl xususiyatlarini aks ettiishi bilan maʼlum bir uslub yoʻnalishlarini tashkil etadi. Bugungi kunda poemachilik da uch tizimli yoʻnalish paydo boʻldi:

1. Anʼanaviy xalq dostonchiligi yoʻnalishidagi;
2. Oʻzbek mumtoz dostonchiligi yoʻnalishidagi;

### 3. Yangi uslub yoʻnalishidagi poemalar.

Bu borada, birinchidan, anʼanaviy xalq dostonchiligi uslubida yozilgan dostonlarga T.Sulaymonning “Qorasoch”, “Yovqochdi”, “Intizor”, E.Vohidovning “Orzu chashmasi”, O.Hojiyevaning “Najot”, T.Nizomning “Uch soʻz”, A.Suyunning “Imorat yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha dostoni”, I.Otamurodning “Uzoqlashayotgan ogʻriq”, S.Sayyidning “Toʻpolondaryo bilan xayrlashuv”, M.Toirning “Oqib ketgan armonlar” kabi ijodkorlar poemalarini misol keltirish mumkin. Yuqoridagilardan Toʻra Sulaymonning “Qorasoch” poemasida folklorga xos saj sanʼatining voqelikni boshdan-oyoq tasvirlashda unumli foydalanilib, ayol sadoqati, ruhiy-maʼnaviy olamining oʻziga xos qirralari goʻzal tarzda badiiy ifodalanganligi eʼtiborga molikdir.

Ikkinchidan, oʻzbek mumtoz dostonchiligi anʼanalarini, oʻziga xos xususiyatlarini, yaʼni shakl va mazmun bilan bogʻliq belgilarni aks ettirib maʼrifiy, axloqiy, diniy-falsafiy, tasavvufiy mavzularda yozilgan poemalarni kiritish mumkin. Masalan, diniy-falsafiy, tasavvufiy mavzudagi A.Mahkamning “Ishq”, “Tavajjuh”, “Fotiha”, “Toʻrt darvish”, E.Shukurning “Naqshband”, Sh.Qurbonning “Soʻz yoʻli” poemalari; maʼrifiy mavzu yoʻnalishidagi O.Matjonning “Ming bir yogʻdu” poemalari ham yaqqol misol boʻla oladi. Bu uslub tamoyillariga tayanib olis oʻtmishimizda yashab oʻtgan tarixiy shaxslar obrazini badiiy tasvirlash 90-yillarga kelib anʼana tusini oldi. Oʻzbek mumtoz dostonchiligining asosiy belgilaridan boʻlgan hamd, naʼt, sano bilan boshlanishi zamonaviy poemachilikda A.Mahkamning ijodida davom ettirildi va oʻzgacha yangi xususiyat kasb etdi. Shuning uchun ham S.N.Ibrohim: “Asqar Mahkam yaratgan asarlar – bu biz koʻnikkan sheʼriyat emas. Bu sheʼriyatni maxsus lisoniy, ruhiy-maʼrifiy tayyorgarliksiz oʻqib, oʻrganib boʻlmaydi”, - deb yozadi. A.Mahkam dostonlari zamonaviylik belgilarini “azaliy va abadiy fojialar girdobida” (S.N.Ibrohim) yashayotgan insonlar qalb kechinmalarini ifodalshi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunos olim Sh.Hasanov 90- yillar poemalarini oʻrganish davomida shunday xulosaga keladi. “Bugungi doston komillik masalasini falsafiy talqin etayotgan ekan, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumi, Boyazid Bistomiy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy singari komillik martabasidagi shaxslar uning syujetidan qoniniy joy olmoqda. Ijodkor esa oʻzining axloqiy, maʼrifiy qarashlarini shu obrazlarning shaxsiy sifat va fazilatlariga tayanib roʻyobga chiqarmoqda”. Xususan, E.Shukurning Bahovuddin Naqshbandga bagʻishlangan “Naqshband” nomli tarixiy-falsafiy, tasavvufiy yoʻnalishdagi poemasi bu boradagi izlanishlar natijasi oʻlaroq yuzaga keldi.

Poemada shoir tarixiy avliyo shaxslar boʻlgan Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Bahovuddin Naqshband kabi obrazlarni yaratish barobarida yosh avlod vakillariga oʻtmishda yashab oʻtgan bashoratgoʻy va karomatli shaxslarning insoniyat uchun hamon oʻzgacha kamolot sohiblari sifatida badiiy ifoda talqinini berishni maqsad qilgan edi. Xususan, E.Shukurning ushbu asari 90- yillarda yaratilgan liro-epik poemaning tasavvufiy va falsafiy mazmudagi oziga xos bir namunasi oʻlaroq, oʻzbek dostonchiligi tarixidagi badiiy taraqqiyot bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu davr poemachilik takomili jarayonida I.Otamurodning “Tag‘azzul” nomli asari ham borki, unda o‘zbek mumtoz dostonlari ruhida yangi davr poemalari namunasini sifatida qarash mumkin. Ijodkor “Arab va hind shoirlari tag‘azzul binosini yaratdilar” – deya epigraf tanlaydi. “Tag‘azzul” so‘ziga g‘azal janrining ko‘plik ma’nosidan kelib chiqib oshiqlik, ishqilik mazmuni bilan izohlaydi. Ya’ni:

*Tag‘azzul – ko‘p qadim binodir, zotan,  
Me‘morlari – kangul fuqarolari.  
Ishqqa doxil suyagi surmalarga tan –  
jismimda nish otgan ishq yarolari.*

O‘zbek mumtoz dostonchiligi ruhida yozilgan “Naqshband” hamda “Tag‘azzul” asarlari keying-yillar poemachiligida mazmuh mohiyati bilan alohida ajralib turadi. Ularda yangi avlod ijodkorlarining ijodiy-uslubiy qarashlari, komillik tomon bo‘y cho‘zayotgan insonlar ko‘ngil maskani qat-qatlariga teran nigoh bilan nazar tashlab, ijtimoiy hayotga o‘zgacha ko‘z ila boqayotgani ko‘rinadi. Yangi davr poemalarida shoirlarning mumtoz an‘analarni davom ettirgan holda yozilgan dostonlarini quyidagicha izohlash mumkin:

Aruzda yozilgan poemalar: J.Kamolning “Quyosh chashmasi”, “Shahribonu”.

Masnaviy shaklida yozilgan poemalar: J.Kamolning “Varaxsha”, M.Alining “Beshgul”. Qasida-poemalar: M.Shayxzodaning “Toshkentnoma”, E.Vohidovning “Toshkent sadosi”, “Quyosh maskani”, J.Jabborovning “Quyosh yurti”, T.Ahmadning “Buxoronoma” va boshqalar.

Demak, XX asr ijodkorlari yangi davr dostonchiligi tarixdagi mumtoz adabiyotimiz poemalari an‘anasini mazmuniy jihatdan emas, balki badiiy nuqtai nazardan ham unga mos shaklda diniy, tasavvufiy, falsafiy ruhda badiiy talqin etishda masnaviy usuldan, aruz vazni imkoniyatlaridan, shuningdek barmoq tizimi shaklidan keng foydalangan holda o‘zbek adabiyotining poemachilik yo‘nalishidagi yangi mazmun mohiyatga ega o‘ziga xos belgilari bilan ajralib turuvchi dostonlar yaratdilar. Dostonchilik yo‘nalishi takomillashuvi boshqa janrlar singari davr bilan hamohang tarzda taraqqiy etib borishi ijodkor ahlining adabiy-badiiy yaratishlarida o‘ziga xos tarzda bo‘y ko‘rsatib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Hasanov. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlari poetikasi. – T., 2004, 188-bet.
2. I.Otamurod. Tag‘azzul. – Toshkent: Sharq, 2008, 124-b.
3. D.Quvvatova. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek poemachiligida janr va uslub rang-barangligi. – T. 2010, 11-b.
4. D.Quvvatova. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek poemachiligida janr va uslub rang-barangligi. – T., avtoreferat. 2010, 42-b.
5. S.N.Ibrohim. Ruhning rangin sadolari /Asqar Mahkam. Haq. Saylanma. Adib, 1998. 14-b.
6. D.Azimova. Yangi o‘zbek dostonlarida davr va shaxs fojeasining poetik talqini. – T., f.f.f.d. avtoreferati. 2020.
7. www.ziyo.com elektron kutubxona ma’lumotlari.



## ANVAR OBIDJON IJODIDA SATIRA VA YUMOR

*Elbek OQBO‘TAYEV,  
GulDU 2-bosqish magistranti*

Anvar Obidjon 70-yillarning oxirlagida yaratilgan «Alamazon va uning piyodalari (bu asar dastlab 1983-yilda “Ey, Yorug‘ dunyo” nomi bilan nashr etildi) qissasida, 80-yillarning oxirlarida bitilgan “Meshpolvopping janglari» dostonlarida hamda bir necha she’riy ertaklarida Vatan ozodligi, erk uchun kurash masalasini tarixiy mavzuga uyqash tarzda ko‘tarib chiqadi.

“Alamazon va uning piyodalari»dagi voqealar afsonaviy shahar Yulduzistonda bo‘lib o‘tadi. “Meshpolvoning janglari”dagi voqealar turli qishloqlarda, mustabid shoh taxti joylashgan “Qahratoniya”da ro‘y beradi. Shunisi e‘tiborga sazovorki, har ikki asarda ham agar davlat boshiqlari ongsiz bo‘lishsa, muttahamlik, xudbinlik, laganbagdorlik, mansabparastlikka yo‘l ochiladi va o‘lkasi jannatmakon, odamlari qanchalar pokizafe‘l bo‘lmasin, har qanday jamiyat, oxir-oqbat “yurti iflos xandaqqa, xalqi irkit maxluqqa” aylanishi mumkinligi kuyunib bayon etiladi.

Bu asar nashr etilganida taniqli adabiyotshunosh, munaqqid Ibrohim G‘ofurov o‘zining “O‘ttiz-yilizhori” kitobida shunday yozgan edi “Gap Anvar Obidjonning “Ey, Yorug‘dunyo...” degan sarguzasht qissasi haqida ketmoqda. Bu – yosh adibning birinchi yirikroq kitobi. Bungacha u o‘quvchilarga o‘zining she‘rlari va jajji hikoyachalari bilan tanilgan edi. Anvar Obidjonning she‘rlari ham, kichkina hikoyachalari ham o‘tkir fikrlarga, topilmalarga, kutilmagan obrazlarga, jozibali va nurli kulgiga boyligi bilan ko‘pchilikning e‘tiborini tortgan, adabiyotimizga yorug‘fikrli bir ijodkor kirib kelayotganidan darak bergandi”. [2]

Asarning ichki mazmun-mohiyatidan unda sobiq sho‘rolar jamiyati nazarda tutilayotganligi ochiq-oydin sezilib turadi. Qissa qahramoni Alamazon, ko‘plab tengdoshlari qatori, nihoyatda xayolparast va ta’sirchan. Uning ma’naviy dunyosi shakllanishida badiiy asarlarning o‘rni beqiyos. Alamazon kitob o‘qib zavqlanadi, qattiq ta’sirlanadi, asar qahramonlariga yurakdan havas qiladi, ularga o‘xshab odamlarga ezguliklar va yaxshiliklar qilish, jasoratlar ko‘rsatish orzusi bilan yonadi, hayotga cheksiz ishonch va umid bilan qaraydi. Muallif o‘smirdagi mana shu sifatlarni mehr bilan ko‘rsatar ekan, bunday sifatlarga ega bo‘lgan inson xalqning og‘ir ahvolini ko‘rib loqayd o‘tib ketolmasligini, ifloslik anqib turgan havodan bemalol nafas ololmasligini ta’kidlaydi.

Qissaning bosh qahramonlari Alamazon va uning do‘sti Eshmat. Alamazon ta’kidlaganimizdek kitobga mehr qo‘ygan, undagi qahramonlarga o‘xshashni istaydigan qaxramon, o‘z qishlog‘ida, o‘z vatani rivojiga hissa qo‘shish maqsadida ezgu orzusi xazina topishga bel bog‘lagan qahramon, “Alamazon ta’tilning dastlabki kunlarida Jek Londonning “Uch qalb” degan kitobini o‘qib chiqqan, qorong‘i g‘or vahimalarini zarracha pisand qilmay- dikan, hatto oiim dahshatidan ham titramaydigan quvnoq va qaysar xazina qidiruvchilar jasorati uni qattiq hayajonga solgandi” [2]. Shundan so‘ng xazinani topishga bo‘lgan ishtiyoqi oshib ketadi. Xazinani qayerda ekanligini ham o‘smir aqli bilan chamalaydi : “Bir o‘ylab

ko'rgin-a, – jahlini ichiga yutib, iloji boricha silliqroq gapirishga tirishdi Alamazon, – hinduning g'orida xazina bo'ladi-yu. o'zbeknikida bo'lmaydimi? Qulog'imni garovga tikib aytamanki, o'zimizning Jandag'orda ham xazina bijib yotibdi. Uni topadigan odam yo'q, xolos". [3] E'tiborli jihati, qissa qahramoni Alamazon xazinani ochko'zligi uchun emas, ezgu niyatlar uchun qidirishga urinadi. Bu oltin vasvasasiga yo'liqqan Jek Londonning qahramonlaridan Alamazonni ancha farqlab turadi: "O'sha xazinani topib olsak bormi, heh-hey, odamlarga qancha yaxshiliklar qilish mumkin bo'lardi-ya!"

Keyin u, asosan, qanday yaxshiliklar qilish mumkinligini sanay boshladi. Birinchi galda yaylov etagiga o'n ming kishilik stadion quriladigan bo'ldi". 1. Qissaning ikkinchi qahramoni Eshmat esa Alamazonning sinfdoshi, Alamazon olov bo'lsa u suvday, Eshmat ko'p jihatdan Meshpollonni eslatib yuboradi. Fikrimizcha, Anvar obidjon faqat qorin g'amini o'ylab yuradigan bunday qahramonlar vositasida, yosh avlodni bunday beg'am bo'lish insooni yuksaltirmasligini ishora qilgan. O'zining so'zga ustaligi bilan Alamazon Eshmatni xazina topishga borishga ko'ndiradi. Dastlab xazina izlashga unamagan Eshmat alamazonning quyidagi gaplaridan so'ng ko'nmasdan iloji qolmaydi: "O'sha xazinani topib olsak bormi, heh-hey, odamlarga qancha yaxshiliklar qilish mumkin bo'lardi-ya! Keyin u, asosan, qanday yaxshiliklar qilish mumkinligini sanay boshladi. Birinchi galda yaylov etagiga o'n ming kishilik stadion quriladigan bo'ldi. G'orga kirgan "xazina izlovchilar" tobora ichkarilab borishardi. Shunda Eshmat orqaga qaytishni takli qiladi. Quyidagi dialogda Anvar Obidjon hayotdagi o'tkir ijtimoiy muammolardan biri – boqimandalikni ko'ratib beradi:

Eshmatning Frensislikdan ko'ngli sovib bora- yotgandi. Bu yerda bekordan-bekor emaklab yurish g'irt ahmoqlik ekanligini ochiq gapirishga botinolmagan Eshmat qurbaqaga o'xshab o'zimizni xor qilib yuramizmi, degan ma'noda gap boshladi va silliqqina qilib, orqaga qaytish haqida taklif kiritdi.

- Galvars! - shu zahoti uni jerkib tashladi Alamazon. – Biz orqaga qaytsak, Ahmadali otaga kim haykal o'rnatadi? Stadion-chi?

- Jichcha shoshilmasang, davlatning o'zi bizga kelishgan bitta stadion qurib berardi.

- Davlatga o'ligingni ham ortvol, - o'shqirdi Alamazon. – Sendaqa tekinxo'rlar ko'payib ketsa, davlatning uyi kuydi deyaver [4]

O'smir qalbining ijobiy hislatlarning rivojlanishida kitobning o'rni qay darajada ekanligini Alamazonning oliyjanob orzulari, qarashlarida ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asarda satira va yumordan birday o'rinli foydalanadi. Eshmatning tanballigi, ochofatligi to'g'rilasa bo'ladigan hato sifatida ko'rsatilib yengil yumorga o'rab ko'rsatiladi, qissadagi ahmoqona qoidalar, ahmoqona qarashlarga egan bo'lgan amaldorlar, laganbardor shoirlar, yurtni o'ylamaydigan shohlar obrazlarini esa achchiq hajviya-satira bilan ko'rsatib beradi. Qissa davomida ikki qahramon g'ordan hech nima topa olmagach, so'ngi chora Alamazonning olim tog'asi Og'abek Turkoniyning "barcha niyatlarga erishtiruvchi" dorisidan ichishadi. Shundan so'ng ikki o'smir go'or sijigandan so'ng o'zgacha bir mamlakatga tushib qolishadi, o'rta asarlarni eslatuvchi bu

mamlakat bizning olamga yondosh mamlakat ekan. Mamlakat ikkiga bo'lingan holatda bo'lib, bir tarafni Isqirt Birinchi atalmish podsho boshqarar ekan. Yozuvchi kulgu, bolalarga hos ertak tarzida bayon etgan ushbu voqealar zamirida anchayin katta ma'nolar yuklangan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek asarning ichki mazmun-mohiyatidan unda sobiq sho'rolar jamiyati nazarda tutilayotganligi ochiq-oydin sezilib turadi. Jahon adabiyotida bu kabi butun tuzumni satiric qalamga olish holatlari mavjud masalan, Jorj Oruellning "Hayvonlar fermasi" asarini keltirishimiz mumkin. Yozuvchi "Yulduzistonni tasvirlar ekan hech qachon qish bo'lmaydigan yurt, hech kim och qolmaydigan mamlakat deb ta'riflaydi. Bu esa kommunizmning utopik orzulari ustidan o'qilgan satiric hukm edi. Anvar Obidjon bolalar dunyosini chuqur anglagan ijodkor bo'lgan, o'z ta'biri bilan aytganda "Bolalar kulguga o'ch xalq", shu sababli yozuvchi qissa qahramonlari nomini bir-biridan g'aroyib, kulguli qilib tanlaydi, bu esa o'z navbatida bolada kulgu uyg'otib asarga yanada qattiq singishiga omil bo'ladi. Mustabid tuzumning adolatsizliklarini, bizning madaniyat, imon – e'tiqodimizdan ayirganini asarga ustalik bilan kiritadi. Yoshligidan yuvinish va tozalanishni istagan dangasa shaxzoda bir amallab adolatsizlik evaziga taxtga chiqqandan so'ng, o'zini Isqirt birinchi deb e'lon qiladi, qonunlar chiqaradi, birinchi qonun kimki yuvinsa yoki tozalanisa qamoqqa tsuahdi. Bolalar uchun yengil ertak ostida, o'sha paytda muqaddas dinimizni taqiqlab machitlarga brogan insonlarni qamash, surgun qilish holatlarini yozuvchi satiric qalam bilan ustalik bilan ta'riflaydi. Isqirt birinchi o'zi iflos yurgani uchun boshqalar ham unga o'xshab iflos bo'lishini istaydi. Yangi qonun qoidaga oddiy xalq tez ko'na qolmaydi lekin amaldorlar bir kechaning o'zida tayyor bo'lishadi yangi tuzumga: "Saroy arboblari tuni bilan uxlamay chiqishdi. Ular shoshilinch ravishda iloji boricha durustroq irkitlashish choralarini ko'ra boshladilar. Chunki ular o'zlarini qanchalar rasvolashtirishsa, xoqon oldida shuncha ko'p e'tibor qozonishlarini sezib turishardi. Biri tinmay qum-tuproqqa yumalar, ikkinchisi badaniga yelim surtib keyin ustidan chang to'zg'itar, yana boshqa birovi uqalanadigan qoratosh bilan vujudini ishqalashga kirishgandi. Aslida, avval suvga sho'ng'ib olib, so'ng qoratosh surtilsa, ish ancha oson ko'chgan bo'lardi. Lekin, u hali qoratosh surtishga ulgurmay tiirib qo'lga tushgudek bo'lsa. cho'milayot- gan xavfli g'alayonchi sifatida zindonga tashlanishi turgan gap edi. Shahanshohlik dasturxonidan tegadigan ulgurjiroq sarqit evaziga o'z onasini badnom qilishdan ham qaytmaydigan sotqin ayg'oqchilar har qadamda izg'ib yurishardi. Arbob-ulamolar ertasi kuni axlat titib charchagan po'mqarg'alarday qatorlashib, xoqon huzuriga kirib kelishdi". [5]

Tuzumga o'zgargan zahoti o'sha tarafni maqtab she'r yozadigan, o'z fikri yo'q maddohlarni ham Dutoriyl obrazini orqali juda hajvga oladi, saroy shoiri bo'lgan Dutoriyl Isqirt birinchi saroyida irkitlikni olqishlab she'rlar yozadi, o'tkir hajv bilan yozilgan bu she'rlar orqali Dutoriylni qanchalik "buyuk" shoir ekanligi bilinadi :

"Hammomingga kirmayman, vijdonim bordir, o'ldirsang ham ko'nmayman, imonim bordir..."

“Kechib sovun-lungidan, menman baxtiyor, Ey Dutoriyl, ajoyib zamonim bordir”.

She’rning badiiy saviyasi pastligini qo’yaturaylik, she’rning faqatgina maddohlik bilan uchun yozilgani, bundan nimadir ta’ma qilish bilan she’r yozgani, bundayb o’ldamlarda sadoqat degan tushuncha bo’lmasligini Dutoriyl obrazi orqali ochib beradi, Alamazon o’zining aqli, tadbirkorligi bilan isqirt birinchi hukmronligiga chek qo’yadi, bundan xabar topgan Dutoriyl hali Isqirt birinchi taxtdan ag’darilmay turib tuni bilan yangi she’r yozib chiqadi;

“Shoir Dutoriyl esa xonasini ichkarisidan tambalab olib, yangi g’azal bitish bilan ovora edi. U ertaga shu paytda saroyda boshqa bir xoqon ziyofat berishi ehtimoldan xoli emasligini bor vujudi bilan his qilib turar, yozib tugallanayotgan otashin madhiya o’sha noma’lum zotga atalgan bo’lib, quyidagi misralar bilan boshlanardi:

“Keldi pok gulgun zamon, hammomga boshlanglar meni,

Yo suvi lim-lim hovuz, yo jomga boshlanglar meni...”

Bu epizod sobiq tuzumda yaratilgan faqat “qizil mafkura” suvlari bilan sug’orilgan badiiy jihatdan qup-quruq she’rlar va ularning mualliflarining satiric uslubda chizilgan karikaturasi edi. Yana bir juda jiddiy mavzuni yozuvchi hajv vositasida tasvirleydi. Qissada eshakni dohiyl deb bilishadi ( “Ey yorug dunyo’ versiyasi Xudo deb bilishadi) buning tarixi ham qiziq yoshligida bilmay eshakni emib qo’rgan podsho boshqalarga kulgu bo’lmaslik maqsadida o’zini avliyo, eshakni dohiyl deb bilishadi, avlodlar almashgani sari bu e’tiqod sifatida o’rnashib qoladi. Yozuvchi bu bilan hudosizlar jamiyatining hudosi, haqiqiy dohiysi bo’lmagan yurtni dohiysi eshak bo’ladi deganday bo’ladi. Qissada muallif bolalar uchun turli fantastic voqealar orqali qiziqarli sarguashtlarni tasvirleydi. Asar bir paytda ham kattalar uchun ham birday taaluqli desak bo’ladi chunki, unda ko’tarilgan ijtimoiyl muammolar kattalarni ham o’ylantiradi. Hajviyl asarning birinchi vazifasi kuldirish, o’quvchini yuzida kulgu hosil qilish. Lekin yengil-yelpi ostida biror ma’no tashimaydigan, beparda voqealar bilan qo’zg’atadigan asarlardan farqli ravishda, haqiqiy hajviyl asarlar birinchi o’quvchini kuldiradi, so’ng o’yga toldiradi. Hozirgina o’zi kulib turgan voqea ostidagi muammoni anglab yetadi, shu muammoni yechishga hohish paydo bo’ladi. Anvar Obidjon jahon adabiyotida mashhur bo’lgan hajvchilar yo’lini tutdi. Anvar Obidjon ijodida goh Servantesning “Don Kihot”iga o’hshagan dovyurak, oliyjanob qahramonlarni, goh Aziz Nesin qahramonlariga o’hshagan muammoni bilib-bilmay gpirib yuboradigan ichakuzdi qahramonlarga duch kelamiz.

Yuqorida takidlaganimizdek o’zbek adabiyotida hajv maktabi avvaldan shakllangan, Navoiyl asarlaridan tortib, Mahmur, Muqimiy, Zavqiy ijodida jilo sochgan hajviya, A.Qodiriyl ijodida yana bir pog’ona yuqoriladi. Anvar Obidjon bu maktabning davomchisi sifatida an’analarni davom ettirdi va bu maktabga o’z uslubini ham qo’shib qo’ydi. Anvar Obidjonning “Ey yorug’dunyo” qissasi bolalar uchun yozilgan fantastik qissa bo’lsa ham, unda pamflet belgilarini ko’rishimiz mumkin

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anvar Obidjon. “Ey, yorug‘dunyo” Bolalarga qissa. – T. G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1983-yil.
2. A. Obidjon. Alamazon va uning piyodalari. Qissa va hikoyalar. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2014.
3. Ibrohim G‘ofurov. O‘ttiz yilizhori. Adabiy o‘ylar, maqolalar. – T. G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1987-yil.

## “O‘ZBEGIM”GA BIR NAZAR

*Sevara TURSUNOVA,  
SamDU Filologiya fakulteti magistranti*

Erkin Vohidov va uning ijodi-cheksiz ummon. Bu asl shoir va asl she‘r haqida gapirish demak. Asl ijod-noyob gavhar, qalb mo‘jizasi, ilohiy hodisa. Bunday istedod hammaga ham, hamisha ham nasib etavermaydi. Erkin Vohidov ana shunday noyob nasiba sohibi edi. Nafis so‘z, go‘zal hayol, husni dil egasi. Zamonlar shamoli ne-ne bitiklarni changi g‘ubor, xor-u xasdek uchirib, yo‘qlikka eltadi. Ammo Erkin Vohidov qalamidan to‘kilgan:

Tarixingdir ming asrlar  
Ichra pinhon o‘zbekim  
Senga tengdosh Pomir-u  
Oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim

kabi quyma satrlar yuksak peshtoqlarga bitilgan qadimiy kitoblardak yarqirab yashayveradi.

Nafaqat Erkin Vohidov ijodining, qolaversa butun o‘zbek she‘riyatining gultoji bo‘lgan, ne-ne avlodning ko‘zini ochgan, tafakkurini charxlagan, tarixni jonlantirgan buyuk asar, shubhasiz “O‘zbekim” qasidasidir. Bu qasidani qayta-qayta o‘qigan sari kishi ruhiyatiga qandaydir yengillik, sokinlik kiradi. Balki bu holat asarda tasvirlagan har bir misra hayotiy haqiqatning aynan o‘zi ekanligi bilan izohlash mumkindir.

O‘zbek xalqiga chin ma‘noda faxriya tarzida bitilgan ushbu qasida har bir vatandoshimizning qalbidan chuqur joy egallagani shubhasizdir. Qasidani o‘qir ekanmiz vatanimizning shonli o‘tmishi-yu qonli kechmishlari bir-bir ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘la boshlaydi.

Yog‘di to‘rt yondin asrlar  
Boshingda tiyri kamon,  
Umri qurbon, mulki toro,  
Yurti vayron, o‘zbekim.

Qasidada nafaqat vatanimiz tarixiga mehr-u muhabbat ruhi, balki shu tarixni o‘rganishga bo‘lgan davatni ham mumkin. Har bir misrani katta bir asar sifatida talqin qilsa bo‘ladi.

“O‘zbekim” qasidasida o‘zbek xalqi tarixi tizimli ketma ketlikda ochib berilganligini kuzatish mumkin. Dastlab asar boshlanmasi ulug‘tariximizni alqash bilan boshlanadi, ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu maqtovlarda zarracha

bo'lsada ortiqcha bo'rttirilgan jihat ko'zga tashlanmaydi. Ko'hna tariximiz ne-ne bosqinchilar-u ne-ne zulmatga to'la kunlarni boshidan o'tkazdi:

O'rdilar sho'rlik boshingdan  
O'ynatib shamshirlarin  
Necha qon, necha sulton,  
Necha ming xon, o'zbekim.

Ammo qasidada qanchalik zulmkor xonlar, qahrga to'la kunlar tasvirlansa shularga hamohang tarzda ushbu kuchlarga qarshi tura oluvchi elning mard,zabardast farzandlari haqidagi misralar ham aytilib o'tib ketaverilgan:

Davr zulmiga va lekin  
Bir umr bosh egmading  
Sen-Muqanna, sarbador-sen  
Erksevar qon, o'zbekim

Asarda Temuriylar davridagi bunyodkorliklar chin ma'nodagi oltin istedod namunalari Mirzo Ulug'bekning osmon sirlarini ochganligi-yu, she'riyat qasrimizning abadiy sultoni hazrat Navoiy siymolari tasviri ham betakror go'zal misralarda ifodalangaligini ham alohida ta'kidlash o'rinli. Qolaversa, qasidaning aynan shu o'rinlarida o'tmish tariximiz ko'ksidagi yaralar bir muncha shifo topganligi seziladi va o'z o'zidan o'quvchida ko'tarinkilik paydo qiladi. Ammo ming afsuski, Nodira,Muqumiy, Furqat kabilar chinakam nodir istedod sohiblarining bevaqt xazon bo'lgan umri yuraklarni o'rtamasdan qolmaydi.

“O'zbekim”qasidasi,asar bilan birgalikda muallif ham shu bugungi dorulomon kunlarga yetgunga qadar ko'plab to'siqlarni yengib o'tishga majbur bo'lishdi. Adabiyotshunos Rahmatilla Inog'omov tili bilan aytganda “...shoirning “O'zbekim” she'ri og'ziga qulf,oyog'iga kishan solingan xalqning milliy histuyg'ularini, siyosiy qarashlarini charxladi, uni o'zligini anglashga chorladi. Erkin Vohidov ushbu she'ri orqali amalda: Ey, o'zbekim! Sen qudratli davlatlar va olamshumul ahamiyatga molik taraqqiyot yaratga xalqning avlodisan, o'z naslnasabingni, buyuk o'tmishingni unutma, ko'zingni och!-deb jar soldi. Bu o'sha davr uchun oshkora isyonkorlik edi”.

Darhaqiqat, “O'zbekim” qasidasi yozilish davriga ko'ra (1967- yil) o'zbek xalqi bo'g'zidagi faryodning ozod bo'lishi deb baholanishi ayni haqiqat

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Hasanov. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostonlari poetikasi. – T., 2004.
2. D.Azimova. Yangi o'zbek dostonlarida davr va shaxs fojeasining poetik talqini. f.f.d.d. avtoreferati. – T. 2020.
3. www.ziyo.com elektron kutubxona ma'lumotlari.

## SARGUZASHT-MISTIK YO‘NALISHDAGI HIKOYALARDA OBRAZLILIK

*Sardor JO‘RAQULOV,  
GulDU magistranti*

Badiiy ijodning mohiyatini mukammal obraz yaratish tashkil etadi. Ya’ni, ijodkor boshqalarga aytadigan muhim gapini, ongda pishitib etilgan g‘oyasini faqat obrazlar orqali etkazib beradi. Badiiy ijodda obraz yetakchi tushuncha bo‘lib, boshqa barcha tushunchalar unga xizmat qiladi.

Xarakter – qahramon obrazining tasviri, ifoda yo‘sini, psixologiyasi, dunyoqarashini tahlil etish, muallifning obraz yaratishdagi mahoratini belgilab beradi. Bu qahramon psixologiyasini tasvirlashning uch xil prinsipini eslashni taqozo qiladi.

O‘zbek adabiyotida qahramon psixologiyasini ochishning isbotlangan shakllari: dinamik, analitik, sintetik printsiplaridir. Xususan, A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi qahramon xarakter qirralarini tahlil qilishni dinamik psixologik shakl deb qarash mumkin. A.Qahorning “Sarob” romanida esa qalb dialektikasini ochish analitik psixologik shakl sirasiga kiradi. Shuningdek, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidagi ijtimoiy munosabatlar va maishiy to‘qnashuvlarni xarakterga ta’sirini sintetik psixologik shaklga misol ekanligini keltirishimiz mumkin.

Erkin Usmonov ijodida, xususan, uning sarguzasht-mistik xarakteridagi asarlarida obrazlilik o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Asarlarda bosh qahramon masalasi ham o‘ziga xos. Bu asarlarning fantastiklik xususiyatlari bilan ham bog‘liq.

“Fantastika” atamasi yunoncha “pxantastika” so‘zidan olingan bo‘lib, taxayyul san’ati demakdir. Haqiqatda mavjud bo‘lmagan, taxayyul kuchi bilan tasavvurdagina yaratilgan narsa-hodisalar tasviri, shunga asoslanuvchi adabiy asarlar majmuasidir. Fantastika faqat xayolot mahsuli emas, uning zamirida mavjud voqelikning izlari sezilib turadi. Zero, xayol shu mavjudlikdan kuch olgan holda parvoz qiladi. Inson tabiat sir-sinoatlarini chuqur anglab borishi barobarida fantastikani shartli ob’ektilik, badiiy vosita sifatida tushunish barqarorlashib boradi. O‘zbek ilmiy-badiiy fantastikasining asoschilaridan biri marhum adib Hojiakbar Shayxov edi. Uning ijodi o‘zbek fantastik adabiyotida katta yutuqlarni egallash uchun yo‘l ochib berdi. H.Shayxov o‘zbek fantastik adabiyotida o‘ziga xos yo‘nalishga asos soldi” [5, 1].

H.Shayxovni o‘ziga ustoz deb bilgan ijodkor E.Usmonov hikoyalarining boshqa fantastik asarlardan farqi shundaki, asarda real hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan g‘ayrioddiy voqealar, ya’ni ko‘proq ruh bilan bog‘liq voqea-hodisalar tasvir etiladi. O‘ngimizda bizning olam bilan tutashgan olamlar ko‘z bilan ko‘ra olmay, qalb ko‘zi bilan ko‘ra olishi mumkin bo‘lgan olamlar haqidagi tasavvurlar bilan aynan shu asarlarda tanishishimiz mumkin. Garchi bu olamlar mavjud bo‘lsa-da, unga ba’zan shubha ko‘zi bilan qaraymiz. Hikoyalarda turfa odamlar haqida

ma'lumotlar keltirilgan, alohida sodir bo'ladigan g'ayrioddiy voqealar qiziqarli tarzda hikoya qilingan.

Xususan, adibning "Marhum kech soat sakkizda keladi..." nomli hikoyasi ham fantastik-mistik hikoyalar sirasidan. Asarning bosh qahramoni Jonona ismli ayol. Hikoyaning ekspozitsiyasida uning yomon tush ko'rish bilan boshlanadi: "...Yarim kechada eshik qo'ng'irog'i jiringlagan emish! Ochibdi. Qarasa, marhum eri turganmish!.. Rang-ro'yi kesakdek bo'zarib, ko'zlari ich-ichiga botib ketgan, ustiga allaqanday juldur uvada tashlab olgan..."

...Qo'rqma! – debdi eri hirqiroq tovushda. – Men atayin keldim. Seni ko'rishim kerak edi. Aytadigan muhim gapim bor...

Ayting...

Yo'q, hozirmas, - debdi eri sirli kulimsirab, - boshqa kelaman.

Nega? – debdi Jonona butun vujudi qaltirab.

Zarur gapim bor, dedim-ku! – zardasi qaynabdi erining va unga boshdan-oyoq ko'z yugurtirib zaharxanda qilibdi. – Bugun charchagan ko'rinasan. Yolg'izlik ham qiynab qo'yibdi. Ertaga soat sakkizda kut, kelaman!.." [2, 66]

Parchada qo'llanilgan badiiyat unsurlaridan qahramonlarning shu paytdagi holatlarini anglash mumkin. Xususan, marhumning ustidagi "juldur uvada" yaxshilik alomati emasligidan, undagi "hirqiroq tovush", "sirli kulimsirash", "zardasi qaynashi", "zaharxanda qilishi" kabilardan uning yaxshi niyat bilan kelmaganligini anglash mumkin. xotininin esa axvoli uning teskarisi bo'lganligini uning ruhiyati tasvir ko'rsatib turibdi.

Hikoyada bosh qahramon bo'lgan Jonona haqidagi ma'lumotlar keyinroq keltiriladi. Ya'ni, uning besh-olti-yil avvalgi portreti quyidagicha tavsiflangan: "...U yosh edi. Go'zal edi. Kelishgan qaddi-qomati ko'rgan ko'zni kuydirgudek ekanligini, ko'cha-ko'yda o'ziga ro'baro'kelgan, ko'zlari uning xumor ko'zlariga tushgan yigitlar mast kishidek dovdirab qolishlarini bilardi. Va shuning uchun ham shoshilmas. O'ziga munosib yigit uchrashini kutardi. Lekin vaqt kutmas ekan, -yillar beshafqat bo'larkan..." [2, 68]

Bu bosh qahramonning tashqi ko'rinishi haqidagi qisqa bo'lsa-da, ma'lumot. Asar davomida har xil o'rinlarda uning portret chizgilari u yoki bu darajada yoritib boriladi. Ya'ni, eri o'lganidan so'ng uning hali ham o'z jozibasini yo'qotmagan ayol ekanligi haqidagi eslatmalar marhum bo'lsa-da erining uni rashk qilishiga asos bo'layotganligini yozuvchi shu orqali ham asoslamoqchi bo'ladi.

Qahramonlarning o'ziga xos jihatlari ularning nutqi, ya'ni personaj so'zlari orqali ham ifodalangan. Xususan, U bo'lajak eri bilan birinchi marotaba o'zi ishlaydigan kutubxonada bir she'riyat kechasida uchrashib qolgan bo'ladi. unga Ziyodning o'qib bergan she'ri juda yoqib qoladi. Undan dastxat oladi. Unda "Hurmatli Jononaxonga! Ushbu to'plamga qalbimni ham qo'shib beraman", deb yozilgan bo'ladi. Ularning tanishuvi shu tarzda yuzaga keladi. Ular o'rtasidagi dialogda buni ko'rish mumkin:

Nima balo, qalbingizning egasi yo'qmi? – tegajoqlik qildi Jonona. – Yo, shunaqa parchalab qizlarga tarqatib yurasizmi?



Yo‘q, - bosh chayqadi Ziyod kulib. – Huvillab yotgan yuragimning kimga keragi bor?

Jonona bu bilan nima demoqchiligini, yolg‘izligini, hali uylanmaganligini anglab etgan bo‘lsa-da, ayyorona elka qisib qo‘ydi:

Tushunmadim...

Tushunmaganingiz ma‘qul. – dedi Ziyod va tashqarida o‘zini kutib turgan sheriklari tomonga yurarkan, bu sho‘x-shaddod va go‘zal kutubxonachi qizning o‘ziga qarab turganini sezdi shekilli, elkasi osha qaradi.

Baribir tushuntirib qo‘ymaguningizcha sizni tinch qo‘ymayman, - dedi Jonona jilmayib. – O‘zim sizni topib olaman! [2, 70]

Bu voqeadan bir necha kun o‘tib hazil tarzida aytilgan bu gaplarni Ziyod chin shaklida qabul qilgani ma‘lum bo‘ladi. Chunki u “Kutdim. Kelmadingiz”, deganicha qizning yoniga keladi.

Hikoya davomida Ziyod obrazini xarakterlovchi bir qancha jihatlar muallif tomonidan berib boriladi. Xususan,

“Jonona bu o‘t-olov yigitni tushuna olmas, uni goh “donishmand chol” – goh “arazchi bola”ga o‘xshatib kulgisi qistardi”[4]. Bir o‘rinda esa u o‘zini “yalangoyoq” deb ataydi. Mana shu shakldagi ta‘riflardan uning ijodkor kishilarga xos bo‘lgan ancha injiq inson ekanligini, shuning uchun ham goh bola, goh donishmand chol, goh yalangoyoq shaklida namoyon bo‘lishi, har bir gapni jiddiy qabul qilishi, hazilni uncha tushunmasligi ma‘lum bo‘lib boradi.

Jonona esa oddiy, lekin salobatli va go‘zal ayollardan biri. Uning mana shu jihatlarini o‘zidan ustun qo‘ygan eri ko‘p hollarda Jononani barchadan rashq qilib yuradi. Uch-yil lik hayotlarida Ziyodning befarzand bo‘lishadi. Bunda Ziyodning aybdor ekanligi ma‘lum bo‘lgach, u ichkilikka berilib ketadi. Shuning orqasidan jigar rakiga chalinib ko‘p o‘tmay vafot etadi. Lekin o‘layotganida ham Jononaga juda qo‘pol gaplarni aytadi:

“... Rangi sarg‘ayib, qo‘l-oyoqlari shishib ketgan Ziyod shiftga qaragan ko‘yi ixrab yotarkan, Jononaning qo‘llaridan tutib yoniga o‘tkazdi. Senga aytadigan gapim bor, - dedi.

Keyin “ichim yonib ketyapti”, dedi. Suv so‘radi. Shundan keyin kutilmaganda, jonholatda Jononaning yoqasiga yopishdi.

Mana endi mendan qutuladigan bo‘lding, Jonon! – deya vahimali hirilladi u. – Men seni tashlab ketmayman... O‘zim bilan olib ketaman! Nega indamaysan? Gapir! Ketasanmi?” [2, 71]

Hikoyaning aynan mana shu tasviri uning tuguni deyish mumkin. Chunki Ziyod bu dunyodan norozi bo‘lib, qo‘li Jononaning yoqasida bo‘lib jon beradi. Uni o‘zi bilan olib ketishni xohlaydi. Shu sababli hikoyaning keyingi voqealar rivojida uning ruhi Jononani bezovta qilib turadi.

Hikoyaning boshidagi tasvir ham aynan shu holat bilan bog‘liq. Ya‘ni uning ruhi xotinin tinch qo‘ymay boshlgan vaqt.

Erining vafotidan so‘ng Jonona bir-yillar chamasi uning ma‘rakalari o‘tkazib, ota-onasidan xabar olib, o‘z farzlarin ado etib yuradi. Lekin uning jozibasi va chiroyiga maftunlar hali ham bor edi. Xususan, xotini o‘lgan yoki

ajrashgan erkaklar, hatto yoshi o'tgan kishilar ham unga og'iz sola boshlashadi. U esa hech kimga ro'yxosha bermay yuradi. Lekin kutubxonaning to'g'risida do'koni bor bo'lgan Jahongir degan xotini bilan ajrashgan yigitning taklifini bee'tibor qoldirolmaydi. Chunki u Jononaning ko'nglini ovlay oladi. Oradan ancha vaqt o'tib bir-birlarini bilib olishgach, turmush qurishga qaror qilishadi. Lekin ana shu qarorlaridan keyin marhum erining ruhi bezovta qilib boshlagan bo'ladi.

Yuqorida marhumning Jononaga soat sakkizga uchrashuv tayinlaganligini aytib o'tgan edik. Lekin u buni bir tush-da deb e'tibor bermagan bo'ladi. o'sha kuni o'sha paytda uyiga kirgan Jonona erining xonasi ochiq ekanligini ko'rib yomon axvolga tushadi:

“... Jonholatda eshikni tepib yubordi. Xona bo'm-bo'sh edi. Is bosgan javonlarga betartib taxlab tashlangan kitoblar, gazetayu jurnallar, chang qoplagan yozuv stoli chetida Ziyodning so'nggi qo'lyozmalari, ruchka, qalam, daftarlari sochilib yotardi.

Tuyqus Jononaning dimog'iga tanish bir is, sigareta hidi urilgandek bo'ldi va yalt etib deraza tarafdagi kuldonga qaradi. Unda... yarmi yonib kulga aylangan sigareta tutab turgandek tuyuldi. Ko'zlarini yirib qaradi va chinqirib yuborishdan o'zini arang tiyib, kuldon tagiga qistirilgan qog'ozni dag'-dag'qaltiragan ko'yi qo'liga oldi. Bir varaq qog'ozga o'ziga tanish va qadrdon bo'lib ketgan Ziyod akasining yozuvi bilan “Keldim. Kutdim. Ketdim” degan so'zlar bitilgandi” [2, 72].

Bu tasvirdagi mistika ko'rinishlari badiiy detallar orqali tavsiflangan. Xususan, hikoyaning shu o'rnidagi “sigareta qoldig'i”, “kuldon”, “xat” detallari va unga “tanish hid” shular jumlasidan.

Hikoya so'ngida Jononani kasalxonada bo'g'ib o'ldirilgan holatda topishlari bilan asar yakunlanadi. Buning mistik izohi sifatida yozuvchi “marhumaning bo'ynidagi barmoq izlari” detalidan foydalanadi. Chunki bu izlarni muallif inson bolasiga tegishli emas deya sharhlaydi. Bundan Jononani marhum eri bo'g'ib o'ldirib, o'zi bilan olib ketgan degan xulosa kelib chiqadi.

Yuqoridagi hikoyada asosiy qahramonlar bo'lgan Jonona va uning eri Ziyodning tirikligi va marhumligi shakllarini izohlash uchun yozuvchi ko'plab detallardan unumli foydalanganligining guvohi bo'ldik. Marhum erining bunday ish tutishi uning har bir narsani jiddiy qabul qilishi, xotnini juda qizg'anishi kabi xarakteridan kelib chiqib shakllantirganligi asar mobaynida sezilib turadi. Barcha badiiyat unsurlari mana shu jihatlarga mistik ruh berishga qaratilganligi hikoyaning umumiy mazmunidan sezilib turadi. Yozuvchining mahorati badiiy detallarni o'rinli qo'llay bilganligi va o'z g'oyaviy maqsadini xarakterlar talqini tavsiflari orqali amalga oshirganligida alohida ko'zga tashlanadi.

Erkin Usmonovning “Liftga chiqqan besh kishi” hikoyasi uslub jihatidan Omon Muxtorning “Maydon” romanini eslatadi. Unda etti kishi liftga qamalib qolgan, ularning xarakter-xususiyatlari bir-biriga juda o'xshashligini hisobga olsak, bu asarlar adabiy ta'sirning bir ko'rinishi deyish mumkin.

“Liftga chiqqan besh kishi” hikoyasida sarlavhadan ham ko'rinib turganidek, besh kishining hayot tarzi ko'rsatib berilgan. Ular Qandolatchilik korxonasi

direktori Salmonov, xususiy do‘kon mudiri po‘latjon, elektr tekshiruvchi – nozir Jo‘ravoy, sobiq oshpaz Kamola va pochtachi bola.

Hikoya davomida mana shu besh kishining ma‘naviyati ochib beriladi. Ularning hayoti va qilmishlari sarhisob qilinadi.

Xususan, Salmonov hozir ko‘tarilayotgan xonadonda uni ruxsora ismli ayol kutayotgan bo‘ladi. uning bu harakati katta gunoh qilayotganliginig belgisi, ikkinchi kishi Jo‘ravoy esa o‘zining oziq-ovqat do‘konida past sortli unlarning yorlig‘ini almashtirib qimmatiga pullaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmasligi uchun bir kishiga pora berib qutuladi. Lekin keyin firibgarlikka o‘tib, elektr nazorati noziri bo‘lib olib, odamlardan pullarini shilib olishni, undan keyin esa egasi yo‘q kvartiralarining qimmatbaho buyumlarini o‘g‘irlash bilan shug‘ullanishadi. Hozir ham egalari Chimyonga o‘n kunga dam olish uchun ketgan uyni o‘g‘irlash uchun tepaga ko‘tarilayotgan bo‘ladi.

Kamola esa eridan aliment undirish uchun tepaga ko‘tarilayotgan bo‘ladi. u ayol ham bog‘chada ishlagan paytida bolalarning haqini o‘marib, o‘g‘irlab eb yurgan qo‘li egri ayol bo‘ladi. Agar eri hozir pul bermasa, uni o‘ldirishga ham tayyor bo‘ladi.

Liftdagi bolakay esa otasining nochorligini tushunib unga yordam berishi lozimligin tushunadi. Tengqurlari kabi o‘ynab-kulishga uning vaqti yo‘q bo‘ladi. Dadasining ishonchini oqlash uchun liftma-lift, qavatma-qavat yurib pochtachilik qilardi.

Hikoya davomida lift birdan to‘xtab qoladi ichidagilar o‘zlarining gunohlarini dasturxon qilishadi. Lekin keyinchalik lift birdan erga qarab tushib ketadi va uning ichidagilar majaqlanib o‘lishadi. Birgina pochtachi bola tirik qoladi, u hushidan ketgan bo‘ladi. bu haqida soqolari oppoq bir mo‘ysafid shunday fikr bildiradi: “Xudoyimdan o‘rgilay! Bolaning tirik qolganini qarang! Xudo mehribon-da, bola farishtadek gap! Top-toza! Shuning uchun tirik qoldirgan!..” [2, 148] Bunday mistik tasvir gunohkorlarning tashqi kuchlar ta‘sirida jazolanishiga qaratilgan. Chunki ular ketayotgan joylar gunoh tomonga ekanligi, ichlaridagi birgina bola begunoh ekanligi asarda ta‘kidlanadi.

Ko‘rinadiki, mistik tasvirni asoslash uchun yozuvchi ularning o‘y-kechinmalari ifodasidan, lift detalidan unumli foydalanadi. Lift ularning gunohlari uchun so‘roqlarga javob berishlari yo‘lidagi vosita vazifasini o‘tagan. Demak, asardagi barcha ishtirokchilar, ya‘ni barcha personajlar asarda tavsiflangan. Yozuvchi faqat bir xil shaxslarga emas, balki barcha ishtirokchilarga alohida e‘tibor qaratganligi uning mahorati va o‘ziga xos uslubidan dalolat beradi. “Personajga aylangan g‘oya, bu mahoratning cho‘qqisi”, - deb yozgan edi O.Balzak. Fantastik asarlar ham bu talabdan holi emas. Ularda ko‘tarilgan g‘oyani ochishda personaj-obraz yordam beradi. Yozuvchining obrazni tasvirlash mahorati esa tasvirlanayotgan obrazning mohiyatini aniqlashga ko‘maklashadi” [7, 59].

Xullas, sarguzasht-mistik hikoyalarda obrazlar tavsifi o‘ziga xos tarzda aks ettirilgan bo‘lib, yozuvchi bunda qahramonlarning portret chizgilari, tashqi ko‘rinishi, ularning nutqi, kechinmalari tavsifidan unumli foydalangan

Hikoyalar badiiyati yozuvchi mahoratini dalolatlaydi. Bunda yozuvchi mistik tasvirlar ifodasida badiiy detallarga murojaat qiladi. Uning turli ko‘rinishlaridan foydalanadi. Bunga mistik-fantastik hikoyalardagi daraxt-txarad, kapalak, ro‘mol, surat, shishasimon ko‘zlar, kulrang ko‘zlar, to‘rtburchak shakldagi iyak kabi yoki uvada kiyim kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ayrim hikoyalarda yozuvchi badiiy poyasini amalga oshirish uchun ba‘zan sun‘iy va soxta lavhalar va chizgilardan ham foydalanilganligi. Bu ijod namunalarining barchasi ham talab darajasida emas ekanligini izohlaydi. Umuman, Erkin Usmonovning bu yo‘nalishdagi hikoyalari uning mistik adabiyot shakllanishidagi izlanishlari samarasi deyish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., O‘zbekiston nashriyoti, 2002, -558 b.
2. Erkin Usmonov. Marhum kech soat sakkizda keladi... – T., Sharq, 2011. 118-b.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –T., O‘qituvchi nashriyoti, 1999., - 545 b.
4. [www.ziyouz.uz.ozbek/matbuoti](http://www.ziyouz.uz.ozbek/matbuoti). Ozod Mo‘‘min. Mahorat izlanishlardan keladi.pg.3.
5. [www.ziyouz.uz.ozbek](http://www.ziyouz.uz.ozbek) matbuoti. Zebiniso Saparova, Fantastika. p g.1.
6. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Yangi asr avlodi. – T., 2006. 544 b.
7. Ra‘no Ibrohimova. Voqelik va fantastika. –T., Muharrir, 2011. 59-b.

### **IJODKOR KONSEPSIYASI VA IJODIY MUHIT**

**Yorqinjon HAYITBOYEV,**  
*GulDU talabasi*

Ma‘lumki, xronotop tushunchasi so‘nggi davr adabiyotshunosligida ko‘p qo‘llanilayotgan atamalardan biri bo‘lishiga qaramay, uning mazmun-mohiyatini anglatuvchi ekvivalentlari shu paytgacha ishlatilib kelinganligi u bilan bog‘liq jihatlarni keng miqyosda o‘rganishga imkoniyat yaratadi. She‘riyatda zamon va makon tushunchalari kechinma tavsifining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib ushbu masalani o‘rganish ijodkorlar asarlaridagi muhim jihatlardan bo‘lgan shu xususiyatni ham tahlil etishda ko‘maklashadi.

O‘zbek she‘riyatining zabardast ijodkorlari, Mirzacho‘l vohasi, Sirdaryo muhiti vakillari, O‘zbekiston xalq shoirlari To‘ra Sulaymon hamda Halima Xudoyberdiyevalar ijodida xronotop masalasini o‘rganish ushbu iste‘dodlarning shu mavzuga aloqador she‘rlari masalaning dolzarbligini asoslaydi. O‘zbek she‘riyati, xususan, Sirdaryo adabiy muhiti haqida so‘z ketganda To‘ra Sulaymon va Halima Xudoyberdiyevaning nomlari tilga olinmasligi mumkin emas. She‘riyatlari va shaxsiyatlari bilan minglab kitobxonlar qalbida ikkinchi umrini yashayotgan bu ijodkorlarning shunday satrlari borki, ular ham adabiyotdan, ham abadiyatdan o‘z o‘rnini egallagan.

O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova Halima Xudoyberdiyeva haqidagi xotiralarida shunday yozgan edi: *“Bir shoirani kashf etdim. Sirdaryodan. Boyovutda yashaydi. Hali maktabda o‘qiydi. Lekin she‘rlari ajoyib. Yuragida alanga bor. Tarbiya qilsa, yaxshi shoira chiqadi”*. Zulfiyaxonimning ana shu ta‘biri Halima Xudoyberdiyevaga umrining so‘ngi lahzalarigacha hamroh bo‘ldi.

Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida tabiat timsollaridan unumli foydalanish ko‘p kuzatiladi. Xususan, u she‘rlarida ushbu tushunchalarni o‘ziga yaqin olib, bo‘ronlarga singil tutingan, erinchoq suvlarni tanqid qilgan, dengizni tanballikda ayblagan edi:

***“Bo‘ron, o‘z taniga sig‘magan sho‘x jon,  
O‘zi-yu o‘zgaga bermagan tinim.  
Men seni o‘paman, seni quchsin shon,  
G‘aflatga kun bermas, kurashchan inim”***

Shoiraning she‘rlari ana shunday kutilmagan mushohada bilan o‘quvchini zavqlantiradi. Bo‘ronni hamma tanqid qiladi, salbiy ma‘noda timsol sifatida qo‘llaydi, ammo shoira uni o‘z inisi deb, yaqin olib, g‘aflatli sokindan shiddatli bo‘ronni afzal ko‘radi. Shu satrlardan Halima Xudoyberdiyevaga xos shiddatkor ruh, bezovta qalbni his qilish mumkin.

Shoiraning *“Boyovutda”* deb nomlangan she‘rida lirik qahramon qalbidagi o‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminga muhabbat, sog‘inch, ilhaqlik tuyg‘ularining zalvorli ifodasini ilg‘ash mumkin.

***“Endi yoshim o‘tgani sayin  
nolam uzun ko‘nglim qa‘rida.  
Onam ivib o‘tirgandayin,  
Boyovutning yomg‘irlarida.”***

Ya‘ni lirik qahramon bo‘lgan shoiraning keksaygani sayin ko‘ngil qa‘ridagi yoshlikka, uning zangor epkiniga intilish, onaga bo‘lgan sog‘inch, zamin yomg‘irlarini ham aziz bilish kabi tuyg‘ularining ifodasi misralarga jo bo‘lgan. Shoirning quvonchdan ham bir iztirob tuyishi tabiiy hol. U quvnayotgan bir paytda boshqalar ham quvonyaptimikan, deb kuyinadi. U yozganlarida tabiatni, borliqni mujassamlashtirishga, dunyoning ozorlaridan tortgan iztiroblarini tasvirlashga, o‘zini kuzga mengzashga intiladi.

***“Sarg‘ayaman. Kuzda... Toshkanda,  
Onasizlik ozorlaridan –  
odam narxi arzonlashganday  
Bu dunyoning bozorlarida.”***

Bu dunyoning arzon bozorlaridan noligan lirik qahramon millat qadrini qimmatlashtirishga harakat qiladi. Shoiraning shogirdi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Guljamol Asqarova Halima Xudoyberdiyevaning hamma xatolikni kechirsa ham xiyonatni kechira olmaganligi haqida aytgan edi. Lekin bu olam xiyonatsiz, talotumlarsiz, urushlarsiz, ranjish va ranjitishlarsiz shu paytgacha tura olmagan va hozir ham shunday ekanligi barchaga ma‘lum. Biroq shoira hamisha o‘z she‘rlari orqali ko‘ksini tik tuta olishga va boshqalarni ham tezroq tiklanishga da‘vat etgan. U o‘zining so‘nggi she‘rlaridan birida shunday degan edi:

***“Siz quyoshsiz, balandlang-u botar yerni unutmang,  
Ildizdansiz, tag‘in ildiz otar yerni unutmang,  
Turkistonday qaytib kelib yotar yerni unutmang,  
Mendan qay ish lozim bo‘lsa, barchasiga tayyorman”***

Halima Xudoyberdiyeva o‘z xalqini buyuk sifatlarda ta‘riflagan bo‘lsa, To‘ra Sulaymon xalqona ifodasi orqali elning qalbidan joy olgan edi. Xalq samimiy she‘rlarni yaxshi ko‘radi. Bu borada esa baxshilarning obro‘si juda baland. Baxshilarda ilohiy kuch – iste‘dod bor, deb qaraladi va ulug‘lanadi. Azaldan ularga alohida ehtirom ko‘rsatilgan. To‘y-u marakalarning to‘ri ham, hurmatning zo‘ri ham baxshilarniki bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘lib qoladi. Shuning uchun “Baxshi keldi – yaxshi keldi”, “Baxshi – qishloqning naqshi”, “Baxshi kelsa, to‘y bo‘lar, qo‘chqoringni so‘y bo‘lar”, “Baxshining so‘zi hikmat” kabi maqollar xalqimiz orasida tildan-tilga o‘tib yuradi.

To‘ra Sulaymon baxshiyona ohanglarni milliy adabiyotimizga olib kirgan, xalqona she‘rlari bilan xalq qalbidan joy olgan, katta maqsadlarni ko‘zlab yo‘lga chiqqan va adabiy manziliga yetgan karvonning sarboni sifatida peshqadamlardan biri bo‘lgan. “Istar ko‘ngil”dan boshlab, barcha kitoblarni o‘qir ekansiz, To‘ra Sulaymonning she‘rdan she‘rga yuksalganligini, badiiy salohiyati yanada takomillashganligini kuzatasiz. Ayniqsa, shoir she‘riyatida xalqona ohangning o‘zgacha rang-tasvirda jilolanganligiga guvoh bo‘lasiz.

***“O‘lmaslikka ishora – o‘langa oshiqligim,  
Saodatga ishora – zamonga oshiqligim,  
Teranlikka ishora – ummonga oshiqligim,  
Go‘zallikka ishora – bo‘stonga oshiqligim,  
Bahor, ketma mening bog‘imdan!”***

Nima uchun shoir o‘lmaslikka ishora deb, aynan, o‘langa oshiqlikni tasvirlayotganini quyidagicha talqin etish mumkin. O‘lan xalq og‘zaki ijodining qadim-qadimdan mavjud bo‘lib kelgan janri hisoblanib, uni folklorshunos olimlarning bir guruhi aytimlarning bir-biriga ulanmog‘idan kelib chiqqan, desalar yana bir boshqa guruh olimlar O‘lan tangrisi sharafiga shunday nomlangan deb bayon qiladilar. O‘langa oshiqlik tushunchasini to‘y marosimlarida aytilayotgan qo‘shiq, ya‘ni shodiyonalik, quvonch ma‘nosida ham tasvirlanadi. Yana bir tushunchaga ko‘ra esa to‘ylar bo‘layotgan yurtda tinchlik-xotirjamlik, serfarzand va serdavlatlik kabi xalq orzulari ham hukmron bo‘lishini hisobga olgan holda avlodlar bardavomlilikiga ishorani ham ilg‘ash mumkin. Odatiy hayotimizga nazar solsak, mahallamiz, qishlog‘imizda bo‘lgan to‘ylarda, ayniqsa, qiz uzatish marosimlarida “O‘lanchi qiz yor-yor”, deyilganini ko‘p eshitganmiz. Demakki, shoir qadimiy qo‘shiqqa oshiqlik bilan o‘lmaslikka ishora o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni mazmuniy markaz sifatida olyapti. Qo‘shiqning necha yillardan buyon o‘lmay yashab kelayotgani, eskirmagani, unutilmaganini chuqur tushungan holda o‘z yozganlarini ham ana shunday qadrlanishi, tildan-tilga o‘tib yurishini niyat qilyapti. Diqqat bilan yondashsak, badiiy niyat mana shu satrlarda o‘z yashirin aksini ko‘rsatyapti. Zamon bilan hamnafas bo‘lgan va zamonaviy bilimlarni o‘z

vaqtida chuqur o'rgangan kishining saodatga erishuvi haqida kitobxon yaxshi biladi.

Teranlikka ishoraning ummonga oshiqlik bilan bog'lanishida ham alohida ma'no bor. To'ra Sulaymon Sirdaryoning, daryoning farzandi edi. Aldashmonda tug'ilgan shoirni jizzaxliklar bizniki, deb sirdaryoliklar bilan talashsa ham baribir u Mirzacho'lning shoiri, Sirdaryoning odami edi. Ummonning sathi-yu bag'ri-da keng bo'lishini yaxshi bilamiz. Undan tashqari ummonlar bag'rida ko'plab g'avvoslar xazina-yu, sir-asrorlarni izlab yurishidan ham xabardormiz. Mana shu yerda ummon va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni, To'ra Sulaymon anglagan haqiqatni ko'rishga musharraf bo'lamiz. Ummondan sir-asrorlar izlangani kabi inson o'z tafakkurida ham tinimsiz g'oya, fikr qidiradi. Ayniqsa, shoirlar fikrning ortidan quvadi, yetolsa, yozadi. Ummonning-da, tafakkurning-da kengligi, ikkisining ham hali biz bilmagan sirlari, yashirin xazinalari borligi va ana shu borliklarni izlash yo'lida harakat qilish har kimni teranlikka yetaklaydi. Ko'rinib turibdiki, teranlik – To'ra Sulaymon ijodining maqsadi, muvaffaqiyatidir. Go'zallikka ishoraning bo'ston bilan bog'langani esa, aniq va ravshan tasvirlangan. Shubhasiz, bog'-u bo'stonlar go'zallikning oshyonidir. Shoirning fasllar ko'rkiga nisbatan iltijo qilishi ham o'quvchini zavqlantiradi.

***“Bu olamda Oy tanho, muborak Quyosh tanho,  
Bo'yqizlarning ichinda shu bir egma qosh tanho,  
Uningdek hech kim menga bo'lmasa sirdosh tanho,  
Go'ro'g'li sulton bir yon, To'ra Sulaymon bir yon.”***

To'ra Sulaymon mashhur “Gul bir yon, chaman bir yon” she'rida Go'ro'g'li sultonni bir yon, lirik qahramonni bir yonga qo'yib tasvirlagan va bu tasvirlashdan adabiyotning abadiyatga daxldorligini his qilgan ijodkorning his-tuyg'ularini ilg'ash mumkin. Shoir yana bir o'rinda “Gapning sirasi – men qo'shiqchi shoir emasman. Hech qachon, bu qo'shiq bo'ladi, deb she'r yozgan ham emasman...”, deyishidan uning soda va ravon ifodali she'rlari yaralish paytidanoq o'z ohanggi bilan ifodalanganligini anglash mumkin. Baxshi shoir qo'shiq uchun she'r yozmagan, balki qo'shiqlar uning she'rlari uchun kuylangan. Shuning uchun ham To'ra Sulaymon – shoirlarning to'rasi deb e'zozlanadi. Shoir umrning o'tishi haqida bir she'r yozgan edi. She'r so'nggida o'zi ham “...deging kelmaydi”, deb iqrorini bildirgan:

***“O'lmas sozni o'ylab deging kelmaydi,  
O'chmas izdan so'ylab deging kelmaydi,  
Mangulikka bo'ylab deging kelmaydi,  
Umr o'tmoqdadir daryo misoli...”***

Umrning oqar daryoga mengzalishi badiiy adabiyotda juda ko'p uchrasydigan tashbehlardan sanaladi. Shoir she'riyatidagi “o'lmas so'z” tushunchasi umrboqiy satrlar ma'nosida ham, vidolashuv so'zi ma'nosida ham anglashiladi. Ya'ni ijodkor bu dunyodan o'tgandan so'ng adabiyotga daxldor biror fikr yoki biror o'lmas asar yaratib ketish va insonlar yodida abadiy muhrlanish ilinjida ushbu fikrlarni bayon etadi.

Umuman, Sirdaryo vohasi ijodkorlari Halima Xudoyberdiyeva va to'ra Sulaymon ijodida xronotop, ya'ni makon va zamon uyg'unligi ularni ifodalash masalasi o'ziga xos shaklda aks ettirilgan bo'lib, unda har bir ijodkorning o'z uslubidan kelib chiqqan holda falsafiy teranlik, poetik mushohadakorlik, xalqchilik kabi xususiyatlar ijodkorlarning g'oyaviy va badiiy niyatidan kelib chiqqan holda shakllantirilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Aksar makon va zamon uyg'unligi har ikki buyuk iste'dod sohiblari ijodida tabiiy ravishda tasvirlangan jihat sifatida talqin qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.To'ra Sulaymon. Gul bir yon, chaman bir yon. – T., “Cho'lpon” nashriyoti. 1996.
- 2.To'ra Sulaymon. Gulshan. – T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988.
- 3.To'ra Sulaymon. Sayhon. – T. “Sharq” nashriyoti. 2003.
- 4.Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor. – T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1993.
- 5.Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar. – T. “O'zbekiston” nashriyoti. 2012.
- 6.Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – T., // “Sharq” nashriyoti. 2000.
- 7.Guliston davlat universiteti. To'ra Sulaymon ijodida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari (To'ra Sulaymon tavalludining 85 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – G. 2019.

## **ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI**

*Dilfuza QOSIMOVA,  
Guliston davlat universiteti magistranti*

O'zbek adabiyoti qadim-qadimdan o'zining badiiy go'zalligi, tasvir obyektining jonliligi, makon va zamon mutanosibligi va boshqa ko'plab jihatlari bilan shakllanib, taraqqiy etib, uzoq tarixiy, tadrijiy yo'lni bosib o'tdi. Afsuski, bu davrlarda yaratilgan badiiy asarlar davr, ijtimoiy tuzum, sotsiologik konflikt, zamon ziddiyatlari, qoliplangan muhit, “chegaralangan so'z erkinligi” ta'siri ostida yaratildi. Beqiyos qudratga ega bo'lgan, sarhadsiz adabiyotimiz “qoliplandi”.

Nihoyat, 1991-yil yurtimiz mustaqillik saodatiga erishdi: ong va qalblarimiz istiqlol erkini, uning faraxli lahzalarini his etdi. Shu ma'noda badiiy tafakkurimizdagi chinakam erkinlik Istiqlol davri bilan bog'liq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Aynan bu davrda “qalamlari o'tkir”, “so'zlari keskir”, tasvirlari jonli, keng dunyoqarashli, mahoratli, “so'z sinchi” lari adabiyotning nasr janrini yangi va yuqori boisqichga olib chiqdi.

“Mavridi keldi-aytaylik, keyingi qariyb yigirma-yil lik adabiy xirmonimizni ko'targanimizda, sarhisoblar shuni ko'rsatdiki, o'zbek janri, ayniqsa – hikoyalar misolida o'zining juda katta yangilanish pallasiga kirib ulgurdi. Ha, bugun hech ikkilanmay ayta olamiz: zamonaviy nasrimiz o'zbek va jahon adabiyotidagi asosiy yo'nalishlar-u, asosiy o'zgarishlar hadisini o'zida mujassam eta oldi” [1]



Istiqlol davri hikoyachiligida Toxir Malik, Erkin A`zam, Nurali Qobil, Asad Dilmurod, Qamchibek Kenja, Xurshid Do`stmuhammad, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo`ldoshev, Sobir O`nar, Zulfiya Qurolboy qizi, Isajon Sulton, Salomat Vafo, Ulug`bek Hamdam va boshqa ko`plab adiblarimizning yozgan hikoyalari, hajman kichik- mazmunan bepayonligi, so`z qo`llash uslubining o`ziga xosligi, tanlangan mavzu va orazlarining hayotiyliigi va voqealar tasvirining jonliligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, umrboqiy bo`lgan, aslo eskirmaydigan ayollar mavzusi va ayollar obrazi Zulfiya Qurolboy qizi va Salomat Vafo hikoyalarida tabiiy, jonli aks ettirilgan.

Jumladan, Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol”, “Hilola”, “Momo havo”, “O, hayot”, “Ayol qiyofasidagi ajal”, “Muhabbat va nafrat”, Salomat Vafoning “Qora beva”, “Shodiya aravachi”, “Gujum xotin”, “Sochi yoyiq xotinlar”, “Kampir va zog`ora” va boshqa o`nlab hikoyalaridan o`rin egallagan ayollar obrazi mukammallik va mahorat uyg`unligida yaratilgan. Har bir hikoyadagi ayol obraziga muallif tomonidan yuklatilgan vazifalar keragidan ortiq, oshirilib bajarilgan. Aynan, ayol yozuvchi tarafidan yaratilgan ayol obrazi, ayol kitobxon tomonidan talqin etilsa, badiiy asar saviyasi yanada yuksaladi, chunki ayolni, ayol tushuna oladi. Ushbu hikoyalardagi ayollar obrazi turfa xil. Har biri kitobxon qalbidan joy oladi, obrazlarning his-kechinmalari beixtiyor ko`nglimizga ko`chib, oromimizni o`g`iraydi. Biz esa beixtiyor hikoyadagi ayol qahramonlar, ularning kundalik yumushlari, quvonch-tashvishlari, muammolari, boshidan kechirgan og`ir kunlari, orzu-armonlari bilan birgalikda yashaymiz.

Masalan, Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyasini olaylik. Uning bosh qahramoni Nazokat-ayollik timsolining yorqin namunasi. U hayotni sevadi, tuzalmas dardga chalinsa-da, bardoshli, irodali. Turmushning jamiiki mushtlariga dosh bergan, namunali rafiqqa, mehribon ona, muhimi ayol. Va u umrining so`nggi lahzasiga qadar shu nomga mos bo`lib qolishga harakat qiladi, uddasidan chiqadi ham. Ayol – bu so`z zamirida go`zallik, nafosat, iroda, sadoqat, bardosh, fusunkorlik, latiflik, latofat, ezgulik... yana boshqa tushunchalar yotadi. Hikoyaning aynan shu nom bilan atalishi ham bejiz emas. Asar bosh qahramoni Nazokat yuqoridagilarning barini o`zida jam qila olgan. Hikoyada peyzaj tasviri ayol go`zalligi bilan uyg`un holda tasvirlanadi, tabiat, quyosh nurlari va ayol go`zalligi bir-birini to`ldiradi.

“Deraza oynasidan to`kilayotgan oppoq nur ayolning yuzida jilva qildi. Yumuq qovoqlarini qizartirdi. Yanoqlariga ilingan marvarid tomchilarida va barmoqlaridagi uzukning olmos ko`zchalarida aks etdi. Ayol ko`zlarini xiyol ochdi. Shu`la endi uning qorachiqlarida akslandi. Qanday yoqimli. “Tiriklikning yana bir tongi otdi, – ayol ko`zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi. Keyin yana ohista pichirladi:

- Seni qanchalik yaxshi ko`raman quyosh!...

Quyosh nurlarini mo`l-ko`l to`kdi. Ayol butkul quyosh nurlariga g`arq bo`ldi...”[1]

Yoki ayolning dardi kundan kun zo'rayib, oyoq va qornida soatlar sayin to'planayotgan suvlar, shish uni, ayollik tanasini ado qilib borardi. Shunda ham o'zini dadil tutadi. Bor kuchini to'plab, turmush o'rtog'i Shavkatga tasalli beradi, ismiga monand holda vafot etish uchun, foydasi yo'qligini bilsa-da, bisotidagi olmos ko'zli uzukni shifokorga berib, uning nozik va nazokatli tanasiga, "beo'xshov" bo'lib bitgan qorni va undagi suvni olib tashlashini yolvorib so'raydi. Chunki Nazokat ayol edi, nozik ayol. Turmush o'rtig'iga shishgan holda ko'rinishni istamay, hatto yoniga kirgizmasliklarini so'raydi. Holat jonli tasvirlanganki, mutolaa paytida beixtiyot kitobxon Nazokatning dardini, og'riqlarini, armonlarini, iztiroblarini his etadi. Uning vafoti ko'zga yosh olishga majbur etadi. So'nggi bitiklar, kitobxonni o'ylantirib, sertashvish hayotdan bir dam uzib, Nazokatning olamiga tushib qolishiga sababchi bo'ladi.

"...bor shu'lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi. Shu'la shu lahza karavotda yotgan xushbichim (qornidagi suv olinib, qorin tikilgan) ayol yuzida jilva qildi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi. Shu'la o'ziga qarddon qorachiqlarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning qo'lida paydo bo'lib qilgan olmos uzukning ko'zchalaridagina aks eta oldi. Bu kun quyosh qanchalik porloq va nurafshon bo'lmasin, unga hech kim muhabbat izhor qilmadi" [2]

Salomat Vafoning hikoyalaridagi ayollar obrazi ham betakror va yurakka yaqin. Yozuvchining birgina "Shodiya aravachi" hikoyasidagi bosh qahramon Shodiya timsoliga to'xtalamiz. Bu ayol oila qurmagan, yoshi ellikdan oshgan, necha yillardirki, shifoxonada vafot etganlarni, o'z aravasida "o'likxona" (morg)ga tinimsiz tashiydi. Bu-yillar davomida uning boshi ne savdolarni ko'rmadi, ne g'avg'olarga duchor bo'lmadi. Ammo birgina o'zini kerakli va orni bordek his qiladigan joy – bu uning shu odamni seskantiradigan ishi va ta'mirlangan kursili xonasi, shifoxona edi. Mahalla xotinlari uni shunday "chaynashardi". "Tug'magan, bitmagan xotin, u yuzga kirsam ham, chinorday mustahkam egilmaydi".

Muallif hikoya boshidayoq qahramonning faoliyatini va faoliyatiga monand ko'rinishini ushbu parchada keltiradi.

"Kunu tunning istalgan mahali xo'mraygan, har ochilganda allaqanday xunuk sas chiqaradigan darvozadan, o'ziday beo'xshov, ustiga qalin plastik material tortilgan, baland to'rt g'ildirakli mustahkam temir aravasini g'ildiratib Shodiya xola chiqib keladi" [1]. Shodiya xola hayotga real qarovchi, haqiqatni so'zlovchi, rostgo'y ayol sifatida tasvirlanadi. U vafot etgan marxumning yaqinlari sirtlaonlar galasiday jasadga yopishaverib, aravaning harakatlanishiga qo'ymagach shunday deydi: "Menga qara sening bijg'igan, kasalliklarga to'la yuraging, tosh to'lib qolgan pochkan, exinakog qurtlari raqs tushayotgan jigaringga kim zor, axir. Eeee, nega aravaga yopishasan, yoki meni olib borib stolga qo'yib yeydi deb o'ylaysanmi?! Qoch, yo'ldan, hali beshta o'lik bor..." [2] bu gaplari evaziga jasadning ukasi kelib burniga tushiradi, bola-chaqalari, yaqinlar urib, talashadi. Uning burni sinadi. Operatsiyadan so'ng Shodiya xolaning burni katta va beo'xshov bo'lib, juxud yoki armanlarni yodga soladi. Unga bir bayramda sovg'a qilingan vaza va tangali qurbaqani qayerga ko'chsa, o'zi bilan olib yurardi.

Shuning uchun ham “Qurbaqa amma” deyishardi ukasining farzandlari. Bu uning g‘ashiga tegmasdi. Bu hol qahramonning yana bir ichki dunyosini ochib bergan.

Shodiya ham sevgan bir lahza sevilgan, u ham muhabbat nomini olgan betakror tuyg‘uni his etgan. U Ortiqni sevgandi, unga umrini bag‘ishlamoqchi edi, ammo u oilali edi. Shodiyani yetashlab ketadi. Taqdirning ishlarini qarangki, bugun o‘sha beburd, Shodiyaning hislarini o‘yin qilgan Ortiq, uning aravasida jonsiz bukilgan holda yotardi. Qahramonning iztiroblari, armonli muhabbati, ayanchli taqdiri, achinarli o‘tmishi haqida hikoyadan olingan ushbu parcha so‘zlaydi.

“U bir vaqtlar o‘zi uchun aziz bo‘lgan endilikda yalang‘och tananing oldida turib, qalbida kechayotgan g‘alayonlar, iztiroblar, to‘fonlar, ayriliqlar, o‘rtanishlar neligini angalay olmay, umrida birinchi marotaba xo‘ngrab yig‘lab yubordi” [1]

Yoki yana bir “Qora beva” hikoyasini olaylik. Unda yoshligida mashhur bo‘lgan xushovoz xonanda, sahna uchun atigi bir juft qo‘shiq aytish istagi bir umr u bilan birga. Xonanda Qunduzxon Osmonovanning boshdan kechirganlari, kechinmalari, dardlari, umuman hayoti aks etadi. Uning derazasi ostiga ekilgan akatsiya daraxtiga alohida o‘rin beriladi hikoyada. Uni “Qora beva”ga qiyoslaydi. Sababi, har bahor kelganda barcha daraxtlar gullab, meva tugsada, bir uning derazasi ostiga ekilgan akatsiyagina “Hech narsadan xabarim yo‘q” deganday, shoxlarini yoyib, taram-taram tanali akatsiyadagina hayot nishoni ko‘rinmasdi. Bu orqali ayol va daraxt obrazlari bir-biriga muqoyasa qilinadi. Ayol faqatgina bir insonni sevdi. Unga turmushga chiqishni orzuladi, ammo oilalai yigit yuziga qarilik ajinlari o‘z naqshini solayotgan, erta-indin bor boyligi-ovozidan ajraladigan “yulduz”ni tashlab ketdi. Ayol bir u bilan o‘zini baxtli his etardi. Endi esa vaqtini faqat xotiralarni eslash, baxtli lahzalar va san‘at osmonida yulduz bo‘liub chaqnab, tinimsiz qarsaklar va ketiuzil sovg‘alar, huzurbaxsh visol onlarini eslab, o‘zligini yo‘qota yozmoqda.

“Xayollari bilan olamni kezib chiqdi. Sochlari taradi, quritdi. Ko‘zguda ellikdan oshib qolgan bekaning xorg‘in yuzi namoyon bo‘ldi. Chekka sochlari oqargan, ko‘zi va labi atrofini tirishiqlar qoplagan, faqat ko‘z qorachiqlarigina kechagi kun xotiralaridan yonib turardi. Beka havo yetmaganday atrofga alangladi. Qo‘liga ilingan atir shishasini ko‘zguga otdi. Ko‘zgu ham taqdirga tan berganday chil-chil sindi. ...akatsiya ingrayotganday sonsiz barmoqlarini (shoxlari) iltijo va o‘tinch bilan deraza tomonga cho‘zdi” [2] go‘yoki ayolga hamdard bo‘lmoqchidek, uning dardlarini aritmoqchidek, bu hayotda u kabi bo‘lmasdan, o‘zida kuch topib yashashini iltimos qilib so‘ragandek, nazarimda.

Xulosa o‘rnida, istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligida ayollar obrazining salmog‘i oshdi. Endi ularni badiiy to‘qima holida emas, bakli jonli va tabiiy tasvirlashga urg‘u berildi. Jamiyatimizdagi yaxshi-yomon, sadoqatli, bevafo, irodali, muloyim, maishatparast, oilaparvar, mehnatkash... Boringki, barcha fazilat va illarlarni o‘zida jo qilgan ayol obrazlarining soni ortdi. Bu biz uchun quvonarli hol.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Salomat Vafo. Nomsiz kema. O‘zbekiston milliy kutubxona nashri. – Toshkent, 2015, 36-bet.
2. Salomat Vafo. Qora beva. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2009. 35-bet.

## TARIXNI KUYLAGAN SHOIR

*Umidbek QODIROV,  
UrDU magistranti*

Har bir ijodkor xoh u nasrda, xoh u nazmda bo‘lsin tarixiy shaxslar, voqea-hodislar haqida umrida bir marta bo‘lsa-da qalam tebratadi. Buning sababi shundaki, tarix bu o‘zidan keyingi avlod uchun ibratdir. O‘zbek adabiyotida ham moziyga bag‘ishlangan juda ko‘plab asarlar yaratilgan. Taniqli o‘zbek shoiri Omon Matjon tarix haqida fikr bildirar ekan jumladan shunday deydi: “Odamlarni kelajak emas, o‘tmish donishmand qiladi, lekin donishmandlik kelajakka intilishning o‘zginasidir” [1, 130]. Darhaqiqat, inson o‘tmishini bilganligi uchun ham o‘zligini saqlab qolmoqda. Balki, inson aynan shu tufayligina hayvonlardan ajralib turar. Chingiz Aytmatov “Asrga tatiguvlik kun” asarida o‘tmishini unutgani uchun ham qahramoni manqurt darajasiga tushib qoladi. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam aytganidek, “Zamondosh inson biron jiddiy masala borasida fikrlarini jamlab olishda qiynalsa, tarixga nazar solsin ekan, chunki juda hammasi bo‘lmasa-da, haqiqatga eltadigan asosiy belgilar o‘tmishning sarg‘aygan sahifalarida chang bosib yotarkan. Muhimi, biz tarixni to‘g‘ri o‘qib, uqa bilsak, bas ekan”[2, 248].

Omon Matjon ijodida ham Boborahim Mashrab, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Najmiddin Kubro, Komil Xorazmiy, Amir Olimxon va yana bir qancha tarixiy shaxslarga atalgan she‘rlarga duch kelamiz. Bu she‘rlarda shoir millat dardi, qayg‘usi, ajdodlar fojeasi haqida yozadi.

Hali ko‘p uxlarсан, ogoh bo‘l, yurak,  
Axiran uyqudir olamning kori.  
To ko‘mib ketmasin yana ming-ming-yil ,  
Maydalab yog‘uvchi g‘aflat g‘ubori.  
Yur, yur, shamolingdan tumanlar tarqab,  
Ey Mashrab, ey Mashrab [3, 15].

Omon Matchon bugungi kun dardlari haqida tarixiy shaxslar tilidan hamzamonlariga murojaat qiladi. Shoir “Alisher Navoiy murojaati” she‘rida:

Qani shuncha umid, shuncha armonlar,  
Qani shuncha havas, fidoiy jonlar?  
Shuncha mehnatlaring samari qani,  
Taxt qani, toj qani, gavhari qani [3, 71].

Shoir bu she‘rida shonli va qonli o‘tmishga ishora qiladi. Millatimizdan yetishib chiqqan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalar, Navoiy, Lutfiy kabi shoirlar, Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy kabi qomusiy olimlar, Imom Buxoriy, Termiziy kabi muhaddislar dunyoga nur taratgan, ammo bugun afsuslar bo‘lsinki, ko‘pgina millatlar bizdan

oldinlab ketdi. Omon Matjon Navoiy tilidan bu millatda ilmsizlik avj olganligini, zalolat kuchayganligini, ajdodlarga munosib vorislar yoʻqligidan afsuslar chekadi. Lekin shoir qanchalik tushkunlikka tushmasin, hali bu millatni uygʻonishiga, butun olamga aytadigan soʻzi borligiga, taqdiri oʻz qoʻlida ekanligiga ishonadi.

Ochil, ey gul, gul vaqting boʻldi,  
Uygʻon, ey dil, dil vaqting boʻldi...  
Oʻzbekiston, falak burjiga  
Yuragingni il, vaqting boʻldi [4, 3].

Omon Matjon zamonaviy oʻzbek sheʼriyatining yetakchi vakillaridan bir. Uning qalbi vatan ishqida yonadi. Shoir yurtni qalbi va joni bilan sevadi, yurt tarixiga daxldor hech narsa uning naznidan chetda qolmaydi. Turkistonda Yassaviy yodi uchun Amir Temur farmoniga koʻra olti asrlar oldin yasattirilgan qozon boʻlgan. Ammo 1925-yilda koʻrgazma bahonasida Leningradga olib ketiladi. 1990-yilda fidoiy insonlarning saʼy-harakati bilan qozon yana vatanimizga qaytadi. Omon Matchon bu voqea haqida “Qatagʻon qilingan qozon xususida” nomli sheʼrini yozadi.

Turkistonga Yassaviyning qozoni qaytdi!  
Rossiyaga - koʻrgazmaga chogʻlangan qozon.  
Aldov ila qoʻl-oyogʻi bogʻlangan qozon.  
Oltmish besh-yil bagʻri oʻtsiz dogʻlangan qozon[3, 86].

Tarixiy asarlarni oʻrganar ekanmiz, albatta, tarixiy-funksional metodidan ham foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi. Bu metod “Badiiy adabiyotni tarixiy-funksional planda oʻrganish filologik tahlilning kunbotish yurtlarida ancha keng yo-yilgan yoʻnalishi boʻlib, unda badiiy matn kitobxon ongi va tuygʻulariga koʻrsatgan taʼsir bosqichlari, adabiy asarning oʻqirman ongidagi “variantlar”ining tarixiy dinamikasi, uning matn bilan turli davrlarda tanishgan kitobxonlar tasavvurida qoldirgan turlicha izlarning tarixini tadqiq etish koʻzda tutiladi” [5, 358]. Yaʼni qaysidir asar turli davrlarda, turlicha talqin qilinadi va kitobxonlar tomonidan turlicha tushuniladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” asaridagi Zebi, Oybekning “Qutlugʻ qon” asaridagi Mirzakarimboy kabi qahramonlar asar yozilgan payti kitobxonlar tomonidan salbiy qabul qilgan. Ammo vaqtlar oʻtishi bilan bu qarashlar oʻzgardi. Endi kitobxonlar Mirzakarimboy timsolida tadbikor odam, Zebi misolida jabrdida obrazni koʻradigan boʻlishdi. Omon Matchon asarlarida ham bunga oʻxshash misollar talaygina, shoirning “Eng soʻnggi xazina”, “Kamil Xorazmiyning Muhammad Rahimxon II (Feruz) dan Rossiya bilan sulh tuzishini soʻragani”, “Turgʻunlik yillari” kabi asarli bunga misol boʻla oladi.

Omon Matchon ijodida tarixiy-tipologik jihatdan oʻrganilishi kerak boʻlgan sheʼrlari ham anchagina. Shoirning “Ikki daryo oraligʻida” sheʼrida bobosi Feruzshoh zamonida saroyda devonbegi lavozimida boʻlganligini, ismi Ermuhammad ekanligi, ammo bu maʼlumotlar 1917-yil butun shoʻro mamlakatidagi “evrilishlar” olovida yondirib, tuproqqa koʻmilgan, Amudaryoga tashlab oqizib yuborilganligini aks etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Omon Matjon zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z so‘ziga, uslubiga, ijodiga, badiiy tafakkuriga ega bo‘lgan shoirdir. Uning she’rlari insonga o‘zgacha kayfiyat baxsh etadi. Omon Matjon she’rlarida tarix mavzusi alohida o‘rin tutadi. Shoir tarixiy mavzudagi asarlarida o‘zgacha his, kayfiyat va mas’uliyat bilan yondashadi. Shoirning “Bu – Mashrab, Mashrab!”, “Ko‘hna hikmatlar”, “Bobur”, “Eng so‘ngi xazina”, “Amir Olimxonning so‘nggi iltimos”, “al-Xorazmiyning Vizantiyadagi efest g‘origa sayohati”, “Tarix muzeyida” kabi she’rlarida bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Omon Matjon. Yonayotgan daraxt. – Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1977-y.
2. Ulug‘bek Hamdam. Ruhni uyg‘otguvchi so‘z. – Toshkent. Turon zamin ziyo. 2017-yi. 248-bet.
3. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. – Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1995-y.
4. <https://kh-davron.uz/>. Omon Matjon. She’rlar. Ikki kitob: Gaplashadigan vaqtlar. 15.02.2018-yil.
5. Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent. Kamalak. 2016- yil. 358-bet.

### **SARGUZASHT-MISTIK YO‘NALISHDAGI HIKOYALAR BADIYYATI**

*Sardor JO‘RAQULOV,*

*GulDU, O‘zbek adabiyotshunosligi yo‘nalishi magistranti*

Istiqlol davri o‘zbek nasri taraqqiyotida hikoyachilikning mazmun-mohiyatida ham yuqoridagi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi. Chunki hozirgi paytda adabiyotimiz yaxshi rivojlanib borayapti. Shu o‘tgan vaqt mobaynida ro‘y bergan o‘zgarishlarga sinchiklab qarajak, adabiyotimiz umuman boshqacha shakl ola boshlaganini his qilamiz. Bunga, eng avvalo, “tsenzura”ning yo‘q bo‘lganligi sabab bo‘ldi, deyish mumkin. Yozuvchilarga hech kim biron mavzuda, mana bu qahramonni shakllantirib asar yozgin, deb ko‘rsatma bermaydi. Yozuvchilar istagan mavzuda ijod qilishlari, mahoratlari tufayli o‘quvchisining diliga kirib borishi, uning ma’naviyatini yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkin.

“Hozirgi kunlarda, nazarimda, asosan, uchta yo‘nalish yaqqolroq ko‘rinib turibdi, ya’ni tarixiy asarlar, maishiy hayotimizning o‘ziga xos jihatlari haqidagi yozilmalar va kriminal voqealar bayoni. Shaxsan, meni taassuf qildiradigan holat esa fantastik asarlarning deyarli yo‘qligidir” [1, 67]. Ushbu maqola muallifining fikricha, bu janrni boshlab berganlardan Tohir Malik kriminal olam haqida qalam tebratmoqda, Mahkam Mahmudov adabiyotshunoslik bilan band, eng sermahsul Xojiakbar Shayxov esa bevaqt vafot etgan.

Lekin, ko‘pchilik adiblar bu yo‘nalishda qalam tebratmoqda: “...Qalamkashlarning yangi avlodi, asosan, chet ellarda “pulp fiction” (“pulp fikshn”) deb nom olgan shaklga moslashib ijod qilmoqdalar. “Rulp fiction”ning

ma'nosi, bir marta o'qib, tashlab yuborsa bo'ladigan to'qima, deganidir. Har hafta chop etiladigan turli gazetalarda bunday to'qimalar tiqilib ketgan. Lekin, jiddiy va yangi yo'nalishda ijod qilayotganlar ham etarli [5, 43].

Lekin hozirigi o'zbek hikoyanavisligida, xususan, sarguzasht-mistik yo'nalishda sermahsul ijod qilayotgan adiblarimizdan biri Erkin Usmonov bo'lib, uning asarlari ham aynan fantastik asarlarning yaxshi namunolari deyish mumkin. «Keyingi paytda meni bir yozuvchimizning, Erkin Usmonovning ijodi qiziqtirib qoldi. U – o'ziga xos adib. Uning asarlarini boshqa birovniki bilan adashtirib yuborolmaysiz. Darhol taniysiz. U 2008-yilda u “Ajal xiyoboni” to'plamini chop etdirgan edi. Bu kitobni u **sarguzasht-detektiv** qissalar va hikoyalar deb nomlagandi. Ammo, undagi asarlar nomlangan janrga emas, ko'proq mistika va triller yo'nalishlariga mos kelardi. Bu-yil esa “Marhum kech soat sakkizda keladi” nomli kitob chiqardi va avvalgisidan farqli o'laroq, uni **sarguzasht-mistik** qissalar va hikoyalar to'plami deb atabdi. Bu – ancha haqiqatga yaqin. Chunki, yozuvchining dili faqat mistik asarlar bitishga mo- yil. U, istasa-istamasa, har bir asari g'ayri tabiiy holatlarni aks etdira beradi. Bunday holatlar Erkin Usmonovning har bir asarida mavjud [4, 2].

Haqiqatan ham, Erkin Usmonov asarlari sarguzasht-mistik yo'nalishda yozilgan. Hozirgi paytda mistika yo'nalishi jahon adabiyotida va kino san'atida juda katta bo'lakni egallagan. Shaxsan men tan olgan Alfred Xichkok va Jon Karpenterlarning yigirmanchi asrning 60-80-yillarida olgan filmlari hozir klassik asar bo'lib qolganlar. Butun rivojlangan mamlakatlarda bunday san'atga qiziqish g'oyat ulkan. Asosiy sabab, uning o'quvchini sirli, g'ayri oddiy voqealar qa'riga tushirib, ongiga qattiq turtki berishidir.

“Men yana bir narsani aniqladim – mistika ikki xil bo'lar ekan. Birinchisi, oddiy mistika. Bunda qandaydir sirli voqelar hikoya qilinadi, ular albatta o'quvchini asar nihoyasiga etguncha hayajonda ushlab turadilar. Ikkinchisi, falsafiy mistika. Bunisida, sirli va hayajonli voqealar falsafiy yechim bilan tugallanadi va o'quvchiga qanday xatti-harakatlar falokatga olib boradi-yu, qanaqalari baxtga, ezgu maqsadga erishtirishini badiiy vositalarda ko'rsatib beradi. Nazarimda, bu ikkala yo'nalish ham yashashga xaqli”[4, 2].

Erkin Usmonovning yangi to'plamida ana shunday ikki xillik bor. Masalan, “Ko'zoynak” qissasi, “Uzuk ko'zidagi jodu”, “Marhum kech soat sakkizda keladi”, “Kapalak”, “Txarad”, “To'rtinchi hodisa” kabi hikoyalari birinchi yo'nalishga mos kelsa, “Liftga chiqqan besh kishi”, “Do'stim Goratsio”, “Panja orasidagi tilsim”, “Lain”, “Yog'iy” va boshqa asarlar ikkinchi yo'nalishga mansublar. Lekin, bu kitobdagi har bir ijod namunasi har qanday sharoitda o'quvchining diqqatini jalb qila oladi. Ayniqsa, ba'zi hikoyalarni o'qigan kitobxon, albatta, seskanishi, tabiiy hol.

Voqealardagi sirlilik va g'ayritabiiylikdan emas, hayotida razillik qilayotgan, shaytonga bo'ysunayotgan, nafsiga egalik qilolmay ozgina foyda uchun vijdonini, yaqin va uzoq odamlarni sotgan kimsalarning oxir-oqibatda qanday ahvolga tushganlarini, olayotgan jazolarini his qilgach, bunday holat yuz berishi mumkin. Har bir kitobxon beixtiyor, nogahon shunday ish qilib qo'ysam,

shunday ayanchli holatga tushamanmi, degan xayollarga ham borishi mumkin. Axir, haqiqiy adabiyotning vazifasi ham ana shunda. Ya'ni, kishiga estetik zavq bera olishida deyish mumkin. Har bir asar kitobxonni to'g'ri yashashga, insofli, diyonatli bo'lishga o'rgatishi kerakligi bizning badiiy adabiyotga xos xususiyat.

“Marhum kech sakkizda keladi” kitobini o'qish jarayonida, ayrim hikoyalar zamonaviy mistika prozasi ustalari Stiven King, Maykl Krayton va Din Kuntslarning darajasida bitilgan ekan, degan hayollarga ham bordim. Ayniqsa, “Liftga chiqqan besh kishi” hikoyasi ma'qul bo'ldi. Bu – haqiqiy falsafa yo'g'rilgan asar. Sal soddaroq bitilgan-ku, ammo inson qalbiga etib boradi. Xuddi shuningdek, “Lain” ham tahsinga loyiq. U – ogohlantiruvchi hikoya”[4, 2].

To'plamdagi barcha asarlar bir xilda sifatli emas. Masalan, “Ko'zoynak” qissasini olaylik. Asosiy personaj – bir omadsiz, hayotida noto'g'ri yo'l tanlagan odam. Ilmiy xodim bo'lib xizmat qiladi. Unga, atrofdagi barcha odamlar qarshi ish qilaverayotgandek tuyulaberedi. Domlasi daraja yoqlashga yo'l bermaydi. Rahbarlar yangi lavozimga ko'tarishmaydi. Xotini bilan ham munosabatlari yomon. Farzandi yo'q. Nihoyat, ular ajrashadilar. Xullas, butun borliqning yomonliklari unga yomg'irdek yog'ib turaveradi. Nihoyat, bir kuni u ko'zoynak topib oladi. Egasi chiqmagach, uni taqadi va dunyo unga kulib boqa boshlaydi. Natijada, u ma'lum muvaffaqiyatlarga erishadi. Kattayu kichikning havasi keladi. Uy lanadi, qizchali bo'ladi. Obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Lekin, tasodif tufayli o'sha ko'zoynakni sindirib qo'yadi va yana asl, ayanchli holiga qaytadi... Bunday asarlar adabiyot tarixida juda ko'p yozilgan. Ingliz fantast-yozuvchisi Herbert Uellsdan tortib to yaqin o'tmishdagi adiblargaacha. Bu qissada hech bir yangi voqea, falsafiy fikr va ibrat bo'la olarli holat topilmaydi. Asar, o'tilgan darsni boshqatdan berishdek bo'lib qolgan.

Ko'p personajlar omadsiz, bilimi kam va to'g'ri qaror chiqarishni bilmaydigan kimsalar. Ular hayotdan mo'jiza kutib umr sovuradilar. Shunday mo'jizalarga duch keladilar ham. Ba'zan, bu hodisotlar ularga yordam beradi, goho halokat girdobiga tashlaydi. Bundan tashqari, turli hikoyalardagi odamlarning qiyofalari, fikrlashlari bir-birlariga o'xshashdek tuyuladi. To'plam boshqa kamchiliklardan ham holi emas.

Yuqorida eslatganimiz - “Ajral xiyoboni” bilan “Marhum kech soat sakkizda keladi”ning badiiy farqi bor. Oxirgi kitobni mutolaa qilish jarayonida yozuvchining mahorati o'sganligini his qilish mumkin. U vaqtini bekor o'tkazmay va harakatdan to'xtamay ijodiy izlanishlar borayapti, degan xulosaga kelish mumkin.

“Erkin Usmonov o'zbek adabiyotida yangi yo'nalish – **milliy va zamonaviy mistika** janrni rivojlantirmoqda. Ayrim kamchiliklarga qaramay, bu ishi uchun, uni faqat qo'llab-quvvatlash va tabriklash kerak. Xali, uning orqasidan ko'p izdoshlar chiqishiga ishonaman. Qani, fantastikani ham kimdir shu adib kabi keng targ'ib etsa. Shunday keng ko'lamda ijod qilsa” [4, 3].

Adibning to'plam tarkibiga kiritilgan hikoyalari sirasiga “So'nggi yulduz shu'lasini”, “Yalmog'iz!”, “Uzuk ko'zidagi jodu”, “Yog'iy”, “Liftga chiqqan besh



kishi”, “Uyingdagi to‘rtinchi odam”, “Ikkinchi umr”, “Ko‘zgu ichidagi yo‘l” kabilarni keltirish mumkin.

Xulosa qilinganda, Erkin Usmonovning sarguzasht-mistik hikoyalari badiiy jihatdan ancha mukammal hikoyalar bo‘lib, ularda qahramonlarning individual xususiyatlarini ko‘rsatishda portret chizgilaridan unumli foydalaniladi. Hikoyalarda badiiy detallar ha alohida ahamiyatga ega. Ular asarlarda mistikaning asosiy vositalari vazifasini o‘tagan.

Muallif tilidagi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi ham asosiy g‘oyaviy niyatning aks ettirilishida yordam bergan.

Umuman, mistik hikoyalar badiiy xususiyatlari o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 2002, 558-b.
2. Erkin Usmonov. Marhum kech soat sakkizda keladi... –T., Sharq, 2011. 118-b.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. –T., “O‘qituvchi” nashriyoti, 1999, - 545 b.
4. [www.ziyouz.uz.ozbek](http://www.ziyouz.uz.ozbek) matbuoti.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Yangi asr avlodi. – T., 2006. 544-b.

### **RAUF PARFI LIRIKASIDA BULUT OBRAZI**

*Mahliyo RAXIMBOYEVA,  
Urganch davlat universiteti talabasi*

Rauf Parfi – o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos poetik va badiiy ruhga ega iste‘dodli ijodkor. U o‘zining shoirona fikrini ifodalashda turli badiiy tasvir vositalari va timsollarga murojaat qiladi. Obrazlar o‘z va ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanilib, ramziylik va hayotiylikka asoslangan. Taniqli adabiyotshunos D.Quronov badiiy obraz haqida shunday yozadi: ”Badiiy obraz – adabiyot va san‘atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi” [1]. Jumladan, ijodkor tabiatning g‘aroyib kashfiyoti bo‘lmish bulut timsolidan turli xil manzaralarni va turfa ma‘nolarni shoirona tasvirlashda unumli va o‘rinli foydalanadi. Quyida biz Rauf Parfi ijodida bulut obrazi masalasini tahlilga tortishga jazm qildik.

Bulut obrazi badiiy adabiyotda an‘anaviy obraz bo‘lib, u ijodkorning ichki his-tuyg‘ulari, davrning o‘ziga xos holati va tabiiy tabiat hodisasi singari turlicha ma‘nolarni anglatib keladi. Xususan, mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiy o‘z asarlarida bulutni quyidagi ma‘nolarda qo‘llagan: “Abr – forscha, bulut; abri bahor, abri bahoron, abri nayson-bahor buluti; abri purbor-seryomg‘ir bulut; abri karam-karam buluti, zo‘r yaxshilik”. [2] Zamoniy adabiyotimizda esa orzular ro‘yobi, lirik qahramonning doimiy hamrohi, tinchlik, sokinlik, poklik va boshqa

ma`nolarda keladi. Rauf Parfi lirikasida ham bulut timsoli rang-barang va turli xil manzaralarda tasvirlangan:

Bulut – cheksiz samoning erka farzandi. U moviy osmonning etaklarida tinch va sukunatda uxlaydi. Falakning ajoyiboti bo`lmish bulut yer-u zaminga jimgina boqadi. Ijodkor ushbu holatni shoirona misralarda gavdalantirgan. Ushbu misralarda Rauf Parfi bulutni ramziy ma`noda qo`llab, betakror tabiat tasvirini chizgan:

Moviy osmon etaklarida,  
Uxlab yotar yiqilgan bulut...[3]

3. Kulrang bulut – g`ashlik va iztirob ramzi. U osmonda jimgina kezib yurishi orqali ijodkorning ichki his-tuyg`ularini ochib bergan. Qolaversa, kulrang bulut lirik qahramonning ruhiga baqirib shivirlashi bandga o`ziga xos poetik ruh bag`ishlagan. “Jim” va “Hujum” jumalari bulut obraziga ramziy ma`no yuklagan:

Kulrang bulut kezinadi jim,  
Kulrang bulut o`xshar uyqumga.  
Kulrang bulut boshlaydi hujum  
Baqirib shivirlar ruhimga. [3]

4. Bulut-kecha va tongning hamrohi. Tunning bulutga boda (may) ko`tarishi va afsonalar aytishi bandda takrorlanmas jonlantirish san`atini yuzaga keltirgan. Ijodkor bulutni ramziy ma`noda qo`llab ta`sirchanlik va poetik ruh baxsh etgan:

Tun bulutga ko`tarib boda,  
Afsonalar aytar tonggacha. [3]

5. Bulut – sukunat va jimlikni xush ko`ruvchi poetik timsol. Ushbu misralarda ham bulut jimlik bilan hayrihohlik qilib izg`imoqda. Ijodkor bulutning bu holatini ko`rib uning nimalarni izlayotganiga ishora qiladi:

Oppoq bulut izg`ib yurar jim,  
U yerlardan nelar izlar ul?! [3]

Mazkur bandda ham bulutning ushbu ma`nosi qo`llanilgan:

Oppoq bulut izg`ir sarosar,  
Oppoq bulut sokin osmonda.  
Yo`llar oshar, manzillar oshar,  
Nelar izlar o`sha tomonda. [3]

6. Tungi bulut – oynning doimiy dushmani. Ijodkor bu safar bulutning tabiiy jihatlarini ham o`z misralarida shoirona ruhda aks ettirgan. Rauf Parfining badiiy mahoratini har bir timsolning ustida sinchklab ishlashidan ham yaqqol ko`rishimiz mumkin:

Mudrar yarim kecha uyquda,  
Bulut suzar va oyni yopar...[3]

Bulut o`zbek tilining izohli lug`atida ham o`z va ko`chma ma`nolarda berilgan: “ Bulut 1 (bosh ma`no). Osmonni butunlay qoplab olgan yoki uning u yer- bu yerida g`uj bo`lib to`plangan, quyug`lashgan suv bug`lari. Oq bulut. Bahor bulutlari; bulut 2 (ko`chma ma`no). Tahdid soluvchi yoki dilni qorong`i qiluvchi

har bir narsa, holat. Boya, qiz ovozi eshitganda, qalbida chaqnagan quyosh yuzini mana endi qora bulut bosdi. (M.Ismoilij, Fargʻona tonge otguncha [5].

Xulosa qilganda, Rauf Parfi sokin va betakror tabiat hodisasi boʻlmish bulutni oʻz hamrohi deb bilib, oʻz lirikasida mohirona tasvirlaydi. Shoirimizning tabiat farzandi ekanligi yuqoridagi misralardan dalolat beradi. Rauf Parfi ijodida bulut obrazi turli xil manzaralarda gavdalanadi: bulut obrazi ijodkor nuqtayi nazari bilan turlicha talqin etiladi va bu obraz har safar oʻzining yangidan yangi qirralari bilan sheʼrning poetik ruhiyati va badiiyatini taʼminlashga xizmat qilganligi kuzatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Navoiy asarlari lugʻati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashryoti, 1972. - B 24.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti, 2008.
3. Parfi R. Sabr daraxti. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashryoti, 1986.

### **OKSIMORON HODISASI VA UNING ADABIYOTDAGI OʻRNI**

*Dildora SATTAROVA,  
GulDU Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

Sheʼriy til murakkab, serqirra, serjilo, oʻziga xos nutqdir. Biz sheʼriy nutqni bilmasdan turib, sheʼrni ham sheʼriyatni ham puxta oʻrgana olmaymiz. Sheʼriy nutqni mukammal oʻrganishimiz uchun sheʼriy nutq badiiyatini chuqur bilmogʻimiz darkor. Ushbu maqolada biz sheʼriy nutq badiiyatiga doir boʻlgan poetik koʻchimlardan biri oksimoron hodisasi haqida soʻz yuritishni maqsad qildik.

Sheʼriy nutq badiiyati uch guruhga ajratib oʻrganilgan. Bular:

Poetik koʻchimlar

Badiiy sanʼatlar

Sheʼriy nutq sintaksisi

Poetik koʻchimlarda, asosan, soʻzlarning koʻchma maʼnolari hisobga olinsa, badiiy sanʼatlarda soʻzlarning lafziy-maʼnaviy bezaklari diqqat markazida turadi, poetik sintaksis (yohud stilistik figuralar) da esa, asosan, sheʼriy nutqda gap qurilishining rang-barang koʻrinishlari eʼtiborga olinadi. [4, 323-324]

Koʻchimlar sheʼriy nutqni boyitishga xizmat qilib, yangi mazmuni ifodalovchi yangi soʻz yoki yangi soʻz birikmasini yaratadi. Shoir koʻchimlar vositasida kitobxonda obrazli tasavvurni uygʻotadi.

“Ikki predmet yoki hodisani chogʻishtirish, oʻxshatish troplarga asos qilib olinadi. Yaʼni predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yaqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi koʻchiriladi, oʻxshatiladi”. [3, 13]

Ko‘chimlar turli xil ko‘rinishlarga ega. Ko‘chimlar so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi va tasir obyektiga munosabatga qarab quydagicha tasniflanadi:

O‘xshash (komparativ) ko‘chimlar

Qorishiq (kontigual) ko‘chimlar

Zidlov (kontrast) ko‘chimlar

Zidlov (kontrast) ko‘chimlar ikki qarama-qarshi tushunchali so‘zlarni yonma-yon keltirishdir. Kinoya, antifraz, sarkazm, oksimoron zidlov ko‘chmlarning ko‘p ishlatiladigan turlaridir. [4, 350]

Oksimoron hodisasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, oksimoron (grekcha oxymoron – o‘tkir ma’noli bema’nilik) – o‘z ma’nosidan ko‘chirib, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalab kelgan so‘zlar komponentlari mohiyat e’tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan ko‘chma ma’nodagi birikma. Masalan, shirin azob.[ [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org)]

Ushbu hodisaga adabiyotshunos olim To‘xta Boboyev o‘zining “Adabiyotshunoslik asolari” kitobida quyidagicha ta’rif bergan: “Oksimoron (yunoncha oxymoron – zakiy, nodon) – ikki qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni yonma-yon keltirish yo‘li bilan tasvir obyektini bo‘rttirib ko‘rsatish usuli”. [4, 350]

Ta’riflardan shu ma’lum bo‘ladiki, Oksimoron ikkita qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, bir martalik birikma hosil qilib, so‘zning ma’nosini kuchaytirib o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadigan hodisadir. Masalan, shirin tuyg‘ular bo‘lishi mumkin, ammo shirin azob bo‘lmaydi. Chunki azob so‘zining ma’nosi qiynalish, uqubat kabi ma’nolarni ifodalaydi. Qiyinchilik, uqubat esa insonga hech qachon shirin tuyulmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, oksimoron hodisasi so‘zlarning ma’nolarini bo‘rttirib, ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Oksimoron, ko‘pincha, ijodkorning xohishiga qarab asar va filmlarning sarlavhalarida qo‘llaniladi. Masalan, “*Tirik murda*”, “*O‘lik jonlar*”, “*Abadiyatning oxiri*”, “*Oddiy mo‘jiza*”, “*To‘g‘ri yolg‘on*”, “*Katta bolalar*”, “*Kelajakka qaytish*”, “*Halol o‘g‘ri*”, “*Tirik yodgorliklar*”, “*Boy tilanchi*”, “*Mening katta yoshli bolaligim*” kabi.

Shuningdek, biz bu hodisani ko‘plab she’riy misralarda uchratishimiz mumkin. Misol uchun :

*Bir yo‘qlamaysan kuygan kulingni*

*Ko‘zlari jallod, nozik niholim.*

Yoki:

*Go‘zalim, negadur ko‘zlaringda nam bor?*

*Bu kun ko‘zlaringda nozik bir g‘am bor.*

(*M. Shayxzoda*)

*Lov – lov yonayotir quyosh ul – najot,*

*Osmon chorlayotir, chorlayotir yuksak tog‘.*

*Shunday yuragimda tovushsiz faryod,*

*Men senga inonmoq istayman, evoh...*

**(R.Parfi)**

Oksimoron hodisasi antitezaga o‘xshab ketsa-da, undan tubdan farq qiladi. Antitezada bir-biriga qarshilantirish orqali o‘zaro zid tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiylikni yuklash ustunlik qiladi:

*Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon emish,  
Mening jonim olib, ag‘yorga oromijon emish.*

**(A. Navoiy)**

Oksimoronda esa ikki qarama – qarshi tushunchali so‘z bir-biriga yonma-yon holda birlashtiriladi, biri ikkinchisiga aniqlovchi bo‘lib xizmat qiladi. Shirin o‘lim birikmasida shirin – aniqlovchi, o‘lim aniqlanmish sifatida kelib shirin so‘zi o‘limning shirin ekanligini ifodalaydi.

Shu o‘rinda adabiyotshunos olim D.Quronovning adabiyotshunoslik lug‘atidan joy olgan tarifini keltirish o‘rinlidir:

“Oksimoron “zakiyona nodonlik” – uslubiy figura, mantiqan tamomila zid tushunchalardan hosil bo‘lgan sintaktik birlik. Adabiyotlarda oksimoron siqiq va shuning uchun paradoksal mazmun kasb etuvchi antiteza deb ham ta’riflanadi, biroq bu hamisha ham to‘g‘ri emas. Chunki antitezada zid ma’nodagi ikki so‘z bir-biriga qarama-qarshi qo‘- yilsa, oksimoronda mazmun jihatdan zid ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar ajralmas birlik hosil qiladi, ko‘proq aniqlovchi - aniqlanmish munosabatida keladi. Masalan, “Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l” naqli, “sukunat ovozi”, *nafis haqorat*”, “yolg‘on haqiqat” birikmalarida, “O‘tgan kunlar” dagi Otabekning “shirin o‘lim” deyishida oksimoron hodisasi kuzatiladi” [2, 20]

Oksimoron keng tarqalgan hodisadir. Biz uni nasriy asarlarda ham, she’riy asarlarda ham, hatto maqolada ham uchratishimiz mumkin.

Misol uchun, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Vahob Rahmonovning bir maqolasining sarlavhasida aynan shu hodisani ko‘rishimiz mumkin: “*Jannat ichidagi do‘zax*” kabi.

Shu o‘rinda ushbu hodisaga berilgan yana bir ta’rifni keltirishimiz joiz: “Oksimoron (yunoncha oxymoron – farosat bilan, lekin bema’ni ) mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani (ma’nosi bir – biriga zid ikki so‘zni ) o‘zaro qo‘shishdan iborat uslubiy figura, badiiy adabiyotda obrazlilik, ifodalilik kabi maqsadlarda keng qo‘llaniladi”. [1, 74]

Oksimoron so‘zini so‘zma-so‘z tarjima qilsak, “o‘tkir ahmoqlik” degan ma’noni anglatadi. Oksimoron – ijobiy va salbiy ma’noli so‘zni yonma-yon keltirishdir.

*Shirin qasosning oqibati nima?  
Shirin o‘limmi?*

**(T. Malik).**

“*Otashin muzlar*”, “*Tirik o‘lik*”, “*Qayg‘uli quvonch*”, “*Quvnoq qayg‘u*”, “*Haqiqiy yolg‘on*”, “*Achchiq baxt*” kabi so‘z birikmalari oksimoronni yuzaga keltiradi. Sababi, otash bilan muz, tirik bilan o‘lik, qayg‘u bilan quvonch, haqiqat bilan yolg‘on, achchiq bilan baxt so‘zlari bir-biriga zid tushunchalarni anglatadi.

Bu soʻzlar yonma-yon keltirilib maʼnoning kuchayishiga, kutilmagan maʼnoning yuzaga chiqishiga hamda obrazlilikni hosil qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, oksimoron hodisasi aadabiyotshunosligimizda muhim ahamiyatga ega boʻlgan hodisalardan biridir. Shu bilan birgalikda, u obrazlilikni hosil qilish, oʻquvchiga kutilmagan maʼnolarni taqdim etish, soʻz maʼnolarini boʻrttirish vazifalarini bajaradigan hodisa hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari izohli lugʻati. –Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.
2. D. Quronov, J. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr. 2003.
3. R. Qoʻngʻurov. Oʻzbek tilining tasviriy vositalari. –T., Fan, 1977.
4. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent; Oʻzbekiston. 2002.

### **OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOʻZ TURKUMLARI SATHI**

*Mohichehra SHARIPOVA,*

*Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

Soʻzlarni turkumlarga ajratish anʼanalari, asosiy tamoyillari, tadqiq usullariga eʼtibor qaratiladi. Shu munosabat bilan soʻzlarni turkumlarga ajratish tarixiga nazar tashlanadi, jarayonning oʻtmishi, buguni, istiqboli haqida fikr yuritiladi. Antik davrning buyuk olimi Aristotelning “Poetika” (Poeziya sanʼati haqida) [1] asarida morfologiyaga oid ilk qarashlar kuzatiladi. Asarning “Til va fikr”, “Nutq boʻlaklari”, “Otlarning turlari” kabi fasllari bevosita morfologiyaga oid qarashlarni oʻz ichiga oladi. Yana shuni ham qayd etish lozimki, eramizdan oldingi 170-90-yillarda Aleksandriya maktabi vakillaridan boʻlgan Dionisiy Frakiyskiy qadimgi grek tili uchun sakkizta soʻz turkumi (ot, feʼl, sifatdash, artikl, olmosh, koʻmakchi, ravish, bogʻlovchi)ni ajratib tahlil qilgan. [2]

Turkiy tilshunoslikda M.Koshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻotit turk”[3] asarining katta qismini “Soʻz yasalishi” va “Morfologiya”ga bagʻishlagan. Asarning 2-jildi, asosan, olimning morfologiyaga oid qarashlarini oʻzida aks ettirgan. Avvalo, olim soʻzlarni uch turkumga ajratadi va bular ichida feʼl va feʼl shakllari boʻyicha oʻz qarashlarini bildirib oʻtadi. Professor A.Nurmonov “M.Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari X–XI asr turkiy tillar morfologiyasi haqida toʻla tasavvur beruvchi qomusiy asardir” deb toʻgʻri taʼkidlagan [4]. Turkiy tilshunoslikda muallifi nomaʼlum va yozilgan oʻrni munozarali boʻlgan “At-tuhfatuz zakiyatu fillugʻotit turkiya” asari ham leksikologiya va lugʻatshunoslik nuqtai nazaridangina emas, morfologik, soʻz turkumlari jihatidan ham eʼtiborga molikdir. Unda lugʻatdan keyin berilgan grammatika qismi ikki jihatdan oʻrganilgan [5]. Bu haqda fikr yuritgan professor E.Umarov, ayniqsa, morfologiyaga oid qarashlarga keng toʻxtalgan.

Turkiy til (eski oʻzbek adabiy tili)ning morfologiyasiga oid ayrim muhim

qarashlar Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham kuzatiladi[7]. Albatta, Navoiy turkiy til morfologiyasi bo‘yicha maxsus asar yozgan emas. Muallif turkiy tillarga xos otlar va fe’llarning ba’zi morfologik jihatlari, ma’no vazifalarini qayd etish bilan cheklangan bo‘lsa-da, ularning bugungi morfologik ta’limot uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan tomonlari ham bor. Jumladan, fe’lning darajalanishi, otlarning jins-tur munosabatlari haqidagi qarashlari bugungi kunda ham qimmatlidir[6].

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning mahalliy aholisini tutqunlikda saqlash niyatida ular bilan muloqotda bo‘lish zarurati tufayli rus mulkdorlarida o‘zbek tili (turkiy tillar)ni bilish ehtiyoji tug‘ildi. Shu ehtiyoj tufayli ular (turkiy tillar) grammatikani o‘rganishga kirishdi va ba’zi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar yaratildi. Bunga misol sifatida M.A.Terentev, I.A.Belyayev va boshqalarining ishlarini keltirish mumkin[8]. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Abdurauf Fitrat o‘zining “Sarf va Nahv” kitobi bilan o‘zbek tili grammatikasining ilk namunasi yaratadi. Olim morfologiya va sintaksisning o‘zaro bog‘langanligini ko‘rsatib, shu ikki bo‘lim grammatikani tashkil etishini asoslab berdi. Uning “Sarf”i o‘zbek tilidagi so‘z turkumlari haqidagi dastlabki ta’limotdir.

O‘zbek tilidagi so‘zlarni turkumlarga ajratishda XIX asrning 20–40-yillarida G‘ozi Olim Yunusov[9], M.Shamsiev va A.Shcherbek [10], H.Qayumiy va S.Dolimov [10], O.Usmon va B.Azizov [11] hamda Ye.D.Polivanov [12] kabi olimlar tomonidan ham e’tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Yana bir e’tiborli fikrlarini aytib o‘tish joizki, Qayum Ramazon 1913-yilda Munavvar qori Abdurashidov va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda “Til saboqlari” darsligini yaratgan [13]. Bular haqida, umuman, o‘zbek tili ilmiy morfologisining shakllanish tarixi va taraqqiyoti to‘g‘risida borasida maxsus ishlarda [14] anchagina keng ma’lumot berilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Аристотел. Поетика, адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1980.
2. Античные теории языка и стиля // Цитата: Л.Л.Буланин. Трудные вопросы морфологии. – Москва: Сосекгиз, 1936. – С. 8.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк // Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. –Тошкент: Фан, 1961. №2. – Б. 41–71.
4. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Қатортол–Камолот, 2000. – Б.48.
5. Фозилов Э., Зияева М.Т. Изысканный дар тюркскому языку. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.3–450.
6. Алишер Навоий. Асарлар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт, 1964. 14-жилд. – Б.116–117.
7. Дониёров Х., Санакулов У. Алишер Навоий тилшунос олим. – Тошкент, 1990. – Б.14–41.
8. Терентев М.А.Грамматика турецкая, персидская, киргизская и узбекская. СПб, 1876.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ADABIY VA MUSIQIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

*Mahliyo NURBOYEVA,  
GulDU, San'atshunoslik fakulteti,  
"Musiqiy ta'lim" yo'nalishi, 2-bosqich talabasi*

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridayoq mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini, barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi.

Shu maqsadda butun ta'lim tizimi tubdan takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'limining rivojlantirilayotgani maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lim sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar qilinmoqda. Mamlakatda madaniyat va san'at sohasini inqirozdan olib chiqish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni borligi ayni haqiqat. Bolani estetik tarbiyalashdek sharaflı ishni to'g'ri yo'lga qo'yish bizga, ya'ni, bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokni rivojlantirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Musiqaga kichik yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi: Bular,

- bolalarda tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;
- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotga go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish;
- bolalarda badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- bolalarda go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish

Demak, bolalarning estetik, musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Masalan, bolani ilk bolalik davridan tovushlar balandligini ajratishga o'rgatilmasa, u yetti yoshga yetganida o'zidan kichik bolalar osongina bajara oladigan vazifalarni bajara olmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ularning eshitish sezgisi, musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanib borishi;



2. Har xil xarakterdagi musiqaga emotsional ta'sirchanlikning sifati va darajasi ortib borishi;
3. Qo'shiq kuylash, musiqiy-ritmik ijrochilikda qo'llaniladigan sodda ko'nikma va malakalarning shakllanishi.

Musiqaviy faoliyat bilan o'yinlar qo'shib olib borilsa, bolalarning obrazli fikrlashi va obrazli xotirlash harakati, malaka ko'nikmalarini yaxshi rivojlantiradi. Bu har ikkala psixologik-parallel rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuy, qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Bolalar musiqasi ularning dunyoviy his-tuyg'usidir. Dunyo eshigini ochish uchun uning iste'dodini rivojlantirish kerak bo'ladi. Buning uchun:

1. Birinchi navbatda bolaning musiqaviy nutqini o'stirish.
2. Bolaning hissiyotini o'stirish lozim. Aks holda, musiqa tarbiyaviy vazifani bajarmaydi.

Musiqiy tarbiya kattalar va bolalar o'rtasidagi eng chiroyli, yoqimli, qulay muloqotdir. Har bir inson ham bolalar dunyosi bilan doimo hamnafas yashay olmaydi. Bu imkoniyat faqat tarbiyachilarda mavjud bo'lib, ular bolalar bilan birga orzu qilib, ertaklar olamiga, musiqa dunyosiga kirib boradilar, ular bilan birgalikda o'ynab, rasm chizib, ijod qiladilar. psixolog A.Lyublinskayaning to'plagan ma'lumotlariga ko'ra, go'dakning 10-12-kunlarida eshitish organi ishga tushar ekan. Ikki oylik go'dak esa, musiqa tovushlarini eshitganda, qimirlamay, jim bo'lib qolar ekan. 4-5-oylarida bola tovush kelayotgan tomonga qaray boshlaydi. Ilk bolalik davrlaridayoq go'daklarda musiqa tovushlariga nisbatan shaxsiy munosabat shakllana boradi. Birinchi-yilining oxirlarida bolaning umumiy eshitish hissi shakllanadi. Bolakay kattalardan har xil musiqani tinglab, uni o'ziga xos intonatsion (o'xshash ovozlari chiqarib) xirgoya qiladi. Musiqaga nisbatan emotsional munosabat bildirish, eshitish hissiyotlarini rivojlantirish ilk bolalikdan musiqiy tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bog'cha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi. Musiqiy ta'lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning psixologik asoslarini o'rganish o'ta muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti yegalari bo'lmish bolalarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o'rni va o'ziga xos xususiyatlari bor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulug'bek Hamdam. Ruhni uyg'otguvchi so'z. Turon zamin ziyo. – Toshkent 2017-yi. 248-bet.
2. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Kamalak. – Toshkent. 2016-yil. 358-bet.

## **“TODD” HIKOYASIDA URUSH MAVZUSINING ISHLANISHI**

**Bekzod ERGASHOV,**  
*GulDU Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti*  
*2-bosqich magistranti*

Ma’lumki, istiqlol davri o‘zbek adabiyoti ko‘lamdorligi va mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan epik asarlar o‘z davri muammolari talqini bilan bir qatorda ushbu davrdagi tinchlikning qadriga yetishga da’vat qiluvchi urush mavzusidagi asarlar yaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Bunda hikoyachilikning o‘rni alohida.

“Hikoya, novella (italyancha novella – yangilik) – inson hayotidagi u yohud bu yorqin hodisani, ijtimoiy yohud psixologik konfliktni xarakter bilan uzviy bog‘liq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik asar. Hikoya yoki novella – epik turning kichik janri. Bu asar odatda. Kishi hayotidagi g‘oyatda muhim voqea tasviriga bag‘ishlanadi. Va unda shu voqeaga qadar va undan so‘ng ro‘y beradigan voqealar batafsil bayon qilinmaydi”. Ko‘rinadiki, hikoya janri o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ixcham hajmli va hayotning ayrim ko‘rinishini, qahramon hayotidagi birgina muhim voqelikni qamrab olishi bilan ajralib turadi.

Hikoyaning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari mavjudligi haqida nazariy manbalarda turlicha ma’lumotlarga duch kelish mumkin. Xususan, uning inson hayotidagi alohida bir voqea asosiga qurilishi, unda epik asarga xos syujet unsurlarining barchasini topish mumkin ekanligi, ya’ni, ekspozisiya, tugun, kulminasiya, voqealar rivoji va yechimlar shular jumlasidandir. Shuningdek, hikoya asosida insonning murakkab taqdiri yashiringanligi, dramatik vaziyatlar seroblighi va xokazolarni aytib o‘tish joiz.

“Lakonizm – hikoyada tasvir mezoni”. Ya’ni hikoya boshqa janrlardan rivoyaning qisqaligi bilan ajralib turadi. Ushbu janrda ijodkorlarning so‘z qo‘llash mahorati yana bir bor sinaladi. Chunki g‘oyaviy maqsadni amalga oshirishda hikoya janridan foydalanishni maqsad qilgan yozuvchilar mahorat borasida o‘zlarini namoyon qiladilar. Mana shunday adiblarimiz qatorida Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Erkin A‘zamlar ham bor bo‘lib ularning hikoyanavislik mahorati XXI asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Urush mavzusi she’riyatida alohida o‘rin egallashi barchaga ma’lum. Urushning oddiy xalq hayotidagi o‘rni, uning keltirib chiqargan oqibatlari urush fojealari umumlashma tarzida namoyon bo‘lgan.

Ijodkorlarning urushga, uning xalq boshiga keltiradigan jabru-jafolariga munosabati nafaqat she’riyati orqali, balki nasriy asarlari orqali ham ifodalangan. Nasrda adib urush va oddiy xalq hayotini uyg‘un holatda tasvirleydi. Ya’ni inson xarakterini urush holati bilan bog‘liq holda tasvirleydi. Ko‘p holatda xulosani kitobxonning o‘zi chiqarishiga havola qiladi.

Urush mavzusi hamma zamonlarda ham dolzrbligini yo‘qotmaydigan mavzulardan. Chunki tinchlikning qadriga yetish uchun urushning xalq boshiga keltiradigan fojealaridan boxabar bo‘lib, uni esga olish bilan birga, buning dahshatlarini yosh avlodga ham yetkazish dolzarb masalalardan bbiriligicha

qolaveradi.

Adiblarning urush mavzusidagi asarlarida ruhiyat tasviri yetakchilik qilgan o‘rinlar talaygina. Ya’ni ijodkor o‘limni ham, fojeani ham kechinma tavsifi orali aks ettirish orqali o‘z qahramonlarini insonlarga, ularning qalb sadolariga yaqinlashtiradi va kitobxonda ularga nisbatan mehr uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Adiblarning yuqorida sanalgan asarlari personajlarning monolog va dialoglariga asoslangan badiiy saviyasi yuqori asarlar sirasiga kiradi. Garchi ular o‘ziga xos ifoda uslubida yozilgan bo‘lsa-da, unda ko‘tarilayotgan ijtimoiy muammolar juda jiddiy va o‘z zamonasi uchun dolzarbdir. Yozuvchilar shunday uslublar qo‘llaganki, kitobxon urush degan baloi ofatdan nafratlanadi, urushni qoralashiga sabab bo‘ladi.

Istiqlol davri uzbek adiblarining nasriy asarlari, xususan, hikoyanavislik va qissanavislik mahorati o‘z davrida adabiyotshunos olimlardan B.Nazarov, U.O‘ljaboyev, U.Normatov, Q.Yo‘ldoshev, N.Rahimjonov kabi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan, ushbu ijod namunalari o‘zining yuksak bahosini olgan. Lekin adiblarning urushni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rmagan inson sifatida o‘z asarlarida ushbu mavzuni qay darajada qo‘llaganligi, asarlarda qahramon ruhiyatining urush davri tasviri bilan uyg‘unligi holati kabi masalalar zamonaviy dabiyotshunoslikda yana bir bor umumlashtirgan holda o‘rganilishiga asos beradigan jihatlar mavjudligi mavzuni yana bir bor tadqiq etilishiga asos bo‘ldi.

Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligida urush mavzusida qalam tebratgan adiblarimizdan biri Isajon Sulton bo‘lib, uning qalamiga mansub “TODD” hikoyasidir. Ushbu hikoya yozuvchi o‘zi o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan urush voqeligi haqida yaratilgan o‘ziga xos saviyali hikoyalardan biri deyishimizga asos vazifasini o‘taydi.

Ikkinchi jahon urushi mavzusida ko‘plab asarlar yaratilgan. Ularda o‘zbek xalqining bu davrdagi hayot tarzi, jasoratlari, front orti hayoti, urushning insonlar taqdiriga salbiy ta’siri kabi jihatlar yoritilgan.

Isajon Sultonning “TODD” hikoyasida ham urush bo‘layotgan hudud, ham konslager hayoti, ham urushdan keyingi tinch hayot shakllari birdek aks ettirilgan. Hikoyaning bosh qahramoni Mamasiddiq pishiq degan kishi bo‘lib, uning bu uch jabhadagi hayot tarzi va boshidan kechirganlari hikoyaning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Hikoya kompozision jihatdan o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan. Unda hikoyachilik vazifasini o‘rni bilan muallif va Mamasiddiq pishiqning katta o‘g‘li hikoyasi tarzda amalga oshiriladi. Mamasiddiq pishiqning urushdagi hayoti haqidagi asosiy hikoya o‘g‘li tilidan aytiladi.

Unga ko‘ra otasi 22 yoshida urushga ketgan chog‘ida bular uch farzand va onasi yolg‘iz qolishadi. Ona vafotidan so‘ng ammasining qaramog‘ida qolishadi. Mamasiddiq pishiq esa qirq uchinchi yil asirga tushib, ko‘p sonli asirlar qatorida Polshaga jo‘natiladi. Konslagerda Vilgelm Todd degan mal’un ofiser nemis askarlari o‘rtasida uzoq masofaga yugurish bo‘yicha trener vazifasini bajarganligi uchun tarki odat amri mahol deganidek, harbiy asirlarni ham har kuni qirq

chaqirim masofaga yugurtirar ekan. Tong sahardan yugurishga olib chiqilgan askarlar soat yettigacha marra bo'lgan tosh kar'yeriga yetib borishlari shart bo'lgan. Toddning o'zi orqadan mashinada kuzatib borib, kim orqada qolib ketsa uni o'z qo'llari bilan otib tashlar ekanligi xususida otasi hikoya qilib berganligini aytadi.

Marraga yetib kelganlarga Toddning aytadigan gaplari asarning asosiy mazmunini va mohiyatini anglatadi: "Senlar meni yomon ko'rasanlar, bilaman. Ammo, hayot mendan ko'ra beshafqatroq, senlarning bu yugurishingdan ko'ra milyon marta murakkabroq. U senga marra qaydaligini aytmaydi, qay tarafga qarab chopishni, qancha chaqirim yugurishing kerakligini ko'rsatmaydi, dam bermaydi. Barini o'zing topasan, o'zing hal qilasan... Bugun senlar marraga yiqilib yetib kelib kechgacha yashash huquqini qo'lga kiritdinglar, xolos. Keyingi hayotingni esa, kechqurungi yugurish hal qiladi". Ya'ni bu gaplarda hayot falsafasi, o'zbekona hayot tarzi aks etgan. Inson yugurib-yelib yashaydi, qay manzilga ketayotganligini o'zi ham bilmay qarorlar qabul qiladi. Qachon yiqilib, qaysi tarafdin o'q yeyishini ham bilmaydi. Hayot kutilmagan va og'ir sinovlari bilan insonlarga Todddan ham katta "dushman" ekanligi haqida fikr yuritish mumkin.

Toddning asarning bosh qahramoniga munosabati yaxshi bo'ladi. Bunga sabab Mamasidiq pishiqning dalada o'sib pishgan bo'lganidan u bergan barcha sinovlarga bardosh bera olgan ekanligi aytib o'tiladi.

"Sendan chempion chiqishi mumkin edi, afsuski, nemis emassan", deyish bilan ham cheklanmasdan, goh bir bo'lak non yoki sho'rvasiga bir bo'lak go'sht qo'shtirish orqali mehribonchilik qilganligidan bosh qahramon uning hurmatiga sazovor bo'lganligini anglash mumkin. Ya'ni asar qahramoni o'zining harakatchanligi va mehnatkashligi bilan dushmanning ham hurmatiga, e'tirofiga sazovor bo'lganligi xususida so'z bormoqda.

Mamasidiq pishiq qirq to'rtinchi yilda Polsha ozod qilinganda ozodlikka chiqadi, lekin uyiga qayta olmaydi, endi bu xil asirlarni nemislarga xizmat qilganlikda ayblab o'zinikilar qiynashadi. Oradan to'qqiz yil o'tgach, Stalin vafotidan so'nggina u o'z uyiga, oilasi oldiga qaytadi.

Qaytgach, birinchi qilgan ishi yo'q bo'lib ketgan uyi joylashgan do'ng yoniga kapa tikib, qaytadan paxsa urib uy qurishi bo'ladi. So'ng bolalarini qaytarib olib, boshqa bir ayolga uylanib, 11 ta farzandli bo'lishi, shu farzandlarining hammasini uyli-joyli qilish uchun bir umr mehnat qilishi va kutilmaganda vafot etishi bilan hayotiga yakun yasalishi voqealari xususida so'z boradi.

Asar bosh qahramoni bir umr yugurib yashaydi, ya'ni o'g'lining tilidan aytganda uni o'sha nemis zobiti bo'lgan Todd bir umr ta'qib qilgandek yashagan. O'n bir farzandni uyli-joyli qilish uchun ko'proq pul topish maqsadida zaharli joylarda ishlaydi, mol semirtirib sotadi, tomorqaga ekin ekib sotib, ro'zg'or tebratadi. Farzandlarga ham otasining mehnatkashligi o'tgan, ular ham tinim bilmay mehnat qilishadi va bu holga o'rganib qolishgan. Hammalari bir-biriga mehr-oqibatli va inoq bo'lib yashashadi. Bir-biriga o'gay ekanligi ham deyarli bilinmaydi.

Farzandlar ham Mamasidiq pishiqling davomchilari sifatida aks ettirilganligidan asar yetakchi g'oyasining davomli ekanligini anglash mumkin. Ya'ni o'zbek xalqi aksar holatda bolam-chaqam deb o'z umrining qanday shiddat bo'lib o'tib, poyoniga yetganligini anglamay ham qoladi. Bu holatni asar bosh qahramonining katta o'g'li hikoyasidagi gaplaridan anglash mumkin:

- Men-chi? Men ham ertani, indinni o'ylab yuguraman-yelaman. Bilamanki, bugun bir daqqa tin olsam, ertaga boshqa bir muammo yo'limdan chiqadi. Tashvishim boshimdan oshib yotipti. Bu yoqda bo'lsa, umr shovullab o'tib ketyapti...

Nazarimda, bu mahv etuvchi yozuq barchamizning peshanamizga yozilganday. Xuddi ulg'aygach, hayotning o'zi Todd qiyofasida ortimizga turib olib, ta'qib qilayotganday, tahdid etayotganday...

Hech o'ylab oxiriga yetolmayman: qayda u, marra? Yetganlar nelarga sohib chiqadilaru yetmaganlar nelardan mahrum bo'ladilar? Gapning ochig'i, mening aqlim bunaqa narsalarga yetmaydi.

Qahramonning ushbu fikrlaridan hayot falsafasining o'ziga xos ifodasini ilg'ash mumkin. Ya'ni, inson ongli ravishda yashash uchun kurashadi va bu jarayonda o'zi ham anglab yetmagan allaqanday kuchga bo'ysunib, unga itoat qilib yashaydi. Uning xohio'lariga bo'ysunadi. Bu bo'ysunish zaminida o'za ko'rinmas kuchning insonlarni ta'qib etishi, harakat qilishga undashi, agar aksi bo'ladigan bo'lsa, uning hayoti o'zi xohlagan darajada bo'lmasligi mumkinligi o'ziga xos inersiya bilan odamlarni harakatlantirishi xususida so'z boradi. Har bir insonning o'zi yo'qotadigan narsasi bo'lish, ana shu yo'qotilishni xohlamasligiga ko'ra ham ular tinimsiz harakat qilishi lozimligi aytib o'tiladi.

Asar nihoyasida muallif nutqidan "Todd" so'zining lug'aviy ma'nosiga izoh beriladi. Unga ko'ra ushbu so'z "o'lim" ma'nosini anglatar ekan. "Der Todd immer gewinnt" birikmasining ma'nosi esa "O'lim haqdir" ma'nosini anglatishidan inson hayoti oxir-oqibat o'lim bilan yakun topishi, lekin o'sha lahzagacha o'zidan biror iz qoldirishga ulgurishi zarurligi, hech bo'lmaganda asar qahramoni kabi vafotidan qaygorqasidan bo'zlab qoladigan mehribon, mehnatkash, elga naf keltiruvchi solih farzandlar yoki biror xayrli ish nazarda tutiladi.

Demak, Isajon Sultonning "TODD" hikoyasi garchi ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asar bo'lsa-da, unda insonning butun hayot tarzi haqidagi falsafasi singdirilganligini ko'rish mumkin. Ya'ni inson dushman ta'qibidan tashqarida ham ko'rinmas ta'qiblar o'ljasi bo'lib yashaydi va tahdidlar qurboni bo'lmaslik uchun tinimsiz harakat qilishga mahkum degan g'oya ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o'zbek nasrida yozilgan barcha nasriy asarlarda psixologik tasvir masalasiga alohida urg'u berilgan Urush mavzusidagi asarlarda qahramon va sharoit talqini masalasi ham asarlar mualliflarining diqqat markazida bo'lganligi yuqoridagi talqinlardan anglashiladi. Tahlilga tortilgan aksar asarlarda pyersonajlar talqinidayozuvchi mahorati asar muvaffaqiyatining garovi bo'lgan deyish mumkin. Ushbu mavzudagi asarlar urushning insonlar taqdiriga ta'siri va salbiy oqibatlari xususida fikr yuritilganligi bilan ajralib turadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent. O‘zbekiston, 2002. 470-bet.
2. Isajon Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012. 379-bet.
3. Isajon Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012. 377-bet.

## **JONTEMIRNING IJTIMOIIYLIK AKS ETGAN SHE’RLARIDA RUHIY KECHINMA IFODASI VA TALQINI**

*Eldorjon DIYOROV,  
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi*

Lirika epos va dramaga o‘xshab san’atning tasviriy emas, balki tamomila boshqa ekspressiv-hissiy turiga mansubdir [1, 265]. Albatta, siz she’riyat olamiga kirar ekansiz, satrlarda nima aytilayotganidan ko‘ra, qanday aytilayotgani ko‘proq e’tiboringizni tortadi. Xoh u sof lirik aytimlar bo‘lsin, xoh ijtimoiy yoziqlar bo‘lsin yuqoridagi qoida o‘zgarmaydi. Bugungi adabiy jarayonlar haqida gapirar ekan jurnalist va yozuvchi Rahimjon Rahmat shu so‘zlarni aytib o‘tadi: “Hozirgi yaratilayotgan badiiy asardagi muhim jihat shuki, ular br-biriga ozgina bo‘lsa ham o‘xshamaydi” [2, 203] Tahlil uchun tanlangan Jontemirning ijtimoiylik kasb etgan she’rlarida tasvirlar va aytimlar juda ochiq-oydin aytilishi birinchi navbatda e’tiborimizni tortadi. Ijodkor atrofidagi ko‘rib turgan manzarasini boricha, ya’ni o‘zi tuyganicha tasvirlaydi. Masalan uning quyidagi to‘rt satrini olsak:

*Yo‘q, ko‘nikib bo‘lmaydi axir,  
Mumkin emas biqsib yashamoq,  
Pokdomonning bo‘ynida jabr,  
Kitqorinning xasmi hashamat.*

U yuqoridagidek “biqsib” yashashdan ham, “biqsib” yashaganlarni ko‘raverib ham charchagan. Inson xohlaymizmi yo‘qmi o‘zi yashab turgan hayotning yozilgan, yozilmagan qoidalariga bo‘yin sunishga majbur. Ammo u kimlardir yasab olgan qoidalar asosida yashashga majburmi? Aynan “yasab” olingan qoidalarning mavjudligi va ularga amal qilish majburiyati shoirni qiynaydi, hissiyotlari bilan o‘ynashadi, ko‘ngliga bu holga nisbatan adoqsiz nafrat urug‘ini sepadi. Uchinchi misradagi “pokdomon” so‘ziga to‘rtinchi misrada o‘z yaratig‘i bo‘lgan “kitqorin” so‘zini qarshilantirilishi bilan ajoyib tasvir yaratiladi. G‘azab va satira aralashib ketgan oxirgi ikki misrada ijodkorning jamiyatni kemirib yotganlarga bo‘lgan munosabatini yangicha “kitqorin” so‘zi aniq ochib beradi, chunki kitni bilamiz va uning qornini ham tasavvur qila olamiz. Keyingi to‘rtlikda ham shoir o‘z ichki kechinmalarini bo‘rtma tasvirlar orqali o‘qirmanga yetgazishga harakat qiladi:

*Shahardagi yakka ko‘lmakni  
Bosib olar tokay soddadil?  
Oqil orzu qilgan ko‘ylakni  
Kiydiradi itga podadil.*

Ushbu to‘rtlikda ijodkorning “yakka ko‘lmak”, “oqil orzu qilgan ko‘ylak” kabi predmet detal ko‘rinishidagi topilmalari ijodkor badiiy maqsadini ochishda ajoyib vosita vazifasini bajaribgina qolmay, she’rning badiiyatiga ham beqiyos

ta'sir ko'rsatgan. Ajoyib qarshilantirishlar endi bu bandda ifodalarga ham ko'chadi. "Yakka ko'lmak" o'z ichiga ko'ngilsizlik ma'nosini yashirganini o'quvchi darrov ilg'ab oladi, ammo "soddadil" qayerga borsa "yakka ko'lmak"ka tushaveradi. Demak hamma yoq ko'lmakka to'lib yotibdi va u "yakka". Soddadillar uchun butun yer "yakka ko'lmak"dir aslida. O'quvchi ijodkorning ajoyib topilmasi bo'lgan "podadil" so'zi bilan nimaga ishora qilayotganini tushunib olishi qiyinmas. Demak, podadilni dili va didi podanikidan farq qilmaydigan inson deb tushunsak bo'ladi va u kimlargadir "ko'ylak" kiydiroladi. Bu yerda "ko'ylak" detali jamiyatdagi ma'lum muhim o'ringa ishora, uni esa "podadil"lar itiga kiydirishadi. Lekin nega aynan podadil, anqrog'i nega poda, shoir shu yerda so'z o'yinidan foydalanadi. Chunki qoramollar uyuri poda deyiladi, shoir bu yerdagi "podadil" bilan jamiyatga ham ishora qilmayaptimikan degan savol tug'iladi, demak jamiyat podadil ekan u oqilga ko'ylak kiydirmaydi.

Jontemir she'riyati tasvir idealligi bilan ajralib turadi, u qaytariqlardan qochishga doim qanday fikr aytmasin uni yangicha yo'sinda yetgazishga harakat qiladi. Faxriyor u haqida fikr bildirar ekan quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: "...quyma satrlarda o'ta noziktab, o'zini ham, bironi ham ayamaydigan, yangi so'z axtarayotgan yurak bor [3, 276]. Hozirgi davrda adabiy ta'limda asar tili badiiyatini qadimgi an'ana bo'yicha yaxlit holda o'rganilsa, ilmiy-metodik jihatdan bir qancha muammolar yuzaga kelib chiqishi mumkin [4, 323] Uning shu she'ridan olingan "Ichimdagi yirtqich quturdi", "Yaltur-yultir shior yo'lida g'imirlaydi g'arib-g'urabo" "Umrimizni chaynaydi qog'oz", "ey murdalar og'asi g'assol, suvni toza tanlarga sarfla" kabi ifodalari shoirning o'zigagina xos ifodaviy topilmalardir.

Ijodkor ushbu she'rida jamiyatdagi ko'rayotgan illatlarni shunchaki aytib qo'ymasdan, o'z ruhiy holatini, ichki kechinmalarini tasvirlash bilan bu razilliklarga o'z munosabatini ham ko'rsatib beradi. U "o'liklar yurtida", o'liklardek jim, sokin, xo'rlanib va jimgina ko'nib yashayotganlar yurtida hamma narsani ko'rib, ko'nikolmay, olov yurak bilan yashashdan azoblanadi, u buni ushbu satrlar orqali osongina, sodda va aniq ochib beradi:

*Uh, o'liklar yurtida olob yurak bilan kezmoq azobi...*

Zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos istiorik sartlar, metaforik usullardan foydalanib o'zgacha shakl-ma'no orqali o'ziga xos mazmun yaratish hozirgi zamon ijodkorlarining ananasiga aylanib ulgurdi. Butun she'r davomida metaforik hodisa va istiorik ramzlardan samarali foydalanadi. Aynan ular she'r badiiyatini va shoir uqtirmoqchi bo'lgan fikrlarni ochilishi va ularning estetik ta'sirchanligining oshishini taminlab beradi. Odatda, she'rda uning oxirgi misralari kulminatsiya vazifasini bajarib beradi. Tahlildagi she'rlarda esa biz faqatgina oxirgi satrlarni emas, bir qator qatorlarni ham kulminatsiya deb olishimiz mumkin. "Umrimizni chaynaydi qog'oz", "Pichoq borib suyakka emas, suyak borib pichoqqa yetdi", "Uh, o'liklar yurtida olov yurak bilan kezmoq azobi...", "ey murdalar og'asi g'assol, suvni toza tanlarga sarfla" kabi misralar she'rning boshlamasi, o'rtasi, o'xiri, umuman, har qaysi qismida ko'zga tashlanadi va bir

o‘qishda o‘qirmanning ruhiy muvozanatini buzadi. Shoir she’rga quyidagi satrlar bilan tugallanma yasaydi:

*Yonaman-u yondirolmam, dod!  
Yashay desam jim-jit turlanib,  
Dimog‘imni kuydirar hayhot,  
Qo‘lansasi cho‘kkan ko‘rlarning.  
Yo‘q, bo‘lmaydi bundayin yashab*

Shoir hamma narsani ko‘rib-sezib yonadi, ammo yondirish qo‘lidan kelmaydi. Jim-jit turlanib yashab ham bo‘lmaydi, chunki yuvilishga loyiq bo‘lmagan tanlarning cho‘kkan qabrlarining hidi dimoqni kuydiradi.

Badiiy asar kompozitsiyasida shunday tushuncha bor: badiiy asar kichik qismlardan iborat mashinaga o‘xshaydi. Uning biror qismini yulib olsak, asarga putur yetadi. Kompozitsion unsurlardan sarlavha ham, shubhasiz, badiiy asarning estetikligiga o‘z ta’sirini o‘tkizmay qolmaydi. Hozirgi nomsiz she’rlar sekin urfga kirib borayotgan bir davrda Jontemirda bu holat deyarli uchramaydi. U aynan shu unurning estetik tasiri va ekspressiv bo‘yoqdorligidan yetarlicha unumli foydalanib, o‘ziga xos uslub yaratishga urinadi, nomlarni shunchaki tanlamaydi. Shoir bir she’rini “Kalamushlar” deb nomlaydi. Quyidagi shu she’rdan olingan parchaga e’tibor qarataylik.

*Yetar endi,  
qafasni oching!  
Tutundan dimiqib shishgan o‘pkalar  
nafas olsin toza havodan.*

Ko‘rinib turibdiki, she’r boshidan xitob bilan boshlangan. E’tiborli jihati unda hech qanday undalma yo‘q. Undalma sarlavhaga “mixlab qo‘yilganki, butun she’r davomidagi har bir gapning yakunlamasida yashinday chaqnab chiqadi, o‘quvchini tinmay taqib qiladi. Bu holat she’rning estetik tasirchanligi bilan bir qatorda, turli xil shakliy ortiqchaliklar va kamchiliklardan saqlab qoladi. Shoirning keng ko‘lamli bilimlari unga qafas va nafas kabi bir-biriga u qadar bog‘liq bo‘lmagan so‘zlarni bir-biriga zidlashning imkonini beradi. Qafas bu ma’lum jonli jism uchun mo‘ljallangan, uning imkoniyatlarini cheklash uchun yaratilgan joy. Inson esa qafasda hech qachon erkin nafas ololmaydi. Uni qancha aldashga urinishmasin, u uchun tashqari erk, tashqari toza havodir. Shu she’rning keyingi misralariga e’tibor beramiz. She’rning keyingi bandlarida ham biror ohangdosh so‘z, yoki qofiya uchramaydi. Ko‘plab yosh ijodkorlar orasida keng tarqalgan tiyiqsiz kyechimlarni ifodalashning bu uslubi Jontemirni ham chetlab o‘tmagan. Xuddi shunday, u ham hech bir shakl va qolipga sig‘magan tuyg‘ularni biror shaklga sig‘dirishga urinmaydi, suniylikdan qochadi. Uning she’rlarini o‘qir ekanmiz, o‘z ruhiy kyechimlarini ifodalashda turli uslublarni aralashtirib jamlab, o‘ziga xos yangiliklar qilishga uringanini ko‘ramiz:

*O‘tmish axlat qutida chirir,  
jig‘ildonga urib bugunni...  
kelajak qaynaydi qozoningizda –  
axir Vatan yegulik emas.*



Yuqoridagi satrlarni o‘qigan insonning yuzida achchiq kulgu uyg‘onishi tabiiy. Bu esa ijodkorning g‘azabona satirik-metaforik misralari ta’sirida, albatta. Jontemir ijodida bunday holatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Shuningdek, Jontemir surrogat misralardan qochadi. “Qo‘rqmaysizmi chavaqlab tashlar tutgan zahot afsus xanjari”, “Kosa lim-lim, sabr tog‘ emas, qo‘zg‘alsa gar Muso asosi”, “So‘rib olaverar quvvatingni vaqt”, “O, daryolar qonimga tutash, Zilzilalar poyimda Qultoyi” germetik va metaforik misralari she’rga singdirib yuborilganki, ular surrogatlikdan yiroqlashib ajoyib ma’no kasb etgan.

Jontemir XXI asr yoshlar she’riyatida taqliddan qutilib, o‘z yo‘lini topib olgan va bu yo‘ldan hozircha og‘ishmay ketayotgan ijodkorlar sirasidan. Uning yuqorida ko‘rib chiqilgan ijtimoiy lirikasida ham bu sezilib turibdi. Har qancha yalong‘och yozilishidan qat’i nazar, uning ko‘rsatilgan she’rlari hozirgi kunda bitilayotgan ko‘chalar loy, ko‘chalar egri kabi “*Ijtimoiy*” yoziqlardan farq qiladi. Farqi shuki, u hammaning ichidagi gapni aytadi va ayni narsa uning dardini o‘quvchining dardiga ko‘taradi, yoziqlarini o‘qishli bo‘lishini ta’minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qozoqboy Yo‘dosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T: Kamalak, 2016. –B. 265.
2. Ulug‘bek Hamdamov. Jahon adabiyoti: Modernizm va Postmodernizm. –T: Akademnashr. 2020. –B: 203.
3. Faxriyor. Metahikoyalar oralab. –T: Akademnashr. 2020. –B. 276.
4. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T: O‘zbekiston. 2002. –B. 323.
5. Internet manzil: t.me//Jontemir

### **G‘AFUR G‘ULOM ASARLARIDA URUSH MAVZUSI TALQINI**

*Ozoda ABDULLAYEVA,*

*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist*

*Zamira KUYCHIYEVA,*

*San’atshunoslik fakulteti Musiqa ta’limi kafedراسi oqituvchisi*

Urush mavzusi G‘afur G‘ulom she’riyatida alohida o‘rin egallashi barchaga ma’lum. Xususan, elga mashhur bo‘lgan “Sen yetim emassan”, “Sog‘inish”, “Kuzatish” kabi ko‘plab she’rlar bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Urushning oddiy xalq hayotidagi o‘rni, uning keltirib chiqargan oqibatlari “Sen etim emassan” she’ri orqali namoyon bo‘lgan. Undagi “jigarim” so‘zining o‘ziyoq G‘afur G‘ulomning mehribon va sofdil o‘zbek xalqining o‘zligini namoyon qilgan deyishga asos bo‘ladi. Bu she’rda urush fojealari umumlashma tarzida namoyon bo‘lgan. Urush bo‘layotgan yurtlardan kelgan etim bolaga murojaat shaklida aks ettirilgan:

Nega cho‘chib tushding?

Murg‘ak tasavvur,

Go‘dak xayolingga

Nimalar keldi?

Balki Odess dahshati,

Kerch fojiasi,  
Yovvoyi mahluqlar,  
Qonxo‘r vahshiylar...

She‘rda hamma fojealarning sababchisi bo‘lgan Gitler haqida ham xalqona vulgarizmlardan foydalanib munosabat bildirilgan:

Ota-onasining  
Tayini ham yo‘q,  
Sut ko‘r qilgur, haromi  
Gitler oqpadar  
Farzandning qadrini  
Qayerdan bilsin?  
Bir qo‘ng‘iz mo‘ylovli,  
Baroq soch mal‘un,  
Jigar rang bir mundir  
Istagi uchun  
Nahotki erimiz  
Chappa aylanib,  
Nahotki daryolar  
Oqar teskari,  
Nahotki odamlar  
Kezar darbadar?!

She‘r nihoyasidagi G‘afur G‘ulomning o‘tli misralari hamma zamonlar, hamma xalqlar va hamma davrlar uchun o‘z dolzarbligi, falsafiy teranligi va mohiyatini yo‘qotmaydi.

Ulug‘ oilaning  
go‘dak farzandi,  
bilib qo‘y endi:

Sen tezda ulg‘ayib,  
Olam kezasan.  
Manglayda porlagan  
Toleing – quyosh  
Butun er yuzini  
Qilur munavvar.  
Haqorat yemrilur,  
Zulm yanchilur,  
Jahonda bo‘lurmiz  
Ozod, muzaffar.  
Sen etim emassan,  
Mening jigarim! [2, 45-46]

Akademik shoir va nosirning urushga, uning xalq boshiga keltiradigan jabru-jafolariga munosabati nafaqat she‘riyati orqali, balki nasriy asarlari orqali ham ifodalangan. Nasrda adib urush va oddiy xalq hayotini uyg‘un holatda tasvirlaydi. Ya‘ni inson xarakterini urush holati bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Ko‘p holatda xulosani kitobxonning o‘zi chiqarishiga havola qiladi.

Gʻafur Gʻulomning birinchi jahon urushi bilan bogʻliq hikoyalaridan yana biri “Jahongirlik urushining soʻnggi qurbonlaridan biri” deb nomlanadi. Ushbu hikoya xorijiy mavzuda yozilgan asarlardan biri sanalsa-da, undagi tasvir urush boʻlayotgan va urush orti hayoti torqali barcha xalqlar va millatlar uchun birdek dahldor deyishimiz mumkin. Bu hikoya haqida adabiyotshunos olim U.Oʻljaboyevning fikrlarini keltirib oʻtish joiz: “Mazkur hikoyani shartli ravishda ikki qismga boʻlish mumkin. Birinchi qismda odamlarga azob-uqubat, qirgʻinlik va judoliklar keltirgan urush haqida umumiy gaplar, maʼlumotlar beriladi. Bunda yozuvchining talqinida urushga nisbatan publitsistik munosabat ustunlik qilib turadi. Bu erda tilga olinayotgan gaplar, maʼlumotlar, garchi muhim boʻlsa-da, asarning umumiy ruhiga singishmayroq turadi” [4, 46]. Darhaqiqat, hikoyaning birinchi qismida publitsistik ruh hukmronlik qiladi, ikkinchi qismida qahramonning foje taqdiri orqali urushning salbiy oqibatlari aks ettiriladi. Asarning qahramoni Sino shahrining Xayrulbilobod mahallasida yashovchi taqachi Jaʼfar ibn Murod boʻlib, unig bir oʻgʻli frantsuz legionining mustamlaka askarlari safida urushga ketgan. Ikki yil davomida ikkita xat kelgach, shu bilan daraksiz ketgan.

Otasi ham oʻgʻlining vafot etganiga ishonadi va duoi fотиha bilan tinchlanib qoʻya qoladi. Shu oʻrinda yana urush tufayli xalqning axvoli ogʻirlashgani bir taqachining oilaviy sharoiti va ayanchli qismati orqali aks ettiriladi. Jaʼfar ota hayoti temir bilan bogʻliq boʻlganligidan mamlakatlarida urush tufayli temir zahirasi kamayib ketishi uning tirikchiliga ham taʼsir koʻrsatadi. Ularga yaxshi navli temirlar emas, balki urush boʻlib oʻtgan joylardagi qoldiq mashinalarning boʻlaklariga oʻxshash temirlar beriladi. Jaʼfar ota ham oʻshanday temirlardan foydalanishiga toʻgʻri keladi. Shular orasida oʻn kilogram chamasi keladigan bir temir parchasi ham bor boʻladi. Taqachi uni sandonga olib sindirmoqchi boʻlib ikki marta bolgʻa uradi. Uchinchi marta urganida “allaqanday yot vizillash” eshitiladi. Toʻrtinchi martada u portlab, Jaʼfar otaning ikki qoʻli va doʻkoncha shiftini osmonga koʻtarib ketadi. Hikoya oʻsha otilgan zambarak oʻqi tufayli “Jaʼfar ota jahongirlik urushining soʻnggi qurbonlaridan biri boʻlib qolgan edi”, degan jumlar bilan tugallanadi.

“Shu tariqa urush bir oiladan jang maydonlariga borgan Abdusalomni ham, oradan oʻn bir yil oʻtkazib bu jangu jadallarga hech qanday aloqasi boʻlmagan uning otasi Jaʼfarni ham oʻz komiga tortib ketadi” [4, 47].

Xuddi shunga oʻxshash syujet va mohiyatan uygʻunlik Oʻtkir Hoshimovning “Urushning soʻnggi qurboni” hikoyasida ham uchraydi. Unga koʻra Umri xola nomli qariya urush tufayli oʻz farzandining tomorqasidan qulupnay olib chiqaman, deb ular oʻgʻrilar uchun qoʻygan yuqori voltli tok simlaridan halok boʻladi. Ikkala hikoyada ham qariyalar obrazlari, ikkalasi ham farzandlari dardi bilan yashashadi. Faqat birining farzandi halok boʻlgan, biriniki esa ogʻir kasalga chalingan. Biri tirikchilik vajidan oʻzi xayoliga keltirmagan joydan, narsadan oʻlim topadi. Ikkinchisi kasal bolasini oʻylab uning dardiga malham boʻluvchi narsa uchun katta oʻgʻlining tomorqasiga oʻgʻirlikka kirib, u ham kutmagan joydan kutilmagan oʻlim topadi. Sarlavhalar ham shu sababli oʻxshash – har ikkalasi ham urushning soʻnggi qurbonlari – faqat jangda emas, oʻz uylarida halok boʻlishadi. Har ikkalasining

ham ayanchli o‘lim topishi kitobxonni larzaga keltiradi. Asl sababchisi urush bo‘lgan bu hikoyalar shu mavzuda yaratilgan hikoyalarning o‘z tabiatiga ko‘ra xarakterlarni eng mayda detallarigacha tasvirlashni talab etmaydi. Xarakterning shakllanishi ham roman va povestdagidek batafsil ko‘rsatilmaydi. Aksincha, hikoyada shakllangan xarakter va tiplarning ma’lum bir momentlarigina yoritiladi” [1, 172]. Shu jihatlariga ko‘ra G‘afur G‘ulom hikoyalarida tayyor shakllangan xarakterlar tavsifidan tashqari ayrim xarakterlarning shakllanish jarayonidagi muhim lavhalar va psixologik tasvirlarning ham ahamiyati katta. Shunga ko‘ra adib hikoyalarining aksari o‘zbek hikoyanavisligida o‘z o‘rniga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. –Toshkent, Fan, 1966. 62-bet.
2. G‘ulom G‘ulom. Tanlangan asarlar. – T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2003. 240-bet.
3. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2004. 13-bet.
4. O‘ljaboyev U. Mahorat va badiiy imkoniyat. – Toshkent. //G‘.G‘afur G‘ulom va davr” to‘plami. 2003. 45-bet.

### **IJODKOR OBRAZINI YARATISH TAMOYILLARI XUSUSIDA**

*Malika MANSUROVA,*

*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

Adabiyotshunoslikda tarixiy, xususan, tarixiy-biografik romanlardagi ijodkorlar va ziyolilar obrazini yaratishda o‘ziga xos bo‘lgan tamoyillar haqida bir qancha olimlar tadqiqot olib borishgan. Masalan, S.D.Panchenkoning “O‘zbek sovet adabiyotida Alisher Navoiy obrazi” mavzusidagi dissertatsiyasida tarixiy-biografik asarlarning asosiy tamoyili xususida so‘z yuritilgan: “Tarixiy-biografik romanlar kompozitsiyasi odatda xronologik prinsipga asoslanadi va deyarli har doim ajoyib kishi hayotining butun ongli davrini, ba’zan uning bolalik va yoshlik-yillarini qamrab oladi. Tarixiy-biografik roman tarixiy arbobning o‘z xalqi va davrining buyuk farzandi darajasiga ko‘targan fazilatlarini emas (buning uchun voqea va hodisalar doirasi, ijtimoiy hayot tasviri juda torlik qiladi), balki uning insoniy qiyofasinigina yaratishi mumkin. Insonning ulug‘vorligi qiyoslash orqaligina bilinadi, tarixiy-biografik romanda esa qiyoslash uchun hech nima yo‘q. Bu yerda muhimi, ajoyib kishining ichki dunyosiga kirib borish, uning genialligini nutqi va xatti-harakatlari orqali ko‘rsata bilishdadir” [5,18]. Adabiyotshunos olim S.Mirvaliyev bu fikrlarga javob tariqasida quyidagi mulohazalarini bildirgan: “... tarixiy-biografik janr uchun faqatgina xronologik belgi spesifik xususiyat deb qarashning o‘zi noto‘g‘ri” [2,247]. Negaki, bu turdagi romanning asosini tashkil qiladigan tarixiy qahramonning butun hayotini xronologik aspektda bayon qilish asar hajmini kengayib ketishiga hamda asar badiiyatini tushishiga olib keladi. Bundan tashqari, yozuvchi uning hayotidagi biror qisqa muddatli davrni olib, shu asosda o‘z g‘oyalarini ifoda qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham

Panchenkoning tarixiy-biografik roman haqida ushbu tamoyiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri ergashib bo‘lmaydi. Adabiyotshunos olim S.Mirvaliev tarixiy-biografik roman janrining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni nazarda tutadi: “Bu avval ma’lum tarixiy shaxs hayoti va faoliyatiga xos biografik ma’lumot va xususiyatlarning asar syujet chizig‘i, kompozitsion qurilishiga ta’sir o‘tkazish doirasi, darajasi bilan belgilanadi” [2, 248].

Ikkinchidan, “... tarixiy-biografik janr uchun asos bo‘lgan ma’lum bir tarixiy shaxsning biografiyasiga oid butun ikir-chikirlarigacha romanga kiraverishi shart emas. Unda asosan o‘sha tarixiy shaxs hayoti, faoliyatidagi muhim tomonlarinigina olish mumkin. Aniqrog‘i o‘sha davr tarixi xarakterini ochishga xizmat etadigan qirralarnigina olib, bu orqali shaxsning tarixdagi rolini ochib berish ko‘zda tutiladi” [2, 249]. Bu boradagi olimning fikrlarida M.Avezov qarashlariga yaqinlik seziladi. S.D.Panchenko “Navoiy” romanini tarixiy-biografik romanlar sirasiga kirishini inkor qilgan bo‘lsa, S.Mirvaliyev bu masalaga kengroq yondoshib, asarni romanning bu turiga kirishini nazariy asoslab berishga erishgan.

Adabiyotshunos olim A.Kattabekovning “Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat” nomli monografiyasi tarixiy proza taraqqiyotining muhim masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda davr ijtimoiy muammolarini haqqoniy aks ettirish masalasi, tarixiy romanda shaxs konsepsiyasi, badiiy til mahorati hamda tarixiy roman va tanqidchilik kabi muhim masalalar adabiyotimizning so‘nggi davrdagi yutuqlari misolida tadqiq qilingan. Tadqiqotda tarixiy romanlarda ijodkor obrazini yaratish masalasidagi asosiy tamoyillar haqida to‘xtalib, shunday qarashlar ilgari surilgan: “... ijodkor shaxs obrazini yaratishdagi muhim masalalardan biri – uning o‘z davri bilan mustahkam aloqasini ko‘rsatib berishdan iboratdir” [1, 88]. Negaki, ular oddiygina tarixda yashab o‘tgan shaxslar emas, ular o‘zi mansub bo‘lgan davr tarixiga katta ta’sir ko‘rsatgan, uni o‘zgartirishga, yaxshilashga harakat qilgan zotlardir. Shu sababli ularni o‘z davrining kishisi sifatida tasvirlashga ko‘proq ahamiyat berish lozim.

Birgina ijodkor obrazini yaratishda hamma turlicha yondashishi mumkin. Ularning ijodkorga munosabati xilma-xil bo‘lganligi sababli, uslublari va tamoyillari ham takrorlanmas bo‘ladi. Biroq ularni birlashtirib turuvchi umumiy jihatlar ham mavjud. Olim, avvalo, ijodkor shaxslarning faoliyatini realistik tasvirlashda bosh tamoyil sifatida ularni xalq ommasi bilan aloqasini ko‘rsatish lozim deb hisoblaydi.

Umuman olganda, tarixiy shaxs obrazini yaratish murakkab jarayon hisoblanadi. Agar u ijodkor bo‘lsa, “Ijod ahli haqida roman yozayotgan avtor oldida bundan ham murakkab vazifalar turadi. Chunki obyektga olingan ijodkor hayoti, faoliyati haqidagi faktlardan tashqari, bevosita uning ijodi mahsuli – she’rlari, ilmiy asarlari, maqolalari va hokazolar ham u haqdagi tarixiy romanning muhim materiallari sanaladi. Bu materiallar ijod kishisining o‘z asarlari ustida ishlash, yaratish jarayonini, asarlari uchun turtki bo‘lgan hayotiy omillar hamda ularning ijodkor ongiga ta’sirini berishda muhim ahamiyat kasb etadi” [1, 103]. Chunki ularning obrazlari mukammalligiga erishish uchun ijod laboratoriyasini ham haqqoniy tasvirlash lozim.

Olim yuqorida tilga olingan kitobida ijodkor shaxsning o‘z asarlarida bayon qilgan fikrlari o‘z hayoti voqealari va u guvoh bo‘lgan hodisalar bilan juda murakkab ravishda bog‘liq bo‘lishini ta’kidlaydi. Ijodkor asarlaridagi “men”i – fikrlari, hislarini ijodkor shaxsi xarakterini ochishda va zamon bilan aloqasini ko‘rsatishda bebaho “xom ashyo” sifatida baholaydi. Ijodkorning ruhiyati, jamiyatga munosabati, orzu va armonlari uning asarlarida mujassamlashgan bo‘ladi. Masalan, M.Avezov uchun Abay ichki dunyosini ochishda asarlarining o‘rni kattadir. Uning realistlik ijod namunalari davrni, jamiyatni haqqoniy portretini yaratishga ko‘mak bergan.

Tarixiy romanlar va ularda ijodkor obrazi masalasi haqida so‘z borar ekan, ularni tasvirlashda umumiy va xususiy bo‘lgan tamoyillar ham mavjudligi xususida bahs yuritildi. Bir yozuvchiga ulkan muvaffaqiyat olib kelgan tamoyil boshqa ijodkorga omad olib kela olmasligi mumkin. Har bir yozuvchi o‘z g‘oyalari aks ettirishning munosib tamoyilini topishi lozim. Badiiy asarda yozuvchining uslubi ko‘rinib turganidek, uning ijodkor obrazini yaratish tamoyillari ham yaqqol tashlanib turishi lozim.

Ijodkor obrazini yaratish tamoyillarini boshqa ijodkorlar uchun majburiy qoida sifatida tushunmaslik lozim. Ijodkor obrazi yaratilgan asarlarni ularning umumiy jihatlari birlashib tursa-da, xususiy tomonlariga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi. Tarixiy shaxslar murakkab sharoitda yashaganlar, faoliyat olib borganlar va ijod bilan shug‘ullanganlar. Ular o‘z davri kishilaridan ancha ilgari ketib, tarixiy muammolarni hal qilishda nafaqat ijodiyoti bilan, balki jamiyatdagi faoliyati bilan ham hissa qo‘shganlar. Tarixiy ijodkor shaxslarning hayoti keskin ziddiyatlarga to‘la bo‘lib, yozuvchi uchun boy manba berish bilan ahamiyatlidir. Tarixiy shaxslarning hayoti hech vaqt bir maromda davom etmagan, shu sababli ularni ko‘proq qaynoq muhit bag‘rida, turli ziddiyatlar qurshovida tasvirlashga intilish kuchli.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. – T.: Fan, 1982. – 88, 97, 109 b.
2. Mirvaliev S. O‘zbek romani. –T.: Fan, 1969. – 247, 248, 249 b.
3. Murodov G‘. Tarixiy roman: genezisi, keyingi taraqqiyoti. –T.: Fan, 2005. – 170 b.
4. Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini (“Yulduzli tunlar” romani misolida) filol. fan. nom. dis. –T.: 1999. – 127 b.
5. Panchenko S.D. Obraz Alishera Navoi v uzbekskoy sovetskoy literature. Avtoreferat kand. filol. nauk. – Samarqand: 1964. –18 s.
6. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 16 b.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademiya nashri, 2010. – 300 b.
8. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: Xalq merosi, 2004. – 250 b.
9. O‘zbek adabiy tanqidi (antologiya). –T.: TURON-IQBOL, 2011. – 544 b.

## HALIMA XUDOYBERDIYEVA INJULARIDAGI FALSAFIY MOHIYAT VA ULARNING BADIY AHAMIYATI

*Yorqinjon HAYITBOYEV,  
GulDU talabasi*

Adabiyot, xususan, shoirlarning mukammal ijodiy namunalari haqida juda ko'p ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib borilgan. Milliy she'riyatimizning ana shunday ilmiy ishlar olib borishga arzigulik ekanligi, bu borada tinimsiz harakatlar qilinayotganligi, yangi davrda yangi asarlar yaratilayotganligi adabiyotning yutuq'idir. Bu borada O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning 2012-yilda "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan "Buyuk qushlar" to'plamiga kiritilgan injularni (to'rtlik) haqiqiy adabiy ham falsafiy yutuq deb aytish mumkin. Professor Ibrohim G'afurov shunday yozgan edi: "She'r bu – xarakter. Shoir qanday bo'lsa, she'ri ham shunday. She'rda uning yuragidagi suratlar muhrlanadi. Halima o'zini, ichki dunyosini ehtiyoj sezib idrok qilarkan, bir qator she'rlarida yuragimda arslon yashaydi, deya e'tirof etadi.

Yuragidagi o'ziga ma'lum shu arslonga takror-takror murojaat qiladi. Bu hol bejiz emas va bu idrok ham shunchaki tug'ilgan emas". Inchunun, shoira har jihatdan mukammal g'oyaga asoslangan she'rlarida falsafaning yorqin aksini ko'ramiz, anglashga harakat qilamiz, tushunamiz, xulosa qilamiz. Adabiyotimizda to'rtlik tizimga qurilgan she'riy janrlar juda ko'p. Ruboiy, qit'a, tuyuq va boshqalar bunga yorqin misol bo'la oladi. Ammo shoira o'z to'rtliklarini inju deb atashga qaror qildi. Bu bilan adabiyotda faqat ungagiga xos janr, Halima Xudoyberdiyevaning inju janri bunyod bo'ldi. Bu janrning asosiy mezonini bevosita yillar davomida anglangan hayot haqiqatlari, ko'rilgan azoblar, chekilgan iztiroblarning satrlardagi ko'rinishi va faylasuf ijodkorning falsafasidir.

*Sarg'ayaman, qaddu belim dol qilaman men,*

*Azoblarda umrimni uvol qilaman men.*

*Yaralangan tik arslonning shiddati bilan,*

*So'z mulkini bir kuni ishig'ol qilaman men.*

Adabiyotda Navoiy hazratlarining "G'azal mulking sultoni", Lutfiy hazratlarining "So'z podshosi" ekanligi hammaga ma'lum. Ana shunday zabardast ijodkorlar zabt etgan olamning mulkini ishig'ol qilish ijodkorning badiiy niyati naqadar yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Halima Xudoyberdiyeva bir necha yillar televideniye orqali ko'rinmadi, gazeta sahifalarida she'rlari e'lon qilinmadi. Ana shu yillar oralig'ida shoira juda ko'p ijod etdi. Ammo odamlarni, muhlislar, she'rsevar qalblarni sog'inib yashadi. Yigirma yildan ziyod davom etgan armonga aylanishga bir bahya qolgan sog'inch Markaziy Osiyoning mashhur shoirasi bo'lgan ijodkorning belini bukishga harakat qildi. Ammo shoira bukilmadi. "Men sarg'ayishim mumkindir, ammo qaddim, belim dol bo'lib qolaveradi", deb o'z-o'ziga va g'aliz niyatli kimsalarga ochiq, yuqoridagi inju orqali aytdi. Yaralangan, ammo yiqilmagan arslonning shiddati qanday bo'lishini yaxshi bilamiz. Ona ijodkorning esa, o'zini unga qiyoslashi adabiy yangilik, kezi kelsa, adabiyotning zalvori uchun yaxshilikdir. Inson tabiati azaldan o'zgaruvchan.

Azaldan bir-birimizdagi boshqachalikni tushunishga harakat qilamiz-u tushunmaymiz, tushuna olmaymiz. Qishda yozni, yozda esa qishni xohlashga majbur etadigan fizikada Broun harakatiga o‘xshash to‘xtovsiz va tartibsiz istaklar insonning azaliy hamrohidir. Adabiyotning asosiy maqsadi insonni tadqiq etish va bu orqali Allohni anglash bo‘lsa, ijodkor insonning ruhiyati ham ana shunga mos va xos tarzda takomillashgan bo‘lishi va u o‘zgalardan ko‘ra olamni boshqacha nigoh bilan ko‘rishi darkor. Bu borada esa shoira quyidagi injusida fikr yuritadi va anglagan falsafasining mohiyatini o‘quvchilarga ham tushuntirishga harakat qiladi.

*Ko‘klamlarni suyib o‘tdikmi, yo Rab,*

*Saratondan kuyib o‘tdikmi, yo Rab.*

*Bir izg‘irin kelar ustixongacha,*

*Sovuq mavsumlarga yetdikmi, yo Rab!*

Xohishlar har doim ham amalga oshavermaydi. Chunonchi, ular amalga oshgan taqdirda ham boshqa, avvalgisidan ko‘ra kattaroq istaklar paydo bo‘ladi. Ko‘klamdan o‘tgan, yozdan o‘tgan insonning o‘tish yo‘li ko‘z oldida gavdalanajak bir paytda suyak-suyakkacha yetib boradigan sovuqning kelib qolganini umrga ham mengzash mumkin. Demakki, oqibatda yaxshi amallar bajarishga ulgurmagan bo‘lsa, sovuqlikni tuyadi. Nahotki, u bahoridan, yozidan qoniqmasa... Nahotki, bir izg‘irin uning ustixoniga qadar yetib borsa... Biz bundan shuni anglashga harakat qilamizki, ijodkor bosib o‘tgan yo‘lidan, yozganlaridan ko‘ngli to‘lmagan bo‘lsa kerak. Bu esa, har kimda bo‘ladigan hodisa, ammo shoira o‘z hodisasi baribir boshqacha.

*Hushyorlar ko‘p tepkiladi. Kirlangan chim men,*

*Hushyorlar ko‘p so‘roq qilar. Soqov men. Jim men.*

*Agar Xayyom qaytib kelsa, do‘st tutinardim.*

*Mayxonada sharob bilan yuvinardim men.*

Yuqorida biz tadqiq etishga harakat qilgan uchinchi to‘rtlikni o‘qib, har kim har xil tafakkur qiladi, ma’naviy ozuqa oladi. Shoira bu hayot aldovlaridan, do‘stlarining dushmanligidan, ba’zilarning subutsizligi, sodiq emasligidan, kutganlari kutmaganidan iztirob chekib, o‘zini kirlangan chimga qiyoslashi tashbehning ayanchli ko‘rinishidir. Jimlikdan ham o‘zgacha ma’no qidirib topish mu mkin. Shoir Xurshid Davron ijodkorning jim turishini eng dahshatli sukunatga o‘xshatgan edi. Halima Xudoyberdiyeva esa nodonlar orasida ularning asossiz savollariga javob berishdan ana shu dahshatli jimlikni afzal ko‘rgan shoira. Ana shu jimlik bilan ham ularga juda ko‘p javoblarni berish, bera olish mahorati faqat ungagina xosdir. Ko‘pchilik o‘quvchilar Umar Xayyomning may haqida yozganlarini o‘qib, to‘g‘ri tushunmaydi. Uning “May ichsang, oqil-u dono bilan ich”, degan satrlaridagi asliy mohiyatni anglamaydi. Shu tushunmovchiliklari tufayli ham ulug‘ shoirni oddiy mayxo‘rga chiqarib qo‘yishadi. Ular Xayyomning may orqali asliyatda Allohni tasvir etganligini anglashganida edi noto‘g‘ri fikratlaridan qaytgan va chin adabiy olamdan bahramand bo‘lgan bo‘lar edi. Yuqoridagi injuda ham Halima Xudoyberdiyeva Umar Xayyom bilan do‘st tutinishni va bu orqali Allohning yo‘lida uning ilmlaridan, yaratgan sinoatlaridan ko‘proq anglashni xohlashi haqida so‘z yuritmoqda. Shoira ana shunday satr



ostidagi asliy ma'nolarni o'z adabiy shodasiga injuday qadab qo'yishi uning to'rtliklaridagi badiiy g'oyaning, falsafaning naqadar ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

*Yecholsang, umringning tun-kunini yech,*

*Kecha, ertani qo'y, bugunini yech.*

*Yecholsang, o'tir-da bittama-bitta*

*Ishqning yetmish ikki tugunini yech.*

Ijodkorning to'rtliklari haqida tadqiq etishga harakat qilar ekanmiz, uning yuqoridagi injusiga e'tiboringizni qaratamiz. To'rtinchi injuning mohiyatida insonni anglashga va insonni harakatga undashga bo'lgan shoirona hayqiriqni ko'ramiz. Zotan, yetmish ikki tomirida hayotga, adabiyotga muhabbat oqadigan kishilar ushbu inju mohiyatini tezda angelaydi. Halima Xudoyberdiyevaning hamma injulari ana shu hayqiriqni o'z mohiyatida jamlagani va o'quvchilar qalbidan mustahkam o'rin olgani bilan e'tiborga molikdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xudoyberdiyeva X. Buyuk qushlar. – T., "O'zbekiston" nashriyoti. 2012.
2. Xudoyberdiyeva X. Saylanma. – T., "Sharq" nashriyoti. 2000.
3. Xudoyberdiyeva X. Bu kunlarga yetganlar bor. – T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1993.

### **3-SHO‘BA: “VAHOB RAHMONOV – MATNSHUNOS OLIM”**

#### **MUMTOZ SO‘Z ZARGARI**

*Qozoqboy YO‘LDOSH,  
Pedagogika fanlari doktori, professor*

Esimni taniganimdan buyon mumtoz adabiyot va texnikaday g‘oyat muhim ikki sohani bilmasligimdan qiynalaman. Shu tarmoqlarning bilimdonlariga esa havas bilan qarayman. Talabaligimizda biz mumtoz adabiyotni deyarli o‘qimaganmiz – institutimizda mutaxassis bo‘lmagan. 1989-yilda GulDUning “O‘zbek filologiyasi” fakultetiga ishga kelganimda bu yerda mumtoz adabiyotning Rauf Majidov hamda Vahob Rahmonovday ulkan bilimdonlari borligini ko‘rib, o‘sha davr talabalariga havas qilganman.

Rauf aka mumtoz adabiyot va uning nazariy qirralarini g‘oyat chuqur bilardi, biroq yozishga unchalar ham hafsala qilavermasdi. Vahob akaning esa g‘ayrati ichiga sig‘masdi. Sirdan juda osoyishta, uncha-munchaga parvo qilavermaydigan odamday ko‘rinadigan olimda turli-tuman ilmiy qarashlar qaynab yotar va u bilganlarini turli yo‘sinda ifodalashga, o‘rtoqlashishga oshiqardi.

Vahob akani ilk bor ko‘rganimda uzun bo‘yli, ozg‘in, sochlari mumday qora bu odamni o‘zimiz qatori yigit bo‘lsa kerak, deb o‘ylaganman. Bilsam, yoshimizda anchagina farq bor ekan. Lekin u kishi chindan ham yoshiga nisbatan navqiron ko‘rinishini saksondan oshgan hozirgi kunlarda ham yo‘qotmagan. O‘qish, yozish, safarlarga borish, ma‘ruzalar qilish qudratini oldingiday saqlab qolgan. Chunki u dunyoga ham, adabiyotga ham hayrat bilan qaraydi. Chamasi, shu hayrat uning ruhiyatini yangilab turadi. Yosh ruh esa jismni qarishga qo‘ymaydi.

Vahob Rahmon – odam sifatida ham, olim o‘laroq ham ko‘ppirrali. Biz domla, adabiyotshunos, matnshunos, lug‘atshunos, she‘riy san’atlarning bilgichi, sinchi, noshir, tarjimon, muharrir sifatida biladigan V. Rahmon ishni aktyorlikdan boshlagan. Ishonamanki, yaxshi aktyor bo‘lgan. Ilk kasbining belgilari ayrim tutumlarida haliyam sezilib turadi. Bundan tashqari, domlaning dehqonchilik va quruvchilik bo‘yicha ham ancha bilimdonligidan xabarim bor. To‘g‘ri, bu sohalarning o‘z ma‘nosida hech narsani qoyil qilmagan bo‘lsa-da, qo‘li gul dehqon, buzilmas imoratlar tiklaydigan quruvchi ekanini ko‘rsatib turadi. U ko‘rkam so‘z chamanzorida birorta begona o‘tni ko‘rib qolsa, uni yulib tashlab, o‘rniga joyiga munosib ma‘no imoratini tiklamaguncha tinchimaydi. Uning dehqonchilik va quruvchilik malakalari shunda bo‘y ko‘rsatadi. V. Rahmon – mumtoz adabiyot borasida qanday mutaxassis bo‘lsa, zamonaviy adabiyot sohasida ham o‘shanday bilgich odam.

Vahob aka – o‘ta sermahsul ijodkor. Qaysidir yili, o‘ziga xos iymancholik bilan, bir yilda sakkiz kitob chiqarganini aytgandi. Bir yilda sakkizta maqola yozish qanchalar qiyinligini bilamiz. Shunday bo‘lgach, shuncha kitob chiqargan kimsaga muhabbat bilan qarash oson bo‘lmaydi-da odamga. O‘z-o‘zidan, tabiiy ravishda hasading keladi...

Domla bu natijalarga qanday erishadi? U vaqtini ulfatchiligu, choyxonalarga

sarflamaydi, kerak-nokerak yig'inlarni yoqtirmaydi. Biror daqiqa vaqtini bekorga o'tkazmaydi. Ayni vaqtda odamlar bir-birlariga qilishlari kerak bo'lgan chin odamiylik amallaridan ham yuz burmaydi.

U ortiqcha yaltiroqliklar, turmushning lazzat berishgagina yaraydigan jozibalariga e'tibor qaratmaydi. Buning o'rniga ishlayveradi. Vahob aka ishlashi uchun alohida maishiy sharoit, ilhom keltiradigan maxsus vaziyat kerak emas. U ilhomni no'xtalab, o'ziga bo'ysundirib olgan. Istagan vaqtda, istagan sharoitda o'ylaganini qog'ozga tushira oladi. Minimum imkoniyatdan maksimum samara chiqara biladi.

Ajabki, shuncha mehnatkashligiga yarasha uning xotirasi ham kuchli. Biz ham uncha-muncha o'qib turamiz. Lekin o'qiganlarimizning qaysi betida muallif yoki muharrir qanday xatoga yo'l qo'rganini payqamay, o'tib ketaveramiz. Vahob Rahmon bu qusurdan xoli. Uning o'tkir xotirasi o'sha xatoning qayerdaligi va qandayligini bir umrga saqlab qoladi. Shuning uchun u bilan tortishib o'tirish befoyda.

Vahob Rahmon ko'pchilik iste'dodli kishilar singari to'rga intilavermaydi, o'zini siniq tutdi. Qiziqki, u o'tirgan joy o'z-o'zidan to'rga aylanadi. Unga ichki hurmat bilan qarashdi. Hurmatini sirdan bildirmaslikka urinishadi. Ma'lumki, bizning o'zbekda hurmat deyarli hamisha qo'rquv bilan yonma-yon keladi. Vahob akani esa qo'rqmay hurmat qilish mumkin. Ayni chog'da uni hurmat qilmasdan qo'rqadiganlar ham borki, bu endi boshqa masala.

V.Rahmon – umr bo'yi sanoqsiz badiiy chigalliklarni yechib, adabiy murakkabliklarning sababini bilib kelgan olim va odam. Ayni chog'da u insoniy soddaliklardan ham uzoq emas. Domla suhbatga odam tanlamaydi, suhbatdoshiga shumlik qilmaydi. Uning shumligi soddaligi, soddaligi shumligi bilan uyg'unlashib ketgan. Olimning dilidagisi mudom tilida.

Shuncha sifatlaganim taniqli adabiyotshunos olim, mumtoz adabiyotning talabchan, ammo odil tadqiqotchisi Vahob Rahmonov o'z qarashlarini hamisha turli ilmiynamo terminlar va oxiriga yetmay, boshi unutiladigan chiyratma jumlar bilan emas, balki matn va sog'lom mantiq yordamida asoslashga urinadi. Jumladan, olim hazrat Navoiyning saxovatda tengsiz kimsaligini: *“Navoiy o'zbek xalqidan chiqqan va o'z saxovatli faoliyati bilan arab Hotami Toyi sarguzashtlarini cho'pchakka chiqargan quyoshsifat siymo edi”* [Рахмонов В. Мумтоз сўз сехри. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 6-бет.] - tarzida ta'kidlar ekan, fikrini shoir ijodidan keltirilgan quyidagi she'riy misol orqali kuchlantiradi:

Ey Navoiy, olam ahlida ta'masiz yo'q kishi,  
Har kishida bu sifat yo'qtur – anga bo'lg'ay sharaf!  
Sen agar tarki ta'ma qilsang, ulug' ishdir bukim:  
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen – bir taraf.

Ta'masizlik borasida o'zini olam ahliga qarshi bir taraf qo'ya olgan dahoning saxovati to'g'risida olim yozadi: *“Navoiy o'z daromadlarining 95 foizini elga ehson etar, besh foizini o'z shaxsiy ehtiyojlariga sarflardi”* [Рахмонов В. Мумтоз сўз сехри. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 7-бет.]

Vahob domlaning navoiyshunoslik borasidaga katta-kichik barcha ishlarini Alisher

Navoiy shaxsi va ijodiga bo'lgan buyuk muhabbat umumlashtirib turadi. ana shu muhabbat sabab V. Rahmon bu borada adabiyotshunos ilmda mavjud bo'lgan ayrim qarashlarga aniqlik kiritadi. Jumladan, hammamizga ma'lumki, qadimda ota-bobolar bolalarini juda erta maktabga berishgan. Olim Navoiyning to'rt yoshidan maktabga borganini: ***“Hirot an’anasiga ko’ra bola 4-yil u to‘qqiz oy, to‘qqiz kunlikda maktabdorga olib borilgan”*** [Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 9-бет.] - yo'sinda asoslaydi. Shu tariqa bizning bu boradagi qarashlarimizga quvvat bag'ishlaydi.

Olim Navoiy hayoti va ijodini g'oyat sinchkovlik bilan o'rganar ekan: ***“... shoir hayoti fojialar ichida kechganini idrok eta olamiz. Bu po'lat odam, bu xalqimizning moddiy va ma'naviy quyoshi, shaxsiy hayotidagi baxtsizligidan tamoman ko'z yumib, el baxti uchun umrini fido qilish namunasini ko'rsata olgan bashariyatning balki yagona farzandi edi”***, - degan favqulodda xulosaga keladi. Vahob Rahmon bu gapni shunchaki aytib qo'ya qolmaydi, balki turli dalillar bilan isbotlab beradi.

Mumtoz adabiyotshunoslar sulton Abusaid mirzoning hazrat Navoiy hayotidagi surgun yillarining sababchisi ekanini ta'kidlashgani sabab biz bu shaxsga o'gaylik ko'zi bilan qarashga o'rganganmiz. V. Rahmon bu shaxsiyatga o'zgacha ko'z bilan qarab yozadi: ***“... Alisher Navoiy yangi hukmdor Abusaid mirzo qabulida bo'ldi. Biror soatlik suhbatdan Xuroson va Movarounnahr hukmdori o'z mamlakatida Alisher Navoiychalik zabardast qalam egasi yo'qligiga va buningchalik donishmand kishi ozligiga amin bo'ladi. Biz bu xulosaga uning ikkita ishi yuzasidan kelmoqdamiz:***

***- saroy musavvirlari va xattotlariga Navoiy devonini shahona qilib tayyorlash haqida buyruq berildi;***

***- Alisher Navoiyni o'g'li Abobakr mirzoga o'qituvchi qilib tayinladi”***

[Раҳмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 12-бет.] Holbuki, bugungacha ham ilmda “Ilk devon” nomi bilan atalguvchi kitob shoirning noma'lum muxlislari tomonidan tuzilgan hisoblanadi.

Hazratning shaxsiyati va ijodiga cheksiz muhabbat bilan qaragan olim shoirning o'zbek mumtoz adabiyotiga qo'shgan tengsiz hissacini rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlab, Husayn mirzoga ergashib, Navoiyni so'z mulkining sohibqironi, deb ataydi. Bunday to'xtamiga hazratdan bo'lak biror shoir sakkiz devon va bu qadar mukammal “Xamsa” yaratmaganini asos qilib ko'rsatadi. Mumtoz adabiyot borasida so'zlash har qanday kishiga mas'uliyat yuklaydi. Xususan, juda ko'p tadqiqotlarga mavzu bo'lgan, har bir asari alohida sinchiklab o'rganilgan, qayta-qayta tahlilga tortilgan Alisher Navoiy merosi haqda yangi gap aytish oson emas. Ammo V.Rahmon hazrat Navoiy ijodi va shaxsiga yangi rakursdan qaray biladi, asarlari nashridagi yo'l qo'yilgan ayrim g'alizlik va kamchiliklarni to'g'rilash yo'llarini ko'rsatadi. Buning uchun u shoir asarlarining necha nashri, qanchalab qo'lyozma nusxalarini o'zaro solishtiradi va Navoiy qo'llashi mumkin bo'lgan ifodaning eng optimal ko'rinishini topishga erishadi.

Muallif o'zining turli tillardagi ilmiy, nazariy, adabiy manbalardan chuqur xabardorligiga asoslanib yozadi: ***“Navoiyning badiiy ixtiro usullari shu darajada***

*tadqiqotchini lol qoldiradiki, u ularni izohlashga qiynaladi. Chunki bunday usullarni dunyodagi biror kishi qo‘llamagan... . Hozirgi zamon hikoyalaridagi kutilmagan vaziyatlar yaratishdek usullar Navoiy she‘riyatida an‘anaviy talqinlar bilan uyg‘unlikda yashaydi. Biz bu usulni boshqa biror shoir ijodida uchratganimizcha yo‘q*”. Olim o‘z to‘xtamini hazratning qator asarlaridan keltirilgan misollar bilan isbotlaydi.

Vahob akaning ilmiy maqolalari tili – chiyratma iboralardan xoli, tushunarli va juda obrazli. Zotan, chin olim tushunarli yozadi. Ilmning vazifasi tushunilmagan narsa-hodisani tushunarli yo‘sinda izohlashdan iborat. Olim ilmiy tilining jo‘zibadorligini hazratning:

Belu og‘zidin, dedilarkim, degil afsonae,

Boshladim filholkim: “Bir bor edi, bir yo‘q edi”

shaklidagi fardining tahlilidan chiqargan xulosasida ko‘rish mumkin: **“Obrazli qilib aytganda muallif guruch donasiday fil suyagidan butun boshli san‘at asarini yaratgan”** [Рахмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. –Т. : “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 20-21-бетлар]

Rahmon Alisher Navoiyni imkoni boricha xalqqa tushunarli qilish, uni jamiyat a‘zolariga yaqinlashtirish millat va mamlakat ravnaqining asosi, deb bilgani uchun: **“Navoiyni Millat dahosi, Xalq dahosi, xalq aql-idroki, vijdoni darajasiga ko‘tarish ziyolilar va davlatning burchidir”** [Рахмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 437-бет] – deya masala qo‘yadi. Boshqa bir o‘rinda nafaqat millat oydinlari, balki millat ahli Navoiyni bilishi lozimligini yanada ta‘sirliroq aytishga urinadi: **“Alloh bizga Alisher Navoiydek shaxs va adabiy dahoni bergan ekan, o‘zbek xalqi o‘zini uning vorisi hisoblar ekan, merosdan bahramandlik baxti har bir o‘zbekman degan kishi uchun nasib etishini ta‘minlash davlat va ziyolilarning eng olijanob burchlari bo‘lib qolaveradi”** [Рахмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. –Т. : “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 438-бет] - degan xulosaga keladi.

Olim hazrat Navoiyning asarlari matnlarni tekshirish, talqin qilish, amaldagi alifboga o‘girishda o‘tib ketgan xatolarni zukkolik bilan payqaydi va bu holatga prinsipial munosabatda bo‘ladi. Ayni masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan maqolalarida Vahob Rahmon hassos tahlilchidan ayovsiz tanqidchiga aylanadi, oldin har bir xatoning xatoligini asl matnga tayangan holda asoslab beradi. Bunda u yaxlitlik tamoyiliga tayanadi. Ya‘ni noto‘g‘ri o‘qilgan so‘zning o‘zinigina emas, tugal ma‘no, yaxlit poetik manzara hosil qilgan qismini (bir satrdan to to‘la g‘azalgacha) olib, tahlil qiladi. Bunda so‘zning lug‘aviy va kontekstdagi ma‘nolarini o‘zaro taqqoslash yo‘lidan boradi.

Olimning Alisher Navoiy dahosi va ijodiga o‘zgacha muhabbati, cheksiz hayrati, muxlis va ilm odami sifatidagi samimiy e‘tirofi uning har bir asarida yorqin ko‘zga tashlanadi. E‘tiborsizlik bilan qo‘llanilayotgan, isrof qilinayotgan, aksar hollarda yaroqsiz libos kiydirilayotgan ko‘rkam so‘zning nechog‘liq ilohiy hodisa ekani Vahob akaning barcha bitiklarida ko‘rinadi. Olim so‘zni deyish, avvalo, ilm, so‘ng mas‘uliyat ekanini har bir maqolasida ta‘kidlaydi.

Vahob akaning adabiyottanuv ilmidagi cho‘ng xizmatlaridan yana biri

uning boburshunoslik borasidagi izlanishlarida ko‘rinadi. U Bobur asarlarining talqini va tadqiqi bilangina ancha chuqur shug‘ullangan, “Bobur” qomusiga bir qator maqolalar yozgan. Bular bilan kifoyalanib qolmay, zukko adabiyotshunos Karomat Mullaxo‘jaeva bilan birgalikda “Boburnoma”ni bugungi tilimizga tabdil ham qildi. Buning ustiga, Boburning bo‘lasi Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarini o‘zbekchaga o‘girib, Bobur, uning zamoni va zamondoshlari borasidagi tasavvurlarning kengayishiga omil bo‘ldi.

“Yolg‘onning umri qisqa”, - degan maqol yuradi. Afsuski, ba‘zan yolg‘onning umri juda uzayib ketadi. Ayniqsa, ilm borasidagi yolg‘on yashovchan keladi. Chunki u ilmiy libosga o‘rangan bo‘ladi. Vahob Rahmon Boburning “Mufassal” asarining “Muxtasar” deb atalishini boburshunoslik borasidagi shunday yolg‘onlardan biri sanaydi. Olim o‘z fikrini asoslashda “Boburnoma” matniga tayanadi. Va memuardagi qarashni mantiqan rivojlantirib yozadi: **“Bobur asari bejiz “Mufassal” deb nomlanmagan. Chunki “Funun al-balog‘a” kitobida... aruz vaznlaridan yuzga yaqini xili tadqiq etilgan. Alisher Navoiy ... “Mezon ul-avzon”da 144 vaznni tadqiq etgan... . Bobur ana shu ikki kitob bilan yaxshi tanish bo‘lgan holda amaliy va nazariy aruz ilmi bilan qoniqmay, aruz yuzasidan fundamental tadqiqot yaratib, 537 vaznni o‘rgangan va o‘z asarini shuning uchun ham “Mufassal” deb atagan**” [Рахмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. –Т. : “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 143-бет.]

V.Rahmon o‘z maqolalarida Bobur bitiklarining ijtimoiy-hayotiy qiymati bilan birga ijro va ifoda bobidagi tengsizligi borasida juda asosli fikrlar bayon qiladi. Chunonchi, shoirning “Ey yuzi nasrin” tarzida boshlanadigan o‘ynoqi g‘azalidagi tengsiz ifoda mahoratini turli rakurslardan tadqiq qiladi. Nafaqat misralar, balki ruknlari ham to‘lig‘icha ichki qofiyaga ega bo‘lgan ushbu asarda Boburning yuksak iste‘dodi namoyon bo‘lganini turli yo‘llar bilan ko‘rsatib bergan olim, shunday xulosaga keladi: **“Yangicha poetik shakl mo‘jiza sodir etib, an’anaviy fikrlarni yangidan jonlantirgan, zalvor bergan, ohorli qilgan. Ulkan polotno miniatyuraga nisbatan yuz baarvar ta’sirchan ekanligi san’atshunoslikda ma’lum. Ammo Bobur shu ta’sirchanlikni teskari amaliyotda yuzaga chiqargan. Ulkan polotno – dostonlardagi tasvirni jajji bayt – miniatyura holatiga keltirib mo‘jiza yaratgan**” [Рахмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 156-бет]

Vahob Rahmon Boburning ruboiychlikdagi xizmatining ikki jihatini ta’kidlaydi: a) ruboiylari soni ko‘p; b) ularga shoir hayotiga doir faktlar singdirilgan. Olim ruboiylarga Bobur hayot yo‘liga doir ma’lumotlarning berilishida qanday fazilat borligi haqida yozadi: **“Tarjimai holning ruboiy yoki g‘azalga daxli badiiy matnga hujjatlilik baxsh etadi; hujjatlilik esa umumiylikdan ko‘ra ta’sirchanlikda ustunlik qiladi. Chunki kitobxon lirik qahramondan ko‘ra Boburning o‘zini yurakka yaqinroq oladi**” [ Рахмонов В. Мумтоз сўз сеҳри. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. 157-бет.] Chindan ham bu – nozik kuzatish, topib aytilgan gap.

Xullas, sanayversam, olim va odam Vahob Rahmonning fazilatlari adoq bo‘lmaydigan. Tilaymanki, umri ham fazilatlari yanglig‘ uzun bo‘lsin!

## QALAM-LA O‘TMOQDA UMR.

*Zokirjon MASHRABOV,  
Bobur nomidagi jamoat fondi va ilmiy ekspeditsiyasi rahbari,  
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi*

O‘zbekistondan xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, navoiyshunos, matnshunos, boburshunos Vahob Rahmon 80 yoshga to‘libdi. Bir qaraganda ancha katta yosh, ammo olimning harakatchanligi, ilm izlashdan, ijoddan to‘xtamasligini e‘tiborga olsak, shu tabarruk yoshda ham tinib tinchmasligiga qoyil qolish kerak.

Vahob Rahmonning adabiyot sohasidagi o‘ta talabchanligi, keskin tanqidchiligi, o‘z fikrini to‘xtatmagan yoqlab turishligi, haqiqatparastligini qattiq hurmat qilaman va aynan mana shu fazilatlar uchun ham hamkorlikni boshlaganmiz, deb ochiq aytaman. Yana bir jihati uning fors, tojik, rus tilini yaxshi bilishidir.

Biz ya‘ni Bobur nomidagi jamoat fondi Vahob Rahmon bilan 15 yildan ziyod hamkormiz, do‘stmiz, fikrdoshimiz. Ilk hamkorligimiz 2002-yildan boshlangan. Shu yillar mobaynida birgalikda juda katta ijodiy, ilmiy ishlarni amalga oshirdik.

Eng avvalo, “Boburnoma” asarini hozirgi o‘zbek tiliga tabdilini qildi. Bugungi avlod Boburmironing ushbu qomusiy asarini to‘la tushinishi uchun bu ish nihoyatda zarur edi. Ish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 2008 yili katta adabiyotshunos olim Saidbek Hasan va Vahob Rahmon birgalikda “Boburnoma. Miniaturalar” kitobi chop etildi. Bobur devoni ham tayyorlanib, “G‘aribing Andijoniydur” nomi bilan nashr ettirildi. Xullasi shu yili ya‘ni 2008-yili Vahob Rahmon juda katta va keng qamrovli ijodiy ishni amalga oshirishda Fondga ko‘mak berdi. Va aynan mana shu mehnatlari uchun Vahob Rahmon Bobur nomidagi halqaro mukofotga loyiq topildi. Hamkorligimiz davom etib, Vahob Rahmon rahmatli turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda 2010-yili Bobur mirzoning xolavachchasi Mirzo Haydarning “Tarixiy Rashidiy” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga, keyinroq rus tillariga tarjima qilib, ilmiy iste‘molga kiritdi.

Shu yili Vahob Rahmonning “Mumtoz adabiyot manbalari lug‘ati” kitobi ham nashr etildi. Ilmiy ekspeditsiyaning Xitoy safaridan olib kelingan Ismatulluloh ibn Ne‘matulloh Mo‘jiziyning “Tavorixi musiqiyun” asarini Vahob Rahmonga topshirdik. Olim bu kitob yuzasidan ikki qimmatli ishni bajardi. Asarning turkiysini kirillga ko‘chirdi va hozirgi o‘zbek tilidagi tadbilini ham bajardi. Vahob Rahmonni nihoyatda ishchan, tinib tinchimasligini qayta qayta aytishdan charchamayman. Ayniqsa, matnshunos sifatida juda serunum. Alisher Navoiyning “Xamsa”ning bosh dostonini ilmiy matndan ya‘ni arab yozuvidan harfma harf lotinga ko‘chirib, 2006 – 2020-yillarda besh marotaba nashr ettirdi. “Lison ut - tayr”ning asli va tabdilini ham besh marotabadan chop ettirdi. 2013-yili Xondamirning “Habib us-siyar” kitobiga ham mas‘ul muharrirlik qilib forsiy nusxasiga so‘zma so‘z qiyoslab chiqdi va she‘riy matnlarini **shar‘iy** tarjima qildi. Bobur fondi tomonidan O‘zbekistonda ilk marobata shaxsga nisbatan ya‘ni

Zahiriddin Muhammad Boburning ensiklopediyasi yaratilganligidan ko'pchiligingizning xabaringiz bor. 2014-yilda ilk bora nashr etilgan ushbu ensiklopediyada Vahob Rahmonning 283 ta maqolasi bor. Shu yili hamkorlikdagi "Badiiy san'atlar" to'plami ham nashrdan chiqdi. 2015-yilda Vahob Rahmonning "Mumtoz so'z sehri" kitobining bir qismi navoiyshunoslik, yana bir qismi boburshunoslik, uchinchi qismi matnshunoslikka bag'ishlangan katta izlanishlarining samarasidir.

Vahob Rahmon bilan amalga oshirgan e'tiborli ishlarimizdan biri Boburmironing zodi budi Andijon ekanini ilmiy isbotlash bo'ldi. Chunki ayrim olimlar 2007-2008-yillarda Bobur mirzo Axsida tug'ilgan degan fikrni jamoatchilikka uqtirishga harakat qila boshladilar. Biz uning Andijonda tug'ilganligini isbotlab berishimiz shart edi. Bu nihoyatda muhim masalada juda ko'p boburshunos olimlarga murojaat qildik, boburshunoslarning eng yirigi yaponiyalik olim Eyji Mano bilan bog'landik. U kishi Annet Syuzan Beverij xonimning Londonda nashr ettirgan "Boburnoma" kitobining 200-betida uning qayerda tug'ilganligi haqida aniq ma'lumot borligini aytdi. Biz Vahob Rahmon bilan birgalikda ushbu masalaga tez fursatlarda aniqlik kiritishga muvaffaq bo'ldik. Bunda albatta Vahob Rahmonning fors tilini yaxshi bilgani qo'l keldi. Bobur mirzo "Boburnoma"da yozadi: "Men Sulton Saidxonga bori navkarlarimni topshurib ko'mak qo'shib, zodu bud Andijon viloyatini bag'ishlab xon qilib yubordim" Zod-tug'ilgan, bud-o'sgan. Bu Bobur mirzoning o'zining gapi. Mana shu isbotni hamkorlikda qo'lga kiritdik.

Vahob Rahmon Bobur nomidagi jamoat fondi boshqaruv kengashi hamda ekspeditsiya a'zosi. U kishi bilan qator safarlarida - Bobur va boburiylar, boshqa buyuklarimiz izidan Hindiston, Afg'oniston, Tojikiston davlatlariga, buyuk bobokalonimiz Amir Temur izidan Rossiyaning ko'plab shahar va viloyatlarida birga bo'ldik. Masalan, Tojikistonda bo'lganimizda Boburmironing O'ratepaning Obburdon dovonida Zarafshon tog' tizmalaridagi toshlarga o'yib yozdirgan bitiklarini birga topdik. Arabiy imlodagi bitiklarni Vahob Rahmon o'qib, tarjima qildi. Va bu aynan Boburmiron tomonidan yozilgan bitiklarga ekani oydinlashdi. Hindiston safarida esa Mirzo Haydarning so'nggi manzilini izlab Kashmir viloyatiga bordik. Sulton Zaynulobiddin qabristonda bir chekka zangori toshga o'yib yozilgan yozuvni ham Vahob Rahmon sinchliklab o'qib, bu aynan Mirzo Haydarning qabri ekanini aniqladi.

Vahob Rahmon safar taassurotlari haqida telefilmlar tayyorlashda, gazeta va jurnallarga maqolalarga chop ettirishda hammuallif sifatida g'ayrat ko'rsatdi. Hamkorligimiz bundan keyin ham davom etadi. Xudo nasib qilsa birgalikda yana ko'plab ijodiy, ilmiy ishlarni amalga oshiramiz.

Men xassos olim, adabiyotshunos, navoiyshunos, boburshunos, matnshunos, jasoratli ijodkor Vahob Rahmonni Bobur nomidagi jamoat fondi boshqaruv kengashi a'zolari nomidan, boburshunoslar nomidan, shaxsan o'z nomimdan ulug' sana 80 yoshi bilan samimiy muborakbod etaman. Salomatlik, kuch quvvat, bardamlik tilayman.



## BOBURSHUNOSLIK DENGIZI UMMONLARIDAN JAVOHIR IZLAGAN OLIM

*Ziyodaxon TESHABOYEVA,  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida mudiri,  
filologiya fanlari doktori, dotsent*

Har bir inson umrining so‘nggi nafasigacha o‘zini o‘zi isloh qilib, o‘zligini anglash mazmuni bilan yashaydi. Meni olimlik va odamiylikka doir savollar chuqur o‘yga toldiradi: Qiziq, buyuk olimlar ham shaxsiyatlari haqida mushohada qilisharmikan? Kashfiyotlarini emas, o‘zlarining qanday shaxs ekanligi haqida fikr yuritisharmikan? Mana shunday fikr-mulohazalarimni hayotining rohat va farog‘atidan voz kechib, bor kuchini ilmga bag‘ishlagan, Navoiy va Bobur ijodini sidqidildan tadqiq etishga kirishgan, ilm maydonidagi kurashlardan chekinmaydigan va mashaqqatlardan sira charchamaydigan zabardast olim – Vahob Rahmon deb bilaman. Payg‘ambarimizning “Beshikdan to qabrgacha ilm izla!” degan hadislari haqiqiy boburshunos va navoiyshunos olim tiynatida amaliy isbotini topgan.

2002-2004-yillar Bobur parki yonida joylashgan Shota Rustaveli haykali yonida eski bir kitob magazini bo‘lardi. U hali ham bor, lekin hozir kitob magazini emas. Rahmatli ustozim Omon Mo‘minov menga dissertatsiyaning “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari” nomli mavzuni berganlarida shu magazindagi kitoblar orasidan “Boburnoma” va unga aloqador monografiyalarni qidirib yurardim.

O‘sha kezlar o‘zim ishlab turgan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universitetining Tarjima nazariyasi va metodikasi kafedrasida mening mavzuim borasida juda ko‘p bahs va munozaralar bo‘lib o‘tgan. Kafedra mudiri, professor Jamol Jalolov ushbu dissertatsiya mavzusini rad etishimni, asliyatni men tushunmasligimni qayta-qayta uqtirgandilar. “Boburnoma”ni tushunish qiyin, uning matni o‘ta murakkab, biz olimlar tushunmaymiz-ku. Siz uni qanday qilib, ingliz tilidagi frazeologiyasini ochib berasiz? Haliyam bo‘lsa, ishni qaytaring, bu juda ko‘p vaqtni oladi, kamida 15-yil, lekin uddalasangiz juda yaxshi va original ish bo‘ladi”, degan edilar.

Ustozning ushbu fikri bejiz emasdi. O‘sha damda Vahob Rahmonning “Boburnoma” yuzasidan tarjimalarning xato va kamchiliklari haqida o‘tkir ilmiy-tanqidiy maqolalari respulika gazetalarida tez-tez bosilib turardi. Jamol Jalolovning mavzuyim borasidagi qat’iyatli fikrlari meni yanada ishtiyoq bilan ishga kirishishga undagan. Lekin ustoz aytganidek, avval “Boburnoma”ni chuqur o‘rganishga to‘g‘ri kelgan. Juda ko‘p olimlarni qidirib topib, ularning suhbatlari va maslahatlarini olardim. “Boburnoma”ning asliyatini izlab yurgan kezlarim edi. Kitob do‘konini uzoq aylanib tomosha qildim va sotuvchidan “Boburnoma” kitobini so‘radim. Sotuvchi Porsoxon Shamsiy evniki borligi va narxi 30 ming

ekanligini aytdi. Kitobning borligidan, uni topganligimdan rosa quvonib, uni sotib oldim.

Kitob magazinini aylanib yurgan, bizning suhbatimizni eshitib va kuzatib turgan yoshi ulug‘roq, farishta yuzli bir kishi yonimga kelib, “Qizim, bu kitobning asliyatini menda bor, sizga beraman, bu kitob biroz qimmatroq”, dedilar va mening ish manzilimni yozib oldilar. Mayli, bu kitob qiyoslash uchun muhim degan fikrda uni sotib oldim. Bizning tanishuvimiz mana shu kundan boshlangan.

Vahob Rahmon – ilmiy hayotimda yongan umid chirog‘i, u to himoyagacha menga rahnamolik qildilar. U men ishlab turgan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universitetiga “Boburnoma”ning 2002-yilda nashr qilingan asliyatini dars o‘tayotgan paytimda, auditoriyaga olib kelib berdilar. Undan tashqari hech qayerdan topolmay yurgan Shavkat Rahmatullaevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” nomli kitobini ham menga hadya qildilar. Men xazina topgandek juda xursand bo‘ldim. Ustozning boburshunos ekanligi Tangri bizni bir kitob magazinida uchrashtirgani men uchun sirli hikmat edi.

Dissertatsiya yangiligini yaratishda ustozning qimmatli fikrlari men uchun ahamiyatga molik bo‘lgan. Kamtarin inson Vahob Rahmonga xos xislatlari bilan menga tanish bo‘lgan yana bir olim Karomat Mullaxo‘jaevadir. Vahob Rahmon bilan Karomat Mullaxo‘jaeva 2008-yili “Boburnoma”ning tabdilini nashrdan chiqardilar. Ularning tabdili hozirgi zamon o‘quvchisining mutolaasi uchun eng nodir manba. 16 asrga mansub Zahiriddin Muhammad Bobur asarini hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘qiy olish ko‘prigini qurdilar.

Ustoz Vahob Rahmon har bir so‘zning ma‘nosini erinmay o‘rgangan, ma‘nolar ummonidan javohir izlagan ustozdir. Uning ilmiy maqolalarini bir nafasda o‘qiladigan, bir qaraganda boshingizni ko‘tara olmay, olim ilmga cho‘mgan kabi unga cho‘mib ketishingiz mumkin. U kishining jufti haloli Yanglish Egamova ham boburshunoslikka juda katta hissasini qo‘shgan olim. Nemis tili tarjimoni, bir necha tarjima kitoblar muallifidir.

Ustoz haqidagi yaxshi xotiralarimni eslar ekanman, Bobur ensiklopediyasining turkum maqolalari, uning topilmalari Vahob Rahmonning zahmatli mehnati samarasi ekanini ta‘kidlayman. “Boburnoma” asosida yozilgan paremiologik-tekstologik lug‘atimning shakllanishida Vahob Rahmon va Hamidulla Dadaboevlarning hissaları beqiyos. Buyuk olimning ilmiy merosi kelajak avlodlar uchun ilm mayog‘idir! Jumboqlarga manbalar asosida yechim izlagan adabiyotshunos, tarjimashunos olim, xorijiy olimlarni hayratga solgan, yapon olimi Eyji Manoni lol qoldirgan odamiyligi ham, olimligi ham tahsinga sazovor Ustoz!

Mana shu kunlarda ilmning sarhadsiz sahnida ot surayotgan, Navoiy va Bobur ijodining qirralarini ochishda to‘xtamaydigan mo‘tabar Ustozga eng samimiy niyatlar ijobatini tilaymiz.

Ustoz, umringiz uzoq, tanu joningiz sog‘ bo‘lsin! Biz – shogirdlar baxtiga hamisha omon bo‘ling!

## ULUG‘ MEHNATNOMA SOHIBI

*Ravshanbek MAHMUDOV*

*Guliston davlat universiteti professori,  
O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a‘zosi*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mehnat so‘ziga shunday ta’rif beriladi. 1. “Mehnat – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib kishining aql yoki kuch bilan amalga oshadigan maqsadli faoliyati. Ish. Aqliy mehnat, jismoniy mehnat. 2. Biror maqsad uchun sarflanadigan kuch, g‘ayrat, harakat”. “Mehnatkash – mehnat qilib kun ko‘ruvchi, mehnat qilib charchamaydigan, mehnatsevar”.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Vahob Rahmonov tom ma’noda mehnat qilib charchamaydigan inson. Vahob Rahmonov Tojikiston Respublikasining qadimiy va navqiron Xo‘jand shahri yaqinidagi Yova qishlog‘ida tug‘ilib voyaga yetgan. U akademik B.G‘ofurov nomidagi Xo‘jand davlat universitetida ta’lim olgan va o‘zi o‘qigan fakultetda talabalarga “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi”, “Ifodali o‘qish” fanlaridan dars bergan. Vahob Rahmonov ulug‘ ustoz Yoqubjon Isoqovning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilingan she’r san’atiga oid tadqiqotlarini o‘rganib, ustozga ergashib mumtoz adabiyotda qo‘llanilgan, she’riy san’at bilan shug‘ullangan. Natijada 1972-yilda Xo‘jand shahrida “She’r san’atlari” nomli birinchi kitobi chop etildi.

Vahob Rahmonovning o‘zbek mumtoz adabiyotiga mehru-muhabbati kuchli. U matnshunos sifatida mehnatkash. Mehnatning turlari ko‘p. Vahob Rahmonov qanday mehnat bilan shug‘ullangan? U aqliy mehnatni – jismoniy mehnat bilan omuxta holda olib borgan. Asosan fors, arab, tojik, qirg‘iz, rus tillarini mukammal o‘rganganligi sababli mumtoz adabiyot vakillari asarlarini benuqson kitobxonlarga yetib borishiga e’tiborini qaratgan. Mumtoz o‘zbek adabiyotini o‘rganish uchun kitobxon birinchi galda g‘azallardagi notanish so‘zlarni ma’nosini, maqsadini tushunishi talab etiladi. Vahob Rahmonov o‘quvchilarni o‘zbek mumtoz adabiyotini yaxshi o‘zlashtirishiga yordamlashish uchun “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at” (Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 1983-yil, 20000 nusxada) tayyorladi. Bu lug‘at mumtoz asarlarni mazmun-mohiyatini tushinishda o‘rta maktab o‘quvchilari uchun qo‘llanma sifatida chop etilgan. Olim 2169 ta so‘zlarga o‘quvchi tushuna oladigan, sodda qilib, misollar yordamida izohlar yozganligi uchun ham bu qo‘llanma o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Maktab o‘quvchilarining Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muhammad Rizo Ogahiy kabi ko‘plab mumtoz o‘zbek adabiyoti vakillari asarlari, g‘azallarini tushunib o‘qishlarda asqotadigan qo‘llanma vazifasini bajarib kelmoqda.

Vahob Rahmonovning “She’r san’atlari” kitobi Toshkentda “Yozuvchi” nashriyotida ikki ming nusxada (2001-yilda) bosilib adabiyot o‘qituvchilariga, navoiyshunoslarga katta armug‘on bo‘ldi. Monografiyada “Ma’naviy san’atlar”, “Lafziy san’atlar”, “Qofiya va uning navlari”, “Qofiya unsurlari”, “Harfiy san’atlar” haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Holbuki, she’r san’atlari haqida

ko‘plab mutaxassislar tadqiqotlar olib borganlar. Olim ulardan unumli foydalanib Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fariddin Attor, Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xo‘jandiy, Boborahim Mashrab, Mavlono Atoyi, Shermuhammad Munis, Mavlono Nishotiy, Sayfi Saroyi, Ogahiy, Furqat, Maxmur, Gulxaniy, Abdulla Avloniy, Hamid Olimjon, Chustiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yuzlab ijodkorlar tomonidan qo‘llanilgan 78 ta she‘r san‘ati haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Va bu she‘r san‘atlarini XXI asr o‘zbek she‘riyatiga ta‘siri haqida ham o‘z qarashlarini bayon qilgan.

Olimning “Mumtoz adabiy manbalar lug‘ati” (2009) 4 jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” (1983-1985, hamkorlikda), “Badiiy san‘at jozibasini” (2005 hammualliflikda), “Mumtoz asarlar lug‘ati” (2019), “Matnshunoslik” kabi asarlari chop etilgan. Ayniqsa, Vahob Rahmonovning “Mumtoz so‘z sehri” (2015) kitobi butun umri davomida yozgan eng sara maqolalar to‘plamidan iborat. Kitob “Navoiy kitobi uzra muk tushib”, “Boburshunoslik”, “Mumtoz so‘z mas‘uliyati” nomli uch bobdan iborat.

Vahob Rahmonov Alisher Navoiyni boshqa navoiyshunoslardan ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘radi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy asarlarini o‘quvchilarga xatosiz, nuqsonsiz tortiq qilishni yaxshi ko‘radi. Nazarimda Vahob Rahmonovda boshqalarni xatosini tez ilg‘ash qobiliyati bor. Shuning uchun ham ayrim olimlar tomonidan nashrga tayyorlangan Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Zaxiriddin Bobur asarlaridagi so‘zlarni noto‘g‘ri o‘qilganligini shoirlar fikrlari, g‘oyalar noto‘g‘ri talqin qilinayotganini ko‘rib toqat qila olmaslik fe‘li bor. U ulug‘ mutafakkirlar asarlaridagi barcha fikrlar, g‘oyalar kitobxonlarga nuqsonsiz yetkazilishini xohlaydi.

U – “Men navoiyshunos Eshmatovni, Toshmatovni yanchib tashladim”, - deb bolalarcha maqtanishni yaxshi ko‘radi. Bu soddalik, oddiylik Vahob Rahmonovga ko‘p bora qimmatga tushgan. So‘zlardagi xatolarni topish, tuzatish yaxshi. Lekin ulug‘ mutafakkirlar ijodini tahlil qilish, maqsad va g‘oyalarini kitobxonlarga tushuntirilsa bizningcha yaxshi bo‘lard. Ammo, Vahob Rahmonov "Ma‘rifat"ni o‘qidingizmi? "O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati" gazetasini-chi? Tanqidimni ko‘rdingizmi? deyishni odat qilib olgan.

Navoiyshunos Vahob Rahmonovda bolalarcha soddalik, oddiylik asosiy xususiyati. Olimning “Mumtoz asarlar lug‘ati” kitobi (2019, 1500 nusxada) “bir yarim ming-yil lik o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘qib-o‘rganish uchun kalit vazifasini o‘taydi. Har bir so‘z-fikr birligidir. Lug‘at boyligi – fikr boyligi negizidir. Bu lug‘atdan ikki usulda foydalaniladi: lug‘at kitob singari boshidan - oxirigacha o‘qiladi; mumtoz adabiyot namunasi mutolaasi davomida uchragan “qiyin” so‘z bu lug‘atdan izlab topiladi”, - deb yozadi Vahob Rahmonov. Bu kitob mumtoz adabiyot bilan qiziquvchi barcha uchun o‘quv qo‘llanma vazifasini bajaradi. Ayniqsa, maktab o‘qituvchilari, o‘quvchilari, talabalar uchun muhim yordamchi sanaladi. Olim bu kitobi bilan millionlab o‘quvchilarni, minglab ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari mushkulini oson qildi.

Vahob Rahmonov Alisher Navoiy asarlarini asosiy jildlarini tahrir qilib o‘n minglab xato so‘zlarni tuzatib savobli ishlar qilgan. Mamlakatimizda Fitrat,

Oybek, Vohid Zohidov, Vohid Abdullaev Aziz Qayumov, Izzat Sulton, Natan Mallaev, Abduqodir Hayitmetov, G'ulom Karimov, Anvar Xojiahmedov, Muslihiddin Muhiddinov, Ibrohim Haqqul, Nusratulla Jumaxo'ja, Hamidulla Boltaboev, Sultonmurod Olim, Karomat Mullaxo'jaeva kabi olimlar Alisher Navoiy ijodi bilan shug'ullanganlar. Yuzlab navoiyshunos olimlar kabi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini bus-butun, nuqsonsiz, so'zlarini o'z ma'nosida xalqqa yetkazishga baholu qudrat mehnat qilayotgan Vahob Rahmonov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 19 oktabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yiligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorini behad xushnudlik bilan kutib oldi. Muhtaram Prezidentimizning bu tarixiy qarori o'zbek mumtoz adabiyotini rivojida, Alisher Navoiy asarlaridagi eng asosiy odob-axloq, muruvvat, saxovat, insonparvarlik, adolatparvarlik kabi o'lmas, eskirmas g'oyalarni bugungi yosh avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Vahob Rahmonov – navoiyshunos, matnshunos, lug'atshunos, mashrabshunos, ogahiyshunos shu bilan birgalikda boburshunos hamdir. Olim Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini Karomat Mullaxo'jayeva bilan hamkorlikda hozirgi o'zbek tiliga (2008) tabdil qildilar. "Boburnoma" Vahob Rahmonovning "Shoh, adib va shoir – Zahiriddin Muhammad Bobur"nomli katta maqolasi bilan boshlanadi. Olim ulug' mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijodi, o'lmas merosi haqidagi qarashlarini bayon qilgan. Vahob Rahmonov – Bobur ilmiy merosini tiklashga katta hissa qo'shgan. U xalqaro Bobur ilmiy ekspeditsiyasi a'zosi sifatida bir necha marta Afg'oniston, Eron, Hindiston kabi o'nlab davlatlarda bo'lib Bobur ilmiy merosini O'zbekistonga qaytarishga katta hissa qo'shdi.

"Mumtoz so'z sehri" kitobi Vahob Rahmonovning navoiyshunosligini ko'rsatuvchi, matnshunosligini bildiruvchi asari hisoblanadi. Vahob Rahmonovni kimligini bilmoqchi bo'lsangiz "Mumtoz so'z sehri" kitobini o'qing degimiz keladi.

Vahob Rahmonov Xo'jand davlat pedagogika instituti tarix-filolgiya fakultetini (1963) tugatgan. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti aspiranturasida (1965-1968) o'qigan, O'zbekiston Respublikasi Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida katta ilmiy-xodim (1977-1986) SDPI "O'zbek adabiyoti" kafedrasida dotsenti (1986-2009) GulDU dotsenti (2017) lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

Vahob Rahmonov filologiya fanlari doktori, professor, akademik Vohid Abdullaev rahbarligida "Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari o'zbekcha tarjimalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1968). Olim Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", "Hayratul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarini o'zbekcha lotin yozuvida nashrga tayyorlagan (2006-2009) "Muhokamat-ul lug'atayn" kitobini tadbil qilgan. "Bobur ensiklopediyasi"da olimning 283 ta maqolasi chop etilgan.

Vahob Rahmonov – tarjimon, noshir sifatida ham ibratli ishlarni amalga oshirgan. U, Avaz O‘tar, Boborahim Mashrab, Ismatulloh, Mo‘jiziyning “Tavorixi musiqigon” kabi asarlarni nashrga tayyorlagan.

Olim Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixiy Rashidiy” asarini turmush o‘rtog‘i, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Yanglish Egamova bilan hamkorlikda o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Vahob Rahmonov – uslubchi olim. “Bolalar adabiyoti” xrestomatiyasini 7, 8, 9-sinflar “O‘zbek adabiyoti” darsliklariga mas’ul muharrirlik qilgan. Hozirgacha olimning 1 ta monogrifiyasi, 3 ta ilmiy risolasi, 100 dan ziyod ilmiy maqolalari e’lon qilingan. 50 dan ortiq kitoblarni tahrir qilgan. U “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni sohibi, Xalqaro Bobur mukofoti laureati, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi (2019). Olim bugun sakson yoshga to‘ldi. Vahob Rahmonovni ko‘rgan kishi sakson yoshga kirganiga ishonmaydi. Chunki qaddi-qomati tik, sochlari qop-qora, qo‘lida sumka bilan shahdam yurishiga ayrim yoshlar ham havas qilishadi. Yoshlar olimning faqat yoshigacha emas balki ilmiy faoliyatiga ham havas qilsa arziydi. Olim juda sermahsul. 2020-yil davomida u o‘ndan ortiq kitoblarni tadbil qilib nashr ettirgan.

## **IDROK VA TALQIN**

*Muzaffar MAMATQULOV,  
GulDU, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘rganish va targ‘ib etish – barcha zamonlarda ham dolzarb sanalgan. Ayniqsa, istiqloldan so‘ng o‘tmishda yaratilgan badiiy ijod namunalariga alohida e’tibor qaratilganligi adabiyotshunos olimlarga keng yo‘l ochib berdi. Yurtimizda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini zamon talablari darajasida tadqiq etish borasida bir qancha ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday e’tiborga molik ishlardan biri sifatida taniqli olim, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori Vahob Rahmonovning “Mumtoz so‘z sehri” (Toshkent, O‘zbekiston NMIU, 2015) kitobini tilga olish mumkin. Kitobda olimning turli-yillarda yozilgan maqolalari jamlangan bo‘lib, u uch bo‘limdan iborat. “Navoiy kitobi uzra muk tushib...” deb nomlangan ilk bo‘limdan hazrat Navoiy haqidagi kuzatishlar o‘rin olgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiy daho shoir hisoblanadi. Uning daholigini ta’minlovchi bir necha omillar mavjud. Vahob Rahmonov kitobning birinchi maqolasida shu masala atrofida fikr yuritar ekan, shoirning adabiyotimiz taraqqiyotiga qo‘shgan munosib hissasini daholikning dastlabki omili sifatida tilga oladi: “Agar ilmda mubolag‘a qilish mumkin bo‘lsa, Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotida ijobiy ma’noda inqilob yasadi. Uning bir o‘zi yuzga yaqin iste’dodlar yukini yelkasiga oldi. Uning birgina dahosi XY asrda turkiy adabiyotni dunyoning juda boy adabiyoti bo‘lgan fors adabiyoti bilan bo‘ylatib qo‘ydi”.

O‘zbek adabiy tilining rivojini ham Alisher Navoiysiz tasavvur qilish qiyin. U o‘zining betakror ijodi bilan tilimizning noyob imkoniyatlarini yuzaga

chiqarishning harakatida bo'ldi. Bu esa Navoiyni daho darajasiga ko'targan keyingi omil hisoblanadi.

Yuksak saviyadagi badiiy ijod ulug' fazilatlar sohibi bo'lgan shaxsiyat asosida yuzaga keladi. Darhaqiqat, Navoiy shaxsi – ezgu fazilatlar makoni. Birgina insonda shuncha ibratli fazilatlar bo'lishi hayratlanarli hodisa. Olim daholikning uchinchi omilini aynan shoir shaxsiyatida ko'radi: “Uning shaxsidagi mislsizlikka kelsak: Navoiy o'zbek xalqidan chiqqan va o'z saxovatli faoliyati bilan arab Hotami Toyi sarguzashtlarini cho'pchakka aylantirgan quyoshsifat siymo edi”.

XX asrning 90- yillarida navoiyshunoslikda Alisher Navoiy Xadichabegimni sevgan degan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Vahob Rahmonov “Alisher Navoiy ko'ngil qo'ygan sanam” nomli maqolasida shu fikrlarga qo'shilgan holda bu masalani oydinlashtirishga harakat qiladi. Olim o'zi ta'kidlaganidek, shoir she'rlaridan bu muhabbat tarixini aks ettiruvchi bir lavha yaratadiki, undagi mulohazalar kishida alohida bir qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek, dastlabki bo'limdan yana “Xamsa”ning har bir dostoni, shoir devonlari, Navoiyning boshqa janrlardagi ijodi haqidagi yangicha talqinlarga ega bo'lgan maqolalar ham o'rin olganki, ular navoiyshunoslik ilmi taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi shubhasizdir.

Kitobning bir necha maqola o'rin olgan ikkinchi fasli “Boburshunoslik” nomi bilan atalishi bejiz emas. Chunki Vahob Rahmonov ilmiy faoliyatining bir qismi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o'rganishga bag'ishlangan. U Bobur asarlarini nashrga tayyorlagan, “Boburnoma”ni (K.Mullaxo'jayeva bilan birgalikda) hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil qilgan, Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi tarkibida Afg'oniston, Eron, Pokiston va Hindiston kabi mamlakatlarga borib, Bobur va boburiylarga aloqador materiallar to'plashda faol ishtirok etgan olimdir.

Bo'limdagi maqolalardan biri Alisher Navoiy va Boburning o'zaro aloqalari to'g'risida yozilgan. Ma'lumki, “Boburnoma”da hazrat Navoiy turli munosabatlar bilan bir necha marta tilga olinadi. Vahob Rahmonov Boburning Navoiyga bo'lgan munosabatini ikki davrga bo'lib o'rganish tarafdori. Dastlabkisi 1495 – 1500-yillardagi davr bo'lib, yosh podshohning ulug' shoirga yozgan maktubi va unga atalgan ruboiylarni o'z ichiga oladi. Qiziq tomoni, Bobur Navoiyga qaysi ruboiylarini yuborganligi haqida ma'lumot qoldirmagan. Olim ana shu she'rlarni topish ilinjida Bobur devonini sinchiklab tekshiradi va uchta ruboiyni Navoiyga bag'ishlangan degan xulosaga keladi. Bu o'ziga xos yangilik sifatida taqdim etilayotgan dalillar kishida hech qanday e'tiroz uyg'otmasligi bilan ajralib turadi.

Olimning fikricha, Boburning Navoiyga bo'lgan munosabatining ikkinchi davri 1507 – 1530-yillar bilan belgilanadi. Bu davrda tajribali Bobur Navoiy shaxsi va ijodini har tomonlama baholashga harakat qiladi. Haqiqatan ham Boburni Navoiy ijodining dastlabki tadqiqotchilaridan biri ham deyish mumkin. Chunki hech kim shoir ijodiga uningchalik yuqori baho bergan emas. Bobur faqat maqtov bilan chegaralanib qolmaydi. “Boburnoma”da “Mezon ul-avzon” va “Devoni Foni” haqida turli bahs va munozaralarga sabab bo'luvchi tanqidiy qarashlar ham

uchraydi. V.Rahmonov bu fikrlarga o‘z mulohazasini bildirar ekan, “Mezon ul-avzon”dagi kamchiliklar kotiblar xatosi tufayli yuzaga kelganligini qayd etadi. “Devoni Foni”dagi ayrim she’rlarning bo‘sh va sayoz ekanligi to‘g‘risidagi tanqidiy bahoni esa V.Rahmonov quyidagicha izohlaydi: “Boburning bu bahosi “Devoni Foni” haqidagi umumiy, ob’ektiv baho emas, balki mazkur devonning “Xazoyin ul-maoniy”ga nisbatangina shunday saviyada ekanligi haqida chiqarilgan shaxsiy xulosadir... “Devoni Foni”ni maxsus tadqiq etgan Eron va Tojikistonning eng talabchan olimlari fikrlariga qaraganda undagi she’rlar yuksak saviyali durdonalardir. Demak, biz qiyos haqiqati bilan ilmiy haqiqatni – haqiqiy bahoni bir narsa deb qaramasligimiz kerak ekan”.

Kitobning so‘nggi “Mumtoz so‘z mas’uliyati” bo‘limidagi maqolalarni o‘zbek matnshunosligining dolzarb masalalari yechimiga bag‘ishlangan tadqiqotlar sifatida baholash mumkin. Ularda Alisher Navoiy asarlarining turli-yillarda chop etilgan nashrlaridagi mavjud xatolar, darslik yoki majmualardagi yo‘l qo‘yilgan noto‘g‘ri talqinlar hamda matnshunoslikdagi turli bahs va munozaralar haqida gap boradi.

Kitob keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. Undagi maqolalarning sodda, ravon va hamma uchun tushunarli bo‘lgan uslubda yozilganligi o‘zgacha bir joziba kasb etadi. Chunki uni o‘qish jarayonida kitobxon hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydi. Xullas, navoiyshunos, boburshunos va matnshunos olim Vahob Rahmonovning mazkur kitobi ma’naviyat olamini boyituvchi yana bir muhim manba sifatida ardoqlidir.

## **MUTOLAA SAMARASI**

*(Vahob Rahmonning “Mumtoz so‘z sehri” kitobini o‘qib)*

**Rashid ZOHID,**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

O‘zbek matnshunosligida o‘zining o‘rniga, o‘zining ovozigacha, o‘ziga xos yondashuv uslubiga ega taniqli matnshunos olim Vahob Rahmonning 2015-yil “O‘zbekiston” nashriyatida chop etilgan “Mumtoz so‘z sehri” kitobi mutolaasidan so‘ng sohaga aloqador inson sifatida adabiy manbashunoslik va matnshunoslikdagi ikki muhim mavzu, balki ikki og‘riqli nuqta haqida jiddiyroq o‘ylab qoldim. Bulardan biri – adabiy manbalar matnshunosligidagi ixtisoslik malakasi masalasi; ikkinchisi – matnshunoslikning umumfilologik fanlar tizimidagi o‘rni masalasi.

“Navoiy kitobi uzra muk tushib...”, “Boburshunoslik”, “Mumtoz so‘z mas’uliyati” kabi alohida va mustaqil uch qismdan iborat “Mumtoz so‘z sehri” kitobining tuzilishi va kitob tarkibiga kirgan har bir maqolaning muallif shaxsini, uning o‘ziga xos pragmatik xarakterini namoyon qilishi haqida tavsifiy, tahliliy kashfiyotlar tafsilotlariga berilmasdan, matnshunos olimning ushbu muborak kitobi sababli yuzaga chiqqan ikki muhim masala atrofidagi fikrlarimni mutolaaning samarasi o‘laroq e’tiboringizga havola etaman. Aslida kitobning yutug‘i ham shunda. Modomiki, kitob o‘quvchini befarq qoldirmayotgan, tafakkurga



chorlayotgan ekan, bu kitob uchun ham, uning muallifi uchun ham eng munosib bahodir.

**Ixtisoslik malakasi.** Yetuk mutaxassis bo'lish har bir soha vakilining pirovard maqsadidir. Sog'lom inson o'zi mashg'ul bo'lgan ishini mukammal darajada bajarish harakatida bo'ladi. Agar qilayotgan ishi tabiatida mavjud qobiliyatiga muvofiq bo'lsa, bu ish uning suyakli mashg'ulotiga aylanadi. Suyukli mashg'uloti bilan birgalikda davomli rivojlanib borgan shaxs mutaxassis bo'lib yetishadi. Hamma zamonlarda, xususan, kun sayin ilm-fan olamidagi muammolar xalqaro miqyosda globallashib borayotgan bugungi kunda yer yuzidagi barcha jamiyatlar o'z sohasining yetuk mutaxassislariga har qachongidan ham muhtojdir. Chunki o'z ishining ustasi (PROFI)ga aylangan inson o'zi egallagan soha hududida misoli shoh yanglig' hukm yuritadi. Uning ish yuzasidan qabul qiladigan sovuqqon qarori, yo'l ochuvchi tavsiyasi, hamisha betaraf bahosi, tajribadan kelib chiquvchi to'g'ri bashorati (prognoz) soha kishilarini unga muhtoj qilib qo'yadi. Bu sifatleri bilan u o'zi egallagan kasb doirasida to'la boshqaruv irodasiga vakolatli ekanini haqli ravishda isbotlaydi. Mana shu afzalligi sababli ko'pchilik usta mutaxassisning yordamiga hojat sezadi. Bu ixtisoslik malakasini to'la egallagan har bir soha vakilining maqomidir.

Barcha sohalar kabi filologiyada ham shunday maqomdagi mutaxassislariga ehtiyoj katta. Chunki bunday mutaxassislar fanning klassik an'analarini fundamental bilish imtiyoziga ega bo'lish bilan birga muammolarga kreativ yondashuv layoqatini ham o'zlashtirgan bo'ladilar. Misol uchun, manbashunos eng qadimiy manba bilan zamonaviy manba o'rtasidagi genetik aloqani tiklay oladigan darajada ilmiy bazaga ega bo'lsa, u mutaxassisdir. Negaki, qadimiy manba bilan zamonaviy manba o'rtasida necha-necha zamonlar bor, zamonlarda qanchadan-qancha manbalar yaratilgan. Ma'lum manbaning ma'lum davrda yuzaga kelish omillari va uning o'zidan keyingi manbaga ta'sirini o'rganib, manbalarning silsilaviy genezisini aniqlash uchun yuz yil oralig'idagi 20-30 ta manbani bilish kifoya qilmaydi. Buning uchun sal kam ming yil oralig'idagi yuzlab manbalar haqida tavsifiy emas, fundamental asosdagi bilimga ega bo'lish talab etiladi. Albatta bunday fundamental bazaga ega bo'lgan shaxs uchun muammoni tug'dirgan vaziyat ayni paytda muammoning yechimi hamdir. Chunki u chala mutaxassislariga o'xshab an'anaga sig'inadigan mutassib (konservativ) emas. Balki u muammo atrofida tug'ilgan va muammoning yechimiga qaratilgan qarorini vaziyatdan kelib chiqib belgilaydi. Qizig'i, ijodkorona yondashuv bilan, kutilmagan bir tarzda qabul qilingan bunday qarorlar hamisha muammoning to'g'ri yechimini topishga yordam beradi.

“Mumtoz so'z sehri” kitobida ko'tarilgan muammolar, ilmiy kuzatishlardan umumiy xulosa shuki, adabiy manbalar matnshunosligida ixtisoslik malakasini egallash soha mutaxassisi uchun asosiy vazifalardan biridir. Kitobda bor bo'yi bilan yuzaga chiqqan amaliy matnshunoslikning shaxs miqyosidagi namunasi Vahob Rahmon faoliyati buning yorqin dalilidir.

**Matnshunoslikning umumfilologik fanlar tizimidagi o'rni.** Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik filologiyaning ibtidosini tashkil qiluvchi asosiy

qism bo'lib, sohaning tadqiq ob'yekti bevosita yoki bilvosita adabiyotga aloqador manbalar hisoblanadi. Endi filologiyaning boshqa tarkibiy qismlari bo'lgan adabiyotshunoslik va tilshunoslikka kelsak, ularning ham tadqiq ob'yektini adabiy manbalar tashkil qiladi va bu fan sohalarida ham asosan matn ustida ish ko'riladi. Xo'sh, shunday ekan, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik bu fan sohalaridan qaysi muhim jihati bilan farqlanadi va ularning mushtarak tomonlari nimadan iborat?

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik *birlamchi manbalar* asosida ish olib boradi. Fanga noma'lum manbani ilmiy istifodaga kiritadi. ***Ilmiy istifodaga kiritish – qadimiy (yoki zamonaviy) qo'lyozma matn nusxalarini aniqlash, nusxalar o'rtasida qiyosiy tadqiq olib borish, natijalarni faksimil yoki boy ilmiy apparat bilan ta'minlangan yig'ma-qiyosiy, ilmiy-tanqidiy matn shaklida taqdim qilish kabi matnshunoslik faoliyatidan iboratdir.*** Qoidaga ko'ra, ilmiy istifodaga kiritilgan manbalar ustida olib borilgan tadqiqot, xoh u adabiyotshunoslik, xoh tilshunoslik yo'nalishida bo'lsin, ishonchli ilmiy natijaga erishadi. Bundan kelib chiqadiki, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik filologiyaning boshqa sohalaridagi muvaffaqiyatli tadqiqotlar uchun tom ma'noda zamin hozirlaydi. Afsuski, hozirgacha adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy qonuniyatlari ilmiy tizimga solinmagani, faoliyat hududlari aniq belgilanmagani uchun mustaqil fan o'laroq shakllanishga munosib bo'lgan bu sohaga filologiyaning yordamchi tarmog'i sifatida qarab kelindi. Aslida, adabiyotshunoslik va tilshunoslik tarixi bilan bog'liq ayrim tadqiqotlardagi muvaffaqiyatsiz tajribalarning oqibati ham mana shu sababga borib taqaladi. Demak, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik mustaqil fan sifatida rivojlanib borar ekan, filologiyaning barcha tarmog'ida ishonchli ilmiy muvaffaqiyatlar sari yo'l ochiladi. Chunki boshlanishning butun holda namoyon bo'lishi undan keyingi bo'g'inlarning tugal nihoyalinishiga sharoit yaratadi.

Adabiyot tarixida muayyan muallif, uning adabiy merosi haqida so'z yuritilar ekan, bunda muallif yashagan davr va o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, bu munosabatlarning o'rganilayotgan sub'yektga, ayni paytda sub'yektning ob'yektga, bir so'z bilan aytganda adabiyot bilan jamiyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Adabiy oqim, adabiy maktablarning vujudga kelish omillari, shakllanish bosqichlari, adabiyotni davrlashtirish masalalari adabiyot tarixining mavzularidir.

Matnshunoslik tadqiqida ham manbani o'zi yaratilgan davr tarixidan uzmasdan o'rganish prinsipi mavjud bo'lsa-da, bu jihat asosiy e'tibordagi masala emas. **Matnshunos uchun eng muhim predmet – matn, asosiy maqsad – ishonchli matnni tiklash.** U mana shu predmet atrofida, mana shu maqsad yo'lidagina tarixga murojaat qiladi. Ya'ni, matn asliyatini tiklashda tarixga matn nuqtai nazaridan e'tibor qaratadi. Masalan, ko'p nusxali qo'lyozma matnlar o'zaro qiyoslanar ekan, matn aniqligini tiklashga xizmat qiladigan tarixiy ma'lumotlardan foydalaniladi. Qadimiy matnda o'chib ketgan so'zning haqiqatiga yetish yoki turlicha o'qilishi mumkin bo'lgan so'zning aslini topish, shu asosda

umummatning arxitep nusxaga muvofiqligini saqlash uchun tarixiy manbashunoslikka ekskurs qilinadi.

Adabiyotshunos olim matnshunoslik ilmidan qanchalik xabardor bo'lsa, ixtisosligi shunchalik mukammal bo'ladi. Muayyan asar, xususan, mumtoz adabiy manbani nazariy jihatdan o'rganish, matnni turli tadqiq metodlari orqali tekshirish, tanqidiy baholash asiyatga asoslangan ilmiy-tanqidiy matnga suyanib olib borilsa, jarayonda ilmiy-tanqidiy matnning ilmiy apparatidan unumli foydalanilsa, asar yuzasidan taqdim qilinadigan nazariy xulosalar asos e'tibori bilan baquvvat bo'ladi.

Matnshunoslik ilmida **matn tahqiqi** degan tushuncha mavjud. "Tahqiq" so'zi *haqiqatni yuzaga chiqarish; isbotlash; qarorlashtirish* kabi lug'aviy ma'nolarga ega. Aliy Muhammadsharif Jurjoniyning "Kitobut ta'rifot" asarida esa shunday ta'riflangan: "اثبات المسألة بدليلها" ya'ni: "Masalani dalili bilan isbotlash". **Adabiy manbalar matnshunosligida matn tahqiqi istilohi qo'lyozma matndagi har bir so'z, har bir jumlaning haqiqatda muallif matniga muvofiqligini ilmiy dalillar bilan har tomonlama asoslashdan iborat jarayonni ifodalaydi.**

Ayni tabiati bilan matnshunoslik adabiyotshunoslikdan ko'ra tilshunoslikka yaqinroq sohadir. Adabiyotshunoslik, xossatan, adabiy tanqid matndan ko'ra matn ortidagi olam xususida bahs yuritadi. Shunga ko'ra, *tafakkur, talqin, tavsif, xayol* kabi mantiqiy dalillarni bu sohaning belgilovchi atributlari deyishimiz mumkin. Matnshunoslikning bahs maydoni – matn, tilshunoslikda esa – matn bilan matnni tashkil qiluvchi birliklar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish. Demak, matnshunoslik va tilshunoslik uchun birlamchi hodisa – matn va matnni tashkil qiluvchi birliklar bo'lib, ular mantiqiy dalillarning mahsuli emas. Balki, matn suvrat holda tabiiy mavjuddir. Shu jumladan, matnni tashkil qiluvchi birlik – so'zlarning lug'aviy, qisman istilohiy ma'nolari ham mantiqiy dalillash natijasi emas, balki tabiiy barqarorlashgan ta'riflardir.

Albatta, matnshunoslikda qo'lyozmadagi o'chib ketgan so'z yoki kotiblarning e'tiborsizligi bilan xato ko'chirilgan o'rinlarni mantiqiy dalillar bilan isloh qilish – kon'ektura usuli mavjud. Lekin kon'yektura usuli matnni tiklash uchun xizmat qiladi, tiklangan matn ortidagi hodisalar (adabiyotshunoslik tadqiqi) bilan uning aloqasi yo'q. Matnshunoslik ilmidagi matn tahqiqi xarakteriga ko'ra tilshunoslik tadqiqiga yondosh jarayon. Shu bilan birga u fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliterasiya kabi tilshunoslikning amaliy jabhalari bilan ham bog'liq holda faoliyat olib boradi.

**VAHOB RAHMONOV – SERQIRRA ADABIYOTSHUNOS**

*Obidaxon FAYZULLAYEVA,  
GulDU, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Ustozimiz Vahob Rahmonov domlani barcha taniydiganlar matnshunoslik sohasining jonkuyari va mehnatsevar inson sifatida bilishadi. U kishining samarali

mehnatlari tufayli bir qancha o‘zbek adabiyotining noyob durdonalari amaldagi yozuvda soha kishilari qo‘liga yetib borgan. Ko‘p ham uzoqqa bormasdan 2019-2021-yillarga nazar tashlasak, o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlarining ellikdan ortiq namunalariga mas’ul va maxsus muharrirlik qilganliklarini, 20 dan ortiq mumtoz asarlarni nashrga tayyorlagan va bir qanchasiga mas’ul muharrirlik qilganligini ko‘rish mumkin. Ustoz bunday katta mehnatni amalga oshirishida uchun ko‘p yillik tajribalari qo‘l keladi. Domlaning hayot yo‘liga nazar tashlash ushbu jihatlarni oydinlashtiradi.

Vahob Rahmonov 1940-yil 12-aprelda Tojikiston Respublikasi, Xo‘jand tumani, Yova qishlog‘ida tug‘ilgan. U manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon, metodist olim. Xo‘jand pedagogika institutining Tarix-filologiya fakultetini (1958-1963) tugatib, Samarqand davlat universiteti aspiranturasida (1965-1968) o‘qigan. 1968-yil “Sa’diy Sheroziy “Guliston”ining o‘zbekcha tarjimalari” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Domlaning mehnat faoliyati ham o‘ziga xos, avval 1963-1976-yillarda Xo‘jand davlat pedagogika institutida o‘qituvchi (1963-65), katta o‘qituvchi (1968-1970), dotsent (1970-76) vazifalarida ishlagan. So‘ngra 1977-1986-yillarda O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida katta ilmiy xodim bo‘lish orqali katta ilmga qadam qo‘ygan.

Ustoz 1986-2004-yillarda Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti vazifasida xizmat qilgan. 2005-yildan 2018-yilgacha erkin ijodkor sifatida to‘liq ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan. 2018-yildan yana jonajon universitetlariga qaytib, hozirgacha talaba yoshlarga matnshunoslik fanidan dars berib kelmoqdalar.

Vahob Rahmonov serqirra olim sifatida mumtoz poetika, leksikografiya, navoiyshunoslik va boburshunoslik sohalarida birdek qalam tebratgan. Mumtoz poetika sohasida uning “She’r san’atlari” (Xo‘jand 1972), “She’r san’atlari” (“Yozuvchi”, Toshkent, 2001), “Badiiy san’at jozibasi” (G‘.G‘ulom nashriyoti, 2005, hammuallif), “Badiiy san’atlar” (2014, “Tafakkur”, Toshkent, hammualliflikda) kitoblari chop etilgan.

Leksikografiya sohasidagi kitoblari “O‘zbek klassik adabiyoti uchun qisqacha lug‘at” (“O‘qituvchi”, 1983, 190 bet); “Adabiy manbalar lug‘ati” (“Mumtoz so‘z”, 2010, 434 bet).

Domla navoiyshunoslikning manbashunoslik va matnshunosligiga oid Alisher Navoiyning “Lison ut tayr” (1991, 2005, 2009), Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarini arab yozuvidan lotin yozuviga o‘girib, nashrga tayyorlagan (G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 2009). Navoiyshunoslikning lug‘at sohasida “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” to‘rt jildligi (1983-1985, “Fan” nashriyoti)ni tuzishda qatnashgan.

Navoiyshunoslikning tadbilchilik sohasida: “Layli va Majnun” dostonini N.Norqulov bilan hamkorlikda nasriy bayon qilgan (1976, 2006, 2009); “Muhokamat ul lug‘atayn” risolasini tabdil etgan (“Tafakkur”, Toshkent, 2014).

Boburshunoslikning ham bir necha jabhasida ilmiy izlanishlar olib bordi: Tabdilchilikda: “Boburnoma”ni Karomat Mullaxo‘jayeva bilan hamkorlikda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girdi (“O‘qituvchi”, Toshkent, 2008, 2013). Boburshunoslikning manbashunoslik va matnshunoslik sohasidagi ishlari: “Bobur “Tanlangan asarlar” (“O‘qituvchi”, 1976, 1983) Narimon Hotamov bilan nashrga tayyorlagan; Bobur tavalludining 525-yilligiga bag‘ishlab Boburning “G‘aribing andijoniydur” devonini nashrga tayyorlagan; “Bobur ensiklopediyasi”da uning yuzga yaqin maqolalari bosilgan (“Sharq”, 2014).

Bundan tashqari V.Rahmonovning tabdilchilik, tarjimonlik va nashrga tayyorlash sohasidagi ishlari: Avaz “Devon” (1976), Mashrab “Devon” (1980, K.Isroilov bilan hamkorlikda), Avaz “Saylanma” (1984, Yu. Yusupov bilan hamkorlikda), Ismatulloh Mo‘jiziy “Tavorixi musiqiyun” (2010) asarlarini arab yozuvidan kiril yozuviga o‘girib, nashrga tayyorlagan. “Tavorixi musiqiyun”ni tabdil qilgan.

M.Hamroyev bilan hamkorlikda “Bilol Nozim she’riyatidan” (1983) kitobini uyg‘ur tilidan, Yanglish Egamova bilan hamkorlikda Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” (2010) asarini fors tilidan tarjima qilgan.

V.Rahmonovning poetika, navoiyshunoslik va boburshunoslik sohasidagi maqolalari nashr etilgan kitoblarining so‘zboshilari sifatida, “Sharq yulduzi”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Fan va turmush”, “Guliston”, “Mushtum”, “Muloqot”, “Til va adabiyot ta’limi” jurnallari, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Ma’rifat”, “Sohibqiron yulduzi”, “Yozuvchi”, “Sirdaryo haqiqati”, “Xalq so‘zi”, “Hurriyat”, “Milliy tiklanish” kabi jurnal va gazetalarda yoritilgan.

Metodist sifatida “Bolalar adabiyoti” xrestomatiyasi (1978) tuzuvchilaridan biri; 8 sinf “O‘zbek adabiyoti” darslik xrestomatiyasini A. Kattabekov bilan tuzgan (1993, 1997); 8, 9, 10, 11-sinf “Adabiyot” darsliklariga mas’ul muharrirlik qilgan. Uning “She’r san’atlari” (1972) kitobi, “Matn va matnshunoslik” maqolasi “O‘zAS” 1982, 10-dekabr) maqolasi, “Lison ut tayr”ga yozgan so‘zboshisi V.Rahmonovni ilm olamiga tanitdi. Sultonmurod Olimov “Ishq, ma’shuq, oshiq” kitobida “Vahob Rahmonov “Lison ut tayr”shunoslikda yangi ilmiy yo‘nalishni boshlab berdi” deb baholagan. U ishtirok etgan bahslarda haqiqat V.Rahmonov tomonida ekanligini Nusratilla Jumaxo‘jayev “Bahsdan maqsad haqiqat” maqolasida ta’kidladi.

U “Xalq ta’limi a’lochisi” nishoni sohibi, Xalqaro Bobur mukofoti laureati hamda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni sohibidir.

Ustoz Vahob Rahmonov jonkuyar inson bo‘lganligi bois matnshunoslik sohasidagi kamchiliklar va nuqsonlarga befarq bo‘la olmaydi. Chunki bunday xatoliklar aslyatdagi mazmunga putur yetkazishi mumkin. Vahob Rahmonov domlaning Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” yigirma jildligidagi matniy xatoliklar haqidagi “Ma’rifat” (9-fevral, 2005) gazetasida bosilgan “Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri” deb nomlangan katta maqolasi ham shu mazmundagi tadqiqotlaridan biri edi. Ushbu maqolada bu kulliyotning har bir jildida mingdan ortiq nuqsonlar borligi xususida so‘z boradi. Navoiy asarlari

yigirma jildligining ushbu nashri yaroqsizligini “da’vo qilga” olim namuna ko’rsatish uchun daho shoirning oltita dostonining ilmiy tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlab, “Xamsa”ning besh dostoni va “Lison ut-tayr”ni 2006-2009-yillarda ikki marotaba G’afur G’ulom nomidagi nashriyotda chop ettirgan.

Ustoz mumtoz adabiyot namunalarini nashrga tayyorlash ishiga u 1974-yildayoq kirishgan edi: 1976-yilda Avaz “Devon”ini, 1980-yilda K.Isroilov bilan hamkorlikda Mashrab “Devon”ini nashr ettirganligi bunga dalil bo’la oladi. Aynan Avaz O’tar devoni nashri bo’yicha akademik Alibek Rustamov “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining ikki sonida bosilgan “Matnchiligimizdagi nuqsonlar” nomli maqolasida V.Rahmonov va uning hamkorini qattiq tanqid qiladi. Bunga javoban V.Rahmonov “Matn va matnshunoslik” nomli maqola yozib, o’z ishining ustasi ekanligini, ustoz da’volari o’rinsiz ekanligini isbotlab beradi.

Akademik Alibek Rustamov “O’zAS”dagi bir maqolasida ochiqchasiga “O’zbekistonda matnshunos mutaxassis yo‘q (bundan V.Rahmonov mustasno)” deb yozganida ustozning matnshunoslik borasidagi o‘ziga xos layoqatini e’tirof etgan edi.

V. Rahmonov matnshunoslik sohasidagi faoliyatini ikki yo‘nalishda: o‘zi matn tayyorlash va boshqalar tayyorlagan matnlarni tahrir qilish (maxsus va mas’ul muharrirlik) bilan olib borgan. Uning tahriri ostida ellikka yaqin mumtoz adabiyot namunalari nashr etilgan.

Bunday yutuqlarga erishish zamirida mashaqqatli mehnat yotishi hech kimga sir emas. ayniqsa, bunday muvaffaqiyat lug‘atchilik bilan muttasil shug‘ullanishni talab etadi. Domla bu sohaning ham bilimdoni sifatida 1983-yilda “O’zbek klassik adabiyoti uchun qisqacha lug‘at” (“O’qituvchi”) tuzdi. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” to‘rt jildini nashrga tayyorlashda ishtirok etdi. 2009-yilda “Mumtoz adabiy manbalar lug‘ati” (“Mumtoz so‘z”) kitobini chiqardi.

V. Rahmonov tarjima va tabdil bilan ham shug‘ullanadi. 1976-yilda A.Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini N. Norqulov bilan hamkorlikda nasriy bayon qildi. 2008-yilda Karomat Mullaxo‘jaeva bilan hamkorlikda Boburning “Boburnoma”sini tabdil qildi (“O’qituvchi”, 2008, 2013, 2017). 2014-yilda A.Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarini tabdil qildi (“Tafakkur”). 2010-yilda Mo‘jiziyning “Tavorixi musiqiyun” (“Musiqashunoslik tarixi”) kitobini ham nashrga tayyorladi, ham tabdil qildi (“Mumtoz so‘z”).

Vahob Rahmonov mohir tarjimon hamdir. U 1983-yilda Murod Hamroev bilan hamkorlikda “Bilol Nozim she’riyatidan” kitobini uyg‘ur tilidan tarjima qilgan. V. Rahmonov Boburning xolavachchasi Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” nomli tarixiy-adabiy kitobini Yanglish Egamova bilan birga fors tilidan tarjima qilgan (“Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2010).

V.Rahmonov ko‘r qirrali ijodkor. Olim ilmiy metodologiya sohasida ham jiddiy fikrlarni ayta olgan. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1991-yil 9-fevral sonidagi “Fariddin Attor va Alisher Navoiy” nomli maqolasida va o’sha yili nashrga tayyorlab chop ettirgan A.Navoiy “Lison ut-tayr” dostoniga

yozgan kirish soʻzi “Koʻngillar hamrozi”da ustoz shunday yozadi: “Inqilobdan keyingi va turgʻunlik yillaridagi ilmiy metodologiya oʻzining ilmiy zaifligi bilan, haqiqatga nisbatan yolgʻonligi bilan juda uzoq yashadi“. Bu gap Istiqlol eʻlon qilinmasidan 8 oy burun V.Rahmonov tomonidan matbuotda va kitobda dadil aytilgan firlar edi.

“Lison ut-tayr” haqidagi ushbu maqolalarga asoslangan navoiyshunos Sultonmurod Olimov “Ishq, oshiq, maʻshuq” kitobida “Vahob Rahmonov lisonuttayrshunoslikda yangi yoʻnalishni boshlab berdi” deb yozgani ham domlaning ushbu maqolalarining ilmiy qimmatini yanada oshiradi.

2008-yilda Bobur tavalludining 525-yil ligi arafasida V.Rahmonov Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi bilan hamkorlik ishlarini yoʻlga qoʻya boshlaydi. Fond raisi Zokirjon Mashrabov V.Rahmonovdan Bobur devonini tuzishni va devon nomida uning qaeerlik ekanligini ifodalashni iltimos qiladi. Shu tariqa Boburning “Gʻaribing andijoniydur” nomli kitobi dunyoga keladi. Oʻsha-yili V. Rahmonov “Boburnoma”ning ruscha tarjimasidagi yuzlab xatoliklarni tuzatib, qayta tahrir etilgan nusxasini chop ettirdi (“Sharq”, 2008), “Boburnoma”ning oʻzbekcha tabdili, ruscha nashri, shuningdek, yuqorida eslatilgan “Devon” hamda boburshunoslikdagi boshqa xizmatlari uchun ustoz 2008-yilda Xalqaro Bobur mukofotiga sazovor boʻldilar.

V. Rahmonov Xalqaro “Bobur izidan” ekspeditsiyasi tarkibida 2009-2010-yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Haydar mirzo izidan Qirgʻiziston, Tojikiston, Afgʻoniston, Eron, Hindiston va Qozogʻistonning koʻplab shaharlarida boʻladi. Zokirjon Mashrabov boshliq ushbu ekspeditsiya aʼzolari Tojikistonning Mastcho tumanidagi Obburdon kentidan Bobur toshbitiklarini izlaydi. Shamtuch qishlogʻining “Durust” qabristonidagi xarsangtoshlarning biridan V.Rahmonov arab yozuvida Bobur qoʻli bilan yozilgan quyidagi hujatni topadi:

Kofiro, mardumshikoro, yak zamon ohistatar,

K-ohui bechoraro tobi tiri turkon nest.

Hararu Bobur. In katabai miram Boburxon. 907 hijriy.

Mazmuni: Ey kofir, ey odam ovchisi, bir lahza shoshma,

Shoʻrlik ohu turklar oʻqiga bardosh berolmaydi.

Men Bobur yozdim. Bu amirim Boburxonning bitiklari. Hijriy 907-yil

Ekspeditsiya aʼzolari bu bayt 1502-yilda Boburning Samarqandni tashlab chiqib, Obburdonda gʻaribona yashagan paytlarida bitilgani tufayli, bundagi odam ovchisi Muhammad Shayboniyxonmikan degan mulohazalarga borishadi.

Oʻsha topildik va kashfiyotlarga boy ekspeditsiya safarida Dushanbe shahridagi arxeologiya muzeyidan yana toʻrtta Bobur dastxati boʻlgan toshlar topilgan boʻlib, ulardan birining matni “Boburnoma”da keltirilgan:

“Shunidamki, Jamshidi farruxsirisht” (Eshitganim borki, Jamshiddek nomdor) misrasi bilan boshlanuvchi toshbitikdir. Ushbu toshbitik yuzasidan V.Rahmonov oʻziga xos kashfiyot qildi: Bu toshbitik yozilgan-yil “Boburnoma”da 907 hijriy (1502) deb koʻrsatilgan. Toshdagi tarixiy sana esa 917 (1512)

boʻlganligidan olim Bobur yoki “Boburnoma” kotibi kitobni yozish yoki koʻchirishda oʻn-yil ga xato qilganligini aniqlagan.

Vahob Rahmonovning lugʻatchilik sohasidagi bilimdonligi va voqea sodir boʻlgan joylarning jugʻrofiy holatini yaxshi bilishi uning yana bir kashfiyotni yuzaga chiqarishiga sabab boʻldi: “Boburnoma”da Andijonning sharqiy tomonidagi togʻlar tubida qishda ming uylik karvonni qor koʻchkisi bosgani va ikki kishigina qutulib qolgani haqidagi maʼlumot asarning ruscha (M.Sale), inglizcha (A. Beverij), yaponcha (Eyji Mano), qozoqcha (A Qojabekuli) va boshqa oʻnlab tillardagi tarjimalarida uchraydi. Ularda “oʻy” – “odam” deb tarjima qilingan. Bu demak yigirmaga yaqin tarjimonlar talqinida karvondagi 998 ta odam qor koʻchkisi ostida qolgan. V. Rahmonov Andijon shahridagi togʻlar past-pastgina tepalik yassitogʻliklar ekanligini hisobga olib va til tarixiga oid bilimlariga suyanib “oʻy” soʻzini tabdilda va ruscha tarjima tahririda “qoramol” tarzida kiritdi. V. Rahmonov talqinida 3-4 kishinigina qor koʻchkisi bosgan, xolos. Bu hodisa Bobur tavalludining 525-yilligi kunlarida olimlar tomonidan yaxshi kutib olindi. Hatto Eyji Manoday buyuk boburshunos Zokirjon Mashrabovga yoʻllagan minnatdorchilik maktubida bu tahririy kashfiyotni eslatib, “Vahob – haq” deb qayd etganligi ham domlanning xorijdagi eʼtirofidan dalolatdir.

Ushbu yubiley arafasida V.Rahmonov matnshunoslik sohasida yana bir tahririy yangilikni ilmiy jamoatchilikka manzur etdi. Bobur sheʼriyatining Oʻzbekistondagi va Turkiyadagi barcha nashrlarida, I.Ya.Steblevaning “Bobur gʻazallari semantikasi” kitobida ham Boburning bitta bayti quyidagicha yozilgan:

Ne yerda boʻlsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,  
Gʻaribingga tarahhum aylagilkim, anda jonidur.

V. Rahmonov oʻqishida esa:

Ne yerda boʻlsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,  
Gʻaribingga tarahhum aylagilkim, andijoniydur

tarzida nashr etildi. Xalqaro anjuman ishtirokchilari Andijon shahrida bu yangilikni mamnuniyat bilan qabul qilishdi.

Vahob Rahmonovning 2015-yilda “Oʻzbekiston” nashriyotida dunyo yuzini koʻrgan “Mumtoz soʻz sehri” kitobi uning turli-yillarda matbuot sahifalarida eʼlon qilingan va shaxsiy arxivida saqlanayotgan maqolalaridan iborat toʻplam boʻlib, navoiyshunoslik, boburshunoslik va matnshunoslik yoʻnalishlarida bahs etadi.

Ushbu nashr, ayniqsa, bugungi kunda dolzarbligi maʼlum boʻlgan matnshunoslik qismi bilan gʻoyat muhimdir. Chunki bunda matnshunoslik tarixi va amaliyotidan muhim mushohadalar yuritilgan va matn tahririda kashfiyot darajasidagi yangiliklar ham kitobxonga taqdim etilgan.

Vahob Rahmonov “Zahiriddin Muhammad Bobur” ensiklopediyasining tahrir hayʼati aʼzosi sifatida qomusning dunyoga kelishiga katta hissa qoʻshgan va unda 100 dan ortiq maqolalari bilan ishtirok etgan.

Vahob Rahmonov oʻz ilmiy-adabiy faoliyati davomida arab (eski oʻzbek) yozuvidan 12 ta kitobni kirill va lotin yozuvlarida nashrga tayyorlagan, 6 ta kitobni tabdil va tarjima qilgan. Oʻz muallifligida 5 ta kitob chiqargan, 50 ga yaqin



kitoblarga maxsus va mas'ul muharrirlik qilgan. 200 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilgan.

Vahob Rahmonov domla ustoz sifatida ham shogirdlari orasida ardoqli. Domlaning respublikamizdagi son-sanoqsiz shogirdlaridan tashqari Tojikiston Respublikasida ham bir qancha shogirdlari u kishining ilm-zakosidan haligacha bahramand bo'lishib, o'zlarida bo'lib o'tadigan har qanday ilmiy yig'inlarga ustozni taklif etishadi.

Vahob Rahmonov yaxshi suhbatdosh, u kishi bilan qaysi mavzuda suhbatlashmang, barcha sohaning bilimdoni ekanligi ayonlashaveradi, xoh u zamonaviy adabiyot bo'lsin, xoh mumtoz adabiyot.

Domlaning har bir darsi mazmunli va qiziqarli bo'ladi. Har xil ko'rgazmalar, turli xil samarali uslublar orqali o'tiladigan dars barcha talabalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Ular uchun yangi ochilmagan qirralar kashf etiladi. Bilimlari ortadi.

Ustoz Vahob Rahmonov Guliston davlat universitetining faxri. Ustozning serqirra adabiyotshunos ekanligi yuqorida sanab o'tilgan sohalar bilimdoni ekanligida, xususan, matnshunoslik, boburshunoslik, navoiyshunoslik, lug'atshunoslik kabi murakkab sohalarning bilimdoni ekanligida ayonlashadi. Ustozni qutlug' yoshlari bilan qutlab, ushbu ishlari va ularning samaralari bardavom bo'lishligini, sohalar rivojiga yana ko'p yillar hissa qo'shib, yuzlar bilan yuzlashib umrguzaronlik qilishlarini tilab qolamiz.

### **“MUMTOZ SO‘Z SEHRI”NI O‘QIB...**

*Xonimqul TOJIYEV,  
GulDU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti  
Sherali XIDIRBAYEV,  
GulDU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Vahob aka Rahmonovni kuyunchak, xolis matnchi, haqiqiy matnshunos deb tan olinganidan jamoamizdagilar qatori biz ham quvonib, u kishidan faxrlanib, yozgan kitoblarini xuddi o'zimiz yozgandek ko'z-ko'z qilib yurishga o'rganib qolganmiz. Kechagina nashrdan chiqqan “Mumtoz so'z sehri” (maqolalar to'plami deyilyapti, aslida uni “shingil ilmiy tadqiqotlar to'plami” deb atash durust bo'lardi)dan ham shunchalik xursand bo'ldik. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Mumtoz So'zga bag'ishlangan ushbu kitobdan juda ko'p ma'lumotlar oldik. Alisher Navoiy oyligining 98 foizini muttasil ravishda xayriya uchun sarflagani, Navoiy so'fiy bo'lgani uchun uning e'tiqodicha olamda Xalqoq yaratuvchi Allohdan boshqa hech narsa yo'q. Tabiat-borliqni Alloh yaratgan. Tabiat gultoji inson esa, Allohning jilvasi, nuri zarralaridir.

Navoiy shariyatida ramzan quyosh timsolida Alloh talqin etiladi. Zarra timsolida o'zi va odamlar tushiniladi. Uning Allohni yod etib to'kkan ko'z yoshlarining har tomchisida Alloh quyosh, sifatida aks etadi: Gar Navoiy to'kti ul oy furqatida bahri ashk, Har qachon boqsang quyosh aksi aning yoshindadur. [1, 8]

Kitob muallifi adabiyotshunoslarning bugun nimalar e'tibordan chetda qolib ketayotganligini butun tadqiqoti davomida eslatib boradilar. Masalan, tazmin hodisasi. Alisher Navoiy g'azallariga payrovlar yozilgani, o'nlab "Xamsa"lar tatabu' tarzda bitilgani, dostonlar yozilgani, hikoyat va rivoyatlar to'qilganidan faxr tuyg'usini tuygan muallif. Alisher Navoiy dahosi ta'sirida asarlar yaratilganini, yaratilmoqdaligini bilib olamiz. Olam ahli! Bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'lung bir-biringizg'akim, erur yorlig'-ish! Alisher Navoiyning komillik belgilari va shaxsiy xususiyatlarini hammamiz bilib qo'yganimiz ma'qul:

1. Mutafakkir sifatida umrbod o'qib o'rganish, yod olish bilan shug'ullandi.
2. Murabbiylik sifati: adabiyot ilm, musiqa, rassomchilik, xattotchilikda mutaxassislarni tarbiyalashda jonkuyarlik va moddiy-ma'naviy xomiylik qildi.
3. Umrini davlat ishlariga bag'shlashni Navoiy xalq xizmati deb tushungan.
4. Shaxsiy xususiyatlari:

a) Ulug' maratabasiga qaramay xayoliy, kamtar va kamsuqum edi;

b) Inson faoliyati o'zagini boshqalarni baxtiyor etishda ko'rdi;

c) Qarindosh va do'stlariga nisbatan o'ta jonkuyarlik va samimiylilik namunalarini ko'rsatdi;

d) Yolg'onlarga nisbatan qat'iy murosasizlik qildi:

So'zda, Navoiy, ne desang chin degil, Rost navo, nag'malarga tahsin degil. Alisher Navoiy (1463-1495) sakkizta devon taxlaganlar:

1. "Ilk devon"
2. "Badoe' ul-bidoya"
3. "Navodir un-nihoya" ("Xaroyin ul-maoniy")
4. "G'aroyib us-sig'ar"
5. "Navodir ush-shabob"
6. "Badoe' ul-vasat"
7. "Favoyiya ul-kibar"
8. "Devoni Foni"

"Hozirgi zamon hikoyalardagi kutilmagan vaziyatlar yaratishdek san'atsimon usullar Navoiy she'riyatida an'anaviy talqinlar bilan uyg'unlikda yashaydi. Biz bu usulni boshqa biror shoir ijodida uchratganimiz yo'q" "Farhod va Shirin" dostoniga Vahob Rahmon "odobnoma", "odamnoma" degan nomlar berish mumkinligini aytadi. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi qahramonlarning qismatlari yakuni kitobxonni hayotga idrokli nazar tashlashni talab qiluvchi da'vatlar, chorlovlar ekan ...

"Saddi Iskandariy" dostoni hikmatnoma-hikmatlar shodalari tarzida yaratilgan. Makedoniyalik Iskandar nomigagina prototip ekan. Aslida bu "Sharq Mutafakirlari aql-zakosi bilan yaratilgan orzubon-ideal shoh timsoli, haloskor odil hikmatparast hukumdor siymosi buyuk" timsol ekan. Domla o'quvchi kitobxonlarini Iskandar Alisher Navoiy orzu qilgan darajadagi, singari hikmatparast bo'lishini istaydi. Fariddin Attor va Alisher Navoiy o'z dostonlarida tasavvur falsafasini ramziy usulda ifodalagan buyuk Sharq

mutafakkirlaridirlar. “Xaloyiq sevganni Xoliq sevar”. “Mumtoz so‘z sehri” qa‘riga kirib Alisher Navoiyni yanada yaxshiroq tanib oldik:

Butun umrini o‘zgalarni baxtiyor etish uchun sarflagan. Xusayn Boyqaro bilan haqiqiy do‘st bo‘lishgan Alisher Navoiy haqida: “haq gapni aytishga dalal (botir)” degan. Alisher Navoiyning poklik bayrog‘dori, uning orzubon timsoli Farhod. Olam ahli! Bilingizkim, ish emas dushmanlig‘!

Yor o‘ling bir-biringizga kim, erur yorlug‘-ish! Yuqoridagi bayti bilan Alisher Navoiy odamlarni manmanlik o‘rniga kamtar, kamsuqum bo‘lishga, ezgulikka chorlaydi; Alisher Navoiy mubolag‘alariga xos xususiyat uning tabiiy xalqonaligidir. Alisher Navoiy Xadichabegimni sevgan degan gaplar yangilik bizlar uchun. Alisher Navoiy ijodi gulto‘ji - “Xamsa” turkiy tildagi ellikka yaqin hamsalarning eng sarasi ekan. Kitobni o‘qish davomida Alisher Navoiy qo‘llagan Iyhom va uning tabiatiga tushinib olamiz. Asosiysi uni o‘qib o‘rganish barobarida fikriy-hissiy lazzat, estetik zavq oladi. Oshiqlar sevganlariga Navoiy g‘azalu ruboiylari bilan murojaat qiladilar, keksalar Navoiydan ahloq saboqlarini beradilar, Yoshlar uchun chin muhabbat, vafo, saodat ota-onasiga mehr va hizmat savobini anglaydilar, shuningdek, Barkamol inson qanday bo‘lishi kerak degan savolga javob topishadi bu erdan.

Tavoze‘, kamtarlik avf-musulmonlik belgisi, hadya qilishlar yaxshi xislatlar. Vahob aka hammamizning Alisher Navoiydan bahramand bo‘lishimizni tilaydilar. “Ko‘p shoir va olimlarimizning mumtoz adabiyotshunosdan kam bahramandligi va xalqimizning o‘zbek mumtoz adabiyotiday buyuk” xazinasidan bebehraligi xafa qiladi. “Ma‘rifat o‘quvchilariga tilagini ustoz hammamizga atagandur. Umr bo‘yi ma‘naviy kamolat hosil qilishdan tolmingiz. Bu esa, juda oson: maza qilib badiiy asar o‘qing va yoqqanlarini yodalang”. Mumtoz adabiyotning har bir baytini ana shunday mulohazalar chig‘irig‘idan o‘tkazib, ya‘ni bayt mazmuni, undagi fikriy kashfiyot yangi nuqtani idrok bilan ilg‘ab, shoir mahorati uchqunini sezib, hayratga tushaylik”. “Boburshunoslik” bobidan ayrim fikrlarimizni keltirsak: “Xullas, Navoiy Bobur nazarida orzu osmonidagi quyoshdir”. Bobur Navoiydan ilhomlanibgina qolmay, Ustozining ayrim ijod namunalaridan, xususan, “Foniy” taxallusi ostida e‘lon qilingan she‘rlarining “sust va bo‘sh Tob” ekanligini ham aytib o‘tgan. Shu o‘rinda muallifning fikriga qo‘shilamiz: “Demak, biz qiyos haqiqati bilan ilmiy haqiqatni-haqiqiy bahoni bir narsa deb qaramasligimiz kerak ekan”. Zero “Boburnoma”dagi Alisher Navoiy haqidagi ma‘lumotlar “Alisher Navoiy shaxsining olmosdan ming qirrali iste‘dodi va ko‘zguday musaffo vujudi ifodasidir”.

Abdurahmon Jomiy “Yusuf va Zulayho” dostonini yozayotganda Yusuf timsolida Alisherni tasavvur qilgan ekan. Bobur Alisher Navoiyning tadqiqotchi shogirdi, adabiyot jabhalaridagi uning ishlari davomchisi ekan. Bu bob sohir Boburning barcha sohalarda, xususan, ayniqsa, adabiyotda badiiy jasoratlar ko‘rsatgan. U raddi matla‘ san‘atini ishlatgan. “... mana shunday sog‘lom tarzda bosilgan”.

- Boburning hali topilmagan asarlari ham ko‘p.

- Harfiy san'atlarga e'tibori badiiy ijodning yuksak darajasi hisoblangani tufayli kitobat, istixroj, qalb singari she'r san'atlarini qo'llashda mo'jizakorlik qilishga intilishlar juda kuch bo'lgan. Ana shu san'atlardan biri masnu' she'r edi. Boburning murabba' san'atida ham yaxshi musaviyat tarafayn yaratganini bexabar ekanmiz. Misolni o'qib maza qiling: Etti meni O'ltirgali Oxir Hijron O'ltirgali Qo'yma Meni qutqar, Ey jon, Oxir Meni qutqar, Bu firoq Asru yomon!

Hijron, Ey jon, Asru yomon! Ohu fig'on! Bobur o'z bolalarini Gulruxbegim va Mohimbegimlardan ko'rgan:

Hijron, sabo, falakka ohim, Gar ul sori borsang, bu durur dilxohim: Kim, arzu duo niyoz ila qilg'oysanu Gar so'rsi men xastani Gulrux, Mohim. Bir baytda uzun (hotam) Hotamga aylanmasin. U obraz xasisligida shunday ma'rurni, beshikam -qorni yo'q: hech narsa yeb-ichmaydi. Majmua tuzuvchilar matnni to'g'ri ko'chirolmaganini matn mazmuniga muvofiq kelmaydigan lug'atni majmuaga kirgazmaslik kerak. Qovun paykali quvunga zor. Kofir kallasini o'g'irsa, musulmon bo'lmaydi. Sog'lom mazmunni yuzaga chiqarish uchun juda katta e'tibor bilan ishlash kerak! Shunda "gandum" - "bug'doy", "arpa" bo'lib qolmaydi. Maxdami A'zam Imomi A'zam emas balki uning nevarasi ekan. Tunda chuqur, xandaq va tepa Anbar hidli bayo'g'li bo'lmas ekan. Tikandan gavhar chiqmas ekan. To'fon bunyod etmas ekan. To'lin oy yangi oy emas ekan. Bolani falak bilan adabni berib bo'lmas ekan. Bir so'z tufayli bayt mazmundan mahram bo'lib qolishi hech gap emasmish.

Qo'y-go'y, surat-sur'at, sel-sayl, nish-tish, so'zlari sinonimlar emas ekan. "Daryo" o'ldirmas emish. "Zolo" emas "zol" - keksa, qari ekan, shunda qofiya saxixlashib, bayt mazmuni ravshan tortar ekan. Shoir aytmoqchi bo'lgan fikr o'chib ketmasligi uchun matnchi judayam xushyor bo'lishi zarur ekan. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning pog'onalari o'nlab pog'onasi bor ekan va ularni keng mulohaza maydoniga olib chiqish zarurati ham bor ekan ... .

Xullas, avvalo, "Mumtoz so'z sehri" Vahob Rahmon domlaning kuyunchakligini yana bir karra isbotlaydi. Biz uchun kitobning qadri-qimmati yanada balandligi, undagi keng ilmiy mushohadalarning ommaga yetkazib berilishida, kafedramizning bilimdon o'qituvchisi, aqlli, o'qimishli, butun jamoamizning suyuqli faxriga aylanib kelayotgan Erkin, To'lqinlarning xizmatlari alohida ko'rsatib o'tishga arzigulik. Yanglish opa Egamova va To'lqinning oxirati obod bo'lsin. Ularning sevimli nevaralari dadasi, ayasi Kamola istashgan farzandlar bo'lib yetishishini Oллоhdan tilab qolamiz Omin!

## MATNSHUNOS OLIM

*Ixtiyor ERMATOV,  
GulDU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti*

Ilm olmoq igna bilan qudud qazimoqdir. Bu maqolni sharhlamoqchi emasman, lekin ilm olmoqning mashaqqati shuncha bo'lsa, ilm o'rgatmoqning zahmati qancha bo'lar ekan. Professor Nurboy Jabborovning ta'biri bilan aytganda

“Ilm yo‘li oson emas. Bu yo‘lning no‘shini bir bo‘lsa, nishi ming, rohati bir bo‘lsa, tashvishi ming. Qo‘lyozma manbalar ustida ilmiy izlanish olib borish, ayniqsa, murakkab. Fanning ushbu sohasida muayyan yutuqqa erishmoq uchun katta bilim va tajribadan tashqari, sabot va matonat ham zarur”. Bu gaplar xuddi Vahob Rahmonovga aytilgandek. Ana shu mashaqqatli va sharaflil yo‘lni bosib o‘tgan Ustozimizga havas qilamiz.

Men ellik yildan buyon Navoiy asarlarini Vahob Ramonov tahririda o‘qiyman. Men va men qatori avlod vakillari Navoiy va Boburni o‘qisak ko‘z oldimizga matnshunos olim V. Rahmonov keladi. Matnshunos olimlarimizning mashaqqatli, lekin sharaflil mehnatlari evaziga uzoq tarix qaridan allomalarimiz yaratgan asarlar qaytadan qad rostlayberadi. Men matnshunos olimlarimizni tarix bilan kelajakni bog‘lab turgan ko‘prikka o‘xshataman.

Ko‘plab olimlarimizning haqli va to‘g‘ri e‘tirofiga ko‘ra, agar XI asrda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asari yaratilmaganda (va bizgacha yetib kelmaganda) XI asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar, hatto toshbitiklarda yaratilgan matnlarni o‘qiy olmas edik. Bu asar o‘tmish va kelajak o‘rtasida ming-yil dirki tilmoch vazifasini o‘tab kelmoqda. Ushbu asarni ham matnshunos olimlar tahrir qilgan va bugungi avlod vakillariga taqdim etgan.

Haqiqat bahslarda oydinlashadi. Biz V. Rahmonovning matnlar ustida olib borilgan munozarali tortishuvlariga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz. Olim har doim ashoyiy dalillari bilan bahsta‘lab matnlarni ilmiy asoslab berganlar.

Olim Alisher Navoiy hayotiga doir manbalarni qiyosiy o‘rganar ekanlar, zarur o‘rinlarda V.V. Bartold, Ye.E. Bertels, Olim Sharafiddinov, Alibek Rustamov va boshqa olimlarning ba‘zi fikrlari bilan bahsga kirishadi hamda o‘z mulohazalarini ishonarli dalillaydi.

Vahob Rahmonov ilmiy munozara madaniyati yuqori ekanini namoyon eta olgan. U dastlabki manbalardagi ma‘lumotlarni o‘rganish asosida teran tahlillarni amalga oshiradi, ko‘plab noaniqliklarga oydinlik kiritadi. Shunga qaramay, o‘z to‘xtamlarini eng so‘nggi xulosa sifatida taqdim etishga shoshilmaydi. Tegishli manbalarga murojat qilishni tavsiya etadi.

Vahob Rahmonovning zukko tahriri va bilimi orqali biz Alisher Navoiy, Bobur asarlaridagi ayrim so‘zlarning to‘g‘ri talqini bilan tanishib boramiz. Bu tuzatishlar Navoiy asarlarini bugungi avlodlarga to‘g‘ri va to‘liq yetkazish imkonini berishi bilan ham qimmatlidir.

Vahob Ramonovning navoiyshunoslikni, boburshunoslikni yangi ilmiy xulosalar bilan boyituvchi, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiluvchi ilmiy xulosalari qadrlidir.

Shu kunlarda Vahob Rahmonov qutlug‘ sakson yoshni qarshiladi. Bu sanaga Vahob Rahmonov O‘zbekiston o‘z oldiga Uchinchi Renessans degan ulug‘ maqsadni qo‘ygan pallada yetib keldi. Bu pallaga ilmdan sharaflil topgan olim, jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shayotgan ilm va jamoat arbobi sifatida qadam qo‘yayotir. Lekin hali oldinda yanada katta marralar turibdi. Bugun yangi O‘zbekiston uchun, Uchinchi Renessans uchun bunday fidoyi olimlar juda ham zarur. Tabiiyki, butun jamiyatning safarbarligini talab qiladigan bu g‘oyani amalga

oshirish uchun muayyan vaqt bilan birga Vahob Rahmonov kabi fidoyi vatanparvarlar talab etiladi.

Sakson yillik havas qilgulik umr. Vahob Rahmonov ana shunday fazilatlarini bilan yosh avlod qalbini yoritib, ulug'vor maqsadlar sari safarbar etib kelayotgani olimning Vatan oldidagi munosib xizmatidir.

Ustozimizga murakkab, mashaqqatli, lekin sharaflil faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

## TAQDIM

*Abdurahmon PIRIMQULOV,  
filologiya fanlari nomzodi,  
Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nurafshon filiali dotsenti v.b*

*Vahob Rahmonov deganda ko'z o'ngimizda davrimizning zahmatkash va fidoyi olimi namoyon bo'ladi. U kishini manbashunos, matnshunos, lug'atshunos, mumtoz aruz va she'riy san'atlar tadqiqotchisi, shuningdek eski o'zbek yozuvi xossalarini g'oyat kuchli biladigan, uning softligi uchun kurashadigan, klassik matnlarni to'g'ri va bexato o'qiydigan, sahii holatda nashrga tayyorlaydigan ustozni tushunamiz.*

*Kamina bir adabiyot muhibi sifatida shuni e'tirof etishni xohlardimki, domlaning "She'r san'atlari" degan kitoblari qariyb yarim asrdan beri adabiyotshunosligimizda noyob dastur sifatida qo'llanib kelinadi. Matn, tabdil, nashr, so'z va uning ma'no qatlamlarini idrok va tadqiq etish haqidagi yuzlab maqolalari esa nafaqat filologlar uchun, balki tarixchilar uchun ham muhim ilmiy-nazariy ashyo hisoblanadi. "Mumtoz so'z sehri" (O'zbekiston NMIU, 2015) nomli salmoqdor nashrni esa ustoz ijodining cho'qqisi deyish mumkin. Zero, hozirgi matnshunos do'stlarimiz ilmda muayyan maqsadni ko'zlasalar, bu kitobni ko'zlariga to'tiyo qilsalar arziydi. Chunki bunda domlaning butun umri davomida yozgan maqollarining asl "qaymog'i" o'rin topgan.*

*Men ustoz Vahob Rahmonov bilan bir necha suhbat qurganman. Yaxshi odatlaridan yana birini aytay: domlaga kichik bir muammoni aniqlash uchun savol bersangiz, qayerda, qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar atroflicha, erinmasdan tushuntiradilar. Keyin shu mavzuga oid ikki, uch maqolani ham tavsiya etadilar. Muhimi o'sha maqolaning aniq nomi va manbasini, hatto,-yili, sanasigacha yoddan so'zlaydilar. Yoshlarga g'amxo'rliklari, ayniqsa, biz kabi olimlarga e'tiborlari, falon narsani yaxshi yozibsiz, ammo falon manbaniyam ko'rib qo'ying deya o'git berishlari bizni behad quvontiradi. Shunday olim bilan zamondosh, suhbatdosh bo'lganimdan quvonib ketaman. Darvoqe, men domla asarlari mutolaasi natijasida ikkita maqola yozganman. Hozir domlaning o'zlari haqidagi suhbatni shu joyda to'xtatib, o'sha ikki maqoladan birini hukmingizga taqdim etmoqchiman. Ustoz haqidagi suhbatni esa sal keyin davom ettiramiz. Ma'qulmi?*

## DEVONIMDA TARTIB YO‘Q

### 1

Zahiriddin Muhammad Bobur yirik imperiya asoschisi, davlat arbobi, qomusiy olim, haqiqatparast nosir bo‘lish bilan bir qatorda yyetuk shoirlik salohiyatini ham to‘la namoyon etgan. Uning so‘zdan zargarona foydalanishi, qofiya o‘yinlari va poetik san’atlarni asosiy g‘oyaga safarbar qilish mahorati mana besh asrdan beri ijod ahliga namuna manbai bo‘lib xizmat qiladi. Uning turkiy ruboiynavislik rivojidagi o‘rni, mazkur janri shakl, ma’no va mavzu jihatdan boyitgani barcha davr ijodkorlari va olimlari tomonidan yakdillik bilan tan olingan. Shoir g‘azal va ruboiylaridagi lirik qahramon muallif shaxsiyati bilan ba’zi nuqtalarda tutashsa-da, ular o‘rtasiga tenglik alomati qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki shoh Bobur bilan shoir Bobur o‘rtasida jiddiy tafovut bor. She’rlardagi lirik qahramon bu endi yurtga bostirib kelayotgan dushmani tor-mor qilishga shaylangan yo o‘zga yurt sarhadlarini bostirib olishga jahd etgan qahri qattiq hukmdor emas. U ishqda shu qadar baland martabaga erishgan oshiqki, uni na Farhodga, na Majnunga qiyoslab bo‘ladi. Sharq dunyosida shoirlik iqtidorini namoyon etgan taxt sohiblari bisyor. Buni qarangki, ular yaratgan oshiqlar ham biror bir xususiyati bilan Bobur shohning lirik qahramoniga o‘xshamaydi. Podshohning lirik qahramoni mahbuba oldida bir zumda itoatkor, chorasiz qulga aylanadi:

*Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,  
Sen shu’lasen ul shu’lag’a men kuldurmen.  
Nisbat yo’qdur deb ijtinob aylamakim,  
Shahmen elga vale senga quldurmen.*

Bobur mahbubasiga shu qadar mehribon, vafodor oshiqki, uning ichki ruhiy olami, iztiroblarini ko‘rsangiz, an’anaviy oshiqlar siymosidan tamomila farqlanadigan nihoyatda pok, samimiy, kamtar, xokisor va ayni paytda o‘z niyatini amalga oshirish uchun jasorat bilan kirishadigan jasur inson qismati bilan tanishgandek bo‘lasiz:

*Hajr aro ishrat oyog‘in bormi no’sh aylar chog‘im,  
Sensizin yurib oyoq ichkuncha sinsin oyog‘im.*

Baytda “oyoq” so‘zi ikki ma’noda qo‘llangan. Mumtoz adabiyotda “oyoq” tana a’zosidan tashqari may va may idishi ma’nolarida qo‘llanadi. Mazkur baytning oxiridagi “oyoq”qa oyoq va idish ma’nosi singdirilgan. She’riy san’atlar ilmida buni iyhom deb yuritadilar. Bu san’atda so‘zning birinchi ma’nosi yuzada, ikkinchisi botinda bo‘ladi. Aniqrog‘i shoir botiniy ma’noni zohiriy ma’no qobig‘ida ifodalaydi. Asl maqsad ham aslida botinda tasvirlanadi. Baytda oshiq Bobur mahbubasiga “sensiz yursam oyog‘im sinsin” deb unga vafodorligini ko‘rsatmoqda. Ayni paytda mazkur so‘z “sensiz may ichkuncha uning idishini sindirib tashlayman” degan iqrorni ham bildiradiki, bu kabi so‘z o‘yinini boshqa shoh-shoirlarda juda kam uchratamiz. Bobur g‘azallaridan birida yorga murojaat qilib, “sensiz yashash og‘ir, sening-la yashash undan ham og‘ir” degan ma’noni ifodalaydiki, bu kabi chechanlik, so‘zni “erkalab” qo‘llash fazilati o‘quvchi aqlini lol qoldiradi:

*Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldir,  
Sening birla chiqishmoqliq dog'i bisyor mushkuldir.*

Bobur sohibi devon shoir bo'lsa-da, o'zi devon tuzgan emas. "Boburnoma"ning 1519-yil voqealari aks etgan joyida Samarqandning o'sha vaqtdagi hokimi "Fo'lod Sultong'a devonimni yubordim" deydi. Aftidan, bu sharq devonchilik an'anasi asosida tuzilgan to'plam emas, she'rlaridan ayrim namunalar bo'lishi mumkin. Chunki Bobur mirzo Fo'lod Sultonga yuborgan devonga ilova qilgan ruboiysida she'rlari tarqoq holda yotganini, unda tartib va tazhib yo'qligini oshkor qiladi:

*Devonima ne rabtu ne tartib durur,  
Ne jadvalu ne lavhu ne tazhib durur  
Ki, senga yubordim ani, ayb aylamakim,  
Devoningni tilarga taqrib durur.*

## 2

Zahiriddin Muhammad Boburning lirik merosini yig'ish, tartibga solish, an'anaviy devonlarga taqlid shaklida xalqqa taqdim etish yuzasidan bizning davrimizda e'tirofga loyiq ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, afg'onistonlik boburshunos olim shoir tavalludining 500-yil ligi tantanalari davrida Kobul shahrida "Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur" nomli kitobini nashrdan chiqargan. Ushbu kitob shu paytgacha chiqqan nashrlarning nisbatan mukammali bo'lib, unda "Boburnoma"dan ham ayrim parchalar ilova etilgan. Ushbu kitob asosida professor A.Abdug'afurov shoir "Devon"ini (Fan, 1992), dotsent H.Muhammadxo'ja o'g'li "Nazm durdonalari" seriyasida "Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur" (Sharq, 1996) nomli she'rlar to'plami nashrdan chiqargan. Har ikki kitob ellik ming nusxadan chop etilgan. Ular o'zaro qiyoslanganda, zamonaviy kitobat san'atini o'zida namoyon etishi, chiroyli suratlar bilan bezatilishi, mukammal so'zboshi, lug'at va izohlar bilan boyitilishi jihatdan ikkinchi nashr diqqatni jalb etadi. Bu nashrda g'azal (119 ta), ruboiy (208 ta), tuyuq (14 ta) va masnaviylar (5 ta) imkon boricha to'liq, oltmish beshta farddan o'ttiztasi, ellik uch muammodan esa bor-yo'g'i ikkitasi chop etilgan. Xoja Ubaydulloh Ahrorning umumiy hajmi 243 baytdan iborat "Volidiya" risolasi tarjimasini va fiqh (islom arkonlari)ga oid "Mubayyin" risolasidan berilgan parchalar ham kitobning saviyasini oshirgan. Ammo mazkur to'plam Shafiqa xonim kitobi qo'lyozmasi yo ustoz A. Abdug'afurov nashrga tayyorlagan "Devon" bilan o'zaro qiyoslanganda, ayrim qusurlardan xoli emasligi zukko kitobxon dilini anday xufton qilishi mumkin.

## 3

Professor A.Abdug'afurov nashr ettirgan devonning imloviy va ma'naviy qusurlari haqida zukko matnshunos olim V.Rahmonov bir maqolasida batafsil to'xtalgan<sup>1</sup>. Biz domlaning shu va shu tipdagi maqolalaridan metodologik asos sifatida foydalanib, dotsent H.Muhammadxo'ja o'g'li nashrga hozirlagan to'plamning ba'zi nuqsonlarini ko'rsatishga urinamiz. Bu xatolarni aniqlashda bizga professor A.Abdug'afurov nashrga tayyorlagan devon yordam beradi. V. Rahmonov asosan g'azallardagi nuqsonlarni bartaraf etgan. Shu bois biz ko'proq



ruboiylardagi chalkashliklarni bartaraf etishga jazm etamiz. Asosiy maqsadga o'tishdan oldin ustoz A.Abdug'afurov nashrga tayyorlagan devondagi ikki ruboiyning noto'g'ri ko'chirilganiga diqqatni jalb etamiz. Zotan, bu ruboiylar xalq orasida mashhur bo'lib, uning qaysi shakli haqiqatga mosligi zukko o'quvchilarni befarq qoldirmaydi.

### “Yor”mi, “bor”mi?

Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi “Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak” deb boshlanadigan mashhur ruboiysi sho'ro davridagi barcha nashrlarda to'g'ri yozilgan. Uning bosh qismi istiqloq davridagi maktab darsliklarida, shuningdek A.Abdug'afurov tayyorlagan devonda “Kim bor...” tariqasida xato yoziladi. Uni quyidagi shaklda yozish badiiy haqiqatga mosdir:

*Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.  
Men tolibi, ilm tolibi ilme yo'q,  
Men bormen ilm tolibi ilm kerak.*

“Yor” deganda shoir ma'shuqani emas, do'st, muhib, maslakdosh

---

**Rahmonov V.** Olimona idrok va shoirona ilhom taqozosi. “Mumtoz so'z sehri” nomli kitobda. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2015. -B. 283-292. kishilarni, umuman insonni nazarda tutgan. Uni “bor” deyish katta xato emas, har holda ruboiy saviyasiga oz bo'lsa ham soya tushiradi. Maxfiy qolmasinki, “yor”ni “bor” shaklida ko'chirish holati ikkinchi devonda ham kuzatiladi. Jumladan, 157 ruboiyning oxirgi misrasidagi “yor tufayli” birikmasini dotsent H. Muhammadxo'ja o'g'li “bori tufayli” shaklida xato ko'chiradi. U aslida mana bunday o'qilishi lozim:

*Yor uldurki, she'rg'a mayli bo'lsa,  
Netgay kishi she'r g'ayr xayli bo'lsa.  
Ag'yorning ozorini har hol bila,  
Chekkaymen agar yor tufayli bo'lsa.*

Bu o'rinda “yor uldurki” iborasida ham “do'st, muhib” ma'nolari ustun turibdi. Biroq oxirgi qatordagi “yor” “do'st”dan ko'ra ko'proq “mahbuba”ga tegishlidek tuyulyapti.

### “Kalom”mi, “payom”mi?

Mazkur nashrning 75 raqam ostida berilgan ruboiysida “kalom” so'zi ikki o'rinda qofiya vazifasida keladi. O'ylashimcha, Bobur mirzo singari bir so'zni yuz chertib ishlatadigan shoir bir so'zni ikki o'rinda qofiya qilmasa kerak. Qo'limizdagi ikkinchi devondan ulardan biri xabar ma'nosini bildiruvchi “payom” ekani ma'lum bo'ldi:

*To qilg'ali zikr tab' nomini ko'ngul,  
Vird ayladi tab' ahli kalomini ko'ngul.  
To hajr g'amu mehnati taskin topqay,  
Istaydurur ahbob payomini ko'ngul.*

Endi Bobur ijodining jonkuyar targ'ibotchisi dotsent H. Muhammadxo'ja o'g'li tayyorlagan devon ruboiylari mutolaasiga kirishamiz. O'qish chog'ida

zinhon kamchilik izlamaymiz. Nuqsonning o‘zi bo‘y ko‘rsatsa, shularni xolis turib, qog‘ozga tushirishga urinamiz. Bizdan ham sahv o‘tsa, ming bor uzr.

### **“Behud”mi, “behad”mi?**

Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylaridan birini tabdil etishda noshir yuqoridagi ikki so‘zning o‘zaro farqiga bormaydi. Mumtoz adabiyotda behud (aslida bexud) hushsiz, o‘zidan ketgan ma’nosini bildiradi. Boz ustiga bu so‘z “shod”ning yonida kelishi mutlaqo mumkin emas. Chunki lirik qahramon shod bo‘lsa, bexud bo‘lmaydi yo aksincha. Ruboiydagi bu so‘z “behad” deb o‘qilsa, ma’no ravshanlashadi:

*Jono, bitigingki, bo‘ldi marqum manga,  
Mehnat bila g‘amni qildi ma’dum manga.  
Ko‘rgach oni, garchi shod behad bo‘ldum,  
Mazmuni vale bo‘lmadi ma’lum manga.*

Uchinchi misra oxiridagi “bo‘ldum” ham ushbu nashrda “bo‘dum” tariqasida xato ketgan. Mumtoz so‘zni tabdil qilishda bitta harf xato yozilsa, asar imoratiga putur yetadi, bukchayib qolganga o‘xshaydi. So‘zni “bo‘dum” shaklida yozilsa, birinchidan unda ma’no yo‘q, ikkinchidan she’riy san’at ham talofat ko‘radi. Chunki keyingi misrada shu so‘zning ziddi “bo‘lmadi” bor. Demak bu yerda tazod san’ati qo‘llangan. Muhtaram noshirimiz buni inobatga olishlari lozim edi.

### **“Tola”mi, “tala”mi?**

Bu ikki so‘zning ma’nosini oddiy o‘quvchi ham farqlay olsa kerak. Ozgina e’tibor, fahm, idrok kerak bo‘ladi, xolos. Gap shundaki, “charchamoq” fe’lini ifodalovchi “toladur” iborasi, bu nashrda “hurmoq” fe’lini bildiruvchi “taladur” shaklida xato ketgan. Hurmatli noshirimizning itga qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zni insonlarga nisbatan qo‘llashlari g‘alati emasmi? Shuningdek, aslida “dala” yozilishi kerak bo‘lgan so‘z ruboiyda “tala” shaklida xato yozilgan. Uni quyidagicha o‘qisak, ma’nosi ham yarq etib namoyon bo‘ladi:

*Xotirni bahor faslida gasht oladur,  
Ko‘z nurini rangi lolavu dasht oladur.  
Xush ulki, dalalarda yurub sayr etsa,  
Bu fasldakim, latifu dilkash toladur.*

Shoir ko‘klamda, hozirgi ibora bilan aytganda, “ilik uzildi” chog‘ida barcha “lutifu, dilkash” kishilarning ishyoqmas bo‘lishini, ruhida tetiklik yetishmasligini, hech narsa qilmasa ham charchashga mo- yilligini, dala-dasht sayriga chiqqan kishi tolib qolishini “toladur” so‘zi orqali ifodalagan. Uni “taladur” deyish g‘oyat qo‘pol xatodir. Shuningdek, ikkinchi misradagi “dasht”ning, uchinchi misrada “dala” shaklida kelishi sinonimik takroni yuzaga chiqargan.

### **“Netayin”mi, “ketayin”mi?**

Quyidagi ruboiyda Bobur mirzoning lirik qahramoni “ketayin” deb nola qilmagan, balki “netayin” deb faryod ko‘targan. Shu bilan birga mahbubasidan ayriliq azobiga chora qilishini o‘tingan:

*Andin berikim qasdim uchun turdi firoq,  
Yuz dardu alamni manga yetkurdi firoq.*

*Meni eshikingdin, netayin, surdi firoq,  
Qil chora, yo 'q ersa, meni o 'lturdi firoq.*

Ilova buki, Bobur mirzoning “Bu chehrai zardim...” deb boshlanadigan ruboiysida shunga o‘xshash “netgaymen” so‘zi radif o‘rnida qo‘llanadi. Mazkur nashrda esa ikkinchi va to‘rtinchi satrlar “ketgaymen” shaklida xato ketgan. Bizningcha, uni tubandagicha o‘qish joiz:

*Bu chehrai zardimdin uyolsang, netayin,  
Rahmat nazarini menga solsang, netayin.  
Bir ishva bila ko 'ngul berib Boburg'a,  
Bir bo 'sa bila ko 'ngulni olsang, netayin.*

Ruboiyda Bobur ma'shuqaga murojaat qilib, “menga vafo ko‘rsatsang, netaman, quvonchdan qay ahvolga tushaman” deb, samimiy munosabat bildirmoqda. Shunday ekan uni “ketaman” shaklida qo‘llash noto‘g‘ri tasavvurga yo‘l ochadi.

### **“Shod”mi, “yod”mi?**

Sirtidan qarasangiz, ruboiydagi xato uncha muhim emasdek. Biroq inobatga olish lozimki, Boburdek nuktasanj va nuktadon shoir, yuqorida aytganimizdek, bir so‘zni ikki marta qofiya o‘rnida qo‘llamaydi. Shu bois, noshirimiz “yod” so‘zini oxirgi misrada kelishiga e’tibor berganda, bu so‘zni birinchi misrada tilga olmas edi. Shuningdek, “ne jihatdururki” birikmasi bu muqobilda “ne jihatturki” shaklida ko‘zga tashlanadi. Aslida uni quyidagicha yozish maqsadga muvofiqdir:

*Ey yor, hazin ko 'ngulni shod aylamading,  
Mehringni kam aylading, ziyod aylamading.  
Yo menda gunoh bordur, unutting yo sen,  
Oyo, ne jihatdururki, yod aylamading.*

Birinchi misradagi “shod”ni “yod” shaklida yozsak, misra tazod degan nodir she’r san’atidan ham mahrum bo‘ladi. Umuman, noshir ushbu ruboiy aynan tazod (zid ma’noli so‘zlar) san’ati asosiga qurilganini inobatga olishi lozim edi. Qarang, ruboiyda nechta tazod bor: hazin – shod, kam – ziyod, men – sen, unutmok – yod olmoq, aylading – aylamading.

### **“Chog‘ir”mi, “sog‘ir”mi?**

So‘z ma’nosini farqlamaslik, uning umumiy matn bilan aloqasini inobatga olmay, xayolga kelgan so‘zni yozish holati ba’zi qit’alarda ham kuzatiladi. Quyidagi qit’aning birinchi misrasidagi “chog‘ir” so‘zi ushbu nashrda “sog‘ir” tariqasida xato ketgan. Uni tubandagicha o‘qish joiz:

*Eyki, targ 'ib qilursen chog 'ir ichmakka meni,  
Sozu xonanda bila soqiyu sahbo bormi?  
Bovujudiki, o 'tubtur chog 'ir ichmak vaqti,  
Majlis asbobini bilmonki muhayyo bormu?*

### **“Olam”mi, “olim”mi?**

Bu ikki so‘z ham qit’alardan birida o‘zaro farqlanmaydi. Ya’ni, noshir ikkinchi misra boshidagi “olam” o‘rniga “olim” deb yozadiki, mumtoz so‘z san’atida bu jiddiy xato sanaladi. Uni tubandagicha yozish maqbo‘ldir:

*Qolmadi hurmat ahli olamda,*

*Olamu olam ahlidin yuv ilik.  
Boburo, ikki podsholig'din,  
Yaxshiroq bu zamonda bir beklik.*

Afsuski, shu singari xato-chalkashliklarni boshqa shakldagi she'rlarda ham uchratamiz. Masalan, g'azallarda hayvon suyi (afsonaviy mangulik suvi) – hayron suyi, xayl (to'da, gala) – xil, ma'ni(ma'no) – ya'ni, yoyilmishlar (sochga ko'ra) – yopilmishlar, Sanbalu Tatyir singari joy nomlari sanbulu taqdir, kel – qil, jon onsiz – jononsiz va binni so'zi ban shaklida, tuyuqlarda ishq dardini – ishqdur dini, xol – hol va kunji og'zidan birikmasi ganj og'zidan, masnu' she'rda esa mo'ltan (joy nomi, “mo'ltani” qoratanli qiz degani, she'rda yor xoli mo'ltonga o'xshatilgan)ni minon, xad (yuz, yonog') – qad shaklida xato ketganiga ham guvoh bo'ldik. Ayniqsa, g'azallar nashriga alohida diqqat qaratishimiz kerak. Negaki, bu matnni xonanda-ijrochilar ashula qilganda, mazmunini yetarlicha anglamay, xonish qilsalar, bu navbatdagi xatoning yuzaga kelishini ko'rsatadi. Masalan, mana bu bayt har ikki to'plamda ham juda qo'pol ravishda xato ketgan. Avval birinchi nashrni o'qiymiz:

*Demish meniki itim, Xayrgulpanda ko'rgumdur,  
Necha bu va'da bila, Boburo, yugurgaymen.  
Endi ikkinchi nashrdagi shu baytni o'qiylik:  
Demishmenki, yittim xayrgulshanda ko'rgumdur,  
Necha bu va'da bila Bobur evgurgaymen.*

Birinchi muqobilni o'qigan kishi “Xayrgulpanda”ni joy nomi bo'lsa kerak deb o'ylaydi. Biroq bu so'z “Boburnoma”da uchramasligini inobatga olib, ikkilanib qoladi. Keyin bu ifodaning it tilidan aytilishi shubhani battar kuchaytiradi. Ikkinchi variant ham mantiqsizlikda birinchisidan qolishmaydi. “Yittim” va “ko'rgum” sira bog'lanmaydi. “Xayrgulshanda”da ham tayinli ma'no yo'q.

Bobur she'riyatida yuz o'girish ma'nosini bildiruvchi “evgurgaymen”, “evrulasen”, “evrulub” ifodalari bor. Ammo “evgurgaymen” so'zini uchratmaymiz. Bu baytning qaddini tiklashda bizga ustoz V. Rahmonov beminnat yordam beradi:

*Demish meniki itim chargasida ko'rgumdur,  
Necha bu va'da bila, Boburo, yugurgaymen.*

Ayon bo'ladiki, shoh Boburning mahbubasi oshig'ini sinash uchun senday oshiqni “itim chargasida ko'rgumdur” deya mensimayapti ekan. Bobur esa o'z sadoqatini namoyish etish uchun ma'shuqasining iti chargasi – davrasiga borishdan zarracha or qilmaydi. Hatto ma'shuqaning iti yoniga yugurib borish istagini bildiradi. Chunki mumtoz lirikada ma'shuqani sevgan oshiq uning itiga ham iltifot ko'rsatadi. Negaki, bu iltifot ma'shuqaning o'ziga bo'lgan muhabbatning kichik bir belgisi sifatida o'quvchida juda yaxshi taassurot paydo qiladi. Ayniqsa, Bobur mirzo she'riyatida “it” vafo va sadoqat tuyg'ularini turli talqinlarda namoyish etilishi jihatdan nihoyatda go'zal tasvirlangan.

Keyingi nashrlarda bu va bu kabi xatoliklar bartaraf bo'lishiga umid qilamiz. Chunki Bobur mirzo va u singari mumtoz shoirlarning asarlarini tabdil etishda

jiddiy ehtiyotkorlik lozim bo‘ladi. Noshirning kichik bir nuqsoni badiiy asar nazokatiga soya solishdan tashqari ko‘plab kitobxonlar fikrini chalg‘itishga ham sababchi bo‘lishi mumkin.

## **MUMTOZ BADIY TAFAKKUR TARZINI SHAKLLANTIRISHDA VAHOB RAHMONNING O‘RNI**

**Maqsuda SARIBOYEVA,**  
*GulDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

Ajdodlardan o‘tib kelayotgan ma‘naviy merosni jamiyat a‘zolari, xususan, yoshlar ongiga singdirish ta‘lim-tarbiya sohasidagi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Mumtoz adabiy meros vositasida yoshlarda ma‘naviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga da‘vat etilgan ta‘lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu tizimda so‘z san‘ati, xususan, mumtoz adabiyot beqiyos imkoniyatlarga ega.

Taniqli adabiyotshunos olim Vahob Rahmonov mumtoz badiiy tafakkur tarzini shakllantirishda xizmatlari katta. Olim shunday deydi: “Olamdagi biror millat o‘zbek xalqi kabi mumtoz adabiyotdan bebahra yashamaydi. Hatto ziyolilarimiz: olimlar va filolog o‘qituvchilarning mumtoz adabiyot o‘qiydiganlari ham bir foizga yetmaydi, deb o‘kinaman. Bu hol, mening qisqa o‘yimcha, qadriyatlarga yuz burayotgan bir davrdagi katta madaniy nuqsonimizdir. Barcha sinflarda o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rgatishga yo‘naltirilgan adabiyot darsi bo‘lmog‘i kerak. Eski o‘zbek tilini o‘quvchi o‘rgansa: tilimiz boyligi Navoiy tilidan ham boyroq bir adabiy tilga aylanadiki, millat qoni va joni uning tili, adabiyotidadir [4].

Avvalo, shuni ta‘kidlash lozimki, V.Rahmon tinimsiz ijodiy izlanishlar qilib kelayotgan yirik tadqiqodchilar sirasiga kiradi.

Mumtoz adabiyot namunalarni tushunish va tushuntirishdagi murakkablik, asarlarning lug‘aviy tarkibidagi qiyinchilikda ko‘rinadi. Haqiqatan, mumtoz asarlarda arxaik va o‘zlashgan so‘zlar ko‘p qo‘llangan. Olinma so‘zlarning aksariyati arab va fors tillariga tegishli bo‘lib, ularning lug‘aviy hamda matniy (kontekstaul) ma‘nosini aniqlash lozim bo‘ladi. “Agar tojikcha so‘zlar o‘zbek tiliga so‘zlashuv tili orqali, adabiyot orqali va boshqa yo‘llar bilan kirgan bo‘lsa, arab so‘zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din orqali... kirgan.

Mumtoz she‘rda badiiyat ilmi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan badiiy tasvir vositalari – she‘riy san‘atlar o‘rganilgan [5]. Ilmi badi‘ bo‘yicha qator maxsus asarlar ham yaratilgan [2]. Ularda har bir tasvir vositasining mazmuni, mohiyati mualliflarning iqtidoriga yarasha ochib berilgan. Ta‘limning barcha bosqichlarida she‘riy san‘atlarni o‘qitish bilan bog‘liq katta bir qusur bor: o‘quvchi, talabalarga eng asosiy, ko‘p qo‘llanadigan badiiy vositalar haqida tushuncha beriladi-da, har birining hozirgacha shakllangan ta‘rif-qoidalari yozdiriladi, ular o‘rgatib bo‘lingach, doimo she‘r badiiyati deyilganda faqat shu

san'atlarni topish bilan kifoyalanadilar. Olim aytilganidek, ularning nimasi san'at, shoirning mahorati nimada namoyon bo'lgan kabi anglanishi kerak bo'lgan haqiqatlarni o'quvchilar bilishmaydi. Tushuntirishdagi sxolastika so'z san'atidagi jozibali va qiziqarli bo'lgan badiiyat ilmining o'quvchilar ko'z oldida bir qadar nursizlanishiga sabab bo'lmoqda. Faktbozlikka berilish nafaqat o'qituvchilar, balki she'riy san'atlar haqida risola, qo'llanma, maqolalar yozadigan olimlarda ham kuzatiladi. Bu esa ayrim hollarda mutaxassislarining haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda [2, 92-95]. She'riy san'atlar asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qilishi kerak. Buning uchun esa ularni o'qitishda yangicha yondashuv, o'zgacha usul va shakllarga murojaat qilish kerak. Kuzatishlardan shu narsa oydinlashmoqdaki, she'riy san'atlar o'quvchilar o'zlashtirgan til birliklari, kundalik hayotda uchraydigan yaqin va tanish tushunchalar orqali singdirilsa, mashg'ulotlar jonli kechadi. Bolalar so'zning matnda bajaradigan estetik vazifasini his etadilar.

Adabiyotshunos olim V.Rahmon mustaqillikdan keyin yaratilgan ayrim adabiyotlardagi eskicha qarashlar va munosabatlarga xususan, mumtoz adabiyotni o'qitilishida salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Mumtoz adabiyotni o'rgatishdagi keyingi murakkablik tasavvuf ta'limotining mumtoz asarlar poetikasiga ta'siri masalalari bo'yicha o'qituvchilar bilimining yetarli emasligidadir. Tasavvuf bizda nisbatan keyinroq o'rganishga kirishilgan ilm bo'lib, unga bo'lgan munosabat, qarashlar endigina shakllanmoqda. U haqida yetarli tasavvur va to'xtamga kelish uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerak.

V.Rahmon o'z ma'ruzalarida metodist olim kabi adabiyot o'qituvchilari mumtoz adabiyot namunalarini tushunishga qiynalishlari yoki aksariyat hollarda undan ma'no chiqara olmasliklarini kuyinib gapiradi: "Darsliklarda berilgan asar sharhlarini o'qib yoki aytib berish, o'quvchilardan ham aynan shularni takrorlashni talab qilish adabiyot darslarining saviyasi past bo'lishiga sabab bo'ladi. Qanchalik achchiq bo'lmasin, ko'pchilik adabiyot darslari shu ahvolda ekanligini tan olishga to'g'ri keladi".

Davlat ta'lim standartni va o'rta ta'limga doir adabiyot dasturlarida o'quvchilarning nazariy bilimlariga katta ahamiyat berilgan. Buning ijrosi amaldagi maktab darsliklarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Davlat test axborotnomalarida badiiy san'atlarga keng o'rin ajratilgan. Ana shu ta'limiy ehtiyojlar va abiturintlarning shunday nazariy bilimlarga chanqoqligi badiiy san'atlar – she'r san'atlariga doir bir yangi metodik qo'llanmaning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Olimning "She'r san'atlari" [5], "Badiiy san'atlar" [1] nomli risolalari o'qituvchilar uchun asosiy qo'llanma bo'ldi.

Endi qo'limizdagi risolaning [1] "Laf va nashr" haqidagi ma'lumotlarini qiyosan keltiramiz:

Qoshing, irning, yuzing ey rashki rizvon,  
Hilolu kavсарu bog'i jinondur.

Birinchi misradagi qosh, irn (lab) va yuz so'zlariga ikkinchi misrada hilol (yangi oy), kavсар va jannat bo'g'i o'xshatishlari keltirildi.

Ikkinchi xilida: birinchi misrada bir necha narsa - predmetlar tiziladi-da, ikkinchi misrada shularning har biriga xos xususiyatlar yoki xatti-harakatlar aytiladi:

Qilichu nayzayu gurzisi bilan

Chopdiyu, sanchdiyu yanchdi beomon.

Qilich - chopdi, nayza - sanchdi, gurzi - yanchdi.

Laf va nashrlardagi o'xshatishlar yoki xususiyatlar ostin va ustin holatdagi tartibga mos kelsa murattab laf va nashr deyiladi. Mana bunga bir misol:

O'g'ziyu ikki zulfu qadi bo'lmasa manga,

Rayhonu sarvu g'uncha ko'rardin maloldur.

O'g'iz-g'uncha, zulf-rayhon, qad-sarv. Ko'rinyapdiki, bunda ular aralashdirlar. Risola mualliflari san'atlarning idrokini osonlashtirish uchun matbaa imkoniyatlaridan yaxshi foydalanishgan: baytdagi muayyan she'r san'ati ko'rsatkichlarini to'q qora harflarda maxsus ajratilib ko'rsatilgani nur ustiga nur bo'lgan.

Ushbu risolani abituriyent qo'lga olsa, avvalo risoladagi misollarning boshdan-oxirigacha mualliflarini topib chiqish bilan shug'ullanib ko'radi va o'zini yaxshi sinovdan o'tkazadi. Qolaversa, test topshiriqlarida badiiy san'atlar qatnashgan baytlar ko'p bo'lib, bir munchasi aniqki, risolada ko'rsatib berilgan. Shu ma'noda ushbu risola barcha abituriyentlar uchun suv va havoday zarurdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Vahob Rahmonov mumtoz namunalarni o'qitishda har bir adabiy tur, janrni tahlil qilish bosqichlari, yo'riqlariga amal qilish muhim sanalishini ta'kidlashdan charchamaydi. Mumtoz so'z jozibasini his etadigan, mutolaani o'zining hayotiy ehtiyojiga aylantirgan, adabiyotni olam va odamni tushunish vositasi deb biladigan yuksak ma'naviyatli adabiyotshunos olim V.Rahmon bu yil 82 yoshni qarshilabdi.

V.Rahmon "charchadim" degan so'zni ishlatishni xush ko'rmaydi. Shogirdlar bilan suhbatlar chog'ida, hamisha o'zining qilgan, qilayotgan va qilishi kerak bo'lgan ishlari haqida to'lib-toshib, ba'zan hayajon bilan gapiradi. Lekin biror marta shu jarayonda "charchadim" degan so'zni ishlatganini eshitgan emasmiz. Ilohim, hamisha shunday bo'lsin.

V.Rahmonov fan fidoyisi, millatimizning jonkuyar, fidokor insonlaridan biridir. Ta'lim tizimida mumtoz adabiyot o'qitishda maqsadga yetishning bosh omili o'quvchilarda mumtoz badiiy tafakkur tarzini shakllantirishdir. Shu ma'noda mumtoz badiiy tafakkur tarzini shakllantirishda matnshunos olim Vahob Rahmonning o'rni beqiyos kattadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Asallayev A. V.Rahmonov, Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. – T.: Tafakkur. 2015. – 24-b.
2. Mamajonov Z. She'riy san'at haqida ayrim mulohazalar. //Til va adabiyot ta'limi. –2007. – № 2. – B. 92–95.
3. Kattabekov A., Rahmonov V. O'zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik majmua. – T.: O'qituvchi, 1997. – 272-b.

4. Vahob Rahmonov: Millat qoni va joni, uning tili, adabiyotdadir. (Adabiyotshunos olim V.Rahmon bilan ikki suhbat) / “Ma’rifat”, 2003- yil, 25-iyun.
5. Vahob Rahmonov. Шеър санъатлари. – Т.: Yozuvchi. 2001. – 72-b.

## MATNSHUNOSLIK ILMINING ZAHMATKASH JONKUYARI

*Gulchehra QO‘YLIYEVA,  
GulDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti*

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida mumtoz adabiyotimizning haqiqiy fidoiy, jonkuyar himoyachisi, ma’rifat ziyosini tarqatuvchi zukko matnshunos, kamtarin ustoz Vahob Rahmonov bir necha-yillardan buyon samarali mehnat qilib keladi. Ustoz mumtoz adabiyotimizda yashab o‘tgan juda ko‘plab shoirlar asarlaridagi biz bilmagan, hatto xayolimizga kelmagan matndagi xato va nuqsonlarni darrov aniqlaydi, ilg‘ab oladi. Matnda yo‘l qo‘yilgan xatoni ichki sezim va zukkolik bilan izlab topishda, uni to‘g‘irlashga bilimi va ko‘z nurini sarflab kelayotgan, talabalarga ham matnshunoslik sirlarini o‘rgatayotgan zahmatkash olim. Olimning boshqa olimlardan farqli tomoni jihati matnni shunchaki o‘qiyolmasligida, ko‘zi o‘tkirligida, matnga tanqidiy yondosha olishida va yiqqan bilimlari va tajribasi mahsuli – g‘azallar tahlili, matnlar tabdillari tezda matbuot yuzini ko‘radi va ommalashib ketishida deb bilamiz. Mumtoz adabiyotning sofligi uchun kurashuvchi domla mumtoz ijodkorlar asarlarida matniy xatolik o‘tkazib tahlil qilganlarni matnshunos olim bo‘lishidan qat’iy nazar nuqsonni ayamay topib aytishga qodir inson. Bu borada ustoz juda qattiqqo‘l va buni takrorlashdan charchamaydi: “Jiddiy matniy xatolar, birinchi navbatda, matnchi aybi bilan matn buzilsa; obrazga shikast yetsa; nashr ma’naviy dunyosi poymol etilsa, ya’ni shoirning g‘oyaviy-estetik qarashi buzib ko‘rsatilsa...o‘shanda ro‘y beradi”. Vahob Rahmon “Mumtoz so‘z sehri”. [1, 249-b.]

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqdi ul Sulton Husayn,  
Topping eldinkim tilarsen emdi sultondin vafo.

Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro bilan yosh bolaligidan qalin do‘st bo‘lganini barcha kitobxon aniq biladi, hatto Husayn Boyqaro qo‘l ostidagi saltanatini Alisher Navoiysiz bir muddat ham tasavvur qilolmasligini “Makorim ul – axloq“ tarixchi Xondamir ta’kidlaydi. Matnshunos olim Vahob Rahmonov kuyunib ta’kidlaganidek “...o‘zbek tilining davlat tili va adabiyot tili darajasiga yetishida Husayn Boyqaroning muhim xizmati borligini matnchi bilishi lozim. Qolaversa, “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rttala devoni Husayn Boyqaroga bag‘ishlangani, kitob muharriri ham Sulton Husayn bo‘lganligini o‘ylab ko‘rish kerak edi. Shunday mulohaza yuritilsa edi, o‘shanday ehtiyotsiz fikrlar Navoiyga nisbat berilmagan bo‘lar edi”[1, 250-b.]

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqdi ul sultoni husn,  
Topping eldinkim tilarsen emdi sultondin vafo.



Baytdagi “sultoni husn” soʻzini “Sulton Husayn” deb oʻqiganligini sezadi: “Husayn Boyqaroni tanqid qilmagan... arab yozuvida hozirgi yozuvimizdagidek bosh va kichik harflar yoq. Arab yozuvining xususiyati – matnni maʼno mazmuniga qarab oʻqib borishdir... “Sultoni husn” va “Sulton Husayn” yozuvda shaklan oʻxshaydi. Faqat bir muhim tafovut “husn” va “Husayn” soʻzlarini “yo” harfiga qarab farqlashdadir. Noshir “husn”ni “Husayn” tarzida oʻqish mumkin emasligi, soʻzda “yo” (y)ni ifodalovchi ostki ikki nuqta yoʻqligi bilan hisoblashmagan”. [1, 250-b.] Bunday xato va kamchiliklar topilgan va tuzatishlar berilgan ilmiy- tanqidiy maqolalar domlada istaganingizdan ziyod. Ustozning tanqididan toʻgʻri xulosa chiqarish yo chiqarmaslik matnshunosning oʻziga havola, albatta. Xalqimiz “Vaʼdaga vafolik – mardning ishi, vaʼdaga bevafoqlik-nomardning ishi” degan naqlni bejiz aytmagan. Filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat hodimi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, dotsent Vahob Rahmonov oʻz oldiga: “Umrin yetguncha Alisher Navoiy asarlarini oʻquvchilar va kitobxonlar tushunadigan darajada tahrir qilishini maqsad qilganman”, qoʻygan vaʼdasiga bugungi kungacha sobit turgani va bu yoʻlda tinim bilmayotganini hech kim inkor eta olmaydi.

Vahob Rahmonov matn ustida izlanishlarga juda jiddiy qarab, mumtoz asarlar mazmunining sofligi uchun biz oʻqigan uzoq 1987-yillarda har bir talabaga arabiy-forsiy soʻzlar lugʻatini kartochkalarga 200 tadan qilib yozib, yoddan aytib berishga odatlantirgan edi. Talabalar kartochkalarni 2000-2500 tadan oshirar edi. Mumtoz adabiyotdan, masalan, Lutfiy ijodini oʻtadigan boʻlsak, uning (“Sensan sevarim”) devonidagi barcha lugʻatdagi soʻzlarni yodlab topshirar edik. Biz talabalarni qancha lugʻat-soʻz yodlaganimizga qarab baholar edilar. Bu talabni ustoz shu kunlarda ham talabalarga qoʻllamoqda. Bu haqida domla hozirgi kunda buning oson yoʻllari koʻpayganligini – matndagi soʻzni oʻqish va asl mazmunini bilishga koʻp vaqt ketmasligi, “Alisher Navoiy asarlari lugʻati”ni ikki yoki uch qayta oʻqib chiqish va qoʻshimcha tarzda ichki topqirlik va zukkolik yordamiga suyanish kerakligini koʻp takrorlaydilar. Bu lugʻat yodlash odati kelajakda oʻz mevasini bermasdan qolmasligiga ishonamiz. Shu oʻrinda barcha sobiq talabalar ustozdan minnatdorligini, oʻqituvchilik faoliyati davomida yodlagan lugʻat-soʻzlari hozirgacha asqatib kelayotganligini takrorlashadi.

Ustoz shogirdlarga har bir soʻz mazmunini ochish bobidagi baʼzi izlanishlari uzoq yillarga borib taqalgani va kutilmagan bir kunda uning asl mazmunini bilib qolgan holatlari ham boʻlgan ekan. Bobur mirzo ijodidagi quyidagi bayt tarixi haqida chiroyli hikoya qilib beradi:

Koʻk vusmada ul oy qoshi **xayoldur**,

Kim oy boshida koʻkda koʻringan **hiloldur**.

Yuqoridagi baytning birinchi qatoridagi “xayoldur” soʻzi ham asliyatdan oʻqilganda “xiloldur” tarzida oʻqilishidan domla necha yillardan buyon soʻz – maʼno-mazmuniga tushunolmay yurgani (koʻk oʻsmali goʻzalning qoshi xayoldur) va yillar oʻtib shu soʻzning maʼnosiga yetganini va baytning mukammal maʼnosi ochilganini bilamiz. 2015-yil Xalqaro Bobur ekspeditsiyasi bilan Hirotga Alisher Navoiy qabriga tosh qoʻyishga borishganlarida shu mavzuga aloqador qiziq voqea

sodir bo‘ladi. Musallo maydonida ekspeditsiya a‘zolari uchun Hayit sho‘rvasini o‘z qo‘llari bilan qaynatib, ular kelishlari bilan dasturxonga tortmoqchi bo‘lib turgan Vahob Rahmonovni haydovchi yigit kelib, tezda birga yurishlarini aytib, o‘zi bilan olib ketadi. Shu shaharda yashovchi Bahshullo hoji Zokirjon aka bilan tanishib qolib, ularning nima maqsadda kelishganidan xabar topib, ekspeditsiyaning barcha a‘zolarini xonadoniga mehmonga chaqiradi. Afg‘onistonda go‘sht juda arzon ekan, dasturxonda go‘shtdan tayyorlangan uch - to‘rt xildagi taomlar tortilgani va yeb-ichib bo‘lingach, patnida yarim oy shaklidagi kumushdan yasalgan, bejirim, tish tozalagichlar tarqatishadi. Mo‘jaz san‘at asari kabi juda bejirim, kumushdan yasalgan yarim oy shaklida va nozik zanjircha osilgan-qadama tish tozalagichning– xilol (xayol)ning ma‘nosiga yetish tarixi ana shunday voqeaga borib taqalar ekan. “Men agar Hirotda, so‘ng Baxshullo hojinikiga mehmonga bormaganimda Bobur mirzo asarlarida uchragan yumshoq h harfi bilan boshlanuvchi “hilol”ning “yangi oy” ekanligini, qattiq x bilan boshlanuvchi “xilol” so‘zining yarim oy shaklidagi “tish tozalagich” degan ma‘nosi borligini bilmay o‘tardim, buni eshitgach, baytning ma‘nosi menga ayon bo‘ldi-qoldi”, deb hikoya qilib berdi domla.

Bobur fondi qoshida faoliyat yuritayotgan Bobur nomli Xalqaro ilmiy ekspeditsiya 2009-yil oktabr-noyabr oylarida Boburiylar, Haydar mirzo Dug‘lat qadamjolari – Agra va Srinagar shaharlarida bo‘lib, ziyorat amallarini a‘lo darajada bajarib qaytganlaridan, safar taassurotlari haqida olimning suhbatlari, matbuotdagi chiqishlari orqali tanish edik. Biz bungacha Muhammad Haydar mirzoning Bobur mirzoga bo‘la (xolavachcha) ekanligi va O‘ratepa hokimi Muhammad Husayn mirzoning o‘g‘li ekanligini bilar edik, xolos. Ushbu sayohat chog‘idagi mashaqqat va qiyinchiliklar, sarguzashtlar, qadamjolarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, tomosha qilish, ziyorat qilishgani ko‘pgina insonlarning havasini keltirganligi aniq.

Ayni paytda esa Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarini o‘zbek tilida o‘qish baxtiga muyassar bo‘lib turganimizga ham o‘n ikki yildan oshdi. Tarjimonlar ta’kidlaganlaridek: “Ne baxtki, bu yumush bizning zimmamizga tushdi”. Lekin bu kamtarona gapning zamirida katta mehnat va mashaqqat yotganini asarni o‘qib chiqqandan keyingina yurakdan his qilasiz. Kitobda biz bilmagan qanchadan-qancha ma’lumotlar borki, uni o‘qigan odam xuddi o‘zga olamga tushib qolganday sehrlanib, qiziqib o‘qiydi. Asardagi tabiat tasvirlari, tarixiy shaxslarga berilgan ta’rif-u tavsiflar, shahar va qishloqlar, joylar, el va elatlarning kelib chiqishi, diniy qarashlar va urf-odatlar o‘quvchini o‘ziga rom etadi, oddiy va ravon tarjima esa asarning o‘qimishliligini oshiradi. Bundan tashqari, kitobning birinchi sahifasida Mirzo Haydarning surati, temuriy sultonlari, mo‘g‘ul sultonlari, boburiylar, o‘zbek-qipchoq sultonlari suratlari va qator miniaturalar joy olganki, bu ham kitobga o‘zgacha zeb berish bilan birga kitobxonlarga zavq beradi.

Ushbu asar tarjimasini buyurtmachisi – Bobur nomli Xalqaro ekspeditsiya rahbari Zokirjon Mashrabov: “Ushbu o‘zbekcha tarjima “Tarixi Rashidiy” tarjimalarining eng mukammali va o‘qimishlisi bo‘lsa edi”, deb istak bildirgan, yelib-yugurar ekanlar. “Shuning uchun bu asarni ilmiy tarjimadan ko‘ra, badiiy

tarjima bo‘lib shakllanishi uchun ko‘proq harakat qildik. Mukammallik uchun, bir necha nusxalardan foydalandik. O‘qimishlilik saviyasini o‘ylab, she’rlar mazmunini berish bilan cheklanmay, ularning she’riy tarjimasini yaratishga urindik”, deb izohlashadi mutarjimlarimiz. Tarixiy asardagi she’riy parchalar tarjimasida Yanglish Egamova shunday deydi: “Tarixi Rashidiy” asarida nasr oralig‘ida go‘zal nazm namunalarini ham keltirilgan. Ruscha nashrda she’rlarning ma’no tarjimasini berilgan, xolos. Biz birinchi marta ushbu nazm namunalarini badiiy tarjima qilishga urindik. Bu ishni Vahob Rahmonov baholi qudrat amalga oshirdilar... Eng oxirida qo‘lyozma Harvard universiteti professori Viler Makentosh Tekstonning ilmiy – tanqidiy matni hamda Tehron nasrlariga mufassal qiyoslab chiqildi. Kitobning ikkita turkiy va bitta ruscha nashrlari ham diqqat markazimizda bo‘ldi. Qiyoslash natijasida ko‘plab matniy xatolar yuzaga chiqdi. Birgina misol: biz ko‘zdan kechirgan nashrlarda Humoyun mirzoning piri Shayx Pul deya bitilgan ekan. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida ul zotning nomi shayx Bahlul deb ko‘rsatilgan. Biz tarjima jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatishga muvaffaq bo‘ldik. Shu kabi zahmatli mehnatlarni hisobga olib “Tarixi Rashidiy” asari asliyatdan, yani fors tilidan mukammal darajada tarjima qilindi deya bemalol ayta olamiz”. [2. 146; 151-b.]

Asar yana shunisi bilan qiziqarliki, ushbu asar “Boburnoma”da qayd etilmagan 11 yillik voqealarni to‘ldirib berishi bilan yuksak qadrlanadi. Asarda bizni qiziqtirgan va bizga noaniq bo‘lgan shaharlar, hududlar haqida qiziqarli ma’lumotlar ko‘p. Eng avvalo, Mo‘g‘uliston deganda qayerni tushunamiz degan savolga javob topamiz. “Mo‘g‘ulistonning (Mongoliya emas) chegaralarini belgilab bergan: Shinjon avtonom rayoni yerlari, Qozog‘istonning katta qismi, butun Oltoy o‘lkasi, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston yerlari edi”, deyiladi asarda.

Shuningdek, asarda kitobxonlarga tarbiyaviy jihatdan kuchli ta’sir qiluvchi voqea-hodisalar juda ko‘p. Masalan: Saidiya davlatining asoschisi, muallif murabbiysining fazilatlarini barcha podshohlarga o‘rnak bo‘lgulik. Masalan: “Uning xayrli ishlarida ko‘z ilg‘ash mumkin bo‘lgan kamchilik yo‘q edi. G‘oyatda iltifotli, xushsuhbat edi, o‘zbekcha gapiradimi, forscha gapiradimi, behad chiroyli so‘zlar edi. Biror odamga murojaat qilmoqchi bo‘lsa, oldin jilmayardi. U hamisha quvnoq, mehribon va bag‘rikeng edi. Masalan, allaqanday Maqsud Ali degan odam jang paytida uning chap yelkasidan o‘q otib yarador qilgan, xon ikki-yil azob chekib, halokatga yaqin qolgan. Shunda xon to‘shakda yotganida o‘sha Maqsud Alini tutib, xon undan o‘ch olsin, deya oldiga olib kelishadi. Xon bo‘lsa uni siylab, to‘nini unga sovg‘a qiladi, xolbuki, o‘zining bundan boshqa to‘ni yo‘q edi, o‘z suhbatiga uni muyassar qiladi. “Zerikib o‘tirgan edim, kelganing yaxshi bo‘ldi”, deydi xon. Xushmuomalali bo‘lish, inson bir-biri bilan uchrashganda tabassum hadya qilish kabi hozirda noyob bo‘lib borayotgan ko‘plab xislatlar asarda keragicha topiladi.

Yana Sulton Saidxon ta’rifida o‘rnak olarliki xususiyatlar talaygina: “Nastaliq xatida juda chiroyli yozardi, imlosi forsiyda ham, turkiyda ham, arabiyda ham bekamu ko‘st edi”. U turkiyda chiroyli qilib insho tuzishda benazir edi,

bunaqasi ko‘plab bilimdonlar qo‘lidan kelmasdi. Uningdek she‘r bitish mahoratiga ega odamlarni kam ko‘rganman. U o‘ylab o‘tirmasdan badiha she‘r aytardi, yig‘inlar va suhbatlar paytida oldidagi qanday devonni ochmasin, o‘sha she‘rlarning istalgan vazni va qofiyasiga moslab birdaniga she‘r to‘qib tashlar edi. Xon aytgan she‘rni bir-ikki marta o‘qirdi, shu jarayonda uni eslab qolardi va bironing uni yozib olishiga yo‘l qo‘ymasdi...” tarzidagi juda maroqli hikoyatlarni o‘qib, bahra olishingiz mumkin:

Qaysi gulshanning yuzidek bir guli ra‘nosi bor,  
Qaysi gulning bir maningdek bulbuli shaydosi bor.  
Hur birlan jannatul-ma‘voni ko‘nglum naylasin,  
Yorning kuyida yuz ming jannat ul-ma‘vosi bor.  
Yuzi uzra kokilu, zulfin parishon ko‘rgali  
Ey Said, oshufta ko‘nglimning ajab savdosi bor.

Asar muallifi – Mirzo Haydar Sulton Saidxon qo‘lida lashkarboshi, ishongan odami sanalgan. Asarda Boburiylar hayotiga oid tarixiy ma‘lumotlarga ham juda ko‘p joy ajratilgan. Bobur mirzoning ukalari, o‘g‘illari bobida ham maroqli hikoyalar berilgan. Bu ma‘lumotlar Boburning “Boburnoma” asarida uchramasligi, lekin uni to‘dirishi bilan ham qimmatli hisoblanadi.

Badaxshonda ish yuritayotgan Mirzoxonga Qobuldagi xolavachchasi Bobur mirzodan xat boradi va unda Mirzo Haydar hayoti haqida qayg‘urib, Badaxshon shayboniylar davlatiga chegaradoshligini, uning xavfsizligini ta‘minlash maqsadida o‘z oldiga chaqirib oladi: “Shunday qilib Qobulda ancha vaqt podshoh (Bobur mirzo) xizmatida dorilomonlikda kun kechirdim. U mudom mehribonlik bilan boshimni silab, goh iltifot bilan, goh qat‘iy amr bilan meni ilm egallashga undardi. Agar ozgina bilim egallaganimni sezsa, u yana iltifotliroq bo‘lib, hammaga bu haqida gapiar va meni ruhlantirishlarini talab qilardi. O‘sha paytlarda u menga shunday mehr-muhabbat va rahm-shavqat ko‘rsatdiki, faqat mushfiq otanalargina o‘z farzandlariga shunday muomalada bo‘lishlari mumkin. Podshoxning mehribonliklari tufayli hech qachonj g‘am-g‘ussa-yu, baxtsizliklarga to‘la kunlardan iborat bo‘lgan davrni esga olmadim”. Qarindoshchilik bobida bir-biriga bo‘lgan kengfe‘llilik, iltifotlilik, mehribonliklar qilish har qanday odamning ham qo‘lidan kelmasligi barchaga ma‘lum. Bobur mirzoning xeshlariga ko‘rsatgan bunday g‘amxo‘rliги tahsinga sazovor. “Boburnoma” asardagi ba‘zi ma‘lumotlar u asarda ham uchraydi, lekin, “Tarixi Rashidiy” “Boburnoma”ni to‘ldirsa-to‘ldiradiki, aslo takrorlamaydi. Bobur podshoh Samarqandni tashlab ketar chog‘ida opasi Xonzodabegimni Shohibekxon (Shayboniyxon) xaramida qoldiradi. Bu orada Shohibekxondan Xurramshoh ismli o‘g‘il dunyoga keladi, lekin Shohibekxon Xonzodabegim uni zaharlab qo‘yishidan qo‘rqib, uni taloq qilib saidlar avlodidan Said Xodiga berib yuboradi, Said Xodi jangda o‘lgach, Xonzodabegim turkmanlarga asir tushib, ukasi Bobur mirzo oldiga borganligi haqidagi juda qiziqarli ma‘lumotlar bilan tanishamiz. Bundan tashqari, nafaqat Bobur mirzo va opasi haqida balki, taxt vorisi - “Humoyun oliy martabali, mislsiz haybat va salobatga ega hukmdor edi: ...O‘shanda o‘n yetti ming mulozim xizmatida bo‘lganini ko‘rganman. Uning nechog‘lik ulug‘vorligini shunga

qiyoslab ham bilsa bo‘ladi”, – deyiladi asarda. Humoyun mirzo va uning Hindistondagi shon-shavkatli hayoti haqidagi qimmatli ma‘lumotlarni shu asardan olamiz, u ham otasi Bobur mirzo kabi qarindoshlikda sahiy va keng fe‘llikni otasi Bobur mirzodan olganiga guvoh bo‘lamiz: Mirzo Haydar Humoyun mirzo ijozati bilan Hindistonning jannati – Kashmir o‘lkasini 947-yil (1540-yil, 22-noyabr) egallaydi va u yerda 11-yil hukmronlik qiladi. [3. 666-b.]

“Ushbu asarda Muhammad Haydar mirzo hayotining so‘nggi o‘n-yili haqida (1541-1551) hech qanday ma‘lumot keltirilmagan. ...Ana shu kemptikni to‘ldirish maqsadida Bobur jamoat fondi Kashmirda ilmiy ekspeditsiya uyushtirib, Haydar mirzo... haqida yangi malumotlar to‘plab qaytdi. Ekspeditsiya Haydar mirzoning qabrini topib, (uni ziyorat qilishda shaxsan Vahob Ramonov domlaning o‘zi ham qatnashgan). Ul zot Kashmir muzofotida hukmronlik qilgan yillarida ilm-ma‘rifat, adabiyot, me‘morchilikni rivojlantirish yo‘lida ko‘p va xo‘p chora-tadbirlarniamalga oshirganligi, ko‘plab bog‘lar barpo etganligi, bir-biridan chiroyli imoratlar tiklaganligi, shol ro‘mol ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganligi... haqidagi ma‘lumonlarni to‘plab qaytishdi...”. [2. 146-151-b.]

Tarixni bezagan turkiylarning ulug‘lari haqida, ularning ibratli hayot yo‘lini o‘rganish va yoyish eng savobli ish. Mustaqilligimiz sharofati bois o‘zga yurtlarda hukmronlik qilgan avlodlari izini izlab, ular haqidagi xotiralarni, qadamjolarini tiklash respublikamizda keng yo‘lga qo‘yilganligi kishini quvontiradi. Bu o‘rinda ustozlar Vahob Rahmonov va u kishining umr yo‘ldoshi Yanglish Egamova (marhuma) savobli ishni a‘lo darajada uddalay olishdi. Ustoz Vahob Rahmonov domlamizning matnshunoslik va ustozlik borasida olib borayotgan izlanishlari yo‘lida sog‘lik-omonlik va uzoq umr tilaymiz.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Vahob Rahmon. Mumtoz so‘z sehri. “O‘zbekiston” NMIU, – T. ; 2015. -249; 250-betlar.
2. Yanglish Egamova. Muhabbat farzandi. Sharqu g‘arb jozibasi. – T.: Akademnashr, 2016. 146-151-betlar.
3. Muhammad Haydar mirzo. Tarixi Rashidiy. “Sharq” NMAK bosh tahririyati, – T.: 2010. 666-bet.

### **VAHOB RAHMON FENOMENI**

*Nabijon SOLIYEV,  
filologiya fanlari nomzodi*

Taxminan 2002-yillar edi chamasi, O‘zAS da matnshunos olim Vahob Rahmonning “Ehtiyot bo‘ling, qalb san‘ati” nomli maqolasi e‘lon qilindi. Unda muallif o‘rta maktablar uchun nashr etilgan adabiyot darsliklarida tez-tez uchrab turadigan matniy xatolar haqida fikr yuritib, bunday xatolar mashhur shoir Turdi Farog‘iy misralarida ham mavjudligini aytib o‘tgandi. O‘shanda darslik mualliflaridan bo‘lgan professor Nusratulla Jumaxo‘ja mazkur maqolaga “Nuktadonlik – nuqtadonlik emas!” (O‘z AS, 2002, 25-sentabr) nomli javob maqolasini e‘lon qilgan edi.

Kechagidek yodimda, ushbu bahs gazetxonlarda katta qiziqish uygʻotgan, adabiyot muxlislarining badiiy sanʼatlarga boʻlgan qiziqishlarini bir necha bor orttirib yuborgandi. Shundan boshlab, qayerda Vahob Rahmon nomi uchrasa, ularni diqqat bilan mutolaa qiladigan, munaqqid tanqid tigʻi ostiga olgan nuqsonlar qandayu, mazmun aslida qanday boʻlishi kerakligi haqida mulohaza yuritadigan boʻldim.

2016-yilda yana shu haftanoma sahifalarida taniqli noshir Ahror Ahmedovning “Vahob Rahmon dunyosi” maqolasi bosildi. “Nafis majlislar” rukni ostida chop etilgan bu chiqishida noshir birinchi marta munaqqid ilmiy izlanishlariga jiddiy toʻxtalib, ularning boshqa adabiyotshunoslarda uchramaydigan jihatlari maxsus toʻxtalgan edi. “Adabiyot olamida, ayniqsa, mumtoz adabiyot, matnshunoslikda Vahob Rahmonni tanimagan odam yoʻq, - deb yozgan edi noshir. – Bir toifasi xush koʻrar, xush koʻrmasa ham ichidv toan olar. Uning katta bir toifasi otgani oʻqi yoʻqlardan. Noshirlar orasida ham shunday – yarmi nomini eshita, labiga uchuq toshadi, oʻzini panaga oladi, yarmi unga peshvoz chiqqani shoshiladi. Mumtoz adabiyotda, ayniqsa, matnshunoslikda unga yetadigani kam. Shu tufayli yoru birodarlari orasida eʼtibor topdi. Hamma tan oldi”.

Ana shundan soʻng men Vahob Rahmon eʼlon qilgan maqolalarni va turgan gapki, katta qiziqish bilan uning oʻzini ham izlashga tushdim. Izlagan topadi, deganlaridek, koʻp oʻtmasdan uni topdim va suhbatlariga musharraf boʻldim. U bilan birga, turli yigʻilish va uchrashuvlarga boradigan, adabiy suhbatlarida ishtirok etadigan boʻldim. Shunda bildimki, olim nihoyatda kamtar-kamsuqum, oʻz qadr-qimmatini yaxshi biladigan insonlardan ekan. Taklif qilinmagan joyga bormaydigan, nomaqbul davraga tushib qolsa, imkoni topildi deguncha u yerdan asta chiqib ketish tadorikini koʻradigan, lekin soʻz va adabiyot qadrini hurmat qiladigan tinglovchilarga duch kelib qolsa, oʻzidagi bor bilimini toʻkib solishga tayyor bir fidoyi shaxs. Olimning nutqi ham oʻziga xos. Qayerda, qanday davrada soʻz boshlamasin, oʻta odob-andisha bilan soʻzlaydigan, xolisligi va mumtoz adabiyot vakillariga beqiyos ehtiromi tufayli anjuman qatnashchilari diqqatini oʻziga tortib oladigan Vahob Rahmon fazilatlarini ozmuncha emas. Biroq tabiatiga koʻra, maqtovlarga xushi yoʻq.

Har holda, u bilan suhbatlashar ekansiz, bir savolga javob topingiz kelaveradi: - olimni bu yuksak martabaga koʻtargan yoki olib chiqqan asosiy fazilati nimada? Sezib turganingizdek, mazkur savolga osongina javob berib boʻlmaydi. Soʻz sanʼatiga chuqur eʼtiqodimi? Adabiyot olamini teran idroq etish va his qilishga boʻlgan ehtiyojimi? Ilmda rost soʻz zaruratini boshqalarga ham anglatishga boʻlgan urinishimi? Minglab nusxalarda chop etilayotgan mumtoz nashrlarni bexatoyu benuqson, har qanday sahv va kamchiliklardan holi boʻlgan muzayyan bir suvratlarda koʻrishga boʻlgan ishtiyoqimi? Ehtimol, bularning hammasi hamdir?

Uning “Mumtoz soʻz sehri” kitobini varaqlar ekanman, yuqoridagi qaysar savollarga bir qadar javob topganday boʻldim. Kitob oʻqish tobora murakkablashib borayotgan bir zamonda matn ustida ishlash, toʻgʻrini notoʻgʻrilar uyumi orasidan

topish va tom ma'nosini izohlash hamda ijodkor nazarda tutgan yagona mantiqiy ma'noni ko'rsatib berish uchun o'quv va uquvning o'zi kamlik qiladi. Bundan xususiyatga ega bo'lish uchun minglab forsiy va arxaik turkiy so'zlar ma'nolarini ajrata olish, unutilib borayotgan tarixiy uslublardan xabardorlik ham lozim bo'ladi nazarimda.

Xotira-chi, xotira? Agar xotira mustahkamligi bo'lmasa, ish yana chatoq. Negaki, tadqiqotchi lug'atlar bilan ishlashning hadisini harchand puxta egallagan bo'lmasin, baribir xotirasiga suyanmasdan iloji yo'q. Bu jihatdan ham, taqdir Vahob Rahmonni siylagan: uning quvvai hofizasi tahsinga arzigulik, minglab misralarni yoddan biladi, davralarga bir uyum shpargalka ko'tarib kirib borishni o'ziga ep ko'rmaydi. Bu xususiyati ayniqsa bir vaziyatda yaqqol ko'zga tashlanib qoladi: boshidan o'tganlarini hikoya qilishga tushganida, mamlakatimizda nom taratgan buyuk davlat arboblari, mashhur adabiyotshunoslar bilan sodir bo'lgan keskin bahs va tortishuvlar haqida so'zlaganda. Fursati kelganda, bu qimmatli xotiralarni to'plab, xronologik tartib berib, mo'jaz bir kitobcha holiga keltirilsa, bo'lajak tadqiqotchi va matnshunoslar uchun g'oyat foydali risola bo'lur edi.

O'z vaqtida, uning tanqidiy chiqishlarini diqqat bilan kuzatib borgan hamda olimning jur'at va jasoratiga mehri uyg'ongan hassos adabiyotshunos Botirxon Akramov o'zaro uchrashuvlardan birida Vahob Rahmonga: – Siz musallamsiz, Vahobjon, musallamsiz! – deb xitob qilgan ekan. “Musallam” – Vahob Rahmonning o'zi nashr etirgan “Mumtoz asarlar lug'ati” (– T., Akademya nashr, 2019)da “tan bermoq, ma'qullamoq, qoyil qolmoq” deb izohlangan. Madhiyabozlikni yoqtirmagan xushta'b munaqqid Botirxon ustozning maqtoviga sazovor bo'lgan Vahob Rahmon ijodi, ibratli hayoti alohida tadqiqotlarga loyiqdir.

## NUKTADON

*Muhammadali AHMAD,  
Sirdaryo “Oltin qalam”i sohibi*

Insonni yaxshiroq anglash uchun u bilan suhbatdosh bo'lmoq joiz. Vahob Rahmonni dastlab turli anjumanlardagi chiqishlari orqali taniganman. Ul zot nuktadonligi bilan har gal davra ahlini o'ziga sehrlab olganiga shohidman. Borabora bu tanishlik birodarlikka aylandi.

Vahob aka bilan kitob almashib turardik. Kunlardan bir kuni u kishi mendan Navoiy asarlari mukammal to'plamining to'qqizinchi tomini (“Layli va Majnun” dostoni) istab oldilar. Ancha vaqt o'tgandan keyin men omonatimni so'roqladim. “Kitobingizni kimdir olib ketibdi, o'rniga o'zimmikini beraman”, deb qoldilar. Uyga kelib kitobni ochib qaragam, hamma beti “lolazor”. Kitob sahifalariga yozgan odamni jinim suymaydi. Domlaga e'tirozimni aytganimda uzr so'radilar. U kishi mumtoz adabiyot namunalarini xarid qilganda bir necha nusxadan olarkan. Birida sahva so'zlarni kitobning o'zida tuzatarkan. Kitobdagi tuzatishlarni ko'rib, uni o'qish uchun qo'lga olgan kitobxonning sabriga to'zim tiladim. Shu-shu domlaning nufuzli gazeta va jurnallarda mumtoz adabiyotimiz namunalarining

yuzlab xatolar bilan chop etilayotganini yozg'irib yozgan maqolalarini mukka tushib o'qiydigan bo'ldim. O'ziga xos adabiy jasorat har gal meni hayronu lol qoldirardi.

Akademik Alibek Rustamov "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida matnshunoslik muammolariga bag'ishlab yozgan bir maqolasida: "O'zbekistonda matnshunos mutaxassis yo'q, bundan Vahob Rahmonov mustasno", deb yozganida o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi hayratdan bir qalqib tushgan bo'lsa ajablanmayman. Taniqli olimning bu e'tirofi zamirida cho'ng ma'no bor edi. Vahob Rahmonni ilmiy davralarda garchand bade'shunos (poetika mutaxassisi), navoiyshunos, boburshunos, tarjimon, lug'atshunos siymosida tanishsa-da, asosan matnshunos sifatida ta'zim bajo keltirishadi.

Vahob akani tanibmanki, kaminaga bu inson komillik timsoli bo'lib tuyulaveradi. Bunda mumtoz adabiyotimizning roli beqiyosligi shak-shubhasizdir. Buyuklarimizning yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan asarlarini o'qish, o'rganish, tahlil qilish asno olimda komillik xislatlari jamlanib borgan bo'lsa ne ajab! Boshidan o'zbaki do'ppi tushmaydigan, bir marta suhbatini olgan kishi yana uchrashib, gurunqlashishga orzumand bo'ladigan bu insondagi kamtarlik har qanday kishini maftun etadi. Suhbati jonon olimning ilmdagi xatolarga kelganda o'ljaga tashlangan sher misoli hayqirishi faqat ilm ahligagina ayon.

Matnshunoslik – igna bilan quduq qazishdek bir gap. Bu sohaning boshini tutgan odam har bir so'z, kerak bo'lsa, har bir harf ustida bosh qotiradi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini to'g'ri va raso o'qish uchun arab yozuvini, bir necha sharq tillarini risoladagidek bilish taqozo etiladi. Chunki adabiy merosimiz namunalari arab yozuvida yozilgan. Bu mantiqiy yozuv bo'lib, birgina nuqta yohud zeru zabardan xato ketilsa, ma'no butunlay buzilib ketadi. Obrazli qilib aytganda, ko'z ko'rga aylanishi hech gap emas. Bundan tashqari, arab yozuvidagi harflar turli badiiy san'atlarning yuzaga chiqishiga ham asos bo'lgan. Shu ma'noda hassos shoirimiz Abdulla Orif: "Harf o'yin aylay desam o'zga erur imlo bukun", deya armonlanib yozganlari yodimda.

Vahob Rahmon matnshunoslikda hazrat Mir Alisher Navoiyning quyidagi misrlarini o'ziga shior qilib olgan, desak xato qilmaymiz:

Falon kotib ar xatni mundoq yozar,  
Bu mansabdin ani qo'pormoq kerak.  
Yuzin nomasidek qora aylabon,  
Qalamdek boshin dag'i yormoq kerak.  
Qoradin qorag'a beribon uloq,  
Qalamravdan ani chiqormoq kerak.

Olim o'zining "Mumtoz so'z sehri" kitobida hazratning so'zlaridan kelib chiqib: "Agar Navoiy tirik bo'lganida, yigirma jildligini mutolaa qilib, har bir jildi minglab nusxada ekanini bilsa va har bir jildda 500 dan to mingtagacha xato ketganini sezsa, nashrga tayyorlovchi olimga nisbatan qanaqa chora-tadbirlar ko'rgan bo'lar edi..." deya kuyinib yozadi. Vahob Rahmonning Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" yigirma jildligining matniy qusurlari haqida



“Ma’rifat” gazetasida bosilgan bir sahifalik “Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri” (9-fevral 2005-yil) maqolasi mumtoz adabiyotshunosligimiz osmonida gumburlagan momoqaldir oq bo’ldi. Maqolada zukko matnshunos har bir jildda mingdan ortiq nuqsonlar borligini nuqtadonlik bilan ko’rsatib berdi. Navoiy kulliyotlari nashri yaroqsizligini da’vo qilgan olim o’zi namuna ko’rsatib daho shoirning oltita dostonini ilmiy-tanqidiy matnlardan nashrga tayyorlab, “Xamsa”ning besh dostoni hamda “Lison ut-tayr”ni 2006, 2009-yillarda ikki marotaba G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida chop ettirdi.

Qahramonimiz nazdida agar olimning axloq kodeksi tuziladigan bo’lsa, uning birinchi bandiga haqiqatgo’ylikni qo’yishi oydinlashdi. Chunki mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining asarlarini to’g’ri va bexato nashr etish matnshunos olimlarimizning zimmasidadir. Vahob Rahmon nomzodlik ishini himoya qilib, ilm olamiga bo’ylagan kezlarida, ustoz Mirzo Tojdan olgan ilk saboqlari asno shunday to’xtamga kelgan edi va hozirgacha mana shu e’tiqodidan chekingani yo’q.

— Xo’jandda Mirzo poshsho degan oshpaz bo’lardi, — deya xotirlaydi Vahob Rahmon. — Ajoyib kunlarning birida meni bu do’stimiz Mirzo Toj degan kishinikiga mehmondorchilikka taklif qildi. O’shanda kamina nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan 30 yoshlardagi havosi baland yosh olim edim. Biz kirib borgan xonadonda ikki mo’ysafid Usmon Tojiboevning “Bistu se adiba” (“Yigirma uch shoira”) kitobi ustida qizg’in munozara olib borardi. Men bemavrid ularning suhbatlariga qo’shib qoldim. “To’xtasin Jalolovning “O’zbek shoiralari” degan kitobi bor. Sizlar muhokama qilayotgan kitobdan bir necha baravar mazmunli va katta”, deya o’z bilimdonligimni ko’z-ko’zlashga harakat qildim. Otaxon, bizda bu kitob bormikin, deya o’rnilaridan turib qo’shni xonaga kirib ketdilar. Oradan ko’p o’tmay menga tanish kitobni olib chiqdilar. Kitobni varaqlasam, har betida beshtadan-o’ntagacha matniy xatolar “manamen”, deb ko’zga tashlanib turardi. Mutaxassis bo’lganligim uchun tuzatishlarni sinchiklab ko’zdan kechirib bari to’g’riligiga ishonch hosil qildim. Bu odam majmuadan o’rin olgan barcha shoira asarlarining qo’lyozmalarini qayoqdan topdi ekan, degan savol meni qiynardi.

— Arab yozuvida nuqtalar muhim rol o’ynaydi, — dedilar Mirzo Toj bobo. — Ko’pincha sahiv mana shu nuqtalarning noto’g’ri qo’llanishidan kelib chiqadi. Bunday kezda so’zni arab yozuvida tasavvur qilib o’qiyman. So’z matn mantiqiga to’g’ri kelgach, dunyo topgan qashshoqdek xursand bo’lib ketaman. Mana bir misol, Bobur o’zining “Muxtasar” tazkirasida hazrat Navoiydan bir bayt keltiradi.

Istamasang, izlamasang bizni,

Men **o’yaram** yo’ling uzra izni.

Mumtoz adabiyotimiz namunalari qasoskor oshiq timsoli bo’lmaydi. Gap bu yerda baytdagi so’zlarni noto’g’ri o’qigan no’noq matnshunosda. Qani, “o’yaram” so’zidagi nuqtalarni bittaga ko’paytirib o’qingchi? Ma’no o’zgararmikin? Men baytni qayta o’qidimu ma’no rostlanganini ko’rib quvonib ketdim.

Istamasang, izlamasang bizni,

Men o‘**param** yo‘ling uzra izni.

Mana endi ma‘no chiqdi, dedilar. Men o‘sha paytdagi havoyi bir yosh olim tug‘ma matnshunos mo‘ysafiddan bir umrga yetadigan saboq oldim. Matnshunoslikda hamon mana shu usulni qo‘llab kelayapman.

Vahob Rahmon o‘tgan asrning 70-yillaridayoq o‘z sobit so‘zi va qarashlariga ega matnshunos sifatda adabiy davralarda nom qozondi. O‘sha paytlarda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotda Ogahiyning olti jildlik asarlari bosila boshladi. Olimning mazkur asarlar I va II jildlaridagi matniy qusurlar haqidagi “Nashr va mas‘uliyat” sarlavhali maqolasi “Sharq yulduzi” jurnalining 1973-yil 5-sonida bosilib chiqib, ilmiy jamoatchilik o‘rtasida yaxshi ma‘nodagi shov-shuvga sabab bo‘ldi. Hatto O‘zbekiston Kompartiyasi Markazqo‘mi ushbu maqola bois Ogahiy asarlari nashrlarini yaxshilash bo‘yicha maxsus muhokama tashkil qildi. O‘sha maqoladan keyin nashriyot uni ko‘pjildlikning III jildiga muharrirlikka taklif qildi. Ogahiy “Asarlar”ining IV jildi dunyo yuzini ko‘rgandan keyin Vahob Rahmon Himmat Shahobiy taxallusi bilan (balki olim ketma-ket tanqid yozib, kazo-kazolarning ko‘ziga yomon ko‘rinib qolmay, deb ehtiyot shart shunday imzo bilan chiqqandir) “Guliston” jurnalida “Taassufnoma” deb nomlangan yana bir tanqidiy maqolasini e‘lon qildi.

Hammadan qiziq hodisa shundan keyin ro‘y berdi. Taniqli olim, professor Hamid Sulaymon Xo‘jand davlat pedagogika instituti rektori nomiga iltimosnoma yozib, yosh olimni Toshkentga, Qo‘lyozmalar institutida ishlashga taklif qildi.

1978-yil. Qo‘zyozmalar instituti direktori Hamid Sulaymonning xonasida esdan chiqmaydigan g‘aroyib suhbat bo‘ldi. Taniqli olim hazrat Mir Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonlarini 1959-1960-yillarda nashrga tayyorlab, chop ettirgan edi. Vahob Rahmon “Ilk devon”dagi quyidagi baytni Hamid Sulaymonning o‘ziga o‘qitib, ma‘nosini sharhlab berishlarini iltimos qildi. Olim nima deyishini bilmay kolavlanib qoldi. Mana, o‘sha bayt:

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqti ul **Sulton Husayn,**

Topding eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo.

Noshirning matnni sahiv o‘qiganligi bois butunlay teskari ma‘no chiqqanligini Vahob Rahmon to‘g‘ri talqini bilan isbotlab berdi. Bu Hamid Sulaymonni hayronu lol qoldirdi. Baytning asli bu durur:

Ey Navoiy, gar vafosiz chiqti ul **sultoni husn,**

Topding eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo?!

Sulton Husayn qayoqdayu, sultoni husn qayoqda? Ana, matnshunosning mahorati. O‘sha joyning o‘zida professor Hamid Sulaymon Vahob Rahmon bilan “Xazoyin ul-maoniy”ning to‘rt jildligi tahriri yuzasidan shartnoma imzoladi.

Vahob Rahmon odamlar bilan muomalada yumshoq tabiatli, madaniyatli inson bo‘lsa-da, ilm borasidagi munozaralarda gap kelganda otasini ham ayab o‘tirmaydi. Kamina mana shunday voqealardan biriga guvoh bo‘lganman. O‘tgan asrning 90-yillari edi, shekilli. Gulistonga Toshkentdan bir guruh navoiyshunos olimlar tashrif buyurishdi. Ular orasida filologiya fanlari doktori, professor Abdurashid Abdug‘afurov (Alloh rahmatiga olgan bo‘lsin), filologiya fanlari nomzodi Avtondil Erkinov (hozir bu kishi ham filologiya fanlari doktori maqomini

olgan) kabi nomdor olimlar bor edi. Shahar hokimligining majlislar zali adabiyot muhoblari bilan liq to'la. Davra to'rida toshkentlik olimlar qatorida Vahob Rahmon ham kamtargina bo'lib o'tiribdi. Birin-ketin olimlar minbarga chiqib, Navoiy dahosi haqida ma'ruzalar o'qishdi. Navbat savol-javoblarga kelganda, men qo'limni ko'tardim. Yaqindagina "Yoshlik" jurnalida Vahob Rahmonning Navoiy asarlari nashridagi qusurlarni ayovsiz tanqid tig'i ostiga olgan maqolasini o'qigan edim. Shundan kelib chiqib, toshkentlik olimlarga: "Qachon Navoiy asarlarini bexato o'qiymiz?" deya savol berdim. Birdan Abdurashid Abdug'afurovning rangi-quti uchdi. "Bu savolning orqasida kim turganligini bilaman!" deya Vahob Rahmonga qarab xezlandi. Savolga tayinli javob berolmay chaynaldi. Abdug'afurovdan keyin so'z olgan Vahob Rahmon toshkentlik olimlarga yuzingda ko'zing bormi, demay Navoiy asarlaridagi matniy xatolarning asl sabablarini ochib tashladi. O'zbekistonda matni savodli o'qiydigan matnshunoslar yo'qligini dangal ochiqldi. Davrada o'lik sukunat hukm surdi. Men olimlarni urishtirib qo'yganimdan o'zimni noqulay his etib igna ustida o'tirganday bezovta edim. Uchrashuv tugagach, tashqariga chiqdim. Vahob aka: "Bopladimmi? Savolni vaqtida berdingiz. Bunday navoiyshunoslarning po'stagini qoqib, ko'zini ochib turish kerak. Navoiy-buyuk daho. Uning asarlarini xato bilan chop etish gunohi azim!" dedilar. Boyagi ko'ngilxiraligim birdan tumanday tarqab ketdi. Vahob akani o'shandagi holati tasavvurimda o'ljaga tashlangan sherday muhrlanib qolgan.

Zo'r olimni insof-diyonati bor hamkasblari hamisha e'tirof etishi turgan gap. Filologiya fanlari doktori Botirxon Akramov Vahob Rahmonning matnshunoslikka oid maqolalarini o'qib: "Qoyilman, hamkasb. Yozgan maqolalaringizda fikrlaringizni rad etib bo'lmaydigan misollar bilan mixlab tashlaysiz", degandi. Bunday e'tiroflarni akademik Alibek Rustamov, filologiya fanlari nomzodi Sultonmurod Olim va boshqalarning chiqishlaridan ham o'qib olish mumkin.

Vahob Rahmonning e'tiqodicha, u dotsentmi, professormi, akademikmi, ilmga halol xizmat qilgandagina hurmatga loyiqdir. Olim uchun ilmiy daraja emas, balki ilmiy saviya muhimdir. Afsus-nadomatlar bo'lsinki, buyuk salaflarimiz Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bobur, Ogahiy, Atoiy, Mashrab va boshqa ajdodlarimizning nashrga tayyorlanayotgan asarlarida o'nlab, yuzlab matniy xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Bunisi hali holva ekan. O'zini allomai zamon deb bilgan ba'zi navoiyshunoslar zamon o'zgarganidan bexabar mafkuramizga zid fikrlarni uyalmay-netmay hamon kitobxonlarga eskicha talqinda taqdim etishmoqda. Vahob Rahmon aniqlagan shunday xatolardan birini keltiramiz. Alisher Navoiyning "Mukammal asarlar to'plami" istiqloldan keyin nashrdan chiqqan bo'lsada, XV jilddan o'rin olgan "Holoti Pahlavon Muhammad" asarini Parso Shamsiyev matni asosida tarjima va izohlarni to'ldirib nashrga tayyorlagan filologiya fanlari doktori Suyima G'anieva kitob oxiridagi izohlarda sohibqiron Amir Temur bobomizni "istilochi" shaxs sifatida talqin qilgan. Bu ilm-fanga borib turgan xiyonat emasmi? (Qarang: Alisher Navoiy, "Mukammal asarlar to'plami", XV tom, "Fan" nashriyoti, 1999-yil, 226-bet). Xuddi shu ma'lumot keyinroq

nashrdan chiqqan Alisher Navoiyning 10 tomlik asariga ham hech qanday tuzatishsiz ko‘chib o‘tgan.

Domla mumtoz adabiyotimizning tolmas targ‘ibotchisi ham hisoblanadi. Alisher Navoiy asarlarini bugungi kunda nafaqat oddiy kitobxon, balki oliy ma‘lumotli ziyolilar ham aniq-tiniq tushunmaydilar. Bas, shunday ekan, ularni Navoiyga yaqinlashtirmoq uchun turli usullardan foydalanmoq joizdir. Domla bu yo‘nalishda daho shoirimizning asarlarini tadbil qilish, nasriy bayonlarini tayyorlash va ularni chop etib, ommani Navoiyga yaqinlashtirishning tarafdori. Boshqa bir toifa navoiyshunoslar esa bu yo‘lni xato deb biladilar. Ularning nazdicha, alloma asarlarini asliyatdan o‘qigandagina maqsadga erishish mumkin ekan. Tadbil, nasriy bayonlar Navoiy asarlarining badiiy qimmatini yo‘qqa chiqararmish. Olimlarda mustaqil fikrning bo‘lgani yaxshi. Biroq Navoiydan bahramandlikni ta‘minlash uchun har qanday xayrli ishni qo‘llab-quvvatlamoq o‘rinlidir. Domla ushbu yo‘nalishda bir qancha xayrli yumushlarni amalga oshirdilar. Hazrat Navoiyning “Layli va Majnun” (Naim Norqulov bilan hamkorlikda), “Muhokamat ul-lug‘atayn”, Boburning “Boburnoma” (Karomat Mullaxo‘jaeva bilan baqamti), Mo‘jiziyning “Tavorixi musiqiyun” (“Musiqashunoslik tarixi”) asarlarini tadbil qilib, nashrga tayyorladilar.

Vahob Rahmon matnshunoslik sohasidagi faoliyatini ikki yo‘nalishda: o‘zi matn tayyorlash va boshqalar tayyorlagan matnlarni tahrir qilish (maxsus va mas‘ul muharrirlik) bilan qo‘shib olib boradi. Mumtoz adabiyot namunalarini tushunish uchun esa yaxshi lug‘atlar suv bilan havodek zarur. Domla to‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ni nashrga tayyorlashda qatnashgan. Bundan tashqari, “O‘zbek klassik adabiyoti uchun qisqacha lug‘at”, “Adabiy manbalar lug‘ati” kabi kitoblarni tayyorlab, o‘qirmanlar hukmiga havola qilgan.

Keyingi yillarda domla boburshunoslik ilmiga ham katta hissa qo‘shdi. 2008 yil yurtimizda shoir tavalludining 525 keng nishonlandi. Shu asno Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi bilan mustahkam aloqa bog‘ladi. Fond raisi Zokirjon Mashrabovning buyurtmasi bilan Boburning “G‘aribing andijoniydur” kitobini nashrga tayyorlab, chop ettirdi. “Boburnoma”ning ruscha tarjimasidagi yuzlab xatolar tuzatilib, “Sharq” nashriyotida qayta dunyo yuzini ko‘rdi. “Boburnoma”ning o‘zbekcha tadbili amalga oshirildi. Mana shu xizmatlari uchun Vahob Rahmon 2008-yilda Xalqaro Bobur mukofotiga loyiq ko‘rildi. Bu orada namanganlik adabiyotshunos olimning Bobur bizning shoirimiz, degan da‘vosi aks etgan monografiyasi bosildi. Zokirjon Mashrabov domlaga Boburning andijonlik ekanligini ilmiy asoslangan isbotini topishni iltimos qildi. Vahob Rahmon “Boburnoma”dan Boburning o‘z so‘zlarini keltirib andijonda tug‘ilganini isbotladi. Ilmiy jamoatchilik olimning pishiq-puxta dalillarini tan oldi. Fond uni bu ishi uchun katta miqdordagi mukofot bilan siyladi. (Bu haqda kamina uzoq yili bir maqola bitib edim. “Sirdaryo haqiqati”da bosilib edi).

Vahob Rahmon 2009-2010-yillar miyonasida Xalqaro Bobur ekspeditsiyasi tarkibida Bobur va uning xolavachchasi Muhammad Haydar mirzo izidan Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Eron, Hindistonning ko‘plab shahar va qishloqlarini kezib chiqdi. Toleni qarangki, Tojikistonning Mascho

tumani Obburdon kenti Shashtuch qishlog‘i “Durust” qabristonida Bobur qo‘li bilan xarsangtoshga arab xatida yozilgan quyidagi toshbitikni topishdi. Unda quyidagi so‘zlar darj etilgan edi:

“Kofiro, mardumshikoro, yak zamon ohistatar,  
Kohui bechoraro tobi tiri turkon nest.

Hararu Bobur. In katabai miram Boburxon. 907 hijriy”.

Mazmuni: “Ey kofir, ey odam ovchisi, bir lahza shoshma,  
Sho‘rlik ohu turklar o‘qiga bardosh berolmaydi.

Men Bobur yozdim. Bu amirim Boburxonning bitiklari. Hijriy 907-yil”.

2010-yilda Vahob Rahmon Kashmir podshosi Muhammad Haydar mirzoning katta hajmdagi “Tarixi Rashidiy” asarini turmush o‘rtog‘i Yanglish Egamova bilan hamkorlikda fors tilidan o‘zbekchalashtirdi. (Domla uchun tarjimonshunoslik begona emasdi. U kishi 1968-yilda akademik Vohid Abdullayev rahbarligida “Sa‘diy Sheroziy “Guliston”ning o‘zbek tilidagi tarjimalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi). Ana shu tariqa madaniy merosimiz yana bir nodir asar hisobiga boyidi. Asar chop etilgach, mutarjimlar sha‘niga ayrim “allomai zamonlar” tomonidan malomat toshlari otildi. Tarjimonlar o‘zlarining haq ekanliklarini ishonarli dalillar bilan isbotlab berishdi. Nohaq ovozlarning dami o‘chdi.

Domlaning 2015-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida bosilgan “Mumtoz so‘z sehri” kitobidan uning turli yillarda matbuot yuzini ko‘rgan, shaxsiy arxivida saqlanayotgan maqolalari o‘rin oldi. Kitobdagi bitiklarda navoyishunoslik, boburshunoslik hamda matnshunoslikdagi dolzarb muammolar dadillik bilan ko‘tarilgan. Ayniqsa, mazkur nashrning matnshunoslikka oid qismidan o‘rin olgan maqolalardagi kashfiyot darajasidagi yangiliklar adabiy jamoatchilikni hayron qoldirdi. Bu kitobni hatto domlaning ilmdagi doimiy muxoliflari ham izlab topib o‘qiganlari bor haqiqatdir. Ushbu misol fikrimizning dalilidir.

— Bir kuni uyimizga sirdaryolik adib, “Tanazzul” romanining muallifi Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li Eshonxonov sim qoqib, shifoxonada davolanayotgan navoyishunos olim, filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul “Mumtoz so‘z sehri” kitobidan bir nusxa topib berishni so‘rayotganini ma‘lum qilibdi. Men esa davolanayotgan odam kitobimni o‘qib yomon holga tushib qolmasmikin, deya hazil-mutoyiba qildim, — deydi Vahob Rahmon.

Ha, domla shunaqa inson. Ilm yo‘lida to‘g‘ri gapni gapirishdan aslo cho‘chimaydi. Bunday o‘rinlarda u kishi og‘zibotirligi bilan nom chiqargan. Bu dadillikning orqasida esa katta bilim yotibdi, albatta.

Vahob Rahmonning ilmiy-adabiy faoliyati keng qirrali. Biz ko‘proq olimning matnshunoslik bobidagi faoliyatiga kengroq to‘xtaldik. Zero, u kishi “Bobur ensiklopediyasi”dagi o‘nlab maqolalarning muallifi hamdir. Domlaning ilk mustaqil ishi 1972-yilda nashr etilgan “She‘r san‘atlari” qo‘llanmasi chorak asr davomida O‘zbekistonda poetikaga doir yagona asar bo‘lib xizmat qildi. Muallif bu sohadagi ishini davom ettirib, “She‘r san‘atlari” (“Yozuvchi” nashriyoti, 2001-yil), “Badiiy san‘at jozibasini”, “Badiiy san‘atlar” risolalarini yaratdi. Domlaning sa‘y-harakati bilan arab (eski o‘zbek) yozuvidan 12 ta kitob krill va

lotin yozuvlarida nashrga tayyorlangan. Boz ustiga 6 ta kitobni tarjima va tadbil etgan. Bevosita o'zining qalami uchidan 5 ta kitob to'kilgan. 50 ga yaqin kitoblarga maxsus va mas'ul muharrirlik qilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Vahob Rahmon bir olim bajarishi kerak bo'lgan ishlarni do'ndirib ado etgan. Mumtoz adabiyotimiz namunalarini asl holda el-ulusga etkazishdan aslo charchamang, ustoz! Bizning ehtiromimizni quyidagi baytlardan anglagaysiz.

Vahob Rahmon degan bir olim,  
Qo'lyozmalar ichra urinar.  
Xato so'zdan kelganda g'olib  
Ko'zlariga jannat ko'rinar.  
Bobur bir yon, Navoiy bir yon,  
Baytlar bir-bir bo'ladi raso.  
Borligingga shukr, V.Rahmon,  
Deya barcha qiladi duo.

## **BESHIKDAN TO QABRGACHA ILM IZLA**

*Gulbahor DUSHAYEVA,  
GulDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi*

Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi. Insoniyatning abadiyatga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Vahob Rahmonov ham o'z o'rniga ega bo'lgan adabiyotshunoslarimizdan biri. Hayotimizda Vahob Rahmonovdek iqtidor va fazilatlariga beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Vahob Rahmonov – matnshunos olim, mumtoz adabiyotimizning haqiqiy tarjimoni, nazariyotchi adabiyotshunos, navoiyshunos, boburshunos, faqih, g'azalshunos, so'z san'ati va mumtoz adabiyot olamining bilimdoni sifatida ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi.

Aslida olim kim? U – fozilmi, ijodkormi, faylasufmi? Olim so'zi ilm so'zida kelib chiqqan, ya'ni buyuk ilm sohibi degani nazarimda. Inson dunyoga olim bo'lib keladimi? Menimcha, yo'q. Inson hamma narsani hayoti davomida o'qib o'rganadi. O'qib o'rganib shu bilimlarni hayotga tadbiiq etish ham san'at, bir mahoratdir. Hamma ham o'z hayotini bilim olishga, kitob o'qishga sarflamaydi. O'qib uqmaydiganlar ham hayotimizda uchrab turadi, albatta.

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodini o'rganib hayotini matn talqini va tahliliga, ijodkor mahoratini o'rganishga bag'ishlagan olim, adabiyotshunos, matnshunos – Vahob Rahmonovni ikki davr adabiyotini, madaniyatini, ma'rifatini va ma'naviyatini bog'lovchi ko'prik sifatida o'zini namoyon etgan ijodkorlardan biri deb bilaman.

Vahob Rahmonovning Alisher Navoiyning ijodini tahlil qilgan ekan "Xamsa" asari va uning nashr etilishidagi xizmatlari buyukdir. Vahob Rahmonov chin ma'nodagi adabiyotshunos, matnshunos olimdir.

Ma'lumki, Vahob Rahmonov ko'pchilikka ustozlik qilgan, hozirda ham ustozlik qilayapti. Vahob Rahmonov – xalqimiz, ziyolilarimiz, adabiyotshunoslarimiz, tilshunoslarimiz, ilm yo'lida mehnat qilayotgan yoki bo'lmasa ijodni sevadigan vatandoshlarimiz uchun – ustozdir.

Donolarimiz inson umrini qush uyqusiga o'xshatgan ekan. Bunday o'xshatish bir qarashda g'alatiroqdek, biroz mubolag'adek tuyuladi, nazarimda. Biroq, zimdan o'ylab ko'rilsa, unda chuqur ma'no mujassam ekanligini payqash qiyin emas. Inson ana shu “qush uyqusi” dek bir muddatda kechadigan hayotida ham o'zidan muayyan darajada izlar qoldirishga ulgurar ekan. Bu ishlar uning amalga oshirgan ishlarida, ilmga, vatanga, millatga, xalqqa fidoyiligi, sadoqati, odamlarga qoldirgan iliq taassurotlarida mujassamlashgan bo'ladi.

Shunday samimiy ustozlarimizdan biri – Vahob Rahmonov “qush uyqusi”dek umrini fanga, ilmga, ijodga bag'ishlagan fidoyilardan biri desak mubolaga bo'lmaydi. Ustozdagi birinchi ko'zga tashlanib turadigan fazilatlardan biri, odamlar bilan muomala madaniyatining nihoyatda yuqori darajada ekanligidir. Uning yoqimli jilmaygan holda boshqalar bilan gaplashishi, suhbat jarayonida kamtarona fikrlashi, ovozidagi osoyishta va hotirjam ohang har qanday kishini o'ziga rom etadi, har qanday kishiga hush yoqadi, bu suhbat muloqot qilgan odamning esida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ustoz bilan suhbatlashgan insonni yana gaplashgisi keladi, tanishib, do'stlashgisi keladi. Chunki, unda muloqot madaniyati va hutq madaniyati juda yuqori darajada shakllangan. Ustozdagi bosiqlik, vazminlik, to'g'ri so'zlik, sermulohazalik, suhbatdoshni tinglay bilish, eng foydali maslahatlar bera olish hammada ham bo'lavermaydigan fazilatlardan hisoblanadi. Uning nutqi ravonligi, mazmundorligi, ta'sirchanligi, har bir so'zni dona – dona qilib gapirishi tinglovchini jalb etish kuchiga ega, go'yoki insonni sehrlab olganday eshitgan sayin eshitging keladi. U san'atni, ayniqsa, so'zni nozik his etish, zavqlanish, ilhomlanish barobarida o'ta shirali ovozi bilan mumtoz she'riyatimizning janrlarida, xususan g'azallarni, ruboiylarni, qit'a va fard, muhammasu musammanlarni yod aytish, chuqur tahlil qilish, mazmunini izohlash mahoratiga ham ega. Vahob Rahmonovning barcha fazilatlari mukammal darajada mavjud bo'lgani sababli shogirdlari, talabalari chin dildan hurmat qilishadi, o'zlarining benazir ustozlari deb bilishadi. Ustozdagi insoniy fazilatlar nafaqat talabalarga, balki kasbdoshlariga, professor-o'qituvchilarga ham namuna bo'larli darajada deb bilaman.

Ustozning xarakteriga xos ajoyib bir xislat borki, uni e'tirof etmaslik mumkin emas. Odatda bunday xislat hammada ham bo'lavermaydi. Bu – undagi kechirimlilik, mayda-chuyda gap-so'zlar uchun boshqalarga kek saqlamaslik xislati. Ustoz shogirdlarini o'z farzandlaridek yaxshi ko'radi va kamchiliklarni kechirib yuboradigan xislati bilan o'z shogirdlari ichida mehr qozongan.

Inson o'z mehnati va ijodi bilan jamiyatga qoldirib ketadigan ishlari bu – jamiyat va fanga, insoniyatga, xalqqa keltirgan foydasi, o'z qiziqishlari va mehnatlari bilan qilgan kashfiyotlari, yozgan asarlari, betakror va bebaho ijodi, hayotda orttirgan do'stlari, mehnat va ta'lim-tarbiyada ko'rsatgan jasorati va yetishtirgan farzand va shogirdlari bilan o'zidan katta taassurot, ma'naviy boylik

qoldiradi. Har kimda bu boylik har xil darajada bo‘ladi. Benazir ustoz va olim Vahob Rahmonovda bu boylik bisyor desam adashmayman.

Xalq orasida yaxshi, olijanob fazilatlariga ega bo‘lgan insonlar haqida fikr yuritilganda, “Xo‘jayi Xizr darigan” degan ibora ishlatiladi. Mening nazarimda, V.Rahmonovga Xo‘jayi Xizr bir necha marta ko‘ringandek tuyuladi. Chunki, u har tomonlama kamol topgan, odamlarning havasini keltiradigan, savob ishni beg‘araz, har doim, hammaga qiladigan insondir.

Ustozning hayoti va tajribasi muayyan nazariy va amaliy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero hozirgi kunda ustozning ilmiy maqolalari, ommaviy axborot vositalarida kuzatilayotgan badialari xalqimizning falsafiy-badiiy fikrlash saviyasini o‘stirishga xizmat qiladi.

Vahob Rahmonovni shaxsan men bilimga, ilmga chanqoq va ularni egallash uchun astoydil, qat‘iyat bilan intiluvchan inson sifatida hurmat qilaman va hamda shu tufayli u kishiga nisbatan sheksiz mehr-muhabbatim shakllangan. Shu bilan birga til va adabiyotning mazmun –mohiyatini teran, tom ma‘noda tushunadigan, tahlil qiladigan va so‘z san‘atining nozik qirralarini anglay oladigan, tilning mohiyatini ochib bera oladigan tilshunos adabiyotshunos, matnshunos, navoiyshunos, boburshunos, xamsashunos deb bilaman.

## **TANIQLI PEDAGOG**

*Oybek NORMURODOV,  
GulDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi*

Ustoz doim eng sharaflil nom bo‘lib qolaveradi. Buni o‘zingiz ustozlar yonidan joy olganingizdagina yanada kuchli his qilar ekansiz. Ayniqsa, ustozlardan ilm yo‘lida haqiqiy o‘rnak olsangiz. Buni men baxt deb tushunaman. Biz uchun Guliston adabiy maktabidek ulug‘ dargohda ilm olish baxti nasib qilganining o‘zi bir baxt. Baxtli inson baxtli ekanini, odatda sezavermaydi, boisi mana shu jarayon ichida insonga doim ham sezilmasligi tabiiy. Men ana shunday baxtlilar safida ekanimni atrofda gilarning kechmishlaridan anglaganman. Xususan, yo‘l-yo‘lakay notanish insonlar bilan suhbat qurib qolsam, ish joyimni so‘rashadi. Men Guliston davlat universiteti deyishim bilan, qayta qarab: “Qaysi kafedrada ishlaysiz?” deyishadi. Adabiyot so‘zini eshitishgach darrov ustozlardan gap ochib, “Ular salomat yurishibdimi, dars o‘tyaptilarmi?”, deya savollarga ko‘mib tashlaydilar. Mana shuning o‘zi senga katta g‘urur baxsh etadi. Ayniqsa, aksari bir insonni qayta-qayta so‘rab: “Hozir ham Navoiy g‘azallaridan yod aytib, ularning badiiy san‘atlarini topib beryaptilarmi? “Boburnoma”dan parcha aytib beryaptilarmi? deydi. Ha, bu inson, haqiqiy pedagog, talantli matnshunos, dono adabiyotshunos olim Vahob Rahmonovdir.

Bir qarashda oddiy ko‘ringan bu voqealar zamiridan ulkan bir haqiqat yotadi: bu haqiqat – kimningdir ko‘nglidan chuqur iz olishdir. Bu har kimga ham nasib etavermaydi. Mana shu dargohda tahsil olganlarning ko‘pchiligi hozir ham o‘qituvchi bo‘lib ishlayotganliklarini aytib, bir narsaga alohida urg‘u berishadi.



Ya'niki, talabalik paytlarida Vahob Rahmonov studentlarga kartateka tayyorlatgani, mumtoz asarlarning bugungi kunda tushunilishi qiyin bo'lgan lug'atlaridan namunalar yodlatgani hamda bu lug'atlar keyinchalik o'quvchilarga mumtoz asarlarni oson tushuntirishlarida yordam berganliklarini aytishlarida namoyon bo'ladi. Bunday voqealardan biri o'tgan yil meni rosmiyaning hayratga soldi: Ustoz haqida "Mahalla" telekanalida "Ziyo darg'alari" nomli ko'rsatuv berildi. Uni Tojikiston Respublikasida ham ko'rsatishibdi. Ustoz Xo'jand davlat universitetida ishlagan paytlari o'qitgan talabalardan biri domlani Gulistonda ishlayotganliklarini bilib universitetdan yordam so'ab xat yozibdilar. Xatni domlaga men yetkazdim. To'ychi Xanjarov nomidan kelgan xatda uning telefon raqamlari bo'lib, agar imkoni bo'lsa, domla bilan bog'lanishda yordam berish so'ralgan ekan. Bunda yordam qildim. To'ychi aka bilan soz bo'lib ketdik. U kishi ham domlani ma'ruzalarini Xo'jand davlat universitetida tinglagani hamda "Boburnoma" bilan shug'ullanganligini aytib domlaga ko'p rahmatlar aytdi. Mana shu voqea ortida ham Vahob Rahmonov ustozning qanday pedagog ekanligi, uni nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni davlatlarda ham tanishlari har qanday ustozga nasib qilmaydigan hodisadir. Bundan tashqari domla respublikamizda ham minglab malakali shogirdlar tayyorlagan. Masalan, bir qanchasi bilan yaqindan tanishganimda o'zim guvohi bo'lganman. Bir kuni viloyatga qaytar ekanman mirzaobodlik yoshlari ellikdan oshgan muallima so'rab qoldi:

- Uka, qayerda ishlaysiz?"

- Guliston davlat universitetida.

"Doimgidek qaysi kafedrada?" - dedi? Mendan "adabiyot" so'zini eshitgach, "Vahob Rahmonov ishlayaptilarmi?" deb so'radi. "Ha" deyishim bilan so'zida davom etib: "Bilasizmi, u kishi bizga g'azallarni qo'shiq qilib kuylab berar edilar. Domla, kelishgan, ovozlari chiroyli bo'lgani uchun hamma qizlar domlani darsini qoldirmas edi, deya kulib qo'ydi. Men hozir ham domla tahlil qilib bergan mumtoz asarlardan namunalarni o'quvchilarimga domla o'rgatganlaridek tushuntiraman va natijaga erishaman Muallima: "Siz juda ham baxtli ekansiz. Qaranga, shunday inson bilan ishlashning o'zi bir baxtda", deganda ich-ichimimdan xursand bo'lib ketdim. Guliston shahar maktablarining birida ishlaganimda ham maktabning ko'pchilik ona tili va adabiyot o'qituvchilari: "Vahob Rahmonov domla ishlayaptilarmi?, - U kishi juda ajoyib inson edilar, ayniqsa, paxtaga borganimizda ustoz har doim kitob o'qib yurar edilar, umuman, boshqa bekor ishlar bilan shug'ullanmasdilar", deya ta'kidlashlari bugun domla bizga: "Kitobni ko'p o'qing, Oybek, sizning yutug'ingiz shunda bo'ladi" degan gaplari aniq hayotiy tajribaga asoslanganini bildiradi.

Hozir ham domla Farg'onadan Gulistonga qatnab dars berayonganligi, kelishlari bilan portfellaridan kitob olib o'qib o'tirishlarining guvohi bo'lib, mana shunday insondan ilm yo'lida barcha o'rnak olishlarini o'ylaysan va haqiqiy o'z kasbining fidoiysi ekanliklarini sezasan kishi. Domladan nafaqat matnshunoslik, sharq mumtoz poetikasining asosini tashkil qilgan ilmi bade', muharrirlik, tarjimonlik sirlarini o'rganish mumkin, balki sof insoniy xislatarni, jumladan,

kamtarlik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik va sog‘lom turmush tarzida qat‘iy amal qilishni ham o‘rnak sifatida qabul qilish mumkin.

Ushbu o‘rinda kamina ustozning pedagoglik mahoratining ayrim qirralari haqidagina so‘z ochdim, xolos.

Ustoz bugungi kunda “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida faoliyat yuritib kelmoqda. Ayni kunlarda, bo‘sh vaqtlarida bizga, men va Rahmatjon To‘raqulovga matnshunoslikning eng nozik qirralarini o‘rgatish bilan shug‘illanmoqdalar. Domla doimo shogirdlariga ta‘lim berishdan tolmasinlar. Ustozga uzoq umr, sog‘lik - salomatlik tilayman.

## **BADIIY SAN’ATLAR KASHSHOFI**

*Erkin RAHMONOV,*

*Sirdaryo viloyati pedagogika xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o‘qituvchisi*

Ilmi bade’ – badiiy san’atlar o‘rganilganda, odatda, o‘zbek va tojik mumtoz bade’shunos olimlar asarlariga tayaniladi. Ko‘pchilik mutaxassislar XX asrda ham yangi-yangi she’riy san’atlar poetikaga kirib kelayotganidan xabardor bo‘lmaliklari mumkin.

Vahob Rahmonov, nafaqat she’riy san’atlar haqidagi ilk qo‘llanma (Xo‘jand, 1972) muallifi, balki bir necha yangi badiiy san’atlar ijodkori hamdir. Qizig‘i shundaki, bu kishi ixtiro etgan san’atlar allaqachon poetika mutaxassislari maqola va risolalarida aks etib kelmoqda. Nega va qanday qilib yangi badiiy san’at ixtiro etiladi? Zakovatli bade’shunosning bu sohadagi ixtirolarining bir nechasini o‘rganamiz.

V. Rahmonov faxriya san’atining faol badiiy vosita ekanligini hisobga olib, buni teskarisi, ya’ni maqtanishning aksi-kamtarlik ifodasiga suyanib arabcha istiloh ixtiro etgan: taqsir. Taqsir ma’naviy san’at bo‘lib, shoir bu san’atni qo‘llaganda o‘zini yomon:

Laqabi Solihu o‘zi tolih,

Nur Said o‘g‘li Muhammad Solih.

Tolih- yomon demakdir; iqtidori past.

Men-ku she’rni to‘qimoqqa sal-palgina yarayman,

Lekin sensiz yig‘lab o‘tgum Samad Vurg‘un misoli.

Bunday kamtarlik shoir qiyofasini juda nurlantirib yuboradi. Mumtoz adabiyotda iqtibos keltirishning irsoli masal, tazmin singari xillari bor. V. Rahmonov mumtoz adabiyotda g‘oyat ko‘p ishtirok etadigan hadislarni hisobga olib, tahdis san’atini ixtiro etdi.

Sidq ila urg‘onda salo ummati,

Oytti: “Kazzabuna la ummati”.

Lafziy san’atlardan V. Rahmonov “qaytariq” va “mukarrar”ni ixtiro etgan. Lafziy san’atlarning bir qismi so‘zlarning misra va baytda “qotib” qolganiga ko‘ra ixtiro etiladi. Chunonchi, qaytariqning ta’rifi: misra boshidagi so‘zning misra

soʻngida qaytarilishi – takrorlanishidir. Mukarrar deb baytda juft soʻz ishtirokiga aytiladi.

Vahob Rahmonovning ilmi badeʼdagi bunday kashfiyotlari, shubhasiz, adabiyotshunoslik ilmiga yangilik boʻlib kirdi. Olimning oʻzbek mumtoz poetikasi tarixida keng istifoda etilgan va mumtoz asarlar badiiyatini yanada ochib berishni taʼminlovchi vositalar sifatida bilinuvchi sheʼriy sanʼatlarni keng kitobxonlar ommasiga bildiruvchi manba sifatida nashr etilgan “Badiiy sanʼatlar jozibasi” risolasi bu sohadagi respublikamizda mumtoz adabiyot sohafida barmoq bilan sanarli yangilik-kashfiyot boʻlib xizmat qildi. Unda Vahob Rahmonov Sharq adabiyotida alohida ilm sanalgan sheʼriy sanʼatlarni zamonamiz oʻquvchilariga oʻz mantiqlari, fikr doiralari va saviyalari darajasiga moslab ixcham va mazmunli tarzda bayon etganki, bu holatlar olimning ilmdagi darajasini namoyon etadi.

Umuman, Vahob Rahmonov badiiy sanʼatlar boʻyicha respublika miqyosidagi eng yirik mutaxassislardan ekanligi yuqoridagi tahlillardan ham ayonlashdi. Zero bu sohaga domlaning qoʻshadigan hissasi bardavom boʻlishiga ishonamiz.

## **4-SHO‘BA: O‘ZBEK MUMTOZ DABIYOTI VA MATNSHUNOSLIGIDAGI TADQIQLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR**

### **“BOBURNOMA” – O‘Z DAVRINING KO‘ZGUSI**

**Nasimxon RAHMONOV,**  
*Guliston davlat universiteti professori,*  
*filologiya fanlari doktori*

Zahiriddin Muhammad Boburni dunyo sharqshunosligiga tanitgan asari uning “Boburnoma”sidir. Muallif o‘zining barcha asarlari yozilishi, tarixi haqida aytib o‘tadi. Ammo, “Boburnoma”ning qachon yozilgani haqida ma’lumot bermaydi. Asardagi ayrim chizgilar, dalillardan kelib chiqib, “Boburnoma”ni ayrim olimlar taxminan 1518-1519-yillardan boshlab yozila boshlangan degan xulosaga keladilar. Ayrim olimlar esa mazkur asar Bobur Andijon taxtiga o‘tirgan paytdan – 1594-yildan boshlab yozilgan deydilar. Zotan asarning qoralamalari, kundaliklar sifatidagi nusxasi mavridi bilan yozib borilgani shu fikrni tasdiqlaydi. Bobur o‘z asariga “Boburnoma” deb nom bermagan. U asarini “Vaqoyi” (Voqealar) deb atagan. Bir ruboiysida ham buni e’tirof etib, asarining ahamiyatini ta’kidlab o‘tgan:

*Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,  
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,  
Har kim bu “Vaqoyi”ni o‘qur, bilgaykim.  
Ne ranj-u ne mehnat-u ne g‘amlar ko‘rdum.*

Bu ruboiyda Bobur “Boburnoma”da o‘zining mashaqqatli hayotini to‘laqonli ochib bergan, davr va insonlarning fazilatlarini hamda illatlarini ro‘y-rost namoyish qilgan, insoniyat xususidagi o‘zining qarashlarini, fikr-o‘ylarini ifodalovchi bir ko‘zgu ekanligini ta’kidlaydi. Boburning qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarida ham bu jahonshumul asarni “Vaqoyi”, “Voqeanoma” deb eslaydi. Ammo, “Boburnoma” nashrlari, tarjimalari bunday nomlanmagan. Faqat XX asrning 40-yillarida Turkiyada chop etilgan nusxa “Vaqoyi” nomi bilan atalgan. 2002-yil Toshkentda chop etilgan eng so‘nggi nashr ham “Boburnoma” nomi bilan chiqdi. Albatta, o‘zbekcha nashrlarda ham tarjimalarda ham “Boburnoma” nomi bilan chop etilgani bois, olam ilm ahli shu nomga o‘rgandi. Qolaversa, asarning bugungi nomi Bobur atagan nomga aslo mone’lik qilmaydi. Ayrim mutaxassislar asarni muallifning o‘zi nomlaganidek “Vaqoyi” deb atash va nashr ettirish lozimligini aytadilar.

“Boburnoma” aniq xronologik izchillikka rioya qilingan holda yozilgan bo‘lib, 1494-yil, otasining Axbi qo‘rgonida jordan qulab olamdan ko‘z yumishi fojeasi va Boburning 12 yoshida Fargona viloyatida podshoh bo‘lgani voqeasi tasviri bilan boshlanadi. Mazkur-yil voqealari ancha batafsil va izchil bayon qilinganini ham shu o‘rinda aytib o‘tishimiz kerak. Bevosita mazkur sanaga bog‘liq bo‘lmagan Farg‘ona viloyatining tabiati, geografik joylashuvi, viloyatdagi

Andijon, Marg‘ilon, Isfara, Xo‘jand kabi bir qator shaharlarning tasviri ham o‘rin olgan. Shuningdek, Umarshayx Mirzoning nasl-nasabi, shakl va shamo- yili, uning xulq-atvori, u olib borgan urushlar, undan qolgan avlod, qo‘l ostidagi amirlarining ijobiy va salbiy fe‘l-atvori, adabiyot va san‘atga aloqadorligi kabi masalalar ham asosiy o‘rin egallaydi. Zotan, Boburni shaxsiyatlar va ularning intellektual salohiyati va ijtimoiy-siyosiy vaziyatdagi o‘rni qiziqtirgan. Chamasi, Bobur mirzo buyuk psixolog olim sifatida insonlarning ichki dunyosiga alohida e‘tibor qaratgan. Ayniqsa, ayollar tasviridagi ta‘rifi diqqatga sazovor. Masalan, Sulton Abusaid Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li Sulton Ahmad Mirzoning vafotidan keyin undan qolgan avlod haqida so‘z yuritar ekan, ikki o‘g‘li bo‘lib, ular yoshligida vafot etgani, besh qizi bo‘lganini bayon qiladi. Uning uchinchi qizi Oyisha Sultonbegim bo‘lib, Bobur Mirzo besh yoshda ekanida u Samarqandga kelgani va Bobur Mirzoga unashtirilgani haqida xabar beradi. Har bir ayolning keyingi hayoti, taqdiri, farzandlari haqida izchil shajara Boburning quvvayi hofizasi yuksak odam ekanini ko‘rsatadi.

“Boburnoma”da san‘at va ilm ahli haqidagi ma‘lumotlar Bobur mirzoning o‘z davridagi intellektual salohiyatni sinchkovlik bilan kuzatganidan dalolat beradi. Bu boradagi dastlabki ma‘lumotni Umarshayx mirzo haqida to‘xtalganda uchratamiz. *Ravon savodi bor edi, “Xamsatayn” va masnaviy kitoblarini va tarixlarni o‘qub edi. Aksar “Shohnoma” o‘qur erdi. Tab‘i nazmi bor edi, vale she‘rg‘a parvo qilmas edi.* (37-bet). Bu parchadan ma‘lum bo‘ladiki, Umarshayx mirzo ham she‘r yozgan, ammo e‘tiborsizligi tufayli devon tuzmagan, deb taxmin qilish mumkin.

Umarshayx Mirzoning nasli haqida so‘z yuritganda har birining oilaviy holati bilan birga, ularning san‘atga yoki badiiy ijodga oid jihatlari haqida to‘xtaladi. Jumladan, uning uchinchi qizi Xo‘b Nigorxonim haqida so‘z yuritar ekan, uning salohiyati haqida shunday deydi: *“Xat va tasvir va o‘q va paykon va zihgir har nimaga iligi chospondur. Tab‘i nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas”.* (40-bet)

Bobur qo‘shiqchilar va hofizlar haqida ham to‘xtaladi. Masalan, Umarshayxning amirlaridan biri haqida to‘xtalganda shunday ta‘rifni uchratamiz: *“Yani bir Xoja Husaynbek edi, odmi va faqir kishi edi. Ul zamon dasturi bila ichkularda qo‘shiqlarni yaxshi aytur ekandur”*(41-bet). Demak, turli davralarga xirgoyi qilgan qo‘shiqchilar ham Boburning e‘tiboridan chetda qolmagan. Umarshayxning odamlaridan Sayyid Yusuf o‘g‘loqchi haqida to‘xtalganda, ulug‘ og‘asi mo‘g‘uldin kelganini, *“Otasini Ulug‘bek mirzo rioyat qilib edi, ra‘y va tadbiri xeyli yaxshi edi, mardonalig‘i ham bor edi, qo‘buzni yaxshi chalur edi”*(46 bet) deb ta‘riflaydi. Bu o‘rinda qo‘buz chalishda mohirligidan ma‘lum bo‘ladiki, u xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarni chalish bilan ko‘pchilikning e‘tiborini qozongan, qolaversa, qo‘buz odatda ko‘chmanchi turkiy qavmlarning musiqa asbobi bo‘lgan. Sayyid Yusuf mo‘g‘ulga mansub bo‘lgani uchun ham qo‘buz chalgan. Boburning e‘tiboriga tushgan Darveshbek ismli odam haqidagi ma‘lumotlari uning alohida o‘ziga xos san‘at egasi ekanini ko‘rsatadi. *“Musiqqa ilmidin boxabar edi. Soz ham chalur edi. Tab‘i nazmi bor edi.”* (46-bet) She‘r va

musiqaga baravar ixlos qo‘yganini ko‘rsatadi. Abusaid mirzoning odamlaridan biri Mahmud barlos haqida to‘xtalar ekan, “*Shoir edi, devon tartib qilib edi*” (50-b. ) deb qistirib o‘tadi. Mahmud barlosga to‘xtalishdan maqsad uning Abusaid mirzoga qarashli ekani, Abusaid mirzo Iroq viloyatini qo‘lga kiritganda, Mahmud barlosga Kirmonni bergani haqida to‘liqroq ma‘lumot berish, ayni paytda shoir ahliga hukmdorlar ana shunday ehtimol ko‘rsatganlarini namoyish qilish edi edi.

Bobur o‘z asarida Alisher Navoiyni ko‘p marta tilga oladi. Hayotida u bilan uchrashmagan, ammo Navoiy vafotidan bir yil oldin undan olgan maktubini “Boburnoma”da yodga oladi. Shu maktubga qaytarilgan javob xatida ustoz nazariga turkiyda yozgan bir she‘rini yuboradi: “*Bu ikkinchi navbat Samarqandni olgonda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yuborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yuborib edim, Javob kelguncha tafriqa va g‘avg‘o bo‘ldi*” (81-b.) Mana shu voqeadan keyin Bobur Shayboqxon va uning mulozimi mulla Binoyi haqida to‘xtaladi. Bobur hali Samarqand taxtida o‘tirgan paytda Binoyini Samarqandga olib keldilar, Binoyi Boburga ko‘p hamdu sanolar o‘qidi va bir forscha ruboiysini ham aytdi: “*Na yegulik g‘allam bor va kiyinishga asragan kiyimim bor. Yeydigani, kiyadigani bo‘lmagan kishi ilm va hunarga qanday urina olsin?!*” Bobur Binoyining ruboiysini keltirgandan keyin, bu paytda hali bir-ikki bayt yozib yurganini, g‘azal yozmagani haqida xabar berib o‘tadi. Boburning turkiycha ruboiysining so‘nggi misrasi qofiyasini Binoyi radif qilib, boshqa qofiya bilan bir ruboiy aytadi (81-b. ).

Boburning “Boburnoma”da sozanda va xonadalar haqida yo‘l-yo‘lakay bergan ma‘lumotlaridan yana shuni anglash mumkinki, davrning udum va marosimlari, xususan, to‘y marosimi haqida ham ma‘lumotga ega bo‘lamiz. Jumladan, 1495-1496-yil voqealari haqida so‘z ketganda, Sulton Mahmud mirzoning Xolnozodabegimdan tug‘ilgan to‘ng‘ich qizini Haydar mirzoga uzatayotganlarida, ular Hisor ustidan o‘tib, Qunduzga yo‘l olganlari haqida so‘z yuritar ekan, to‘yga tashqaridan kelgan Xoja pir bakovul va ulug‘ og‘alar va nekim bo‘lg‘on sozanda va xonadalar hamroh bo‘lganini hikoya qiladi. (53-b.)

Husayn Boyqaro Xurosonda 40 yilga yaqin podshohlik qildi. “Boburnoma”da uning shakl-shamoyili, axloq, va atvori haqida mufassal ma‘lumot beradi: “*... Xarrof va xushxulq kishi edi. Xulqda bir nima guzaroroq, voqe bo‘lib edi, so‘zi ham xulqidek edi. Ba‘zi muamalatga shar‘ni bisyor rioyat qilur edi*”. U adolat va shariatga qattiq amal qilgan. Bobur uning podshoh va jangchi sifatidagi matonati va mardonligini kursatuvchi dalillar keltiradi. Temurbek naslidan hech kim Husayn Boyqarochalik qilichbozlikda mahorat ko‘rsatmaganini bayon qiladi. Uning Husayniy taxallusi bilan she‘rlar yozgani, devon tuzgani haqida so‘zlaydi.

Boburning Vafoiy taxallusi bilan she‘r ijod qilgan Ahmad Hojibek haqidagi ma‘lumotlari, farzandari Komron, Askariy mirzolarining ijodi haqidagi kuzatuvlari, Boburning o‘z ijodidan berilgan turli janrdagi she‘rlari, “Mubayyin”dan keltirilgan parchalar mumtoz adabiyotning yangi qirralarini ochishga xizmati qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurashid Abdug‘afurov. Birinchi jild. – Toshkent, O‘zME, 2000-yil.
2. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, – M., 1977.

3. Jalilov Sayfiddin. Bobur haqida o‘ylar. Bobur haqida o‘ylar. – T., Sharq, 2006. -112 b.
4. Mallayev N. M. O‘zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob. –T.: O‘qituvchi, 1965, 645-b.
5. Otajonov N. Boburnoma jahon kezadi, 10-b. (Sinx N. K. , Banerji A. U. Hindiston tarixi. - M.: 1954, -214-b. ). –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1984.
6. Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2009. 115 -b. 3.
7. Qudratullayev Hasan. “Boburnoma” asrori kaliti. / Bobur – olim va mutafakkir. To‘plam. – T., 2008.
8. Sanaqulov Usmon. Buyuk iste’dod sohibi Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyati va ijodiy faoliyati. //Xorijiy filologiya. №1, 2018.
9. Shayxzoda M. Zahiriddin Muhammad Bobur. //Guliston jur. , 1940, № 1, -28-b.
10. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda, –T.: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1995. -106 b.
11. Xoliqov A. Boburga jahoniy shuhrat keltirgan asar. //”Samarqand” gazetasi, 2014 yanvar.
12. Z. M. Bobur. Boburnoma, – T., O‘qituvchi, 2018. -528 bet.
13. Z. M. Bobur. Boburnoma, – T., Sharq, 2002. - 336 bet.
14. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. –T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014. -665 b.

**TEMURIYLAR DAVRINING DURDONASI:  
SA’DIY “GULISTON”INING O‘ZBEK TILIDAGI  
YANGI TARJIMASI  
(XIV asr oxiri – XV asr boshi)**

*Aftondil ERKINOV,  
filologiya fanlari doktori, professor*

Xorijdagi Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarini izlash, ularni ilmiy muomalaga olib kirish bilan, imkon qadar, kenyingi yigirma yildan ko‘proq davr davomida shug‘ullanib kelayapman. Shu jarayonda turli xorijiy ilmiy loyiha va stipendiyalar qo‘llab-quvvatalashi vositasida jami olganda chet elda besh yil yashadim. Shuning natijasida qo‘lyozmalarni izlash imkoniyati ko‘paydi. Xorij kutubxona va muzeylarida yurtimiz tarixi, madaniyati va adabiyotiga oid ko‘plab qo‘lyozmalar mavjudligiga guvoh bo‘ldim. Jumladan, safarlar natijasi o‘laroq, 2018-yil Alisher Navoiyning dunyo bo‘ylab tarqab ketgan asarlari qo‘lyozmalari fehestini tuzish g‘oyasi paydo bo‘ldi [8, 9]. Chamamda, xorijda men ko‘rgan, eshitgan va bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo‘la olgan qo‘lyozmalar dengizdan tomchi bo‘lsa kerak. Bunga biz O‘zbekistonga oid xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid xorijdagi madaniy boyliklarni ilmiy tadqiq etish boshqarmasi tomonidan O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlar reyestrini tuzish jarayonida amin bo‘ldik [16].

Aynan, Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarini izlash, topish va nusxalarini qo‘lga kiritish ham izlanish va xorijiy safarlar natijasti o‘laroq amalga oshdi [7]. Ulardan ayrimlarini qayd etamiz:

1. Alisher Navoiy. “Oqquyunli muxlislar devoni” [2, 3].
2. Alisher Navoiy. “Badoye’ ul-bidoya”ning Tehron nusxasi, [888/1483-y. ko‘chirilgan].
3. Alisher Navoiy. “Badoye’ ul-bidoya”ning Istanbul nusxasi [889/1484-1485-y. ko‘chirilgan] [10].
4. Alisher Navoiy. “Sulton Yaqub saylanmasi” [885/1480-81-y. ko‘chirilgan] [11] va boshqalar.

Xorijdagi mana shu kabi qo‘lyozma topilmalarini izlash jarayonida bir necha marta Germaniya Federativ Respublikasidagi qo‘lyozma fondlarida ham bo‘ldim. Bu mamlakatdagi eng katta kutubxona – Berlin davlat kutubxonasidan Sa‘diy Sheroziy [1203–1292] “Guliston” asarining eski o‘zbek tiliga yangi bir qilingan tarjimasini topishga muvaffaq bo‘lgan edim [10].

Bevosita “Guliston” tarjimasiga e’tibor qaratsak. Ayni tarjima qo‘lyozmasi hozircha yagona qo‘lyozma nusxada bizga ma’lum bo‘lib turibdi. U taxminan XV asr boshida ko‘chirilganligi bilan ahamiyatli bo‘lib, ayni shu davr Temuriylar [1370–1506] hukmronligining dastlabki bosqichiga to‘g‘ri kelishi bilan biz uchun ahamiyat kasb etadi. Afsuski, qo‘lyozmada “Guliston” tarjimasini muallifi, nusxa ko‘chirilgan davri va kotibi ko‘rsatilmagan. Mazkur maqolamizda ayni qo‘lyozma haqida fikr yuritamiz.

Nafaqat Sharq, balki dunyo adabiyotida, shu jumladan, O‘rta Osiyo madaniy hayotida Sa‘diy Sheroziyning “Bo‘ston” [1257-yili yozilgan] va “Guliston” [1258-yili yozilgan] asarlari juda mashhur bo‘lib kelgan. Bu asarlar didaktik adabiyot namunasi sifatida asrlar mobaynida eski maktablarda o‘qitilgan. “Guliston” asari eski maktabda yodlatilgan va shu orqali u fors tilini o‘rganishda o‘quv qo‘llanmasi sifatida ham xizmat qilgan.

O‘z vaqtida Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida [1498-yil yozilgan] maktabda o‘qib yurgan kezlarda “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini ham o‘qiganligini qayd etgan:

Yodima mundoq kelur bu mojaro  
Kim, tufuliyat chog‘i maktab aro  
Kim, chekar atfol marhumi zabun,  
Har tarafdin bir sabaq zabtig‘a un.  
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,  
Yo “Kalomulloh”ning takroridin.  
Istabon tashxisi xotir ustod,  
Nazm o‘quturkim ravon bo‘lsun savod.  
Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,  
Bu “Guliston” yanglig‘u ul “Bo‘ston” [1, 328].

“Guliston” asari yozilganidan beri dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Sharqda arab va fors tilidagi asarlarni tarjima qilish [13], xususan, O‘rta Osiyoda eski o‘zbek tili – turkiyga o‘girish an’anasi asrlar davomida mavjud bo‘lib



kelgan. Sa'diy "Guliston"i ham bir necha marta turkiy tillarga tarjima qilingan. Turkiyada Usmonlilar davrida usmonli turkchasiga bu asrning to'liq va qismlari tarjimasi amalga oshirilgan, turli sharhlari bitilgan. Ularning soni o'ndan ortiq [16]. O'rta Osiyo va Volgabo'yi hududlarida "Guliston"ning turkiyga bir necha tarjimalari mavjud bo'lib, ular XIV–XX asrlarda amalga oshirilgan. Bu quyidagilardan iborat:

Sayfi Saroyi "Guliston"ni 793/1390-91-yili "Guliston bi-t-turkiy" nomi ostida tarjima qilgan. Bu tarjima asarning dastlabki turkiy tilga tarjimasi sifatida ilm olamida juda mashhur [6; 14; 4]. Uning tili qipchoq turkiysida, degan qarash ham mavjud [16, 103]. Mazkur tarjima ko'plab nashrlarga ega.

Ispijobiy tomonidan 800/1397-98-yili amalga oshirilgan "Guliston" tarjimasi. Asar qo'lyozmasi Britaniya muzeyida saqlanadi [5; 15]. Muallif mazkur tarjimasida ko'proq asar mazmunini saqlab qolish yo'lidan borgan. O'rni bilan matnni qisqartirgan. Qo'lyozma nuqsonli bo'lib, uning bir qancha sahafalari tushib qolgan [22, 146; 6]. Tarjima Amir Temurning nabirasi Mironshohning [1366–1408] o'g'li – Sulton Muhammad mirzoga bag'ishlangan [1399–1401-yillarda Samarqand hokimi bo'lgan].

Muhammad Rizo Ogahiy [1809–1874] – mashhur o'zbek shoiri, tarixnavis va tarjimon tomonidan Xiva xonligi hukmdori Sayyid Muhammad [1856–1864] davrida amalga oshirilgan. Ayni tarjimaning dastlabki qo'lyozmasi 1862-yili ko'chirilgan [21, 217-218]. Ogahiy Xiva xonligida hukmronlik qilgan Qo'ng'irotlar [1804–1920] sulolasi saroyida yaqin bo'lib, bir qancha asarlarni fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Murodxo'ja Eshon ibn Solihxo'ja "Guliston"ni XX asr boshida Toshkentda eski o'zbek tiliga tarjima qilib, 1910-yili toshbosmada "Shavqi Guliston" nomi ostida chop etgan [19, 20].

1968-yili "Guliston"ning yana bir tarjimasi amalga oshirildi. Shoirimiz G'afur G'ulom va prof. Shoislom Shomammedov asardagi she'rlarni tarjima qilishgan, Rustam Komilov nasriy qismini o'zbekchalashtirgan. Tarjima jarayonida asar qisqartirilgan, ayni paytda, zamonga moslashtirilgan: diniy-tasavvufiy qismlar olib tashlangan.

Biz ko'rib o'tayotgan "Guliston"ning yangi tarjimasi matnini XX asr boshlarigacha amalga oshirilgan yuqoridagi dastlabki besh tarjima matni bilan qiyoslab chiqdik. Natijada birorta tarjima ham bizning matn bilan bir xil bo'lib chiqmadi. Eski o'zbek tiliga tarjima qilingan "Guliston"lar qatorida mazkur tarjima ko'rsatilmagan [17].

Maqolamizda ko'rib chiqayotganimiz "Guliston" tarjimasi matni sarg'ish qog'ozga yozilgan. Qog'oz bichimi 205x350 mm. Matn hajmi 145x85 mm. Har bir betdagi matn 15 qatordan, qo'lyozma esa 128 varaqdan iborat. Qo'lyozma nasx yozuvida ko'chirilgan va asarning boshidan oxirigacha harflar ustiga harakatlar qo'yilgan. "Guliston" tarjimasida matn ichida keltirilgan she'rlar avval fors tilida, ya'ni asliyat tilida, uning ostida esa eski o'zbek tiliga tarjima qilib berilgan. Sarlavhalar, Qur'ondan iqtibos, arabcha kichik matn va ba'zi parchalar sarlavhasi [she'r, qit'a, hikoyat] yoki matn astrofidagi ramka va she'rlarning tugallanish

joyidagi belgilar qizil rangda yozilgan. Asarning asosiy matni qora siyohda bitilgan [Maqolamiz ilovasiga qarang].

Asar asl forscha matnini tarjima bilan solishtirganda, ba'zi so'zlar va matn bo'laklarida tafovutlar mavjudligini kuzatish mumkin. Ular turkiyga qilingan tarjima matniga biroz ijodiy yondavshuv mahsuli bo'lishi ehtimol. Qo'lyozmadagi tarjimada asarning asl nusxasida mavjud bo'lgan muqaddima qismi yo'q. Qo'lyozmada asar o'n birinchi hikoyatning o'rtasidan boshlangan, demak qo'lyozmaning dastlabki bir necha sahifasi bizga noma'lum sabablarga ko'ra tushib qolgan. Ko'rib chiqayotganimiz "Guliston" tarjimasi kim tomonida turkiyga tarjima etilgani yoki qachon va qayerda ko'chirilganligi haqida biror bir ma'lumot qo'lyozmada keltirilmagan.

"Guliston"ning biz ko'rib chiqayotgan tarjimasi qachon yaratilganligi ma'lum emas. Ammo uning til xususiyatlaridan kelib chiqqa holda biror bir davrga oid deb taxmin etish mumkin. Biz qo'lyozma matnini turkiy tillar bo'yicha bir necha mutaxassisga ko'rsatib, ular fikrlarini bilishga qiziqdik. Maqolamiz dastlabida bu davrni biz XIV asr oxiri – XV asr boshi deb ko'rsatgan edik. Ayni muddatni o'zbek tili tarixi mutaxassisi, filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqov qo'lyozma va undagi tarjima matni tili bilan tanishib chiqqach ma'lum qildi. Q. Sodiqov xulosasi biz uchun ahamiyatli. Yana olim mazkur tarjima tilida o'g'uz va qipchoq turkiysi elementlari ham mavjudligi hamda shu jihatdan ayni tarjima tili Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" sigiga ham, qaysidir darajada, yaqin turishini bildirdi. Q. Sodiqov bildirgan og'zaki fikrlarning ayrimlarini keltiramiz: "XIV asr oxiri – XV asr boshi davri tilshunoslikda "Xorazm yodgorliklari" nomini olgan asarlar yaratilgan davrlarga to'g'ri keladi. O'sha kezlarda Oltin O'rda adabiy-madaniy muhitida ko'plab yozma yodgorliklar yaratilgan edi. Mo'g'ullar istilosidan keyingi, Navoiygacha yaratilgan turkiy adabiyotning gullagan davri ham o'sha kezlarga to'g'ri keladi. Ularning tilida o'g'uz va qipchoq tillarining qorishgan o'rinlarini kuzatish mumkin. Ayni shu belgilarni mamluklar davri yodgorliklarida ham ko'ramiz. Chunki mamluklar davri turkiy adabiyoti va madaniy muhiti bilan Oltin O'rda adabiyotining uzviy bog'liqligi bor. Hatto Oltin O'rda davlatidan o'sha yerlarga borib o'rtnashib qolgan, o'sha yerda ijod etgan shoirlar anchagina. O'sha asarlarning til xususiyatlari ana shu matn tiliga yaqin turadi".

Qosimjon Sodiqov fikrlarini turkiy tillar tarixi bo'yicha yana bir mutaxassis, filologiya fanlari doktori Rixsitilla Alimuhammedov ham tasdiqladi. Uning fikricha, biz ko'rib o'tayotgan "Guliston" tarjimasining qo'lyozmadagi matni xat uslubiga ko'ra XIV–XV asrlarda ko'chirilgan Oltin O'rda muhitida yaratilgan qo'lyozmalarni eslatadi.

Turkiyada faoliyat olib borayotgan turkiy tillar bo'yicha yana bir ekspert doktor Saidbek Boltaboyev fikricha, qo'lyozma tili XIV asr boshlariga to'g'ri keladi. Nim qilganda ham uch olimning qo'lyozma tili id fikrlari Oltin O'rda davriga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda ko'chirilgan qo'lyozmalarda nastaliq yozuvidan ko'p foydalanilgan. Ko'rib o'tayotganimiz "Guliston" matni nasx yozuvida yana

harflarga ustidagi harakatlari/ diakritik belgilari qo‘yib ko‘chirilgan. Bunday qo‘lyozmalar O‘rta Osiyoda, kam bo‘lsa-da, yozilib turgan. Masalan, Adib Ahmad Yugnakiyning “Hiybat ul-haqoiq” masnaviysining ham XVI asrda nasxda va diakritik belgilar bilan ko‘chirilgan nusxasi mavjud. Shu kabi misollarni yana keltirish mumkin: Sayfi Saroyining “Guliston bi-t-turkiy”, “Nahj ul-farodis” va Alisher Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni qo‘lyozmalaridan birini kiritish mumkin [22].


Xulosa qilib aytganda, Sa‘diy Sheroziy “Guliston”ining turkiy yangi, ya‘ni yana bir qo‘lyozmasining aniqlanishi turkiyshunoslik sohasi uchun katta ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, matnning qanday o‘qilishini diakritik belgilar bilan ko‘rsatilganligi o‘rta asrlardagi turkiy tilning qanday o‘qilganligi haqida tasavvur berishga yordam qiladi. Bunday matnlar esa juda kam uchraydi. Tarjimaning temuriylar davrida amalga oshirilganligi albatta ehtimol bo‘lib, matn tilidan kelib chiqqan qarashdir. Hozirda biz bu asar qo‘lyozmasi faksimilesini joriy yozuvdagi tabdili bilan qo‘shib nashr qilish arafasidamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 12-jild. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Alisher Navoiy. Oqquyunli muxlislar devoni [1471-yil ]: tabdil va faksimil matn. Nashrga tayyorlovchilar A. Erkinov, R. Jabborov. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021.
3. Alī Shīr Navā’ī. Dīvān of the Aq qoyunlu Admirers [1471]. A. Erkinov [ed. ]. – Tokyo: Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa, 2015.
4. Bodrogligeti A. A. Fourteenth Century Turkic translation of Sa‘di’s Gulistan. – Bloomington, 1969.
5. Cağatayca Gulistan tercumesi. Gulistan-i turki [Sibicabinin Gulistan cevirişi]. [Giris–gramer–metin–notlar–dizin–tipkibasim]. Haz. M. T. Berbercan. – Ankara, 2018.
6. Eckmann J. Sadi Gülistān’in Bilinmeyen Çağatayca Bir Cevirisi // Türk Dili Araştırmaları-yil liği-Belleten. 1968. – Ankara, 1989. – P. 17-29.
7. Erkinov A. Alisher Navoiy devonlarining aniqlangan yangi nusxalari [2010–2021-yillar] // “Alisher Navoiy va Qo‘qon adabiy muhiti” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari [21-22 may, 2021-yil ]. – Qo‘qon. 2021. – B. 202-211.
8. Erkinov A. Alisher Navoiy qo‘lyozmalari butunjahon fehesti // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2018-yil , 9 fevral, 7-son. – B. 1, 4.
9. Erkinov A. Alisher Navoiy qo‘lyozmalari butunjahon fehestini yaratish masalasi // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. 2022-yil , 1-qism. – B. 29-35.
10. Erkinov A. “Badoe’ ul-bidoya”ning Navoiy davrida ko‘chirilgan va yangi aniqlangan qo‘lyozmalari [1483 va 1485-yillar] // Oltin bitiklar. 2018-yil , 1-son. – B. 18-31.
11. Erkinov A. , Jabborov R. Navoiy she’rlari “Sulton Ya’qub saylanmasi”da // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – B. 36-41.


12. Hagen G. Translations and translators in a multilingual society: a case study of Persian-Ottoman translations, late fifteenth to early seventeenth century // Eurasian studies. II. 1[2003]. – P. 95-134.
  13. Hofman H. F. Turkish Literature. A Bio-bibliographical Survey. Sec. 3, Pt. 1, vol. 1; 5. – Utrecht. 1969.
  14. Ispidjābi. Gulistān. British museum, manuscript №11685.
  15. Kartal A. Sa‘dī-i Šīrāzī‘nin Gulistān ismli eseri‘nin türkce tercümelere // Bilig. 16/Kiș, 2001. – P. 99-124.
  16. O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlar reestri/ The Register of Manuscripts Located overseas concerning Uzbekistan’s Cultural Heritage/ Reestr zarubejnix rukopisey, otnosyashixsya k Uzbekistanu. Tom I. Nashrga tayyorlovchilar R. Bahodirov, A. Erkinov va boshqalar. – Toshkent: Nashriyot uyi ”Tasvir”, 2020.
  17. Rahmonov V. Sa‘diy Sheroziy “Guliston”ining o‘zbek tilidagi tarjimalari [Oktyabrgacha bo‘lgan davr]. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Samarqand, 1968.
  18. Sa‘diy Sheroziy. Guliston. Mullo Murodxo‘ja tarjimasini. Nashrga tayyorlovchi S. Sayfulloh. – Toshkent: Fan, 2005.
  19. Shavqi “Guliston”. Ba ehtimom-i Murodho‘ja Eshon ibn Solihxo‘ja. – Toshkent. 1328 [1910].
  20. Sobranie vostochnix rukopisey AN UzbSSR. Izd. A. Urunbaev, L. M. Epifanova. – Tashkent: Fan, 1964.
  21. Togan Z. V. Londra ve Tahrān‘daki Islāmī Yazmalardan Bazilarina Dair // Islam Tetkikleri Enstitüsü Dergisi. III/2-4, 1960. – P. 133-168.
  22. Umarov E. A. Unikalnaya rukopis divana Alisher Navoiy “G‘aroyib as-sig‘ar” // Obshestvennie nauki v Uzbekistane. 1991, № 2. – S. 60-64.
- “Guliston” asari tarjimasining qo‘lyozmadagi boshlanishi va oxiri

Matn boshlanishi [1a]:



Matn so‘ngi [128a]:





## INSONIYAT MA'NAVIY-MA'RIFIY TARAQQIYOTIDA ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING O'RNI

**Jandos BAYZAKOV,**  
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi*

Ma'lumki, Sharq adabiyoti tarixining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida adabiy an'ana muhim o'rin egallaydi. Shoirlar salafлари ijodiy merosiga murojaat qilgan ekanlar, avvalo, o'z estetik qarashlariga mos, ko'ngillariga yaqin, dunyoqarashlariga nisbatan uyg'un keladigan asarlarni maqbul ko'rganlar. Yana bir tomoni, o'rta asrlar estetikasi me'yoriy xarakterda bo'lib mavzular ko'lami hamda janrlar tabiati avvaldan belgilangan qoidalar asosida voqe bo'lgan va bu holat o'sha davr kishilarining mental dunyoqarashi bilan izohlanadi. Biroq bu Sharq adabiyoti namunalari originallikdan xoli, adabiy an'analarni doirasida qolib ketgan degan mulohazaga sabab bo'lmasligi kerak. Chunki har bir shoir ko'hna mavzuga murojaat etar ekan uni ma'lum darajada bo'lsa ham zamonasi bilan bog'lashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g'oyani ilgari suradi. Aynan shu sababli, bir mavzu doirasidagi asarlarni qiyosiy tahlil etishda, har ikki ijodkorning mushtarak yohud xos jihatlarni ko'rsatish bosh mezon bo'lishi shart.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analari zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Navoiy nafaqat o'zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli (forsiy tildagi taxallusi Foni) meros qoldirgan. Uning forsiy merosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar ob'yektiga aylandi hamda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Shu o'rinda ayni masalani maxsus

o'rgangan tojik adabiyotshunosi, akademik Abdug'ani Mirzoyevning "Foniy va Hofiz" maqolasidan quyidagi ko'chirmani keltirishni maqbul topdik: "Umuman, Alisher Navoiyning mana shu ikki javobiya g'azalida yangi ma'no va nozik badiiy tasvir ma'lum darajada ko'p va mahorat bilan ishlatilgan bo'lib, ularni XV asrning ikkinchi yarmidagi butunlay mustaqil va birinchi darajali fors-tojik she'rlariga aylantirgan. Bu holat "Foniy" devonida tasodifiy bir hodisa emas. Alisher Navoiyning *fors-tojik she'riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko'rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g'azallarining har birida, ma'lum darajada, aniq ko'rish mumkin*". Demak, shoirning forsiy tildagi merosi fors adabiyotining eng yuksak namunalari bilan bellasha oladi. Foniyning Abdurahmon Jomiy g'azallariga yozgan tatabbularini izchil muqoyasa etgan boshqa bir tadqiqotchi Alisher Shomuhamedov ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Foniy forsiy tilda deyarli barcha janrlarda, jumladan, qasida janrida ham go'zal badiiyat namunalari yaratgan. Shoirning qasidaları navoiyshunoslar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Bu qasidalar orasida "Tuhfat ul-afkor" o'zgacha mavqega ega va nisbatan ko'proq tahlilga tortilgan. Qizig'i shundaki, asar mashhur shoir Amir Xusravning qasidasiga tatabbu tarzida yozilganiga qaramay, Navoiy zamondoshlarining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasida qasidadan katta parcha keltirib yozadi: "Garchi Amir Xusrav peshqadam Sohibi fazl bo'lsa ham, "Bahr ul-abror"da (ayrim manbalarda "Daryoi abror" shunday nomlanadi-A. E. ) uning ma'rifat va haqiqatlar, daqiq xayoloti oriflar nazdida mukarram va azizdir. Biroq bu ulug' amir (gap Navoiy xususida – A. E.) ham ma'nolarni (eng baland) cho'qqisiga chiqargan bo'lib, shoirlik, suxandonlik, o'ziga xos taxayyulni ko'rsatishda xato qilmadi". Yana bir jihati, Xusrav Dehlaviyning "Daryoi abror" qasidasi XV asr Hirot adabiy muhitida mashhur bo'lib, davrning nomdor shoirlari Abdurahmon Jomiy, Sulton Mahmud Mirzo, Shayxim Suhayliy, Binoiy unga javob yozganlar. Bular orasida faqat Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlari bizgacha to'liq yetib kelgan.

Sharq poetikasi qonun-qoidalaridan yaxshi xabardor, tab'i nazmi bor shoira sifatida Shafiqa xonim she'riy matnni tushunish va tushuntirishda o'ziga xos yo'lni tutgan. U har uchala shoir (Xusrav, Jomiy, Navoiy) matlasini izchil muqoyasa etib, poetik fikrni ifodalashdagi nozik farqlarni ko'rsata olgan. Bundan tashqari, Navoiyning salaflari she'ridagi ba'zi joylarda yetarli darajada asoslanmagan jihatlarini ko'rib, baytning birinchi misrasini tazmin sifatida olib, ikkinchi misrani o'zidan qo'shib, fikrni yorqin bayon qilganligini olima isbotlab ko'rsatgan. Darhaqiqat, Shafiqa xonim to'g'ri ta'kidlaganidek, Amir Xusrav dastlabki baytdan boshlab shohlikni bosh og'rig'i ekanligini uqtiradi-yu, biroq nima uchun ho'l-quruqqa qanoat qilgan kishi yer-suv podshohi bo'lishini aytmaydi. Jomiy baytida ham badiiy dalillash (motirovka) oqsaydi.

Qizig'i shundaki, qasidani Sharq adabiyotida adabiy traditsiya bilan bog'liqligini maxsus o'rgangan olimlarimiz negadir masalaning bu jihatiga diqqatni qaratmaganlar. Shafiqa xonim esa aynan dastlabki baytlarni qiyosiy tahlil etib Navoiy salaflariga nisbatan badiiy mahorat borasida, mantiqiy izchillikda va

lisoniy tarafdin ustunligini misollar orqali aniq belgilagan. Umuman olganda, Navoiy ijodida mantiqiy dalillash bosh estetik prinsip bo‘lib, bu haqda o‘z vaqtida taniqli navoiyshunos Yoqubjon Is‘hoqov shunday yozgan edi: “Xamsa”da mantiqiy asoslanmagan birorta voqea yohud detalni topa olmaysiz. Har bir epizod yoki voqea konkret bir sababning oqibati sifatida yuzaga chiqadi va mantiqiy zamin o‘quvchida zarracha shubha tug‘dirmaydi”. Biz bu yerda “mantiqiy zamin” degan tushunchani biroz aniqlashtirish lozim deb bilamiz. Ma‘lumki, hayotiy mantiq borliqdagi voqea, hodisalarning sababiy munosabatlariga suyansa, badiiy mantiq ham hayotiy mantiqdan kelib chiqadi va shu bilan birga badiiy shartlilik qonuniyatlariga asoslanadi.

Muhimi, “Tuhfat ul-afkor”ning birinchi bayti shoir zamondoshlari tarafidan namunali shohbayt sifatida e‘tirof qilingan. Atoullloh Husayniy “Badoyi‘us-sanoyi” asarida *matbu‘* she‘r xususida to‘xtalib shunday yozadi: “Matbu‘ deb andoq she‘rg‘a ayturlarkim, ul sog‘lom tab‘larg‘a maqbul vazng‘a, tuzuk qofiyag‘a asoslangan bo‘lur, alfozi yoqimlig‘u iste‘molda mashhur bo‘lur, tarkibi mustahkamu latif bo‘lur, aning ma‘nosi maqbul bo‘lur, kishilarning ko‘ngliga tekkan bo‘lmag‘ay; sanoyi‘din nimaki anda ishlatilgan bo‘lsa, yetuk tarzda bo‘lg‘ay va aning tufaylidin anglamig‘ayu husn-i adosig‘a qusur yetgan bo‘lmag‘ay; qadimg‘ilar she‘r jihatdin orttirg‘an ortiqcha harfu alfoz va alfoz o‘zgarishlaridin xoliy bo‘lg‘ay, hazrati xudovandning (gap Navoiy haqida – A. E.) quyidagi bayti yanglig‘... *Bu qasidaning aksar bayti ushmundoq voqi‘ bo‘luptur*”. Ma‘lum bo‘lmoqdaki, shoir qasidasi nafaqat o‘tkir ijtimoiy muammolarni (“saltanat tariqining nafyi voqe‘ bo‘lgan”) dadil ko‘tarishi bilan, balki badiiy ifodasi bilan ham zamondoshlarining e‘tirofiga sazovor bo‘lgan. Bu haqda Foniyy va Jomiy qasidalarini qiyosiy aspektda adabiy ta‘sir doirasida tahlil etgan Alisher Shomuhamedov e‘tiborga molik mulohazalar bildirgan. Chunonchi, u Foniyy asari ijtimoiy muammolarga nisbatan keng o‘rin ajratgani hamda g‘oyaning badiiy ifodasi borasida mukammal qurilganligini e‘tirof etadi. Yuqoridagi mulohazalarni umumiy maxrajga keltirib aytish mumkinki, Navoiy qasidasi o‘ziga namuna bo‘lgan salaflari asaridan har jihatdan ustun.

Adabiyotshunosligimizda adabiy aloqa va ta‘sir xususida so‘z ketganda ko‘proq mushtarak nuqtalarga urg‘u qaratilib, muayyan badiiy asarni namuna sifatida taqdim etish ustunlik qiladi. Vaholanki, har ikki o‘xshash hodisa chog‘ishtirilganda faqat yuzadagi umumiy holatlar bilan kifoyalanmay, *mohiyatni ko‘rsatuvchi xususiy jihatlar* ham e‘tiborga olinishi shart. Gap badiiy asardek sof individual ijod mahsuli haqida ketganda yuqoridagi holatlar inobatga olinishi lozim. Afsuski, bugungi kunda adabiyot tarixiga oid ayrim maqolalarda adabiy ta‘sirni biroz jo‘n tushunish yetakchilik qilmoqda. Masalan, Abdusalom Abduqodirovning “Saddi Iskandariy”: an‘ana va o‘ziga xoslik” nomli maqolasida muallif Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiyning Iskandar mavzuidagi dostonlarini qiyosiy o‘rgangan. Maqolada asosiy diqqat har ikki ijodkor dostonlaridagi mushtarak nuqtalarga qaratilib, Navoiy “o‘z asarini yaratishda ustoziga ergashgan, uning an‘analarini davom ettirgan” degan tezis asos sifatida ilgari suriladi. Albatta, sharq adabiyotida adabiy an‘ananing o‘rni o‘zgacha bo‘lib,

ijodkor salafлари yaratgan badiiyat namunalariga ma'lum ma'noda asoslandi va bu holat butun o'rta asrlar adabiyoti uchun xosdir. Bu davrda yangi mavzularni kuylash emas, balki avvaldan ma'lum mavzuni yangitdan talqin qilish, oldin kamroq diqqat qaratilgan nuqtalarga o'quvchi e'tiborini jalb etish bosh estetik prinsip edi. Shu sababli ham o'rta asrlar adabiyotida mavzular ko'lami ko'p emas. Biroq, bu shoirlar salafлари ijodiy merosi doirasidagina ish ko'rib, shaxsiy ijodi originallikdan xoli degan xulosaga sabab bo'lmasligi lozim. Har bir ijodkor ko'hna mavzuga murojaat etar ekan, uni o'z davri adabiy muhiti ehtiyojlari bilan bog'lashga va ma'lum estetik idealni ilgari surishga harakat qiladi. Bunga Alisher Navoiy ijodi yorqin misol bo'la oladi.

Yurtimizda ustoz Navoiyning yodi mangu barhayotdir. Prezidentimizning tegishli qaroriga (PQ-4865, 19. 10. 2020y) ko'ra, 2021-yilda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yil ligi keng nishonlanadi.

Qarorga ko'ra, Alisher Navoiy hayoti va ijodini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tashkil etilishi, Alisher Navoiyning ijodiy merosini chuqur o'rganganlarni taqdirlash maqsadida Alisher Navoiy ordeni ta'sis etilishi, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlar mamlakatimizga olib kelish choralari ko'rilishi va yana bir qancha chora-tadbirlar belgilangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzoyev A. Foni va Hofiz. Navoiy va adabiy ta'sir masalari. – T., 1968, 64-bet.
2. Qasida xususida S.Ayniy, A.Fitrat, H.Sulaymon, A.Hayitmetov, Sh.Shukurov, N.Komilov va boshqalar munosabat bildirganlar.

## **XORAZM TARJIMONLARINING SOTSIAL TARKIBI**

**Hilola NAZIROVA,**

*O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti  
katta ilmiy xodim, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

O'zbekiston davlatchilik tarixida Xorazm o'lkasi azaldan tarjimonlik bo'yicha yetakchi hudud hisoblangan. Tarixiy-adabiy jarayonlarga nazar soladigan bo'lsak, Xorazmda hukmronlik qilgan qo'ng'irotlar sulolasi [1806-1920] davrida tarixiy, agiografik asarlarni arab, fors, usmonli turkcha tillaridan O'rta Osiyo turkiysi[chig'atoy]ga katta miqyosda tarjima qilinganini kuzatamiz. Birinchilardan bo'lib, A.Nosirov [1900-1986], J.Sharipov [1911-2002], N.Komilov [1937-2012], F.G'anixo'jayev [1933-2006] V.Rahmonov kabi o'zbekistonlik tadqiqotchilar ushbu merosning qo'lyozmalari, tarjimonlari va tarjima qilingan asarlarini qisman o'rganishgan. Vengriyalik tilshunos olim Arminiy Vamberi [1832–1913] esa Xivaga kelib, Muhammadrizo Ogahiyning [1809-1874] tarjimonligiga e'tibor qaratgan ilk tadqiqotchilardan biridir. U Xorazmda she'riyatga bo'lgan katta qiziqish to'g'risida gapira turib, shunday yozadi: “Xivada ikki aka-uka bilan



tanishdim. Biri Munis, u ajoyib she'rlar yozgan. Hali ulardan ayrimlarini nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob, u sabr bilan o'g'li fors tilini bilsa-da, uning uchun Mirxondning katta tarixiy asarini o'zbek-turkiysiga o'girmoqda. Bu ish 20-yildavom etgan. U qilgan ishi haqida biron kimsa oldida gapirishga uyalardi. Bu yerda diniy ilmlardan boshqasi bilan shug'ullanish yuzaki, muhim emasdek hisoblanadi" [18, 255]. Ushbu matn parchasidan Ogahiy Mirxondning "Ravzat us-safo" asari tarjimasiga ko'p-yillar vaqt sarflagani va boshqa tarjimonlarga ham bosh-qosh bo'lgani ma'lum bo'layotir [10, 20-21, 17-havola].

Angliyalik tadqiqotchi Julliya Skott Meysami [Julie Scott Meisami] [1937–2021] fors tarixshunosligiga bag'ishlangan kitobida saroy muhitida bitilgan turli mavzulardagi asarlarning yozilish shakllarini keltirgan, xususan, uning ta'kidlashicha: "Mo'g'ullar, temuriylar, usmonlilar kabi keyingi davr sulolalari saroy tarixnavisligi va tarjimalarga homiylik qilishgan"[7, 5-9]. O'z davrida shayboniy hukmdorlar ham bu ishga urinib ko'rgan edi. Biroq, bu borada qo'ng'irotlar sulolasi barcha davrlar hukmdorlaridan o'zib ketdi [20, IV-VI; 2, 58-65]. Shak-shubhasiz, qo'ng'irotlar uchun ham taqlid qilishga asos mavjud edi. Albatta, ular buni o'zlari anglagan holda amalga oshirganlar, deb hisoblasak, eng yorqin misol sifatida Mirxondning [1433–1498] "Ravzat us-safo" asari 60-yildavomida tarjima qilinganini eslashning o'zi kifoya. Islom olamining bundan keyingi davrlarga xos "global tarix"ining yaratilishi sulola o'z o'tmishini umumiy musulmon tarixi zanjiriga yangi halqa sifatida qo'shishiga bo'lgan urinishi, deb ham taxmin qilish mumkin" [9, 12, 14, 16-18; 8, XVII; 20, VI, III]. Xonlik tarixnavisligiga ta'sir qilgan bu holat fors va arab tilidagi asarlarning tarjimalariga hukmdor va amaldorlar tomonidan berilgan buyurtmalardir. Mazkur holat elita o'rtasida kamida tarix, adabiyot, diniy bilimlarni, xususan, islom mamlakatlari tarixini bilishga ehtiyoj mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Tarjima qilish tendensiyasi yoki urfi [tabiiyki, o'quvchilar ehtiyojiga asoslangan] deyarli barcha hukmdorlar saroylarida ma'lum va mashhur bo'lgan. Misol uchun, tarjimalar xon saroyi a'yonlari [adabiy] majlislarida o'qilgan. Tarixiy va boshqa turdagi manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, qo'ng'irotlar sulolasi namoyondalari muttasil diniy va adabiy majlislar uyushtirib turganlar. Ularda zamondosh yoki o'tmishda yashab o'tgan, yoki bo'lmasa, boshqa xalqlarga tegishli mualliflarning badiiy, tarixiy asarlari o'qilgan va muhokama qilingan [20, XVIII, 127-havola; 6, 6<sup>a-b</sup>; 19, 1<sup>a</sup>-2<sup>a</sup>].

O'tgan tarixni bunday "turkiylashtirish" madaniy jihatdan olib qaraganda, muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar matnni turkiy tilga o'girilishini asarning ommaviylashuvi, deb hisobladilar, chunki arab va fors tillarida yozilgan asarlar *xos omma* ehtiyojlariga javob berar edi [4, 18]. Gohida, ayrim tarjimalar hukmdorlar ko'rsatmasi asosida emas, ba'zi amaldorlar tashabbusiga ko'ra amalga oshirilgan. Ayni madaniy hodisa yangi sulola davrida mafkuraning shakllanish jarayoni murakkabliklarini ko'rsatadi. Muhammadrahimxon II Feruz [1864–1910] saroy kutubxonasi fihristini tadqiq qilgan olimlar uning davrida tarjima kitoblardan nusxa ko'chirish ko'payganini ta'kidlashadi [3, 5-43]. Keltirilgan ushbu ma'lumotlar Xorazmda qo'ng'irotlar sulolasi o'ziga xos siyosat yuritgani va yangi

madaniy rivojlanish yo'lini bosib o'tganidan dalolat beradi. Muvaffaqiyatli bajarilgan tarjimalar moddiy va ma'naviy taqdirlangan.

Shuni ham qayd etish kerakki, ba'zi asarlar tarjimonlar tomonidan bir necha martalab, yoki katta jamoa bo'lib tarjima qilingan. Jumladan, "Tarixi komil" asari 11 nafar, "Ravzat us-safo" asari esa 5 nafar inson tomonidan amalga oshirilgan, shoirlar ham tarjimonlik sohasida faoliyat yuritishgan [5, 22, 11]. Tarjimalar bilan kimlar shug'ullangan, ularning sotsial kelib chiqishi qanday bo'lgan kabi savollarga javob izlash maqsadida Abdulla Nosirov va Najmiddin Komilov tadqiqotlarini o'zaro qiyosladik. Xorazm tarjimonlik maktabini chuqur tadqiq qilgan f.f.d., professor Najmiddin Komilov tarjimonlar haqidagi ma'lumotlarni boshqa manbalar qatori O'z SSR FA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Abdulla Nosirovdan olganini ta'kidlab, sulola hukmronligi davrida 120 ta asar tarjima qilinganini qayd etgan [5, 12-13]. XX asrning o'rtalarida O'zR FA Sharqshunoslik institutida A. Nosirov kabi madrasa ko'rgan sharq qo'lyozmalari bilimdonlari qo'lyozmalar fondlarini kataloglashtirishda xizmatlari beqiyos edi [1, 347-348]. Xorazm tarjima maktabiga oid ma'lumotlar A.Nosirov tomonidan 1960-yili to'plangani bois, ayni ma'lumotlarni yangidan ko'rib chiqish lozim. Zero, o'tgan davr mobaynida sharqshunoslik va tarjimashunoslik sohasida bir qancha yangiliklar va topilmalar bo'ldi. Abdulla Nosirovning "Xorazmga oid manbalar" nomli asarida ayni shu davrga oid Xorazmda tarjima bo'lgan asarlarning sonini 385 ta ismli, 712 ta nusxada deb ma'lumot berilishi, bu masalani qayta tadqiq qilinishi lozimligini ko'rsatmoqda [11, 3]. Olim nafaqat tarjima qilingan asarlar sonini, balki tarjimonlar sonini ham berib o'tadi.

Najmiddin Komilov ham Abdulla Nosirov tuzgan ro'yxatdan foydalangan, faqat o'zining dissertasiyasidagi tarjimonlar ro'yxati ketma-ketligini mashhur shoir va ulamolardan boshlagan: Masalan, Shermuhammad Munis, Dilovorxo'ja, Mag'furxo'ja Sayyid Husayn Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy, Bobojon Sanoiy. A. Nosirov ro'yxati esa mulla Rahmonquli Qodiriydan boshlangan [4, 113-114; 12, 316-319]. Ikkala ro'yxatni solishtirganimizda. A. Nosirovda 80 ta, N. Komilov ro'yxatida esa 79 ta ism berilganini kuzatdik. Lekin, birinchi tadqiqotchi 38 raqam ostida domla Mahmud oxund bilan 80 raqamdagi Muhammadrasul Mirzaboshi ismlarini N.Komilov ro'yxatida kuzatmadik [12, 317, 319]. N.Komilov ro'yxatida tarjimonlar garchi 79 ta deyilgan bo'lsa-da, bitta shaxs ikki xil nom bilan takror kelgan: Muhammadyusuf Baxshi ibn Bobojonbek [38], Muhammadyusuf Bayoniy [71], shuningdek 35 raqamda ikki tarjimon ismi bitta yozilgan: domla Bekmuhammad Allayor Komiy boshlangan [4, 113-114], aslida bu ismlar A.Nosirov ro'yxatida alohida alohida ketma-ket qayd qilingan. A.Nosirov ro'yxatining yana bir farqli tomoni, tarjimonlarning yonida ular tarjima qilgan asar qo'lyozmalarning ashyo raqamlari ham berilgan. N.Komilov dissertasiyasining ilovalar qismida ham 10 ta banddan iborat tarjima qilingan asar haqida, tarjimonlari, qachon va kim tomondan ko'chirilgan, qayerda saqlanishi kabi ma'lumotlar jamlanmasi mavjud. Olimning o'zi ta'qidlaganidek, bu jadval mukammal emas, zero tarjima asarlarning barcha nusxalari keltirilmagan [4, 350-371]. Ro'yxatni o'zaro qiyoslaganda, ikkinchi farq tarjimonlarning nisbalarida

ko‘rish mumkin, misol uchun A.Nosirov mulla Muhammadrofe‘ oxund Honaqohiy deb yozsa, N.Komilov Xivaqiy deb beradi. Bu nisbani tekshirish uchun Sharq qo‘lyozmalari katalogi va J.Sharipov kitoblariga murojaat qildik, katalogda tarjimonlarning nisbalari keltirilmagan bo‘lsa, J.Sharipovda esa Xivaqiy nisbasini uchratdik, tadqiqotlarni hali davom ettirish lozim [16, 344, 346; 15, 417]. Umuman tarjimonlar ro‘yxatida yaqqol ko‘zga tashlanadigan yana bir holat, ismlar tarkibidagi domulla, oxund, mufti kabi kasb va mansablarning zikr qilinganligidir. Umumiy ro‘yxatni 4 ga bo‘lib o‘rganish mumkin: shoirlar, sayyid, xo‘ja va so‘filar, domla, oxund, mulla, muftilar, to‘ra va xon avlodiga mansub xonadon vakillari. Ro‘yxatda keltirilgan tarjimonlarning 49 tasida domla, oxund, mulla, muftiylar kabi mansablar uchraydi. Taqriban 70 foiz tarjimonlar diniy qatlam vakillari ekanligi oydinlashadi. Lekin qizig‘i ular tarjima qilgan asarlar hanuzgacha tadqiqot doiralariga tortilmagan. Odatda, domla, oxund va muftiylar masjid va madrasalarda turli vazifalarni bajarishgan. Talaba o‘qitishdan tortib, vaqf mulklarini boshqaruviga qadar.

Qo‘ng‘irotlar moddiy boyliklarning ma‘lum qismini shaharsozlik, ta‘lim, adabiyot, tarjima va tarixnavislik kabi sohalarga sarflashgan. Xonlar har qanday mansabda faoliyat yuritayotgan shaxsni agar u qalam ahlidan bo‘lsa, tarjima, tarixnavislik, she‘riyat yoki diniy ilmlarga oid asarlarga buyurtma berib jalb qila olgan. Natijada, Xiva xonligi Markaziy Osiyo hududida turkiy tilli boy kitoblar majmuasiga ega bo‘lgan. Turkiy tilli ta‘lim tizimiga ega madrasalarning rivojlantirilishi qo‘shni hududdagi xalqlarning talabalari ham Xiva xonligi hududidagi ta‘lim maskanlariga o‘qishiga zamin yaratgan. Tadqiqotchi Paolo Sartorining [Paolo Sartori] maqolasida Xiva xonligida sulola tomonidan ko‘plab madrasalar qurilgani, ularning turkiy tilga tarjima qilingan kitoblar bilan ta‘minlanishi haqida gap boradi [14, 98-134]. Darsliklarning son jihatdan nusxalari ko‘p bo‘lgan. Olim haqli ravishda sulola tarixiga oid asar qo‘lyozmalarining kam ko‘chirilganini hisobga olib, asar faqat saroy muhitida o‘qilgani va keng ommaga mo‘ljallanmagan, deya fikr bildiradi [14, 104-105, 19-havola]. Tarixiy asarlarning murakkab saj‘ tilida yozilgani ham uning fikrini quvvatlaydi. Turkiy tilda so‘zlashuvchi omma bu tilni tushunishga albatta qiynalar edi. Ya‘ni, turkiy tildagi madrasa darsliklari saroy uchun yozilgan tarixiy asarlardan nusxalari va til soddaligi jihatdan farq qilgan.

Fransuz olimi Mark Tutan [Marc Toutant] Xiva xonligida ilm-fan va adabiyot tilining fors tilidan turkiylashish jarayoni haqida yoza turib, xonlikda turkiylashish hokimiyat mustahkamligiga va saroy ahli madaniyatini mahallashuviga xizmat qilgan, degan g‘oyani ilgari suradi. Olim, tadqiqotchi Paolo Sartorining o‘zbek xonliklar davriga nisbatan “introversion period”, ya‘ni “o‘z-o‘i bilan ovora davri” degan fikriga qo‘shiladi va maqolasida bunga misollar keltiradi [13, 148-149]. Ammo maqolada mahalliy manbalarga kam murojaat qilingani bois, ayrim fikrlarda noaniqliklar mavjud [17, 243-257].

Xulosa. O‘zbek olimlari tomonidan Xorazm tarjima maktabiga oid boy faktologik material birlamchi tadqiqotlarga tortilgan. Xususan, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazardan qisman asarlar asl manbalar bilan taqqoslab

oʻrganilgan. Lekin, sobiq sovet davrida diniy mavzudagi har qanday tadqiqotga cheklovlar oʻrnatilgani uchun, garchi mustaqil boʻlganimizga 30-yil toʻlsa-da, bu yoʻnalish diniy asarlar tarjimashunosligida hali asosli tadqiqot qilinmadi. Yuqorida maʼlum boʻldiki, asosiy tarjima qilingan asarlar diniy kontekstga ega va ularni tarjima qilganlar ham ulamolar qatlamidan. Shunday ekan, bu yoʻnalishda naqafat tarjimashunslok, sharqshunoslik, adabiyotshunoslik balki islomshunoslik kabi fanlararo yoʻndashuv kerak. Shunda biz, Bobojon Sanoiy aytganidek “tarjima sahifalarida ularning sasi va soʻzi”ni anglay olamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Babadjanov B. “Ulama” v Sovetskom Institute vostokovedeniya // Istoriya i istoriki Uzbekistana v XX veke. –Tashkent.: NAVROʻZ, 2014. –S. 347-348.
2. Erkinov A. Timuridskiy manerizm v literaturnoy srede Xivi pri Muhammad Raximxane II [na primere antologii «Madjmuʻa-yi shuʻara-yi Firuz-shaxi»] // Vestnik MISAI. –Samarkand, 2008. –№ 8. –S. 58-65.
3. Erkinov A. , Polvonov N. , Aminov H. XIX asr oxiri – XX asr boshi Xiva madaniy muhiti // A. Erkinov, N. Polvonov, H. Aminov. Muhammad Rahimxon II–Feruz kutubxonasi fihristi [Xorazmda kitobat va kutubxonachilik tarixidan]. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. –384 b.
4. Kamilov N. Xorezmskaya shkola perevoda [problemi tipologii i sopostavitelnoye issledovaniye istorii perevoda v XIX v. ]: Diss... . d-ra. fil. nauk. –Tashkent.: TashGU, 1987. –374 s.
5. Komilov N. Bu qadimiy sanʼat: Risola. –Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1988. – 192 b.
6. Laffasiy Hasanmurod. Tazkira-yi shuaro. OʻzR FA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmasi, inv. № 12561. –V. 1a-107a.
7. Meisami Julie Scott. Persian historiography: To the End Twelfth Century. – Edinburg: Edinburg University Press, 1999. – 319 p.
8. Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab, Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ Transl. from Chaghatay and annotated by Yu. Bregel. – Leiden, 1999. –lxxvii-718 p.
9. Munis Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Rizā Mīrāb, Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ ed. by Yu. Bregel. –Leiden, 1988. –1281 p.
10. Nazirova H. Vamberi Ogahiy bilan uchrashganmi? // Xorazm Maʼmun akademiyasi. –Xiva: Xorazm Maʼmun akademiyasi noshirlik boʻlimi, 2012. – № 3. –B. 20-23.
11. Nosirov Abdulla. Xorazmga oid manbalar. OʻzR FA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmasi, inv. № 13423.
12. Nosirov Abdulla. Xorazmga oid manbalar. OʻzR FA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmasi, inv. № 13424.
13. Sartori P. “Introduction: On Khvārazmian Connectivity: Two or Three Things That I Know about It // Journal of Persianate Studies. – 2016, № 9. – P. 148–49.
14. Sartori P. On Madrasas, Legitimation, and Islamic Revivalin 19th-Century Khorezm// Eurasian Studies: Studies in Khorezmian Connectivity –Leiden: Brill, 2016. – vol. 14. Issue 1-2. –P. 98-134.

15. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan [Revolutsiyadan oldingi davr]. – Toshkent: Fan, 1965. –481 b.
16. Sobraniye vostochnyx rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR [katalog]/ Pod red. i pri uchastii kand. ist. nauk. Urumbayeva A. i kand. filol. nauk. Yepifanovoy L. –Tashkent, 1964. – T. VII. – 554 s.
17. Toutant Marc. De-Persifying Court Culture the Khanate of Khiva’s Translation Program // The Persianate World. The Frontiers of a Eurasian Lingua Franca Book Editor[s]: Nile Green. –Published by: University of California Press. –P. 243-257. Elektron manba: <https://www.jstor.org/stable/j.ctvr7fdrv.17/>
18. Vamberi A. Puteshestviye po Sredney Azii. –Moskva, 2003. – 320 s.
19. Vosifiy Zayniddin Mahmud ibn Abdiljamil. «Badoye’ ul-vaqoye’» asarining turkiy tarjiması. O‘zR FA SHI Hamid Sulaymon fondi, № 2628. –V. 1a-217a.
20. Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami‘ al-vaqi‘at-i sultani / Edited in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Nouryaghdi Tashev. ICAS. –Samarqand-Tashkent: Mega Basim, 2012. – kirish rus va ingliz tillarida [XXVII s; xxx p. ] –63 s; matn –270 b. –333 b.

## **“BABURNAMƏ”NİN BAKI ƏLYAZMASININ MÖVQEYİNƏ VƏ TƏDQIQİNƏ DAİR**

*Bəxtiyar MƏMMƏDOV,  
(Ozarbayjon Respublikasi)*

Zəhirəddin Məhəmməd Baburun ən geniş şöhrət qazanmış əsərinin “Baburnamə” olduğu və bu möhtəşəm abidənin iniyə qədər bir sıra xarici dillərə tərcümə edildiyi hamımıza yaxşı məlumdur[1, 5-8;3, 349-353;4, 156-160;6, 312-322;7, 116-123;8, 199-205;9, 139-143;10, 86-93 və s.].

“Baburnamə”nin bu günəçən dünyanın müxtəlif əlyazmaları fondlarında qorunub saxlanan 17 nüsxəsindən [8, 200] hansılarının daha yaygınlığı və nisbətən dolğunluğu haqqında görkəmli özbək mətnşünası Parsa Şəmsiyevin aşağıdakı fikirləri diqqətəlayiqdir:

“... Əsərin əsl adı “Baburiyyə” olsa da, onu “Vaqinamə”, “Tüzüki-Baburi”, “Vaqiyati-Baburi” kimi də adlandırdılar, sonralar isə əsər “Baburnamə” adı ilə məşhurlaşdı.

Bu əsərin mövcud tam mətni 1857-ci ildə türkoloq N. İ. İlminski tərəfindən özünün nəşr prinsipləri haqqında dörd səhifəlik ön sözlə və tipoqrafiya üsulu ilə Kazanda çap olunmuşdur. Əsəri nəşrə hazırlamaqda və dünyaya çıxarmaqda rus alimi N. İ. İlminskinin qızgın fəaliyyətini ayrıca vurğulamaq lazımdır.

Bu nəşrdən sonra ingilis şərqşünaslarından A. Beveric xanım 1905-ci ildə “Baburnamə”nin Heydərabadda tapılmış bir əlyazmasının faksimilesini [əlyazmasının eynən özünü] sinkoqrafiya üsulu ilə çap etdi. Bu nüsxənin nə vaxt və kim tərəfindən köçürüldüyü məlum deyildir. Bu da tam mətn olsa da, Kazan nəşri ilə müqayisədə bəzi nöqsanları və buraxılmış yerləri vardır...

... Bax, bu iki mövcud nüsxəyə əsaslanıb, 1948-1949-cu illərdə “Baburnamə”nin iki hissədən ibarət tam mətni çap olunub yayılmışdı...

... Bundan sonra “Baburnamə”nin tam mətni 1960-cı ildə yenidən nəşrə hazırlandı və nəşr olundu...

... “Baburnamə”nin tərəfimizdən hazırlanmış bu üçüncü nəşrində də əvvəlki nəşrlərdəki kimi, yuxarıdakı əsas və köməkçi mənbələrlə tutuşdurulub, çapda üz vermiş və öz tərəfimizdən yol verilmiş xəta və çatışmazlıqları aradan qaldırmağa və düzəltməyə səy göstərildi...” [1, 6-7].

“Baburnamə”nin sözügedən məşhur nəşrlərindən sonra aradan keçən yarım əsrdən çox vaxt ərzində əsərin bir sıra başqa nəşrlərində aparılan uğurları qeyd etməklə bərabər, görkəmli və təcrübəli mətnşünas P. Şəmsiyevin iştirakı ilə həyata keçirilən nəşrlərin indiyə qədər, xüsusən, bir cəhətdən öz mötəbərliyini qoruyub saxladığını da qədirbilənliliklə vurğulamaq lazım gəlir. Biz burada “Baburnamə”nin ən yaygın əlyazmalara əsaslanan çap nüsxələri [Kazan və London] arasındakı fərqlərin üzə çıxarılmasını nəzərdə tuturuq. Fikrimizcə, bu, təkcə “Baburnamə”nin de- yil, ümumən Babur yaradıcılığının dərinədən öyrənilməsində mühüm əhəmiyyətə malik bir məsələdir.

Bu baxımdan son zamanlara qədər “Baburnamə”nin dünyanın müxtəlif əlyazmaları xəzinələrində qorunub saxlanan nüsxələri arasında diqqətdən kənar qalan Bakı əlyazma nüsxəsinin diqqət mərkəzinə çəkilməsi böyük maraq doğurur. Sözügedən nüsxəni ilk dəfə çağdaş baburşünaslığın gündəminə gətirən və maraq dairəsinə təqdim edən tanınmış Azərbaycan ədəbiyyatşünası, Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələrinin görkəmli tədqiqatçısı, filologiya elmləri doktoru Almaz Ülvi [Binnətova A.] olmuşdur. Ədəbiyyatşünas “Baburnamə”nin Bakı əlyazması nüsxəsinin təsviri və “Baburnamə” də Əlişir Nəvai haqqında” adlı tədqiqatında yazır:

“Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Məhəmməd Füzili adına Əlyazmalar İnstitutunda qorunan minlərlə qədim əlyazması nüsxələrindən biri də Zəhirəddin Məhəmməd Baburun “Baburnamə” əsəridir [Babur Zəhirəddin Məhəmməd Baburnamə [əlyazması] //AMEA M. Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutu, Nadir əlyazmalar fondu, şifri:C-391/13609]. İnstitutun Nadir əlyazmalar fondunda saxlanan həmin əsərin təsviri belədir:

- Babur Məhəmməd Zəhirəddin. Baburnamə [özbək dilində]

- Əlyazmasında Şeyx Zeynəddinin farsca fərmanları vardır.

- Əlyazması Orta Asiya üsulu ilə hazırlanmış medalyonlu meşin cildə tutulmuşdur.

- Xətti: şikəstə-təliq

- Əsər ortadan və sondan naqisdir... ”[2, 16]

Almaz Ülvinin bu tədqiqatının bir maraqlı cəhəti də ondan ibarətdir ki, onda müəllif Bakı əlyazmasının təsvirinə davam etməklə yanaşı, eyni zamanda, bir ədəbiyyatçı instuisiyası ilə onun tezliklə baburşünaslıqda böyük maraq doğuracağına əvvəlcədən dərin inam bildirir:

“ – Məzmunu: 899-cu ildən 935-ci ilə qədər Fərqanədə, Kabildə və Hindistanda baş verən Hadisələrdən bəhs edir.

- Ölçüsü: 15x26 sm.
- Həcmi: 425 vərəq,
- Şifri: C-391/13609.

Əlyazmanın bu təsviri tədqiqatçılar üçün maraq kəsb edəcəyinə əminik. Məsələn, elə bu kontekstdən yanaşsaq, bir qeyd-məktubu diqqətə yetirmək istərdik. Yaponiyadan olan 87 yaşlı baburşünas alim Professor Eiji Mano ilə Özbəkistanda –Z. M. Baburun doğulduğu Əndican şəhərində tanış olmuşduq. Baburşünas alim “Z. M. Babur – 534” beynəlxalq elmi konfransından öz vətəninə qayıdandan bir neçə gün sonra ondan dalbadal 5 məktub aldım. Qeyd etmək istəyirəm ki, konfransda məruzəm yüksək dəyərləndirilmişdi, həmin yapon alim də fasilə zamanı yaxınlaşaraq “- məruzəniz məni həvəsləndirdi ki, Bakı əlyazması nüsxəsini incələyim. Fikrimi sizə göndərəcəm”. O, “Baburnamə”nin Bakı nüsxəsinin elektron nüsxəsini Özbəkistanın Əndican şəhərindəki Babur muzeyindən almış və öz vətəninə incələyərək, dediyi kimi fikrini yazaraq ünvanımıza göndərdi...” [2, 17].

Burada, yeri gəlmişkən, onu da vurğulamaq vacibdir ki, Eyji Mano, istər baburşünas kimi, istər mətnşünas kimi sıradan biri olan imzalardan de- yil. O, öz vətəninə “Baburnamə”nin tədqiqi və nəşri sahəsində bir sıra ciddi uğurlara imza atmış məşhur və təcrübəli şərqşünaslardan sa- yılır. Heç də təsadüfi de- yildir ki, tanınmış özbək mətnşünası Səidbek Həsənov tərəfindən yenidən nəşrə hazırlanmış və 2002-ci ildə Daşkəndin “Şərq” nəşriyyatında işıq üzü görmüş “Baburnamə”nin yeni nəşrində də Parsa Şəmsiyev və Sadiq Mirzəyev kimi görkəmli özbək alimlərinin sırasında Eyji Manonun da təcrübəsi əsas kimi götürülmüşdür[5, 64-66].

Yaponiyalı baburşünasın Azərbaycan ədəbiyyatşünasına “Baburnamə”nin Bakı əlyazması ilə bağlı yazdığı məktublarda məzmunu və səciyyəsinə gəlsək, ədəbiyyatşünas Almaz Ülvinin şəxsi arxivində saxlanan bu məktublarda əsas xüsusiyyətlərini aşağıdakı şəkildə diqqət mərkəzinə çəkmək olar:

1. Prof. Dr. Eyji Mano [Yaponiya, Tokio] tərəfindən Azərbaycan paytaxtına, filologiya elmləri doktoru Almaz Ülvi Binnətovaya 10 gün ərzində [01 noyabr 2017-ci ildən 10-noyabr 2017-ci ilə qədər] ünvanlanmış beş yığcam məktubun hamısının əsas mövzunu “Baburnamə”nin Bakı əlyazmasının ayrı-ayrı cəhətlərinin qısaca təhlili, yaxud onun başqa yaygın əlyazma nüsxələri ilə müqayisəsi təşkil edir.

2. Məktublarda, bəzi istisnalara baxmayaraq[məsələn, bəzən “əlyazma” anlayışının özbəkçə “kolyazma” variantının işlədilməsi və s.] əsasən Türkiyə türkcəsində yazılmışdır və bir qayda olaraq, ziyalı mədəniyyətinə uyğun salam-sayqı və sağollaşma ifadə edən sözlərlə başlanır və başa çatır.

3. Məktublarda, demək olar ki, hamsında yapon aliminin “Baburnamə”yə sonsuz sevgisi ilə bərabər, əsərin Bakı əlyazmasına böyük marağı [“Enteresan kolyazmasıdır”, “Baku nüsxəsi biricikdir”, “Şimdi bilmiyorum, Baku nüsxəsi ilə bənim tənqidi mətnimi düzəltmək lazım və ya olmaz” və s.] aşıq-aşkar hiss olunur.

4. Məktublarda Eyji Manonun bəzi məqamlarda tərəddüd keçirməsi və təbir caizsə, özü özü ilə mübahisəyə girişməsi, bir tərəfdən, onun məsələyə son dərəcə elmi məsuliyyət və diqqətlə yanaşmasından xəbər verirsə, ikinci tərəfdən,

gələcəkdə “Baburnamə”nin ən yaygın əlyazma nüsxələri arasında Bakı nüsxəsinin özünəməxsus yeri və rolu haqqında ciddi bir tədqiqatın yaranacağına dərin inam oyadır.

5. Eyji Manonun Bakı əlyazmasının özünəməxsusluğuna dair qiymətli fikirləri, hər şeydən öncə, fakt və dəlillərin inandırıcılığı ilə diqqəti yaxından cəlb edir. Xüsusən, 08 noyabr 2017-ci il tarixli dördüncü məktubunda “... Bakı əlyazması “Baburnamə” nin əlyazmaları arasında nadir bir yazma deməkdir” xülasəsindən sonra təcrübəli mətnşünasın başqa məşhur nüsxələrdən və Bakı əlyazma nüsxəsindən gətirdiyi mətnlər ortasındakı ciddi fərqlər xülasənin doğruluğunu bir daha sübuta yetirir[2, 18-19].

6. Eyji Mano öz məktublarında, eyni zamanda, elmi etikaya və prinsipallığa ciddi riayət edib, “Baburnamə” nin digər yaygın əlyazma nüsxələrini, o cümlədən, görkəmli şərqşünas N. İ. İlminski tərəfindən elmi dövriyyəyə gətirilən məşhur nüsxəni də diqqət mərkəzindən yayındırmır.

7. Məktublarda “Baburnamə” nin Bakı əlyazmasına diqqəti yönəltdiyi üçün tanınmış Azərbaycan ədəbiyyatşünası Almaz Ülviyə görkəmli yapon şərqşünası və baburşünası Eyji Manonun ehtiramı və təşəkkürü ayrıca vurğulanır.

**Açar sözlər:** “Baburnamə”, Bakı əlyazma nüsxəsi, Eyji Mano, Almaz Ülvi, məktublar

### **Xülasə [Rezyüme]**

Zəhirəddin Məhəmməd Baburun [1483-1530] möhtəşəm “Baburnamə” əsərinin Bakı əlyazması nüsxəsinin diqqət mərkəzinə çəkilməsi və onun Eyji Mano kimi dünya şöhrətli mətnşünası və baburşünası yaxından maraqlandırması, bir tərəfdən, yeni araşdırmaların və nəşrlərin yaranmasına təkanverici amil kimi qiymətlidirsə, başqa tərəfdən, çağdaş baburşünaslığa Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığının və onun tanınmış nümayəndəsi Almaz Ülvi Binnətovanın özünəməxsus töhfəsi kimi diqqətəlayiqdir.

### **Ədəbiyyat:**

1. Babur Z. M. Baburnamə, - Əsərlər, üç cildlik, II-III cildlər, Daşkənd, Bədiyy ədəbiyyat nəşriyyatı, 1965.

2. Binnətova A. [Almaz Ülvi]. “Baburnamə”nin Bakı əlyazması nüsxəsinin təsviri və “Baburnamə” də Ə. Nəvai haqqında, - Beynəlxalq Elmi Konfrans [12. 02. 2021] materialları, Bakı, “Optimist” MMC, 2022, s. 16-28.

3. Corabayev A. Cahan əlyazma fondlarındakı Nəvai və Babur əsərləri, - “Özbək mümtaz və çağdaş ədəbiyyatının beynəlxalq miqyasda tədqiqi və təbliğinin aktual məsələləri” mövzusunda Beynəlxalq Elmi Konfrans [06. 08. 2018] materialları, Daşkənd, “Məşhur-press”, 2018, s. 349-353.

4. Ergəşov Q. “Baburnamə” və memuar nəsr tərəqqiyatı, - Beynəlxalq Elmi Konfrans[12. 02. 2021] materialları, s. 156-160.

5. Eşanqulov C. “Baburnamə” də folklor ünsürləri, -Beynəlxalq Elmi Konfrans [12. 02. 2021] materialları, s. 62-68.

6. Ədizova İ. Zəhirəddin Məhəmməd Babur icadının xaricdə öyrənilməsi müəmmaları, - Beynəlxalq Elmi Konfrans [06. 08. 2018] materialları, s. 312-322.



7. Feyzullayeva A. “Baburnamə” də icadkar şəxslər təlqini, - Beynəlxalq Elmi Konfrans [12. 02. 2021] materialları, s. 116-123.

8. Həyitov. Ş. Babur əsərləri dünya nighında, - Beynəlxalq Elmi Konfrans [12. 02. 2021]materialları, s. 199-205.

9. Məmmədov. B. “Baburnamə”də tarixi simalar, -Beynəlxalq Elmi Konfrans[12. 02. 2021] materialları, s. 139-143.

Zəhirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan, - Z. M. Baburun anadan olmasının 538 illiyi münasibətilə 12 fevral 2021-ci ildə keçirilən Beynəlxalq Konfransın materialları, Bakı, “Optimist” MMC, 2022, 208 səh.

## **EPOS JANRI VA UNI O‘RGANISH HAQIDA BA‘ZI SHARHLAR**

*Jabbar UTEGENOV,*

**Guliston davlat universiteti**

**Rus tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi**

Har bir millatning qahramonlik she'ri, birinchi navbatda, ushbu xalq boshidan kechirgan ko'plab tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'liqdir.

Choqan Ualixanov qozoq, qirg'iz, o'zbek va boshqa xalqlar eposining kelib chiqishini XIV-XVI asrlar, Oltin O'rda davri bilan bog'laydi: "Qozoq, qirg'iz, o'zbek, Nogay og'zaki adabiyoti-bu batirlar haqidagi she'rning bir turi. Ularning aksariyati Oltin O'rda davrida mavjud bo'lgan tarixiy odamlar haqida. Ko'rinib turibdiki, bu zaburlar XIV asr oxirida, XV-XVI asrlarda yaratilgan"[1, 30] -, deb yozadi.

Qahramonlik she'rlarining aksariyati qozoq xalqining Jungariya, Qalmoq bosqinlariga qarshi, o'z mamlakatining mustaqilligi uchun olib borgan kurashi haqida hikoya qiladi.

Qahramonlik she'rida shaxsiy manfaatlar emas, balki urug', qabila va mamlakat manfaatlari ustunlik qiladi.

Muxtor Auezov qahramonlik she'rining ko'pligi va uning qozoq xalqidagi ahamiyatiga e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidladi: "Bu dostonlar qadimgi davrlarda Markaziy Osiyo, Qrim va Volgada yashovchi ko'chmanchi qabilalar boshdan kechirgan haqiqiy tarixiy voqealarning she'riy aksidir. Botirlar qahramonlari – Koblandiy, Kambar, tarkin, Alpomish, Sain nomlari tarixiy voqealar bilan bog'liq" [2, 234-235], - deb yozadi.

Ma'lumki, qozoq xalq og'zaki adabiyotiga, uning yozilishiga, yig'ilishiga e'tibor XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Bu sohada avvalo buyuk rus xalqining mashhur olimlari, ma'rifatparvarlari, turkologlari ish olib boradilar. Alohida minnatdorchilik bilan rus olimlari, turkologlari N. Ilminskiy, V. Radlov, G. Potanin, A. Alektorov, V. Lutshi va boshqalarning nomlarini eslaymiz., shuningdek, faxriy o'g'illari, qozoq xalqining buyuk ma'rifatparvarlari–Chokan Valixonov, Ibray Oltinsarinlarning ismlari. Ularning ko'pchiligi, ayniqsa, mashhur rus olimi, turkolog, akademik V. V. Radlov, Sharq mamlakatlari adabiyoti va madaniyatini ko'p o'rgangan olim. Ma'lumki, Cho'qon Ualixonovning do'sti G. N. Potanin qozoq xalq og'zaki adabiyotining juda ko'p namunalarini to'plab o'rgangan,

qozoq folklorini yuqori baholagan. G. N. Potaninning: "menimcha, butun qozoq dashti kuylaydi" degan so'zlari xalq orasida mashhur bo'lib ketgan. Rus olimlari qozoq she'riyati, qo'shiqlari, kuylari, she'rlari, uning ajoyib xonandalari, jirshirlari haqida juda ko'p fikrlarga ega. Masalan: N. Ilminskiy 1859-yilda bepoyon qozoq dashtining g'arbiy viloyati atoqli jirau marabai jirauni atayin chaqirib, undan "Er Targin" ni yozib, 1862-yilda Orenburgda bosib chiqardi. Va 1906 yilda Orenburg arxivining ilmiy komissiyasi Orenburgga bir nechta taniqli jirauni maxsus taklif qildi va ulardan 50 dan ortiq qahramonlik she'rlarini yozdi. Bu ishga arxiv ilmiy komissiyasi raisi V. Karlson boshchilik qildi.

Qahramon qozoq zaburlarini yig'ish, o'rganish va nashr etish muammolari haqida ko'p yozilgan. Jumladan, S.Seyfullin, M.Auezov, S.Mukanov, A.Margulan, E.Ismoilov, B.Kenjebayev, A.Konyratbayev, S.Smirnova, K.Jumaliev, M.Gabdullin, R.Berdiboev asarlarida dostonlar masalasi yoritilgan. Abubakir Divayev qozoq xalq she'riyatini to'plash va uning materiallarini uzluksiz yoritish ustida ko'p mehnat qilganlardan. U Shimkent, Oqmeshit, Qazali, Aulieata, Toshkent, Jetisu uezi, Sirdaryo va Turkiston uezlarining barcha tumanlariga sayohat qilib, qahramonlik she'rlari, ertak, maqol, matal, marosim va boshqa janrlardan boy materiallar to'pladi.

Abubakir Divayev tomonidan to'plangan qozoq she'riyatining ulkan xazinasiga ega bo'ldik. 1922-yilda Toshkentda bir qancha kitoblar nashr etildi ("Alpomish botir", "Qambar botir", "Er Targin", "Sayin", "Shora botir" va b.).

Qahramonlik she'rining dastlabki to'plamlari 1922, 1932, 1939 yillarda nashr etilgan. Ish 1957 yilda qayta ochilgan. 1977 yilgacha u yigirma yil davomida bir necha bor nashr etilgan. Lekin bu allaqachon Zabur ma'lum qilindi. Men faqat uni qayta chop. Ushbu to'plamlarga yangi, ilgari nashr etilmagan bokira she'rlari kiritilmagan.

Ammo bugungi kunga qadar Qozog'iston SSR Fanlar Akademiyasining akademigi M.O.Auezov nomidagi adabiyot va san'at instituti og'zaki adabiyot asarlarining eng yaxshi namunalarini tanlab oldi va 1986-yilda ko'p jildli kitob nashr etdi. XIX-XX asrlarda qahramonlik she'rini jonlantirishga alohida e'tibor berildi. Bu yil eng taniqli shoirlardan biri jirau bu yil mamlakatda ishlaydi. Agar "Qrimning qirq qahramoni" 1942-yilda yozilgan bo'lsa (talaffuz qilingan – burun Sengirbayev), keyin bu qadim zamonlardan beri qozoqlarga ma'lum bo'lgan tarixiy syujetlarni qayta talqin qilish edi. Dostondagi ko'pma'nolilik shu tarzda tug'iladi. Masalan: Institut fondida 15 ta "Alpomish botir", 32 ta "Korogli", 26 ta "Qambar botir", 26 ta "Qoblandy botir", 12 ta "Er Targin"variantlari mavjud.

Qahramonlik she'rlarini sotsiologik umumlashtirishda, avvalo, ularning hamisha jamiyat manfaatlariga, mamlakat ishlariga xizmat qilishini ko'z oldimizga keltiradi. Qahramonlik she'rida nafaqat alohida voqealar, balki tarixning ba'zi arvohlari ham tasvirlangan. Ushbu zaburlardan xalqning qahramonlik qiyofasi aniq ko'rinib turibdi – o'zgarmas fidoyilik, haqiqiy qahramonga munosib kuchli muhabbat, sodiq, o'zgarmas do'stlik, ona yurtiga, vataniga muhabbat-bularning barchasi. Mana, ayniqsa, qahramonlik davrimizda xalqning qahramonlik qo'shig'ining tarbiyaviy ahamiyati katta. Qozoq botirlari nafaqat o'tmish haqida

gapirishadi, balki qiyin paytlarda ham yordam berishadi, jasoratni osmonga ko'tarishadi.

Zero, qozoq eposining umumiy ruhi hayotga yaqin. Uni Choqan, V. Radlov, A. Orlov, M. Auezovlar hayoti solnomasi deb atashlari hech gap emas.

Adabiyotlar:

1. Ch.Valixanov. tanlangan asarlar. 1904, 30-bet.
2. Muxtor Auezov. Esselar.. 11-jild. Olma-Olmaota, yozuvchi, 1969, 234-235 betlar.

## ALISHER NAVOIY ASARLARINING PARIJ QO'LYOZMALARI

Oysara MADALIYEVA,

*PhD, O'zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,  
TDSHU o'qituvchisi*

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy [1441–1501] asarlari qo'lyozmalari tarqalishining geografik chegarasi ikki hodisa bilan bog'lanadi. Bularning birinchisi, Navoiy hayotligi chog'idan to XX asrgacha uning asrlari shoir yashagan hududning tashqarisida ham ko'chirilavergan [8]. Ikkinchisi, bir hududda ko'chirilgan qo'lyozmalar turli sabab bilan boshqa mamlakatlarga olib ketilgan [22, 30]. Natijada, Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tarqalish geografiyasi kengayib boravergan. Shu ma'noda, shoir asarlari qo'lyozmalarining ko'chirilish joyi hamda saqlanish joyi kabi tushunchalar shakllangan va bular boshqa-boshqa hodisalar hisoblanadi.

M.Toutant Navoiy ijodiy merosi haqida shunday yozadi: “Shoir ijodi Yevropa olimlari uchun uzoq vaqt noma'lum bo'lib qolmadi” [29, 44]. Aytish mumkinki, Navoiy ijodini tadqiq etish Yevropa, xususan, Fransiyada hozirgi kunda ham yetarli darajada rivojlanib bormoqda [29]. Navoiy asarlarining Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmalari kunimizga qadar bir qancha olimlar tomonidan turli yo'nalishda o'rganildi [13; 14; 15; 16; 17; 18; 19; 20; 21; 23; 24; 25, 29; 30]. Biz mazkur maqolada ushbu qo'lyozma asarlarning umumiy jihatlari va ularning tarkibi bo'yicha aniqlangan ba'zi yangiliklar borasida so'z yuritamiz. Manbalarga ko'ra, Fransiya milliy kutubxonasida Navoiy asarlarining o'ttizdan ortiq nusxalari mavjud [29, 53]. Biz shulardan “Kulliyoti Navoiy”, shuningdek, asarlaridan o'n bittasining alohida tartibdagi nusxalari – jami yigirma ikkita qo'lyozmaning tavsiflarini amalga oshirdik [30, 109-110]. Quyida ularning qisqa tavsiflari berilgan jadval bilan tanishishingiz mumkin.

### ALISHER NAVOIY ASARLARINING FRANSIYA MILLIY KUTUBXONASIDA SAQLANAYOTGAN QO'LYOZMALARI

*1- jadval*

$T/r$	Asar nomi	Ko'chiruvchi	Ko'chirilgan vaqti va joyi	Xat turi	Hajmi	Inv. №
1.	<i>Badoe' ul-bidoya</i>	–	885/1480–1481	nasta'liq	231 varaq	Suppl. turc. 746
2.	<i>Badoe' ul-bidoya</i>	–	–	nasta'liq	194 varaq	Suppl. turc. 991
3.	<i>Devon</i>	Mirak ibn	979/1571–	nasta'liq	209	Suppl. turc.

		Xovand Muhammad Shayx	1572, Samarqand		varaq	997
4.	<i>Kulliyot</i> [1-jild]	Ali Hijroniy	933/1526-1527, Hirot	nasta'liq	496 varaq	Suppl. turc. 316
5.	<i>Kulliyot</i> [1-jild]	Ali Hijroniy	933/1526-1527, Hirot	nasta'liq	409 varaq	Suppl. turc. 317
6.	<i>Lison ut-tayr</i>	–	960/1552–1553	nasta'liq	60 varaq	Suppl. turc. 996
7.	<i>Lison ut-tayr</i>	–	–	nasta'liq	156 varaq	Suppl. turc. 331
8.	<i>Majnun va Layli</i>	Darvesh Ahmad ibn Shayx Junayd ibn Mavlono Ya'qub	1 sha'bon 889/24 avgust 1484	nasta'liq	128 varaq	Suppl. turc. 1008
9.	<i>Majolis un-nafois</i>	–	14 shavvol 1059/21 oktyabr 1649	nasta'liq	73 [16-736] varaq	Suppl. turc. 1003/I
1.	<i>Majolis un-nafois</i>	–	–	nasta'liq	109 varaq	Suppl. turc. 965
10.	<i>Mahbub ul-qulub</i>	Sayyid Qosim al-Qorabog'iy	977/1569–1570	nasta'liq	89 varaq	Suppl. turc. 327
11.	<i>Farhod va Shirin</i>	Pir Ahmad ibn Iskandar	941/1534–1535	nasta'liq	182 varaq	Suppl. turc. 980
12.	<i>Xamsat ul-mutahayyirin</i>	–	30 sha'bon 939/17 mart 1533	nasta'liq	60 varaq	Suppl. turc. 976
13.	<i>Xamsat ul-mutahayyirin</i>	Muso as-Samarqandiy	961/1554, Makka	nasta'liq	110 varaq	Suppl. turc. 747
14.	<i>Xamsat ul-mutahayyirin</i>	Mas'ud ibn Ibrohim ibn Amrilloh ibn Abdi ibn Turmish	Rabi' I ning boshi 1077/sentyabr 1666, Istanbul	nasta'liq	119 varaq	Suppl. turc. 329
15.	<i>G'aroyib us-sig'ar</i>	Hidoyatulloh al-kotib ash-Sheroziy	972/1564–1565	nasta'liq	286 varaq	Suppl. turc. 762
16.	<i>G'aroyib us-sig'ar</i>	–	–	nasta'liq	134 varaq	Suppl. turc. 994
17.	“ <i>G'aroyib us-sig'ar</i> ” <i>debochasi</i>	–	–	nasta'liq	23 varaq	Suppl. turc. 328
8.	<i>Hayrat ul-abror</i>	–	XVIII asr	nasta'liq	141 varaq	Suppl. turc. 1247
9.	<i>Hayrat ul-abror</i>	–	–	nasta'liq	177 varaq	Suppl. turc. 999
10.	<i>Hayrat ul-abror</i>	–	–	nasta'liq	63 varaq	Suppl. turc. 1366
11.	<i>Hayrat ul-abror</i>	–	–	usmonlic ha nasx	120 varaq	Suppl. turc. 982

Kulliyot [كليات] soʻzi arabcha boʻlib, “jamlangan”, “toʻplangan” maʼnosini bildiradi va uzoq asrlar sharq adabiyotida qoʻllanib keladi [23, 84]. “Kulliyot – shoir yoki adib asarlarining bir muqovaga olingan yaxlit, mukammal toʻplami. Alisher Navoiy [1441–1501] umrining oxirida oʻz asarlarining kulliyotini tuzdi va unga faqat oʻzbek tilidagi 26 asarini kiritdi.

Navoiy kulliyotining Parij nusxasi Ali Hijroniy [vaf. XVI asr] tomonidan 930–933/1525–1527-yilda Hirotda koʻchirilgan [7]. M. Hakimov [1935-2001] maʼlumotiga koʻra, foydalanishga qulay boʻlishini koʻzlab, kutubxona xodimlari tomonidan ushbu kulliyot ikki qismga ajratib jildlangan.

Navoiy kulliyotining Parij nusxasi haqida bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan [19; 20; 21; 23; 24; 25]. Kulliyotni dastlab tavsiflagan olim Edgar Bloshening [1870-1937] qoʻlyozmaga yozib qoldirgan qaydlari oʻsha davrda Alisher Navoiy asarlariga nisbatan Yevropada shakllangan “tarjima”, “taqlid” kabi yondashuvlarning bir qismi sifida baholangan [29, 53]. Qaydlarga diqqat qiling: “Arbaʼin hadis”, Jomiy yaratgan shunday nomli asarning sheʼriy tarjimasini; “Nazm ul-javohir”, turkiy ruboiylar shaklidagi parafraza, “Nasr ul-laoliy”ning forscha ruboiylari tarjimasini; “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat”, Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot al-quds” asarining tarjimasini, muallif uni 901 [1495]-yili tugatgan, bu ishni oʻz zimmasiga olishga uzoq vaqt ikkilangan, 33 nafar hind shayxlari xususidagi izohlar va Jomiy biografiyasi bilan toʻldirgan va boshq. [29, 53].

“Shoirning baʼzi eng muhim asarlari sanab oʻtilgan ushbu parchada, koʻpincha “taqlid” va “tarjima” atamalari, gohida esa “asosida”, “parafraza” kabi atamalar qaytariladi. Bundan “oʻziga xos boʻlmaganlik” tamgʻasi bosilgan shoir tasvirichiqib keladi va asarlari hajmi ilhom yetishmaganligining oʻrnini bosmaganmikan degan savol tugʻiladi. Har holda Milliy kutubxonaning qoʻlyozmalariga masʼul boʻlgan sharqshunosning bir necha-yillar oldin bildirgan fikri xuddi shunday edi”, deb yozadi M. Toutant [29, 53]. Demak, Navoiy kulliyotining Parij qoʻlyozmasidagi mazkur qaydlar kulliyot tarkibidan oʻrin olgan asarlarning nomlarinigina ifodalamay, ayni paytda Navoiy ijodiga nisbatan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa sharqshunoslarining munosabatini ham anglata oladi.

Yuqorida tavsiflari keltirilgan “Gʻaroyib us-sigʻar”ning Parij nusxalaridan ikkitasining elektron shakli qoʻlimizda mavjud boʻlganligi sabab, bu qoʻlyozmalarning tarkibini sinchiklab oʻrganib chiqdik va Navoiy devonlari nusxalari tavsiflariga xos boʻlgan holat diqqatimizni tortdi. Unga koʻra, koʻp hollarda katalogizatorlar Navoiy devoni qoʻlyozmasining dastlabki gʻazallariga koʻra, devonga nom beradilar. Ammo tajribalar Navoiy devonlari nusxalarining dastlabki sheʼrlari uning qaysi devon ekanini belgilay olmasligi, balki qoʻlyozmaning tarkibini sinchiklab oʻrganish natijasigina devonning aniq nomini bildira olishi mumkinligini koʻrsatmoqda. Jumladan, Navoiy devonlarining OʻzR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan bir necha nusxasi ham dastlabki tavsiflarda ilk sheʼrlariga koʻra, notoʻgʻri nom bilan tavsif qilingan [12, 268; 21, 698].

Hidoyatulloh al-kotib ash-Sheroziy tomonidan 972/1564–1565-yilda ko‘chirilgan 762-raqamli qo‘lyozma E. Bloshe tavsiflaganidek, “G‘aroyib us-sig‘ar” emas, “Terma devon” ekani o‘rtaga chiqdi. Qo‘lyozma tarkibidan o‘rin olgan she‘rlar “Xazoyin ul-maoniy”ning har to‘rt devoniga mansubligi aniqlandi. Qo‘lyozma devonning 22b–25b varaqlarini ishg‘ol etgan quyidagi misollarga diqqat qiling:

1. Zihî, hilālîñ olup ay başîğa tîğ-i balā,  
Bir almasîz ikki yarğan sen-u quyaş maşalā [FK-7].
2. Falak nilufarîdîn čaşma-i mehr oldî gar paydā,  
Yüzüñdā nildin ül čaşma qîlmîş nilufar paydā [FK-33].
3. Čin kiyigi desām közin, vah, nedürür ‘itāb anga,  
Čunki qarasî körgüzür har sarî musk-i nāb anga [NSH-10].
4. Manga ne manzil-u mavā ‘ayān, ne hānumān paydā,  
Ne jānimdîn aşar zāhir, ne köñlümdin nişān paydā [FK-34].
5. Nuqta-yi muşkdur bu yā hālî anîñ jabin ara,  
Kufr savādîñi ne huş sizdi bayāz-i dîn ara [NSH-21].

Mazkur qo‘lyozma devonning 1b–2a varaqlariga miniatyura ishlangan.

Ko‘rkam nasta’liq xatidagi matn nihoyatda did bilan unvon ishlangan 2b varaqdan boshlanadi. Unvonning ichida “Debochai devoni Navoiy” qaydi mavjud. Debochani va birinchi g‘azalning matni ko‘chirilgan dastlabki varaqlarga [2b–3a; 16b–18a] alohida e’tibor qaratilgan. Debochani boshlanishi va ilk g‘azalning uchinchi-to‘rtinchi varaqlarida har bir qatorning matni to‘liq oq rangda abri usulida ziynatlangan, matn orasidagi bo‘sh qismga nihoyatda nafis ornament ishlangan. Devonning ochilishida esa frontispis ishlangan [16b–17a], varaqlarning o‘rtasida simmetrik ravishda katta doira shakli chizilib, uning ichiga uch qatordan jami uch bayt “Ashraqtat ...” g‘azali ko‘chirilgan. 16b varaqdagi doirani ichida she‘rning yuqori va pastki qismida “Devoni Amir Alisher”, 17a varaqda xuddi shu tartibda “Navoiy alayhir-rohma” qaydlarini o‘qish mumkin. Aftidan, bu Hirot uslubi bo‘lib, Navoiy asarlarining xuddi shunday kitobat qilingan boshqa nusxalari ham bor [9;3]. “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar”da ushbu uslub ziynatlangan sahifalar nomi ostida taqdim qilingan [24, rasmlar ro‘yxatiga qarang]. Debochada kelgan she‘riy matnlar ikki ustunga bo‘lib ko‘chirilgan, ustunlar orasidagi ramka unvonning atrofiga ishlangan ramka bilan bir xil. Umuman, qo‘lyozmani bezatishda zarhaldan ko‘p foydalanilgan, bu uslub saroy kutubxonasi uchun maxsus ko‘chirilgan qo‘lyozmalarni yodga soladi.

Shuningdek, ko‘chirilgan-yili noma’lum, ammo kodikologik xususiyatlariga ko‘ra, saroy kutubxonasi uchun maxsus kitobat qilingan 994-raqamli qo‘lyozma ham “G‘aroyib us-sig‘ar” emas, “Terma devon” ekani aniqlandi. Qo‘lyozma devonning 6a–8a varaqlarida kelgan “Favoyid ul-kibar”ning g‘azallarga diqqat qiling:

1. Ey, yetti manzar tarhîğa me‘mār-i şun‘uñdîn binā,  
Maşnu‘lar fāniy, vale maslub-i şāni‘dîn fanā [FK-1].
2. Ravşandurur-ki mehr, yüzüñdin alur şafā,  
Yoqsa, ne vajh ilā qamar andîn tapar ziyā [FK-2].

3. Zihî, tājīna gavhar-i kibriyā,  
Bu gavhardin āfāq tapīp ziyā [FK-6].
  4. Kiši-ki istāsā-kim, yetmāgāy malālat anga,  
Kerākmās ahl-i jahān birlā zavq-u hālat anga [FK-8].
  5. Nečā könlüm pāra bolsa, raḥm qılmas yār anga,  
Nečā bağrīm bolsa qan, baqmas dame dildār anga [FK-9].
- Qo‘lyozma devon quyidagi g‘azal bilan boshlanadi:  
‘Ašraqat min ‘aksi šamsi-l-ka’si anvāru-l-hudā,  
Yār ‘aksin mayda kör, dep, jāmdin čiqti šadā.  
Qo‘lyozma “G‘aroyib us-sig‘ar”ning so‘nggi ruboyi bilan yakunlangan:  
Til sōz bilā tā qizitti haḡāmamni,  
Bir ham tiyā almadim bu ḡudkāmamni.  
Har nečā itikrāk āylādim hāmamni,  
Ul ḡāma qararaq āylādi nāmamni.

Nusxaning 1b–2a varaqlariga frontisipis, 129b varag‘iga miniatyura ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, bu qo‘lyozma devonlarning har ikkisi o‘z davrining yetuk san’atkorlari tomonidan kitobat qilingan.

Umuman, Navoiy asarlarining Fransiya milliy kutubxonasiga tegishli qo‘limizda mavjud bo‘lgan elektron nusxalari [1, 231; 2, 194; 4, 182; 5, 177; 7: 496, 409; 10, 286; 11, 134] shoir ijodi mahsullarining yuksak did bilan kitobat qilingan qo‘lyozmalari sirasiga kiradi. Ular ayni paytda kitobat va miniatyura san’atining sara namunalarini o‘zida aks ettirgan ko‘hna kitoblar hisoblanadi. Bu qo‘lyozmalar Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘qib-o‘rganishga asrlar davomida turli hududlarda doimiy ravishda mavjud bo‘lgan ehtiyoj mahsuli sifatida ko‘chirildi va tadqiq etilmoqda. Shu ma’noda, Navoiy asarlarining Parij nusxalari haqidagi bizning tadqiqotlarimiz ham davom etadi. Kelgusi ishlarimizda qo‘limizda mavjud bo‘lgan boshqa qo‘lyozma asarlar haqida ham yozish istagidamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. 885/1480–1481. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 746.
2. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 991.
3. Alisher Navoiy. Devon. Kotib: Sultonali Mashhadiy. 905/1499–1500, Hirot. ИHB. 21.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. 941/1534–1535. Kotib: Pir Ahmad ibn Iskandar. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 980.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 999.
6. Alisher Navoiy. İlk devon. 1466-yili ko‘chirilgan qo‘lyozmaning faksimile nashri. Nashrga tayyorlovchi: H. Sulaymon. Toshkent: “Fan”, 1968.
7. Alisher Navoiy. Kulliyot. – Hirot, 1525–1527. Kotib: Ali Hijroniy. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc. 316 va 317.

8. Alisher Navoiy. Oqquyunli muxlislar devoni. 1471-yili ko‘chirilgan qo‘lyozmaning faksimile nashri. Nashrga tayyorlovchi: A. Erkinov. – Tokyo: «Research Institute for languages and cultures of Asia and Africa», 2015.
9. Alisher Navoiy. Xamsa. Kotib: Sultonali Mashhadiy. – Hirot, 898/1492–93. Inv. Дорн. 560.
10. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. 972/1564–1565. Kotib: Hidoyatulloh al-kotib ash-Sheroziy. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc 762.
11. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. Parij Milliy kutubxonasi: Suppl. turc. 994.
12. Alisher Navoiy. G‘azaliyot devoni [898/1492–1493-yil ]. Mas‘ul muharrir: t. f. d. , prof. B. Abduhalimov. Tadqiqot qismi mualliflari: filol. f. d. A. Erkinov, PhD O. Madaliyeva. Nashrga tayyorlovchi: O. Madaliyeva. – Toshkent: “Fan”, 2021. – 268 b.
13. Belen F. Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid qaydlar // Journal of Central Asian renaissance. Special issue 1. 2021. – P. 7-32.
14. Belin F. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d‘extraits tirés des auvres du même auteur Premier article // Journal Asiatique. № 17. 1861. – P. 175-256.
15. Belin F. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d‘extraits tirés des auvres du même auteur Deuxieme article // Journal Asiatique. № 17. 1861. – P 281-357.
16. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1905. Tome I.
17. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque nationale. Paris, 1912. Tome III.
18. Blochet E. Catalogue des Manuscrits Persans de la bibliotheque national. – Paris, 1912. Tome IV.
19. Hakimov M. Alisher Navoiy kulliyotini ilmiy tavsiflash tajribasidan // Adabiy meros – 15. Toshkent, 1980. – B. 9-16.
20. Hakimov M. Sharq kitobat ishida “Kulliyot”ning o‘rni // Adabiy meros. – Toshkent, 1988. №. 3 [45] – B. 75.
21. Madaliyeva O. Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2021.
22. Sulaymon H. Navoiy asarlarining manbalari va nashri haqida // Alisher Navoiy. G‘aroyibus-sig‘ar. Asarlar. – Toshkent: «O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti», 1963.
23. Sulaymonov H. Alisher Navoiy kulliyoti qo‘lyozmalari tadqiqotidan // Adabiy meros – 3. Toshkent, 1973. – B. 83-92.
24. Sulaymon H. , Sulaymonova F. Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар. – Toshkent: “Fan”, 1982.
25. Sulaymonov H. Alisher Navoiyning Parij kulliyoti // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1981. № 2. – B. 191-194.



26. Suleyman X. *Tekstologicheskoye issledovaniye liriki Alishera Navoi. Avtoreferat – dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk.* – Toshkent. 1961.

27. Toutant M. *Materialist Ideology Facing a Great Sufi Poet: The Case of Ali Shîr Nawâ'î in Soviet Uzbekistan; From Concealment to "Patrimonialisation" // Orient: Vol. XLVI. 2011. – P. 29-50.*

28. Toutant M. *So'z imperiyasi: so'nggi Temuriylar davri qudrati, madaniyati va tasavvuf Alisher Navoiy "Xamsa"si in'ikosida.* – Bryussel. 2016. Qarang: *Journal of Central Asian renaissance. Special issue 1. 2021. – P. 42.*

29. Toutant M. *Taqlid obrazi sharqshunoslik ko'zgisida // Journal of Central Asian renaissance. Special issue 1. 2021. – P. 42-59.*

30. *O'zbekistonga oid xorijdagi qo'lyozma asarlar reyestri. 1 tom.* – Toshkent: "Tasvir" nashriyoti, 2020. – 501 b. Mas'ul muharrir : t. f. d. , prof. R. Bahodirov. Tuzuvchilar: R. Bahodirov, A. Erkinov, S. G'ulomov, O'. Sultonov, S. Muhammadaminov, O. Madaliyeva va boshq.

## **NOSIRUDDIN RABG'UZIYNING "QISAS UL-ANBIYO"SIDAN O'RIN OLGAN "ZULQARNAYN QISSASI" TAHLILI**

**Rahmatjon TO'RAQULOV,**  
*GulDU, Adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti*

"Qisas ul-anbiyo" qissalari ichida kishi diqqatini tortadigan, uni qiziqtiradigan savollarga javob berishi mumkin bo'lgan diqqatlab qissalardan biri Zulqarnayn qissasidir. Ushbu qissaning manbasi Qur'oni Karimga borib taqaladi. Qur'onning Kahf surasida Zulqarnayn alayhissalom haqida oyatlar kelgan bo'lib, oyatlarda bu zotning ayrim sifatleri, xususan, odilliligi, muvahhid hukmdor ekanligi hamda raiyyat haqqiga rioyat qiluvchi podshoh o'laroq insoniy xislatlarni o'zida jamlagani haqida gap boradi. Shuningdek, u zotning bir o'lka aholisiga Ya'juj va Ma'juj nomli buzg'unchi qavmdan omonlikda bo'lishlariga bois bo'luvchi devor qurdirganliklari bayon etiladi. Ammo Qur'onda ham Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislarida ham hazrat Zulqarnaynning tarjimai holiga oid yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan boshqa ishonchli ma'lumot uchramaydi. Bu holat mufassirlar va muarrixlar kitoblarida ayni zot shaxsiyati haqida turli xil ma'lumotlar berilishiga sabab bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ibn Kasir "Tafsiri Ibn Kasir" kitobida Zulqarnayn haqidagi oyatlarning sababi nuzuli haqida bayon etib Makka mushriklari ahli kitobdan Nabiy alayhissalomni qanday imtihon qilishlari mumkinligi to'grisida savol so'rashganda, ular Rasulullohdan yer yuzini aylanib chiqqan kishi(ya'ni Zulqarnayn] hayotlarida sodir bo'lgan voqeadan bexabar yigitlar[ya'ni As'hobi Kafh) va ruh haqida so'rashliklari kerakligini aytishadi. Bu savollarga javob o'laroq Alloh taolo Kahf surasini nozil qilganligini bayon etadi. [ Ibn Kasir. Tafsir al-Qur'anil Azim. Qohira. 2012]

Ayni ma'lumot Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisas ul-anbiyo"asarida ham keltirilgan bo'lib, ahamiyatli jihati oyatlar sababi nuzuli bu asarda bir voqelik

o'laroq bayon etiladi: "Ibn Kasir "Al-bidoya van-nihoya" asarida, shuningdek, hazrat Zulqarnayn haqida shunday ma'lumotlarni beradi: "Alloh taolo O'z kitobida Zulqarnaynni zikr etib uni adolat ila maqstaydi. Uning mag'rib va mashriqqa yetganini, iqlimlarni egallab, xalqlarni tasarrufiga kirgizganini va raiyatga kulliy adolat qilganini bayon etadi. Uning muzaffar, mansur, odil va xalqparvar sulton bo'lganligi ta'kidlanadi. U haqidagi ma'lumotlarning sahihi-u podshoh bo'lgan, podshoh bo'lganda ham odil podshoh bo'lgan. Ba'zilar uni nabiy bo'lgan deyishsa, ba'zilar rasul bo'lgan deyishadi. G'arib ma'lumotga ko'ra u farishtalardan bo'lgan." [Mansur Abdulhakim. Zulqarnayn Al-malikal adil allaziy tofa bil-arz. Damashq. 1980] Ibn Jarir bu yerda Uqba ibn Omirdan isnodi zaif bo'lgan bir hadis keltiradi: "Yahudiylardan bir qanchasi Nabiy sollallohu alayhi vasallam huzuriga kelib, undan Zulqarnayn haqida so'raydilar. Va Rasulullohga "Ibtido"da kelgan xabarlarni aytib berishdi. Ularning xabarlarida ushbular bor edi: "U Rum yigitlaridan edi. Iskandariyani bino qildi. Farishta uni samoga ko'tardi va sad(devor)ga olib bordi. U yerda yuzlari itnikidek qavmni ko'rdi". Bu yerda munkir narsalar bor bo'lib, farishta tomonidan ko'tarilishi sahih emas. Bu yerda kelgan ma'lumotlarning ko'pi isroiliyyotdir.

Abu Zar'a Azraqiy va ayrim olimlar Zulqarnayn deb nisbat beriluvchi Iskandarlar tarixda ko'p bo'lganini bayon etishadi va Qur'onda nomi etilgan Iskandar haqida bayon etib, U Ibrohim alayhissalom zamonida yashagan. U zot bilan birga Baytullohni tavof etgan. Birinchilardan bo'lib hazrat Ibrohimning shariatlariga ergashgan. Bu paytda Xizr alayhissalom unga hamroh edi. " degan ma'lumotlarni keltiradi. [Mansur Abdulhakim. Zulqarnayn Al-malikal adil allaziy tofa bil-arz. Damashq. 1980] Abu Rayhon Beruniy "Osor ul-boqiya an qurun il-xoliya" kitobida Zulqarnaynni yamanlik hukmdorga nisbat beradi: "U [Zulqarnayn] Abu Bakr bin Samiy bin Umayr bin Ifriqs al-Hamiriydir. Uning mulki yerning mashriqidan mag'ribigacha yetdi. Hamirlik bir shoir bundan faxrlanib she'rida shunday yozgan:

*Qod kana Zulqarnayn qabliy musliman,  
Malikan a'lan fil arzi g'oyro mab'ad.  
Balag'a mashariq val mag'orib yabtag'iy,  
Asbab ul-muluki min Karim sayyid.*

Bu eng to'g'ri ma'lumotga o'xshaydi. Chunki, Yamandagina shaxslarga "Zu" nisbati berishgan. Ularning ismlari "zu" bilan bo'lur: Zulmanor, Zulnavos. Olimlar Hazrat Zulqarnaynnining shaxsiyati bo'yicha munoqashani davom ettirishar ekan, Zulqarnayn uning laqabi ekanligini yakdillik ila ta'kidlaydilar. Ammo unga bu laqabning nima bois berilganligi borasida xilma-xil mulohazalarni bayon etishadi. Chunonchi, Ismoil Haqqiy "Ruhul bayon fiy tafsiril Qur'on" nomli kitobida quyidagicha ma'lumotlarni keltiradi: "Zulqarnayn tushida quyoshga yaqin borganini hamda mag'rib va mashriqni olganini ko'rdi. U ko'rgan ushbu tushini qavmiga aytgandi, qavmi uni "Zulqarnayn", "Ikki iqlim egasi" deb atashdi"

Muhammad Xayr "Zulqarnayn al-qoid, al-fotih, al-hokim, as-solih" nomli kitobida bu masalaaga shunday misol keltiradi: "Vahb ibn Munabbah aytadi: "Zulqarnayn malik edi. Uning Zulqarnayn deb atalishiga sabab, boshida misdan

ikki sahfa bor edi. Ba'zi ahli kitob uning bunday laqabiga Rum va Forsning podshosi ekanligini sabab qilib ko'rsatishsa, ba'zilar uning boshida shoxga o'xshash ikki narsa bo'lgan deb da'vo qilishadi. Sha'ba Qosim ibn Abu Bazza orqali Abu Tufayldan rivoyat qiladi. U aytadi: "Men shunday eshitdim. Aytishlaricha uni Zulqarnayn de-yilishiga sabab, u mashriq va mag'ribga hatto quyosh chiqishidan to botadigan o'rnigacha yetib borganligidir. [Muhammad Xayr Ramazon Yusuf. Zulqarnayn al-qoid, al-fotih, al-hokim, as-solih. Damashq. 2007] Tarixchi olim Mansur Abdulhakim bu xususdagi kitobida shunday bayon qiladi: "Ba'zilar Uning Zulqarnayn deb atalishiga sabab, u karimuttarafayn bo'lgan deyishsa, ba'zilar uning zamonasida ikki qarn[mintaqa] odamlari halok bo'lishib, uning o'zi tirik qoladi shundan uni Zulqarnayn deb atalgan deydilar. Yana ayrimlar u urushga kirsa ham qo'li ham rikobi bilan jang qilardi yoki unga zohir va botin ilmi ato etilgandi vayo u zulmat va nurga kirib chiqdi, u Fors va rumning podshohi bo'lgan degan turli ma'lumotlarni havola etishadi. Hasan Basriy bu xususda o'z fikrini bayon qilib, uning boshida ikki o'ram sochi bor edi, U ushbu o'ram sochi inobatidan ikki shoxlik dubulg'a kiyardi. Shu jihatdan u Zulqarnayn deb atalgan degan fikrni aytib o'tadi. Muhammad Xayr "Zulqarnayn al-qoid, al-fotih, al-hokim, as-solih" da uning ushbu laqabi xususida muarrixlar va mufasssirlarning gaplarini jamlab 14 ga yaqin mulohazani bayon etib o'tadi.

O'rta asrlar musulmon muarrixlarining ko'pchiligi Zulqarnayn deb Iskandar Maqduniyga nisbat berishgan. Shu bilan birgalikda ayrimlar uni Yamanlik hukmdor Al-Hamiriya ga nisbat berganlar. XX asrda ushbu masala yuzxasidan yana bir yangi bahs yuzaga keldi. Hindistonning sobiq maorif vaziri Abdulkalom Ozod hech kimning xayoliga kelmagan, yunonlar Siyrus, yahudiylar Xurus, musulmon tarixchilar Kayxusrav deb atashgan qadimgi Eronning hukmdori Kurush Al-Axminiyni Zulqarnayn deb davo qildi va o'zining bu boradagi xulosalarini kitobida bayon etib bu xususdagi munozaralarni yangi bir bosqichga olib chiqdi.

O'zbek siyrat tarixining dastlabki namularidan biri sifatida ko'riluvchi Nosiruddin Rabg'uziy qalamiga mansub "Qisas ul-anbiyo" asarida ham qur'oniylar qissalaridan biri o'laroq Zulqarnayn qissasi bayon etilgan. Ahamiyatli tomoni Zulqarnayn shaxsi borasidagi yuqoridagi munoqashalarning bir qismi bu yerda ham o'z ifodasini topgan. Masalan ushbu kitobning Londondagi nusxasiga asosan nashr etilgan 1990- yilgi nusxasida muqaddima qismi shunday boshlangan: "Iskandariya otlig' eldin erdi, aning uchun Iskandariya atandi. Ammo Zulqarnayn aning uchun atandikim, yerning ikki qarnig'a yetdi, ya'ni mashriqdan mag'ribga tegi. Qarn arab tilincha mo'ynuz bo'lur. Ikki mo'ynuzlig' temak bo'lur. Zulqarnayn aning boshida oltindan ikki mo'ynuzi bor erdi. Mavlo taolo ani yalavochliqqa izdi. Urdilar mo'ynuzlari sindi. Aymishlar Zulqarnayn aning uchun tedilarkim, ikki qarn yashab erdi, anda ixtilof qildilar. Ba'zilar yalavoch tedilar, ba'zilar malik tedilar. Bu oyatni hujjat keltirdilar..... Mavlo taolo unga mulki azim berdi Qofdan Qofga tegi..... Yo'llarni bilmoq karomat qildi. Dunyoni kezdi, shaharlar qo'pordi. Telim kofirlarning shahrin oldi, hech kim ersa o'tru turmadi..." [Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. [Nashrga tayyorlovchi: E.Fozilov, H.Dadaboyev, A.Yunusov] Toshkent. 1990] Iqtibosdan bilinib turibdiki,

Zulqarnayn nisbasining kelib chiqishi birmuncha munozarali mavzu bo'lib, Qur'oni Karimda, asosan, hazrat Zulqarnaynning ezgu amallariga urg'u berilgan.

Tadqiqotimiz ostiga olingan narsa bu yerda hazrat Zulqarnaynning hayot yo'llari tahlili emas. Balki O'zbek adabiyoti tarixida bu borada yaratilgan asarlardan eng zabardasti sifatida ko'riluvchi "Qisas ul-anbiyo" ning u zot haqidagi qissasi matniy tahlili va bu tahlil natijasida ayni asarning eng ishonchli manbasini topishdir. Buning pirovardida mazkur manba asosida "Qisas ul-anbiyo"ning ayni kundagi tilimizga tabdil qilishning muhim jihatlarini bayon etyishdir. "Qisas ul-anbiyo"dagi mazkur qissani asarning 4 ta turli davrlarda yaratilgan nusxasi va 1 ta tabdili orqali matniy tadqiqoti amalga oshirildi. Bu maanbalardagi ma'lumotlar ko'lami bevosita ushbu mavzuda yaratilgan Rabg'uziydan avval va keyingi davrlarda yashagan olimlar manbalaridagi ma'lumotlar bilan muqoyasa qilish asosida tadqiq etildiki, bu narsa har qaysi nusxaning holatini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqot osriga olingan nusxalar quyidagilardir:

1. O'zbekiston fanlar Akademiyasi Hamid Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti bir guruh xodimlari [E. Fozilov, A. Yunusov, H. Dadaboyev] tomonidan asarning eng qadimiy nusxasi sifatida ko'riluvchi Londondagi qo'lyozmaning 1991- yildagi nashri [A nusxa]
2. Qozon shahrida 1881- yilda nashr qilingan toshbosma nashr [B nusxa]
3. Eronning Kitobxonayi sho'royi islomiy kutubxonasida saqlanayotgan 1819- yilga tegishli qo'lyozma [D nusxa]
4. B. Abdushukurov tomonidan 2018- yilda nashr qilingan asar tabdil nusxasi [E nusxa]

Yuqorida keltirilgan iqtibosning B nusxadagi holati birmuncha boshqa holatda bo'lib, u shunday boshlanadi: Zulqarnayn Iskandar otlig' erdi. Ba'zilar aytur Iskandariya bir oti bo'lur. Ba'zilar aytur Iskandar dunyoni ikki karrat evruldi oning hun Zulqarnayn otandi. Ba'zi aytur qarn arab tilincha bo'ynuz temak bo'lur. Iskandarning ikki bo'ynuzi bor erdi, oning uchun Zulqarnayn otandi. Ba'zi aytur ikki qarn podshohliq qildi ersa Zulqarnayn otandi. Asih qavl ikki bo'ynuzi bor erdi. Birisini payg'ambarliqg'a borg'onda ushattilarr. Ulamolar ixtilof qildilar. Ba'zi aytur payg'ambar ermas erdi, malik erdi. Ba'zi aytur avliyolar jumlasidan turur. Bu qavl ayati dalili birla ham payg'ambar ham podshoh turur... .. Mavlo taolo anga mulki azim berdi. Qofdin Qofg'a tegru. Olam ichinda ko'p ishga sabab bo'ldi... .. Mavlo taolo anga yo'llarni bilmak karomat qildi. Dunyoni kezdi. Obodonliq ko'p qildi". [Nosiruddin Rabg'uziy. Qisas ul-anbiyo. Toshbosma. Qozon. 1881] Mazkur ikki iqtibosdan ma'lum bo'ladiki, A nusxada ba'zi jumlalar nomafhum bo'lib, ular matnning umumiy mazmunini sahih chiqarishga xalaqit beradi. A nusxaning tili asar yaratilgan davr tiliga muvofiq keladi. Ammo unda matniy chalkashliklar mavjud. B nusxa asar yaratilgandan ancha keyin yozilgan bo'lsada, unda matn mazmunining to'liq shaklini korish mumkin. Ushbu nusxaning tilida o'zgachalik mavjud. Ba'zi ibora va so'zlar kitob nashr qilingan davrdagi muqoiliga o'zgartirilgan bo'lsa, ba'zilar asliga muvofiq qolgan. Chunonchi A nusxadagi "Ba'zilar yalavoch tedilar, ba'zilar malik tedilar"

jumlasi B nusxada “Ba’zi aytur payg‘ambar ermas erdi, malik erdi”. Yalavoch so‘zi payg‘ambarga o‘zgargan.

C nusxadagi ayni qismning tili to‘laqonli o‘z davriga mos, shuningdek, unda boshqa manbalarda uchramaydigan mutlaqo boshqa fikr keltirilgan: “Andog‘ aytibdurlarkim, Hazrat Haq subhanahu va taolo har kimsaga to‘rt ish beribdur. Har qaysi ish to‘rt ishg‘a muhtojdur. Chunonchi, har kimgaki ilm beribdur, amalga muhtojdur. Ul ilmki beamal bo‘lsa a‘molliq turur. Ikkinchi har kimga ne‘mat beribdur shikr qilmoq lozimdur. Ne‘matiki shukrsiz bo‘lsa, **posbonliq**dur. har kimgaki podshohliq, umaroliq beribdur. Ularg‘a adl qilmoq lozimdur. Hukumatiki, adlsiz bo‘lsa ikki jahonning salohini yo‘q qilmoqdur. Tortunchi har kimga iymon beribdur, hayo lozimdur. Ularki iymon aytsa hayo tutmasalar iymonni barbod qilmoqdur. Naqldurkim ro‘yi zaminda to‘rt kishi mag‘ribdan mashriqqa podshoh bo‘lgandir, ikkisi musulmon, ikkisi kofir. Ikki musulmonning biri hazrat Sulaymon alayhissalom, biri hazart Iskandar Zulqarnayn tururlar. Ul ikki kofirning biri Namrud alayhilla’na biri Baxtunnasr. Bir rivoyatda ul ikki kofirning biri Shaddod edi ham debdurlar. Ahli tafsir andog‘ ayturlarkim Iskandar Zulqarnayn degan Iskandar otlig‘ kishi erdilar. Aning uchun Iskandar atandilar. Zulqarnayn demaklik ikki mo‘nguzning rgasi degan bo‘lur. Ikki oltun munguzlari bor erdi. Xudoy taolo payg‘ambarliqni yubordi, Xalqg‘a da‘vat qilib yurur erdilar. Nogoh urub munguzlarini uchurdilar. Deb durlar yana bir rivoyatda ikki qarn umr ko‘rdilar. Aning uchun qarnayn atandilar. Qarnayn demaklik ikki munguzning agasi degan bo‘lur. .” Ushbu iqtibosda bir qator diqqattalab o‘rinlar mavjud. Birinchidan qissa boshi boshqa nusxalarda farqli o‘laroq yangi bir qism bilan ya’ni Alloh taoloning 4 ne‘mati ta’rifi bilan boshlanadi va ayni to‘rt ne’, mat ta’rifi bevosita qisanning qolgan qismiga kirish vazifasini o‘taydi. Bu yerda bayonchilik usulidan foydalanilgan.

Yuqoridagi iqtiboslardan hosil bo‘ladigan xulosa shuki, “Qisas ul anbiyo”ning Zulqarnayn qissasi tabdili bir nechta manbalarning o‘zaro matniy muqoyasasi asosida amalga oshirilsa anchayin puxta va yetuk badiiy saviyada chiqadi. A nusxadagi ma’lumotlarnig to‘liq va batafsil shakli B nusxada kelgan bo‘lib, garchiki B nusxa muallif yashagan davrdan ancha keyin yaratilgan bo‘lsa-da uning manbasini ishonchli manba deyish mumkin. Chunki, A nusxadagi ayrim matniy va mazmuniy kamchilik, nuqsonlarni B nusxa to‘ldiradi va qisanning sahih mazmunini, o‘zida nam-poyish eta oladi. C nusxa ham mazmunan yaxshi holatda bo‘lgani bilan, uning tarkibidagi ayrim ma’lumotlar keyingi davrlarda kotib va noshirlarning “bilag‘onligi” natijasi o‘laroq kengaygani va mazmun ko‘lami boshqa nashrlardan birmuncha o‘zgarganinnig guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Umuman “Qisas ul-anbiyo”ni tabdil qilishda uning turli nusxalarining matniy tahlili, shuningdek u bayon eilayotgan qisanning genezisi tadqiqi etilsa uning ayni zamon talabiga muvofiq keluvchi ilmiy jihatdan yetuk va badiiy jihatdan puxta nashrini amalga oshirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imoduddin Abulfido Ismoil ibn Umar ibn Kasir. Tafsir al-Qur’anil Azim . Dor ul-hadis al-Qohira. – Misr, 2012.

2. Muhammad Xayr Ramazon Yusuf. Zulqarnayn al-qoid, al-fotih, al-hokim, as-solih. – Damashq. 2007.
3. Mansur Abdulhakim. Zulqarnayn Al-malikel adil allaziy tofa bil-arz. – Damashq. 1980.
4. Nosiruddin Rabgʻuziy. Qisasi Rabgʻuziy. [Nashrga tayyorlovchi: E. Fozilov, H. Dadaboyev, A. Yunusov] – Toshkent. 1990.
5. Nosiruddin Rabgʻuziy. Qisas ul-anbiyo. Toshbosma. – Qozon. 1881.
6. Nosiruddin Rabgʻuziy. Qisasi Rabgʻuziy. Qoʻlyozma. – Eron. Majlisi shoʻroyi islomiy. Qoʻlyozma. 1810.

## **MUAMMO TALQINIDA YETAKCHI QAHRAMONNING OʻRNI**

**Bobur ROʻZIBOYEV,**

*GulDU Oʻzbek adabiyotshunosligi kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi*

Badiiy asarda obraz muhim ahamiyatga ega. Prof. L.I.Timofeevning fikricha, “Obraz toʻqima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chogʻda konkret manzarasi”<sup>12</sup>, bundan koʻrinadiki obraz deganda inson hayotining badiiy manzaralari tushunilar ekan. Hozirgi zamon hikoyachiligida ham oʻziga hos obraz tizimi yaratilgan. Ular asarda turlicha badiiy “yuk” olgan holda harakatlanadi. Koʻp harakatlanuvchi obrazni yetakchi qahramon deyish mumkin. Masalan, milliy adabiyotimizda H.Olimjon qalamiga mansub “Zaynab va Omon” poemasi mavjud. Uning obrazlar tizimi quyidagicha: Adol, Asal, Sora, Surma, Ruhsora, Nuri, Zaynab, Omon, Xuri, Sobir, Anor xola. Bu qahramonlar orasida faol ishtirok etgan, sujetda muhim oʻrin egallagan yetakchi obrazlar Anor xola va Zaynab.

Bu holat soʻnggi davr hikoyachiligida qanday va ularning maʼnaviy qiyofasi qay darajada degan savol hammani oʻylantiradi. Buni Dilorom Abdurahmonning “Tutash yoʻllar” hikoyasi misolida koʻrib chiqish mumkin. Ushbu hikoya shakl jihatdan toʻrt qism – yoʻldan iborat boʻlib, hikoya soʻnggida bu yoʻllar tutashadi. Asarda Saodat, chet eldan tashrif buyurgan sayyohlar, fermar xoʻjaligi rahbari Eshboy aka, Saodatning buvisi, Nadya xola, Lyova amaki kabi qahramonlar ishtirok etadi. Yetakchi qahramonlar Saodat va Nadya xola. Saodat – tarjimon va yoʻl boshlovchi. U sayyohlarga koʻhna Samarqand obidalarini, bu yurt urf-odatlarini va asori-atiqalarini tanishtirib yurish, ularga maʼlumotlar berish bilan shugʻillanadi.

U oʻz yurtini, uyini yaqinlarini juda eʼzozlaydi: “Keng jannatmonand hovli, hovlining adogʻida osmonga boʻy choʻzgan koʻkteraklar... terak shohlarida goʻyo ajib musiqa ohangiga joʻr boʻlayotgan kabi oq va yashil rangda tovlanib turuvchi raqqosa barglar, teraklarning tagidan sokin jimirlab oʻtuvchi ariq va mehribon buvisining nurafshon siymosi koʻz oʻngida birin-ketin nomoyon boʻldi. Qalbiga ajib sogʻinch hislarini baxsh etdi...”. Ushbu tasvirlar uning dunyoqarashini namoyon etadi.

Uning ruhida bir sirli tilsim mavjud, harakatlari nozik, kuzatuvchan. Unga xayollar - hayotning murakkab tomonlari, insonni kuldiruvchi, yig'latuvchi onlari tinchlik bermaydi. U sayyohlar bilan Samarqandning ajoyib joylarida bo'lgan, qishloqlar va fermalarni kezar ekan, uning ruhida, xayoliy olamida buvisi va Nadya xola tiklanadi. Qizigi, ular jiyda ortida Saodatni kuzatishar edi. Saodat ular bilan suhbatlashadi. Nadya holaga yuzlanib uning yaxshiliklarini eslaydi: "shu chog' beixtiyor ilk kelinlik davri, uzoq joydan kelin bo'lib tushgani tufayli turmush o'rtog'ining keksa momolari "musofir kelin" deya erkalab chaqirishlari, qo'shni Nadya xolaning esa, xuddi o'sha kezlarda u kabi "bir musofir"ning ko'nglini tushunguvchi, farzandlarining go'daklik paytidan boshlab qadr-don bir inson dilkash do'st kabi yonida maslahatgo'y, sirdosh bo'lganligi xayolidan o'tadi".

Bu tasvirlar Nadya xola obrazining xarakterini ochishga xizmat qilgan. Suhbat so'ngida Saodat g'aroyib narsadan hayratga tushadi. Chunki kampirlar orasida to'siq kabi qalin, bir-biriga tutashib o'sgan jiyda quyidagi holatda edi: "Chunki yastanib yotgan baland bo'yli jiyda daraxti shoxlarining yarmida aqiq rangli shoda mevalar g'arq pishgan, daraxtning yarmi esa xush bo'y taratib, endi qiyg'os gulga kirgan edi. Saodat bu sirni yechish uchun xotiralar ummoniga g'arq bo'ladi.

Nadya xola hayot yo'li haqida ham hikoyada ma'lumot berilgan. Uning kenja qizi ikki o'g'li bilan Rossiyaga ko'chib ketgan, Nadya xolani "kasalmand, yo'lga chidolmaydi", - deb yolg'iz qoldirib ketishgan, to'ng'ich qizi esa har zamonda bir kelib, uning nafaqasini so'rar, qo'lga ilinadigan biror narsa topib berolmasa uni xafa qilib ketar edi. Chunki Nadya xola ularni go'dakligidan boqib katta qilgan bo'lsa-da o'gay ona edi. U yolg'iz o'lishdan, o'lgach tobutsiz ko'milishidan qo'rqar edi. Buni Saodatning eriga aytganida u shunday javob bergan: " Babulya avvalo ko'p yashang, xotirjam bo'ling, har qanday sharoitda ham besh-oltita taxta topilar, mobodo biror sababga ko'ra topilmay qolsa, anavi xonangizning to'rida savlat to'kib turgan shifoneringizdan yasataman siz aytayotgan narsani. Qarang qanday ko'rkam o'ziyam yaltillagan tobut bo'ladi", deydi. Bundan so'ng birgalashib kulishgan. Nadya xola unga rahmat aytgan. Nadya xola vafot etgach, qo'shnilar tomonidan u xohlaganday ko'miladi. Saodatning eri insoniy munosabatlardagi eng oliyjanob ishni amalga oshirgan. Bu o'rinda o'zbekning millat tanlamasligi, bag'ri kengligi alohida ifodalangan.

Chorrahada voqealar tuguni yechiladi. Saodatning tushlarida, xayolida gavdalanayotgan, uni hayratga solayotgan aqiq rangli shoda-shoda meva solgan yarim jiyda tanasi – bolalari bilan birgalikda baxtiyor onlarni o'tkazgan, farzand baxtini ko'rgan, undan mehr olgan buvisining timsoli. Qolgan yarim tanada chaman bo'lib qiyg'os gullab turgan jiyda – farzandga zor bo'lib o'tgan, o'zgalarga mehr bergan va lekin mehr ko'rmagan, begonalardan oqibat ko'rgan Nadya xola timsoli. U qiyg'os gulladi, lekin guldek umri behuda sovrildi.

Hikoyada Saodat, Nadya xola kabi yetakchi obrazlar timsolida oqibat, mehr-muhabbat masalalari yoritilgan. Insonning bir-biriga mehr ko'rsatishi uchun qarindosh yohud millatdosh bo'lishi shart emasligi, taqdirning yo'llari shunday turfa xil ekanligi va ularning o'zaro kesishib turishi ham hikoya asosida yotuvchi

asosiy g'oyalardir. Asarning kompozitsion tuzilishi ham o'ziga xos. Sarlavhadan so'ng hikoya to'rt qismga ajratilgan. Bu qismlar yo'l deb atalgan. Asarda xulosa qism ham mavjud bo'lib, u chorraha deya nomlangan. Albatta, bunday tuzilish va nomlanish asar g'oyasini ochishda va yozuvchi uslubini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoyada qo'llangan jiyda, shkaf kabi predmet detallar ham inson ma'naviyatini ko'rsatishda muhim yuk olgan. Yozuvchi hikoyada ruhiyat va tasvirni uyg'un holda chizadi. Kichik janrning keng imkoniyatlari ushbu hikoyada yanada namoyon bo'ladi. So'nggi davrning ko'pgina hikoyalaridagi ham dunyoviy realistik, ham hayoliy-romantik, ham so'fiyona-ilohiy talqinlar sintezi – garmoniyasi asarlar poetikasiga ayri-ayri qiyofa baxsh etadi. Betinim fikrlovchi shaxs hikoyalarning qahramoni tarzida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda roviy bilan qahramonni ajratib bo'lmay qoladi. Bir qator hikoyalarning monolog tarzida bitilganligi ham tasodifiy emas. “Eng muhimi, ularda so'nggi-yillar adabiyotimizda, qolaversa, jahon adabiyotida ham tansiq bo'lib turgan, o'zida yuksak ideallarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar birin-ketin bo'y ko'rsatayotir”. So'nggi davr hikoyachiligida axloqiy muammolar aks etgan asarlar ham mavjud. Sobir O'narning “Aka-ukalar” hikoyasida oqibat, oilaviy turmush muammolari, aka-ukalar munosabati kabi masalalar tasvirlangan. Asarda Hoji bobo, uning uch nafar farzandi, Norbo'ta, Qorabosh, Ko'mak aka, Olmos kabi obrazlar ishtirok etgan. Hikoyachi qahramon asar boshida tinch-totuv oilaning tasvirini chizadi. Bir uyda Hoji bobo boshchiligida yashayotgan uchta oila juda ahil bo'ladi. Kelinlari ishchan, o'g'illari namozxon. Hikoyachi qahramon quyidagi so'zlari orqali ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini tasvirlaydi: “To'g'risi, bizning uyga quyosh Hoji boboning imoratidan oshib tushadi. Oftob bizga nurlarini tashlashdan avval Hoji boboning uyini yoritadi: keng-mo'l, devor-darmiyonsiz dasht hovlisi”. Bu tasvirdan ko'rinadiki, oilada yorug'lik, tinchlik-totuvlik ustun. Devor-darmiyonga hojat yo'q. Bu oila tilga olinishi bilan quyosh detalining keltirilishi ham ijobiy kayfiyat belgisi. Bu oilaning kenjasi ko'pkariga qiziqadi. U, hikoyachi qahramon va ikki chavandoz Qorabosh obrazi uyushtirayotgan to'yda beriladigan ko'pkariga borishadi: “Men Qizil olmaga emas, shu qishloqning boshidagi qaynotamnikiga, Ingichkaga boramiz, otlarni qantaramiz, joyi bor, ertalab to'yxonaga tushamiz, dedim. Ko'mak aka bunga ko'nmadi. To'y egasi Qorabosh mening qirq-yil lik qadrdonim, borsak, hamma narsani to'kib tashlaydi, boshqanikiga borganimizni eshitsa xapa bo'ladi, deb turib oldi”. Shundan so'ng qahramonlar Qorabosh polvonnikiga borishadi. Shu joyda tun tasviri beriladi: “Qorong'u tushgan, lekin elektr yo'q. Bizdaku, kechqurun ikki-uch soat chiroq yonadi, bu sho'ring qurg'urlarda shuyam yo'q ekan”. Bu tasvirdan kayfiyatda allaqanday tundlik seziladi. Bunday tasvirning o'zgarishi yozuvchining o'ziga xos uslubini namoyon qiladi. Qahramonlar to'y egasining ukasi bo'lgan Esirgap uyiga qo'nishadi. Sababi Qorabosh polvon g'irt mast bo'lib qolgan, mehmonlarni kuta olmas edi. Bu tasvirdan kitobxon sergak tortadi. Mehmon kutish odobi biz, o'zbeklarda muhim an'ana hisoblanadi. Qorabosh polvonning bu xatti-harakati uning axloqan zaifligidan dalolat beradi. Voqealar rivojini kuzatsak, bu holat oilaviy hammaga xos “hislat” ekan: “O'rtada moychiroq, kun sovuq,



pechkaga o'tin qalanmagan, kunishibgina o'tirib oldik. Bir mahal dasturxon keldi, non yo'q; allazamon o'tib non keldi, choy yo'q. Obbo, bu yog'i necha puldan tushdi endi deb o'tiraberdik". Ukasining uyidagi bu holat keyingi tasvirlarda yanada ochiladi: "Ovqatdan darak yo'q, hech kim xabar olmaydi. Uxlaylik desak, uy sovuq, pechkaga o't qalanmagan". Bunday "mehmondorchilik" ustiga aka-ukalar janjali kelib qo'shiladi. Mehmonlar tashqariga chiqqanda quyidagi holatga duch keladi: "Ayvonda chol katta varang tayoqni ushlab ikkala yigitga bu yoqqa chiq, ikkovingni urib o'ldiraman, deb po'pisa qilayotgan ekan. – Otaxon, qo'ying, biz siznikiga to'yga keldik, mehmoningizimiz, - deb yalina-yalina bazo'r qo'ldan tayoqni oldik. Yigitlardan birining boshi yorilib yotibdi, qon sharillab oqyapti, ikkinchisining esa yuzlari tinalgan, ko'zlari qovoqday shishib ketgan".

Bu tasvirlar dastlabki oila tasviriga umuman zid bo'lgan oilaning ahvolini ko'rsatadi. Aka-ukalarning oqibatsizligi, onaning hurmati yo'qligi asarda dialoglar orqali yaqqol gavdalantirilgan: "Jo'rajon, bizlar tinch ketaylik, do'xtir chaqir, akangning yarasini bog'lasin, onangniyam ko'rib qo'ysin, dedik. – Do'xtir uzoqda, men bormayman, - dedi u". Ushbu dialog bu oila uchun urush-janjal bo'lishi yangilik emasligi, aka uchun, ona uchun kuyinish hissi umuman yo'qligi, mehr-oqibatning ko'tarilganini ochib beradi. Bunday axloqan tubanlashuv doktor obrazida ham kuzatiladi. Muallif doktorning qiyofasiga alohida belgi chizmaydi. Uning butun qiyofasini birgina nutqiy detall orqali ifodalab beradi: "... Toshtemir do'xtur kelib boyladi, uningam kayfi borakan, aroq so'radi, bermab edik, ketib qopti". Hikoyada ikkinchi bor ichkilikning salbiy qiyofasi ochib beriladi. Uning insoniylik qiyofasini yo'qotuvchi vosita, omil ekanligiga urg'u beriladi.

Hikoya so'ngida quyidagi tasvir beriladi: "Qishloqqa oshib tushganimizda, garchi kech tushayotgan bo'lsa-da, quyosh chiqdi". Bu tasvir o'sha muhitdan dastlabki sokin, osoyishta muhitga qaytgan qahramonning o'ylari sifatida berilgan. Shu bilan birga Hoji boboning ahil-inoq oilasiga ishora berilgan. Bu hikoya orqali yozuvchi hayotda axloqan buzuq insonlar bilan bir qatorda xushxulqli insonlar ham mavjudligini ta'kidlaydi.

O'zbek hikoyachiligi ikki xil yo'nalishda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik va noan'anaviy modernistik. Yuqorida keltirilgan hikoya an'anaviy realistik uslub namunasi hisoblanadi. Bilamizki, haqiqiy adabiyot real hayotdan shunchaki nusxa ko'chirishdan iborat emas. Unda yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri, romantik hayoloti, original badiiy to'qimasi, badiiy-estetik ideali, muallif dunyoqarashi aks etmog'i lozim. Xususan, S.O'nar hikoyalarda o'zbek millatini tubanlik sari yetaklayotgan mehrsizlik, oqibatsizlik, tubanlashuv singari ma'naviy-axloqiy muammolar asosiy planga chiqariladi. U mitti hajmli hikoya janrida insonga xos muhim salbiy yoki ijobiy hislatni mahorat bilan ochib beradi.

Mahoratli yozuvchi Erkin A'zam qalamiga mansub "Yozuvchi" nomli hikoyada shaxsning axloqiy va ma'naviy qarashlari, tanazzuli va kamoloti masalalari qalamga olingan. Hikoyada yozuvchi, rais, Olashovur[Olloshukur], sutchi ayol va uning ikki nafar farzandi, Saidjalol, uning "akaxoni" va boshqa obrazlar mavjud. Asar oxiriga qadar yozuvchining ko'rgan-kechirganlari, yashash

tarziga oid voqealar silsilasi harakatlanadi. Hikoya boshida unga shunday ta'rif beriladi: "U o'rtamiyonagina yozuvchi edi. Bu endi har baloni o'qiyverib osmonga sapchiydigan bo'lib qolgan bizga o'xshash "dono"larning fikri". Lekin muallif hikoya davomida u haqida quyidagi xulosaga keladi: "Ammo, o'rinsiz andishani chetga qo'yib gapirganda, u maydonda ot surib yurgan dongdor otaxonu akaxonlarning ko'pchiligiga nisbatan asl adabiyotga yaqinroq, hatto uning sodiq fuqarosi edi". Muallifning bunday xulosaga kelishi hikoyaning keyingi o'rinlarida beriladi. Yozuvchining ijodi va uning bog' yaratish voqealari ketma-ket, izchillikda beriladi. Uning ijodda va bog'bonlikda birday mahoratli ekanligiga urg'u beriladi. U inson sifatida ham ijobiy hislatlar egasi bo'ladi.

Xususan, bu holat raisning bir ahvoldagi kitobini to'g'irlab berganidan so'ng bu kitobning muvafaqqiyat qozonishi va bu holga yozuvchining munosabatida yaqqol ko'zga tashlanadi: "Shuncha kitob chiqarib yozuvchining o'zi bu qadar ta'rif-tavsif eshitmagan edi. Lekin muallifdan ortiq quvongan bo'lsa quvongandirki, aslo g'ayirligi kelgani yo'q – axir, o'zining mehnati". Yoki rais uni bag'riga bosganidagi holati ham uning qiyofasini ifodalaydi: "Kun bo'yi mashinka chiqillatish asnosi necha bor sho'rlik muallifning "qo'llarini sindirib", yetti pushtining go'riga g'isht qalab charchagan muharrir – mehrga zor banda xuddi umrida ko'rmagan qiblagohi yo jigargo'sha og'asining isini tuygan kabi raisning keng-mo'l, sermuruvvat bag'rida erib ketadi".

Hikoyada keltirilgan rais obrazi ham o'ziga xos xarakterli shaxs sifatida gavdalanadi. Uning quyida keltirilgan nutqiy detali buning isbotidir: "Menday bir omi, to'poridan ham shoir yasadinglar-a, qo-yil! Pul, mol-dunyo degani har qanday vallomatini ham quturtirmay qo'ymas ekan".

Hikoyada "Qutlug' qon" romanidagi obrazlar ham keltirilgan: Yormat. Bu jihat adibning "Aralashqo'rg'on" hikoyasida ham kuzatiladi: "Lofchiroq dotsentning aytishicha, bir asr muqaddam bu yerlar mashhur Mirzakarimboyning huv Yo'lchivoy g'ayrat ko'satgan serhosil ekinzori bo'lgan emish". Bu ikki hikoya faqat obrazlar tizimi bilangina o'xshash emas, unda o'xshash voqealar ham keltiriladi. Masalan, "Aralashqo'rg'on" hikoyasidagi quyidagi parchani kuzatamiz: "Qo'rg'on ichida bir "Ichan qal'a"dek bu hovli mahallaning etak tarafida. Asli ikki-yil burun qamalib, qamoqda o'zini osib qo'ygan huv nomdor boyvachchaning koshonasi edi bu".

Bu voqea "Yozuvchi" hikoyasidagi bosh qahramon – yozuvchining boy qo'shnisi va uning fojeali taqdiri tasvirining aynan o'zidir: "– Siz kasalxonada yotganda qo'shningiz qamalib qoldi! – Iye, chatoq bo'пти-ku! Nima ayb qilgan ekan? – Bu yog'ini eshiting-da, - deydi allanechuk zavq bilan kasofat. – Qamoqda o'zini osib qo'yibdi". Bu tasvirlarning uyg'unligi yozuvchining o'ziga xos uslubidan dalolat beradi.

Erkin A'zamning "Aralashqo'rg'on" nomli hikoyasida tilga olinadigan qahramonlar nomlanmagan. Ular musofir, Kattakon, oqsoqol, fan nomzodi, dotsent kabi nomlar bilan atalgan. Ba'zi o'rinlarda ularning nomlari ko'zga tashlanadi. Hikoyada qahramonlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi ularning nutqi orqali yorqin ochiladi. Masalan, "– Bedodlik! Borib turgan bedodlik bu! – dedi jamoatchi

muxbir E. Safar oʻrnidan sapchib. – Bir bechora musofirning bolasini-ya! Yozish kerak! Yozaman!” Bu nutqiy detall muxbirning jahli tezligidan, nohaqlikka chiday olmasligidan, oʻz kasbi va imkoniyatidan kelib chiqib fikr yuritishi, harakatlanishidan dalolat beradi. Hikoyada qahramon maʼnaviyati uning portretidan ham oydinlashadi: “Kattakon kunda-kunora, koʻpincha kechki salqinda kelar, boshida yosh-yalang rasm qilgan soyaboni serbar qalpoqcha – beysbolka, kalta shim – shorti kiyib olib itining atrofida girdikapalak boʻlib yurar edi. Goh asilzoda seru ushunday salobatli odam irgʻishlab u bilan oʻynashadi, goh, labida sigaret, buklama kursichasida jonivorga oʻychan tikilib uzoq-uzoq oʻtiradi. It jinnisi. “Afsuski, bu toifa insonlar jamiyatimizda koʻplab topiladi. Bir qarashda zavq bagʻishlovchi ermakdek tuyulgan ushbu holat aslida juda ayanchli. Bu inson qiyofasining yoʻqolib borishiga olib keluvchi omillardan biridir”.

Hikoyaning muallif tomonidan bunday nomlanishi asardagi joy nomidan kelib chiqqan. Hikoya qahramonlari istiqomat qiladigan mahalla nomi Aralashqoʻrgʻon deb atalagan. Bu asarda quyidagicha beriladi: “Kimdir bu joy ahlini qurama, aralash degandek gap qilgan ekan, mahallaning nomi oʻz-oʻzidan “Aralashqoʻrgʻon” boʻlib ketdi. Toʻgʻri-da, daydi shopiru oddiy nafaqachidan tortib, sobiq vaziru vahimali prokurorlargacha shu yerda!”. Bu nom majoziy boʻlib, bu holat har qanday hududda uchrashini eʼtirof etish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Yoshlik” jurnali. 2015-yil , 2-son, 41-bet.
2. U. Normatov. “Kichik janrlarning katta imkoniyatlari”[taqriz]. – T., 2015-yil . – B. 425.
4. Sobir Oʻnar. Bibisora. – T., Sharq. 2011 – B. 238.
5. E.Aʼzam. Jannat oʻzi qaydadir. – T., Fan, 2007 – B. 150.

## **XX ASR TURKISTON VA OZARBAYJON MAʼRIFIY ADABIY MUHITI**

*Shabnam BOBOYEVA,*

*Ozərbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining “Ozərbayjon-Turkmaniston-Oʻzbekiston adabiy aloqalari” shoʻbasining dissertanti*

Turkistonda mavjud boʻlgan boʻlgan Jadid harakati oʻziga xos adabiyotini yaratishda boshqa turkiy xalqlardan ortda qolmadi. “Jadidchilik adabiyoti” nomi bilan Turkiston adabiyoti tarixida yangi bir davr boshlandi. XX asrning dastlabki yillaridan 1937-yil gacha faoliyatda boʻlgan Jadid harakati qisqa bir davr ichida oʻzbek adabiyoti tarixiga yirik shoir va yozuvchilar, adiblar tuhfa etdi. Ulardan: Komil Xorazmiy, Muhammad Aminxoʻja Muqimiy, Zokirjon Furqat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Isxokxon Ibrat, Muhammadsharif Soʻfizoda, Saidaxmad Ajziy [Saidahmad Hasanxoʻja oʻgʻli Siddiqiy], Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurrauf Fitrat, Tulagan Xujamyarov Tavallo, Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy va boshqa shu kabi yuzlab jadidchilik harakatining atoqli adabiy siymolaridir.

O'tgan asrning 20-yillariga qadar o'zbek poeziyasi, nasr va dramaturgiyasi shakllanib, zikr etilgan qalam ahlini ayni adabiy muhitda birlashtirgan edi. Boy mumtoz adabiyot an'alarining muosir davr adabiyotida ham davom ettirilgani tufayli XX asr turk xalqlari adabiyotida nazm yetakchilik qilishda davom etdi. Ozarbayjon va o'zbek adabiyotshunosligida kuzatiladigan uyg'un hodisa shuki, XX asr she'riyati adabiyot tarixiga bir-biridan betakror shoirlar hamda lirik matn namunalarini taqdim etdi. XX asrning ilk choraklarida Ozarbayjonda M. A.Sobir, A.Nazmiy, M.Mo'juz, A.G'amgusor, A.Shoiq, A.Sahhat, H.Jovid singari oydinlari, o'zbek adabiyotida esa A.O'tar, G'Miskin [G'ulomxalil Toshmuhammad o'g'li], M.Komiy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy, A.Cho'lpon, A.Fitrat, A.Avloniy, T.X.Tavallo, Nozimaxoniy, A.Majidiy, M.Bayoniy [Muhammad Yusufbek Bobojonbek ug'li], A.Faqiriy, N.Kattaqo'rg'oniy kabi shoirlari o'z she'rlari bilan nazm bog'ini yashnatgan edilar. Zamonaning dolzarb mavzularida she'rlar yozish bilan ozodlik, vatanparvarlik, maorif, maktab ta'limi va axloqqa oid fikrlarini ifoda etgan mazkur san'at ahli xalq hayotiga taalluqli masalalarning hal etilishida jiddiy rol o'ynagan edilar.

Mumtoz she'riyat an'alariga sodiq qolgan holda yangi she'rlar ijod qilgan shoirlar bu-yillarda ilmni yuqori qo'rganlar va she'rlariga bosh mavzu qilib olganlar. Ozarbayjon adabiyotida bu jarayonlar bir qadar tez boshlangan edi, dong'i ketgan M. A.Sabir, A.Nazmi, A.G'amgusor, M.Hadi, H.Jovid yaratgan asarlar bilan poeziya uzluksiz gullab-yashnab bordi. Farqli jarayonlarning – realizm va romantizm namoyondasi bo'lgan shoirlarimizni bir ezgu amal yakqalam etgan edi: g'afolat uyqusida yotgan, jaholat girdabiga botgan xalqni xalos etmoq.

O'zbek adabiyotida 1920-yillarda yozib, ijod qilgan shoirlar qatoriga G'ayratiy [Abduraxim Abdullayev], G'afur G'ulom, Oybyek [Musa Tashmuhamédov], Hamid Olimjon, Komil Yashin, Mirtemir [Mirtemir Tursunmuhammad o'g'li Tursunov], Sobir Abdulla va boshqa yosh iste'dodlar qo'shildi, ustozlarining yo'lini davom ettirishga urindilar va davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida she'rlar bitdilar. G'ayratiyning "Tuproq ishchisi", "Mug'anniyning qo'shig'i" nomli she'rlarida yer va suv islohotidan, "Men ozodman", "Bir qiz o'qiydi" she'rlarida xotin-qizlar ozodligidan, "Temir bilaklar", "Mehnat va hayot", "Ish vaqti", "Sutchi qizi" she'rlarida erkin mehnat va yangi hayot sharoitidan bahs ediladi. Yana shuni ham qayd qilish kerakki, shoir sanoat mavzusini yangi o'zbek she'riyatiga olib kirdi, ayni zamanda ishchilar turmushini tasvir etuvchi "Neft bulog'i", "Bo'zsuv sohillarida", "Brigada signali", "Ishlagan xotin" nomli she'rlar ijod qilgan. Uning xalqlar do'stligi va chin insonlikni tarannum etgan "Farg'ona", "Manim hislarim", "Shoir", "Ey qalam" nomli she'rlari XX asr o'zbek adabiyotining go'zal namunalaridan sanaladi. Ozarbayjonda realizm jarayonining mashhur namoyondasi bo'lgan Sobirning ijodi ham shu qadar boy va rangorandirki, yozganlaridan istalgan mavzuga oid lirik sher'rlarni topish mumkin. U ishchi-dehqonlar hayot tarziga doir she'rlar ["Boku ishchilariga", "Insan deb bilasanmi?", "Fermer", "Qichqirma, yot", "Sattorxon"], ayollar erksizligidan bahs etuvchi she'rlar ["Ilmli va ilmsiz ona", "Jodugarning qizlarga nasixati", "Oy buvi, qizil soqolli odam", "Gavurning qizi", "Qilmang, keldi!", "Ul kunki, syenga Alloh

etar lutf bir avlod”], inqilobiy-demokratik ruhdagi she’rlar [“Mir Hoshim”, “Eron nyega vayron bo’ldi”, “Mamadali”, “Arzu hol”], maorif, maktab, muallim va bolalar munosabatlariga bag’ishlangan she’rlar [“O’qituvchilar”, “Bosh tutdi”, “Tashakkur”, “Nechun maktabga rag’batim bo’lmadi”, “Maktab bolalariga tuhfa”, “Og’ochlar bahsi”, “Yoz kunlari”, “Bola va muz”]ni qalamga olgan va shunday samarali ijodi ila Ozarbayjon adabiyotida kuchli satirik o’laroq tanildi. “Mulla Nasriddin” jurnalidagi faoliyati ila xalq qalbida sevgi, hurmat qozongan Sobir xalqimiz va adabiyot tariximiz uchun qiymatli xazinadir. *“Hech bir erda “Mulla Nasriddin” otini Sobirsiz, Sobir – “Ho’pho’p” otini “Mulla Nasriddin”siz imzo chekmasdi”* [3, s. 145]. Bir so’z bilan aytganda, yangi mazmunni ohorli shaklda ifoda qilmoq, yangilikka, zamonaviylikka intilish, minbar uyg’unligi va xalq qo’shiqlari ruhini saqlab qolish 20-yillar poeziyasining xarakterli xususiyatlaridan edi.

XX asrning avvallarida Turkiston adabiyotida klassik an’anadan qolgan yangi bir nasr shakllana boshladi. Bu yangi nasrning yaratilishi va rivoji uchun o’ziga xos xususiyatlar mavjud idi. Boy tarixga va qadim an’analarga sohib bo’lgan o’zbek adabiyotining uzoq davrlardan beri nasr sohasida yozilgan bir-biridan go’zal numunalar bor edi: *“Nasriddin Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” [XIII-XIV asrlar] asaridagi badiiy lavhalar, hazrat Alisher Navoiyning nasriy parchalari [XV asr], Boburning “Boburnoma”sidagi sarguzashtlar, jug’rafiy sharoit va manzaralarning tasviri [XVI asr], Gulxaniyning “Zarbulmasal”idagi majoziy naqllar o’zbek adabiyotida betakror nasr an’alarining qadim davrlardan byeri davom etayotganini ko’rsatadi”* [6, s. 24]. Bu fikr folklor namunalarida ham, xususan, “Alpomish” dostonida o’z aksini topgan. To’g’ri, o’tgan asrlarda o’rtaga chiqqan nasriy asarlarning aksariyati romantik bir uslubda yozilgan, shunga ko’ra muosir realistik nasrdan bir qancha jahatlariga ko’ra farqlanadi.

Ozarbayjon adabiyotida esa realist hikoyachilikka Jalil Mammadqulizoda tomonidan asos solingan. Ungacha XIX asrda I. Qutqashinli Ozarbayjon adabiyotiga “Rashid bek va Saodat xonim” asari ila hikoya janri olib kirish orqali yangi tipdagi nasrning ilk muvafaqqiyatli namunasini yaratdi va badiiy nasrga tamal toshini qo’ygan edi. M. F. Oxundzoda esa 1857-yilda qalamga olgan “Aldangan yulduz” asari bilan Ozarbayjon adabiyotida povest janrining ilk numunasini yaratdi va shu tufayli Ozarbayjon badiiy nasri rivojida mustasno rol o’ynadi. J. Mammadqulizoda esa XX asr adabiyoti tarixida o’z nasri – “Usta Zaynal”, “Pochta qutisi”, “Qo’zichoq”, “Qurbonali boy”, “Zirrama”, “Rus qizi”, “Pirvardining xo’rozi”, “Ikki qardosh”, “Qo’sh bolish”, “Eronda hurriyat”, “Tonobosh gishlog’i voga-lari”, kyentining ahvolotlari” singari povest va hikoyalari vositasida davrning dolzarb muammolarini tasvirladi. *“Birinchi bor adabiy va badiiy til ila so’zlashuv tili orasidagi devorni qulatgan, hayot va turmush lavhalarini nasrga mavzu qilib olgan, “tanlangan”, favqulodda shaxsiyatlar emas, oddiy, chinakama, haqiqiy, keng xalq ommasidan olingan odamlarni, bashqacha aytadigan bo’lsak, “kichik” odamlarni badiiy adabiyotga loyiq ko’rgan, badiiy tasvirda sun’iy bezak, uydir-*

*madan voz kechgan, hayotni badiiy tafakkurning yagona asosi, mahak toshi sanagan Jalil Mammadqulizoda bo'ldi*" [4, s. 86-87].

XX asr Ozarbayjon nasri J.Mammadqulizoda ijodi bilangina cheklanib qolmadi, uning qalamkash o'rtoqlari: A.Haqberdiev, N.Narimonov, M. S.O'rduvodi, S.S.Oxundov, Y.V.Chamanzaminli va boshqalarning adabiy merosi bilan boyidi. A. Haqberdievning "Xortdaning jahannamdan maktublari", "Bug'ularim" hikoyalar silsilasi, "Oyning shohidligi", "Ota va o'g'il", "Sheyx Shabon", "O'tovboshining hikoyasi", N.Narimonovning "Bahodir va So'na" romani, "Pir" povesti, "Bir kyent sarguzashti", M.S.O'rduvodining "Badbaxt millioner" romani, A.S.Axundovning "Uyqu", "Hurriyat yulduzi", "Mehmondorchilik", shuningdek, "Qo'rqinchli masallar" silsilasiga daxldor "Ahmad va Maloika", "Abbos va Zaynab", "Nuriddin", "Lo'li qiz", "Ashraf" hikoyalari, Y.V.Chamanzaminlining "Shahqulining savob ishi", "Jannatning tilxati", "Xonning g'azabi", "Aqsoqol", "To'y", "Juma oqshomi", "Uyqu", "Dyevona" hikoyalari, A.Shaiqning "Maktub yetib kelmadi", "Ko'ch" hikoyalari, S.G'anizodaning "Maktuboti Shaydo byey Shirvoni" romani va boshqa shu kabi nasr numunalarining har birida Ozarbayjon xalqining turmush tarzi, insonlarning ichki olami, jamiyatdagi nuqsonlar, notengliklar tahlil va tasvir etilgan.

XX asr mavzularning turfaligi bilan e'tiborni tortadi. O'zbek adabiyotida folklor va klassik adabiyotdagi nasr namunalari, shu bilan birga dunyo adabiyotidagi realistik nasr ta'sirida 1920-yillarning boshlarida nasrning barcha janrlarida xilma-xil asarlar yozila boshladi. Bu-yillarda bir qancha asarlar qissa va zamonaviy proza formasi bo'lgan hikoya janrida yaratildi. Abdulla Qodiriy "Ahvolimiz", "Jinlar bazmi", "Shubha" nomli hikoyalarida o'tmish qoloqliklari, xurofiy odat-an'ana va e'tiqodlarni fosh etdi, G'afur G'ulom "Yigit", "Vaqt", "Elatiyada bir ov", "Eshonobod" deb atalgan hikoyalarida esa yangi hayot tarzini va an'alarini tashviq etdi. Shokir Sulaymon "Qatl", "Qiyomat", "Tutiqush", "Qiz", Hamid Olimjan "Zaharli yurak", G'ayratiy "Tilanchi xotin", "Hashar", Zarif Bashar "Ipak kiyim", Sadriddin Ayniy "Buxoro jallodlari", Mo'minjon Mahammadjon "Hayotga jahdlar" nomli davr realliklarini aks ettirgan muxtalif hikoyalar yozdi. Bu hikoyalarni birlashtirib turuvchi bosh mavzu yangilikning eskilik ustidan g'alabasini tasvirlashdir. Mazkur davr nosirlarining eng buyuk xizmatlari yangi bir insan – "ijobiy qahraman" obrazi yaratish edi.

Jadidchilik ma'naviy va madaniy sohalarni yangitdan muayanlashtirganidek, adabiyotda ham uchta yirik bog'ni yuzaga chiqardi, ya'ni kashf etdi. Abdulhamid Cho'lpan o'zbek poeziyasida milliy istiqloq tushunchasining tamalini qo'ydi, Abdurrauf Fitrat dramatik asarlari ila Mahmudxo'ja Behbudiy boshlab bergan milliy dramaturgiyani yangi adabiy-badiiy bosqichga ko'tardi, Abdulla Qodiriy esa XX asr o'zbek adabiyoti tarixiga "tarixiy roman janrining asoschisi" o'laroq kirdi. O'zbek adabiyotida yangi adabiy manzil ochgan, o'zbek roman maktabining poydevorini qo'ygan Abdulla Qodiriy XX asrning boshlarida yetakchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifatchilik harakatida, jadidchilik adabiyotida daxlsiz o'ringa ega. *"XX asr o'zbek nasrining me'mori, atoqli satirik, dramaturg va publisist Abdulla Qodiriyning adabiy merosi kamiyatja olmasa da, keyfiyatja juda boy va mil-*

liy adabiy xazinaning eng qimmatli injularidandir” [1, s. 184]. Abdulla Qodiriy fenomyeni adabiyotda jadidchilikning tazahhuridir. “O‘tgan kunlar” o‘zbek adabiyotining, zamonaviy prozaning eng yorqin misolidir.

Ozarbayjon adabiyoti tarixida dramaturgiya janr sifatida hala XIX asrning 50-yillarida Mirza Fatali Oxundzoda qalamiga mansub komediyalar ila paydo bo‘ldi va rivojlandi. 1850-1855-yillar oralig‘ida ketma-ket 5 komediya bitgan M.F.Oxundzodadan so‘ngra bu yo‘lni Najafbyey Vazirov davom ettirdi va XIX asrning oxiri – XX asrning avvallarida Ozarbayjonda realistik adabiy harakatining taraqqiyotida mashhur bir dramaturg sifatida alohida xizmatlari bilan tanildi. XIX asrning 70-yillaridan Ozarbayjon dramaturgiyasi yanada o‘tib, boyiy boshladi. M. F.Oxundzoda maktabidan mazkur sohada yangi dramaturglar nasli shakllandi va uning an‘analarini bosib o‘tdilar. Najafbyey Vazirov, Abdurrahimbyey Haqberdiev, Narimon Narimonov, Jalil Mammadqulizoda, Sulaymon Soniy Oxundov va boshqalar turli-tuman shakl va mazmundagi pyesalar yozish bilan xalqni, millatni o‘ylantirgan jiddiy muammolar bilan bir qatorda oila-turmush ikir-chiqirlariga, xotin-qizlar huquqsizligi masalalariga o‘rin berdilar. Davrning ijtimoiy musibatlarini, sosial-axloqiy masalalarini yechishda komediya asos janr sifatida istifoda qilindi.

Bu-yillarda Ozarbayjon adabiyotida fojia janriga ham asos solindi, N.Vazirov 1896-yilda ilk tragik asar bo‘lgan “Musibati Faxriddin”ni yozdi. M.Jalil, A.Haqberdiyev, N.Narimonov, Y.V.Chamanzaminlilarning ijodiy merosi tufayli dramaturgiya to‘xtovsiz rivojlandi, yangi-yangi janrlar maydonga keldi. J. Mammadqulizoda ijodining ilk pallalarida kichik p‘yesalar yozgan bo‘lsa, keyinchalik bu bilan kifoyalaniq qolmasdan, “O‘liklar” [1909], “Onamning kitobi” [1920], “Tonobosh gishlog‘inin maktabi” [1921] va boshqa asarlari ila XX asr Ozarbayjon adabiyoti xazinasiga hissa qo‘shdi. U bu asarlari orqali tragikomediya janrining asosini qo‘ydi ham xalq hayotining ongidagi o‘zgarishlarni aks ettirgan. *“Bu asarlar nainki g‘oya, mazmun e‘tibori bilan, balki dramaturgiyaga xos qurilish, adabiy texnika, badiiy san‘atkorlik jihatidan ham mukammal asarlardir. Bu asarlar muallifi Moler, Gogol, Mirza Fatali kabi klassiklar darajasida turgan dramaturgdur”* [3, s. 110]. N. Narimonovning “Nodonlik” dramasi, “Til balosi yohud Shamdonbyey” [1895] komediyasi, Ozarbayjon adabiyoti tarixida dramaning ilk numunasi bo‘lgan “Nodirshoh” [1899] fojiasi, A. Haqberdievning “Parchalangan ittifoq” [1896], “Baxtsiz yigit” [1900], “Pari jodu” [1901], “Oyning shohidligi”, “Og‘a Muhammad shoh Hojar” [1907] va singari asarlar o‘zida muxtalif mavzu va masalalarni birlashtirgan, bir-birdan bebaho sahna asarlari yaratildi. Dramaturgiya vositasida o‘z g‘oyalarini yanada qulay badiiylashtirgan, davrning turfa ko‘rinishlarini sahnaga ko‘chirgan yozuvchilar bu sohada diqqatga molik zafarlarga erishdilar.

Adabiy-tarixiy faktlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ozarbayjon va o‘zbek adabiyotida dramaturgiya janrining paydo bo‘lishi orasida yarim asrdan ko‘proq farq mavjud. Shunga qaramasdan, XX asr Ozarbayjon va o‘zbek adabiyoti mavzu va ko‘tarilgan masalalar tomonidan ayni adabiy jarayonni boshidan o‘tkazgan.

O‘zbek adabiyotida jadid namoyondalari teatrga alohida qiymat berib, sahna asarlarining yozilishi va targ‘ibotiga ham g‘ayrat ko‘rsatdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” [O‘zbek adabiyotida yozilgan asarlar nomini ayni shu tarzda har doim qavs ichida berishingiz lozim, tarjimon juda qiynaladi. Asar nomini yanglish tarjima qilish mumkin] asari jadid adabiyotida dramaturgiyaga yo‘l ochdi. Buyuk adib Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlar va faoliyati bilan davr jaholatiga qarshi kurash olib bordi. U ijodiy faoliyati davomida badbaxtlik va yo‘qsillikning bosh sababi jaholatda degan xulosaga kelgan edi. Shu boisdan ham xalqning ko‘zini ma‘rifat va maorif nuri bilan yoritishni istaydi. Oqibatda esa XX asrning boshlarida davrning ilg‘or ma‘rifatparvari, ziyolisi o‘laroq tanildi. Samarqandda yangi maktablar ochdi, yangi usuldagi bu maktablar uchun darsliklar yaratdi. Ayni zamonda u “Samarqand” gazetasi va “Oyna” nomli jurnal chop ettira boshladi. Bu bilan jadid harakatida faol ishtirok etdi va tezlik bilan mazkur harakatning rahbarlaridan biriga aylandi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu sohadagi eng buyuk xizmati o‘zbek adabiyotida ilk da‘fa drama janrini istifoda etib, milliy dramaturgiyaning poydevorini qo‘ydi. O‘zbek milli dramaturgiyasi va milliy teatri Behbudiyning “Padarkush” [1911] asari ila boshladi. Bu asarning yozilishi va sahnaga qo‘yilishi milliy adabiyot va teatr tarixida yirik hodisa bo‘ldi. Dramada istiqlol, ma‘rifat, komillik g‘oyalari tashviq etilgan. “Padarkush” 1912-yilda o‘zbek va tojik tillarida chop qilindi, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Andijon, Qarshi, Kattaqo‘rg‘on shahar teatrlarida qo‘yilgan. Asar xalq tarafidan juda iliq kutib olingan va olqishlangan. Buning asosiy sabablaridan birinchisi, o‘sha vaqtlar xalq uchun tamomila yangi bo‘lgan teatr san‘atiga qiziqishning kuchli bo‘lgani, ikkinchisi, asarda najib va ibratli g‘oyalarning mujassam bo‘lgani, shu bilan birga, mavjud davr uchun noyob hodisaligi edi. Zero, jadid yozuvchilari yangi va bir-biridan farqli janrlarda, shuningdek, xilma-xil obrazlar vositasida davrning og‘riqli mavzularini sahna yuziga olib chiqdilar.

Behbudiyning va uning davomchilari sanalmish A.Avloniy, H.Muin, H.H.Niyoziy, Tavallo, A.Fitrat, A.Cho‘lpon, A.Qodiriylar mansub jadid adabiyoti endi tamomila muayyan yagona maslak – millatning uyg‘onishiga yo‘nalgan edi. Bu adabiyotning qahramonlari avvalgi davrlarda bo‘lganidek yuqori tabaqa vakillari va yoki ilohi qudrat ila nurlantirilgan siymolar emas, ko‘proq xalq ichidan yetishib chiqqan va kamolga yetgan qahramonlar edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” p‘yesasi undan keyin yaratilgan shu turdagi asarlarga muayyan hamirturush vazifasini ham bajarib berdi. Taniqli jadid yozuvchisi Hoji Muin 1914-yilda “Padarkush” tomoshasidan ta‘sirlandi, nazmni bir chetga qo‘yib, dramaga qo‘l urdi. “To‘y”, “Xashxash”, “Mazluma xotin”, “Eski maktab – yangi maktab” kabi p‘yesalar yaratishga kirishib ketdi. Zotan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta‘sirida bitilgan p‘yesalardan yana biri Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” [1915] asaridir. Asarda otasini mahv bo‘lishdan xalos etgan o‘qimishli, ta‘lim ko‘rgan o‘g‘il obrazi yaratilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning jaholat tug‘dirgan fojiani, Hamza Hakimzoda Niyoziy esa ilmning mohiyati va natijasini ko‘rsatib berdi. Umuman olganda, Hamza



Hakimzoda Niyoziy “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi”, “Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari”, “Muxtoriyat yoki avtonomiya”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Kim to‘g‘ri?”, “Zulm qurbonlari”, “Toshkent safari”, “Burungi saylovlar”, “Yer islohoti” nomli qirqqa yaqin katta-kichik p‘yesalar muallifidir.

O‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” p‘yesaiga qadar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Muin, Nusratulla Quadratillalar tarafidan dramatik asarlar dunyoga kelgandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan 1911-yilda yozilib, 1912-yilda nashr etilgan, 1913-yilda sahnalashtirilgan “Padarkush”, 1914-yilda Hoji Muin va Nusratulla Quadratilla hammualiflikda yozgan “To‘y” p‘yesalari A. Qodiriy uchun bir maktab vazifasini o‘tadi, yosh qalamkashni havaslantirgan edi. 1915-yilda yozilgan “Baxtsiz kuyov” fojiasi o‘sha yilda kitob holida nashr qilingan va 1920-yillarga qadar teatr sahnalaridan tushmay kelgan.

O‘z navbatida jadid dramaturgiyasining inkishofida Abdurrauf Fitrat betakror salohiyat egasidir. Uning dramatik asarlari Turkiston tarixidan bahs etadi. Yoshlarga go‘yo “tarixni izoh etish bilan” ularni Turkistonning milliy hayotiga bog‘lashga harakat qiladi. U o‘tgan asrning 20-yillarida o‘zbek dramaturgiya xazinasini “Chin sevgi”, “Hindiston munozarasi”, “Abulfayzxon”, “Shaytonning Tangriga isyoni”, “Arslon” nomli dramatik asarlari bilan boyitgan san‘atkordir. Bu p‘yesalarda Fitrat iste‘dodli bir dramaturg sifatida namoyon bo‘lgan.

XX asr dramaturgiya sohasida klassik adabiyot va folklorda mavjud bo‘lgan mavzularga tayanib ham p‘yesalar yuzaga keldi. Adib Xurshid hazrati Alisher Navoiyning dostoni asosida hozirlangan “Farhod va Shirin”, Fuzuliyning asaridan ta’sirlanib “Layli va Majnun” musiqali dramalarini yozdi. A.Cho‘lpon “Yorqinoy” dramasini folklor namunalari asosida yaratgan.

O‘rganilayotgan davrda nazm va nasrda bo‘lganidek, dramaturgiya sohasida ham g‘oyaviy kurash kyeskin tus oldi. Bu jarayonda mavzu rango-rangligi, shakl va janr xilma-xilligi ila yangi bir o‘zbek dramaturgiyasi bo‘y ko‘rsatdi. Drama, musiqali drama, komediya, fojia janrlarida yaratilgan asarlarda Ozarbayjon adabiyotining – dramaturgiyasining ta’sirini ko‘rmaslik mumkin emas: *“XX asrning 20-yillarida Ozarbayjon dramaturgiyasi va teatri izlanish davrini boshdan kechirardi. Ozarbayjon realist yozuvchilari bo‘lgan N.Vazirov, A.Haqberdiev, J.Mammadqulizoda, S.S.Axundov, J.Jabborli va boshqalarning asarlari klassik dramaturgiyaning eng saralaridir. Bu davrda bolalar teatrining ochilishii, drama to‘garaklarining faoliyat ko‘rsatishi yangi-yangi asarlarning yaratishni talab eatri”* [2, s. 12]. Ko‘rinadiki, XX asrda har ikki xalqning adabiyot va madaniyati to‘xtovsiz yuksaldi va yangi taraqqiyot bosqichiga doxil bo‘ldi.

Olib borilgan qiyosiy kuzatishlarimiz natijasida ma’lum bo‘ladiki, XX asr yangi Ozarbayjon va o‘zbek adabiyoti oydinlari insonlarni xayrixohlik, vatanparvarlik, zahmatkashlik, yuksak axloqiy ruhda ulg‘aytirishga va ularga hayotga oyna tutish bilan haiqatlarni ko‘rsatib, estetik zavq berishga urindilar.

XX asr turk xalqlari adabiyoti va madaniyati tarixi juda qiyin, murakkab, ziq, ayni zamonda rosa mahsuldor va yangiliklarga to‘la bir asr bo‘ldi.

XX asr yangi o‘zbek adabiyotining rivojlanish yo‘li silliq bo‘lmagan, muosir davr bosqichiga chiqib olgungacha uzun va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. “XX asr bashariyat tarixida eng buyuk asrlardan biridir. Bu asrda qanchalar ko‘p qon to‘kilgan bo‘lsa-da, haqsizliq yashalgan bo‘lsa-da, bashariyat ayni asrda kelajakka to‘g‘ri ulkan bir qadam otdi. Bu asrda yuz bergan bergan barcha hodisalar kishilik tarixining ajralmas bo‘lagidir. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti ila mustahkam bog‘liqlikka sohib. XX asr o‘zbek adabiyoti xalqni ozodlik va milliy tamaddunga yo‘naltirishga harakt qildi va bu borada samaralarga erishdi” [7, s. 24].

XX asr o‘zbek adabiy muhitiga haqli byuaho bergan ustoz adabiyotshunos, professor Umarali Normatov yozadi: “A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan, A.Cho‘lponning she‘rlaridan, Abdurauf Fitratning dramalaridan tortib Tog‘ay Muradning “Otamdan qolgan dalalar”i, Shavkat Rahmonning jasoratli san‘at asarlarini tasavvur eting – xalq taqdiri, ozodlik va mustaqillikning bu qadar ochiq shaklda aks etgan boshqa bir sohanini topa bilmaysiz! Istiqlol g‘oyasi ilk bor XX asrning buyuk ustozlari tomonidan tayyorlangan edi [7, s. 17].

Abdulla Qodiriy shakllangan adabiy-madaniy muhit XX asr o‘zbek adabiyoti tarixining murakkab, og‘ir, chigal, bir vaqtda eng mahsuldor va yangi davrni o‘z ichiga oladi. Natijada, A.Qodiriy singari daho shaxsiyatlar etishtirgan XX asr o‘zbek adabiyotining zamonaviy davrda millatning badiiy zavqi va go‘zallik hissini orttirishiga qo‘shan hissasi davomoli va betakroridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Almaz Ulviy. Ozarbayjon-o‘zbek [chig‘atoy] adabiy aloqalari [Davrlar, siymomlar, janrlar, tamoyillar]. – Boku, Qartal, 326 sah.
2. Ozarbayjon dramaturgiyasi antologiyasi. To‘rt jildda. 2-jild. – Boku, “Sharq-G‘arb”, 2007, 472 sah.
3. Mir Jalol, Firidun Husainov. XX asr Ozarbayjon adabiyoti. – Boku, “Ilm va tahsil”, 2018, 560 sah.
4. Mir Jalol. Ozarbayjonda adabiy maktablar [1905-1917] – Boku, 2004, 391 sah.
5. N. Karimov, S. Mamadjonov, B. Nazarov, U. Normatov, O. Sharafiddinov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1999, 544 bet.
6. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005, 418 bet.
7. XX asr mening taqdirimda. – Jahon adabiyoti. 2001, yanvar, 24-bet.

#### **BUYUK AN‘ANAGA ERGASHIB**

**Oybek NORMURODOV,  
GulDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi**

Sharq adabiyotida hamsanavislik an‘anasi uzoq tarixga borib taqaladi. Adabiyot tarixida hamsachilik an‘ana sifatida namoyon bo‘ldi. “Xamsa” janrmi yoki adabiy an‘ana degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Jumladan, Zahiriddin Muhammad

Bobur “Boburnoma”da Alisher Navoiy va Husayn Bayqaroning shuaro [shoirlaridan biri]si Abdulloyi [Abdurahmon Jomiyning jiyani] haqida soʻz yuritar ekan, unda shunday: “Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Xamsa” javobida, yana biri “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq. Yana Abdulloyi masnaviygoʻy edi...“Xamsa” muqobalasida masnaviy aytibdur...” deydi. “Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati”da hamsa shunday taʼrif beriladi: “...besh mustaqil dostonni oʻz ichiga olgan asar... Sharq xalqlari adabiyotida “Xamsa” yaratish *traditsiyaga* aylandi. Xamsachilik epik soʻz sanʼati rivojida katta bir bosqich boʻldi”. “Soʻz sanʼati soʻzligi”da “Xamsa [ar.: “besh”, “beshlik”] - bir muallifning masnaviyda yozilgan beshta dostonidan tarkib topgan toʻplam. *Xamsachilik anʼanasining* asoschisi – buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si quyidagi dostonlar majmuidan iborat:...” deya xulosaga keladi. Ushbu fikrlardan hamsa adabiy anʼana sifatida shakllangan epik dostonlar majmuyi ekanligi maʼlum boʻladi. Mazkur masala yuzasidan tadqiqot amalga oshirilayotgan Samarqand davlat universiteti filologiya fakultetida “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi” mavzusidagi fundamental tadqiqotda bir qancha muammoli masalalarning oʻz yechimi topayotganligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Xususan, S.Tohirovning “Temuriylar davrida hamsanavislik” monografiyasida yuqoridagi kabi koʻplab ilmiy kuzatishlar natijasi oʻlaroq yuzaga kelgan. Bu sohaga boshqa yirik adbiyotshunoslarning munosabatida ham aniq seziladi.

Xamsachilik anʼanasi oʻrganilgan manbalarda ushbu turkumdagi asarlarga javob yozish traditsiyasini quyidagicha tasniflash kuzatiladi:

1. **Toʻliq «Xamsa» mualliflari** [Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy Jamoliy, Ashraf Marogʻaviy, Jomiy, Navoiy].

2. **«Xamsa»ning baʼzi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar** [Kotibiy Turshiziy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Shahobiddin Jomiy].

3. **Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar** [Osafiy Hiraviy, Nargisiy, Gʻiyosiddin Sabzavoriy, Fosih Rumiy, Sayyid Qosimiy, Shayxim Suhayliy, Ali Ohiy, Xoja Imod Loriy, Xoja Hasan Xizrshoh, Zova Qozisi].

Boshqa manbada esa hamsanavislik anʼanasiga ergashish va unga nazira yozish borasidagi tasniflar ham uch xil yoʻlda guruhlanadi, biroq mazkur tasnifda yuqoridagi tasnifda qayd etilmagan jihatlarni ham koʻrishimiz mumkin:

1. **Toʻliq besh dosondan iborat «Xamsa» yozganlar:** Amir Xusrav Dehlaviy, Xoju Kirmoniy [XIII-XIV asrlar], Jamoliy, Ashraf Marogʻaviy, Alisher Navoiy [XV asr], Abdibek Sheroziy, Sinon ibn Sulaymon [XVI asr], Hasan ibn Sayid Fathulloh, Ismoil Binish, Mirmuhammad Maʼsumxon, Hamidulla Hamdiy, Yahyo Nargisiy, Muhammad Amin Shahrisoniy [XVII asr], Mir Savbadarxon [XIX asr] va boshqalar.

2. **Sabʼanavislar. Bu guruhdagi shoirlar yetti dostonidan iborat turkum yozganlar:** Abdurahmon Jomiy [XV asr], Ali ibn Nosir ibn Abulqosim al-Husayniy Tabriziy Gunobodiy, Badriddin Kashmiriy, Zuloliy [XVI-XVII asrlar].

3. **Toʻliq yozib tugata olmagan shoirlar:** Salmon Sovajiy [XIV asr], Mir Muhammad Murod Loyiq, Kotibiy Turshiziy, Mavlono Haydar Xorazmiy, Xoja

Alouddin, Abdulloh Hotifiy [XV asr], Lomeiy, Xoja, Amir Hoshim Kirmoniy, Rahoyi Marviy, Xoja Imomudin Lohuriy [XVI asr], Abulfayz Fayziy [XVII asr] va boshqalar.

S.Tohirov tomonidan amalga oshirilgan ushbu tasnif D.Yusupova tasnifidan birmuncha farqlanadi. Jumladan, sab'anavislik haqida boshqa manbalarda ma'lumot uchratmadik, S. Tohirovning ikkinchi, "to'liq yozib tugata olmagan shoirlar" tasnifida D.Yusupovaning "Xamsa"ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar" tasnifiga monandlik kuzatiladi. D.Yusupovaning "Bitta dostonga javob yozgan ijodkorlar" tasnifini S.Tohirovning tasniflashida uchramay balki umumiy nom ostida bir dostonga nazira bog'lash haqida gap boradi. Tasniflardan a'yon bo'ladiki, hamsachilik tarixida faqat birgina doston nazira qilish ham keng tarqalgan an'analardan ekan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida bu an'ana ham uzoq-yillar davomida traditsiya darajasiga ko'tarildi, chunonchi, D.Yusupova bu haqida "Garchi turkiy adabiyotda Navoiygacha "Xamsa" ning muayyan dostoniga javob yozilgan bo'lsa-da [Ahmadiy. "Iskandarnoma" [XIV asr], Qutb. "Xisrav va Shirin" [XV asr], Haydar Xorazmiy. "Maxzan ul-asror" [XV asr], Sayyid Qosimiy. "Majma' ul-axbor" [XV asr], lekin to'liq beshlik yaratilmagan edi" degan xulosaga keladi.

Yuqoridagi "Xamsa" ning muayyan dostoniga javob yozgan ijodkorlardan biri bu – Sayyid Qosimiydir. Muallifning "Мажмаъ ул-ахбор" dostoni ana shu tariqa yuzaga kelgan. Dostonining "Dar sababi nazmi kitob va sharhi ahvoli xud" bobida adib kitobning yozilish sababini quyidagicha qalamga olingan:

*So'zum erur javhari bol qiymati,*

*So'z bila ortar kishining izzati.*

**Haydar** agar berdisa so'z dodini, Jumla jahon aylar oning yodini. "Maxzan ul - asrora" ayitdi javob,

*Sochti maoniy durini chun sahob.*

*Manda dag'i bor erdi ushbu havas,*

*Shukri xudo toptim anga dastras.*

*O'ldi sabab madhi shahi komyob,*

*Qilsam aning otina insho kitob.*

*Shayx Nizomiy damini yod etib,*

*Xatmi duo birla ruhin shod etib.*

*Nazm etay necha hikoyatini,*

*Jam' qilib naql-u rivoyatini.*

*Qilmayin anda so'zumnim bob-bob,*

*O'zga yo'sun birla tuzub bu kitob.*

*"Majma' ul - axbor" qilay otini,*

*"Maxzan ul - asror" deyin zotini.*

Mazkur misralardan Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" asari Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul - asror" dostoniga bevosita javob tarzida yozilmay, balki bilvosita Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul - asror" dostoniga nazira sifatida yozilganligi ravshanlashadi. Ammo muallif "Maxzan ul - asror" deyin zotini" qabilida har ikki salafariga hurmat saqlagan holda ish ko'radi. Budan tashqari

mazkur misralardan muallifning uzoq-yillar doston yozishga tayyorgarlik ko‘rgani, hikoyatlar to‘plagani, o‘zgacha bir kitob yaratish ishtiyoqi borligi kuzatiladi. Demak, Nizomiy Ganjaviy va Haydar Xorazmiylar an‘analariga ergashgan hamda Sayyid Qosimiyning Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda hamsanavislik an‘anasining shakllanishiga hissa qo‘shgan ijodkor deyish mumkin.

Sayyid Qosimiyning har bir asari o‘ziga xos tuzilishga ega. Jumladan, “Majma’ ul-axbor” ham muallif asarlari ichidagi eng yirik doston hisoblanadi. Hajmi 2088 misra. Doston Sharq an‘anaviy dostonchiligiga xos Tangriga hamd, payg‘ambarimiz Muhammad sallolohi alayhi vassalamga nat’ va kitobning yozilish sababi, Sulton Abu Said madhi, so‘zboshi, asosiy qism – hikoyatlar va xotimadan iborat. Shu o‘rinda “Xamsa”larning ilkinchi dostonlariga xos bir xususiyatni aytish o‘rinlidir, ya’ni “basmala”dir. Sharq adabiyotidagi daslabki “basmala” Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” hamda Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonlarida kuzatiladi. Bu an‘ana Sharq musulmon adabiyotida keng tarqaldi. Biz bu o‘rinda mazkur vorisiylikni Sayyid Qosimiy misolida kuzatamiz. Adibning “Majma’ ul-axbor” asari ham salafkabi bu an‘anaga qat’iy amal qilganligida ko‘rinadi:

Bismillohir rahmonir rahim,

Fotihayi fath erur, ey hakim.

Mana shu an‘ana barcha hamsanavislarning ijodiga xos xususiyatdir. Xususan, Nizomii Ganjaviyning “Maxzan ul asror” asari quyidagicha boshlanadi:

Бисмиллох-ир-рахмон-ир-рахим,

Ҳаст калиди дари ганчи ҳаким.

[*Mazmuni: Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan boshlayman, [ushbu jumla] Alloh boyliklarining esgigini ochuvchi kalit hisoblanadi. ]*

Xusrav Dehlaviy ham ustoz Nizomiy an‘anasi yo‘lidan yurdi va o‘zining mashhur “Matla’ ul-anvor” dostonini “basmala, unvon” bilan boshlaydi:

«Бисмиллаҳир роҳманир роҳим»,

Хутбаи қудс аст ба мулки қадим.

*Mazmuni: «Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan boshlayman» kalomi qadimiy mulkining muqaddas [pok] xutbasidir.*

Bu Amir Xusrav Dehlaviydan boshlab chin ma’noda an‘anaga aylanib ulgurdi. Bu holatni Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Haydar Xorazmiy ijodi misolida kuzatamiz:

Haydar Xorazmiy:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Fathu zafar oyatidur ey hakim.

Abdurahmon Jomiy:

Alisher Navoiy:

Bismillohir-rahmonir rahim,

Rishtag‘a chekti necha durri yatim.

Bular orasidan faqat Navoiyda “basmala” bobi kengroq yoritilgan, ya’ni Navoiy “Xamsa” dostonining birinchi bobini to‘lig‘icha Quranning birinchi “Fotiha” surasining birinchi “Бисмиллоҳир-рахмонир раҳим” oyati ta’rifiga

bag'ishlagan. Biroq Sayyid Qosimiyda o'zidan avvalgi salafлари kabi oyatning o'zi keltirilib ikkinchi misradagina uning ta'rifi beriladi. Mazkur qism hamd qism hamdir, unda Alloh hikmat va qudrat egasi; barcha narsa qilishga qodir zot; barcha borliq uniki; oy, kun, yer, osmonni yaratuvchi; odamlar unga sig'inadi; Xalil payg'ambarga o'ti guliston qilgan zot; Iso alayhissalomga mo'jiza ato etgan; Muhammad [s. a. v. ] uchun odamlarni aziz etdi; kabi ta'riflar keltiriladi. Asarning hamd qismi shu tariqa quyidagi keltirilgan bayt bilan yakun topadi:

*Qosimiydin kelsa xatovu gunoh,  
Lutfu karam bula kechur, yo Iloh.  
Muztaru darmondavu bechoradur,  
Ojizu dilxastavu g'amxoradur.*

Endi qiyoslash uchun Sayyid Qosimiydan avval ijod qilgan ustozlarining hamd qismidagi taxallus qo'llash an'anasini Nizomiy Ganjaviyning "Maxzanul asror", Amir Xusrav Dehlaviyning "Matla' ul-anvor", kuzatamiz:

*Хоки Низомӣ, ки ба таъйиди уст,  
Мазрааи донаи тавҳиди уст.*

*Tarjimasi:*

*Хоки Низомийки, мададкори Ул,  
Донайи таҳвид экинзоридир.* [Nizomiy Ganjaviy. Maxzanul asror]

Hamd qismdan keyin asarning "Fi na'ti nabi, sollolohu alayhi vassalam" bobi boshlanadi. Ham qismida Muhammad sollallohu alayhi vasallam haqiga so'z yuritilganligi haqida yuqorida qayd etdik, mana shu fikrlarni muallif keying na't qismiga mantiqan bog'lashga harakat qiladi. Xususan, asarning hamd qismida:

*Qildi Muhammadni rasul xotami,  
Etdi aziz oning uchun odamiy.*

Bayti, mantiqan keying qismlarga ham aloqador hisoblandi. Mana shu baytga monand na't qismni kuzatamiz:

*Ey qadaming izi yuzi ko'zga nur,  
Yoding erur jonu ko'ngulga huzur.  
Andaki sen Haq bila erding qarın,  
Qonda edi dunyoda ruh ul-amin.  
Sen sabab o'ldingki, jahon bo'ldi rost,  
Butdi faqrlar ishi biz uchun xost.  
Yo'q edi o't-u, yel-u, ob-u xok,  
Bundayi ishqing edi bu jon pok.  
Odamikim qildi maloyik sujud,  
Vositasi sen eding, ey bahri jud.*

Mazkur bobda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning siymosi shoirona tarzda ta'riflanadi. Mana shu o'rinlardan boshlab Sayyid Qosimiyning hamsanavislik an'anasiga to'liq amal qilmaganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror"i "Debocha", "Munojoti avval", "Munojoti duyum"dan iborat bo'lib, bunda ikki munojot mavjud. Navoiyda esa munojot to'rttaga yetkazilgan. Qosimiyda umumiylik kuzatiladi, ya'ni doston tavsifi siqiq holda ekanligini mana shulardan ham bilish mumkin. Bundan tashqari

“Majma’ ul-axbor”da “Me’rojnoma” yoki Me’roj tuni ta’rifi keltirilmagan. Na’tlar soni ham bitta. Boshqa hamsanavislar ijodida uchtadan ortiq. Masalan. Nizomiy Ganjaviyda 5 ta, Xusrav Dehlaviyda 3 ta, Navoiyda 5ta na’t mavjud. Shundan so’ng asarning “Dar sababi nazmi kitob va sharhi ahvoli xud” bobi asar kompozitsiyasini to’ldiradi. Ushbu bobda Sayyid Qosimiy “Majma’ ul-axbor” dostoning yozilish sababiga to’xtalgan. Bu haqida yuqoriroqdafikr yuritgan edik. Asarning “Fi madhi Sulton A’zam Sulton Abu Said” qismida Abu Said Mirzo madh etilgan. Uning umumiy hajmi 65 bayt, 130 misradan iborat.

Xullas, Sayyid Qoimiy hamsanavislik an’anasiga ergashib “Xamsa”larning ilkinchi dostoniga javob yozdi. Muallif har bir an’anani yaxshi o’zlashtirdi va shakl va mazmun dialiktikasini saqladi. Keyingi tadqiqotlarimizda ushbu ijodkorning “Majma’ ul-axbor” asari tarkibidagi hikoyatlar taqdiqini amalg oshiramiz. Umuman, olganda Sayyid Qoimiyning mazkur dostoni o’zbek adabiyotida o’z o’rniga ega asarlardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. . “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa” larning komparativistik tadqiqi va ularning sharq adabiyoti taraqqiyotidagi o’rni” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman matereallari [6-7-noyabr 2020-y.] – Samarqand. SamDU nashriyoti, 2020.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. // Nasriy bayoni bilan. Nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmonov. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2006.
3. Alisher Navoiy: qomusiy lug’at. 1-2-jildlar /Mas’ul muharrir Sh. Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
4. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent: 2000;
5. Muborak maktublar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti, 1987.
6. N. Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. XVII asrgacha bo’lgan davr. – T., O’rta va oliy maktab. 1963.
7. N. Rahmonov. O’zbek adabiyoti tarixi. Eng qadimgi davrdan XV asrning birinchi yarmigacha. – T., Sano-standart. 2017.
8. Qosimiy Sayyid. Masnaviylar majmuasi. Majma’ ul-axbor. “Fan” nashriyoti. 1992.
9. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. , Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – T. Tamaddun, 2018.
10. Vohidov R. , Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
11. Y. Is’hoqov. So’z san’ati so’zligi. – T., O’zbekiston. 2014.
12. Yusupova D. O’zbek mumtoz va milliy uyg’onish adabiyoti [Alisher Navoiy davri]. O’quv qo’llanma. – T.: Tamaddun, 2016.
13. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent.: Sharq, 2017.
14. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Фан, 1995.
15. Ефим Резван. Зеркало Корана //«Звезда». – 2008. – № 11;

16. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т. , 2002. Шарҳ. 132, 139-бетлар. [Порсо Шамсиев, Sodiq Mirzayev va Euji Mano nashrlari asosida qayta nashrga tayёрловчи Saidbek Hasanov]
17. Расскази мне об Исламе. Краткая энциклопедия для начинающих. Составлено редакцией Даруль-Фикр. – 3-е издание [исправленное и дополненное]. Москва, Издательский дом «Даруль-Фикр». 2014.
18. Тоҳиров S. Темурийлар даврида хамсанавислик. – Т.: Tamaddun, 2021.
19. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967.
20. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Tafsiri Hilol. – Т.: «Hilol-Nashr» нашриот-матбааси, 2021. 1-китоб.
21. Энциклопедии словари справочники. 6 том. – М.: Советская Энциклопедия. 1971.
22. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Қ. Каримов – Тошкент: Фан, 1971.

**ZAYNIDDIN VOSIFIYNING “BADOYE’ UL-VAQOI” ASARIDA  
SHAYBONIY UBAYDULLAXON TAVSIFI**

**Farrux FAYZULLAYEV,**  
*O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti  
doktaranti*

O‘z davrining yetuk adibi va shoiri Zayniddin ibn Adbdualil Vosifiyning [1485-1566] “Badoye’ ul-vaqoi” [Nodir voqealar] asari esdalik sifatida yozilgan asar hisoblanib, O‘rta Osiyo xalqlarining XVI asr ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida qimmatli malumotlar beradi. Ushbu asar ustida ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Sharqshunos olim A.N.Boldriyev 1954-yilda “Badoye’ ul-vaqoi” asari boyicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Sadriddin Ayniyning [1878-1954-yillar] 1956-yilda “Vosifiy va xulosai Badoye’ ul-vaqoi” kitobi nashrdan chiqadi. Biz ushbu maqolada “Badoye’ ul-vaqoi”ning forsiydan Naim Norqulovning tarjimasiga tayandik.

“Badoye’ ul-vaqoi” asari o‘tmishda o‘tgan buyuk shaxslarning, jumladan Ubaydullaxonning siyrati, yaxshi xulq atvori, madaniy ma’rifiy sohada amalga oshirgan ishlari va saroydagi adabiy muhit haqida ma’lumot beruvchi asardir. Ushbu asarning tarixiy ahamiyati shundaki, muallif ushbu voqealarning ko‘pchiligiga o‘zi bevosita guvohi bo‘lgan va ushbu davr haqida ma’lumot beruvchi asarlardan ba’zi tilga olinmagan voqealar yoritilgan.

“Badoye’ ul-vaqoi” asarida, asosan, Ubaydullaxonning ma’rifiy sohadagi ishlari ko‘p o‘rinlarda yoritilsada uning siyosiy jarayonlardagi faoliyati haqida ham ko‘plab ma’lumotlarni olish mumkin. Jumladan Bobur Mirzo Samarqand taxtini uchunchi marta egallash maqsadida Eron shohi Ismoil Safaviydan yordam so‘raydi. Bunga javoban 918 [1512]-yil Rabiul oxir oylari boshlari [iyun oyi o‘rtalari] Najmi Soniy tezkor arabi otlarida 80 ming kishilik qo‘shin bilan



Amudaryodan o‘tib Movarounnahrğa kirib keladi [7, 37]. Najmi Soniy boshliq qizilboshlilar Qarshini qamal qilganda Ubaydullaxon Karmanada, Ko‘chkunchixon va Temur sulton va boshqalar Miyonkolda edilar. Ular chekinishga shaylanib turganda Mir Arab Turkiston viloyatidan Buxoroga keladi. Ubaydullaxonni jangga chorlaydi va Jonibek sulton oldiga borib uni ham jangga undaydi [7, 40]. Mir Arab shu tariqa Shayboniy sultonlarni birlashtirib jangga undaydi. Qarshi shahrida Najmi Soniy boshliq Eron asakarlari ommaviy qatliom o‘tkazadi. Jami 15. 000 kishi qatl etiladi. Qarshidagi g‘alabadan ruhlangan Eron askarlari Najmi Soniy boshchiligida G‘ijduvonni qamal qilishga kirishadi. Shayboniy sultonlar chekinib hal qiluvchi jangga hozirlik ko‘radi [5, 10]. Najmi Soniy 918 zulqada oyining 20 kuni [1513- yil 27 yanvar] G‘ijduvon qalasini qamal qiladi. Jangni keyingi tafsiloti “Badoye’ ul-vaqoi”da berilmagan. Ubaydullaxon boshliq shayboniy sultonlarning kam sonli qo‘shinidan, eroniyning Najmi Soniy va Bobur mirzoning birlashgan qo‘shinlari 1512- yil 24-noyabrdagi G‘ijduvon yaqinidagi Zarangaron qishlog‘i yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchraydi.

Yana asarda keltirilishicha Zulxijja oyining 18 da hijriy 919-yili 1514-yil 14-fevral kuni Ubaydullaxonning zafarli yalovi mahchasi ilohiy inoyat bilan Qarshi shahrining mashriq tomonidan chiqib keldi va o‘zining tavajjuh nurini Buxoro uzra sochdi [7, 47].

Mir Arab boshchiligida Ubaydullaxon bergan ehsondan Turkistonda madrasa quriladi. Ubaydullaxon sovg‘a salomlar bilan Sabronga odam jo‘natadi. Turkiston aholisi Mavlono Sayyid Shamsiddin Muhammad Qurtiyini mudarris etib tayinladilar. Ushbu madrasa ochilishida Mir Arab ma’ruza qiladi. Shundan 5 kun vaqt o‘tib Buxorodan Ubaydullaxon farzand ko‘rgani xabari keladi. Mir Arabdan unga ism qo‘yib berishini va duo qilishini iltimos qiladi. Mir Arab bu chaqaloqqa Abdulaziz degan ism qo‘yadi [7, 52, 53]. Ushbu asarda yana keltirilishicha Ubaydullaxonning Xoja Nizom degan vaziri bor edi. Mamlakatning barcha ishlari saltanat amallarini bajarardi. Ubaydullaxonning amirlari va arkoni davlati Xojai Xurd nomi bilan mashhur bo‘lgan Xoja Abdulvafo Samarqandiy va Xoja Mirdust Marvaziyni Xon huzurida juda tarif qilar edilar. Ammo Ular Xoja Nizomni yo‘qotish payida yurardilar. Xoja Nizom bu voqeani oldini olish maqsadida Mir Arab oldiga Turkistonga keldi. Mir Arab uni yaxshi kutib olib Ubaydullaxon madrasasiga joylashtirdi [7, 54]. Vosifiy yozadi; “men o‘sha kecha ularning xizmatida edim. Bir kishi kelib Buxorodan xabar keltirdi yani Xoja Nizomni uyini talaganni va o‘g‘lini qiynagani xabarini berdi. Xotini qochib qutulganni aytdi. Xoja Nizom bundan hech taajublanmay xotirjam o‘tirdi tongda Mir Arab bilan madrasaga keldilar [7, 55]”. Uch kundan so‘ng Mir Arab Xoja Nizom bilan birga Buxoroga kelishdi. G‘ijduvon qasabasiga yaqinlashganda Ubaydullaxon saroy ahillari bilan istiqboliga chiqishdi. 1 milcha masofa qolganda Ubaydullaxon otdan tushdi. Mir Arab otda, xon piyoda uchrashishdi. Xoja Nizom haqida gapirdi. Ubaydullaxonga maslahat berdi, Mir Arab Buxoroda 1 oy yashadi. Xoja Nizom Buxoroda yana vazir lavozimiga tayinlanadi. Asarda keyingi voqealardan ma’lum bo‘lishicha Xoja Nizom Mir Arab tomonidan qo‘llab quvvatlanmasin dushmanlari tomonidan baribir o‘ldiriladi.

Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoi asari O’rta Osiyo xalqlari madaniyati uchun ma’lumot beruvchi muhim manbadir. Ushbu asarda Xuroson, Movarounnahr, Turkiston qisman Eronning o’sha davr ilmiy, adabiy ahvoli, madaniyat saviyasi va ziddiyatlarini aks ettiradigan qimmatli asardir. Biz bu asarda boshqa asrlarda uchramaydigan XVI asr Shayboniylar sulolasi tarixida munosib iz qoldirgan Ubaydullaxonning shaxsiyati haqida ko’pgina ma’lumotlar olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev M. H. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Filologiya fanlari nomzodligi dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2000.
3. Бабаджанов Б. Мири Араб // Культура кочевников. – Материалы Международной конференции. – Алматы, 5 июня 1995. – Б. 88-102.
4. Джураева Г. А. Мир-и Араб и политическая жизнь в Бухаре в XVI в. // Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма. Сб. статей. – М.: Наука, 1985. – Б. 74-79
5. F. Fayzullayev. Xofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Ubaydullaxon faoliyatining yoritilishi // O’tmishga nazar jurnali 4-jild, 7-son B. 10.
6. Мухамед Юсуф Мунши. Мукимханская история./Пер. с тадж., предисл., примеч., и указатели А. А. Семёнова. – Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1956. Стр 83
7. Zayniddin Vosifiy. Badoye’ ul-vaqoi / Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. -B. 38-47.
8. Xofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma/Fors tilidan Sodiq Mirzayev tarjimasi. I kitob. – T.: Sharq, 1999. - B. 6.
9. Hasan Hoja Nisoriy. Muzakkir ul-axbob/Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. - B. 23 24
10. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. – М-Л.: Изд-во АН СР, 1954. – 376 б.
11. Bekzod Mirzayev. Ubaydullaxon – Shayboniylar davlatining hukumdori. Toshkent. Mumtoz so’z. 2016 B. 8.

## **BADIYY MATNDA FORSCHA OT YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING QO‘LLANILISHI.**

(Alisher Navoiyning “Xamsa” asosida)

**Lutfinisa DEHQONOVA,**  
***O‘zbek tilshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi***

Fors-tojik tilining ta’siri natijasida o‘zbek tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishida ham ayrim o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Bularning muhimlaridan biri sifatida bevosita fors-tojik tilining ta’siri ostida yetakchi shahar shevalarida turkiy til fonologik tizimiga xos bo‘lmagan tovushlarning paydo bo‘lishini ko‘rsatish mumkin. Chetdan kirib qolgan bu qo‘shimcha omil ta’sirida til oldi unlilarining konvergentsiyasi yuzaga keldi. Buning natijasida Toshkent

tipidagi shahar shevalarining vokalizmi fors-tojik tili unlilariga yaqinlashib bordi, Samarqand – Buxoro shevalarining unlilari tarkibi esa ilgari fors-tojik tili vokalizmiga yaqin edi. Bu hodisa o‘zbek tilida singarmonizmning qisqarishiga, shahar shevalarida esa asta-sekin kuchsizlanib yo‘qola borishiga olib keldi.

[V. V Reshetov. Uzbekiskiy yazik. Tashkent, 1959, 37-38- betlar].

Fors -tojik tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar tarkibida bo‘lgan bir qator yasovchi vositalar [-zor, -don, -iston, -ham, no-, be-] keyinchalik o‘zbek tilida ham yangi so‘zlar yasashga xizmat qiluvchi affiks bo‘lib qoladi: olmazor, tuzdon, kuldon, *hamqishloq*, *noo‘rin*, *beomon* kabi yasovchi affikslar bilan birga mustaqil so‘z negizlaridan hosil bo‘lgan yasovchi elementlar –affiksoidlar ham qabul qilinadi [-shunos, -xo‘r, -do‘z, -kash, -xon, -xona, -noma, -parvar kabi], tilshunos tuproqshunos, oshxo‘r, qonxo‘r, etikdo‘z, ishxona, chizmakash singari.

O‘zbek tili ham, o‘z navbatida, fors-tojik tilining rivojlanishiga, uning leksikasiga va ayniqsa grammatikasiga ma’lum darajada ta’sir qilgan o‘zbek tilidan juda ko‘p so‘zlar iboralar lug‘aviy birliklardan tashqari, bir qator so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar ham fors-tojik tiliga ham qabul qilingan.

O‘zbek va fors-tojik tillarining o‘zaro bir-biriga ta’siri bizning davrimizgacha davom etdi, yana ham mustahkamlanib bordi. Buning natijasida ikki tilchilik hodisasi yuzaga keldi, shiru-shakar usulida yozilgan asarlar paydo bo‘ldi.

Bunday so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor:

a] o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir [yoki qo‘shni] territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi;

b] o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining [bilingvizmining] keng tarqalganligi;

v] tojik va fors tillarida ijod qilish an’analarning uzoq-yillar davom etganligi; g] Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi;

d] adabiyot, san’at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va boshqalar.

Fors-tojik tillaridan o‘zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o‘zlashgan: prefikslar –“be-”, “ba-”, “no-”, “ham-”, “bar-“, “kam-”, “xush-“; suffikslar “-kor”, “-zor”, “-xo‘r”, “-parvar”, “-kash”, “-bop”, “-boz”, “-do‘z”, “-namo”, “-paz”, “-furush” va boshqalar. Ular dastlab tojik-fors so‘zlari tarkibida qo‘llangan, keyinchalik o‘zbek tilining so‘z yasovchi affikslari qatoridan o‘rin olib, yangi so‘zlarning yasashida ishtirok etgan, shu yo‘l bilan o‘zbek tili leksikasini yanada boyitgan. Bulardan tashqari, tojik tilidan o‘zlashgan *xona*, *noma* so‘zlari o‘zbek tilida affiksoid vazifasida qo‘llanib,-yil *noma*, *oynama*, *ishxona*, *bosmaxona* kabi so‘zlarning yasashida ishtirok etgan.

Ot yasovchi qoliplarning aksariyati ko‘p ma’noli qoliplardir. Quyida ularni ko‘rib o‘tamiz.

- shunos: tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos.

- kor: g‘allakor, paxtakor, sholikor.

- kash: aravakash, pillakash, suratkash.

- xon: kitobxon, jurnalxon, duoxon kabi.
- do‘z: etikdo‘z, mahsido‘z kabi.
- gar: zargar, savdogar kabi.
- dosh: sinfdosh, siftdosh, ohangdosh kabi bu affiks fe‘ldan boshqa deyarli barcha so‘z turkumlaridan ot yasaydi

Tilimizda fors-tojik tilidan kirib kelgan anchagina o‘rin-joy, predmet oti yasaydigan affikslar ham borki, ular tilda faol qo‘llaniladi:

- iston: O‘zbekiston, Guliston, qabriston.
- zor: paxtazor, lolazor kabi.
- goh: saylgoh, oromgoh kabi.
- don: kuldon, siyohdon kabi.
- xona: ishxona, choyxona kabi.

-*shunos* affiksli [ ot + *shunos* qolipi asosdan anglashilgan sohani o‘rganuvchi mutaxassis oti] qolipi bir ma‘noli bo‘lib, u quyidagi hosilalarni beradi: *adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, o‘lkashunos, musiqashunos* kabi.

Ko‘z och, agar xud bor esang rahshunos,

Ish ravishin ayla aningdek qiyos, [ 26-bob, 17 sahifa ]

-*kor* affiksli ikkita qolip mavjud: a) aniq ot + kor qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetni yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti] [*paxtakor, sholikor, g‘allakor*] va b) mavhum ot + kor qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi [*madadkor, xiyonatkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor, xizmatkor*].

Charx to‘quz durjiki zarkor erur,

Javfida yuz ming duri shahvor erur. [ 36-bob, 31 sahifa ]

-*kash* affiksli qolip ham ikki manolidir: a) ot + *kash* qolipi a) asosdan anglashilgan ish, mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti; b) asosdan anglashilgan ishni bajarish odati kuchli bo‘lgan shaxs oti; a) *zambilkash, kirakash, loykash, paxsakash*

Hotami Toyig‘a bir ozodavash

Dediki:, Ey himmating ozodakash, [ 31-bob, 25 sahifa ]

b) *J‘anjalkash, hazilkash*.

Sarvlari sarkashu zangorgun,

Har biri ko‘k borgahig‘a sutun.

Garchi bo‘lur qalb diram ro‘yakash,

Andin ayirmoq bo‘lur o‘t birla g‘ash. [ 28-bob, 21 sahifa ]

- ot + xon qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetni doimiy mutolaa qiluvchi shaxs oti [*gazetxon, kitobxon, jurnalxon, duoxon*],
- ot + do‘z qolipi asosdan anglashilgan narsa -predmetni tikuvchi shaxs otini bildiradi [*etikdo‘z, maxsido‘z, mo‘ynado‘z, do‘ppido‘z*],
- ot + gar qolipi asosdan anglashilgan narsa -predmet bilan bog‘liq kasbni qiluvchi shaxs oti yasaydi [*zargar, sovungar, savdogar*],

Zahr ila yoshil bo‘lubon paykari,

Bulbul aning boshida afsungari. [ 18-bob, 15 sahifa ]

- ot + soz qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetni yaratuvchi, tuzatuvchi shaxs oti hosil qiladi [*soatsoz, stanoksoz, asbobsoz*]

Goh visol ichra bo‘lub ayshsoz,

Goh firoq o‘tig‘a aylab gudoz, [ 17-bob, 14 sahifa ]

- ot + paz qolipi asosdan anglashilgan taomni tayyorlovchi shaxs oti yasaydi [*oshpaz, somsapaz, mantitaz, kabobpaz*].

- ot + boz qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan ko‘p shug‘ullanuvchi, unga berilgan shaxs otini yasaydi [*majlisboz, arizaboz, maishatboz, safsataboz, va‘daboz, guruhboz, kaptarboz, bedanaboz*].

Charx urubon rev ila nayrangsoz,

O‘ylaki ko‘k xirqa bila tosboz. [ 48-bob, 47 sahifa ]

- ot + xo‘r qolipi asosdan anglashilgan yegulik, ichimlikni doimiy iste‘mol qiluvchi shaxs oti hosil qiladi [*mayxo‘r, araqxo‘r, nafaqaxo‘r, choyxo‘r*].

- ot + parast qolipi asosdan anglashilgan narsaga e‘tiqod qiluvchi shaxs oti yasaydi [*butparast, mayparast, shaxsiyatparast, maishatparast*],

- ot+tarosh qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug‘ullanuvchi ot yasaydi.

Subha dema, butki yo‘nib buttarosh,

Dona yasab, harne qolib reza tosh. [ 28-bob, 19 sahifa ]

- ot + go‘y qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat, hodisani doim bajarib turadigan shaxs otini yasaydi [*maslahatgo‘y, duogo‘y, nasihat-go‘y*].

- ot + dor qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo‘lgan shaxs oti yasaydi [*bog‘dor, quldor, do‘kondor*],

Ne chrkkay ko‘kka boshin tojdori,

Yo‘q ersa bir dur andin yodgori. [ 12-bob, 77 sahifa“Farhod va Shirin“]

- ot + bon qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetga qarovchi shaxs oti hosil qiladi [*bog‘bon, saroybon, darvozabon*],

Bo‘ldi raiyat galavu sen shubon,

Ul shajari musmiru sen bog‘bon. [ 26-bob, 17 sahifa ]

- ot + furush qolipi asosdan anglashilgan narsa + predmetni sotish bilan shug‘ullanuvchn shaxs otini yasaydi [*chitfurush, nosfurush*].

- ot + dosh qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetga bir xil aloqador bo‘lgan shaxs oti [*qayg‘udosh, suhbatdosh, zamondosh*],

Kimki bo‘lur shararing fosh anga,

Do‘zax o‘ti bo‘lg‘usi podosh anga. [ 26-bob, 18 sahifa ]

-ot + vachcha qolipi asosdan anglashilgan shaxsga qarashli farzand ma‘nosidagi shaxs oti yasaydi [*boyvachcha, gadoyvachcha, to‘ravachcha, tog‘avachcha, xolavachcha, amnavachcha, itvachcha*].

- ham + ot asosdan anglashilgan narsa-predmetga aloqador shaxs oti hosil qiladi [*hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb*];

Menki bu may nash‘asidin mast men,

Dayri fano ahlig‘a hamdast men.

- ot + garchilik asosdan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisaga aloqador boʻlgan otni yasaydi [*oliftagarchilik, namgarchilik, isrofgarchilik*]. -ot + zor qolipi asosdan anglashilgan narsa koʻp boʻladigan joy oti [*olmazor, oʻrikzor, bodomzor, gulzor, paxtazor, ajriqzor*],

Jilvai avval budur ashjorgʻa,

Hayli rayohin bila gulzorgʻa, [ 54-bob, 56 sahifa ]

- ot + iston qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetga boy joy otini bildiradi [*Oʻzbekiston, guliston*].

Nazmi savodi aro har doston,

Oʻylaki, bir kishvari Hindiston. [ 12 bob, 7 sahifa“Hayratul-abror“]

Shunday ot yasash qoliplari borki, ulardan bugungi kunda yangi soʻz yasalmaydi. Hosilalarning barchasi lisoniy xarakterga ega.

- ot + goh qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bajarilgan joy oti yasaydi [*sayilgoh, ayshgoh, manzilgoh*]

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,

Ul biri xoliqqa erur jilvagoh. [ 17-bob, 14 sahifa ]

- ot + don qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot hosil qiladi [*qalamdon, tuzdon, kuldon*],

- ot + xona qolipi asosdan anglashilgan ish-harakatga moʻljallangan joy oti hosil qiladi [*ishxona, qabulxona, choyxona, oshxona*],

Masjidu mayxona anga yoqmayin,

Dayr bila kaʻba sori boqmayin. [ 28-bob, 21 sahifa ]

- ot + obod qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmet obod qilingan joy oti yasaydi [*Dehqonobod, Mehnatobod*].

- ot + noma qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetni ifodalovchi ot yasaydi [*arznoma, taklifnoma, sayohatnoma*].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumxalq tilining taraqqiy etishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan oʻzaro aloqalarining kengayishi bilan bogʻliq holda davom etadi. Maʼlum tilda boshqa chet til usullarining kirib, oʻzlashib qolishi tarixiy va qonuniy hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi va ularning sharq adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman matereallari [6-7-noyabr 2020-y.] – Samarqand. SamDU nashriyoti, 2020.
2. Alisher Navoiy Hayrat ul-abror. // Nasriy bayoni bilan. Nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmonov. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2006.
3. Alisher Navoiy: qomusiy lugʻat. 1-2-jildlar /Masʼul muharrir Sh. Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016.
4. Mumtoz adabiyoti namunalari. 1, 2-jild. Nashrga tayyorlovchilar: H. Boltaboyev, N. Rahmonov. – Toshkent: OʻzMU nashriyoti. 2003.

## SHERMUHAMMAD MUNIS TUYUQLARI TAHLILI

Sadoqat OTAMURATOVA,  
*UrDU magistranti*

Tuyuq faqat turkiy adabiyotda keng tarqalgan janr bo'lib, arabcha "tuymoq", "tuslash" degan ma'nolarni bildiradi. Uning shakliy-poetik belgilari: a] hajm jihatdan to'rt misrali bo'ladi; b] ramali musaddasi maqsur ba'zan mahzuf bahri vaznida yoziladi; d] qofiyalari tajnisli yoki tajnissiz, ba'zan so'z o'yini qo'llaniladi; e] ishqiy mavzuda bo'lib, kuyga solib aytishga mo'ljallab yoziladi; f] qofiyalanish tartibi a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida bo'ladi.

O'zbek adabiyoti tarixida Yusuf Amiriy, Gadoiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy, Rojiiy, Muqumiy, Munis, Ogahiy va shu kabi boshqa shoirlar ham sermazmun tuyuqlar yaratishgan.

O'zbek adabiyotida yaratilgan tuyuqlarning aksari sevgi, sadoqat, visol umidi, hayot zavqi g'oyalarni ifodalaydi. Masalan, quyidagi tuyuq Munis qalamiga mansub bo'lib, ishqiy mavzuda yaratilgan.

*Angla, ko'nglum ishqboz ori erur,  
Balki ko'nglum ishq bozori erur.  
Oshiq ersang shodlig'din uz ta'ma,  
Zor ko'nglum ishq bozori erur.*

Shoir tuyuqda so'z o'yinidan mohirlik bilan foydalangan. "Bozori erur" so'ziga e'tibor qaratsak, birinchi misrada ko'nglini ishqiboz ariga qiyoslagan; ikkinchi misrada ko'nglini ishq bozoriga o'xshashini taxmin qilgan; to'rtinchi misrada esa zor ko'ngli aniq ishq bozori ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu tuyuqda ko'ngil va oshiq obrazlari gavdalangan. Shoir tuyuqda so'z o'yini qo'llash bilan birga "ko'nglini ishq bozori va ishqiboz ariga" o'xshatish orqali tashbeh san'atidan ham foydalangan.

Ijodkor har bir ijod namunasida o'ziga xoz mavzu obrazlar xilma-xilligidan mahorat bilan foydalanib qolmasdan, so'z qo'llashdagi mahoratini ham yaqqol ko'rsata olgan. Shoir obrazlar vositasida so'zlaydi, tafakkur qiladi. O'sha davr ijtimoiy mavzularini yoritadi. Falsafiy va ezgu g'oyalarni ilgari suradi.

*Meni vasling yo'lig'a bir yondur,  
Dushmani g'am o'tig'a biryondur,  
Rahm ushshoq arobu xastag'akim,  
Bir tarafdur, alar, bu bir yondur. [O'sha manba, 329-bet]*

Yuqorida keltirilgan tuyuq yor ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, "bir yondur" so'zi tajnisga olingan. "Men jamoling yo'lida bir yonman, jamoling dushmanlarni g'am o'tiga soladi, rahm qilgin bir mendek bir xastaga, ular bir taraf bo'lsa, men bir tarafman", ya'ni "bir yondur" sozi birinchi misrada "yonmoq", ikkinchi misrada "solmoq", to'rtinchi misrada "taraf" ma'nosini ifodalagan. Ma'shuqa, oshiq va raqib obrazlari ifodalangan bu tuyuqda, oshiqning yorga murojaatini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek bu yerda Allohga bo'lgan ishq ham qalamga olingan bo'lib oshiq Alloh jamoliga yetishish uchun yonishga ham rozi ekanligini ifoda qilgan.

*Do ‘stlar mehmonlig‘ etsa boringiz,  
Sina jon uyiga undab boringiz,  
Ey balo xayli, manga qilmang g‘ulu,  
Boringiz ahli jahong‘a boringiz. [O‘sha manba, 329-bet]*

“Boringiz” so‘zi tajnisga olingan ushbu tuyuqni tahlil qilar ekanmiz, birinchi misrada “bormoq”, ikkinchi misrada “undamoq”, so‘nggi misrada esa “ketmoq” ma’nosida qo‘llanilgan. Ushbu tuyuq do‘stlik mavzusida yozilgan desak adashmagan bo‘lamiz. Do‘stlar chaqirsa har qanday holatda ham boringlar degan nasihatimiz mavzu yetakchilik qilgan. Guvohi bo‘lganimizdek, Munis ijodida ishqiy, do‘stlik, yor ta’rifi kabi ko‘plab mavzulardagi tuyuqlar uchraydi. Shu bilan birga, tuyuqlarning qofiyalanish tizimi ham o‘ziga xosdir.

Munis Xorazmiyning qofiya qo‘llashdagi mahorati ham ahamiyatlidir. Ijodkor tuyuqlarida a-a-a-a tarzida qofiyalanish deyarli kuzatilmaydi, asosan, shoir ijodida tuyuqlar a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Bundan tashqari, b-a-b-a tarzida qofiyalangan tuyuqlar shoir ijodida alohida o‘ringa, ahamiyatga ega bo‘lishi birga, ijodkorning mahoratini ham ko‘rsatuvchi bir omil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan,

*Yuzin ochg‘och misoli oyina, – a  
Ayladi charx ta’nayi oyina, – a  
Anga dedim, vafoni oyin qil, – b  
Dedi mayl aylabon, bu oyina. – a [O‘sha manba, 329-bet]*

Ushbu tuyuqda “oyina” so‘zi tajnisga olingan bo‘lib, birinchi misrada “ko‘zgu”, ikkinchi misrada “ta’na qilmoq”, so‘nggi misrada esa “odat” ma’nosida kelyabdi. Tuyuq mazmuni: “yor yuzini ochganda uning yuzi misoli oynadir, charx oyna deb ta’na qildi, unga dedim vafoni odat qil, u dedi buni odat qilishni xohladi”.

*Muniso, to‘lmay yigirma yeti yosh, – a  
Vah, yigirma yeti uzra yeti yosh, – a  
Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur, – b  
Har qachonkim suhbatingga yeti yosh. – a [O‘sha manba, 330-bet]*

Tuyuqda a-a-b-a tarzida qofiyalangan bo‘lib, “yeti yosh” so‘zi tajnisga olingan. Tajnis ma’nolari birinchi misrada “yigirma yetti yosh”, ikkinchi misrada “yoshi yetgan”, so‘nggi misrada esa “kifoya qilmoq” ma’nosida kelgan. Shoirning so‘z qo‘llashdagi mahorati yaqqol sezilib turibdi. Ishaqiy mavzu yetakchilik qilgan ushbu tuyuqning mazmuni: “oshiqning yoshi yigirma yetti yoshga to‘lmaganini, agar yigirma yettiga yoshi yetsa ham, yosh bilan mashg‘ul bo‘lma, har doim suhbat qurishga qodir, yoshni ahamiyati yo‘qligini bayon qiladi”.

Munis Xorazmiyning badiiy mahoratini biz har bir ijod namunasida, mavzu xilma-xilligida, obrazlarning o‘ziga xosliklarida ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, shoirning tuyuqlarida ham shoir ijodining o‘ziga xosliklariga duch kelamiz. Masalan, quyidagi “boqsa qiyo” tajnisli tuyuq janridagi she’r bo‘lib, uning shakliy-poetik belgilari o‘zgacharoq, ya’ni tajnis uch emas ikki misrada kelgan va qofiyalanish tizimi ham b-a-b-a tarzida.

*Tig‘ ila ne hojat o‘lturmak ani, – b  
Dahr elin har sori gar boqsa qiyo, – a*



*Dard-u g'am chektim xumor ichra base, – b*

*Emdi ahvolimg'a bir boq, soqiy. – a [O'sha manba, 330-bet]*

Ikkinchi misrada “qiy boqsa” ma'nosida kelgan so'z, oxirgi misrada “soqiy” ma'nosida kelgan. “Tig' bilan o'ldirish shart emas, dunyo ahli har taraf qiy boqsa, dard chektim xumor[mastlikdan keyingi bosh og'riq] bilan, soqiy[may quyuvchi], endi bu ahvolimga qara”. Ya'ni oshiq Alloh ishqida dard chekyabdi va bu dard oldida tig' bilan o'ldirish hech narsa emasligi haqida da'vo qilyabdi. Ushbu misralarda Alloh ishqida o'rtanayotgan oshiq va soqiy obrazlarining o'ziga xos tasviri ochib berilgan. Bu yerda so'z o'yinidan ustalik bilan foydalangan ijodkor, takrorlanmas tajnis namunasini yarata olgan.

Xulosa qilib aytganda, Shermuhammad Munis bir qancha zavqli tuyuqlar yaratib, o'zi yangidan kashf etgan tajnis so'zlardan qofiyalar tuzgan. Shoir tuyuqlari ichida ungacha o'tgan shoirlar tomonidan qofiya sifatida ishlatilmagan ko'p ma'noli so'zlar tajnisli qofiyalar bo'lib keladi. So'z o'yinlari, obrazlar xilmaxilligi va mavzular ko'lamidan mohirona foydalangan. Shu bilan birga, qofiya turlari va she'riy san'atlardan ham unumli foydalanishga harakat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2002. -B-489.
2. Shermuhammad Munis. Saylanma. – Toshkent, 1980.
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma.–Toshkent, Fan. 2009.

## **BADIIY ASARLARDA ARABCHA KO'PLIK SHAKLLARINING QO'LLANILISHI**

**Lutfiniso DEHQONOVA,**  
*GulDU katta o'qituvchi*

Ma'lumki, o'zbek tili leksik boyligini shu tilning o'ziga xos leksik qatlami bilan birga o'zlashgan qatlam ham tashkil qiladi. Xalqlar o'rtasida turli sohalardagi o'zaro aloqalar u yoki bu xalqning tillariga ta'sir ko'rsatgan. Bir tilga xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi tilga o'tib, o'zlashib ketgan. O'zbek xalqi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lganligi, boshqa tillardan o'zbek tiliga ham ko'plab so'zlarning o'zlashuviga olib keldi. Bu, oz navbatida, o'zbek tili lug'at sostavida o'zlashgan leksik qatlamni vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida arab tiliga xos bo'lgan ko'plik qolipdagi so'zlari keng iste'moldadir. Masalan: Olim-ulamo, rab-arbob, sabab-asbob, asl-usl, asar- asor, faqir-fuqaro, amal-a'mol, xulq-axloq, had-hudud va h.k

Misol: Ulamoning fasodi ta'm bila va fuqaroning fasodi riyo birla.( Nasoyim ul- muhabbat 85-bet).

Yana : Bu toifaning a'mol va a'fol va muomilot va riyozotdin va ba'zini zikr qilmoq. ( Nasoyim ul- muhabbat, 85-bet).

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'plik qolipidagi arabiy so'zlar ko'plik ma'nosini anglatgani holda keng qo'llanadi.

Malak – maloika, she'r-ash'or, hayvon- hayvonot, sohib-sahoba, ruh-arvoh va h.k. Nabotot va hayvonot kalomining samoi va maoniysiga vuquf topmoq. (Nasoyim ul-muhabbat, 85-bet)

Yana: ... Mashoyix diydorlaridin bahramand va suhbatlaridan anjumand ermish. (Nasoyim ul-muhabbat, 85-bet )

Yana: Ajdodlari arab bo'lgan shayx Muborak ham ham Bianadagi xalq harakatida ishtirok etgan. (Humoyun va Akbar, 275-bet).

Yana: Chinorning dastlabki ellik – oltmish yildagi o'sish bir avlod umriga qiyos etgulikdir. (Humoyun va Akbar, 286-bet).

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zlashgan arabiy so'zlarning birlik va ko'plik shakli yonma-yon kelib, juft so'zlarni hosil qiladi va ular ma'no kuchaytirish uchun hizmat qiladi. Masalan: Davr-davron, sir-asror, haq-huquq, shart-sharoit, hol-ahvol, rasm-rusum va h.k.

2. O'zbek adabiy tiliga o'zlashgan arabiy so'zlarning ko'plik shakli birlikdagi shakliga nisbatan kengroq iste'molda. Masalan:

<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
Siloh	aslaha
jad	ajdod
valad	avlod
vali	avliyo
nabi	anbiyo
yavm	ayyom
lavn	alvon
shay	ashyo

Bu so'zlarning ko'plik shakli o'zbek tilida mustaqil ma'no beruvchi birlikdagi so'z sifatida keng qo'llanadi. "Avliyolikning boshlanishi payg'ambarlikning oxiridir". (Nasoyim ul- muhabbat, 309 bet)

Yana: Chun anbiyoning ashrafi erdi, qavm- aqvomning ashaddiy... ( Nasoyim ul- muhabbat, 18- bet).

3. Arab tilida bir so'z ikki yoki undan ortiq ko'plik shakliga ega. O'zbek adabiy tiliga ulardan bir shakligina o'zlashgan bo'lib, u birlikdagi ma'nosiga ma'nodosh bo'lgan so'zni ifodalaydi.

Arab tilida ayn so'zi o'zbek tiliga "ko'z" deb tarjima qilinadi. Uning ko'plik shakllari (uyun), (a'yun), (ayon). Bulardan (uyun), (a'yun) "ko'zlar" deb tarjima qilinadi, (a'yon) ko'plik shakli esa o'zbek tiliga o'zlashgan bo'lib, u "ko'zga ko'ringan shaxslar" degan ma'nono anglatadi. M: A'yonlar Akbarga ta'zim qildilar. (Humoyun va Akbar, 298-bet).

4. Arab tilida ko'plikdan ko'plik yasash usuli ham mavjud bo'lib bunday "o'ta" ko'plik qolipidagi so'zlar ham o'zbek tilida qo'llanadi.

(dor) - "uy", "turar joy" so'zining ko'pligi (dur) bo'lib, undan (diyor) ko'plik shakli yasaladi.

(dor) – "uy", "turar joy" so'zining ko'pligi (dur) bo'lib, undan (diyor)- ko'plik shakli yasaladi. O'zbek adabiy tilida "diyor" so'zi keng qo'llanilib, u endi

faqat, “uy”, “turar joy” degan ma’nomlarni anglatib qolmay, balki, keng ma’nodagi “yashash joyi”, “yurt”, “mamlakat” degan ma’nomlarni ham bildiradi.

Arab tilida ko‘plikdagi otlarga (ot) qo‘shimchasi qo‘shilib ham “o‘ta” ko‘plik yasaladi. Masalan: (ajibatun)- so‘zidan (ajoibu)- ko‘plik- (ajoibot)- (o‘ta ko‘plik yasalgan). “Ajoib” va “ajoibot” so‘zlari o‘zbek tilida keng qo‘llanadi.

5. Arabiy so‘zlarning o‘zlashgan ko‘plik shakllari hozirgi o‘zbek adabiy tilida “g‘alati mashhur” iborasi bilan ham qo‘llanadi. Bu holbuki ichki ma’no jihatidan bog‘liqlik bo‘lsa-da, so‘zlar o‘zining asosiy bosh ma’nosidan uzoqroq ma’noni anglatib keladi.

Masalan, “insho” so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi:

a) Muassasa, qurilish

b) Ijodiy asar, sochma asar, yozuv xat.

O‘zbek adabiy tilida insho so‘zi faqat “sochma asar”, “asar”, “yozuv xat” ma’nosini ifodalab keladi. Bu so‘zning arab tilidagi ko‘plik shakli “inshoot” bo‘lib, bu so‘z o‘zbek adabiy tilida faqat “qurilish”, “bino”, “imorat” kabi ma’nomlardagina qo‘llanadi.

Yoki, arabiy xotira so‘zi, g‘oya, tushuncha, esda saqlash kabi ma’nomlarni anglatga, uning ko‘plik shakli xavotir o‘zbek adabiy tilida o‘zining bosh ma’nosidan uzoqroq bo‘lgan “tahlika”, “qo‘rquv” ma’nomlarida ishlatiladi.

Shuningdek, munshaat “qurilish”, “muassasa” ma’nomlarini bildiruvchi arabiy so‘zning ko‘pligi munshaot hozirgi o‘zbek tilida “mayda nasriy asarlar”, “xatlari to‘plami” ma’nosida qo‘llanadi.

6. Arab tilidagi ko‘plik qo‘shimchasi (ot) fe‘lning funktsional formalarni hisoblangan harakat nomi (masdar), va sifatdoshlarga qo‘shilib ko‘plik shaklini hosil qiladi. Bunday so‘zlarning ham birlik, ham ko‘plik shakllari o‘zbek tilida o‘zlashgan bo‘lib, keng iste’moldadir. Lekin bu so‘zlarning har ikkala shakli ham mustaqil ma’no anglatuvchi so‘z bo‘lib, boshqa-boshqa grammatik vazifalarni bajaradi.

a) Masalan: “harakat nomi”-masdarga+(ot) qo‘shilgan.

Isloh-islohot (4-bob masdari)

Hisob-hisobot (3-bob masdari)

b) sifatdoshlarga ot qo‘shimchasi qo‘shilib ko‘plik shakllari yasaladi.

Masalan: Mavjud-mavjudot, mahsul-mahsulot.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arabiy so‘zlarning ko‘plik shakllari ham eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llangan va ular o‘rniga qarab alohida-alohida grammatik funktsiyalarni bajarib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980.- B. 120, 251.
2. N.Ibrohimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi, 1-jild. – Toshkent: 1997.
3. Гранде. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. 2-издание. – Москва. Издательская фирма “Восточная литература” ПАИШ 2001. стр. 286-287.
4. Alisher Navoiy “Nasoim-ul muhabbat” asari. –Toshkent, 2002.
5. Pirimqul Qodirov. Humoyun va Akbar. – Toshkent: Sharq, 2006.

## NOSIRUDDIN RABG‘UZIYNING “QISAS UL-ANBIYO”SIDAN O‘RIN OLGAN “LUQMONI HAKIM QISSASI” TAHLILI

Rahmatjon TO‘RAQULOV,  
*GulD, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti*

Luqmoni hakim – o‘zbek adabiyoti tarixida ulug‘ donishmand sifatida tanilgan siymolardan biri. U Qur’oni Karimda nomi zikr etilgan muhaqqiq olim inson. Uning o‘z o‘g‘liga qilgan nasihati islomiy va’zning betakror namunasi hisoblanadi. Sharq musulmon xalqlari uning nomini asri saodatdan buyon ezgu sifatlar ila zikr etishib, ilm-u donishning ulug‘ sohibi o‘laroq e’zoz etib kelishadi. Shundan qaysiki, musulmon xalqlarda bu zot xususida turli ibratli hikoyat, matal va qissalar vujudga kelganki, ularning barchasida Luqmoni hakim hidoyatga, haqqa chorlovchi, yetaklovchi rahnamo sifatida tavsiflanadi. Qur’oni Karimning Luqmon surasining tafsirida shunday ma’lumotlarni uchratamiz: “Luqmon – tarixda Luqmoni hakim deb shuhrat topgan habashiy bir dono shaxsning nomi.

Ulamolar uning payg‘ambar yoki valiy bo‘lgani haqida bir fikrga kelisha olmaganlar. Chunki na Qur’onda va na hadislarda uning kim bo‘lgani to‘g‘risida aniq ma’lumot berilmagan. Faqat Qur’oni Karimda uning o‘z o‘g‘liga qilgan foydali, ibratomuz nasihatlaridan asosiy qismi berilgan. Qolgan qismlarini esa rivoyatlar orqali naql qilinib, to bizning asrimizgacha ham yetib kelgan. Suraning boshqa oyatlarida tavhid va imonga da’vat, kufr va shirkdan qaytarish kabi o‘gitlar talqin etiladi” [Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasini] Ushbu zot haqidagi ma’lumotlarning jamlanma shakli “Qur’oni Karim mavzuiy tafsiri ensiklopediyasida” quyidagicha bayon etiladi: Mufasssirlar Luqmoni hakimning ismi va nasabi borasida ikki xil ma’lumotni aytishadi:

**Birinchisi**, uning ismi Luqmon ibn Bauro ibn Nohur Ibn Torx [Ozar]. Luqmoni hakim Ayyub alayhissalom singlisining o‘g‘li bo‘lgan. Imom Bayzoviy va Hozin aytishadiki: “U Dovud alayhissalom tug‘ilmasdan burun yashagan. Dovud alayhissalom undan ilm o‘rgangan. Dovud alayhissalom payg‘ambar bo‘lgunicha, u odamlarga fatvo bergan. [Anvor ut-tanzil. Bayzoviy. 4\213]

**Ikkinchisi**, Imom Ibn Kasir “Al-bidoya van-nihoya” asarida shunday deydi: “Uning ismi Luqmon bin Anqo bin Sadun. As-Suhayliy, Ibn Jarir va Al-Qanibiydan hikoya qilishicha u nubiyalik, Ayla shahridan. Aytamanki, u solih, ibodat va fasih iborat sohibi bo‘lgan ulug‘ hakim insondir. Uni Dovud alayhissalom zamonida qozi bo‘lgan deyishadi. Fallohu a’lam. [Al-bidoya van-nihooya. Ibn Kasir. 2\123]

**Yashagan zamon va o‘rni:** Luqmoni hakimning yashagan zamon va o‘rni xususida aniq ishonchli ma’lumotlar uchramaydi. Mufasssirlar bu xususda ikki xil ma’lumotlarni bayon etishadi:

**Birinchisi**, jumhur mufasssirlar Luqmoni hakim Dovud alayhissalom zamonida yashagan degan mulohazani quvvatlaydilar. Zamaxshariy : “ Uning ismi Luqmon ibn Bauro bo‘lib, u Ayyub alayhissalomning singlisi yoki xolasining farzandi bo‘lgan. Aytishlaricha u Ozarning avlodidan bo‘lib, Dovud alayhissalom uning hakim zot ekanligini bilib, undan ilm olgan” degan ma’lumotlarni keltiradi

[Al-Kashshof. Az-Zamaxshariy. 3. 492]. Ibn Kasir Mujohiddan shunday rivoyatni keltiradi: “Luqmon Dovud alayhissalom zamonida Bani Isroil ichida qozi edi. Ammo uning nomi isroiliy manbalardan topilmaydi”. [Tafsir ul-Qur’onil Azim. Ibn Kasir. 6\298] Tarixchilar Luqmoni hakimni Dovud alayhissalom zamonida yashaganini ta’kidlaganlar.

**Ikkinchisi**, U Iso va Muhammad alayhumassalomlar o’rtasidagi zamonda yashagan.

Birinchi manba kelgan ma’lumotlarga ko’ra kuchli bo’lib, Dovud alayhissalomning miloddan avvalgi X asrda yashaganinini inobatga olsak, demak u 960-1000-yillarda yashaganini taxmin qilish mumkin.

**Yashagan o’rni:** Mufasssirlar Luqmoni hakimning vatani borasida 3 xil ma’lumotlarni keltirganlar:

**Birinchisi**, Jobir bin Abdulloh roziyallohu anhu va Sa’id ibn al-Musayb aytadi: Luqmon Misr Sudanining Asvadidan edi. Ya’ni u Misr Sudanidagi Nuba ahlidan edi. [Bu shahar Misrga qarashli Asvonda joylashgan]. ”[An-nukut val-uyun. Al- Mavardiy. 4\331]

**Ikkinchisi**, Ibn Abbosning gapiga ko’ra u habashiy qul bo’lgan. Imom Ibn Jarir va Ibn Abu Hotim Mujohiddan rivoyat qiladi: “Luqmoni hakim katta lablik, keng qadamlik Bani Isroilda qozilik qilgan habashiy qul edi.

**Uchinchisi**, Luqmon hakim Ayla shahridan edi. [Jome’ ahkom ul-Qur’on. Al-Qurtubiy. 14\59] Ayla Shomning quyi qismida, Qizil dengiz sohilida joylashgan shahar bo’lib, aytishlaricha u Hijozning oxiri va Shomning boshlangan yerida bo’lgan, bugungi Iordaniya hoshimiylar podshosligiga qarashli Al-Aqba shahri o’rnida bo’lgan. [ Mo’jam ul-buldon. Al-Hamaviy. 1\292]

Bularning ichida eng ishonarlisi aksar mufasssirlar ma’lumotiga ko’ra u Misr Sudanining Nuba shahridan bo’lganligi haqidagi ma’lumotdir. [Jome ul-bayon. At-Tabariy. 20\135]

Qur’oni Karimda kelgan ma’lumotlarga ko’ra Luqmoni hakimning Allohga iymon keltirgan mo’min, obid va shokir zot bo’lganligini, Alloh taolo unga hikmat, ilm va fahm in’om etganligini, shuningdek u solih, hakim va nasihat qilguvchi nosih inson bo’lganligini bilishimiz mumkin. U zot haqida xilma-xil voqealarning bayoni borki, bularning bunday ko’payishiga sabab uning aniq ismi va nasabiga aloqador Qur’onda va hadisda Luqmon surasidagi ma’lumotlardan boshqa ma’lumot keltirilmaganligidir. Bu o’rinda biz shu bilan cheklanishimiz va ortiqcha asossiz bayonlarga berilmaganimiz ma’qul. Ulushiy yozadi. “Menda bunday xabarlarining biror tasiga ishonch yo’q. Naql qilinganlardan o’zim haq deb biladiganim, u hakim va solih inson bo’lgan, nabi bo’lmagan”[Ruh ul-bayon. Al-Ulushiy. 11\32]

“Qisas ul-anbiyo” dan o’rin olgan Luqmon qissasi mavzu jihatdan ikki qismga bolingan. Birinchi qismda Luqmon hakim haqida umumiy ma’lumotlar, jumladan yuqoridagi salaflarning ma’lumotlarining ma’lum qismi bayon etiladi: “Luqmon Dovud yalavoch vaqtinda erdi. Uzun tishlik bir habashiy qul erdi. Ul ming besh yuz yashadi. Aymishlar, bir yo’nuchining quli erdi. Xojasi oeod qildi. Aymishlar, o’zi yo’nuchi erdi Aymishlar, Mavlo taolo anga ikki farishua izdi, **kun**

**o'рта vaqtida.** Aydilar: “Ey Luqmon, tilasang senga **yalavochliq** beraling, tilasang hikmat beraling”. Luqmon aydi: “Manga hikmat kerak. Hikmat ma'nisi **ko'ni**, pishig' **ishlik** bo'lur”. Yana so'rdilar: “Yalavochlikg'a naluk unamading?”. Aydi: “Og'ir yuk turur”. Mavlo taolo **hikmat** birla ul choqlig' hikmat **bayon qildikim**, qamug' **yalavochlar** anga muhtoj bo'ldilar. [Qisasi Rabg'uziy. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. (Nashrga tayyorlovchi: E. Fozilov, H. Dadaboyev, A. Yunusov) Toshkent. 1990 ]“Luqmon Dovud payg'ambar vaqtida tirik erdi. [Aymishlar uzun tishlik habashiy qul erdi. Uch ming besh yuz-yil umr surdi. Aymishlar bir duradgorning quli erdi. Mavlo taolo anga ilm va hikmat berdi. Mavlo taolo ikki farishta yubordi. Aydilar: “Ey Luqmon, tilasang, payg'ambarliq berali, yo'q desang ilm va hikmat berali. Luqmon aydi: “Payg'ambarliq kerakmas, manga ilm va hikmat kerak”, tedi. So'rdilar: “Payg'ambarliqg'a nechuk unamassen?”. Aydi: “Payg'ambarliq ulug' ish turur”. Manga ul ot birla bo'lg'uncha ilm birla orig' ish kerak” tedi. Hikmat ma'nisi ko'ni so'z, pishig' ish bo'lur. Mavlo taolo onga oncha ilm va hikmat berdi, qamug' payg'ambarlar anga muhtoj bo'ldilar. [Nosiruddin Rabg'uziy. Qisas ul-anbiyo. Toshbosma. Qozon. 1881] Luqmoni hakimning hayotiga oid ma'lumotlarni ixtilofli jihatlarini “Qisas ul-anbiyo” da umumiylik o'lartog' talqin etilgan.

Qissa hikoyatlar tarzida Luqmoni hakim hayotiga aloqador turli voqeyiy holatlar orqali bayon etilgan. Hikoyatlarning birida Luqmoni hakim davlatmand oliyjanob inson sifatida tavsiflansa, bir o'rinda xojasini o'z zakovati bilan lol qoldirgan qul o'laroq talqin etiladi. Qur'onda uning farzandiga nasihati bayoni uchraganidan u haqidagi hikoyalarning voqeyiy qismida uning o'g'li ham asosiy qahramon sifatida qatnashishining guvohi bo'lamiz. Hikoyatlar “Aymishlar”, “andog' rivoyat qilurlar” deya bayon tarzida boshlanadi. Hikoyatlarning matniy holati birmuncha mutafovutli holatda. Buni yuqoridagi parchalar matniy holati ham ko'rsatib turibdi. “Yalavoch” so'zi keyingi davrlardagi manbalarda “payg'ambar” tarzidagi forsiy muqobiliga almashtirilgan. Ba'zi o'rinlarda qo'lyozmalar matni arab xatining xat turi darajasidan kelib chiqib, ayirma mazmunning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan Chunonchi, A nusxada Luqmoni hakimning yashagan-yili “**Ul** ming besh yuz yashadi” degan jumla orqali uning 1500-yil yashaganiga dalolat qilsa, B nusxada “**Uch** ming besh yuz-yil umr surdi” jumlasini orqali uning 3500-yil yashagani haqida ma'lumotni havola etayotir. Ushbu ikki jumlaning eski o'zbek yozuvidagi shakli bir-biriga juda o'xshash bo'lganidan bunday ikki xil talqin yuzaga chiqmoqda. ”اول مينگ بيش يوز ييل“ , “اوج مينگ بيش يوز ” ييل”

Mazkur qissada muallif Luqmoni hakimning sifatlarini birma-bir bayon etishdan chetlanib, uning xislatlariga, ayniqsa, hikmat sohasiga oid xislatlariga aloqador bir nechta 6 ta hikoyat keltiradi. Hikoyatlarning mazmuni ayni sohada Rabg'uziydan avval yozilgan siyrat kitoblarida uchramaydi. Shu boisdan ularning bir qismi rivoyatlar asosiga asoslangan folklor hikoyatlar bo'lsa, bir qismini isroiliyyot asosida yozilgan deyish mumkindir. Luqmon qissasining dastlabki 5 ta hikoyatida hakimning donoligi, hozirjavoblighi, teran aql sohibi va purtajriba donishmand bo'lganligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Chunonchi, bu

hikoyatlarning birinchisida Luqmoni hakimning hakim-donishmand darajasiga yetganligining sababini ko'rsatuvchi hikoyat bilan boshlanadi: "Aymishlar, bir kun o'lturub xaloyiqg'a o'gut berur erdi. Bani Isroildin biragu telim xaloyiq ko'rdi Ularg'a bordilar. Luqmonni ko'rdi, o'gut berur. Ortindin kelib, bo'ynin tutub qisti. "Luqmon senmusen!" tedi. Aydi: "Bale" Aydi: "Bu maqomga neding tegding?". Luqmon aydi: "Ko'ni so'zlar birla amonatni o'tadim, haqqg'a yaramasni qo'ydim – bu maqomg'a tegdim". Qolgan hikoyat Sharq musulmon xalqlari orasida sayyor voqea o'laroq ko'plab hakim va donishmandlar hayotiga aloqador o'rinlarda keltiriluvchi hikoyatidir: *Hikoyatda kelmish*, bir kun xojasi Luqmonni bug'doy ekkali izdi. Luqmon borib arpa ekti. Xojasi aydi: "Bug'doy ek tedim, ne uchun arpa ekting?" Luqmon aydi: "Arpa eksa bug'doy unmasmu?" Xojasi aydi: "Unmas". Luqmon aydi: "Andag' bo'lsa sen ham yomonliq ekib yaxshiliq umid etmagil". *Yana bir hikoyatda aymishlar*, Luqmon qarz berur erdi, tanuqsiz, bitiksiz. Biragu kelib ming oltun oldi, bermas niyati uza. Borurda yarog'ing'a o'lturdi. Oltunni qizil o'proq birla chulg'ab qo'ydi. Qush havodin ko'rub, et xayolqilib uchti. Luqmon evi to'shung'a keldi ersa oltunni tumshuqidin tushurdi. Luqmon oltunni tanib evindaqo'ydi. Ul kishi kelib yana ming oltun oldi. Hamul niyat u. za. Suvdin kecharda oltunni suvg'a tushurdi. Ul suya Luqmon evinga borur erdi. Luqmon suvda ko'rub, oltunni tanub oldi. Ul kishi uchunchi kelib yana ming oltun oldi, hamul niyat birla, Ani ham yiturdi. Sabab birla Luqmon qo'lig'a kirdi. To'rtunchi kelib ming' oltun oldi Bu niyatbirlakim, sotig' qilayin. Mavlo taolo foyda bersa, to'rt ming qilib, oltunni Luqmong'a berayin teb. Telim foydalar ko'rdi. To'rt ming oltunni kelturub Luqmon o'rninda qo'ydi. Luqmon ming oltunni oldi, o'zgalarin olmadi, haqiqat manga tegdi teb. Luqmong'a xojasi aydi: "Borg'il, bir qo'y bo'g'uzlab etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil». Qo'yni bo'g'uzladi, tili birla yurakin olib keldi. Xojasi so'rdi: "Bularni naluk kelturdung?" Aydi: "Qo'yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdan yovuzroq yo'q". Hikoyatda *andog' kelurkim*, Luqmon o'glung'a vasiyat qildi. *Biri ulkim, xotuningg'a zinhor rozingni aymag'il, navkisadin bo'rch almag'il, avon birla do'st bo'lmag'il*. Qachon Luqmon vafoti bo'ldi ersa, o'g'li bu uch vasiyatni sinag'ayin teb bozorg'a bordi. Bir qo'y oldi. So'yub qopg'a soldi, og'zin bog'lab evinga kelturdi. Xotuni aydi: "Buning ichida ne bor?" Aydi: "Biraguni o'lturub munga solib kelturdum. Zinhor kishiga aymag'il, rasvo bo'lmag'ayin". Yana bordi, navkasidin bo'rch oldi. Taqi avon birla do'st bo'ldi. Andin so'ng xotuni birla xusumat qilisht. Xotunin urdi ersa, xotuni qichqirib aydi: "Ey musulmonlar, erim kishi o'ltura o'granib turur. Mani o'lturayin teyur". Darhol bu so'zni malikka aydilar. Malik aydi: "Ul kishini qochmasdan burun kelturung". Aydilar: "Kim kelturur?" Avon do'sti aydi: "Man evin bilurman, borib kelturayin". Bordi, tutub kelturdi. Kelurda aydi: "Ey do'stum, mani qo'ygil, qochayin". Qo'ymadi. Taqi navkisa keldi: "Haqqimni bergil, sen o'larsan, haqqim kuyar". O'zginin kelturub haqqin berdi Avon do'sti malikka eltti. Malikning ko'zi Luqmon o'g'lig'a tushti. Aydi: "Subhonollohi, ey hakim o'g'li, bu ish sendin loyiq ermas erdi". Luqmon o'g'li aydi: "Ey malik, yoshing uzun bo'lsun, Kishi borib men o'lturganni keltursun". Bordilar. Borib ul og'zi bog'lig' jivolni kelturdilar.

Malik o'nginda og'zin ochtilar, bir so'yulmish qo'y chiqti. Malik aydi: "Bu ne hol turur, manga ayg'il". Ul kechmish qissalarni aytti: "Otam manga uch nasihat qilmish erdi, ani sinag'ayin teb bu ishni qildim. Otam so'zi rost chiqti".

Ammo oltinchi hikoyat Luqmon hakim shaxsiyatiga muvofiq kelmaydi. U uydurma va to'qimadan iborat xolos. Unda Luqmoni hakimning donishmandligini sinash uchun bir podshohning uni zindonband etganligi, bir necha zamonlardan keyin uning yer ostiga ko'mib yuborilganligi xabarini eshitgan podshoh uni axtarib topganligi, o'g'li vafot etib o'zi o'lar holga kelib qolganlaigi, yerdan yuqoriga chiqqach kuchga kirish uchun yosh qizlar qo'ynida yotganligi hikoya qilinadi. "Luqmon vaqtindagi sulton o'fkalab Luqmonni o'gli birla tirikla quzug'g'a soldi. Xaloyiq bilmasun qayda ekanin ustiga oshliq ekturdi. Luqmon ul chuqurg'a kirurda qirq botmon quruq yuzum olib kirdi. Telim-yillar anda qoldi. Ul sulton o'lgandin so'ng o'zga sulton o'lturdi. Telim-yillar sultonliq qildi. Bir qari kishi sultong'a aydi: "Sandin burung'i sulton Luqmoni hakimni o'g'li birla yerga qazib tirikla ko'mmish erdi. Essiz ermasmu, andog' qinalib o'lsa". Sulton aydi: "Ul hakim erdi, shoyad yarog'in qildi bo'lg'ay, tirik bo'lg'ay" teb, qamug' xalq birla izlab ul chuqur og'zin toptilar. Charog' birla uzun arg'amchi bog'lab kishi soldilar. Tiladi, topmadi. Yana oqil kim ersani soldilar. Ul bir necha bordi. "Mani torting", tedi. Ani chiqardilar, aydi: "Chuqur yarminda bir arquri ungur bor. Aning ichinda bir er yalang yotur". Necha bosh hakim, oqil eranlar kirib ungur og'zi to'shunda arquri yig'ochlar o'rnattilar. Kishilar turg'udek yer ettilar. Andin so'ng ko'rdilar, yoruqluq qilib, Luqmonning eti, terisi gofqalamish, ilik tegursa tarulg'utek. Hiyla birla yuqori chiqarg'utek qildilar, yig'ochlar birla o'run qildilar. Ul o'run uza yangi paxtalar to'shab, yumshoq o'run qilib ungur og'zini tutub, ostin qazib, Luqmong'a yaqin keldilar ersa ul paxtalig' o'runni Luqmonning ostinga tuta berdilar. Ilik tegurmayin aqrinliq birla ul o'run yumalanib yarog'incha indi. "Ustun chiqarsak havo issig'idin halok bo'lg'ay", teb chuqur havosinda uch kun osib tuttilar. Uch kundan so'ng yuragi tebrandi. Yana uch kun tuttilar, dami og'zindin chiqa boshladi. Beshinchi kun sarig' yog'ni yumaloq qilib og'zing'a oshuq choqlig' soldilar. Kunda uch yo'li. Uch kundan so'ng terisi kuchlandi. Ko'zin ochti, Andin so'ng chiqarib saroyg'a kelturdilar. Yana uch kundan so'ng so'zladi. So'rdilar ersa, aydi: "Ikki av qizi kelturing. Maning sog'im, so'limni quchub yotsunlar". Andog' qildilar, bir oydin so'ng qo'pub o'lturdi. Sulton so'rdi: "Sen tirilgaymusen? Bu qizlar seni quchub yotqandin ne foyda bor erdi?".

Luqmon aydi: "Ani tugal aytmoqg'a quvvatim yo'q. Agar bilmak kerak ersa birav qizin qo'lg'an abushqani kelturing, Yana bir qaviy qurtqani qo'lg'an yigitni kelturung. Ikkilarin ham o'lturub, yinjuklarin sindurub-yiliklarin boqing – anglag'aysiz. Andog' qilib ko'rdilar. Qurtqa qo'lg'an yigitning-yiligi suvtek bo'lmish, taqi av qizini qo'lg'an yigitning yinjuki to'lug' yog'. Ani ko'rub qurtqa birla qizning tafovutin bildilar".

Qur'onda nomi hikmat va xayriyat ila eslanuvchi hakim zot ayni hikoyatda axloqan buzuq shaxs sifatida mifologik tasavurlar bilan ta'riflanadiki, ayni hikoyat o'quvchida bevosita avvalgi hikoyatlar mazmunidan hosil bo'ladigan Luqmoni hakim haqidagi ajoyib xislatlar jamlanmasini bekorga chiqarib qo'yadi. Qur'onda



nomlari zikr etilgan azizlarga nisbatan bunday munosabatda bo'lishning ildizlari sababi haqida siyrat olimi Abdulattoh Tabbora shunday yozadi: "Qur'oni karimning payg'ambarlarga bo'lgan munosabati Eski ahddan ayni o'rinda jiddiy farq qiladi. Eski ahdda ba'zi payg'ambarlar kizib, aldov va gunohi kabiralarni kasb qilganlikda ayblangan. Xususan, Ya'qub alayhissalomga aldoqchilik, Lut alayhissalomga qizi bilan zinokorlik nisbat berilsa. Horun alayhissalom isroilliklarni buzoqqa ibodat qilishga undaganlikda ayblanadi. Dovud alayhissalom xojasining xotini bilan zinoda, Sulaymon alayhissalom suygani rizoligiga erishish uchun sanamlarga ibodat qilganlikda tasvirlanadi. Vaholanki, ushbu muborak zotlar bunday illat va ayblardan pok bo'lib, Qur'onning tutimi ushbu o'rindan Eski ahddan keskin farq qiladi.

Agar ularda Eski ahd bayon qilganidek bu taqlid noloyiq sifatlar bo'lganida ularning yaxshilikka chorchash vazifalariga futur yetgan bo'lardi. Odamlarning nopok ishlarni tark etishga buyurishgani holda o'zlarining siyratida bunday amallardan o'zlarini tiymaslik, murojaat etilgan, da'vat etilayotgan odamlarda "Alloh payg'ambarlarining holi shu ahvolda bo'lsa, nafsimiz xohlaydigan bunday amallarni ba'zan qilib tursak bizga ham qanday zarar bo'lardi degan xulosaga kelishi va o'z nafslarini gunoh va ma'siyatga taslim qilishlari aniq, javob talab qilmas haqiqatir. Bunday holat hech qanday haqiqatga to'g'ri kelmaydi". [Afif Abdulfattoh Tobbora. Maal anbiyo fil Qur'onil Karim. Bayrut. 1980]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imoduddin Abulfido Ismoil ibn Umar ibn Kasir. Tafsir al-Qur'anil Azim. Dor ul-hadis al-Qohira. – Misr. 2012.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent. 2007.
3. Al-Kashf ul-bayon. As-Saolibiy. – Bayrut. 2015.
4. Anvor ut-tanzil. Bayzoviy. – Bayrut. 2015.
5. Al-bidoya van-nihooya. Ibn Kasir. – Bayrut. 2009
6. Al-Kashshof. Az-Zamaxshariy. – Lubnon. 2012
7. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. [Nashrga tayyorlovchi: E.Fozilov, H.Dadaboyev, A.Yunusov] – Toshkent. 1990.
8. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisas ul-anbiyo. Toshbosma. – Qozon. 1881.
9. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Qo'lyozma. – Eron. Majlisi sho'royi islomi. Qo'lyozma. 1810.

## **XALQ IJODIYOTIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI**

**Anora Cho'yan qizi TEMIROVA,**  
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II bosqich magistranti*

Navoiy va xalq ijodiyoti navoiyshunoslikning katta va muhim bir bahsidir. Bu bahs Alisher Navoiyning shoir va mutafakkir sifatida shakllanishi va takomilida xalq ijodiyotining roli, uning folklordan ijodiy foydalanishi xalq ijodiyotiga ta'siri, xalq ijodiyotida Navoiy obrazi kabi masalalar turkumini qamrab

oladi. Bu masalalar XX asrning 30-yillari oxiridan boshlab ilm ahllarining diqqat e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

O'tmishdagi sharqshunoslar Navoiyning hayoti va faoliyati masalalari bilan shug'ullanib, bibliografiya sohasida ma'lum natijalarga erishdilar. Ammo Navoiyning adabiy merosini chuqur ilmiy asosda tadqiq qila olmadilar. Binobarin Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti muammosi ularning e'tiboridan chetda qolib keldi.

30-yillarning oxiriga qadar ham Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti bahsi deyarli o'rganilmagan, ayrim ishlar bu bahsning xususiy masalalarigagina qaratilgan edi, xolos. Professor A. A. Semyonov 1926-yil xalq ijodiyotida Navoiy obrazi masalasiga e'tiborni jalb etib, Navoiy haqidagi hikoyalardan nashr etdi. Navoiyning xalq maqollari zaminida yaratgan yoki maqollarga yaqin bo'lgan hikmatli so'zlari vaqtli matbuotda ommalashtirilishidan tashqari uch marta alohida kitobcha shaklida nashr etildi.

Hikmatli so'zlarning qayta-qayta nashr etilishi ulardan ba'zilarining xalq maqoliga aylanib ketishiga ham xizmat qildi. 40-yillarda Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti bahsi bo'yicha yaratilgan asarlarni ikki guruhga: umumiy masalalarga bag'ishlangan va maxsus masalalarga bag'ishlangan asarlarga ajratish mumkin. M. Shayxzoda va A. Sa'diy maqolalari bahsning umumiy masalalariga bag'ishlangan bo'lsa, A. N. Boldirev, A. K. Borovkov hamda M. Afzalov asarlari Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti muammosining xususiy masalalariga bag'ishlangandir [1; 19].

Buyuk olim Natan Mallyayev ta'kidlaganidek, o'tgan davrda Hazrat Alisher Navoiy ijodini o'rganish biryoqlama bo'lgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi bilan 1991-yil "Alisher Navoiy"-yili deb nomlanishi ham bejiz emas. Zero, Hazrat Alisher Navoiy – ona tilimiz, qalbimiz, ehtiroslarimiz, dard-u g'amlarimiz, quvonch-u shodliklarimiz, orzu-umidlarimiz kuychisi, xalqimizni kamolot sari, eng yuksak insoniy marralar tomon chorlab kelgan dahodir.

A. Borovkovning fikricha, qachonlardir turkmanlarning afsonaviy urug' boshlig'i-bobokaloni Sayinxon [yoki Soyilxon] va rivoyatlar Sulton Mahmud G'aznaviy nomi bilan bog'langan shoir Mirali haqidagi xalq hikoyalari keyinchalik Navoiy va Husayn Boyqaroga nisbat berilgan, Navoiy to'qimi haqidagi latifa keyinchalik Mushfiqiy nomi bilan yuritilgan va hokazo. Maqola muallifi Navoiy va Guli haqidagi fors-tojik va turkman hikoyalarini qiyos etadi, ularning bir-biriga yaqinligini ta'kidlaydi va bulardan har biri mustaqil vujudga kelgan, bunga, jumladan, turkman hikoyasidagi Gulining o'limi haqidagi she'r ham asos bo'la oladi, deydi. U Navoiy va Guli hikoyasiga monand boshqa manbalarga [masalan, Jujixonning o'limi haqidagi hikoyat, o'smir Grigoriy haqidagi rivoyat], analogik adabiy hodisalarga e'tiborni jalb etadi. A. K. Borovkov maqolasi faktik material va ma'lumotga boyligi jihatidan ham, qo'ilgan masalalar talqinidagi ma'ruza va xulosalari bilan ham qimmatlidir.

Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti bahsi 30-yillarning oxiridan boshlab navoiyshunoslikning muhim bir bahsi bo'lib bordi. Navoiy haqida yaratilgan deyarli barcha katta-kichik ilmiy tadqiqot va ilmiy ommabop asarlarda ulug' shoir

va mutafakkirning xalq ijodiyotidan keng foydalangani, xalq ijodiyotida chuqur iz qoldirgani va xalq uning obrazini afsona, hikoya va ertaklarda mujassamlantirgani haqida soʻz yuritiladi, Navoiy haqida xalq yaratgan asarlar ommalashtiriladi hamda Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti mavzusida maxsus maqola va boshqa turdagi asarlar yaratilgan.

40-yillar Navoiy asarlarining xalq variantlarini yozib olish hamda Navoiy obrazi yaratilgan afsona va ertaklarni toʻplashda xiyla unumli boʻldi. S. Egamnazarov [1939], M. Afzalov [1944], M. Alaviya [1945] va boshqalar Farhod va Shirinning variantlarini yozib oldilar. Alisher Navoiy haqida oʻzbek xalqi orasida tarqalgan afsona va ertaklarning birmunchasi yozib olindi va ommalashtirildi. Turkman xalqi orasida tarqalgan “Mirali va Sulton Suyun” [Navoiy va Husayn Boyqaro] shaklidagi afsonalar yozib olinib, alohida kitobcha sifatida nashr etildi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Farhod va Shirinning xalq variantlari afsona va ertaklarni yozib olish va ommalashtirishda maʼlum ish qilindi. Bu Mirzachoʻlni oʻzlashtirish harakati bilan bogʻliq holda sodir boʻlgan edi [ariq ochib choʻlning bir oz qismi oʻzlashtirilgan edi]. Mirzachoʻlning atrof qishloq va ovullariga kelgan koʻp olimlar choʻlni oʻzlashtirish bilan birga, aholining turmushi, urf-odati va boshqalar bilan ham qiziqib, bir qator afsona va ertaklarni yozib olib, ayrimlarini ommalashtiradilar. Bu afsona va ertaklarda xalqning asriy orzusi – suv ochib choʻlni oʻzlashtirish orzusi oʻz ifodasini topgan edi. Alisher Navoiyning Farhod va Shirinidan, moʻjizakor Farhod va Shirinidan ilhomlangan xalq bu qahramonlarning faoliyatini Mirzachoʻlga koʻchirib, ularning siymosida oʻz najotkorlarini mujassamlashtirdi.

Navoiy va Jomiyning oʻtkir soʻzligi haqidagi hikoyalar Hirot adabiy muhitining xususiyatlarini tarixan toʻgʻri aks ettiradi. Biroq bu hikoyalar har qachon ham haqiqatda boʻlib oʻtgan faktlarga asoslangan hikoyalar emas. Haqiqatga monand vaziyat, nozik soʻz oʻyini, oʻtkir qochiriq, soʻz va muomaladagi hozirjavoblik va zehnilik hikoya-latifaning magʻzini tashkil etadi va bu ajoyib-gʻaroyib soʻz-hangomalar u yoki bu tarixiy shaxsga nisbat beriladi.

XV asr Oʻrta Osiyo xalqlari sanʼati taraqqiyotining muhim va sermahsul bir bosqichidir. Bu bosqichda meʼmorchilik, tasviriy sanʼat, xattotlik, musiqa va boshqa sohalarda oʻlmas obidalar yaratildi. Bulardan tashqari xalq sanʼatining naqqoshlik, oʻymakorlik, zardoʻzlik, kashtachilik, gilam toʻqish, kulolchilik va boshqa turlari ham rivojlanib, nodir asarlarni, buyumlarni boqiy qoldirgan [2; 21].

XV asr sanʼati taraqqiyotida Alisher Navoiyning oʻrni va roli benihoyat kattadir. Bu Navoiyning sanʼatkorligi, sanʼat ahllariga homiyligi va sanʼatshunosligi bilan ifodalanadi. Alisher Navoiy shoir va adib sifatida sanʼatkor boʻlishi bilan birga, rassom va bastakor ham edi [«Zanjirband sher» surati, sheʼrlaridan biriga «Isfahon» deb nomlangan kuy yaratishi buning isbotidir]. Alisher Navoi sanʼatning ravnaqi uchun fidokorona faoliyati, sanʼat ahllariga homiyligi, ularga moddiy va maʼnaviy koʻmagi uning sanʼatga qoʻshgan katta ulushidir. Shu bilan birga, Alisher Navoiy sanʼatshunos sifatida ham gavdalanadi.

Uning asarlarida san'at sohalari haqida boy faktik material va nazariy ma'lumotlar bor.

Ma'lumki, Navoiyning tashabbusi bilan [ko'pincha uning o'z mablag'i bilan] juda ko'p va xilma-xil binolar qurilgan, bog'-rog'lar barpo qilingan, ariq va zovurlar obod qilingan.

Navoiy haqidagi o'zbek afsona va hikoyalari yig'ib, ularni ommalashtirgan folklorist M. Afzalov Navoiy haqida xalq afsonalari maqolasida bu afsonalarning tarixiy ildizi haqida so'zlab, ularni ta'rif va tavsif qiladi, tarixiy-badiiy qimmatini kiritadi. Bu muqaddimadan keyin u bir necha afsonani jurnalxonlarning diqqat-e'tiboriga havola qiladi. Folklorist M. Afzalovning Alisher Navoiy va Alisher Navoiy to'rtliklaridan birida shunday deganlar:

Chun topdim ul kalom ichra kamol,  
Turk alfozi bila surdim makol.  
Turk nazmida chu men tortib qalam,  
Ayladim ul mamlakatni yakkalam.

Avvalo, buyuk adibimizning she'ridagi "turk" so'zini "o'zbek" deb qabul qilish kerak. Chunki shoir yashagan zamonda "o'zbek" hozirgidek millat tushunchasini anglatmagan. "o'zbek" so'zining millatimiz nomi sifatida ommalashishi ancha keyingi zamonlarga to'g'ri keladi. Ammo Alisher Navoiy yaratgan minglab misra she'rlarning, nasriy adabiyotning bugungi kundagi "O'zbek" deb atalgan tilga mansubligi olimlarimiz tomonidan isbotlab bo'lingan [3; 125].

Navoiy butun hayotini, ijodini, falsafiy fikrlarini Allohning inoyati bilan millatining, xalqining kelajagi uchun xizmat qilishga bag'ishladi. Agar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Farg'oniy o'zbekning dovrug'ini ko'proq ilm sohasida dunyoga mashhur qilgan bo'lsalar, Alisher Navoiy jahon xalqlarining madaniy, ma'naviy, adabiy merosiga munosib hissa qo'shish bilan o'z burchini bajarishga musharraf bo'ldi. U yaratgan so'z san'ati xazinasi millatimizning bebaho ulushi sifatida e'tirof etilmoqda. Ammo shu bilan birga Alisher Navoiy o'z zamondoshlarini ham unutmadi. Buyuk davlat arbobi sifatida xalqning mushkullarini oson qilish choralarini izladi, yurt tinchligini asrab-avayladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodiyoti. – T.: O'qituvchi, 1972.
2. Madayev O. Navoiy suhbatlari. – T.: Fan, 2018.
3. Qudratullayev H. Navoiyning adabiy-estetik olami. – T.: Adabiyot va san'at, 1991.

## **TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTIDA SAYYID QOSIMIY IJODINING O'RNI**

**Oybek NORMURODOV,**  
*GulDU, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi*

Ma'lumki, temuriylar davrida adabiy jarayonning jonlanishi Amir Temurning o'zi ijod va ijod ahlidan doimiy xabardor ekanligi bilan bog'liq edi. Buni Temur

“Tuzuklari”da ham ko‘rish mumkin. Adabiy muhit ravnoq topdi, doimiy yangi ijodiy an‘analar bilan boyitib borildi. Buning sababi yuqorida aytganimizdek Amir Temurning ham adabiyotga oshnologi bilan bog‘liq. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Amir Temur haqida “... *agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe‘da o‘qubdurlarkim aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor*” – deydi. Bundan ko‘rinadiki, sohibqiron ijod ahliga, umuman, ijodga, adabiyotga ijobiy munosabatda bo‘lgan va o‘zi ham doimiy mutolaa bilan oshino bo‘lgan.

Bu an‘ana barcha temuriyzodalarda saroyida Temur vafotidan keyin ham saqlanib qolganligini “Majolis un-nafois” asarining yettinchi, sakkizinchi majlislarida ko‘rish mumkin. Har ikki qismda ham temuriyzodalarning o‘z davrining adabiy muhitdan boxabar ekanligini sezish mumkin. Amir Temur vafotidan so‘ng mamlakatda boshboshdoqliklarga Shoxruh mirzo chek qo‘ydi. Ammo madaniy hayot kishilik jamiyati bor ekan, also bir joyda qotib turmaydi, shuning uchun ham Ulug‘bek davriga kelib bu jarayon yanada gurrak rivoj topdi. Endi, XV asrning birinchi yarmiga kelib o‘zbek adabiyotida bir qancha yangilanish bosqichlari bosib o‘tildi. Bunday bosqich uchun Ulug‘bek yaratgan adabiy va ijtimoiy muhit mavjud edi. Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida Ulug‘bekni “...ul saltanat daryosining gavhari va ma‘dalat konining javhari, saxovot boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, qayosat mamlakatining shohi, shohonshohi a‘zam, shahriyori a‘lam, sohibus-sayf val-qalam, ma‘dan-i lutf-u karam, moliki riqobi umam, farmondehi turk-u, arab-u, ajam, mag‘isidin vad-davron amir Ulug‘bek Ko‘ragon”, deya ta‘riflaydi. Muallif Ulug‘bekni ijod ahlining sohibi deya ta‘riflashidan ayon bo‘ladiki, Ulug‘bek ahli qalam sohiblari uchun o‘zi o‘rnak bo‘lgan. Yoki, Navoiy “Majolis un-nafois” ning yettinchi majlisida Mirzo Ulug‘bek sajiyasi haqida “Bovujudi bu kamolot gohi nazmg‘a mayl qilur”. ta‘rifini keltirsa, Bobur “Boburnoma”da u qurdirgan inshootlar haqidagi yozganlari Movarounnahrning har tomonlama yuksalganligini ko‘rsatadi. Ulug‘bekning insoniyat oldidagi xizmatlarini yuqori baholagan Ashraf Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” [Hayoti va faoliyati] risolasida quyidagi ta‘rifni keltiradi: “Qanday aytilishidan qat‘i nazar, bu ilmiy-madaniy ko‘tarilish O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i bilan bog‘liq bo‘lib, u ham bo‘lsa o‘z ibtidosini Ulug‘bekning XV asr boshida Samarqanddagi ilmiy faoliyatidan oladi. Bu bir yarm asrlik davr o‘rta asr xalqining ma‘naviy va moddiy madaniyati tarixida nihoyatda chuqur iz qoldirdi va hozirgi kunda ham bu xalqlarning madaniy rivojlanishlarining asosida turadi. Shuning uchun ham O‘rta Osiyo xalqlari Ulug‘bek va uning safdoshlaridan abadiy minnatdordirlar”. Olim Mirzo Ulug‘bekning o‘z davri va undan keyingi avlod uchun qilgan xizmatini yuqoridagi parchada mubolag‘asiz, ro‘y-rost ko‘rsatib bergan.

Ulug‘bek davrida, umuman, XV asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiyotida bir qancha yangiliklar paydo bo‘ldi. Jumladan, yangi janrlar yuzaga keldi. Ana shulardan biri munozara hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti tarixida munozara janrining ildizlari uzoq tarixga borib taqalishi hech kimga sir emas. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ati-t-turk” asarida keltirilgan “Qish va Yoz”

munozarasi bu janrning turkiy adabiyotda qadimiy janrlardan biri ekanligini dalillaydi. Munozara fors adabiyotida XI asarda yozma shaklda Asad Tusiy tomonidan adabiyotga olib kirilganligi manbalarda qayd etilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida esa XV asrning birinchi yarmida yozilgan Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va bang”, Ahmadiyning “Sozlar”, Yaqiniyning “O‘q va yoy” munozaralari yozma adabiyotdagi dastlabi namunalari edi.

Munozara temuriylar davrida keng ravnaq topganligini Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida nomi zikr etib o‘tilgan mashhur munozaranavislarning bu janrda sermahsul asarlar bitganligida kuzatish mumkin. Jumladan, Mavlono Ruhiiy Yoziriyning “Bulbul va gul” [forscha], “Sham’ va parvona” [forscha], Mavlono Orifiyning “Go‘y va chavgon” [“To‘p va chavgon”] [forscha], Xoja Ma’sud Qumiyning “Yusuf va Zulayho”, “Shams va Qamar”, “Tig‘ va Qalam” [forscha]. Garchi yuqorida qayd qilingan munozaralarning barchasi fors tilida bitilgan bo‘lsada, bu ayni temuriylar davri adabiy muhitida munozara janrining o‘rnini ko‘rsatadi. Keyinchalik o‘zbek munozarachiligi tarixida mazkur munozaralar poydevor vazifasini o‘tadi.

Ikkinchi, o‘zbek adabiyotida noma janri an‘analari davom ettirilib, yanada ravnaq topdi, yangi adabiy tamoyillar bilan boyidi. Xorazmiy boshlab bergan noma janri XV asrning birinchi yarmiga kelib an‘anaviy janrlardan biriga aylandi. Bu haqda adabiyotshunos Natan Mallayev shunday deydi: “Bu asar o‘zbek klassik adabiyotida dunyoviy tematikaning rivojlanishiga bir hissa bo‘lib, adabiy janrlarning, ayniqsa nomachilik takomilida katta rol oynadi. Xorazmiy yanglishmadi. Uning asari kitobxonlarga manzur bo‘ldi va o‘zbek klassik adabiyoti taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi.” Bu fikri bilan olim turkiy adabiyotda yozma noma janri taraqqiyotida “Muhabbatnoma”ning o‘rni beqiyos ekanligiga ishora qilgan.

Noma janrda yozilgan asarlar asosan temuriylarga bag‘ishlangan yoki temuriyzoda ijodkorlar tomonidan birilganligi bilan ajralib turadi, Jumladan, XV asrning boshlarida yozilgan Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asari Xorazmda hukmronlik qilgan temuriyzoda Sulton Mahmudga bag‘ishlangan. “Taashshuqnoma” esa temuriyzoda Said Ahmad qalamiga mansubdir. Bu ijodkor Amir Temurning nabirasi, Mironshohning o‘g‘lidir. Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asari Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlanganligi, Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” asari [noma janrida yozilmagan bo‘lsa-da] ham “Muhabbatnoma” ta’sirida 863-hijriy yilda [milodiy 1458–1459-yillar] bitilganligi temuriylar davridagi nomachilikning o‘rni hamda mavqeyini belgilaydi.

Yuqoridagi nomalar badiiy jihatdan mukammalligi, xalq ruhiga yaqinligi, tilining sodda va o‘ynoqiligi bilan ham o‘zbek adabiyoti tarixida yyetuk badiiy asarlar qatoridan joy oldi.

Uchinchi, o‘zbek [turkiy] adabiyotshunosligiga oid turkiy tilda bitilgan dastlabki risola – “Funun ul balog‘a” mana shu davrning mahsuli hisoblanadi. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning ushbu risola fanga ma’lum bo‘lgach temuriylar davri Movarounnahrda adabiy hayotni yanada keng o‘rganish imkoniyatlarini ochildi. Shayx Ahmad Taroziy she’r nazariyasiga doir ilmiy

masalalarni yoritish bilan birga, shu paytgacha noma'lum bo'lgan o'zbek va forsiyzabon shoirlarning she'rlaridan misollar keltiradi. Taroziyning «Funun ul-balog'a» asari o'sha davr o'zbek adabiyoti tarixini yanada chuqurroq o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Bu haqida asarni nashrga tayyorlagan olim Abduqodir Hayitmetov shunday fikrlarni ilgari suradi: “Funun ul balog'a” o'zbek tilidagi adabiyotning nazariy masalalari bo'yicha ilk mukammal qo'llanma bo'lishi bilan birga, she'riy tazkira xarakteridagi bir asar hamdir”. To'g'ri, Sharqda adabiyotshunoslikka doir asarlar talay edi. Chunonchi, Rodiyoniyning “Tarjunom ul-balog'a” [XI-XII asr], Rashididdin Votvotning “Hadoyiq us-she'r” [XII asr], Shamsiddin Qays Roziyning “Al Mo'jam” [XIII asr], Nosiriddin Tusiyning “Me'yor ul ash'or” [XIII asr], Xalaviyning “Daqoyiq ush she'r” [XIV asr] kabi kitoblar shular jumlasidan.

Biroq bularning birortasi ham turkiy tilda emas edi. Asar Ulug'bek Sultonga bag'ishlangan. Ahmad Taroziyning bu risolasi 1437-yil yozilgan. “Funun ul balaog'a” asri o'zbek adabiyotshunosligiga o'zining tamal toshini qo'ydi va undan keyin turkiy tilda yaratilgan Alsher Navoiyning “Mezon ul- avzon”, Boburning “Muxtasar” risolalari yuzaga kelishi uchun omil bo'ldi. Alisher Navoiy “Mezon ul avzon” risolasida quyidagicha yozadi: “...turk tili bila qalam surdim va har nechuk qoidadakim, ma'ni abkorig'a ziynat va oroyish ko'rguzub erdilar, chig'atoy lafzi bila raqam urdum. Andoqkim, to bu mazkur bo'lg'on til va lafz binosidur, hech nozmig'a bu dast bermaydur va hech roqing'a bu muyassar bo'lmaydur”. Navoiy shu paytgacha aruz nazariyasiga oid birorta asar yozilmaganligini aytib o'tgan. Biroq shu o'rinda Navoiy “Funun ul-balog'a” asaridan bexabar bo'lganliginibi bilish mumkin.

To'rtinchi, bu davrda ijod bilan shug'ullanuvchi temuriyzodalar soni birmuncha ortdi, Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining yettinchi majlisi temuriyzoda sultonlarga bag'ishlanganligi bejiz emas edi. Ayni asarning yettinchi majlisini sinchiklab o'rgangan olim Suyima G'aniyeva quyidagi fikrlarni bildiradi: “Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” ning yettinchi majlisini Temur Ko'ragon va she'riyat bilan mashg'ul bo'lgan temuriy hukmdorlar hamda shahzodalarga bag'ishlaydi. Bular: Shohruh Mirzo, Abubakr Mirzo, Sulton Xalil, Boysung'ur Mirzo, Shoh G'arib Mirzo va boshqalar – jami 22 nafar”. Demak, bu ijodiy muhitning tepasida Amir Temurning ayni o'zi turgan. Shu bois ham Alisher Navoiy dastlab Amir Temurni eslab o'tadi.

“Majolis un-nafois”da bir qancha temuriyzodalarning she'r ilmidan chuqur xabardor ekanligi aytib o'tilib, turkiy tilda bitilgan misralari, devonlari mashhurligi qayd etilgan. Jumladan, turkiygo'y ijodkorlardan, Abubakr Mirzo, Sulton Iskandar Sheroziy, Xalil Sulton, Bobur Mirzo, Said Ahmad Mizo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Baddiuzzamon Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Faridun Ma'sud Mirzo, Sulton Ma'sud Mirzo, Sulton Ali Mirzolarining nomi zikr etilgan. Alisher Navoiy bular orasidan Abubakr Mirzoning quyidagi tuyug'i mashhur ekanligi aytiladi:

*Er kerak o'rtansa yonsa yolina,  
Yora yeb yotsa otining yolina.  
It o'lumi birla o'lsa yaxshiroq,*

*Er otonib dushmanig‘a yolina.*

Navoiy Abubakr Mirzoning bu tuyug‘iga “Agarchi ba‘zi alfozi turkonaroqdur, ammo tajnisni yaxshi topibdur”, ta‘rifini bergan bo‘lsa, Sulton Iskandar Sheroziyning quyidagi tuyug‘iga “Burung‘i tuyuqdin bu turkonaroqdir” deya baho beradi:

*To‘lun oyg‘a nisbat ettim yorumi,*

*Ul xijolatdin kam o‘ldi yorumi.*

*Yori mo‘yungning zakotin men beray,*

*Yo Misrni, yo Halabni Yo Rumni.*

Sohibdevon temuriyzodalardan Said Ahmad Mizoning va Sulton Ahmad Mirzolarning ikki devoni, Shoh G‘arib Mirzoning esa bir devoni mavjudligini ham ayni shu tazkiradan bilib olish mumkin.

Bundan ko‘rinadiki, bu davrda adabiyot ravnaqi uchun temuriy podshohlarning homiyliqi, umuman, o‘zlarining ham ijod bilan shug‘ullanganligi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan deyish mumkin.

Beshinchi, turkiy til bu davrga kelib fors tili bilan barobar ijod tiliga aylandi. Ko‘plab temur avlodlari turkiy tilda ijod qila boshladi. Bu davrda ijod qilgan bir qancha mashhur turkiygo‘y ijodkorlarni Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida tilga oladi. Jumladan, Mavlono Amiriya “turk erdi va turkcha she‘ri yaxshi voqe‘ bo‘lubdur, ammo shuhrat tutmabdur”, mavlono Hoji Abulhasanga “turkdir, ammo tolibi ilmliqqa mashg‘ul bo‘lub, biror nima modda hosil qilibdur, chun tab‘i xub erdi, she‘r ayturg‘a mashg‘ul bo‘ldi”, Mavlono Qutbiya “Turkiy va forsiy she‘rida jid erdi. Bu turkcha matlai mashhurdurkim”, Mavlono Naimiya “Turkiy nazmlarg‘a tab‘i muloyim erdi”, Mavlono Lutfiy forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi”, ta‘rifini keltirib, Harimiy Qalandar, Darvesh Nozuki, Yaqiniy, Atoiy, Kamoliy, Latifiy, Sakkokiy, Mirzo Hoji So‘g‘diy, Mavlono Bilol, Mir Sa‘id, Muhammad Ali G‘aribiy, Mirzobek, Sayyid Hasan Ardasher, Amir Shayxim Suhayliy, Osafiy, mavlono Shavqiy, Gadoiy, Sheram, Ibrohim Muhammad Xalil, Soqiy kabi ijodkorlarning turkiy tilda mashhur ekanligini aytib o‘tadi. Bu turkiy tilning mana shu davrdagi o‘rnini belgilab beradi. Yuqoridagi ijodkorlar turkiy tining yozma adabiyot tiliga aylanishida katta xizmat qildi. To‘g‘ri bularning barcha ham bir davrda ijod qilgan adib va yozuvchilar emas. Ammo ular bu tilning mavqeyida alohida o‘rin tutishdi.

Oltinchi, bu davrga kelib g‘azal janri o‘zining rivojlanish bosqichida davom etdi. Bir qancha iste‘dodli g‘azalnavislar yetishib chiqdi. Jumladan, Lutfiy, Gadoiy, Sakkokiy, Atoiy, Hofiz Xorazmiy kabilar g‘azalchilik an‘analarida tub burilishlar qilinib, o‘zbek adabiyotida g‘azal janrini yangi pog‘onalarga olib chiqishdi. Erkin Ahmadxo‘jayev Gadoiy ijodi haqida: “Bu davrda eski o‘zbek tilidagi eski o‘zbek tilidagi adabiyot taraqqiy eta boshladi. O‘zbek she‘riyatining yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga va Alisher Navoiy ijodining shakllanishiga Lutfiy, Gadoiy, Sakkokiy va boshqa qator shoirlar o‘zlarining samarali hissalarini qo‘shdilar. O‘zbek poeziyasining janrlari rivojlandi. Ilg‘or o‘zbek shoirlari o‘z ijodlarida real hayot va insoniy muhabbatni bildirishga intildilar. V.V.Bartold



aytganidek, Movarounnahr va Xuroson turkiy tildagi adabiy harakatchilikning markaziga aylandi. Bu harakatda shoir Gadoiyning ham faol ishtirok etganligi, shubhasiz.

Gadoiy o‘zbek g‘azalchiligi, uning janrlari va tematikasining kengayib, dunyoviy adabiyotni yanada ilg‘or, gumanistik g‘oyalar bilan boyishiga xizmat qildi” desa, Lutfiy ijodi haqida Sodir Erkinov: “Lutfiy o‘zigacha mavjud bo‘lgan adabiyotlardan bahramand bo‘lish bilan birga o‘z davri va o‘zidan keying asrlarda ijod qilgan shoirlarga ham barakali ta’sir ko‘rsatdi. Lutfiy lirikasidan eng ko‘p bahramand bo‘lganlardan biri Navoiy edi. Navoiyning Lutfiy g‘azallariga bog‘lagan muxammas va musaddaslari ma’lum.

Lutfiy ijodi XVI asr buyuk Ozarbayjon shoiri Fuzuliy, XVIII – XIX asrlarda yashab ijod qilgan o‘zbek shoirlaridan Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, ayniqsa, ma’rifatparvar shoir Furqat ko‘p bahramand bo‘lgan” [1] deya fikr bildiradi.

Alisher Navoiyga qadar g‘azal janri ma’lum taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tganligi haqida N. Mallayev o‘zining “O‘zbek adabiyotida g‘azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida” maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Alisher Navoiyga qadar g‘azal janri o‘zbek adabiyotida ma’lum taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi, XIV asrda Rabg‘uziy va Xorazmiy kabi shoirlar g‘azalchilikda ma’lum mavqe tutgan bo‘lsalar, XV asrning birinchi yarmida Sakkokiy, Atoyi, Yaqiniy va nihoyat Lutfiy kabi zabardast g‘azalchilarni yetishtirdi. Ularning har biri g‘azalchilikda o‘ziga xos xususiyat va mavqega ega edi”[2]. Adabiyotshunos olim maqolaning keyingi o‘rinlarida “Qissasi Rabg‘uziy” va “Muhabbatnoma”ning ham g‘azalchilikdagi o‘rni alohida ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Shu fikrlarga tayanib, Sayyid Qosimiyning ham “Gulshani roz” dostonidan o‘rin olgan g‘azallari badiiy jihatdan mukammal, son jihatdan ko‘p bo‘lmasa ham bu janr namunalari adabiyotimiz tarixida o‘z o‘rni borligini qayd etish maqsadga muvofiq.

Keyinchalik bu ijodkorlarning adabiy an‘analarining ta’sirini Navoiy g‘azallarida kuzatish mumkin. Aytish mumkinki, Navoiy g‘azallari Ulug‘bek davri ijodkorlarining adabiy muhitidan oziqlangan o‘zbek adabiyoting eng sara asarlari qatoridan joy oldi.

Yettinchi, qasida janri ham mana shu davrda turkiy she’riyatda birmuncha faol janrga aylandi. Sakkokiyning Ulug‘bek Sultonga bag‘ishlangan qasidaları shular jumlasiga kiradi.

1407-1449-yillar Ulug‘bek Movarounnahr taxtini egalladi. Bu esa sakkizinchi omil – madaniy hayot har tomonlama ravnaq topishi uchun davlat tepasiga Ulug‘bekning kelishi va ulkan bir Samarqand Akademiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Samarqandda Ulug‘bek akademiyasi tashkil topdi. Tarixchi olim Bo‘riboy Ahmedov bu ulkan ilm dargohi haqida yozadi: “O‘sha vaqtlarda Samarqandda ham o‘ziga xos akademiya bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek tevaragiga uyishgan 100 dan ortiq olimni o‘z bag‘rida ko‘kartirgan; nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o‘tagan. Bundan tashqari Ulug‘bekning Samarqand va Buborodagi madrasalari, ayniqsa poytaxtdagi madrasa zamonasining dorulfununlari edi. Madrasalarning darsxonalarida ilohiyot ilmlaridan [Qur‘on, hadis, tafsir] tashqari,

riyoziyot [matematika], handasa [geometriya], ilmi hay'at [astronomiya], tibbiyot [meditsina], tarix, jug'rofiya, ilmi aruz [poetika] singari dunyovoy ilmlar ham o'qitilgan. Bunga dalil-ashyo ham bor" [4]. Ma'lum bo'ladiki, u dargoh adabiyot ravnaqi uchun ham katta maktab bo'lib xizmat qilgan.

"Majolis un-nafois" asarida Mirzo Ulug'bekning adabiyot sohasida ham faoliyat yuritganligini Navoiy quyidagicha izohlaydi: "Mirzo Ulug'bek – donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag'oyat ko'p erdi. Yeti qiroat birla Qur'oni majid yodida erdi. Hay'at va riyoziyini xo'b bilur erdi. Andoqkim, "Zij" bitdi va rasad bog'ladi va holo aning "Zij"i aroda shoye'dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg'a mayl qilur. Bu matla' aningdurkim

Харчанд мулки ҳусн ба зери ниғини туст,

Шўҳи макунки, чашми бадон дар камини туст".

Umuman, XV asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyotida Ulug'bekning roli alohida hisoblanib, bu davrda o'zbek adabiyoti o'zining rivojlanish darajasiga erishdi. Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksaklik butun Sharq mamlakatlarigina emas, balki jahonni mamlakatlarini hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinigina belgilab bermay, qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi.

Mana shu davrning salohiyatli adiblaridan biri Sayyid Qosimiy ham temuriyzodalar saroyida xizmat qilgan. Muallifning "Majma' ul-axbor" [Xabarlar to'plami] asari temuriyzoda Sulton Abu Said Mirzoga [1451 – 1469] ya'ni Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoxning nabirasi [Xalil Sultonning o'gli]ga bag'ishlaganligi, "Gulshani roz"[Sirlar gulshani] kitobi esa Sulton Abu Said Mirzo tasarrufidagi shaharlarning birida hokim bo'lgan Jaloliddin Sayyid Mazid madhi bilan boshlanishi, Sayyid Qosimiyning temuriylar davri adabiyotining vakili ekanligini aniq ko'rsatadi. Yana bir dalil sifatida ushbu ijodkorning "Haqiqatnoma" dostoni xotimasida asarining yozib tugatgan-yili haqida shunday ma'lumot bor:

*Muhabbat ko'yida qildim iqomat,*

*"Haqiqatnoma" ni etdim tamom.*

*Maoniy durini olamga yoydim,*

*Ko'ngulning dardini bir shamma aydim.*

*Sakkiz yuz oltmish uchda bo'ldi tayyor.*

*Ra'bi ul-oxar oyinda bu guftor...*

Yuqoridagi misralardan asarning hijriy 863-yili yoki 1458 – 1459-yillarda yozilganligini bilib olsak, boshqa tomondan ushbu dalillarga suyangan holda shoirning XV asr o'rtalarida yashab ijod etganligini aniqlaymiz. Demak, Sayyid Qosimiy temuriylar saroyida xizmat qilgan, shu davrning, ya'ni XV asr o'rtalarining ko'zga ko'ringan ijodkorlardan biri hisoblanib, uning ijodi o'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega. Garchi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida Qosimiy haqida ma'lumotlar uchramasa-da, uning asarlari g'oyaviy rang-barangligi, tasavvufiy ohanglarning yangi bosqichga olib chiqqanligi, doston, noma kabi janrlar bilan o'zbek adabiyotining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Yuqoridagilar Sayyid Qosimiy ijodining XV asr o‘zbek adabiyotida alohida o‘rni bor ekanligini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ahmedov A. “Ulug‘bek” (Hayoti va faoliyati) – T.: Fan. 2018.
2. Ahmedov B. Ulug‘bek. Esse. – T., Yosh gvardiya. 1989.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 9-10-jild. Mezon ul-avzon. G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – T.: 2013.
4. Gadoiy. Devon. – T., Adabiyot va san‘at. 1973.
5. Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. – T., O‘zbekiston. 2014.
6. Lutfiy. Devon. Gul va Navro‘z. – T., “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti. 1965.
7. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘ati-t-turk. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013.
8. O‘zbek adabiyotshunosligi antologiyasi. – T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2016.
9. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. XIV – XV asrning boshlari. Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi N. Rahmon. 2-jild. – T., Fan. 2007.
10. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Eng qadimgi davrdan XV asrning birinchi yarmigacha. – T., Sano-standart. 2017.
11. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T., O‘zbekiston. 1993.
12. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., Yangi asr avlodi. 2018.

#### **“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA – YUSUF KOMIL INSON SIFATIDA**

*Muattar XATAMOVA,  
Guliston davlat universiteti magistranti*

Komil, barkamol, yetuk insonni tabiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon sharqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo‘llanma vazifasini o‘tagan ko‘p pandnomalar, xalq kitoblari yaratilgan. Bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloqni ishlab chiqqanliklarini eslashimiz kerak, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakillanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar mana shu sharqona axloqning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Komil inson fazilatlarini o‘zida mujassam etgan asarlar sirasiga quyidagi asarlarni kiritishimiz mumkin: Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” va boshqalar. Bu asarlarning ko‘pchiligida odil shoh va adolat, halollik va soflik, poklik, to‘g‘rilik, insonparvarlik, ma‘rifatli bo‘lish kabi insonning sharqona fazilatlarini berilgan. Komil inson iymon va e‘tiqodlilik, halollik

va poklikning oliy timsolidir. Yuqorida sanab o‘tilgan komil inson fazilatlarini o‘zida mujassam etgan asarlar qatoriga, oshiqnoma turkumiga kiritilgan, “Yusuf va Zulayho” dostonini kiritsak ham bo‘ladi.

“Yusuf va Zulayho” –Sharq xalqlari orasida mashhur va keng tarqalgan ishqiy dostonidir . Asl manbai- Qur’oni karimdir. Qur’ondagi talqini birmuncha ixcham va badiiy shakllangan . Tavrotdagisi folklorga yaqin va qadimiy Misr afsonalariga borib taqalishi taxmin qilinadi. Sharqda keng tarqalgan dostonning bu varianti Qur’oni karimning “Yusuf” surasi asosida shakllangan. Ushbu qissa Qur’onda “ahsan ul-qisas” [qissalarning eng go‘zali] deya ta’riflangan [4, 167-176].

Dostonning bosh qahramoni Yufus alayhissalom yuqorida keltirilgan komil inson xislatlariga ega bo‘lgan qahramon sanaladi. Birgina Yusufning tug‘ilishiga e’tibor qaratamiz. Asarda Yusufning kelib chiqishi payg‘ambarlar avlodiga borib taqaladi. Qadim ayyomda Nuh payg‘ambarning o‘ninchi avlodi bo‘lmish Ibrohim payg‘ambar dunyoga keldi. Ibrohim payg‘ambarning Sora ismli xotinidan Is’hoq payg‘ambar tug‘ildi.

Is’hoq payg‘ambar tug‘ilganida Ibrohim alayhissalom payg‘ambar yuz yoshda, Sora ona to‘qson yoshda edi. Is’hoq payg‘ambar Yoqub ismli o‘g‘il ko‘rdi, Yoqub payg‘ambar onasining qarindoshlaridan Rohila ismli qizga uylandi . Rohila juda go‘zal, chiroyli ayol edi. Lekin undan farzand bo‘lmadi. Tushkunlikka tushgan Rohila bir xilvat joyga o‘tib Xudodan farzand so‘radi. Bir kuni Rohila tush ko‘radi . Tushida bir oq soqolli, sariq to‘nli nuroniy chol Rohilaga shunday dedi:- Ey Rohila ko‘p hasrat qilaverma, iltijolaring xudoga yetadi. Sen ham farzandli bo‘lasan, sening farzanding barokatli bo‘ladi . Undan payg‘ambar, solih insonlar, mamlakat sultonlari tug‘iladi. Nasli nasabing butun yer yuziga yoyiladi, - deydi. Rohila homilador bo‘ldi va vaqti yetib farzand tug‘ildi. Chaqaloqning husni – jamoli qorong‘u uyni yoritib turardi. Yelkasida payg‘ambarlik muhri bilan tug‘iladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Yusuf payg‘ambarlar avlodidan bo‘lib, halollik, poklik, komillik uning qonida mavjuddir.

Dostonda Yusuf obrazi nafsi-notiqa, ya’ni jilovlangan va orif odamlarning nafsi timsoli sifatida ko‘rsatilgan. Dostondagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega. Yusuf va Ya’qub payg‘ambarning nafsi-jonning moddiy tomonidir. Yusufning birodarlari sa’yi-harakatlari insondagi badaniy quvvatlar – ichki sezgilarning ramzidir. Zulayhoning Yusufga intilishi va unga sevgi-muhabbat izhor qilishi insonda istak-xohishning ma’naviy tomonidir. Yusufning xotindan o‘zining olib qochishi va uning xohish irodasiga ko‘nmasligi aqlning o‘z olamiga ustuvor turishi, hissiyot quli bo‘lmasligining ramzidir. Zulayhoning xohishiga, hissiyotga berilmaganligi dostonda juda ta’sirli va Yusuf tilidan aytilgan hikoya orqali ochib berilgan. Dostonda Zulayho ishq rozini aytib, Yusufning bo‘yniga qo‘l tashlamoqchi bo‘ladi. Shunda Yusuf Zulayhodan tisarilib ey Zulayho, ering menga oilada ish yuritish in’omini berdi . Seni in’omingni bermadi. Andisha bilan ish qilgin, tag‘in yo seni, yo meni boshimga xumbuzda yongan xotinning kuni tushmasin. Zulayho dedi;bayon qil, xotin ne sababdan xumbuzda yongan ekan?

Yusuf dedi; bir savdogarning yakka-yu yagona bir o'g'li bor ekan. Savdogar keksayib qolganligi uchun o'g'liga savdo qilishni o'rgatish maqsadida qo'liga yuz tillo berib, ro'zg'or xarajatini qilib kel, deb bozorga yuboradi.

Bozorning darvozasi oldida bir keksa odam, Bir gap bor, yuz tilloga beraman"-deb o'tiribdi. Yigit yuz tilloni xaligi odam qo'liga beribdi. U esa, Tuz yegan joyinga xiyonat qilma"-debdi.

O'g'il bozordan qaytibdi. Otasi bozor xarajatini so'rasa, o'g'li yuqoridagi voqeani aytibdi. Otasi o'g'lining ishidan rozi bo'lib, sotib olgan gapingga doim rioya qil, debdi. O'g'liga yuz tillo berib yana bozorga yuboribdi. Haligi odam bozor oldida, Bir gapim bor, yuz tilloga sotaman", -deb o'tiribdi. Yigit yana yuz tilloga, "Bug'i chiqib turgan oshni tashlab ketma"-degan gapni sotib olibdi. Otasi o'g'lining ishidan rozi bo'lib, sotib olgan gapingga rioya qil, debdi. Vaqti yetib yigitning otasi vafot etibdi. Yigit yolg'iz qolibdi. Yigitning otasini bir boy do'sti bor ekan. U yigitni uyiga olib kelibdi, tarbiya qila boshlabdi, osh-ovqat beribdi. Yigit juda kelishgan bo'lganligi uchun boyning yosh, chiroyli xotini uni yaxshi ko'rib qolibdi. Yosh xotin eri yo'qligidan foydalanib yigitni uyiga kirgizibdi va u bilan birga bo'lishni talab qilibdi. Yigit, Tuz yegan joyinga xiyonat qilma"-degan gapga amal qilib, xotinning talabiga ko'nmay chiqib ketibdi.

Alamzada bo'lgan xotin eri kelgach, unga yigitdan shikoyat qilib, siz olib kelgan yigit nonko'r ekan meni birga bo'lishga chaqirdi. Dod solgan edim qochib ketdi. Jazolamasangiz bo'lmaydi, -debdi. Boy xumbuz pishiruvchini chaqirib bugun tushda xumbuzga borgan odamni otashxonaga tiqib yubor, -debdi.

Xotin bu gapni eshitib turardi. Xumbuzchi ketgach, boy yigitni chaqirib, tush payti xumbuzchilarni ishlarini ko'rib kelishni buyuribdi. Yigit yo'lda ketayotib bir do'stini ko'rib qolibdi va do'sti uni choyga taklif qilibdi. Choyni ichib yigit turmoqchi bo'lganida do'sti bug'i chiqib turgan tovoqda osh olib kiradi va yigitga taomni birga yeyishni taklif qiladi.

"Bug'i chiqib turgan oshni tashlab ketma"-degan gap yigitning yodiga tushibdi va ovqatlanibdi. Bu payt alamzada bo'lgan xotin yigitning xumbuzda yonganini ko'raman, deb otashxonaga boribdi. Xumbuzchi xotinning dod-voyiga ham qaramay uni otashxonaga tiqib yuboribdi. Shom payti boy yigitni ko'rib hayron qolibdi. U xumbuzchini chaqirib, nega aytganimni bajarmading, - debdi. Xumbuzchi, aytganingizni bajardim, tushda xotiningiz bordi, uni otashxonaga tiqib yubordim, -debdi. Boy g'amgin bo'libdi. Yigitni oldiga chaqirib, xotini bilan bo'lgan voqeani aytib, qanday o'limdan omon qolganini so'rabdi. Yigit boshidan o'tgan voqeani aytib beribdi. Ko'ryapsanmi, sening harakating boyning xotini harakatiga o'xshaydi. Har qanday qabix ishni xudoyim kechirmaydi. Men xudodan qo'rqaman, -debdi Yusuf.

Yusuf ham tuz yegan joyiga xiyonat qilmaydigan, birovning moliga, xotiniga ko'z tikmaydigan inson hisoblanadi. Yusufning vazirlik va taxtga o'tirishi, oliy kamolotga erishishi va o'sha kamolotga aql, sabr-toqat sabab bo'lganligini aniq tasvirlaydi.

Sharqda bu dostonning juda ko'p variantlari mavjud bo'lib, uni qalamga olgan har bir ijodkor asarga biror o'zgarish va yangilik kiritishga harakat qilgan.

Mana shunday ijodkorlardan Abdurahmon Jomiy. Abdurahmon Jomiyning, “Yusuf va Zulayho” asari adabiyotshunoslar talqinicha, taqdirga tan berishga chaqiruvchi asar bo‘lmay, aksincha insonni yuksak tuyg‘ular yo‘lida har qanday kuchlarga qarshi bosib o‘tgan musaffo muhabbat g‘alabasini madh etuvchi jo‘shqin asardir. Bu asarning xalq orasida bunday shuhrat qozonishining sababi shunda ediki, Jomiy bu syujet orqali hayot va inson haqida, insonning turmushdagi o‘rni va burchi haqida o‘zining ajoyib orzu-umidlarini yorqin obrazlarda zo‘r mahorat bilan so‘zlagan edi. Jomiy yaratgan, Yusuf va Zulayho” dostoni insonni ulug‘lash, insonni his-tuyg‘ularini tarannum etish, undagi aziz va muqaddas bo‘lgan muhabbat kechinmalarini madh etishga qaratilgan [2, 357].

Shoir bosh qahramon Yusufning taqdiri va uning hayotga bo‘lgan munosabatini turli vaziyatlarda tasvirlaydi. Yusufning insoniy fazilatlari uning zehni va zakovati odamlarga, o‘z eliga muhabbatida ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Dostonda Yusuf behuda qon to‘kmasdan, aql-idrok bilan mamlakatni boshqaruvchi odil shoh darajasiga ko‘tarilgan. Misr shohi Yusufni ozod qilishni buyurganida Yusuf elchiga shohingdan o‘z qo‘llarini kesgan ayollar nima bo‘lganini so‘ra deydi. Yusuf nafsni yengib, komil inson darajasiga ko‘tarilgani uning naqadar pokiza qalbli inson ekanligini ko‘rsatib turadi. Chunki podshoh tushining ta‘birini so‘raganda: „Agar meni bu zindondan ozod qilsa, aytaman”, - demaydi. Podshoh uni zindondan ozod qilsa ham, u zindonni darhol tark etmaydi va o‘zining begunoh ekanligini isbotlab berishni talab qiladi. O‘zining begunohligini isbotlashda ham o‘zi tuz ichgan yerning hurmatini saqlaydi.

Yusufdagi insonga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlar uning donoligida, xalqparvarligida, xushmuomilaligida, vatanparvarligida hamda otasiga bo‘lgan farzandlik muhabbatida yaqqol seziladi.

Dostonda baxtsizlikdan qutilish uchun chidash, sabr –toqat qilish kerakligi aytiladi. Ayni mana shu sabr Yusufni poklikka, nafsni yengib, butun bir mamlakatni boshqarib, xalqni qahatchilikdan, ochlikdan omon olib chiqadi. Yusuf ocharchilik-yillarida to‘yib ovqat yemas edi. Undan: „Qo‘lingda dunyoning noz-u ne‘matlari bor ekan, nima sababdan och yuribdan?”-deb so‘rganlarida: „Agar to‘q bo‘lsam, ochlarni unutam deb qo‘rqaman”, - der edi. Shu sababli Yusufda insoniy fazilatlarning yorqin namunasi aks ettirib turadi [3, 437].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yurtimizda istiqloqlarning dastlabki yillaridayoq milliy-ma‘naviy merosga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi. Adabiyot tariximizda mustaqil o‘ringa ega bo‘lgan bir qator durdona asarlarimizni yosh avlodga yetkazish imkoni paydo bo‘ldi. Demak, mazkur doston yosh avlodning ma‘naviyatini shakllanishida katta hissa bo‘ldi. Jumladan, asardagi Yusufning sabr-toqatliligi, vatanparvarligi va barcha jamiki fazilatlari yoshlar uchun o‘rnak hisoblanadi. Yusuf [a. s] haqida yaratilgan asarlar shaklan o‘zgarmasligi, barqaror syujetga egaligi bilan xarakterlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev M. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent. O‘qituvchi, 1964-y.
2. Abduraxmon Jomiy. Saylanma. –Toshkent. Adabiyot va san‘at, 1971-y.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent. 2017-y.

## **“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA TALMIH SAN’ATI**

**Shodiya OTANAZAROVA,**  
*UrDU talabasi*

“Talmih she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir.

Shoirilar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko‘pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Tohir va Zuhro ” kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O‘quvchi u yoki bu nomga ishorani ko‘rar ekan, uning ko‘z oldida o‘sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo‘lgan g‘oyani, fikrni, tuyg‘uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o‘quvchi o‘zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg‘ulari, ma’naviy qiyofasini o‘sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi.”

Masalan, quyidagi baytda talmih san’ati qo‘llangan:

Eshittimki, Mahmudi g‘oziyg‘a dahr

Chu jomi hayot ichra hal qildi zahr. [2, 116]

Mahmud – tarixiy shaxs. Mahmud G‘aznaviy ibn Sabuktegin [1030- yilda vafot etgan] – g‘aznaviylar davri hukmdori. Badiiy adabiyotda Mahmudni odil podshoh sifatida talqin etish an’ana aylangan. Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostonida keltirilgan Sulton Sanjar va kampir haqidagi, Navoiyning “Saddi Iskandariy ” asarida Mahmud va Mas’ud [Mahmudning o‘g‘li] hikoyatlari fikrimizga yaxshi dalildir. Shoir bu hikoyatda Mahmud hikoyatiga bog‘liq bir lavha [kampir uyiga bostirib kirgan sarbozlarni jazolashi] orqali uning odil bo‘lganligini alohida ta’kidlaydi.

Tarix – shoir uchun dalil-dastak. Keng qamrovli poetik fikr parvozi uchun maydon. Eng asosiysi, tarixiy muhim voqealarni nazmiy fikrning ko‘tarinki nuqtalarida talmihga jalb qilish shoir ijodiga xos betakror an’ana. Biz quyida shu qabildagi talmihlar haqida kengroq tasavvur hosil qilish uchun ularni aynan keltiramiz:

Eshittimki, Chingiz-u Xorazmshoh,

Adovatqa chun bo‘ldilar kiynaxoh. [2, 256]

Chingizxon [asl nomi Temujin, Temuchin] – mo‘g‘ul feodal imperiyasi asoschisi, sarkarda.

Erur naqlkim, shoh Bahromi Go‘r,

Magar sayd uchun surdi bir kun sutur. [2, 385]

Bahrom Go‘r yoki Varaxran V[shohlik yillari 421-433] – sosoniylardan Yazdijirdning o‘g‘li. Yaman podshohi Nu‘mon va uning o‘g‘li Munzir tarbiyasida o‘sgan. Yazdijird zulmidan bezor bo‘lgan xalq u vafot qilgandan so‘ng Ardasher

naslidan bo‘lgan Kisroni taxtga ko‘taradi. Bu voqeadan xabar topgan Bahrom lashkar tortib Eronga keladi. U otasining xatolarini takrorlamaslik va mamlakatda adolat, tinchlik o‘rnatishga o‘z a’yonlari va xalq oldida qasamyod qiladi. An’anaviy shartga muvofiq ikkita sherni o‘ldirib, ular o‘rtasidagi tojni oladi va podshohlik taxtiga o‘tiradi. Uning sevgan mashg‘uloti go‘r – qulon ovi bo‘lganligi uchun ham u Go‘r laqabini olgan.

Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostonlarida Bahrom Go‘r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni vaqtda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan.

She’riyatimizda Sharqda keng mashhur bo‘lgan muhabbat qissalari, ularning qahramonlari nomlariga ishora qilish ham uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiyning mana shu bayti bunga misol bo‘ladi:

Ko‘z ochib ko‘rar, uyda Layli emish,  
Qaro tunda ravshan Suhayli emish. [2, 227]

Bu baytdan shunday ma’no anglashiladi: “Ko‘z ochib qarasa uyda, xuddi qorong‘u kechada hamma yoqni yoritib turgan Suhayl yulduzidek Layli o‘tirgan ekan”.

Eshittimki, Majnuni sahronavard,  
Ki, boshtin-ayog‘i edi so‘z-u dard. [2, 445]

Majnun va Layli afsonaviy shaxslar bo‘lib, ularning samimiy sevgilari haqida hikoya qiluvchi ko‘p rivoyat, ertak va dostonlar mavjud. Layli va Majnun shoirning shu nomdagi dostonida bosh qahramon sifatida tasvirlangan.

Chiqib Najd uza bo‘ldi nazzoragar,  
Bu nav’ o‘ldi ul holig‘a choragar. [2, 446]

Bu baytda “Najd” so‘zi talmih san’atini yuzaga keltirgan, ya’ni Najd – Arabistondagi tog‘lardan biri. Afsonalarga qaraganda, Majnun ko‘pincha ana shu tog‘ etagida yashagan. Yana bir hikoyatda tarixiy shaxs nomini qo‘llash orqali talmih san’ati yuzaga kelgan:

Dedi nuktapardozi Isonafas –  
Ki: “Gar men haqir ersam, andoqki, xas”. [2, 552]

Birinchi misrada “Isonafas” so‘zi orqali Iso alayhissalomga ishora qilinyapti. Manbalarga ko‘ra, u zot o‘likni tiriltiruvchi payg‘ambar sifatida tilga olinadi.

Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilganda, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodidagi badiiy san’atlar har tomonlama mukammaldir. Jumladan, talmih ham, o‘zining badiiy nafosati bilan xilma-xil ifodalarda berilgan. Biz tahlilga tortgan hikoyatlarda talmih tarixiy shaxs nomlari, tarixiy joy nomlarini qo‘llash orqali yuzaga kelgan. Bu talmihlar hikoyatlarda tasvirlanayotgan shaxs yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, mazkur



talmihlar asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochishga va shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon bergan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiy malohati. –Toshkent. Sharq, 1999.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. –Toshkent. Fan, 1993.

## **HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA OSHIQ OBRAZINING IFODALANISHI**

**Sh. E. KURBANOVA,**

*UrDU“Adabiyotshunoslik” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Ma'lumki, Uyg'onish davrida ilm fan va ijod sohasi keng taraqqiy qildi. Shu davrda nafaqat Yevropada, balki O'rta Osiyo hududida ham ayniqsa ijod sohasi chuqur rivojlanib bordi. Buning natijasida ijodkorlar faoliyati tarixan takomillashib bordi. Ayniqsa, ular tomonidan turli she'r va asarlar yozildi. Xususan, XIV-XV asrlarda yashab, o'zbek tilida ijod qilgan Hofiz Xorazmiy o'zining bilimi, ijodkorlik qobiliyati va yuksak talanti bilan shoir va yozuvchilardan alohida ajralib turuvchi ijodkor hisoblanadi.

Shoirning ijodida obrazlar va ularning ta'siri yuqori darajada tilga olinadi. Bugungi kunda, biz ko'z oldimizda uning iste'dodli va qobiliyatli ijodkor ekanligi hamda o'z zamonasi va ilohiy ish haqida fikr yurituvchi ilg'or bir siymo bo'lib gavdalanadi. Bu avvalo obraz sanalib, uning dunyo, hayot va jamiyatga ijobiy qarashlari natijasidir. Ushbu obrazda shoir o'z davrining ilg'or kishisi va dunyo lazzati haqidagi fikrlarini yorituvchi ijodkor sifatida gavdalanadi.

Shuningdek, Hofiz Xorazmiy lirikasi va ijodining ko'p qismini ishq-muhabbat mavzusi va oshiq va ma'shuqa obrazlari tashkil qiladi. Bevosita bular orqali har bir kishining tabiiy tuyg'usi va sevgi haqidagi qimmatli fikrlari shoirning o'z davri uchun muhim masala bo'lib hisoblanadi.

Hofiz Xorazmiy lirikasining bir qismini ilohiy ishq-muhabbat masalasi egallaydi. Quyidagi u tomonidan yozilgan she'riy parchada bu obraz yaqqol ko'rinadi:

*Dardlik oshiqi bechora sahar oh qilur,  
Ya'ni holidin o'shul shohni ogoh qilur.  
Arshning uzra qilur roh bu oshiq ohi,  
Man'i oshiq tak o'shul zohidi beroh qilur.*

Mazkur g'azalda oshiq ilohiy obrazida shoirning qarashlari turli jihatlarida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi diniy-falsafiy inson tuyg'usini hurmat qilish yo'sinida aniq ko'rinadi va izchil rivojlanadi.

Ayniqsa, barcha millat va elatlardagi barcha ijtimoiy qatlamlarga xos muhabbat tuyg'ularini kuylash Sharq adabiyoti va o'zbek adabiyotida an'ana bo'lib, shoir bunga alohida e'tibor bergan. Asosan, uning qalamida sevgi haqida misralar, oshiq va ma'shuqa masalasi oldingi qatorlarda kelgan.

Darhaqiqat, Hofiz Xorazmiy o‘z ijodida oshiq va ma’shuqa ko‘ngli va didiga yoqqan kishi bilan birga hayot kechirishni ulug‘lagan hamda shu kishi bilan hayotda o‘z maqsadi uchun birga kurashishni orzu ham qiladi. Jumladan, quyidagi she’rida bu masala yorqin ifodalanadi:

*Bu jondin kechgil, ey oshiq, taqi jononani izda,  
Garav qilmoq uchun tan xirqasin mayxonani izda.  
Sharobinishq birla to‘ludur paymonavu sog‘ar,  
O‘shandin xoli ermas sog‘aru paymonani izda.  
Bu oqillarning iligindin topulmasa kushodi dil,  
Bo‘lub qallosh oshiqlar aro devonani izda.  
Chaqib oshiqlari saf-saf kelur maydoni ishq ichra,  
Bu muncha saf aro jonboz o‘shul mardonani izda.  
Havodis bahrining ichra agarchi g‘arqa bo‘lubsan,  
Sadaflarning arosinda durri yakdonani izda.  
Sharobi nob la‘linga qachon tolib bo‘lur bo‘lsang,  
Qaro kofur ko‘zindin g‘amzai fattonani izda.  
Munungtak sham‘ jon yuzi ko‘runadur ekan ravshan,  
Muhabbat o‘tina o‘rtanmagan parvonani izda.  
Manim holimga bovar qilmasang ul zulfi dirhamdin,  
Ko‘ngulini shox bo‘lmag‘osan, bu g‘amdin shonani izda.  
Fusun birla fasona ul pariypaykar uchun Hofiz,  
O‘qir har lahza ul afsun bila afsonani izda.*

Ko‘p she’rlaridan ma’lumki, Hofiz Xorazmiy tasvirlangan oshiq obrazi dunyodagi barcha lazzat, hayot, inson go‘zalligi va o‘z yorini sevganligi ko‘rinadi. Chunki, uning she’riy obrazidagi inson ummon kabiy sevgiga butun borlig‘i bilan sho‘ng‘igan, nozik yurak to‘lqinlarini chuqur sezadigan va ilohiy tuyg‘ularni oshiqona anglaydigan jonli odamdir. Shunisi muhimki, sodda tilda g‘azallar yaratishda Hofizni Navoiygacha bo‘lgan benazir liriklardan desa, arziydi.

*Oshiq o‘lmag‘an kishi oqil emas, devonadur,  
Sham‘ qoshinda bu so‘zni bilgan ul parvonadur.  
Yordin so‘zla, manim qoshimda gar so‘zlar esang,  
Laylo so‘zindin o‘ngin Majnung‘a chun afsonadur.*

Mazkur keltirilgan satrlarda shoir-oshiqning muhabbatga munosabati juda aniq ifodalangan. Ya’ni, muhabbat shu qadar ulug‘ va muqaddas narsaki, bunga intilgan, bu yo‘lda o‘z maqsadiga erishmoqni istagan inson devonadir ya’ni Majnun qismatga duchor bo‘lish mumkinligini aytib o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, Hofiz Xorazmiy poeziya tilining badiiyligiga alohida e’tibor beradi. Hofiz Xorazmiy ijodi mazmunli, keng va o‘ziga xos ajoyib mahorat namunalariga boy. Uning ijodini o‘rganish barcha adabiyotshunoslarni o‘ziga tortadi. Chunki, unda oshiq ruhidagi barcha tuyg‘lar yorqin ifoda qilingan. Oshiq obrazining maqsadga erishishga ishonchi, optimistik harakteri uning o‘z yori bilan uchrashgandagi xursandligi va xushvaqtligi ifodasida yaqqol ko‘rinadi. Bular Hofiz Xorazmiy qalamida xalq tiliga suyangan holda, jumalarning sodda, ravon, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishiga harakat qiladi. Buning uchun, ijodkor o‘z

faoliyatida xalq iboralari va maqollarini mohirona qoʻllaydi va oʻz misralarini hikmatli soʻzlar shaklida keltirib oʻtadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Sulaymonov H. Oʻzbek shoiri Hofiz Xorazmiy va uning Haydaroboddan topilgan devoni. – T.: Adabiy meros, 1976.
2. I. Haqqul. Gazal gulshani. – T.: Fan, 1991.
3. <https://saviya.uz/mavzu/hofiz-xorazmiy/>

### **QISSALAR TAHLILI OSTIDAGI HAQIQAT**

**Rahmatjon TOʻRAQULOV,**

*GulDU Adabiyotshunoslik yoʻnalishi magistranti*

Alloh taolo bandalarini yer uzra taratib qoʻygandan soʻng ularni toʻgʻri yoʻlga yoʻllab, haq manhajni koʻrsatib qoʻydi. Bandalariga oʻzlaridan boʻlgan paygʻambarlar yuborib ular orqali oʻzini tanitdi. Ikki dunyo saodatini koʻrsatdi. Muqadas islom dinida paygʻambarlar alayhimussalomlarni hurmat qilish, ularga nisbatan muhabbatlik boʻlish hamono ularning ibratga boy hayotlaridan oʻrnak olish targʻib qilinadi. “Islom paygʻambarlarga iymon keltirishni islomiy aqidaning arkonlaridan biri qilib qoʻydi. Musulmonlar shu bois paygʻambarlarning barchasiga iymon keltiradilar, ularga ehtirom koʻrsatadilar” [6: 67].

Idris alayhissalom Qurʻoni Karimda ismlari zikr etilgan, sifatlari taʼriflangan, Janobi paygʻambarimiz sallolohu alayhi vasallamning hadisi shariflarida ahvolotlari bayon etilgan moʻtabar paygʻambar-nabiyullohdur.

Idris alayhissalom siymosi islomdan oldin ham ancha mashhur boʻlib, yahudiy dinida ayricha tasavvurotlar, diniy qarash va eʼtiqodlar mavjud boʻlgan. Idris alayhissalom haqida Eski ahd, Oʻlik dengiz topilmalaridan boʻlmish Kitobi Axnux, Talmud kabi bir qator yahudiylar diniy kitoblarida Idris alayhissalom tarjimai hollari haqida boy tasavvurotlar uchraydi.

Idris alayhissalom haqida Qurʻoni Karimning Maryam va Anbiyo suralarida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Va kitobda Idrisni esla. Albattda, u siddiq va Nabiy boʻlgan edi. Va uni oliy maqomga koʻtardik” [1: 45], “Va Ismoil, Idris va Zul-kiflni esla. Ularning har biri sabr qiluvchilardandir” [1: 47]. Yuqoridagi oyatlarda Idris alayhissalomning sohibi risolat boʻlganliklari hamda u zotdab musulmonlar uchun oʻrnak boʻladigan ikki ulugʻ fazilat-xislat: sidq va sabr mujassam ekanligi anglashiniladi. Idris alayhissalom Hazrati Odamning vorisi boʻlmish Shis alayhissalomdan keyingi, Toʻfondan avvalgi davrda yashab bani basharni ilohiy maʼrifatga, ziyoga haqqa daʼvat etgan zot sifatida tafsir va paygʻambarlar siyrati haqidagi kitoblarda taʼrif etiladi. Ibn Kasir rahmatullohi alayh “Al-bidoya van-nihoya” nomli asarida Idris alayhissalomni birinchilardan boʻlib qalam bilan yozganliklari, birinchi tikuvchi boʻlganliklari xususida turli darajadagi paygʻambarimiz Muhammad alayhissalomdan rivoyat qilingan hadislar keltiriladiki, bular bu zotning shaxsiyatlarini bilishda maʼlum darajada ahamiyat kasb etmasdan qolmaydi. Xususan kitobning bir oʻrnida Idris alayhissalomning

sifatlari haqida shunday ma'lumotlarni keltirsa : “Idris alayhissalom Alloh taolo o‘z kitobida maqtagan, nubuvvat va siddiqlik sifatleri ila ta’riflagan mo‘tabar payg‘ambar Hnux bo‘ladilar. Nasabda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bosh bo‘g‘inlarida turadilar”[2: 54], boshqa bir o‘rinda vafotleri haqida bayon etib, Qur‘onning Maryam surasidagi yuqoridagi (“Va uni oliy maqomga ko‘tardik”) oyatni tafsir qilib, “Alloh taoloning “Va uni oliy maqomga ko‘tardik” kalomi tafsiri ikki sahih manbada keltirilgan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Isro voqeasi bayoni haqidagi hadislariga muvofiq (Rasululloh ushbu hadisda 4-qat osmonda Idris alayhissalomni ko‘rganliklarini aytadilar) Idris alayhissalom 4-qat osmondadirlar”[2: 56] degan ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. Mashhur musulmon mufassir olimi, muarrix alloma Muhammad Jarrir Tabariy o‘zining “Tarix ul-umam val-muluk” asarida esa Ibn Kasirdan farqli o‘laroq shunday malumotlarni bayon qiladi: “Ismlari Xnux bin Yard bin Mahloiy bin Qiyon bin Anush bin Shis bin Odam...Uni Idris deb atashlariga sabab, u birinchi bo‘lib odamlarga maktubot qilingan vahiydan dars berardi...Ibn Is‘hoqning bayon qilishicha Idris alayhissalom nubuvvat ato etilgan birinchi nabiydirlar.

Abu Zar (roziallohu anhu) Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan “Payg‘ambarlardan to‘rttasi suryoniylardandir: Odam, Shis, Axnux ya’ni Idris va Nuhdir”[3: 46]. Zamonasining mashhur muarrix olimlaridan biri hisoblangan doktor Afif Abdulfattoh Tabbora “Ma‘al anbiyo fil Qur‘on il-Karim” asarida yuqoridagi ma‘lumotlarni jamlab shunday yozadi: “Qur‘on Idris alayhissalomni sabr, sidq va oliy maqom sifatleri ila tavsiflaydi. Ulamolarning yakdil xulosasiga ko‘ra, Idris alayhissalomga Jabroil farishta kufr va zalolatga botgan Qobil naslini hidoyatga boshlash, Allohga tavba qilib, shariatni mahkam ushlashleri haqida vahiy keltiradi. Qur‘onda u zotning hayoti va ta‘limoti haqida mufassil ma‘lumot keltirilmagan... Ba‘zi toifalar aytadiki, Idris alayhissalom Bobilda tug‘ilgan va shu yerda yashagan. U umrining avvalida bobokaloni bo‘lgan Shis bin Odam alayhissalomdan ta‘lim olgan. U zot ulg‘aygach Alloh taolo unga nubuvvat yuboradi, Idris alayhissalom Odam avlodlarini Shis va Odam alayhissalom shariyatlariga muvofiq yashashni, buzg‘unchilik va fasod qilishlikdan qaytarishni amr etadi. Odamlardan ozchilik unga ergashadi. Ko‘pchilik dushman bo‘ladi. O‘zlariga ergashganlar bilan Misr tomon yo‘l oladilar”[6: 67].

Shavqiy Abu Xalil Idris alayhissamon “Atlas ul-Qur‘on”da Idris alayhissalomning faoliyatleri xaritasini shunday ko‘rsatadi:



[7:18].

Musulmon diyorlarida paygʻambarlar haqidagi qissalar voqealarning ilohiy maʼrifatga yoʻgrilganligi va ibratga boyligi, odamlar uchun turli umr soʻqmoqlarida chiroyli manhaj-oʻrnak boʻlishi bilan xarakterlangan. Shu sababdan bu oʻlkalarda paygʻambarlar hayoti haqidagi kitoblar ancha taraqqiy etgan. Deyarli barcha musulmon xalqlarida ayni mavzudagi manbalar talaygina topiladi. Turkiy xalqlar, xususan, oʻzbek adabiyotida paygʻambarlar siyratini yoritgan dastlabki moʻtabar manba sifatida Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziy qalamiga mansub “Qisasi Rabgʻuziy” asari koʻriladi. Bu manba oʻzida oʻzgacha badiiylikni mujassam etgani uchun turkiy musulmon xalqlari orasida juda mashhur va koʻp nusxalarga egadir. Asarning sahiih matnini topish va uni hozirgi tilimizga tabdil qilish, birinchi oʻrinda, keng kitobxonlar ommasini hazrat paygʻambarlar hayoti bilan yaxshiroq tanishishga, shuningdek, milliy madaniyatimizning qadim sarchashmasi boʻlgan muborak asar haqida ularda tushuncha hosil qilishga turtki boʻladi.

Rabgʻuziy qissalarida paygʻambarlar hayoti, oʻzgacha yoʻsinda tarixiylik tamoyili muvofiq keltirilgani hamon, badiiy va ixcham bayon etilgan. Bu holatni biz yuqorida siyratlari bilan tanishib chiqqan Idris alayhissalom qissasida ham koʻrishimiz mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, ayni asarning bir nechta nusxalarida Idris alayhissalom haqidagi qissaning voqealar rivoji, matniy xususiyatlari turlicha holatdadir. Chunonchi, ilmiy tadqiqotimiz ostiga olingan Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan XV asrga oid qoʻlyozma nusxa asosida E.Fozilov, A.Yunusov va H.Dadaboyevlar noshirligida nashrga tayyorlangan 1990-yilgi nusxa (A), rus turkshunosi Ilyuminskiy tomonidan Qozon shahrida 1881-yili nashr qilingan arab yozuvidagi toshboshma nashr (B) va Baxtiyor Abdushukurov tomonidan 2014-yilda nashr ettirilgan “Qisasi Rabgʻuziy”ning hozirgi oʻzbek tilidagi tabdil nusxasi (C) matnlari Idris alayhissalom qissasi doirasida nashrlararo taqqoslanganda nusxalar matnlari aro tafovutli holat koʻzga koʻrinadi.

Qissa C nusxada uchramaydi. Bunga sabab ayni nusxa tabdiliga asos sifatida olingan manbada ushbu qissaning keltirilmaganligidir. A va B nusxalarda uchrasada, qissalarning mazmunii va matniy xususiyatlari tafovutlidir. Qissalarning kirish qismi deyarli barcha manbalarda Idris alayhissalom madhi va taʼrifi bilan boshlanadi. B nusxada bu qism biroz chalkash, imloviy xatolarga boy. Bu narsa A nusxa bilan solishtirilganda yaqqol namoyon boʻladi. Kirish qism A nusxada quyidagicha: “ Idris paygʻambar alayhissalom ul **umri** ukush, diydori **kushish**, Azroilgʻa **qotishgʻan**, rizvon birla yanashgʻan, dunyodin qushtek uchgʻan, tamugʻgʻa kirib chiqqʻan, Sirot din yashintek kechgan, uchmoh qabugʻin ochgʻan, oʻzi aziz *innahu kona siddiqan nabiyyan va rafaʻnahu makonan aliyyan* , oʻrni adiz, arigʻ zotligʻ Axnuh otligʻ Idris yalavocho.

Aytayin Idris yalavocho soʻzlarin,  
Oqil eran aql-u hush birla **aningkim** tinglayur.  
**Ilm** ortuq olim erdi ibodatda **soniy**,  
Fazli birla uluv olim ilmni **kez anglayur**.  
Ilm-u fazl-u zuhd-u judi-yu **dars-u** amal,

Toating‘a barcha olam bil muni-yu **kez tinglayur**.

O‘zi bilg‘an ilmini **hech kim** ersa bilmadi,

**Ko‘p** ibodat qilg‘anin teb xaloyiq tinglayur.

O‘ldi, tirildi, tamug‘g‘a kirdi, chiqdi **ul** yana,

**Ushumoqqa** kirdi, qoldi **bir** kun anda, **monglayur**.

Oti Ahnux erdi, o‘kush dars qilmish uchun atandi [8:36].

B nusxada esa quyidagicha keltirilgan: “Ul **amali** o‘kush, diydori **kusush**, Azroil bilan **tobishg‘on**, dunyodin qushdek uchg‘on, tamug‘g‘a kirib chiqg‘on, sirot **ko‘prukin** kechkan, uchmox **eshikin** ochg‘on o‘zi aziz (Innahu kaana siddiqon nabiiyan), o‘rni **abiz** (Va rofa’naahu makanan aliyyan) arig‘ zotlig‘, yaxshi otlig‘ Idris **payg‘ambar salovatullohi alayhi va salomuh**. Nazm:

Aytayin Idris payg‘ambar so‘zlarini **biltiyur**,

Oqil eran aql-u hushi birla **oni** tinglayur.

Amali ortuq olim edi ham ibodatg‘a beniz,

Fazli birla uluvvi olam ilmini **kas tinglayur**.

Fazl-u ilm-u zuhd-u jud-u dars-u **tadrisi amal**,

Toatig‘a **jumla olam toatin Haq tonglayur**.

O‘zi bilkan ilmni **hargiz kim** ersa bilmadi,

**Ham ibodat qilg‘onini ikki olam tonglayur**.

O‘ldi tirildi tamug‘g‘a kirdi chiqdi yano,

**Uchmox** ichra kirdi qoldi **bukun** onda **teklayur**.

Oti **Axnux** erdi **oning beshki dars oyg‘an uchun Idris otandi** [9:37].

Yuqoridagi ikki iqtibosdan shu narsa ayon bo‘ladiki, A nusxada matniy xato va kamchiliklar B nusxadan ko‘p. Ayrimlari matn mazmuniga jiddiy putur yetkazadi. Chunonchi, “diydori kushish”, “Azroilg‘a qotishg‘an”, “monglayur” kabi so‘z va so‘z birikmalari mavhum ma’no ifodalamoqda. Ammo A nusxa tili B nusxaniki dan qadimiy. B nusxa birmuncha keyin nashr qilingani bois tili hozirgi tilimizga ancha muvofiq, shu bilan birgalikda matniy-mazmuniy xususiyatlari yaxshi ahvolda. B nusxada Idris alayhissalom ismlarining qo‘yilish sababi keltirilgan: “Oti Axnux erdi oning beshki dars oyg‘an uchun Idris otandi”. Ammo A nusxada ushbu qism chala ifodalangan: “Oti Ahnux erdi, o‘kush dars qilmish uchun atandi”. Idris alayhissalomning Idris deya nomlanishlarini olimlar arabcha “darasa” fe‘lidan olingan bo‘lib, ko‘p dars qilganlari uchun Idris atalganlarini aytishadi. “Idris ismi arabiy nom bo‘lib, Tavrotida kelgan nom asosida yasalgan hosila o‘laroq arabiy dars otiga radifdoshdir. Shu jihatdan Idris nomi “dars beruvchi”, “donishmand”, “boshqalarga dars beruvchi”, “ilm o‘rgatuvchi” ma’nolarini beradi” [11:45].

Rabg‘uziy keltirgan ayni ma’lumotlar yuzasidan tadqiq olib borish natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, sharq allomalari Idris alayhissalom ismlari ta’vilida ham turli mulohazalarni bayon etishgan: “Al-Quftiy: “Bu ism yunonchadan Tirmis bo‘ladi” desa, Al-Qazviniy: “Uni (Idris alayhissalom) ismi sharifi Hnux bin Yard bin Mahloyil bin Anush bin Shis bin Odam alayhissalomdir deb ta’kidlaydi. Ibn Al-Asir “Uni Hirmis al-Hakim deb atashadilar”, desa, Ibn al-Ibriy: “Qadimgi yunonlar Hnux bu Hermisdir deb da’vo qiladilar va unga Trimijistus deb laqab

berganlar. Bu laqab uch narsaning talimini beruvchi degan ma'noni beradi. Zero Boriy taolo uning zotida uch sifatni zohir etgandi. Bular: vujud, hikmat va hayot. Bu nomni arablar Idris(alayhissalom) deb ataydilar"[4:85]. Tarixchi Ibn al-Ibriy sobiiylar Idris alayhissalom ismlari aslida Hermis deb bilganliklari bois Hermis ismiga nisbat beriluvchi tarixiy shaxslar uchta bo'lganligini kitobida yozadi va ularga shunday izoh beradi:

1. **Yuqori Misrda yashagan Hermis.** Bu birinchi bo'lib hikmat durdonalarini so'zlagan hakim. U odamlarni To'fondan hamda zamonasidagi ilmlarning yo'qolib ketishidan ogohlantirgan. Ehromlarning bunyodkori, ulardagi sanoat va ashyolar suratini chizuvchisi, ularga turli fanlardan namunalarni o'zidan keyingilarga yodgorlik o'laroq qolishini xohlab o'ydirib yozdirgan rassom;

2. **Hermis al-Bobiliy.** Kaldoniyn shaharlaridan bo'lgan Kaluzoda To'fondan keying davrda yashagan va Bobil shahrini Namrud bin Kushdan keyin qayta tiklagan bunyodkori;

3. **Hermis al-Misriy.** Trimijistus deb laqab berilgan hakim[5:11].

Eronning sobiq "Majlisi sho'royi islomiy" kutubxonasida № 18115 raqamli "Qisas ul-anbiyo" nomi ostida Rabg'uziyga tegishli bo'lgan asarning XIX asrga oid Xorazmda ko'chirilgan qo'lyozma manbaning nusxasi mavjud bo'lib, unda tahlilga olgan qissamizning matni boshqa manbalardan farqli o'laroq yuqorida mulohazalari keltirilgan olimlarning tadqiqotlariga hamohangdir: "Hazrati Idris alayhissalom Misr mamlakatida erdilar. Malq degan kentda erdilar. Payg'ambari suryoniy erdilar. Arablar Hermis der erdilar. Hermis degani "yulduz", "yulduzنامو", "yulduzni uydurgan" degani bo'lur. Yulduzlarning makonini, yurishini, erkak, tishisini bilurlar erdilar. Nazm:

Aytayin Idris payg'ambar so'zlarin roviy ayur,  
Oqil er aqli o'kush hushi birla oni tinglayur.  
Ilmi ortuq olim erdi, ham ibodatda basir,  
Fazli birla uluvvi olam ilmiga ne tenglayur.  
Fazl-u ilm-u zuhd-u jud-u darsi ilm ham amal,  
Toatiga barcha olam toatinkim tenglayur.  
O'zi bilgan ilmni hargis kim ersa bilmadi,  
Ko'p ibodat qilg'anin ko'p xaloyiq tinglayur.  
O'ldi, tirildi, tamug'ga kirdi, chiqdi ul yana,  
Uchmoh ichra kirdi, qoldi bir kun anda monglayur.

**Hikoyat.** Andog' keltururlarkim, avval kishiki xat biturdi, ilmi ruqumni bildi bular erdilar. Ul boisdan Idris atandilar. Uchinchi payg'ambar erdilar. Ilmi hikmat bobida martabada erdilar. O'n martaba xislatlari bor erdi. Avval, uki payg'ambari mursal erdilar. Ikinchi, o'ttuz sahfa xat nozil bo'lgan erdi. Uchinchi, munajjim erdilar. To'rtinchi, avval xat bituvchi o'zlari erdilar. Beshinchi, darziy erdilar. Oltinchi, harbgga shamshir, xanjar, nayza, miltiq, pichoq nimarsani o'rgatgan erdilar. Yettinchi, islom, tavhid, sunnat, vojibni bular bayon qildilar. Sakkizinchi, kofirlarning bolalarini asir qilmoq ulardin qoldi. O'ninchi, osmonga chiqib, jannati bihishtda makon qilmoqlari. Balki hama xalq o'lsa ham, ular bihishtda tirik yuradirlar. Payg'ambarliqlari Hazrati Shisga o'xshar erdi"[10: ]. Bu



manbadagi ma'lumotlarning ko'pchiligi boshqalarida uchramaydi. Lekin musulmon olimlarining ma'lumotlariga juda muvofiq. Shu bois ayni manba nisbatan keyinroq yozilgani inobatga olinsa, kotibning o'zi ko'p o'zgartirishlar kiritgan va boshqa manbalardan olib, bunda daxl qilgani oydinlashadi.

“Qisasi Rabg‘uziy” ning muallifi ushbu qissada ham, avvalo, Qur’oni Karim va hadisi sharifga, qolaversa, o‘zidan avval bu sohada yozilgan Ibn Kasirning “Al-bidoya van-nihoya”, Muhammad Jarir Tabariyning “Tarixur-rusul val-muluk” kabi mo‘tabar tarix kitoblariga murojaat qilishi va ulardan o‘z asarida foydalangan bo‘lishi ehtimoli yuqori. Bunga bir misol, asarning kirish qismida Idris alayhissalomning kasblari haqida gap ketadi: “Aymishlar avval ko‘ylak tikib kiygan Idris erdi, har bir ignaga bir tasbih aytur erdi”[9:37]. Ayni ma‘lumotga o‘xshash ma‘lumotni doktor Hudo Darvesh Idris alayhissalomning kasblari xususida yozarkan Ibn Kasirning tafsiridan shunday ma‘lumotlar mavjudligini bayon etib, uni o‘z kitobida keltirib o‘tadi: “Ibn Abbosdan shunday rivoyat qilinadi: “Idris alayhissalom tikuvchi edilar. Har ignani “Subhanalloh” demasdan urmasdilar. Ishni shu taqlid bajarardilar. Yerda bu amaldanda afzal amal yo‘q”[4:].

Rabg‘uziyning asaridagi ayni qissa voqeligini shartli ravishda 4 qismga bo‘lish mumkin. Bular:

1. Idris alayhissalomning sifatleri keltirilgan kirish qismi;
2. Idris alayhissalomning ubudiyatlari ta‘rifi va ularning toatlariga havasmand farishtaning u zot ziyoratiga kelganda ular o‘rtasidagi voqealar.
3. Idris alayhissalom va Azroil alayhissalomning suhbatlari ifoda etilgan voqea;
4. Horut va Morut voqeasi.

Qissaning birinchi qismidagi ma‘lumotlar Qur’oni Karim va hadisi sharifdagi ma‘lumotlarga muvofiq keladi. Qur’oni Karimning 2 o‘rnida Idris alayhissalom nomlari keltirilgan bo‘lib, har ikki o‘rinda ham u zotning yetuk fazilatleri ta‘rif etiladi. “Abu Zar G‘ifroniydan shunday rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam menga aytdilar: “Ey, Abu Zar, rasullardan 4 tasi suryoniydirlar: Odam, Shis, Nuh va Axnux. Shuningdek, Axnux (Idris alayhissalom) birinchi bo‘lib qalamda yozgan va Alloh taolo unga o‘ttiz sahifani tushirgan. Bunga asos Alloh taoloning ushbu kalomidir: “Albatta, bu avvalgi sahifalarda bordir. Ibrohim va Muso sahifalaridadir” (A’lo,18-19). Avvalgi sahifalardan murod, Ibni Odam Hibatulloh va Idris alayhimussalomlarga tushirilgan sahifalardir” [12: 259].

Idris alayhissalomning taqvo-yu toatlariga havasmand farishtaning u zot ziyoratiga tushgan va u zot bilan suhbat qurganligi haqidagi voqea A va B nusxalar matnida ayri-ayri tafovut hosil qilgan. Chunonchi Qozon nashrida voqea rivoji quyidagicha: “**(Farishta) Idris alayhissalomg‘a aydi:** Bu kun yozig‘a chiqaling. **Ko‘nglumiz ochilsun**” tedi. **Idris alayhissalom qabul qildi, yozig‘a chiqtilar. Bir polizg‘a yettilar.** Farishta aydi “Bu qovundin olib yegil” tedi. Idris alayhissalom aydi “Subhanalloh, halol taomg‘a indadim yemading, emdi haromg‘a meni nechuk **indarsen**”. **Ondin o‘ttilar, bir bog‘g‘a kirdilar.** Farishta aydi “**Bu mevalardin yeng**”. Idris alayhissalom **avvalg‘i javobni berdi.** Ondin o‘ttilar bir suruk qo‘yg‘a yettilar. Farishta aydi “**Cho‘pondin qo‘y oling**”. Idris alayhissalom



**yana avvalg'i javobni berdi.** Idris alayhissalom bildikim, **o'zini sinayur**" [9:37]. Ayni holat 1990-yilda London nusxasi asosida nashr qilingan nusxada quyidagicha: "Idris aydi: "Yo'zig'a chiqaling, ko'nglung ochilsun", teb, **Ichkaru chiqdilar, bir ekin tikdilar.** Farishta aydi: "Bu ekindin yegaling". "Subhanollohi, halolg'a kel tedim kelmading. Haromg'a mani naluk o'qirsan". Andin kechtilar. Bir bo'rloq ko'rdilar. Farishta aydi: "Uzum olib yesamiz bo'lg'aymu?" Idris uzoqi javobni aydi. Andin kechti, bir suruk qo'yg'a keldilar. Farishta boyaqi so'zni so'zladi. Idris andag'uj javob aydi. Idris bildi odam ermas" [8: 37].

Ushbu iqtiboslardan bilinadiki, A nusxa B nusxadan anchayin mazmunan va matnan sahih holatda. B nusxa garchiki, qadimiyroq bo'lsa-da, matniy chalkashliklar va xato-kamchiliklar bilan to'lib toshgan. Shuningdek, o'quvchi o'qiganda ha deganda matn mazmunini anglab ololmaydi. London nusxasidagi bunday kamchililar xususida Niderlandiyadagi Iogan Gutenberg nomidagi Mayns universiteti professori Hendrik Boyoshen shunday yozadi: "Britaniya muzeyidagi qo'lyozma nusxasiga tayanib, boshqa qo'lyozma nusxalar xususida aniq bir fikr aytish mushkul. Zotan Londondagi ushbu qo'lyozma nusxaning o'zi xattot tomonidan, zamonaviy qilib aytganda, kitob do'konida sotish uchun ko'chirilgan" [13: 43].

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, "Qisasi Rabg'uziy" ning hozirgi tilimizga tabdil qilish jarayoni anchayin murakkab jarayon bo'lib, bunda birgina nusxaga tayanib qolish asarning to'laqonli mazmun-mohiyatini ochib beraolmaydi. Asarning bir nechta nusxalari solishtirilib asl matnni tiklash va u asosida tabdil jarayonini amalga oshirish matnshunoslik ilmining ushbu kundagi dolzarb masalalaridandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Imoduddin Abulfido Ismoil ibn Umar ibn Kasir. Al-bidoya van-nihoya. – Bayrut. 2015.
2. Hudo Darvesh. Nabiyulloh Idris alayhissalom bayna misriyyatil qadimiyyati val-yahudiyyati val-Islam. – Qohira. 2010.
3. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix al-umam val-muluk. – Isfahon. 2009.
4. Afif Abdulfattoh Tabbora. Ma'al anbiyo fil Qur'onil Karim. – Bayrut. Dor ul-ilmiiyya. 1980.
5. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Nashrga tayyorlovchi: E. Fozilov, H. Dadaboyev, A. Yunusov. – Toshkent. 1990.
6. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisas ul-anbiyo. Toshbosma. – Qozon. 1881.
7. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Qo'lyozma. – Eron. Majlisi sho'royi islomi kitobxonasi. Qo'lyozma. 1810.
8. Ibn al-Ibriy. Tarixi muxtasar ud-duval. Dor ur-Roid al-Lubnoniy. – Lubnon. 1994.
9. Henrik Boyoshen, ingliz tilidan Gulhayo Mahamadaliyeva tarjimasini. "Qisasi Rabg'uziy" ning nusxalari taqqoslansa. //Yoshlik jurnli, 2018- yil, 8-son

## NAVOIY SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

Azamat FAYZULLAYEV,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi*

Ulug' shoir, mutafakkir, davlat va jamiyat arbobi, shoir va tarjimon Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, g'azal mulking sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodi o'zining rang-barangligi, unda ilgari surilgan g'oyalarning davlat ishlari, tasavvufiy masalalar, aqoid ilmi, ilohiy ishq masalalari kabi juda keng qamrovli sohalarni o'z ichiga olganligi bilan eng yuksak o'rinda turuvchi she'riyat hisoblanadi. Alisher Navoiy madrasalardagi talabalik-yillarida ham, davlatdagi yuksak mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritgan davrlarida ham badiiy ijod qilishdan to'xtamagan. Umri davomida 40 dan ziyod madaniy-ma'rifiy, diniy, tasavvufiy, tarixiy, didaktik, siyosiy mavzulardagi asarlar yaratgan. "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya", "Nasoyim ul-muhabbat", "Mezon ul-avzon", "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Tarixi muluki ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Xamsat ul-mutaxayyirin", "Lison ut-tayr", "Arba'in", "Vaqfiya" va boshqa shu kabi ko'plab asarlar shular jumlasidandir.

Navoiy she'riyati ham mavzularning dolzarbligi, hamma zamon va makon uchun birdek ahamiyatli ekanligi, she'rlarda mahorat bilan qo'llanilgan badiiy san'atlarning ko'plab uchrashi bilan o'z davridagi ijodkorlar she'riyatidan farqlanadi.

Besutung'akim sutun Farhod bo'ldi, kofi ishq

Ul sutunni Besutun ostidag'i "nun" qildilo. [1]

Ushbu baytda shoir talmeh, kitobat va tazod badiiy san'atlarini qo'llagan. Talmeh san'ati baytda biror afsonaviy yoki tarixiy shaxs hamda joy nomlarini ishlatish demakdir. [4] Baytdagi "Farhod" Navoiyning "Farhod va Shirin" asaridagi asosiy qahramon, komillikka erishgan inson timsoli, "Besutun" esa shu dostonida Farhod qazigan tog'ning nomi. Besutun tog'i Eronda joylashgan bo'lib, "ustunsiz", "tayanchga ega emas" degan ma'nolarni anglatadi. Bunda "sutun" so'zi "Besutun" بيستون so'ziga nisbatan qarama-qarshi ma'noga ega ekanligi tufayli tazod san'ati qo'llanilgan deyish mumkin. Baytning ikkinchi misrasida arab alifbosidagi "nun" ن harfini ishlatish orqali kitobat san'ati hosil qilingan. Baytdagi umumiy ma'no shundan iboratki, Besutun tog'iga Farhod o'z vujudiga tug'ilganidan boshlab singib ketgan ilohiy ishq orqali ustun bo'lganligi ta'kidlanmoqda va bu ustunlik "Besutun" so'zining oxiridagi "nun" harfiga qiyoslanmoqda.

Va'dayi vasl etsa ul Shirin sanam, g'am tog'ini

Qozg'amen tirnog'larimni teshayi Farhod etib. [2]

Ushbu baytda talmeh bilan birgalikda mubolag'a (giperbola) san'ati ham qo'llanilgan. "Shirin" va "Farhod" so'zlari baytda talmehni vujudga keltirgan bo'lsa, lirik qahramonning g'am tog'ini o'z tirnoqlari (ularni Farhodning teshasiga aylantirgan holda!) yordamida parchalashi mubolag'ani yuzaga keltirgan.

Quyosh damin ola olmay, kirib qaro yerga,

Yiqildi, husnda go‘yo yuzung bila taloshib. [2]

Ushbu baytda Navoiy husni ta‘lil san‘atidan ustalik bilan foydalangan. Husni ta‘lil badiiy san‘ati chiroyli dalillash degan ma‘noni anglatadi va baytda yor husnu-jamolini ta‘riflashda tabiatdagi jarayonlardan birini unga qiyoslash orqali shakllantiriladi. [4] Bu baytda quyoshning botishi jarayoni go‘yoki yor jamoli oldida quyosh ham uyalib qaro yerga kirib ketgandek ifodalanmoqda. Shams ham husnda tengsiz, biroq u g‘azalda tasvirlanayotgan yorning husni oldida ojiz qolgan va yerga botgan.

Ravzada kavsar qirg‘og‘inda xayol ettim Bilol,

Yuz aro lab, lab uza shabrang xolingni ko‘rub. [3]

Bu yerda yana talmeh san‘atidan foydalanilgan. Negaki, birinchi misrada Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ulug‘ sahobalaridan biri, muazzin (azon aytuvchi) Bilol roziyallohu anhuning ismlari keltirilgan. U kishi dastlab qora tanli qul bo‘lganlar, keyinchalik qullikdan ozod etilganlar. Islom g‘alabasi yo‘lida olib borilgan janglarda qatnashganlar. Azon aytishda o‘zlarining baland va shirali ovozlari bilan ajralib turganlar. Birinchi bo‘lib Ka‘baning ustiga chiqqan holda musulmonlarni namozga chorlaganlar. Yuqoridagi misrada bu sahobaning nomi keltirilishiga sabab, jannatdagi kavsar bo‘yida o‘tirgan yorning labi ustidagi xoli shu qadar qoraki, lirik qahramon bu qora xolni Bilol roziyallohu anhu deb xayol qilgan. Ikkinchi misradagi “shabrang” so‘zi “qora tun rangi” degan ma‘noni anglatadi, chunki “shab” so‘zi ham fors tilida “tun” demakdir.

Husnidin to‘ymog‘ emas mumkinki, behad xo‘b erur,

Qo‘yg‘oy erdim, bo‘lsa erdi Yusufi Kan‘oncha xo‘b. [3]

Yorning jamoli shu qadar xo‘b ekanki, undan to‘ymoq mumkin emas. Ikkinchi misrada nomi zikr etilgan Yusufi Ka‘non Qur‘oni karimda nomi zikr etilgan 25 payg‘ambardan biri. Yusuf alayhissalomning hayotlari va payg‘ambarlik faoliyatlariga bag‘ishlangan Yusuf surasi ham nozil qilingan. Yusuf alayhissalom Kan‘onda (hozirgi Falastin) tug‘ilgan bo‘lib, Ya‘qub alayhissalomning o‘n birinchi o‘g‘li bo‘lganlar. Alloh azza va jalla Yusuf alayhissalomga tabiatda sira takrorlanmaydigan benazir husn ato etgan edi. Bu husn bilan hech narsani, hatto oy-u quyosh go‘zalligini ham solishtirib bo‘lmas edi. Sharqda ko‘pgina mutafakkirlar va shoirlar ham Yusuf alayhissalom haqidagi rivoyatlar asosida bir necha asarlar yaratgan. Xususan, Navoiyning zamondoshi, fors shoiri Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoni shular jumlasidandir. Baytda ushbu payg‘ambarning ismlari keltirilishidan maqsad yorning naqadar go‘zalligini anglatishdan iboratdir. Aslini olib qaraganda, Yusuf alayhissalom jamolidan ham yuksak husn faqat Tangri taologa tegishli bo‘lishi aniq. Shu orqali ham bu baytda ilohiy ish tavsiflanayotganini sezish qiyin emas. Yusuf alayhissalom nomini baytda keltirish orqali talmeh san‘atidan foydalanish usuli Navoiydan tashqari ko‘plab g‘azalnavis shoirlar ijodida uchraydi.

Subh yetkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin,

Yo ko‘ngul topti Masih anfosidin jon mujdasin. [3]

“Masih” so‘zi ishlatilishi orqali ikkinchi misrada talmeh san‘ati qo‘llangan. “Masih” Qur‘oni karimda nomi zikr etilgan Iso alayhissalomga berilgan laqab.

Negaki Iso alayhissalom Alloh taolo qudrati bilan tuzalmaydigan kasallarni davolar, o'likka jon ato eta olardilar. Baytda subh (ertalabki payt) keltirgan sabo (mayin shamol) mujdasi (xabari) ning yoqimli ekani hamda Iso Masih nafasi bilan jasadga ato etilgan jon mujdasi o'zaro qiyoslanmoqda.

Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gulu rayhon anga,

Ul qarong'u kechadurkim, mahi toboni yo'q. [3]

Navoiyning "Yo'q" radifli g'azalidan olingan bu baytda tadrij san'ati qo'llangan. Tadrij so'zi arabchada "darajama-daraja oshirish" degan ma'noni bildiradi. Shoir bu paytda lirik qahramonning yordan ayro ko'nglini gul-u rayhoni yo'q qora tuproqqa, to'lin oyi (mahi tobon) yo'q qarong'u kechaga o'xshatish orqali g'azal ma'nosini bosqichma-bosqich kuchaytirmoqda.

Yusufim hajrida Ya'qubiy g'am ichra, mutribo,

O'yla menkim, xushlug'um yo'q nag'mayi Dovud ila. [3]

Bu baytda talmeh san'ati qo'llangan, negaki unda Qur'oni karimda zikr etilgan uch payg'ambar (Yusuf, Ya'qub, Dovud) ismlari kelmoqda. Yusuf alayhissalom husn-u chiroyda tengsiz bo'lgan nabiylar, Ya'qub alayhissalom esa ularning otalari bo'lib, Bani Isroil qavmiga payg'ambar bo'lib tushgan edilar. Yusuf alayhissalom o'gay akalarining hasadgo'yiligi tufayli sahradagi bir quduqqa tashlab ketiladi, undan Yusuf alayhissalomni Misrga ketayotgan karvon egasi qutqarib oladi va uni qulqilib sotib yuboradi. Misr hokimi uni o'z oilasiga qabul qiladi, keyinchalik Yusuf alayhissalom o'z aqli va tushlarni ta'birlashdagi mahorati yordamida Misr hokimiga aylanadi. Ya'qub alayhissalom shunday aziz farzandidan judo bo'lgani uchun yig'layverib so'qir bo'lib qolganlar. Shuning uchun ham baytda tasvirlangan lirik qahramon Yusuf hajrida g'amga botgan Ya'qub kabi iztirobda ekani ta'kidlanmoqda. Baytning ikkinchi misrasida xushovoz payg'ambar, Zabur kitobi nozil qilingan rasul, temirchilik kasbi bilan shug'ullangan Kan'on yurtiga shohlik qilgan Dovud alayhissalom nomlari keltirilgan. Lirik qahramonning iztiroblari shu qadar kuchli ekanki, Dovud alayhissalomning oyatlar talaffuzidagi yoqimli ovoziga ham xushligi yo'q ekan. Vaholanki, "Qisasi Rabg'uziy"da yozilishicha, Dovud alayhissalom Zaburdan oyat o'qisalar, osmondagi qushlar ham parvozdan to'xtab bu ovozga mahliyo bo'lib qolar ekanlar.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy g'azallari baytlarda tasvirlangan ilohiy ishq timsollari, Qur'onda nomlari zikr etilgan nabiylarning muborak ismlari ash'or ichida badiiy san'at tarzida qo'llanilishi, o'xshatishlarning mohirona ifodalanganligi bilan o'zbek adabiyotidagi eng sermahsul va sermazmun badiiy meros hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – T., Fan, 1991. - 544 b.
2. Alisher Navoiy. Qaro ko'zum. – T., "G'afur G'ulom" nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 249-361- betlar.
3. Alisher Navoiy. Shohbaytlar. – T., "Fan" nashriyoti, 2017. - 244 bet.
4. Boboyev T, Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.

## ALISHER NAVOIYNI ANGLASH SARI YO‘L

Nilufar OYMATOVA,  
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat  
pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi*

Ma'lumki, badiiy asarlarni idrok eta oladigan, undan mantiqiy xulosalar chiqaradigan hamda shoirning badiiy mahoratini his qila biladigan o'quvchi, chin ma'noda barkamol inson sifatida shakllanadi.

Alisher Navoiy asarlarining har biri (janr xususiyatidan qat'iy nazar) komillik olamning ranglarini o'zida jam qilganligi sababli, undan bahramand bo'lgan inson komillik sari intilmog'i shubhasiz.

O'quvchilarda Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishni orttirish maqsadida iqtidorli o'quvchilar bilan maqsadli ishlarni, ijodkorlikka yo'naltiradigan metodlarni qo'llash o'rinli. Zero, dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratib berish bevosita ta'lim sifatini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Dars jarayonlarida mavzu doirasida har bir o'quvchining bilimi va qiziqishlarini to'g'ri anglab, faolligini yanada oshirish, ta'lim sifatini rivojlantiradigan muhit yaratish samaradorlikning muhim omilidir.

11-sinf o'quvchilari olam va odam haqidagi qarashlari bir qadar tiniqlashgan, ma'lum mavzu yuzasidan mustaqil fikr yurita oladigan, tanqidiy tafakkurga ega shaxslar sifatida shakllangan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, badiiy asar tahlilida fikrlar plyuralizmiga e'tibor qaratish o'qituvchining ularda asar g'oyasi yuzasidan xulosa chiqarishlariga yordam berish ishini yengillashtiradi. 11-sinf adabiyot dasturida "Saddi Iskandariy" dostonining berilishida aynan shu nazarda tutilgan. Chunki dostonidagi ayrim o'rinlar (Doroning Iskandardan olingan jumboqli talablari) plyuralistik fikrlar ham xolis va tanqidiy tahlilini talab qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar diqqatini asarda berilgan muammoli jihatlarga, ramziy obrazlarga e'tibor qaratishi joiz. Dostonning 23-bobida Iskandar va Doro munosabatlari aks etgan bo'lib, unda Doroning Iskandarga qo'y, chavgon va kunjut yuborgani bilan bog'liq tafsilotlar bayon qilinadi.

Bunday ramziy obrazlarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil talqin qilishi ham mumkin. Buning uchun dastlab ularda chavgon va kunjut haqida tasavvur hosil talab etiladi. (Chavgon (fors. – uchi egri tayoq) – otda o'ynaladigan jamoaviy sport o'yini. Qadimiy Sharqda chavgon chorvadorlar o'yini sifatida paydo bo'lgan. Keyinroq otliq askarlarning mashg'ulotiga aylangan. Sharq xalqlari chavgon to'pini "go'y", egri tayog'ini "chavgon" deyishgan. Shu bois bu o'yin "go'y-chavgon" deb ham atalgan. Bu tarixiy qo'lyozmalarda o'z ifodasini topgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari va boshqa manbalarda chavgon o'yiniga oid qimmatli ma'lumotlar bor. Kunjut (Sesamum) – kunjutdoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi,

moyli ekin. Tozalangan va maydalangan urug‘i yuqori navli holvalar tayyorlashda, non yopishda ishlatiladi.

Jumboq darslikda quyidagicha izohlanadi:

“Doro yana elchilar orqali unga chavgon bilan to‘p – koptok, bir idishni to‘ldirib kunjut yuboradi. Bu sen yosh bolasan, bolalar esa mana shu narsalar bilan ovunib yurishi lozim. Mening askarlarim kunjut donalari singari behisob, – degan edi. Iskandar shunday javob qaytaradi: “Olimlar yer yuzining go‘yo koptok singari yumaloq ekanini aniqlashgan, demak, Doro menga yer yuzini in‘om etibdi. chovgon esa uni boshqarish ramzidir. Kunjutlarni u menga qushlarimning ozuqasi sifatida yuboribdi”. [1, 154]

O‘quvchilarda ramziy timsollar har bir hukmdor o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib turlicha talqin qilinishi mumkinligi haqida tushuncha hosil bo‘ladi.

Doston yuzasidan uyushtiriladigan mustaqil ishlarda ham mana shu faoliyatni davom ettirish mumkin. Faqat bunda o‘zida ramziylikni aks ettirgan lavha (Iskandar oldiga 2 ta kalla suyagining olib kelinishi lavha)larini o‘quvchilarning o‘zlariga mustaqil talqin qilish imkoniyati berilishi faollikni ta‘minlovchi vosita xizmatini o‘taydi.

Dostonda ilgari surilgan komillikka intilish g‘oyalarini o‘quvchilarga singdirishda ayrim baytlar tahliliga to‘xtalish maqsadga muvofiq:

Tovon ekan chog‘da aylab gunoh,  
Ne sud aylagan vaqt umrin taboh  
Yigitlik erur qulluq etmak chog‘i,  
Qariliq erur chunki ketmak chog‘i. [1, 133]

Darslikdagi nasriy bayonda baytlar quyidagicha ifodalangan: Axir, kuch-quvvat bor vaqtida gunoh ishlar bilan yosh umrini o‘tkazib, endi holdan toygan paytda toat qilaman, deyishdan nima foyda?[1, 136] Nasriy bayondan foydalanib o‘quvchilar quyidagicha xulosa yasashga yo‘naltiriladi: Inson tavono (sog‘, baquvvat) vaqtida gunoh qilib, umrini, vaqtini xarob aylagandan nima foyda topadi?

Yoshligida ibodatini ado eta olmog‘i kerakki, qariganda bunda, ya‘ni ibodatga ulgurmasligi mumkin. Zero, umr insonga omonat berilgan. Iskandarday hukmdorlar ham abadiy yashay olmagan.

Navoiy umrning g‘animatligini xoh u shoh bo‘lsin, xoh gado – barchaga barobar ekanligini uqtiradi.

Bu darajaga yetish, ya‘ni Navoiyning komil insonga oid qarashlarini imkoni boricha kengroq anglash uchun shoir ijodini nisbatan kichik hajmli asarlaridan boshlab o‘rganish ta‘lim uzluksizligini ta‘minlashning asosi hisoblanadi.

11-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha berilgan nazariy ma‘lumot sifatida “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning yozilgan sanasi, boblari, baytlar soni bilan birgalikda dostonlarning vazni, afoyili, taqte’ belgisining keltirishi o‘quvchilar diqqatini chalg‘itishi mumkin. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, oxirgi yillarda adabiy ta‘lim oldida turgan muammolardan biri – o‘quvchilarni badiiyat olamini tushunuvchilar emas, oliy o‘quv yurtlariga kirish testlarini muvaffaqiyatli yechuvchi shaxslar qilib shakllantirishga yo‘naltirilganligidir.

Darslikda aruz vazni bilan bog‘liq ma‘lumotlarning keltirilishi aynan shu muammoning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Aslida kuzatishlarimiz natijasida aruz vaznini maktab o‘qituvchisi ham yetarli darajada tushuna olmasligining guvohi bo‘ldik. Bu bilan aruz vazni haqida nazariy bilimlar berish noto‘g‘ri degan fikrdan yiroqmiz. Lekin barcha dostonlarning afoyili va taqte’ belgisini berish o‘quvchidan xotirada qo‘shimcha ma‘lumotlarni saqlash majburiyatini talab etadi. Ammo g‘azal, ruboiy, tuyuq va boshqa lirik asarlarni ifodali o‘qish ko‘nikmasi aruz vazni orqali shakllantirilishi bois, adabiyot muallimi aruz nazariyasi bilan mustahkam qurollanmog‘i taqozo etiladi. Buning uchun esa, adabiyot ta’limini oldinda eng muhim va zaruriy islohotlar kutmoqda. Binobarin, adabiyot muallimi aruz vaznining bilimdoni bo‘lgandagina, o‘quvchilarga Alisher Navoiyning qarashlari, asarlardagi g‘oyaviylik jihatlari yuqtirilishi mumkinligini unutmashlik lozim.

Darslikda doston mazmuni yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar integratsion yondashuv asosida tuzilganligi bilan e’tiborga loyiq. Masalan, darslikning 157-betida “Yusuf Xos Hojib asaridagi Kuntug‘di va Oyto‘ldi suhbatlari davomida qo‘llangan ramzlarni eslang. Ular bilan “Saddi Iskandariy”dagi ramzlarning o‘xshash va farqli jihatlarni qanday tasavvur qildingiz?” kabi savol mavzulararo integratsiyani ta’minlashga qaratilgan. Yoki “Dostondan olingan hikmatli so‘zlar orasida siz o‘rgangan parchalar bilan bevosita bog‘lanadiganlari bor. Ularni toping va fikringizni asoslang” topshirig‘i esa mavzu doirasidagi integratsiyani ta’minlagan.

Bundan tashqari, darslikdan “Matndagi qarilikning belgilari ko‘rsatilgan o‘rinlarni toping, ularni izohlashga harakat qiling” kabi tanlab o‘qish, “Yigitlik va qarilik haqidagi misralarni o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring” kabi izohlab o‘qishga qaratilgan topshiriqlar ham o‘rin olgan.

Darslikda “Saddi Iskandariy” dostoniga ishlangan miniatyuralardan lavhalarning berilishi fanlararo (tasviriy san’at va adabiyot) integratsiyaning yorqin namunasidir. Aslida miniatyuralarning keltirilishi ham o‘qituvchiga qo‘shimcha vazifa yuklaydi. O‘qituvchi san’at namunalarni mavzuga bog‘lab tushuntirishi barobarida, miniatyura san’ati haqida ma‘lumot berishi yoki o‘quvchilarga uy vazifasi tariqasida topshirishi lozim bo‘ladi.

Alisher Navoiy yaratgan ma’naviy kamolot olamiga qadam qo‘yib, uning haroratini his qilgan o‘quvchi buyuk shoir ko‘zlagan komil inson dunyosiga bog‘lanib qoladi. Undan ma’naviy, ruhiy quvvat oladi. Ammo ana shu quvvatgacha boriladigan yo‘l mashaqqatiga bardosh berishda o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasini pedagogik ta’lim innovatsion klasteri asosida o‘rganish texnologiyasini ishlab chiqish dasturulamal vazifasini o‘taydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bugungi ta’limning eng dolzarb muammosi shoir ijodini o‘rganish, anglash, o‘rgatishning eng oson, eng qulay zamonaviy metodologik maktabini yaratishdir.

Yosh avlod faqat Navoiy asarlaridan emas, umuman, mumtoz adabiyotimiz durdonalaridan bebahra qolayotgani juda tashvishlanarli. Ahvolning shu zaylda davom etaverishi, yaqin besh-o‘n-yil da mumtoz adabiyotimizga mutlaqo ehtiyoj

sezmaydigan, badiiyatni his qilmaydigan, demakki, go‘zallik tuyg‘usidan mahrum, moddiy dunyo g‘am-tashvishidan boshqasini tan olmaydigan yoshlarning butun bir avlodini vujudga keltiradi. Eng yomoni, bunday o‘spirinlar mustaqil fikr, adabiyot, san‘at, ma‘naviyat, ma‘rifatning inson taqdiridagi qimmatini, olam va odam munosabati, yashashning asosiy maqsadi nima ekanligi to‘g‘risida bosh qotirib o‘tirishni zarurati yo‘q ish deya baholay boshlaydilar.

Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul ta‘biri bilan aytganda, yoshlarga basirat sir-asrorlarini yetarli darajada tushuntirib, umuman, dunyoga basirat ko‘zi bilan boqishni o‘rgatmagunimizcha ular Navoiy she‘riyatining tub mohiyati va go‘zallik sirlarini mushohada qilishdan ojiz bo‘lib qolaveradi. Bu dunyoda bilmagan narsani bilganday bo‘lib ko‘rinish, mahdudlik va xabarsizlikdan xotirjam tortishdan ortiq gumrohlik yo‘q. [3, 33]

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. To‘xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. I qism. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
2. Haqqul I. Navoiyga qaytish. –T.: “Fan” nashriyoti, 2007.
3. Hamidov Z. Navoiy badiiy san‘atlari. – T.: Universitet, 2001

### **MUNIS XORAZMIY IJODIYOTIDA RUBOIY**

*Dilshoda HAQQULOVA,  
UrDU magistranti*

Xorazm adabiy muhitining yetuk vakili, shoir, olim, tarixnavis, tarjimon va xattot Shermuhammad Munis XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asr boshlarida yashab ijod etgan san‘atkordir. Uning zamondoshlari A.Tabibiy “Majmuat ush-shuaro”, Laffasiy “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari” tazkiralarda, Ogahiy va Bayoniy o‘zlarining tarixiy asarlarida shoir haqida ma‘lumot bergan. U haqida juda ko‘p olimlar tadqiqot olib borganlar. M.Yunusov, A.Hayitmetov, R.Majidiy va Y.Yusupov o‘z maqolalarida shoir ijodiyotining muhim qirralarini yoritib bergan. Adabiyotshunos N.Jumayev “Munis g‘azaliyoti” kitobida shoirning g‘azalnavislik mahorati haqida fikr yuritgan. Ilmiy asarlarda yozilishicha, nemis olimi Herman Vamberi 1863-yili Xorazmga kelib Ogahiy bilan tanishib, Ogahiy va Munisning asarlarini Yevropaga olib ketgan.

Munis yoshligidan ilmga chanqoqligi va ziyrakligi tufayli arab va fors tillarini mukammal o‘rgangan. U Sharq xalqlari adabiyotidan, shuningdek, musiqa va tarix fanidan yaxshi xabardor bo‘lgan.

Bu haqda Laffasiyning “Tazkirai shuaro” asarida shoirning shunday she‘ri mavjud.

Muniskim birinchi az shuaro,  
Nasr, nazm barobar onga.  
Agar kelsa forsiy lug‘at arabiy,  
Qilur takallum ona tili kabi.



Munisning iste'dodli shoir sifatida shakllanishida she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning ta'siri juda katta bo'lgan. Shoir 16-17 yoshlarida Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarini ko'chirgan. Xiva xoni Avaz inoq o'z saroyida shoirni kotib lavozimiga tayinlaydi. Shoir butun umrini ilm-ma'rifatga bag'ishlaydi. Munis tomonidan 1815-yilda yaratilgan "Munis ul-ushshoq" devonida quyidagi janrlarda qalam tebratganligini ta'kidlaydi. "Har na'v she'r ila orasta va har zarif nazm bilan pirasta bo'ldi. Andog'kim g'arro qasidalar, dilkusho g'azallar fasohatgo'yin tarkibbandlar, latofattazyin topgan g'azal, muxammas, mustazod, ruboiy, tuyuq va fardlar o'rin olgan. Bunda tashqari uning "Savodi ta'lim" risolasi, "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asari mavjud. Tarixchi Mirxondning "Ravzat us-safo" asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Munis tomonidan mahorat bilan yozilgan tarixiy asar va undagi ma'lumotlar turli-tumanligi bilan ajralib turgan.

Munis Navoiyni o'ziga maoniy yo'lidagi pir tutadi va so'z ichida Navoiyni jahongir deya ulug'laydi.

So'z ichra Navoiyki jahongirdurur,  
Munisg'a maoniy yo'lida pirdurur,  
Yo'q g'ayriyat ondin o'zgakim ayturlar,  
Bu Shermuhammad, ul Alisherdurur.

Shoir Nizomiydan to o'zi yashagan davrga qadar so'z san'atkorlarining asarlari bilan tanishib chiqqan. U 1804- yilda ilk devoni – "Devoni Munis"ni yaratdi. Devonda Sharq adabiyotidagi an'analar bilan shakllangan yuksak she'riyat ifodalangan.

Shermuhammad Munisning iste'dodli shoir sifatida shakllanishida she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Bu haqda "Manga" radifli g'azalida shunday deydi:

Qilsa hosed daxli bejo so'z aro yo'qtur g'amim,  
Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur mango .

Munis g'azallarida oshiq qalbining dard-u iztiroblarini ifodalab beradi. Shoir insonning hissiy dunyosini o'z ishqiy asarlarida butun murakkabliklar bilan aks ettiradi. Muhabbat bobida pokiza, vazmin bo'lishni targ'ib etadi. Shoir inson tabiatidagi nafsni yovuzlik timsoli bo'lmish devga qiyoslaydi.

Men odami riyozi behishti qabulmen,  
Ey nafs devi, aylama ko'p shaytanat mango.

Shoir go'zal g'azallar bilan bir o'rinda mazmunga boy ruboiylar ham yozib qoldirgan. Uning ruboiylari dardchilligi bilan ajralib turadi.

O'ziga xos kompozitsion qurilishga, qofiya va badiiy tasvir an'analariga ega, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ishqiy va axloqiy mavzulardagi hazajning maxsus yo'llarida yozilgan she'r shakliga ruboiy de- yiladi. Ruboiy va dubaytiy o'rtasidagi farq faqat shaklda emas, mazmunda ham farq. Dubaytiy tematikasining tub mohiyatini ishq tuyg'ulari, muhabbat xayollari, orzu va armonlariga doir ma'nolar tashkil etadi. Bu xususiyati bilan u oshiqona g'azallarga yaqin turadi. Ruboiyda esa falsafiy, axloqiy, ijtimoiy –siyosiy g'oyalar ifodalanadi.

Munis ruboiylarida ishq-muhabbat, odob-axloq, pand-nasihati kabi mavzular o‘rin olgan. Shoir ba’zi she’rlarida ma’shuqani do‘st deb atasa, ba’zi she’rida esa raqib deb biladi. Oshiqning yorga bo‘lgan muhabbati shu darajada kuchliki, ma’shuqani o‘z dardining bosh sabachisi deb hisoblaydi.

To bildi menga mehr etar ul moh, raqib,  
Ohimg‘a mening bo‘ldi sabab oh, raqib.  
Yorab, menga komimcha nasib ayla visol,  
Mahjur bo‘lib o‘ylaki, dilxoh raqib.

Shoir inson tabiatidagi nosamimiylilikdan aziyat chekadi. U atrofida qilarni o‘ziga samimiy do‘st deb biladi, lekin ulardan vafosizlik ko‘radi.

Sendan tamaim edi sarafroz o‘lmoq,  
Abnoi zamona ichra mumtoz o‘lmoq  
Faryodkim, hosil ayladim oxir kor  
Afgandavu xorliqg‘a damsoz o‘lmoq.

Ong mustaqilligining bitta nodir tomoni shundaki, inson bunda o‘zini hech qanday hayotiy ziddiyatlardan olib qochmaydi. U ichki fikriy olishuvlar, o‘ziga nisbatan shafqatsiz talablar bilan yashaydi. O‘z shaxsiga tanqidiy qarash shoirning o‘shish omillaridandir. Yuqoridagi fikrlar ushbu ruboiyga hamohangdir.

Gah aql o‘lding, gahi jununlig‘ qilding,  
Fikri sharafu xayoli dunlig‘ qilding.  
Har ishga qo‘l urding zabunlig‘ qilding,  
Munis, oxir buqalamunlig‘ qilding.

Shoirning ushbu ruboiysida dardli oshiqning mehirsiz, faqat o‘zini o‘yladigan ma’shuqadan shikoyati va undan ko‘rgan ozorlari ifoda etilib, satr oxirida oshiqning g‘ami kuchayib boradi.

Rahm etmadi ul kofiri xudroy, netay,  
Holimg‘a dame qilmadi parvoy, netay,  
O‘ldurdi meni qahr ila, qilmadi lutf.  
Ey voy, netay, voy netay, voy netay!

Ma’shuqaning oshiqqa marhamat etmaganligi sababli uning jismi ozorlanganligini yuqoridagi ruboiyda aks ettiradi.

Ko‘nglum o‘tidin sipehri xazro yonadur,  
Ohim tafidin boli malak churgonadur,  
O‘t ichra samandarki topar erdi hayot,  
Ko‘r shu‘lai ishqimda nechuk o‘rtonadur.

Munisning ko‘p ruboiylarida pand-nasihati, axloq-odob, mehr-oqibat do‘stlik kabi tushunchalar aks ettirilgan. Shoir har bir inson qalbidan ana shunday tuyg‘ular joy olishini orzu qilgan. Uning she’rlarini o‘qigan har bir kitobxon qalbida shunday tuyg‘ular uyg‘onib, dunyoning o‘tkinchiligi va insonlarning bir-biriga g‘animat ekanligini his qilsa, ajabmas.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Munis. Tanlangan asarlar. –Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti, 1957.
2. V.Abdullayev. O‘zbek adabiyoti tarixi, ikkinchi kitob, – Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 1964.

3. Laffasiy. Tazkirai shuaro. – Urganch. Xorazm, 1992.
4. Nusratilla Jumayev. Munis gʻazaliyoti. – Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti. 1991.

## **NURALI QOBULNING USLUBIY INDIVIDUALLIGI**

**Abdunabi TOʻYCHIYEV,**  
*GulDU oʻqituvchisi*

Atoqli adib Nurali Qobulning ijodiy faoliyatida Chingiz Aytmatov shaxsiyatiga boʻlgan ulkan mehr-muhabbatni sezish mumkin. Jahon adabiyotining taniqli vakillaridan biri va yirik jamoat arbobi Chingiz Aytmatovning shaxsi va ijodi bilan tanish boʻlgan Nurali Qobul uni oʻziga ustoz deb bildi, bir necha marta uchrashdi, hamsuhbat boʻldi. Balki, shu omil sababdir, yozuvchi ijodida Chingiz Aytmatov ijodining taʼsiri seziladi. Buni koʻp olimlarimiz eʼtirof etishgan.

Koʻp munaqqidlar Nurali Qobul ijodida Chingiz Aytmatov ijodining ijobiy taʼsirini baholar ekanlar, “Oq kema” bilan “Tubsiz osmon” qissalariga urgʻu berishadi. *“Mamnuniyat bilan taʼkidlash kerakki, - deb yozishadi filologiya fanlari nomzodlari M.Mahmudov, A.Pardayev, - Nurali Qobul oʻz ijodida atoqli adib Chingiz Aytmatov anʼanalarini, uslubiy yoʻnalishlarini yangi ruhda, nozik lirik ohangda davom ettirishga intiladi. Ana shu intilishlar “Tubsiz osmon” qissasida namoyon boʻlgan”* [1: 3].

Haqiqatdan ham, bu ikki asarda qahramonlar taqdiridagi oʻxshash tomonlar, kechinmalar tasvirida hamohanglikni koʻramiz. Bolalar va ular yashagan muhit oʻrtasidagi ziddiyat oxir-oqibat fojeani keltirib chiqaradi. Albatta, ikki qahramonning ayro taqdiri bir-biridan farq qilsa-da, yakun oʻquvchini oʻylashga olib boradi.

“Tubsiz osmon” qissasi Nurali Qobulni sobiq Ittifoqning keng kitobxonlar ommasiga tanitdi. Qissa yozuvchiga katta shuhrat va mashhurlik keltirdi. Asarni oʻqigan Chingiz Aytmatov *“Nurgʻali miqti yozuvchi, obdon toza yozadi”*, - deb yuksak baho beradi. Shaxsan uning tashabbusi bilan asar qirgʻiz tiliga tarjima qilinadi.

Albatta, jahon adabiyotida Chingiz Aytmatov ijodining alohida oʻrni bor. Uning asarlari qirgʻiz adabiyotini dunyoga tanitdi va dunyoda millionlab oʻquvchilar eʼtiborini tortdi. Chingiz Aytmatovning barcha asarlari Asil Rashidov, Ibrohim Gʻofurov, Suyun Qorayev, Mahkam Mahmudov, Nabijon Boqiy, Yoqubjon Xoʻjamberdiyev kabi tarjimonlar tomonidan yuksak mahorat bilan oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Shu jumladan, Nurali Qobul ham Ch.Aytmatovning “Bolaligim” qissasini ona tilimizga oʻgiradi. Nurali Qobulga Chingiz Aytmatov shaxsiyatiga boʻlgan ehtiromi uchun 2018-yili Xalqaro Chingiz Aytmatov Akademiyasining akademigi faxriy unvoni berildi.

Har bir davrning oʻziga xos ziddiyati bor. Mavjud hayotdagi ziddiyatlar esa adabiyotda oʻz aksini topadi. Ikki asarda ham bolalarning yashagan muhiti bilan ziddiyat konfliktini vujudga keltirgan. Asarning yaxshi boʻlishi konfliktini toʻgʻri

tanlay olishga bog'liqdir. Demak, asarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishida konflikt hal qiluvchi omillardan biri ekan. Asarlarda kattalar nazdida, go'yoki arzimas tuyulgan, ularning ko'zi o'rganib qolgan narsalar ziddiyat keltirib chiqardi. Guvohi bo'lganimizdek, hayotdagi konfliktni chuqur anglab, uni keng aks ettirgan yozuvchining asarlari ham kitobxonga ma'qul bo'ladi.

Asarda Mo'min chol misolida qadriyatning qadrsizlanishi, ochiqchasiga oyoqosti bo'lishi shafqatsizlarcha ko'rsatilgan. Mo'min chol mo'min-qobil, tabiatan mute edi. Ochiqko'ngilligi, yaxshilik qilishga doim tayyorligi va har kimning xizmatiga doim hozir-u nozirliги uchun atrofidagilarning bepisand munosabatiga duch keladi. Bobo afandife'l edi va unga afandiga muomala qilgandek qilishardi. U bug'u avlodidan bo'lib, bu bilan bag'oyat faxrlanar, bug'u avlodining hammasini o'z og'asi sanardi.

Aytmatov asarlarida xalq og'zaki ijodi, mifologiya, motivlar, fantastika uchraydi. "Oq kema" qissasini Shoxdor ona bug'u, "Asrga tatigulik kun" romanini "Nayman ona", "Raymali og'a..." va "Chingizxonning oq buluti" rivoyat va afsonalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu rivoyat va afsonalar qahramonlarning murakkab ruhiy-ma'naviy olamini ifodalashda bir vosita bo'lib xizmat qilgan. Mazkur qissadagi Shoxdor ona bug'u haqidagi rivoyat ham asarning badiiy salmog'ini oshirgan. Ushbu rivoyat asarning mazmun-mohiyatiga singdirib yuborilgan. Qissada Shoxdor ona bug'u hech qachon yo'qolmaydigan, yo'qotib bo'lmaydigan yaxshilik va ezgulik timsolidir. Asarda asosiy urg'u shunga qaratilgan. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqul ta'kidlaganidek, *"Ch.Aytmatovning "Oq kema" asaridagi mifologiya ona bug'u haqidagi afsonada emas, balki yozuvchi bola qalbida yaratgan olam – Ona bug'uga ishonch kultida o'z aksini topadi"* [2: 12].

Xuddi shunga o'xshash holat, bir rivoyatning asarga yetaklovchi kuch, asos qilib olinishi Nurali Qobulning "Bo'ri ovi" ("Tog'begi") qissasida ham uchraydi [3:216]. Nurali Qobul mazkur asarida ham qahramonining ziddiyatga to'la ruhiy olamini tadqiq etishga intiladi. Asarda dong'i ketgan Rahmon ovchi endi bu ishni boshlagan o'g'li Jabbor tog'begiga pand-nasihat qiladi: " - Uy-joying, qozon-tovog'ing bo'lak odamsan. Bola-chaqang bor. Lekin senga bir narsani aytib qo'yishim farz. Qulog'ingga chalingandir ham. Bu rahmatli bobongning qarz gapi. Kezi kelganda sen ham bolalaringga aytarsan. Qotortol darasining qoramtir ko'kish bo'rilarini otma... O'tmishda Oyoqortog'ni yov bosganda, hamma tog' oshib, Panjakent tomonga o'tib ketgan ekan. Shunda bir momimiz beshikdagi bolasini yechib olishga ulgurmabdi. Boladan umidni uzib, aza ochishibdi. Oradan ikki yilcha vaqt o'tib, bosqinchilar ketib, omon-omon bo'lgach, ular qaytishibdi. Bir kuni ko'za ko'tarib suvga tushgan kelinchak soyning narigi betida chopib ketayotgan ona bo'ri va unga ergashib pildirab borayotgan bolani ko'ribdi. Shunda beixtiyor ko'kragida sut paydo bo'libdi. Ko'zasini tashlab, bolaning otini aytib chaqirgancha bo'rining ortidan yuguribdi. Bola to'xtab-to'xtab, ayolga tikilarmishu yana bo'rining orqasidan chopib ketarmish. Ularni quvlab kelayotgan ayolga ko'zi tushgan bo'ri sekin yotib, bolani yelkasiga mindiribdi-yu, archazor oralab ketibdi. Bola bo'rining bo'ynidan mahkam quchoqlagancha unga yopishib

olganmish. Odamlar poylay-poylay oxiri bir kun bolani tutib olishibdi. Bo‘ri bilan bola bir-biriga talpinib ulishar, yig‘lashar emish.

Mehrni qara. Shu-shu, ona bo‘ri o‘zi emizib katta qilgan bola yashaydigan uyga kelib, biror yegulik berishsa yeb, bola bilan o‘ynashib ketarkan. Qatortolning boshidagi Bo‘rimozor o‘sha ona bo‘rining qabri. Urug‘imizning ayollari doimo ko‘z yorishdan oldin Bo‘rimozorni ziyorat qilishadi...” [4: 105].

Qissa yakunida voqealar rivoji Jabbor tog‘begining o‘zi xohlamagan holda ko‘kish ona bo‘rini o‘ldirishi hamda shuning jabrini tortishiga sababchi bo‘lgani haqqoniy tasvirlangan. Jabbor tog‘begi margumushdan harom o‘lgan sigirining ikki orqa soniga yana margumush sepib, bo‘rilar yuradigan qirga tashlab keladi. Tongga yaqin yomon tush ko‘rib, bosinqirab uyg‘onadi. Ertalab saharda tepalikka borganida, ko‘zi tushgan manzaradan a‘zoyi badani muzlab ketdi. Bir necha bo‘ri zaharlanib o‘lib yotar, ular orasida Qatortolning bo‘g‘oz ko‘kish ona bo‘risi ham bor edi...

Jabbor tog‘begi o‘ldirgan bo‘rilariga haq talashib, qizishib beixtiyor Mahkam buxgalterni otib qo‘yadi. Uning ko‘z oldi qorong‘ulashib, joyida turib qoldi. Xotirasida kechasi ko‘rgan tushi jonlandi: uni Bo‘rimozordan chiqqan qopqora bo‘ri quvlab kelardi...

Albatta, asarda Jabbor tog‘begi tomonidan voqealar jarayoni kechayotgan mahalliy aholi tomonidan muqaddas deb bilingan ko‘kish ona bo‘rining beixtiyor o‘ldirilishi, shunga olib kelingan sabab va oqibat hamda ayni damdagi tog‘begining og‘ir ruhiy holati yozuvchi tomonidan yaxshi tasvirlangan, asoslangan. Bu asarda ham muallif tomonidan ilgari surilgan va butun asar bo‘ylab qayta-qayta uqtirilgan asosiy fikr, yetakchi g‘oya, asar pafosi – borliqni va qadriyatlarni asrashdir. Voqea asardagi tugunning mantiqiy yechimi sifatida yuzaga kelgan. Mazkur asar yechimi asar tugunining mantiqiy rivoji, tasvirlangan shart – sharoit taqozasi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Hozirgi tezkor davrda turli mafkura va ta‘limotlar o‘rtasidagi ziddiyatlar saqlanib qolayotgani sir emas. Milliy qadriyatlarimizni obro‘sizlantirish, milliy mahdudlik, informasion hurujlar va ommaviy madaniyat ta‘sirida ayrim kishilarda ko‘p asrlik qadriyatlarga nisbatan bepisandlik mavjud. Yozuvchi bu mavzuda qalam tebratar ekan, o‘zi bilgan haqiqatga o‘quvchi diqqatini jalb qilish maqsadida rivoyatga murojaat etadi, saboq va ibrat bo‘ladigan voqealar orqali odamlarning borliq uchun mas‘ul va javobgar ekanligini ta‘kidlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov M., Pardayev A. Har kimning o‘z osmoni bor // Yosh leninchi. – 1981. – № 11. B. 3.
2. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. 2-bob. – 12 b. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz). kutubxonasi.
3. Qobul N. Bo‘ri ovi. – T: IJOD-PRESS. 2017. – 216 b.
4. Qobul N. Ovchi // Sharq yulduzi. –T.: 1985. № 2. – B 105.

## TOHIR MALIK NASRIDA DAVR MUHITINING YORITILISHI

Azamat FAYZULLAYEV,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-bosqich talabasi

Tohir Malik XX asrning 70-yillaridan boshlab o'zbek adabiy maydoniga o'zining bir-biridan qiziqarli detektiv asarlari bilan kirib kelgan mohir yozuvchidir. Tohir Malik yaratgan asarlar o'zining chigal voqealar sujetiga egaligi, yechimlarning kutilmaganligi, asarlarda turli qiyofa va toifadagi insonlar vositasida davr muhitini ham mahorat bilan tasvirlay olishi tufayli boshqa yozuvchilardan ajralib turadi. T.Malik asarlari qahramonlari atrofimizda har kuni duch keladigan, oddiy odamlar. "Hikmat afandining o'limi", "Zaharli g'ubor", "Falak", "Somon yo'li elchilari", "Chorrahada qolgan odamlar", "Bir ko'cha, bir kecha", "Alvido, bolalik", "So'nggi o'q", "Ov" kabi ilmiy-fantastika, sarguzasht va detektiv janrlarda yaratgan asarlari bilan keng omma qalbidan joy olgan. "Qaldirg'och" epik asarida Abdulla Avloniy taqdiri misolida 20-yillar o'zbek ziyolilarining shakllanishi haqida bahs yuritiladi. "Shaytanat" asari asosida yigirma qismli va "So'nggi o'q" qissasi asosida yetti qismli filmlar suratga olingan. "Odamiylik mulki" asari didaktik ruhda yozilgan bo'lib, unda yizuvchi o'zining falsafiy qarashlarini, odob-axloq mezonlarini, yoshlar tarbiyasidagi e'tiborga molik jihatlarni, jamiyatimiz orasida uchrab turadigan turli illatli va fazilatli kishilarning turish-turmushini yoritgan.

"Falak" qissasi 1973-yilda yaratilgan ilmiy-fantastik janrdagi qissa bo'lib, asar bosh qahramoni biofizik olim Jahongir Xo'jayev. U asarda Andijon viloyati Buloqboshi tumanidan bir qabr topib oladi. Qabrdagi murda jasadlari ikkita bo'lib, bir-biriga ustma-ust qo'yilgan bo'ladi. Asarning fantastik jihati shundaki, olim elalloma deb atalgan electron asbob yordamida ana shu jasadlar tirikligida yashagan davr – XV asrni o'z ko'zi bilan ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Muallif asarda bir-biridan besh asr bilan farqlanadigan ikki davrni ikki xil toifadagi, bir-biriga qarama-qarshi dunyoqarashga ega bo'lgan insonlar qiyofasida chizib berishga urinadi. Masalan, Mirzo Ulug'bek zamonida yashagan Shamsibek ismli alkimyogar olim, uning suyukli yori Mahfuza, shahriorning shaxsiy navkari Qamariddin, Turdimurod polvon hamda Mulla Abdulvahob boshchiligida bir guruh diniy mutaassiblar o'rtasidagi ayovsiz ziddiyat ko'rsatilar ekan, bu kurashda Shamsibek va Mahfuzaning xiyonatkorona va nohaq o'ldirilishi asarga fojiali tus beradi. Xuddi shunday asar yaratilgan

XX asrda ham bir guruh soxta olimlar hamda o'z umrini ilm-fanga bag'ishlab, tinimsiz tadqiqotlar olib borgan chinakam olimlar, fan arboblari o'rtasidagi azaliy ziddiyatlar har davrning ham o'z tosh-u tarozisi borligini ko'rsatadi. Ushbu qissaning "Falak" deb atalishiga sabab, asarda ulug' alloma, astronom va matematik Mirzo Ulug'bekning koinot ishlari va ilmi nujumga mehr qo'yib, shu ilming rivoji yo'lida harakat qilganligidir. Boshqa ta'rifga ko'ra, "palak" deb atalgan to'qilgan matoning xuddi osmondagi yulduz turkumlari tasvirlangandek qilib tikilishi va ushbu detalning asarda kelishi asarning shunday

nom olishiga sabab deb aytiladi. Asardan kitobxon ezgulik va yovuzlik orasidagi kurash abadiy degan xulosani olishi mumkin.

“Murdalar gapirmaydilar” qissasi esa detektiv ruhda yozilgan asar bo‘lib, unda o‘tgan asrning 80-yillarida sobiq Ittifoqida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar tasvirlanadi. Sotsializm tuzumi o‘zining noqobil va zararli tuzum ekanini isbotlashga ulgurgan, davlat va jamiyat o‘rtasida tubsiz jarlik vujudga kelgan, xalq hayotida turli xil jinoiy to‘dalarning roli oshib borayotgan ushbu chirkin davrni tasvirlashda yozuvchi ancha ishonarli tarixiy dalillar va badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Asarga epigraf qilib Baqara surasining 16-18-oyatlari olingan: *“Ana o‘shalar hidoyatga zalolatni sotib olgandirlar. Va tijoratlari foyda keltirmadi hamda hidoyat topganlardan bo‘lmadilar. Ular misoli bir o‘t (mash‘ala) yoquvchiga o‘xshaydilar. Olov endi atrofini yoritganida Alloh yorug‘likni ketkazib, ularni hech narsani ko‘rmaydigan holda zulmatlarda qoldiradi. Ular kar, soqov va ko‘rdirlar. Bas, ular hidoyatga qaytmaslar...”* Bu oyati karimalarning keltirilish sababi shundaki, asardagi nafs bandalari deb atalgan bir qancha obrazlar aynan shu oyatda tilga olingan kimsalarni eslatadi.

Asarda tasvirlangan har bir obrazning o‘zi bir olam, har obraz haqida alohida taqqiqotlar yarat yaratish mumkin. Tengiz, Tursunali, Nuriddin, Matluba, Nafisa, Omonullo, Bobomurod, Samandar, Toshbolta, Adolat, Koshak, Qo‘tos (qamoqdagi shunday laqabga ega jinoyatchi) kabi obrazlar asarning o‘ziga xos qiziqarli sujetida muhim ahamiyatga egadir. Masalan, Tengizni olaylik. U olis Sibirning Irkutsk shahri yaqinidagi qamoqxonalardan biridagi jinoiy to‘da rahbari (laqabi Knyaz). U garchi jinoyatchi bo‘lsa-da, asarda eng oqil personaj sifatida gavdalanadi. U Peterburgda talabalik chog‘ida bir kavkazlik domlaning uyini tunab, yoqib yuborganligi uchun qamalga hamda shundan keyin jinoyat olamiga kirib ketgan. Tengizning oqilligi uning qamoqdagi yana bir o‘zbek mahbusi Nuriddin bilan suhbatlarida namoyon bo‘ladi:

*“Tengiz: Qiziq...qiziq...sen yanglishma, eh... bola, kimdir kimgadir qul bo‘lishi kerak. Bu dunyo o‘zi shunaqa. Sening qullikdan o‘zga chorang yo‘q. Yo qul bo‘lib yashaysan, yoki o‘lasan!”*

*Nuriddin: Odamning qulligi to‘g‘ri. Lekin siz ham yanglishmang. Odam faqat Yaratgangagina quldir. Banda bandaga qul bo‘lmaydi. Ayniqsa, musulmon kofirga qul bo‘lmaydi”.*

Asarda iymon va nafs, diyonat va qabohat, sabr-matonat va ochko‘zlik, olijanoblik va manfaatparastlik kabi fazilat hamda illatlar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Misol uchun, sovxoz direktori Tursunali maishat va nafs yo‘lida hech narsadan qaytmaydi, qamoqda ham harom yo‘llar bilan to‘plagan boyliklari o‘ziga va oilasiga musibat keltiradi, asar yakunida qamoqdan ozod etilishiga qaramay, yana qing‘ir ish ustida ushlanib ozodlikdan mahrum etiladi. Bu iflos boyliklar iziga tushgan o‘g‘rilar to‘dasi boyliklar yashiringan xonadonda Nafisa va Sanjarni o‘ldirib ketadilar. Voqealar aynan mana shu ikki personajning o‘limi bilan boshlanib, ushbu murdalar tufayli ochilib boradigan chigal ishlarning bayonidan iboratdir. Asarda yana Tursunaliga o‘xshash personajlar Toshbolta va Adolatdir. Toshbolta ham nafs yo‘lida o‘z qizini sovxoz direktori maishatiga yo‘llashdan

ham toymaydi, birinchi xotinini mastlikda urib o'ldirgan Toshbolta bir umr qaynonasining la'anatiga duchor bo'ladi, qarg'ish urgan Toshbolta halokatga yo'liqib falaj bo'ladi, umrining zavoli bo'lgan, o'zi kabi nafs quli Adolat ismli xotinga uchraydi, qizi Nafisa ham beayb halok bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Tohir Malik ijod namunalari mavzu hamda qamrov jihatdan ancha mukammal yozilgan asarlar sirasiga kiradi. Ushbu asarlar orasida detektiv, ilmiy-fantastik, didaktik ruhdagi asarlar uchraydi. Ular janr jihatdan turlicha bo'lsa-da, mazmun va g'oyaviy jihatdan ularni nafsqa qul bo'lmaslik tamoyili birlashtirib turadi. Zero, nafs insonni bu dunyoda xorlikka va zalolatga, oxiratda esa abadiy jahannam otashiga giriftor etuvchi illatdir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Tohir Malik. Odamiylik nulki. – T., Istiqlol. 2005.
2. Tohir Malik. Tanlangan asarlar. – T., Sharq. 2010.
3. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_nasri/Tohir%20Malik.%20Falak%20\(qissa\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Falak%20(qissa).pdf)

### **O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARI HAQIDA**

*Shaxnoza MUXTAROVA,*

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi,

“... Menga qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo‘lur edim. Haqiqiy ijodkor Xudo ko‘ngliga solganda qo‘liga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug‘iladi!” Darhaqiqat, o‘zining “Mashaqqatli safar” nomli tarjimai holida ushbu jummalarni yozgan O‘tkir Hoshimov umri davomida dunyo voqealari va o‘zbek xalqining hayotidagi turli kechinmalarini, iztirobli kechmishini qalamga olib, har bir asarida katta mahorat bilan kitobxon qalbini cherta olgan, yaratgan asarlariga qalbini bag‘ishlagan, tabiiy tasvirlarga boy, o‘lmas durdonalar yaratgan serqirra ijodkordir.

O‘z ijodini publitsistikadan boshlagan adibning 1962-yili “Po‘lat chavandoz” nomli ocherklar to‘plami bosilib chiqdi. U badiiy ijodga juda erta mayl bildirgan, 5-sinfda o‘qib yurgan kechlaridayoq she‘rlar, hikoyalar mashq qila boshlagan bo‘lsa-da, “To‘rt maktub” nomli ilk hikoyasi 1963-yili matbuotda bosilib chiqdi. Shu hikoya asosida “Cho‘l havosi” qissasi yozildi. “Sharq yulduzi”da bosilgan bu qissa haqida yosh muallif Abdulla Qahhordan maktub oldi. “O‘tkir! “Cho‘l havosi”ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o‘qiladi”, deyiladi o‘sha maktubda. Bunday iliq so‘zlar yosh yozuvchiga dalda berdi. So‘ng u birin-ketin “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Ikki karra ikki besh”, “Dunyoning ishlari” kabi qissalari, “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi” kabi romanlarini yaratdi.



XX asrning 90-yillarida istiqloq adabiyoti deb ataladigan estetik hodisa yuzaga keldi. Bu davrda milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratdi. Buning natijasida inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi. O'tkir Hoshimovning qissa va romanlarida qamrab olingan voqealarning bosh mavzusi ham so'z san'atining azaliy muammosi – shaxs jumbog'i, inson taqdiri va qabining badiiy tahlili bilan bog'liqdir. Dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko'p o'rinlarda personajlar ruhiyatidagi g'oyat nafis jarayonlarni san'atkorona tasvirlagan adibning asarlari kitobxon qo'li va qalbidan joy oldi.

Yozuvchi o'z tarjimai holida shunday deb yozgan: "...Ellik yoshga chiqqunimcha bobolarimning kim bo'lganini bilmaganman. 1991yil taniqli olim va jurnalist Sirojiddin Ahmedov shajaramiz to'g'risida ma'lumotni qo'limga topshirdi. Keksa yoshdagi qarindoshlarimdan bu dalillarni nega menga aytishmaganini so'raganimda, juda asosli javob eshitdim. Gap shundaki, agar bu gaplarni bilganimda, qayerdadir aytishim yoki yozishim muqarrar edi. Sho'ro siyosati esa "xalq dushmanlari"ga aloqador bo'lgan odamni ko'kartirmasligi aniq edi... Otam Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo'lib Do'mbirobotga ko'chib kelgan, xarobagina kulbada tirikchilik qila boshlaganlar... Faqat ro'za kunlari sahar pallasi chiroyli qiroat bilan Qur'on tilovat qilganlari yodimda. Otam eski kitoblarni ham, zamonaviy adabiyot va gazetalarni ham muntazam o'qib borar, o'ta haqparast, nohaqlikni ko'rsa yonib ketar edilar. ...Onam Hoshimova Hakima esa otamning aksincha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edilar. Oyim qancha sodda bo'lsalar, shuncha donishmand ham edilar! Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o'ta oqko'ngil, gina-kuduratni bilmaydigan ayol edilar...". Ushbu satrlarni o'qigach, aslida har qanday asarda ham ma'lum ma'noda qalamkash biografiyasining bir bo'laki aks etishini, adibning betakror kitoblarini o'qiganimizda esa ijodi bolalik xotiralari, xalq hayoti bilan naqadar yaqin ekanligining guvohi bo'lamiz. Yozuvchining "Tushda kechgan umrlar" nomli so'nggi romani ham yoshligida aytilishi lozim bo'lgan xotiralar bilan bog'liq voqealar haqidadir.

Jamiyat hayotidagi mana shunday manzaralar adabiyotda o'zgacha qahramonlar hayoti tasvirlangan asarlarning paydo bo'lishiga zamin hozirladi. Ko'plar e'tiqod qo'ygan, ishongan tuzumning barbod bo'lishi, butun umrini, hayotini shu tuzumga xizmat qilishga sarflagan insonlarning ishongani sarob bo'lib chiqishi O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida mahorat bilan tasvirlandi.

Asarda urush davri tozalashlari, urushdan keyingi ziyolilar qatag'oni, afg'on urushi va "paxta ishi" tazyiqlari o'ziga xos izchillikda yoritiladi. Insonlar hayotida sodir bo'lgan bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog'lab, tarix haqiqatlarini badiiy to'qimalarga aylantirib, hayot mashaqqatlarini tabiiy tasvirlagan adib o'zining mazmuniy va g'oyaviy voqeliklari bilan XX asrda xalqimizning boshiga tushgan og'ir kunlar haqida avlodlarga, bizlarga achchiq haqiqatidan hikoya qiladi.

Odamzot hayotida shunday pallalar bo'ladiki, ba'zida ularni hech qachon unutging kelmaydi, ba'zida esa tushingda kechirgandek unutishni xohlaysan. Ammo bunday vaqtlar hayotingda qanday iz qoldirganidan qat'iy nazar, baribir qalbingning bir bo'lagi hamisha o'sha xotiralar bilan band bo'lib qolaveradi... Romanning kirish qismidagi ushbu satrlarni o'qib, har bir kitobxon o'zining umri haqida o'yga toladi, hayotga teranroq ko'z bilan qaraydi.

Asar voqealari "Rustanning oxirgi kundaligidan" olingan kuz tasviri bilan boshlanadi: "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib olamga ma'yus boqadi. Yer-ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarining xosiyatsiz fig'oni eshitiladi." Kuzning o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshatilishi, xazonlarning ingrash, yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman qoplashi, qarg'alarining bexosiyat fig'oni asarda qandaydir nohush vaziyatlar bo'lishiga ishora qiladi. *Umrlari yolg'on taqdir asosiga qurilganligini kech bo'lsa ham anglab yetgan, yolg'on aqidalar, be'mani urush, qatag'on siyosati, begunoh insonlarning jazolanishiga guvoh bo'lgan kishilar hayoti xuddi tush kabi bir zumda o'tib ketgani asar mavzusini belgilab bergan. Atigi to'rt oy ichida yuz bergan voqealarni tasvirlash orqali adib yuksak badiiy mahorat bilan kitobxonga umrning o'tkinchiligi, yoshlikning g'animatligini eslatadi.*

*Romandagi talay personajlar, bosh qahramon – Rustam va Komissar obrazi yozuvchining zamonaviy adabiyotdagi badiiy kashfiyoti bo'ldi.* Rustam – fojeaviy shaxs. Katta hayotga endigina kirib kelayotgan, ona yurtning yetuk bir farzandi, sodiq fuqarosi bo'lishi, el-yurt uchun ko'p ishlar qilishi, sevgilisi vasliga erishib baxtli hayot kechirishi mumkin bo'lgan bu navqiron o'g'lon umri o'n gulidan bir guli ham ochilmay turib xazonga aylanadi. Uning hayotini mustabid tuzum, totalitar siyosat yurgizganlar, afg'on urushini boshlaganlar, "o'zbeklar ishi", "paxta ishi" mojarosini o'ylab topgan g'alamislar barbod etadi. Rustam halokati mana shu mudhish siyosatga zo'r bir aybnoma kabi yangraydi, uning taqdiri bilan bog'liq voqealarga uzviy bog'langan holda adib shunday muammolarni yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Asardagi chekist - Komissar (Soat G'aniyevich) obrazi orqali o'sha davr chirkinliklari-qoraliklari yaqqol ko'rsatilgan. U butun umrini yovuz ruh misoli tubanliklarga bag'ishlab davlat organlarda ishlar ekan hammaga dushman deb qaraydi, hammadan gumonsirashni o'zining oliy burchi deb o'ylaydi va faqat o'zini haq deb biladi. "Yuz foiz hammadan hatto o'zining xotinidan, bolasidan gumon qiladi." Shu tarzda komissar yoshligida birga ynab katta bo'lgan, xush kayfiyat va shirin orzular og'ushida yashayotgan bolalarning ustidan tuhmatlar uyushtirib ularni qamatadi. "qamchisidan qon tomgan" bu inson o'zining tuzumga sadoqatini isbotlash uchun ko'pgina yaqin odamlarining yostig'ini quritish, kimningdir oilasini qon qaqshatib jondan aziz insonini oilasi bag'ridan yulib ketish bilan cheklanmay so'roq paytida ularni jismonan azoblashning juda dahshatli yo'llarini o'ylab topadi. Bu obraz orqali yozuvchi e'tiqodsiz, imonsiz kishi, farovonlikka, baxt – saodatga erishishning yakka-yu yagona yo'li sotqinlik josuslik deb bilishini aniq hayotiy lavhalarda ko'rsatadi. Sotqinlik dardiga giriftor

bo'lgan bunday kimsalar pul berilsa bas, hamma narsani, hatto padari buzrukvoriyu, oq sut bergan onasidan ham tonadi. Soat G'anievning e'tiqodsizligi shu darajadaki, u hatto musulmon olamining muqaddas kitobi sanalmish Qur'oni Karimni tintuv paytida topib olib mayda-mayda qilib tashlaydi. Milliy qadriyatlarimizni toptab, o'z jigargo'shasidan voz kechadi.

Mening fikrimcha, Komissarning taqdiri ana shu davrdagi mustabid, qoloq tuzum ta'sirida shunday kechgan. Inson manfaatlari ulug'lanadigan bugungiday erkin va ozod zamonda bunday nopok kimsalarga o'rin yo'q.

"Tushda kechgan umrlar" asari kitobxonni bevosita XX asr mustabid tuzum oqibatidagi betartib hayot bilan tanishtiradi, xalq mustaqilligi yo'lida umrini qurbon qilgan ziyoli insonlarga nisbatan qalbida g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Adib asar bosh qahramoni Rustamning jang-u jadallarning birida onasining jonsiz tanasidan oziqlanmoqchi bo'lgan go'dakni ko'rgandagi holatini tasvirlar ekan, kitobxon qalbida urushlar va yomonliklarga nisbatan nafrat uyg'otadi. Musaffo osmon, tinch va inson hayoti qadr topgan zamonda yashayotganiga shukrona keltirishga undaydi. Tinchlikning qadriga yetish inson qadr-qimmatini to'g'risida mulohaza etishga o'rgatadi, asar manzaralarigi har bir voqea yuksak va bir umrlik saboq bo'lib adabiyot ixlosmandlari xotirasida o'chmas iz qoldiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Adabiyot". Sharafjon Sariyev. – Toshkent "HEAD BOOK", 2018.
2. "Tushda kechgan umrlar". O'tkir Hoshimov. – Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2018.

### **ABDULLA QAHHOR O'Z ZAMONDOSHLARI HAQIDA**

*Salomat ESANBOYEVA,  
Boyovut tumani 34-maktab o'qituvchisi*

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyoti maydonida faqat yozuvchi bo'lib emas, balki munaqqid va adabiyotshunos olim sifatida ham chuqur iz qoldirdi. Garchi adib adabiyotshunoslikka da'vogarlik qilmagan bo'lsa-da, uning adabiyotshunoslik nazariyasiga oid teran fikrlari anchagina.

A.Qahhor badiiy adabiyot, avvalo, xalq uchun, uning manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak degan konsepsiyani ilgari suradi. Ijodkor adabiyot atomdan kuchli ekanligini, faqat uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerakligini aytish orqali uning xalqqa ta'siri masalasiga alohida urg'u beradi.

A.Qahhor nazarida mahorat ham tashqaridan keladigan bir narsa emas, balki u ham ilhomga bog'liq. Lekin ilhomning o'zi xalq dardini anglashga yordam bermaydi. Xalq dardi va quvonchini seza turib, badiiy texnika ustida o'ylagan, qunt bilan ishlagan yozuvchigina yaxshi asar yarata olishi haqidagi fikrlari ham salmoqli qarashlaridandir. Abdulla Qahhorning hayotdagi prinsiplaridan biri "kitob shavq bilan o'qilishi kerak", degan tushuncha atrofida mujassamlashgan edi.

A.Qahhorning munaqqid sifatidagi o'ziga zamondosh ijodkorlar haqidagi fikrlari anchagina. Adib ularga baho berishda ob'ektivlik va adolat tamoyillariga

hamisha amal qiladi. Halollik va sof vijdonlilik uning hayotdagi shiorlaridan biri bo'lganligi ham bunda o'z aksini topgan.

Abdulla Qahhor haqida uning eng sadoqatli shogirdlaridan bo'lgan Umarali Normatovning fikrlari alohida ahamiyatga ega:

“O'shanda suhbatimiz, asosan adabiy tanqid ustida bordi. Abdulla aka o'zbek adabiy tanqidchiligi chinakamiga oyoqqa turib kelayotganligi, Matyoqub Qo'shjonov, Laziz Qayumov, Ozod Sharafillinov, Salohiddin Mamajonov, Norboy Xudoyberganov maqolalari, ularning yaxshi fazilatlari xususida gapirdi. Tanqid uchun eng muhimi – iste'dod, katta bilim, shu bilan barobar halollik va ob'ektivlik ekanligini alohida ta'kidladi. “Tanqid, tanqidchi hammadan burun halol bo'lishi kerak, - degan edi u gurungda. – Tanqid nihoyatda pokiza bir maydon. Bilasizmi, musulmonlar nazarida masjid pokiza dargoh sanaladi. Musulmonchilik taomiliga ko'ra, bu dargohga kiradigan odam yuvingan-tarangan, tahorat olgan bo'lishi shart: dargohga kirgandan keyin hamma o'y-xayollarini ko'nglidan quvib, faqat bir narsani – Allohni o'ylashi kerak, salgina bo'lsa-da, xayoli boshqa tomonga ketdimi – tamom, toat-ibodati, duosi ijobatga o'tmaydi... Shaxsiy ta'ma, g'araz yoki boshqa sub'ektiv mayllar aralashdimi, ish tamom deyavering. Tanqid maydonida e'tiqoddan salgina bo'lsin chetga chiqishning real xunuk oqibati bor. Bundan yozuvchi, tanqid, adabiyot, qolaversa, kitobxon zarar ko'radi...” [1, 63]

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, Abdulla Qahhorning munaqqid sifatidagi hayotiy konsepsiyasi mavjud bo'lib, uning asosini insonlarning manfaati, qalban pokizalik va ob'ektivlik tashkil etishi yuqoridagi fikrlardan ham ma'lum. Umarali Normatovning yana bir xotirasida Abdulla Qahhorning tanqidchilikdagi salbiy kimsalar xususida ham o'z kuzatuvlari asosidagi fikrlari mavjud ekanligini ko'ramiz.

Abdulla Qahhorning har bir o'ziga tengdosh yozuvchilar shogirdlari, iste'dodli yoshlar haqida aniq-ravshan qarashi bor bo'lgan. Ayniqsa, adib o'ziga tengdosh ulkan talant sohiblarini nihoyatda yuksak qadrlagan. Bir gal ustoz ijodkorlardan bo'lgan Oybek haqida so'z ochib turib, shunday degan ekan: “U o'zbek adabiyotida bamisli hamma tomonidan barchaning ko'ziga tashlanib turadigan, ulkan, slobatli qoya. Bulutli kunlar dovullari ham, davr zilzilalari paytida unga darz ketdi. Shunga qaramay, u hamon qoyaday bardam turib, tinmay ijod qilyapti”. Ya'ni Oybekday buyuk ijodkorlar o'zbek adabiyotining cho'ng qoyalari bo'la olishlari xususida so'z bormoqda.

Abdulla Qahhorning G'afur G'ulom vafotidan so'ng ko'p afsus va o'z navbatida iftixor bilan quyidagilarni aytganligi ma'lum: “U mislsiz iste'dod egasi edi. Afsuski, o'zidagi shu ulkan iste'dodning hammasini to'la ishga sololmay, to'qson foizini o'zi bilan olib ketdi. Ammo chin iste'dod mahsuli bo'lgan chin asarlari bilan ham u adabiyotimizda klassik bo'lib, qolaveradi” [1, 58].

Adib Maqsud Shayxzodaning dafn marosimini o'tkazib, qaytib kelishayotganlarida bir guruh adabiyotshunoslarga qarata: “Maqsudning shoirligiyu, dramaturgligini bir yoqqa qo'yib turganda ham, adabiyotshunos – tanqidchi sifatida o'zbek adabiyotshunosligining yarmini o'zaro bo'lishib

olasizlar” [3, 59], - deyish orqali Maqsud Shayxzodaday yetuk ijodkorning adabiyotshunoslik sohasiga ham ulkan hissa qo‘shganligini aytib o‘tadi.

Abdulla Qahhor estetik talabalaridan asarning g‘oyaviy yo‘nalishi aniq bo‘lishi talabi bo‘lgan. U yozuvchi Ma‘ruf Hakimning “Hayot qo‘shig‘i” nomli hikoya va ocherklar to‘plami haqida yozuvchining biror narsa yozishidan avval nima haqida yozishini o‘ylab olmaganligini aytib o‘tgan edi.

Munqqidning Said Ahmad ijodiga mehri bo‘lakcha bo‘lganligi uning qator adabiy-tanqidiy maqolalarida ko‘rinadi. Adib o‘z shogirdini o‘ziga nihoyatda yaqin olganligi, asarlaridagi milliy ruhni, xalqchil yumor va jo‘shqin ehtirosni xush ko‘rganligi, shu bilan barobar: “Bir oz shoshiladi, kerakli o‘rinlarda ehtirosini jilovlay bilmaydi; gohi kitobxon kulavermasa qitiqlab kuldirishga, yig‘layvermasa ko‘ziga piyoz surtib yig‘latishga urinardi”, - degan fikrlari ham jonkuyar ustozning o‘ziga xos o‘g‘itlari sifatida baholanganligidan ustoz ijodkorning shogirdparvar ekanligini ham anglash mumkin.

Munaaqqidning E.Vohidov ijodi haqida ham ijobiy fikrlari ushbu talantning rivojlantirish konsepsiyasi ko‘rsatadi.

“Erkin Vohidovni shaxsan taniysizmi? – deb so‘radi bir kuni. – Juda aqlli, bilimdon, boodob, o‘ta serandisha, yetti o‘lchab bir kesadigan yigit ko‘rinadi. Buni she‘rlaridan ham bilsa bo‘ladi... Lekin she‘riyatda, ijodda o‘ta ehtiyotkorlik har doim ham o‘zini oqlayvermaydi... Buni Erkinga tushuntirish kerak” [3, 58].

Erkin Vohidov bilan bo‘lgan ko‘p sonli muloqotlarda ham ushbu fikrlar qayta-qayta aytilgan, yuqoridagi bobda ham adibning shogirdparvarligini ko‘rib o‘tgan edik.

Adibning, ayniqsa, shoir Abdulla Oripovga ixlosi baland bo‘lgan. Shoirning “Munojot”ni tinglab” she‘rini o‘qib, uzoq xayolga tolib, so‘ng shunday degandi: “O‘zi boladay mas‘um, beozor, osoyishta ko‘rinsa ham, yuragida g‘alayon jo‘sh urib turadi. Zamonlar dramasini, odamlar dardiyu g‘amini butun vujudi bilan his etadi... His-hayajonlari, aytmoqchi bo‘lgan gaplari ko‘nglidan sharsharadek shitob bilan otilib chiqsa kerak; ularni qog‘ozga tushirishda qo‘li shoshilib qolar-ov deyman... Bunaqa noyob talantni yomon ko‘zdan asrash lozim” [3, 59]. Bunday baho talabchan ustoz tomonidan kichik bir, endi shakllanayotgan shoirga berilishi juda katta e‘tibor va yuqori baho hisoblanadi.

Munaaqqidning o‘sha paytdagi yosh yozuvchilardan bo‘lgan O‘tkir Hoshimovga munosabati ham boshqacha bo‘lgan:

“O‘tkir kuyib-yonib, o‘rtanib, shavq bilan yozadi... Qani endi, shunday yoniq iste‘dod tezroq kengroq ufqqa, chiqib olsa! – deya gap boshladi u Do‘rmonda uchrashuvlarimizdan birida” [3, 59]. Ushbu fikr bo‘lajak buyuk yozuvchining o‘ziga xos baholaridan biri hisoblanadi.

Abdulla Qahhor o‘zi tanqid qilgan yozuvchining yaxshi asari chiqqanida quvona bilar edi. Chunonchi, Mirmuhsinning “Ziyod va Adiba” romani to‘g‘risida ancha keskin salbiy fikr bildirgan adib bir suhbatida uning “Arab hikoyalari” turkumi, aniqrog‘i, shu turkumdagi “Yo‘qolgan javohir” bilan “Iskandariya ko‘rfazi” haqida mamnuniyat bilan “Bularni asar desa bo‘ladi. Ularda hayot bor”, deganligi haqida ham zamondoshlarining estaliklari mavjud.

Adib xush ko‘radigan jangovor tanqidchilardan biri o‘z maqolasida nomdor bir shoirning bo‘sh she‘rlarini tanqid qilgani uchun siquvga olinib, ruhi tushib yurganida, Abdulla aka unga dalda berib: “Bardam bo‘l, agar o‘zini shoir – yozuvchi deb sanaydigan odamda ozgina iste‘dod va insof bo‘lsa, ertami-kechmi haq gapga, adolatli tanqidga tan beradi. Agar unda ikkisi ham bo‘lmasa, haq gaping uchun ketingdan bolta ko‘tarib yuguradi... Agar shunaqa kimsalarning boltasidan qo‘rqsang, yaxshisi, tanqidchilik dastgohini yig‘ishtir-da, vaqtida boshqa tinchroq, yog‘liroq kasbning etagidan tut!” – degandi” [3, 60]. Bundan munaqqidning halollik tamoyiliga izchil amal qilganligi, barchani shunday bo‘lishga chaqirganligini anglash mumkin.

Abdulla Qahhor asarlari hamma davrda sevib o‘qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan barhayot asarlardir. Har bir so‘zning zalvorli yuki va mas‘uliyatini qalbida tuygan, yozish texnikasi va tasvir madaniyati yuqori bo‘lgan Abdulla Qahhor asarlarida ma‘naviylik va milliylik qimmatli xususiyatlardan hisoblanadi.

Adibning o‘g‘itlari va amalga oshirgan ishlari yosh talantlarni shakllantirish yo‘lidagi zalvorli mehnati, zamondosh ijodkorlariga munosabati uni o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligidagi mislsiz xizmatini ta‘kidlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Normatov U. Ustoz ibrati. –T., Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007. 64-bet.
2. O‘ljaboev U. Abdulla Qahhor saboqlari. – Guliston. 2013. 40-bet.

## **SAID AHMADNING «KIPRIKDA QOLGAN TONG» QISSASI BADIYYATI**

*Iroda XOJIBOYEVA,  
Boyovut tumani 11-maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi*

Said Ahmadning mustaqillikkacha yaratilgan asarlariga adabiyotshunoslar o‘z baholarini berishgan. Lekin adibning keyingi yillarda yozilgan asarlari hali o‘z bahosini olib ulgurmagan. Said Ahmadning «Kiprikda qolgan tong» qissasi shulardan biri. Said Ahmadning «Kiprikda qolgan tong» qissasida bosh qahramon bo‘lgan O‘.Umarbekov obrazining hayotda yuz bergan bir qancha voqealar orqali tasvirlagan va uni o‘z ideali sifatida maromiga yetkazib yarata olgan va bunga kitobxonlarni ham ishontira bilgan. Shuning bosh qahramonni ziddiyatlar orasida, hayot mashaqqatlari ichida toblab, o‘lim oldidan ham bukilmaydigan mustahkam iroda sohibi sifatida e‘tirof etadi.

«Said Ahmad qahramonlari bevosita tabiat qo‘ynida – tog‘larda, yaylovlarda, cho‘llarda, bog‘larda, dalalarda, qir-adirlarda ko‘rinadilar, ular nuqul tabiat quchog‘iga, kenglikka, ufqlarga talpinadilar. Said Ahmad ona tabiatning maftuni, yoniq kuychisi kabi ish ko‘radi, xususan, oltin vodiy – Farg‘ona manzaralarini zo‘r mehr, samimiyat bilan madh etadi. Adib asarlarida tabiat bir

oromgoh, siqilgan ko'ngillarga taskin beruvchi maskan, o'quvchiga estetik zavq, lirik kayfiyat uyg'otuvchi bir vosita». [2, 190]

Asar qahramonlariga tabiat hamroh bo'ladi. Ularning har bir holatiga tabiat hamohang bo'ladi. Buni asardagi dovon, tog', hovlilar, dala va yo'l bo'ylari tasvirlaridan, shuningdek bosh qahramon o'limi bilan bog'liq bo'lgan tafsilotlarda kuzatish mumkin. Har bir tabiat lavhasi yozuvchining g'oyaviy holatidan kelib chiqqan holatda o'rni bilan ishlatiladi. Buning zamirida hayotiylik va ushbu manzaraning bevosita guvohi bo'lish holatlari kuzatiladi. Ya'ni muallif qahramonni xarakatlantirayotgan muhitga qarab ob-havo yoki tabiat tasvirini berib boradi. Bunga bosh qahramonning hovli qidirish voqeasidagi, dovondan o'tishdagi, ovga borishgandagi va nihoyat o'limi tafsilotlari bilan bog'liq tasvirlar kiradi. Bunday tasvirlarni o'qigan kitobxon o'zini o'sha maftunkor manzara qo'ynida his etadi va o'shaning tarovatidan bahramand bo'ladi. Bu xil tasvirlarning berilishi ham qahramon ruhiyatidagi evrilishlar jarayonini kuzatish imkonini beradi, ham kitobxonda ona tabiatga nisbatan mehr va e'tibor hissi shakllanishida ham qo'l kelishi mumkin.

«Havo toza, osmon tiniq. Dengizni mavjlantirib biz tomon esayotgan ajib bir namsux epkin ko'ngillarimizni yayratadi. Somonshuvoq tomlarda lolaqizg'aldoq gulxani lov-lov yonadi. Yigitlar chakkasida chuchmoma, qizlar sochida tolbergakdan sochpopuk...» [2, 149].

Poetik tasvir yozuvchinnig qissa so'ngidagi marhum yozuvchini xotirlab yozgan duosida ham ko'zga tashlanadi:

«... Shu qisqagina yashab o'tkazgan umringda sen ko'rmagan javru-jafolar qolmadi. Bariga chidab berdim. Bo'g'zingni pora-pora qilib, jonginangni og'ritib kesayotgan tig'ga qandoq turib berganing birgina yaratgan egamga ayon» [3, 190].

Bu jumalalarda eng muhimi ijodkor qalbidagi kuchli iztirob va ushbu iztirob kechinmalarining badiiy tasvir vositalari yordamida yuzaga chiqarilgani va qog'ozga tushirilgani.

Said Ahmadning «Kiprikda qolgan tong» qissasini syujetning yuqorida sanab o'tilgan uchta turiga mansub deyish mumkin. Chunki ushbu qissada ham bir necha hikoyalardan tashkil topganu umumiy syujetga qo'shilmagan shakldagi hikoyalari ham bor. O'z navbatida yaxlit syujetga birlashuvchi bir necha hikoyatlardan iborat o'rinlari ham mavjud. Bu holat qissadagi bosh qahramon bilan bog'liq hikoyalar berilgan o'rinlar uchun xos bo'lsa, boshqa «chet» kishilar hayoti ko'rsatilgan ayrim hikoyatlarning berilishi uni ikkinchi turga mansub qissa sifatida talqin etishga asos bo'ladi. Ya'ni ushbu qissada shakliy jihatdan o'ziga xoslik ham kuzatiladi.

«Povest janrinnig yana bir xususiyati, murakkab hayotiy konfliktlarni, uning syujet taraqqiyotidagi rivojini ham ko'rsatishni taqozo qiladi. Asar markaziga qo'yilgan konflikt syujetni harakatga keltirish va u asar markazida turishi lozim».

Said Ahmadning yuqorida keltirib o'tilgan qissasida esa bunday konflikt turi yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Chunki asar bosh qahramoni bo'lgan yozuvchi O'lmas Umarbekovning hayot tarziga halaqit beradiganlar insonlar emas, balki tabiat va tasodiflar edi. Buning isbotini biz yuqorida uning to'rt marta falokatga

uchragani va Olloh bu borada uni qo'llagani haqida so'zlagan edik. Shuningdek, ushbu avaylanishga arziydigan insonni shuncha asrashga urinsalar-da, lekin ko'z tegishi voqealari qissadagi qahramon va muhit o'rtasidagi konfliktning o'zgacha bir ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin. Lekin qissada yaqqol ko'zga tashlanadigan shaxs va jamiyat o'rtasidagi kurash shakllari yohud konfliktlar ko'zga tashlanmaydi. Asardagi ayrim o'rinlarda yozuvchining voqelik yoki ijtimoiy hayotdagi ayrim hodisotlarga noroziligi kayfiyati oshkora sezilgan yozuvchilar uyushmasidagi saylovlar yoki dacha bilan bog'liq ishlar hikoya qilingan o'rinlarda bu yaqqol seziladi. Bunda ichki ziddiyat, ayrim shaxslarning jamiyatdagi nobop illatlarga qarshi o'ziga xos kurash tarzi tavsif etilgan. Xususan, Abdulla Qahhorning Yozuvchilar uyushmasiga mos bo'lmagan nomzodlarning saylanishiga qarshi o'z fikrini ochiq norozilik bilan chiqib ketishi yoki uyushma kotibini saylayotganlarida ham uning nomzodi o'rinsiz ekanligining belgisi sifatidagi norozilik harakatlari shular jumlasidandir.

O'lmas Umarbekovning o'limiga tik boqib, u bilan kurashib turib ham charchagan holatda emas, balki ijod bilan band holatda, buning ustiga jilmayib kutib olishi uning qalbidagi o'lim ustidan g'oliblikni ko'rsatuvchi omillardan edi. U ushbu kurashda ham bo'y bermay, o'zidan keyin nodir asar namunalari qoldirishga urinadi va bu jarayonda adibning «Qizimga maktublar» asari yuzaga kelishi jarayoni qissada tasvirlangan.

«...Qizimga maktublar»ni asta varaqlayman. Undagi «Mangu dunyo bo'sag'asida» degan yozuvni o'qib seskanib ketdim. Bu gapni men o'qib shunchalik iztirobga tushyapman, bilmadim bu gapni aytishga qanday tili bordi? Nahotki shularni yozayotgan qo'li titramadi, nahotki faryod urib yig'lab yubormadi...» [1, 101].

Mana shu xavotirli e'tirofdan insonning bu holatlardagi qalb tug'yonlarini tasavvur qilish mumkin. Eng oxirgai lahzalarda ham o'limga bo'y bermagan bosh qahramonga nisbatan kitobxon qalbida cheksiz hurmat va muhabbat tuyg'usi paydo bo'ladi. Bunday taassurot sababchisi birinchi o'rinda ushbu lahzalar zalvorini qalbida yana bir bor ko'tarib, his qilib, so'ngra qog'ozga tushirgan mahoratli yozuvchi, otaxon adibimizdan minnatdor bo'lishimiz kerak.

«Said Ahmad hayotdan ko'proq betinch, beorom odamlarni qahramon qilib oladi, ularni biz hamisha his-tuyg'u olamining keskin, tarang daqiqalarida-yo tajang, yo o'zida yo'q shod, yo g'am-alam, yo rohat-farog'at og'ushida ko'ramiz. Yozuvchini birinchi galda bevosita personaj xarakteri emas, balki uning hissiy kechinmalari qiziqtiradi. Adib qahramonni kitobxonga keskin ruhiy holatda ko'rsatadi-da, so'ngra buning sabablarini izohlashga o'tadi, yo'l-yo'lakay qahramon xarakterini, hayot yo'lini chizadi» [2,188].

Said Ahmadday zabardast ijodkor va buyuk san'atkor adibga xos bo'lgan yuqoridagicha xislat adib asarlaridagi individuallikni ta'minlagan.

Mana shu uslub adibning yuqorida tahlilga tortilgan qissasida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Xulosa qilib aytganimizda, Said Ahmad nafaqat XX asr o'zbek adabiyotida, balki XXI asr o'zbek nasriga ham ulkan hissa qo'shgan adiblardan biri sanaladi.



Ushbu ulug‘ inson va buyuk san’atkor adib XXI asr adabiyotiga o‘zining bir qator zalvorli hikoyalari qatorida qissalari bilan ham o‘rnak bo‘larli natija ko‘rsatdi. Sakson yoshni qoralagan adib uchun bunday muvaffaqiyatli ijod namunalarini yaratish oson bo‘lmaganligini tasavvur qilish qiyin emas. Uning biografik xarakterdagi «Kiprikda qolgan tong» qissasi hozirgi o‘zbek adabiyotida muhim o‘rinni egallaydigan, o‘zbek adabiyotida o‘zinnig ulkan xizmatlari bilan iz qoldirgan O‘lmas Umarbekovday adibning ruhiyati, shaxsiy fazilatlar va hayot tarzi haqida yetarlicha tasavvur hosil bo‘lishda ko‘maklashadi.

Xullas, otaxon adibimiz o‘zbek adabiyotiga yana bir zalvorli qissasi bilan hissa qo‘shdi. Bu adabiyotshunoslikda o‘z bahosini olishi kerak bo‘lgan badiiy asarlardan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abrorov A. O‘zbek povesti. – T., «Fan» nashriyoti, 1973, 50-bet.
2. Normatov U. El ardoqlagan adib. Yetuklik kitobidan. – T., 1982 y., 188-bet.
3. Said Ahmad Kiprikda qolgan tong. – T., Sharq., 2008. 99-bet.

### **ERKIN A’ZAM QISSALARIDA O’ZIGA XOSLIK**

*Surayyo DJURAYEVA,*

*Boyovut tumani 5-maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi*

Erkin A‘zam qissalaridagi yozuvchining o‘ziga xos uslubi sifatida kinoyaviylik qo‘llaniladi. Yozuvchi qissalarida badiiyatni ko‘rsatuvchi unsurlardan bir personaj nutqidir. Ya‘ni yozuvchi qissalarida personajlar o‘z nutqlari orqali o‘zligini ko‘rsatib bergan o‘rinlar mavjud. Buni yozuvchining “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi misolida ham ko‘rish mumkin. Qissada hikoyachi qahramon yozuvchining o‘zi. Asar yozuvchining o‘zi ham uqtirib o‘tishicha, uning Koreya (Buriyo)ga qilgan o‘n kunlik safari taassurotlari asosida yozilgan.

Qissada Buriyo mamlakatining dohiysi va boshchisi Xon Man Men ismi ko‘p marta tilga olinadi. Uning g‘oyalari, uning gap-so‘zlari, xatti-harakati ham bu mamlakat uchun qonun darajasida ekanligi, unga butun mamlakati sig‘inishi, bizning yurtda ham bo‘lib o‘tgan shaxsga sig‘inish davrini esga soladi.

Bu mamlakat bo‘ylab qilingan sayohat orqali ushbu mamlakat aholisi tinch-farovon yashayotgandek ko‘rinadi. Ko‘chalarida birorta keksani yoki nogiron kishini uchratish qiyin. Uylarning derazalariga parda tutish mumkin emas. Chunki parda tutilsa ichkarida davlatga qarshi fitna uyushtirilayotganligini payqamay qolish mumkinligidan cho‘chishadi. Bu mamlakatda yigitlar yigirma to‘qqiz yoshdan, qizlar yigirma yetti yoshga yetganlaridagina turmush qurishlari mumkin, ungacha yigit va qizlarning biror joyda qo‘l ushlab yurishlariga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Bir safar qo‘l ushlab, lekin o‘sha belgilangan yoshga yetmagan yigit-qizni o‘sha

joyning o‘zida siyosiy buzg‘unchilikda ayblab otib tashlashgani haqidagi xabarni elchidan eshitgan qahramon bunga ishonishi qiyin ekanligini aytib o‘tadi. Shuningdek, xalqning asl axvoli dohiydan sir tutilishi, unga jiddiy vaziyatlar silliq qilib ko‘rsatilishi, mamlakatni qarib qolgan ushbu dohiy emas, balki uning ukasi boshqarayotganligi haqida ham ma‘lumotlar ham vaziyatni yanada oydinlashtirish maqsadida tavsiflab o‘tiladi.

Asarda hikoyachi qahramon nutqi orqali bir ziyofat dasturxonining ta‘rifi ham keltirib o‘tiladi:

“Ziyofat deganlari chinakamiga shohona edi. ... toshbaqaning tuxumi deysizmi-yey, chuvalchangsho‘rva deysizmi-yey! Nozikta‘bligimu chimxo‘rligim pand berdi qurg‘ur! Sariq tarvuzni ko‘rganmisiz? Bizning xayolimizda tarvuz faqat qizil bo‘ladi, ya‘ni qiziligina shirin. Ammo sariq tarvuz yemabsiz – bu dunyoga kelmabsiz! Biz uni ko‘rdik ham, to‘yib-to‘yib yedik ham. Turli-tuman jimjima idishlardagi ichimliklarni aytmaymizmi! Garchi o‘zi g‘oyaviy raqib sanalsa-da, o‘risning arog‘idan tortib mashhur darmondori – jenshengacha serob – sen je, men je! Pokdomon arab ahli “kofir”larga o‘qrayib, sharbat ho‘plab o‘tiribdi”. [1, 133]

Parchadagi kinoyaviy uslub hikoyachi qahramonning nutqidagi noyob narsalarni ifodalovchi tushunchalar, xususan, “toshbaqaning tuxumi”, “chuvalchangsho‘rva”, “jenshen” kabilar shular jumlasidan. Nutqdagi “kofir” so‘zi kinoyaviy so‘z sifatida tavsiflangan.

Asarda hikoyachi qahramonning Buriyo mamlakatining dohiysi Tovarish Xon Man Men bilan uchrashuvi tafsilotlari satirik tafsilotlarga boy tarzda hikoya qilingan. Uchrashuv chog‘ida qahramon dahoning yelkasidagi g‘urra yoki bukrini ko‘rib qoladi, lekin bu haqida ularga mehmondo‘stlik ko‘rsatayotgan, aslida esa ularni kuzatib yurgan, hukumatining bu boradagi ko‘rsatmalarini bajarayotgan tovarish Yakka aytadi, lekin uning javobidan keyin o‘zi ham bu narsani ko‘rganligiga shubha qilib qoladi:

- Nichego podobnogo! Bu gapni qaytib og‘zingizga olmang!  
Ko‘zingizga shunday ko‘ringan bo‘lsa kerak... [1, 142]

Qissa davomida O‘zbekistondan borgan ikki mehmonning uyga qaytishlari uchun samolyot biletlarining puli narx oshganligi sababli faqat bir kishining qaytib ketishiga yetadigan bo‘lib qoladi. Ularning cho‘ntaklarida ham boshqa pullari yo‘q bo‘ladi. Shu muammoning hal etilishi qahramonlar nutqi orqali quyidagicha ifodalanadi:

- Masala hal, tovarishlar, bir-birlaringni tabriklashlaring mumkin – ikkovingiz ham uchadigan bo‘ldingiz! Buniyam Buriyo o‘z zimmasiga oldi!
- Yashasin xalqparvar, kambag‘alparvar, saxovatpesha Buriyo hukumati! “Ulug‘ dohiy” tovarish Xon Man Menga shon-sharaflar bo‘lsin, urra!

- Yaxshimas, tovarish Erkin aka, yaxshimas, - dedi tovarish Yak ta'naomuz. Shunda sal oshirib yuborganimni payqadim [2, 154].

Ushbu parchadagi qahramonlar nutqidan ularning mavjud bo'lgan vaziyatga munosabatlarini sezish mumkin. Ya'ni hikoyachi qahramon ushbu hukumatning ustidan zaharxanda nutq-kinoya orqali kulmoqda, Buriyo vakili bo'lgan Yak ham sodda yoki axmoq odam emas, u o'z Vataniga sodiq fuqaro. Vatani va dohiysiga nisbatan ishlatilgan istehzoli nutq va olqish uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Yuqoridagi dialogda uning bu holatga o'z munosabati va noroziligi aks ettirilgan.

“Insonni ma'lum bir hayotiy, ijtimoiy, tarixiy va boshqa sharoitlarda tasvirlash bircha ijodiy metodlar uchun umumiy qonundir. Biroq qahramon xarakterining har bir qirrasini hayotning ob'ektiv sharoitlariga moslashtirib, shu yo'sinda dalillab tasvirlash barcha ijodiy metodlar uchun umumiy qonundir. Biroq qahramon xarakterining har bir qirrasini hayotning ob'ektiv sharoitlariga moslashtirib shu yo'sinda dalillab tasvirlash faqat realistik adabiyotga xos bo'lgan hodisadir” [2, 154]. Shu qonuniyatlardan kelib chiqilsa, Erkin A'zam qissalarini realistik adabiyot namunalari deyish mumkin. Chunki muallif har bir qahramon xarakterini ochib berishda ob'ektiv sharoitga barcha jihatlarni moslashtirishga harakat qiladi. Ana shu moslashtirish jarayonida u badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. Xususan, personaj nutqidagi kinoyaviylik shular jumlasidandir.

Xullas, Erkin A'zam qisalarida obrazlilik yuzaga chiqishida personaj nutqining ahamiyati katta. Ularning aksari o'z so'zlari orqali o'zligini namoyon qilgan o'rinlar ham mavjudligi yuqoridagi tahlillardan ham ma'lum bo'ldi.

Erkin A'zam qissalarida ko'proq uchraydigan obrazlar soddadil va oddiy insonlar. Ushbu obrazlar adib mahoratining o'ziga xosligini ko'rsatib bera oladigan tarzda yaratilgan. Shuningdek, adibning murakkab tabiatli insonlarning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan qissalari ham mavjud. Xususan, «Pakananing oshiq ko'ngli», «Shoirning to'yi» va «Chapaklar va chalpaklar mamlakati» qissalarida Pakana, Safsar, Otashqalb shoir, Jasur shoir, Baxtiyor, Rossiya elchisi kabi qahramonlarning mavjudligi ijod serqirraliligini dalolatlaydi.

Xulosa qilganimizda, Erkin A'zam asarlaridagi, xususan, qissalari qahramonlari nutqida ham kinoyaviylikning oddiy kinoya va sarkazm shakllaridan foydalanilganligi yozuvchining o'ziga xos uslubi ekanligini ko'rsata olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. – Toshkent, Ma'naviyat, 2001. 84-bet.
2. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent. Fan. 1978. – B.154.

3. To‘ychiev Ummat. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2011. – B. 28.
4. Yo‘ldoshev. Xarakter musavviri. //Erkin A‘zam badiiy olami. To‘plam. –T., Turon zamin ziyo, 2014. 55-bet.

## **“BOBURNOMA” ASARIDA HUKMDORLAR TASVIRI**

*Bahora RAHIMOVA,  
Namangan davlat universiteti  
O‘zbek adabiyotshunosligi yo‘nalishi 1- bosqich magistranti*

Har bir xalqning tarixiy, madaniy, qiyofasini aniq belgilovchi ulug‘ shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shohlari bo‘ladi. Masalan, Aleksandr Makedonskiy, Suqrot, Arastu nomlarini eshitganimizda, buyuk ellin madaniyati, uning ulug‘vorligi, nafosati ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Abulg‘ozi Bahodirxon, Muhammad Rahimxon Feruz singari shoh, xon, amirlar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari buyuk allomalar: Imom al-Buxoriy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy kabi hadis, din, tasavvuf, ilmi ulamolari : Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Mashrab, Mohlaroyim Nodira, Jahon otin Uvaysiy, Furqat kabi o‘tkir qalam sohiblarini eslaganimizda yoki eshitganimizda Vatanimiz o‘tmishini, uning ulug‘vor qiyofasini ko‘z oldimizga keltiramiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur ana shunday ulug‘ insonlardan bo‘lib, uning nomi nafaqat yurtimizda , balki butun dunyoda mashhurdir. Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, adabiyotshunos, tilshunos, huquqshunos, san‘atshunos, hayvonot va nabobot olamining bilimdoni sifatida ko‘p qirrali, faoliyat va ijod sohibi edi. Birgina “ Boburnoma” uning yigirmadan ortiq sohalarga qiziqqanligiga misol bo‘la oladi.

Bobur birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisidir. Ushbu sulola bizga ma‘lumki, tarixda uzoq muddat hukmronlik qilgan suloladir. Shuningdek, ushbu asar o‘zining tarixiy ahamiyati bilan ham qimmatlidir. Undagi tarixiy shaxslar, voqealar, joylar shu qadar aniq tasvirlanganki, agar ushbu asar bo‘lmaganida, biz ko‘pgina tarixiy shaxslar va hukmdorlar haqida bu qadar ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lmas edik.

Asarda bir qancha tarixiy shaxslar bilan birgalikda hukmdorlar tasviri ham o‘z aksini topgan. Sultonlar, xonlar tasviri birinchi o‘sha hukmdor bilan bog‘liq voqea berilgach, keyin esa uning tavalludi, nasl – nasabi, shakl – shamoyili, xulq – atvori, jang va urushlari, viloyatlari, avlodi, xotinlari va kanizlari, amirlari haqidagi ma‘lumotlar o‘z aksini topgan. Masalan, asar boshida keltirilgan Boburning otasi - Umarshayx Mirzo haqidagi ma‘lumotlarga nazar tashlasak.

Asar Farg‘ona viloyati uning chegaralari, Andijon, O‘sh, Marg‘inon, Axxi, Koson shaharlarining iqlimi mevalari, hayvonat dunyosi, tabiati haqida ma‘lumotlar berilgach, Boburning amakisi, Sulton Ahmad Mirzo va Boburning tog‘asi Sulton Mahmud Mirzo ( Yunusxonning katta og‘li, Yunusxon – Boburning ona tarafdin bobosi ) ittifoq tuzib Umarshayx Mirzo ustiga lashkar torishlari bilan boshlanadi. “Bu asnoda – deydi Bobur, g‘arib voqea dast berdi, mazkur bo‘lib edikim, Axxi qo‘rg‘oni baland, jar ustida voqe bo‘lubtur, imoratalar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to‘rtida Umarshayx Mirzo jadin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo‘ldi. O‘ttiz to‘qquz yoshar erdi.” Bu voqeadan so‘ng Bobur otasi haqida so‘z boshlaydi.

Valodat va nasabi: Sakkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Abusaid mirzoning to‘rtunchi o‘g‘li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulton Abusaid mirzo Sulton Muhammad mirzoning o‘g‘li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o‘g‘li edi. Mironshoh mirzo Temurbekning uchunchi o‘g‘li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodin kichik. Shohrux mirzodin ulug‘ edi...

Shakl va shamoyil: past bo‘yluq, tegirma soqolli, qo‘ba yuzluk, tanbal kishi edi. To‘nni bisyor tor kiyar edi., andog‘kim, bog‘ bog‘laturda, qornini ichiga tortib, bog‘latur edi, bog‘ bog‘lagondin so‘ng o‘zini qo‘ya bersa, bisyor bo‘lur edikim, bog‘lari uzulur edi. Kiymoqqa va yemoqta betakalluf edi...

Axloq va atvori: hanaviy mazhablik, pokiza e‘tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi... Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn “ va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o‘qub edi. Aksar “ Shohnoma” o‘qur edi. Tab‘i nazmi bor edi., vae she‘rg‘a parvo qilmas edi...Bisyor sahovati bor erdi...Burunlar ko‘p ichar edi, so‘ngralar haftada bir- ikki qatla suhbat tutar edi, xushsuhbat kishi edi.

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, Bobur asarida har bir shaxs haqida fikr yuritar ekan, uning kamchiliklarini ham chetda qoldirmaydi. Faqat haqiqatni yozishga harakat qiladi. Ko‘pgina tarixiy asarlarda hukmdorlarni maqtash, ularni ko‘kka ko‘tarish, faqat g‘alabalarini aytish bilan bog‘liq so‘zlarga ko‘zimiz tushadi. Lekin “Boburnoma” da hukmdorlarni maqtash emas, balki ularning kamchiliklarini, mag‘lubiyatlarini ham ro‘y - rost tasvirlash holatlari aks etadi. Masalan, Umarshayx mirzoning yurishlari haqida Bobur uning uch marotaba saf tortib urush qilganini: ikki marta yengilib, bir marta zafar qozonganini aytadi. Asarda shuningdek hukmdorlarning avlodlari, farzandlari, xotin va kanizlari haqida ham qimmatli ma‘lumotlarni uchratishimiz mumkin. Misol uchun Umarshayx mirzoning avlodi haqida shunday deydi: uch o‘g‘ul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o‘g‘lonlaridin uluq men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim: mening onam Qutluq Nigorxonim edi. Yana bir o‘g‘ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mo‘g‘ulning tuman beklaridin edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o‘g‘ul Nosir mirzo edi, onasi andijonliq edi, g‘unchachi edi. Umid otliq. Mendin to‘rt yosh kichik edi. Bori qizlaridan ulug‘ Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug‘ erdi.

Bobur mirzo ikkinchi marta Samarqandni olgach Saripulda Shayboniyxondan yengilgach, qamalda qoladi. O‘shanday og‘ir, tahlikali zamonda Xonzodabegim o‘zini Shayboniyxonga topshirib, Bobur mirzoning hayotini saqlab qoladi. Asarda Umarshayx mirzoning qizlari: Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor sultonbegim, Ruqiya sultonbegimlar ularning onalari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, “Boburnoma” da Umarshayx mirzoning harami, uning amir va beklari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Asarda biz ko‘plab temuriy hukmdorlarni uchratishimiz mumkin. Ulardan biri Bobur mirzoning amakisi Sulton Ahmadxon. Asar boshida aytilganidek, Sulton Ahmad va Sulton Mahmudxon Farg‘ona ustiga yurish boshlaydi. Lekin baxtsiz voqea sabab ya’ni, Quva ko‘prigi buzilib, qo‘shinga katta zarar yetadi. Yana o‘sha paytda otlarga o‘lat tegadi. Shu sabab, Sulton Ahmadxon sulh tuzib, ortga chekinadi. Ammo Sulton Ahmadxon Samarqandga yetolmay yo‘lda – O‘ratepada vafot etadi. Asarning shu yeridan boshlab, Sulton Ahmadxon haqida ma’lumotlar keltiriladi. Valodat va nasabi: valodati sakkiz yuz ellik beshda, Sulton Abusaid mirzo taxt olg‘on yili edi. Sulton Abusaid mirzoning bori o‘g‘lonlaridin ulug‘i bu edi. Onasi O‘rda Bug‘a tarxonning qizi Darvesh Muhammad tarxonning egachisi edi. Mirzoning e’tiborliq xotini edi.

Shakl va shamoyili: baland bo‘yluq, qo‘nqor soqolliq, qizil yuzluk, tanbal kishi erdi. Soqoli engakida edi. Ikki yangoqida soqoli yo‘q edi. Bisyor xushmuhovara kishi erdi. Dastorni ul zamon dasturi bilan chaxorpech chirmab, aloqasini ilgarrak qoshining ustiga qo‘yar edi.

Axloq va atvori: hanafiy mazhablik, pokiz e’tiqod kishi erdi, besh vaqt namozini betark o‘tar edi. Shurb mahallarida ham namozi tark bo‘lmas edi. Hazrati Hoja Ubaydullog‘a irodati bore di. Hazrati Xoja murabbiy va muqavviy edilar. Bisyor muaddab bore di. ...Hech nimarsa o‘qug‘on emas edi, omi edi. Ahd va qavlig‘a rost va durust edi. Shijoati bor edi... Asru ko‘p hayosi bor erdi. Bobur amakisining to‘rt marta urush qilganini va bu urushlarning barchasida g‘olib bo‘lganini aytib o‘tadi. Shuningdek, Sulton Ahmadxonning mulki haqida ham shunday ma’lumotlar beradi:

Viloyoti: Samarqand va Buxoro erdikim, otasi berib edi... Asarda aytilishicha, Toshkent hukmdorini o‘ldirganidan so‘ng, Toshkentni, Shohruhiya va Sayramni oladi. Bu joylar bir qancha vaqt uning qo‘l ostida bo‘lganidan so‘ng, Toshkent va Sayramni ukasi Umarshayx mirzoga beradi. Xo‘jand va O‘ratepa ham Sulton Ahmad mirzo tasarrufida edi.

“Boburnoma” da mirzoning avlodi haqida ham so‘z yuritiladi. Uning ikki o‘g‘li bo‘lganini, kichikligida vafot etganini, besh qizi borligini ham aytib o‘tadi. Qizlaridan kattasi Robiya sulton begim bo‘lib, uni Qorako‘z begim deyishar edi. Uni mirzo hayotligidayoq Boburning tog‘asi sulton Mahmudxonga uzatadi. Ulardan Boboxon ismli farzand bo‘lganini, ammo shayboniylar Sulton Mahmudxonni Xo‘jandda mag‘lub etib o‘ldirganlaridan so‘ng, Robiya sultonbegimni Shayboniyxonning amakivachchasi Abulxayrxonning nevarasi Jonibek sultonga nikohlanadi. Ikkinchi qizi Solihabegim uni Oqbegim der edi. Uni mirzo vafotidan so‘ng Sulton Mahmud mirzo o‘g‘li Sulton Mas‘ud mirzoga olib

berishadi. Uchinchi qizi Oysha sultonbegim Bobur besh yoshida Samarqandga kelganida uni beshikkerti qilishgandi. So'ngra Xo'jandga kelganida unga uylanadi. Bobur 19 yoshida Samarqandni qo'lga kiritganda undan Faxruniso ismli qiz farzandli bo'ladi. Lekin yoshligidayoq nobud bo'ladi. To'rtinchi qizi Sultonbegim bo'lib uni Sultonali mirzo oladi, Mirzo Shayboniylar qo'lida halok bo'lgach uni Temur sulton o'z nikohiga oladi. Kichik qizi Ma'suma sultonbegim bo'lib onasi Sulton Arg'unning jiyani Habiba sultonbegim edi. Bobur Xurosonga borganda uni ko'rib so'rattirib Kobulga olib keladi.

Bundan tashqari asarda Sulton Ahmad mirzoning harami amir va beklari haqida keng ma'lumotlar keltiriladi. Sulton Ahmad mirzo vafotidan so'ng taxtga ukasi Sulton Mahmud mirzo o'tiradi, lekin qisqa vaqtdan so'ng u ham vafot etadi. Bu hukmdor haqida ham Bobur qimmatli ma'lumotlarni ketirib o'tadi.

Valodat va nasabi: sakkiz yuz ellik yettida edi. Abusaid mirzoning uchunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo bilan bir tuqqan edi.

Shakl va shamoyili: Past bo'yliq, suyuq soqolliq, tanbal, sinchisizroq kishi edi.

Axloq va atvori: yaxshi edi. Namozni tark qilmas edi. Tuzuki va zabti bisyor yaxshi edi. Siyoq ilmini xo'p bilur edi. Viloyotdin bir diram va bir dinor aning bevuqufi xarj bo'lmas edi. Navkarining ulufasi aslo munkasir bo'lmas edi... Zulm va fisqqa ko'p mashg'ul edi. Muttasil chog'ir ichar edi... Bad e'tiqod kishi edi. Yuraksiz kishi edi. Hayosi kamroq ed

Temuriylar davlatining tanazzulga yuz tutishiga asosiy sabab - ularning mayxo'rlikka,, aysh – ishratga berilishi bosh omillardan biri hisoblanadi. Chunonchi, Bobur Xurosonga borganida ham barcha temuriy shahzodalarning mayxo'rlikka ruju qo'yganining guvohi bo'ladi. Bunga misol qilib, temuriylar saroyida tez – tez o'tkazilib turadiga mayxo'rlik bazmlarini aytsak bo'ladi. Bobur mirzo asarda otasiga bosh ko'targan noqobil farzandlarda – Husayn Boyqaroning o'g'illarini xayosizlikda e'tiqodsizlikda ayblaydi. Chunki muborak ramazon oyida otasiga qarshi isyon ko'tarib, bu ham yetmaganday, muqaddas oyda chog'ir ichib padarining yuziga tik boqib mulk talab qilishini qattiq qoralaydi. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, bunday muhit hukmdor bo'lgan davlat alal oqibat tanazzulga yuz tutadi.

Shuningdek ,ushbu asarda biz temuriy hukmdorlardan – Boysung'ur mirzo, Husayn Boyqarolar haqida ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar boshqa asarlarda bunchalik aniq va izchil bayon etilmagan. Bobur Boysung'ur mirzoning badbaxt va noinsof bek bo'lmish Xusravshohning qo'lida halok bo'lishini shunday ta'kidlaydi: muharram oyining o'ni edikim, mundoq xushta'b va purfazilat va hasab va nasab bila orosta podshohzodani shahid qildi Valodat va nasabi: valodati sekkiz yuz sekson ikkida, Xisor viloyatida edi. Sulton Mahmud mirzoning ikkinchi o'g'lidir, Sulton Mas'ud mirzodin kichik, Sultonali mirzo va Sulton Husayn va Sulton Vays mirzokim, Xonmirzo bila mashhurdur., ulug' onasi Poshshobegim edi.

Shakl va shamoyili: ulug; ko'zlik, qo'ba yuzluk, o'rta bo'yliq, turkman chehralik, malohatliq yigit edi.

Axloq va atvori; adolatpesha va odmi va xushta' b va fazilatliq podshohzoda edi. Xeyli chog'irga xirsi bore di. Chog'ir ichmas mahalda namoz o'tar edi. Nasta'liq xatini xeyli xo'b bitir edi. Naqqoshlikda ham iligi yomon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. "Odiliy " taxallus qilur edi. She'ri devon tartib qilg'uncha bo'lmaydur edi. Samarqandta Boysung'ur mirzoning g'azallari oncho shoe'durkum, kam uy bo'lg'ay edikim, mirzoning ash'ori ul uyda bo'lmag'ay edi

Bobur Temurbekning yurtida bu tarixiy sanada ham yosh, ham tasarrufidagi yer – mulk, ham lashkar hisobi jihatidan undan ulug'roq podshoh yo'q deb Husayn Boyqaroni misol keltiradi. Shuningdek, Husayn Boyqaro tasvirini quyidagicha keltiradi:

Valodat va nasabi: valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hiriya Shohruh mirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umar shayx binni Amir Temur. Mansur mirzo bila Boyqaro mirzo podshohliq qilg'on emas Onai Firuzabegim. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo'lur edi. Sulton Husayn Mirzo karimut –tarafayn edi, asil podshoh edi....

Shakl va shamoyili: qiyiq ko'zlik, sher andom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lub edi, xushrang qizil, yashil, abrishimni kiyar edi. Qora qo'zi burk kiyar edi, yo qalpoq. Ahyonon iydlarda kichik sepech dastorni yap - yassi yamon chirmon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib, namozga borur edi.

Axloq va atvori; Avval taxt olg'onda xayoli bor ekandurkim, duvozdah imomni xutbada o'qutg'ay. Alisherbek va ba'zilar man qilibturlar. So'ngralar xud jami' ish – kuchi sunnat va jamoat mazhabi bila muvofiq edi. Mafosil zahmati jihatidin namoz qila olmas edi., ro'za ham tutmas edi. Harrof va xush xulq kishi edi. Xulqi bir nima guzarroq voqe bo'lub edi, so'zi ham xulqidek edi. Ba'zi muammalotta shar'ni bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'lturgan uchun qonliqlarig'a topshurub, dorulqazog'a yibordi....

Asarda biz Boburning Shayboniyxonga nisbatan tajribali, ko'p ish ko'rgan ulug' yoshli hukmdor deya iliq ta'riflarni uchratamiz. Garchi Shayboniyxon dushmani bo'lsa ham Bobur dushmanlarining yutuqlarini mard kishi sifatida tan ola bilgan.

Bobur har bir hukmdor va uning faoliyatini puxta tahlil etadi. Uning ma'lumotlari yosh avlod uchun hozirgi kunga kelib ham o'z qadrini yo'qotgani yo'q "Boburnoma" da shu qadar ko'p turli – tuman ma'lumotlar borki, fanning deyarli barcha sohalaridagi mutaxassislar bu asardan bahramand bo'la oladilar. "Boburnoma" tarixiy va badiiy asargina bo'lib qolmasdan, balki ilmiy bir asar o'ziga xos ensiklopediyadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, Yulduzcha. 1989.
2. Vahob Rahmonov. Mumtoz so'z sehri. – Toshkent. O'zbekiston. 2015.
3. Natan Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent. Kafolat print company. 2021.



**MUNDARIJA:**

<i>№</i>	<i>F.I.SH</i>	<i>Maqola nomi</i>	<i>Sahifasi</i>
<b><i>1-SHO‘BA: “UMRZOQ O‘LJABOYEV – ADABIYOTSHUNOS OLIM”</i></b>			
1.	<i>M. T. XODJIYEV</i>	<i>SERMAHSUL OLIMLAR</i>	3
2.	<i>Qozoqboy YO‘LDOSH</i>	<i>ORZUDAGI ODAM</i>	5
3.	<i>Nasimxon RAHMONOV</i>	<i>SUKUNAT QO‘YNIDA YETILGAN ISTE‘DOD</i>	15
4.	<i>Qurdosh QAHRAMONOV</i>	<i>ZIYOLI OLIM, SAMIMIY USTOZ</i>	17
5.	<i>Islomjon YOQUBOV</i>	<i>RUHIY XOTIRJAMLIK SAODATI</i>	19
6.	<i>Muzaffar MAMATQULOV, Obidaxon FAYZULLAYEVA</i>	<i>IBRATLI UMR SO32HIBI</i>	23
7.	<i>Ravshanbek MAHMUDOV</i>	<i>MATONATLI TANQIDCHI OLIM</i>	25
8.	<i>Мусмаффо БАЙЭШАНОВ</i>	<i>ПОЛБЕКА В УНИВЕРСИТЕТЕ</i>	28
9.	<i>Sultonbek NORMAMATOV</i>	<i>CHIN OLIMLIK SAODATI</i>	30
10.	<i>Sirdaryoxon O‘TANOVA</i>	<i>ODAMLIK VA OLIMLIK SABOQLARI</i>	32
11.	<i>Omon SUVANOV</i>	<i>“ENDI DAVRON QAYDADIR”</i>	36
12.	<i>Qobil KO‘BAYEV</i>	<i>E‘TIROF</i>	40
13.	<i>Obidaxon FAYZULLAYEVA</i>	<i>KUCHLI ADABIYOTSHUNOS VA TERAN NIGOH SOHIBI</i>	44
14.	<i>Azamat URALOV</i>	<i>UMRZOQ O‘LJABOYEV – TOG‘ALIKDA OLIM, OLIMLIKDA TOG‘A</i>	50
15.	<i>Nodira XOLIKOVA</i>	<i>ILMGA YO‘LLAGAN ZABARDAST YO‘LBOSHIM</i>	53
16.	<i>Dilovar NURMURADOVA</i>	<i>UMURZOQ O‘LJABOYEV – ADABIYOTSHUNOS OLIM</i>	56
17.	<i>Gulbahor NASRIDDINOVA</i>	<i>TUSHLARIMGA KIRING, USTOZ</i>	60
18.	<i>Nodira SAIDMURATOOVA</i>	<i>USTOZIMGA EHTIROMIM YOHUD INSONIYLIK SIYRATI</i>	68
19.	<i>Dilfuza QOSIMOVA</i>	<i>SUVRATI, SIYRATI SAMIMIY SIYMO YOKI SHOGIRDLAR KAMOLOTIGA BAXSHIDA UMR</i>	70
20.	<i>Nargiza NORMURODOVA</i>	<i>MANGU BARHAYOT USTOZ</i>	72

21.	<i>SHIRINOVA Sitora</i>	<i>ADABIYOTSHUNOSLIKKA BAXSHIDA UMR</i>	75
22.	<i>Shahribonu MUSULMONQULOVA</i>	<i>USTOZNI YOD ETIB</i>	77
23.	<i>SHAROPOV Abdunazar</i>	<i>YO‘LINGNI YORITUVCHI MAYOQDIR USTOZ</i>	79
24.	<i>Iroda KENJAYEVA</i>	<i>IBRATLI YO‘L</i>	81
25.	<i>Iroda ULJABOYEVA</i>	<i>DADAJONIMNI ESLAB...</i>	84
<b>2-SHO‘BA: “XX ASR VA ZAMONAVIY ADABIYOT: TAHLIL VA TALQIN MASALALARI”</b>			
26.	<i>Islomjon YOQUBOV</i>	<i>QAHRAMONNI RUHIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN OCHISH USULI</i>	86
27.	<i>Qobil KO‘BAYEV</i>	<i>XALQ OG‘ZAKI IJODI VA BADIY HAQIQATLAR</i>	88
28.	<i>Tozagul MATYOQUBOVA</i>	<i>G‘AFUR G‘ULOM SHE‘RIYATIDA SAMIMIY DO‘STLIK IQRORLARI TASVIRI</i>	91
29.	<i>Zokir RAHIMOV</i>	<i>POLIFONIZM VA “KO‘HNA DUNYO” ROMANI</i>	96
30.	<i>Mahfuza TUYCHIEVA</i>	<i>ADABIY TA‘LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MASALALARI</i>	99
31.	<i>Obidaxon FAYZULLAYEVA</i>	<i>SHE‘RIY TURKUMLILIK TARAQQIYOTI</i>	102
32.	<i>Gulchehra QO‘YLIYEVA</i>	<i>MUHAMMAD ALINING “ULUG‘ SALTANAT” TETRALOGIYASIDA SAYYID BARAKA OBRAZI TALQINI</i>	108
33.	<i>Fazliddin SHARIPOV</i>	<i>O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KATEGORIYALARNING BADIY TALQINI</i>	111
34.	<i>Hamid YODGOROV, Alisher O‘ROZOV</i>	<i>TOG‘AY MUROD ASARLARIDA GENDER EVFEMIZMLAR</i>	113
35.	<i>Akram UZOQOV</i>	<i>O‘TMISH XOTIRASI</i>	118
36.	<i>Abdulatif PRIMOV</i>	<i>FOLKLOR NAMUNALARINI O‘RGANISH MASALALARI</i>	121
37.	<i>Zilola SAFAROVA</i>	<i>K.ROULINGNING “GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH” ASARIDA YETIM OBRAZLAR TASVIRI</i>	125
38.	<i>Akram UZOQOV</i>	<i>MUHAMMAD ALI IJODIDA TARIXIY SHAXS KAMOLOTI</i>	128
39.	<i>Shohista XUDOYQULOVA</i>	<i>BADIY MATNDA XALQ TILINING O‘RNI</i>	132
40.	<i>Dilnoza TO‘RAYEVA</i>	<i>BADIY-ESTETIK TAFAKKUR TALQINI</i>	135
41.	<i>Nodira MIRHAYDAROVA</i>	<i>“MA‘NAVIYAT” SEMANTIK MAYDONINING O‘RGANILISH</i>	138

		<i>MUAMMOLARI</i>	
42.	<i>Ijobat SAYMURATOVA</i>	<i>XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “BOZOR” ROMANIDA METAFORIK TALQIN</i>	142
43.	<i>Murotali LATIPOV</i>	<i>QISSALARDA YOSHLAR XARAKTERINI YARATISHDA PSIXOLOGIZMNING O‘RNI</i>	146
44.	<i>Bekzod G‘ANIYEV</i>	<i>ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA IJTIMOYIY-FALSAFIY MUSHOHADA</i>	151
45.	<i>Sayyora YARKINBAYEVA, Xafiza ERMATOVA</i>	<i>XARAKTER YARATISHDA ZAMONAVIYLIKNING O‘RNI</i>	155
46.	<i>Илхом БУРИЕВ</i>	<i>ЗАНИМАТЕЛЬНЫЕ ИГРЫ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ</i>	160
47.	<i>Muhabbat AZIMOVA</i>	<i>SADRIDDIN SALIM BUXORIY – TARJIMON</i>	165
48.	<i>Azmiddin NASIROV</i>	<i>KEYINGI YILLAR SHE‘RIYATI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR</i>	169
49.	<i>Dilbar NURMUXAMEDOVA</i>	<i>O‘ZLASHTIRMA SO‘ZLARNING LEKSIK MA‘NOSI...</i>	172
50.	<i>Ijobat SAYMURATOVA</i>	<i>“ALISHER NAVOIY” ROMANI MUVAFFAQIYATINI TA‘MINLAGAN AYRIM OMILLAR</i>	174
51.	<i>Furqatjon KARIMOV</i>	<i>OMON MUXTOR ROMANLARIDA USLUB MASALASI</i>	178
52.	<i>Muyassar TILOVOVA</i>	<i>FENOMENOLOGIYANING GENEZESI VA BADIY TAHLILGA KO‘CHISHI</i>	182
53.	<i>Furqatjon KARIMOV</i>	<i>OMON MUXTOR ROMANLARIDA G‘OYAVIYLIK VA MAVZULAR RANG-BARANGLIGI</i>	186
54.	<i>Latofat TAJIBAYEVA</i>	<i>YANGI O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA POETIK MAZMUN YANGILANISHI TAMOYILI</i>	194
55.	<i>Odil YOQUBOV</i>	<i>XALQONA OHANGLAR JILOSI</i>	196
56.	<i>Bagdat URAZOV</i>	<i>MEKEMBAY OMAROV – XALQ BAXSHISI</i>	198
57.	<i>Nigora ASHUROVA</i>	<i>AYOL PSIXOLOGIYASI TADQIQI</i>	200
58.	<i>Userbay BAYKABILOV</i>	<i>O‘ZBEK XALQ EPOSI TARKIBIDA ROMANTIK DOSTONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	204
59.	<i>Zulayho To‘ychiyeva</i>	<i>SAID AHMADNING “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA MILLIY FOJIA MASALASI</i>	206

60.	<i>Nurkeldi JARASBAYEV</i>	<i>OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI</i>	210
61.	<i>Muhammad ISMOIL</i>	<i>G'OYIBONA DARS BERGAN USTOZ</i>	211
62.	<i>Surayyo DAVRONOVA</i>	<i>HIRIY BAG'RIDAGI ENG YORUG' YOG'DU</i>	216
63.	<i>Gavhar RUSTAMOVA</i>	<i>O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA DARAXTLARGA ALOQADOR OBRAZLARINING JUMBOQLANTIRILISHI</i>	217
64.	<i>Kamola Egamberdiyeva</i>	<i>O'ZBEK HIKOYACHILIGIDAGI YETAKCHI TAMOYILLAR</i>	220
65.	<i>Yorqinjon HAYITBOYEV</i>	<i>TO'RA SULAYMONNING "ILTIJO" SHE'RIDAGI BADIY NIYAT VA G'OYANING USTUVORLIGI</i>	226
66.	<i>Gulsanam ABDAZOVA</i>	<i>BADIY ASAR TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI</i>	229
67.	<i>Bobur RO'ZIBOYEV</i>	<i>PERSONAJLAR VA BADIY G'OYA IFODASI</i>	232
68.	<i>Namuna NAZAROVA</i>	<i>SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA 80- YILLAR RUHIYATI TALQINI</i>	235
69.	<i>Bobur RO'ZIBOYEV</i>	<i>MUAMMO TALQINIDA YETAKCHI QAHRAMONNING O'RNI</i>	240
70.	<i>Hayitbek BILOLOV</i>	<i>QISMAT</i>	246
71.	<i>D.T.AYTBAYEV</i>	<i>MUSTAQIL FIKRLAYDIGAN O'QUVCHILARNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI</i>	250
72.	<i>Sevara BABAYEVA</i>	<i>ISAJON SULTON IJODIDA BADIY TAFAKKUR SHAKLLARI</i>	252
73.	<i>Sevinchoy YOQUBOVA</i>	<i>TABIAT VA INSON RUHIY KECHINMALARINING SHOIRONA TASVIRI</i>	258
74.	<i>Sevara BABAYEVA</i>	<i>ISAJON SULTONNING "OZOD" ROMANI KOMPONENTLARIDA BADIY TAFAKKURNING YUZAGA CHIQISHI</i>	261
75.	<i>O'g'ilnor RO'ZIYEVA</i>	<i>ABDULLA ORIPOV IJODIDA HIKMAT VA BADIYAT UYG'UNLIGI</i>	267
76.	<i>BABAYEVA Sevara</i>	<i>BADIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDA OBRAZLILIKNING O'RNI</i>	270
77.	<i>Gavhar ShERBEKOVA</i>	<i>YOR-YOR MATNLARIDA KELIN- KUYOV RITUAL UDUMLARINING BADIY IFODASI HAQIDA</i>	274
78.	<i>Shohsanam QARSHIYEVA</i>	<i>NAVOIY MUAMMOLARIDA BADIY OBRAZ</i>	277

79.	<i>Gulg'uncha</i> <i>SABIROVA</i>	<i>ISAJON SULTON HIKOYALARIDA HAYOT FALSAFASI</i>	282
80.	<i>Gulianbar</i> <i>QURANBAYEVA</i>	<i>MATNAZAR ABDULHAKIM – ZUKKO ADABIYOTSHUNOS</i>	284
81.	<i>Oysuluv</i> <i>MUSURMONKULOVA</i>	<i>BADIIY ASAR ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH</i>	287
82.	<i>Nargiza</i> <i>NORMURODOVA</i>	<i>ZULFIYA SHE'RIYATIDA SADOQAT TARANNUMI</i>	290
83.	<i>Zamiraxon</i> <i>IBRAGIMOVA</i>	<i>O'ZBEK POEMACHILIGI GENEZISI BORASIDA..</i>	294
84.	<i>Elbek OQBO'TAYEV</i>	<i>ANVAR OBIDJON IJODIDA SATIRA VA YUMOR</i>	299
85.	<i>Sevara TURSUNOVA</i>	<i>"O'ZBEGIM"GA BIR NAZAR</i>	303
86.	<i>Sardor JO'RAQULOV</i>	<i>SARGUZASHT-MISTIK YO'NALISHDAGI HIKOYALARDA OBRAZLILIK</i>	305
87.	<i>Yorqinjon</i> <i>HAYITBOYEV</i>	<i>IJODKOR KONSEPSIYASI VA IJODIY MUHIT</i>	310
88.	<i>Dilfuza QOSIMOVA</i>	<i>ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI</i>	314
89.	<i>Umidbek QODIROV</i>	<i>TARIXNI KUYLAGAN SHOIR</i>	317
90.	<i>Sardor JO'RAQULOV</i>	<i>SARGUZASHT-MISTIK YO'NALISHDAGI HIKOYALAR BADIYYATI</i>	320
91.	<i>Mahliyo</i> <i>RAXIMBOYEVA</i>	<i>RAUF PARFI LIRIKASIDA BULUT OBRAZI...</i>	323
92.	<i>Dildora SATTAROVA</i>	<i>OKSIMORON HODISASI VA UNING ADABIYOTDAGI O'RN</i>	325
93.	<i>Mohichehra</i> <i>SHARIPOVA</i>	<i>O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z TURKUMLARI SATHI</i>	328
94.	<i>Mahliyo NURBOYEVA</i>	<i>MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ADABIY VA MUSIQIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH</i>	330
95.	<i>Bekzod ERGASHOV</i>	<i>"TODD" HIKOYASIDA URUSH MAVZUSINING ISHLANISHI</i>	332
96.	<i>Eldorjon DIYOROV</i>	<i>JONTEMIRNING IJTIMOIYLIK AKS ETGAN SHE'RLARIDA RUHIY KECHINMA IFODASI VA TALQINI</i>	336
97.	<i>Ozoda</i> <i>ABDULLAYEVA,</i> <i>Zamira KUYCHIYEVA</i>	<i>G'AFUR G'ULOM ASARLARIDA URUSH MAVZUSI TALQINI</i>	339
98.	<i>Malika MANSUROVA</i>	<i>IJODKOR OBRAZINI YARATISH</i>	342

		<i>TAMOYILLARI XUSUSIDA</i>	
99.	<i>Yorqinjon HAYITBOYEV</i>	<i>HALIMA XUDOYBERDIYEVA INJULARIDAGI FALSAFIY MOHIYAT VA ULARNING BADIY AHAMIYATI</i>	345
<b>3-SHO‘BA: “VAHOB RAHMONOV – MATNSHUNOS OLIM”</b>			
100.	<i>Qozoqboy YO‘LDOSH</i>	<i>MUMTOZ SO‘Z ZARGARI</i>	348
101.	<i>Zokirjon MASHRABOV</i>	<i>QALAM-LA O‘TMOQDA UMR</i>	353
102.	<i>Ziyodaxon TESHABOEVA</i>	<i>BOBURSHUNOSLIK DENGIZI UMMONLARIDAN JAVOHIR IZLAGAN OLIM</i>	355
103.	<i>Ravshanbek MAHMUDOV</i>	<i>ULUG‘ MEHNATNOMA SOHIBI</i>	357
104.			
105.	<i>Muzaffar MAMATQULOV</i>	<i>IDROK VA TALQIN</i>	360
106.	<i>Obidaxon FAYZULLAYEVA</i>	<i>VAHOB RAHMONOV – SERQIRRA ADABIYOTSHUNOS</i>	365
107.	<i>Xonimqul TOJIYEV Sherali XIDIRBAYEV</i>	<i>“MUMTOZ SO‘Z SEHRI”NI O‘QIB...</i>	371
108.	<i>Ixtiyor ERMATOV</i>	<i>MATNSHUNOS OLIM</i>	374
109.	<i>Abdurahmon PIRIMQULOV</i>	<i>TAQDIM</i>	376
110.	<i>Maqsuda SARIBOYEVA</i>	<i>MUMTOZ BADIY TAFAKKUR TARZINI SHAKLLANTIRISHDA VAHOB RAHMONNING O‘RNI</i>	383
111.	<i>Gulchehra QO‘YLIYEVA</i>	<i>MATNSHUNOSLIK ILMINING ZAHMATKASH JONKUYARI</i>	386
112.	<i>Nabijon SOLIYEV</i>	<i>VAHOB RAHMON FENOMENI</i>	391
113.	<i>Muhammadali AHMAD</i>	<i>NUKTADON</i>	393
114.	<i>Gulbahor DUSHAYEVA</i>	<i>BESHIKDAN TO QABRGACHA ILM IZLA</i>	400
115.	<i>Oybek NORMURODOV</i>	<i>TANIQLI PEDAGOG</i>	402
116.	<i>Erkin RAHMONOV</i>	<i>BADIY SAN‘ATLAR KASHSHOFI</i>	404
<b>4-SHO‘BA: O‘ZBEK MUMTOZ DABIYOTI VA MATNSHUNOSLIGIDAGI TADQIQLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR</b>			
117.	<i>Nasimxon RAHMONOV</i>	<i>BOBURNOMA” – O‘Z DAVRINING KO‘ZGUSI</i>	406
118.	<i>Aftondil ERKINOV</i>	<i>TEMURIYLAR DAVRINING DURDONASI: SA‘DIY “GULISTON”INING O‘ZBEK TILIDAGI YANGI TARJIMASI (XIV asr oxiri – XV asr boshi)</i>	409

119.	<i>Jandos BAYZAKOV</i>	<i>INSONIYAT MA'NAViy-MA'RIFIY TARAQQIYOTIDA ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING O'RNI</i>	415
120.	<i>Hilola NAZIROVA</i>	<i>XORAZM TARJIMONLARINING SOTSIAL TARKIBI</i>	418
121.	<i>Baxtiyar MƏMMƏDOV</i>	<i>“BABURNAMƏ”NIN BAKI ƏLYAZMASININ MÖVQEYİNƏ VƏ TƏDQIQİNƏ DAİR</i>	423
122.	<i>Jabbar UTEGENOV</i>	<i>EPOS JANRI VA UNI O'RGANISH HAQIDA BA'ZI SHARHLAR</i>	427
123.	<i>Oysara MADALIYEVA</i>	<i>ALISHER NAVOIY ASARLARINING PARIJ QO'LYOZMALARI</i>	429
124.	<i>Rahmatjon TO'RAQULOV</i>	<i>NOSIRUDDIN RABG'UZIYNING “QISAS UL ANBIYO”SIDAN O'RIN OLGAN “ZULQARNAYN QISSASI” TAHLILI</i>	435
125.	<i>Bobur RO'ZIBOYEV</i>	<i>MUAMMO TALQINIDA YETAKCHI QAHRAMONNING O'RNI</i>	440
126.	<i>Shabnam BOBOYEVA</i>	<i>XX ASR TURKISTON VA OZARBAYJON MA'RIFIY ADABIY MUHITI</i>	445
127.	<i>Oybek NORMURODOV</i>	<i>BUYUK AN'ANAGA ERGASHIB</i>	452
128.	<i>Farrux FAYZULLAYEV</i>	<i>ZAYNIDDIN VOSIFIYNING “BADOYE' UL-VAQOI” ASARIDA SHAYBONIY UBAYDULLAXON TAVSIFI</i>	458
129.	<i>Lutfinisa DEHQONOVA</i>	<i>BADIIY MATNDA FORSCHA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QO'LLANILISHI</i>	460
130.	<i>Sadoqat OTAMURATOVA</i>	<i>SHERMUHAMMAD MUNIS TUYUQLARI TAHLILI</i>	465
131.	<i>Lutfiniso DEHQONOVA</i>	<i>BADIIY ASARLARDA ARABCHA KO'PLIK SHAKLLARINING QO'LLANILISHI</i>	467
132.	<i>Rahmatjon TO'RAQULOV</i>	<i>NOSIRUDDIN RABG'UZIYNING “QISAS UL ANBIYO”SIDAGI “LUQMONI HAKIM QISSASI” TAHLILI</i>	470
133.	<i>Anora TEMIROVA</i>	<i>XALQ IJODIYOTIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI</i>	475
134.	<i>Oybek NORMURODOV</i>	<i>TEMURIYLAR DAVRI ADABIYOTIDA SAYYID QOSIMIY IJODINING O'RNI</i>	478
135.	<i>Muattar XATAMOVA</i>	<i>“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA (“OSHIQNOMA” TURKUMIDAN) YUSUF KOMIL INSON SIFATIDA</i>	485
136.	<i>Shodiya</i>	<i>“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI</i>	489

	<i>OTANAZAROVA</i>	<i>HIKOYATLARDA TALMIH SAN'ATI</i>	
137.	<i>Sh.E.KURBANOVA</i>	<i>HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA OSHIQ OBRAZINING IFODALANISHI</i>	491
138.	<i>Rahmatjon TO'RAQULOV</i>	<i>QISSALAR TAHLILI OSTIDAGI HAQIQAT</i>	493
139.	<i>Azamat FAYZULLAYEV</i>	<i>NAVOIY SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARINING QO'LLANILISHI</i>	500
140.	<i>Nilufar OYMATOVA</i>	<i>ALISHER NAVOIYNI ANGLASH SARI YO'L</i>	503
141.	<i>Dilshoda HAQQULOVA</i>	<i>MUNIS XORAZMIY IJODIYOTIDA RUBOIY</i>	506
142.	<i>Abdunabi TO'YCHIYEV</i>	<i>NURALI QOBULNING USLUBIY INDIVIDUALLIGI</i>	509
143.	<i>Azamat FAYZULLAYEV</i>	<i>TOHIR MALIK NASRIDA DAVR MUHITINING YORITILISHI</i>	512
144.	<i>Shaxnoza MUXTAROVA</i>	<i>O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMRLAR" ASARI HAQIDA</i>	514
145.	<i>Salomat ESANBOYEVA</i>	<i>ABDULLA QAHHOR O'Z ZAMONDOSHLARI HAQIDA</i>	517
146.	<i>Iroda XOJIBOYEVA</i>	<i>SAID AHMADNING «KIPRIKDA QOLGAN TONG» QISSASI BADIYATI</i>	520
147.	<i>Surayyo DJURAYEVA</i>	<i>ERKIN A'ZAM QISSALARIDA O'ZIGA XOSLIK</i>	523
148.	<i>Bahora RAHIMOVA</i>	<i>"BOBURNOMA" ASARIDA HUKMDORLAR TASVIRI</i>	526



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB  
MASALALARI”  
mavzusidagi  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

**(Guliston, 2022-yil, 15-16-aprel)**

Texnik muharrir

Sh.Murodov

Musahhih

Sh. Muqimova

2022-yil 08-aprelda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.  
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturasini.

Offset qog‘ozini. Shartli bosma tabog‘i – 32,8.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 46

---

GulDU tahririyat-nashriyot bo‘limida chop etildi.  
120100. Guliston sh., 4-mavze.